



I.A. RASULOVA,  
A.E. ISHMUXAMEDOV

# MILLIY IQTISODIYOT

3-nashr

Masofadan o'qitish uchun darslik

O'zbekiston va jahon mamlakatlarda  
iqtisodiyotni o'sish darajasi (%)

Davlatlar	2012-yil	2013-yil	2014-yil (prognoz)
O'zbekiston	8,2	8,0	8,1
Xitoy	7,7	7,7	7,5
Hindiston	3,2	4,4	5,4
AQSH	2,8	1,9	2,8
Janubiy Afrika Respublikasi	2,5	1,8	2,8
Braziliya	1	1,3	2,3
Buyuk Britaniya	0,3	1,7	2,4
Yaponiya	1,4	1,7	1,7
Germaniya	0,9	0,3	1,6
Fransiya	0	0,2	0,9
Ispaniya	-1,6	-1,2	0,6

Manba: Jahon valuta fondi

R25 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

I.A. RASULOVA,  
A.E. ISHMUXAMEDOV

# MILLIY IQTISODIYOT

*3- nashri*

Masofadan o'qitish uchun darslik

TDIU  
kutubxona  
h/v 9147

TOSHKENT – IQTISODIYOT - 2014



UDK: 338.012(07)  
BBK: 65.9

**Rasulova I.A., Ishmuhamedov A.E. Milliy iqtisodiyot: Darslik. (3- nashri). –T.: TDIU, 2014. – 464 b.**

O'quv qo'llanma inson va jamiyatning jahon iqtisodiyotiga transformatsiyasi jarayonlari negizi bo'lgan, iqtisodiyot to'g'risida tasavvur beradigan asosiy ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyalar va tushunchalar nazariy mazmuni jihatidan tahlil qilingan, milliy iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlari, ular amalga oshirilihini jadallashtirish masalalari, milliy iqtisodiyotning bozor iqtisodiyoti sharoitida o'ziga xos rivojlanish yo'llari, O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining iqtisodiy asoslari, milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish jarayonidagi ustuvorliklar, hududlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi, xalqaro hamkorklik va xavfsizligini mustahkamlash yo'llari ko'rsatilgan, amaliy misollar va raqamlar asosida izohlangan.

O'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarining iqtisodiyoti va boshqa ta'lim yo'nalishlari talabalari, magistrantlari, kollej talabalari, litsey o'quvchilari, shuningdek, professor-o'qituvchilar hamda iqtisodiyot nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullanayotgan mutaxassislar uchun mo'ljallangan.

**Mas'ul muharrir: i.f.d., prof. Xodiyev B.Y.**  
**Taqrizchilar: akademik i.f.d., prof. Xasajonov Q.**  
**i.f.d., prof. Xo'jayev N.X.**

**Расулова И.А., Ишмухамедов А.Э. Национальная экономика: Учебник. Изд.3. Иқтисодиёт, 2014. – 464с.**

В настоящем учебном пособии оделена попытка изложения обобщенного и систематизированного материального национальной экономике Узбекистана с учетом трансформация в мировую экономику, социально-экономические процессы воспроизводства с взаимными стадиями, приоритетными направлениями реформирования и углубления, рыночных при образованиях, а также экономического роста с приведением конкретных информационных материалов.

Авторы полагают, что издания учебного пособия поможет магистрам и бакалаврам Вузов, учащимся колледжей, лицеев, а также преподавателям извзват все тоб что произошло и происходит в практике экономических преобразования в Республике Узбекистан, правильно ориентироваться в экономической политике государства и приоритетных направлениях ее развития в ближайшей и отдаленной перспективе.

**Ответственный редактор д.э.н., проф. Ходиев Б.Ю.**  
**Рецензенты: академик д.э.н., проф. Хасанжонов К.**  
**Д.э.н., проф. Ходжаев Н.Х.**

**Rasulova I.A., Ishmukhamedov A.E. National Economy (Textbook) – T.:TSEU, 2014. – 464 p.**

In the textbook theoretical meaning of main social and economic categories and concepts that gives imaginary about economics, the root of processes of transformations of human and society into world economy are analzed. The proper peculiarities of national economy are clarified. In addition, major directions of economic reforms, the matters of their speedy implementation, proper ways of development of national economy in the conditions of market economy, economic bases of the Republic of Uzbekistan, priorities in the development process of national economy, socioeconomic progress of municipalities, international collaboration and ways of improving the security are shown, they are enriched with practical matters and figures.

The textbook is intended for the students of higher educational establishments majoring in economics and other specializations, graduate students, students of vocational colleges and academic lyceums, also for the professors and specialists working at economic theory and applications.

UDK: 338.012(07)  
BBK: 65.9

© TDIU, 2012.

## ***O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 22-yilligiga bag'ishlanadi***

**O'zbekiston Respublikasi** – Markaziy Osiyoda joylashgan demokratik davlat.

**Respublika hududi** - 4489 ming kv/km.

**Davlat chegarasining uzunligi** – 6221 km.

**Qo'shni davlatlar** - Qirg'iston Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg'oniston.

**Aholisi** – 28 mln kishi. Shu jumladan, O'zbeklar – 80%, qoraqalpoqlar – 2,2 %,

Tojiklar– 4,9 %, ruslar – 3,8 %, Qozoqlar – 3,6 %, Tatarlar – 1 %, Qirg'izlar – 0,9 %,

Koreyslar – 0,6 %, boshqa millatlar – 3 %.

**Asosiy dini** – islom.

**Davlat tili** – O'zbek tili.

**Pul birligi** – so'm.

**O'zbekistonni jahon darajalar tabelidagi o'rni;** Qorako'l terisini yetishtirish va eksport qilish – 2; paxta – 6; magiz – 6; uran qazib chiqarish – 7; vo'lfram Qazib chiqarish – 8; Tilla qazib chiqarish; ipak tolasini ishlab chiqarish; uzum eksporti – 9; tomat pastasi eksporti – 10; molibden ishlab chiqarish – 11; ip-kalava eksporti – 12; ip-kalava ishlab chiqarish – 13; tabiiy gaz ishlab chiqarish – 14; pomidor yetishtirish – 15; tarvuz yetishtirish – 16; paxta matosini ishlab chiqarish; olxo'ri yetishtirish – 17; jung qirqish; o'rik yetishtirish; ip-kalava eksporti -18; Karam va bodring yetishtirish – 19; oltin gugurt kislotasi. Kumush, bug'doy yetishtirish – 20; mis eritish; Azotli, fo'sfo'rli o'g'itlarni, polietilen, mineral moylarni ishlab chiqarish – 21-25- o'rinlarni egallaydi\*.

**O'zbekistonning jahon ishlab chiqarishdagi ulushi (umumiy hajmga nisbatan %):**

uzum va magiz eksportida – 2,5 – 3; tomat pastasi eksportida – 2- 25; ip-kalava ishlab chiqarish, o'rik yetishtirish va eksport qilish – 1,5; bug'doy, uzum, yung, tomat yetishtirish – 1; Kumush qazib olish, sut sog'ib olish – 0,9; Oltin gugurt kislotasi, olma va olxo'ri yetishtirish, elektro energiya eksporti – 0,8; azot o'g'iti, ipak, mis eritish – 0,7; sintetik ammiyak, polietilen, go'sht, temir yo'lda yuk tashish – 0,6; kabel, fo'sfor o'g'iti, mineral moylar, mis va molibden rudalarni qazib olish, polis va mevalar bo'yicha – 0,5 foizni tashkil etadi<sup>1</sup>

<sup>1</sup> O'zbekiston almanaxi – 2010. – T.: 2010, 2012.

*"Aminmanki, O'zbekistoninig kelajagi buyuk  
Davlatimizda hamma narsa: tabiiy boyliklar,  
unumdor yerlar, azim daryolar bor. Bu muqaddas  
zaminda mehnatsevar iste'dodli xalq yashaydi"*

*I.A. Karimov*

## KIRISH

Bozor tizimi barcha mamlakatlar iqtisodiyotiga xos bo'lib, u o'z doirasini to'xtovsiz kengaytirib, ayniqsa, barqarorlik darajasiga bog'liq holda taraqqiyot jarayonini tezlashtirib bormoqda. Taraqqiy etgan, efiq qudratli iqtisodiyotga ega bo'lgan mamlakatlar asosan bozor munosabatlari aralash iqtisodiyot modeli tufayli xalq farovonligini ta'minlashda yuqori ko'rsatkichlarga erishmoqdalar. Bular, avvalo, yuqori darajali industrial mamlakatlardir. Ularning izidan borayotgan va bozor munosabatlariga o'tishda yaxshi natijalarga erishayotgan mamlakatlar soni ko'paymoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov ta'kilaganidek, "2013 – yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8 foizga o'sdi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8,8 foizga, qishloq xo'jaligi — 6,8 foizga, chakana savdo aylanmasi — 14,8 foizga oshdi. Inflyatsiya darajasi prognoz ko'rsatkichidan past bo'ldi va 6,8 foizni tashkil etdi. O'tgan yil yakunlariga ko'ra, tashqi davlat qarzi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 17 foizni, eksport hajmiga nisbatan qariyb 60 foizni tashkil etdi. Bu avvalambor xorijiy investitsiyalar va umuman, chetdan qarz olish masalasiga chuqur va har tomonlama puxta o'ylab yondashish natijasidir.

2013-yilda iqtisodiyot sohasidagi soliq yuki 21,5 foizdan 20,5 foizga, jismoniy shaxslar uchun daromad solig'ining eng kam stavkasi 9 foizdan 8 foizga tushirilganiga qaramasdan, davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,3 foiz profitsit bilan bajarildi...

Iqtisodiyotimizning 2014-yilga mo'ljallangan asosiy vazifa va ustuvor yo'nalishlari, avvalo, bu sohaning yuqori sur'atlar bilan o'sib borishini ta'minlash, buning uchun mavjud barcha rezerv va imkoniyatlarni safarbar etish borasida qabul qilingan strategiyani davom ettirishga qaratilgan.

Yalpi ichki mahsulot hajmini 8,1 foizga, sanoatni 8,3 foizga, qishloq xo'jaligini 6 foizga, chakana savdo aylanmasini 13,9 foizga ko'paytirish, bozor xizmatlarini 16,2 foizga oshirgan holda, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 55 foizga yetkazish ko'zda tutilmoqda. Soliq yukini yanada kamaytirish, jumladan, yuridik shaxslar uchun foyda solig'i stavkasini 9 foizdan 8 foizga, jismoniy shaxslar uchun eng kam soliq hajmini 8 foizdan 7,5 foizga tushirish iqtisodiyotimiz rivojida albatta muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday soliq engilliklari 130 milliard so'mdan ortiq mablag'ni tejash va uni korxonalar ixtiyorida qoldirib, ularning o'z aylanma mablag'larini ko'paytirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash, shuningdek, aholi daromadlarini 90 milliard so'mdan ko'proq oshirish imkonini beradi.

2014- yilning 1- yanvaridan boshlab Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi 12 foizdan 10 foizga tushirildi. Hech mubolag'asiz aytish mumkinki, 2014-yil sanoat sohasida yuksak texnologiyalarga asoslangan va zamonaviy muhim ob'ektlar va quvvatlarni ishga tushirish, investitsiyalarni oshirish va takomillashtirish yili bo'ladi<sup>2</sup>.

Respublikamizda mustaqil iqtisodiyot bozor asosidagi iqtisodiyotni yaratish orqali shakllanmoqda. Iqtisodiy rivojlanish muammolarini ma'lum darajada hal etadigan, iqtisodiyotning porloq kelajagini ta'minlay oladigan yo'l bozor usuli ekanligi, mamlakatimiz uchun bundan boshqa iqtisodiy tizim, qulay usul yo'qligi yaqqol sezilib turgani haqiqatdir.<sup>3</sup> Demak, bozor iqtisodiyoti sharoitida islohotlarning mohiyati, mazmuni, barqarorlashtirish qonuniyatlari va ularning xususiyatlarini aniqlash, o'rganish, iqtisodiy islohot yo'llarini amaliyotimizda joriy etish eng dolzarb vazifalardandir.

Islohotlarni amalga oshirish milliy modelining tarkibiy qismlaridan biri – aholiga ta'sir qiluvchi «falaj qilib davolash»ning har qanday turlaridan voz kechish, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishdagi izchillik va bosqichma-bosqichlikdir.

1992-yil 8-dekabrda mamlakatning mustaqil rivojlanishiga, demokratik jamiyatni barpo etishga va bozor iqtisodiyotini shakllantirishga ishonchli huquqiy asos bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi. 1994-yil 1-iyuldan boshlab milliy valyuta – so'm muomalaga kiritilgandan keyin mamlakat mustaqil moliyaviy siyosat yuritish va o'z moliyaviy tizimini shakllantirish imkoniga ega bo'ldi. Natijada, 1996-yilda inflyatsiya sur'atlari ancha qisqarib makroiqtisodiy barqarorlik va barqaror o'sish uchun shart-sharoitlar yaratildi. Mamlakatning don va energetika mustaqilligi ta'minlandi, investitsiyaviy va tuzilmaviy siyosat faollashdi.

O'zbekistonda o'tgan asrning 90-yillari o'rtasidan boshlab ishlab turgan bir qancha korxonalar texnologiya jihatidan zamonaviylashtirilmoqda va yangi ishlab chiqarish korxonalari barpo etilmoqda. Iqtisodiyot tuzulmasida sezilarli o'zgarishlar ko'zga tashlandi – xomashyoviy yo'naltirilganlikdan mahsulot ishlab chiqarish tomonga qadam qo'yildi. Iqtisodiyotning rivojlanishi aholi real daromadlari o'sishini ta'minladi va ijtimoiy sohadagi islohotlar jarayonini faollashtirish hamda aholining eng nochor qatlamlarini aniq yo'naltirilgan tarzda ijtimoiy muhofaza qilish imkonini berdi. Mamlakatda ko'ppartiyaviylikka asos solindi, parlament faoliyat ko'rsatmoqda. Ombudsman instituti tashkil etilgan va u ishlab turibdi.

Mamlakatni ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish strategiyasining asosiy ustuvorliklari etib quyidagilar belgilangan edi: jamiyatning siyosiy, iqtisodiy turmushini erkinlashtirish; yuqori malakali kadrlar tayyorlash; xalqning moddiy farovonligini barqarorlashtirib, aholini ijtimoiy muhofaza qilishni kuchaytirish; iqtisodiyotda tarkibiy qayta o'zgartirishlarni amalga oshirish; jamiyatda barqarorlik, tinchlikni, millatlararo va fuqarolar totuvligini ta'minlash.

Ushbu ustuvorliklar doirasida qisqa davr ichida bosib o'tilgan mustaqil yo'limiz mamlakat Prezidenti I.A. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan, iqtisodiy islohotlarning «O'zbek milliy modeli» asosida naqadar to'g'ri ekanligini yana bir bor tasdiqladi.

<sup>2</sup> Karimov I. 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. //Xalq so'zi, 2014-11-18-yanvar.

Y'tgan yillar ichida biz islohotlarning butun bir davrini bosib o'tdik, jahon iqtisodiyotiga kirib bordik, aniq natijalarga erishdik. Bular asosan quyidagilardan iborat:

– **birinchidan**, mamlakatda iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik qaror topdi, qisqa aqt ichida chuqur iqtisodiy va ijtimoiy inqirozdan chiqib oldik, iqtisodiyotning barcha ohalarida tub o'zgarishlar amalga oshirildi, ko'p tarmoqli iqtisodiyotni va bozor xizmatlarini barpo etish jarayoni jadal davom ettirildi;

– **ikkinchidan**, iqtisodiy islohotlarning va bozor o'zgarishlarining me'yoriy-uquqiy asoslari yaratildi, iqtisodiyotni boshqarish tizimi isloh qilindi;

– **uchinchidan**, makroiqtisodiy va moliyaviy vaziyatda barqarorlikka va 2001-ildan boshlab iqtisodiy o'sishga erishildi;

– **to'rtinchidan**, iqtisodiyotning tarkibini o'zgartirish asosida energetika avfsizligi va neft mustaqilligi ta'minlandi;

– **beshinchidan**, qishloq xo'jaligida ekin maydonlari tizimini tubdan o'zgartirish sosida g'alla mustaqilligiga erishildi;

– **oltinchidan**, islohotlarning barcha bosqichlarida ham ijtimoiy himoya va timoiy barqarorlikni ta'minlash ustuvor bo'lib qolaverdi.

O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyoti ijtimoiy himoyalangan bozor yo'li to'g'ri unlanganini ko'rsatdi. Zero, respublikada faqat bozorgina inson manfaatiga mos, rehnatni rag'batlantiruvchi mexanizmga egaligi, jahon hamjamiyati, rivojlantirishning ozirgi bosqichiga juda mosligi, tashabbuskorlik va ishbilarmonlikni rivojlantira olishi, ishlab chiqarish, xo'jalik yuritishning kuchli, oqilona jihatlarini rivojlantirishi, fan va texnika yutuqlarini dadil joriy etish sharoitlariga egaligi kabilami e'tiborga olgan holda zil-kesil bozor munosabatlarini tan olib, zamonaviy bozor iqtisodiyoti sari dadil adamlar qo'yib, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari orasida birinchi o'lib 2000-yilda YAIM ning 1991-yildagi darajasiga erishdi, ya'ni o'tish davrini bosib o'tib, iqtisodiy o'sish davriga kirdi.

Shuni ta'kidlash kerakki, islohotlarning keyingi davrlarida yalpi ichki mahsulot 2000-yilda 3,8 foizdan 2013-yilda 8 foizga o'sganligi iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlashda asosiy omillardan biri bo'ldi. O'sish sur'atlariga iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlari hisobiga erishildi.

Iqtisodiy o'sish sur'atlari muntazam oshib borishi natijasida inflyatsiyaning eng past darajasiga erishildi. Bu ko'rsatkich 2000-yilda 28-foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010-yilda 7,3 foizga teng bo'ldi. Bunday natijaga erishishning asosiy sabablari uyidagilardan iborat: pul massasi ustidan nazorat mexanizmi takomillashtirildi; tijorat anklarining ortiqcha likvidligini Markaziy bank depozitlariga jalb qilish amaliyoti engaytirildi; Markaziy bank obligatsiyalari bilan operatsiyalar o'tkazish ko'lamini shirildi; qayta moliyalash stavkasi inflyatsiya darajasi va pulga bo'lgan talabga moslashda o'zgartirib borildi va 2013-yil davomida bosqichma-bosqich 14 foizdan 2,8 foizga tushirildi; budjet taqchilligi yildan-yilga kamayib, oxirgi yillarda YAIM ning 1 foizidan oshmadi va 2013-yilda pefisit 0,3 foiz bilan tugatildi, shundan kelib chiqqan holda Markaziy bank kreditlaridan foydalanish kamaydi.

Bu yutuqlar respublikamizda iqtisodiy islohotlar bir-biriga chambarchas bog'liqligining samarasidir. Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotni isloh qilish iqtisodiy islohotlarning eng ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Chunki iqtisodiyotning rivojlanishi

quyidagi sohalarda ham sezilarli darajada o'zgarishlar qilish va muayyan natijalarga erishishga yordam beradi: iqtisodiyotning real tarmoqlarini rivojlantirish, aholi daromadlarini oshirish va shundan kelib chiqqan holda aholining bank tizimidagi jamg'armalarini ortishi, yangi ish o'rinlarini yaratish, eksport salohiyatini oshirish, bozorlarni raqobatbardosh, sifatli tovar va mahsulot (xizmat)lar bilan boyitish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari importidan voz kechish va boshqalar.

O'tgan yillarda respublikamizda budget xarajatlari samaradorligini oshirish va optimallashtirishga erishildi. Budget xarajatlarining samarali ishlatilishi; manzilliligini ta'minlash; rejalashtirish uslublarini takomillashtirishga qaratilgan bir qator tadbirlar amalga oshirilmogda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi «Davlat budgetining g'azna ijrosi to'g'risida»gi qonuniga asosan 2013- yilda g'aznachilik tizimini joriy etish, shu bilan bir qatorda boshqaruv va nazoratning samarali tizimini yaratish, respublikamiz fuqarolarining turmush darajasini ko'tarish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida, budget tashkilotlari ishchi-xizmatchilarining oylik ish haqi, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar miqdorlarini inflyatsiya darajasidan yuqori bo'lgan miqdorlarda oshirishga qaratilgan yo'ldan borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati 2013-yildagi qo'shma majlisida so'zlagan nutqidan kelib chiqqan holda, iqtisodiy islohotlarni liballashtirishga qaratilgan bir qancha qonunchilik tashabbuslarini oldinga surdi.

Bu o'rinda 2013-yilda mamlakatimizda muhim siyosiy va ijtimoiy ahamiyatga ega voqealar yuz berganini alohida ta'kidlash joiz. Jumladan, respublikamizda ikki palatali parlament shakllandi. Islohotlarni chuqurlashtirish, barcha sohalarda liberallashtirish jarayonlari davom ettirilishini vaqtning o'zi talab qilmoqda. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya qilish va isloh etish bugungi kunning asosiy maqsadidir.

2013-yil yakunlari bo'yicha mamlakat yalpi ichki mahsulotning o'sishi 8 foizni, yaqin 2014-yilda esa yiliga 8,1 foizdan ortiq bo'lgan darajadagi barqaror o'sish suratlarni ta'minlash, umuman 2014-2015-yillarda davomida uning hajmi 1,5 barobar hisobidagi o'sishga erishishi ko'zda tutilmoqda bunda iqtisodiy o'sish barqarorligi mikroiqtisodiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning mutanasibligi va milliy valyuta kursining barqarorligi orqali taminlanadi.

Ushbu darslik – «**Milliy iqtisodiyot**» bugungi talaba – ertangi mutaxassislar faqat o'z ixtisosliklariga tegishli masalalarigina emas, balki ular bilan bog'liq bo'lgan umumiy iqtisodiy muammolarni ham hal qila oladigan, makroiqtisodiyot bo'yicha malakali mutaxassis sifatida tayyorlanishiga hissa qo'shish maqsadiga tayanadi. Mehnat jarayonida mikro va makroiqtisodiy munosabatlar tufayli yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlarni tashkil etishning zamonaviy nazariyasini, mikro va makroiqtisodiy rivojlanish qonuniyatlarini bilmay turib, milliy iqtisodiyot masalalarini hal qilib bo'lmaydi. Shuning uchun darslikda bu masalalar kengroq yoritilgan, chunki milliy iqtisodiy jarayonlar rivojlanishining asosiy qonuniyatlari, nazariy negizlarini bilish bo'lajak mutaxassislarda jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish masalalarini tushunish, malakali ta'riflash, menejment qarorlarini to'g'ri qabul qilish ko'nikmasini hosil qiladi.

## 1-bob. MILLIY IQTISODIYOTNING MAZMUNI VA VAZIFALARI

### 1.1. Milliy iqtisodiyot jarayonlari va uning iqtisodiy obyektlari

Sharq mamlakatlarida taraqqiyot g'arbdagiga nisbatan ancha oldin boshlangan. Iqtisodiyot sohasidagi faoliyat, bozor, savdo kabilar Osiyo xalqlari orasida juda qadimgi davrlardayoq shakllanib, so'ngra g'arbga, Yevropaga tarqalgan.

Sharq bozori, shu jumladan, Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston bozorlarining imidiyligi, o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bu hududlarda inson iqtisodiy faoliyati idim davrlardanoq ancha yuqori bo'lganligini ko'rsatadi. Avvalo, shuni ta'kidlash ururki, sharq bozorlarida maxsus savdo rastalari, do'konlar, omborlar, karvonsaroylar avjud bo'lgan. Savdogarlar o'z vatanlari va qo'shni hududlar bozorlaridagina emas, itto uzoq mamlakatlarning bozorlarida ham savdo-sotiq bilan shug'ullanishgan.

Qadimgi davr – qulchilik davrlaridayoq hozirgi O'zbekiston hududidagi bozorlarda Misr, Mesopotamiya, Hindiston, Xitoy va Yunoniston savdogarlari mollarini sotishgan, shu bilan birga bu yerlardan hunarmandlar, dehqonlarning mahsulotlarini sotib qilib qilishgan.

Turon bozoriga «Buyuk Ipak yo'li»ning ta'siri katta bo'lgan. Xitoydan Janubiy Evropagacha cho'zilgan bu yo'l bo'yidagi shaharlarning bozorlari Turon bozori o'lariga, ayni paytda Turon bozorining o'zi ham «Ipak yo'li»dagi bozorlarning o'lariga to'la bo'lgan. Turon bozori Xitoy mollari va Janubiy Yevropa mollari bilan bog'alanmay, yo'l-yo'lakay barcha xalqlarning mollari savdosini ham ta'minlar edi. Albatta, bunda Xitoyning ipak mollari va chinnisi katta o'rin egallar, lekin Turon hunarmandlari va dehqonlarining mollari salmog'i ham past emas edi. Bu mollar Uzoq Sharq va Yevropagacha olib borilib, sotilardi. Shu bilan birga, o'zi o'tgan hududlar uchun noma'lum bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishning o'zlashtirilishida ham «Buyuk Ipak yo'li» ning ta'siri katta bo'lgan.

O'zbekiston hududi bozorlarining keyingi taqdiri Movarounnahr bilan bog'liq bo'lgan. Bunda Amir Temur davri alohida ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Barcha kashaf qilgan yirik davlat barpo etgan Amir Temur ham bozorlar uchun juda qulay sharoit yaratgan edi. Hozirgi O'zbekiston hududlarida mavjud bo'lgan davlat g'arbda Evropagacha, sharqda Xitoy, Hindistongacha cho'zilgan, uning hududida ichki bozorga nisbatan tashqi bozor kengroq rivojlangan edi.

Bu davrda shaharlar ko'payib, yirik-yirik savdo markazlari paydo bo'ldi. Hozirgi kunda atijada hunarmandchilik va xaridorgir mollar ishlab chiqarish doirasi kengayib bordi. Samarqand, Buxoro, Andijon, Mangan, Shahrisabz kabi jahon ahamiyatiga molik savdo markazlari yuzaga keldi. Movarounnahr bozorlari sharq va g'arb mamlakatlari savdogarlarini o'ziga jalb etdi.

Katta shaharlar bozorlaridagi savdoning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shu edi, ularda hunarmandlarning mollari alohida savdo do'konlarida emas, balki asosan bozorning o'zida sotilardi. Shunga ko'ra, maxsus hunarmandlar mahallasi, o'rami, mavzolari bo'lgan. Ulardan ayrimlarining nomlari hozirgacha ham saqlanib kelmoqda. Hunonchi, O'qchi, Egarchi, Misgarlik, Kallaxona, Chaqichmon kabilar. Bunday mahallalar asosan shaharlar markazida, bozorlarga yaqin joylashgan edi.

To'quvchilik va tikuvchilik mahsulotlari va shunga o'xshagan mahsulotlar asosan bozorlarda sotilgan. Ular sotiladigan maxsus bozorlar bo'lgan. Masalan, Samarqandning



Registon maydonida XV asrda qurilgan katta aylanma bino do'ppi bozori edi. Hozirgi vaqtda bu yerda kutubxona joylashgan.

Ayrim mollarni sotishga ixtisoslashgan savdogarlar ham bo'lgan. Aytaylik, bug'doy, go'sht sotuvchilar, baqqol kabilar. Bu kabi dalillar Sharqda savdo va bozorning qadimdan ancha rivojlanganligini ko'rsatadi.

«Bozor» deganda, kishilar ko'z oldida ko'pchilik yig'ilib, savdo-sotiq amalga oshiriladigan joy gavdalanadi. Lekin ko'pchilik do'kon, birja yoki auksionni bozor tarzida xayoliga ham keltirmaydi bu tabiiydir. Chunki odamlarda shunday ko'nikma hosil bo'lgan. Aslida "bozor" tushunchasiga boshqacharoq qarash kerak. «Bozor iqtisodiyoti» va «bozor» tushunchalari o'zaro bog'liq bo'lsa-da, ular aynan bir narsa emas. Agar bozor iqtisodiyoti yaxlit bir organizm hisoblanga, bozor uning muhim a'zosi. Bozor faqat savdo-sotiqdan iborat faoliyatni bildiradi.

Bozor – sotuvchilar bilan xaridorlarning oldi-sotdi qilish orqali yuz beradigan o'zaro manfaatli va hamkorlik aloqalaridir.

Bozorda sotuvchilar va xaridorlar bir-birini topadi. Bozor ularni bir-biriga bog'lab turuvchi mexanizm hisoblanadi. Bozor – barter emas, balki oldi-sotdi qilish, ya'ni tovarlarni pul vositasida ayirboshlashdir. Pulsiz bozor bo'lishi mumkin emas. Bozor bo'lishi uchun oldi-sotdi ham xaridorga, ham sotuvchiga manfaatli bo'lishi talab etiladi. Sotuvchi o'z tovarini yaxshi ko'rsata olsa, xaridor esa kerakli tovarni ma'qul narxda topa oladi shuning uchun ham ular muhim aloqada bo'lishga intiladi. Xo'sh, kim sotuvchi-yu, kim xaridor? Bozorning har bir ishtirokchisi, u kim bo'lishidan qat'i nazar (iste'molchi, fuqaro, firma, davlat), bir bozorda sotuvchi bo'lsa, boshqa bozorda xaridor vazifasini o'taydi.

Xaridorda tovarni ma'lum narxda sotib olish ishtiyoqi bor. Sotuvchilar esa, tovarlarni bozorga chiqarib, ma'lum narxda xaridorlarga taklif etuvchilardir.

Xaridorlar va sotuvchilar har doim bir-birlarining hojatini chiqarib, hamkorlik qiladilar, kerakli tovarning narxini kelishib, o'zaro iqtisodiy murosaga keladilar. Bu, bozordagi murosa, deyiladi.

Uy xo'jaliklari, asosan oddiy iste'molchilardan (masalan, oila yoki yakka odamdan) va resurs egalaridan iborat. Ular xaridor sifatida bozordan tovarlar va xizmatlarni olsa, sotuvchi sifatida ishchi kuchi, yer va pul mablag'ini bozorga chiqarib sotadilar. Ishchi kuchi-mehnat bozorida, yer ko'chmas mulk bozorida, pul esa moliya bozorida (bank orqali) sotiladi (bular birgalikda resurslar bozori deyiladi). Uy xo'jaliklari resurs bozoriga tovar chiqarib, u yerdan pul oladilar. Bu pulni tovarlar bozoriga chiqarib, u yerdan iste'mol buyumlari xarid qiladilar. Tovar ishlab chiqaruvchilar firmalar, fermer xo'jaliklari yoki yakka tartibda ishlab chiqaruvchilardan iborat. Ishlab chiqaruvchilar ham ikki bozorda ish yuritadilar. Ular resurs bozoridan ishchi kuchi, xomashyo, yer va qarzga pul topadilar, ya'ni ularni sotib oladilar. Ayni paytda ular bozorga tovar chiqarib, u yerdan pul oladilar.

Davlatga kelsak, u ham uy xo'jaliklaridan va tovar ishlab chiqaruvchilardan tovar olib, ularga pul beradi, ammo ulardan yana pul ham oladi. Bu undirilgan soliqlardir. Davlat tovarlarni maxsus buyurtma orqali oladi. Bunga misol qilib mamlakatimizda amalda bo'lgan, paxtakorlarga beriladigan davlat buyurtmasini olish mumkin. Unga binoan belgilangan miqdordagi paxta davlatga yetkazib beriladi, paxtaning qolgan qismi erkin narxlarda sotiladi.

Bozordan tovarni sotib olish uchun pul kerak, buning uchun esa nimanidir sotish zarur. Demak, xaridor, albatta, sotuvchi vazifasini ham o'tashi lozim. Uy bekasi bozor qilganda pul bilan chiqib, uyiga tovar bilan qaytadi. U go'yo hech narsa sotmagandek tuyuladi. To'g'ri, u shu damda tovar sotmadi, lekin uning hamyonidagi puli oldin sotilgan tovarning haqi hisoblanadi. Masalan, uning oila a'zolari o'z ishchi kuchini firmaga yoki davlatga sotib, ish haqi olgan. Shu pulni beka bozorga olib chiqadi. Mazkur oila bankka pul qo'ygani bo'lsa, unga ham haq oladi, uyini ijaraga bersa, ijara haqi oladi. Uy bekasi uchun sotish operatsiyasi oldin, xarid etish operatsiyasi keyin bo'lgan, xolos. Demak, bozorda oldi-sotdi har xil vaqtda kechishi mumkin.

Bozorda davlatning ishtiroki boshqacharoq. Agar davlat korxonasi bo'lsa, u ham tovar sotadi. Ammo aksariyat davlat idoralari va mahkamalari bozorda o'z xizmatini sotadi. Bu xizmatning haqi olinadigan soliqlar hisoblanadi. Tushgan pulga davlat bozordan resurslar va tovarlar sotib oladi. Bozorning afzalligi ham shundaki, u oldi-sotdidan iborat iqtisodiy aloqalarni o'rnatadi.

Iqtisodiyotning o'zi tarixan turli shakllarda mavjud bo'lgani kabi bozorda xaridor va sotuvchining mavqei ham o'zgarib boradi. Hozirgi bozor tartiblanadigan bozor, unda stixiyalik, noaniq xaridor uchun ishlash kam uchraydi, mijozlar o'rtasida oldi-sotdi aloqalari muhim va uzoq vaqt uzilmay davom etadi. Bozorga tovarlarni tavakkalchilik bilan yetkazish hollari kam uchraydi. Tovar chiqarishdan oldin bozor puxta o'rganiladi, nimani, qancha yetkazib berish belgilab olinadi, bozorda ma'lum darajada noaniqlik saqlanib qoladi. Chunki xaridor va sotuvchi mustaqil bo'lib, nima qilishni o'zlari hal etishadi, ularning maqsad va o'y-hayollari turlicha, lekin bozor tartiblangani bois unda beboshlikka yo'l qo'yilmaydi. Ilgarilari bozor asosi tartibsiz bo'lgani uchun unda noaniqlik hukm surgan, narx-navoning qanday bo'lishi, nimaning bozori chaqqon, nimaning bozori kasod bo'lishini oldindan bilib bo'lmagan. Bunday bozorning ayrim elementlari hozir ham bor. Bunga misol qilib, O'zbekistondagi dehqon va buyum bozorlarini, ayrim do'konlarni olish mumkin. Bu yerda ish yurituvchilar aniq mo'ljalga ega bo'lmasdan, bozor o'zgarishlarini oldindan bilmasdan savdo qiladilar. Bunday bozor o'rniga tartiblangan, madaniy bozor vujudga kelishi muqarrar. Eng demokratik bozor – erkin bozordir.

«**Erkin bozor**» deganda xaridorlar ham, sotuvchilar ham ko'p bo'lib, ulardan hech biri monopoliya mavqeiga ega bo'lmay, bir-birini tezda topa oladigan, raqobat to'la-to'kis hukmron bo'lgan, narxlarning erkin savdolashuv asoslari shakllanadigan bozor tushuniladi.

Ta'rifdan ko'rinib turganidek, erkin bozorda xaridor va sotuvchi munosabati biror bir tazyiqsiz, iqtisodiy tanlov asosida vujudga keladi, ular orasida murosa mavjud bo'ladi. Erkin bozorga misol qilib, O'zbekistondagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorini ko'rsatish mumkin. Bu bozorda millionlab kishilar xaridor, sotuvchilar esa davlat, jamoa, fermer xo'jaliklari, minglab tomorqa xo'jaligi va dafa hovli sohiblaridir. Bu yerda kim nimani sotishi, kimdan nimani olishi, qanday narxda savdo qilishi yuqoridan turib belgilanmaydi, buni bozorning o'zi hal qiladi.

Erkin bozorda xaridor va sotuvchilar tanlovi ularning saralanishiga va kuchlilari monopol bozorni tashkil etishiga olib keladi.

**Monopol bozor** deb, ozchilik xaridorlar yoki sotuvchilar hukmron bo'lgan, monopoli narx o'rnatilgan, raqobati cheklangan yoki raqobat umuman bo'lmaydigan bozorga aytiladi.

Monopol bozor asosan 3 xil bo'ladi:

- monopol raqobatli bozor-son jihatdan ko'p bo'lmagan, bozorga bir xil, o'xshash yoki o'rinbosar tovarlar chiqaradigan firmalar qo'lida bo'ladi, ular o'zaro raqobat qiladilar. Bunga misol qilib, O'zbekistondagi kiyim-kechak bozorini olish mumkin. Bu yerga asosan 8 ta firma mahsulot chiqaradi, lekin ular nafaqat o'zaro, balki tovari O'zbekistonga kirib kelgan xorij firmalari bilan ham bellashadilar.

- **Oligopolistik bozor** – ozchilik firmalar hukmron bo'lgan bozor. Bu yerda raqobat ko'pgina sotuvchilar orasida emas, balki xaridorlar o'rtasida yuz beradi. Bunga misol tariqasida O'zbekistondagi sement bozorini olish mumkin. Bozorga 3 ta korxonaga mahsulot chiqaradi. Sement xarid qilish uchun raqobat esa xaridorlar o'rtasida boradi.

- **Sof monopoliya bozori** - bunday bozorga tovarni butun bir tarmoqda hukmron bo'lgan ayrim korxonalar yetkazib beradi. Masalan, O'zbekistonda paxta terish mashinalarini faqat Toshkent qishloq xo'jaligi mashinasozlik zavodi, traktorlarni faqat Toshkent traktor zavodi tayyorlab, bozorga chiqaradi. Ichki bozorda ularning raqiblari yo'q.

Turidan qat'i nazar har qanday bozor o'zining ixtisoslashgan kichik qismlariga, segmentlariga ega.

Bozor segmentlari quyidagi belgilariga qarab farqlanadi: aholining xarid qobiliyati; yashash sharoiti; yoshi va jinsi; qaysi tovarlarni afzal ko'rishi; kishilarning mehnat faoliyati; turmush tarzi; inflyatsiya darajasi; bozor infratuzilmasi holati.

Bozor aloqalari faol bo'lishi uchun bozor infratuzilmasi yaxshi ishlashi lozim.

Infratuzilmani birjalar va savdo uylari, savdo kompaniyalari, hisob-kitob idoralari, maslahatchi firmalar, broker va auditor idoralari, yarmarkalar, tender (tanlovga asoslangan maxsus savdo) uyushtiruvchi tashkilotlar, bojxona idoralari, banklar, sug'urta kompaniyalari kabilar tashkil etadi. Ularning vazifasi oldi-sotdiga xizmat qilishdir. Bozorga g'oyat xilma-xil tovar va xizmatlar chiqariladi, ular bozor obyektini, aniqrog'i, u yerdagi oldi-sotdi obyektini tashkil etadi. O'z obyektini jihatidan bozorni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. **Iste'mol tovarlari bozori**, ya'ni iste'molchilar bozori – kishilarning tirikchiligi uchun zarur bo'lgan tovarlar va xizmatlar bozoridir. Bu bozorda keng iste'mol buyumlari, madaniy, maishiy va kommunal xizmatlar oldi-sotdisi olib boriladi. Unda deyarli barcha fuqarolar ishtirok etadi. O'zbekistonda bu bozorning aniq ko'rinishlari bor: do'kon (magazin)lar, savdo uylari, firmalar, supermarket, do'kon (shop), oshxona, novvoyxona, har xil ustaxonalar, sataroshxonalar, salonlar, dehqon va buyum bozorlari.

2. **Ishlab chiqarish vositalari va resurslar bozori** – ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan narsalar bozori. Bu bozorda ulgurji savdo-sotiq yuz beradi. Mazkur bozor savdo firmalari, savdo uylari, birjalar faoliyatida, yer va boshqa ko'chmas mulk savdosida namoyon bo'ladi. Unda resursga talabgorlar resurs yetkazuvchilari bilan shartnomalar asosida aloqa qiladilar. Resurs bozorining bosh bo'g'ini tovar birjasi hisoblanadi.

Tovar birjasi – ulgurji savdo bilan shug'ullanuvchi tijorat korxonasidir.

Birjadagi savdo-sotiq operatsiyalari quyidagi belgilarga ega: a) birjada tovarlarni yetkazib berish haqida bitim tuzilib, ularning pulini to'lash birjadan tashqarida yuz beradi; b) birjada sotiladigan tovarlarning o'zi emas, ularning namunasi va naqdligini tasdiqlovchi hujjat qo'yiladi; v) birjada hali yo'q tovarlarni sotish haqida ham bitim tuziladi, bu qishloq xo'jaligi mahsulotlariga taalluqlidir. Bo'lg'usi hosil yuzasidan savdo bitimi ilgariroq tuzilib, tovarni yetkazib berish hosil yig'ilganidan keyin yuz beradi; g) birja uyushgan bozor bo'lib, bu yerdagi savdo-sotiq operatsiyalari belgilangan tartibda o'tkaziladi. Universal birjalar turli mollar bilan savdo qilsa, ixtisoslashgan birjalar ayrim tovarlarni (don, paxta, metall va hokazo) sotadi.

3. **Ishchi kuchi yoki mehnat bozori** — ishchi kuchi oldi-sotdi qilinadigan bozor. Ishchi kuchi maxsus tovar bo'lganidan uning bozori o'z xususiyatiga ega. Ishchi kuchi – insonning ishlash qobiliyati. Agar oddiy tovar sotilganda uning egasi o'zgarsa, ishchi kuchi necha marta sotilmasin, o'z egasi bilan birga qoladi. Chunki uni inson jismidan ajratib bo'lmaydi.

Mehnat bozori mehnat birjalari, ishchi yollovchi vositachi firmalardan va nihoyat, kishilarni bevosita ishga jalb etuvchi korxonalaridan iborat.

Sharqqa xos bo'lgan tartibsiz mehnat bozori – mardikor bozoridir.

4. **Moliya bozori** – bozorning maxsus turi hisoblanadi. «Moliya bozori» deganda moliya resursiga (vositasiga) aylangan pul mablag'lari va ularga tenglashtirilgan qimmatbaho (qimmatli) qog'ozlar bozori tushuniladi. Moliya bozori tarkiban kredit (qarz puli) bozori, qimmatbaho qog'ozlar bozori va valyuta bozorida iborat (bu masala keyingi boblarda batafsil yoritiladi). Valyuta auksioni, kredit pullari auksioni, banklar, moliya kompaniyalari, fond birjalari (qimmatli qog'ozlar birjasi) va boshqalarning faoliyati bu bozorning yaqqol ko'rinishlaridir.

5. **Intellectual tovarlar bozori** — aqliy mehnat mahsuli bo'lgan tovarlar va xizmatlar bozori. Bu bozorda ilmiy ishlanmalar, g'oyalar, texnikaviy loyihalar va chizmalar, axborot, san'at, adabiyot va ilmga tegishli asarlar, ijrochilik xizmati va turli tomosha xizmatlari sotiladi. Bu bozorning muhim unsuri – litsenziya bozori va hozirgi kunda shou-biznes va kino bozorlaridir.

6. **Qurol-aslaha bozori** bozorning alohida turini tashkil etadi. Bu yerdagi tovarlar iste'mol buyumlari ham, resurslar ham emas. Bu yerda xavfsizlikni ta'minlovchi qurol-yarog'lar sotiladi. Bu bozor salonlar va ko'rgazmalar shaklida bo'ladi. Mayda qurollar do'kon orqali sotiladi.

Bozor o'zining qamrov doirasi jihatidan mahalliy, hududiy, milliy va jahon bozorlariga bo'linadi. Bozor qancha turga bo'linmasin, ixtisoslashmasin, baribir, u oldi-sotdi orqali kishilar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni o'rnatishga xizmat qiladi.

## 1.2. Milliy iqtisodiyot asoslari

Inson boshqa jonzorlardan aql-idroki bilan ajralib turadi. Inson biologik mavjudot sifatida ovqat yeyish, uxlash, dam olib, o'z kuchini tiklash, o'zini issiq-sovuqdan asrash ehtiyojlariga ega. Mazkur ehtiyojlar moddiy shaklda — kiyim-kechak, oziq-ovqat, turar-joy va boshqalar shaklida ifoda etiladi.

Moddiy ehtiyojni qondirish uchun esa zarur noz-ne'matlarni ishlab chiqarish kerak. Inson borsā kelmas orolda, afsonalarda aytilganidek, qush uchsa qanoti, odam yursa oyog'i kuyadigan joyda, tanholikda yashamaydi. Inson – iitimoiv ionzot. U

ma'lum mamlakat fuqarosi, aniq bir hudud (shahar, qishloq, mahalla, kvartal)da, kishilik jamiyatida yashaydi. Uning mehnat orqali qondiriladigan jami ehtiyoji moddiy ehtiyojga kiradi.

Insonning moddiy ehtiyojlari bilan birga ijtimoiy ehtiyojlari ham borki, bularga bilim olish, madaniy saviyani oshirish, malaka, mahoratga ega bo'lish va sog'lom hayot kechirib, uzoq umr ko'rish kiradi. Aytilgan ehtiyojlar moddiy shaklga ega bo'lmagan har xil xizmatlar ko'rsatish orqali qondiriladi. Shifokor, o'qituvchi yoki madaniyat xodimi xalqqa xizmat qilib, uning ehtiyojini qondirishga hissa qo'shadi, ammo ularning mehnati ishchi yoki dehqon mehnati kabi moddiy mahsulotda ifodalanmaydi.

Insonning mehnat qilish ehtiyoji ikki narsadan kelib chiqadi: birinchidan, mehnat moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondiradi; ikkinchidan, mehnat tufayli inson kamolotga erishadi, qobiliyatini o'stiradi, hayotda o'z o'rnini topadi, obro'-e'tibor qozonadi. Shu sababli, mehnatning tagi – rohat, deydilar. Mehnat qilish uchun jihozlangan ish joyi bo'lishi zarur. Ish joyi uchun bino qurish, kerakli uskuna va jihozlar, masalan, stanoklar, kompyuterlar, o'lchash asboblari, laboratoriya uskunalari o'rnatish kerak. Demak, ularni ham ishlab chiqarish talab etiladi.

Ehtiyoj qat'iyon tabaqalashgan bo'ladi. Ehtiyoj kishilarning odati, didi, ruhiyati, yoshi, jinsi, oilaviy ahvoli, millati, mehnat va yashash sharoitlariga ham bog'liq. Maktab o'quvchisi bilan olimning, yosh yigit bilan nafaqaxo'ring, dehqon bilan shaxtyorning ehtiyoji bir xil bo'lmaydi, hatto kishilarning jismoniy tuzilishi ham ehtiyojlariga ko'ra farqlanadi. Albatta, gavgdali kishining ehtiyoji bilan jussasi kichik kishining ehtiyoji bir xil emas. Eng muhimi – xilma-xil ehtiyojni qondirish uchun xilma-xil faoliyat talab qilinadi.

Ehtiyojlar to'xtovsiz ravishda faoliyatga mos holda rivojlanishi kerak, aks holda ular qondirilmay qoladi. O'z navbatida, ishlab chiqarishning rivojlanishi, ayniqsa, texnika taraqqiyoti yangi ehtiyojlarni yuzaga keltiradi. Masalan, tezkor axborotlar olish zarurati EHM larni yaratdi. Kompyuterlash jarayoni EHM larni yaratish va qo'llash bilan bog'liq ehtiyojlarni yuzaga keltirdi. Kompyuterlarning birinchi avlodiga ehtiyoj avval qisqarib, so'ngra yo'qoldi. Hozir to'rtinchi avlod mashinalariga — «Pentium-4» markali kompyuterlarga ehtiyoj kuchaydi.

Ehtiyojlarning yuksalishi quyidagicha yuz beradi: kishilarning ehtiyoji miqdoran o'sib boradi. Uning sababi esa aholi sonining ko'payishi va turmushining yuksalishidir. Masalan, hozir jon boshiga yiliga 60 kilogramm go'sht talab qilinsa, aholi soni 1,5 marta ko'paysa, shunga ko'ra, jamiyat miqyosida jami go'shtga bo'lgan ehtiyoj ham 1,5 marta ortadi, albatta; ayrim ehtiyojlar yo'qolib, o'miga yangisi keladi, ehtiyojlar doirasi yangilanib, kengayib boradi. Masalan, o'tgan asrning 70 – 80-yillarida qo'lda ko'tarib yuradigan («Vesna», «Veta») magnitofonga ehtiyoj katta bo'lgan. Magnitofoni bor kishi g'ururlanib yurgan. Hozir hech kimga bu markadagi magnitofon kerak emas. Uning o'miga zamonaviy, ixcham magnitofonlarga, qo'l (uyali) telefonlariga ehtiyoj paydo bo'ldi. Eski radiotexnika o'miga videotexnika keldi; muayyan ehtiyoj saqlangan holda uning aniq turlari orasidagi nisbat o'zgardi. Masalan, shahar transportiga ehtiyoj doirasida uning turlari o'rtasidagi nisbat ham o'zgaradi. Yo'lovchilar o'z tanloviga binoan tramvay, trolleybus, avtobus, taksi yoki metroni afzal ko'rib, unga ehtiyoj sezdi. Bir tovarga bo'lgan ehtiyojlarni boshqa o'rinbosar tovar qoniqtira oladi. Shirinlikka bo'lgan ehtiyoj umumiy bo'lsada, asal, shakar, qand, konfet biri-birining o'rnini bosa

oladi. O'rinbosar tovarlar doirasida ehtiyoj bir tovardan boshqa foydaliroq tovarga ko'chadi.

Xullas, ehtiyojlarning miqdoran o'sib, tarkiban yangilanib borishi tabiiy jarayon bo'lib, iqtisodiyotni rivojlantirishga undaydi, lekin uning o'sib, yangilanib borishi resurslar kamyobligi muammosiga duch keladi.

Ehtiyojlarni cheksizligi bilan resurslar cheklanganligi o'rtasidagi nomutanosiblik iqtisodiyotning azaliy muammosidir.

**Iqtisodiy resurslar** – iqtisodiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan moddiy va insoniy omillarning yaxlitligidir.

Iqtisodiy resurslarni uch toifaga bo'lish mumkin:

**1. Moddiy resurslar.** Bularga tabiiy boyliklar, asbob-uskuna, mashina va mexanizmlar, bino, inshoot va har xil qurilmalar kiradi. Ular ishlab chiqarishning moddiy omilini tashkil qiladi.

**2. Mehnat resurslari.** Bularga mehnatga layoqatli aholi kiradi. Iqtisodiyot uchun resurs sifatida aholining faqat soni emas, balki bilimi, ish tajribasi va mehnat mahorati ahamiyatlidir.

**3. Ishbilarmonlik qobiliyati.** Bu, tadbirkorlarning ishning ko'zini bilishi, ishlab chiqarish, tijorat, bank ishi va boshqa faoliyatni samarali boshqara olishi, tavakkalchiligi, zarar ko'rishdan qo'rqqanligidir.

Resurslarning so'nggi ikki turi ishlab chiqarishning shaxsiy-insoniy omili hisoblanadi. Resurslar sarfi texnika va texnologiya darajasiga bog'liq bo'ladi. Bu daraja qanchalik yuqori bo'lsa, ehtiyojlarni qondirish shu qadar kam resurs talab qiladi yoki aksincha. Masalan, 10 so'mlik mahsulot olish uchun eski texnologiya sharoitida 1 kVt elektr energiyasi sarf qilinsa, ilg'or texnologiya sharoitida 0,5 kVt sarflanadi. Demak, energiya resurs birligi evaziga 2 barobar ko'p mahsulot olinadi.

Resurslarning kamyobligi umumiy hodisa. Bu ekiladigan yerlarning, yer osti va yer usti boyliklarining, mehnatga yaroqli aholi sonining cheklanganligida, energiya resurslarining yetishmasligida ifoda etiladi. Masalan, keyingi 200 yil ichida yer yuzasida ist'olchilar soni 5 marta ko'paydi, ammo yer sathi, tabiiy boyliklar ko'paygani yo'q. Yer kurrasining 72 %i okeanlardan, 28 %i esa quruqlikdan iborat, ammo quruqlikning ham talay qismida yashab bo'lmaydi. Chunki aksariyat qismi qumlik, sahro, suvsiz cho'l-ubiyobon, osmono'par tog'lardan iborat. Sarf etilgan yer osti boyliklarini umuman tiklab bo'lmaydi, ammo yerning o'simliklar va hayvonot olamini tiklab bo'ladi.

Fan-texnika taraqqiyoti sharoitida malakali ishchi kuchi ham kamyob resursga aylanadi. Shunday sharoitlarda kishilar o'sayotgan ehtiyojlarini faqat mavjud resurslarga tayangan holda qondirishga harakat qiladilar.

Resurslarni ko'proq ishlatish hisobidan ehtiyojlarni qondirish vaqtinchalik, chunki resurslar tugab boravergani sayin kishilar uni kamroq sarflash yo'lini qidiradilar, resurslarni tejovchi texnologiyalar yaratilib, ulardan keng qo'llaniladi. Natijada resurs birligini ishlatishdan olingan hajmi mahsulot ko'payadi. Umuman olganda, cheksiz ehtiyojni kamyob resurs bilan ta'minlash 2 xil usulda amalga oshiriladi:

1. Ehtiyojlar ko'p bo'lganidan ularning hammasini birdaniga qondirish mumkin emas. Shu boisdan ehtiyojlarning eng muhimi ajratib olinadi va ishlab chiqarish ularni qondirishga qaratiladi. Masalan, hozir O'zbekiston uchun neft mahsulotlari va donga

bo'lgan ehtiyoj eng zarur ehtiyojlardan hisoblanadi va resurslar eng avval shularni qondirishga qaratilgan. Shu sababli, 2008-yil O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish – 6,1 foiz, sanoat mahsulotlari – 12,1 foiz, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish – 18,6 foizga ko'paydi. Shu yili 6,6 mln tonna don, 3,7 mln.tonna paxta yetishtirildi.

2. Resurslar kamyob bo'lganidan ishlab chiqarishning eng zarur sohalariga ustuvorlik beriladi. Muqobil mahsulotlardan eng maqbuli tanlab olinadi. Bir mahsulot uchun resurs ko'proq ketsa, tabiiy ravishda boshqasiga kamroq miqdorda qoladi. Hadisi sharifda aytilganidek, “tejamkorlar muhtoj bo'lmaslar”.

Shuning uchun resurslar sarfining eng tejamli usuli tanlanadi, natijada shu resurs birligi hisobiga ko'proq mahsulot olinadi, ehtiyojni to'laroq qondirish mumkin bo'ladi. Kamyob resurslar sharoitida ehtiyojlarni qondirishning optimal darajasi tanlanadi. Bunda kam resurs bilan ko'proq ehtiyoj qondiriladi.

Bu qoidaga binoan mahsulot birligini yaratish uchun ketgan resurs sarfi qisqarishi shart, aks holda ehtiyoj to'la qondirilmaydi. Masalan, donga bo'lgan ehtiyojni to'la qondirish uchun don hosildorligini muttasil oshirib borgan holda, har tonna don olish uchun ketgan resurs sarfini qisqartirib borish talab etiladi.

### 1.3. Iqtisodiyotni rivojlanishini ifodalovchi mikro va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar

Ehtiyojlar turli-tuman bo'lganidan ularni qondirish ham turlicha yo'llar bilan amalga oshiriladi, lekin baribir bu ish iqtisodiy faoliyatni talab qiladi.

Iqtisodiy faoliyat deganda, inson hayotini ta'minlash usullari va vositalarining majmui tushuniladi.

Iqtisodiy faoliyat ishlab chiqarishdan boshlanadi, yaratilgan mahsulotlarni ayirboshlash orqali iste'mol etish bilan tugallanadi. Uning asosiy bo'g'ini ishlab chiqarish, ya'ni har xil mahsulot va xizmatlarni yaratishdir. Mehnat yaratgan ne'matlar iqtisodiy ne'matlar deyiladi. Ular tabiatdagi tekin ne'matlar (havo, quyosh nuri, suv) dan farq qiladi. Mahsulotlarni ayirboshlash va ularning iste'moli (ishlatilishi) ham iqtisodiy faoliyat tarkibiga kiradi, ishlab chiqarish tijorat (savdo-sotiq) orqali iste'mol bilan bog'lanadi. Iqtisodiy faoliyat turlari xilma-xil, lekin ular bir-birini, taqozo etadi.

Ishlab chiqarish bo'lmasa, kishilar hayot kechira olmaydi, albatta. Ammo kishilar yaratgan mahsulotlarini o'zaro ayirboshlash orqali iste'molni qondiradilar, bir-birlariga kerakli mahsulotlarni yetkazib beradilar.

Kishilar o'z ehtiyojlarini qondirmasa, ish qobiliyatlarini tiklay olmaydilar. Binobarin, iste'molsiz ishlab chiqarish ham bo'lmaydi. Ishlab chiqarish turlari g'oyat ko'p. Hozir dunyoda 25 million turdagi mahsulot va ularning butlovchi qismlari hamda detallari yaratiladi hamda aholiga turli xil xizmatlar ko'rsatiladi.

Ishlab chiqarish birlamchi faoliyat sifatida ikki turga bo'linadi:

**1. Moddiy ishlab chiqarish** – aniq moddiy shaklga ega mahsulotlarni (masalan, iste'mol buyumlari: yonilg'i, xomashyo, material, mashina va uskunalarni) yaratish, shuningdek, moddiy sohaga xizmat ko'rsatishni o'z ichiga oladi. Bunga sanoat, qishloq xo'jaligi, yuk transporti, qurilish, ombor xo'jaligi va aloqa kiradi.

**2. Nomoddiy ishlab chiqarish** – moddiy shaklga ega bo'lmagan, qo'l bilan ushlab, his etib bo'lmaydigan, ammo foydali xizmatlar ko'rsatish. Masalan, shifokor



yoki o'qituvchi xizmati moddiy ko'rinishda emas, lekin u hammaga zarur. Nomoddiy ishlab chiqarishga madaniyat, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport kabi sohalar kiradi.

Ayirboshlash faoliyatida mahsulotlar va xizmatlar yaratilmaydi, balki ular ma'lum miqdoriy nisbatda bir-biriga almashtiriladi. Bu jarayon ikki xil kechadi: biri – mahsulot ayirboshlash, ikkinchisi – tovar ayirboshlash.

Bir mahsulotning bevosita boshqasiga to'g'ridan-to'g'ri, lekin ma'lum miqdoriy nisbatda ayirboshlanishi barter deb yuritiladi.

Barter – ayirboshlashning qulay bo'lmagan, xolis usuli hisoblanadi. Bu usul oldi-berdi aloqalari izdan chiqqanda, pul shiddatli qadrsizlanganda qo'llaniladi. Me'yordagi iqtisodiyot sharoitda tovar ayirboshlashga amal qilinadi.

Bir mahsulotning boshqasiga pul vositasida va ma'lum narx asosida, ya'ni oldi - sotdi yo'li bilan ayirboshlanishi-tovar ayirboshlash deyiladi.

Tovar ayirboshlash bartyerdan farqliroq, tovarni oldin pulga, so'ngra pulni kerakli boshqa tovarga ayirboshlashni bildiradi. U hammabop, ya'ni universal ayirboshlashdir. Bu jarayonda pul ishtirok etadi, pulga xohlangan tovarni xohlagan joydan sotib olish mumkin.

*Tovar ayirboshlash* – oldi-sotdi, ayirboshlashning eng yuksak va qulay shakli.

*Iste'mol* – mahsulotni amalda, ya'ni ehtiyojni qondirish uchun ishlatish, demakdir. Mahsulotlar, birinchidan, tirikchilik uchun kishilarning o'zlari tomonidan iste'mol qilinadi, ikkinchidan, ishlab chiqarishni davom ettirish uchun uning o'zida ishlatiladi.

Iste'mol faoliyat sifatida yakka, oilaviy, guruhli yoki umummilliy iste'mol tarzida yuz beradi. Masalan, ko'ylakni har bir kishi yakka tartibda kiyadi, televizor, gilam yoki mebel oilaning birgalikdagi iste'molida bo'ladi. Maktab, kasalxona yoki bolalar bog'chasidagi asbob-anjomlar va jihozlar ham birgalikda ishlatiladi. Harbiy xizmat xavfsizlik xizmati yoki boshqa ma'muriy tashkilotlar xizmatidan ayrim kishilar yoki guruhlar emas, balki butun xalq bahramand bo'ladi. Xullas, mahsulot va xizmatlar har xil bo'lsada, iste'mol qilinadi. Ammo bundan qat'i nazar ular iste'mol etilgach, yana qayta yaratilishi lozim. Demak, ushbu qoida o'rinlidir: cheksiz ehtiyojni qondirish-uzluksiz iqtisodiy faoliyatni talab qiladi.

Iqtisodiy faoliyat yoki iqtisodiyot kishilarning ma'lum maqsad yo'lidagi xatti-harakatini bildiradi. Uning ishtirokchilari ayrim kishilar, oila, korxonalar, xo'jaliklar va davlatdir.

Iqtisodiyot ishtirokchilari *iqtisodiy subyektlar* deb ataladi. Ular o'zaro muntazam iqtisodiy aloqada bo'ladilar. Bu esa, ularning iqtisodiy munosabatlarida namoyon. O'zaro aloqasiz bo'ladi na ishlab chiqarish, na ayirboshlash, na iste'mol yuz beradi. Kimsasiz orolda Robinzon Kruzo kabi tanho xo'jalik yuritish faqat hikoyalarda bo'ladi. Amaldagi iqtisodiyot yo'lida esa hamma bir-biriga bog'liq bo'lishi zarurat hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, iqtisodiy faoliyat ishlab chiqarishdan boshlanadi. Har qanday ishlab chiqarishda *ikki omil* — *shaxsiy-insoniy va moddiy-ashyoviy* omillar ishtirok etadi.

*Shaxsiy-insoniy omil* — mehnat qilish qobiliyatidan iborat bo'lgan ishchi kuchi va uning faoliyatidir.

Shaxsiy-insoniy omil mehnatga layoqatli aholi, uning jismoniy va aqliy qobiliyati, bilim va saviyasi, malaka va mahoratidir. Bunday shaxslar O'zbekistonda 2010-yilda 12 million nafar edi. Bu omil insoniy qobiliyatga ega bo'lgani sababli inson shaxsi bilan birgalikda, undan ajralmagan holda namoyon bo'ladi va inson shaxsida gaudalanadi.

*Moddiy-ashyoviy omil* — ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan barcha oddiy shakldagi vositalardir.

Tadbirkorlik qobiliyati oddiy ishchi kuchidan farq qilib, ishlab chiqarishda boshqarishdan iborat bo'lgan alohida vazifani bajaradi. U tabiatan ishbilarmonlik hisoblanib, alohida bir iste'dod, yuksak bilim, maxsus tayyorgarlik va mas'uliyatning mujassamlashgan, ko'rinishi demakdir.

Tadbirkorlik qobiliyati moddiy omillar bilan birikmaydi, balki shu omillar bilan ishchi kuchining samarali birikishi, iqtisodiy faoliyatdan yaxshi natija olinishini ta'minlaydi.

Omillar birikishi tufayli olingan mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishning natijasi hisoblanadi. *Ishlab chiqarishda yaratilgan mahsulot ikki xil bo'ladi*: birinchisi — *tabiiy mahsulot* bo'lib, uni ishlab chiqaruvchining o'zi iste'mol qiladi. Bu mahsulot ayirboshlash uchun bozorga chiqarilmaydi. Masalan, fermer xo'jaligida yetishtirilgan donning bir qismi tabiiy mahsulot bo'lib, xo'jalikning o'zida molga yem yoki fermer oilasiga oziq-ovqat uchun ishlatiladi; ikkinchisi — *tovar shaklidagi mahsulot* bo'lib, ishlab chiqaruvchining o'z iste'moli uchun emas, balki bozorda sotish uchun yaratiladi. *Mahsulotni bozorda oldi-sotdi qilish uchun ishlab chiqarish tovar ishlab chiqarish deb yuritiladi. Mana shu tovar ishlab chiqarish bozor iqtisodiyotining asosidir. Bozorda sotish uchun chiqarilgan mahsulot va xizmatlar tovar deyiladi.*

Tovarning ikki xil xususiyati bor. Birinchidan, u kishilarning hayotiy ehtiyojini qondirib, ularga foyda keltiradi. Ikkinchidan, u boshqa tovarlarga almasha olish xususiyatiga egaki, bu uning almashuv qiymati deyiladi. Tovarning yaratilishidan tortib, uning iste'mol etilguncha bo'lgan jamiki mehnat sarfi *tovarning qiymatini* tashkil etadi. Ammo qiymatni aslo befoyda mehnat yaratmaydi. Agar mehnat kishilarga kerak bo'lgan mahsulotni yaratsa va me'yorida sarf etilgan bo'lsa, mana shunday mehnatni kishilar ma'qul topib, tan oladilar, ya'ni mahsulotni sotib oladilar. Shu tarzda zarur deb topilgan mehnat tovar qiymatini tashkil etadi.

Inson har doim farovon yashashga intilib kelgan. Buning uchun esa mahsulot va xizmatlarni ko'plab va sifatli ishlab chiqarish zarur. Resurslar kamyob bo'lganidan ularni tejab-tergab ishlatish kerak. Bu esa, o'z navbatida, mehnat unumdorligini oshirishni talab qiladi. *Mehnat unumdorligi-insonning vaqt birligida ma'lum miqdorda mahsulot va xizmatlarni yarata olishidir.* Mehnat unumdorligi ishlab chiqaruvchi vaqt birligida (masafan, bir soat, bir isht kun yoki bir yilda) qancha sifatli mahsulot yaratgani yoki mahsulot birligini (masalan, 1 metr gazlama, 1 m<sup>3</sup> gaz, 1 tonna paxta) ishlab chiqarish uchun qancha vaqt sarflagani bilan o'lchanadi.

Mehnat har xil bo'lgani uchun uning natijasini ketgan vaqt bilan o'lchash qiyin. Masalan, 1 tonna paxta, bug'doy, ko'mir yoki metall turli mahsulot bo'lganidan ularni ishlab chiqarish uchun ketgan vaqtni taqqoslab bo'lmaydi. Shu boisdan unumdorlik mahsulotni pul-qiymat shaklida hisoblab aniqlanadi. Misolga qaytsak, 1 tonna paxta 100 ming so'm, ko'mir 2 ming so'm, bug'doy 30 ming so'm turadi. Shunga qarab,

yaratilgan mahsulot pulga chaqiladi. Pulda hisoblangan mahsulotni ishlovchilar soniga bo'lsak, mehnat unumdorligi kelib chiqadi.

Agar ko'mir konida 1000 kishi ishlab, bir yilda 2 million tonna toshko'mir qazib olgan bo'lsa, jami ko'mir 4 mlrd. so'm bo'ladi. Bunda har bir ishchi yiliga 4 mln. so'm ko'mir qazib olgan bo'ladi. Xullas, unumdorlikni aniqlash uchun yaratilgan mahsulot ishlovchilar soniga bo'linadi. Unumdorlik soatlar bo'yicha hisoblanganda yaratilgan mahsulot ishlangan soatlarga bo'linadi.

#### **Mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillarni uchga bo'lish mumkin:**

1. *Ishlab chiqarishning texnik-texnologik darajasi.* Texnika qanchalik mukammal bo'lsa, mehnat unumdorligi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

2. *Shaxsiy-insoniy omilning sifati.* Agar ishlovchilarning bilim darajasi, ish malakasi va tajribasi yuqori bo'lsa, unumdorlik ortadi yoki aksincha.

3. *Ishlab chiqarishning tabiiy sharoiti.* Bu sharoit qanchalik qulay bo'lsa, unumdorlik shunchalik yuqori bo'ladi. Tabiiy sharoitni inson o'zgartira olmaydi, ammo texnikani mukammallashtirish orqali noqulay tabiiy sharoitda ham unumdorlikni oshirish mumkin. Mehnat unumdorligining muttasil oshib borishi iqtisodiyotga xos qonuniyatdir. Shu tufayli resurslar cheklangan bo'lishiga qaramay, mahsulot ko'payib boradi.

Mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillar moddiy shakli jihatidan mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish vositalari (moddiy resurslar) va iste'mol buyumlaridan iborat bo'ladi.

Ishlab chiqarish biror korxonada doirasida, shuningdek, mamlakat miqyosida olib boriladi. Ayrim ishlab chiqaruvchi yoki korxonada yaratgan mahsulot individual mahsulot hisoblanadi, jamiyatdagi barcha kishilarning iqtisodiy faoliyati esa yalpi milliy mahsulotni (YAMM) yaratadi.

*Yalpi milliy mahsulot – bir yil davomida yaratilgan va bozor narxida hisoblangan barcha mahsulot va xizmatlardir.*

Aholi jon boshiga yaratilgan YAMM miqdori iqtisodiyotning qanday rivojlanganligini bildiradi. Bu ko'rsatkich qanchalik yuqori bo'lsa, mamlakat shunchalik boy hisoblanadi va uning fuqarolari farovon yashaydi. Masalan, 1993-yilda Yaponiyada aholi jon boshiga yaratilgan YAMM 31,4 ming dollar bo'ldi, Bangladeshda bu ko'rsatkich 220 dollarga to'g'ri keldi. Demak, Yaponiya boy, Bangladesh esa kambag'al mamlakat.

Iqtisodiyot mikro va makrodarajada o'rganiladi. Birinchisi — mikroiqtisodiyot. Bu sektor (tarmoq) firma va ayrim uy xo'jaliklari (oilalar va oilasiz kishilar) doirasidagi iqtisodiy faoliyat bo'lib, uning asosiy elementi firma (korxonada) hisoblanadi. Ikkinchisi — makroiqtisodiyot, butun xalq xo'jaligi miqyosida milliy doiradagi jamiki iqtisodiy faoliyatdir. Mikroiqtisodiyotning barcha turlari o'zaro bog'lanib, bir-birini taqozo etuvchi yaxlit faoliyatni hosil qilganda makroiqtisodiyot vujudga keladi. Makroiqtisodiyotning asosini ijtimoiy ishlab chiqarish tashkil etadi.

#### **Qisqacha xulosalar**

Sharq bozori o'zining qadimiyligi, g'arb bozoridan ancha oldin taraqqiy etganligi bilan e'tiborni tortadi. Sotuvchilar bilan xaridorlarning o'zaro manfaatli aloqasi asosida yuzaga kelgan bozor qancha turga bo'linmasin, ixtisoslashmasin, baribir, u iqtisodiy

aloqalarni o'rnatishga xizmat qiladi. Erkin bozorda xaridor va sotuvchilar tanlovi ularning saralanishiga va kuchlilari monopol bozorni tashkil etishiga olib keladi.

Bozorga g'oyat xilma-xil tovar va xizmatlar chiqariladi. Ular bozor obyektiga, aniqrog'i, obyektii jihatidan bozor turlarga bo'linadi.

#### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Bozor deganda nima tushuniladi?
2. Kim bozor ishtirokchisi hisoblanadi?
3. Bozor qanday vazifalarni bajaradi?
4. Erkin va monopolik bozor qanday farqlanadi?
5. Bozor turlari bir-biridan nimasi bilan farqlanadi?
6. Erkin bozor deganda nimani tushunasiz?
7. Monopol bozor deb nimaga aytiladi?
8. Oligopolistik bozor deb nimaga aytiladi?
9. Sof monopoliya bozori qanday bozor?
10. Qurol-aslaha bozori intellektual tovarlar bozoridan nimasi bilan farq qiladi?

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. Karimov I. "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi"//Xalq so'zi, 2014-liy 18-yanvar.

2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. - T.: O'zbekiston, 2011-y, - 421b.

3. Yo'ldoshev Z. Milliy iqtisodiyot.-T.: Mehnat, 2004,168-b.

4. Ishmuxamedov A.E. O'zbekiston milliy iqtisodiyoti. Darslik – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005-y, 304-b.

5. Ishmuxamedov A.E. va boshqalar. Makroiqtisodiyot. Darslik – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005-y 192-b.

6. Tuxliyev N. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. - 280 b.

7. Mustaqillik yillarida O'zbekiston iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlari, muammolar va yechimlar. 1,2,3. Tom. TDIU. - T.: 2011.

8. Internet veb-saytlari.

[www.gov.uz](http://www.gov.uz).

[www.bearingpoint.uz](http://www.bearingpoint.uz).

[www.stat.uz](http://www.stat.uz).

[www.micro-macroiqtisodiyot.fan.uz](http://www.micro-macroiqtisodiyot.fan.uz)

## 2-bob. MILLIY IQTISODIYOT VA UNI TASVIRLOVCHI ASOSIY KO'SATKICHLAR

### 2.1. Milliy iqtisodiyotda "Makroiqtisodiyot" va "Mikroiqtisodiyot" tushunchalari

Jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy faoliyatini o'rganish va yuritishda asosiy muammoga duch kelish mumkin. Bu muammo, avvalo, tabiat bizga in'om etgan resurslarning chegaralanganligida namoyon bo'ladi. Demak, insoniyat ulardan xohlaganicha foydalanish imkoniyatiga ega emas. Shunday ekan, faoliyat uchun moddiy ne'matlar yaratish jarayonlarini o'rganib chiqish zarur. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiyotni o'rganish, demakdir. Iqtisodiyot nafaqat uy xo'jaligini, balki hududlar, mamlakatlar va hattoki jahon xo'jaligini yuritish san'ati bilan ham shug'ullanmoqda. Ishlab chiqarish sohaslarida xo'jalik yuritishning korxonalar, korporatsiyalar, qo'shma korxonalar, firmalar kabi ko'plab shakllari tashkil etilayotgani va faoliyat ko'rsatayotganligi ham fikrimizning yaqqol isbotidir.

Iqtisodiyot keng va chuqur ma'noli muammolarni o'rganadi. Iqtisodchilar o'rganadigan muammolar va amalga oshiradigan vazifalarga quyidagicha muxtasar ta'rif berish mumkin: birinchidan, inson chegaralangan imkoniyatlar doirasida yashaydi. Uning aqliy va jismoniy imkoniyatlari, vaqt, mablag' va boshqa barcha resurslari chegaralangan. Vaqtning chegaralanganligi u yoki bu ishlab chiqarish ma'lum muddat davomida yuritilishini taqozo etadi. Mablag'larning chegaralanganligi esa, u yoki bu maqsadning amalga oshirilishini moliyaviy jihatdan mushkullashtiradi.

Demak, shaxs va jamiyat farovonligi chegaralangan imkoniyatlardan oqilona foydalanish bilan bog'liq. Shunday ekan, resurslarning chegaralanganligini iqtisodiy o'rganish umumiy ahamiyatga ega. Buning ma'nosi shuki, barchaning ehtiyojlarini bir vaqtning o'zida qondirib bo'lmaydi. Agar resurslar chegaralanmaganda edi, maqsadlarga erishish va mahsulotlarni iste'molchilarga samarali taqsimlash bilan shug'ullanishga zarurat bo'lmagan bo'lar edi.

Bugungi kunda mavjud bo'lgan inflyatsiya, ishsizlik, harbiy xarajatlar, budget kamomadi, qashshoqlik va tengsizlik, atrof-muhitning ifloslanishi, biznesni davlat tomonidan tartibga solish va shu kabilar tub mohiyati jihatidan chegaralangan resurslardan samarali foydalanish muammosi hal etilishi zarur ekanligini anglatadi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, shaxs, korxonalar, hudud, mamlakat va hatto xalqaro miqyoslarda ham iqtisodiyot bilan shug'ullanish hayotiy zaruratdir.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan muammolarni vaqtida va joy-joyida hal etish masalalarini tadqiq qilish bilan ko'pgina iqtisodiy fanlar qatori mikro va makroiqtisodiyot fanlari ham bevosita shug'ullanadi. Masalan, biror mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun har xil qaror va qonunlar qabul qilishda iqtisodchilar ikki xil tahlil – mikro va makrotahlil natijalariga asoslanadilar.

Mikroiqtisodiy yondashuv yoki mikroiqtisod – muayyan iqtisodiy birlikni ta'liq tahlil qilishdir. Sodaroq qilib aytganda, mikroiqtisodiyot birorta ishlab chiqarish korxonasini o'rganish, ya'ni korxonaning ichki (insonlar, ishlab chiqarish vositalari, kapital va ma'lumotlar bilan ta'minlanganlik darajasi) va tashqi (ma'muriy va markaziy boshqaruv tashkilotlari, iste'molchilar, ishlab chiqarish komponentlarini yetkazib beruvchilar va aholi yashash joylariga uzoq-yaqinligi) omillar, ishlab chiqargan

mahsulotlarining xarajatlari, foydasi, tushumi, to'lanadigan soliqlar va shuningdek, korxonada faoliyati bilan bog'liq bo'lgan boshqa jarayonlarni to'liq o'rganishdan, yanada qisqacha izohlaganda resurslar, tovarlar va daromadlar doiraviy aylanishini alohida olingan korxonada, tarmoq, hudud darajasida o'rganishdan iborat.

Makroiqtisodiyot esa keng ko'lamdagi iqtisodiyot bilan shug'ullanadi. Uning obyektini milliy iqtisodiyot ko'lamida yalpi ishlab chiqarish, ish bilan bandlik, baholarning umumiy darajasi va tashqi savdo, inflyatsiya, ya'ni resurslar, tovarlar va daromadlar doiraviy aylanishi hisoblanadi. Jahon xo'jaligi rivoji va fan-texnika taraqqiyotining hozirgi davrida barcha mamlakatlar iqtisodiyoti bir-biri bilan uzviy bog'lanib ketgan. Bu mamlakatlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va mudofaa qobiliyati esa ko'p jihatdan ulardagi makroiqtisodiy vaziyat bilan bog'liq. Xullas, makroiqtisodiyot murakkab va ko'p qirrali masalalarni o'z ichiga oladi.

Mamlakat iqtisodiyoti va yalpi ishlab chiqarishning o'sishi, pasayishi, turg'unlik davrlarini iqtisodiy tahlil qiladi va uni tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini yaratadi.


Mavjud resurslardan maqsadga muvofiq foydalanish hamda iqtisodiy o'sish taqozo etadigan shart-sharoitlarni muvaffaqiyat bilan yaratish uchun iqtisodchi makroiqtisodiy jarayonlar tahlilini, iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilishi, iqtisodiy jihatdan to'g'ri xulosalar chiqarish hamda ularning to'g'ri va asosli ekanini isbotlab bera olishi lozim. Nisbatan kengroq bo'lgan amaliy iqtisod fani sifatida «Makroiqtisodiyot» kursining ahamiyati shundaki, u iqtisodiy yo'nalishdagi boshqa fanlar jamlanmasi xizmatini o'taydi hamda ularni bilishga tayanadi, shuningdek, korporatsiyalar, uy xo'jaliklari va hukumatning o'zaro manfaatlariga taalluqli ko'pgina masalalarni yechishda to'g'ri yo'nalishlar beradi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan muammolarni o'rganish «Makroiqtisodiyot» fanining predmeti hisoblanadi.

«Makroiqtisodiyot» o'quv fani sifatida iqtisodiy yo'nalishdagi boshqa fanlar, ayniqsa, «Mikroiqtisodiyot», «Iqtisodiy matematika», «Iqtisodiy kibernetika», «Tarmoqlararo balans», «Loyihalar tahlili», «Milliy iqtisodiyot» kabi ko'pgina fanlar bilan chambarchas bog'langan. Chunki, ularning barchasi uchun iqtisodiyot yagona tadqiqot objekti bo'lib xizmat qiladi.

Iqtisodchilar, «Makroiqtisodiyot»ning boshqa iqtisodiy fanlar bilan aloqalarini rivojlantirish yo'llarini tadqiq qilishda insonlarning samarali harakati gipotezasidan foydalanishadi. Insonlarning samarali harakati – chegaralangan imkoniyatlar sharoitida ularning yuqori samaraga erishishi uchun qiladigan xatti-harakatidir. Unda: ishchi xodim **ish haqining** yuqori bo'lishi orqali o'z ehtiyojini to'liq qondirishga; korxonada yuqori foyda olishiga; davlat esa **aholining ijtimoiy farovonligini** oshirishga harakat qiladi.

Insonlarning samarali harakati – tabiiy harakatdir. Ularning obyektiv kuchlari majmuasidan ilmiy foydalanish ulkan iqtisodiy muammolardan biridir. Insonlarning samarali harakati ularning «mustaqil xohishlari»dan kelib chiqadi. Masalan, har bir inson o'z harakatining samarali bo'lishini ko'zlaydi, yaxshi, moddiy va ma'naviy boy yashashni istaydi va bu maqsadlarga intiladi. Barcha xohish-istaklarni o'rganish, resurslar, vaqt va inson harakatining chegaralanganligi doimo bir nechta masala hal qilinishini taqozo etadi. Bu masalalar esa makro va mikroiqtisodiyot muammolaridir. Demak, «Makroiqtisodiyot» iqtisodiy yo'nalishdagi boshqa fanlar kabi mamlakat

iqtisodiyotini rivojlantirish yo'llarini, shuningdek, xalqaro iqtisodiyotni rivojlantirish muammolarini o'rganadi.



2.1-rasm. Sof bozor iqtisodiyoti sharoiti resurslar, mahsulotlar, daromadlar va xarajatlarning doiraviy aylanishi.

Har qanday, mamlakat xalqaro iqtisodiy integratsiyada ishtirok etib, biror mahsulotni eksport, import qiladi. Ya'ni, har bir mamlakat o'z ichki va xalqaro ehtiyojlarini qondirish uchun milliy iqtisodiyot miqyosida **nima, qanday, qancha va kim uchun** ishlab chiqarish kerak hamda mamlakat iqtisodiy tizimi bo'layotgan o'zgarishlarga tayyormi, degan savollar bilan bog'liq muammolarni hal qilishi lozim.


Uy xo'jaliklari ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan barcha iqtisodiy resurslarni resurslar bozoriga yetkazib beradilar, korxonalar esa bu resurslarni sotib olib, turli xil mahsulotlarga, xizmatlarga aylantiradilar, so'ngra esa ularni tayyor mahsulotlar va xizmatlar bozoriga yetkazib beradilar. Ayni paytda resurslar, tovarlar va xizmatlar harakati bilan yonma-yon daromadlarning ham doiraviy aylanishi amalga oshiriladi.

Uy xo'jaliklari o'zlarini yetkazib bergan iqtisodiy resurslar evaziga daromad olishadi hamda ularni tovarlar va xizmatlar iste'mol qilish uchun sarflaydilar yoki aksincha, korxonalar resurslar uchun sarf-xarajatlarni qiladilar hamda tayyor mahsulotlarni sotish evaziga daromad oladilar. Bu yerda barcha ishlab chiqarish va ayirboshlash jarayonlari faqat bozor orqali boshqariladi, boshqacha aytganda, resurslar, tovarlar va xizmatlar bozorida shakllangan talab hamda taklif yordamida boshqariladi.

Iqtisodiyotda faqat baho yoki faqat davlat rejasi ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonlarining bir tekis kechishini ta'minlashga qodir emas. Bozor tizimida doimo takrorlanib turadigan iqtisodiy inqirozlar va rejali tizimning yemirilishi buni yaqqol



namoyon etdi. Shu bilan birga tartibga solishning bozor va reja mexanizmlaridan birgalikda foydalanishga asoslangan aralash iqtisodiy tizimning hayotiyiligini jahon amaliyoti tasdiqladi.



## 2.2-rasm. Resurslar, mahsulotlar, daromadlar va xarajatlarning aralash iqtisodiy tizimdagi doiraviy aylanishi.

2.2-rasmdan ko'rinib turibdiki, resurslar, tovarlar va daromadlarning uzluksiz harakati ham bozor orqali, ham davlat aralashuvi bilan ta'minlanadi. Bunda hukumat ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning harakatini bevosita boshqarmaydi, balki resurslar va tovarlar bozorlarida qatnashish orqali ularning iqtisodiy faoliyatiga qulay sharoitlar yaratadi.

Bunda:

- |  |                                |
|--|--------------------------------|
| 1. Yer, mehnat, kapital.                           | 9. Iste'mol xarajatlari.       |
| 2. Resurslar.                                      | 10. Sotishdan tushgan daromad. |
| 3. Tovar va xizmatlar.                             | 11. Resurs xarajatlari.        |
| 4. Tovar va xizmatlar.                             | 12. Soliqlar.                  |
| 5. Resurslar.                                      | 13. Soliqlar.                  |
| 6. Tovar va xizmatlar.                             | 14. Xarajatlar.                |
| 7. Transfertlar.                                   | 15. Xarajatlar.                |
| 8. Pul daromadlari (ish haqi, renta, foiz, foyda). | 16. Subsidiyalar.              |

## 2.2. Milliy iqtisodiyotda resurslar, mahsulotlar, daromadlar va xarajatlarning doiraviy aylanishi

Har bir mamlakat xalqaro iqtisodiy aloqalarga kirishadi. Bu jarayonda boshqa davlatlar bilan tovarlar, xizmatlar, axborotlar, kapital va ishchi kuchlarini o'zaro ayirboshlaydi. Mamlakat iqtisodiyotining ochiqlik darajasi bunday aloqalarning rivojlanish ko'lamiga qarab aniqlanadi.

Ochiq iqtisodiyot shunday iqtisodiyotki, unda mamlakatning barcha fuqarolari xalqaro tovar va kapital bozorida oldi-berdilarni cheklanmagan holda amalga oshirishlari mumkin. Biroq, shunday mamlakatlar ham borki, ular o'z qobig'iga o'ralib qolgan. Masalan, sobiq SSSR ikkinchi jahon urushiga qadar shunday holatda edi.

Xalqaro savdoda ishtirok etmaydigan iqtisodiyot yopiq iqtisodiyot deb ataladi. Ta'kidlash lozimki, hozirgi davrda bunday iqtisodiyotga ega davlat mavjud emas. Ammo, makroiqtisodiy tahlil va istiqbolni belgilashda foydalaniladigan modellarda shartli tarzda bunday mavhumliklarga yo'l qo'yiladi. Yopiq iqtisodiyot modelida tovarlar, xizmatlar va kapital oqimlari milliy chegaralardan tashqariga chiqmaydi hamda unda asosiy makroiqtisodiy ayniyat quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$U=S+I+G$$

Bunda: U – milliy mahsulot, daromad;

S – uy xo'jaliklarining o'z mamlakatidagi mahsulotlarni xarid qilishga sarflagan iste'mol xarajatlari;

I – shu mamlakat ishlab chiqaruvchilarining o'z mamlakati investitsiya tovarlariga xarajatlari;

G – davlat tomonidan o'z mamlakati tovar va xizmatlarini xarid qilish.

Ochiq iqtisodiyotda mamlakatlar o'rtasida o'zaro aloqalar mavjud va u milliy iqtisodiyotda tovar va daromad harakatida namoyon bo'ladi. Asosiy iqtisodiy tenglikka qo'shimcha ko'rsatkich kiritilsa, u quyidagi ko'rinishni oladi:

$$U = S + I + G + X_n$$

Bunda:  $X_n$  - xorijliklarning shu mamlakat ichkarisida ishlab chiqargan tovar va xizmatlarga qilgan xarajatlari bilan xorijda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarga ichki xarajatlar o'rtasidagi, qisqacha aytganda, eksport va import o'rtasidagi farq. Iqtisodiy adabiyotlarda bu ko'rsatkich sof eksport deb yuritiladi.

### 2.3. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va ularni hisoblash

Mamlakatni makroiqtisodiy tahlil qilish, milliy iqtisodiyot rivojlanishidagi muammolarni aniqlash hamda uni yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish uchun Milliy hisobchilik tizimida hisoblanadigan bir qator ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Bu ko'rsatkichlarning asosiylaridan biri yalpi milliy mahsulot (YAMM) yoki uning modifikatsiyasi bo'lgan yalpi ichki mahsulot (YAIM) hisoblanadi.

YAMM ni hisoblash usullarini o'rganishdan oldin makroiqtisodiy holatni aks ettiruvchi asosiy ko'rsatkichlarga to'xtalib o'tamiz. Bu ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

– YAMM, YAIM, sof milliy mahsulot (SMM), milliy daromad (MD), shaxsiy daromad (SHD), ixtiyordagi daromad (ID);

– davlat budgeti taqchilligi, deflyator, iste'mol baholari indeksi, inflyatsiyaning o'sish sur'atlari;

– ishsizlik darajasi va ishsizlar soni, aholining ish bilan bandlik darajasi;

– aholining moddiy ne'matlar va xizmatlar iste'moli hajmi, ularning jamg'armalari, ish haqining quyi miqdori va boshqalar.

Bu ko'rsatkichlar iqtisodiy tizimning umumiy holatini turlicha ifodalab, ijtimoiy ishlab chiqarishda barcha qatnashuvchilar (korxonalar, tarmoqlar, mintaqalar, davlat) va uy xo'jaligi faoliyatlarining natijalari asosida aniqlanadi.

YAMM mamlakat rezidentlari tomonidan ma'lum muddat (bir chorak, bir yil) davomida ishlab chiqarilgan yakuniy tovar va xizmatlar umumiy hajmining bozor bahosi yig'indisi orqali aniqlanadi.

YAMMni hisoblashda quyidagi shartlarga amal qilinadi:

Birinchidan, YAMM yil davomida ishlab chiqarilgan barcha yakuniy tovar va xizmatlar bozor qiymatini, ular sotilgan va sotilmaganiga qaramasdan o'z ichiga oladi. Bilamizki, hisobot yilida ishlab chiqarilgan barcha mahsulotlar ham sotilmaydi. Sotilmay qolgan tovarlar zaxiralarni to'ldiradi. Zaxiralarni to'ldirishga ketgan har qanday mahsulot YAMMni hisoblashda hisobga olinishi lozim.

Ikkinchidan, YAMM tovarlar va xizmatlarning bozor qiymati orqali o'lchanadi va qiymat (pul) ko'rsatkichi hisoblanadi.

Iqtisodiyotda yaratilayotgan minglab tovarlar va xizmatlar turli tabiiy o'lchov birliklariga ega (gaz – m<sup>3</sup>, neft – tonna, gazlama – m<sup>2</sup>) bo'lgani uchun ham ular umumiy hajmini faqat qiymat ko'rinishida jamlash mumkin. Shuningdek, YAMMni hisoblashda omil baholari emas, balki sotish (bozor) bahosi (omil bahosi Q bilvosita soliqlar) asos bo'ladi.

Uchinchidan, YAMM yakuniy tovar va xizmatlarning bozor bahosini o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish hajmini to'g'ri hisoblash uchun joriy yilda ishlab chiqarilgan tovar va ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bir marta hisobga olinishi kerak. Ko'pgina mahsulotlar bozorga borguncha bir nechta ishlab chiqarish bosqichini o'taydi. Shu sababli YAMMda ayrim mahsulotlarni ikki va undan ko'p marta hisobga olmaslik uchun faqat pirovard mahsulotning bozor qiymati hisobga olinadi, oraliq mahsulotlar esa hisobga olinmaydi.

**Pirovard mahsulot**-yakuniy iste'mol uchun sotib olinadigan tugal mahsulot (tovar va xizmat)dir.

**Oraliq mahsulot** deganda, qayta ishlash yoki sotish uchun sotib olingan tovar va xizmatlar tushuniladi. YAMMda mahsulotlarning oxirgi sotish qiymati hisobga olinadi, oraliq qiymat esa hisobga olinmaydi. Chunki oraliq qiymat YAMM tarkibiga kiritilsa, ayrim mahsulotlar qiymati ko'p marta hisobga olingan bo'lar edi. YAMMni hisoblashda ikki marta hisobga olmaslik uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlarni har tomonlama o'rganib chiqish va faqat har bir ishlab chiqarish bosqichida yaratilgan qo'shilgan qiymatni hisobga olish zarur. **Qo'shilgan qiymat**-tovar va xizmatlarning sotish bahosidan ularni ishlab chiqarish uchun sotib olingan xomashyo va materiallar qiymati ayirib tashlanib topiladi. YAMMni qo'shilgan qiymatlar ko'rinishida aniqlash usuliga **ishlab chiqarish usuli** deyiladi. Buni 2.1-jadval yordamida ko'rish mumkin.

To'rtinchidan, YAMMga noishlab chiqarish bitimlari bo'yicha tushumlar qo'shilmaydi. Noishlab chiqarish bitimlariga sof moliyaviy bitimlar va ishlatilgan tovarlarni sotish kiradi.

Moliyaviy bitimlar, o'z navbatida, uchta asosiy turga bo'linadi: davlat budjetidan transfert to'lovlari, xususiy transfert to'lovlar va qimmatli qog'ozlarni sotish bo'yicha bitimlar.

2.1-jadval

**Besh bosqichli ishlab chiqarish jarayonida qo'shilgan qiymat ko'rinishida YAMM ni hisoblash usuli**

Ishlab chiqarish bosqichi	Mahsulotlarning sotish bahosi, so'm	Qo'shilgan qiymat, so'm
Firma A. Qo'ychilik fermasi	60	60(60-0)
Firma B. Junni qayta ishlash korxonasi	100	40(100-60)
Firma V. Kostyum ishlab chiqarish firmasi	125	25(125-100)
Firma G. Buyumlarni ulgurji narxda sotuvchi korxonasi	175	25(125-100)
Firma D. Buyumlarni chakana narxda sotuvchi korxonasi	250	75(250-175)
Umumiy sotuv hajmi	710	-
Qo'shilgan qiymat		250

Davlat budjetidan transfert to'lovlariga ijtimoiy sug'urta bo'yicha to'lovlar, ishsizlarga va nafaqaxo'rlarga, nogironlarga va kam daromadli oilalarga beriladigan nafaqalar, talabalarga beriladigan stipendiyalar kiradi. Davlat transfert to'lovlarining asosiy xususiyati shundaki, transfert evaziga uni oluvchilar davlatga hech narsa bermaydi.

Xususiy transfert to'lovlariga talabalarga ota-onasi beradigan pul va boy qarindosh-urug'lari beradigan bir martalik to'lovlar misol bo'ladi.

Qimmatli qog'ozlar (aksiya va obligatsiyalar) sotilganda iqtisodiyotda tovarlar va xizmatlar hajmi ko'paymaydi, aksincha mulk egasi o'zgaradi. Ishlatilgan tovarlarni sotish ham YAMM tarkibiga kiritilmaydi, chunki, bunday tovarlar va umuman, ilgari mavjud bo'lgan tovarlar ishlab chiqarilgan vaqtda bir marta hisobga olib bo'lingan.

YAMM ni hisoblashda ikki tomonlama yondashiladi. Birinchi yondashuvda YAMM iste'molchilarning yangidan yaratilgan yakuniy mahsulotlarini sotib olishga ketgan barcha xarajatlari miqdori bo'yicha aniqlanadi. Bu usul YAMM ni hisoblashning xarajatlar usuli deyiladi. Ikkinchi yondashuvda esa YAMM tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan daromadlarning yig'indisi miqdori asosida aniqlanadi. Bu usul YAMM ni daromadlar yordamida aniqlash usuli deyiladi.

YAMM ni ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha hisoblashda asosan pirovard mahsulot va xizmatlarni yaratishga ketgan barcha xarajatlar hisobga olinadi. Bularga uy xo'jaligi iste'moli xarajatlari, yalpi ichki investitsiya xarajatlari kiradi.

**YAMMni ikki xil usulda – ishlab chiqarish xarajatlari va daromadlari bo'yicha aniqlash**

Ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha	Ishlab chiqarishdan olingan daromadlar bo'yicha
1. Uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari.	1. Daromadlarni to'lash bilan bog'liq bo'lmagan xarajat va to'lovlar (amortizatsiya va biznesga bilvosita soliqlar).
2. Biznesga investitsiya xarajatlari yoki yalpi ichki xususiy investitsiya .	2. Ish haqi.
3. Tovar va xizmatlarning davlat xaridi.	3. Renta to'lovlari.
4. Sof eksport.	4. Foiz.
	5. Individual mulkdan olingan daromad.
	6. Korporatsiya foydasi.

**Uy xo'jaligining iste'mol xarajatlari (S):**

- a) uzoq muddat foydalaniladigan iste'mol buyumlari sotib olish;
- b) kundalik foydalaniladigan iste'mol buyumlari sotib olish;
- v) iste'mol xizmatlari to'loviga ketadigan xarajatlar.

**Yalpi ichki xususiy investitsiya xarajatlari (I):**

- a) asbob-uskunalar, mashinalarni yakuniy sotib olish xarajatlari;
- b) korxonalar, inshootlar, turar-joy binolarini qurishga sarflangan xarajatlar;
- v) tovar zaxiralari o'rtasidagi farqlar yoki zaxiralarning o'zgarishlaridan iborat bo'ladi.

**Tovar va xizmatlarning davlat xaridi (G)** bo'yicha xarajatlarga mahalliy va markaziy boshqaruv hokimiyati idoralari tomonidan korxonalarining pirovard mahsulotlari va resurslari xaridi (avtomobil yo'llari va pochta muassasalari qurilishi, davlat korxonalarida to'lanadigan ish haqi) xarajatlari kiritiladi. Lekin shu o'rinda ta'kidlash lozimki, bu xarajatlarga davlat transfert to'lovlari kiritilmaydi.

**Sof eksport (Xp)** – mamlakatning import va eksport operatsiyalari bo'yicha xarajatlar o'rtasidagi farq.

Shunday qilib, YAMM ni xarajatlar orqali hisoblash asosan yuqorida ko'rsatib o'tilgan 4 guruh xarajatlar asosida yuritiladi. Buni formula ko'rinishida quyidagicha ifodalash mumkin:

$$YAMM = S + I + G + Xp$$

YAMM ni ishlab chiqaruvchilarning barcha daromadlari yig'indisi ko'rinishida hisoblashda asosan quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

– **iste'mol qilingan kapital hajmi (SSA) yoki amortizatsiya (A)**, ya'ni, joriy yildagi YAMM ni ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan investitsiya tovarlarini sotib olishga mo'ljallangan ajratmalar;

– **biznesga egri soliqlar (T)** – mahsulot bahosini oshiruvchi, ishlab chiqarishga bog'liq bo'lmagan xarajatlar, jumladan, qo'shimcha qiymat solig'i, aksizlar, litsenziya to'lovlari va bojxona bojlari;

yollanma ishchilarning ish haqlari (W), ya'ni xususiy va davlat kompaniyalarining ish haqini to'lashga sarflagan umumiy xarajatlari (ish haqi va ijtimoiy sug'urta ajratmalari – nafaqa, bandlik va boshqa ijtimoiy fondlarga);

2.3-jadval

Yalpi milliy mahsulotni aniqlashga ikki xil yondashuv

№	YAMM ni tovar va xizmatlar sotib olishga mo'ljallangan barcha xarajatlar bo'yicha o'lchash	Shartli belgilar	Miqdor
1.	Uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari	S	63,0
2.	Biznesga investitsiya xarajatlari yoki yalpi ichki xususiy investitsiyalar	I	18,0
3.	Tovar va xizmatlarning davlat xaridi	G	21,0
4.	Sof eksport	Xp	-2,0
	Jami: $YAMM = S + I + G + Xp$	Y	100,0
	YAMM ni barcha daromadlar bo'yicha o'lchash		
1.	Iste'mol qilingan kapital hajmi	A	9,0
2.	Biznesga egri soliqlar	T	7,0
3.	Yo'llanma ishchilarning ish haqlari va ijtimoiy sug'urta ajratmalari	W	61,0
4.	Ijara haqi	$R_1$	1,0
5.	Foiz stavkasi	$R_2$	7,0
6.	Individual mulkdan olinadigan daromadlar	$P_1$	6,0
7.	Korporatsiyalar foydasiga soliqlar	$R_{2,1}$	5,0
8.	Dividendlar	$P_{2,2}$	2,0
9.	Taqsimlanmaydigan foydalar	$P_{2,3}$	2,0
	Jami: $YAMM = A + T + W + R + R_1 + P_1 + P_{2,1} + P_{2,2} + P_{2,3}$	Y	100,0

– **ijara haqi ( $R_1$ )**, xususan, iqtisodiyotni mulk resurslari bilan ta'minlovchi uy xo'jaliklarining daromadlari (masalan, ijaraga berilgan turar-joylar, binolar, asbob-uskunalar, yer va boshqalardan olinadigan daromadlar);

– **foiz stavkalari yoki foizli daromadlar ( $R$ )** – pul kapitalini yetkazib beruvchilarga xususiy biznes daromadidan pul to'lovlari;

– individual mulkdan keladigan daromad ( $R_1$ );

– korporatsiya foydasi ( $R_2$ ).

Korporatsiyalarning foydasi quyidagilarga bo'linadi:

a) korporatsiya foydasiga soliq yoki foyda solig'i;

b) hissadorlar o'rtasida taqsimlanadigan dividendlar;

v) taqsimlanmagan foyda.

Mamlakat milliy hisobchilik tizimida, YAMM ko'rsatkichidan tashqari, bir-biri bilan aloqada bo'lgan bir nechta ko'rsatkichlar mavjud. Milliy hisobchilik tizimi to'g'risidagi tushunchalarimizni kengaytirish uchun aynan shu ko'rsatkichlarning tashkil topish manbalarini bilish lozim. Bu ko'rsatkichlar sirasiga YAIM, SMM, MD,

ixtiyordagi daromad va soliqlar to'langandan keyingi daromadlarni ifodalovchi ko'rsatkichlarni kiritish mumkin.

YAIM ham YAMM kabi moddiy ishlab chiqarish va xizmatlar natijasida tashkil topadi.

YAIM biror mamlakat hududida joylashgan korxonada va tashkilotda ma'lum muddat davomida ishlab chiqarilgan pirovard tovar va xizmatlar bozor baholarining umumiy yig'indisidan iborat. YAIM-YAMMdanda muayyan mamlakat yuridik va jismoniy shaxslarining xorijdan oladigan foyda va daromadlari hamda xorijiy investorlar shu mamlakatdan olgan foyda va daromad o'rtasidagi farqlar bo'yicha ajralib turadi.

Chunonchi, YAMM ni hisoblashda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yilishi tabiiy. Chunki hisobot yilida ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot miqdoriga shu mahsulotni ishlab chiqarishda iste'mol qilingan asosiy ishlab chiqarish vositalari qiymati qo'shiladi. Shuning uchun ham milliy hisobchilik tizimida SMM ko'rsatkichi hisoblanadi. SMM ning YAMM dan farqi, yuqorida takidlanganidek, amortizatsiya ajratmalari miqdoriga teng.

MD – milliy ishlab chiqarishdan olingan daromad yoki ijtimoiy ishlab chiqarishdagi barcha daromad turlarining yig'indisidir. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, davlat o'zi oladigan biznesga egri soliqlar o'rniga ishlab chiqarishga hech narsa qo'ymaydi. Demak, joriy yilda yaratilgan YAMM tarkibidan ish haqi, renta to'lovlari, feiz va olingan foydalarning umumiy miqdorini aniqlashda SMM tarkibidan biznesga egri soliqlar miqdori olib tashlanishi lozim.

#### 2.4-jadval

##### Milliy hisobchilik tizimida o'lchanadigan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zaro nisbatlari (raqamlar shartli)

Ko'rsatkichlar	Shartli belgilar	Miqdor
1. Yalpi milliy mahsulot «Minus», amortizatsiya	YAMM A	100 8
2. Sof milliy mahsulot «Minus», biznesdagi egri soliqlar	SIM	92 12
3. Milliy daromad «Minus»- ijtimoiy sug'urta to'lovlari - daromad (foyda) solig'i - taqsimlanmaydigan daromad(foyda) «Plyus» + transfert to'lovlari	MD	80 -14 -10 -12 +10
4. Shaxsiy daromad «Minus»- individual soliqlar	MD	54 -8
5. Soliq to'langandan keyingi daromad, ya'ni ixtiyordagi daromad	ID	46

Shunday usulda olingan ko'rsatkich MD hisoblanadi. Resurslar bilan ta'minlovchilar nuqtai nazarida MD joriy ishlab chiqarishda qatnashish natijasida olgan daromadlar miqdorini bildirsa, kompaniyalar nuqtai nazarida esa ishlab chiqarish omillari yoki resurslar bahosini bildiradi. MD joriy ishlab chiqarishga ketgan iqtisodiy resurslarning bozor bahosini anglatadi. (2.4-jadval).



Ishlab chiqarishda mehnat qilish evaziga olingan daromadlarning bir qismi (ijtimoiy sug'urta to'lovlari, korporatsiya foydasiga soliq va korporatsiyaning taqsimlanmagan foydasi) amalda bevosita uy xo'jaligi ixtiyoriga tushmaydi. Aksincha, uy xo'jaligi hisobiga to'g'ri keladigan daromadlarning bir qismi (masalan, transfert to'lovlari) mehnat natijalarini bildirmaydi.

Milliy daromad ko'rsatkichidan foydalanib, shaxsiy daromadlar ko'rsatkichini hisoblash uchun aholi tomonidan haqiqatda ishlangan, ammo olinmagan daromadlarni olib tashlaymiz, shuningdek, aholi tomonidan olingan, ammo joriy mehnat faoliyati natijalarini bildirmaydigan daromadlarni qo'shamiz.

**Ixtiyordagi daromad** – hisoblangan shaxsiy daromadning individual soliqlar to'langandan keyingi qismidir. Individual soliqlar daromad solig'i, xususiy mulk-mulkarga va meros qolgan mulklarga solinadigan soliqlardan iborat.

MHT da ko'rsatib o'tilgan barcha ko'rsatkichlar yagona uslubiy bazaga asoslanib hisoblanadi va ularni o'zaro taqqoslash imkoniyati mavjud. Iqtisodiyotda mavjud bo'lgan inflyatsiya jarayonlari YAMM ni hisoblashni qiyinlashtiradi. Bu ko'rsatkich bir vaqtning o'zida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar miqdor va baho darajalarining o'zgarishini ifodalaydi. Bu shuni bildiradiki, YAMM miqdoriga bir vaqtning o'zida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning fizik hajmi va baho darajasining o'zgarishi ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiyotda doimiy inflyatsiya jarayonining mavjudligi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni taqqoslama baholarda hisoblashni zarurligini ko'rsatadi. Chunki inflyatsiya iqtisodiyotning real ahvolini buzib ko'rsatadi, iqtisodiyotni tahlil qilish, muammolarini aniqlash hamda boshqaruv qarorlari qabul qilishni qiyinlashtiradi. Bu vazifani bajarish uchun joriy baholarda hisoblangan nominal ko'rsatkichlardan emas, balki taqqoslama (bazis) baholarda hisoblangan real ko'rsatkichlardan foydalanish zarur. Ayrim yagona firmadan farqli o'laroq, milliy iqtisodiyotda juda ko'p sonli tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarilishi sababli ularning barchasini baravariga taqqoslab, hisoblash qiyin. Shu tufayli YAMM tarkibida katta ulushni tashkil etgan eng muhim tovar va xizmatlar bahosining o'zgarish koeffitsiyenti hisoblab topilib, olingan natija butun milliy iqtisodiyot uchun tatbiq etiladi.

Baho indeksini yoki inflyatsiya darajasini hisoblash uchun:

- deflyator;
- iste'mol narxlarini indeksi;
- sanoat ishlab chiqarish baholari indeksini hisoblanishi lozim.

Deflyator ko'rsatkichini formula bilan hisoblaganda:

$$Def = \frac{\sum_{i=1}^n Q_1^i P_0^i}{\sum_{i=1}^n Q_0^i P_0^i}$$

Bu yerda:  $i$  – deflyatorni hisoblash uchun bozor savatiga kiritilgan tovarlar soni;

$Q_1^i$  – joriy yilda bozor savatiga kiritilgan  $i$  – tovar yoki xizmatlar hajmi miqdori (masalan, 2 kg. shakar, 2 dona ko'yalak va h.k);

$P_i^j$  – joriy yilda bozor savatiga kiritilgan  $i$  — mahsulotning shu yilgi bahosi;

$P_0^i$  – joriy yilda bozor savatiga kiritilgan  $i$  – mahsulotning bazis yildagi bahosi.

Deflyatorni hisoblash shartlari:

- o'tgan yilga nisbatan hisoblanadi;
- bozor savati joriy yilda aniqlanib, keyingi yillarda o'zgartirilishi mumkin;
- bozor savatiga ham iste'mol ishlab chiqarish xarakteridagi tovarlar va xizmatlar kiritiladi;
- bozor savatiga kiritilgan tovarlar va xizmatlar turlarining umumiy YAMM dagi ulushi katta qismni tashkil qilishi kerak;
- bozor savatiga kiritilgan tovarlar va xizmatlar hajmlari o'rtasidagi nisbat ularning YAMM dagi ulushlari o'rtasidagi nisbatga mos kelishi kerak.

Nominal YAMM

Real YAMM =  $\frac{\text{Nominal YAMM}}{\text{Deflyator}}$

Deflyator

Iste'mol narxlari indeksi quyidagicha aniqlanadi:

$$INI = \frac{\sum_{i=1}^n \frac{Q_i \cdot P_i}{P_0^i}}{\sum_{i=1}^n Q_i \cdot P_0^i}$$

Bu yerda:

$Q_i$  – bazis yilda bozor savatiga kiritilgan  $i$  – tovar va xizmatlar hajmi;

$P_i$  –  $i$  – tovarning joriy yildagi bahosi;

$P_0^i$  –  $i$  – tovarning bazis yildagi hajmi.

Iste'mol narxlari indeksini hisoblash shartlari:

– bozor savati bazis yil uchun aniqlanadi va bir necha yil davomida o'zgarmaydi;

– bozor savatiga faqat iste'mol xarakteridagi tovarlar va xizmatlar kiritiladi;

– bozor savatiga kiritilgan tovar va xizmatlarning hajmi iste'mol xarajatlarining katta qismini tashkil etishi kerak.

Odatda, iste'mol narxlari indeksi inflyatsiya darajasini bir oz oshirib, narxlar indeksi biroz pasaytirib ko'rsatadi. Shu sababli bu ikki indeksning o'rtacha darajasini xarakterlovchi Fisher indeksi hisoblanadi:

$$Def = \sqrt{\frac{I_f}{X \cdot I_{ini}}}$$

Sanoat ishlab chiqaruvchilarining baho indeksi iste'mol narxlari indeksi singari hisoblanadi. Lekin bozor savatiga sanoat mahsulotlarigina kiritilib, ular ulgurji bahofarda hisoblanadi.

#### 2.4. Keys stadi. O'zbekistonning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari

O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyoti ijtimoiy himoyalangan bozor yo'li to'g'ri tanlanganini ko'rsatadi. Zero, respublikada faqat bozor mehnatni inson manfaatiga mos holda rag'batlantiruvchi mexanizmga egaligi, tashabbuskorlik va ishbilarmonlikni rivojlantira olishi, ishlab chiqarish va xo'jalik yuritishning kuchli, oqilona jihatlarini yanada kuchaytirish, fan va texnika yutuqlarini dadil joriy etish uchun zarur shart-sharoitlarga egaligini e'tiborga olib, uzil-kesil bozor munosabatlariga o'tish yo'lini tanladi va zamonaviy bozor iqtisodiyoti sari dadil qadamlar qo'ydi. Natijada, 2000-yilda Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari orasida birinchi bo'lib YAIM ning 1991-yildagi darajasiga erishdi, shuningdek, bu borada 1991- yildagiga nisbatan o'sish bo'yicha yetakchilikni saqlab kelmoqda (2.5-jadval).

O'zbekistonda real YAIM 2013-yilda 1995-yildagiga nisbatan 42,2 %ga o'sdi. Aholi jon boshiga YAIM 3,2 %dan 6,7 %ga ortdi yoki 2012-yildagiga nisbatan 2,0 marotaba ko'paydi. Ushbu ko'rsatkich yuqori bo'lishiga aholi soniga nisbatan (1,1 %) real YAIM ning (7,7 %) yuqori sur'atlarda o'sishi hisobiga erishildi. 1995 – 2013-yillarda bu boradagi ko'rsatkichlar mos ravishda 1,9 % va 1,4 %ni tashkil etdi.

Respublikada iqtisodiy o'sishni ta'minlashda izchil budget va pul-kredit siyosati, iqtisodiyotning real ishlab chiqarish sektorlariga qulay sharoitlar yaratish, soliq yukini va soliq turlarini kamaytirish va soddalashtirishga yo'naltirilgan soliq siyosatini amalga oshirish, xorijiy davlatlar sarmoyalarini jalb etishni qo'llab-quvvatlash, xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish hamda mamlakat eksport salohiyatini oshirish va jahon iqtisodiyotini to'laqonli a'zosi bo'lishga erishish uchun yo'naltirilgan tashqi iqtisodiy siyosat olib borish iqtisodiy islohotlar hozirgi bosqichining asosiy mazmuni va mohiyatini tashkil etadi.

#### 2.5-jadval

O'zbekiston va MDH mamlakatlarida yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sishi (2010-yilda 2001-yilga nisbatan foizda)

Mamlakatlar	2001-y.	2003-y.	2005-y.	2010-y.
O'zbekiston	102,7	111,4	128,2	108,5
Ozarbayjon	65,1	80,1	111,6	105,0
Armaniston	84,2	108,2	135,8	102,6
Belorus	94,0	105,4	126,4	107,6
Gruzija	49,8	57,1	68,2	-
Qozog'iston	88,5	106,1	126,6	107,0
Qirg'iziston	76,1	81,2	86,4	98,6
Moldaviya	45,0	51,6	59,6	107,0
Rossiya	74,3	83,3	95,3	104,0
Tojikiston	45,0	54,3	63,7	106,5
Ukraina	51,7	58,8	68,3	105,0
MDH bo'yicha o'rtacha	73,0	82,0	102,9	

Manba: O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. – T.: SISM, 2005, №8. 16-b. va T., 2006, 16-b.

Shuni ta'kidlash kerakki, islohotlarning keyingi davrlarida yalpi ichki mahsulot 4 %dan 7,7 %ga o'sganligi 2004-yilda iqtisodiy o'sish bo'yicha yuqori sur'atlarni ta'minlashda asosiy omillardan bo'ldi. O'zbekistonda-108,5 %, Belorusda-107,6 % Qozog'istonda-107,0 %, Moldaviyada-107,0 %, Tojikistonda-106,5 %, Ozarbayjonda-105,0 %, Ukrainada-105,0 %, Rossiyada-104,0 %, Armanistonda-102,6 % va

Qirg'izistonda-98,6 %ga o'sgan. Bunday o'sish sur'atlariga iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlari hisobiga erishildi (2.6-jadval).

2.6-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda YAIM ishlab chiqarish tarkibida asosiy savdo hamkorlarimiz – MDH mamlakatlari va xorij davlatlarida iqtisodiy holat yaxshilanishi, sanoat ishlab chiqarishning texnikaviy va texnik asosi takomillashirilishi natijasida mehnat unumdorligi 15,8 %dan 17,1 %gacha oshdi. Bunga mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha mashinasozlik – 9,4 %, qurilish ustalari tayyorlashda – 8,2 %, yengil sanoatda – 5,2 % va yoqilg'i sanoatida – 5,8 % o'sish ta'minlanganligiga, sanoat ishlab chiqarish hajmi 9,4 % oshishi hisobiga erishildi.

**2.6-jadval**

**O'zbekistonda YAIM ning o'sishi va ishlab chiqarish tarkibi**

Davrlar	YAIM	YAIMning ishlab chiqarish tarkibi, foizda				
	O'tgan yilning mos davrdagiga nisbatan o'sish, foizda (solishtirma narxlarda)	Sanoat	Qishloq xo'jaligi	Qurilish	Xizmatlar sohasi	Sof soliqlar
1995-y.	99,1	17,1	28,1	7,1	34,6	13,1
1997-y.	105,2	15,6	28,3	7,3	36,4	12,4
1998-y.	104,3	14,9	26,8	7,5	36,4	14,4
2000-y.	103,8	14,2	30,1	6,0	31,7	12,5
2005-y.	104,0	20,7	26,3	4,8	31,4	12,4
2007-y.	109,5	22,6	25,0	6,4	35,2	10,9
2008-y.	109,0	22,8	19,4	5,6	33,3	9,3
2009-y.	108,1	23,6	18,2	4,4	34,1	6,7
2012-y.	108,2	24,0	17,5	5,9	34,4	6,6

Manba: O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Iqtisodiy o'sish sur'atlari muntazam oshib borishi natijasida inflyatsiya ko'rsatkichining eng past darajasiga erishildi. Bu ko'rsatkich 2000-yilda 28-foizni tashkil etgan bo'lsa, 2013-yilda 6,8 %ga teng bo'ldi. Bunday natijaga erishilishiga asosiy sabab quyidagilar bo'ldi: pul massasi ustidan nazorat qilish mexanizmi takomillashirildi; tijorat banklarining ortiqcha likvidligini Markaziy bank depozitlariga jalb qilish amaliyoti kengaytirildi; Markaziy bank obligatsiyalari bilan operatsiyalar o'tkazish ko'lamini oshirildi; qayta moliyalash stavkasi, inflyatsiya darajasi va pulga bo'lgan talabga mos ravishda o'zgartirib borildi va 2014-yil davomida bosqichma-bosqich 20 %dan 12 %ga tushirildi; budjet taqchilligi yildan-yilga kamayib, oxirgi yillarda YAIM ning hajmi 1 %dan oshmadi va shundan kelib chiqqan holda Markaziy bank kreditlaridan foydalanish kamaydi.

### **Qisqacha xulosalar**

Makroiqtisodiyot-iqtisodiyotni bir butun holda o'rganadi va ishsizlik, inflyatsiya, iqtisodiy o'sish, to'lov balansi barqarorligi, davlat budjeti, davlat qarzi kabi hozirgi zamon iqtisodiyotining barcha muhim muammolarini tadqiq qiladi. Makroiqtisodiyotchilar nafaqat ushbu holatlarni tushuntirishlari, balki iqtisodiyotni rivojlantirish uchun iqtisodiy siyosat yuritish yo'llarini ham ko'rsatib bera olishlari zarur.

Mikroiqtisodiyot uy xo'jaligi, firmalar hudud va tarmoq darajasida iqtisodiy muammolarni o'rganish va hal qilish yo'llarini tadqiq qilish bilan shug'ullanadi. Makroiqtisodiy muammolarni o'rganish, tahlil qilish va yechish yo'llarini topish uchun mikroiqtisodiyot va iqtisodiyot sohasiga xos boshqa fanlarning xulosalariga ham tayanish lozim.

Iqtisodiyotdagi barcha muammolarni o'rganish imkonini beradigan yagona model mavjud emas. Shuning uchun ham makroiqtisodiy tadqiqotlarda matematik formula, chizma (grafik) va jadvallar shaklidagi ko'pgina modellardan foydalaniladi.

YAMM ma'lum davr mobaynida mamlakat rezidentlari tomonidan yaratilgan yakuniy tovar va xizmatlarning bozor baholari yig'indisidan iborat. YAMM ni hisoblashda qayta hisoblashga yo'l qo'ymaslik uchun u qo'shilgan qiymatlar ko'rinishida hisoblanadi. YAMM xarajatlar ko'rinishida to'rt guruhdagi xarajatlar – iste'mol, investitsiya, davlat xaridi va sof eksport xarajatlari yig'indisi orqali hisoblanadi. Milliy hisobchilik tizimida barcha ko'rsatkichlarni hisoblashning uslubiy asosi bitta bo'lgani uchun ularni o'zaro taqqoslash imkoni mavjud.

Nominal YAMM tovar va xizmatlar hajmini joriy narxlarda, real YAMM esa doimiy narxlarda baholaydi. Shunday qilib, real YAMM hajmi faqatgina ishlab chiqarish hajmi o'sishi bilan oshadi, nominal YAMM esa tovar va xizmatlar baho darajasining o'sishi natijasida ham oshishi mumkin.

O'zbekistonda YAIM ning o'sish tendensiyasi saqlanishi ta'minlangan. Iqtisodiyotda muttasil o'sishga erishishga eksport uchun qulay bozor kon'yunkturasi, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni rag'batlantirish, islohotlarning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga ta'siri, shuningdek, iqtisodiyotning boshqa sohalaridagi barqarorlik kabi omillar sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Mikroiqtisodiyot fani nimalarni o'rgatadi?
2. Makroiqtisodiyot fani iqtisodiyot yo'nalishidagi boshqa fanlarga aloqadormi?
3. Iqtisodchilar nima uchun modellarni tuzishadi va ulardan foydalanishadi?
4. Resurslar, daromadlar va xarajatlarning doiraviy aylanishi chizmasidagi qarama-qarshi omillarni izohlay olasizmi?
5. Qanday iqtisodiyotlarni bilasiz? Ochiq iqtisodiyotning yopiq iqtisodiyotdan afzalliklari nimada?
6. YAMM ni hisoblashning asosiy shartlari nimalardan iborat? Nima uchun qayta hisoblashda ehtiyot bo'lish talab etiladi?
7. YAMM ni xarajatlar va daromadlar bo'yicha hisoblashning zaruriyati va farqlari nimada?

8. Milliy hisobchilik tizimidagi boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga qaysi ko'rsatkichlar kiradi va ular qanday hisoblanadi?
9. Baho indeksleri va real YAMM ni hisoblash usullarini bilasizmi?
10. Deflyator, iste'mol narxlari indeksi va sanoat ishlab chiqarish baholari indeksleri bir-biridan nimalari bilan farqlanadi?
11. MDH davlatlari orasida qaysi bir davlatda iqtisodiy o'sish ta'minlangan?

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. Karimov I. "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi"//Xalq so'zi, 2014-iy 18-yanvar.
2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.-T.; O'zbekiston, 2011-y, -421b.
3. Yo'ldoshev Z. Milliy iqtisodiyot.-T.; Mehnat, 2004, 168 b.
4. Ishmuxamedov A.E. - O'zbekiston milliy iqtisodiyoti. Darslik - T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005, 304 b.
5. Ishmuxamedov A.E. va boshqalar. - Makroiqtisodiyot. Darslik - T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005, 192 b.
6. Tuxliyev N va boshqalar. - O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. -T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. -280 b.
7. Internet veb-saytlari:  
[www.gov.uz](http://www.gov.uz).  
[www.pressseruic.uz](http://www.pressseruic.uz).  
[www.stat.uz](http://www.stat.uz).  
[www.micro-macroiqtisodiyout.fan.uz](http://www.micro-macroiqtisodiyout.fan.uz)

## 3-bob. MILLIY BOYLIK - DAVLATNING QUDRATINI BELGILOVCHI KO'RSATKICH

### 3.1. Mamlakat milliy boyligi tushunchasi

Milliy boyluk – jamiyat ixtiyoridagi mehnat orqali yaratilgan va jamg'arilgan moddiy ne'matlar majmuasi. U mamlakat iqtisodiy qudratining asosi bo'lib, ishlab chiqarish davomida jamg'arilgan barcha iste'mol qiymatlari yig'indisining puldagi ifodasidir.

Milliy boyluk – xalq moddiy va ma'naviy darajasining negizi, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning moddiy asosi va natijasidir.

Respublikamizda milliy boyluk og'ir sanoat, shuningdek, yengil va oziq-ovqat sanoati, paxtachilik, pillachilik, qorako'lchilik, mevachilik, uzum yetishtirish, sabzavotchilik bilan bog'liq. Mamlakatimiz jahonda paxta tolasi, ipak, kanop poyasi, qorako'l, paxta terish mashinalari ishlab chiqarish bo'yicha salmoqli o'rinni egallab kelmoqda.

Ijtimoiy tuzum xususiyatiga ko'ra, milliy boyluk butun jamiyat mulki yoki uning ayrim sinflari, guruhlari, alohida shaxslar mulki bo'lishi mumkin. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda milliy boylukning asosiy qismi xususiy sektorda millionerlar qo'lida yig'ilgan. Masalan, AQSHda bir guruh eng yirik moliya-sanoat guruhlari mamlakatning iqtisodiy va siyosiy hayotida yetakchi o'rinni egallaydi, chunki ularning qo'lida milliy boylukning asosiy qismi yig'ilgan. Bulardan eng baquvvatlari Morgan va Rokfel guruhlaridir. Ulardan so'ng Kaliforniya, Chikago, Kliviend, Dyupon, Meller korporatsiyalari turadi.

Oxirgi yillarda iqtisodiyotning o'sish sur'ati bo'yicha rivojlangan mamlakatlar orasida eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan Yaponiyada davlat sektori an'anaviy tarmoqlar (transport, aloqa, tamaki sanoati) bilan cheklangan. Davlatga qarashli korxonalarda ish bilan band aholining 12 %i ishlaydi, ya'ni milliy boylukning asosiy qismi xususiy sektorga to'g'ri keladi. Sotsialistik davlatlarda milliy boyluk xalq manfaatlariga xizmat qilib, jamiyat a'zolarining tobora oshib borayotgan moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini to'laroq qondirishga mo'ljallangan edi.

Biroq yagona davlat rejasi asosida rivojlanish respublikalar va mintaqalarda milliy boyluk xalq uchun emas, balki umumittifoq mehnat taqsimotini hisobga olib o'tkazildi, oqibatda ayrim respublikalar xomashyo hududlariga aylanib qoldi. O'zbekistonda milliy boyluk asosi bo'lgan – neft, ko'mir, mis va boshqa tabiiy boyluklar topildi. Mavjud mehnat va moddiy-texnika resurslaridan yuqori darajada foydalanib, paxtachilikni yanada rivojlantirish, sanoat ishlab chiqarishini, ayniqsa, og'ir sanoat tarmoqlarini tez sur'atlar bilan taraqqiy ettirish, yangi korxonalar qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilishga alohida ahamiyat berildi.

Respublikamizda xalq xo'jaligi tarmoqlarida yaratilgan yalpi ijtimoiy mahsulot va milliy daromad oshdi. Masalan, 1990-yil bu daromad 1970-yildagiga nisbatan 3 barobar ko'paydi va 21,2 mlrd. so'mni tashkil etadi. Shu jumladan, sanoatda 7,1, qishloq xo'jaligida 7,5, qurilish bo'yicha 3,0, transport va aloqada 1,1, savdo, tayyorlov, moddiy-texnika ta'minoti va boshqalar bo'yicha 2,5 mlrd. so'm mablag' hisobga olindi. Shunga qaramasdan, sobiq SSSR da O'zbekistonning milliy boyligi atigi 3,5 %ni tashkil qilgan. Yuqorida keltirilgan raqamlardan, 70 yildan ortiq hukm surgan totalitar

tuzumning og'ir oqibatlarini ko'rish mumkin. Sobiq ittifoqning 7 % aholisi yashagan respublikamizda jami mahsulot ishlab chiqarish atigi 4 % ni, sanoat ishlab chiqarishi 1,1 %ni tashkil etgan. Hozirgi kunda mamlakatimiz milliy daromadi og'ir sanoat, yengil va oziq-ovqat sanoati, paxtachilik, pillachilik, qorako'chilik, mevachilik, uzum yetishtirish, sabzavotchilik bilan bog'liq. Bu tarmoqlar mahsuloti Hamdo'stlik davlatlari orasida o'ziga xos ahamiyatga ega.

Mamlakatimiz jahon bozorida mehnat taqsimotida paxta tolasi, ipak, kanop poyasi, qorako'l, paxta terish mashinalari, paxta tozalash jihozlari, xom ip tayyorlaydigan mashinalar ishlab chiqarish bo'yicha 1-o'rinda, elektr kranlar, ip, gazlama ishlab chiqarish, sholi, sabzavot yetishtirish bo'yicha 3-o'rinda, tabiiy gaz qazib chiqarish bo'yicha 4-o'rinda turadi.

Milliy boylikning ahamiyati va salmog'ini respublikada bir kunda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi bilan ham ta'riflash mumkin. Masalan, O'zbekistonda bir kunda 150 mln.kilovatt elektr energiyasi, 113 mln.m<sup>3</sup> tabiiy gaz, 17 ming tonna ko'mir, 2,5 ming tonna prokat, 3 ming tonna po'lat, 65 ta traktor, 17 ming tonna sement, 1679 ming m<sup>3</sup> ip gazlama, 121,4 ming juft poyabzal, 52 ta muzlatgich, 200 dona avtomobil ishlab chiqariladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishda, milliy boylik O'zbekiston tanlab olgan yo'l – respublika va uning xalqi manfaatlariga nihoyatda mos keladigan, ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan.

Milliy boylik tarkibiga to'xtaladigan bo'lsak, milliy boylikka xalq xo'jaligining asosiy va aylanma ishlab chiqarish fondlari (bino, inshoot, mashina, asbob-uskunalar, transport vositalari, ishchi va mahsuldor hayvonlar, materiallar, yoqilg'i va hokazo), muomala fondi (tayyor mahsulot zaxiralari), ehtiyoj fondlari va sug'urta zaxiralari, xalqqa xizmat qiluvchi tarmoqlarning asosiy fondlari (maktab va shifoxonalar, uy-joy, madaniyat saroylari), aholining shaxsiy mol-mulkulari, ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonlariga jalb qilingan tabiiy boyliklar (yer osti qazilmalari, ekin maydonlari, qo'riq va bo'z yerlar, o'rmon va suvlar), shuningdek, ishchi va xizmatchilarning ishlab chiqarish tajribasi, ilmiy-texnika va tadbirkorlik bo'yicha bilimlari ham kiradi. Milliy boylik tarkibida aholidagi xizmat muddati bir yildan oshgan, uzoq vaqt foydalaniladigan predmetlar (uy-ro'zg'or bisoti) alohida guruhni tashkil etadi. Bular individual transport vositalari va ularga kerakli ashyolar, mebel, idishlar, maishiy buyumlar, foto va kinotexnika, soatlar, zargarlik buyumlari, madaniy mollar, kiyim-kechak va poyabzalar, ishlab chiqarish vositalari va shu kabilardir.

Milliy boylik tarkibining asosiy qismini ishlab chiqarishdagi asosiy fondlar tashkil etadi. Ishlab chiqarishning asosiy fondlariga binolar, inshootlar, uzatish qurilmalari, mashina va uskunalar, transport vositalari, asboblari, ishlab chiqarish va xo'jalik inventarlari, mahsuldor chorva va uy hayvonlari, ko'p yillik ekinlar kiradi. Ular sirasiga har birining qiymati 100 so'mdan kam turadigan mehnat vositalari va qiymatidan qat'i nazar xizmat muddati bir yildan kam bo'lgan mehnat vositalari kiritilmaydi. Milliy boylikni rejalashtirish va hisobga olishda-ishlab chiqarish asosiy fondlariga foydalanishga topshirish paytida, balansga qabul qilib olishdagi dastlabki qiymati; fondlarni takror ishlab chiqarish paytida ularning bahosini belgilab beruvchi tiklash qiymati bilan hisoblab qo'yilgan, o'zlashtirilish summasi o'rtasidagi farqdan iborat bo'lgan qoldiq qiymati farqlanadi. O'zbekistonda asosiy fondlar 1986 – 1990-



yillarda 26,5 mlrd. so'm, 1991 – 1995-yillarda 32,5 mlrd. so'm va 1995 – 2000-yillarda 43,2 mlrd. so'mga oshdi.

Iqtisodiy rivojlanish darajasi va milliy boylik uzviy bog'liqdir. Masalan, iqtisodiy rivojlanish darajasini baholaganda ko'pgina davlatlar AQSH darajasini standart sifatida qabul qilishadi. Ishlab chiqarish omillari va rivojlanishning turlicha sharoitlari iqtisodiy rivojlanish darajasini faqat bir tomonlama baholashga imkon bermaydi. Shuning uchun bunda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

- aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YAIM, YAMM, MD;
- milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi;
- aholi jon boshiga asosiy mahsulot turlarini ishlab chiqarish;
- aholining turmush darajasi va sifati;
- iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari.

2012-yilga kelib O'zbekiston hududida 2 trillion kubometr tabiiy gaz va 160 neft konlari mavjudligi aniqlangan. Markaziy Osiyo mamlakatlarida neft va gaz ishlab chiqarish hajmi 3.1-jadvalda keltirilgan.

3.1-jadval

**Neft va gaz ishlab chiqarish hajmi**

Respublikalar	Neft, mln. t.			Tabiiy gaz, mlrd. m <sup>3</sup>		
	1991-y.	2001-y.	1991-y. ga nisbatan, %	1991-y.	2001-y.	1991-y. ga nisbatan, %
Qozog'iston	26,6	23	85	7,9	11,4	80
Qirg'iziston	0,1	0,1	100	0,1	2,2	30
Tojikiston	0,1	0,03	30	0,1	3,5	50
Turkmaniston	5,4	4,4	81	84,3	77,2	42
O'zbekiston	2,8	7,6	270	41,9	49,0	120

Bulardan eng muhimi, aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YAIM (YAMM) ko'rsatkichidir. Bu ko'rsatkichga muvofiq mamlakat xalqaro standart bo'yicha rivojlanayotgan yoki rivojlangan davlatlar kategoriyasiga kiritiladi. Rivojlangan davlatlar kategoriyasiga yiliga aholi jon boshiga 506 ming dollar va undan ortiq YAMM ishlab chiqarayotgan davlatlar kiradi. Mamlakatning rivojlanish darajasi, shuningdek, eng muhim tarmoqlarning mamlakat iqtisodiyotiga qo'shayotgan hissasiga qarab ham belgilanadi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, O'zbekistonda aholi jon boshiga yoqilg'i-energetika resurslari ishlab chiqarish birmuncha ko'paydi. Neft ishlab chiqarish 270 % va tabiiy gaz ishlab chiqarish 120 %ga oshdi. Neft hajmi 5,1 mlnt gaz ishlab chiqarish hajmi 65,8 mlrd. m<sup>3</sup> ga yetdi.

Har qanday davlat iqtisodiyotining rivojlanishini avvalambor uning tabiiy resurslari soni va hajmi belgilab beradi, chunki tabiiy resurslar barcha ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishning asosi, mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi va samaradorligini belgilovchi muhim omildir. O'zbekistonda tabiiy resurslarning ulkan potensialiga ega. Oltin ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda 8 o'rin aholi jon boshiga oltinni ishlab chiqarishda esa 5-o'rinni egallaydi. Hozirgi kunga qadar respublikamizda 30 ta oltin koni aniqlangan (eng kattasi - Muruntov).

Respublikamizda 34 turdagi mineral xomashyoning 850 dan ortiq koni ochilgan, uglevodorod xomashyosining umumiy zaxiralari: gaz - 1828 mlrd. m<sup>3</sup>; gaz kondensati - 136 mln.t; neft - 103 mln.t.

Respublikamiz hududida 20 dan ortiq toshko'mir konlarining yotqizilari aniqlangan. Ularning zaxirasi 3499 mln.t. Angren kon zaxirasining o'zi esa 1885 mln.t, 33 ta nodir va 32 ta rangli metallarning konlari bazasida 16 ta tog'-kon sanoati korxonalari ishlarida, 5 ta volfram koni mavjud. (Qo'ytosh, Langar, Ingichka).

Tasdiqlangan mineral suvlar zaxiralarning 1 sutkali hajmi 8208 ming m<sup>3</sup>. Hozirda aniqlangan mineral suvlarning 32 ta manbai asosida 12 ta kurort, mineral suvlarni quyuvchi 10 dan ortiq korxonalar ishlarida.

Respublikamizda 4,2 mln. ga sug'oriladigan yerlar bor. Mamlakatda foydalanilayotgan suv hajmi 62 - 65 km<sup>3</sup> bo'lsa, uning 36 km<sup>3</sup> i Amudaryo va Sirdaryodan, qolgan qismi esa ichki manbalardan olinmoqda. Yer va suv resurslarining mavjudligi, qulay iqlim sharoiti 1,7 mln.t. paxta tolasi yetishtirish imkonini bermoqda. Bu soha respublikamizning eng muhim bazasidir.

### 3.2. Milliy boylik tarkibi va uni hisoblash

O'zbekiston hududida katta ahamiyatga ega bo'lgan oltin, mis, rux, volfram, molibden, flyuorit, shuningdek, alyuminiy va magniy rudalari, nodir metallar, oltinugurt, osh tuzi, kaliyli va boshqa tabiiy tuz qatlamlari, kaolin, o'tga chidamli xomashyolar, betonit, marmar va boshqa bezak toshlari, uncha qimmatli bo'lmagan ba'zi pardozlovchi ishlov toshlar topilgan, yoqilg'i resurslari bo'yicha esa ko'mir, neft, tabiiy gaz konlari ochilgan.

O'zbekistonda mineral xomashyo bazasi mavjudligi so'nggi 20-25 yil mobaynida respublika xalq xo'jaligining muhim tarmoqlarini, ayniqsa, gaz, neft, oltin ishlab chiqarish, energetika, kimyo, rangli metallurgiya, ruda bo'lmagan xomashyolar va qurilish materiallari sanoatlarini tez sur'atlar bilan rivojlantirish imkoniyatini berdi. Respublikada topilgan konlar asosida Olmaliq tog'-kon metallurgiya kombinati, Angren kimyo-metallurgiya va Qo'ytosh ruda boshqarmalari, Muruntov tog'-metallurgiya kompleksi, gaz, neft, betonit, biryuza, grafit chiqaruvchi va qayta ishlovchi yirik korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Respublikada 100 xil sanoat miqyosidagi va 900 ta istiqboldagi tog'-kon sanoat, gaz va neft korxonalari, shaxtalar, kar'yerlar, yirik suv inshootlari ishlab turibdi. Qattiq foydali qazilmalar ishlab chiqarishning yillik hajmi 100 mln. tonnani tashkil etmoqda. 2013-yilda 68 mlrd. kubometr tabiiy gaz, 20 mln. tonna neft qazib chiqarildi. Sutkasiga 2500 ming kubometr yer osti suvlar qazib olinmoqda. Konlarning foydalanishga topshirilishi ba'zi tumanlar iqtisodiyotini o'zgartirib yubordi. Ayrim tog'-sanoat komplekslari bunyod etildi (Olmaliq-Angren, Muruntov-Zarafshon).

Angren, Olmaliq, Zarafshon shaharlari esa bo'z yerlarning sanoat jihatidan o'zgartirilishiga asosiy omil bo'ldi. Aniqlangan milliy boylik manbalari ishlab chiqarish korxonalarini uzoq muddat davomida oltin, mis, tabiiy gaz, qo'rg'oshin, rux, ko'mir va boshqa mahsulotlar bilan ta'minlabgina qolmay, hatto ishlab chiqarishni ancha kengaytirish imkonini ham beradi.

Ayni vaqtda volfram ishlab chiqaruvchi korxonalar xomashyo manbalari bilan yetarli darajada ta'minlanmagan. Qo'ytosh va Ingichka ruda boshqarmalari, Olmaliq tog'-kon metallurgiya kombinati shular jumlasidandir. Respublikada ishlab chiqarilishi

mumkin bo'lgan nometall mineral xomashyolarning tashib keltirilishi jiddiy iqtisodiy chiqimlarga hamda transport balansining asossiz ravishda kuchayishiga olib keldi. O'zbekistonda aniqlangan ba'zi nometall mineral xomashyo konlari (Sho'rtan gaz kompleksi, Ustyurt soda zavodi, Qizilqum fosforit kombinati) mavjudligiga qaramay, har yili 500 ming tonna fosforit, 280 ming tonna kaliyli o'g'it, 408 ming tonna osh tuzi, 87 ming tonna kvarts qumlarini, 127 ming tonna betonit gillari hamda ohak, barit, asbest, kaolin konsentrati, dala shpati, talk, grafit, mineral pigmentlar, natriy sulfat, oltingugurt va boshqalar Ukraina, Qozog'iston va Rossiyadan tashib keltiriladi. Kelajakda respublikamizda nometall mineral xomashyolarning asosiy turlariga, ulardan tayyorlanadigan buyumlarga talab bir necha marra oshadi. Agar ularni respublikada ishlab chiqarish kengaytirilmasa tashqaridan tashib keltirish lozim bo'ladi va katta sarf-xarajat talab qiladi. Shuning uchun respublikada geologik qidiruv ishlarining istiqbolini aniq belgilab, ularni tez sur'atlarda amalga oshirish lozim. Bu faqat respublikamiz talabini qondirmay, balki foydali qazilmalarning ko'p turlarini yaqin va uzoq chet davlatlarga yuborish imkoniyatlarini ham beradi.

Hozir O'zbekistonda tekshirilgan istiqbolli foydali qazilmalarning manbai bo'yicha sanoatning ayrim tarmoqlarini jadal rivojlantirib, 2000-yilga mo'ljallangan darajada mavjud istiqbolli konlar va maydonlar tekshirilib, ulardan 2005 – 2015-yillar davomida foydalanish imkoniyatini ta'minlash mumkin. Bunda birinchidan, oltin, mis, qo'rg'oshin, rux, kumush, vismut va boshqa nodir elementlar ishlab chiqaruvchi rangli metallurgiyani kelgusi rivojlanish masalasini hal qilish imkoniyati tug'ildi.

Ikkinchidan, respublikamizda tekshirilgan va istiqbolli konlar negizida tog'-ruda, hamda tog'-kimyo sanoatining yangi tarmoqlari yaratilishi mumkin. Hozir O'rta Osiyoga tashib keltirilayotgan qora metall buyumlarining miqdori yiliga 6 mln. tonnaga yaqin, kelgusida esa 20 mln. tonnaga yetadi. Bunga xotima berish uchun qora metallurgiya bazasi yaratilishi kerak. Shu maqsadda Tebinbuloq (Sulton Uvays tog'i-O'zbekiston), Irisu (Janubiy Qozog'iston), Choqadambuloq (Tojikiston) va boshqa yirik konlardan foydalanish kerak. Uchinchidan, bu yerda zaxiralari nisbatan ko'p bo'lgan sulfid gazini boyitish orqali gaz ishlab chiqarish kengaytiriladi va oltingugurt ajratib olinadi. Mavjud neftni haydash Farg'ona va Qorovulbozor zavodlarini mahalliy xomashyo bilan uzluksiz ta'minlash neft sanoatining yanada rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratadi.

To'rtinchidan, sulfat kislota ishlab chiqarishni kengaytirish, Navoiy elektr-kimyo kombinatida natriy sulfat olish, shuningdek, gaz-kondensat xom ashyosi asosida ko'p miqdorda xloroorganik sintez mahsulotlar olishdan iborat bo'lgan kimyo sanoati (Sho'rtan kompleksi kabi) ancha rivoj topadi.

Beshinchidan, ko'p miqdorda yangi qurilish materiallari, masalan, keramzit ishlab chiqarish uchun kerak bo'lgan betonitlar, Toshkent metropoliteni, yangi mehmonxonalar va eksport uchun zarur bezak toshlari ishlab chiqarilishini tashkil qilish kerak. Bu tadbirlarning amalga oshirilishi transport balansini yaxshilash, qator katta hajmli yuklar O'rta Osiyoga tashib keltirilishini kamaytirish imkoniyatini beradi va ularni yangi yo'llar orqali Yevropaga tashish mumkin.

### 3.3. Iqtisodiy rivojlanish va atrof-muhitni muhofaza qilish

Orolbo'yi havzasidagi ekologik halokat ko'p yillardan buyon odamlarga behisob kulfat keltirmoqda. Bir paytlar gullab-yashnagan Orolbo'yi havzasi, agar iqtisodiy rivojlantirish bilan bog'liq qarorlar ekologiyani va ekologik tavakkal qilishga berilgan baholarni hisobga olmasdan qabul qilinsa, har qanday joyda ham mana shunday voqea yuz berishining yaqqol misoli bo'la oladi.

O'zbekistonda salbiy jarayonlarning rivojlanishi va ekologik tizimlarning xavfli o'zgarishi mutlaq milliy muammo emas, chunki ularning paydo bo'lishi qo'shni davlatga bog'liq Orol tangligi misolida aniq namoyon bo'ldi. Shu sababli O'zbekiston ham Markaziy Osiyo holda mintaqasi mamlakatlari bilan, ham Orol dengizida ekologik vaziyatni yaxshilashga qaratilgan halqaro tashabbuslarda (ayniqsa, Jahon banki, BMTning Taraqqiyot dasturi bilan), birgalikdagi tashabbuslarni rivojlantirishda faol qatnashmoqda.

Ekologiya masalalarini integratsiyalash hamda mintaqaviy darajada qarorlar qabul qilinishini rivojlantirishga doir sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish Markaziy Osiyodagi beshta davlat boshliqlari tomonidan 1993–2013-yillar davomida qabul qilingan qarorlarni rivojlantirish uchun tashkil etilgan tegishli mintaqaviy tuzilmalar orqali amalga oshiriladi. Ular quyidagilardir:

- Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi;
- Davlatlararo muvofiqlashtiruvchi Suv xo'jaligi komissiyasi;
- Mintaqaviy ekologiya markazi;
- Orolbo'yi genafondini saqlash jamg'armasi.

Respublikamizda tabiatni muhofaza qilishga qo'yilgan asosiy investitsiyalar va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish uchun 2013-yilda xarajatlar taxminan quyidagicha bo'lgan: tuproqni muhofaza qilish va mineral resurslardan oqilona foydalanish – 2,3 %; sanoatning zaharli chiqindilarini qayta ishlash, foydali tarzda ishlatish va ko'mish – 1,3 %; sanoat chiqindilarini qayta ishlash, foydali tarzda ishlatish–3%; yer resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish – 28 %; atmosfera havosini muhofaza qilish – 33 %; tabiatni muhofaza qilish va suv resurslaridan oqilona foydalanish – 44 %.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik sharoitlari va taraqqiyot kafolatlari» nomli kitobida atrof-muhit va taraqqiyot masalalariga integratsiyalangan yondashuvni namoyon etdi. Ushbu yondashuvlar Konsepsiyada, Milliy strategiyada yanada rivojlantirildi.

2010-yilgacha bo'lgan davrda, «1999-2005-yillarda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish sa'y-harakatlari dasturi», «2013-yilgacha bo'lgan davrda iqtisodiyotdagi tarkibiy qayta o'zgartirishlar konsepsiyasi»ni rivojlantirish uchun quyidagilar vositasida mamlakatning barqaror rivojlanishini aminlash doirasida balansli ekologik va iqtisodiy siyosat yuritilishi nazarda tutiladi:

- mineral xomashyo resurslaridan oqilona va kompleks foydalanishni hisobga olgan holda tuzilmaviy-investitsiya siyosatini yuritish; hududlarning tabiiy-resurs salohiyati va atrof-muhit uchun xavfsizlikning baholanishi hisobga olingan holda ishlab

chiqarish kuchlarini joylashtirishning uzoq muddatli (15–20 yilga mo'ljallangan) bashoratlarini ishlab chiqish;

- iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik xavfsizlikning maqsadli davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish, shu jumladan, Orolbo'yida va mamlakatning ekologik vaziyat yaxshi bo'lmagan boshqa mintaqalarida keskinlikni pasaytirish chora-tadbirlarini ko'rish;

- ekologik jihatdan chuqur o'ylangan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi tegishli qonunchilikning va mexanizmlarini yanada takomillashtirish va rivojlantirish, shu jumladan, tabiatdan nooqilona foydalanganligi uchun qattiq jazo joriy etish;

- ekologik xavfsizlik ta'minlanishi uchun korxonalar va tashkilotlar (mulkchilik shakllaridan qat'i nazar) javobgarligini oshirish, ekologik xavfli vaziyat paydo bo'lganligi va rivojlanganligi uchun yetkazilgan zararining aybdorlar tomonidan to'liq qoplanishi kafolatlari shartlarini ishlab chiqish;

- ekologik bozor tuzilmalari (audit va tadbirkorlik) boshqaruv tizimini barpo etish, ekologik tovarlar va xizmatlar, texnika va texnologiyalar bozorini rivojlantirish maqsadida institutsional qayta o'zgartirishlarni chuqurlashtirish;

- ustuvor ekologik loyihalar amalga oshirilishiga har xil tadbirkorlik tuzilmalarining, nodavlat tashkilotlarining mablag'larini keng jalb qilish.

Yoqilg'i qazib olish, uni transportda tashish va yoqish, sanoat chiqindilarini saqlash va qayta ishlash, qishloq xo'jaligida o'simliklarni kimyoviy himoya qilish vositalarini qo'llash atmosferani ifloslanishining asosiy manbalari hisoblanadi.

Atmosfera chiqariladigan chiqindilar umumiy hajmining 37 %i neft-gaz sanoati, 30 %i energetika, 15 %i rangli metallurgiya, 5 %i yurilish industriyasi ulushiga to'g'ri keladi.

Yoqilg'ining barcha turlarini yoqishda iqlim o'zgarishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadigan, «issiqxona gazlari» deb ataladigan 90 min. tonnadan ortiq gaz hosil bo'ladi. Atmosferaga chiqariladigan uglerodning 95 % dan ortig'i, metanning 73 %i yoqilg'i-energetika kompleksi ulushiga to'g'ri keladi. Tarkibida uglerod oksidi, azot oksidi, uglevodorodlar, benzapiren, aldegidlar, qo'rg'oshin mavjud bo'lgan avtomobil transporti chiqindilari atmosfera chiqariladigan zararli moddalarning umumiy hajmida 60 %dan ortiqni tashkil etadi.

Turli manbalardan atmosfera chiqarilayotgan chiqindilar tuzilmasi quyidagicha: neft sanoati – 37 %, energetika – 30 %, rangli metallurgiya – 15 %, qurilish industriyasi – 5 %, boshqalar – 13 %.

O'zbekiston atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha BMT ning anjuman qarorlariga tarafdor ekanligini ifodalab, atmosferani muhofaza qilish yuzasidan halqaro hamkorlikni mustahkamlash doirasida muayyan ishlarni amalga oshirmoqda. Chunonchi, 1993-yilda BMTning iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Doira konvensiyasini imzoladi, 1995-yilda ozon qatlamini himoya qilish bo'yicha Vena konvensiyasi, ozon qatlamini yemiruvchi moddalar bo'yicha Monreal protokoli hamda Monreal protokoliga London va Kopengagen tuzilishlari imzolandi, 1999-yilda Kiot protokolini ratifikatsiya qildi. Respublikamizda qabul qilingan «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida», «Atmosfera havzasini muhofaza qilish to'g'risida», «Ekologik ekspertiza to'g'risida»

onunlarga muvofiq hukumatga qarashli bo'lmagan notijorat tashkilotlari va muoatchilik vakillari mustaqil ekologik ekspertiza o'tkazishda qatnashadilar. kspertizaning xulosalari tavsiya xususiyatiga ega. Ular shuningdek, atrof-muhit muhofazasi loyihalari va dasturlarini, qarorlarni ishlab chiqishda ekspert sifatida jalb qiladilar.

O'zbekiston Respublikasining 1999-2005-yillarda atrof-muhitni muhofaza qilish 1'y-harakatlari dasturida atmosferani ifloslanishdan muhofaza qilish masalalari etakchi o'rinni egalladi. Dasturda quyidagilar nazarda tutiladi:

- avtopark tuzilmasini takomillashtirish va uni maqbul ravishda dizellashtirish, oshkent, Nukus shaharlarida, viloyat markazlarida ixtisoslashtirilgan ekologik punktlar tashkil etish (36 ta punkt) hisobiga avtotransport chiqindilarini kamaytirish; alohida exlar va ishlab chiqarish korxonalarida changni tutib qolish hamda chang va gazdan xalash tizimlari qurilishi hisobiga respublikaning yirik korxonalarida chiqindilarni kamaytirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

- Tojikiston alyumin zavodining salbiy ta'siri doirasida ekologik vaziyatni yaxshilash bo'yicha O'zbekiston – Tojikiston bitimi doirasidagi xatti-harakatlarni rivojlantirish;

- ekologik siyosatning me'yoriy-huquqiy asosini va iqtisodiy mexanizmlari zimini takomillashtirish;

- 2005-yilgacha bo'lgan davrda atmosfera havosi va uning ifloslovchi manbalarini monitoring qilish tizimini rivojlantirish va zamonaviylashtirish dasturini amalga oshirish.

Issiqxona gazlari emissiyasini qisqartirish chora-tadbirlari strategiyasi va dasturini, 2013-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston energetikasini rivojlantirish dasturini amalga oshirish jarayonida atmosferaga issiqxona gazlarini chiqarishni qisqartirish bo'yicha eng ko'p samaraga erishish kutilmoqda. Energiyani tejash, qimmatli energiya resurslarini iste'mol qilinishi salmog'ini qisqartirish, energiyaning klanadigan manbalaridan foydalanishni keng yoyish, kichik gidroelektr stansiyalari qurilish va ularni kengaytirish ushbu dasturlarning muhim tadbirlari hisoblanadi.

### **3.4. Respublikada yer resurslaridan foydalanishga har tomonlama yondashish**

O'zbekistonning tabiiy-iqlim sharoitlari va qishloq xo'jaligi maqsadlarida foydalanish uchun yaroqli bo'lgan yer maydonlari cheklanganligi yer resurslaridan, shuningdek, boshqa tabiiy boyliklardan foydalanishning samaraliroq va foydaliroq o'llarini doimiy ravishda izlashni taqozo etadi.

Respublikamizning jami yer maydoni 448,9 ming.kv.km.ni tashkil etadi. Shundan 0 %dan ko'prog'i qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlardir. Yer fondi qishloq xo'jaligida foydalanilishi jihatidan xilma-xildir. Sug'oriladigan yerlarning asosiy qismiga paxta, g'alla va chorvachilik uchun yem-xashak bo'ladigan ekinlar ekiladi. Lekin hududimizda qumli, yaylov, tog' o'rmonlari bilan band yerlar anchagina.

O'zbekistonda sug'oriladigan yerlar 4 mln. gektardan ziyod bo'lib, uning qariyb 1,6 mln. gektari dasht zonasida, qolgan qismi sur tuproqli mintaqada joylashgan.

Sug'oriladigan yerlar asosan yirik daryolarning o'zlashtirilgan vodiylari va etaklari, shuningdek, tog' etagidagi tekisliklarda yuzaga keldi. Masalan, Mirzacho'lda, O'rtacho'lda va boshqa hududlarda sug'orish ishlari natijasida sizot suvlar sathi ko'tarilib, endilikda ikkinchi sho'rlanish (gidromorf) jarayoni rivojlanmoqda.

Sug'oriladigan yerlarning eng katta maydonlari Farg'ona, Zarafshon, Chirchiq, Sirdaryo, Amudaryo, Qashqadaryo va Surxondaryo etaklaridadir.

Lekin yerlarning eng katta maydoni Qashqadaryo, Samarqand, Toshkent va Jizzax viloyatlarida joylashgan. Bu yerlarning bir qismi, ayniqsa, sur tuproqli yerlar sug'orilib, ekinzorga aylantirildi.

O'zbekistonning eng katta maydoni – dasht va yaylovlari 26,6 mln. gektardan iborat. Shundan 11,0 mln. gektari sur-qo'ng'ir tuproqli, salkam 13 mln. gektari qum va qumloq tuproqli yerlar.

Tog' hududlaridagi yerlar 2,6 mln. gektar. Respublikada yagona o'rmon zonasi bo'lgan bu yerlarning suv va tuproqni muhofaza qilishdagi, aholi dam olishini ta'minlashdagi, chorvachilikni rivojlantirishdagi va atmosferani yaxshilashdagi ahamiyati katta.

O'zbekiston yerlari qadimdan sug'orib kelinadi. Sug'orma dehqonchilik qishloq xo'jaligining negizi, mamlakatning oltin fondidir.

Yer munosabatlarini tartibga solishning qonuniy-huquqiy asosi tashkil etilgan. Ulardan eng muhimi hozirgi davrda yer munosabatlarini tartibga solishning asosiy yo'nalishlari va tamoyillarini belgilab beruvchi hujjat – O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksidir (1998-y.).

Yer kodeksiga muvofiq yer O'zbekiston Respublikasida davlat mulki – umummilliy boylik hisoblanadi. Undan oqilona foydalanish kerak va u davlat tomonidan muhofaza qilinadi, oldi-sotdi qilinmaydi, almashtirilmaydi, garovga qo'yilmaydi, hadya etilmaydi, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Bundan tashqari, «Davlat yer kadastori to'g'risida», «Qishloq xo'jalik kooperativi (shirkati) to'g'risida», «Fermer xo'jaligi to'g'risida», «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi qonunlar qabul qilingan.

Yer resurslarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish masalalari – «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida», «Aholi muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar to'g'risida», «Yer osti boyliklari to'g'risida»gi qonunlar va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunlari bilan tartibga solinadi.

Yer resurslarini kompleks boshqarish maqsadida Yer resurslari davlat qo'mitasi tuzilgan. Yer va suv fondidan foydalanilishi va ular muhofaza qilinishi ustidan davlat nazorati Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi. Eng serhosil, qimmatli yerlar qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining atigi 10 foizini tashkil etadi, yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 95 foizidan ortig'i mana shu yerlarda yetishtiriladi. Sug'oriladigan yer fondi hajmi suv resurslariga bog'liq holda limitlashtiriladi. Suv resurslari esa hozirgi vaqtga kelib amalda sarflab bo'lingan. Sug'oriladigan yer maydoni 4,2 – 4,3 mln. gektarni yoki aholi jon boshiga 0,17 gektarga yaqini tashkil etadi. Muammo shundaki, yerlarning antropogen cho'lg'a aylanish jarayonlari kuchayishi demografik vaziyat tufayli yanada murakkablashmoqda.

Tog'oldi tumanlaridagi katta ekin maydonlari suv eroziyasiga, shamol kuchli esadigan zonalarda esa shamol eroziyasiga uchragan. Hosilning qariyb 15 foizi



yerlarning meiorativ holati yaxshi emasligi tufayli boy beriladi. Cho'l-yaylov hududlari, o'rmon maydonlari, aholi punktlari joylashgan yerlar, muhofaza qilinadigan to'qqizta qo'riqxonalar zonasi va ikkita milliy bog' ham yer resurslari tuzilmasida muayyan o'rin tutadi.

Quyidagi dasturlarni amalga oshirish davomida yer resurslarini boshqarish tizimini mustahkamlash va takomillashtirish nazarda tutilmoqda: 2013-yilgacha bo'lgan davrda yerlarning meliorativ holatini aniqlash dasturi; biologik xilma-xillikni saqlab qolish bilan bog'liq milliy rejalar, yerlarning cho'lga aylanishiga va qurg'oqchilikka qarshi kurash olib borish; 2001-2013-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturi; 2008-2014-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish jarayonlarini barqaror rivojlantirish dasturi; Amudaryoning quyi oqimlarida suv taqchilligi va qurg'oqchilikning oldini olish hamda ularning oqibatlarini yumshatishning milliy strategiyasi; Orol dengizi havzasidagi tanglik oqibatlarini yumshatish yuzasidan Markaziy Osiyo davlatlarining mintaqaviy hamkorlik dasturi.

Ko'rsatib o'tilgan dasturlar asosida quyidagi tadbirlarni keng doirada amalga oshirish nazarda tutilmoqda:

- tuproq unumdorligini va hosildorlikni oshirish uchun agromeliorativ ishlar olib borish; yerlar bundan keyin tanazzulga uchrashining oldini olish;

- mintaqaviy darajada chora-tadbirlar ko'rilishi hisobga olingan holda suvdan oqilona foydalanishning keng ko'lamli tadbirlari;

- asosiy tarmoqlar – paxtachilik, g'allachilik (va sholichilik), bog'dorchilik va chorvachilik ajratib ko'rsatilgan holda qishloq xo'jaligi tarmoqlarini xoslashtirilishini ishlab chiqish;

- yer resurslaridan foydalanishni rag'batlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish;

- yer munosabatlarini, yer resurslariga egalik qilish va undan foydalanish shakllarini rivojlantirish; O'zbekiston iqtisodiyotining ko'p tarmoqli va barqaror agrar uzilmasini shakllantirishni tugallash;

- kam mahsulli va qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan yerlar hisobiga maxsus axira yer fondini shakllantirish uchun mexanizmlar va shart-sharoitlarni ishlab chiqish, eusurlarni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish;

- yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish yuzasidan nazoratni kuchaytirish; yer resurslari dinamikasi va barqarorligini doimiy monitoring qilinishini ashkil etish.

O'zbekiston o'rmonlar bilan kamroq qoplangan mamlakatlar qatoriga kiradi. Bu muvadda o'rmonlarning iqtisodiy ahamiyati unchalik katta emas. Lekin shunga qaramay, barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun o'rmonlarning ekologik ahamiyati doimiy ravishda oshib bormoqda, chunki o'rmonlar himoyalash, qo'riqlash, tibbiy azifalarini bajarib, hayot ta'minoti sharoitlarini yaxshilashga xizmat qiladi, huningdek, iqlimni tartibga solishga, biologik xilma-xillikni himoya qilish va tiklashga o'maklashadi.

O'rmonlarning asosiy tavsifi: O'zbekistonda o'rmonlar davlat fondining bir ismi bo'lib uning umumiy maydoni 8,08 mln.ga, ya'ni mamlakat umumiy



maydonining 18,8 % ni tashkil etadi. Shu jumladan, qumloqdagi o'rmonlar 6,8 mln. ga; tog'dagi o'rmonlar 1,2 mln. ga; qariydigan o'rmonlar 0,08 mln. ga.

O'zbekiston Respublikasining o'rmonlar to'g'risidagi qonunchiligiga muvofiq barcha o'rmonlar davlat fondini tashkil etadi, xususiy mulk huquqi bilan o'rmonlarga egalik qilish nazarda tutilgan.

O'zbekiston hududida joylashgan o'rmonlar uch guruhga bo'linadi:

- himoya funksiyasini bajaruvchi o'rmonlar (suv resurslarini himoya qilish, eroziyaga qarshi va sanitariya o'rmonlari);

- himoya funksiyasiga ega bo'lgan va cheklangan tarzda foydalaniladigan o'rmonlar (aholi gavjum yashaydigan va transport yo'llari tarmoqlari zich bo'lgan tumanlardagi o'rmonlar);

- sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan qalin o'rmonlar.

O'rmonlarni boshqarishga doir davlat siyosati o'rmonlarni barqaror rivojlantirish konsepsiyasiga asoslangan. Ushbu konsepsiya biologik xilma-xillikni saqlab qolishga doir sa'y-harakatlar strategiyasida va rejada o'z aksini topgan hamda qishloq xo'jaligi, yer va suvdan foydalanish muammolarini idoralararo hal etish, sanoat salohiyatini rivojlantirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, cho'lga aylanishning oldini olish, ijtimoiy masalalarni hal etish prinsiplariga asoslanadi. 2000-yildan boshlab 2013-yilgacha atrof-muhit muhofazasi bo'yicha sa'y-harakatlarning Milliy dasturida va uni amalga oshirishga doir chora-tadbirlar dasturida nazarda tutilgan kompleks tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Biologik xilma-xillik strategiyasini amalga oshirish doirasida:

- qimmatli dori-darmonlar tayyorlashni tartibga solish va uning bir tekis rejasini ta'minlash masalalari hal etilishini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy negizni rivojlantirish;

- tabiiy o'simliklarning ekologik barqarorligi va mahsuldorligini oshirish maqsadida o'rmon resurslaridan oqilona foydalanishning iqtisodiy rag'batlantirilishi mexanizmini ishlab chiqish;

- Sirdaryo va Amudaryo qirg'oqlarida o'rmonzorlarni tiklashga yo'naltirilgan tizimni takomillashtirish, o'rmonlarni saqlash, ularni yong'inlardan himoya qilish; sanoat-o'rmon plantatsiyalarini kengaytirish;

- ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish ishlari bajarilishi ustidan monitoring kuzatishlarini olib borish; oliy o'quv yurtlarida maxsus va ma'rifiy ta'lim dasturlarini kengaytirish;

- o'rmon resurslari bo'yicha keng qamrovli muammolar yuzasidan akademik institutlarda tadqiqotlarni chuqurlashtirish.

O'rmon resurslarini muhofaza qilish va ularni barpo etish tadbirlari Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining o'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasiga ajratilgan davlat budjeti mablag'lari hisobiga bajariladi. Donorlik mablag'lari (Global ekologik jamg'arma, BMTning Taraqqiyot dasturi, Germaniya tabiatni muhofaza qilish ittifoqi) ishtirokida: «Orol dengizining qurib borayotgan tubini o'rmonzorlashtirish», «O'zbekistonda biologik xilma-xillikni saqlab qolish modeli sifatida Nurota – Qizilqum biosfera qo'riqxonasini barpo etish» loyihalari tayyorlangan. Ushbu loyihalarda o'rmon massivlarini saqlab qolish dasturlari nazarda tutilgan.

### 3.5. Togʻ, choʻlga aylanishga va qurgʻoqchilikka qarshi kurashish yoʻllari

Oʻzbekiston hududlarining katta qismi Qoraqum, Qizilqum, Ustyurt kabi choʻllar, sahrolar va yarim choʻllardan iborat. Mamlakat hududining qariyb 80 foizini tashkil etadigan tabiiy choʻllaridan tashqari keyingi yillarda yerlarning antropogen choʻlga aylanish jarayoni, yaʼni insonning faoliyati natijasida choʻlga aylanish jarayoni shiddat bilan kechmoqda. Bu, birinchi navbatda, Orolning ekologik halokatidir. Dengizning qurib qolgan qismida 33 ming kv. metr maydonda sahro shakllangan.

Respublikamizda suv eroziyasiga uchramagan maydon – 29 %, suv eroziyasiga uchragan maydon – 7 %, kuchli darajada suv eroziyasiga uchragan maydon – 4 %, shamol eroziyasiga uchramagan maydon – 10 %, shamol eroziyasiga uchragan maydon – 25 %, kuchli darajada shamol eroziyasiga uchragan maydon – 23 % ni tashkil etadi.

Yaylov va chorvachilik maqsadlarida yerlarning faol ishlatilishi, sahrolardan foydali qazilma boyliklarning qazib olinishi oʻsimlik olami kambagʻallashishiga va qisqarishiga, tuproq eroziyasiga, koʻchma qumlar maydonining kengayishiga olib keldi. 50 foizdan ortiq qishloq xoʻjaligi ekin maydonlarida shamol eroziyasi kuzatilmoqda. Qariyb 800 ming gektar qishloq xoʻjaligi ekin maydoni suv eroziyasiga uchragan. Eroziya bir mavsumda har gektar yerdan tuproqning 80 tonnagacha eng mahsuldor yuqori qatlamini koʻchirib ketmoqda. Hozirgi paytda adir hududda qariyb 10 mln. gektar yaylov tubdan yaxshilanishga muhtoj.

Choʻlga aylanishga qarshi kurash olib borilishidan manfaatdor boʻlgan va ushbu faoliyat rivojlanishiga koʻmaklashuvchi tuzilmalar quyidagilar: Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi, Qishloq va suv xoʻjaligi vazirligi, Yer resurslari davlat qoʻmitasi, Davlat tabiatni muhofaza qilish qoʻmitasi, «Boshgidromet» boshqarmasi va boshqa idoralar, mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari, ilmiy yoʻnalishdagi institutlar, shuningdek, hukumatga qarashli boʻlmagan koʻplab tashkilotlar, fuqarolar jamoalari.

1995-yili Oʻzbekiston Choʻlga aylanishga qarshi kurash boʻyicha halqaro konvensiyaga qoʻshildi, 1998-yilda Choʻlga aylanishga qarshi kurash boʻyicha saʼy-harakatlar milliy dasturi qabul qilindi. Ushbu dastur doirasida:

- choʻlga aylanish jarayonining iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini baholash;
- eroziyaga qarshi agrotexnik, meliorativ, gidrotexnik, oʻrmon fitoliorativ ishlar hamda tashkiliy-xoʻjalik tadbirlari: ekin maydonlari tuzilmasini takomillashtirish yoʻli bilan haydaladigan yerlarning unumdorligini tiklash; tanazzulga uchragan yaylov-pichanzor maydonlarining yuzasini tubdan yaxshilash, yaylovlardan navbati bilan foydalanishni joriy etish va mol boqishni cheklash;
- fundamental ilmiy va ilmiy-texnik dasturlarni ishlab chiqish;
- choʻlga aylanish va qurgʻoqchilik muammolari boʻyicha ilmiy tadqiqotlar oʻtkazish, shu jumladan, qumlarining oʻrnatilish qolishiga doir biotexnologiyalar sohasidagi tadqiqotlarni amalga oshirish;
- monitoringning zamonaviy usullarini joriy etish, choʻlga aylanish jarayonlarining rivojlanishi, ularning atrof-muhit holatiga taʼsiri yuzasidan kuzatishlar va nazorat tizimini barpo etish;
- yer-suvdan pulli foydalanish mexanizmlari tizimini rivojlantirish yoʻli bilan suvdan oqilona foydalanishni taʼminlash;
- mintaqaviy bajariladigan dastlabki loyiha va takliflarni tayyorlash;

• huquqiy asosni takomillashtirish, cho'l hududlarida tabiatdan oqilona foydalanishning iqtisodiy mexanizmlarini joriy etish ishlari olib borilmoqda.

1999-2013-yillarda atrof-muhitni muhofaza qilishga doir sa'y-harakatlarning milliy dasturlariga va chora-tadbirlar dasturiga muvofiq ko'chki va sel xavfini baholash, ko'chki xavfi kutilayotgan joylarni xaritaga tushirish ishlari olib borildi, eng xavfli tog' hududlarining xaritasi tuzildi.

Bundan tashqari, O'zbekistonda bir qancha Davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Ularda cho'lga aylanish jarayonlarini to'xtatishga qaratilgan tadbirlar nazarda tutiladi. 2014-yilgacha bo'lgan davrda aholining ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlanishini yaxshilash dasturi; Orolbo'yi suv taqchilligi oqibatlarini bartaraf etish chora-tadbirlari dasturi shular jumlasidandir.

Shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekistonda cho'lga aylanishga qarshi kurash ishlari davlat budgetidan, xalqaro tashkilotlar va donor mamlakatlar, tashkilotlar, sanoat korxonalarini va tijorat tashkilotlarining jamoatchilik jamg'armalari tomonidan mablag' bilan ta'minlanadi.

Hukumat kafolati ostida Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa moliyaviy investorlarning qarzlari jalb etilgan.

Tog'li tumanlar mamlakat nozik ekologiya tizimining muhim qismi hisoblanadi. Ular respublika hududining 20 %ga yaqinini tashkil etadi. Butun suv oqimi hajmining 17 %ga yaqini tog'li hududda shakllanadi. Tog'lardagi ekologik tizimlar har xil yaylovlar va o'rmonlarni o'z ichiga oladi. Ular gidroenergetikani rivojlantirishda va rekreatsiya resurslarini qo'llab-quvvatlashda katta ahamiyatga ega.

Respublika tog'li tumanlari Tyan-Shan va Hisor-Oloy tog' tizimlarida joylashgan va mamlakat umumiy hududining 15 %ini tashkil etadi. Shu jumladan, tog'oldi yarim cho'llar – 64 ming kv.km; baland tog'lik soylar – 9,6 ming kv.km; baland tog'lardagi yaylovlar – 6 ming kv.km; ignabargli va archazor o'rmonlar 1,2 ming kv.km.

Respublika tog'li hududlarining beshdan bir qismi tuproq eroziyasi, ko'chkilar, yemirilishlar va o'pirilishlar, sellar hududda joylashgan. Tog'lar hududining 15 foizigina o'rmonlar bilan qoplangan. Tog'lardagi yaylovlar kuchli zararlangan. Ushbu jarayonlarning tabiiy sabablari mavjud. Biroq bu jarayonlar ko'proq antropogen faoliyat, shu jumladan, irrigatsiyaning takomillashmagan usullaridan foydalanish, mollar tartibsiz boqilishi, daryolar va yer osti suvlarining zaharli kimyoviy birikmalar hamda sanoat, qishloq xo'jaligi chiqindilari va maishiy chiqindilar bilan ifloslanishi natijasida ham yuz bermoqda.

Tog'li tumanlarni barqaror rivojlantirish masalalari atrof-muhit muhofazasi bo'yicha sa'y-harakatlar milliy rejasining; biologik xilma-xillik milliy strategiyasining, barqaror rivojlantirish milliy strategiyalining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ularda quyidagi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutiladi:

– noosfer tayyorgarlik ko'rish va ekologik tizimlarni o'zlashtirish tamoyillaridan kelib chiqqan holda tog'li hududlarni rivojlantirish uchun tegishli shart-sharoitlarni shakllantirish;

– suv to'planadigan maydonlarning o'rmon-meliorativ holatini yaxshilash, tog'larning tabiiy resurslarini qo'riqlash va saqlash, Toshkent, Qashqadaryo va

surxondaryo viloyatlarining eng xavfli tog'li hududlari va O'sh – Toshkent avtomobil yo'nalishlarining xaritalarini tuzish;

–yer osti va yuza suvlari ifloslanishini, xavfli ekzogen jarayonlarni, favqulodda vaziyatlarni monitoring qilish;

–ekologik talablar doirasida, ayniqsa, milliy bog'larda, suv qo'riqlanadigan hududlarda, buyurtmaxonlar va qo'riqxonalarda faol xo'jalik faoliyati olib borilishini cheklash;

–tog'li tumanlardagi aholining atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan sohalarida mehnat qilishi uchun shart-sharoitlarni ta'minlash;

–aholini va ishlab chiqarish obyektlarini elektr energiyasi bilan ta'minlash maqsadida kichik daryolarda kichik gidroenergetikani rivojlantirish dasturini amalga oshirish;

–Markaziy Osiyoning uch respublikasi – O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'izistonning sa'y-harakatlari bilan Global ekologiya jamg'armasi va BMT Taraqqiyot loyihasining moliyaviy qo'llab-quvvatlashi ostida «G'arbiy Tyan-Shanning biologik xilma-xilligini saqlab qolish» loyihasi amalga oshirilmoqda.

Ushbu sohada nazarda tutiladigan faoliyatni huquqiy tartibga solish yo'llari «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida», «Aholi muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar to'g'risida», «Yer osti boyliklari to'g'risida», «O'simlik va hayvonot dunyosini qo'riqlash va ulardan foydalanish to'g'risida»gi qonunlar bilan ta'minlanadi.

Bu borada, hukumatimiz tomonidan bir qancha qarorlar qabul qilingan. «Yovvoyi hayvonlar va o'simliklarni muhofaza qilishni kuchaytirish hamda ulardan foydalanishni tartibga solish», «Alohida muhofaza qilinadigan davlat kadastrini yuritish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida» va boshqalar shular jumlasidandir.

O'zbekiston barqaror rivojlanishi uchun biologik xilma-xillik resurslarining muhimligini e'tirof etib, 1995-yilda biologik xilma-xillik to'g'risidagi konvensiyani ratifikatsiya qildi. Keyingi yillarda flora va faunani saqlab qolish, hayot ta'minoti muhiti sifatida ekologiya tizimini tiklash yuzasidan faol siyosat olib borildi. Respublika o'z zimmasiga olgan majburiyatlar bajarilishini ta'minlovchi ishlar ijrosi tashkil etilishi uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi idoralararo Muvofiqlashtiruvchi kengashi (nazorat qo'mitasi)ni ta'sis etdi, biologik xilma-xillikni saqlab qolish bo'yicha milliy strategiya va sa'y-harakatlar rejasi ishlab chiqildi va hukumat tomonidan ma'qullandi.

O'zbekiston hududining biologik xilma-xilligi 27 mingdan ortiq o'simliklar va hayvonlar turlaridan, shu jumladan, 15 mingdan ortiq hayvonlar hamda, 11 mingta zamburug'lar va suv o'tlari turlaridan iborat.

Biologik xilma-xillik alohida qo'riqlanadigan hududlarda – qo'riqxonalar, tabiiy milliy bog'lar, buyurtmaxonlar va muhofaza qilinadigan boshqa hududlarda, ayniqsa, samarali saqlanadi. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda 9 ta davlat qo'riqxonasi, 2 ta davlat milliy bog'i, 9 ta buyurtmaxona, 2 ta tabiat yodgorliklari, 1 ta yovvoyi hayvonlarni ko'paytirish markazi faoliyat ko'rsatmoqda. Qo'riqxonalar va milliy bog'larga ajratilgan yerlarning umumiy maydoni 20 ming kv. km.dan ortiq yuqori respublika hududining 4,6 %ini tashkil etadi, 1991-yilda esa qo'riqlanadigan chegara 2,5 %ni

tashkil etar edi (Xalqaro tavsiyalarga binoan bunday chegaralar hududi mamlakat butun hududining qariyb 10 %ini tashkil etishi kerak).

O'zbekistonning biologik xilma-xillik to'g'risidagi konvensiya doirasida zimmasiga olgan majburiyatlarini biologik xilma-xillikni saqlab qolish bo'yicha milliy strategiya va sa'y-harakatlar rejasini doirasida amalga oshirish nazarda tutilmoqda. Ularda ustuvorlik tartibida quyidagi asosiy tadbirlar belgilangan:

- alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning umumiy maydonini respublika hududining 10 foizigacha yetkazish maqsadida alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni rivojlantirish va joylashtirishning bosh rejasini ishlab chiqish, bu boradagi ishlarning butun tizimini takomillashtirish;

- alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni boshqarishga integratsion yondashish;

- alohida muhofaza qilinadigan hududlar, hayvonot va o'simlik olamini davlat kadastrlari yuritilishini takomillashtirish hamda alohida muhofaza qilinadigan hududlarda ilmiy tadqiqotlar olib borishning davlat dasturini ishlab chiqish;

- biologik xilma-xillikdan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish va yanada rivojlantirish, ov qilish, baliq ovlash, dorivor giyohlarni terish kabilarni tartibga solish va boshqalar; biotexnologiyalarni hamda bioformatsevtika sanoatini rivojlantirish.

Biologik xilma-xillikni saqlab qolish yuzasidan bajariladigan ishlar uchun moliyaviy resurslar davlat budjetidan (davlat qo'riqxonalari va milliy bog'larni saqlash uchun), Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasining tegishli bo'linmalaridan, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining o'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasidan, dasturlar va loyihalarni bajarish uchun (ular orasida Qizilqum - Nurota qo'riqxonasini barpo etish, G'arbiy Tyan-Shanda biologik xilma-xillikni saqlab qolish loyihasi ham bor), Global ekologiya jamg'armasi va BMTning Taraqqiyot dasturidan, tabiatni muhofaza qilish respublika va mahalliy jamg'armasidan ajratiladi.

### **Qisqacha xulosalar**

Atrof-muhitni muhofaza qilishda «tabiat», «atrof-muhit», «tabiiy sharoit», «tabiiy majmualar», «tabiiy resurslar», «tabiiy qulaylik», «tabiatdan foydalanish» kabi tushunchalarning ma'nosini bilish lozim.

Ushbu bobning tadqiqot obyekti tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liq ta'sirning sabab-oqibatlarini hamda inson faoliyatining nomaqbul oqibatlarini bartaraf etish choralarini topishdir.

Atrof-muhitni muhofaza qilish qator tamoyil va qoidalarga tayanmog'i lozim. Atrof-muhit muhofazasining ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, ekologik iqtisodiy, ijtimoiy-gigienik, texnik-texnologik, tarbiyaviy, nafasat, ilmiy-tajribaviy jihatlari mavjud. Atrof-muhitni muhofaza qilishning ilmiy asoslari tabiat va jamiyatda narsa va hodisalarning o'zaro aloqadorligi to'g'risidagi ta'limot bo'lib, u tabiatdan foydalanish, uni o'zgartirish va muhofaza qilish tadbirlarini ishlab chiqishda muhim o'rin tutadi.

Yerda hayot mavjudligining asosiy sharti atmosferaning mavjudligidir. Atmosfera asosan ozon, kislorod, karbonat angidrid, argon va boshqa gazlardan tashkil topgan. Atmosfera to'rtta qatlamdan iborat: oproposfera, stratosfera, noosfera, ekzosfera.

Atmosfera havosi tabiiy va sun'iy ifloslanadi. Atmosferaning sun'iy ifloslanishi global ekologik muammolar (ozon teshigi, kislotali yomg'irlar, «issiqlik effekti»)ni keltirib chiqarmoqda. Shuningdek, atmosfera ifloslanishi iqlim, kishilar salomatligi, o'simlik va hayvonot dunyosiga, suv resurslariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Atmosfera ifloslanishining iqtisodiy oqibatlari, atmosfera havosini muhofaza qilishda o'ziga xos tadbirlar mavjud.

O'simliklarning tabiatda va inson hayotidagi ahamiyati juda katta. O'simliklar fotosintez jarayonida CO<sub>2</sub> ni yutib, O<sub>2</sub> yetkazib beradi. O'rmon resurslari yer yuzasi bo'ylab notekis joylashgan. O'simliklarning kesilishi va maydonlarning qisqarishi salbiy oqibatlarga olib kelmoqda.

O'zbekiston o'rmonlar, tog' va tekisliklarga bo'linadi. O'zbekistonda dorivor o'simliklar juda ko'p. Noyob va xo'jalik jihatidan ahamiyatli o'simliklarni muhofaza qilish zarur. Ularning aksariyati «Qizil kitob»ga kiritilgan.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Atmosferaning ahamiyati nimada?
2. Atmosfera qanday tarkib va tuzilishga ega?
3. Atmosfera ifloslanishining qanday turlari mavjud? Ularga qisqacha ta'rif bering.
4. O'zbekistonda atmosfera ifloslanishining qanday manbalari mavjud?
5. Atmosferaning ifloslanishi qanday salbiy oqibatlarga olib keladi?
6. Atmosferani muhofaza qilish tadbirlari nimalarni ko'zda tutadi?
7. Yerdan oqilona foydalanish deganda nimani tushunasiz?
8. O'zbekistonning biologik boyliklari va ulardan foydalanish qanday ahvolda?
9. O'zbekistondagi o'rmonlar to'g'risida nimalarni bilasiz?
10. O'zbekistonda biologik resurslarning xilma-xilligiga sabab nima?

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Karimov I. "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi"//Xalq so'zi, 2014-iy 18-yanvar.

2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.-T.: O'zbekiston, 2011-y, 421b.

3.Yo'ldoshev Z. Milliy iqtisodiyot.-T.: Mehnat, 2004, -168 b.

4. Ishmuxamedov A.E. O'zbekiston milliy iqtisodiyoti Darslik - T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005, -304 b.

5. Ishmuxamedov A.E. va boshqalar. Makroiqtisodiyot. Darslik - T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005, -192 b.

6. Tuxliyev N. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. - T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006, -280 b.

### **7. Internet veb-saytlari.**

[www.gov.uz](http://www.gov.uz).

[www.presservice.uz](http://www.presservice.uz).

[www.pca.uz](http://www.pca.uz).

[www.micro-macroiqtisodiyot.fan.uz](http://www.micro-macroiqtisodiyot.fan.uz)

## 4-bob. MAKROIQTISODIY VAZIYAT VA UNING ASOSIY YO'NALISHLARI

### 4.1. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari

Iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadi barqaror iqtisodiy o'sishga erishishdir. Bu maqsadga erishmay turib, aholi turmush darajasini oshirish, ijtimoiy muammolarni yechish, mamlakatning jahon hamjamiyatidagi iqtisodiy va siyosiy mavqeiini mustahkamlash mumkin emas. Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan barcha mamlakatlar qatorida O'zbekiston ham barqaror iqtisodiy o'sishga erishishni iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadi sifatida belgilab oldi.

Iqtisodiyotimizda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, inflyatsiya darajasini sezilarli ravishda pasaytirish hamda qat'iy moliya va kredit siyosatini o'tkazish g'oyat muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, makroiqtisodiy barqarorlikning o'sishi mehnatga yaroqli aholining ish bilan yuqori darajada bandligi, to'lov balansining qoniqarli ahvolda ekanligi va milliy valyutaning tashqi bozorlardagi barqarorligi singari ko'rsatkichlarda aks etadi. Bu ko'rsatkichlarni baqarorlashtirishga vazmin monetar-fiskal siyosat, narx va ish haqi hamda tashqi iqtisodiy siyosat yuritish bilan erishish mumkin.

Mustaqilligimizning o'tgan davrlari mobaynida O'zbekiston hukumati makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, aholi turmush darajasini oshirish, bozor islohotlarini chuqurlashtirish, tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga qaratilgan oqilona siyosat olib bordi. O'z navbatida, mamlakatimizda agrar, mulkiy munosabatlar, moliya-kredit, tashqi iqtisodiy aloqalar, narx-navo va ijtimoiy sohalarida islohotlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatni ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish strategiyasining asosiy ustuvorliklari etib quyidagilar belgilangan edi: jamiyatning siyosiy, iqtisodiy turmushini erkinlashtirish; yuqori malakali kadrlar tayyorlash; xalqning moddiy farovonligini barqaror o'stirish, aholini ijtimoiy muhofaza qilishni kuchaytirish; iqtisodiyotda tarkibiy qayta o'zgartirishlarni amalga oshirish; jamiyatda barqarorlik, tinchlik, millatlararo va fuqorolar totuvligini ta'minlash.

Ushbu ustuvorliklar doirasida qisqa davr ichida bosib o'tilgan mustaqil yo'limiz mamlakat Prezidenti I.A. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan, iqtisodiy islohotlarning «O'zbek milliy modeli» asosida naqadar to'g'ri ekanligini yana bir bor tasdiqladi.

O'tgan 20 yil ichida biz islohotlarning butun bir davrini bosib o'tdik. Jahon iqtisodiyotiga kirib oldik, aniq natijalarga erishdik. Bular asosan, quyidagilardan iborat:

**Birinchi**dan, mamlakatimizda iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik qaror topdi. Qisqa vaqt ichida chuqur iqtisodiy va ijtimoiy inqirozdan chiqib oldik. Iqtisodiyotning barcha sohalarida tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Ko'p tarmoqli iqtisodiyotni va bozor tuzilmalarini barpo etish jarayoni jadal davom ettirildi.

**Ikkinchi**dan, iqtisodiy islohotlarning va bozor o'zgarishlarining me'yoriy-huquqiy asoslari yaratildi, iqtisodiyotni boshqarish tizimi isloh qilindi.

**Uchinchi**dan, makroiqtisodiy va moliyaviy vaziyatda barqarorlikka va 2001-yildan iqtisodiy o'sishga erishildi.

**To'rtinchi**dan, iqtisodiyotning tarkibini o'zgartirish asosida energetika xavfsizligi va neft mustaqilligi ta'minlandi.

**Beshinchidan,** qishloq xo'jaligida ekin maydonlari tizimini tubdan o'zgartirish asosida g'alla mustaqilligiga erishildi.

**Oltinchidan,** islohotlarning barcha bosqichlarida ham ijtimoiy muhofaza va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash ustuvor bo'lib qolaverdi.

Respublikamizda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda izchil budjet va pul-kredit siyosati, iqtisodiyotning real ishlab chiqarish sektorlariga qulay sharoitlar yaratish, soliq yukini va soliq turlarini kamaytirish va soddalashtirishga yo'naltirilgan siyosatni amalga oshirish, xorijiy davlatlar sarmoyalarini jalb etishni qo'llab-quvvatlash, xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish, mamlakat eksport salohiyatini oshirish va O'zbekiston jahon iqtisodiyotining to'laqonli a'zosi bo'lishini ta'minlashga yo'naltirilgan tashqi iqtisodiy siyosat olib borish iqtisodiy islohotlar hozirgi bosqichining asosiy mazmuni va mohiyatini tashkil etadi. Shuni ta'kidlash kerakki, izchil iqtisodiy siyosat olib borish so'nggi yillarda iqtisodiy o'sishda yiliga 4 %ga oshdi.

Iqtisodiy o'sish sur'atlarining muntazam oshib borishi natijasida inflyatsiya ko'rsatkichining eng past darajasiga erishildi. Bu ko'rsatkich 2000-yilda 28 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2013-yilda 6,8 %ga teng bo'ldi. Bunday natijaga asosan quyidagilar tufayli erishildi: pul massasi ustidan nazorat mexanizmi takomillashtirildi; tijorat banklarining ortiqcha likvidligini Markaziy bank depozitlariga jalb etish amaliyoti kengaytirildi; Markaziy bank obligatsiyalari bilan operatsiyalar o'tkazish ko'lami oshirildi; qayta moliyalash stavkasi inflyatsiya darajasi va pulga bo'lgan talabga mutanosib ravishda o'zgartirib borildi va 2006-2013-yillar davomida bosqichma-bosqich 20 % dan 6,8 %ga tushirildi; budjet taqchilligi yildan-yilga kamayib, oxirgi yillarda YAMM hajmining 1 %dan oshmoqda va shundan kelib chiqqan holda Markaziy bank kreditlaridan foydalanish kamaygandi. Bunga iqtisodiy islohotlarning o'zaro chambarchas bog'liqligi ma'lum darajada ta'sir ko'rsatdi.

Milliy iqtisodiyotni isloh qilish iqtisodiy islohotlarning eng ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Chunki iqtisodiyotning rivojlanishi quyidagi sohalarda ham sezilarli o'zgarishlar kiritish va muayyan natijalarga erishishga, chunonchi, iqtisodiyotning real tarmoqlarini rivojlantirish, aholi daromadlarini oshirish va shundan kelib chiqqan holda aholining bank tizimidagi jamg'armalari ortishi, yangi ish o'rinlarini yaratish, eksport salohiyatini oshirish, bozorlarni raqobatbardosh, sifatli tovar va mahsulotlar bilan boyitish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari importidan voz kechish va boshqalarga ham yordam beradi.

Bulardan tashqari monitar siyosatning amaliy natijasi – milliy valyuta barqarorligi ta'minlandi. Ichki valyuta bozorida operatsiyalar hajmi sezilarli darajada oshirildi; so'mning almashuv kursi barqarorligiga erishildi. Birgina 2005-yil mobaynida O'zbekistonning rasmiy oltin-valyuta zaxiralari sezilarli darajada, ya'ni 30 foizdan ko'proq oshdi. Milliy valyuta barqarorligi ta'minlanishi va barqaror tashqi iqtisodiy siyosatning amaliy natijasi sifatida tovar va xizmatlar eksportining 2013-yilda 15,4 %ga oshganligini ko'rsatish mumkin. Shu bilan birga, eksport tarkibi sifat jihatidan o'zgardi: tayyor mahsulotlarning eksportdagi ulushi 60 foiz o'sdi; tashqi savdo aylanmasida 5 milliard AQSH dollaridan ortiq miqdordagi ijobiy saldoga erishildi.

Shu bilan birga respublika eksporti tarkibida paxta tolasi 2002-yilda 22,4 %, 2004-yilda 11,3 %, metallar 3 %dan 4,6 %ga, oziq-ovqat 6,4 %dan 8,5 %ga, xizmatlar 3,9 % dan 6,9 %ga, kimyo va plastmassa mahsulotlari 3,9 % dan 6,8 %ga,



mashinasozlik 8,1 %dan 5,5 %ga, energetika 15,9 %dan 24,8 %ga, boshqalar 36,8 %dan 27,7 %ga o'zgardi. Respublika valyuta barqarorligi ko'rsatkichlari 4.1- jadvalda keltirilgan.

4.1-jadval

**Milliy valyuta barqarorligi**

Ko'rsatkichlar	2003-y.	2005-y.	2010-y.	2012-y
Rasmiy zaxiralar, (yil oxiriga, 2001-y. q100foiz)	100	120,1	-	-
Almashinuv kursi, \$/ so'm (o'rtacha yillik)	979,4	1180,1	1640,0	1984,0
O'rtacha yillik almashinuv kursining qadrsizlanishi (o'tgan yildagiga nisbatan foiz hisobida)	179,0	108,8	108,5	109,9

Bulardan tashqari O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi qo'shma korxonalarda ishlab chiqarish hajmi 2003-yildagiga nisbatan 2004-yilda 24 foizga ortdi va umumiy ishlab chiqarishda ularning ulushi 20,2 %ni tashkil etdi, eksport hajmida esa 39,1 %ga ko'paydi. Masalan, «O'zbekyengilsanoat» DAK korxonalarining eksporti 1997-yildagi 40000 ming AQSH dollaridan 2003-yilda tarmoq bo'yicha 213000 ming, qo'shma korxonalarda esa 154823 ming AQSH dollariga, ya'ni soha bo'yicha 9 martaga oshdi. To'qimachilik sanoatiga sarmoyalar jalb-etish hisobiga paxta tolasini chuqur qayta ishlashdan mahsulot qo'shimcha narxining o'sishi qay darajada bo'lishini «Bursel Toshkent Tekstil» qo'shma korxonasi misolida ham yaqqol ko'rish mumkin (4.2-jadval).

Keltirilgan raqamlar paxta tolasini chuqur qayta ishlash samaradorligini ko'rsatadi. Shundan kelib chiqib, quyidagilar kelajakda to'qimachilik sanoati korxonalarini rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlari sifatida belgilandi:

4.2.-jadval

**«Bursel Toshkent Tekstil» qo'shma korxonasida 1 kg. paxta tolasini chuqur qayta ishlashda mahsulot qo'shimcha narxining o'sishi**

№	Mahsulot turi	1 kg. paxta tolasidan chiqishi	Narx, AQSH dollari (o'sish)
1.	Paxta tolasini	-	1,2
2.	Ip-kalava (Nm51)	0,85 kg.	2,0 (66 foiz)
3.	Trikotaj mato	0,82 kg.	2,2 (83 foiz)
4.	Erkaklar futbolkasi	5 dona	12,5 (10 marta)

•2009-yil 1-yanvargacha tayyor gazlamalar va kiyimlar, paypoqlar va oyoq kiyimlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, chet el sarmoyalari ishtirokida tashkil qilingan korxonalar uchun imtiyozlar muddati uzaytirildi. Unga binoan, korxonalar QQS dan tashqari budjetga to'lanadigan barcha soliq va to'lovlardan ozod qilinadi;

• texnologik qayta jihozlashni amalga oshiruvchi korxonalar ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun keltiradigan texnologik va yordamchi jihozlarni, butlovchi va ehtiyot qismlarni olib kirishda bo'xona to'lovlaridan ozod qilinadilar va bu loyihalar yakuniy bahosining ancha arzonlashishiga olib keladi;

• keyingi 4 yilga tegishli imtiyozlarning uzaytirilishi evaziga xorijiy kimyoviy mahsulotlar, bo'yoqlar, funitura va aksessuarlar, shuningdek, boshqa yordamchi mahsulotlarni (respublikamizda ishlab chiqarilmaydigan) keltirgan korxonalar ham bo'xona to'lovlaridan ozod qilinadilar.

Sifatli xomashyo resurslarining mavjudligi, nisbatan qimmat bo'lmagan malakali ishchi kuchi; tegishli infratuzilma va transport kommunikatsiyalari, sanoatni rivojlantirishga qaratilgan imtiyoz va yangiliklar, respublikamiz mintaqalarida to'qimachilik korxonalarini rivojlantirish uchun asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Iqtisodiy islohotlar jarayonida yuqorida qayd etib o'tilgan ijobiy natijalarga erishishda soliq siyosati katta ahamiyat kasb etib, so'nggi yillarda iqtisodiyotda soliq yuki darajasining kamaytirilishiga, soliqlarning turlari va hisoblash mexanizmlari takomillashtirilishiga, rag'batlantiruvchilik o'rni kuchaytirilishiga va soliq tizimi barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan. O'zbekistonda soliq yuki yildan-yilga muntazam ravishda pasayib bormoqda. Agar 1997-yilda ushbu ko'rsatkich YAIM ning 39,1 %ini, 2002-yilda 33,6 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2012-yilga kelib, 2250%ga teng bo'ldi. Soliq turlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, 1998-yilda ular 24 ta bo'lgan bo'lsa, 2010-yilga kelib, 11 tagacha kamaydi. Shu bilan birga, moliyaviy hisobot va soliq hisob-kitoblarini soddalashtirish hamda to'lash muddatlarini takomillashtirish bo'yicha muayyan tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Yuqorida qayd etilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida korxonalar ixtiyorida qoladigan mablag'lar ulushi ko'payishi evaziga uning aylanma mablag'lari miqdorini oshib borishi va optimal darajasini saqlash, ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish, uning samaradorligini oshirish maqsadida ko'proq investitsiya kiritish, xodimlar mehnatini yanada rag'batlantirish imkoniyati paydo bo'ldi.

#### **4.2. Mulkiy munosabatlar shakllanishi va ahamiyati**

O'tgan yillarda respublikamizda budget xarajatlari samaradorligini oshirish va optimallashtirishga erishildi: budget xarajatlarining samarali ishlatilishi; manzilliligini ta'minlash; rejalashtirish uslublarini takomillashtirishga qaratilgan bir qator tadbirlar amalga oshirilmogda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi «Davlat budgetining g'azna ijrosi to'g'risida»gi qonunga asosan 2005 – 2013-yillarda g'aznachilik tizimini joriy etish va shu bilan bir qatorda boshqaruv va nazoratning samarali tizimini yaratish, respublikamiz fuqarolarining turmush darajasini ko'tarish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida budget tashkilotlari ishchi-xizmatchilarining oylik ish haqi, stipendiya va ijtimoiy nafaqa miqdorlarini infiyatsiya darajasidan yuqori bo'lgan miqdorlarda oshirish yo'lga qo'yilgan.

Tarkibiy islohotlarni izchil o'tkazish natijasida respublikamiz iqtisodiyotining ishlab chiqarish tarmoqlari, qishloq xo'jaligi, yoqilg'i-energetika, tog'-kon va to'qimachilik sanoati ishlab chiqarishining jadal su'ratlarda o'sishini ta'minlash maqsadida xorijiy investitsiyalarni jalb etishni qo'llab-quvvatlash, soliq imtiyozlarini joriy etish, texnologik uskunalarni yangilash, transport va kommunikatsiya tizimlarini

kengaytirish, tariflarni belgilash siyosatini o'z-o'zini qoplash yo'nalishida ko'rib chiqish va xususiyashtirish siyosatini olib borish borasida muayyan chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Shu bilan birga hal qilinmagan muammolar ham mavjud. Masalan, 2005-yil boshida respublikamizda paxta tolasini qayta ishlash quvvatlari yiliga 270 ming tonnani tashkil etsa, shundan atigi 140 ming tonnasi zamonaviy jihozlangan, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalariga, 130 ming tonnasi esa eskirgan uskunalarda ishlovchi korxonalariga to'g'ri keladi. Ya'ni, hozirgi kunda paxta tolasini yarmidangina yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish va bundan foydalanish imkoniyatlari mavjud.

Respublikada tabiiy resurslardan foydalanish siyosatini amalga oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida birgina «O'zbekyengilsanoat» DAK korxonalari 2005-2013- yillarda amalga oshirilgan 94 ta investitsiya loyihalari dasturlaridan o'rin olgan. Bu loyihalar quyidagilarni nazarda tutadi:

- paxta tolasini chuqur qayta ishlashni va tayyor tikuv-trikotaj buyumlari ishlab chiqarishni;

4.3-jadval

**O'zbekistonda xususiyashtirish, korporativ boshqaruv va qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi**

Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	2003-y.	2004- y.	2013-y.
Xususiyashtirilgan korxonalar, ob'ektlar, aksiyalar paketlari va ulushlari miqdori, jumladan:	dona	1698	1841	631
Investitsiyalarga nol qiymatida investitsiyaviy majburiyat bilan berilgan ob'ektlar soni	dona	-	242	-
Xususiyashtirishdan tushgan mablag'larning umumiy miqdori	mlrd. so'm	56,0	78,5	111,1
Xorijiy investitsiyalardan tushgan mablag'lar	mln. AQSH dollari	24,4	46,3	47,9
O'z moliyaviy ahvolini yaxshilagan xususiyashtirilgan korxonalar	dona	1303	1881	-
Fond bozorining umumiy aylanmasi, jumladan:	mlrd. so'm	93,4	146,2	66,7
Xususiyashtirilgan korxonalar aksiyalarining aylanmasi	mlrd. so'm	41,6	51,4	558
Aksiyalarning ikkilamchi bozordagi aylanmasi	mlrd. so'm	20,8	52,9	49,5

- 1,2 mlrd. AQSH dollari miqdorida investitsiyalar jalb qilinishini;

- paxta tolasini qayta ishlash hajmlarini 385,7 ming tonnaga, matolar ishlab chiqarishni 144,4 mln. pogon metrغا, trikotaj matoni 34,8 tonnaga, tayyor mahsulotni 252 mln. donaga oshirish.

Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishga xususiy mulk hissasini oshirish va xususiy mulkdorlar sinfini shakllantirish, aholini ish bilan ta'minlash va qo'shimcha qiymatli tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishda tadbirkorlik ishtirokini kengaytirish, xususiy lashtirish, korporativ boshqaruv, qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish orqali erishiladi. (4.3-jadval).

Davlat mulkini boshqa mulk shakllariga aylantirish va tadbirkorlikning o'rmini yuksaltirish maqsadida islohotlar davrida quyidagi tadbirlar amalga oshirildi:

- bank tizimi tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini mikrokreditlash mexanizmi soddalashtirildi, ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida maxsus banklar tashkil etilgan. Imtiyozli kreditlash jam'armalaridan kreditlar ajratish jarayoni kengaytirildi. Minibanklar soni 1122 taga, «Bank-mijoz» dasturidan foydalanuvchilar soni 2312 taga yetkazildi;

- birgina 2013-yilda banklar tomonidan iqtisodiyotning real sektoriga milliy valyutada ajratilgan kreditlar miqdori 35 %ga oshib, 11530 mlrd. so'mni tashkil etdi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga 2700 mlrd. so'm miqdorida kreditlar ajratildi. Xorijiy kredit liniyalari hisobidan 9600 mln. AQSH dollari miqdorida mablag'lar o'zlashtirildi.

#### **4.3. Tarkibiy siljishlar va ustuvor yo'nalishlar**

Tarkibiy siljishlarni ta'minlashda investitsiya muhitining yaxshilanishi berilayotgan kreditlarning muddatini uzaytirish va ularning foiz stavkasini pasaytirish imkonini bermoqda. 2013-yilda bank kreditlarining 84 foizini uzoq muddatli kreditlar tashkil etdi, ular bo'yicha foiz stavkalari yillik 18 foizdan 14 foizgacha pasaydi.

Kichik korxonalarining xomashyo resurslari, asbob-uskuna, texnologiya va butlovchi qismlar bozoriga kirish imkoniyatini kengaytirish maqsadida respublika tovar-xomashyo va fond birjasi orqali erkin savdosi yo'lga qo'yilgan mahsulotlar soni ko'paytirildi. Masalan, birgina 2013-yilda fond bozori aylanmasi 1781,5 mlrd. so'mni yoki 2012-yilga nisbatan 2,6 marta ortdi. Jumladan, xususiy lashtirilgan korxonalar aksiya larining sotilishi birlamchi bozorda 9,8 mlrd. so'mga, ikkilamchi bozorda esa 32,1 mlrd. so'mga yetdi.

Qishloq xo'jaligi sohasida 2013-yil yakunlariga nazar salsak, mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi 18,4 foizga oshdi. Boshqoli don ekinlaridan 6,8 mln. tonnaga yaqin hosil olindi. Keyingi yillarda birinchi marta paxta xomashyosi yetishtirishda eng yuqori natijaga erishildi yani: -3,5 mln. tonna paxta yetishtirildi.

Yuqorida qayd etilgan yutuqlar, albatta, qishloq xo'jaligida olib borilayotgan islohotlar natijasida qo'lga kiritildi. Keyingi yillarda ushbu sohada iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish bo'yicha Prezident farmonlari va hukumat qarorlari qabul qilindi. Respublikamiz Prezidentining 2003-yil 24-martdagi «Qishloq xo'jaligida islohotlarni yanada chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida»gi, PF-3226-sonli, 2003-yil 27-oktabrdagi «2004-2006-yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida»gi PF-3342-sonli Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30-oktabrdagi «2004-2006-yillarda fermer xo'jaliklarini

rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish choralar-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori shular jumlasidandir.

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- davlat xaridi doirasida narx siyosatini qayta ko'rib chiqish;
- dastlab respublikamizning to'rtta viloyatida va 2004-yildan boshlab qolgan viloyatlarda fermer xo'jaliklarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta xomashyosi va g'alla yetishtirish xarajatlarini tijorat banklari orqali to'g'ridan-to'g'ri imtiyozli kreditlash mexanizmiga o'tildi va birgina 2004-yilda banklar tomonidan fermer xo'jaliklariga 68,8 mlrd. so'mlik imtiyozli kreditlar ajratildi. 2005-yilda to'g'ridan-to'g'ri imtiyozli kreditlar xo'jaliklarga nisbatan ham to'liq joriy etildi;
- paxta tozalash sanoati va uning mahsulotlarini sotish korxonalarini xususiy lashtirish va boshqaruv tizimi desentralizatsiyasini amalga oshirish;
- zarar ko'rib ishlayotgan, past rentabelli va istiqbolsiz shirkat xo'jaliklarini fermer xo'jaliklariga aylantirish borasida Prezidentimiz farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari qabul qilindi va ular ijrosi natijasida 2005-yil 1-yanvar holatiga ko'ra respublikamiz hududida 103 mingdan oshiq fermer xo'jaliklari faoliyat ko'rsatmoqda. Zarar ko'rib ishlaydigan, past rentabelli va istiqbolsiz shirkat xo'jaliklarini 2005-2008-yillarda fermer xo'jaliklariga aylantirish dasturi qabul qilinib, 2005-yilda 406 ta, 2006-yilda 370 ta, 2008-yilda 334 ta shirkat xo'jaligi fermer xo'jaliklariga aylantirildi. Shu kecha-kunduzda joylarda yuqorida tilga olingan shirkat xo'jaliklarini fermer xo'jaliklariga aylantirish bo'yicha tugatish komissiyalari faoliyat ko'rsatmoqda. Viloyatlarning taklifini inobatga olgan holda 2005-yilda yana 39 ta shirkat xo'jaligi fermer xo'jaliklariga aylantirildi. Shunday qilib, 2005-yilda 445 ta shirkat xo'jaligi fermer xo'jaliklariga aylantirildi (4.4-jadval).

#### 4.4-jadval

##### O'zbekistonda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish

Ko'rsatkichlar	2005-yil 11-yanvarda	2013-yilda
Fermer xo'jaliklari soni	103929,0	170000,0
Fermer xo'jaliklari yer maydoni (ming ga)	2935,5	6200,0
Fermer xo'jaliklari tomonidan yetishtirilgan g'alla salmog'i	54 foiz	90 foiz
Fermer xo'jaliklari tomonidan yetishtirilgan paxta salmog'i	51,5 foiz	90 foiz

Qishloq xo'jaligi sohasidagi islohotlar quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

- qishloq ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini rivojlantirish;
- kichik paxtachilik va g'allachilik fermer xo'jaliklarining yer maydonlarini belgilangan tartibda maqbullashtirish va yiriklashtirish, uftarda suv resurslaridan samarali foydalanish, mexanizatsiyalash darajasini oshirish;
- mamlakatimizda ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi texnikasini lizing asosida yetkazib berish va yerlarning meliorativ holatini yaxshilash.

Bulardan tashqari qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining moliyaviy manbalarga bo'lgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish hamda ulardan umumli foydalanishni ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan 2005-yil

hosildan boshlab, mulkchilik shaklidan qat'i nazar barcha paxta va g'alla yetishtiruvchi qishloq xo'jaligi korxonalari mablag'larni transhlar orqali olish o'rniga to'g'ridan-to'g'ri tijorat banklari orqali imtiyozli kreditlashga o'tkazildi.

Respublikamizda xususiy lashtirish jarayonini tezlashtirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshirilmoqda:

– davlat tasarrufida bo'lgan korxonalar, ularning likvidligidan kelib chiqqan holda xususiy lashtirishning differensial yo'li qo'llanmoqda;

– xususiy lashtirilayotgan korxonalarning investitsiya jozibadorligini oshirish choralarini ko'rilmogda;

– xususiy lashtirilayotgan korxonalar uchun investitsiya sharoitlarini yaratish bo'yicha majburiyatni o'z zimmasiga olishga tayyor bo'lgan xorijiy sarmoyadorlarni jalb etish orqali davlat mulki xususiy lashtirilmoqda, raqobatbardosh mahsulotlar hamda yangi ishchi o'rinlari yaratilmoqda;

– xorijiy sarmoyadorlarga korxonani rivojlantirish rejasidan va investitsion sharoitlaridan kelib chiqqan holda aksiyalarning nazorat paketi taklif etilmogda;

– iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishi va halqaro huquq tajribasidan kelib chiqqan holda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish, tartibga solish, muvofiqlashtirish bo'yicha huquqiy asoslarni takomillashtirish hamda korporativ qimmatli qog'ozlar va ko'chmas mulk bozorini rivojlantirish uchun me'yoriy-huquqiy asoslar yaratilmoqda;

– mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish jarayonlari hamda ma'lumotlar ochiqligini ta'minlashga erishilmogda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisida so'zlagan nutqidan kelib chiqadigan bo'lsak, iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat:<sup>1</sup>

#### **Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish.**

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni ta'minlaydigan qulay shart-sharoitlarni yaratish:

❖ davlatning iqtisodiyotga, shu jumladan, xususiy tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvini yanada cheklash;

❖ erkin tadbirkorlik faoliyati uchun amaliy kafolatlarni ta'minlash;

❖ iqtisodiyot va biznesni barqaror rivojlantirish yo'lida mavjud to'siqlarni bartaraf etish;

❖ to'laqonli bozor infratuzilmasini shakllantirish va xususiy tadbirkorlarga zarur resurslarni sotib olish uchun hamda o'z mahsulotlarini sotish uchun bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish;

❖ xususiy tadbirkorlik sohasiga mikroreditlash tizimini kengaytirish orqali moliyaviy ko'mak berish;

❖ xo'jalik subyektlariga nisbatan qo'llaniladigan jazo choralarini tizimini to'liq qayta ko'rib chiqish;

❖ faoliyatning ayrim turlari bilan shug'ullanish uchun ruxsat berish tadbirlarini qisqartirish va soddalashtirish;

<sup>1</sup> Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va vangsillash, mamlakatni modernizatsiya va isloh

❖ kichik korxonalarining moddiy-texnik ta'minoti bo'yicha xizmat ko'rsatadigan tuzilmalarni yaratish;

❖ yirik korxonalarining buyurtmalari asosida mayda butlovchi qismlarni ishlab chiqarishga yo'naltirilgan yangi kichik korxonalar tashkil etish va xonadonlarda kichikda xususiy sexlar ochishni rag'batlantirish.

**Iste'mol bozorlarini raqobatbardosh hamda sifatli tovar va xizmatlar bilan to'ldirish:**

❖ ishlab chiqarishni jadal modernizatsiya qilish, zamonaviy quvvatlarni ishga tushirish;

❖ ko'rsatilayotgan xizmatlar va servislarning hajmi hamda turlarini qishloq joylarida keskin ko'paytirishga erishish.

**Bank va moliya tizimlaridagi islohotlarni chuqurlashtirish:**

❖ banklarni kapitalashtirishni davom ettirish;

❖ banklarning nizom va aylanma fondlarini ko'paytirish va mablag'larini investitsiya maqsadlariga, birinchi navbatda, real iqtisodiyotga yo'naltirishga qaratilgan qat'iy chora-tadbirlar ko'rish;

❖ bank aylanmasidan hozircha chetda qolayotgan salmoqli moliya mablag'lari va pul oqimlarini ushbu tizimga jalb qilish borasida aniq va qat'iy choralar ko'rish;

❖ bank xizmatchilarining mas'uliyatini va xizmat ko'rsatish madaniyatini oshirish maqsadida ko'plab nizom va me'yoriy hujjatlarni qayta ko'rib chiqish.

**Uy-joy kommunal xo'jaligini isloh qilish:**

❖ issiqlik energiyasi, issiq va sovuq suv iste'molini hisobga oladigan asbob-uskunalar yetarli darajada bo'lishini ta'minlash;

❖ tarmoqlarni kapital tarzda almashtirish va modernizatsiyalashning ta'sirchan mexanizmini yaratish;

❖ uy-joy kommunal xo'jaligidan foydalanish va uni saqlash borasidagi bozor mexanizmini shakllantirish;

❖ ko'p qavatli uy-joy fondini boshqarish jarayonini ko'rib chiqish.

**Soliq siyosatini yanada takomillashtirish:**

❖ soliq qonunchiligini yanada soddalashtirish;

❖ soliqlarni unifikatsiya qilish;

❖ soliq yukini yanada yengillashtirish;

❖ soliq boshqaruvini takomillashtirish va erkinlashtirish.

**Iqtisodiy islohotlarning bir-biriga chambarchas bog'liqligini ta'minlashda:**

❖ iqtisodiyotning real tarmoqlarini rivojlantirish;

❖ aholi daromadlarining oshishi va shundan kelib chiqqan holda aholining bank tizimidagi jamg'armalari ortishi;

❖ yangi ish o'rinlarini yaratish;

❖ eksport salohiyatini oshirish;

❖ bozorlarni raqobatbardosh, sifatli tovar va mahsulotlar bilan boyitish;

❖ qishloq xo'jaligi mahsulotlari importidan voz kechish va boshqalar.

### **Qisqacha xulosalar**

Iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadi barqaror iqtisodiy o'sishga erishishdir. Busiz turmush darajasini oshirish, ijtimoiy muammolarni yechish, mamlakatning jahon

hamjamiyatidagi iqtisodiy va siyosiy mavqeiini mustahkamlash mumkin emas. Iqtisodiy islohotlar mulkiy masalalar to'g'ri hal etilib, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlari uzluksiz amalga oshirilgan, ko'p tarmoqli iqtisodiyot barpo etilgan taqdirdagina salmoqli natijalar beradi. Tarkibiy siyosat, eng avvalo, qishloq xo'jaligi xomashyosi va mineral resurslarni chuqur qayta ishlashga, texnologik davrning tugallanganlik darajasini oshirishga, mamlakat yo'qilg'i-energetika va oziq-ovqat mustaqilligini ta'minlashga qaratildi.

Milliy boylik – jamiyat ixtiyorida mehnat bilan yaratilgan va jang'arilgan moddiy ne'matlar majmuasi, u mamlakat iqtisodiy qudratining asosi bo'lib, ishlab chiqarish davomida jang'arilgan barcha iste'mol qiymati yig'indisining puldagi ifodasidir.

Barqaror rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish ko'p jihatdan mafkuraviy, siyosiy va iqtisodiy xususiyatlarga ega bo'lgan shart-sharoitlar doiralari belgilab beruvchi umumiy tizimli shart-sharoitlarga bog'liq. O'zbekiston oldida turgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning ko'lamini, mamlakat 1990-yillar boshida tushib qolgan og'ir iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda jahon tajribasi to'plagan barcha ijobiy jihatlarni uyg'unlashtiruvchi rivojlanishning o'ziga xos yo'lini tanlash lozimligini shart qilib qo'ydi.

#### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Islohotlar qaysi ustuvor yo'nalishlarga asosan olib borilmoqda?
2. Islohotlarni yanada jadallashtirish nima uchun zarur?
3. Mulkiy munosabatlarning rivojlanishi jarayonidagi o'zgarishlar nimalardan iborat?
4. Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish milliy iqtisodiyotdagi vaziyatni qay darajada o'zgartirmoqda?
5. Makroiqtisodiy holatda qanday tarkibiy o'zgarishlar sodir bo'lmoqda?
6. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari nimalardan iborat?
7. Ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligi qanday aniqlanadi?
8. Iqtisodiy tanglikdan qanday yo'llar bilan chiqish mumkin?

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. Karimov I. "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi" // Xalq so'zi, 2014-iy 18-yanvar.

2. Yo'ldoshev Z. Milliy iqtisodiyot. - T.: Mehnat, 2004, 168-b.

3. Ishmuxamedov A.E. O'zbekiston milliy iqtisodiyoti. Darslik – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jang'armasi nashriyoti, 2005. 304-b.

4. Ishmuxamedov A.E. va boshqalar. Makroiqtisodiyot. Darslik – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jang'armasi nashriyoti, 2005. 192-b.

5. Tuxliyev N. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. - T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 280 b.

6. Internet veb-saytlari.

[www.gov.uz](http://www.gov.uz)

[www.pressservice.uz](http://www.pressservice.uz)

[www.pca.uz](http://www.pca.uz)

[www.micro-macroiqtisodiyot.fan.uz](http://www.micro-macroiqtisodiyot.fan.uz)



## 5-bob. RESPUBLIKANING SANOAT MAJMUASI

### 5.1. Respublikada sanoat majmuasi rivojlanishining asosiy sabablari

Tarmoqlar orasida asosiy bo'g'in sanoatning ishlab chiqarish majmuasi hisoblanadi. Sanoat majmuasining muhim xususiyati shundaki, uning barcha tarmoqlarida mehnat vositalari va iste'mol tovarlari, milliy daromadning katta qismi yaratiladi, ilmiy-texnika taraqqiyotiga erishiladi. Ayni paytda O'zbekistondagi mehnatga layoqatli aholining asosiy qismi ham sanoat ishlab chiqarishida band bo'lmoqda. Sanoat ishlab chiqarishi jamiyatning obyektiv iqtisodiy qonunlari hamda respublikamizda so'nggi yillarda qabul qilingan qonun va qarorlar asosida rivojlanmoqda.

O'zbekiston sanoati ayni vaqtda o'z tarmoqlari va boshqa ijtimoiy tarmoqlar uchun moddiy-texnik vositalar hamda xalq ehtiyojiga kerak bo'ladigan mahsulotlarni ham uzluksiz tayyorlab bermoqda. Shu boisdan ham sanoat ishlab chiqarishi darajasi va samaradorligining o'sishini ta'minlash lozim. Chunki sanoat ishlab chiqarishi darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, respublikamizning iqtisodiy poydevori shuncha mustahkam, aholining turmush sharoiti ham shuncha yaxshi bo'ladi.

Shuni ham aytish lozimki, sanoat majmuasining har qanday tarmog'i ichki tuzilmasidagi o'zgarishlar amalda boshqa tarmoqlar – qishloq xo'jaligi, agrosanoat majmuasining boshqa sohalari, qazib oluvchi tarmoqlar bilan uzviy bog'liq.

Endilikda sanoatning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Iste'mol bozoridagi tanqislik tufayli sanoat tarmoqlari ilgarigiga nisbatan keng ko'lamdagi xalq iste'moli mollari ishlab chiqarishga yo'naltirilmoqda hamda xususiy lashtirilmoqda. Iste'mol mollari ko'plab ishlab chiqarish, ayniqsa, chetga xomashyo emas, balki tayyor mahsulot chiqarish hamda qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirish nafaqat sanoat ishlab chiqarishining ahamiyatini oshiradi, balki jahon bozorida O'zbekiston iqtisodiyotiga bo'lgan ishonchni ham mustahkamlaydi. Hozirgi kunga kelib, sanoat tarmog'ida yalpi ichki mahsulotning 17 %i yaratiladi. Bu shuni ko'rsatadiki, bozor iqtisodiyotining rivojlanishi natijasida mamlakat iqtisodiyoti industrialashgan iqtisodiyot sari rivojlanmoqda. Sanoat tarmoqlaridagi 2013-yilgi 8,8 %li o'sish, sanoat majmuasi tarmoqlari va ishlab chiqargan mahsulot mamlakatimiz YAIM dagi hissasi 2000-yilda 14,2 foizni tashkil etgan bo'lsa 2013-yilda bu ko'rsatgich 25,3 foizni tashkil etdi.

Sanoat majmuasi mahsulotlariga uning tarmoqlari quyidagicha hissa qo'shmoqda: yoqilg'i sanoati va energetika – 18,3 %; metallurgiya – 13,9 %; yengil sanoat – 18,6 %; kimyo sanoati – 5,2 %; mashinasozlik – 15,8 %; oziq-ovqat – 10,8 %; qurilish materiallari – 6,5 %; yog'ochni qayta ishlash – 2 % va boshqalar.

Sanoat xalq xo'jaligining yirik sohasi bo'lib, unda 1 mln.dan ortiq ishchi va xizmatchi band. Bu, ish bilan band aholining sakkizdan bir qismini tashkil etadi. Sanoatda 100 dan ortiq tarmoq bo'lib, ulardan 6 tasi asosiy hisoblanadi. Asosiy fondlarning 40 %i sanoat hissasiga to'g'ri keladi, yalpi ichki mahsulotning 16 %dan ortiqrog'i sanoatda yaratiladi. O'zbekiston sanoatida elektr energiyasi, gaz, neft, ko'mir, benzin, po'lat, avtomobillar, traktorlar, paxta terish mashinalari, elektrovdigatellar, transformatorlar, akkumulyatorlar, kabellar, ekskavator, ko'priqli ko'targichlar, yigiruv mashinalari, samolyotlar, oltingugurt kislotasi, mineral o'g'itlar, sun'iy tolalar, sement, turli qurilish materiallari, gazlamalar, paxta moyi, un, guruch, kiyim - kechak, oziq-

ovqat mahsulotlari va boshqalar ishlab chiqariladi. Respublika sanoatida tarmoqlarning tutgan o'ri har xil (5.1-jadval).

Sanoat tarmoqlari orasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi va agrosanoat majmuasiga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar tarixan yetakchi mavqega ega. Bular paxta tozalash, shoyi to'qish, konserva, yog'-moy va boshqa sanoat tarmoqlaridir. Shuningdek, kimyo va neft kimyosi, mashinasozlik, elektronika, energetika, metallurgiya, yengil va qurilish materiallari sanoati jadal sur'atlarda rivojlanmoqda.

Sanoat taraqqiyotida yoqilg'i-energetika majmuasining o'ri alohida. Uning tarkibiga gaz, neft va neftni qayta ishlash, ko'mir va energetika tarmoqlari kiradi. Bu majmuaning hissasi sanoat ishlab chiqarishida 26,8 %dan iborat. O'zbekiston jahondagi gaz ishlab chiqaruvchi o'nta yirik mamlakat jumlasiga kiradi. Respublikada qudratli stansiyalar va issiqlik elektr stansiyalari mavjud.

Metallurgiya majmuasi tarkibiga ma'dan xom ashyosini, qora va rangli metallarni qazib chiqaruvchi korxonalar kiradi. Oltin, kumush, mis, qo'rg'oshin, rux, volfram, molibden, litiy, uran, alyuminiy xomashyosi, nodir metallar va boshqa bir qator qazilma boyliklarning aniqlangan zaxiralari ko'p. O'zbekistonda oltinning 30 ta koni topilgan. O'zbekiston MDH mamlakatlari orasida qazib olinadigan oltinning umumiy miqdori bo'yicha ikkinchi, kumush, mis, qo'rg'oshin, rux va volfram bo'yicha uchinchi o'rinni egallaydi.

Kimyo va mashinasozlik majmualari sanoatning muhim sohalardir. Yangi iqtisodiy sharoitda bu tarmoqlarda chuqur tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ular mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashga yo'naltirilgan.

Jami iste'mol mollarining uchdan bir qismi yengil sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilmoqda. Bu borada an'anaviy yetakchi soha to'qimachilikdir.

#### 5.1-jadval

Sanoat mahsulotlarining tarmoqlar bo'yicha tarkibi (%)

Tarmoqlar	2000-y.	2003-y.	2005- y.	2008-y.	2009-y.	2012-y.
Butun sanoat	100	100	100	100	100	100
Yoqilg'i-energetika majmuasi	23,8	21,3	24,5	27,3	29,3	26,2
Metallurgiya	11,4	10,8	19,4	18,2	14,0	12,4
Mashinasozlik va metallni qayta ishlash	9,9	12,3	13,0	15,0	16,4	17,0
Qurilish materiallari sanoati	5,4	4,1	3,6	4,3	5,0	5,4
Yengil sanoat	19,1	10,2	16,6	14,1	12,3	12,9
Oziq-ovqat sanoati	18,3	12,3	8,2	9,0	11,5	14,0
Boshqalar	17,1	13,5	11,7	11,0	11,5	5,6

Energetika respublika xalq xo'jaligining asosiy tarmog'i, iqtisodiyot va texnika taraqqiyotining mustahkam poydevori hisoblanadi. O'zbekiston energetika tizimi umumiy o'rnatilgan quvvati 11,5 mln.kVt bo'lgan 37 ta issiqlik va gidravlik elektr stansiyalarida yiliga 55 mlrd. kVt.s dan ortiq elektr energiya ishlab chiqarish imkoniyatiga ega. Bu tizimning barcha kuchlanishlardagi elektr tarmoqlari umumiy

uzunligi qariyb 228 ming km. ni tashkil etadi. Tarmoq transformatorlarining umumiy quvvati 42,6 MVA ga teng. Hozir respublika energetika tizimida 60 mingga yaqin kishi ishlaydi.

O'zbekistonda elektr quvvatidan asosan XX asr boshlaridan foydalanila boshlandi. O'sha davrda Toshkentda 2 ta elektr stansiyali qurilgan bo'lib, biri (quvvati 1450 kVt, 5 dizel) tramvayni tok bilan ta'minlash, ikkinchisi (Pavlov elektr stansiyasi, quvvati 125 kVt) shaharni yoritish uchun ishlatilgan. 1913-yilda O'zbekiston hududida umumiy quvvati 3 MVt chamasida bo'lgan 6 kichik dizel elektr stansiyasi bo'lgan, yillik elektr energiyasi hosil qilish 3,3 mln.kVts ga yetgan.

O'tgan asrning 20-yillarida O'zbekistonda issiqlik energetikasi dizel va mayda bug' turbinali elektr stansiyalarini qurish yo'nalishida rivojlandi. Dizel elektr stansiyalar umumiy maqsadlarda hamda issiqlik energiyasiga ehtiyoji bo'lmagan paxta zavodlari, nasos stansiyalari, kanallar va boshqa korxonalar qoshida qurildi, dastlabki bug' turbinali elektr stansiyalari Farg'ona va Kattaqo'rg'on yog'-moy zavodlarida barpo etildi. Farg'ona yog'-moy zavodining «Sharq tongi» issiqlik elektr markazi (IEM)umumiy maqsadlardagi elektr stansiyasi bo'lgan birinchi IEM dir.

1934-yil 25-sentabrda O'zbekiston energetika tizimining tashkiliy asosi – «O'zbekenergiya» energetika boshqarmasi, Energetika va elektrlashtirish vazirligi tuzildi.

30-yillar boshidan Chirchiq-Bo'zsuv GES lar kaskadi barpo etildi. O'zbekiston birinchi gidroelektrstansiyasi – Bo'zsuv GES shu traktida qurilib, 1926-yilda ishga tushirilgan edi. Chirchiq – Bo'zsuv gidroenergetika qurilishi tez sur'atlar bilan davom ettirilib, 1926-yildan 1940-yilga qadar mazkur trakt gidroelektrstansiyalarida 67 ming kVt generator quvvatlari ishga tushirildi. O'zbekiston Energetika va elektrlashtirish vazirligi tarkibida loyiha, qurilish-montaj, sozlash, ta'mirlash va ishlatish tashkilotlarining to'la majmual energetika tizimining ishonchli ishlashini va istiqbol taraqqiyotini ta'minlaydi. O'zbekiston energetika tizimi hozir respublika xalq xo'jaligi va aholisining elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojlarini to'la ta'minlamogda va elektr energiyasi qisman qo'shni davlatlarga eksport qilinmogda. 2002-yilda O'zbekistonda 56,0 2008-yilda 49,0 mlrd. kVt soat elektr energiyasi ishlab chiqarildi.

**Yoqilg'i sanoati.** Respublikada yoqilg'i energetika sanoati yer qa'rida topilgan va qazib olinayotgan ko'mir, neft, tabiiy gaz konlari negizida shakllandi va rivojlanib bormogda. Respublikada 160 ga yaqin neft-gaz koni ochilgan, ularning 115 tasi Buxoro-Xiva geologik provinsiyasida, 27 tasi Farg'ona vodiysi, 10 tasi Surxondaryo, 7 tasi Ustyurtda joylashgan. Konlarning gaz, gaz-kondensatli turlari mavjud. Hozir 71 ta neft, gaz va gaz-kondensat konlari, 2 ta ko'mir konidan foydalanilmogda. 50 dan ortiq neft, gaz va gaz-kondensat koni esa kelajakda ishga tushirish uchun tayyorlab qo'yilgan.

Yoqilg'i sanoati respublika yoqilg'i - energetika majmualining asosiy tarmog'ini tashkil etadi va barcha yoqilg'ini qazib olish, tabiiy gazni tozalash va yetkazib berish, neft mahsulotlarini ishlab chiqarish korxonalaridan iborat. Ular xalq xo'jaligining barcha bo'g'inariga xizmat ko'rsatadi. Yirik korxonalar Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida joylashgan. Respublika sanoat mahsulotining umumiy hajmida yoqilg'i-energetika majmuasi mahsulotlari salmoqli o'rin tutadi (1980-yilda 8,8 %).

Respublika sanoatida band bo'lgan ishchi-xizmatchilar (sanoat ishlab chiqarishi xodimlari)ning 6 %i yoqilg'i sanoati tarmoqlarida ishlashmoqda (80 ming nafardan ortiq). Respublikada 1992-yilda yoqilg'i sanoatida qazib olingan yoqilg'i (shartli yoqilg'i - 7000 kilokaloriya hisobida) umumiy hajmida neftning hisssasi 8,3 %ni, gazning hisssasi 87,3 %ni, ko'mir hisssasi 4,4 %ni tashkil etgan. Ko'kdumaloq neft-gaz kondensat koni ochilishi va ishga tushirilishi bilan neft sanoatining yoqilg'i sanoati majmuasidagi mavqei ortib bormoqda.

**Neft sanoati.** O'zbekistonda dastlabki neft koni 1904-yilda ochilgan (Farg'ona vodiysidagi Chimyon neft konidan 278 m. chuqurlikda sutkasiga 130 tonna neft olingan). O'sha yili Vannovsk (hozirgi Oltiariq) temir yo'l stansiyasida neftni qayta ishlash zavodi ishga tushirildi. Keyinroq Farg'ona botig'ida Yorqo'ton, Selroxs konlari ham ochildi, Chimyon-Vannovsk neft quvuri qurildi, neftni qayta ishlash zavodi tengaytirildi. Shu davrda rus va chet el kapitali neft qazib olish, uni qayta ishlash, neft mahsulotlarini sotishni to'la o'z nazoratiga oldi. «Santo» - O'rta Osiyo neft savdosi ashkil etildi. Hozirgi kunda O'zbekistonda neftni qayta ishlash sanoati sohasida Oltiariq, Farg'ona, Buxoro neftni qayta ishlash zavodlari ishlab turibdi. Farg'ona zavodi urkov moylari va yonilg'i ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, ishlab chiqarish bo'yicha 10 dan ortiq texnologik qurilmaga ega. Ko'kdumaloq neft-gaz koni ochilganidan keyin Fransiyaning TEKNEP firmasi bilan hamkorlikda 1993-yildan Buxoro viloyatining Jorovulbozor tumanida Buxoro neftni qayta ishlash zavodi qurilishi boshlandi va uning bir yilda 2,5 mln. t. gaz kondensatini qayta ishlash quvvatiga ega bo'lgan 1-navbati 1997-yil avgustda ishga tushirildi. Neftni qayta ishlash zavodlarida yuqori sifatli benzin shu jumladan, B-92 aviabenzini), dizel yonilg'isi, koks, parafin, motor moylariga o'shilmalar, yengil avtomashinalar uchun motor surkov moylari (kompresor, turbina, rchuq moylari), kerosin, bitum, suyultirilgan neft gazlari (butan texnik propan), mazut abi 50 turdan ortiq neft mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Yangi mahsulot turlari ishlab chiqarishni o'zlashtirish dasturiga muvofiq yangi texnologiyalar jlashtirilmoqda. Hozirgi davrda respublikamiz neft sanoati korxonalari quvvatlari bir ilda 11 mln.t. neftni ishlash imkoniyatiga ega (5.2-jadval).

## 5.2-jadval

### O'zbekistonda neft va gaz qazib olish hajmining o'sishi

Ko'rsatkichlar	1960-y.	1980-y.	1990-y.	2000-y.	2002-y.	2008-y.
Neft (gaz kondensati b-iriga), ming t. Gaz.mln.m <sup>3</sup>	1603,0	2005,3	1805,4	8500,0	9000,0	5156,8
	446,6	42094	4504,6	5500,0	5750,0	65882,8

Keyingi yillarda o'tkazilgan keskin tadbirlar natijasida neft (gaz va kondensatiga) qazib olish hajmi yuqori sur'atlarda o'sdi. Respublikaning neft mustaqilligi ta'minlandi.

**Gaz sanoati** - yoqilg'i energetika majmuasining eng rivojlangan tarmog'idir. Hozirgi kunda respublikada qazib olinayotgan yoqilg'i balansidagi hisssasi 87,2 %ni tashkil etadi. Neft bilan yo'ldosh tarzda uchraydigan tabiiy gazni qazib olish ikkinchi jahon

urushidan oldin boshlangan. Neft gazidan sanoat maqsadlarida foydalanish uchun 15 km. uzunlikdagi birinchi gazoprovod «Andijonsanoat» Andijon shahri o'rtasida qurilgan. Gazni alohida sanoat usulida qazib olish o'tgan asrning 50-60 - yillarida boshlandi. Gaz qazib olish sanoati joylashgan asosiy tumanlar – Buxoro va Qashqadaryo, shuningdek, Farg'ona, Surxondaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasidir.

Respublikada gaz sanoatining rivojlanishi qishloq xo'jaligi va boshqa sanoat tarmoqlarining o'sishini ta'minlamoqda. Shahar, shaharcha, ayniqsa, qishloqlarni gazlashtirish avj oldi. O'zbekistonda tabiiy gaz bilan 8,2 mln. xonadon (jami xonadonlarning 81%i), shu jumladan, shahar va shaharchalarda 4,85 mln, qishloq joylarida 3,35 mln. dan ortiq xonadon ta'minlangan.

**Ko'mir sanoati.** O'zbekistonda ko'mirni sanoat usulida qazib olish 1930-yillar oxiridan boshlangan. Toshkent viloyati Ohangaron vodiysida Angren ko'mir, Surxondaryo viloyatida Sharg'un, Boysun tog'ida toshko'mir konlari bor.

1990-yilda 10,4 mln. t. ko'mir qazib chiqarildi. Keyingi yillarda bu ko'rsatkich sezilarli darajada pasaydi. 2008-yilda respublikamizda 3273 ming t. ko'mir qazib olindi. Angren va Yangi Angren GRES lari to'la qattiq yoqilg'iga o'tkazilishi bilan respublikaning ko'mirga bo'lgan ehtiyoji ortmoqda.

Neft, ko'mir va gaz ishlab chiqarish sohasida investitsion faoliyatning ortishi hamda qidiruv ishlarning yaxshilanishi yoqilg'i energetika majmuasi mahsulotlari ishlab chiqarish ortishiga sabab bo'ldi. Birgina 2004-yilda 2003-yildagiga nisbatan mahsulotlarni ishlab chiqarish indeksining o'sishi 5,8 %ni tashkil etdi. Tabiiy gaz ishlab chiqarish 4,1 %ga, dizel yoqilg'isi – 2,8 %, siqilgan gaz – 22,2 %ga ortdi. Neft va kondensat ishlab chiqarish 7,8 % kamaydi, ko'mir qazib chiqarish 41,8 % o'sdi. Energetika mahsulotlarini ishlab chiqarish indeksi 0,3 %ga, elektr-energiyali ishlab chiqarish 1,9 %ga ortdi. Respublika iqtisodiyotining ichki ehtiyojlarini barqaror ta'minlashga erishish natijasida yoqilg'i eksporti hajmi 2003-yildagiga nisbatan 65,1 %ga ko'paydi.

**Metallurgiya sanoati.** O'zbekistonda rudadan metall olish 4 ming yildan ziyod tarixga ega. Qadimda misdan turli bezak buyumlar tayyorlangan. Keyinroq rudali metallar – qalay, kumush, oltin va boshqalarni eritish, quyish va qizdirib ishlash o'zlashtirilgan.

Qora metallurgiya sohasida faoliyat ko'rsatadigan yagona korxonasi Bekobod shahridagi O'zbekiston metallurgiya zavodidir. Zavodda qora metallurgiya mahsulotlarining eng muhim turlari (po'lat, cho'yan, po'lat quvurlar va po'lat prokat) ishlab chiqariladi, temir-tersak, metall chiqindilari eritiladi.

O'rta Osiyodagi birinchi zamonaviy metallurgiya zavodi qurilishi umumxalq hashari yo'li bilan 1942-yilda boshlandi va 1944-yilda dastlabki metall eritmasi olindi. 1978-yilda zavodda ishga tushirilgan elektr quvvati yordamida po'lat eritish sexi eng zamonaviy texnika bilan jihozlangan. Zavod tamg'ali prokat mahsulotlari, quvurlar bilan birga 50 ga yaqin turli xil xalq iste'moli tovarlarini ham ishlab chiqaradi (5.3-jadval).

Po'lat va tayyor prokat ishlab chiqarish dinamikasi, ming.t

Ko'rsatkichlar	1998-y.	2000-y.	2003-y.	2012-y.
Po'lat	1214,5	800,4	485,6	750,0
Tayyor prokat	965,3	785,3	446,5	710,5

**Rangli metallurgiya** – respublika metallurgiya sanoatining yetakchi tarmog'i hisoblanadi. Bu soha mahalliy mineral xomashyo resurslari negizida o'tgan asrning 30-yillaridan rivojlana boshladi. Respublikada rangli kamyob va qimmatli metallar (oltin, mis, qo'rg'oshin, rux, volfram, molibden, simob va boshqalar) konlari, Qoramosor mis-qo'rg'oshin-rux koni, Obirahmat, Burchmulla, Oqtuz, Takob, Ingichka, Qo'ytoş mis konlari va boshqalar topilib, ular sanoat miqyosida o'zlashtirilishi bilan rangli metallurgiya sanoati shakllandi va respublika rangli metallar ishlab chiqarish bo'yicha jahonda oldingi o'rinlardan birini egallagan mamlakatga aylandi.

Respublikada 2010-yilda rangli metallurgiya mahsulotlari ishlab chiqarish indeksining o'sishi 6,0%ni tashkil etib, 2008-yildagi pasayish ko'rsatkichlarini qopladi. Jahon bozorida rangli metallarga bo'lgan narxlarining o'zgarishi mazkur sohada o'sishga sabab bo'ldi. Qora metallurgiyada ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari ichki va tashqi bozorda mahsulotlarga bo'lgan talab ortishi bilan uzviy bog'liq. Birgina 2010-yilda qora va rangli metallarni eksport qilish 74,4 %ga ortdi.

**Kimyo sanoati** respublika iqtisodiyotida muhim o'rinni egallaydi. O'zbekiston kimyo sanoatida 750 dan ortiq turdagi mahsulot ishlab chiqariladi. Mamlakat sanoat mahsulotlari umumiy hajmida kimyo sanoati korxonalari mahsulotlari hissasi 4,6 %ni tashkil etadi. Respublika kimyo sanoatida tabiiy gaz, neft, ko'mir, oltingugurt, turli minerallar, ohaktosh, grafit, shuningdek, rangli metallar, paxta va kanopni qayta ishlash chiqindilaridan xomashyo tarzida foydalaniladi. O'zbekiston kimyo sanoatida ishlatiladigan xomashyoning asosiy qismi (70 %ga yaqini yoki 650 dan ortiq turdagi mahsulot) hamda ehtiyot qismlar va asbob-uskunalar chetdan olib kelinadi (Rossiyadan toluol, yog'och sellulozasi, kaustik soda, Qozog'istondan fosforitlar va boshqalar). Ayni paytda kimyo sanoati mahsulotlari (mineral o'g'itlar, kaprolaktam, kimyoviy tolalar hamda iplar, sintetik ammiak, lok-bo'yoqlar va boshqalar) eksport qilinadi.

**Mashinasozlik sanoati.** O'zbekistonda mashinasozlik sanoatining dastlabki korxonalari XX asr boshlarida vujudga keldi. Dastlabki paytlarda O'zbekistonda metallga ishlov berish sanoati asosan 14 ta kichik ta'mirlash ustaxonalaridan iborat edi. Ularda temir yo'l, paxta tozalash va yog' zavodlarining ta'mirlash ishlari bajarilardi, qishloq xo'jaligiga kerak paxta terish mashinasi, kultivator, traktor ishlab chiqilgan. O'zbekistonda mashinasozlik sanoatining muhim tarmog'i hisoblangan yangi avtomobilsozlik-avtomobillar (Asaka avtomobil zavodi), ularning dvigatellari (Toshkent motor zavodi), avtomobillarga ehtiyot qismlar, turli jihozlar va boshqa asboblarni ishlab chiqarish respublika mustaqillikka erishganidan keyin shakllana boshladi. O'zbekistondagi bir necha avtomobil tuzatish zavodlari, yengil mashinalarga xizmat ko'rsatadigan «O'zavtotexxizmat», «O'zavtoVAZxizmat» ishlab chiqarish birlashmalari korxonalar, tashkilotlar va avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatib kelgan.

Asakada yengil avtomobillar, Samarqandda yo'lovchi va yuk avtomobillari chiqarilmoqda.

Respublika mashinasozlik tarmog'i ishlab chiqarishi 2012-yilda 17,5 % ortdi. Bunday yuqori sur'atlardagi o'sishga avtomobilsozlik mahsulotlariga talab ortishi hisobiga erishildi. Yengil avtomobillar ishlab chiqarish 30,3 %ga, ularning eksporti umumiy ishlab chiqarish hajmida 52 %ga ortdi. Asosiy iste'mol bozori MDH mamlakatlari bozorlari hisoblanib, ularning hisobiga jami eksport qilingan avtomobillarning 97 %i to'g'ri keldi. Televizor, kondensiyon, muzlatkich kabi tovarlar ishlab chiqarish hajmi ortdi. Masalan, 2006-yilda 5044 dona muzlatkich ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2012-yilda bu ko'rsatkich 26 652 taga yetdi yoki 5,1 marta ko'paydi.

An'anaviy paxta terish mashinalari traktor, ekskavator, kultivator va qishloq xo'jaligiga kerakli mashinalar ishlab chiqarish ko'paya boshladi. Birgina 2012-yilda respublikada 1494 ta traktor, 15 ta paxta terish mashinasi, 27 ta ekskavator va 22 5518 ta yengil avtomobil ishlab chiqarildi.

Avtomobil sanoatini barpo etishda, asosan, respublikadagi konsermlar, korporatsiyalar, MDH korxonasi va tashkilotlari, chet el firmalari sarmoyalarini jalb etish orqali aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil etish yo'li tanlangan. Ishga tushiriladigan korxonalarda ishlab chiqarish bosqichlarini shakllantirish dastlab avtomobillarni qism va agregatlardan yig'ishdan to ularni shu korxonalarda tayyorlash va yig'ishgacha bo'lgan bosqichma-bosqich, to'liq o'tish yo'li bilan olib boriladi. Korxonalarda avtomobil dvigatellari (motorsozlik), podshipniklar ishlab chiqarish ham yo'lga qo'yilmoqda.

Leikin respublikada ishlab chiqarilgan asbobsozlik va stanoksozlik, kimyo, yengil va oziq-ovqat sanoati uchun texnologik qurilmalar, yo'l qurilishi texnikalari kabi mahsulotlarga talabning pasayishi kuzaitildi. Masalan, irrigatsiya va qurilishga zarur bo'lgan ekskavatorlar ishlab chiqarish raqobatbardoshligi pastligi sababli 50 %, yengil va oziq-ovqat sanoati qurilmalarining mashinasozlik tarmog'idagi ulushi 0,5-0,6 %ga qisqardi. Yuqoridagi kamchiliklarga qaramasdan 2013-yilda mashina va texnologiyalarini import qilish 2012-yildagiga nisbatan 14,0 %ga ko'paydi.

## **5.2. Sanoat majmuasi tarmoqlari va asosiy ko'rsatkichlari**

Sotsialistik davlatlarda milliy bo'yluk butun jamiyatniki, ya'ni davlat va kooperativ tashkilotlar ixtiyorida bo'lgan. U xalq manfaatlariga xizmat qilib, jamiyat a'zolarining tobora oshib borayotgan moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini to'laroq qondirishga sarflanishi mo'ljallangan edi.

Biroq yagona davlat rejasi asosida rivojlanish ittifoqdosh respublikalar va hududlar milliy boyligi xalq uchun emas, balki umumittifoq mehnat taqsimotini hisobga olib o'tkazildi. Oqibatda ayrim respublikalar, xususan, O'zbekiston ham xomashyoga ixtisoslashgan hududga aylanib qoldi. Shunga qaramasdan, respublika hududida bu davr mobaynida foydali qazilmalarni o'rganish va ulardan xalq xo'jaligida foydalanishda sezilarli ishlar amalga oshirildi. Zero, mamlakatimizda strategik sohalarni rivojlantirishning asosi hisoblangan – uran, oltin, mis, neft, tabiiy gaz va boshqa ko'plab tabiiy boyliklar mavjud.

Milliy boyligni rivojlantirishda O'zbekiston o'tgan asrning 30-yillari oxirida boshqa respublikalar qatori o'z tarmoqlarida sezilarli yutuqlarga erishdi. Lekin, ikkinchi



jahon urushi tufayli respublika iqtisodiyotini qisqa muddatlarda harbiy izga ko'chirishga majbur bo'ldi. Barcha milliy bo'lylik urush ehtiyojini qondirishga safarbar etildi.

Respublikamizga frontga yaqin hududlardan zavod va fabrikalar ko'chiri keltirildi va tez fursatlarda ishga tushirildi. Urush yillarida elektr-energetika, kimyo sanoati, rangli metallurgiya, mashinasozlik va boshqa sanoat tarmoqlari rivojlanish milliy bo'lylik hajmini oshirdi. Mamlakatimiz tez orada ko'p tarmoqli industrial va qishloq xo'jaligi rivojlangan respublikaga aylandi.

Toshkentga yirik samolyotsozlik zavodlaridan biri joylashtirildi. U hozirgi «IL 76» samolyoti ishlab chiqaradigan MDH dagi birdan-bir korxonadir. Mashinasozlik va metallurgiya korxonalarida «Bekobod metallurgiya kombinati», «Toshkent trakte zavodi» ishlab chiqarish birlashmasi, «O'zbekqishloqmash», «Toshqishloqmash» «Chirchiqqishloqmash», «Toshkimyoqishloqmash» zavodlari barpo etilib, butun ittifoq iqtisodiyotiga xizmat qilgan.

O'zbekistonda mineral xomashyo bazasi mavjudligi 60 – 80-yillar mobaynid respublika xalq xo'jaligining muhim tarmoqlarini, ayniqsa, gaz, oltin va uran ishlab chiqarish, energetika, kimyo, rangli metallurgiya, ruda bo'lmagan xomashyolar va qurilish materiallari sanoatlarini tez sur'atlar bilan rivojlantirish imkoniyatini berdi.

Respublikada topilgan konlar orasida Olmaliq va Navoiy tog'-konmetallurgiya kombinati, Angren kimyo-metallurgiya zavodi, plavik-shpat korxonalarini, Ingichka va Qo'yotosh boshqarmalari, Muruntov tog'-metallurgiya kompleksi, gaz, neft, betonit pardozlash toshlari, turli qurilish materiallari, biryuza, grafit chiqaruvchi va qayt ishlovchi yirik korxonalar ishga tushirildi.

Hozirgacha respublikada 90 xil xomashyo bazasi ochilgan. 650 ta sanoat miqyosidagi va 500 ta istiqboldagi tog'-kon sanoati korxonalarini, gaz va neft korxonalarini, shaxtalar, karyerlar, yirik suv inshootlari ishlab chiqarishining yillik hajmi 120 million tonnani tashkil etadi. Birgina 2004-yilda 59 mlrd. kubometr tabiiy gaz, 6 mln. tonna neft qazib chiqarildi. Bir kecha-kunduzda 2500 ming kubometr yer ost suvlari olinmoqda.

O'zbekiston xalq xo'jaligida yaratilgan yalpi ijtimoiy mahsulot va milliy daromad oshdi. Masalan, 1990-yili bu daromad 1970-yildagiga nisbatan 3 barobar ko'paydi va 21,2 mlrd. so'mni tashkil qildi. Shu jumladan, sanoatda – 1,1 %, qishloq xo'jaligida – 4,5 %, qurilishda – 3,0 %, transport va sanoatda – 1,1 %, savdo, tayyorlov, moddiy texnika ta'minoti va boshqalarda – 2,5 %mlrd so'mni tashkil etdi. Shunga qaramasdan sobiq SSSR da O'zbekistonning milliy bo'lyligi atigi 3,5 %ni tashkil qilgan edi.

70 yildan oshiq hukm surgan totalitar tuzumning og'ir oqibatlarini quyidag raqamlarda ko'rish mumkin: sobiq ittifoqning 7 % aholisi yashagan O'zbekistonda jami mahsulot ishlab chiqarish atigi 4,0 %, sanoat ishlab chiqarishi 1,1 %ni tashkil qilgan.

O'zbekiston hududida strategik ahamiyatga ega bo'lgan uran, oltin mis, rux, volfram, molibden, flyuorit, shuningdek, alyuminiy va magniy rudalari, nodir metallar, oltingugurt, osh tuzi, kaliy, fosfor va boshqa tabiiy tuz qatlamlari, kaolin, o'ta chidamli xomashyolar, betonit, marmar va boshqa bezak toshlari, uncha qimmat bo'lmagan pardozlash toshlarining (biryuza, oniks, xolsedon, ametist va boshqalar) ulkan zaxiralari mavjud. Yoqilg'i resurslari bo'yicha esa ko'mir, tabiiy gaz va neft konlari ochilgan bo'lishiga qaramasdan, respublikaga chetdan mineral xomashyolar tashib keltirilishi



jiddiy iqtisodiy sarf-xarajatlarga hamda transport balansining asossiz ravishda kuchaytirilishiga olib keldi.

O'zbekistonda aniqlangan ba'zi mineral xomashyo konlarining mavjudligiga qaramay, birgina 1991-yilda 500 tonna fosforit, 280 ming tonna kaliy o'g'iti, 408 ming tonna osh tuzi, 87 ming tonna kvarts qumi, 127 ming tonna betonit gillari, ohak, borit, asbest, kaolin konsentrati, dala shpati, talk, grafit, mineral pigmentlar, natriy sulfat, oltinugurt va hokazolar Ukraina, Qozog'iston, Rossiyadan tashib keltirilgan.

Strategik ahamiyatga ega bo'lgan va respublikamizda ishlab chiqarilgan uran, oltin, mis, qo'rg'oshin, tabiiy gaz kabi tayyor mahsulotlar va boshqa O'zbekistonda joylashgan butunittifoq vazirliklariga bo'ysunuvchilar va strategik korxonalardan chegaralanmagan miqdorda olib chiqib ketilar edi.

Mustaqillik tufayli jamiyatimiz hayotida tub islohotlar, mamlakatimiz, xalqimizga xos o'zgarishlar ro'y bermoqda. Har tomonlama taraqqiyotga erishilmoqda, iqtisodiyotimiz rivoj topmoqda. Bular orasida muhim strategik obyektlarning O'zbekiston tasarrufiga o'tishi, ayniqsa, katta ahamiyat kasb etdi. Kelajagi buyuk O'zbekiston davlatining asosi bo'lgan bu muhim strategik korxonalar, xomashyo resurslari negizida yaratilgan O'lmaliq, Navoiy tog'-konmetallurgiya kombinatlari, neft mustaqilligini ta'minlagan «Ko'kdumaloq» va boshqa neft konlarining o'zlashtirilganligi mustaqil rivojlanayotgan iqtisodiyotga asos yaratmoqda. Mustaqil iqtisodiyotni barpo etish bozor munosabatlari asosidagi iqtisodiyotni yaratish orqali amalga oshmoqda. Sobiq SSSR dan qolgan muammolarni hal etib, iqtisodiyotning porloq kelajagini ta'minlay oladigan yo'l – bozor usuli ekanligi, mamlakatimiz uchun boshqa iqtisodiy tuzum, usul yo'qligi bizga ayon. «Resurslar taqchilligi – ehtiyojning poyonsizligi» muammosi insoniyatni doimo o'ylantirib keladi. Mazkur muammoni hal qilishda inson bozor usulini tanlagan va uni eng ma'qul usul, deb biladi.

Ma'lumki, jamiyat ixtiyoridagi ishlab chiqarish imkoniyatlari, yer va mehnat resurslari, turli mablag'lar, tabiiy boyliklar–chegaralangan. Bu ulardan foydalanish, ularni joylashtirishda oqilona yondashuvni talab etadi. Bu yondashuv Yurtboshimiz mustaqilligimizning birinchi kunidan boshlab muhim strategik obyektlarni mustaqil O'zbekiston tasarrufiga o'tkazish yo'lidagi sa'y-harakatlarida namoyon bo'ldi. Qisqa vaqt davomida bu obyektlar respublika tasarrufiga o'tkazildi. Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi va boshqa mashinasozlik korxonalari, Navoiy va O'lmaliq konmetallurgiya kombinatlari, Bekobod metallurgiya kombinati ana shunday strategik ahamiyatga ega korxonalardan hisoblanadi.

Muqobil tanlash muammosi sobiq SSSR markaziy vazirligiga tegishli muhim strategik korxonalarga taalluqli bo'lgan. Masalan, Navoiy tog'-konmetallurgiya kombinati (NTMK) sobiq SSSR o'rta mashinasozlik vazirligi tasarrufida bo'lib, vazirlikning yagona ilmiy - texnika, moliyaviy-iqtisodiy va kadrlar siyosati ta'sirida edi. SSSR tarqalishi bilan 1992-yil oxirida korxonaning bank to'lovlari to'xtagan edi. Asosiy mahsulot bo'lmish uranga talab pasaygan ozaygan va uni ishlab chiqarish kamaygan edi.

Muruntov tilla konida ishlaydigan ulkan 110 tonnalik «Belaz»lar soni ikki barobar kamaydi va tog' jinslarini ishlab chiqarish hajmi 1993-yilga kelib, 30 % qisqardi.

O'zbekiston Respublikasi hukumati muhim strategik obyektlarni o'z tasarrufiga olish maqsadida 1991-yil 1-oktabrda «Qizilqumredmetzolota» davlat konsemini tashkil qildi. Unga mahsulot ishlab chiqarish va sotish mashina-uskunalarini olish huquqi berildi (shu jumladan xorijiy davlatlar bilan). Uran mahsulotini ishlab chiqarish NTMK da qoldirildi. Bu esa strategik muhim korxonalarni saqlab qolish imkonini berdi.

Respublikada topilgan konlar orasida Olmaliq tog'-kon metallurgiya va Bekobod metallurgiya kombinatlarida xomashyoni qazib olish, boyitish va ikkilamchi metallni qayta ishlash yo'liga qo'yilgan. Angren, Olmaliq kon sanoati asosan hududda joylashgan rangli metallurgiya, mis olish, qiyin eriydigan va o'tga chidamli metallar, oltin ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Olmaliq tog'-kon-metallurgiya kombinati sobiq SSSR ning bu tarmoqdagi eng yirik korxonasi edi. U O'zbekiston tasarrufiga olingandan so'ng respublika iqtisodiyotiga barakali ulush qo'shib kelmoqda. Respublikada aniqlangan volfram rudalari va molibden konlari negizida Chirchiq shahrida «O'zbekiston-qiyir eriydigan va o'tga chidamli metallar» kombinati ishlab turibdi.

Respublika metallurgiya sanoati barcha sanoat mahsuloti hajmining 10 foizidar ko'prog'ini ishlab chiqarmoqda. Konlar foydalanishga topshirilishi respublikaning ayrim hududlari iqtisodiyotini o'zgartirib yubordi. Yangi tog'-sanoat komplekslar bunyod etildi.

Angren, Olmaliq, Zarafshon, Uchquduq konlari esa tog' va bo'z yerlarning sanoat jihatidan o'zlashtirilishiga asosiy omil bo'ldi. Hozirgi davrga kelib, aniqlangan milliy boylik manbalarida ishlab chiqarish korxonalarini uzoq muddat davomida oltin, mis uran, qo'rg'oshin, rux, volfram, molibden, litiy, alyuminiy xomashyosi hamda boshqa nodir metallar va foydali qazilmalarning katta zaxiralari bor. Shuni e'tiborga olgandi respublika metallurgiya sanoatining umumiy sanoat mahsuloti hajmidagi hissasi bunday buyon ham ortib boradi. Respublika tasarrufiga metallurgiya majmuasi olinishining boisi shundaki, birinchi galda rangli va asil metallardan ishlab chiqarilgan mahsulotla jahon bozorida kamyob mahsulotlar jumlasiga kiradi va eksportni rivojlantirishning muhim sharti hamda mamlakat valyuta zaxirasini oshirishning asosi bo'lib xizma qiladi.

Ayni vaqtda, volfram ishlab chiqaruvchi korxonalar xomashyo manbalari bilan yetarli darajada taminlanmagan. Qo'ytosh va Ingichka konlari, Olmaliq tog' konmetallurgiya kombinati shular jumlasidandir.

Kelajakda respublika mineral xomashyolarining asosiy turlariga, ularda yasaladigan buyumlarga talab oshadi. Agar ularni respublikada ishlab chiqarish kengaytirilmasa, tashqaridan olib kelish lozim bo'ladi va katta sarf-xarajat qilinadi.

Muhim strategik obyektlar O'zbekiston tasarrufiga olinishi tufayli bu korxonalar jahonning ko'pgina davlatlari (AQSH, Kanada, Avstraliya, va Yaponiya) bilan iqtisodiy aloqalar o'rnatdi, jahondagi mashhur firmalar – «Nyumon», «Moribeni», «Misibisi» «Bridj-stoun», «Katerpillar», «Shell», «Spektra anolitika instruments», «Nukem» «Xitachi», «Nissa Ivai» va boshqalar bilan uzoq muddatga mo'ljallangan hamkorlik rishtalari bog'langan. «Nyumont Mayning korporeyshin» firmasi bilan hamkorlikd vujudga kelgan «Zarafshon – Nyumont» korxonasi Muruntov karyeri chiqindilarida 100 tonna oltin ishlab chiqardi.

Amerikaning «Evrotreyd interneyshnl LTD» firmasi bilan birgalikda zargarlik buyumlari ishlab chiqarish asosida «Zarispark» korxonasi ishga tushirildi va yiliga 7

dan ortiq zargarlik mahsulotlarini ishlab chiqarmoqda. 1996-yilda bu korxonada NTMK tasarrufiga o'tdi va «Zargarlik zavodi» nomi bilan yuqori sifatli, 585 probali zargarlik buyumlari chiqarmoqda. Bu mahsulotning bozori chaqqon.

Bundan tashqari OTMK, NTMK va boshqa korxonalarda marmarni qayta ishlash, trikotaj buyumlari va xalq iste'moli tovarlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Qizilqum fosforit kombinati birinchi navbatining ishga tushishi 300 ming tonna fosfor uni ishlab chiqarish imkoniyatini yaratadi. Polivinxlorid quvurlari ishlab chiqarilishi natijasida Rossiyadan keltiriladigan polietilen quvurlarni olib kelishga hojat qolmadi.

Ikkilamchi metall parchalari va chiqindilarini har qayerda uchratish mumkin. Korxonalarda ham allaqachon eskirgan asbob-uskuna, ishdan chiqqan qishloq xo'jalik texnikasi ancha yig'ilib qolgan. Bugun ularni to'plab, qayta ishlashga topshirgan kishi yutqazmaydi. «O'zmetkombinat» aksiyadorlik ishlab chiqarish birlashmasi bunday xomashyo xarid narxini yana 10 %ga oshirdi. 2004-yili ushbu ma'lumotlar qora va rangli metall parchalari hamda chiqindilarini tayyorlash, qayta ishlashga topshirishni nazorat qilish va muvofiqlashtirish bo'yicha respublika komissiyasining Bekobodda bo'lib o'tgan yig'ilishida keltirildi. «O'zmetkombinat»ni xomashyo bilan ta'minlashda tegishli vazirliklar, idora, uyushma, hududiy boshqaruv organlari, ikkilamchi metall xomashyosini yig'ish va topshirish bilan shug'ullanuvchi boshqa tashkilotlarni rag'batlantirish zarur.

Bekobod metallurglari o'z hamkorlaridan 2005-yilning o'tgan uch oyi mobaynida rejadagidan salkam to'rt yarim ming tonna ko'p ikkilamchi metall xomashyosini qabul qilib oldi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotida katta ahamiyat kasb etuvchi korxonaning barqaror ishlashini ta'minlamoqda. 2005-yil yanvar – mart oylari davomida bu yerda 120,0 ming tonna po'lat eritildi, iste'molchilarga 110,0 ming tonna tayyor metall prokati yetkazib berildi. Ayni chog'da respublika xalq xo'jaligi ehtiyojlari uchun qurilish armaturalari, kon-metallurgiya sanoatida ishlatiladigan po'lat zo'ldirlarni chetdan keltirishga butkul barham berildi. Aksincha, bunday mahsulotlarni chetga chiqarish, valyuta zaxiralarini tejash imkoniyati kengaydi. Korxonada xorijiy iste'molchilarga 9,0 million AQSH dollari miqdorida mahsulot eksport qilishga erishdi. Bu ko'zda tutilganidan salkam ikki barovar ko'p, demakdir.

«O'zmetkombinat»ni 2005-yilning birinchi choragida ikkilamchi metall xomashyosi bilan ta'minlash borasidagi hukumat topshirig'i mamlakatimizning deyarli barcha hududlarida ortig'i bilan bajarildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri, Toshkent, Farg'ona viloyatlarida bu ish, ayniqsa, namunali tashkil etilmoqda. Shu munosabat bilan bunday xomashyoni yig'ish, qayta ishlashga topshirish bilan shug'ullanuvchi korxonada va tashkilotlarga, tadbirkorlarga minnatdorchilik bildirildi. Shu yilning birinchi apreliga qadar yuz ming tonnaga yaqin xomashyo zaxira qilib qo'yildi.

Ikkilamchi metall xomashyosini yig'ish va qayta ishlashga topshirish borasidagi umumiy ahvof qoniqarli. Ayni paytda bu borada sur'atni aslo bo'shashtirmaslik, ishlab chiqilgan jadvalga qat'iy rioya etish tavsiya etiladi. «O'zmetkombinat» esa xomashyo xarid narxini muttasil takomillashtirib borishi, haq to'lash tariflarini har bir hududning ikkilamchi metall xomashyosini yig'ish va qayta ishlashga topshirish

bo'yicha mavjud shart-sharoit va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda qayta ko'rib chiqishi lozim.

Hozirgi kunda mashinasozlik sanoati 15 ta tarmoqqa mansub 100 dan ortiq yirik korxonalaridan iborat. Ularning orasida traktorsozlik va qishloq xo'jaligi mashinasozligi, to'qimachilik mashinasozligi, paxta tozalash sanoati mashinasozligi, elektrotexnika sanoatining salmog'i katta. Agar 1960-yilda respublika mashinasozligida 22 turdagi asosiy mashina, mexanizm va asboblarni ishlab chiqarilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1970-yilda 29, 1980-yilda 39, 1990-yilda 40 va mustaqillikning 14-yillida, ya'ni 2008-yilda 51 dan ortiqni tashkil etdi.

Respublika iqtisodiyoti uchun yangi bo'lgan avtomobilsozlik, radio, elektronika kabi sanoat tarmoqlari barpo etildi.

Mashinasozlik tarmog'ining iqtisodiy ahamiyati – barqaror iqtisodiy o'sishni va texnik taraqqiyotni ta'minlovchi ishlab chiqarish majmuasi hisoblanadi. Tarmoqning YAIM dagi ulushi 11,1 %ga, eksport hajmi jami sanoat ulushida 3,4 %ga, iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha chet el kredit va investitsiyasini o'zlashtirish umumiy hajmida 10,2 % ga teng.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida respublikada mashinasozlik sanoati korxonalarini oldiga qo'yilgan asosiy vazifa raqobatbardosh, yuqori sifatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish va aholining tarmoq mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini yetarlicha qondirishdir. Bu boradagi muammolarning hal etilishi avvalo xomashyo resurslaridan va mavjud texnikalardan samarali foydalanish, yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun texnika va texnologiyalarni takomillashtirishga bog'liq.

### **5.3. O'zbekistonning neft mustaqilligi asoslari**

Neft va gaz respublikada asosiy milliy boylik bo'lib, xalqning moddiy va ma'naviy darajasi negizi, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning moddiy asosi va natijasidir. Neft konlari yer yuzining hamma qit'alarida, hatto Antarktida, dengiz va okeanlar tubidagi jinslarda ham uchraydi. Neft konlari – yer po'stida ma'lum tektonik strukturasi joylashgan va sanoatning minimal talablarini qanoatlantiradigan neft uyushmalaridir. O'zbekistonda turli hudud, kategoriyali 80 dan ortiq neft - gaz konlari topildi. Bu neft konlari bir yoki bir nechta neft va gaz uyushmalaridan tashkil topgan. Konda neftning miqdori gazdan ko'p bo'lsa, neft-gaz, aks holda gaz – neft, gaz bilan kondensat birga uchrasa, gazokondensat koni, deyiladi.

Neft (qoramoy) - yonuvchi moysimon suyuqlik. Qora yoki qo'ng'ir, ba'zan och malla rang yoki rangsiz, o'ziga xos hidli kimyoviy xomashyo, yer yuziga chiqqach, quyilib qotadi va asfaltga aylanadi.

Bir - biriga yaqin joylashgan bir nechta neft konlari neft - gaz rayonlarini, rayonlar neft-gaz viloyatlarini, viloyatlar havzalarini tashkil qiladi. Buxoro, Xiva, Surxondaryo, Farg'ona, Ustyurt neft - gaz havzalari mavjud. Har viloyatda neft va gaz rayonlari ajratiladi. Buxoro - Xiva viloyatida, Gazli, Kogon, Muborak, Dengizko'l, Ko'kdumolok, Sho'rtepa, Xauzak, Qorovulbozor, Sharqiy-Chegara, Arniyoz, Sariqamish rayonlari - konlari neft olish bo'yicha respublikaning asosiy zaxiralari hisoblanadi. Bu neft va gaz uyumlari tuzilishiga ko'ra, 3 guruhga bo'linadi: 1) qatlamli gumbaz uyumi. Kollektorlik xossasi yomon bo'lgan (ekran rolini o'tovchi) jinslar (gil, gips, angidrat, mergel, ohaktosh) bilan pastki va ustki tomonlaridan chegaralangan

g'ovakli jinslarda uchraydi: 2) qatlamsiz gumbaz uyumi. Ustki tomoni ekran hosil qiluvchi jinslar bilan chegaralangan g'ovak yoki darz ketgan jinslarda uchraydi: 3) strategifik chegaralangan litologik, tektonik jihatdan uzilgan neft va gaz uyumi.

O'zbekiston hududida katta ahamiyatga ega bo'lgan yoqilg'i - energetika resurlaridan bo'lgan neft va gaz konlari topilgan edi. Farg'ona vodiysida neft sanoat usuli bilan birinchi topilgan ikkita neft qudug'idan 1886-yil qazib olinga boshlandi. Yirik konlardan Farg'ona viloyati hududidagi Shimoliy So'x, Andijon viloyatidagi Janubiy Olamushuk, Polvontosh, Chang'ara, Chimyon, Sho'rsuvni ko'rsatish mumkin. Farg'ona vodiysidagi konlarda asosan neft uchraydi. Ular bir necha o'n yillardan beri xalq xo'jaligiga xizmat qilib kelmoqda. Namangan viloyatida Mingbuloq konining ochilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Farg'ona nefti asosan yengil, oltingugurti kam, parafini ko'proq neftidir.

Bu hududdagi konlar asosida O'zbekistonda ilk bor 1886-yil Sho'rsuv konida neft ishlab chiqarilgan. Kichkinagina neftni qayta ishlash zavodida kerosin olinib, arava va tuyalarda Andijon, Qo'qon va Toshkent paxtani qayta ishlash zavodlariga, moy zavodlariga va aholiga yetkazib berila boshlangan. Neftni qayta ishlash natijasida hosil bo'lgan qoldiqlar va mazutdan esa yoqilg'i sifatida endi rivojlanayotgan ishlab chiqarish korxonalari va temir yo'lda foydalanilgan.

Farg'ona vodiysida neftni qayta ishlash, ya'ni neftdan kerosin, surkov moylari, parafin, vazilen va boshqa neft - mahsulotlarini olish uchun Vannovsk (hozirgi Oltiariq) neftni qayta ishlash zavodi ishga tushirilgan.

Vodiyda 1913-yilda 13 ming t., 1940-yilga kelib esa, 144, 7 ming t. neft qazib olingan. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda neft sanoati Xo'jaobod, Janubiy Olamushuk, Shimoliy Olamushuk, Polvontosh, Xo'ja Osmon, Hartum va boshqa neft zaxiralari hisobiga rivoj topdi.

Farg'ona neftni qayta ishlash zavodining birinchi texnologiya liniyasi 1959-yilda ishga tushirildi, 1963-yilga kelib, hamma texnologik liniyalari to'la quvvat bilan ishlay boshladi. Shunday qilib, neft mustaqilligining ikkinchi poydevoriga asos solindi - neftdan neft mahsulotlarini to'liq olishda qo'llaniladigan texnologik usullar majmui yaratildi.

Neftni qayta ishlash qadimdan ma'lum. Miloddan 3 ming yil avval ikki daryo (hozirgi Iroq) orasidagi mamlakatlar va Misrda asfaltdan bog'lovchi material sifatida foydalanganlar. Neftni qayta ishlash usuli eramiz boshidan ma'lum edi. Bu usul neftdan dori - darmon tayyorlash maqsadida qo'llanilgan. Qadimgi yunon tabibi Qassiy Feliks va yurtdoshimiz Abu Ali Ibn Sino neftni haydashga oid tajribalar o'tkazgan. Xorazm geografi Bakron (XIII asr) Boku neftini haydash haqida birinchi bo'lib eslatib o'tdi. XVIII asrga kelib, neft konlarini qidirish va o'rganish munosabati bilan neftni haydashga katta e'tibor berildi, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi bunga yaqqol misoldir. Bu zavod benzin, kerosin, neft koksi (neft ko'miri)dan tashqari unikal-gammo surkov moylarini ishlab chiqaradi va nufuzli xorijiy davlatlarga eksport qiladi.

Farg'ona vodiysidagi neft ishlab chiqaruvchi korxonalardan yetakchisi «Andijonnestepromisil» 1938-yilda tashkil qilingan bo'lib, yer orqali Andijon va Shahrixon - Xo'jaobod konlarida 1937-yilda neft qazib olingan, uch quduq III plastidan neft olish (kovlash) boshlangan. 1956-yilga kelib, bu konlarda har bir neft qudug'idan

kuniga 15 tonnadan 100 tonnagacha neft olingan, 1959-yildan ulardan 500 ming tonnagacha neft qazib chiqarilgan.

Keyingi yillarda zaxiralar kamayishi hisobiga neft ishlab chiqarish keskin kamaygan va 1963-yilda 1959-yildagi 491 ming tonnadan 444 ming tonnaga tushgan. O'sha davrda «Andijonneftpromsit» sohaning eng yirik korxonasi bo'lib, 1963 yilda respublikada qazib olingan neftning 28 %ini bergan. Keyingi yillarda neft olish bu konlarda keskin kamayib ketgan.

Ikkinchi o'rinda Janubiy Olmaliq koni (neftpromisil) turgan. 1945-yilda tashkil etilgan. 1948 – 1952-yillarda bu konda neft uncha chuqur bo'lmagan 450 – 850 m quduqlardan sanoat usulida qazib olingan. 1963-yilga kelib, u respublikada qazib olingan neftning 25 %ini bergan. Bu kondagi neft quduqlari zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan, unda sobiq SSSR da birinchi bor telemexanizatsiyalashtirilgan va avtomatlashtirilgan neft quduqlari fondi yaratilgan.

«Shimoliy So'x» neftni qayta ishlash korxonasi 1958-yilda Shimoliy Rishton, Galcha, Chang'ara konlari asosida tashkil etilgan. Ularda 500 – 600 metr chuqurlikdan neft qazib olingan. Bu konlar respublikaning 7 % quduq fondiga ega bo'lishiga qaramasdan O'zbekistonda qazib olingan neftning 21 %ini bergan. Chunki, respublikada o'zi otilib chiqadigan (favvora) neftning asosiy quduqlari shu yerda joylashgan edi.

«Polvontosh» neft ishlab chiqarish korxonasi Polvontosh, G'arbiy Polvontosh, Xo'ja Osmon konlari asosida ishlagan va 1959-1963-yillarda respublikaning 18 % neftini bergan. Respublikada birinchi neft bergan Chimyon (1904-y.) va Yorqo'ton, Chuqursoy neft konlari asosida tashkil bo'lgan Chimyon neft ishlab chiqarish korxonasi 1960-yillarda respublikaning atigi 1,5 % neftini bergan.

Surxondaryoda neft zaxiralarini qidirish ishlari 1904-1916-yillarda boshlangan, 1934-yilda «Xauzag» konida birinchi neft favvorasi otilib chiqqan. 1936-yilga kelib, Uchqizil, keyinroq Kokoyti Lamikon ochildi. Termiz shahridan 40 km va Jarqo'rg'on stansiyasidan 12 km. uzoqlikda joylashgan «Xauzag» neft konidan 1935-yilda kun davomida 418 tonna neft beradigan favvora ishlay boshladi. U unchalik chuqur bo'lmagan (160 – 235 sm), neft berishi yuqori bo'lgan, dastlab 60 t, 1935-yilda 87,6 ming tonna va 1937-yildan 300 ming tonna neft bera boshladi. 1940-yilda kondan atigi 55 ming tonna neft olingan va keyinchalik olinadigan neft umuman kamayib ketgan. Bu konning o'rnini Jarqo'rqondan 16 km. uzoqlikda joylashgan Kokoyti koni egalladi. Unda 1000 – 1300 metr chuqurlikdan yiliga 120 – 150 ming tonna neft qazib olina boshlandi. 1955-yilga kelib, bu ko'rsatkich 80 ming tonnaga tushdi.

Shunday qilib, respublikada o'tgan asrning 60-yillarigacha Farg'ona vodiysi va Surxondaryo viloyati neft konlari rivoj topdi va ular hozirgi neft mustaqilligi uchun zamin yaratdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. O'zbekiston shu tariqa sobiq SSSR ni yoqilg'i-energetika resurslari bilan taminlovchi hududga aylandi.

Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ko'mir ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berish 2000-2002-yillarda 2,2-2,3 mln. tonnani tashkil qildi. Ko'mir esa neft va gaz mahsulotlariga muqobil xomashyo bo'lib, neft mustaqilligiga erishishda zamin bo'lib xizmat o'tadi.

Buxoro – Xiva neft-gaz rayonlari ochilishi munosabati bilan neft zaxiralariga ega konlar yana beshtaga ortdi. Lekin bu konlar 1961-1965-yillarda atigi 306,7 ming tonna

neft berdi, Farg'ona vodiysidagi 15 ta kondan 7 mln. 516 ming tonna, Surxondaryo viloyatidagi 3 ta kondan 1 mln. 29,3 ming tonna va Buxoro-Xiva neft-gaz viloyatidagi ta kondan bor-yo'g'i 306,7 tonna neft qazib olindi. Respublikada qazib olingan neft 1924-yilda 5,6, 1940-yilda 119, 1958-yilda 1297, 1961-yilda 1709 va 1965-yilda 180 ming tonnani tashkil qildi. Keyingi besh yilda respublikada neft ishlab chiqarish keski kamaydi. 1965-yilda tashqaridan neft olib kelish 1962- yildagiga qaraganda 1,7 barava oshgan edi.

Ushbu yillarda respublikada neft mustaqilligi zaiflashishiga avvalo bu hududdagi ikkita neftni qayta ishlash zavodining mahalliy neft bilan ta'minlanishining pasayishi yetmagan xomashyo G'arbiy Turkmanistondan keltirilishi, keltirilgan neftning narxi Farg'ona va Buxoro neftidan ikki baravar yuqoriligi sabab edi. Bu, albatta, neftni qayta ishlash zavodlarining iqtisodiy ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatar edi.

To'g'ri, O'zbekistonda neft qazib chiqarish va uni qayta ishlash sanoati yangidan barpo etildi va rivojlandi. Farg'ona vodiysi, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo: yangi neft konlari izlab topildi va ishga tushirildi. 1970-yilda O'zbekistonda 1672 ming t. neft qazib chiqarildi. Bu sobiq SSSR da qazib olingan neftning 5 %ini tashkil etadi.

Keyingi yillarda O'zbekistonda 80 dan ortiq turli (yuqori zaxiraga ega kategoriyali) neft-gaz konlari topildi. Farg'ona, Surxondaryo, Buxoro-Xiva, Ustyur kabi neft-gaz konlari, havzalari va viloyatlari kashf etildi. Buxoro-Xiva viloyatida Gazli, Kogon, Muborak, Dengizko'l rayonlari bilan birga yangi konlar ochildi va ochilish arafasida. O'zbekiston neft konlari aqoson yura, bo'r, poleogen va neogen davr cho'kindi jinslarining har xil qatlamlarida qatnashgan va joylashgan.

Neftning fizik xossasi uning tarkibiga bog'liq. Tarkibida 87 % gacha uglevodorod, 10-15 %gacha vodorod, 0,05 - 0,5, ba'zan 5 %gacha kislorod, juda oz miqdorda vannadiy, fosfor, kaliy, nikel, temir uchraydi. Dunyo miqyosida qazib olinayotgan barcha neftlarda oltingugurt miqdori, odatda, 1 %dan ortiq. Surxondaryo vodiysida qazib olinayotgan poleogen neftlari, ayniqsa, oltingugurtga boy (3,1-6,3%).

Respublikada qazib olinadigan neftdan XIX asming 2-yarmigacha faqat kerosin olinib, qolgan chiqindiga chiqarib tashlanardi. Ichki yonuv dvigatellarining ixtiro etilishi va texnik taraqqiyot benzina bo'lgan talabni oshirdi. Neftdan dastlab kerosin, benzin, dizel yoqilg'isi, keyinchalik esa sintetik tolalar, 100dan ortiq kimyoviy xomashyo va o'g'itlar olina boshlandi.

Birgina 1965-1970-yillar davomida Farg'ona va Oltiariq neftni qayta ishlash zavodlarida benzin ishlab chiqarish 13 %, kerosin ishlab chiqarish 21 %, dizel yonilg'isi ishlab chiqarish 81 %, moylash yog'larini olish 59 % va mazut ishlab chiqarish 64 %ga oshdi.

Respublikamizda iqtisodiyotni erkinlashtirish va chuqurlashtirish davrida neft resurslaridan oqilona foydalanish, chuqur qayta ishlashga asoslangan holda yangi mahsulotlar ishlab chiqarish keng miqyosda o'zlashtirilmoqda. 1991-2002-yillarda bu sohani boshqarish strukturasi va texnik jihozlash, neft qazishni takomillashtirish tufayli neft va gaz ishlab chiqarish hajmi oshdi. Natijada 1995-yilda respublikaga neft chetdan import qilinmadi va O'zbekiston neft mustaqilliligiga erishdi. Bu mustaqillik sobiq SSSR tarkibidagi boshqa respublikalarda iqtisod chuqur inqirozga uchragan, ya'ni iqtisodiy va savdo aloqalari uzilgan, narxlar oshgan va inflyatsiya zo'raygan davrga to'g'ri keldi.



Neft mustaqilligiga erishishda «Muborakneftgaz» davlat korxonasi geologlari, parmalovchilari, quruvchilarining hissasi, ayniqsa, katta bo'ldi. Chunki bu korxonada mustaqillik yillarida 15 ta neft-gaz va 14 ta gazokondensat konlaridan juda katta miqdorda mahsulot qazib olindi. Chunonchi, 2000-yilda 3743,7 tonna neft, 2475 ming tonna kondensat ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2002-yilda tayyorlangan neft 3600,0, kondensat esa 2430 ming tonnaga yetdi. Bu, respublikada qazib olingan neft va kondensatning 90 %dan ko'pini tashkil qiladi. Bundan tashqari, bu korxonada 2000-yilda 34164 va 2002-yilda 36000 mln. m<sup>3</sup> tabiiy gaz qazib oldi va iste'molchilarga yetkazib berdi, 2002-yilda Turkmaniston Respublikasiga 240 ming t. neft sotdi, qolgan tovar mahsulotlarini Muborak (MGPZ), Buxoro (Qorovulbozor) va Farg'ona neftni qayta ishlash zavodlariga va gaz uzatish boshqarmasiga topshirdi.

O'zbekistonda neft mustaqilligi mustahkamlanishiga asosan 1997-yilda «Ko'kdumaloq» konida gaz yuqori bosimda neft konlariga haydalgani, Buxoroda 2,5 mln. tonna gaz kondensatini qayta ishlash quvvatiga ega zavod ishga tushirilishi asos bo'ldi. Keyinchalik neft konlarida zaxiralar kamayishi mumkin. Ammo kelajakda asosan gazokondensat quduqlar hisobiga neft mustaqilligini saqlash imkoni bor.

Respublikamizda neft qazib chiqarish asosan neft atrofida joylashgan suv yoki gaz bosimini oshirish, qatlam g'ovaklaridagi neftni quduq boyiga yig'ish usuli bilan amalga oshiriladi. Suv bosimi, odatda, boshlang'ich neft zaxirasining 50- 80 %ini, gaz esa atigi 20-50 % ini siqib chiqaradi. Biroq, tashqaridan berilayotgan suv qazib chiqarilayotgan neftning o'rini to'la egallay olmaganligidan bosim kamayib ketadi. Natijada neftning favvora bo'lib tabiiy otilishi tugaydi. Shundan keyin neft kompressor yordamida chiqariladi. Aynan 1997-yilda «Ko'kdumaloq» konida ishga tushirilgan (yo'llari bosimi 50 atm.) kompressor stansiyasi ushbu ishni boshqargan va u gazokondensat qazib olish hajmini ko'paytirishga imkon bermoqda. Neftni kompressor bilan chiqarishda quduqqa gaz yoki havo haydaladi, ular neftga aralashib, zichligini kamaytiradi, natijada neft va gaz aralashmasining soxta quduq yuzasigacha ko'tarilib, neftning favvora bo'lib otilishi davom etadi. O'zbekistonda neft quduqlardan nasoslar yordamida ham olinadi.

Qatlam bosimi uzluksiz pasaya borishi natijasida quduq debeti tushishi neft chiqarishning iqtisodiy ko'rsatkichlarini yomonlashtiradi. Neft konlarini ishga solish, ayniqsa, yer osti gidrodinamikasi rivojlanishi natijasida neft chiqarishning yangi usullari yaratildi. Ular yordamida neft qatlamlariga suv yoki gaz haydash yo'li bilan qatlam bosimini butun ekspluatatsiya mobaynida birday ushlab turish mumkin. Bu yutuqlarga asosan 1992-yilda neft sohasida uchta strategik va asosiy tamoyillarni bajarish asosida erishildi:

- neft va gaz qazib olishni kuchaytirish va respublikaning neft mustaqilligini ta'minlash. Bunga muvaffaq bo'lish uchun Ko'kdumaloq, Alan Urga, Janubiy Tandirchi va boshqa konlarda katta ishlar bajarildi;
- neft va gazni qayta ishlash texnologiyasini chuqurlashtirish va ularning sifati xalqaro standart va talablarga javob berishini ta'minlash. Bu – ikkinchi topshiriqni bajarish uchun 1997-yilda Buxoro neftni qayta ishlash zavodini ishga tushirish, Farg'ona nefti qayta ishlash zavodini ta'mirlash va yangi texnologiya kompleksi – gidrodesulfizatsiya uskunasi o'rnatilishi asosiy vazifa sifatida delgilandi.



Yangi texnologik uskunalar ishga tushirilishi natijasida tozalangan mahsulot hajmini ko'paytirish imkoni yaratildi. Respublikada neftni qayta ishlash sanoati rivojlandi va og'ir industriyaning neftni qayta ishlovchi hamda neft mahsulotlari tayyorlovchi sohasiga aylandi.

Neftdan neft mahsulotlari – benzin, kerosin, surkov moylari, parafin, vazelin va boshqa mahsulotlar bu jarayonda qo'llaniladigan texnologik uskunalar majmui yordamida olinadi. Neftni qayta ishlashda uning tarkibidagi suv va tuzlarni yo'qotish, uni barqarorlashtirish (stabillash), haydash, qoldiqlardan tozalash va boshqa ishlar bajariladi. Respublikada qazib olinadigan neft tarkibida, odatda, bir necha 10 % o'ta minerallashgan burg'u suvi, svlvi 1 m<sup>3</sup> neftda 30 – 50 % gacha tuz bo'ladi. Bularni yo'qotish uchun neftni qayta ishlash zavodlarida neftni elektr bilan kuchsizlantirish qurilmalaridan foydalaniladi. Neft yaxshilab aralashtirilib, ozgina emulgator qo'shilgan chuchuk suv bilan yuvib yuboriladi. Hosil bo'lgan emulsiya 100 – 140<sup>o</sup> gacha, ba'zan 160<sup>o</sup> C gacha qizdiriladi va uzluksiz ishlaydigan elektr degidatorga uzatiladi.

Neft tarkibida uglevodlarning butan-propanli, qisman pentanli fraksiyalari bo'ladi. Neftni tashish va saqlashda eng kerakli uglevodorodlarning yo'qolishini kamaytirish, neft haydash qurilmasiga kelayotgan neft bug'lari bosimini bir xil tutib turish uchun Farg'ona, Buxoro va Oltiariq NKIZ larida bu fraksiyalar ketkaziladi. Bu ish suvsizlantirish va tuzsizlantirish qurilmalari kompleks qurilmalar yoki maxsus qurilmalarda bajariladi. Barqarorlashtirish natijasida ajratib olingan propan-butan fraksiyasi respublikamizning neft kimyo sanoati uchun muhim xom ashyo hisoblanadi.

O'zbekiston xalq xo'jaligining hamma sohalarida neft-kimyo sanoati mahsulotlari keng qo'llaniladi. Bu mahsulotlar bilan Toshkent rezina-texnika zavodi, Pop rezina poyabzallar zavodi, Toshkent, Urganch, Popdagi shina ta'mirlash zavodlarining quvvatlarini oshirish ko'zda tutilgan.

1974-yilda Angren rezina kombinatining ishga tushirilishi sohada o'ziga xos ahamiyat kasb etdi. Neft-kimyo sanoati kelajagi respublikada neftni qayta ishlash miqyosining kengayishi va takomilashishi bilan bog'liq. Shu sababli rivojlangan mamlakatlarda bu soha mahsulotiga talab oshib bormoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlar – Hindiston, Iroq va boshqa mamlakatlar mustaqil neft-kimyo sanoatini rivojlantirishga katta ahamiyat bermoqdalar.

Respublika neftni qayta ishlash zavodlarida suv va tuzlardan tozalangan, barqarorlashtirilgan neft maxsus qurilmalarda haydaladi. Bunda neftdan benzin, reaktiv yonilg'i, kerosin, dizel yonilg'isi, mazut olinadi. Mazut, distillyat moylar, parafin, bitum va boshqa mahsulotlar olishda neft xomashyo sifatida ishlatiladi. Haydalgan mazutdan qolgan qoldiq (konsentrat, gudron) moylar olishda, qurilishda ishlatiladi. Farg'ona va Oltiariq neftni qayta ishlash zavodlari O'rta Osiyo respublikalari va Qozog'istonga moy yetkazib beradi. Bu zavodlarda turli xil moylar, benzin, koks, neft bitumi, parafin va boshqa mahsulotlar tayyorlanadi. Oltiariq neftni qayta ishlash zavodida benzin, kerosin, traktor va aviatsiya uchun yonilg'i, dizel yoqilgisi, yod-spirit, saqich, gaz va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi. Buxoro NKIZ esa, neft kondensatorini qayta ishlab, benzin va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradi. 2005-yilda esa jarqo'rg'onda NKIZ ishga tushirildi.

2001-yilda Sho'rtangazkimyo majmuasi ishga tushirilishi bilan neft mustaqilligini ta'minlash vazifasi ham bajarildi. Bu majmua neft va tabiiy gazlardan sintetik yo'l bilan

kimyoviy mahsulotlar olishda O'zbekistondagina emas, balki Markaziy Osiyo hududida yangi soha asosi bo'lib xizmat qiladi, shuningdek, xalqaro doirada o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bu yerda asosiy mahsulot – polietilendan tashqari tabiiy gazni propan-buton fraksiyasi olinadi. Siqilgan tabiiy gaz Muborakdagi gazni qayta ishlash zavodida gazni chuqur ishlash texnologiyasi asosida ko'paytirilib, oltingugurt mahsuloti ishlab chiqariladi.

Uchinchi ustuvor masala uglevodorod, asosan neft, neft kondensati zaxiralarni ko'paytirish edi. Bu yo'nalishni amalga oshirishda «O'zburneft» AJ ning o'zmi katta.

Kompaniyaning asosiy faoliyat turi neft va gaz konlarini burg'ulash hisoblanadi. Bunda asosan «O'zgeoneftegazqazibchiqarish» aksiyadorlik jamiyati buyurtmasiga asosan burg'ulash ishlari olib boriladi. Unda barcha kerakli asbob - uskunalar va mutaxassislar mavjud bo'lib, ular mamlakatimizning barcha neft va gaz konlarida faoliyat ko'rsatadi. «QashPI» va uning tarkibidagi boshqa tashkilotlarni jihozlar bilan ta'minlab turish yana bir tashkilot – «Ishlab chiqarishni texnik ta'minlash va butlash bosh shuba korxonasi» zimmasiga yuklatilgan bo'lib, uning omborlaridagi jihozlar ishlab chiqaruvchi tashkilotlar omborlariga yetkazib beriladi.

Hozirda «O'zburneftgaz» kompaniyasi mamlakatimizda neft va gazni qazib chiqarish ustida zahmatli ishlarni olib bormoqda. Chet elning eng zamonaviy texnologiyalari rivojlangan mamlakatlardan keltirilmoqda. Shu bilan birga, chet el investorlarini mamlakatimizga taklif etib, ularning ilm - fandagi tajriba va yutuqlari sohaga tatbiq etilmoqda. Bu kabi chora-tadbirlar o'z samarasini bermoqda.

Neft, ko'mir va gaz qazib chiqarish sohasida investitsion faoliyatning ortishi hamda qidiruv ishlarining yaxshilanishi neft mustaqilligini mustahkamlash va yoqilg'i-energetika majmuasi mahsulotlari ishlab chiqarishning ortishiga sabab bo'ldi. Birgina 2008-yilda yoqilg'i sanoatida mahsulotlar ishlab chiqarish indeksining o'sishi 5,8 %ni tashkil etdi. Tabiiy gaz ishlab chiqarish – 4,1 %ga, dizel yoqilg'isi – 2,8 %ga, siqilgan gaz – 22,8 %ga ortdi.

Biroq neft va kondensat ishlab chiqarishning 7,8 % kamayishiga Zevarda, Ko'ltak, Pomuk va Kamdini foydali qazilmalarini o'zlashtirish va Ustyurt mintaqalarida geologik-qidiruv ishlari sustligi sabab bo'ldi.

O'zbekistonda neft mustaqilligi va ekologiya borasidagi xalqaro majburiyatlarni bajarilishi kelajakda yoqilg'i-energetika sohasida ilmiy-texnikaviy va ekologik siyosat olib borish jarayonida davlat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligiga bog'liq. Mazkur chora-tadbirlar neft mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning energiya sarfini kamaytiruvchi texnika va texnologiyani joriy qilishda huquqiy va iqtisodiy muhitni barpo etish, neft resurslari samaradorligini oshirish, zaxiralarni ko'paytiradigan innovatsion texnologiyalar iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilgan qo'shimcha investitsiyalarni shakllantirish va rag'batlantirishdan iborat. Bu esa, neft mustaqilligi davomiyligini ta'minlashga asos bo'ladi.

### **Qisqacha xulosalar**

Sanoat respublika iqtisodiyotining eng muhim sohalaridan biri hisoblanadi. Sanoat majmuasi o'z xarakteriga ko'ra, milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini qayta jihozlash, rekonstruksiya qilish hamda iqtisodiy islohotlarning asosi sanaladi.

Sanoat o'z ichiga bir qancha funksional majmualarni – yoqilg'i sanoati va energetikasi, metallurgiya, yengil sanoat, kimyo, mashinasozlik, oziq-ovqat, qurilish materiallari, yog' ochni qayta ishlash sanoatlarini oladi.

Sanoat majmuasini xarakterlovchi ko'rsatkichlar tarkibiga sof mahsulot, balansli foyda, sof foyda, ishlab chiqarish rentabelligi, mahsulot rentabelligi, mehnat unumdorligi, fond qaytishi va fond sig'imi kabilarni kiradi.

#### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Sanoat majmuasi nima uchun xalq xo'jaligining bir tarmog'i hisoblanadi?
2. Sanoat majmuasining asosiy tarmoqlariga qaysi tarmoqlar kiradi?
3. Sanoat mahsulotlarining tarmoqlar bo'yicha tarkibi nimalardan tashkil topgan?
4. Sanoat ishlab chiqarish dasturlarining mohiyati nimadan iborat?
5. Yoqilg'i-energetika sohasi qaysi viloyatlarda rivojlangan?
6. O'zbekistonda po'lat qaysi zavodda eritiladi?
7. Qaysi tarmoqlar strategik ahamiyatga ega?
8. O'zbekistonda qachondan boshlab yengil avtomobillar chiqarilmoqda?
9. Neft mustaqilligini qanday tushunasiz?
10. Kommunikatsiyaga qaysi sohalar kiradi?
11. Axborot texnologiyalari nimaga kerak?

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. Karimov I. "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan ishohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi"//Xalq so'zi, 2014-iy 18-yanvar.
2. Yo'ldoshev Z. Milliy iqtisodiyot. - T.: Mehnat, 2004, 168-b.
7. Ishmuxamedov A.E. O'zbekiston milliy iqtisodiyoti. Darslik - T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jam'armasi nashriyoti, 2005. 304-b.
8. Ishmuxamedov A.E. va boshqalar. Makroiqtisodiyot. Darslik - T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jam'armasi nashriyoti, 2005. 192-b.
9. Tuxliyev N. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. - T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 280 b.
10. Internet veb-saytlari.

[www.gov.uz](http://www.gov.uz)

[www.pressservice.uz](http://www.pressservice.uz)

[www.pca.uz](http://www.pca.uz)

[www.micro-macroiqtisodiyot.fan.uz](http://www.micro-macroiqtisodiyot.fan.uz)

## 6-bob. IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT MAJMU'I

### 6.1. Transport kommunikatsiyasining truzilmasi va ahamiyati

Xalq xo'jaligida temir yo'l, avtomobil, quvur yo'llari, havo, suv va shahar transporti (metro, tramvay, trolleybus, avtobus) mavjud. Yuk va , yo'lovchi tashishda temir yo'l transporti muhim o'rin egallaydi. Respublika temir yo'l transporti qo'shni davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga yordam beradi. O'zbekistonda 1972-yilda qurilgan Qo'ng'iro't-Beynov magistrali Qozog'iston orqali Rossiyaning Volga bo'yi mintaqalariga tutashgan. Navoiy – Uchquduq – To'rtko'l temir yo'li ishga tushishi bilan bu yo'nalish kelajakda asosiy vosita bo'lishi mumkin, chunki u masofani ancha qisqartiradi. Bundan tashqari Toshkent – Turkmanboshi yo'li Turkmaniston bilan, Navoiy – Nukus yo'li Qozog'iston orqali Rossiyaning bog'laydi.

1995-yilda respublikada xalq xo'jaligiga tegishli temir yo'llar uzunligi 6,6 ming km, shu jumladan, umumiy foydalaniladigan qismining uzunligi 3,5 ming km.dan ortiq, asosan sanoat korxonalariga tortilgan (umumiy foydalanilmaydigan) temir yo'llarning uzunligi 3,1 ming km.ni tashkil etdi.

O'zbekistonda dastlabki temir yo'l 1886-1888-yillarda Farob stansiyasidan Samarqandgacha yotqizilgan (Krasnovodsk – Chorjo'y temir yo'lining davomi). Bu temir yo'l 1895 – 1897-yillarda Qo'qongacha, 1899-yilda Toshkentgacha yetkazildi. 1906-yilda Toshkent – Orenburg temir yo'li ishga tushirildi.

1994-yil noyabrda O'zbekiston Respublikasida joylashgan temir yo'l korxonalarini va muassasalari negizida «O'zbekiston temir yo'llari» davlat-aksiyadorlik kompaniyasi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi mamlakat mustaqilligi va iqtisodiyoti uchun ulkan ahamiyatga ega bo'lgan, Xitoy, Koreya, Yaponiya, Eron, Turkiya va G'arbiy Yevropaning janubi bilan tutashtiradigan Transosiyo magistrali (Istanbul – Toshkent – Almati – Pekin) qurilishida boy hissa bilan ishtirok etmoqda. Bu magistralning Tajan – Saraxs va Eronda Saraxs – Mashhad qismlari qurilib, foydalanishga topshirildi (1996-y, 13-may) va unda poyezdlar qatnovi boshlandi. Respublika quruvchilari uzunligi 133 km. bo'lgan Tojan – Saraxs yo'lini qurishda faol qatnashdilar. O'zbekiston temir yo'li kelajakda bu katta yo'lning markaziy bo'g'ini bo'lib qoladi. Bu yo'ldan Buxoro – Beynov orqali Yevropaga, Tajan – Saraxs orqali Yaqin Sharq mamlakatlariga chiqish mumkin. Respublika temir yo'l transportini rivojlantirish istiqbollarning Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti mamlakatlari (Eron, Turkiya, Pokiston, Markaziy Osiyo davlatlari, Afg'oniston, Ozarbayjon) o'rtasidagi Kvatta rejasida belgilangan vazifalar bo'yicha hamkorlik yo'nalishlari ham ishlab chiqilmoqda.

«O'zbekiston temir yo'llari» kompaniyasining 50 mingdan ortiq har xil turdagi yuk vagoni va Germaniyada tayyorlangan refrerjatorlarga, 1450 yo'lovchi tashiladigan vagoniga ega. Kompaniyaning temir yo'ldan foydalanishga mas'ul bo'lgan Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Orol bo'yi, Qarshi temir yo'l bo'limlari bor. 2005-yil umumiy foydalaniladigan temir yo'l transportida 45,1 mln.t. yuk tashildi. 20 tonnali konteynerlar bilan yuk tashish respublikadagi 12-stansiyada (Shumilov, Jizzax, Qashqar, Marg'ilon, Andijon, Guliston, Ulug'bek, Tinchlik, Buxoro-2, Qarshi, Urganch) amalga oshiriladi, kelajakda Nukus temir yo'l stansiyasi shular jumlasiga kiradi. Bu yo'l orqali yuk tashish tarkibi 6.1-jadvalda keltirilgan.

**O'zbekistonda 2000- 2010-yillarda transport turlari bo'yicha yuk tashish tarkibi (umumiy hajmga nisbatan % hisobida)**

№	Soha	2000-y.	2003-y.	2005-y.	2013-y.
1.	Avtomobil transporti	85,6	84,3	84,1	83,8
2.	Quvur yo'li	8,4	9,3	9,5	9,6
3.	Temir yo'l	6,0	6,4	6,4	6,6
4.	Havo yo'llari	0,01	0,01	0,01	0,02

Tashiladigan yuklarning asosiy qismini qurilish materiallari (umumiy tashiladigan yuk hajmining 21 %i), paxta tolasi (3 %), neft va neft mahsulotlari (35 %), g'alla, sement, kimyoviy mahsulotlar va mineral o'g'itlar, ko'mir, sabzavot va boshqa xalq xo'jaligi yuklari tashkil etadi. Yuk tashishda va yo'lovchilar tashishda teplovoz hamda elektropoyezdlar xizmat ko'rsatadi. 2010-yili temir yo'l transportida 28,4 mln. yo'lovchi tashildi. Yo'lovchilarga xizmat ko'rsatishda, ayniqsa shaharlar atrofidagi qatnovlarda elektropoyezdlardan tobora ko'proq foydalanilmoqda. Yo'lovchilar tashish tarkibi 6.2-jadvalda keltirilgan.

6.2-jadval

**O'zbekistonda transport turlari bo'yicha 2010-yilda yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi tarkibi (umumiy hajmga nisbatan % hisobida)**

№	Soha	Yo'lovchi tashish	Yo'lovchi aylanmasi
1.	Temir yo'l	0,6	3,7
2.	Havo yo'li	0,02	10,9
3.	Shahar elektr transporti	6,4	3,5
4.	Avtomobil transporti	93,0	79,7

**Avtomobil transporti va yo'llari.** Respublika xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari va mamlakat aholisi ehtiyojlarini qondirish darajasida rivojlangan avtomobil transportiga ega. Sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, suv xo'jaligi, aloqa, savdo, sog'liqni saqlash, kommunal xo'jaligi, madaniyat, mudofaa va boshqa tarmoqlarda ixtisoslashtirilgan yirik avtotransport korxonalari mavjud.

2013-yil respublikada umumiy foydalanadigan avtomobil transportida yo'lovchilar tashishga mo'ljallangan 18,0 ming avtobus, 3,5 mingdan ko'proq engil avtomashina (taksi)lar qatnovi yo'lga qo'yildi. Respublika bo'yicha 8990 ming avtobus tegishli yo'nalishlar (jumladan, 1798 shahar, 572 shaharlararo) bo'yicha qatnadi. Avtobuslar bilan 6 mln. ga yaqin yo'lovchi tashildi. Respublikada 27 ta avtovokzal, 120 ta avtostansiya xizmat ko'rsatmoqda. Faqat shaharlardagi avtobus yo'nalishlarida turli markadagi 3,65 mingga yaqin avtobus qatnaydi. Transport xizmati Asaka va Samarqandda ishlab chiqarilgan mashinalar bilan ta'minlanmoqda.

O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq xo'jaligi tasarrufida turli maqsadlarga mo'ljallangan 200 mingga yaqin yuk avtomobillari, 45,4 ming avtobus, 50,9 ming yengil avtomobil xizmat ko'rsatmoqda. Shuningdek, fuqarolarning shaxsiy mulki bo'lgan 900,0 ming yengil avtomobillar bor.

Yuk va yo'lovchilar tashuvchi umumiy foydalaniladigan avtomobil transportining yirik korxonalari «O'zavtotrans» davlat aksionerlik korporatsiyasi tarkibiga kiradi. Korporatsiya 1993-yil yanvarda tashkil etilgan. Tarkibida aksiyadorlar jamiyatlariga aylantirilgan, yo'lovchi tashishni amalga oshiradigan 99 ta, yuk tashish bilan shug'ullanadigan 99 ta va aralash 67 ta avtokorxonalar bor. Bu avtokorxonalarda 14 mingdan ortiq avtobus, 24,6 ming ta yuk avtomobili (10 mingga yaqini o'zi ag'daruvchi mashinalar) bo'lib, ularda 2001-yili 420,6 mln.t. ga yaqin yuk tashildi. Bu jami transport turlarida tashilgan umumiy yuk hajmining 24,7 %ini, avtomobil transportida tashilgan yukning 36,8 %ini tashkil etadi.

Korporatsiyaning «O'zashqitrans» savdo-transport birlashmasi va «O'zbekavtotur» firmasi xalqaro yuk tashish va yo'lovchilar qatnoviga xizmat ko'rsatadi. Keyingi yillarda korporatsiya aholiga avtotransport xizmati ko'rsatishni rivojlantirmoqda. Shaharlararo yuk tashishni «O'zshaharlararotrans» ishlab chiqarish birlashmasi korxonalari amalga oshiradi. Avtomobil transporti tizimida «Yo'lovchi» O'zbekiston aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi yo'lovchilarni sug'urta qilish ishlari bilan shug'ullanadi. Keyingi yillarda bozor iqtisodiyotidan kelib chiqib, yuk avtomobillari gaz yoqilg'isi bilan ishlashga o'tkazilmoqda.

O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikasi rivojlangan, zamonaviy talablarga javob beradigan, xalqaro, respublika, mahalliy ahamiyatiga molik yo'l xo'jaligiga ega. Yo'l xo'jaligida tarmoqlararo 43,5 ming ishchi va muhandis-texnik xodimlar faoliyat ko'rsatmoqda. Respublikadagi avtomobil yo'llarining uzunligi 175 ming km. dan ortiq. Umumiy foydalaniladigan avtomobil yo'llarining uzunligi 53,4 ming km. Ularning jumladan, 3843 kilometri xalqaro, 1980 kilometri davlat (respublika) ahamiyatiga, 23439 kilometri mahalliy (viloyat) ahamiyatga ega yo'llardir. Shuningdek, respublikada idoralar (korxonalar, jamoa xo'jaliklari, xo'jalik tashkilotlari) ga qarashli yo'llar ham mavjud.

1992-yil 3-iyulda «Avtomobil yo'llari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi. 1992-yil fevralda O'zbekiston avtomobil yo'llarini qurish va ulardan foydalanish davlat-aksiyadorlik konserni («O'zavtoyol») tuzildi. Konsern tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar avtomobil yo'llari boshqarmalari, 532 ta yo'llarni asrash va ulardan foydalanish bo'limlari, «O'zyo'lloyiha» respublika yo'l va inshootlar qurish, qayta qurish va ta'mirlash bo'yicha loyiha-qidiruv instituti, ko'prik temir-beton qurilmalari zavodi va boshqa korxonalar bor.

XX asr boshida O'zbekistonda 27 ming km. yo'l bo'lib, asosan ot-arava, karvon va yo'lovchilarga mo'ljallangan, shundan faqat 2 ming km. ga shag'al yotqizilgan edi. Respublika mustaqillikka erishgandan keyin mavjud avtomobil yo'llarini xalqaro andozalarga moslash, ularni saqlash va ta'mirlash, yangi barpo etilayotgan sanoat rayonlarini xalqaro magistral bilan bog'laydigan yo'llar qurilishi masalalariga e'tibor kuchaydi. Bu borada respublika Xitoy va Pokistonga chiqish imkoniyatini beruvchi Andijon-O'sh-Ergailom-Qashqar avtomobil yo'lini ishga tushirishda (1997-yil. 21-iyul) Hind okeaniga chiqishga imkon beradigan Termiz - Hirot - Karachi avtomobil yo'li qurilishida o'z ulushi bilan qatnashmoqda. Respublikaning o'zida Farg'ona vodiysi bilan Toshkent vohasini Qamchiq davanini (tankel) orqali bog'laydigan yirik avtomobil yo'li hamda Qo'ng'iroq-Beynev avtomagistrali qurilishi jadval olib borilmoqda.

Respublikadagi yo'llarning 95,6 %iga qattiq qoplamalar yotqizilgan, jumladan, sement-beton qoplamali yo'llar 0,8 %ni (336 km.), asfalt-beton qoplamali yo'llar 49,6 % (21819km.), qora shag'alli va qora qoplamali yo'llar 40,6 % (17796 km.)ni tashkil etadi.

**Havo, suv va boshqa transport vositalari.** O'zbekiston jahondagi ko'p mamlakatlarning poytaxtlari, yirik shaharlar, sanoat markazlari bilan havo yo'llari orqali bog'langan.

Respublikaning havo transporti-fuqaro aviatsiyasi tarixi 1920-yillardan boshlanadi. 1924-yil 12-mayda uzunligi 800 km. bo'lgan Toshkent – Avliyoota (Jambul) – Pishpek (Beshkek) – Olmaota yo'nalishda dastlabki yo'lovchilar tashish reysi amalga oshirildi. O'sha yili uzunligi 450 km. bo'lgan Kogon – Oqto'qay – Darg'onota – Xiva hamda Buxoro – Termiz – Dushanbe havo yo'llari ochildi. 1930-yildan Toshkent – Moskva yo'lida samolyotlar muntazam qatnay boshladi. Aviatsiyadan qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurashda va sanitariya maqsadlarida ham foydalanildi.

Respublika mustaqillikka erishganidan keyin 1992-yildan sobiq ittifoq tasarrufida bo'lgan O'zbekiston Fuqaro aviatsiyasi boshqarmasi, fuqaro aviasiyasining 243-ta'mirlash zavodi, «Aviaqurilish» birlashmasiga qarashli «Aviamaxsusmontajsozlash» negizida «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi tashkil etildi.

Respublikaning, ayniqsa, xorijiy mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy, turistik aloqalarini yo'lga qo'yishda havo transporti muhim ahamiyatga ega. «O'zbekiston havo yo'llari»ning bir qancha Yevropa va Osiyo, Amerika mamlakatlarida vakolatxonalari ochildi. 1993 – 1995 yillarda 18 ta yangi xalqaro yo'nalishlarda samolyotlar qatnovi yo'lga qo'yildi: 1993 yildan Toshkentdan MDH dan tashqari London, Manchester, Frankfurt – Mayn, Tell – Aviv, Sharja, Jidda, Istanbul, Karachi, Dehli, Kuala – Lumpur, Bangkok, Pekin, Afina, Amsterdam, Seul va Nyu-York shaharlariga muntazam xalqaro aviareyslar, Halab (Amppo), Singapur hamda Osiyo va yevropaning ko'pgina mamlakatlariga yo'lovchi tashish reyslari yo'lga qo'yildi.

«O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi Germaniya, Fransiya, Rossiya firmalari bilan turli sohalarda hamkorlik qilmoqda: 1993-yildan shunday hamkorlik natijasida Yevropaning yirik «Erbas industri» konsernidan «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi sotib olgan «Erbas»-A-310-300 avtobuslari xalqaro yo'nalishlarda yo'lovchilarga xizmat ko'rsata boshladi.

«O'zbekiston havo yo'llari» aviakompaniyasi va uning Nukusdagi bo'linmasi xilma-xil turdagi havo kemalariga ega: qishloq xo'jalik ishlariga mo'ljallangan «AN-2», mahalliy (respublika ichida) havo yo'llarida qatnaydigan «AN-24», «YAK-40», xalqaro klassdagi «IL-76», «IL-62», «IL-86», «TU-154», «A-310» kabi samolyotlar, vertolyot parkida «MI-2», «MI-8», «KA-26» kabi mashinalar bor. Respublikada «AN-2» samolyoti, «MI-2», «MI-8», «KA-26» vertolyotlaridan iborat maxsus maqsadlardagi aviatsiya parki qishloq xo'jaligi, tibbiy-sanitariya xizmati, meteorologiya, geologiya-qidiruv, gaz sanoati va boshqa sohalarda unumli ishlatiladi. 1996-yildan «BOING-757» va «BOING-764» samolyotlari, mahalliy havo yo'llarida IL-114, Rj-85 samolyotlaridan foydalanilmoqda.

«O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi tarkibida 12 ta zamonaviy aerovokzal (aeroport)bor. Bular Toshkent, Samarqand, Andijon, Buxoro, Navoiy,



Namangan, Nukus, Termiz, Urganch, Farg'ona, Qarshi, Qo'qon shaharlarida joylashgan. Sergeli, Uchquduq, Zarafshon, Sariosiyo, Shahrisabz, Qo'ng'iroq, To'rtko'l, Mo'ynoq shaharlaridagi aeroportlar viloyat markazidagi aeroportlarga qaraydi, ular «YAK-40», «AN-24» samolyotlarini qabul qilishga moslashtirilgan.

Viloyat markazlaridagi aeroportlar «TU-154», Samarqand, Namangan, Urganch, Termiz aeroportlari «IL-62», «IL-76», Nukus aeroporti «IL-86», «A-313» aerobuslarni qabul qilishga qodir.

Toshkent, Samarqand, Termiz, Nukus aeroportlari xalqaro maqomga ega. Respublika hukumati qaroriga ko'ra, yangi yirik xalqaro aeroport – Uchquduqda jahondagi eng ilg'or andozalarga mos keladigan katta aeroport qurilishi boshlandi.

XX asr boshlarida Amudaryo va Orol dengizidagi suv yo'llari bo'ylab yuklar va yo'lovchilarning ancha qismi tashilgan. 1924-yilda kema va qayiqlar qatnaydigan suv yo'llarining umumiy uzunligi 887 km. edi. Amudaryo harbiy floti, «Xiva», «Merkuriy» aksiyadorlik jamiyatlari kemalarida, shuningdek, xususiy qayiqlarda yo'lovchilarga xizmat ko'rsatilgan, zarur yuklar tashib berilgan. O'sha davrda O'rta Osiyo suv yo'llarida umumiy yuk ortish quvvati 7 ming t. bo'lgan kema va 50 ta barja, umumiy yuk ortish quvvati 24 ming t. bo'lgan 1500 ta qayiq bor edi. 1980-yilda O'zbekistonda suv yo'llarining umumiy uzunligi 2800 km. ga yetdi. Amudaryo - Panji (Tojikiston) bandargohidan Mo'ynoqqa qadar kemalar qatnovi amalga oshirildi.

Daryo suvining kamayishi va Orol dengizining qurib borishi natijasida suv yo'llari keskin qisqardi, ammo shunga qaramay, 1980-yili daryo transportida 1420 ming t. yuk tashildi. O'rta Osiyo respublikalari mustaqillikka erishganlaridan keyin O'rta Osiyo kemachiligi Turkmaniston, O'zbekiston, Tojikiston o'rtasida taqsimlandi. 1994-yil may oyida O'zbekiston Respublikasida joylashgan daryo floti bo'linmalarini boshqarish tartibi qayta tashkil etildi. O'rta Osiyo kemachiligining O'zbekistondagi bo'linmalari negizida «Termiz daryo porti», «Xorazm daryo floti», «Qoraqalpog'iston daryo floti» ishlab chiqarish birlashmalari tashkil etildi. «O'zavtotrans» korporatsiyasi hududida daryo floti ishini muvofiqlashtirish bo'yicha bosh boshqarma (Toshkentda) tuzildi. Respublikada Termiz daryo porti, Sharlovuq, To'rtko'l, Beruniy, Qorator, Xo'jayli bandargohlari, Amudaryo orqali To'rtko'l – Xonqa, Chalish – Beruniy suzma ko'priklari, Xo'jayli kema ta'mirlash zavodi ishlab turibdi. Termiz daryo porti yiliga 2,5 mln. t. yukni qabul qilish - jo'natish quvvatiga ega. U Afg'onistonning Hayraton bandargohi orqali eksport-import yuklarini yetkazib berishda xalqaro ahamiyatga molik. Respublika daryo flotida 150 ga yaqin teploxod, shuningdek, barjalar, zemlesoslar, suzuvchi ekskavatorlar, port kranlari va boshqa yordamchi kemalar, texnika vositalari bor. Respublika suv yo'llarining umumiy uzunligi 1000 km. ga yaqin. Xalq xo'jaligi yuklari asosan Termiz – Hayraton, Sharlovuq - To'rtko'l, Xo'jayli - To'rtko'l, Xo'jayli – Beruniy, Qorator – Taxiyatosh yo'nalishlarida tashilmoqda. O'zbekistonning port va bandargohlari temir yo'llar bilan bog'langan.

Respublikada truboprovod transporti ham alohida o'rin tutadi. O'zbekistonda 20 km. uzunlikdagi birinchi nefteprovod 1905-yil Chimyon neft konidan Vannovsk (hozirgi Oltiariq) neftni qayta ishlash zavodiga tortilgan. Keyinchalik Farg'ona vodiysi, Surxondaryo viloyatida yangi neft konlari ochilishi bilan transportning bu turi jadal rivojlantirildi. Neft konlaridan Farg'ona va Oltiariq neftni qayta ishlash zavodlariga umumiy uzunligi 228,5 km. bo'lgan nefteprovodlar qurildi. Respublika janubida –



Surxondaryo viloyatida 1947-yil Lalmikor – Qumqo'rg'on va 1969-yil Amudaryo – Amu-Zang liniyalari barpo etildi (umumiy uzunligi 40 km.). Qashqadaryoda yangi neft konlari ochilganidan keyin 1967-yil G'arbiy-Toshloq – Qashqadaryo stansiyasi (3,3 km.), Shimoliy O'rtabuloq – Oltingugurt zavodi (72 km.) neftprovodlari ishga tushirildi. 1994 – 1997-yillarda uzunligi 100 km. bo'lgan Ko'kdumaloq – Buxoro neftni qayta ishlash zavodi neftprovodi qurilib, ishga tushirildi. Farg'ona neftni qayta ishlash zavodini xomashyo bilan uzluksiz ta'minlashga xizmat qiladigan, Qamchiq dovoni orqali o'tadigan Xonobod – Angren neftprovodi qurulishini loyihalash ishlari olib borilmoqda. Buxoro, Qashqadaryo viloyatlarida ulkan gaz konlarining topilishi va ishga tushirilishi bilan O'zbekistonda gazprovod transporti rivoj topdi.

Respublika shaharlarida aholiga yo'lovchilarni belgilangan yonalishlarda tashiydigan jamoat ko'cha transporti – avtobus, tramvay, trolleybus, yer osti transport (metropoliten), yengil avtomobil transporti (taksi) xizmat ko'rsatadi. Shahar yo'lovchilar tashish transportining ijtimoiy turi XIX asrning ikkinchi yarmida yirik shaharlarda paydo bo'lgan ko'p sonli izvoshlar edi. 1901-yilda Toshkentda konka – tor temir yo'li izidan otlar sudraydigan bir vagonli aravachalar dastlabki shahar transporti, 1912-yil birinchi tramvay qatnay boshladi. 1913-yili tor izli tramvay yo'lining uzunligi 38 km. ga yetkazildi. Unda 68 tramvay vagoni qatnadi, 27 mln. yo'lovchi tashildi.

Trolleybus qatnovi 1947-yil Toshkentda boshlandi (trolleybus yo'li uzunligi 18 km, 10 ta mashina). Keyingi yillarda Samarqand (1967), Olmaliq (1968), Farg'ona (1970), Andijon (1971), Namangan (1973), Buxoro (1987), Nukus (1992), Urganch (1997), Jizzax(1997) shaharlarida ham trolleybuslar qatnay boshladi. Trolleybus yo'llarining umumiy uzunligi 403 km. (1998-y Toshkent shahrisiz), shu shumladan, Andijonda (72,2 km.), Buxoroda (30,7 km.), Namanganda (65,5 km.), Nukusda (15 km.) Olmaliqda (53,2 km.), Samarqandda (65,5 km.), Farg'onada (56 km.), Urganchda (5 km.), Jizzaxda (14 km.), Toshkent shahrining o'zida esa 296,5 km. 1997- yilda Xivaning 2500 yilligini nishonlash arafasida Urganch shahrida aeroport bilan temir yo'l vokzalini bog'laydigan trolleybus yo'li va 25 km.li Urganch-Xiva trolleybus yo'li ishga tushirildi.

Tramvay qatnovi Toshkent shahrida rivojlangan. Tramvay yo'llarining uzunligi 293,1 km, 1995-yilda 23 yo'nalishda o'rtacha 293 tramvay (vagon) yo'lovchilarga xizmat ko'rsatdi. Toshkent shahrining o'zida tramvay va trolleybuslar bir kunda 1 mln. dan ortiq yo'lovchiga xizmat ko'rsatadi.

Avtomobil yo'lovchilar transporti muhim o'rinda turadi. 85 ta shahar va shaharchalarga ichki shahar avtobus va yengil taksi qatnovi yo'lga qo'yilgan, shaharlarda 670 dan ortiq yo'nalishda avtobuslar qatnaydi. Nukus shahrida shaharning 70 yilligi arafasida yangi yo'nalish bo'yicha avtobuslar qatnovini yo'lga qo'yish asosida umumiy hajmning 75 % dan ko'prog'i avtobus va avtomobillar yengil mikroavtobus hamda taksilar ulushiga to'g'ri keladi.

Metropoliten yo'lovchilarga xizmat ko'rsatishda tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Respublikada metro qurilishi Toshkent shahrida 1972-yildan boshlandi. Uning uzunligi 12,2 km. bo'lgan «Sobir Rahimov» – «Maksim Gorkiy» stansiyalari 1-yo'lining birinchi navbati 1997-yil 6-noyabirda, 4,6 km. li 2-navbati 1980-yil 18-avgustda ishga tushirildi. Toshkent metropolitenining ikkinchi yo'li – «Mashinasoz» – «Beruniy» stansiyalari 1984 – 1991-yillarda 4-navbat bilan boqichma-bosqich foydalanishga tushirildi (uzunligi qariyb 15 km.). Toshkent metropolitenining 3-yo'li

shahar markazini Yunusobod dahasi bilan bog'laydi. Uzunligi 14 km. bo'lgan bu yo'l ham ishga tushirildi. Metropolitenda sutkasiga o'rtacha 300 – 500 ming yo'lovchi tashilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida umumiy foydalaniladigan yuk va yo'lovchilar tashuvchi transportning barcha temir yo'l, avtomobil, aviatsiya, shahar elektr transporti, daryo, truboprovod transporti, shuningdek, umumiy foydalanilmaydigan temir yo'l avtomobil, tasmali transport, osma arqon transporti rivoj topgan. 2001-yili mamlakat yalpi ichki mahsulotining 8,8 %i transport tarmoqlari hissasiga to'g'ri keldi. Transport tarmoqlarida band bo'lgan ishchi-xizmatchilarning o'rtacha yillik soni 318,1 ming nafarni, jumladan, temir yo'l transportida 62,1 ming, suv, daryo transportida 0,6 ming, avtomobil, shahar elektr transporti, yuk ortish - tushirish korxonalarida 303,8 ming nafarni tashkil etdi. Mustaqillikkacha respublika transportining asosiy turlari sobiq ittifoqning markaziy vazirliklariga yoki ularning O'rta Osiyo, O'zbekiston bo'yicha hududiy boshqarmalariga bo'ysungan: temir yo'l transportiga O'rta Osiyo temir yo'l transporti, O'rta Osiyo davlat kemachiligi boshqarmasi, havo transportiga Ittifoq fuqaro aviatsiya vazirligining O'zbekiston Fuqaro aviatsiyasi boshqarmasi, umumiy foydalanishdagi avtomobil transportiga O'zSSR avtomobil transporti vazirligi rahbarlik qilgan.

Respublika mustaqillikka erishgandan keyin transportning xalq xo'jaligiga va aholiga xizmat ko'rsatishini tubdan yaxshilash va transport boshqarish tizimini takomillashtirish maqsadlarida «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi, «O'zbekiston avtomobil transporti», davlat aksiyadorlik korporatsiyasi, «O'zbekiston temir yo'llari» davlat - aksiyadorlik kompaniyasi va boshqa idoralar tashkil etildi. Mamlakat transport korxonalari davlat ishtirokidagi aksionerlik kompaniyalari, korporatsiyalari, ochiq turdagi aksionerlik, mas'uliyati cheklangan jamiyatlarga, jamoa korxonalariga aylantirildi.

Respublikada avtotransport vositalarining bir qismi jamoa xo'jaliklari va fuqarolarning mulkidir. Sanoat va qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning o'sishi, keng miqyosdagi kapital qurilishi va transport moddiy - texnika bazasining yuksalishi bilan yuk va yo'lovchilar tashish hajmlari ham orta bordi. Respublikamizning umumiy yuk aylanmasida transport turlarining solishtirma hissasi ham o'zgardi. Umumiy foydalanishdagi va sanoat transporti turlarida yuk, avtomobil transportida esa yo'lovchilarning asosiy qismi tashildi.

Respublikada transport iqtisodiy rayonlar va korxonalar, xalq xo'jaligi tarmoqlari o'rtasida, shuningdek, mamlakatlararo iqtisodiy aloqalarni ta'minlaydi.

Respublikaning transport tizimi temir yo'l, avtomobil yo'llari, zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan vokzallar, stansiyalar, yuk omborlari va boshqa infratuzilma bo'linmalarini qamraydigan murakkab xalq xo'jaligi majmuasini tashkil etadi. Transport majmuasini tartibga solishda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi: tashiladigan yuklarning hajmi; yuk aylanmasi; yo'lovchi aylanmasi; yuk tashishning o'rtacha masofasi; harakatdagi transport vositalaridan foydalanishning texnik ko'rsatkichlari.

Bu ko'rsatkichlar har bir transport turining xususiyatlariga qarab ajratiladi. Temir yo'l transporti texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlariga ko'ra bo'linadi: a) 1 vagona to'g'ri keladigan statik va dinamik og'irlik; b) vagonlarning aylanish vaqti; v) texnik va uchastka tizimi; g) yuk vagonlarining o'rtacha sutkalik mehnat unumdorligi.

## **6.2. Respublikada transport va kommunikatsiya - korxonalarini rivojlantirish istiqbollari**

Respublikamizda keng tarmoqli kommunikatsiya tizimi vujudga keltirilgan. Bu tizim ichki va tashqi transport, aloqa va axborot ehtiyojlarini, chet ellar bilan iqtisodiy aloqalarni ta'minlaydi. Umumiy foydalanishdagi yo'lovchi va yuk tashuvchi transportning hamma turlari – temir yo'l, avtomobil, havo, daryo transporti, suyuq mahsulot tashiladigan quvurlar, shahardagi tramvaylar, avtobus, metropoliten, telekommunikatsiya rivojlangan.

O'zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan birgalikda dengiz portlariga chiqishni ta'minlaydigan va qadimiy Buyuk Ipak yo'lini tiklashga ko'maklashadigan tranzit transport yo'lagini vujudga keltirishni mo'ljallamoqda. Shu maqsadda O'rta Osiyo mamlakatlari iqtisodiy hamhukumatlari bilan shartnoma tuzilib, Tajen Seraxsmashxat temir yo'li ishga tushildi. Muqobil yo'l sifatida Termiz – Hirot va Eron portlariga chiqadigan yo'l qurilishi bo'yicha ham Afg'oniston, Iroq va O'zbekiston rahbarlarining 2003-yilgi uchrashuvida kelishib olindi.

Bu kommunikatsiya Shanxay – Parij telekommunikatsiya kabel yo'li kabi butun Osiyoni kesib o'tadigan magistralning bir qismidir. Mazkur kommunikatsiya yo'lagi orqali qatnov boshlanishi, Tinch okeanining Osiyo qismi mamlakatlari, O'zbekiston orqali G'arbga – Turkiyaga va undan Yevropaga chiqish tashish masofasini ikki baravar qisqartiradi va xavfsizlikni oshirish imkonini yaratadi. TESIS doirasida TRASEKA loyihasini amalga oshirish O'zbekistonning kommunikatsiya va transport ta'minotida katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Toshkentda TRASEKA loyihasi bo'yicha hukumatlararo komissiyaning Ikkinchi konferensiyasi 2002-yil mayda bo'lib o'tdi. Asosiy ko'p tomonlama bitimga a'zo mamlakatlar transport bo'yicha vazirlarning birinchi forumi 2000-yil martda Tbilisi shahrida bo'lib o'tgan.

Shuni ta'kidlash joizki, yuqoridagi loyiha 1993-yil may oyida Bryussel shahridan o'z rivojlanish tarixini boshlagan. Unda Yevropa komissiyasi tomonidan tashkil qilingan xalqaro anjumanda TRASEKA loyihasini yaratish taklif etilgan. Forumda 8ta mamlakatning: Armaniston, Ozarbayjon, Gruziya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston va O'zbekistonning savdo va transport vazirlari ishtirok etishdi. Tomonlar Yevropadan Kavkaz va Kaspiy dengizi orqali Markaziy Osiyoga G'arb-Sharq yo'nalishidagi transport yo'lagini rivojlantirish loyihasini hamkorlikda amalga oshirish to'g'risida kelishib oldilar.

Yevropa ittifoqi tomonidan taklif qilingan TRASEKA loyihasining asosiy g'oyasi, a'zo mamlakatlar uchun qo'shimcha muqobil sifatida transport yo'lagini ishlab chiqish, qurish va ishga tushirish hisoblanadi. U quyidagi maqsadlarni ko'zda tutadi:

- muqobil transport yo'nalishlari orqali Yevropa va jahon bozorlariga chiqish imkoniyatlarini oshirish yo'li bilan O'rta Osiyo va Kavkaz davlatlarining siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini qo'llab-quvvatlash;
- transport tizimini takomillashtirish bo'yicha hududiy hamkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish;

- transport infratuzilmasini rivojlantirishga xalqaro moliya institutlari va xususiy investorlar mablag'larini jalb qilish uchun ushbu loyihadan katalizator sifatida foydalanish;

- TRASEKA yo'nalishining Yevropa transport kommunikatsiyalari bilan birlashishida har tomonlama manfaatga erishish.

TRASEKA hukumatlararo komissiyasining doimiy kotibiyati qoshida to'rtta ishchi guruh tashkil qilingan. Ular loyihaning asosiy yo'nalishlarini: savdo, avtoyo'l, temir yo'l va dengiz transportlari bilan bog'liq masalalarni amalga oshirishga ko'maklashish uchun TRASEKA ga a'zo mamlakatlarning asosiy ko'p tomonlama bitimida ko'rsatilganidek, 12 ta kotibni o'z ichiga oladi.

«Yevropa – Kavkaz – Osiyo» yo'lagini rivojlantirish bo'yicha xalqaro transport to'g'risida asosiy ko'p tomonlama bitim va 1998-yili Baku shahrida o'tkazilgan «Tarixiy Ipak yo'lini tiklash» bo'yicha xalqaro anjuman yakunlari asosida imzolangan texnik ilovalarni qabul qilish TRASEKA loyihasing institutsional-huquqiy bazasini rivojlantirish yo'lida muhim qadam bo'ldi. Bu hujjatlarni imzolagan davlatlar orasida Armaniston, Ozarbayjon, Bolgariya, Gruzziya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldova, Ruminiya, Tojikiston, Turkiya, Ukraina, O'zbekiston kabi mamlakatlar bor.

Uning ilovalariga muvofiq va Yevropa ittifoqi ko'magida, shuningdek, TRASEKA hukumatlararo komissiyasining doimiy kotibiyati tashkil etildi va uning shtab kvartirasi Bakuda joylashtirildi.

TRASEKA loyihagini moliyalashtirish Yevropa Hamjamiyati komissiyasi mablag'lari hisobiga shakllandi. Loyihani amalga oshirishdan boshlab, 46 ta loyiha ko'rib chiqildi. Ulardan 33 tasi texnik ko'magi bo'yicha va 13 tasi investitsiya loyihalari-infratuzilmani tiklash bo'yicha qabul qilindi. Uning umumiy qiymati 99,6 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Ekspertlar tomonidan e'tiborga olinishicha, loyiha umumiy budgetining 50 %idan ortig'i investitsiya loyihalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan, bu esa TRASEKA loyihasi uchun qulay investitsiya muhitini yaratib beradi. Misol uchun, mazkur loyiha doirasida texnik loyihalar xalqaro moliya institutlari tomonidan investitsiyalarni jalb etishga ko'maklashdi. Chunonchi, ETIB – 250 mln. AQSH dollari hajmida moliyaviy qo'llab-quvvatlash, Jahon banki 40 mln. AQSH dollari hajmida loyihalarni moliyalashtirish, Osiyo taraqqiyot banki yo'llarni tiklashga mablag' ajratish majburiyatini oldi. Bundan tashqari, loyihani amalga oshirishga Yevropa Hamjamiyatining xususiy investorlari ham jalb etilgan.

2006-yil oxirlarida TRASEKA hududlararo loyihasing 8 ta a'zo mamlakatlarida investitsiya loyihalarining budgeti 50.450.000 yevroga yetdi.

Shuni ta'kidlash joizki, hozirning o'zidayoq 50 ta mamlakat yuk tashishini amalga oshirish uchun TRASEKA transport yo'lagidan foydalanmoqda. Ushbu loyihani amalga oshirishda ishtirok etishini bildirgan davlatlar soni ham ko'paymoqda. Chunki TRASEKA loyihasi quyidagilarni ko'zda tutadi:

- mavjud avto va temir yo'llarni tiklash va yangilarini qurish;
- kerakli xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha yo'l infratuzilmasini yaratish;
- xalqaro tashishlarini amalga oshirish bo'yicha malakali kadrlar tayyorlash;
- a'zo mamlakatlarning xalqaro konvensiya va bitimlarga qo'shilish yo'li bilan yagona bojxona va tarif qoidalarini ishlab chiqish va tegishli huquqiy bazani yaratish.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, muqobil kommunikatsiyani TRASEKA loyihasi va boshqa loyihalar asosida rivojlantirish respublika iqtisodiy xavfsizligini ta'minlovchi asosiy yo'l bo'lib xizmat qiladi va Buyuk Ipak yo'li tiklanishi bilan qadriyatlarimiz ahamiyati yanada oshadi.

### 6.3. Telekommunikatsiya sohasida xizmatlarning sifatli asoslari

Biznesda eng asosiy narsa – texnologiya, jihoz va sarmoya hisoblanadi. Haqiqatan, sarmoyasiz boshlang'ich ishlab chiqarishda mablag' bo'lmaydi. Demak, o'z-o'zidan ma'lumki, busiz zamonaviy jihozlar ham, texnologiya ham, nou-xau ham bo'lmaydi. Uyali kompaniya uchun bu shart-sharoitlar ikki hissa ahamiyatli. Biroq sarmoya va jihozlar yoki zamonaviy texnologiyalarning mavjudligi zaruriy shart bo'lmasa-da, yetarli omil emas. Chunki baribir asosiy shart sifatli menejment, ya'ni korxonani boshqarishning puxta tizimi sanaladi.

O'tgan yuz yillik boshida kompaniyalardan biri juda katta mablag' evaziga yuzlab loyihachi-mutaxassislar, eng yaxshi ishlab chiqaruvchi va o'z davrida eng zamonaviy bo'lgan texnologiyalarni jalb etib, kemasozlik texnikasi tarixidagi g'aroyibot – «Titanik» gigant kemasini qurib bitkazdi. Lekin bilamizki, garchi, kutilmagan shart-sharoit tufayli bo'lsa-da, kema cho'kib ketdi. Bu, birinchi galda kema darchasi kapitanining aybi va uning jamoasi (komandasi) ishi yaxshi yo'lga qo'yilmagani tufayli ro'y berdi. Bugungi kunda menejmentning korxonaga faoliyatiga ta'siri shunchalik yuqoriki, bironta zamonaviy korxonaga 9000 seriyali ISO xalqaro standartlari bo'yicha ko'ngilli sertifikatlashsiz ish yuritmaydi.

2004-yil 12-mayda «COSCOM» kompaniyasi telekommunikatsiya sektorida O'zbekistonda MDH davlatlari o'rtasida ikkinchi bo'lib ISO – 9001-2000 xalqaro standartlariga javob beruvchi menejment tizimiga muvofiqlik sertifikatini oldi. Mazkur sertifikat sertifikatlash bo'yicha xalqaro tashkilot TUV Rhcinland Berlin – Brandenburg Grup (Germaniya) tomonidan berilgan.

ISO – standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilot nomining abbreviaturasi. Mazkur tashkilotga 1947-yilda xalqaro tovar almashuv va o'zaro yordamni ta'minlash uchun standartlashtirishga ko'maklashish maqsadida asos solingan. To'g'ri, uning to'liq nomlanishi – International Organization for Standardization va abbreviaturasi – ISO o'rtasidagi nomuvofiqlikni sezish mumkin. Uning to'liq nomiga qaraganda, qisqargan shakli ISO emas, IOS bo'lishi kerak. Aslida «ISO» grekcha «isos»so'zidan olingan bo'lib, «teng» ma'nosini anglatadi va ayni paytda old qo'shimcha bo'lib xizmat qiladi. ISO «izometriya» (teng o'lchov yoki o'lchash) va «izonomiya» (qonunlar tengligi yoki odamlarning qonun oldidagi tengligi) kabi atamalar majmuida ham ko'p uchraydi.

«ISO» qisqartma nomini butun dunyoda bir xil shaklda qo'llash qabul qilingan. Chunki tashkilot nomi tarjima qilingach, turli tillarda turlicha abbreviaturaga ega bo'lib qolishi mumkin. Masalan, u ingliz tilida IOS, fransuz tilida esa OIN (Organisation internationale de normalisation) shaklini oladi. Shu bois xalqaro tashkilot nomining qisqartirilgan shakli – ISO hamma mamlakatlarda bir xilda ishlatiladi.

9000 – sifat menejmenti tizimining xalqaro standartlar seriyasini anglatadi. ISO-9000 esa sifatni yaxshilash bo'yicha xalqaro standartlar seriyasi sanaladi. Unda tashkilotning sifat menejmenti tizimiga bo'lgan talablar, asosiy qoida va atamalar,

tasnukot ta'biyatini yaxshilash bo'yicha tavsiyalar, sifat menejmenti tizimini auditdan o'tkazishga va ekologik menejmentga bo'lgan talablar bayon etilgan.

*Sifat menejmenti haqida qisqacha tushuncha.* 1994-yilda ISO-9000 seriyasi standartlarida «sifat tizimi» tushunchasi mavjud edi. Bugungi kunda u «sifat menejmenti tizimi» (SMT) tushunchasiga aylantirildi. ISO-9000:2000 xalqaro standartlashtirishga muvofiq, SMT – bu, tashkilotni sifatga nisbatan boshqarish va rahbarlik qilish tizimidir. Mohiyatiga ko'ra, SMT – korxonaning yakuniy natija sifatiga yo'naltirilgan butun ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini boshqarishdir. Bu, eng avvalo, chuqur o'ylangan ish qoidalari va korxonada ichida xodimlarning zarur hajmida hujjatlashtirilgan (korxonada standartlari, uslubiy va hokazo ko'rinishlari) o'zaro munosabatlaridir.

Standartlar barcha turdagi va hajmdagi korxonalarga yordam berish uchun ishlab chiqilgan va samarali SMT ishlashini ta'minlaydi. SMT tatbiq etilishini tashkillashtirishni yuzaga kelgan bozor sharoitida iste'molchi mahsuloti talabi, ya'ni xizmatlar, litsenziya olish uchun shart-sharoitlar va boshqalar «majbur etadi».

Yangi tizim xorijda keng yoyilgan jahon bo'yicha turli xil faoliyatlarga oid 400000 dan ziyod tashkilotning sifatli tizimlari sertifikatlangan. Ular orasida «Folksvagen», «Renk kseroks», «Reno», «Mobil», «Olivetti» kabi mashhur firmalar bor. Biroq «ekzotik» misollar ham mavjud: ISO markaziy kotibiyati, Turkiya savdo vazirligi, Buyuk Britaniya transport kompaniyalari, Yangi Zelandiya politsiyasining axborot-kompyuter tizimi, Avstraliyadagi Qirollik gospitali, Gollandiyadagi gul do'koni.

Standartlar sanoat, qurilish, sog'liqni saqlash, ta'lim sohasi, transport, ma'muriy muassasalar, xizmat ko'rsatish va boshqa sohalarda keng qo'llaniladi.

Sertifikatlashga nima majbur qilmoqda?

Korxonalarining sifat tizimlarini sertifikatlashga undovchi sabablar quyidagilar:

- shartnoma tuzishda iste'molchi talablari (masalan, avtomobilsozlikda);
- tender, tanlov va shu kabi tadbirlarda ishtirok etish uchun shart-sharoit, bu o'z navbatida shartnoma muddati tugaganda korxonada uchun reklama vazifasini o'taydi;
- mahsulot yoki xizmatlarda raqobatning oshishi;
- yuqori rahbariyat istalgan paytda korxonaning xalqaro talablar bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatish sharoitlariga muvofiq bo'lishini ongli ravishda istashi;
- tashqi muhim omillarga yana shuni ham qo'shish lozimki, korxonada SMT sertifikatlashtirish o'z mahsulotini xorijiy bozorga chiqara olmaydi.

Kafolat yoki imtiyozlar – bunday olganda, dunyo hamjamiyati tan oladigan yagona ishonch mezonini – korxonada 9000 seriyali ISO xalqaro standartlar me'yorlari asosida ishni tashkil etish va SMTga tegishli sertifikatlar berilishidir. SMTga sertifikatlangan mavjudligi korxonani mahsulot yetkazib berish haqida muzokaralar olib borish mumkin bo'lgan munosib sherik sifatida tavsiya etadi. SMT tashkilotida barqarorlikni ta'minlaydi, chunki faqat eng yuqori sifat va ishlab chiqaruvchining eng quyi narxigina hozirgi zamon bozorida himoyani o'zida namoyon etadi.

O'zbekistonda birinchilar qatorida tashkil qilingan telekommunikatsiya korxonasi – «COSCOM» kompaniyasi o'z faoliyatining boshlanishidayoq Motorola va Alcatel

kabi dunyodagi eng mashhur ishlab chiqaruvchilardan zarur investitsiyalar, zamonaviy asbob-uskunalar, shuningdek, amalda bo'lgan eng zamonaviy menejmentni olgan edi.

U ko'p jihatdan AQSH dagi bir qator tarmoqlarga shu sohada katta tajribaga ega bo'lgan «COSCOM» qo'shma korxonasi MST Amerika kompaniyasi ta'sischilari tomonidan kiritilgan. Shu yili «COSCOM» kompaniyasi tarmog'ini yangilashda ham, yangi REAL sifatli xizmat turini joriy etish borasida ham katta siljishlarga erishildi. Xususan, jahondagi ishlab chiqaruvchilarning yetakchilaridan biri - «MOTOROLA» kompaniyasining eng yangi texnologiyalariga ega 60 dan ortiq baza stansiyasi foydalanishga topshirildi.

“Horizon-2” dunyodagi eng ixcham baza stansiyasi bo'lib, u o'ta yuqori sezgirlikni ta'minlaydi. Mazkur stansiyani qo'llash ham baza stansiyalari, ham uyali aloqa abonentlari uchun qabul qilish sifatini kuchaytiradi. Bu, o'z navbatida, nutqlarni tiniq yetkazish sifatini oshiradi. “Horizon-2” baza stansiyasini tatbiq etish tarmoq hajmini sezilarli darajada oshirdi, signal qabul qilish imkoniyatini kuchaytirib, qoplab olish zonasini kengaytirdi. «COSCOM» tarmog'ining sifatini takomillashtirish jarayoni bu bilan cheklanib qolgani yo'q.

O'zbekistondagi “MTC - «COSCOM» qo'shma korxonasi butun jahonga mashhur «Comverse» firmasining Prepaid Service tizimiga asoslanuvchi yangi REAL tizimini o'zlashtirgani va ishga tushirganini e'lon qildi. Bu REAL – intellektual platformasi (SMS, PPS, VMS) bazasida yaratilgan bo'lib, uning yetkazib beruvchilari dunyoga mashhur «Comverse» firmasidir. «Comverse» firmasining Prepaid Service tizimi dunyoda bu sohada juda keng imkoniyatlarga ega hisoblanadi. U 80 dan ortiq kompaniyaga o'rnatilgan bo'lib, turli tarmoq muhitida (jumladan, GSM, TDMA va CDMA tizimlarida) ishlaydi, barcha ishlab chiqaruvchilar kommutatorlari bilan o'zaro harakatda bo'la oladi, operatsiyalarga ko'maklashuvchi ko'plab tizimlar bilan birlashib ketgan.

Mazkur tizim istiqbolli bo'lib, mingdan to milliongacha oldindan to'lab qo'yiladigan faol abonentlarga xizmat ko'rsata oladi. Uning imkoniyatlari juda keng. Xususan, joriy vaqt rejimida pulni oldindan to'lab qo'yilgan qo'ng'iroqlarni nazorat qilish, hisob-kitobning turli usullari, shuningdek, turgan joyiga va bitta chaqiruvchi bir necha tariflarni qo'llash mumkinligiga ko'ra amalga oshiriladigan billing, bir necha xizmat paketlarini qo'llab - quvvatlash shular sirasiga kiradi. Natijada har qanday kishi sanoqli daqiqalarda «MTC-COSCOM» tarmog'iga ulanishi va joriy vaqtda sifatli aloqaga ega bo'lishi mumkin.

«MTC-COSCOM» kompaniyasida sifat o'zgarishlarining uchinchi bosqichi – unga sertifikatlash bo'yicha xalqaro organ – TUV Rheinland Berlin Brandenburg Group tomonidan korxonaga ISO – 9001 – 2000 xalqaro standartlari menejment tizimiga muvofiq ekanligi to'g'risida sertifikat berilishidir.

Kompaniyaning mavjud abonentlari va bo'lajak abonentlarini quyidagi imkoniyatlar berildi: Motorola va Alkatel jihozlari bazasidagi sifatli tarmoq; REAL tizimining sifatli yangi xizmat turlari; ISO – 9001 standartlariga muvofiq, xalqaro sertifikat bilan tasdiqlangan korxonaning mahsuloti sifati va boshqalar.

#### **6.4. O'zbekistonda pochta xizmat ko'rsatishni takomillashtirish**

Pochta qadimdan samarali aloqa vositasi sanalgan. Hozirda ham pochta bo'limlari, ayniqsa, markazdan olis joylarda aholi uchun atrof-olam to'g'risida turli-tuman axborot oladigan o'ziga xos markaz bo'lib qolmoqda. Shu tufayli bo'lsa kerak, qishloqlarda pochtachilarga alohida hurmat bilan qarashadi. Axir dilga yaqin kishilardan, do'st-u yoronlardan eng yangi xush xabarlarini, qolaversa, o'zlari sevib o'qiydigan gazeta-jurnallarni, nafaqa va ijtimoiy yordam pullarini ular yetkazib berishadi-da.

Turmushimizga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal kirib kelmoqda. Xususan, elektron pochta va boshqa zamonaviy axborot almashuv vositalari paydo bo'lganiga qaramay, pochta aloqasi o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. U bundan keyin ham ish faoliyatimiz va turmushimizda, davlat ishlarida alohida ahamiyat kasb etaveradi.

Respublikamiz pochta aloqasi tizimida 189 ta pochta aloqa tarmog'i va uch mingdan ziyod aloqa bo'limlari mavjud bo'lib, ularda o'n to'rt ming nafar kishi xizmat qilmoqda. Buning teng yarmini pochtachilar tashkil etadi. 2012-yilda pochta xodimlari tomonidan tegishli manzillarga 15,3 million xat, obunachilarga 70,7 million nusxadagi gazeta - jurnal yetkazib berildi. Pochta aloqa tarmog'i orqali 60,3 mingta jo'natmalar, 689 ming so'mlik pul jo'natmasi yuborildi. Shuningdek, xodimlar tomonidan gaz, elektr quvvati, kommunal xizmatidan foydalanganligi uchun alohida 28 million so'm debitorlik qarzini yig'ishda kasbiy xizmat ko'rsatildi.

Shu o'rinda pochtaga xalaqit bergan ayrim omillar xususida aytib o'tmoqchimiz. 2001-yil 11-sentabrda AQSH da sodir bo'lgan fojiali voqeadan so'ng ma'lum bo'ldiki, eng xavfsiz sanalgan pochta aloqasidan ham terrorchilik maqsadida foydalanilgan. Shu sababli, bu borada ham tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqishga to'g'ri keldi.

Masalan, so'nggi yillarda pochta jo'natmalari orqali zaharlovchi va kasallik tarqatuvchi moddalar tarqatilishiga oid voqealar yuz berganligi bois qator tegishli chora-tadbirlar ko'rildi. Ma'lumki, Amerika Qo'shma Shtatlarida 2001-yilda kuydirgi viruslari bo'lgan moddalar ongli ravishda tarqatilib, ko'plab kishilarning o'limiga sabab bo'ldi. Shuning uchun qisqa vaqt ichida pochta korrespondensiyalari, jo'natmalari, banderollari va hokazolarni qabul qilish, qayta ishlash, tashish hamda topshirish texnologiyasi sezilarli darajada o'zgartirildi. Pochta aloqasi qoidalari va boshqa me'yoriy hujjatlarga zarur o'zgartirish hamda qo'shimchalar kiritildi. Shuningdek, pochta aloqasi xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan 7 ta yangi me'yoriy hujjat ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi.

Yirik pochta aloqa tarmoqlarida ruxsatnoma va ichki obyekt tartibi ancha kuchaytirildi. Pochta aloqalari korxonasi maxsus texnik ko'rik vositalari – stasionar va qo'lda ishlatiladigan metall qidiruvchi qurilma, shuningdek, gaz va spektanalizatorlar, radioaktiv hamda buyumlarni aniqlovchi qurilmalar bilan ta'minlandi. Shu bilan birga, aytish joizki, qo'llanilayotgan texnikalar soni va mavjud imkoniyatlari zamonaviy talablarga to'liq javob bera olmayapti.

Respublikada pochta xizmatini takomillashtirish borasida bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar ko'p. Jumladan, hukumatimizning yangi axborot - kommunikatsiya va kompyuter texnologiyasini joriy etish to'g'risidagi qaroriga muvofiq, AQSH Savdo



va taraqqiyot agentligi bilan hamkorlikdagi loyiha doirasida korporativ pochta kompyuter tarmog'i yaratishning texnik-iqtisodiy asosini ishlab chiqish tugallanmoqda. Buning uchun AQSH tomoni 431 ming dollar miqdorida grant ajratgan. Ushbu loyihani amalga oshirish orqali aholiga xizmat ko'rsatish sifati yanada oshiriladi. Shu bilan birga, axborot texnologiyalariga asoslangan zamonaviy xizmat turlari ko'payadi.

Hozirda barcha shahar va tumanlardagi pochta aloqalari tarmoqlari kompyuter bilan ta'minlangan. Pochta aloqasining mintaqaviy tashkilotlari hamda «O'zbekiston pochta» DAK ning bosh idorasi o'rtasida barcha hujjatlar almashinuvi elektron pochta orqali amalga oshirilmoqda. Xalqaro elektron pul jo'natmalari almashinuvini tashkil etish bo'yicha ham tayyorgarlik ishlari amalga oshirildi.

Pochta faoliyatiga tegishli, zudlik bilan hal etilishi lozim bo'lgan yana bir muhim muammo xususida ham to'xtalib o'tish zarur. Keyingi paytda pochta aloqalari xizmatiga nisbatan bir qator noroziliklar bildirildi. Nafaqa va ijtimoiy yordam pullari vaqtda berilmayotgani shulardan biridir. Ushbu muammoni yechish maqsadida pochta aloqalari tizimida pochta – omonat tizimini yaratish yuzasidan tegishli tashkilotlarga takliflar kiritildi va bu masala ijobiy hal etildi.

Asosiy maqsad kompaniya va uning barcha bo'limlari faoliyatini, aholiga ko'rsatiladigan xizmat turlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish va xizmat ko'rsatishni takomillashtirishdir.

#### **6.5. Keys stadi – Axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish asosi**

2002-yil 30-mayda Prezidentimizning «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilingan edi. Mazkur farmon sohadagi istiqbolni ko'zlagan bo'lib, tegishli idoralar va mas'ul shaxslar zimmasiga katta vazifalar yuklaydi.

Axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi turmush tarzimiz, faoliyatimiz va o'zaro aloqalarni o'zgartirib yubordi. 50 millionli auditoriyani radio 38 yilda, televideniye 13 yilda, Internet esa bor-yo'g'i 4 yilda egalladi. Axborot va kommunikatsiya texnologiyasidan dunyodagi turli sohalarda keyingi 30 yil mobaynida kompyuter texnikasini ishlatish 99,99 %ga oshdi.

Faqat 2003-yilning o'zida O'zbekistonda Internetdan foydalanuvchilar soni qariyb ikki barobar ko'paydi. Axborot uzatish vositalarining bu turidan hozirda yarim milliondan ortiq o'zbekistonlik foydalanmoqda.

Axborot va kommunikatsiya texnologiyasining qanday xususiyatlari u bu qadar tez tarqalishiga imkon beradi?

Eng avvalo, gap ana shu texnologiyalar narxining arzonligi va axborotning zarurligidagidir.

Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari muomala va munosabatlar borasida geografik chegaralarni bartaraf etadi, aloqalar jabhasida turli to'lovlarni kamaytiradi va jahon bozori darvozalarini ochadi. Mazkur tizim turli sohadagi eng yangi kashfiyotlarni daqiqalar mobaynida butun dunyoga ma'lum qiladi. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari orqali har qanday talaba taraqqiy etgan mamlakatning olimlaridan fan sirlarini o'rganishi mumkin. Mazkur tizim o'zimiz yashayotgan sayyorani qanday

saqlab qolish, gullab-yashnatish to'g'risida eng zaruriy va amaliy maslahatlarni beradi. Ushbu aloqa vositasi tufayli dunyoning turli burchaklarida yashovchilar bir-birlari bilan daqiqalar ichida diyorlashishlari mumkin. Shuning uchun ham axborot davrimizdag eng qimmatli kapitalga aylanib qoldi. Busiz yashash, rivojlanish va taraqqiy etishin tasavvur ham qilib bo'lmaydi.

6.3-jadva

**O'zbekiston oliygothlarining kompyuter texnikasi va IKT bilan ta'minlanganlik darajasi**

№	Ko'rsatkichlar	01.05.2003-y.	01.07.2012-y.
1.	Bitta kompyuter to'g'ri keladigan talabalar soni, nafar	16	20
2.	LVS dan foydalanish darajasi, %	77	80,9
3.	Internetga ulangan oliygothlar	100	100
4.	Internetdan foydalangan talabalar, jami talabalarga nisbatan %	3,3	5,8
5.	Kompyuterlarning oliygoth, kollej, litseyda ishlatilishi, soat	8	10
6.	Sayti bor oliygothlar hissasi, %	0,75	2,03
7.	Elektron darslik va qo'llanmalar, %	22	20,2
8.	Masofadan o'qitish usulidan foydalanadigan o'qituvchilar hissasi, %	1	2,22
9.	Kompyuter testlaridan foydalanish darajasi	6,9	10,4

Manba: «*Ekonomicheskoe obozreniye*», 2012, №5. – 23-b.

«Masofadan o'qitish» iborasi bugun tez-tez takrorlanmoqda. Respublika maktablarining yarmidan ko'pi kompyuterlar bilan jihozlangan. Ularning 141 tasi Internet tizimiga ulangan. Erishilgan yutuqlar bilan quvonsak arziydi, ammo bu borada amalga oshirilayotgan ishlar ahvolini o'rganish hukumatimizning bu muhim qarorini bajarish bo'yicha qilinadigan ishlar hali ko'p ekanligidan dalolat beradi. O'zbekiston Respublikasi oliygothlarining kompyuter bilan ta'minlanganlik darajasi haqidagi tasavvur beruvchi ma'lumotlar 6.3-jadvalda keltirilgan.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, respublika oliygothlarida elektron darslik va qo'llanmalar, masofadan o'qitish va kompyuter testlaridan foydalanish borasida muayyan ishlar amalga oshirilgan. Ayniqsa, IKT (Internet, masofadan o'qitish) sohalarini rivojlantirish uchun oliygothlar o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish va respublikada yagona informatika va informatsion markazni yaratish, sozlash va undan foydalanishni jadallashtirish kerak.

Masalan, hozirgi kunlarda Buxoro viloyatida Yaponiyaning JBIC banki krediti hisobidan telefon tarmoqlari kengaytirildi, 20 ta qishloq telefon stansiyalarida raqamli ATS lar o'rnatilib, viloyat va tumanlar telefon stansiyalari orasida optik tolali kabellar tortildi. Buxoro shahrida 3 ta Internet provayderi, 10 dan ortiq Internet kafelari aholiga xizmat ko'rsatmoqda. Kompyuter asbob-uskunalari va butlovchi buyumlar keltirish, viloyatda kompyuterlar yig'ish, kompyuterlarga texnik xizmat ko'rsatish, ayniqsa,

xususiy sektorda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bunda ikkita oliy o'quv yurtida tashkil etilgan maxsus kafedralarda yuqori malakali kadrlar tayyorlanmoqda. Shu yerning o'zida tashkil etilgan Axborot texnologiyalari markazlarida ularning malakalarini oshirish imkoniyatlari yaratilgan.

Respublika viloyatlari miqyosida kompyuterlashtirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini kompleks rivojlantirish bo'yicha bajarilayotgan ishlar amaliy natijalar darajasida olib borilsa, bu ishlar saviyasini ko'tarish mumkin.

Hayotimizning qay bo'g'inida yoki respublikamizning qaysi viloyat va tumanida kompyuterlashtirish, axborot texnologiyalaridan foydalanishga savodlilarcha yondashmas, sohaga ikkinchi darajali tarmoq sifatida qarar ekanlar, bu ushbu yo'nalish bo'yicha dunyoga chiqishimizga katta putur yetkazadi. Chunki taraqqiyot kundankunga tezlashib borayotgan hozirgi kunda o'z vaqtida kerakli axborotni ololgan jamiyatgina o'z mavqeiini saqlab qoladi, o'z taraqqiyotini ta'minlaydi.

### **Qisqacha xulosalar**

Korxonaning xizmat ko'rsatish boshqarish tarkibini tanlash, shakllantirish ularning tizim va tarkibiy usullari orasidagi o'zaro ta'sirini aniqlash, xizmat ko'rsatish jarayonlarini optimallashtirish hamda zamonaviy texnologik jarayonlar yaratishda o'z ifodasini topadi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Respublika kommunikatsiya majmuining rivojlanish tuzilmasi qanday darajada?
2. Respublikada transport majmuasining rivojlanish tuzilmasi qay darajada?
3. Transport majmuasini tartibga solishda qanday ko'rsatkichlardan foydalaniladi?
4. Transport korxonalarini rivojlanish istiqbollari qanday belgilanadi?
5. Muqobil kommunikatsiya rivojini qanday ifodalaysiz?
6. Telekommunikatsiya tarmog'i deganda nimani tushunasiz?
7. Sifatli menejment qanday ta'minlanadi?
8. Respublikada birinchi tashkil etilgan telekommunikatsiya korxonasi haqida nimalarni bilasiz?
9. O'zbekistonda pochta xizmati qanday xizmatlarni ko'rsatadi?
10. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish asoslari nimalardan iborat?

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Karimov I. "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi" // Xalq so'zi, 2014-iy 18-yanvar.
2. Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va chorolari. - T.: O'zbekiston 2009.
3. Yo'ldoshev Z. Milliy iqtisodiyot. - T.: Mehnat, 2004, 168-b.

4. Ishmuxamedov A.E. O'zbekiston milliy iqtisodiyoti. Darslik - T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005, 304-b.

5. Ishmuxamedov A.E. va boshqalar. Makroiqtisodiyot. Darslik - T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005, 192-b.

6. Tuxliyev N. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. - T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006, – 280 b.

7. Internet veb-saytlari.

[www.gov.uz](http://www.gov.uz).

[www.pressservice.uz](http://www.pressservice.uz).

[www.pca.uz](http://www.pca.uz).

[www.micro-macroiqtisodiyot.fan.uz](http://www.micro-macroiqtisodiyot.fan.uz)

## 7-bob. AGROSANOAT MAJMUASINING YUKSALISH YO'LLARI

### 7.1. Agrosanoat majmuasini rivojlantirish muammolari

Xalqimiz turmush farovonligini yaxshilashda, umuman, mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlashda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining ahamiyati beqiyos ekanligi barchamizga ma'lum. Agrosanoat majmuining taraqqiyoti nafaqat oziq-ovqat ta'minotini yaxshilash, balki muhim xomashyo yetkazib beruvchi tarmoq sifatida mamlakat industriyasining taraqqiyoti uchun ham o'ta zarur. Ma'lumki, hozirgi paytda O'zbekiston qishloqlaridagi xilma-xil xo'jaliklarda qariyb 4,5 mln. gektar maydonda dehqonchilik bilan shug'ullanilmoqda. Shuncha kenglikdagi ziroatni o'stirishda katta va kichik texnika vositalari dehqonga qudratli qanot bo'lmoqda. Mustaqillik yillarida bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil qilingan «O'zqishloqxo'jalikmash-xolding» va «O'zqishloqxo'jalikmashlizing» kompaniyalari ana shu tarmoqni mukammal va samarali texnika vositalari bilan ta'minlashni asosiy faoliyat sifatida belgilab olgan.

Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov takidlaganidek, qishloq xo'jaligini ish samaradorligi yuqori bo'lgan, zamonaviy texnika vositalari bilan lizing asosida ta'minlash tizimining joriy etilishi oldinga tashlangan muhim qadam bo'ldi. To'g'ri, lizing tizimini qo'llash ko'lamini hozircha unchalik keng emas, lekin shu narsa aniqki, qishloq mehnatkashlarini texnika bilan ta'minlashning bu usuli katta istiqbolga ega. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, qishloq xo'jaligi samaradorligini yuksaltirishning asosiy sharti sermehnat yumushlarini texnika vositalariga yuklashdir. Jahon tajribasi tarmoq ishlab chiqarishining barqarorligi, yuqori unumdorligi, ishlab chiqarish kuchlarining kompleks rivojlanishi, ilmiy-texnika taraqqiyoti, moddiy-texnika bazasining kuchliligi va kadrlar uchun shart-sharoit yaratilganligi bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi.

Buni fermerlar misolida ham ko'rish mumkin. Masalan, bir fermerga AQSH da o'rtacha 150 gektar ekin maydoni to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkich Kanadada 190, Buyuk Britaniyada 70, Fransiya 35, Irlandiyada va Lyuksemburgda 33, Daniyada 32, Germaniya 18, Gollandiyada 17, Italiyada 8 gektar. Yer, texnika, fan yutuqlaridan unumli foydalanilgandagina natijalar yuqori bo'lishi mumkinligini ular amalda isbotlashdi. Umuman, tarmoqdagi iqtisodiy ko'rsatkichlar texnikadan oqilona foydalanishga va uning sifatiga ko'p jihatdan bog'liq dyeyishimizga to'la asos bor.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 31-yanvardagi qaroriga binoan qishloq xo'jaligi mashinalarini ishlab chiqarish maqsadida «O'zqishloqxo'jalikmash-xolding» kompaniyasi tashkil etilgan edi. Bu tuzilma tarkibiga 16 ta korxonalar, 9 ta qo'shma korxonalar, 17 ta mintaqaviy texnika markazi, 72 ta tuman va tumanlararo bo'linmalar, shu jumladan, mashina-traktor parklari va savdo uylari kiradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, 2001-yil natijalariga nazar tashlasak, kompaniyaga qarashli korxonalar ancha murakkab davmi boshidan kechirganligi ayon bo'ladi. Ketma-ket ro'y bergan suv taqchilligi pirovard natijalarga ta'sir etmay qolmadi. Aksariyat joylarda mahsulot ishlab chiqarish hajmini avvalgi yillardagiga nisbatan kamaytirmaslik, erishilgan samaradorlik saqlab qolish uchun kurash olib borildi.

Keyingi yillarda kompaniya rivojlangan davlatlarning tarmoq texnikasi ishlab chiqaradigan firmalari bilan hamkorlik qilayotganligi ham ijobiy samara bermoqda. Masalan, 9 ta qo'shma korxonalar ishga tushirildi va bugungi kunda jahon talablariga javob beradigan texnika vositalari ishlab chiqarmoqda. «O'zKeystraktor», «O'zKeysservis», «Agroxim» korxonalari shular jumlasiga kiradi. Ular tomonidan faqat o'tgan yilning o'zida mamlakatimiz agrosanoat majmuiga 2760 ta traktor, 971 ta telejka, 100 ta paxta terish mashinasi, 118 ta plug, 994 ta borona, 80 ta pichan o'radigan kombayn, 1066 ta kultivator, 1 mln. so'mlik ehtiyot qismlar va boshqa texnika vositalari hamda ularning muayyan qismlari yetkazib berildi. Shu jumladan, lizing asosida 2 mingta traktor va 404 ta telejka ishlab chiqarilib, dehqonlarga jo'natildi. Respublikada hozirgi paytda nufuzli kompaniya va firmalar vakillari bilan hamkorlikda bir qancha qo'shma korxonalar tuzish bo'yicha loyiha – izlanish ishlari olib borildi. Germaniyadagi «KLASS» va «KYUN» firmalari bilan «Toshqishloq mash» hissadorlik jamiyatida yemxashak o'rish kombayni, «O'zqishloq mash» hissadorlik jamiyatida g'alla ekadigan seyaika, «Agregat zavodi» korxonasida frezerli kultivator ishlab chiqarilmoqda.

Qishloq xo'jaligi mashinasozligi uzluksiz va o'zaro chambarchas tizimga ega. Bu ilmiy - tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini bajarilishini, konstruktorlik ishlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va ketma-ketlikni ta'minlaydi. Tarmoqning ilmiy-tadqiqot, loyiha institutlari hamda konstruktorlik byuroolari mavjud. Kompaniya muammolar yechimini ta'minlaydigan dasturlar ishlab chiqib, respublika ilmiy-texnika taraqqiyotini Muvofiqlashtirish kengashi (sobiq fan va texnika davlat qo'mitasi) bilan hamkorlikda ishlar olib borildi. O'tgan yili kompaniya bo'yicha 25 mlrd. 255,9 mln. so'm texnika vositalari, 622,5 mln. so'mlik xalq iste'moli mollari ishlab chiqarildi. Ijobiy siljishlar qatorida korxonalarining debitor va kreditorlik qarzlari kamayganligini tilga olish mumkin.

Kompaniyaning chet el sarmoyasini jalb etishdan, umuman, uning investitsiya faoliyatidan maqsadi ba'zi korxonalaridagi ishlab chiqarish texnikasini yangilashdir. Masalan, hozirda Toshkent traktor zavodi, Agregat zavodi, Motor zavodi, «Texnolog» hissadorlik jamiyatlarida xorij sarmoyasi jalb etilib, zamonaviy talablarga javob beradigan texnika vositalari ishlab chiqarilmoqda. Hozirgacha kompaniyaga qo'shma korxonalar ustav jamg'armasini shakllantirish uchun 28,2 mln. AQSH dollari miqdoridagi chet el sarmoyasi olib kiritildi.

Hukumatimizning mahalliy ashyodan mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha dasturiga ko'ra, «Keys» paxta terish kombaynlari va traktorlariga butlovchi qismlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. O'tgan yili «O'zKeys mash»da paxta terish mashinalarining zamonaviy bo'yash majmui va boshqa ba'zi qismlari ta'mirlandi. «Toshqishloq mash» korxonasida paxta terish mashinasining bunkerini, uning ba'zi qismlarini ishlab chiqarish o'zlashtirildi. Tarmoq texnikasi uchun gidrosilindrlar tayyorlaydigan chet el dastgohi sotib olindi.

## **7.2. Agrosanoat majmui rivojlanishining asoslari**

Agrosanoat majmui (ASM) – qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash, qayta ishlash va iste'molchilarga yetkazib berish bilan band bo'lgan xalq xo'jaligi tarmoqlarining jamlanmasidir. ASM ga kiruvchi tarmoqlarning barchasi

pirovard natijada muhim vazifani – mamlakatni oziq-ovqat va qishloq xo'jalik xom ashyosi bilan ta'minlash vazifasini bajaradi.

ASM tarkibida uchta soha ajralib turadi:

\*qishloq xo'jaligi va unga aloqador tarmoqlar uchun ishlab chiqarish vositalari yetkazib beradigan, shuningdek, qishloq xo'jaligiga ishlab-chiqarish, texnika xizmati ko'rsatadigan sanoat tarmoqlari (masalan, qishloq xo'jaligi mashinasozligi);

\*qishloq xo'jaligining o'zi;

\*qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va iste'molchilarga yetkazib berish (tayyorlash, saqlash, qayta ishlash, tashish, sotish) bilan band bo'lgan tarmoqlar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bu infratuzilmani rivojlantirish mamlakat aholisi ehtiyojini qondirish bilan bir qatorda uning tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantiruvchi kuchga aylanishi mumkin.

Mustaqillik yillarida ASM da juda ko'p yutuqlarga erishish bilan birga muayyan, kamchiliklarga ham yo'l qo'yildi, iqtisodiy islohotlar jarayonida yangi muammolar ham yuzaga chiqdi. Endigi vazifa ushbu kamchiliklarni bartaraf etish yo'llarini, muammolarni chuqur tahlil qilib, ularning yechimini topishdan iborat. Agrar sektorning bundan keyingi rivojlanishida quyidagi muammolarga e'tibor berish zarur:

❖ mustaqillik yillaridagi faoliyatni kuzatish shuni ko'rsatadiki, barcha bo'g'inlarda kadrlar yangicha ishlashga, bozor munosabatlariga to'liq moslasha olmayaptilar. Bu, ayniqsa, tumanlar va xo'jaliklar miqyosida ko'proq ko'zga tashlanmoqda. To'g'ri, har yili kadrlar o'qitish jarayoni o'tkazilmoqda, ammo aksariyat rahbar kadrlar ish yuritishni bozor munosabatlari asosida emas, balki, eskicha – ma'muriy-buyruqbozlik asosida olib borishmoqda;

❖ agrar soha uchun muhim bo'lgan ekologiya masalalari islohot jarayonidan birmuncha chetda qolmoqda. Vaholanki, bu muammo o'ziga e'tiborni talab qiladi. Bugungi kunda tuproq unumdorligining pasayib borishi, og'ir texnika va samarasi past texnologiyalar qo'llanilayotganligi oqibatida tuproq tarkibining buzilishi, sho'rlanish darajasining ortib borishi shundan dalolat bermoqda. Shuningdek, aholini ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash masalasi ham alohida e'tiborni talab qiladi;

❖ ba'zi iqtisodchilar, qishloq xo'jaligida islohotlarni qo'shimcha mablag' sarflamasdan olib borish mumkin, degan fikrni ilgari surmoqdalar. Ularning fikriga qo'shilish qiyin. Negaki, rivojlangan mamlakatlar tajribasiga qarasa, ularning ko'pchiligida bu boradagi ko'rsatkich fermerlar daromadining 40 – 50 va hattoki 60 %ini tashkil qiladi. Shuni hisobga olib, agrar sohani qo'llab-quvvatlash fondini tashkil qilish va uning mablag'i qishloq aholisining ijtimoiy hayoti, ekologik muvozanatni saqlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga qaratilishi zarur;

❖ qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish moliya-kredit mexanizmini takomillashtirishni talab qiladi. Chunki xo'jaliklar to'g'ridan-to'g'ri kredit olishlari nihoyatda murakkab, ayniqsa, uzoq muddatli kreditlar hajmi kamayib ketishi natijasida ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yangilab borish imkoniyatlari chegaralanib qolmoqda. Albatta, lizing tizimining tuzilishi bu muammoni biroz yengillashtiradi, ammo u barcha turdagi asosiy vositalarni qamrab olmagan;

❖ qishloq xo'jaligining moddiy ta'minoti, texnika, mineral o'g'it, yoqilg'i-moylash materiallari bilan ta'minlanishi bugungi kun talablari darajasida emas, moddiy-

texnika resurslarining narxi qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxiga nisbatan bir necha barobar yuqori va tez oshib bormoqda. Qishloq xo'jaligi uchun kerakli sanoat mollariga narx belgilashni ham tartibga solish lozim. Qishloq xo'jaligi korxonalariga servis xizmati ko'rsatish talab darajasida emas, shuningdek, xizmat haqlarining bahosi nihoyatda yuqori;

❖ o'zlari qabul qilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun tayyorlov tashkilotlari vaqtida haq to'lamayotganligi natijasida xo'jaliklarning moliyaviy holati og'irlashmoqda, buning ustiga inflyatsiya og'irligi ham butunlay qishloq xo'jaligi korxonalarini zimmasiga tushmoqda;

❖ qishloq xo'jaligini qiyin ahvoldan olib chiqish uchun qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan barcha sohalar unga o'z yordamini ko'rsatishi zarur. Shundagina ular qishloq xo'jaligidan arzon va sifatli xomashyo oladilar, o'z navbatida, qishloq ularning mahsulotlari uchun bozor vazifasini bajaradi;

❖ hozirgi kunda mamlakatimizda iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayoni kechmoqda, endilikda bu jarayonda agrar sektorni boshqarishdan uni tartibga solishga o'tish, narx-navoni erkinlashtirish bilan birga uni davlat tomonidan tartibga solish taqozo etiladi. Shuni hisobga olib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining pastki va yuqorigi narxlarini chegarasini davlat tomonidan nazorat qilish tizimini yaratish zarur.

Iqtisodiy islohotlar O'zbekistonda birinchi navbatda, agrar sektorda boshlandi. Buning o'ziga xos ramziy ma'nosi bor, chunki aholining 60 %dan ko'prog'i, ish bilan band aholining 44 %i qishloq joylarda yashab, mehnat qilmoqda, YAIM ning 30 %, valyuta tushumining 55 %, tovar mahsulot almashinuvining 70 %, oziq-ovqat mahsulotlarining 90 %i agrar sektor hissasiga to'g'ri keladi.

1991-yilning 11-yanvarida mamlakatdagi shaxsiy yordamchi xo'jaliklarni yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha tadbirlar belgilandi. Prezident ko'rsatmasi asosida yana 1 mln. 221 ming 477 oilaga sug'oriladigan paxta dalalaridan 137 ming 246 gektar yer qo'shimcha tomorqa sifatida bo'lib berildi. Bunday amaliy g'amxo'rlik g'ayratli, shijoatli odamlar harakatiga qanot bag'ishladi.

Shaxsiy yordamchi va tomorqa xo'jaliklari uyushmasi tashkil etildi. Keyinchalik esa shu asosda dehqon va fermer xo'jaliklari uyushmasi yuzaga keldi, ya'ni shaxsiy yordamchi xo'jaliklar zamirida dehqon va fermer xo'jaliklari shakllandi. Ularni imtiyozli soliqqa tortish, o'z mahsulotlarini eksport qilishi uchun qulay shart-sharoit yaratib berish, xo'jalik a'zolarini nafaqa va pensiya bilan ta'minlashga doir tartiblar joriy etildi.

Iqtisodiyotimizning tayanchiga aylanib borayotgan minglab dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyati bu tarmoqning istiqboli biz o'ylagandan ko'ra porloq ekanidan dalolat beradi. Uning tarixi esa, shaxsiy tomorqa xo'jaliklariga, 1989-yilning yozida davlatimiz rahbari uzoqni ko'zlab boshlagan keng ko'lami ishlariga borib taqaladi. Mulkchilikning barcha shakllariga, shaxsiy tashabbus va xususiy tadbirkorlikka o'sha murakkab davrda asos solingan.

Bugungi kunda mamlakatimizda 240 mingdan ortiq mikrofirma, kichik va o'rta korxonalar tashkil etilib, 3 mln.dan ziyod dehqon-fermer xo'jaliklari faoliyat yuritmoqda. Ular qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 78 %ini bermoqda. Keyingi paytda mamlakatimizda xususiy mulkni qishloq joylarda qaror toptirish, uni rivojlantirish va himoya qilish borasida jiddiy ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston



Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida»gi Farmoni va Vazirlar Mahkamasining «2003-2004-yillarda korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish to'g'risida», «Xususiy lashtirilgan korxonalarining korporativ boshqarmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarorlari alohida ahamiyatga ega. Zero, aynan ushbu hujjatlar zaminida yurtboshimizning «Ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish va unda xususiy mulk yetakchi o'rin egallashini ta'minlash zarur» degan g'oyasi yotadi. Bu g'oya esa, chuqur ilmiy va hayotiy mulohazalardan kelib chiqqan bo'lib, milliy iqtisodiyotimizning agrosanoat majmuida mulkiy tuzilishni o'zgartirishni ko'zda tutadi.

Markaziy Osiyodagi eng yirik korxonalardan biri «Toshkent traktor zavodi» davlat aksiyadorlik birlashmasi sanaladi. Bu yerda ishlar bir maromda olib borildi. Xorij sarmoyasini jalb etish ishlari ikki yo'nalishda davom ettirildi. Avvalo, bu «Keys-Nyu-Xolland» firmasining universal haydov traktorlariga komplektlovchi qismlar ishlab chiqarish bo'yicha bo'lsa, keyingisi Xitoy krediti asosida mini traktorlar tayyorlash edi. Bunday mitti texnikalarni dehqon va fermer hamda shirkat xo'jaliklariga, shu bilan birga tomorqa egalariga yetkazib berildi.

Raqamlarning mag'zini chaqishga, ular zaminida yashiringan mehnat maromini ilg'ashga harakat qilindi. Masalan, yangi asring dastlabki yilida korxonada 2539 ta traktor, 1238 ta telejka ishlab chiqardi. Agar uni 2012-yildagi natijaga taqqoslaydigan bo'lsak, nisbatan ko'p, qishloq xo'jaligidagi ehtiyojimizni nazarda tutadigan bo'lsak, ancha miqdorda oz. Albatta, hech bir harakat bejiz ketmaganidek, ishlab chiqarish bo'g'inidagi biron tuzilish o'z ta'sirini sezdirmay, yangi muammo tug'dirmay qolmaydi. Muammo faqat texnika vositalarini butlash uchun ayrim qismlar taqchilligidagina emas, balki ana shu texnikaga muhtoj bo'lgan xo'jaliklarning to'lov qobiliyati past bo'lib qolishi hamdir. Aytaylik, 1997-yilda traktorlar va ehtiyot qismlar ishlab chiqarish 97,6 %ga chiqqan bo'lsa, 2013-yilda bu ko'rsatich 64,0 %ni tashkil etdi va 1500 donadan oshdi. Ehtiyojning bunday past darajada qondirilishi hosil salmog'iga ham ta'sir ko'rsatdi.

«O'zqishloqxo'jalikmash-xolding» kompaniyasiga qarashli bir qancha korxonalarda eksport imkoniyatlaridan yetarli miqdorda foydalanilmadi. Chunki ularda mahsulot eksporti bo'yicha aniq belgilangan dasturning o'zi yo'q edi. Eng sohalardan biri korxonalarda aksiyalarni sotish qoniqarsiz ahvolda edi. Bunday kamchiliklar yurtimiz iqtisodiy salohiyatini oshirish yo'lidagi intilishlarga g'ov bo'ldi.

Boy tabiiy resurslarga ega bo'lgan O'zbekistonimiz zaminida qishloq xo'jaligi mahsulotlari mo'l-ko'lligini ta'minlash orqali cheksiz imkoniyatlarni yuzaga keltirish mumkin. Hamma gap ana shu imkoniyatlarni ko'ra bilishda, ulardan oqilona foydalanishda. Biz so'z yuritayotgan kompaniya rahbarlari bu mas'uliyatni yanada chuqurroq his etishlari zarur. Prezidentimiz yuritayotgan iqtisodiy siyosati, xalqimiz kutayotgan farovon hayot shuni talab etadi.

Bozor iqtisodiyoti qishloq xo'jaligi infratuzilmasidagi barcha bo'g'inlarda hisob-kitob bilan ishlashni taqozo etadi. Biz so'z yuritgan har ikkala korxonada mulk shakli jihatidan ham, xo'jaliklararo munosabatlar nuqtai nazaridan ham bozorning o'ziga xos talablarini hisobga olgan holda tuzilgan. Maqsad ichki imkoniyatlarimizni ishga solish hisobiga import o'rini bosuvchi mahsulotlarni ko'paytirish, eksport salohiyatini oshirish va lizing xizmatini rivojlantirishga qaratilgan. Endilikda nafaqat texnika, ayni

paytda ana shu texnika jilovi qo'lida bo'lgan kompaniyalar ham dehqonning qudratli qanotiga aylanmog'i lozim.

Rivojlangan xorijiy davlatlar xalq xo'jaligida lizing xizmatining alohida o'rni bor. O'tgan asrning 40 – 50-yillaridan boshlab, Amerikada ilk bor joriy etilgan bu xizmat turi ayni paytda jahonning ko'plab mamlakatlarida keng qo'llanilmoqda. Respublikamiz iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar mazkur xizmat turini joriy etish masalasini taqozo etdi. Ko'p mablag' sarflamasdan ishlab chiqarish vositalarini yangilash, zamonaviy texnikaga ega bo'lish uning afzalliklaridan biridir.

Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 30-oktabrdagi qaroriga ko'ra, respublikamiz qishloq xo'jaligini zamonaviy texnika bilan ta'minlash va tarmoq mashinasozligini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratish maqsadida «O'zqishloqxo'jalikmashlizing» kompaniyasi tashkil etildi. Kompaniya o'z faoliyatini boshlagan 2000-yildayoq lizing asosida tarmoqqa 700 mln. so'mlik 471 dona texnika yetkazib berdi. O'sha paytda texnikaga bo'lgan talabning yuqoriligi lizing hajmi oshirilishini taqozo etardi. Buning uchun past foizli, yirik miqdordagi kredit mablag'larini jalb etish, mashinasozlik zavodlari bilan kompaniya faoliyatini muvofiqlashtirish, hisob-kitob mexanizimini takomillashtirish, xo'jaliklarga imtiyozlar berish zarur edi. Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 2-noyabrdagi qarori ushbu muammolarni hal etishga qaratildi.

O'tgan yillar lizing kompaniyasi uchun shakllanish, ya'ni oyoqqa turish davri bo'ldi. Ishni to'la yo'lga qo'yish va lizing xizmatini keng miqyosda amaliyotga kiritish uchun bir qancha masalalar bosqichma-bosqich hal etildi.

Ma'lumki, kompaniya respublikamiz lizing bozorida faoliyat ko'rsatayotgan eng katta tashkilotdir. 2004-yili kompaniyaning joylardagi 13 ta filiali orqali 2339 ta traktor, 100 ta «Keys – 2002» rusumli paxta terish mashinasi va 494 ta turli xil texnika vositalari shirkat va fermer xo'jaliklariga yetkazib berildi.

Kompaniyaning moliya bozoridagi faoliyati u mamlakatimiz iqtisodiyotida alohida o'ringa ega ekanligini ko'rsatdi. Birinchidan, qishloq xo'jaligining lizingga berish sohasi joriy etildi. Ikkinchidan, mulk shaklidan qat'i nazar tarmoqdagi jamoalar davlatning g'amxo'rlikini sezishdi. Lizing xizmati joriy etilgach, odamlar ish bilan ta'minlandi va ishlab chiqarish samaradorligi oshdi. Yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, qishloq xo'jaligi mashinasozligi korxonalari ham rivojlandi.

Lizing kompaniyasi ayni paytda o'z mijozlariga berilayotgan texnika qiymatining 15 %ni oldindan to'lashni taklif qilib, ularga katta qulaylik yaratdi. Lekin texnikaning to'liq qiymati to'langunga qadar u kompaniya mulki hisoblanadi. Shu bois lizingga olingan texnikadan samarali foydalanish va uning to'g'ri ishlatilishini nazorat qilish nafaqat mijozning, balki kompaniyaning ham bevosita faoliyatiga kiradi.

Lizing xizmati fermerlar uchun katta imkoniyat yaratdi. Hozir yangi tartibda texnika oluvchilarning uchdan bir qismini fermerlar tashkil etadi. Ma'lumki, ilgari fermer biror-bir texnika vositasi uchun shirkat xo'jaligi yoki MTPga murojaat qilardi. Bu unga ortiqcha tashvish keltirar, yani qo'shimcha xarajat qilishga to'g'ri kelardi. Bugun esa mazkur xizmat tufayli o'z mashina-traktor parkini tuzatayotgan fermerlar ham ko'p. Texnikalarning lizing asosida berilishi raqobat kuchayishiga, xizmat sifati yaxshilanishi va yetishtirilayotgan mahsulot tannarxi pasayishiga olib kelmoqda. Ba'zida lizingga texnika ololmayotgan, hattoki dastlabki badal pulini to'lagan bo'lsada,

u ish cho'zilayotgan hollarga duch kelamiz. Buning sababi bitta: kompaniyaning yillardagi bo'limlari mijozlarini texnika bilan o'z vaqtida ta'minlay olmayaptilar. fsuski, bunday hollar, kam bo'lsa-da, uchrab turibdi.

Ushbu masalaga aniqlik kiritish maqsadida lizing kompaniyasida bo'ldik. U erdagi mutaxassislar muammo jiddiy ekanligini, masalaning bir tomoni Moliya azirligi huzuridagi qishloq xo'jaligiga texnikalar yetkazib berishni davlat tomonidan o'llab-quvvatlash jamg'armasiga borib taqalishini aytishdi. O'ylaymizki, Jamg'arma tutasadilari bu borada dehqonlarga yordam ko'rsatish choralari ko'radilar.

### 7.3. Agrar siyosatdagi ustuvorliklar

Yirik tarmoq bo'lmish qishloq xo'jaligi mamlakat iqtisodiyotining ustavor o'nalishlaridan biridir. O'zbekiston milliy xavfsizligini ta'minlash, turli qishloq xo'jaligi ekinlari, jumladan, texnik ekinlar o'stirish uchun juda qulay hududda oylashgan, paxta yetishtirish bo'yicha dunyoda (AQSH, Hindiston, Xitoy, va 'okistondan keyin) 5, uni eksport qilish bo'yicha 2-o'rinda turadi. O'rta Osiyoda yetishtiriladigan jami paxta hajmining 75 %i O'zbekiston hissasiga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, respublikada har yili 5 mln tonnadan ko'proq sabzavot va meva yetishtiriladi. O'zbek qorako'l terilariga va pillasiga jahon bozorida talab katta.

Qishloq xo'jaligi aholini oziq-ovqat mahsulotlari, sanoatning turli tarmoqlarini sa xomashyo bilan ta'minlaydi. Mamlakat aholisining 63 %i qishloqlarda yashaydi. Aholining ancha qismi shu sohada mehnat qiladi. Mamlakat ichki mahsulotining 28 %i qishloq xo'jaligi ulushiga to'g'ri keladi. Paxta yetishtiriladigan maydonlarning deyarli nammasi sug'oriladigan yerlardir. Bu yerlarda qudratli irrigatsiya tizimi mavjud.

Mustaqillik yillarida o'tkazilgan islohotlar davomida qishloqda yangi xo'jalik uzilmasi shakllandi. Yerga bo'lgan mulkchilik jarayoni kuchaydi. Bu agrar siyosatdagi eng muhim masaladir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 24-martdagi "Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida"gi PF-3226-sonli Farmoni agrar sohada tub o'zgarishlarini belgilab berdi. Mazkur hujjatda iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida past rentabelli va zarar ko'rib ishlovchi shirkat xo'jaliklari negizida fermer xo'jaliklari tashkil etish ustavor yo'nalish, deb qayd etildi.

7.1-Jadval

Respublika qishloq xo'jaligida turli mulkchilik shakllarida mahsulot yetishtirishning 2003 – 2008-yillardagi holati

Mahsulotlar	Yalpi hosil (ming tonna)		Qishloq xo'jaligi korxonalari		Dehqon xo'jaliklari		Fermer xo'jaliklari	
	2003-y.	2012-y.	2003-y.	2012-y.	2003-y.	2012-y.	2003-y.	2012-y.
Paxta	2803,3	3442,8	1741,8	20,6	-	-	1061,5	3422,2
Bug'doy	5625,6	6952,0	2805,4	81,6	789,9	105,9	2030,3	5813,5
Sabzavot	3301	6346,9	626	44,4	2321,9	4086,1	353,5	2215,8
Kartoshka	834,4	1692,9	49,7	11,3	751,2	1345,3	33,5	336,3
Meva	765,8	1710,3	231,5	18,6	477,7	875,3	56,6	816,4
Uzum	401,8	987,3	160,5	7,7	278,5	423	22,5	556,6
Poliz mahsulotlari	587,3	1182,4	77,8	19,9	331,7	566,6	177,8	595,9

Manba: O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh: 2012, № 8, SISM, - T., 2013; SISSU.-T., 2013.

Shuni aytish kerakki, keyingi yillarda 159 ta shirkat xo'jaligi tugatilib, ularning negizida 9 mingdan ortiq fermer xo'jaligi tashkil etildi. Jumladan, Mehnatobod, Mirzaobod, Yoziyovan, Romiton va Amudaryo tumanlari xo'jaliklari to'liq tugatilib, fermer xo'jaliklariga aylantirildi. Qishloq xo'jaligida turli mulkchilik shakllarida mahsulot yetishtirishning 2003 va 2012-yillardagi holati 7.1-jadvalda berilgan.

Ko'rinib turibdiki, fermer xo'jaliklarida kartoshka yetishtirish ancha rivoj topgan, paxtachilik va g'allachilik yetarli darajada rivojlanmagan, sut, go'sht tuxum va sabzavot yetishtirishda dehqon xo'jaliklarining ulushi yuqori. Jamoa xo'jaliklari paxta va g'allachilikda ustunlikka ega. Shuning uchun ham yuqorida tilga olingan Farmon asosida 2008-yilda jamoa xo'jaligi negizida 27900 ta fermer xo'jaliklari tuzilgan. Tajriba shuni ko'rsatadiki, hatto zarar bilan ishlayotgan jamoa xo'jaliklari ham fermer xo'jaliklariga aylantirilsa, ularda ishlab chiqarish rivojlanadi, moddiy resurslar tejaladi, moliyaviy ahvol yaxshilanadi. Fermer xo'jaliklariga o'z rivoji jarayonida erkin iqtisodiy faoliyat yuritish uchun quyidagi imkoniyatlar yaratilgan:

- yer maydonlari tanlov asosida 50 yilgacha muddat va meros qoldirish huquqi bilan ijaraga beriladi;
- berilgan yer maydonlari shirkat xo'jaliklari balansidan chiqariladi;
- yollanma xodimlar, jumladan, oila a'zolari o'rtasidagi mehnat munosabatlari, mehnat qonunchiligiga muvofiq, mehnat shartnomalariga asoslanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda agrar siyosatning ustuvorligi mujassamlashgan, fermer xo'jaliklarining 2003 – 2010- yillarga mo'ljallangan rivojlanish konsepsiyasi yaratildi. Qishloqda zamonaviy bozor infratuzilmasini rivojlantirishning shu muddatga mo'ljallangan kompleks dasturi tayyorlandi.

Mahalliy sharoitlarni, qishloq xo'jaligi yerlarini, mehnat va suv resurslarining ahvoli hamda xo'jaliklar qayta tashkil etilishi natijasida bo'shab qolgan xodimlarni ish bilan ta'minlash istiqbollari chuqur tahlil qilish asosida viloyat va tumanlar bo'yicha xo'jaliklarni rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Agar siyosatda tilga olingan ustuvorliklar ijrosi aniq belgilangan reja asosida barcha bo'g'inlarda islohotlarning mohiyatini anglagan holda olib borildi. Bu milliy xavfsizlikni ta'minlashda asosiy omillardan biri bo'ldi.

#### **7.4. Qishloq xo'jaligi ravnaqida kreditning o'rni**

Qishloq xo'jaligi moddiy ishlab chiqarishning asosiy tarmog'i bo'lib, sanoatning ko'plab tarmoqlarini xomashyo bilan ta'minlash hamda respublika eksport salohiyati va valyuta tushumining muhim manbasi hisoblanadi. Shu bois mamlakatimiz Prezidenti va hukumati mazkur sohani rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratmoqda. Ayniqsa, Yurtboshimizning «O'zbekiston o'z taraqqiyotini fermerlik rivojida ko'radi va bu borada dunyoning ilg'or mamfakatlari erishgan yutuqlarga tayanadi» degan fikrlari soha taraqqiyotida dasturilamal vazifasini o'tamoqda.

Bir so'z bilan aytganda, fermerlarga qator imtiyozlar berilib, keng imkoniyatlar yaratilmoqda, me'yoriy-huquqiy baza tobora takomillashtirib borilmoqda. Qishloq xo'jaligidagi asosiy tadbirkorlik subyektari, ya'ni fermer xo'jaliklarini rivojlantirish yo'li bilan iste'mol bozorini sifatli qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat va y engil sanoat

mahsulotlari bilan to'ldirish, aholiga ish o'rinlari yaratish orqali iqtisodiyotimizni jada yuksaltirish imkoniga ega bo'lamiz. Shuning uchun kichik biznes, shu jumladan dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish hukumatimiz tomonidan izchil amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Dehqon va fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida 2013 yilda tijorat banklari tomonidan 829,2 mlrd. so'm miqdorida mablag'lar ajratildi: paxta – 702,3 va bug'doyga – 136,9 mlrd. so'm.

Vazirlar Mahkamasining «Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni mablag' bilan ta'minlash mexanizminin takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarori, ayniqsa, fermer xo'jaliklar rolini oshirish, ularda mulkdan, jalb etiladigan mablag'lardan samarali foydalanish uchun iqtisodiy javobgarlik hissini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu qarorga ko'ra, Buxoro, Farg'ona, Namangan va Xorazm viloyatlaridagi fermer xo'jaliklarining davlat ehtiyojlari uchun paxta va g'alla yetishtirish bo'yicha xarajatlarini tayyorlov korxonalarini orqali bo'naklash mexanizmi o'miga ularga xizma ko'rsatuvchi tijorat banklari orqali to'g'ridan-to'g'ri imtiyozli kreditlar ajratish mexanizmi ishlab chiqildi. Bu mexanizm 2008-yil hosilidan boshlab tajriba sifatida sinab ko'rildi.

Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlar yetishtiruvchi fermer xo'jaliklariga imtiyozli kreditlar qaytmaslik xatarining oldini olish yoki garovni sug'urtalash shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlarini to'lash, ish haqi to'lovlari, mineral o'g'it, kimyoviy preparatlar, polietilen plyonka, yonilg'ini moylash mahsulotlari sotib olish, mashina-traktor parklari, muqobil MTPlar, kollektor drenaj tarmoqlarini tozalash, elektr quvvati, yagona yer solig'i va boshqa xarajatlarga to'lovi (hosilni yig'ib olish bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda) uchun maqsadli kreditlar ajratish yo'lga qo'yildi.

Jumladan, 2008-yil davomida paxta xomashyosi tayyorlovchi fermer xo'jaliklaridan tijorat banklariga taqdim etilgan 9691 ta kredit arizasi to'liq ko'rib chiqilib, ularga 15227 mln. so'm, g'alla yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari tomonidan tushgan 5617 ta kredit arizasi bo'yicha esa 1484,2 mln. so'mlik imtiyozli kreditlar ajratildi. Ularning samarasi qanday bo'ldi? Albatta, yuqori bo'ldi. Birgina 2008-yili ana shu to'rtta viloyatda imtiyozli kredit olgan fermer xo'jaliklari tomonidan mo'ljaldagi 166,1 ming tonna o'miga 183,8 ming tonna don yetishtirildi. Natijada 11,0 mlrd. so'm o'miga 13,5 mlrd. so'm daromad olinib, 5,5 mlrd. so'm sof foyda ko'rildi. Masalan, Uchqo'rg'on tumanidagi «Rahimjon hoji» fermer xo'jaligi 2007-yilda 45 gektar yerda g'alla yetishtirib, 4,7 mln. sof foyda olgan bo'lsa, 2008-yilda kreditlash mexanizmi qo'llanilgach, bu ko'rsatkich 7,4 mln. so'mni tashkil etdi. Rentabellik darajasi esa avvalgi yildagiga nisbatan 3 % o'sdi.

Shuningdek, imtiyozli kredit olgan paxta yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari 2009-yili 50,6 mlrd: so'm daromad, shu jumladan, 20,5 mlrd. so'm sof foyda olishga erishdilar. Bir misol: Buxoro tumanidagi «Ibod bobo» fermer xo'jaligi 29 gektar maydonda paxta yetishtiradi. Ushbu xo'jalik 2007-yilda 12,6 mln. so'm daromad olgan bo'lsa, 2008-yilda bu ko'rsatkich 23,0 mln. so'mni tashkil etdi. Imtiyozli kreditlash natijasida jamoada hosildorlik 1,4 sentnerga, sof foyda esa 1120 ming so'mga ko'paydi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, yangi kreditlash mexanizmiga o'tilgach, salmoqli

natijalarga erishgan fermer xo'jaliklari soni to'rtala viloyatda ham ancha ko'paydi. Fermerlarga ajratilgan to'g'ridan-to'g'ri imtiyozli kreditlar samarasini ular rejadagiga nisbatan ortiqcha daromad olganligida ham yaqqol ko'rish mumkin. Pirovardida, 2009-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, tijorat banklari tomonidan davlat ehtiyojlari uchun g'alla hosili yetishtiruvchi fermer xo'jaliklariga berilgan kredit mablag'lari yakuniy hisob-kitoblarga ajratilgan mablag'lar hisobidan to'liq qaytarildi.

Respublikamizda paxta va don mahsulotlariga davlat buyurtmalari joriy etilishi esa bir tomondan, fermerlarning mahsulotlariga barqaror talabni vujudga keltirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, yetishtirilajak g'alla va paxta xom ashyosi qiymatining 50 %i miqdorida oldindan bo'nak puli olish imkonini yaratdi.

Yangi mexanizmning oldingi uslubining yana bir qulay tomoni bor. Davlat ehtiyojlari uchun sotiladigan paxta xomashyosi va g'alla yetishtiruvchi fermerlarga to'g'ridan-to'g'ri imtiyozli kredit berilishi ular uchun ehtiyoj sezilgan xarajatlarni o'z vaqtida moliyalashtirish va mablag'larni mustaqil ravishda tasarruf etish imkonini berdi.

Fermerlik rivoji qishloqda yangicha bozor infratuzilmasi yaratilishini taqozo etadi. Bu borada respublikamizda olib borilayotgan ishlar xususida to'xtalib o'tganda shuni ta'kidlash kerakki, Prezidentimiz Vazirlar Mahkamasining 2009-yil yakunlariga bag'ishlangan yig'ilishidagi ma'ruzasida qishloq xo'jaligi taraqqiyotiga ko'maklashuvchi bozor infratuzilmalarini yaratish va ular tomonidan, ayniqsa, fermerlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlagan edi. Bu vazifani amalga oshirish fermer xo'jaliklariga moddiy-texnik resurslar yetkazib beruvchi, mahsulotlarni saqlash, tashish, qayta ishlash va sotishga ko'maklashadigan xizmat ko'rsatuvchi korxonalar tarmog'ini shakllantirish, bank, axborot-maslahat markazlari hamda fermerlar manfaatlarini himoya qiluvchi uyushmalar, fondlarni tashkil etish va ularni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishni nazarda tutadi, davlat bu yo'l bilan fermerlikning rivojini bevosita qo'llab-quvvatlaydi.

Xususan, davlat ehtiyojlari uchun mahsulot yetishtirayotgan fermer xo'jaliklarining iqtisodiy va moliyaviy mustaqilligini to'liq ta'minlash, bozor sharoitida biznesni boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lgan fermer xo'jaliklari rahbarlari va mutaxassislarini tayyorlash, qishloqda fermer xo'jaliklarining ehtiyojlariga qarab barcha zarur xizmatlarni ko'rsata oladigan zamonaviy ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini jadal rivojlantirish maqsadida Prezidentimizning «2009–2011-yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida» gi Farmoni qabul qilingan edi. Mazkur Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan «2004–2006-yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari dasturi» ishlab chiqildi. Bu hujjatda esa yer-suv munosabatlari, fermerlikni moliyalashtirish va kreditlash tizimi, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, mahsulotni tayyorlash, qayta ishlash va sotish tizimi hamda mehnat munosabatlarini takomillashtirish va kadrlar tayyorlash masalalarini 2011-yilgacha bosqichma-bosqich bajarish belgilab berilgan edi.

Qarorga ko'ra, 2009–2011-yillarda zarar ko'rib ishlayotgan, past rentabelli va istiqbolsiz shirkat xo'jaliklaridan 1020 tasi fermer xo'jaliklariga aylantirildi. Yangidan tashkil etilayotgan fermer xo'jaliklariga bank xizmatlari ko'rsatish, qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida qishloqda ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini rivojlantirish dasturlariga asosan, shu muddat mobaynida 701 ta, jumladan, joriy yilning

o'zida 178 ta minibank tashkil etildi. E'tiborlisi, hududlarda tashkil etilayotgan fermer xo'jaliklariga har tomonlama qulay bo'lgan joylarda joriy yilning o'tgan 4 oyi mobaynida 180 ta minibank tashkil etildi. Umuman, hozirgi paytda faoliyat ko'rsatayotgan jami minibanklar soni 982 taga yetdi. «O'zuyjoyjang'armabank»ning Jizzax viloyati filialiga qarashli, Jizzax tumani markazidan 15 km uzoqlikda joylashgan «Uchtepa» minibanki hozirgi kunda 227 ta mijozga, 167 ta fermer xo'jaligiga sifatli xizmat ko'rsatib kelmoqda.

Iqtisodiy munosabatlarning yaxlit, mukammal tizimini barpo etish, yuzaga kelayotgan muammolarni izchil va o'z vaqtida yechishni talab etadi. Bu borada Markaziy bank tomonidan bir talay ishlar amalga oshirildi. Xususan, tegishli vazirliklar va idoralar bilan birgalikda to'g'ridan-to'g'ri imtiyozli kreditlash bo'yicha «2003-yilda 4 viloyatda o'rtirilgan tajribalar asosida fermer xo'jaliklarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan mahsulotlar xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to'g'risida»gi nizom ishlab chiqildi. Bu me'yoriy hujjatda qishloq xo'jaligi mulkdorlaridan yil davomida olingan takliflar e'tiborda olinib, shu asosda ularga bir qator qulayliklar va imkoniyatlar yaratildi.

Mazkur nizomga muvofiq Andijon, Buxoro, Jizzax, Namangan, Navoiy, Samarqand, Farg'ona va Xorazm viloyatlaridagi fermer xo'jaliklariga tijorat banklari tomonidan kredit mablag'lari muntazam berib kelinmoqda. Respublikamizning qolgan 5 ta viloyatida ham ushbu mexanizm joriy etildi<sup>1</sup>

Shu bilan birga, fermer xo'jaliklarining kredit resurslaridan foydalanish maqsadida Markaziy bank va tegishli vazirliklar bilan birgalikda «Yer uchastkasini ijaraga olish huquqi qiymatini baholash tartibi to'g'risida», «Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklariga bo'lg'usi hosilni garovga olgan holda kredit berish tartibi to'g'risida» va «Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklarining yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga olgan holda kreditlash tartibi to'g'risida» nizomlar ishlab chiqildi. Kredit mablag'lari ajratishda bunday uzluksiz jarayonning ta'minlanishi mamlakatimizda fermerlik harakatini yanada rivojlantirishda muhim omil bo'ldi.

### **Qisqacha xulosalar**

Agrosanoat majmui ko'p tarmoqli yirik majmua bo'lib, o'z tarkibiga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi va qayta ishlovchi tarmoqlarni oladi. Agrosanoat majmuasining taraqqiyoti nafaqat oziq - ovqat ta'minotini yaxshilash, balki muhim xomashyo manbai sifatida mamlakat industriyasining taraqqiyoti uchun ham o'ta zarur.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Agrosanoat majmuasi deganda nima tushuniladi?
2. Agrosanoat majmuasi tarkibiga nimalar kiradi?
3. Agrosanoat majmuasida qishloq xo'jaligi qanday o'rin egallaydi?
4. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish dasturining mohiyati nimalardan iborat?
5. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish dasturining qanday ko'rsatkichlari mavjud?
6. Tarkibiy o'zgarishlar nimani o'rgatadi?
7. Byudjet-soliq siyosatining asosiy tamoyillari nimalardan iborat?

<sup>1</sup> Kredit: fermerlik ravnaqida muhim omil. //Xalq so'zi, 2004-yil 2-iyun.

8. Fermer xo'jaligi nima?
9. Kredit ajratishda fermer xo'jaliklariga imtiyozlar qanday yordam beradi?
10. Fermer xo'jaligini rivojlantirish istiqboli qanday bo'ladi?

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. Karimov I. "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavju imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davol ettirish yili bo'ladi"//Xalq so'zi, 2014-iy 18-yanvar.

2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.-T.; O'zbekisto 2011, - 421b.

3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida u bartaraf etishning yo'llari va choralari.- T., O'zbekiston, 2009.

4. Ishmuxamedov A.E va boshqalar. Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari. Darsl - T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005.

5. Ishmuxamedov A.E. O'zbekiston milliy iqtisodiyoti. Darslik - T.: O'zbekistc yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005, 304-b.

6. Ishmuxamedov A.E. va boshqalar. Makroiqtisodiyot. Darslik - T.: O'zbekistc yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005.-192 b.

7. Tuxliyev N. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. -T.: O'zbekistc milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. - 280 b.

8. Internet veb-saytlari.

[www.ceep.uz](http://www.ceep.uz).

[www.bearingpoint.uz](http://www.bearingpoint.uz).

[www.pca.uz](http://www.pca.uz).

[www.micro-macroiqtisodiyout.fan.uz](http://www.micro-macroiqtisodiyout.fan.uz)



## 8-bob. INVESTITSIYA SIYOSATINING ASOSLARI

### 8.1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiyaning o'rni

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ko'p tarmoqli tizim ravnaqi uni tashkil etuvchi subyektlar moddiy bazasi rivojlanishiga bog'liq. Chunki moddiy resurslar mavjudligi va ulardan samarali foydalanish har qanday iqtisodiy o'sishning zarur sharti hisoblanadi. Ko'p tarmoqli tizim uchun eng avvalo mikrodarajadagi iqtisodiy o'sishning resurslar bilan ta'minlanishi muhimdir. Bu o'rinda investitsiyaviy faoliyat ham muhim ahamiyatga ega. Ko'p tarmoqli tizim qaytadan hosil bo'lishi uchun investitsiyalarning umumiy taqsimlanishi yetarli emas. Buning uchun korxonalar mulkchilik shaklidan qat'i nazar, investitsiyalar bilan ta'minlanishi zarur.

O'zbekistonda turli tarmoqlarga mansub korxonalarda investitsiyaviy jarayon juda notekis kechmoqda. Bu, birinchidan, tarmoqlardagi iqtisodiy ahvolga bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, davlatning investitsiyaviy siyosati investitsiyaviy jarayon notekis kechishini taqozo etmoqda. Investitsiyalarning tarmoqlararo taqsimlanishida ikkinchi omil yetakchi bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda davlatning investitsiyaviy siyosati mohiyatini iqtisodiy transformatsiya sharoiti belgilab beradi.

Investitsiya tizimida iqtisodiy siyosat davlatning yalpi daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash faoliyati bilan bog'liq bo'ladi. Shu yo'l bilan davlatning qo'lida investitsiyaviy resurslar jamlanadi va ishlatiladi. Bu resurslarni davlat o'ziga qarashli korxonalarangina emas, balki boshqa tarmoqlardagi subyektlardan ham oladi.

#### 8.1-jadval

#### O'zbekistonda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning mulkchilik shakllari bo'yicha taqsimoti

Mulkchilik shakllari	2010-y.	2011-y.	2012-y.
Jami	100	100	100
Davlat	99,7	113,3	122,6
Nodavlat	111,7	108,9	109,3
Undan:			
Fuqarolar xususiy mulki	13,4	12,0	10,6
Xo'jalik birlashmalari mulki	12,8	25,0	43,6
Qo'shma korxonalar, chet el fuqarolari va tashkilotlari mulki	13,6	12,5	25,5
Mulkchilikning boshqa shakllari	0,9	8,5	11,2

Manba: O'zbekiston Respublikasining statistik axborotnomasi. – T.: 2012-y, 9-b.

Davlatning investitsiya siyosatini amalga oshirishda esa banklar alohida o'rin tutadi. Respublikamiz tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar mamlakatimiz iqtisodiyoti taraqqiyotiga salmoqli ta'sir ko'rsatmoqda. Tijorat banklarining iqtisodiyotning turli sohalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan kredit mablag'lari yildan-yilga oshib bormoqda.

Davlatning soliqlar va boshqa tushumlar shaklida olgan daromadi byudjet orqali taqsimlanib, uning ixtiyoridagi investitsiya resurslarini hosil qiladi. Buni 8.1-jadvalda ko'rish mumkin.

Keltirilgan raqamlardan ko'rinishicha, O'zbekiston Respublikasida davlat mulki 2001 – 2009-yillarda 8,1 % kamaydi, aksincha, nodavlat mulk 14 % oshdi. Fuqarolarning xususiy mulki kamaydi, qo'shma korxonalar, chet el fuqarolari va tashkilotlari mulki unchalik o'zgarmadi, lekin xo'jalik birlashmalari va boshqa mulkchilik shakllari ko'paydi.

Investitsiyaviy siyosatda davlatning o'z investorligi bilan cheklanishi noto'g'ri. Bu siyosat doirasini kengaytirib, unga uch jihatni kiritgan ma'qul: davlatning o'z daromadlari va olgan qarzi hisobidan investitsiyalarni yo'naltirishi; milliy va xorijiy investorlar uchun qulay investitsiyaviy sharoit yaratilishi; barcha sektorlardagi investitsiya faoliyatini rag'batlantirish.

Investitsiya siyosatining mana shu uch jihatni O'zbekistonda ham amal qiladi. «O'zbek modeli» da davlat bosh islohotchi bo'lgani bois u bosh investor ham hisoblanadi.

Davlat investitsiyaviy siyosati uning tarkibiy amalga oshirilishiga xizmat qiladi. O'zbekiston endilikda zamonaviy iqtisodiyotga o'tishi zarur. Bunga esa davlatning faol investorligi orqali erishiladi. Bu davlat tarmog'ining investitsiyalar borasidagi ustuvorligini ta'minlaydi, boshqa tarmoqlar rivoji uchun ham zarur shart-sharoit yaratadi. Davlat tarmoqlaridagi investitsiyalar milliy doiradagi takror ishlab chiqarishga xizmat qiladi. Chunki davlat tarmog'i korxonalari tarkibdan asosiy tarmoq korxonalari va ishlab chiqarish infratuzilmasidan iborat. Ularning faoliyati umummilliy ahamiyatga ega bo'lib, ijtimoiy doiradagi takror ishlab chiqarishni ta'minlaydi, butun iqtisodiyot uchun eng muhim bo'lgan tovar xizmatlarini yaratadi. Davlat tarmog'ida yaratilgan mahsulot va xizmatlar iste'moli boshqa tarmoqlardagi takror ishlab chiqarishni kafolatlaydi. Chunki ular muhim resurslardan iboratdir.

Davlat tarmoqlarida mashinasozlik, yoqilg'i-energetika, suv xo'jaligi, transport va aloqa korxonalari bor. Ularning me'yorida ishlab turishi boshqa tarmoqlar uchun suv va havodek zarur. Davlat tarmog'ining umummilliy ahamiyati shundaki, bu tarmoq uni investitsiya sohasida yetakchiga aylantiradi. Bu siyosat byudjet investitsiyalari orqali moliyaviy ta'minlanadi.

O'zbekistonda investitsiya faoliyatini moliyalashtirish ko'rsatkichlari dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biridir. 2012-yilda byudjet kapital investitsiyalarining YAIMdagi hissasi quyidagicha bo'lgan edi: Braziliyada – 0,8; Avstraliyada – 3,1; Polshada – 1,8 ; AQSHda – 0,7; Turkiyada – 2,2; Fransiyada – 2,0; Shvetsiyada – 1,2; O'zbekistonda – 8,0%.

Bu ko'rsatkich O'zbekistonda investitsiyaviy jarayonlarni erkinlashtirish samarali kechayotganligidan darak beradi.

Byudjetdan investitsiyalash davlat investitsiyaviy faoliyatining faqat bir jihatidir. Byudjetdan tashqarida hosil bo'lgan, lekin markazlashtirilgan investitsiyalar, shuningdek, davlat korxonalari investitsiyalari va xorij kapitalining davlat tomonidan kafolatlangan investitsiyalari uning ikkinchi bir jihatidir. Davlat investitsiyalari ham o'sishga moyil. Lekin ularning jami investitsiyalardagi hissasi davlat sektorining iqtisodiyotdagi hissasidan ancha ustun turadi.

Davlat investitsiyalari boshqa mulk — doirasidagi investitsiyalar bilan qiyoslaganda davlat tarmog'i davlat investitsiyasiga teng emasligiga, davlat katta mablag'larni ijtimoiy sohalarga, uni rivojlantirish uchun qaratishiga e'tibor berish kerak. Bu ishni boshqa tarmoqlar bajara olmaydi, aniqlik, bunga ularning qurbi yetmaydi.

Shuni ham aytish lozimki, davlat investitsiyalari qisman bo'lsa-da, nodavlat sektorga ham yuboriladi. Chunki bu sektorda davlat ishtiroki bo'ladi. 1999-yilda O'zbekiston Respublikasi byudjetidan ajratilgan kapital investitsiyalarning 89 %i davlat sektorida bo'lsa, qolgan 11 %i nodavlat sektoriga yuborildi. Tarmoqlar, investitsiya faoliyati haqida so'z yuritilganda, birinchi navbatda, ishlab chiqarishga yuborilgan investitsiyalarni nazarda tutish lozim.

2013-yili, jami davlat investitsiyalarining 74,5 %i ishlab chiqarishga yuborilgan bo'lsa, qolgan 28,5 %i noishlab chiqarishga berilgan edi. Noishlab chiqarish investitsiyalari ijtimoiy sektorni rivojlantiradi. Shuning uchun ular umummilliy ahamiyatga ega. Ularning faoliyati natijasidan nodavlat sektordagi korxonalar va tashkilotlar, umuman, barcha aholi bahramand bo'ldi.

Davlat tarmog'idagi investitsiya faoliyatini moliyalash quyidagi manbalarga tayanadi: byudjet, korxonaning o'z mablag'i va kreditlari investitsiyalarni tarmoqlararo qiyoslashda, birinchidan, kapital investitsiyasi, ikkinchidan, ishlab chiqarish tavsifidagi investitsiyalar inobatga olinishi zarur. Bularni inobatga olib, hisob-kitob qilsak, davlat mulkining ishlab chiqarish investitsiyalaridagi hisssasi 2005-yilda 69,0, 2008-yilda esa 71,5 %ni tashkil etdi. Davlat investitsiyalari tahlili ularning yo'naltirishga yuklatilgan funksiyalarga bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Masalan, davlatning ishlab chiqarish tavsifidagi investitsiyalari taqsimlanishi 1999- yilda quyidagicha bo'lgan edi: sanoatga — 60,6 %; qishloq xo'jaligiga — 6,5 %; qolgan sohalarga — 4,4 %. 2013-yilda jami sanoat investitsiyalari uning tarmoqlari o'rtasida quyidagicha taqsimlandi: ishlab chiqarishga — 71,5 %; shu jumladan, sanoatga — 37,7 %; transport va aloqaga — 21,6 %.

Asosiy tarmoqlar davlat tomonidan investitsiyalar bilan ta'minlanib borishi ularning me'yorida ishlab turishiga, bu esa milliy iqtisodiyotning barqarorlashishi va o'sishiga olib keladi. Masalan, birgina 2013-yilda O'zbekistonda YAMM 8 %, sanoatda 8,8 %, shu jumladan, elektrotexnikada — 10 % ga oshdi.

O'zbekistonda davlat investitsiyalari ustuvorligini iqtisodiyot yuzaga keltirgan omillar bilan izohlash mumkin. Iqtisodiy o'tish davriga kapitalning dastlabki jamg'arilishi xosdir. Bu esa investitsiya jarayoniga ta'sir etmasligi mumkin emas. Xususiy kapitalning jamg'arilishi, birinchidan, davlat mulkini uning tasarrufidan chiqarish orqali sodir bo'lsa, ikkinchidan, kapitalning investitsiyalar hisobidan o'sishi yuz beradi.

## **8.2. Investitsiya siyosatida xususiy lashtirish jarayoni**

O'zbekistonda xususiy lashtirish miqyosi keng bo'lmadi. Buni bozor munosabatiga asta-sekin o'tish taqozo etardi. Shu boisdan xususiy lashtirish dastlab savdo-sotiq, maishiy xizmat va kichik sanoatda o'tkazildi. Binobarin, xususiy kapital shu yerda shakllandi. Uning miqdori katta emasdi. Iqtisodiy o'zgarishlar katta kapitalni talab qilar, kapital esa, davlat qo'lida edi.

Islohotlar jarayonida O'zbekistonda ikki xil vazifani hal etish zarur edi. Birinchisi – O'zbekistonda bozor munosabatiga ijtimoiy xo'jaliklar orqali o'tilishi, bu xo'jaliklarni islohotlar orqali uning qarama - qarshisi bo'lgan bozor tizimiga yo'naltirish. Ikkinchisi – yangi milliy iqtisodiyotni qurish. Bu esa tarkibiy o'zgarishlarni o'tkazish orqali yarim mustamlaka va agrar iqtisodiyotni milliy manfaatga xizmat qiluvchi zamonaviy iqtisodiyotga aylantirishni talab etardi.

Bu vazifalarni bir vaqtning o'zida amalga oshirish uchun katta investitsiyalar zarur. Xususiy tarmoq esa, buni ta'minlashga qodir emas. O'zbekistonda davlatning ishtiroki va uning kuchli nazorati ostida o'tgan xususiyashtirish jarayoni bir qator mamlakatlarda bo'lgani kabi, katta miqdordagi davlat mulkini qo'lga kiritish, jumladan, yirik kapital sohibi bo'lgan oliygohlarni yuzaga keltirmaydi. Natijada, xususiy kapital o'rta va kichik kapital shakliga kirib, uning dastlabki jamg'arilishi tugallanmaganidan yirik kapital hosil bo'lmaydi. Ayni paytda fond bozori rivojlanmaganligi uning yirik kapital hosil bo'lishini cheklaydi.

Kapitalni aksiyalashtirish jarayoni yuz bergani bilan, aksiyalarning fond bozorida sotilishi sustligi tufayli mayda kapitalni yirik kapitalga aylantirish, ya'ni yangidan kapital hosil bo'lishi tezda sodir bo'lmaydi.

Hal etiladigan vazifalar yirik miqyosli bo'lib, katta investitsiyalarni talab etadi. Xususiy kapitalning esa bunga qurbi yetmaydi. Ustiga-ustak, xususiy kapital dastlab muomala sohasida paydo bo'lib, u bu sohani tezda tark etmaydi. Chunki bu yerda kapital aylanmasi tez borganidan kichik kapital kuchayib, katta foyda olish mumkin. Bu esa, foydani maksimalashtirishdan iborat xususiy tarmoq manfaatlariga mos keladi. Xususiy manfaat milliy manfaatga har doim ham mos tushavermaydi, albatta.

Milliy manfaat kapital ishlab chiqarishni talab qilsa, xususiy kapital bu sohaga oshiqmaydi, savdo-sotiqni tark etib, bu yerga ko'chib o'tmaydi. Kapitalning savdo - sotiqda qolib, shu yerda tez jamg'arilishi o'tish davri uchun xos hodisadir. Jamg'arish me'yorida bo'lgach, kapitalning kerakli miqdoriga bo'lgan talab qondiriladi. Kapital qimmatbaho loyihalarga ham qo'yiladi. Islohotlarning dastlabki yillaridanoq savdo-sotiq va ijtimoiy o'vqatlanish sohasida xususiy tadbirkorlarning tez ko'payib borishi kuzatildi. 2000-yilga kelib, nodavlat sektorining chakana savdo aylanmasidagi hissasi 96,8 %ni tashkil etdi. Vaholanki, bu sektorning O'zbekiston milliy iqtisodiyotidagi hissasi 70,2 % edi. Xususiy korxonalar orasida savdo-sotiq va ijtimoiy o'vqatlanishda ayniqsa, eng ko'p pul tushumi va ishlovchilarga ega bo'lgan korxonalar yuzaga keldi. Bu tasodif emas, albatta.

Xususiy tarmoqda kapital jamg'arish yetarli darajada bo'lmagani va bu kapital ko'pkapitalli sohalarga oshiqmagani sababli, milliy iqtisodiyotdagi investitsiya yukini davlat o'z zimmasiga oladi. Bu esa investitsiyalarning tarmoqlararo taqsimlanishiga jiddiy ta'sir o'tkazadi.

Bunda ham investitsiya jarayonida davlat tarmog'i ustunligi kuzatiladi. Ammo aralash tarmoqning investitsiyadagi hissasi ham yuqoridir. Har ikkala tarmoqda ham davlatning ishtiroki bor. Bu ko'rsatkich davlatning daromadlarni qayta taqsimlab, investitsiya resurslari hosil etish va uni joylashtirishda yetakchilik qilishini ko'rsatadi. Bunday holat tuzilmaviy o'zgarishlar o'tkazilishini taqozo etsa-da, xususiy va jamoa tarmog'ining bu boradagi tashabbusini cheklaydi. Keyingi paytda bu ikki tarmoqdagi

investitsiya resurslari noishlab chiqarish sohalariga o'tib, individual iste'molga qaratilishi kuzatildi. Bu jarayonni ikki omil bilan izohlash mumkin:

– birinchidan, aholi o'z daromadini inflyatsiyadan himoyalash uchun yuqori likvidli vositalarga aylantirishga intilib, pul jamg'armasini ko'proq uy-joy qurilishiga qaratdi. Agar xususiy investitsiyalarni olsak, ularning juda katta qismini (95,4 %) fuqarolar shaxsiy uy-joy qurilishiga sarfladilar. Bu esa, xususiy tarmoqning ishlab chiqarish salohiyati ortishiga xizmat qilmaydi;

– ikkinchidan, xususiy investitsiyalarni ishlab chiqarishga burib yuborishga milliy texnologiya bozoridagi defitsit monelik qilishi, zarur texnologiyalarni tashqi bozordan topish mumkinligi va bunga esa valyuta resurslari yetishmasligi xalaqit berdi.

Mana shunday sabablar jamoa tarmog'idagi investitsiyalar tarkibiga ham ta'sir etadi. Bu yerda uy-joy korporativlari faolligi ham investitsiyalarni shu sohaga yo'naltirishga xizmat qiladi.

Aralash tarmoqda ham investitsiyaviy faollik bo'lib, bu yerdagi investitsiyalar asosan ishlab chiqarishga yo'naltiriladi. Chunki xorijiy mablag'lar avvalo, shu sohalarga safarbar etiladi. Hozirgi paytda qo'shma korxonalar investitsiyasining deyarli 95 %i ishlab chiqarish sohasiga yo'naltirildi. Tablillar shuni ko'rsatadiki, davlat ishtiroki bor tarmoqlarda investitsiyaviy jarayon kuchli bo'lgani holda, boshqa yerda uning zaifligi kuzatiladi.

Ma'lumki, korxonalar mulk shaklidan qat'i nazar, investitsiyalarga o'z hisobidan mablag' ajratishi lozim va bu uch manba hisobidan amalga oshiriladi: amortizatsiya ajratmalari; sof foyda; olingan kredit.

Amortizatsiya ajratmalari investitsiya manbai sifatida o'z ahamiyatini yo'qotib bormoqda. Chunki korxonalaridagi asosiy fondlar moddiy jihatdan eskirib ulgurgan. Bu, ayniqsa, qishloqdagi jamoa ukladida yaqqolroq seziladi. Fondlarning katta qismi muomaladan chiqib ketishi amortizatsiya keskin kamayishini bildiradi. Xususiy va jamoa idagi kichik korxonalarda ham amortizatsiyaning takror ishlab chiqarishdagi ahamiyati katta emas. Chunki bu yerdagi ishlab chiqarish ko'pkapitali emas, balki sermehnatdir. Shu bois, amortizatsiya summasi katta emas va u jiddiy investitsiya manbai bo'la olmaydi.

Davlat va aralash ukladdagi korxonalariga yangi investitsiyalar ko'plab yuboriladi, ularda asosiy kapital ancha yangi va amortizatsiya summasi ham oz emas. Xullas, amortizatsiyaning investitsiya manbai sifatidagi ahamiyati keskin pasayishi eng avvalo, iqtisodiyotning nodavlat sektoriga xosdir.

Investitsiyalar tarkibida xorijiy investitsiyalarning mavqei kuchayib bormoqda. Ammo, iqtisodiyotda xorijiy tarmoqning kuchayishi kuzatilmaydi. Xorijiy investitsiyalar deganda, odatda, xorijdan kelgan mablag'lar tushuniladi. Lekin ular tarkibi bir xil emas. Ular xorij kreditlari va xorijliklar bevosita, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirgan investitsiyalardan iborat. Kreditlar milliy mulk bo'lsa, bevosita investitsiyalar chet elliklar mulkidir. Shu investitsiyalarda bevosita investitsiyalar hissasining kamayib borishi milliy iqtisodiyotda xorij tarmog'i qisqarishini bildiradi. Masalan, 1999-yil ishlab chiqarish sohasida qo'shma korxonalariga jalb etilgan investitsiya 29,3 mlrd. so'm bo'lgani holda, bevosita xorij investitsiyalari 3,4 mlrd. so'm bo'lgan, xolos.

Bu O'zbekiston milliy iqtisodiyotiga tushadigan investitsiya yukini oshirdi. Birgina 2013-yilda 2012-yildagiga nisbatan investitsiya 11,2 % oshdi va o'zlashtirilgan chet el investitsiyasi 2,5 jami milliard AQSH dollarini tashkil etdi.

Investitsiyalarning mulkchilik shakli jihatidan tahlili shunday xulosaga olib keladiki, investitsiya jarayonlarining erkinlashuvi turli tarmoq korxonalari faol va o'zini-o'zi moliyalashtirish qoidasi ustuvor bo'lishini talab qiladi.

### **8.3. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish**

Har bir mamlakat, jumladan, O'zbekiston ham investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning tashqi manbalari bilan bir qatorda, ichki manbalaridan ham oqilona foydalanishga harakat qiladi. Hozirgi kunda O'zbekistonda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning ichki va tashqi manbalaridan foydalanish uchun, ushbu sohaning huquqiy va iqtisodiy asoslarini ta'minlash, ochilmagan va o'rganilmagan qirralarini o'rganish hamda amaliyotga tatbiq etish lozim.

Kapital mablag'larni moliyalashtirishning turli xil manbalari mavjud. Ularni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin: davlat byudjeti mablag'lari; korxonalarining o'z mablag'lari; bank kreditlari; aholi mablag'lari; chet el investitsiyalari; byudjetdan tashqari fondlar mablag'lari va hokazo.

Keyingi paytlarda davlat byudjeti tomonidan bir qator yirik ishlab chiqarish majmualari moliyalashtirilmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat milliy iqtisodiyotimiz uchun zarur bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi obyektlarni moliyalashtiradi. Xususiyashtirish kengayishi hamda xususiy sektor rivojlanib borishi bilan davlat byudjeti mablag'lari evaziga investitsiyalash kamayib boradi. Bunday hollarda bozor iqtisodiyotiga o'tib borayotgan davlatlarda, jumladan, O'zbekistonda ham davlat byudjeti hisobidan tibbiyot, sog'liqni saqlash, fan va madaniyat, maorif va boshqa ijtimoiy sohalar loyihalari moliyalashtiriladi va bu maqsadga muvofiqdir. Bunga misol qilib, keyingi paytlarda mamlakatimizda keng miqyosda qurilib, foydalanishga topshirilayotgan sog'liqni saqlash muassasalari, akademik litseylar hamda kasb-hunar kollejlarni va boshqalarni olishimiz mumkin. Bunday maqsadlar uchun davlat byudjeti, mahalliy budjetlar hamda boshqa manbalardan mablag' ajratiladi.

Respublikamizdagi mavjud korxonalar rivojlanib, moliyaviy jihatdan barqarorlashib bormoqda. Shundan kelib chiqib, korxonalarda o'z-o'zini moliyaiashning yangi manbalari shakllanib bormoqda. Korxonaning o'z-o'zini moliyalashtirish manbalari quyidagilardan tashkil topishi mumkin: korxonaning taqsimlanmagan foydasi; amortizatsiya ajratmalari fondi; aksiyalar chiqarish hisobiga shakllantirilgan mablag'lar; maxsus fondlar.

Yuqorida sanab o'tilgan mablag'lar manbaidan korxonalar o'z ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishda, yangi ishlab chiqarishni barpo qilishda, modernizatsiyalash yoki texnik-texnologik jihatdan yangilanishda, aylanma mablag'larini kuchaytirishda foydalanishlari mumkin. Hozirgi kunda ko'pgina korxonalarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat tomonidan subsidiyalar va boshqa yordam mablag'lari ajratilmoqda. Davlat tomonidan olib borilayotgan qo'llab-quvvatlash siyosati asosida korxonalariga, ayniqsa, endigina ish boshlagan xorijiy investitsiyalar yoki boshqa turdagi kichik va o'rta korxonalariga soliq imtiyozlari berish ham alohida

ahamiyat kasb etmoqda. Korxonalar mana shu imtiyozli davr mobaynida soliq to'lovlarini amalga oshirmaydilar va bu maqsad uchun sarflanadigan summalarni ishlab chiqarish korxonalarini kengaytirishga yo'naltiradilar. Bundan tashqari, korxonalar o'zlariga keraksiz bo'lgan asosiy vosita va boshqa mulklarini sotish yoki ijaraga berish orqali ham qo'shimcha mablag'larga ega bo'lishlari mumkin.

Investitsiya loyihalarini turli xil manbalar hisobiga moliyalashtirishda bank kreditlari alohida ahamiyat kasb etadi. Shuni hisobga olib, mamlakatimizda bank tizimini rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi. Qisqa davr mobaynida bank tizimini isloh qilish bo'yicha o'nlab qonun va qarorlar, yo'riqnoma va tartiblar ishlab chiqildi. 2010-yil yanvar holatiga ko'ra, O'zbekiston bank tizimini O'zMB va respublika bo'yicha 9300 ta bo'limlariga ega bo'lgan 31 ta tijorat banklari tashkil etadi. 2009-yil 1-yanvarda tijorat banklarining jami aktivlari summasi 20,74 trln. so'mni tashkil etdi. Bu banklarning kredit mablag'lari sezilarli darajada ortganligi bilan bog'liq, 2013-yil aktivlari 36,3 % o'sgan. Ular mamlakatimizdagi barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarga o'z faoliyatlarini rivojlantirishlari uchun kreditlar ajratmoqda. Masalan, 2011-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, kichik biznes subyektlariga 11539 mlrd. so'm kredit ajratildi. Tadbirkorlik subyektlari uchun ajratilgan bu kreditlar evaziga 131,8 mingta yangi ish o'rni yaratildi. Shu jumladan, xorijiy kredit liniyalari orqali xorijiy valyutada ajratilgan kreditlar miqdori 228,7 mln. AQSH dollarini tashkil etgan. Bu esa, 2009-yildagiga nisbatan 23,8 mln. dollarga ortiqdir.

Kichik va o'rta biznes subyektlariga milliy va xorijiy valyutada ajratilgan kreditlarning 83,4 mlrd. so'mi yoki 60 %i sanoatga, 25,4 mlrd. so'mi yoki 18 foizi aylanma mablag'larni to'ldirishga, 16 mlrd. so'mi yoki 12 % qishloq xo'jaligiga, 5,2 mlrd. so'mi yoki 4 %i qurilish, maishiy xizmat ko'rsatishga va 8,9 mlrd. so'mi yoki 6 %i boshqa tarmoqlarga yo'naltirilgan. Shuningdek, barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 12092 ta kichik va o'rta biznes subyekti uchun 12,4 mlrd. so'm mikrorecreditlar ajratilgan bo'lib, ularning 10954 tasi yoki 11,3 mlrd. so'mi tijorat banklarining o'z mablag'lari va qolgan 1138 tasi yoki 1,1 mlrd. so'mi budjetdan tashqari fondlar hisobidan ajratilgan.

Keyingi yillarda mamlakatimizning eng yirik va rivojlangan banklari tomonidan ham investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda ijobiy ishlar amalga oshirilmogda. Ushbu banklar o'z mablag'lari hisobidan hamda xorijiy banklar va xalqaro moliya institutlarining kredit liniyalari orqali loyihalarni moliyalashtirishda jonbozlik ko'rsatmoqdalar.

2008-yilda kiritilgan investitsiyaning 174,1 %i Qashqadaryo viloyatiga 2013-yilda Navoiy viloyatiga 250 % to'g'ri keladi. Bu investitsiyalar asosan Sho'rtan gaz-kimy o kompleks va Sho'rtan neft koniga qilingan xarajatlar hisobiga oshgan. Qoraqalpog'iston Respublikasida Qo'ng'iro't soda zavodi qurilishini jadallashtirish munosabati bilan investitsiya hajmi ortgan.

Umuman olganda investitsiya loyihalarni moliyalashtirishda bank kreditlariga tayanish bozor iqtisodiyoti sharoitida ham odatiy, ham majburiy holatdir. Keyingi paytlarda respublikamizda bank tizimini, shuningdek, pul-kredit tizimini rivojlantirish bo'yicha hukumatimiz tomonidan bir qator choralar ko'rilmogda. Bunga misol qilib, bank tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha qabul qilinayotgan hukumat qarorlari, Prezident Farmonlari va boshqa me'yoriy hujjatlarni keltirish mumkin. Iqtisodiyotni



erkinlashtirish va islohotlarni yanada chuqurlashtirish bo'yicha qarorlar qabul qilinish natijasida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga ortiqcha aralashishlar, keraks tekshirishlar, shuningdek, ular faoliyatiga to'sqinlik qiluvchi salbiy kuchlarga barham berildi. Bundan tashqari, ular faoliyatini tijorat banklari tomonidan kreditlashd ortiqcha hujjatlarni talab qilish va kreditlash muddatlarini kechiktirish holatlariga ha asta-sekin barham berilmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti, aholi mablag'lari investitsiya loyihalari moliyalashtirishning zarur manbasi hisoblanadi.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda qimmatli qog'ozlar bozo rivojlanganligi aholi mablag'larini to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarga yo'naltiri uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Respublikamizda ham qimmatli qog'ozlar bozo shakllanib bormoqda, aholining bo'sh pul mablag'larini jamg'arish tijorat banklari amalga oshirilmoqda va ushbu jamg'arma mablag'lari ko'proq qisqa mudda kreditlashga yo'naltirilmoqda.

### **Qisqacha xulosalar**

Iqtisodiy taraqqiyotning turli pog'onalarida turgan mamlakatlar umumiy ijtimio daromadni taqsimlashda o'ziga xosliklarga ega. Agar yuksak rivojlang mamlakatlarda jamg'arish ijtimoiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'lmasa faqat iste'mol ko'payishiga umumiy talabning ortishini rag'batlantirsa, ayni hol rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy o'sish jamg'armalar investitsiyalar darajasiga bog'liq.

Bozor munosabatlari rivojlanishi, yuksak sanoat boylıkları shakllanishi bil birga «investitsiyalar» va «investitsiyalash jarayoni» tushunchalariga kengroq iz berish zaruriyati tug'iladi. Bu izoh, ham moddiy boylik va savdo daromadi ko'paytirish maqsadida, ham nomoddiy turdagi jamiyat qadriyatlarini yaratish uchi kiritilayotgan hamma mablag'larni hisobga olishni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi uchun taklif etilayotgan investitsiya strategiyasini o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardir: investitsiya jarayonida davlatni boshqaruvchilik mavqei saqlab qolinishi; bozor tamoyillariga va investitsi zaxiralarini shakllantirish manbalarining ko'pligiga asoslanganlik; erkin mablag'lar ishlab chiqarish investitsiyalariga aylantirish uchun fond bozori imkoniyatlaridan to'liq foydalanish; mamlakatning ichki jamg'armalari hisobiga keng ko'lamlı investitsi qilish va chet el investitsiyalari hisobiga aniq - selektiv tarzda investitsiya qilish.

Davlat mintaqaviy investitsiya siyosatining ishlab chiqarilgan modeli hudud o'tkazilayotgan bozor islohotlarining mintaqaviy xususiyatlari va o'ziga xosliklar hisobga olish zaruriyatidan kelib chiqadi.

O'zbekistonning uzoq muddatli investitsiya strategiyasi amalga oshirilishi mill va chet el kapitali iqtisodiyotning real sektoriga erkin o'tkazilishini ta'minlash qodir bo'lgan to'laqonli fond bozori tashkil qilishni va uning ishlashini talab eta. Fond bozorining samarali ishlashini ta'minlash uchun quyidagi yo'nalishlar muh sanaladi: korporativ qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish; qimmatli qog'oz bozorining yangi - munitsipal, garovli, ipotekali va boshqa sektorlarini yaratish ixtisoslashgan investitsiya institutlari shaxobchasini shakllantirish.



Bozor noma'lumligi va o'zgaruvchanligi sharoitida investitsiya mablag'lari samaradorligini baholash usullari tavakkal omillarining hisobga olinishini ko'zda tutishi lozim. Buning uchun, O'zbekistondagi umumiqtsodiyot tavakkalning barcha turlarini hisobga oladigan va dunyo tajribasida ma'lum bo'lgan investitsiyalar samaradorligini aniqlash usullarini mamlakatimiz sharoitlariga moslashtirishga imkon beradigan hisob-tahliliy foiz stavkalaridan diskont stavkasi sifatida foydalanish lozim. -

#### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Investitsiya siyosatining uslubiy asoslari nimalardan iborat?
2. Bozor iqtisodiyotida investitsiyalar qanday o'rin egallaydi?
3. Investitsiya siyosatida xususiyashtirish jarayoni nimalardan iborat?
4. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida investitsiyalarni moliyalashtirishning qanday imkoniyatlari mavjud?
5. Investitsiya strategiyasini amalga oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan mexanizm nimalarni ko'rsatadi?
6. Aholining bankka pul qo'yishga va investitsiya institutlarga ishonchini oshirish uchun nimalar qilish zarur?
7. Bozor noma'lumligi va o'zgaruvchanligi sharoitida investitsiya mablag'lari samaradorligini baholashning qanday usullari bor?
8. O'zbekiston Respublikasi uchun taklif etilayotgan investitsiya strategiyasining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
9. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti aholi mablag'lari investitsiya loyihalarini moliyalashtirish qanday ahamiyatga ega?

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. Karimov I. "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan istohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi" // Xalq so'zi, 2014-iy 18-yanvar.
2. Yo'ldoshev Z. Milliy iqtisodiyot. -T.: Mehnat, 2004, 168-b.
3. Ishmuxamedov A.E. O'zbekiston milliy iqtisodiyoti. Darslik - T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jam'armasi nashriyoti, 2005, 304- b.
4. Ishmuxamedov A.E. va boshqalar. Makroiqtisodiyot. Darslik - T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jam'armasi nashriyoti, 2005.-192 b.
5. Tuxliyev N. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. -T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. - 280 b.
6. Internet veb-saytlari.  
[www.ceep.uz](http://www.ceep.uz)  
[www.bearingpoint.uz](http://www.bearingpoint.uz)

## 9-bob. RESPUBLIKA KAPITAL QURILISH MAJMUASI

### 9.1. Mustaqillik zaminini yaratishda investitsiyalar

Iqtisodiyot sifat jihatidan yangi holatga – pasayishdan barqarorlikka va kelgusida iqtisodiy o'sishga o'tishining muhim sharti yuqori darajadagi investitsion faollik hamda kapital hosil qiladigan investitsiyalar samaradorligi oshishidir. Eslatib o'tish kerakki, YAIMni bor-yo'g'i 1 %ga o'stirish uchun ishlab chiqarishda investitsiyalar hajmini kamida 3 %ga oshirish lozim.

O'zbekistonda iqtisodiy o'sish va tuzilmaviy qayta qurish uchun haqiqiy shart-sharoit yaratish ham galdagi muhim vazifalardan sanaladi. Investitsiya sohasiga umumiy transformatsiyaning pasayishi kuchli ta'sir qilgandi. Shu bilan birga investitsiyalar YAIM dinamikasi bilan taqqoslaganda ancha tez sur'atlarda qisqardi. Oqibatda yurtimiz iqtisodiyotida milliy xo'jalikning umumiy holatiga nisbatan chuqurroq investitsion tanglik yuzaga keldi. Masalan, MDH bo'yicha 1995-yilda investitsiyalar hajmi islohotdan oldingi darajaga nisbatan 32 % ni, Ukrainada 26 % ni, Qirg'izistonda 37 %ni, O'zbekistonda 54 % ni, YAIM hajmi esa muvofiq ravishda 58, 44, 50 va 82 foizni tashkil etdi.

9.1-jadval

#### Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibi (%)

Ko'rsatkichlar	2008-y.	2012-y.
Jami	100	100
Ishlab chiqarish yo'nalishtiga	64,1	71,6
Sanoat	28,5	28,6
Qishloq xo'jaligi	3,4	3,1
Qurilish	0,5	2,3
Transport va aloqa	23,1	29,2
Savdo va umumiy ovqatlanish	1,3	2,2
Boshqa sohalar	7,3	10,7
Yo'naltirish yo'nalishtiga	35,9	28,4

Manba: O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi.

O'zbekistonda investitsiya dasturi asosida 2008-2012-yilda moliyalashtirishning hamma yo'nalishtlari bo'yicha kapital kiritilish tuzilmasi 9.1-jadvalda keltirilgan.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2012-yilda tashqi va ichki investitsiya tushumlari sanoatga avvalgi yillardagiga nisbatan 7,5 % oshgan.

Binobarin, investitsiyalarning 2012-yildagi o'sishi islohotdan oldingi darajani tiklashning ijobiy tendensiyasi hamdir. Tabiiyki ko'rsatishicha, YAIM tarkibidagi yalpi jamg'arma ulushi pasayishda davom etdi: u agar 2001-yilda 27 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2012-yilda 22,9 % gacha pasaydi. Vujudga kelgan jamg'arma ko'larni taraqqiyotning yuqori dinamikasini ta'minlashga qodir emasligi aniqlandi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitidagi islohotlarning birinchi bosqichida investitsiya sohasidagi tanglik nafaqat salbiy miqdoriy o'zgarishlar bilan, balki investitsiya modelining takomillashmagani sabab bo'lgan sifatga doir jihatlari bilan ham

ajralib turdi. Masalan, investitsiyalarni takror chiqarish tuzilmasida salbiy siljishlar yuz berdi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyot sanoat tarmoqlari bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar kiritish tarkibi 9.2-jadvalda keltirilgan.

9.2-jadval

**Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar tarkibi (%)**

Ko'rsatkichlar	2009-y.	2012-y.	2009-	2012-y.
Jami:	100	100	100	100
Yoqilg 'i-energetika	49,5	39,3	56,4	42,1
Metallurgiya	14,5	17,8	0,0	1,1
Kimyo va neft sanoati	6,5	4,5	8,7	4,2
Mashinasozlik	9,4	10,8	4,2	6,3
Yengil sanoat	4,8	9,7	10,6	18,9
Oziq-ovqat	5,4	6,0	5,3	7,0
Boshqa sohalar	4,1	4,3	4,9	3,5
Qurilish materiallari	5,9	7,6	12,9	16,9

Manba: O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi.

Asosiy fondlarni tiklash va yangilashni investitsiyalash tendensiyasi ustun bo'lib keldi. Bu esa vujudga kelgan vaziyatda moliyaviy tavakkal nuqtai nazaridan tushunarli, ammo takror chiqarish jarayonlarining strategik rivojlanishi mavqeidan qaraganda istiqbolga ega emas. Texnologik tuzilma ham faol elementar ulushining pasayishi tomonga o'zgardi. Jihozlar va uskunalarning salmog'i 1990-yildagi 34 % dan 1995-yilda 1% gacha pasaydi, 2001-yilda esa 32 % gacha ortdi. Investitsiyalar pasayishi oqibatida sanoatning ko'pgina tarmoqlaridagi ishlab chiqarish apparati, shu jumladan, yuksak texnologiyali apparatlar tanazzulga uchradi. Umuman, sanoat bo'yicha asosiy fondlarning emirilishi 2001-yil 1-yanvarda 47,7% ni, shu jumladan, elektr energetikasida – 48,7 % ni, rangli metallurgiyada – 46,5 % ni, kimyo va neft sanoatida – 52,6 % ni, mashinasozlik va metallni qayta ishlash tarmog'ida – 44,1 % ni tashkil etdi. Bunda mashina va asbob-uskunarlar ko'p yemiriladi.

Investitsiyalar sekin va kam kiritilgan sharoitdagi asosiy fondlar ma'naviy va jismoniy yemirilishining bunday hajmlari fondlar xizmatini 2 – 3 barobar orttiradi va ishlab chiqarish kuchlari izdan chiqadigan chegaraga yaqinlashtiradi.

**9.2. Kredit va investitsiyalar manbai**

1996-yildan boshlab mamlakatimiz iqtisodiyotida ijobiy makroiqtisodiy harakat ko'zga tashlandi. Yurtimizda ishlab chiqarish jarayonida muayyan siljishlar qayta tiklana boshlandi, investitsiya jarayoni birmuncha faollashdi. Ammo shunga qaramay, yuksak sanoatga ega mamlakatlar bilan taqqoslaganda xomashyo va harbiy-sanoat majmuasining yuqori texnologik korxonalarini bozor maqsadlariga yo'naltirish, samaradorligi yuqori bo'lgan qayta ishlash sanoatini shakllantirish bo'yicha chuqur texnologik tafovutni yengish singari global masalalarni hal etish zarur. O'zbekiston

iqtisodiyotidagi tuzilmaviy o'zgarishlar va yurtimiz mahsulotining raqobatbardoshligi shu mahsulotga bo'lgan ishlab chiqarish va iste'mol talabi chekladi. Bu esa, o'z navbatida, investitsiyalar ko'payishining iqtisodiy o'sishiga ta'sirining past multiplikativ samarasini belgilamoqda. Iqtisodiyotning real sektori investitsiyalash samaradorligini oshirishga, uni avvalo, aniq belgilangan davl prioritetlariga selektiv tarzda yo'naltirish orqali erishish mumkin. Ushbu yo'nalishda amaliy qadamlar nafaqat investitsiyalar hajmi ortishini, balki ularning milliy xo'jal tuzilmasini takomillashtirishga qaratilgan o'sishini ham anglatadi.

Shu nuqta nazardan davlatning 1995-2012-yillardagi investitsiya siyosati haqida tasavvur berib, ishlab chiqarish investitsiyalari tarmoq tuzilmasi o'zgarishining tahlil e'tiborga loyiqdir (9.3-jadval).

Asosiy kapitalga ishlab chiqarish investitsiyalari kiritilishining tarmoq manzarasi bu jarayon dinamikasining quyidagi xususiyatlaridan dalolat beradi:

birinchidan, yengil sanoat, yoqilg'i sanoati, neftni qayta ishlash, uy-joy qurilishi va ko'mir sanoatidan tashqari iqtisodiyotning deyarli hamma tarmoqlarida investitsiyalarning zaxiralari keskin pasaymoqda;

ikkinchidan, chiqarilayotgan mahsulotga talab cheklanmaganini sezmayotgan va shu bois katta moliyaviy barqarorlikka ega bo'lgan eksportga mo'ljallangan xomashy tarmoqlariga investitsiya oqimi kuchaydi. Investitsiya tangligi mashinasozlik va metallga ishlov berish tarmoqlariga birmuncha sezilarli ta'sir qildi, investitsiyalarning mablag'lari 19,9 % dan 2,9 % gacha qisqardi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi obyektlarini investitsiyalash darajasi va ayniq transport tizimlarining qo'llab-quvvatlanishini ijobiy hodisa deb qayd etish lozim. Bu esa iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasidagi almashinuv jarayonini buzadigan "butil tomog'i" effektini yengib o'tishi uchun muhimdir.

9.3-jadval

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi (%)**

Ko'rsatkichlar	2000-y.	2003-y.	2005-y.	2012-y.
Jami	100	100	100	100
Davlat budjeti	29,2	17,7	4,1	5,1
Korxonalar mablag'lari	27,1	41,8	6,8	5,4
Aholi mablag'lari	12,0	11,1	11,9	19,8
Hukumat tomonidan kafolatlangan	19,8	19,2	6,6	5,4
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	3,4	7,1	11,8	10,9
Bankning markazlashgan kreditlari	5,2	0,0	0,0	0,0
Tijorat banklari kreditlari	1,7	1,9	19,1	7,8

Nobudjet fondlar	1,2	0,4	48,4	45,7
Boshqa qarz mablag'lari	0,4	0,8	0,3	0,2

Manba: O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi.

Agar investitsiyalarning yoqilg'i-energetika tarmoqlariga, qora va rangli metallurgiyaga asta-sekin yo'naltirilishi bilan bir vaqtda iqtisodiyotning eng muhim fond yaratadigan tarmoqlari: mashinasozlik, qishloq xo'jaligi, metallurgiya, qurilishga kiritilayotgan ishlab chiqarish kapitali kamayganda edi, ushbu jarayonni umuman olganda, taraqqiyot omili, deb hisoblash mumkin bo'lardi. Uy-joy qurilishiga investitsiyalar kiritish bundan mustasno bo'lib, 2000-yilda ularning ulushi 200 %ni tashkil etgan va muttasil o'sib bormoqda. Chunki uy-joyga mablag'ni uzoq vaqtga qo'yilishi nafaqat inflyatsiyadan ishonchli himoya, balki xususiy kapitalga katta daromad manbai hamdir. Faqat mamlakatimiz iqtisodiyotini qayta tuzish yo'nalishidagi investitsiyani yorib o'tishgina mustahkam ijobiy o'zgarishlarga rivoj berishi mumkin. Bu holda akseleratorning an'anaviy modeli mexanizmi namoyon bo'ladi va ishlab chiqarish hajmining o'sishi undagi sof investitsiyalar miqdoriga ta'sir ko'rsatadi.

Investitsiya faolligi, investitsiya tangligidan xalos bo'lish va iqtisodiy o'sishga zamin yaratish muammosi quyidagicha hal etilishi mumkin:

- mablag'larni uzoq vaqtga qo'yish uchun barqaror motivatsiyalar mexanizmini yaratish;

- kapital mablag'larni muntazam moliyalashtirish manbalarini izlash va boshqarish, ichki jamg'armalardan foydalanishda investitsiya yo'nalishini ta'minlash;

- iqtisodiyot investitsiyalarni qabul qila oladigan, xo'jalik yurituvchi subyektlarda esa ishlab chiqarish salohiyatini yangilashga ehtiyoj paydo bo'ladigan qulay bozor muhitini shakllantirish. Islohotlarning o'tgan yillari ichida moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibida katta o'zgarishlar yuz berdi.

Tahlil etilayotgan davr investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari kengaytirilishi bilan ajralib turadi. Aynan shu davrda davlatning markazlashtirilgan kapital mablag'lari hajmi o'sdi. 2013-yilda bu mablag'lar umumiy hajmga nisbatan 5,0 %ni tashkil etdi.

Qiyos uchun aytib o'tamizki, Rossiya Federatsiyasida investitsiyalar umumiy hajmida barcha darajalardagi budjet mablag'larining ulushi 2013-yilda 19,5 %ga kamaydi; xuddi shu davr ichida davlat sektoridagi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 67 %dan 73 %gacha ko'paydi.

Davlat kapital mablag'lari ulushining ko'payishi davlatning faol xo'jalik yuritishi, tarmoqlar va korxonalarni budjet hisobidan moliyaviy ta'minlashga bog'liq. Xalq xo'jaligini budjet hisobidan moliyalashtirish boshqa manbalardan olingan investitsiyalardan ko'ra tezroq kamayishda davom etmoqda. Bu yakunlanmagan qurilish ko'payishiga olib keldi. Investitsiyalarni o'zlashtirish muddati uzayayotgani esa ular samaradorligi va salohiyati, investorlar uchun qulayligi kamayishiga sabab bo'lmoqda.

Korxonalar va tashkilotlarning xususiy mablag'lari investitsiya zaxiralarini shakllantiruvchi asosiy manbaligicha qolmoqda. Ammo ularning moliyaviy holati keskin yomonlashdi: rentabellik pasaydi, energetika, qishloq xo'jaligida zararga

ishlayotgan korxonalar ulushi ortdi. Hozirga qadar amal qilgan soliq tizimi ham korxonalarining investitsiya imkoniyatlariga putur etkazadi.

Foydaning kamayishi korxonalarining investitsiyalarga yo'naltirish mumkin bo'lgan xususiy mablag'larini ozaytiribgina qolmay, rentabellik me'yori va haqiqiy foiz stavkasi o'rtasidagi o'zaro nisbatni yomonlashtirib, ishlab chiqaruvchilarning zayom mablag'larini jalb etish imkoniyatlarini ham kamaytirdi. Bundan tashqari, ishlab chiqarishda mablag'lar samaradorligi o'rtasida oxirgi foydaga ayirmaning ortishi salohiyatli investorlarning ishlab chiqarishga kapital mablag'larini to'xtatib turibdi.

Investitsiyalarning korxonalaridagi kuchli manbasi amortizatsiya foiziga putur yetkazadi. Amortizatsiyaga chiqarilgan summalar investitsiya jamg'armalariga nisbatan barcha manbalar hisobiga kamayib ketdi. Bu esa nafaqat asosiy fondlarni yuqori texnik darajada yangilash uchun, balki sarflanayotgan fondlarni shunchaki almashtirish uchun ham yetarli emas. Buni shu bilan izohlash mumkinki, uzoq vaqt mobaynida asosiy fondlar qiymati qayta baholanmagan va amortizatsiyaning eskirib qolgan me'yori qo'llanilgan. Amortizatsiya tannarxining kuchaytirilgani sababli, korxonalar asosiy fondlar qiymati bilan qiyoslaganda ko'p qismi amortizatsiyaga chiqarilgan summalarni va mahsulot narxini kamaytiradi.

Investitsional islohotlarni jadallashtirish investitsiya jarayonlarida dinamizm va samaradorlikni aks ettiradi. Kapital mablag'larni moliyalashtirish uchun kamayayotgan davlat budjeti xarajatlari esa davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish hisobiga qoplanadi, deb taxmin qilingandi. Biroq xususiy lashtirilgan ko'pgina korxonalarda ham xuddi davlat korxonalaridagidek moliya mablag'lari surunkali yetishmaydi. Shuning uchun ular jamg'armalarni deyarli to'plamaydilar va kapital mablag'larni keskin qisqartiradilar.

Xususiy milliy moliyaning sanoat kapitali ham oxirigacha shakllanmadi va davlat qoldirgan mavqelarni egallay olmadi. Yurtimizdagi xususiy sarmoyadorlarning aksariyati birinchidan, investitsiya tavakkali yuqoriligi, ikkinchidan, yanada samarali va tez qoplanadigan pul mablag'i bo'shlig'i hozirga to'ldirilmagani tufayli hanuz ishlab chiqarishga pul qo'yishmayapti. Holbuki, milliy bank o'z ish faoliyatini ta'minlaydigan kapital aylanish muddatlariga bog'lanib turibli. Fond bozoriga savdo va bank ishi jabhasidan keladigan spekulativ kapital hozircha asosan qisqa muddatli maqsadlarni ko'zlamoda va nisbatan past daromadlilik tufayli uzoq vaqtga mo'ljallangan yirik mablag'ni amalga oshirishdan manfaatdor emas. O'tish iqtisodiyotiga ega markaziy va sharqiy Yevropa mamlakatlari tajribasi xususiy investitsiyalar ahamiyati oshganligini ko'rsatadi. Agar 1989-1992-yillarda bu mamlakatlarning investitsiya sohasida katta pasayish kuzatilgan bo'lsa, 1993-yildan boshlab, ularda yana investitsiyalarning pasayish sur'atlari kamaydi: Polsha, Slovakiyada esa bu boradagi ko'rsatkich avvalgi yildagiga nisbatan mos ravishda 1,0 % va 11,0 % o'sdi.

Davlat korxonalar va tashkilotlarining budget kapital mablag'lari va investitsiyalari qisqarayotgan sharoitda bu mamlakatlardagi investitsiya faolligi faqatgina xususiy sektorda rivojlandi. Ko'pgina iqtisodchilar va tahlilchilar A. Martinov, V. Dzasarovlarning fikricha, iqtisodiyotni barqarorlashtirish va mustahkam o'sishga erishish maqsadida iqtisodiyotni investitsiyalash uchun mamlakatda bozor islohotlari davrida zaxiralari yo'qligi haqidagi tasavvurlar voqelikka ziddir. Vujudga kelgan sharoitda aralash iqtisodiyotga xos bo'lgan barcha moliya zaxiralarini aniqlash va ularni

investitsiya maqsadlariga o'tkazish usullarini topish muhimdir. Umuman, tahlil quyidagi xulosalarni berdi:

- kapital mablag'lar umumiy hajmining pasayishi va investitsiya sohasidagi vaziyatning og'irlashuvi ishlab chiqarish moddiy-texnik bazasining yemirilishi bilan birga kechadigan, uzoq davom etadigan investitsiya tangligi O'zbekiston iqtisodiyoti uchun xosdir;

- ichki investitsiyalarning asosiy manbai korxonalarining xususiy mablag'lari bo'lib qolmoqda;

- makroiqtisodiyot nobarqaror sharoitda amortizatsiya fondilari hajmlari kamayishi ular takror ishlab chiqarish qobiliyatini yo'qotishiga sabab bo'ldi;

- yoqilg'i-energetika kompleksi tarmoqlarida va transport tizimida eng katta investitsiya faolligi kuzatildi.

Boshqa sobiq sovet respublikalari kabi, O'zbekistonda ham investitsiyalash jarayoni transformatsiyasi yuz bermoqda. Lekin bozor iqtisodiyotining hamma imkoniyatlaridan to'laonli foydalanilmoqda. Iqtisodiyotning real sektorini investitsiyalashda xususiy kapital hozircha muhim o'rin tutmayapti. Rivojlanish davrida o'tishning sustlashganiga real sektorga investitsiyalar kiritishning bozor instituti hanzur shakllanmagani, sug'urta, nodavlat fondlar va boshqa investitsiya tuzilmalari boshlang'ich holatda ekanligi hamda milliy jamg'armalarni zarur darajada kattalashtirishga va kelgusida ularni investitsiya mablag'lariga aylantirishga yordam bermayotgani sabab bo'ldi.

Bank sektori ishlab chiqarishda foydalanish uchun mablag'larni katta ko'lamda ajratishga hali tayyor emas. Negaki, ko'pchilik banklarning kapitallashtirilish darajasi past, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan investitsiya kreditlariga bo'lgan talab to'liq qondirilmasligiga ham sabab bo'lmoqda.

### 9.3. Qurilishda dasturilamal qoidalar

Sobiq sho'rolar tuzumi davrida respublikamizda qurilish sohasi bilan juda ko'plab tashkilotlar shug'ullanardi. Aytaylik, qurilish yo'nalishida bir necha vazirlik bo'lib, ularning tarkibida 3-4 bo'g'indan iborat bosh boshqarmalar, yirik trestlar, boshqarmalar, ishlab chiqarish kombinatlari, xo'jaliklararo mexanizatsiyalashgan ko'chma jamlanma va boshqa bir qator tashkilotlar faoliyat ko'rsatar edi.

Qurilish tashkilotlarida yuzaga kelgan bunday salbiy holatlar 2002-yilda ham kuzatildi. Eskicha uslubda ishlash tufayli bozor shart-sharoitlari va talablarga moslashish juda sekinlik bilan kechdi. Bozor munosabatlariga o'tishning asosiy sharti ham bajarilmadi – loyiha va pudrat ishlari bozori hadeganda vujudga kelavermedi. Qurilish ishlariga buyurtmalar esa tanlov savdolari orqali joylashtirilishi kerak edi. Biroq bu yo'nalishdagi ana shu tadbir ochiq, oshkora tusda o'tkazilmadi.

Eng achinarlisi, kapital qurilishni isloh qilishga doir ilgari qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'la kuch bilan ishlay olmadi. Sababi – ularda buyurtmachi va pudratchi qaysi yumushlarga javob berishi, imzolangan shartnoma majburiyatlarini bajarilmagani uchun ular qay darajada javobgar bo'lishlari ochiq-oydin belgilanmagan edi.

Loyiha va qurilish ishlarining qiymati yuqoriligi hamda sifati pastligi ham jiddiy e'tirozlariga sabab bo'ldi. Tekshirishlar asosida qurilish mahsulotlariga narx

belgilashda qoida buzilishlarga yo'l qo'yilayotgani, smeta baholarini, qurilish-montaj ishlari hajmlarini sun'iy oshirish hollari ham aniqlandiki, bunga aslo toqat qilib bo'lmas edi. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil yakunlariga bag'ishlangan yig'ilishida Prezidentimiz sohada islohotlar nihoyatda sust olib borilayotganini qattiq tanqid qildi. Bu majlis qarorida kapital qurilish bo'yicha o'tkazilayotgan tanlov savdolari natijalari, qurilish materiallari va asbob-uskunalarni xarid qilishning shakllangan tizimi tanqidiy baholandi. «Davarxitekqurilish» qo'mitasi, «O'zqurilishmateriallari» aksiyadorlik kompaniyasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga tanlov savdolari rasmiyatchilik bilan o'tkazilishini bartaraf etishda, pudrat ishlari bozorini yaratishda, narxlarni shakllantirish tizimida, assortimentni yaratishda mahsulotning import o'rni bosuvchi turlarini ishlab chiqarishni ko'paytirishda ijobiy siljishlar sezilmayotganligi ko'rsatib o'tildi.

Shu bilan birga, xususiyashtirishda rasmiyatchilikdan real xususiyashtirishga o'tish, xususiyashtirilgan korxonalarining nizom samarasida davlat ulushini tubdan qisqartirish, boshqaruvning korporativ tizimini mustahkamlash, aksiyalashtirilgan jamiyatni boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirishga erishish, 2003-yilning 1-choragida monitoring tizimini joriy etgan holda qurilish qiymati o'sishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni chuqur o'rganib chiqish lozimligi ta'kidlandi. Ayni chog'da tegishli idoralarga kapital qurilishdagi ishlarning ahvolini tubdan o'zgartirish yuzasidan hukumat qarori ijrosini ta'minlash, ishchi kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tarmog'ini barpo etish hamda uning samarali faoliyat yuritishi bo'yicha aniq dasturlar ishlab chiqish vazifalari topshirildi.

Oradan biroz vaqt o'tgach, 2003-yil 6-mayda esa Prezidentning «Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi. Farmonning ahamiyati shundaki, u avvalo, o'z vaqtida qabul qilindi. Buni hayotning o'zi ham tasdiqlamoqda. Ikkinchidan, uning dasturiy qoidalarini hayotga tatbiq etish nafaqat kapital qurilishda mavjud xato va kamchiliklarni tugatish, balki tizimda tub o'zgarishlarni amalga oshirish, shu tariqa bozor iqtisodiyoti tamoyillari va talablariga mos xo'jalik munosabatlarini takomillashtirish imkonini beradi.

Agar Farmon qoidalarining ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan bir yil ichida 12 ta qaror qabul qilangani, 32 ta me'yoriy hujjat ishlab chiqilgani va bu borada hamon ish olib borilayotganini eslasak, uning maqsadi va vazifalari bundan-da ustuvorligi o'z-o'zidan ayon bo'ladi.

#### **9.4. Kapital qurilishda ustuvor vazifalar**

Avvalo, shuni alohida ta'kidlash kerakki, Farmonlar, qarorlar va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda 2003-2013-yillarda loyiha va pudrat-qurilish tashkilotlarini davlat tasarrufidan chiqarish hamda xususiyashtirish jarayonlarini to'liq tugallash vazifasi o'rtaga qo'yildi. Xususan, belgilangan ana shu muddat mobaynida Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 12- sentabrdagi 395-sonli qarori 1-ilovasiga muvofiq 18ta loyiha-qidiruv tashkiloti to'liq xususiyashtiriladi. «O'zbekenergo» davlat aksiyadorlik kompaniyasining «Issiqlikelektroloyiha» va «Qishloqenergoloyiha» aksiyadorlik jamiyatlari, shuningdek, «O'zmevasabzavotuzumsanoatloyiha»,



«O'zqishloqloyiha», «Donloyiha», «Aloqainvest», «Ta'mirshunoslik», «O'zme'morqurilishloyiha», hissadorlik jamiyatlari, «O'zbekkommunalloyiha», «Toshkent – tadqiqot» institutlari va boshqalar shular sirasiga kiradi.

Davlat aktivlarini, sotishga tavsiya qilinayotgan davlat ulushi 25 foizdan 100 foizgacha. Bu loyiha-qidiruv tashkilotlari negizida xususiy va qo'shma korxonalar tashkil etilib, loyiha ishlari bozorida raqobat muhiti yaratiladi. Past rentabelli va zarar ko'rib ishlayotgan pudrat-qurilish tashkilotlarini xususiylashtirishda, agar tegishli investitsiya majburiyatlari bo'lgan taqdirda, qonun hujjatlariga muvofiq, obyektlar tekinga beriladi.

Markazlashtirilgan manbalar asosida jalb etiladigan investitsiya hisobidan amalga oshiriladigan qurilishlarni tashkil etishning asosiy shakli jami ishlarni bajarish va inshootlarni to'liq qurib, foydalanishga topshirish ekanligi ham farmonda alohida uqtirib o'tilgan. Shu o'rinda «Markazlashgan manbalar» degan tushunchaga izoh berib o'tamiz. «Markazlashgan manbalar» deganda, odatda, budjetdan ajratmalar, davlat budjeti tarkibida jamlanadigan davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari va hukumat qarorlarida belgilangan boshqa manbalar tushuniladi. Tushunchalar haqida gap ochilgan ekan, «Kapital qurilishning o'zi nima?», «Buyurtmachi kim?», «Tanlov savdolari nimani anglatadi?» degan savollarga ham javob berishga to'g'ri keladi. Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 3-iyuldagi «Kapital qurilishda tanlov savdolari tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 302-sonli qarorida birinchi tushuncha haqida shunday deyilgan: «Kapital qurilish – yangi qurilish, korxonalarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, zamonaviylashtirish va texnika bilan qayta jihozlash, obyektlar va asosiy vositalarni mukammal ta'minlash, shu jumladan, loyiha – qidiruv ishlarini bajarish».

Endi «Buyurtmachi» tushunchasiga kelsak, u investor yoki tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridini amalga oshirish uchun amaldagi tartibda ana shu investor tomonidan belgilangan yuridik shaxsdir. Avvallari har bir hududda 5–6 tadan buyurtmachi bo'lardi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bo'limlari va direksiyalari bo'lib, ular kapital qurilish bo'yicha budjet buyurtmachilarining hududiy xizmatlarini bajarardi. Hozirda hammasi tugatilib, hokimliklarda markazlashtirilgan manbalar hisobiga mablag' bilan ta'minlanayotgan obyektlar qurilishi uchun yagona buyurtmachi xizmatlari tashkil etilmoqda.

395-sonli qarorning 2-ilovasida, pudratchining mas'uliyati, majburiyatlari va javobgarligi, to'liq bajariladigan ishlarni moliyalash va kreditlash mexanizimi ham aniq belgilab berilgan. Bu, o'z navbatida, investitsiya jarayonida qatnashuvchi har subyekt qurilishda pirovard natijalarga erishishiga, qurilish qiymati pasayishiga, inshootlar o'z vaqtida, sifatli topshirilishiga, tugallanmagan qurilish hajmlari kaskin kamaytirilishiga olib keladi.

Buyurtmachi va pudratchi, bosh pudratchi va subpudratchilar, loyiha tashkilotlari hamda asbob-uskunalar, qurilish ashyolari va konstruksiyalarini yetkazib beruvchi o'rtnasidagi munosabatlar, albatta, faqat shartnoma asosida o'rnatiladi. Biroq buyurtmachi nomidan ish ko'ruvchi oraliq bo'g'inlar, vositachi tuzilmalar qurilish materiallari va ishlari qiymati sun'iy ravishda qimmatlashuviga olib kelishi hisobga olinib, ularning bunday munosabatlarni tizimida ishtirok etishi ta'qiqlandi.

Bundan tashqari, yuqorida nomi keltirilgan 302-sonli qarorga ko'ra, qurilishda tanlov savdolari o'tkazishni tashkil etishning bugungi tizimini sifat jihatidan yangi pog'onaga ko'tarish maqsadida maxsus nizom ishlab chiqildi.

Xo'sh, tanlov savdolari nimani bildiradi? Tanlov savdolari – tanlov hujjatlarida nazarda tutilgan mezonlar va shartlarga muvofiq, tovar yetkazib beruvchi, ishlarni bajaruvchi va xizmatlar ko'rsatuvchini tanlash usuli. Uning asosiy qatnashuvchilari investor, buyurtmachi, tanlov savdolari tashkilotchisi, tanlov komissiyasi va oferentlar (malaka tanlovidan o'tgan va ofertasi tanlov savdolari tashkilotchisi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan talabgorlar)dir. Lekin pudratchi tashkilotlar zarur aylanma mablag'larga yoki bankning tegishli kafilligiga ega bo'lishlari shart. Aks holda, ular bu tanlovga qo'yilmaydi. Shu bois Moliya vazirligi tomonidan banklar bilan birga pudratchi tashkilotlarning aylanma mablag'larini ham ko'paytirish yuzasidan takliflar tayyorlandi. «Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida»gi I.A.Karimovning 2005-yil 15-apreldagi Farmonining muhim bo'limlaridan birida – kapital qurilishda narx belgilashning zamonaviy usullarini keng qo'llagan holda investitsiya loyihalarini amalga oshirishda joriy shartnomaviy narxlarga ham bosqichma-bosqich o'tish ko'rsatilgan.

Farmon talablariga muvofiq, shuningdek, respublika investitsiya dasturi sifat jihatidan yangicha yondashuvlar bilan shakllantiriladi. Ushbu dastur 3 yilga mo'ljallab ishlab chiqiladi. Shunda u loyiha-qidiruv ishlaridan boshlab inshootni foydalanishga topshirgunga qadar bo'lgan butun jarayonni e'tiborga olishga yordam beradi, qurilishni uning real moliyalash manbalari bilan to'liqroq bog'lash imkonini yaratadi. Bu o'z navbatida investitsiya loyihalarini ro'yobga chiqarish samaradorligini oshirishga ko'maklashadi.

Loyiha va qurilish ishlari sifatli bajarilishi, me'yoriy bezash, qurilish me'yorlari, qoida va andozalariga rioya qilish, inshootlar o'z vaqtida ishga tushirilishi hamda loyiha va qurilish ishlari qiymati sun'iy ravishda oshirilishi ustidan ham nazorat kuchaytiriladi. Shu maqsadda Vazirlar Mahkamasi 2003-yil 2-dekabrda «O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» qaror qabul qildi. Unga ko'ra, bu qo'mitaning vakolatlari hamda mas'uliyati oshirildi. Jumladan, qo'mita O'zbekistonda qurilish ishlarini tashkil etish, muvofiqlashtirish va boshqarish bo'yicha yagona davlat tashkiloti sifatida e'tirof qilinib, uning loyihalash va qurilishga doir ishlar sifatini hamda belgilangan talablarni buzganlik uchun jarima va boshqa jazo choralarini qo'llash yuzasidan huquqlari kengaytirildi. Qo'mita tarkibida kapital qurilishda iqtisodiy islohotlar va narxlarini shakllantirish hamda Qurilishda standartlashtirish va sertifikatlashtirish respublika markazlari ochildi.

Yurtimizning ayrim nuntaqalarida u yoki bu darajada qurilishi tugallanmagan obyektlar, foydalanilmayotgan asosiy vositalarni uchratish mumkin. Ular–boyligimiz. Qolaversa, o'sha obyektlar hudud qiyofasini buzib, bamisoli shohi so'zanaga tushgan yamoqdek, xunuk manzara kasb etmoqda. Ularning taqdiri nima bo'ladi, degan savolga javob Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 16-sentabrdagi «Foydalanilmayotgan asosiy vositalarni, qurilishi tugallanmagan obyektlarni konservatsiya qilish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 401-qarorida o'z ifodasini topgan. Mazkur nizomga binoan, bu borada uch yo'l tutiladi. Birinchi – konservatsiya qilish (konservatsiya –

asosiy vositalar yoki qurilishi tugatilgan obyektning tegisni qaror bilan belgilanadigan davrda saqlanish kompleks chora-tadbirlari). Ammo bu davr tamom bo'lgach, ulardan foydalanish yoki qurilishni davom ettirish kerak. Ikkinchi – tanlov savdolarida sotish. Nihoyat, agar tanlov savdolarida sotilmasa, ular buzilib, barcha vositalari boshqa obyektlarda ishlatiladi.

Qabul qilingan Farmon va qarorlarda qurilish tashkilotlariga imtiyozlar va yengilliklar ham berilgan. Misol uchun, qurilish materiallari, buyumlar va konstruksiyalarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar va tashkilotlar. Agar bunday mahsulot turlarini ko'paytirish hamda tayyorlash hajmlarini orttirmoqchi bo'lsalar, ularni chetdan olib kelish chog'ida bojxona to'lovlari bo'yicha 5 yil muddatga imtiyozlardan foydalanadilar.

Shu bilan birga, 2010-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, pudratchi qurilish tashkilotlarining davlat budgetiga, budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga, Respublika yo'l jamg'armasiga to'lovlar bo'yicha qarzlarini to'lash ( jumladan, ilgari kechiktirilgan qarzar) 2 yil muddatga kechiktirildi. 2003-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, ularning muddati o'tkazib yuborilgan shunday to'lovlar bo'yicha peniya va jarimalar esa hisobdan chiqarildi. Bu – 70 mlrd. so'mdan ortiqdir. Ana shu mablag' ularning aylanma mablag'larini to'ldirishga yo'naltirilmoqda.

2013-yil 1-yanvargacha bo'lgan davrda esa pudratchi qurilish tashkilotlarining ular tomonidan qurilish texnikasi va asbob-uskunalar sotib olishga yo'naltirilgan mablag'lari daromad (foйда) solig'ini hisoblab chiqishda soliq bazasiga kiritilmaydi.

Sug'urtalashda ham o'zgarishlar bor. Jumladan, obyektlarni davlat kapital mablag'lari hisobiga barpo etishda qurilish tavakkalchiliklarini sug'urta qilish uchun shunga doir xarajatni obyekt qurilishining umumiy qiymatiga kiritilgan holda amalga oshiriladi.

Yana bir yangilik shuki, ilgari qurilish tashkilotlari 20 dan ortiq hisobot topshirardi, endilikda hujjatlar soni 13 tadan iborat.

Ko'rilgan barcha chora-tadbirlar bugungi kunda o'z samarasini bera boshladi. Bir misol: Namangan viloyatida «Rezaksoy» suv ombori bo'yicha tanlov o'tkazildi. Unda Sariosiyo tumanidagi «To'palang» suv ombori va GESi qurilishi mas'uliyati cheklangan jamiyati g'olib chiqdi. Ular o'tgan davrda bosh pudratchi sifatida «To'palang» suv ombori va GESida 90 % bunyodkorlik ishlarini bajargan bo'lsa, «Sho'rtang – Sherobod» gaz tarmog'ida 27 %, «G'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on» temir yo'li qurilishida 18 foiz yumushlarni amalga oshirishgan. Namangan viloyatida esa ana shu quruvchilar 730 kun ichida 50 mln.kub metr obi-hayot to'planadigan yangi suv omborining dastlabki bosqichini ishga tushiradilar. Andijon viloyatidan kelgan 4 ta pudratchi qurilish tashkiloti jamoalari Toshkent shahrida yangi obyektlarni barpo etmoqdalar. Bularning hammasi kapital qurilishda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar yangi bosqichining ilk mevalaridir. Bu mevalar qancha ko'p bo'lsa, qurilishda o'zgarishlar yuz beraversa, bilingki, shahar va qishloqlarimiz yangicha qiyofa kasb etib, yurtimiz ko'rkiga-ko'rk qo'shilaveradi.

Vazirlar Mahkamasining 2005-yil yakunlariga bag'ishlangan yig'ilishida kapital qurilish sohasidagi islohotlarga yana bir bor e'tibor qaratildi. Tizimda boshlangan o'zgarishlarni izchil va mantiqiy davom ettirish 2008-yildagi asosiy ustuvorliklar deb hisoblandi. Shundan kelib chiqib, tarmoqdagi islohotlarni jadallashtirish uchun tegishli

kompleks zimmasiga bir qator vazifalar yuklatildi. Jumladan, joriy yilda zarar ko'rib ishlayotgan, iqtisodiy nochor pudratchi qurilish tashkilotlarini xususiyashtirish va tugatish, loyihalash tashkilotlarini davlat tasarrufidan chiqarish, pudrat va loyihalash ishlarning to'la qimmatli bozorini yaratish jarayonini to'liq nihoyasiga yetkazish kerak, qurilish va loyihalash ishlari darajasi oshirilib, buyurtmalarni joylashtirish bo'yicha tanlov savdolari o'tkazishda ma'muriyatchilikka barham berilishi lozim. Qolaversa, qurilishda loyihalash, smeta va texnologiya intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari ko'rilib, bozor iqtisodiyoti talablariga muvofiq, tizimida smeta-me'yoriy bazani va hisoblarni to'liq yangilash zarur. Bunday qurilish smeta qiymatining sun'iy ravishda oshirib yuborilishiga yo'l qo'ymaslikni nazarda tutgan holda, joylarda yagona buyurtmachi xizmatlarini tashkil etishni tugallash darkor.

### **Qisqacha xulosalar**

Loyiha va qurilish ishlarining qiymati yuqoriligi hamda sifati pastligi ham jiddiy e'tirozlarga sabab bo'ldi. Tekshirishlar asnosida qurilish mahsulotlariga narx belgilashda qoida buzilishlarga yo'l qo'yilayotgani, smeta baholarini, qurilish-montaj ishlari hajmlarini sun'iy oshirish hollari ham aniqlandiki, bunga aslo toqat qilib bo'lmas edi. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil yakunlariga bag'ishlangan yig'ilishida Prezidentimiz sohada islohotlar nihoyatda sust olib borilayotganini qattiq tanqid qildi. Bu majlis qarorida kapital qurilish bo'yicha o'tkazilayotgan tanlov savdolari natijalari, qurilish materiallari va asbob-uskunalarini xarid qilishning shakllangan tizimi tanqidiy baholandi. «Davarxitekqurilish» qo'mitasi, «O'zqurilishmateriallari» aksiyadorlik kompaniyasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga tanlov savdolari rasmiyatchilik bilan o'tkazilishini bartaraf etishda, pudrat ishlari bozorini yaratishda, narxlarni shakllantirish tizimida, assortimentni yaratishda mahsulotning import o'rnini bosuvchi turlarini ishlab chiqarishni ko'paytirishda ijobiy siljishlar sezilmayotganligi ko'rsatib o'tildi.

Buyurtmachi va pudratchi, bosh pudratchi va subpudratchilar, loyiha tashkilotlari hamda asbob-uskunalar, qurilish ashyolari va konstruksiyalarini yetkazib beruvchilar o'rtasidagi munosabatlar, albatta, faqat shartnoma asosida olib boriladi. Biroq buyurtmachi nomidan ish ko'ruvchi oraliq bo'g'inlar, vositachi tuzilmalar qurilish materiallari va ishlari qiymati sun'iy ravishda qimmatlashuviga olib kelishi hisobga olinib, ularning bunday munosabatlar tizimida ishtirok etishi ta'qiqlandi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Mustaqillik zaminini yaratishda investitsiyalar qanday mohiyatga ega?
2. Kapital qurilishni moliyalashtirishda qanday kapitallardan foydalaniladi?
3. Qurilishda dasturlarga qanday amal qilinadi?
4. Kapital qurilishning ustuvor vazifalari nimalardan iborat?
5. Qisqa muddatli davlat obligatsiyalarini qanday tushunasiz?
6. Oqilona foiz stavkasining mazmuni nimadan iborat?
7. Kredit olishda foiz stavkalari qanday o'rnatiladi?
8. Davlat aktivlariga nimalar kiradi?
9. «Markazlashgan manbalar» tushunchasini qanday izohlaysiz?

## 10. Qurilishda «buyurtmachi» kim?

### Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I. "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi" // Xalq so'zi, 2014-iy 18-yanvar.

2. Yo'ldoshev Z. Milliy iqtisodiyot. -T.: Mehnat, 2004, 168-b.

3. Ishmuxamedov A.E. O'zbekiston milliy iqtisodiyoti. Darslik – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005, 304-b.

4. Ishmuxamedov A.E. va boshqalar. Makroiqtisodiyot. Darslik – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005.-192 b.

5. Tuxliyev N. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. -T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 280 b.

6. Internet veb-saytlari.

[www.gov.uz](http://www.gov.uz).

[www.pressservice.uz](http://www.pressservice.uz).

[www.pca.uz](http://www.pca.uz).

[www.micro-macroiqtisodiyot.fan.uz](http://www.micro-macroiqtisodiyot.fan.uz)

## 10-bob. BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA BARQARORLASHTIRISH YO'LLARI

### 10.1. Barqaror rivojlantirish strategiyasi

Barqaror rivojlantirish strategiyasini amalda ro'yobga chiqarish ko'p jihatdan mafkuraviy, siyosiy va iqtisodiy xususiyatlarga ega bo'lgan shart-sharoitlarning prinsipial doiralari belgilab beruvchi tegishli umumiy tizimli shart-sharoitlarga bog'liq. O'zbekiston oldida turgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar rivojlantirishning ko'lami mamlakat 1990-yillar boshida tushib qo'lgan aniq iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda jahon tajribasi to'plagan barcha ijobiy jihatlarni uyg'unlashtiruvchi o'ziga xos yo'lini tanlash lozimligini ko'rsatdi.

Ushbu ustuvor yo'nalishlar doirasida hukumat rahbarligida quyidagi dasturlar amalga oshirilmoqda yoki ishlab chiqilmoqda:

#### **Ijtimoiy sohani erkinlashtirish borasida:**

- aholining siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirish dasturi;
- inson huquqlari sohasidagi sa'y-harakatlarning milliy dasturi;
- amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy asosini mustahkamlash va rivojlantirish dasturi; «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari dasturi;
- sud-huquq islohotini chuqurlashtirish dasturi; erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish dasturi.

#### **Iqtisodiy sohani erkinlashtirish borasida:**

- raqobat muhitini shakllantirish dasturi;
- bank tizimini isloh qilish dasturi;
- 2000-2005-yillarda bank infratuzilmasini rivojlantirish dasturi;
- valyuta bozorini erkinlashtirish dasturi;
- kichik va o'rta biznesni, xususiylab tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish dasturi.

Ko'rsatib o'tilgan dasturlarning amalga oshirilishi huquqiy, demokratik davlat barpo etish yo'lidagi yirik qadam bo'lib, jamiyat hayotining barcha jabhalari amalda erkinlashtirilishini ta'minlaydi.

Jahon bozoridagi kon'yunkturaning beqarorligiga qaramasdan, 2013-yilda eksport hajmining o'sishi 10,9 foizdan iborat bo'ldi. Tashqi savdo faoliyatidagi ijobiy saldo 1 milliard 300 million dollarni tashkil etdi. 2013-yilda qimmatbaho metallar narxining keskin pasayiganiga qaramasdan, mamlakatimiz oltin-valyuta zaxirasi o'tgan yil davomida 2 foizga ko'paydi.

So'nggi yillarda eksport tarkibida raqobatdosh tayyor mahsulotlar ulushi barqaror sur'atlar bilan o'sib borayotgani yaqqol ko'zga tashlanmoqda. 2013-yilda umumiy eksport hajmining 72 foizdan ortig'i tayyor tovarlar hissasiga to'g'ri kelgani iqtisodiyotimiz diversifikatsiya qilinayotganining yaqqol dalolati, desam, xato bo'lmaydi. Mahsulot eksport qiladigan korxonalarni qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlarning amalga oshirilgani eksport faoliyatiga 450 dan ziyod yangi korxonani jalb etish imkonini berdi.

Barqaror rivojlanishning umumiy tizimli shart-sharoitlarini shakllantirish amaliy aollik oshishini ta'minlaydi, atrof-muhitni muhofaza qilish, milliy iqtisodiyot amaradorligini oshirish masalalarini muvaffaqiyatli hal etish imkonini beradi.

## **10.2. Xorijiy mamlakatlarda davlatning boshqaruv tizimini isloh qilish tajribasi**

O'zbekistonda ma'muriy islohotlar davom ettirilmoqda. Vazirlar Mahkamasining 2003-yilning dastlabki yarmi natijalariga bag'ishlangan yig'ilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov: «Mamlakatdagi tiklash va yangilanish arayonlarining asosiy oqsayotgan bo'g'iniga baho berar ekanmiz, bizdagi konservativizmning ildizi, eng avvalo amaldagi boshqaruv tizimida ekanligiga tobora ko'proq amin bo'lmoqdami. Tan olish kerak, amaldagi davlat, tarmoqlar va hududiy boshqaruv tizimlari iqtisodiy va demokratik islohotlarni joriy etish yo'lida katta to'siq bo'lmoqda. Aytish kerakki, bizda ma'muriy-boshqaruv va taqsimlov tizimida meros qolgan eski qolipning ko'p sifatlari saqlanib qolmoqda», deb ta'kidladi.

Xorij tajribasini o'rganar ekanmiz, davlat hokimiyati tizimi deyarli barcha mamlakatlarda qattiq tanqidlarga uchrayotganiga guvoh bo'lamiz. Masalan, «Nyu-York Fayms» ma'lumotlariga ko'ra, balog'at yoshidan o'tgan AQSH aholisining 15 %i hukumat faqat o'z manfaatlar uchun ishlashiga amin ekanliklarini bildirganlar. Xorijiy ommaviy axborot vositalarida dunyoning turli mamlakatlarida, jumladan, rivojlangan mamlakatlarda ham davlat, hukumatning nomukammal ekanligiga ko'plab misollar keltiriladi.

Hattoki byurokratiyani «jilovlay bilgan» Amerika Qo'shma Shtatlaridek mamlakatda ham ma'muriy soha doimiy nazoratga va islohotlarga muhtoj. Bir vaqtlar Jerald Ford: «Hukumat nazoratiga oid ikir-chikirlarga barham berish iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim shartlaridandir. Biz bunday sansalorliklar natijasida millionlab ish soatlarini behuda sarf qilamiz. Bu esa, iste'molchilarga milliardlab dollarlarga tushadi», deya behuda ta'kidlamagan edi. Davlat boshqaruvi mexanizmi nomukammallikka salkam genetik moneligi sababli dunyoning ko'plab mamlakatlari (eng avvalo, rivojlanganlari) ma'muriy islohotlarni amalga oshirishga ehtiyoj sezmoqdalar. Shu sababli tadqiqotchilar nafaqat islohotlarni, balki ularni jahon bo'ylab rivojlanishiga ko'ra, oqimlarga ajratgan holda o'rganmoqdalar.

Bunday islohotlarning birinchi oqimi XX asrning 20-30-yillarida amalga oshirilgan. Bu davrga kelib, davlat iqtisodiyotda tutgan o'rnini kuchaytirgan va ko'plab ijtimoiy vazifalarni zimmasiga olgan. Bu oliy toifadagi davlat xizmatini tashkil etishni va davlat hokimiyati tarkibini mustahkamlashni talab qildi. Ma'muriy islohotlarning keyingi oqimi o'tgan asrning 70-80-yillariga to'g'ri keldi. Bu davrda davlat o'z zimmasiga olgan mas'uliyatlarning kattaligi va majburiyatlarini to'fiq bajara otmay og'ir ahvolga tushib qolgan edi.

Hozirgi bosqichda ma'muriy islohotlarni ikkita turga ajratish mumkin. Birinchisi, jamiyat tartibi o'zgarishi oqibatida siyosiy tizimning almashuvi bilan birga amalga oshiriladigan islohotlar bo'lib, ulardan maqsad yangi iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarga javob beradigan davlat boshqaruvini tashkil etishdir. Bunday islohotlar sobiq sotsialistik davlatlarning barchasida amalga tatbiq etilmoqda va o'z doirasiga qonunlarni ishlab chiqish, davlat boshqaruv tizimini qayta tashkil qilish, davlat



xizmatini barpo etish, joylardagi boshqaruvni rivojlantirish kabi masalalarni qamrab olgan. Ikkinchi turi esa, siyosiy barqarorlik doirasida amalga oshiriladigan va ma'muriy tizimni butunlay takomillashtirish yoki uning davlat tartibi buzilib ketishiga sabab bo'lmaydigan aniq jabhalarini mukammallashtirishga yo'naltirilgan islohotlardir. Bunday islohotlarni joriy etish ko'plab rivojlangan mamlakatlarga xosdir.

Islohotlarga bo'lgan ehtiyojni ko'plab mutaxassislar turli ijtimoiy dasturlarni moliyalash uchun davlat xarajatlarining haddan ziyod oshib ketishi bilan bog'laydilar. Davlat ijtimoiy xarajatlarining oshishi ko'p hollarda aholining davlat xizmatlari sifati va moliyaviy mablag'lar taqsimlanishiga nisbatan e'tirozlariga sabab bo'ladi. Jiddiy tanqidlarni keltirib chiqaruvchi boshqa bir omil – jamiyatning turli jabhalariga davlat aralashuvining kuchayishi va buning oqibatida fuqarolar huquq va erkinliklarining cheklanib qolishidir. Bu kabi muammolarni hal qilishda uchta yondashuv o'rinlidir:

- davlat boshqaruvi faoliyati samaradorligini oshirish va aholiga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash;

- davlat va xususiy sektorlar o'rtasida hamkorlik rishtalarini rivojlantirish hamda ularning majburiyatlari chegaralarini yanada aniqroq belgilash;

- davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasida ko'p qamrovli aloqalarni o'rnatish, aholini boshqarishga jalb etish.

Ma'muriy islohotlar tatbiq etilayotgan yo'nalishlar turlicha. Ulardan eng ko'p qo'llaniladiganlaridan biri *xususiy lashtirishdir*. Keng ma'noda bu hukumat rolini qisqartirishga, demakki, boshqaruvda yoki egalik masalasida xususiy sektor mohiyatini oshirishga qaratilgan harakatdir. Xususiy lashtirish nafaqat davlat mulki xususiy mulkka aylantirilishini, balki ma'lum sharoitlarda aniq xizmatlarni ko'rsatish, fuqarolarga xizmatlarni tanlash imkoniyatini yaratish kabi masalalar yuzasidan xususiy tashkilotlar bilan shartnomalar imzolashni ham anglatadi.

Davlat boshqaruvini shakllantirish. Bu ikki ko'rinishda amalga oshiriladi: birinchisi, markazlashgan hokimiyatni saqlab qolgan holda alohida vakolatlarni boshqaruvning quyi organlariga olib berishdan iborat bo'lsa, ikkinchisi esa, o'z zimmalari yuklangan vazifalarni bajarish uchun shaxsiy resurslariga ega bo'lgan muxtor tashkilotlar (kommunal, munitsipalitet, jamoat birlashmalari) tashkil etishni talab qiladi. Natijada aholiga xizmat ko'rsatish uchun kerakli bo'lgan sharoitlarni yaxshilash va qabul qilingan qarorlar samaradorligini oshirish ta'minlanadi. Shakllantirishning bevosita talablari moliyaviy mustaqillik va mintaqaviy hamda joylardagi hukumat organlari majburiyatlaridan iborat.

Davlat xizmatlari sifatini va ularning taqsimlash mexanizmini yaxshilash. So'nggi paytda «Iste'molchilar manfaatlariga xizmat qiladigan tarkiblarni tashkil etish» shiori urf bo'lib bormoqda. Uning asosida oddiy fuqarolarning ehtiyojlarini qondirish masalasini davlat faoliyati markaziga ko'tarish yotadi. Shu maqsadda xizmat ko'rsatishning aniq me'yorlari joriy qilinadi. Fuqarolar hukumat organlari qarorlariga ta'sir o'tkazish imkoniyatini qo'lga kiritadilar. Hukumat o'z faoliyatiga oid barcha axborotlarni keng omma e'tiboriga ochiq havola qiladi. Davlat xizmatlari sifatiga bo'lgan bunday e'tiborning sabablari nafaqat aholi qiziqishlarini hisobga olishdan, balki fuqarolar ta'limi, malakasi va sog'lig'i darajasi o'rtasidagi bevosita aloqadan (u davlat



izmatlari sifati darajasi bilan uzviy bog'liq) yanada unumli foydalanishdan ham boratdir.

Davlat xizmatini isloh qilish. Bunday islohotlar ish haqi va davlat xodimlarini rag'batlantirish sohalarini qamrab oladi; ta'lim tizimini, malaka oshirishni va shaxsning rivojlanishini; xodimlarni tanlash va yollash usullari va majburiyatlarini bajarish arajasini; pensiya siyosatini; jinsi va millatidan qat'i nazar xizmatchilar uchun teng hart-sharoitlarni yaratib berishni va h.k.lar.

Davlat boshqaruv organlari faoliyatini va tashkiliy tarkiblarni takomillashtirish. Davlat boshqaruvida yangi yo'nalish bo'lib, u vertikal ma'muriy tarkibni aniq azifalarni bajaruvchi davlat tashkilotlarining gorizontal tarmog'iga almashtirish foyasini ilgari suradi. Va unga muvofiq aloqali boshqaruv, ichki va tashqi audit, imashuv jamg'armalari kabi mexanizmlar tashkil etiladi. Siyosatni shakllantirish azifasi ko'proq bir nechta ilg'or vazirliklar zimmasida bo'ladi, ijro etish esa turli davlat gentliklariga yuklatiladi. Davlat sektori faoliyatiga xususiy kompaniyalarda qo'llaniladigan, bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan mexanizmlar va boshqaruv uslublari obora ko'proq singdirib boriladi. Eng diqqatga sazovor, markaziy boshqaruv organlari qabul qilgan qarorlarning oliy sifatiga erishiladi.

Davlat moliyaviy mablag'lari va budjetini boshqarishning yaxshilanishi. Bu yerda quyidagi yo'nalishlar ajratiladi: hukumat vazirlik va muassasalar o'rtasida umumiy xarajatlar oqimini va taqsimlash tamoyillarini aniqlayotganda budjetni ishlab chiqishda «yuqoridan pastga» mexanizmini joriy qilish; vazirliklar va muassasalarga ilik xarajatlar uchun mablag'larni ishlatish maqsadlarini ko'rsatmagan holda o'tkazib berish; qolgan mablag'larning keyingi moliyaviy yil bo'yicha ko'rsatkichlarini ishlab chiqish; xususiy sektorda qo'llaniladigan moliyaviy menejment amaliyotini tatbiq etish; budjetni tashkillashtirayotganda o'rtta muddatga mo'ljallangan ko'rsatkichlardan unumli foydalanish.

Axborot texnologiyalarini joriy etish. Agar yaqin vaqtlargacha davlat boshqaruvinu axborot texnologiyalari bilan, eng avvalo, kompyuterlar bilan ta'minlash nasalasi dolzarb bo'lgan bo'lsa, bugungi kunga kelib, axborot texnologiyalariga ilingan investitsiyalardan manfaatni oshirish masalasi dolzarbdir. Ustuvor yo'nalishlar ifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: milliy axborot tarmoqlarini barpo etish; davlat organlarini aholi bilan bog'lab turuvchi axborot tarmoqlarini rivojlantirish; axborot izimlarining ijtimoiy muammolarni tahlil qilish va qarorlar qabul qilishga safarbar etish. Ko'plab mamlakatlarda davlat hukumati faoliyatiga axborot va elektommunikatsiya texnologiyalarini singdirish va ularni takomillashtirish bilan shug'ullanuvchi maxsus kompaniyalar tashkil etilgan.

Natijalarni baholash va jarayonlar monitoringi. Ma'muriy tizim orqali yondashuv navjud muammolarni aniqlash va ularga barham berish borasidagi davlat apparati faoliyatini kuzatishni ta'minlovchi mexanizmlarni talab etadi. Ma'muriy islohotlarning borishini baholash ham juda muhimdir. Bu yerda davlat apparati faoliyati samaradorligini belgilovchi ko'rsatkichlarni ishlab chiqish alohida e'tiborni talab qiladi. Bugungi kunda ko'pchilik mamlakatlar hukumatlari oldida jahon miqyosida iqtisodiy raqobatning keskinlashuvi muammosi turibdi. Tobora avj olayotgan iqtisodiyotlarning globallashuvi jarayonidan orqada qolmaslik va o'z mamlakatining xalqaro raqobatda

to'liq ishtirok etishini ta'minlash ko'plab mamlakatlar davlat boshqaruvida islohotlar amalga oshirilishiga sabab bo'ladi.

Jahon tajribasi ko'rsatishicha, jamiyatning to'laqonli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi davlat boshqaruvining qanday tashkil etilganligi, hokimiyatning markaziy qismining mahalliy qismi bilan munosabatlari nechog'lik yaxshi yo'lga qo'yilgani, vakolatlarning qanchalar aniq taqsimlanganligi masalalari bilan bevosita bog'liq. Boshqaruv apparati hajmining kattaligi, ayrim vazifalarning takrorlanishi, boshqaruvning ilmiy asosi yo'qligi, davlat ustidan jamoat nazoratining yetarli darajada amalga oshirilmasligi ijrochi hokimiyat samaradorligi pasayishiga olib keladi va byurokratiyaning avj olishiga hamda biznesni yuritish yo'lida g'ovlar ko'payishiga sababchi bo'ladi.

Globalashuv sharoitida rivojlangan mamlakatlarda davlat boshqaruvi mexanizmini takomillashtirish shunchalar ahamiyatli vazifa ekan, u bozor iqtisodiyoti mexanizmlari endigina joriy etilayotgan mamlakatlar uchun ham eng muhim vazifa ekanligiga shubha yo'q. Tajriba kamligi va yetuk mutaxassislar yetishmasligi kabi bir qator muammolar iqtisodiyoti o'tish davrini boshdan kechirayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlarda bu mazkur jarayonning asosiy sabablari hisoblanadi.\*

### 10.3. Ma'muriy islohotlar – iqtisodiy taraqqiyot omili

O'zbekistonda so'nggi 20 yil davomida yuz bergan keng ko'lamli o'zgarishlar iqtisodiy munosabatlarga mos yangi davlat boshqaruvi tizimini yaratishni taqozo etdi. Bu jarayon izchil davom etmoqda: ko'pgina sohalar bo'yicha davlat boshqaruvi tizimini zamonaviylashtirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab beruvchi qonunlar ishlab chiqildi va qabul qilindi. Masalan, keng ko'lamli xususiyashtirish xususiy sektorga davlat mulkining salmoqli qismini boshqarish yoki unga egalik qilish imkonini yaratdi.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti ma'muriy apparat ishining nechog'li samaradorligiga bog'liq. Ulkan byurokratik apparat rivojlanishga to'sqinlik qiladi hamda davlatning bozor islohotlari, ijtimoiy vazifalarni bajarishga doir sa'y-harakatlariga xalaqit beradi. Bunday holat ro'y bermasligi uchun davlat ma'muriy tizimni isloh qilishga hamda uni zamon talablariga moslashtirishga majbur. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov qayd etganidek, ma'muriy tizimda islohotlarni amalga oshirish payti keldi va ularni zudlik bilan bajarish zarur. Busiz chuqur iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirish nanki qiyin, balki aslo mumkin emas. Jahon tajribasini chuqur o'rganish va barcha darajadagi boshqaruv organlari faoliyatini tahlil qilish asosida respublika hukumati tomonidan ma'muriy islohotlarni amalga oshirish bo'yicha asosiy yondashuvlar va yo'nalishlar ishlab chiqildi.

O'zbekiston iqtisodiyotini boshqarishda davlatning o'rni qisqartirish maqsadida muayyan choralar ko'rilmogda. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2003-yil 9-dekabrda «Respublika davlat boshqaruv organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi hamda 2003-yil 22-dekabrda «Xo'jalik boshqaruv organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi Farmonlari O'zbekistondagi ma'muriy islohotlarning yangi bosqichini boshlab berdi.

\* Ma'muriy islohotlar yuborishning xorij tajribasi. Ekonomicheskoe obozreniya - № 4 (56) 2004.

Bo'lajak tub o'zgarishlarning mohiyati quyidagilardan iborat:

birinchidan, iqtisodiyotni boshqarishda davlat o'rning keskin qisqarishi, davlat azimlalarining xo'jalik yurutuvchi subyektlar faoliyatiga asossiz aralashuviga barham erish. Davlat zimmasida davlatning faol ishtirokisiz amalga oshirilmaydigan azifalargina qoladi. Bular, eng avvalo, umumdavlat miqyosidagi strategik masalalar, ususan makroiqtisodiy barqarorlik, islohotlar dasturlarini hamda iqtisodiyotning arkibiy qayta qurilishini, ijtimoiy sohada, kommunikatsiyalar tizimida ustuvor lasturlarni amalga oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va hokozolar;

ikkinchidan, respublika darajasidagi vakolatlarning bir qismi mahalliy boshqaruv rganlariga o'tkazilishi. Vazifalarning bu tarzda taqsimlanishi, bir tomondan, mahalliy rganlarning belgilangan vazifalarni bajarishda mas'uliyatini oshiradi (avvalo, bandlik, ijtimoiy rivojlanish va aholi turmush farovonligini yuksaltirishga taalluqli), ikkinchi omondan, ularning samaradorligini kuchaytiradi, zero, hududlarning o'ziga xos ihatlarini e'tiborga oladi. Masalan, kam ta'minlangan oilalarga nafaqa to'lash vazifasining davlat organlaridan fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga o'tkazilishi xalqaro miqyosda tan olingan. Chunki fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish rganlari kim ijtimoiy yordamga muhtoj ekanligini yaxshiroq biladi;

uchinchidan, boshqaruv tizimini optimallashtirish, boshqaruvga oid vazifalarning akrorlanishiga barham berish, korxonalar faoliyati asossiz nazorat qilinishiga chek qo'yish, bozor mexanizmlari hamda shaxsiy tashabbuskorlik va xususiy tadbirkorlik rivojlanishiga xalal beruvchi to'siqlarni bartaraf etish, taqsimlash tizimini tugatish arayonini yakunlashdir;

to'rtinchidan, davlat va xo'jalik boshqaruv organlari xodimlari sonini optimal darajasiga qisqartirilishi.

beshinchidan, axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish asosida davlat boshqaruv tizimini bosqichma-bosqich zamonaviylashtirish hamda uning samaradorligini oshirish, zamonaviy ma'muriy-luquqiy baza yaratish, o'quv tizimini qayta ko'rib chiqish, ilg'or xorijiy tajribani e'tiborga olgan holda kadrlarni tanlash va yollash uslublarini qo'llash, ularni attestatsiyadan o'tkazish va ularga yuklatilgan vazifalarning ijrosini baholash shakllarini takomillashtirish orqali davlat xizmatini isloh qilishdir.

Iqtisodiyotni boshqarishda davlat vazifalarini qisqartirish tadbirkorlikka hamda iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirishga yanada keng yo'l ochib beradi.

Islohotlar doirasida bugungi kunda davlat va xo'jalik boshqaruv organlari vazifalari va tarkibini qayta ko'rib chiqish ishlari jadal olib borilmoqda. Bunda boshqaruv tizimi samaradorligini sezilarli darajada oshirish, qabul qilinayotgan qarorlar sifatini yaxshilash hamda boshqaruv apparatiga sarflanayotgan asossiz xarajatlarni qisqartirishga qaratilgan qat'iy faoliyatga alohida ahamiyat berilmoqda.

Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, markazda tashkil etilgan har qanday boshqaruv organi odatda, viloyatlar va tumanlarda hisob beruvchi bo'linmasiga ega bo'ladi, bu esa boshqaruv apparatining va texnik xodimlarning ko'payib ketishiga yo'l ochadi. Oqibatda, qo'shimcha nazorat organlari paydo bo'lishiga, xarajatlar ko'lami ortishiga, turli xil keluvchilar va kerakli-keraksiz hujjatbozliklarga olib keladi. Bular davlat boshqaruvni ayrim organlari faoliyatining samaradorligi keskin pasayishiga sabab bo'ladi.

Iqtisodiyotni boshqarishning islohotlarning asosini tashkil etuvchi yangi konsepsiyasi vertikal ma'muriy tuzilmalar aniq vazifalarni bajaruvchi mustaqil tashkilotlarning gorizontal tarmog'ini bilan muvofiqlashtirilishini taqozo etadi. Bunda shartnoma asosida boshqarish, ichki va tashqi audit kabi mexanizmlar yaratiladi. Davlat siyosatini shakllantirish masalalari vazirliklar va davlat qo'mitalarida jamlanadi, ularning ijrosini ta'minlash va nazorat qilish agentlik, qo'mita, inspeksiya kabi davlat boshqaruv organlari zimmasiga yuklanadi.

Davlat sektori faoliyatiga xorijda tajribadan o'tkazilgan, xususiy kompaniyalarda qo'llaniladigan davlat menejment usullari tobora kengroq joriy etilmoqda. Bunda asosiy e'tibor davlat tuzilmalarining tahliliy, taxminiy va baholash vazifalarini rivojlantirishga, eng muhimi, qarorlar qabul qilish, avvalo, markaziy boshqaruv organlarida qabul qilinayotgan qarorlarning sifati va ularning tayyorlanishini yaxshilashga qaratiladi.

Boshqaruv tarkibini takomillashtirishga nisbatan bunday yondashuvga misol tariqasida Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi ikkita mustaqil davlat boshqaruv organiga – Iqtisodiyot vazirligi va Statistika davlat qo'mitasiga aylantirilganini, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, «O'zbekneftgaz» xolding kompaniyasidagi va boshqa davlat hamda xo'jalik boshqaruv organlaridagi tashkiliy o'zgarishlarni ko'rsatish mumkin. Shuningdek, tumanlar boshqaruv tarkibini optimallashtirish bo'yicha ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Oliy Majlis va respublika hukumati qarorlariga ko'ra, o'tgan yillarda 8 ta ma'muriy tuman hokimligi va ularning quyi tashkilotlari tugatildi. Ushbu ma'muriy tumanlarning birlashtirilishi, ortiqcha hududiy boshqaruv tizimlari va ularning quyi tashkilotlari tugatilishi milliardlab so'mni tejash, bu mablag'ni mazkur tumanlarning ijtimoiy sohalarini rivojlantirishga sarflash imkonini berdi.

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy erkinligini ta'minlash va ularga keng huquqiy kafolatlar berishga katta e'tibor qaratilmoqda. Masalan, xo'jalik subyektlari tekshirishlarni tartibga solish va nazorat organlari sonini muntazam qisqartirish bo'yicha doimiy ish olib borilmoqda. Jumladan, hukumatning maxsus qarorlari bugungi kunda iqtisodiy faoliyat subyektlari xo'jalik ishlariga davlat organlari aralashuvini sezilarli darajada chekladi, natijada xo'jalik subyektlarini davlat nazorat organlari tomonidan tekshirishlar bir necha barobar kamaydi.

2010-yilda davlat tomonidan fond sifatida ajratilgan paxta tolasi, yoqilg'ini va neft mahsulotlari, mineral o'g'itlar, rangli va qora metallar, o'simlik yog'i, g'alla, un, shakar kabi xomashyo va moddiy resurslarni limit tariqasida taqsimlash tizimiga butunlay barham berish yakunlanadi. Endi tadbirkorlar bu resurslarni birja va yarmarka savdosi orqali xarid qiladi, bu esa turli mulkchilik shaklidagi korxonalar teng sharoitda ishlashi uchun imkon yaratadi.

Davlat va xo'jalik boshqaruv organlarining tugatilishi, birlashtirilishi va qisqartirilishi bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirildi. Chunonchi, hukumat qarorlariga muvofiq mashinasozlik, agrosanoat majmui, xalq is'temoli tovarlari ishlab chiqarish, qurilish, transport va savdo sohalarida davlat va xo'jalik boshqaruv vazifalarini bajarayotgan 20 dan ortiq tuzilma butunlay qayta tashkil etiladi yoki tugatiladi. Jumladan, boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish doirasida, boshqaruvning keraksiz, ortiqcha bo'g'inlari sifatida «O'zpparrandasanoat», «O'zoziqovqatsanoat», «O'zbalıq», «O'zqishloqkimyo», «O'zqog'ozsanoat», «O'z mashinasanoat» uyushmalari va boshqalar tugatildi, ayni paytda bu tarmoqlarni rivojlantirish strategiyasini belgilash

vazifalari mahalliy organlarga berildi. Hududiy darajada ham bir-birini takrorlaydigan va samarasiz tuzilmalarni tugatish, o'zgartirish bo'yicha shunday ishlar olib borilmoqda. O'tgan yillarda hukumat tomonidan respublikaning barcha vazirlik va idoralari tuzilmasi qaytadan ko'rib chiqildi va ularning vazifalari aniqlashtirildi. Ular zimmasidan bozor iqtisodiyotini boshqarish tamoyillariga zid vazifalar olib tashlandi.

#### 10.4. Respublikada boshqaruv apparatini qisqartirish va takomillashtirish yo'llari

Boshqaruv apparati soni va uning ta'minoti xarajatlari qisqarishi ma'muriy islohotning amaliy natijasi bo'ldi. Bu, ma'muriy islohotning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Bu, xarajatlarni takomillashtirish va qisqartirishda, o'z navbatida, korxonalar va aholining soliq yukini kamaytirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Hukumat tomonidan boshqaruv apparatini takomillashtirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar O'tgan yillarda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarida ularning sonini 40 ming kishiga yoki 22 %ga qisqartirish va har yili 40,5 mlrd. so'm mablag'ni tejash imkonini berdi.

Davlat va xo'jalik boshqaruv xodimlari qisqartirilishi natijasida ularning soni har ming kishiga 6,1 kishini tashkil etdi yoki aholi mehnat bilan band qismining 1,6 %dan oshmaydi. Bu, MDH ning boshqa mamlakatlaridagidan ancha kam. Taqqoslash uchun 10.1-jadvaldagi quyidagi raqamlarni keltirish mumkin: Qozog'istonda-19,2 va 3,4 Ukrainada-20 va 4,5 Rossiyada - 22,1 va 3,9 %.

Rossiyada bu solishtirma salmoqni kamaytirish maqsadida davlat apparatining ortiqcha vazifalarini qisqartirish bo'yicha sa'y-harakatlarga qaramay, davlat hokimiyati va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari xodimlari soni so'nggi uch yilda 1141 ming nafardan 1259 ming nafarga ko'paydi. Ayni paytda, mustaqil axborot manbalarining xabar berishicha, 20 % ga yaqin amaldorlar zarur kasbiy ma'lumotga ega emas.

#### 10.1-jadval

#### Mehnatga layoqatli yoshdagi va ish bilan band aholi tarkibida boshqaruv xodimlarining solishtirma salmog'i

Mamlakatlar	Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari boshqaruv xodimlari soni, ming nafar	Har 1000 kishiga to'g'ri keladigan boshqaruv xodimlari, nafar	Mehnatga iyoqatli aholi sonida boshqaruv xodimlari solishtirma salmog'i, hisobida foiz	Band aholi sonida boshqaruv xodimlarining solishtirma salmog'i, foiz hisobida
Ozarbayjon	265,3	32,3	6,0	7,1
Armaniston	25,8	8,1	1,2	2,3
Belorus	147,6	14,9	2,7	3,4
Gruziya	76,7	16,3	2,3	4,2
Qozog'iston	280,4	19,2	3,4	4,0
Qirg'iziston	66,3	13,3	2,6	3,6
Moldova	66,0	15,3	3,4	4,4
Rossiya	3223,3	22,1	3,9	4,9
Ukraina	956,8	20,0	3,5	4,5
Uzbekiston	155,8	6,1	1,3	1,6

Ta'kidlash joizki, birinchi navbatda, sun'iy ravishda kengayib ketgan byurokratik apparatni qisqartirilishga qaratilgan islohotni amalga oshirish bozor iqtisodiyot rivojlangan mamlakatlar uchun ham dolzarb hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Yevropa, Janubi-sharqiy Osiyo, Shimoliy Amerikaning ba'zi mamlakatlarida ish bilan band aholining umumiy sonida boshqaruv xodimlari solishtirma salmog'i 2 % dan 15 % gacha yetadi: AQSHda – 15 % , Shvetsiyada – 18 % , Buyuk Britaniyada – 14 % , Germaniyada – 6,7 % , Polshada – 5,8 % , Turkiyada – 6,3 % , Yaponiyada – 3,2 % , Janubiy Koreyada – 2,3 % .

Janubiy Koreyada 1993-yilda boshlangan va «Inqilobiy» deb atalgan ma'muriy islohot 10000 amaldorni boshqa agentliklarga o'tkazish imkonini berdi.

Shuni ta'kidlash kerakki, hisobotning o'zini oqlamagan, asosanmagan shakl va turlarini qisqartirish mahalliy ma'muriy apparat malakasini oshirishga olib keladi. Masalan, ma'muriy islohotni chuqurlashtirish statistik hisobotni yig'ish vazifalari va davlat boshqaruvining tegishli apparati sonini qisqartirish hamda statistik hisobotning muayyan turlari bo'yicha davriylikni qisqartirish, ayni paytda saqlanib kelinayotgan hisobotni soddalashtirish va bir xillashtirishni ko'zda tutadi. 2003-yilda O'zbekistonda idoraviy statistik hisobot ro'yxati va mazmuni qishloq xo'jalik shirkatlari uchun 60 % dan ortiq, sanoatda uchdan birga, kichik va xususiy tadbirkorlikda 35 % dan ko'proq qisqargan edi.

Ortiqcha byurokratik boshqaruv xodimlarini qisqartirish va boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish jarayoni lavozimida qolgan xodimlar zimmasiga qarorlarni tayyorlash va qabul qilishda amaliy nazoratni ta'minlashda yuqori malaka bilan ishlash talabini qo'yadi.

Ma'muriy islohotlar davlat va xo'jalik boshqaruv organlari xodimlarining professional mahoratini oshirishni, ularni tanlash, tayyorlash va davlat apparatining mavjud holati hamda istiqbolidagi rivojini hisobga olgan holda ulardan oqiloni foydalanishni talab etadi. Faqat malakali, o'z ishiga sodiq xodimgina bugungi sharoitda millionlab odamlarning manfaat va taqdiriga daxldor boshqaruv faoliyatiga qo'yilish mumkin. Shu bois davlat xizmatini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash va mustahkamlash hamda ulardan to'g'ri foydalanishga erishish g'oyasi muhimdir. Yana bir muhim masala – ularga professional salohiyatni namoyon qilish, xizmat va vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur sharoit yaratishdir. Faqat aniq shundagina davlat hokimiyati organlari samarali ishlashi va kutilgan natijaga erishishidan umid qilish mumkin.

Aynan shu maqsadda O'zbekistonda davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi oliy biznes maktabi, oliy o'quv yurtlarida menejment fakulteti va bo'limlari tashkil etilgan. Ular har yili davlat va xo'jalik boshqaruv sohalarida ishlash uchun yuzlab yuqori malakali rahbar xodimlar tayyorlaydi.

Asosiy maqsadga erishishning muhim tarkibiy qismlaridan biri mavjud me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirishdir. Bu ma'muriy islohotni amalga oshirishni tegishli huquqiy muhit bilan moslashtirish imkonini beradi.

Axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish asosida davlat boshqaruv tizimini bosqichma-bosqich zamonaviylashtirish va ish samaradorligini oshirish davlat organlari o'rtasida vertikal va gorizontal axborot almashishning elektrokanallarini shakllantirishni nihoyasiga yetkazadi. Ya'ni, xo'jalik subyektlaridan davla



organlariga – statistik axborot, so'rovlar va hokazo; davlat organlaridan xo'jalik subyektlariga, aholiga – huquqiy, statistik axborot, elektron shakldagi turli blankalar va shakllarni taqdim etish xizmatlarini ko'rsatish uchun sharoit yaratadi.

Eng yangi boshqaruv texnologiyalarini joriy etish ma'lumotlar almashish va qaror qabul qilish imkonini beradi, davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik subyektlari va aholi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yanada yaxshilaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ma'muriy islohot respublika aholisi uchun juda muhim ahamiyatga ega. Chunki u avvalo iqtisodiy islohotlarni yanada jadallashtirish uchun sharoit yaratishga, aholining turmush darajasi va sifatini yuksaltirishga yo'naltirilgan. Davlat va xo'jalik boshqaruvi tizimi ishini bosqichma-bosqich zamonaviylashtirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar sifati va izchilligi ko'p jihatdan butun boshqaruv tizimining samaradorlik darajasiga, uni jamiyatni isloh qilishning bugungi talablariga moslashtirishga bog'liq.

### **10.5. Samarali davlat boshqaruvi asoslari**

Ma'muriy islohotlar O'zbekistonda bozor islohotlarining eng muhim ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi faqat davlatga taalluqli vazifalar bilan davlatning iqtisodiyotga aralashuvini cheklash imkonini beruvchi samarali davlat boshqaruvi asoslari uchun shart-sharoit yaratishdan iborat. Mikromiqyosda bu, biznesni rivojlantirish uchun raqobatchilik muhitini, tegishli shart-sharoit, mamlakatimiz va xorijiy sarmoyadorlarga qulay investitsiyaviy iqlim yaratish, demakdir.

Kuchli davlat barpo etish – o'zbek davlatchiligi shakllanishining zaruriy bosqichidir. Jahonda o'tish iqtisodiyotida davlat boshqaruvining nomarkazlashtirish dasturini ishlab chiqishda standart sifatida olish mumkin bo'lgan mukammal model yoki misolning o'zi yo'q. Bu holatda har bir mamlakat o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, dastur ishlab chiqishda ularni hisobga olish zarur.

Davlat qurilishida o'tish davrini boshdan kechirayotgan yangi mustaqil mamlakatlarda davlat boshqaruvining islohotlar jarayoni murakkab sanaladi. Misol uchun, O'zbekiston 20 yil avval bir vaqtning o'zida turli yo'nalishlardagi kamida ikkita vazifani hal etishi zarur edi. Ya'ni, bir tomondan, mukammal mexanizmlar va institutlarga ega yangi davlatchilikni barpo etish bo'lsa, ikkinchi tomondan, davlatning iqtisodiyotdagi vazifalarini erkinlashtirish va qisqartirishni talab etuvchi bozor munosabatlarini qayta o'zgartirish kerak edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy islohotlarning „O'zbek modeli“ – shundan iboratki, bunda davlat boshqaruvining yangi tizimi bosqichma-bosqich yaratilishi kerak. Birinchi bosqich – davlat bosh islohotchi bo'lgan holda siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydigan kuchli davlat barpo etish, ikkinchi bosqich – jamiyat hayotining barcha tomonlarini, shu jumladan, davlat boshqaruvi tizimini erkinlashtirish va nomarkazlashtirishdan iborat.

Mustaqillikning ilk bosqichlarida bozor taqozo etadigan qayta o'zgartirishlarni tizimli va siyosiy jihatdan muntazam amalga oshira oladigan kuchli davlat barpo etish hayotiy zarurat edi. Aynan shuning uchun amaliy jihatdan darhol hokimiyatning davlat vertikalini: «Prezident – viloyat hokimi – shahar (tuman) hokimi» tuzilmasini tuzish asosfari yaratildi. Iqtisodiyotning boshqaruvchanligini saqlab qolish uchun ijroiya

hokimiyatning aniq gorizantal – «Vazirlar Mahkamasi – vazirlik (idora) – xo'jalik birlashmalari» aloqalari tuzildi. Bunda xo'jalik birlashmalariga nafaqat xo'jalik, shuningdek, boshqaruvning alohida davlat vazifalarini bajarish ham yuklatildi. Agar, bugungi kunda O'zbekistondagi davlat boshqaruvi tizimini 20 yil ilgari davr bilan taqqoslaydigan bo'lsak, ushbu qisqa tarixiy vaqt ichida sobiq totalitar boshqaruv tuzumi sarqitlarini yengib o'tishga qaratilgan ulkan ishlar amalga oshirilganligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ko'p sonli tarmoq vazirliklari, iqtisodiyotning davlat rejalashtirish tizimi, savdo, moddiy-texnik ta'minot va xizmat ko'rsatish sohasining davlat boshqaruv tizimi tugatildi. Bozor tizimiga xos bo'lgan yangi davlat boshqaruvi institutlari: monopoliyaga qarshi organlar, mustaqil statistika organlari, soliq va bojxona qo'mitalari, korxonalar bankrotligi tamoyillarini nazorat qilish organlari tashkil etildi. Yangi iqtisodiy munosabatlarga xos bo'lgan bozor iqtisodiyoti institutlari – ikki darajali bank tizimi, sug'urta, lizing, auditorlik kompaniyalari, tovarlarning birja savdosi tizimi shakllandi.

Shuni unutmashlik kerakki, davlat iqtisodiy islohotlar bilan bir qatorda aholini ijtimoiy muhofazalash tizimini ham shakllantirdi va mustahkamlab oldi. Bu aholining nochor qatlami uchun islohotlarning og'ir yukini ancha yengillashtirish imkonini berdi.

Islohotlarning birinchi bosqichi O'zbekiston uchun hayotiy zarurat bo'lgan aynan kuchli davlat islohotlarining keyingi pog'onasiga zarur shart-sharoit tayyorladi, ijtimoiy-siyosiy rivojlanishning yangi bosqichiga yaqinlashish imkonini berdi.

Xususiyashtirish va xususiy sektorning jadal o'sishi – ma'muriy islohotlarning muhim omili va dastlabki shartidir. Iqtisodiyotni bozor va ma'muriy boshqaruv islohotlariga tayyorlash ma'lum darajada korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish hamda yangi xususiy sektorni tashkil etishga bog'liq edi. Davlat iqtisodiyotini xususiyashtirish dasturi ijrosi o'tgan asrning 90-yillaridan boshlandi va ulgurji hamda chakana savdo, moddiy-texnik ta'minot, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat sohalari, shuningdek, mahalliy ahamiyatga ega sanoat korxonalari ishlab chiqargan mahsulotlarni taqsimlash hamda almashish bilan bog'liq butun sektorni qamrab olgan.

Shundan so'ng har yili tasdiqlanadigan xususiylashtirish dasturi iste'mol tovarlari ishlab chiqarish bo'yicha ko'plab elektrotexnika, mebel korxonalari, farmasevtika sanoati, umumiy mashinasozlik, qurilish materiallari ishlab chiqarish, ko'plab yo'lovchi va yuk tashuvchi avtomobil turlarini, deyarli butun sektorni xususiylashtirish imkonini berdi. O'tgan yillarda O'zbekiston yalpi ichki mahsulotida nodavlat sektorning ulushi 74,5 %ni, sanoatda – 73,9 %ni, qurilish ishlarida - 88,8 %ni tashkil etdi. Iqtisodiyot sohasida ishlayotgan kishilarning 77,2 %i xususiy sektorda band bo'ldi.

2010-yilga kelib, korxonalarni keng ko'lamda xususiylashtirish va aksiyalashtirish tufayli iqtisodiyot boshqaruvchanligida yo'qotishlarga yo'l qo'yilmadi, korxonalar ma'muriy boshqaruvining saqlanib qolgan elementlarini yangi korporativ uslublar bilan almashtirish uchun yetarli shart-sharoit yaratildi. 2012–2013-yillarda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan dasturning amalga oshirilishi yangi mulkdorlar sinfini shakllanishi va xususiy sektor rivojiga turki bo'ladi. Hukumat tomonidan 2013-yilda biznesning YAIMdagi ulushini 55,8 %ga yetkazish vazifasi qo'yilgan.

**Ma'muriy islohot va davlat boshqaruvining vazifalarini nomarkazlashtirish.** XXI asr boshiga kelib, O'zbekiston MDH mamlakatlari o'rtasida birinchi bo'lib,



iqtisodiy tanazzulni yengib o'tdi va 1997-yili sanoat ishlab chiqarishi, 2001-yilda yalpi ichki mahsulot bo'yicha islohotgacha bo'lgan darajaga yetdi. Bozor iqtisodiyotining qonunchilik va institutsiyaviy asoslari yaratilgan. U xususiy mulkchilik keng rivojlangan holatda barcha mulkchilik shakllari tengligi, yangi bank tizimini shakllantirish, tovar, moliya bozorlarini erkinlashtirish, shuningdek, bozor jarayonlarini amalga oshirishga qodir yangi davlat institutlarini ta'xis etish kabi bazaviy asoslarni yaratishni o'z ichiga oladi.

O'tgan yillar joriy operatsiyalar hisobi bo'yicha milliy valyutani erkin konvertatsiyalashga o'tish iqtisodiy islohotlarda tub burilish yasadi.

Shu bilan birga jamiyat hayotini har tomonlama erkinlashtirish davlat vazifalarini mikromiqyosda, ya'ni xo'jalik yurituvchi subyektlar va hududlar darajasida ancha qisqartirishni qat'iy talab etmoqda. Bu bozor sharoitlariga ko'nikish jarayoni kechayotgan sharoitda davlat organlari korxonalar va aholining qonuniy faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri aralashuvi biznes va umuman, iqtisodiy taraqqiyot uchun tobora katta to'siq bo'lib qolayotganligi bilan bog'liq.

Masalan, sobiq tarmoq vazirliklari negizida qayta tuzilgan xo'jalik birlashmalari, ayniqsa, kadrlar siyosati, tansiq xomashyo turlarini taqsimlash borasida bir qator ma'muriy vazifalarni o'zlarida saqlab qolgan bo'lib, ular shu dastaklar orqali korxonalarining xo'jalik faoliyatiga ko'p aralashar edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 24-yanvardagi «O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyatini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-3202-sonli Farnoni korxonalarini boshqarishda davlatning ma'muriy resurslardan foydalanishdan voz kechish bo'yicha burilish davrini boshlab beradi.

Davlat boshqaruvi vazifalarini ko'plab tarmoq uyushmalari, konsern, xolding va kompaniyalarning xo'jalik faoliyati vazifalari bilan birga olib borish ham dolzarb muammolardan biridir. Bu bozorning barcha ishtirokchilariga xo'jalik yuritish uchun teng shart-sharoit yaratishga, iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarishga yordam bermadi. Chunki ko'pgina xo'jalik birlashmalari xo'jalik vazifalari bilan bir qatorda davlat boshqaruvining ayrim vazifalarini ham bajardi. Xususan, korxonalarining qonunchilikka rioya qilishga oid faoliyatini inspeksiyaviy nazorat qilish, faoliyat yuritish uchun litsenziya va boshqa turli ruxsatnomalar berish shular jumlasidan ular iqtisodiy islohotlar, xo'jalik yurituvchi subyektlar va korxonalar egalarining tashabbuslari va tadbirkorligi yo'lga g'ov bo'layotgan edi. Davlat organlari o'zlarida samarali va ochiq-oydin biznes muhitini shakllantirishga xalaqit beruvchi ko'plab ruxsat berish hamda taqsimlash vazifalarini saqlab qolgan edi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan muvaffaqiyatli rivojlanishi asosan hokimiyatning ayrim bo'g'inlari o'rtasidagi vakolatlarni cheklashga, markaziy organlarning mahalliy boshqaruv organlari bilan o'zaro munosabatlari xarakteriga bog'liq. Boshqaruv apparati a'zolarining haddan ziyod ko'pligi, vazifalarning takrorlanishi, boshqaruvning yaxshi tashkil qilinmaganligi, jamoatchilik nazoratining yetishmasligi davlat boshqaruv organlari byurokratiyani kuchayishiga, biznes rivojlanishi yo'lida turli xil to'siqlar ko'payishiga asos bo'ladi. Shuning uchun ham bugungi kunda O'zbekistonda mamlakat Prezidenti tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan ma'muriy islohot yo'nalishlaridan biri davlat boshqaruvi

tizimida vazifalarni aniq belgilab olish va nomarkazlashtirish saraladi. U ustuvor yo'nalishdir.

Davlat boshqaruvi vazifalarini nomarkazlashtirish:

– hukumatning umumdavlat ahamiyatiga molik strategik masalalarga e'tiborini kuchaytiradi. Bu davlatni boshqarish va strategik rejalashtirish samaradorligini oshirishga ko'maklashadi, markaziy boshqaruv organlari tuzilmasini va sonini optimallashtirish uchun sharoit yaratadi, ularni xo'jalik yurutuvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyatiga joriy aralashuvdan xalos etadi;

– davlat tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar (ijtimoiy ta'minot, sog'liqni saqlash, ta'lim, obodonlashtirish va hokazo sohalarda) uchun mahalliy hokimiyat organlarining mas'uliyatini oshiradi, ushbu xizmatlar turlarini ko'rsatuvchi institutlarni bu xizmatlardan foydalanuvchilarga yaqinlashtiredi. Bu esa, o'z navbatida, xizmat turlaridan foydalanish darajasini, davlat boshqaruvi tizimining sifati, ochiq-oydinligi va samaradorligini oshirishga yordam beradi;

– mahalliy hokimiyat organlarining demokratik o'rni bu organlarga mahalliy shart-sharoit va ehtiyojlarni hisobga olingan ustuvor yo'nalishlarni mustaqil belgilash hamda resurslarni taqsimlash bo'yicha vakolat berish orqali oshiradi;

– o'zini-o'zi boshqarish organlari va nodavlat, nohukumat tashkilotlarga davlat, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish imkonini beradi;

– mamlakatda fuqarolik jamiyatining shakllanish jarayonini tezlashtiradi.

#### **10.6. Davlat boshqaruvi vazifalarini nomarkazlashtirish yo'nalishlari**

Mazmuni, shakli, uslubi va ko'lamidagi farqlarga qaramasdan davlat boshqaruv organlari vazifalarini nomarkazlashtirish dunyodagi deyarli barcha mamlakatlarda amalga oshirilmoqda. Jamiyatga iqtisodiyotni boshqarishning demokratik tamoyillarini allaqachon joriy etgan, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda nomarkazlashtirishdan maqsad – davlat boshqaruvi tuzilmasini va uning vazifalarini optimallashtirish, davlat organlari ishini jamoatchilik nazoratiga olish mexanizmini yaratish, vazifalarni hukumatning quyi bo'g'inlariga, o'zini-o'zi boshqarish organlariga, xususiy sektorga berish orqali davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishdir.

Jahon amaliyotida mustaqillik darajasiga ko'ra, nomarkazlashtirishning quyidagi asosiy turlari farqlanadi:

– **gorizontal nomarkazlashtirish:** Bunda hukumat vazifalari vazirliklar va idoralarga o'tadi. Ularga Parlament va markaziy hukumat tomonidan belgilangan strategiya, standart va budgetga muvofiq davlat xizmatini ko'rsatish masalasini hal etishda erkinlik beriladi;

– **vertikal nomarkazlashtirish.** Mazkur uslubda vazifalar markaziy ijroiya hokimiyatidan davlat hokimiyatining mustaqil organlariga va joylarga o'tkaziladi. Bunda joylardagi mustaqil boshqaruv organlari qonunchilikka muvofiq tegishli xizmat turlarini ko'rsatish va moliyalash masalasini hal etish hamda strategiyasini belgilashda to'liq yoki qisman mustaqillikka ega bo'lishi mumkin;

– **markaziy boshqaruv organlarining (vazirliklar va idoralar) vazifalarin vertikal dekonsentratsiyalash.** Bu ayrim vazifalarni tegishli hududiy bo'linmalarga berish orqali amalga oshiriladi. Bunda markaziy vazirliklar va idoralarining hududiy

boshqaruv organlari o'z faoliyatini markaziy hukumat va tegishli idoralar belgilaydigan strategiya doirasida amalga oshiradi hamda odatda, davlat budjetidan moliyalashtiriladi.

**Davlat organlari va xo'jalik subyektlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida vazifalarni nodavlat tashkilotlariga o'tkazish.** O'zbekistonda ma'muriy islohot doirasida davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish davlatning boshqaruv darajalari o'rtasida vakolatlarini aniq belgilab olish va davlat vakolatining o'sib kelayotgan qismini bosqichma-bosqich o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Nomarkazlashtirish va vakolatlarni cheklashning asosiy tamoyillari quyidagicha:

– respublika davlat boshqaruv organlarida davlatning siyosiy, strategik, tartibga soluvchi va huquqni belgilovchi vazifalarini markazlashtirish;

– joriy davlat boshqaruvi ijroiya faoliyatining asosiy qismini hududiy (viloyat, tuman, shahar) darajaga o'tkazish;

– siyosiy, strategik, tartibga soluvchi vazifalarni bajarish talab etilmaydigan sohalarida davlat boshqaruvining mustaqil bo'lgan viloyat strukturalari (respublika organlari tasarrufida bo'lmagan) faoliyat yuritishi;

– davlat kundalik vazifalarini bajarish davomida aholi va xo'jalik yurituvchi subyekt bilan mustahkam aloqa o'rnatish zarur bo'lganda yoki bu faoliyat faqat idoraga qarashli hududdagi aholi manfaatlarini amalga oshirishga qaratilgan bo'lsa, masalan, uy-joy kommunal xo'jaligining ishonchli faoliyat yuritishini ta'minlash, obodonlashtirish, ta'lim, sog'liqni saqlash, kichik biznesni rivojlantirish sohalaridagi siyosatni amalga oshirishda respublika organlarining viloyat bo'g'inlari ishlab turishi;

– aholiga va xo'jalik yurituvchi subyektlarga davlat xizmatini ko'rsatish bilan bog'liq joriy ijroiya faoliyat ko'lamini keng bo'lgan hollarda respublika (viloyat) organlarining tuman (shahar) bo'g'inlari faoliyat yuritishi;

– davlat tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarni aholiga, tadbirkorlik subyektlariga, iste'molchilarga imkon qadar yaqinlashtirish (masalan, viloyat darajasida ijtimoiy va transport infratuzilmasi qurilishi, ro'yxatdan o'tkazish tamoyillari, soliqlarni to'lashni shahar va tuman darajasiga yaqinlashtirish).

Respublika davlat boshqaruvi vakolatlarini cheklash va vazifalarni nomarkazlashtirish bir necha yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi. Birinchi yo'nalish – bir paytning o'zida tarmoq boshqaruvidan funksional boshqaruvga o'tishni nazarda tutuvchi gorizontal nomarkazlashtirish.

Mustaqillik yillarida vazirliklar, birinchi galda, to'g'ridan-to'g'ri davlat boshqaruvi vazifalarini amalga oshiruvchi tarmoq idoralari soni keskin qisqardi. Respublika miqyosidagi 50 dan ortiq vazirlik va idoralar qayta tashkil etildi. Hozirgi ma'muriy islohotlar davomida hukumat qarorlariga muvofiq iqtisodiyotning turli sohalarida davlat va xo'jalik boshqaruvi vazifalarini amalga oshiruvchi 20 dan ortiq tuzilma tugatiladi va qayta tashkil etiladi.

Ma'muriy islohotlarga muvofiq respublikada saqlanib qolgan 13 ta vazirlikdan faqat 5 tasi tarmoq (sog'liqni saqlash, oliy va o'rta maxsus ta'lim, xalq ta'limi, madaniyat va sport, qishloq va suv xo'jaligi) vazirligi, 11 ta davlat qo'mitasidan 3 tasi tarmoq qo'mitasi (geologiya va mineral resurslar, arxitektura va qurilish) hisoblanadi.

Tarmoq vazirlarlari va davlat qo'mitalari asosan bozor mexanizmlari samarasiz bo'lgan

sektorlar faoliyatini tartibga soladi.

Davlat iqtisodiy boshqaruvining asosiy dastaklari iqtisodiyot vazirligi, Tashqi

iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Moliya vazirligi, Mehnat va aholini

ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish

davlat qo'mitasi, Davlat mulk qo'mitasi kabi ish faoliyatini umumiy davlat

manfaatlari nuqtai nazaridan yondashgan hoida strategik vazirlarni hal etishga

yo'naltirilgan funktsional tarmoqlar va markaziy idoralarga berilgan. Davlat boshqaruv

organlarini isloh qilish jarayonida saqlanib qolgan vazirliklar va qo'mitalar nizomini

tasdiqlash davomida davlat boshqaruvining muhim bo'lgan nuqati o'rnatilishi va

nuqatli-ijroiya vazirlari o'zgaradi. Agentliklarga asosan egalik qilish va iro etish

vazirlari, inspeksiylarga – g'ovunchilik ijtisoziyuzasidan kuzatish va nazorat qilish

vazirlari yuklatiladi.

**Ikkinchi yo'nalish – davlat va xo'jalik boshqaruvi vazirlarining bo'linishi.**

1997-yildan boshlangan islohotlar davlat boshqaruv tizimini isloh qilish, xo'jalik va

davlat boshqaruvi vazirlarini taqsimlash jarayonini tugallashga qaratilgan. Shunday

qilib, boshqaruv bo'linishi xo'jalik bitlashlari nazorat ishlari bilan o'ziga mustaqil

qilinadi. Bu barcha nazorat-tartib boshqaruv idoralari tugatish (ular o'ziga mustaqil

auditorlik kompaniyalari rivojlanadi), O'zmiroyo'nalish, Aviazorot, Davlat

avtomobil va daryo transporti agentligi) kabi maxsus inspeksiylarni tuzish orqali

amalgama oshirildi.

**Uchinchi – vertikal tarmoq dekonstruksiya.** Bu jarayon respublika

organlari vazirlarining bir qismini quyi tuzilmalarga, jumladan, xususiy sektorga berish

orqali amalga oshirildi. Hukumat markaziy apparat tarmoqlar va korxonalarining joriy

munamolarini hal etish bilan band. Bu hoi strategik boshqaruv masalalari sifatida

ishlab chiqish, xo'jalik subyektlari mustaqilligini oshirish, davlat boshqaruvi va

korxonalarining quyi bo'linishlarida boshqaruvni qayta tuzish, davlat boshqaruvi va

yo'qotishga yordam bermaydi. Davlat boshqaruvini nomarkazlashirish jarayonida quy

davlat organlariga davlat mulkini boshqarish va tartibga solish, ijtimoiy xizmalarni

ko'rsatish va nazorat qilish vazirlari beriladi. Masalan, o'z davlatda tugatilgan

Kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi vazirlarining bir qismi O'zkomunxizmat

agentligiga berilgan. Tugatilgan vazirlikning ko'pgina vazirlari mahalliy hokimiyat

organlariga, xususan, xususiy sektorga olib berilgan, O'zbalta, O'zparandaxizmat

O'ztransport, O'zmasxizmat, O'zqozg'ozmasxizmat kabi tugatilgan yuzashtala

tizimiga kirgan korxonalarni bugungi kunda aksiyadorlarning o'zlarini boshqarimog'ida.

**To'rtinchi – resurslarning markazlashirish va taqsimotini tugatish.** Mayjuz

taqsimlash tizimini bekor qilmasdan davlat va xo'jalik boshqaruv organlarining

korxonalar faoliyatiga aralashuvini nomarkazlashirish va qisqartirish bo'lmaydi. Garchi

O'zbekistonidagi markazlashirish tizimi asosan, iqtisodiy islohotlarning il

boshqarilgan bo'lsa-da, biroq, resurslarning alohida strategik turlar

(paxta, mineral o'g'itlar, rangli metallarning ayrim turlari, kabel o'kalgichlari

masjullar, oziq-ovqat tovarlari) bo'yicha eskicha taqsimot mexanizmi amal qilavardi

korruptsiya uchun zamin yaratildi.

Aynan shuning uchun Respublika Prezidenti I.A. Karimovning tashabbusi bilan taqsimot tizimidan butunlay voz kechish va mahsulotlarni sotishning bozor mexanizmini joriy etish ma'muriy islohotlarning muhim yo'nalishi deb belgilandi. 2003-yil kuzida paxta tolasini sotishning taqsimlash tizimi o'rniga birja savdosi tizimi yuzaga keldi. Hozirda tadbirkorlar birja va yarmarka savdo tarmog'i orqali bir-birlari bilan teng sharoitlarda raqobatlashgan holda ko'pgina xomashyo va mineral resurslarni, jumladan, neft mahsulotlari, meneral o'g'it, qora va rangli metall, o'simlik yog'i, bug'doy, un, shakar va hokazolarni sotib olishlari mumkin.

**Beshinchi – vazifalarning bir qismini respublika markazidan joylardagi davlat boshqaruv organlariga o'tkazish.** Hozirda mintaqalar mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tobora faol subyektlar bo'lib bormoqda. Mahalliy miqyosda ilgari o'z yechimini faqat markazda topgan katta va jiddiy masalalar ham hal etilmoqda.

Joylardagi davlat hokimiyati organlari o'z faoliyatini yanada ko'proq quyidagi asosiy vazifalarni bajarishga qaratmoqdalar:

- ijtimoiy siyosatni, jumladan, ta'lim, sog'liqni saqlash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasida amalga oshirish;
- uy-joy kommunal xo'jaligining ishonchli va samarali ishlashini hamda idoralarga qarashli aholi punktlari obodonchiligini ta'minlash;
- xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay muhit, aholi bandligini kengaytirish va barqaror daromad manbaini shakllantirish uchun zarur sharoit yaratish;
- yer-suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash;
- bevosita xo'jalik subyektlarining joylashgan o'rni va aholining yashash joyiga ko'ra, biznesga oid tartib-qoidalarini amalga oshirish;
- fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari hamda fuqarolik jamiyati tuzilmasining samarali faoliyat yuritishiga ko'maklashish.

Keyingi yillarda olib borilayotgan nomarkazlashtirish chora-tadbirlari mahalliy hokimiyat organlarini markazdan olib boriladigan vakolatlarni qabul qilishga tayyorlashdan tashqari ma'muriy hududlarni boshqarish tuzilmasini optimallashtirishni ham nazarda tutadi. Xususan, o'tgan yillarda 8 ta tuman hokimiyatlari va shunga muvofiq ular tasarrufidagi idoralar bo'linmalari tugatildi. Mahalliy hokimiyat organlarining moliyaviy bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari ko'rilmogda. Bu, birinchi galda, budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish, iqtisodiyotni rivojlantirish, mahalliy organlar daromadlarini shakllantiruvchi soliq solinadagan bazalarni ko'tarish hisobiga amalga oshiriladi. Ayni paytda davlat boshqaruvi vazifalarining bir qismini markazdan mintaqalarga o'tkazish, joylarda mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan bog'liq masalalarni mustaqil hal eta oladigan davlat xizmatchiligining malakali tarkibini shakllantirishni talab etadi. Shuningdek, hokimlar o'zlariga ishonib topshirilgan hududni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan yillik va o'rta muddatli dasturlarning amalga oshirilishi yuzasidan hisobotlarni aholi oldida berishi, xususan, ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilishi juda muhimdir.

**Oltinchi – davlat hokimiyati vazifalarini fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga berish.** Mahalliy hokimiyat organlarining fuqarolarning

o'zini-o'zi boshqarish organlari (manama, fuqarolar yig'ini) bilan o'zaro munosabatlari yangicha ahamiyat kasb etmoqda. O'zini-o'zi boshqarish organlarining an'anaviy shakli bo'lgan va davlat boshqaruvi tizimiga kirmaydigan mahallalar tobora ko'proq vakolatlarga ega bo'lib bor. Ular an'anaviy vazifalarni bajarish bilan bir qatorda kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalarga moddiy yordam ko'rsatish hamda ijtimoiy nafaqa berishni amalga oshiradi, shuningdek, kommunal va boshqa to'lovlarni yig'ishda, hududning sanitariya holatini saqlash va obodonchiligini ta'minlashda tegishli xizmat idoralariga ko'maklashadi.

**Yettinchi – vazifalarni davlat boshqaruv organlaridan nodavlat, notijorat tashkilotlarga o'tkazish.** O'zbekistonda nohukumat tashkilotlar tez o'sib kelayotgan ijtimoiy sektor hisoblanadi. Yaqin istiqbolda ularni muhim ijtimoiy-siyosiy vazifalarni hal etishda, jumladan, jamiyat salohiyatini oshirish va qo'llab-quvvatlash borasida mahalliy hokimiyatning teng huquqli hamkori sifatida ko'rish mumkin. Masalan, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari, uy-joy mulkdorlari shirkatlari, suvdan foydalanuvchilar uyushmalari, buxgalterlar uyushmalari kabi nohukumat tashkilotlarning faoliyati bunga misol bo'la oladi. Davlat hozirda ilgari turli davlat tuzilmalari bajargan muhim vazifalarni ularga yukladi.

### **10.7. Ikki palatali parlament va siyosiy partiyalarning o'rni**

Mustaqillik davrida O'zbekiston siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida ulkan ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi: ichki va tashqi siyosat barqarorlashdi, davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarining demokratik tizimi shakllandi. Endilikda qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlarini, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, davlat hokimiyatini taqsimlash nazariyasi, demokratiya va ijtimoiy adolat tamoyili asosida isloh qilish izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

Oliy Majlisga va Xalq deputatlari mahalliy kengashlariga ko'ppartiyaviylik asosida o'tkazilgan demokratik saylovlar, parlamentimizning professional jihatdan takomillashtirilishi, birinchidan, davlatimizning xalqaro miqyosdagi obro'siga obro' qo'shdi, ikkinchidan, bu yurtimizda chinakam demokratik tamoyillar qaror topayotganligidan dalolat bermoqda.

2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan umumxalq referendumini natijasida Yurtboshimizning respublikamizda ikki palatali parlamentni tuzish to'g'risidagi tashabbusi qo'llab-quvvatlandi. Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning sakkizinchi sessiyasida bo'lg'usi parlamentning yuqori palatasi – Senat va quyi pog'onasi – Qonunchilik palatasini shakllantirish hamda ular faoliyatining asosiy tamoyillari belgilab olindi. «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonun, bundan tashqari, o'sha yil 12-dekabrda «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida»gi va «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida»gi qonunlar qabul qilindi. Asosiy qonunimizga muvofiq endilikda Qonunchilik palatasi ko'ppartiyaviylik asosida besh yil muddatga saylanadigan 120 deputatdan iborat bo'lib, ularning vazifasi palata deputatlarining professional doimiy faoliyat ko'rsatishiga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati (yuqori palata) hududiy vakillik palatasidir. Senat a'zolari (senatorlar) Qoraqalpog'iston Jo'qorig'i Kengesi,

viloyatlar, tumanlar va shahar davlat hokimiyati vakillik organi deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin<sup>1</sup> ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda – olti kishidan saylanadi. Senatning 16 nafar a'zosi turli sohalarida katta amaliy tajribaga ega eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi. Senatning vakolat muddati – 5 yil.

Qonunchilik palatasiga saylov va Senatni shakllantirish tartibi 2003-yil 29-avgustda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi yangi tahrirdagi qonunda, xususan, uning 44,46,49 hamda 50-moddalarida belgilangan.

Ikki palatali parlament shakliga o'tish O'zbekiston Respublikasining siyosiy parlament demokratiyasi tamoyillari qaror topishini, fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishini anglatadi. Bunda bir tomondan o'tgan davr mobaynida Oliy Majlisda qaror topgan eng yaxshi amaliyot, ikkinchi tomondan esa, davlat hokimiyati oliy vakillik organlarini tashkil etishdagi eng ilg'or xorijiy tajribalar e'tiborga olinadi.

Ikki palatali professional parlamentlar murakkab tuzilishga ega federativ davlatlarda, jumladan, AQSH, Germaniya, Shveysariyada mavjud, shuningdek, dunyoning ko'pgina unitar, ya'ni markazlashgan davlat tuzilishiga ega mamlakatlarida ham faoliyat yuritmoqda. Bularga Fransiya, Italiya, Ispaniya, Yaponiya, Malayziya kabi davlatlarni misol keltirish mumkin. Bunday parlamentlar palatalarining aksariyati Senat deb ataladi. Ammo boshqa mamlakatlarda boshqacha nom bilan atashadi. Masalan, Avstriyada – Federal Kengash, Hindistonda – Shtatlar Kengashi deyiladi.

Ikki palatali qonun chiqaruvchi organni tashkil etish g'oyasining ro'yobga chiqarilishi O'zbekiston parlamentiga o'zida ijtimoiy manfaatlarni uyg'unlashtirish va ularni oshkora ifodalash imkonini beradi. Bu Oliy Majlisni shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etuvchi xalq minbariga, ijtimoiy murosa, jamiyatning turli siyosiy kuchlari o'rtasida manfaatlar muvozanatini topish quroliga aylantiradi. Parlament jamoatchilik fikrini faol aks ettirib va unga ta'sir ko'rsatib, tobora ijtimoiy hayot markaziga aylanadi.

Parlament ishi samaradorligi ko'p jihatdan uni shakllantirgan hamda aholi muayyan guruhleri va tabaqalari manfaatlarini ifodalovchi siyosiy kuchlar tarkibi va o'zaro nisbatiga bog'liq bo'ladi. Darhaqiqat, parlament mamlakatimiz siyosiy hamjamiyatini nafaqat to'laligicha, balki, mavjud xilma-xilligicha aks ettiradigan institutga aylanadi.

O'zbekistonda ikki palatali parlamentning tuzilishi xalqning o'z xohish-irodasini yanada to'laroq ifoda etishiga, qonun ijodkorligi faoliyati rivojlanishi uchun qulayroq sharoitlar yaratilishiga imkon beradi. Mamlakat qonun chiqaruvchi oliy organida demokratiya va fikrlar xilma-xilligi kuchayib, milliy davlatchilik institutlari tizimida uning salmog'i yanada ortib borishiga zamin yaratadi<sup>1</sup>.

Demokratiyaning eng muhim belgilaridan biri – hokimiyat vakillik organlarini ko'ppartiyaviylik asosida shakllantirishdir. Bu, so'zsiz, siyosiy partiyalarning jamiyat siyosiy tizimiga ega ekanligidan dalolat beradi. Ammo siyosiy institutlarning bunday darajaga erishishlari oson kechmaydi. Chunki har bir siyosiy partiya butun faoliyati davomida tayyorgarlik ko'rib borishi uning saylovlarda ishtirok etishi va

<sup>1</sup> Abzalov E. // Xalq so'zi, 2004-yil 14-iyul.



muvaffaqiyatlarga erishishida qo'l keladi. 2004-yil dekabr oyi oxirida Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga va mahalliy kengashlarga saylovlar bo'lib o'tdi.

«O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi qonuning 27-moddasiga ko'ra, deputatlikka nomzodlar Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro'yxatga olingan kundan e'tiboran saylovoldi tashviqotini boshlaydilar. Siyosiy partiyalar, nomzodlar va mustaqil tashabbuskorlar guruhlarining ommaviy axborot vositalaridan teng me'yorda foydalanish tartiblarini Markaziy saylov komissiyasi belgilaydi. Nomzodlarning saylovchilar bilan uchrashuvlari uchastka saylov komissiyasi tomonidan ularning barchasi uchun mutlaq teng sharoitlarga riya etilgan holda tashkil etiladi. Bu haqda saylovchilar barvaqt xabardor bo'lishi ham qonunchilikda belgilab qo'yilgan. Mahalliy hokimiyat organlari va jamoat tashkilotlari, shuningdek, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari deputatlikka nomzodlar bilan uchrashuvlar uyushtirilishi uchun jihozlangan binolar ajratishlari, ular zarur ma'lumot va axborot materiallarini olishlariga yordam ko'rsatishlari shart.

Saylov davomida siyosiy partiyalarga o'z dasturlari bilan chiqish huquqi beriladi. Shu o'rinda bu huquqning me'yorlarini eslatib o'tish joiz: siyosiy partiyalar va deputatlikka nomzodlarning dasturlari davlat suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga qarshi qaratilmasligi, xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qilmasligi, ularda urush, milliy, irqiy va diniy adovat targ'iboti, Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishga, fuqarolarning Konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini kamsituvchi xatti-harakatlarga da'vat bo'lmasligi lozim.

Qonunchilik palatasini shakllantirishda siyosiy partiyalarning o'rni saylov natijalari bilan cheklanib qolmaydi. Xususan, «Oliy Majlis Qonunchilik palatasi reglamenti to'g'risida»gi qonunga binoan, palata spikeri va uning o'rinbosarlarini saylashda nomzodlar oqsoqollar kengashi tomonidan qoida tariqasida eng ko'p deputatlik o'rini egallagan siyosiy partiyalar yoki saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan saylangan deputatlar orasidan ko'rsatiladi. Demak, saylovlarda eng ko'p nomzodlari saylangan siyosiy partiyalar deputatlari hatto palata spikerligi va uning o'rinbosarligiga saylanishlari mumkin. Bundan tashqari, siyosiy partiyalar o'z partiyalaridan ko'rsatiladigan deputatlar tomonidan partiya manfaatlarini quyi palatada ifodalash maqsadida fraksiyalarni tashkil etadilar. Siyosiy partiyalarning parlamentdagi eng asosiy kollegial ishchi organi bo'lgan fraksiyalar Qonunchilik palatasi tomonidan ro'yxatga olinganidan keyin O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari doirasida ish olib boradilar.

Hozirgi kunda Oliy Majlisda Xalq demokratik partiyasi, Fidokorlar milliy demokratik partiyasi, «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi va «Adolat» sotsial-demokratik partiyasining fraksiyalari faoliyat ko'rsatmoqda. Ular Oliy Majlis Kengashi va qo'mitalari bilan uzviy aloqada bo'ladi.

Oliy Majlisning keyingi chaqiriqdan ikki palatali parlament shaklida faoliyat ko'rsata boshlaganini hisobga olsak, bundan keyin quyi palatadan siyosiy partiyalar fraksiyalariga talab ancha o'zgaradi. Chunki tashabbuskor guruhlardan saylangan deputatlardan tashqari deputatlar siyosiy partiyalardan ko'rsatilgan nomzodlar orasidan saylanadi. Siyosiy partiyalar tomonidan fraksiyalar tashkil etish masalasi bevosita saylov natijalariga borib taqaladi. Negaki, «Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi



reglamenti to'g'risida»gi qonunning 9-moddasiga ko'ra, fraksiya bir siyosiy partiyadan kamida to'qqiz nafar deputat tomonidan tuzilishi mumkin.

2004-yil parlament saylovlarida nafaqat Oliy Majlisda fraksiyalari faoliyat ko'rsatayotgan to'rtta siyosiy partiya, balki yosh siyosiy partiya sanalmish Tadbirkorlar va ishbilamronlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi ham faol ishtirok etdi. Saylovlar siyosiy partiyalar o'rtasida keskin kurash bilan o'tishidan, kuchli raqobat yuzaga kelishidan dalolat beradi. Biroq shuni unutmaslik kerakki, parlament quyi palatasini shakllantirishda bizning ham o'rnimiz bor. Bu har bir saylovchining siyosiy jarayonda ongli ravishda munosib nomzodlargagina ovoz berishidir<sup>3</sup>.

### **Qisqacha xulosalar**

Shunday qilib, iqtisodiyotni erkinlashtirish islohotlarning hozirgi bosqichida davlat boshqaruvi samaradorligi va ochiq-oydinligini oshirishga yordam beradigan hokimiyatni nomarkazlashtirish jarayonini faollashtirilishini talab etladi. Aynan shu bois, mamlakatimiz Prezidenti mazkur ma'muriy islohotlarning tashabbuskori va g'oyaviy rahbari sifatida kun tartibiga o'ta muhim masalani qo'ygan edi. Bu masalaning mohiyati shundan iboratki, bozor islohotlari jarayoni davlat hokimiyatining xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatishi ma'muriy dastaklarini tuzish, qarorlar qabul qilishda joylardagi ijroiya va vakillik organlari vakolatlarini oshirish, davlat tomonidan berilgan vazifalarni amalga oshirish uchun fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini kadrlar bilan ta'minlash, fuqarolarning siyosiy faoliyatini va tashabbuskorligini oshirish bilan o'tkazilishi lozim. Ikki palatali parlament shakliga o'tish O'zbekiston Respublikasining siyosiy parlament demokratiyasi tamoyillari qaror topishini, fuqarolik jamiyati rivojlanishini anglatadi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Merkotolizm siyosatini qanday izohlaysiz?
2. Keys g'oyalari nimalardan iborat?
3. O'zbekistonda iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida davlat boshqaruvinu isloh qilishni qanday tushunasiz?
4. Ma'muriy islohotlar, iqtisodiy taraqqiyot omilini qanday izohlaysiz?
5. Xorijiy davlatlarda boshqaruv apparatini qisqartirish va takomillashtirish yo'llari amaliyoti nimalarni o'z ichiga oladi?
6. Boshqaruv organlari tizimini takomillashtirishda qanday usullardan foydalanilmoqda?
7. Davlat boshqaruvinu cheklash va uning vazifalarini nomarkazlashtirish nimalarga asoslanadi?
8. O'zbekistonda davlat boshqaruvi vazifalarini nomarkazlashtirish usullari nimalardan iborat?
9. MDH davlatlarida boshqaruv xodimlari soni qancha?
10. Ma'muriy islohotlarning ustuvor jihatlarini nimada?
11. Ikki palatali parlamentni qanday izohlaysiz?
12. Senat va Qonunchilik palatasi a'zolarining farqi nimada?

<sup>3</sup> Ashmedov D. Qonunchilik palatasi, 2004-yil 17-sentabr.

13. Qonunchilik palatasida nechta partiya vakillari o'z fraksiyalariga ega?

#### Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I. "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi" // Xalq so'zi, 2014-iy 18-yanvar.

2. Karimov I. A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi // Xalq so'zi. 2011-yil 22-yanvar.

3. Ishmuxamedov A.E va boshqalar. Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari. Darslik – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005.

4. Yo'ldoshev Z. Milliy iqtisodiyot. -T.: Mehnat, 2004, 168-b.

5. Ishmuxamedov A.E. O'zbekiston milliy iqtisodiyoti. Darslik – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. - 304 b.

6. Ishmuxamedov A.E. va boshqalar. Makroiqtisodiyot . Darslik – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005.- 192 b.

7. Tuxliyev N. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. -T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 280 b.

8. Internet veb-saytlari.

[www.gov.uz](http://www.gov.uz).

[www.pressservice.uz](http://www.pressservice.uz).

[www.pca.uz](http://www.pca.uz).

[www.micro-macroiqtisodiyout.fan.uz](http://www.micro-macroiqtisodiyout.fan.uz).

## II-bob. DAVLAT MOLIYASI, KREDIT VA SOLIQ-BUDJET DASTAKLARI

### II.1. Moliya va bank tizimi

Mamlakat iqtisodiyoti va valyuta operatsiyalarini erkinlashtirish izchil ravishda olib borilayotgan jarayondir. Shu sababli respublikamizning bank institutlariga xalqaro talablarga javob beruvchi ishonchlilik va to'lov qobiliyati bo'yicha sifat jihatidan yangi talablar qo'yilmoqda.

«Axborot-reyting» banklararo reyting kompaniyasi o'zining reyting metodikasini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari moliyaviy faoliyatini reyting asosida baholashning yangi metodikasini ishlab chiqdi. Bu metodika tijorat banklari moliyaviy faoliyatini tahlil etishning xalqaro andozalarini o'rganishga asoslangan bo'lib, ularning moliyaviy faoliyati natijalarini baholashga yanada qat'iy talablar qo'yadi.

Reyting usulida baholashni boshlashdan avval banklarning moliyaviy ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki belgilagan me'yorlarga mos kelishi tekshiriladi. Bankning moliyaviy faoliyati natijalari belgilangan ko'rsatkich bilan taqqoslanadi. So'ng banklar berilgan baholarga ko'ra, tartibga solinadi va moliyaviy faoliyatlarini ko'lamiga mos ravishda uchta guruhga ajratiladi. Shuningdek, reyting ko'rsatkichlari qatoriga yangi ko'rsatkich – bank aktivlarining sifati ko'rsatkichi kiritildi. Ushbu ko'rsatkich bank aktivlari bo'yicha ehtimolda tutilgan qaltisliklar darajasini ta'riflaydi. Yana bir yangilik – «Kapital yetarlligi», «Aktivlar sifati» va «Likvidlilik» ko'rsatkichlari bitta umumiy ko'rsatkichga – «Bankning ishonchlligi» ko'rsatkichiga birlashtirildi.

2013-yildagi moliyaviy faoliyat yakunlari bo'yicha kompaniyaning umumrespublika reytingida O'zbekistonning 31 ta tijorat, 2054 ta mini, 1148 ta maxsus kassa banki ishtirok etdi. O'zining axborot «shaffoligi» va ochiq raqobatga tayyorligini namoyish qiluvchi banklar qatoriga «O'T-bank» o'zbek-turk qo'shma banki qo'shildi.

Bank tizimini yanada isloh etish bo'yicha chora-tadbirlar izchil amalga oshirilishi sababli tijorat banklarining umumiy kapitali hajmi oshib bormoqda. Buning natijasida, ilgari kichik banklar guruhiga kirgan 3 ta bank o'rta banklar guruhiga o'tdi. O'rta banklar guruhidagi banklar miqdorining oshishi natijasi o'laroq, biz ushbu guruh yetakchilari ro'yxatida bir yo'la 5 ta bankni ko'rsatishga qaror qildik.

Shuni ta'kidlash lozimki, bu banddan avvalgi reytinglarda banklar o'zlarining yakuniy ko'rsatkichlarini yetakchi bank ko'rsatkichlaridan qay darajada farq qilishiga bog'liq ravishda tartibga solingan bo'lsa, ushbu reytingda bu ko'rsatkichlari maxsus belgilangan ko'rsatkichlardan qay darajada farq qilishiga qarab tartibga solinadi. Agarda bank faoliyatining barcha yo'nalishlari bo'yicha ilg'or bo'lish qay darajada qiyin ekanligini e'tiborga oladigan bo'lsak, hatto reyting ro'yxatining oxiridagi banklar ham diqqatga sazovordir. Bizning bank faoliyatini baholashga qo'ygan qat'iy talablarimizga qaramay, ushbu banklar o'z faoliyatlarini natijalari bo'yicha ijobiy ball oldilar va o'z mijozlari va aksiyadorlari ishonchini oqlamoqdalar.

O'zMB va tijorat banklari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari haqidagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, respublikada 2013-yil yanvar holatiga ko'ra, 31 ta

tijorat, 2054 ta minibank faoliyat yuritmoqda, joylarda ularning 805dan ortiq filiali xizmat ko'rsatmoqda. Bu banklarning nizom fondlari yildan-yilga oshib bormoqda. 2013-yilda 1995-yildagiga nisbatan nizom fondlari milliy valyuta – so'mda 300 marta oshgan.

Bu 2008-yildagidan 827taga ko'pdir. 2013-yil natijalariga ko'ra, banklarning yalpi kapitali 4,17 %ga ortdi va 2013-yil yanvarda 1503 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunga banklarni kapitalizatsiya qilish darajasining ortganligi, yangi aksionerlarning jalb qilinishi, jumladan, jismoniy shaxslarning banklar ustav fondlarida qatnashishi sabab bo'ldi. Bunga 2007-yilning 26-fevralida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining banklar ustav jamg'armasida yagona aksioner yoki aksionerlar guruhining ulushi yuqori darajasini 7 % dan 25 %gacha oshirish borasidagi qarori ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Istiqbolda bank va moliya tashkilotlarini isloh qilishga e'tibor qaratiladi, jumladan, g'aznachilikni tashkil etish, banklarni xususiy lashtirish va yangilarini ochish, kredit portfelli sifati yaxshilash va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish mo'ljallangan.

2007-2013-yillarda fermerlarga respublikaning 8ta hududida tijorat banklari tomonidan kreditlar berish amalga oshirildi. 2008-yildan boshlab esa, ushbu tizimga qolgan hududlar ham jalb etildi. Bunga qo'shimcha ravishda tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklarini kelasi yil hosili va yer maydonining ijara huquqini garovga qo'yish bo'yicha kreditlash mexanizmi ishlab chiqilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, kreditlarni ta'minlashning yangi – garov mexanizmi fermer xo'jaliklari qarz mablag'laridan keng foydalanishga imkoniyat yaratdi.

Respublika uy-joy va kommunal xo'jaliklarini isloh qilish, jumladan, uy-joy qurishni jadallashtirish maqsadida «O'zuyjoyjamg'armabank» va «Zaminbank» asosida «Ipoteka-bank» vujudga keldi. Ipoteka kreditlar Fondi chet el kreditlari bilan birga davlat budjetidan 2 mlrd. so'm hisobiga ishlaydi va quyidagi talablarga asoslanadi: qurilayotgan import va yerni garovga qo'yish; 15 yil muddatga dastlabki 2 yil imtiyozli kreditlar berish; kredit uchun to'lovlar yiliga 5 %dan oshmaydi va birinchi to'lov qurilish narxlarining 20 %ini tashkil etadi. Rossiyada birinchi to'lovning eng ko'p tarqalgan turi miqdori 30 %ni tashkil qiladi.

### 11.2. Milliy iqtisodiyotni soliqlar tizimi orqali tartibga solish asoslari

Avvalo, soliq tizimi va soliqlar tizimining farqini aytib o'tish zarur. Soliq tizimi mohiyati jihatidan bir xil bo'lgan va markazlashgan pul fondiga tushadigan soliq turlarining yig'indisidir. Qonun chiqaruvchi idoralar tomonidan belgilangan va ijrochi idoralar tomonidan undiriladigan soliqlarning tashkil etish usullari, elementlari va tomonlari yig'indisi soliqlar tizimi deb ataladi. Demak, bu o'rinda tizim iqtisodiy kategoriyani o'rganishni, soliqlar tizimi esa soliq undirishni tashkil etish masalalarini o'z ichiga oladi. Soliqlar tizimining roli va tuzilishi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi bilan aniqlanadi. O'zbekistonning soliqlar tizimi o'z mazmuniga ko'ra, soliq elementlari, ularni tashkil etish bilan bog'liq tomonlar va usullarni o'rganadi. Soliq elementlariga «soliq birligi», «soliq og'irligi», «soliq yuk» kabi tushunchalar kiradi. Soliqlar tizimi birligi – obyektlarning o'lchov birligi hisoblanadi. Bu daromad solig'ida so'm, yer solig'ida fuqarolar uchun ot kuchi yoki

notorning quvvatidir. Soliq stavkasi – obyektning har bir birligi uchun davlat tomonidan belgilab berilgan soliq me'yoridir.

Soliq stavkasi ikki xil usulda: qat'iy stavkalarda - summalarda va nisbiy stavkalarda- foizlarda ifodalanadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish va inflyatsiya sharoitida nisbiy stavkalarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bunday holda budjet inflyatsiyadan o'p mablag' yo'qotmaydi. Agar stavka summalarda hisobga olinsa, soliqlardan ushgan budjet daromadi yil oxiriga borib iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lmay qolishi mumkin.

Soliq og'irligi – to'lovchining hamma soliqlar va yig'imlar yig'indisini budjetga o'lashidir. Soliq og'irligi foydaga yoki jami daromadga nisbatan olinadi. Mamlakat miqyosida hamma to'langan soliq va yig'imlarning yalpi ichki mahsulotdagi salmog'i jami soliq og'irligini ifodalaydi. Ma'lumotlarga qaraganda, O'zbekiston hududlarida budjet ta'minoti kishi boshiga 42 so'mga oshgan. Bu boradagi ko'rsatkich Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo, Jizzax viloyatlarida past bo'lsa, Toshkent ahrida 2-3 baravar yuqoridir.

Agar soliq to'lovchi soliqlarni to'g'ri to'lagan bo'lsa, unga soliq og'irligi mos keladi. Ba'zan korxonada egri soliqlar bo'lib, uning huquqiy to'lovchilari korxonada nisoblansa-da, soliq og'irligi iste'molchi, ya'ni aholi zimmasiga tushadi. Oxirgi iste'mol qiluvchilar aholi bo'lganligidan egri soliqlar bo'yicha soliq yukini ko'taruvchilar ham aholi hisoblanadi. Bu borada egri soliqlar hisobiga aholi real daromadlarining biroz bo'lsada pasayish hollari uchraydi.

**Soliq stavkalarining turlari.** O'zbekiston soliq qonunchiligi bo'yicha soliqlarning proporsional, progressiv va nolinchi stavkalariga amal qilinmoqda. Shuningdek, 1995-yildan boshlab regressiv stavka ham kuchga kirgan.

**Proporsional soliq stavkasida** obyekt qanday bo'lishidan qat'i nazar, bir xil ulushdagi proporsiya bo'yicha soliq to'lanadi. Masalan, qo'shimcha qiymat solig'i bo'yicha asosiy mahsulotlarga, ishlar va xizmatlarga 20 %li stavka belgilangan bo'lsa, aylanma mablag'lar 10 ming so'm bo'lsa ham, 100 ming so'm bo'lsa ham, 1 mln. so'm bo'lsa ham 20 % soliq to'lanadi yoki mol-mulk solig'ida huquqiy shaxslarning asosiy fondlari qiymatidan yiliga 4 foizdan, aniqrog'i, qiymat qanday bo'lishidan qat'i nazar yagona stavkada soliq olinadi. Bu stavka hamma soliq to'lovchilar uchun bir xil belgilanadi.

**Progressiv soliq stavkasida** daromad, obyekt ko'payishi bilan bog'liq holda stavka ham oshib boradi. Bu tartib soliq qonunchiligimizda faqat fuqarolarning daromad solig'ida qo'llaniladi. Minimal ish haqining 3 barobariga teng qismiga 15 % , undan oshganda yana 2 karrali qismiga 45 % soliq to'lanadi. Bu stavkaning qo'llanilishi xodimlarni va ishchilarni ko'proq daromad olishga, mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmaydi. Bunday stavkani qo'llashdan maqsad pul inflyatsiyasini jilovlab, so'mning qiymatini oshirish, budjetga ko'p mablag' tushirishdir.

1998-yildan soliqlar tortish jarayonini tashkil qilish amaliyotida chet ellar tajribasiga tayanila boshlandi, qo'shimcha qiymat solig'i bo'yicha nollı stavka qo'llaniladigan bo'ldi. Bunda eksportga yuboriladigan tovarlarga, qishloq xo'jaligi uchun yoqilg'i-moylash ashyolari va o'g'itlarga soliqlar tortish nollı stavkadan boshlanadi, aniqrog'i, bu mahsulotlarga soliq to'lamaslik joriy etildi. Qizig'i shundaki, ilgari ham shu mahsulotlarga qo'shimcha qiymat solig'i solinmas edi. Biroq ularni

ishlab chiqarish uchun sarflangan xomashyo, yonilg'i, elektr quvvati uchun mahsulot yetkazib beruvchilarga qo'shimcha qiymat solig'i solinar edi. Nolli stavkada bu mahsulotlar uchun qo'shimcha qiymat solig'i summasi boshqa tovarlar tushumi bo'yicha olinadigan qo'shimcha qiymat solig'i summasi bo'yicha hisoblanib kamaytiriladi. Demak, bu yerda qo'shimcha qiymat solig'i betaraf soliq xizmatini o'taydi va iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

*Regressiv soliq stavkasida* daromad yoki boshqa soliq obyektini oshib borgan sari soliq stavkasi kamayib, ko'proq daromad olishni yoki mahsulot ishlab chiqarishni talab qiladi. Eksport uchun tovarlar ishlab chiqarib, qat'iy valyutalarda tushumga erishganlar iqtisodiy jihatdan raqobatga yo'naltiriladi: ishlab chiqargan mahsulotining 30 % dan ko'prog'i sotilsa, ularga soliq stavkasi 50 % kamaytiriladi.

2012-yilda korxonalar mahsulot ishlab chiqarish hajmining kamaytirilgan har foizi uchun 0,3 %dan soliq to'laganlar. O'sha vaqtda korxonalar mahsulot ishlab chiqarish hajmini 20 %ga qo'shimcha tarzda oshirsa, soliq foizidan ozod bo'lishi mumkin edi. Demak, regressiv va nolli soliq stavkalari iqtisodiyotni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Soliq imtiyozlari deganda, soliq to'lovchilarni soliq va yig'implarni to'lashdan qisman, vaqtinchalik va to'liq ozod etish tushuniladi. Imtiyozlar to'g'ridan-to'g'ri to'lanadigan soliq summasidan berilishi mumkin. Aytaylik, korxonalar bolalar kiyim-kechaklari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'lsa, daromad (foyda) solig'ini 35 % o'rniga atigi 10 % to'laydi. Bu, soliqdan qisman ozod qilishga ham kiradi. Imtiyozlar vaqtinchalik ham bo'lishi mumkin. Jumladan, dehqon va fermer xo'jaliklari tashkil etilgan davrdan boshlab ikki yilga daromad solig'i to'lashdan ozod etiladi. Soliq qonunchiligimizda soliq to'lashdan to'la ozod qilish hollari ko'p uchraydi. Masalan, ishchi-xizmatchilarning 50 % dan ko'prog'ini nogironlar, mehnat faxriylari tashkil etsa yoki 75 % dan ko'prog'i o'rta maktab va maxsus bilim yurti talabalaridan iborat bo'lsa, korxonalar qo'shimcha qiymat solig'i, daromad (foyda)ga soliq va boshqa soliqlardan tamomila ozod qilinadi.

Xorijiy mamlakatlarning vakolatxonalarida va elchixonalarida ishlovchi chet ellik xodimlar, mutaxassislar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan butunlay ozod etiladilar.

Soliq bazasini kamaytirish orqali budjetga to'lanadigan soliq summasini qisqartirish ham imtiyozlar turkumiga kiradi. Masalan, huquqiy shaxslar daromadlaridan investitsiyaga sarflansa yoki uning uchun olgan uzoq muddatli kreditlarni qaytarsa, 50 % soliqlar tortiladigan bazadan kamaytiriladi. Umuman olganda, imtiyozlar turkumiga soliqqa tortilmaydigan daromad guruhlari ham kiradi. Masalan, fuqarolarning soliqqa tortilmaydigan bir qator daromatlari mavjud. Bularga pensiya, nafaqa, aliment, bankka qo'yilgan mablag' uchun daromad va boshqalar kiradi. Imtiyozlar diaklektikasiga binoan soliq to'lash bo'yicha imtiyozlarni, mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishni rivojlantirish hisobiga budjetga tushadigan umumiy daromatlarni, aytaylik, qo'shimcha qiymat solig'i va aksiz soliqlari orqali bo'lsa ham ko'paytirish lozim. Lekin budjet xarajati daromadidan ortiq bo'lib turgan davrda (defitsit) soliqlar bo'yicha imtiyoz qanday amalga oshiriladi? Albatta, bir korxonaga berilgan imtiyoz summasi boshqa korxonalar zimmasiga yuklanadi. Demak, bunday davrda (defitsit) soliq imtiyozlaridan samara katta bo'lmaydi, chunki bunda

oliq yuki boshqalarga tushib, ularning ishlab chiqarish natijalaridan manfaatdorligini usaytiradi. Agar soliqlar bo'yicha imtiyozlar budjet xarajatlarini kamaytirish hisobiga berilsa, ularning samarasi yuqori bo'ladi. Ishlab chiqarishning ko'lami, sur'ati va ifatini oshirib, daromadlarni ko'paytirish hisobiga berilgan imtiyozlar shunday imtiyozlar sirasiga kiradi.

### 11.3. Soliq-budjet siyosatining tahlili

Milliy iqtisodiyot rivojlanishida respublika soliq-budjet siyosati o'ziga xos ahamiyatga ega. Uning keng ko'lamli vazifalarini ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruh har qanday ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar uchun doimiy bo'lgan asosiy vazifalar (funksiyalar)ni; ikkinchi guruh ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga qarab o'zgarib boradigan qo'shimcha vazifalarni o'z ichiga oladi. Bunday vazifalar, o'z navbatida soliq funksiyalarining barqarorligini ta'minlashga xizmat qilishi mumkin.

Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ularni takomillashtirish yo'llari soliq solish tamoyillarida hamda ularni to'yobga chiqarishda izchillik bo'lishini taqozo etadi. Bunday tamoyillar davlat tomonidan hayotga tatbiq etiladigan har qanday ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tartibga soladi, soliq munosabatlari o'rtasida ma'lum muvozanatni yuzaga keltiradi. Ularning bunday xususiyatlari soliq munosabatlarini hayotga har tomonlama to'g'ri tatbiq etishni taqozo etadi. Shu bois soliq munosabatlarini o'rnatishda har bir davlat ijtimoiy-iqtisodiy voqeliklar doirasida soliq solish tamoyillarini shakllantirishga alohida e'tibor berib kelgan. Ijtimoiy-iqtisodiy voqeliklarga nisbatan tamoyillarning yuzaga kelishi esa ma'lum tarixiy bosqichni boshidan kechirgan. Har qanday tarixiy bosqichda tamoyillar jamiyat taraqqiyotining optimal muvozanatini ta'minlashga xizmat qilgan. Shunga asoslangan holda soliqlar mohiyatini chuqur his etish, ular shu mohiyat doirasida amal qiluvchi funksiyalar bilan bog'liq bo'lsa, unda soliq solish tamoyillari iqtisodiy voqelik funksiyalarining barqarorligini ifodalovchi vazifalar ma'lum bir tartibda namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Soliqlar mohiyatini chuqur asoslashda soliq solish tamoyillarini o'rganmay, iqtisodiy voqelikning harakat doirasini chetlab o'tish yoki iqtisodiy islohotlar mohiyatini anglamasdan hayotga tatbiq etishga urinish samarasiz bo'lishi mumkin.

Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarning ijtimoiy va iqtisodiy tamoyillarini amalga oshirish o'z navbatida ularni tashkil etish bilan bog'liq. Bugungi kunda O'zbekistonning zamonaviy iqtisodiyoti va boshqaruv tizimidagi xususiyatlar samarali soliq tizimini tashkil etishning ahamiyatini yanada oshiradi va ularga dolzarb masala sifatida qaraladi. Afsuski, ko'pgina yaxshi g'oyalarni amalga oshirish tartibi mukammal ishlab chiqilmaganligi sababli ular hayotga tatbiq etilmay qolmoqda.

Soliq apparati xodimlari va korxonalaridagi buxgalteriya xizmati xodimlarining faoliyati hamda ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlar psixologiyasining yetarli darajada emasligi soliq tizimida aniq tashkiliy tamoyillarni joriy etishni va takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirilishi eng muhim vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. Ammo ayrim yo'nalishlar bo'yicha jismoniy shaxslarni soliqqa tortishni takomillashtirish borasida asossiz ravishda olg'a ketib qolmasdan, bu boradagi tadbirlarni sekin-astalik bilan amalga oshirish mumkin.

Tadqiqotlarda respublikada soliqqa tortish jarayonini amalga oshirishda klassik va zamonaviy tamoyillardan kengroq foydalanish zarur, degan xulosa ilgari surilgan. Bular jumlasiga soliqqa tortishning quyidagi xususiyatlari kiradi: aniqligi; arzonligi; moslashuvchanligi va fiskal samaradorligi; ijtimoiy jihatdan asoslanganligi, adolatligi va hokozolar.

Yangicha usul avvalo, soliqlar mohiyatini an'anaviy amal qilib kelayotgan funksiyalarga emas, balki, amal qilib kelayotgan funksiyalardan kelib chiqadigan vazifalar va tamoyillarga asoslanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda bunday yondashuv yetarlicha o'rganib chiqilmaganligi bois, biz noan'anaviy nazariy konsepsiyalardan foydalandik. Bunda chet el olimlarining fikr-mulohazalarini tartibga solish orqali mamlakatimizda amal qilayotgan soliqlarning mohiyatini nazariy jihatdan takomillashtirishga oid umumlashtiruvchi muammolar har tomonlama chuqur talqin qilindi.

Respublikamizda barcha daromadlarni soliqqa tortishning obyektiv zaruriyati iqtisodiy adabiyotlarda yetarlicha o'rganilmagan. Bu, o'z navbatida, mantiqiy yechimini talab qiladigan nazariy muammoni yuzaga keltirdi.

Masalan, yakka holda jismoniy shaxs olgan daromad oila daromadining bir qismini tashkil etishi mumkin. Oila doirasida shakllangan mol-mulk ushbu oila a'zolarining mehnat mahsulini ham o'zida aks ettiradi. Ana shu mol-mulkni, noz-ne'matlarni sotishdan olingan daromad (agar sotishga ehtiyoj tug'ilsa) jismoniy shaxs emas, balki oila daromadi ko'rinishida o'z aksini topadi. Daromad topishda jismoniy shaxs yakka holda soliq munosabatlari darajasiga ko'tarilsa, oila daromadi bo'yicha soliq to'lovlarida esa barcha shaxslarning umumlashtirilgan ko'rinishdagi daromadi soliq to'lovi manbai tarzda yuzaga keladi. Shunday ekan, barcha qonunlarda jismoniy shaxslar daromadiga ustunlik berilishi, shu orqali soliq munosabatlari doirasiga ko'tarilishi soliq to'lovi bo'yicha huquqlarni chegaralashga olib kelgan. Bu esa soliq to'lovi tushumining budget taqchilligi yuzaga kelishiga qisman sabab bo'lishi mumkin. Ana shunday salbiy omillarning kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida soliq qonuniyatlarini yanada takomillashtirish zaruriyati tug'ilmoqda.

Respublikada soliqlar bo'yicha davlat budgetiga tushumlar bashorati xo'jalik subyektlarining soliqlar va boshqa majburiy yig'imlarni o'z vaqtida to'lashlariga erishish va moliyaviy intizomni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida 2013-yili 103,3 %ga bajarildi.

Ko'rinib turibdiki, daromadlarga solinadigan soliqlar stavkasi yuridik shaxslarga va jismoniy shaxslarga pasaytirilishi YAIMda to'g'ri soliqlar ulushi kamayishiga olib keldi. Korxonalarda soliq to'lashning ixchamlashtirilgan tizimiga o'tish natijasida YAIMda egri soliqlar ulushi pasaya bordi. Mulkdan tushadigan soliqlar stavkasi oshirilishi natijasida mablag'lar bo'yicha to'lovlar va mulkka to'lanadigan soliqlar tushumi ko'paydi.

Bundan tashqari, O'zbekistonda 2013-yilda yo'l fondini boshqarish tizimini takomillashtirish va soliqqa tortish bazasini kengaytirish bashorat qilinganidan 111,2 %, pensiya fondiga esa, 101,3 % tushum tushishini ta'minlagan edi.

O'zbekistonda egri soliqlar tarkibi tahlili shundan dalolat beradiki, tahlil qilinayotgan davrda oziq-ovqat spirtiga aksiz stavkalari pasayishi natijasida aksizlar



ulushi, tabiiy gaz va benzinga aksiz yig'implari bo'yicha tushumlarning o'sishi oqibatida qo'shilgan qiymatdan soliq ulushi ko'paydi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, respublika davlat budjeti xarajatlari YAIMga nisbatan 24,6 %dan 22,9 %gacha yoki 1,7 darajaga pasaygan. Bu asosan xarajatlarning markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish tendensiyalarining saqlanishi va boshqa xarajatlarning pasayishi hisobiga sodir bo'ldi. Iqtisodiyotga xarajatlar ulushi ortishi ma'lum darajada elektr energiyasiga tariflar oshishi natijasida sodir bo'ldi.

O'zbekiston iqtisodiyotida bozor munosabatlari sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari kengayibgina qolmay, balki ularning mustaqilligi va ishlab chiqarish natijalari uchun javobgarligi ham oshdi.

Mustabid tuzum davridagi markazlashtirilgan rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga, ayniqsa, evolyutsion yo'l bilan o'tish davlatning boshqarish funksiyalarini rad etmaydi, biroq boshqaruvning prinsipial jihatdan boshqa usullarini ham talab etadi. Soliqlar mohiyatan ijtimoiy manfaatlar ustunligini ifodalab, shakliga ko'ra, ma'muriy chora-tadbirligicha qoladi, biroq xo'jalik yuritishning eng muhim shartlari – pul munosabatlari tartibga solishda asosiy vositaga aylanadi.

O'zbekistonda o'tish davrining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, davlat qattiq soliq siyosati yuritish asosida budjet orqali real sektorni tezda barqarorlashtirish va rivojlantirishga erishdi. Soliq-budjet siyosatining asosiy maqsadi – iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishni ta'minlash bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

Yangidan shakllangan soliq tizimi quyidagi asosiy vazifalarni bajarishni ta'minlashi lozim:

**fiskal vazifa** – soliqlar to'lash orqali davlatni boshqarish uchun moddiy sharoit yaratish;

**ijtimoiy vazifa** – soliq orqali ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi barqarorlikni ta'minlash;

**iqtisodiy vazifa** – soliqlar tizimini iqtisodiy o'sishini ta'minlash, inflyatsiyani kamaytirish, bandlik darajasini ko'tarish, ishlab chiqarishni rivojlantirish, investitsiya va jamg'armalarni ko'paytirish, innovatsiya jarayonini kuchaytirishga qaratish.

Davlat budjeti daromadlari tarkibida egri va to'g'ri soliqlar o'rtasidagi nisbatning o'zgarishi muhim iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Mamlakat iqtisodiy rivojlanib borgan sari ushbu nisbat to'g'ri soliqlar foydasiga o'zgarib boradi. Egri soliqlar mahsulot bahosida hisobga olinganligi sababli ular salmog'ining o'sishi aholi turmush darajasiga salbiy ta'sir qiladi.

Rivojlangan davlatlar soliq tizimi budjetni to'ldirishning nafaqat fiskal, balki iqtisodiy funksiya yordamida tashqi iqtisodiy aloqalarni tartibga solish vazifasini ham muvaffaqiyatli bajarmoqda. Tashqi iqtisodiy aloqalarni tartibga solish majburiy to'lovlar – boj, aksiz, qo'shilgan qiymat solig'i yordamida amalga oshirilmoqda.

Garchi, umumdavlat soliqlarining ahamiyati va nisbati turlicha bo'lsa-da, makroiqtisodiyot boshqaruvida soliqlar muhim o'rin tutadi. Masalan, AQSH va G'arbiy Yevropaning ko'pgina davlatlarida, odatda, to'g'ri soliqlar umumdavlat soliqlari hisoblanadi. Ular orasida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va

korporatsiyalar daromadiga solinadigan soliq muhim o'rin egallaydi. Mintaqaviy soliqlar va mahalliy soliqlar asosan egri soliqlardan tarkib topgan. Ular jumlasiga qo'shilgan qiymat solig'i, sotishdan olinadigan soliqlar, aksizlar kiradi. Mahalliy davlat boshqaruv organlari budjeti asosan mulk va yer soliqlari hisobiga shakllantiriladi. Soliq solish, shu jumladan, mahalliy soliq sohasidagi qonunchilik davlat tomonidan ishlab chiqiladi va amaliyotga tatbiq etiladi.

Soliqlar kuchliligiga qaramay, ularni eng kam darajaga keltirish va tarkibini maqbullashtirishga bo'lgan intilish hozirgi davrdagi soliq siyosatining asosiy yo'nalishi hisoblanadi. Shu sababli O'zbekistondagi hozirgi sharoitda soliq tizimi mohiyatiga ko'ra, miqdoriy va tarkibiy tuzilishi albatta, xorijniki bilan bir xil bo'lmasligi tabiiy. Soliqqa tortish tizimi amaliyotidagi ayrim muammolar hal qilinishi ishlab chiqarish rivojlanishiga, unga investitsiyalar keng jalb etilishiga, ichki mahsulot (YAIM) o'sishiga, davlat daromadlari oshishiga, binobarin, iqtisodiyotning ijtimoiy yo'naltirilganligiga sezilarli darajada ko'maklashishi lozim.

Soliq tizimining barqaror bo'lishiga erishish hozirgi kunda e'tiborga molik muammo hisoblanadi. Soliq siyosatining barqarorligi davlat xarajatlarini yalpi milliy mahsulotga nisbatan o'sishi bilan belgilanishi mumkin. Barqarorlikning asosiy ko'rsatkichlaridan biri budjet kamomadining yalpi milliy mahsulotga nisbatidir, boshqacha qilib aytganda, davlat qarzi yalpi milliy mahsulotga nisbatan ko'payishiga yo'l qo'yamaslikdir.

O'zbekistonda budjet kamomadini faqat soliqlarni ko'paytirish yo'li bilan emas, balki davlat xarajatlarini kamaytirish orqali qisqartirish lozim. Buni davlat budjetini boshqarish darajasining tahlili natijalariga ko'ra aniqlangan quyidagi ko'rsatkichlar ham tasdiqlaydi: agar YAIMga nisbatan kamomadi 2010-yilda 1,0 % bo'lgan bo'lsa, 2013-yilga kelib, profit (+) 0,3ni tashkil etdi.

Respublikamizda soliq tizimining samaradorligini aniqlashda va uni takomillashtirishda elastiklik koeffitsiyentidan foydalanish mumkin. Soliqning elastikligi deganda, soliq tizimi o'zgaray turganda uning hajmi o'zgarishini, soliq bazasi, ya'ni yalpi milliy mahsulot ishlab chiqarish o'zgarishi bilan taqqoslanishini tushunamiz. Masalan, o'tgan yillardagi davlat xarajatlari yalpi ichki mahsulotga nisbatan tezroq o'sdi, ya'ni elastiklik koeffitsiyenti birdan ortiq bo'ldi. Keyingi yillarda soliq va budjet siyosatining barqarorligi kamayishi kuzatildi. Bu, o'z navbatida, makroiqtisodiy boshqarishda soliq tizimini takomillashtirish zarur ekanligini ko'rsatuvchi muhim dalildir. Respublikamizda davlat budjeti xarajatlari tarkibi va budjet xarajatlarning kamaygani soliq tizimidagi o'zgarishlar natijasidir.

Shuni ta'kidlash kerakki, Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq o'n oltinchi sessiyasida O'zbekiston Respublikasi davlat budjetining 2010-yil loyihasi qabul qilingan edi. Unda soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilandi. Ushbu yo'nalishlar iqtisodiyotda soliq yukini yanada pasaytirish, soliq to'lash tartibini ixchamlashtirish, soliq ma'muriyati tizimini takomillashtirish, iqtisodiy asoslanmagan va samarasiz soliq imtiyozlarini bekor qilish, shuningdek, soliq to'lovchilarning soliq majburiyatlari o'z vaqtida va to'liq bajarishlarini ta'minlashdan iqtisodiy manfaatdorligini oshirishni ko'zda tutadi.

O'zbekiston Respublikasida soliq yukini kamaytirish maqsadida 2010-yil 1-yanvarida:

– yuridik shaxslar daromadlari (foydasi)dan soliқ stavkalarini (18 %dan 15 %gacha) uzaytirish;

– jismoniy shaxslar daromadlaridan soliқ stavkalarini birinchi guruhda (5 minimal ish haqigacha) 13 %dan 12 %gacha, ikkinchi guruhda (5 dan 10 minimal ish haqigacha) 21 %dan 20 %gacha, uchinchi guruhda (10 minimal ish haqidan yuqori) 30 %dan 29 %gacha qisqartirish. Bundan ortib qolayotgan mablag'larni ishlovchilarning maxsus ochilayotgan alohida jamg'arma hisoblariga maqsadli yo'naltirish;

– ish haqi fondidan yagona ijtimoiy to'lovlar stavkasini 33 %dan 31 %gacha kamaytirish;

– ixchamlashtirilgan soliқ to'lash tizimini qo'llayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliқ stavkasini 13 %dan 12 %gacha kamaytirish ko'zda tutilgan.

Ushbu tadbirlarni amalga oshirish maqsadida istiqbolda respublika tadbirkorlari va ishlab chiqaruvchilarining shaxsiy daromad soliqlari miqdorini kamaytirish imkoni yaratiladi.

#### **11.4. Alohida toifadagi korxonalarni soliқqa tortish xususiyatlari**

Korxonalarni soliқqa tortishning quyidagi turlari mavjud:

1. Soliқqa tortishning soddalashtirilgan tizimi yoki yagona soliқ mikrofirmalar va kichik korxonalariga yuqorida qayd etilgan bir qator soliqlar o'rniga qo'llanishi mumkin. Bunda korxonalar qaysi tizim bo'yicha soliқ to'lashlari to'g'risidagi qarorni o'zlari qabul qilishlari mumkin.

2. Yalpi tushum olinadigan yagona soliқ (2002-yil 1-iyuldan joriy etilgan) savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari (chakana savdo sohasidagi mikrofirmalar va kichik korxonalardan tashqari), shuningdek, gramplastinkalarni ishlab chiqish, sotish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish huquqiga ega bo'lish litsenziyasini olgan yuridik shaxslar uchun shuningdek, mulk soliғ'idan tashqari, barcha soliqlar va yig'implarni to'lash o'rniga qo'llanadi.

3. O'zgargan daromaddan olinadigan yagona soliқ chakana savdo sohasida ishlayotgan mikrofirma va kichik korxonalar uchun qo'llaniladi.

4. Yagona yer soliғ'i qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga barcha zarur umumdavlat va mahalliy yig'implarni to'lash o'rniga qo'llanadi. Ushbu qo'ida quyidagilarga taalluqli emas:

- o'rmon, baliqchilik va ov xo'jaliklariga;
- ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va ilmiy muassasalarining tajriba, eksperimental va o'quv-tajriba xo'jaliklariga;
- yuridik shaxs bo'lmagan yordamchi qishloq xo'jaliklariga;
- dehqon xo'jaliklariga.

5. Tadbirkorlik faoliyatining quyidagi asosiy turlari bilan shug'ullanadigan yuridik va jismoniy shaxslar uchun cheklangan soliқ:

➤ sartaroshlik xizmatlarini ko'rsatish, jumladan, manikyur, pedikyur va kosmetika xizmatlari;

➤ bilyard xonalari;

➤ avtotransportni qisqa muddat saqlash joylarini tashkil etish;

- milliy taomlar tayyorlash va sotish (jismoniy shaxslar);
- o'yin avtomatlarini ishga tushirish, jumladan, yutuqli avtomatlar (pul yutuqlaridan tashqari).

Bunda soliq solish obyektlari bo'lib daromad olish bilan bog'liq faoliyatning muayyan turini tavsiflovchi jismoniy ko'rsatkichlar hisoblanadi: jihozlangan joylar soni, xodimlar soni, egallangan maydon. Faoliyatning ayrim turlari bo'yicha cheklangan soliq bazaviy stavkalarining miqdori namuna shaklida aks ettiriladi.

### 11.5. Moliya-kredit sohasida dastaklar

Markaziy bankning moliya-kredit tizimi dastaklari Respublika Bank kengashi tomonidan ijroiya etilgan banklarga bo'lgan ishonchning oshishi, bank-moliya tizimidagi islohotlarni kengaytirishga yo'naltirilgan bir hator chora-tadbirlarini amalga oshirishining bajarilishiga yo'naltirildi.

Asosiy e'tibor quyidagi masalalarga qaratildi:

- Tadbirkorlar va sarmoyadorlar, shuningdek, xorijiy sarmoyadorlar mablag'larini jalb etish maqsadida aksiyalarni chiqarish va ustav kapital mablag'larining oshishi, fond bozorida joylashtirish hisobiga banklarning kapitallashtirish darajasini oshirish;

- korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta ta'mirlash maqsadida banklarning investitsion jarayonlarda xususiy kapital bilan keng ishtirokini ta'minlash;

- aholi erkin pul mablag'larini banklarga jalb etish va ularni mijozning birinchi talabi bo'yicha naqd pullar bilan ta'minlash;

- minibanklar va ular tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sonini kengaytirish, o'sishini, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, yangi va qulay xizmat turlarini joriy etish.

2010-yilda aholi va boshqa sarmoyadorlar mablag'larini banklarga jalb etish maqsadida, tijorat banklarining sarmoyadorlari umumiy yig'ilishida 473 mlrd. so'm miqdorida qo'shimcha aksiyalarni chiqarish e'lon qilingan edi.

Bundan tashqari, 2010-yil iyul oyida davlat tomonidan 3 ta tijorat banklariga 92 mlrd. so'm miqdorida yordam ko'rsatildi, jumladan ustav fondini oshirish maqsadida. «Mikrokreditbank»ka - 32 mlrd. so'm, «Paxtabank»ka - 15 mlrd. so'm, «Ipotekabank»ka - 15 mlrd. so'm miqdorida mablag'lar ajratildi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, 2010-2013-yillarda Aholi farovonligini oshirish dasturi bank-moliya sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirishga qaratildi va bank sohasidagi islohotlar quyidagi yo'nalishda davom ettirildi:

- moliya resurslarini samaraliroq taqsimlashni rag'batlantirish;
- bank sektorining kapitallashuvini oshirish va aholining bank tizimiga ishonchini mustahkamlash;

- tijorat banklarini ularga xos bo'lmagan nazorat va ma'muriy funksiyalarni bajarishdan bosqichma-bosqich ozod qilish va bu funksiyalarni soliq organlari va xo'jalik subyektlarining o'ziga yuklash;

- xo'jalik subyektlari uchun joriy hisob raqamlarining to'liq va erkin ochiqligini ta'minlash;

- kredit byurolari orqali kredit axborot tizimini yaratish - bu aholi va xo'jalik obyektlarining (ayniqsa, makro va kichik biznesdan) bank tizimiga ishonchini oshiradi;
- jamg'armalarni to'plash;
- bank tizimi samaradorligi va kapitallashuvning o'sishiga xizmat qiladi;
- bank kapitalining kapitallashuv darajasi, jumladan, qo'shimcha aksiyalar missiyasi, mahalliy va chet el investorlarini jalb etish hisobiga sezilarli o'sadi.

Yuridik va jismoniy shaxslarning aksiyalarga bo'lgan talabini qondirishni engillashtirish maqsadida tijorat banklari tomonidan qayta chiqarilayotgan aksiyalarni 15 %dan kam bo'lmagan miqdorda fond birjasi orqali sotish amaliyotga kiritildi. Bundan tashqari, banklar aksiyasini fond birjasining listingiga kiritishga qaratilgan birjator chora-tadbirlar amalga oshirildi va hozirga kunda «Toshkent» fond birjasi listingiga 12 ta bank aksiyalari kiritildi.

Shuningdek, tijorat banklarining xalqaro kreditlash reytingiga ega bo'lishiga va banklar tomonidan chiqarilgan qimmatbaho qog'ozlar milliy xususiy reyting bahosi izimini kiritishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Bir qator mashhur reyting kompaniyalari bilan birgalikda («Moody's», «Fitch Ratings», «Standard & Poor's», «Thomson Financial Bankwatch», «Japan Credit Rating Agency», «Rating Agency Malaysia») banklar xalqaro kreditlash reytingini qo'lga kiritishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Xususan, «Paxtabank» va «Hamkorbank» «Fitch Ratings» xalqaro reyting kompaniyasining uzoq muddatli to'liq xalqaro reytingini qo'lga kiritdilar, Tashqi qisodiy Faoliyat Milliy bankiga «Moody's» xalqaro reyting kompaniyasining kreditlash reytingi berildi.

Bank aksiyalariga bo'lgan talabning oshishi natijasida 2008 yilda bank aktsionerlari soni 12,2 mingga oshdi va 2013-yil 1-yanvarda tashkil etdi 197,3 ming aktsionerni tashkil etdi, ulardan 68 % jismoniy shaxslardir.

Natijada, banklarning yalpi kapitali 2013-yilda 40,5 %ga ortdi va 2013-yil 1-yanvarda 1 503,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Banklarning ustav kapitalari hajmi 2 barobar oshdi va 365,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Bank kapitali va jalb qilingan mijozlar kapitalining o'sishi natijasida bank aktivlarining umumiy hajmi 2013-yilda 28,7 %ga oshdi va 2013-yil 1-yanvarda 9 276,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Banklar tomonidan real sektorga berilgan kredit qoldiqlari 2013-yilda 19,2 %ga oshdi va 2013-yil 1-yanvarda 4 757,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shu bilan birga tijorat banklarining real sektorga ajratgan uzoq muddatli kreditlar hajmi 37713 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini modernizatsiyalash texnik va texnologik qayta ta'mirlash bo'yicha, shuningdek, eksportni moliyalashtirishga qaratilgan kreditlar hajmini oshirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi.

2013-yilda tijorat banklari tomonidan korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha, ularning qimmatbaho qog'ozlarini sotib olish va fond bozorida ishtirokini ko'llashtirish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirildi. Tijorat banklarining umumiy investitsion portfellari hajmi 2 barobardan oshdi. Natijada banklarning sarmoyalash

jarayonlarida ishtirok etishi yanada ortdi. Korxonalarni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta ta'mirlash uchun 1 trln. so'mdan ortiq mablag' ajratildi.

Respublika hududlarini rivojlantirish hukumat dasturlariga binoan, 2008-yilda tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga 743,7 mlrd. so'm miqdorida mablag'lar ajratildi, bu 2011-yilga nisbatan 36 %ga ko'proqdir. Shu bilan bir qatorda, kichik biznes subyektlariga berilgan mikrokreditlar hajmi, 2011-yilga nisbatan 70 %ga oshdi va 110,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

«Ijtimoiy himoya yili» dasturiga binoan yosh oilalarni qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratildi, ularga uy-joy sharoitlarini yaxshilash maqsadida iste'mol va ipoteka kreditlari ajratildi. Xususan, 2013-yilda tijorat banklari tomonidan yosh oilalarga imtiyozli iste'mol va ipoteka kreditlari, shuningdek, 112,8 mlrd. so'mdan ortiq miqdorda mikrokreditlar ajratildi.

Bundan tashqari, 2013-yilda tijorat banklari tomonidan qishloq xo'jaligi korxonalarining davlat ehtiyojlari uchun sotib olinadigan paxta va bug'doy ishlab chiqarishga ketgan umumiy hisobda 839,2 mlrd. so'mni tashkil etgan sarf-xarajatlari moliyalashtirildi, shu hisobda paxta yetishtirishga - 702,3 mlrd. so'm va buhdoy etishtirishga - 136,9 mlrd. so'm sarflandi.

Qishloq joylarida fermer va dehqon xo'jaliklariga kredit va bank xizmatlarini ko'rsatish imkoniyatlarini yaxshilash maqsadida tijorat banklari tomonidan barpo etilgan minibanklar va maxsus kassalarning soni oshdi. Xususan, 2013-yil 1-yanvar holatiga respublikada 2 054 ta minibank va 1 148 ta maxsus kassa faoliyat ko'rsatdi.

«Bank - Mijoz», dasturiy ta'minotidan foydalanuvchi mijozlar soni, 2008-yilda 27 %ga oshdi va 2008-yil 1-yanvarda 4,0 ming mijozni tashkil etdi.

Hisobot davrida tijorat banklari tomonidan 500 mingga yaqin plastik kartochkalar muomalaga chiqarildi va savdo va xizmat nuqtalarida 3,5 mingta terminallar o'rnatildi. Natijada, 2013-yil 1-yanvarda muomalaga chiqarilgan bank plastik kartochkalari soni, 3,7 mln. donaga yetdi, savdo va xizmat nuqtalarida o'rnatilgan terminallar soni bo'lsa, 17,8 ming donaga yetdi. Banklardan tashqari moliya institutlari rivojlanishi ham katta ahamiyatga ega.

### **Qisqacha xulosalar**

Hamma vaqt umumiy iqtisodiy siyosatining muhim tarkibiy qismi bo'lib kelgan soliq siyosati bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Soliqlar muomalasida quyidagi ikki omilni ajratib ko'rsatish mumkin:

- ijtimoiy hamda soliq tizimlari rivojlanishi qonuniyatlari bilan belgilanadigan ichki omil;
- umuman, mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat bilan belgilanadigan tashqi omil.

Bu omillarning aloqasi o'tish jarayonidagi ikki bosqichda quyidagicha namoyon bo'ladi:

**a) jamiyatda boshlangan islohotlarning dastlabki bosqichi:** bozor munosabatlarining kengaya borishi, mulkchilikning yangi shakllari qaror topishi, xo'jalik yuritishning ilg'or usullari joriy etila borishi, mehnat va sarmoya bozorlarining tashkil etilishi va boshqalar;

**b) asosiy ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning evolyutsion rivojlanishi bosqichlari:** iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlari aniqlanishi, soliq idoralari tajribasining oshishi va makroiqtisodiy boshqarishda soliq tizimining takomillashuvi hamda barqaror muvofiqliklarga ega bo'lishi. Bir qator xorijiy davlatlar soliq tizimining rivojlanish tarixini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bunda o'ziga xos bo'lgan *besh bosqichni* ajratib ko'rsatish mumkin:

- *birinchi bosqich* davlat tomonidan daromad olishning pul qiymatiga ega bo'lmagan mexanizmi ustunlik qilishini ko'rsatadi;

- *ikkinchi bosqich* egri soliqlardan, shu jumladan, tashqi sohada bojxona o'lovlaridan yetarli foydalanish bilan bog'liqdir;

- *uchinchi bosqich* an'anaviy to'g'ri soliqlarning darajasi nisbatan yuqori darajada bilan tavsiflanadi;

- *to'rtinchi bosqich* ishlab chiqarish, ichki savdo va tovar-pul munosabatlari rivojlanishi bilan bog'liq;

- *beshinchi bosqichda* davlat budjeti tarkibida shaxslarning daromadlari va korporatsiyalar foydasiga to'g'ri keladigan soliqlar asosiy hisoblanadi.

Ko'rinib turibdiki, soliq tizimining yuqoriroq darajasi ijtimoiy rivojlanishning so'nggi davrida, ya'ni egri soliqlarning to'g'ri soliqlarga nisbatan ustun darajadagi, soliq solish obyektlari ortishi, soliq to'lovchilarning yanada kengroq doirasini qamrab oluvchi daromad solig'ining rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Bunday hol rivojlangan mamlakatlar soliq tizimiga to'la-to'kis muvofiq keladi. Bu tajribani O'zbekistonda joriy qilish ma'lum muddatni, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitni hisobga olishni talab qiladi va o'ziga xos islohot modelini amalga oshirish bilan bog'liq.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Davlat moliyasi deganda nimani tushunasiz?
2. Bank va valyuta siyosati deganda-chi?
3. O'zbekiston tijorat banklari faoliyatining 2003-yil yakuni bo'yicha reyting baholari qanday?
4. 2003-yilning umumiy yakuniy ko'rsatkichlari bo'yicha guruhlar ichidagi ilg'or banklar qaysi banklar?
5. Pul-kredit mexanizmi deganda nimani tushunasiz?
6. O'zbekiston milliy valyutasini mustahkamlash yo'llari nimalardan iborat?
7. Soliq siyosatini takomillashtirish yo'llari nimalardan iborat?
8. Umumiy soliq yukini optimallashtirish deganda nimalarni tushunasiz?
9. Umumiy soliq yukini takomillashtirish deganda nimalarni tushunasiz?
10. Soliq tizimini tartibga solish asoslari nimalardan iborat?

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Karimov I. "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi" //Xalq so'zi, 2014-iy 18-yanvar.
2. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. //Xalq so'zi. 2009-yil 14-fevral.

3. Ishmuxeamedov A.E va boshqalar. Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari. Darslik – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005.
4. Yo'ldoshev Z. Milliy iqtisodiyot. -T.: Mehnat, 2004,168-b.
5. Ishmuxeamedov A.E. O'zbekiston milliy iqtisodiyoti. Darslik – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005, - 304 b.
6. Ishmuxeamedov A.E. va boshqalar. Makroiqtisodiyot. Darslik – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. - 192 b.
7. Tuxliyev N. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. -T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 280 b.
8. Internet veb-saytlari.  
[www.ceep.uz](http://www.ceep.uz).  
[www.bearingpoint.uz](http://www.bearingpoint.uz).  
[www.pca.uz](http://www.pca.uz).  
[www.micro-macroiqtisodiyot.fan.uz](http://www.micro-macroiqtisodiyot.fan.uz)



## 12-bob. RESPUBLIKADA BOZOR INFRATUZILMASINING ASOSIY YO'NALISHLARI

### 12.1. Raqobat va baho

Bozor iqtisodiyotini harakatga keltiruvchi, uning taraqqiy etishiga katta ta'sir ko'rsatuvchi kuch – raqobat hisoblanadi. Raqobat kurashining ahamiyati shunchalik yuqoriki, usiz bozorni tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki u, bozor iqtisodiyotining mazmunidir.

Bozor sharoitidagi raqobat **iqtisodiy raqobat** bo'lib, u iqtisodiy jarayonda yuz beradi. Undagi asosiy maqsad bozor ishtirokchilarining erkin faoliyat sharoitini yaratish, har bir ishtirokchi o'z harakati uchun zarur muhit va holatni ta'minlashi bilan bog'liq bo'lgan kurashdan iborat. Har bir bozor ishtirokchisining kerakli ishlarni boshqalarga nisbatan muvaffaqiyatli hal qilishi, buning uchun zarur sharoitlarni oldindan va o'z vaqtida yarata olishi, doimo ustunlikka ega bo'lishi kabilar iqtisodiy raqobat kurashining mazmunini tashkil etadi. Bozor iqtisodiyotiga qatnashuvchilar bir-biri uchun raqib hisoblanib, o'zaro kurash olib boradilar. Alohida-alohida holdagi ishtirokchilarning bir-birlari o'rtasidagi kurashi, umuman, bozor iqtisodiyoti bilan yakunlanadi. Iqtisodiy raqobat kurashida qatnashuvchilar bir-birlarini shaxsan bilishlari, tanish bo'lishlari zarur emas. Buning uchun, avvalo, bozor xususiyati, uning harakat qonuniyatlarini yaxshi bilgan, sezgan holda faoliyat ko'rsatish asos bo'lib xizmat qiladi.

Ma'lumki, har bir ishda, har qanday sharoitda tezroq, ertaroq, har tomonlama o'ylab harakat qilgan kishi niyatga oldin yetadi. Raqobat kurashida bozor masalalarini hal qilish ham shunga o'xshab ketadi. Raqobat kurashida barcha ham muvaffaqiyatga erishishga muayassar bo'lmaydi. Bu, tajriba, bilim, matonat, tavakkalchilik va, albatta, yirik sarmoyaga ega bo'lishni talab qiladi. Raqobat kurashi keng mazmunli, ko'p qirrali bo'lib, bozor iqtisodiyotining barcha davrlari, sohalari, tarmoqlarida yuz beradi. Raqobat kurashiga bardosh bera oladigan shaxsgina bozor taraqqiyotiga ko'p hissa qo'sha oladi.

Raqobat kurashining asosiy mazmuni xaridorlarni o'ziga ko'proq jalb etish sharoitini yaratishdir. Chunki, har bir tadbirkorning molini sotib oladigan xaridor ko'p bo'lsa, u sotish muammosini tezroq hal etadi, ishi tezlashadi, yuqori foyda oladi. Sarmoyasi qancha tez qaytib, tez harakatda bo'lsa, shunchalik ko'p mahsulot ishlab chiqarishga, ko'proq sotishga muayassar bo'ladi.

Tadbirkor uchun kurashdagi eng muhim narsa zarur tovarni, xizmatni o'z vaqtida ko'proq ishlab chiqarish va xaridorga tezroq yetkazishdir. Bu jarayonda boshqalarga nisbatan oldinroq ulgursa, albatta, u bu kurashda g'olib chiqish imkoniyatini qo'lga kiritgan bo'ladi. Bu, birinchi navbatda, bir xil tovar ishlab chiqaruvchilar va bir xil xaridorlar o'rtasidagi kurashdir. Shuning uchun ham raqobatdagi harakatning keng hajmli bozor uchun, tovarni muvaffaqiyatli sotish uchun bo'lgan kurashdir.

Raqobat kurashi iqtisodiy faoliyatning boshqa tarmoq va sohalorida ham yuz beradi. Masalan, xomashyo uchun kurashni olaylik. Ma'lumki, bu ishlab chiqarishda katta ahamiyat kasb etadi. Kerakli xomashyodan o'z vaqtida, kerakli miqdor va hissa olishga harakat qilish umumiy muvaffaqiyat uchun zarur shartdir. Yuqori samarali xom ashyo joylarini qo'lga kiritish, arzon energiya uchun kurash katta ahamiyatga molik.

Bu jarayonda ishchi kuchi ta'minoti ham muhim. Yuqori malakali, tajribali ishchi, xizmatchilarga ega bo'lish, ayniqsa, tadbirkor, savdogar uchun juda kerak. Ularga yetarli miqdorda ega bo'lish, kasaba uyushmalariga ta'sir etish uchun kurash raqobatda o'rinlidir. Demak, sotuvchilar, tadbirkorlar o'rtasidagi raqobat asosan xaridorlar, ishchi kuchi, xomashyo, material, ma'qul energiya uchun olib boriladi.

Raqobat kurashida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan narsa **bahodir**. Umuman, baho talab va taklif muvozanatining natijasi bo'lib, raqobat orqali yuzaga keladi. Ma'lumki, har bir tovarga talab yuqori bo'lsa, baho ham ko'tarilishi kerak. Shunga ko'ra, tovarlar sarf-xarajati bo'yicha juda yuqori yoki juda past bahoda sotilishi mumkin. Yuzaki qaraganda sun'iy ravishda talabni ko'tarish tufayli bahoni oshirish mumkinga o'xshaydi. Mavjud sharoitda ko'ra, shunday holat ham yuz beradi. Lekin raqobat natijasida bunday holat doimiy yoki uzoq cho'zilishi mumkin emas. Baribir ko'p tovar sotishga intilish ustun keladi.

Iste'molchining daromad darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi baho raqobat holatiga bog'liq bo'lib, u turg'un bo'la olmaydi, to'xtovsiz o'zgarib turadi. Bozor ishtirokchilari uchun bozor holatini ko'rsatib turadigan narsa ham baho bo'lib, u sotuvchi va xaridorlarning harakat yo'nalishini aniqlab beradi. Chunki bozor ishtirokchilari bozorga qachon va qancha tovar yetkazib turishni baho darajasi orqali aniqlaydilar. Bu esa bevosita ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatadi. Qachon, qancha, qanday tovar ishlab chiqarishni bozorda yuzaga kelib turgan baho orqali belgilab, ish ko'riladi.

Raqobat tufayli paydo bo'ladigan bozordagi baholarning tadbirkor va iste'molchilar uchun muhimligi ikki narsada ifodalanadi. Birinchisida tadbirkorning foydasi va daromadi ifodalanadi, ikkinchisida bozor holati aniqlanadi.

Iste'molchi-xaridorni olsak, u ham bahoga ikki tomonlama bog'liqdir. Birinchidan, bahoning darajasi, harakat mazmuniga qarab, qaysi tovarni qachon sotib olish va qancha miqdorda sotib olishni aniqlaydi, ikkinchidan, daromadning taqsimlanishi va realik darajasini aniqlab beradi. Baho ko'tarilib boraversa, albatta, daromad darajasi pasayib boradi. Lekin raqobat baholarning pasayishiga ham olib keladi. Chunki iqtisodiyotda, shaxsiy daromadda yuz beradigan barcha o'zgarishlar bozorda raqobat tufayli yuzaga keladigan baho darajasida o'z ifodasini topadi. Shunga ko'ra, barcha bozor ishtirokchilari, ayniqsa, tadbirkorlar, katta diqqat va e'tibor bilan bahoni kuzatib boradilar, uning o'zgarishini o'z vaqtida bilib, choralarini ko'radilar.

Demak, bozorda paydo bo'ladigan baho bozor iqtisodiyotining ko'zgusi bo'lsa, raqobat uni yuzaga keltiruvchi kuchdir. Raqobat va baho mexanizmlari o'z ta'sirlari bilan bozorni harakatlantiruvchi muhim mexanizmlar bo'lib, bozor iqtisodiyotining boshqarilishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ular bozor iqtisodiyotini o'zidan-o'zi harakatga keltiruvchi va boshqaruvchi ichki kuchlaridirki, unga tashqaridan sun'iy ta'sir ko'rsatish va buning raqobatsiz oldindan belgilash bozor tabiatiga to'g'ri kelmaydi, uning mexanizmi harakatlariga faqat salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Aytish mumkinki, raqobat asosida shaxsiy manfaat yotadi va bu raqobat kurashi kuchayishi ta'siri ortib borishi uchun kuch bag'ishlaydi. Buning boisi shuki, har bir iqtisodiy birlik o'z «nafsi»ni ko'zlaydi. Har bir tadbirkor yuqori foyda uchun, hech bo'lmaganda kam zarar uchun kurashadi. Moddiy resurslar egalari uni sotishda yoki ijaraga berishda yuqori baho orqali ish tutishga urinadi. Ishchi kuchi egalarini olsak, ular miqdori va murakkabligi bir xildagi mehnatlariga imkoni boricha ko'p daromad olishga

tarafdorlaridir. Shaxsiy manfaatdorlik bozor iqtisodiyoti faoliyatida tartib o'rnatib turadi, manfaatsizlik esa kutilmagan tartibsizliklarga olib kelishi mumkin. Bunday voqealik shunday xulosaga olib keladiki, turli iqtisodiy birliklar o'z ixtiyoriy tanlovini amalga oshirishi davrida shaxsiy manfaat asosida ularning asosiy harakat tarzi shakllanadi. Bu bozor iqtisodiyoti taqozosidir. Masalan, asosiy xalqaro savdo nazariyalariga asoslangan holda ko'rib chiqqanda xalqaro bozorda sotiladigan va sotib olinadigan mollarning tabiati va sonini narx belgilaydi. Germaniyada bitta sanoat uskunasi 5 yevro xarajat qilinsa, qo'shni Daniyada 10 yevro xarajat qilinadi, mebel uchun xarajat esa 20 va 30 yevroni tashkil etadi. Ya'ni, Germaniya bitta mebelga 4 baravar ko'p xomashyo xarajat qilish kerak (20 : 5). Daniyada bu nisbat 3 ga teng (30 : 10). Demak, Daniyada mebel ishlab chiqarish, Germaniya esa uskuna ishlab chiqarish afzaldir.

Yana bir misol: tayyorlangan poyabzalning narxi Braziliyada 15 yevro bo'lsa, Italiyada 30 yevro, kiyimniki esa 30 va 60 yevro. Bu raqobat bozorida Braziliyaning ushbu tovarlar bo'yicha Italiyadan 1 : 2 nisbatda ustunligini ko'rsatadi.

Umuman, raqobat iqtisodchilar tasavvuri bo'yicha quyidagilarni bildiradi:

- bozorda turli, istagan aniq mahsulot, resurslarni erkin holda sotuvchi va sotib oluvchilarning mavjudligi;

- sotuvchi va xaridorlarning istagan bozorda yoki iqtisodiy tarmoqda erkin qatnasha olishi yoki istaganda tarmoqdan chiqib keta olishi.

Raqobat o'z mohiyatini bozor ishtirokchilariga taalluqli iqtisodiy kuchlar tarqoqligida ifoda etadi. Buni shunday izohlash mumkin. Ma'lum bir bozorda, chunonchi, g'alla bozori yoki ip-gazlama bozorida juda ko'p sotuvchi va xaridor mavjud, shu bilan birga tovarlar mo'l-ko'l, deylik. Bunday sharoitda sotuvchi va xaridorlar o'zlari uchun ma'qul bahoni talab eta olmaydilar. Chunki ularning alohida holdagi urinishlari bahoga ta'sir etmaydi va bunda ayrim harakatlar muvaffaqiyat keltirmay, mavjud muvozanat belgilaydigan umumiy baho bo'yicha oldi-sotdi amalga oshadi.

Raqobatning mohiyati shuki, har bir sotuvchi bozorda juda ko'p miqdordagi sotuvchilar ishtirokida o'zining nisbatan kichik hissasi bilan umumiy taklifga ta'sir ko'rsata olmaydi, demak, bahoni ham yakka holda o'zgartira olmaydi. Aytish mumkinki, raqobat shundan iboratki, har bir sotuvchi — taklif subyekti umumiy taklifga kichik hissa qo'sha oladi va umumiy oqim ichida bo'ladi. Yakka holdagi sotuvchilar taklifning umumiy miqdoriga sezilarli ta'sir ko'rsata olmaydilar. Shuning uchun ham yakka ishlab chiqaruvchi sifatidagi sotuvchi mahsulot narxini istaganicha o'zgartira olmaydi va unga istagan holda munosabatda bo'la olmaydi. Haqiqatan ham har bir sotuvchi yakka-yakka holdagi harakatda va raqobatda qatnashuvchi sifatida bozor ixtiyorida bo'ladi. Bunda raqobat yakka-yakka holdagi barcha yoki juda ko'pchilik sotuvchilar harakatidan iborat bo'ladi. Ko'rinish turibdiki, raqobat bozorda hukmronlikni inkor etib, erkin harakatni talab etadi.

Xaridorlar to'g'risida ham shuni aytish mumkin, ya'ni ular ham bir-birlariga bog'liq bo'lmagan ixtiyoriy harakatda bo'ladilar. Umumlashtirib aytganda, raqobatning asosini tashkil qiluvchi iqtisodiy hokimiyatning keng tarqoqliligi bu hokimiyatdan foydalanishni tartibga solib turadi va undan zararli foydalanish imkoniyatlarini chegaralab boradi. Demak, iqtisodiy imkoniyatlar uchun kurash iqtisodiy birliklarning o'z foydasini ko'zlab, bir-biriga zarar keltirishiga to'siq bo'lib xizmat qiladi. Raqobat

sotuvchi va xaridorlarning o'z manfaatlarini ta'minlashi amalga oshuvi chegaralarini belgilab turadi. Shuning uchun ham raqobat bozor iqtisodiyotida asosiy tartibga soluvchi kuch bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida qayd etib o'tilgan raqobatlarining ikkinchi tomoni - ishtirokchilarning tanlov erkinligidir. Bozor sharoitida har bir tadbirkor istagan tovari bilan ish ko'rish, xohlagan tarmoqda faoliyat ko'rsatish va zarur topganda hech qanday to'siqlarsiz va qiyinchiliksiz bu tarmoqdan chiqib ketib, boshqasiga o'tish imkoniga ega. Bu bilan ma'lum tarmoqlar, sohalarning zaruriyatga qarab kengayishi yoki torayish imkoni ta'minlab boriladi. Chunki talab va taklif muvozanati tufayli ishlab chiqaruvchi va xaridorlarning tarmoqlararo harakati erkinligi ta'minlanadi. Bunday sharoit iqtisodiy moslashuvni ta'minlaydi va samaradorlikning saqlanib qolishiga imkon tug'diradi.

Endi esa raqobatning faqat tarmoqlar manfaati bilan chegaralanmay, tarmoqlararo va umumjamiyat manfaatlari borasidagi ta'siri va harakatini ko'rib chiqamiz. Bozor mexanizmlariga bo'lgan talab va taklif orqali iste'molchilar va jamiyat istaklari korxonalariga, korxonalar orqali esa resurslar bilan ta'minlovchilargacha yetkaziladi. Bu jarayonda raqobat ta'sirini ko'ramiz. Ma'lumki, iste'mol talabining ko'tarilishida baho o'z aksini topadi. Talab ortib borishi tufayli baho ko'tarilib boradiki, natijada yuqori foyda olinadi. Bu, o'z-o'zidan, shu mahsulotlarga talab oshganidan va ularni ko'proq ishlab chiqarish kerakligidan dalolat beradi. Raqobat, ayniqsa, bunga qo'shiluvchi yangi firmalar ishlab chiqarishni kengaytirib, bahoning xarajatlar darajasida bo'lishini ta'minlashi mumkin. Agarda bu jarayonga raqobatning ta'siri bo'lmay, monopoliyalik mavjud bo'lsa, o'zgarish yuz bermaydi va ortiqcha foyda olish davom etaveradi.

Raqobat faqat jamiyat talabiga e'tibor berish va ba'zi tarmoqlarning kengayishi va qisqarishiga olib kelish bilan chegaralanmay, firmalarni eng samarali texnologiyaga o'tish, ilg'or ishlab chiqarishni ta'minlab borishga undaydi. U past va kam samarali texnologiya asosida ishlab chiqarishni uyushtirgan firmalarni qo'llamaydi va ularning boshqa ilg'or raqiblar tomonidan siqib chiqarilishiga olib keladi. Shuning uchun raqobat, aytganimizdek, texnik taraqqiyot imkonini qo'llaydi va uni keng taraqqiyotga undaydi.

Raqobatli bozorning eng muhim tomonlaridan yana biri xususiy va ijtimoiy manfaatlar uyg'unligining ta'minlanishidir. Chunki bu juda muhim va o'ta zarur bo'lgan manfaatlar tengligiga xos hodisadir. Bunda o'ta muhim bo'lgan davlat manfaati ham ko'zda tutiladi. Ta'kidlaganimizdek, tadbirkorlar eng tejamli resurslar kombinatsiyasini, ya'ni mavjud raqobat sharoitida xususiy manfaatga ham to'la mos keladigan kombinatsiyani qo'llaydilar. Tadbirkorlarning texnik taraqqiyotga asoslanmagan holdagi ishlab chiqarishi zarur foyda bermaydi va pirovardida sinishga olib keladi. Shu bilan birga kamyob resurslarni ishga solish, kam xarajatli ishlab chiqarishni uyushtirish eng samarali usullardan bo'lib, bu jamiyatga juda foydalidir.

Xulosa qilib aytganda, raqobat kuchi shaxsiy manfaatni tartibga solib, uni shunday yo'naltiradiki, u o'zidan-o'zi jamiyat manfaatining maqsadga muvofiq ravishda ta'minlanishiga olib keladi. Bozorga xos "ko'zga ko'rinmaydigan qo'l" ta'siri shunday yakunlanadiki, firmalar o'z foydalarini imkoni boricha yuqori darajaga yetkazsalar, jamiyat mahsuloti ham shunchalik yuqori darajada bo'ladi.

Raqobatning bo'lishi, raqobat ta'sirining kuchayishidagi asosiy shart xo'jaliklarning turli-tumangligidir. Umuman, kurash to'g'ri, halollikni talab qiladi.

Bozor iqtisodiyotida turli xil xo'jaliklar, ularning egalari bir-birlarining raqiblari bo'lib, raqobat jarayonida faol ishtirok etishlari kerak. Xo'jalik turlari juda oz yoki bir xil bo'lsa, raqobatning ta'sir doirasini kengaytirish uchun sharoit bo'lmaydi. Raqobat uchun xo'jalik usullari va shakllari ko'payishi kerak. Ayniqsa, xususiy xo'jaliklar ko'payib, asosiy o'rinni egallashi zarur. Xususiy xo'jaliklar bilan bir qatorda kooperativlar, birlashma, qo'shma xo'jaliklar ko'payishi talab etiladi. Davlat xo'jaliklari ham shaklan va ham mazmunan o'zgarib, bozor talablari asosida qayta tashkil etilishi kerak. Bulgarga hissador (aksiyador)lik jamiyatlari, ijara xo'jaliklari kabilarga misol bo'lishi mumkin. Yuqorida ta'kidlanganidek, busiz xo'jalik yuritishda mustaqillik bo'lmaydi, mustaqilliksiz raqobatni tasavvur etish qiyin va umuman, bozor mazmunsiz bo'ladi. Raqobat jahon iqtisodiyoti miqyosida ham bo'lib, u mamlakatlar milliy iqtisodiyotiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro raqobat kurashini olsak, u mamlakatlar o'rtasidagi, shuningdek, xalqaro yirik birlashmalar, ayniqsa, transmilliy korporatsiyalar o'rtasidagi kurashdir. Bunda xalqaro bozorlarni egallash, xomashyo hududlarini o'zlashtirish, ilmiy-texnika manbalarini qo'lga kiritish kabi asosiy tarmoqlarni ko'proq egallashga urinishlar sodir bo'ladi. Natijada iqtisodiy taraqqiyot manbalarini o'z ixtiyoriga olish, buning asosida o'z boyliklarini ortirish, olinadigan foydaning darajasini ko'tarish kabilarga muayassar bo'linadi.

Jahon iqtisodiyotiga qo'shilib borish, xalqaro bozorda ta'sirli kuchga ega bo'lish va xalqaro mehnat taqsimotida manfaatli o'rinnlarni egallash xalqaro raqobat tufayli amalga oshadi. Bu barcha mamlakatlarni kuchli iqtisodiyotga ega bo'lishga, ilg'or ishlab chiqarish darajasini qo'lga kiritishga undaydi.

Jahon miqyosida faoliyat ko'rsatuvchi mamlakatlar va birlashmalar soni ortib bormoqda. Bu faqat jahon iqtisodiyoti taraqqiyotigagina emas, balki ichki bozordagi monopoli holatning oldini olishga ham ta'sir etmoqda. Chunki bozorda sotuvchilar qancha ko'payib borsa, monopoli ta'sir shuncha zaiflashib boradi. Ko'pchilik mahsulot bozorlarida mayda firmalar kamayib, yiriklari ko'payib bormoqda. Bu resurslar bozoriga ham taalluqlidir. Mehnat bozorida kasaba uyushmalarining faoliyati ham shunday mazmunda bo'ladi. Bir qator yuqori foydali tarmoqlarda patent mushkulligi va boshqa tur resurslardan foydalanishdagi to'siqlarning ko'payib borishi raqobat kuchini zaiflashtiradi. Lekin jahon raqobat kurashi natijasida chet el mahsulotlarining kirib kelishi bozor ishtirokchilarini ko'paytirish orqali ichki raqobat imkoniyatlarini oshiradi.

Chunonchi, AQSH, G'arbiy Yevropa, qisman Yaponiyani olsak, ularda avtomobil va po'lat bozorlari kabi oziq-ovqat mahsulotlari, resurslar bozorlarida ham yirik firmalar hissalarini oshib, bu raqobatga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ma'lumki, hozirgi davrda bir qancha oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha chet el firmalari o'zlariga yo'l ochib, istiqbollarini ta'minlamoqdalar. Masalan, Gollandiya oziq-ovqat eksporti bo'yicha yetakchi o'rinda chiqdi.

Raqobatning bozor iqtisodiyotidagi ahamiyatini e'tiborga olgan holda marketing konsepsiyasida raqiblariga, uni tanlashga katta e'tibor beriladi. Raqiblarni, avvalo, firmalarga qarab belgilash kerak, ya'ni qaysi firmalar qanday tovarlarni bozorga chiqaradi, sotuvchi sifatidagi raqiblarni aniqlash va ularni o'rganishga qaratilgan ishlarni belgilash va amalga oshirish talab etiladi. So'ngra xaridor-raqiblar o'rganiladi. Bunda mashhur "Marketing asoslari" kitobi muallifi Filip Kotlyar raqiblarni to'rtga

bo'lib o'rganishni tavsiya etadi: 1) istak bo'yicha raqib; 2) tovar turi bo'yicha raqib; 3) tovar xili bo'yicha raqib; 4) tovar markasi bo'yicha raqib.

Iste'molchilar xarid qilish bo'yicha qanday qarorga kelishini aniqlash har bir firma uchun ko'proq o'z tovarini sotish yo'lini topish, ya'ni o'z xaridorlarini aniqlash imkonini beradi. U "Neksiya", «Lasetti», «Matiz» mashinalarini chiqaruvchi Asakadag zavodni misol keltirib, avvalo, xaridorlar qanday tovarlar sotib olishlari mumkinligi ular orasida qanchasi transport vositalari, so'ngra qanchasi mashina sotib olishi, oxir mashinaning "Neksiya" markalisini qancha xaridor sotib olishi mumkinligini va umuman boshqa markali mashinalarni sotib oluvchi raqiblarni Rossiya, Qozog'iston va boshqa davlatlarda aniqlab, o'z xaridorlarini ko'paytirish choralarini qo'llashini qayd qiladi.

Raqobat asosiy tartibga solish mexanizmi sifatida ishlab chiqaruvchilar va resurslar bilan ta'minlovchilarni xaridorlar hukmiga yoki iste'molchilar mustaqilligini ta'minlash manfaatiga to'la bo'ysundiradi. Haqiqatan ham, raqobat sharoitida ko'pchilik sotuvchi va xaridorlarning hukmi bozor bahosini belgilaydi, ya'ni yakka holdagi ishlab chiqaruvchilar va resurslar bilan ta'minlovchilar xaridorlarning istagiga moslashadilar. Bu istaklarni bozor tizimi inobatga olgan holda sotuvchilarga yetkazadi. Bozor tizimiga bo'ysunib ish tutuvchi raqobatdagi ishlab chiqaruvchilar foydaga ega bo'lib, o'z mavqelarini mustahkamlab borsa, bozor qonunlarini buzuvchilar zarar ko'radi va ularni sinish, bankrotlik kutishi mumkin. Raqobatning kuchli ta'siri sharoitida xaridorlar xo'jayin, bozor ularning vakili, korxonalar esa xizmatkori vazifasini bajaruvchi hisoblanadi.

## 12.2. Monopoliya va antimonopol siyosat

Bozor iqtisodiyotida monopoliya raqobatga qarshi sharoitda paydo bo'ladi va ta'rif raqobat ta'siri sharoitini o'zgartiradi.

Monopoliya — bozorda yuzaga keladigan iqtisodiy hodisa bo'lib, unda yirill sotuvchi yoki xaridorlar o'z iqtisodiy qudratiga suyanib, boshqa bozor ishtirokchilari hukmlarini o'tkazadilar. Bunda monopolchilarning shaxsiy manfaatiga asoslangan ularning foydasini ko'zlagan shartlar uchun majburiy hisoblanadi. Bularga nisbatan boshqalar bozorga ta'sir o'tkazuvchi kuchga ega bo'lmay, o'z manfaatlarini ko'zlash imkonidan mahrum bo'ladilar. Taklif hajmi va bozordagi baho monopoliya tomonidan belgilanadi.

Monopoliya holati firmalarga juda qo'l keladi. Chunki xaridorlarga qaran bo'lish, ularning didiga qarab ish tutish zaruratidan xoli bo'lib, talabiga zid ish ko'risl imkoni tug'iladi. Agarda xaridorlar majburiy qo'yilgan baholardan norozi bo'lsalar monopolchi ishlab chiqarishni qisqartirib, savdoga chiqadigan tovar (xizmat)larni kamaytirishi mumkin. Bunda xaridorlarning mavjud yuqori bahoni tan olishdan boshq iloji qolmaydi, albatta. Bu xaridorlarga qanday ta'sir etishi, kam xarajatli oilalar ahvol og'irlashuvi bilan monopoliyaning ishi bo'lmaydi. Monopolchilarni faqat bir narsa yuqori foyda va katta daromad qiziqtiradi.

Monopol bozorni boshqarishning turlicha foyda olish usullari mavjud bo'lishig qaramay, ularning hammasi jamiyat uchun katta iqtisodiy zarar keltirishini insoniyat o'tarixida ko'rib o'tdi. Jamiyatning me'yoriy talabiga mos keladigan monopoliyalar har bo'ladi. Bularni, albatta, iqtisodiyot siqib chiqarmaydi va jamiyat ta'qiqlashni istamaydi. Masalan, firma noyob tovarlar ishlab chiqarsa, bunda eng yang

texnologiyani, foydadan xoli bo'lmagan holda past narxlarda sotish usulini qo'llab, bozorni egallasa, buning yomon tomoni yo'q. Tabiiy usulda yuzaga kelgan monopoliya qonuniy bo'lib, uni yo'q qilish maqsadga nomuvofiq yoki iqtisodiy foydadan xoli emas.

Bunday monopoliyalar tabiiy boyliklardan foydalanish, transport, aloqa yoki kommunal xo'jalik tarmoqlarida bo'lishi mumkin. Masalan, juda noyob foydali qazilma uchun bitta shaxta yetarli bo'lib, ikkinchi raqibning keragi yo'q. Shuningdek, aloqa shaxobchalari, gaz quvurlari, kabilarni ko'rsatish mumkin.

Tabiiy monopoliya shunday holatni taqozo etadiki, bunda obyektiv kuchlar (tabiiy yoki texnik) sababli tovar ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish bir firma ixtiyorida bo'ladi, lekin bu jamiyat uchun foydali hisoblanadi. Buning oldini olib bo'lmaydi, hatto zaruriyati ham yo'q. Ammo narx-navoni bu monopoliyalar uchun davlat tomonidan yoki mahalliy hokimiyat tomonidan belgilash zarurati tug'iladi.

Jadvalda raqobat va monopoliya ahvolda qarab to'rt bozor modeli bo'lishi ko'rsatilgan. **Sof raqobat** modeli asosan yuqorida qayd qilingan sharoitlarga mos keladi. Bunda baho shakllanishi to'la erkin holda yuz beradi va sotuvchilar, xaridorlar juda ko'p bo'ladi. Bularning kelishib olib ish tutishlari, ozchilikning bozorda hukmini o'tkazishi, bir qism sotuvchilarning bahoni o'zgartira olishiga imkon beraydi. Ilgarilari asosan shunday bo'lgan bo'lsa ham keyingi vaqtlarda bozor sharoitlari o'zgarib, deyarli sof raqobat ta'kidlab o'tilgan darajada bo'lmaydi. Bunga e'tibor berishning sababi shuki, hozirgi vaqtda ham bir necha tarmoqlardagi raqobat shu modelga xosdir. Shu bilan birga sof raqobat oddiy holatni aks ettirib, bunda "daromad" va "xarajat"lardan yaxshi foydalanish mumkin.

**Sof monopoliyani** olsak, bunda eng muhimi, mahsulot ishlab chiqarish bir firma ixtiyorida bo'ladi. Uning o'rni oluvchi yo'q, ya'ni u haqiqatan ham bozorda tanho. Monopoliyaning barcha xususiyatlari shundan kelib chiqadi. Bu modelning to'rt muhim jihati ko'rsatish mumkin:

1) sotuvchi yakka, tarmoqning tengdoshi yo'q, chunki firma yakkayu-yagona;

2) sotiladigan mahsulot juda yuqori darajada bo'lib, undan yaxshirog'i yoki uning o'rini bosadigani yo'q (ko'pincha ba'zi xomashyo va yangi mahsulot ta'minotchilariga xos);

3) monopolist bozorga o'z hukmini o'tkazadi, bahoni nazorat qiladi, tovarning bozorga kelish jarayonini o'z qo'lida ushlab turadi;

4) monopolist tomonidan raqiblar uchun bozorga kirish yo'li to'la to'siladi. Bunda uning yagonaligi ish bersa, zarurat tug'ilsa, sun'iy to'siqlar ham ishga solinadi. Ayniqsa, bunda patent, litsenziyalardan to'la foydalanish mumkin.

Hozircha shu bilan chegaralanib (chunki quyida yana monopolizmga qaytamiz), bundan keyingi model — **monopol raqobatni** ko'rib chiqaylik. Bunda tanholik yoki ommaviylik sharoiti hukmron bo'lmay, bozorda nisbatan ishlab chiqaruvchilar ko'p bo'ladi-yu, lekin ularning tovarlari bir xil bo'lmay, farqlanadi. Shuning uchun ham ishlab chiqaruvchilar va firmalar minglab bo'lmay, o'nlab bo'lsa yetarli. Sof raqobatda standartli tovarlar yoki bir xil tovarlar bozorga olib chiqilsa, bunda tabaqalashtirilgan tovarlar olib chiqiladi. Tabaqalashtirish yoki turlilik mahsulot va xizmatlar sifatiga taalluqli bo'lgani tufayli iste'molchining bularga munosabati narx-navoga bog'liq bo'lmaydi. Aytaylik, vinolarning alohida xillari yoki bir xil turdagi shokolad kabilarni misol keltirish mumkin. Kiyim modalarida buning o'rni katta, albatta. Bunda raqiblariga

nisbatan bo'lgan ta'sir va munosabat faqat baholar orqali bo'lmay, tovar va xizmatla turililigiga katta e'tibor berish yo'li bilan ham amalga oshadi hamda bu asosiy tamoyi hisoblanadi. Bu modeldagi bozor, ya'ni monopoli raqobatning muhim xususiyatlarida; yana biri shuki, tarmoqqa kirish va ma'lum tovar bozorida ishtirok etish oson ko'chadi Bunday bozor ishtirokchilari juda yirik ishlab chiqarishga ega bo'lmay, nisbatan katt bo'lmagan firmalar bo'lib, ularning xarajatlari uchun katta mablag' talab etilmaydi.

**Monopol raqobatdagi** monopollik mazmunini nima belgilaydi, degan savtug'ilishi mumkin. Bunga javoban shuni aytish mumkinki, tovar xilma-xilligi, sotuv gchiqariladigan tovarlarning farqlanishi va o'ziga xos monopol egaligining mavjudligi bozorda monopol hukmronlikni yuzaga keltiradi. Tovar ishlab chiqaruvchi yagon bo'lmay, yana uning qatorida boshqalar ham bo'lishi va tarmoqqa kirish erkinligi mavjudligiga qaramay, u o'z tabaqalashgan tovari yoki xizmatiga o'zi baho qo'yis imkoniga ega bo'ladi. Bundan tashqari, bu bozorda kichik va o'rta ishla chiqaruvchilar bilan birga yiriklari ham ishtirok etadi. Shuning uchun ham hozirg zamon mamlakatlar harbiy bozori tuzilishida monopoli raqobat ustunlik qiladi.

Keyingi model — **oligopoliya** bo'lib, u raqobatda ishtirok etuvchilamin ozchilikni tashkil etishi bilan farqlanadi. Agar bozordagi raqiblar ko'pchilik bo'lmay juda ozchilikni tashkil etib, soni o'ndan oshmasa, buni oligopoliya deyiladi. Bu taxmina sof monopoliya va monopoli raqobat o'rtasidagi bozor modelidir. Aytaylik, AQShda q avtomobil sanoatida uch yirik firma hukmronlik qiladi: "Djeneral motorz", "Ford" v "Kraysler". Yaponiyada ham bir nechta gigantlar mavjud. Shularga o'xshaga gigantlarning bozordagi hukmronligi oligopoliya mazmuniga ega bo'ladi.

Oligopollar bir xil yoki tabaqalashtirilgan tovarlar ishlab chiqarishi mumkin. B xillilik ko'pincha xomashyo va yarimfabrikatlar bozoriga xosdir. Aytaylik, ruda, nel po'lat, sement, texnik spirt kabilar. Tabaqalashtirish asosan iste'mol buyumlariga xo Albatta, ozchilikni tashkil etgan firmalarning bir-birlari bilan kelishuvi juda oson. U: monopol baho, bozorlarni bo'lib olish va raqobatning boshqa tomonlariga osonlikc ta'sir etib, uni chegaralay oladilar. Shunday qilib, oligopoliya sof monopoliyaq yaqinlasha oladi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, oligopol bozordagi raqobat ishlab chiqaris konsentratsiyasiga bog'liq. Ular ko'p bo'lsa, ya'ni ko'p sonli firmalar mavjud bo'ls raqobat ta'siri kuchliroq bo'ladi, agar firmalar oz sonli bo'lsa, raqobat zaiflashac monopollik ustunlik qiladi.

Oligopol bozorning rivojlangan raqobatdan muhim farqi shuki, u baho haraka bilan bog'langandir. Raqobat bozorida baholar to'xtovsiz va tez-tez o'zgarib turs oligopol bozorda juda kam o'zgarib, ancha turg'unlikka ega bo'ladi. Baholarni, yetace firma bo'lsa, u belgilaydi, qolganlar uning ketidan ergashadilar. Shunday qilib, raqob va monopoliyalar ta'siri ostida bozor modellari turiligi to'g'risidagi umum tushunchalar bilan tanishib chiqdik. Endi yuqorida aytganimizdek, sof monopoliyaq qaytib, bahoning shakllanishi va umuman, unga xos ba'zi muhim jihatlarni to'lar ko'rib chiqaylik. Bunda harakatlar, baho va daromadlar o'zgarish chizig'idi: foydalanamiz. Sof raqobatli bozor sharoitida elastik, ya'ni o'zgaruvchan talab mavji bo'lib, talab chizig'i pirovarddagi daromad chizig'iga to'g'ri keladi. Monopolistni: talab chizig'i tarmoqlar talab chizig'iga mos keladi. Shunga ko'ra, u pasayi xususiyatiga ega. Bunda birinchi sotilgan yuqori bahodagi tovarga nisbat keyingilarining bahosi pasayib boradi. Daromad ham shu tarzda bo'ladi. Ammo sl



narsani ham e'tiborga olish kerakki, doimo baho hisobiga daromad olib bo'lmaydi. Bahoning ko'tarilishi hamma vaqt monopoliya uchun foydali deb bo'lmaydi. Bu boradagi eng ma'qul yo'l ishlab chiqarishni o'stirish va taraqqiy ettirishdir.

Yakka firma mavjudligi va sof monopoliya sharoitida raqobat yo'q bo'lishi mumkin emas. Chunki bu firma resurslar, ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi bozorida xaridor sifatida raqobatga uchraydi. Jahon bozori ichki bozordan farqlanadi. Aytaylik, AQSH yirik avtomobil konsernlari Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Shvetsiya kabi mamlakatlar avtomobil firmalari bilan raqobat kurashida bo'ladilar. Bularning hammasi monopoliyaning sof mazmunini inkor etmaydi va aksmonopoliya siyosatini qo'llash talab etiladi. Bu siyosat XIX asrning oxirida boshlangan bo'lib, hozirgacha takomillashib kelmoqda. Davlatning monopoliyalarga qarshi birinchi qonuni – antitrust qonun 1890-yilda AQSHda chiqarilgan bo'lib, bu "Sherman qonuni" deb atalgan. Bu qonun keyinchalik bir necha bor qayta ko'rib chiqildi. Bunday qonunlar bozor iqtisodiyotidagi ko'pchilik mamlakatlarga mansubdir. Respublikamizda raqobatni rivojlantirish va monopoliyadan chiqarish qo'mitasi bor. Uning asosiy vazifasi monopoliyaga qarshi kurashishdir.

Aksmonopoliya siyosati asosan uch yo'nalishni – ishlab chiqarish tarkibini boshqarish, aksiyalarni sotib olish me'yorini belgilash, baholarning taklif va talab muvozanati darajasini ta'minlashga qaratilgan choralami o'z ichiga oladi. Ya'ni:

a) ishlab chiqarish tarkibini boshqarishga oid choralar korporatsiyalar uchun shu xil mahsulotlarning yarmidan ortig'ini ishlab chiqarish mumkinligidan va bu jarayonni nazorat qilishdan iborat;

b) yirik korporatsiyalar ishtirokchilarining aksiyalar sotib olish hajmi chegaralanadi. Bunda aksiya bir korporatsiya ixtiyoriga o'tishi bilan monopollashuvga olib bormasligi e'tiborga olinadi. Chunki ko'p miqdorda aksiya sotib olish yo'li bilan tarmoq ustidan nazorat miqyosini kengaytirishga yo'l qo'yilmaydi. Agarda biron bir korporatsiya boshqalar aksiyasining asosiy qismini sotib olsa, qo'shilishga va monopoliyaga olib kelishi mumkin, natijada bu tarmoqda raqobat ta'sirining so'nishi yuz beradi;

v) baho sohasida kelishib olishga yo'l qo'yimaslikka qaratilgan choralar akskartel qonunlari, deb ataladi. Baho to'g'risida shartnomalar tuzib, monopoliya yuzaga kelsa, buni kartel deyiladi. O'z vaqtida bu Germaniyada juda avj olib, hatto Germaniya "Kartel mamlakati" deb atalgan edi. Albatta, bozorlarni taqsimlab, bir xil baholar ustida kelishib olish iste'molchilarning manfaatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va zarar keltiradi.

Aksmonopol qonunlar raqobat sharoitini yaratish va erkin iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashga qaratiladi. Lekin gap faqat bunday qonunlarning bo'lishida emas, balki ularning ijrosini ta'minlash, nazorat qiluvchi organlarning takomillashuvidadir. Shunday amaliy nazorat ostida samarali ishlab, haqiqiy bozor raqobati ta'minlansa, monopoliyalar hukmronligining oldini olish imkoni tug'iladi. Bunday ahvolni bozor iqtisodiyoti rivoj topgan ko'pchilik mamlakatlarda ko'rish mumkin. Bu, ayniqsa, AQSH, Yaponiya, Germaniya, Fransiya va boshqa bir qancha mamlakatlarga taalluqlidir.

Monopoliyalar mavjud bo'lgan mamlakatlarda monopoliyalarga qarshi kurash olib borilsa, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda bozorning shakllanishi, raqobat sharoitini yaratish uchun harakat qilinadi. Bunday mamlakatlarda, ayniqsa, totalitar

tizimlarda davlat monopoliyasini yo'q qilish asosiy maqsad bo'ladi. Shunga e'tibor berish kerakki, raqobat shakllangan mamlakatlarda davlatning faol harakati raqobatni takomillashtirishga qaratilsa, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda raqobatni shakllantirishga qaratiladi. Davlatning raqobat sharoitini yaratishdagi faoliyati nodavlat xo'jaliklarni ko'paytirish, davlat xo'jaliklarini esa bozor munosabatlari ta'siriga moslash mazmunida bo'ladi. Borgan sari davlat mulki hisobiga boshqa xil mulklarni kengaytirish, korxonalarni aksionerlashtirish va bunga ko'pchilikni jalb eta borish, bozor talabiga xos soliq, boj, import-eksport tizimlarini yaratish, tijorat kreditlari doirasini kengaytirish, xo'jalik faoliyatlarini ma'muriy ta'sirlardan ozod etish, tadbirkorlikni ta'minlash kabi raqobat uchun zarur sharoitlarni shakllantirib borishda, albatta, davlat faoliyati kuchayishi zarur.

Raqobat usullarini qo'llash va aksmonopoliya siyosati darajalari bozor holatiga bog'liqdir. Masalan, tovarga to'yingan bozor va uning aksi bo'lgan to'yinmagan bozor bo'lishi mumkin. Bozor shakllanayotgan O'zbekiston va unga o'xshash respublikalarda tovar (xizmat)lar mo'l-ko'lligi hali ta'minlanmagan. Bunda erkin tovar tanlash imkonini yo'q va xaridlik darajasi ancha cheklangan. Bunday bozorda baho raqobati juda qo'l kelishi mumkin. Chunki bahoning talab o'zgaruvchanligiga ta'siri kuchli bo'lib, baho pasaygan sari xaridorlar ko'payib boradi. Bahoni pasaytirmaydigan, shuningdek, bahoning harakat xususiyatini o'z vaqtida payqamagan ishlab chiqaruvchi bozordan siqib chiqarilishi turgan gap.

Tovarlarga to'yingan bozorda esa tovar (xizmat) turlari serob, tanlab xarid qilish uchun imkoniyat juda keng bo'lib, elastik talab hukmronlik qiladi. Bunda daromadli puldorlar ko'pligi, bahoga e'tibor kuchli bo'lmaganligi umumiy bozor holatini belgilaydi. Bunday sharoitda bahosiz raqobat ustunlik qiladi. Lekin baribir qanday bo'lmasin sog'lom raqobat uchun kurash bozor taraqqiyotining asosi bo'lib, aksmonopoliya siyosati bunga yordam berishi kerak.

Aksmonopoliya siyosatining ta'siri haqida xulosa qilib shuni aytish mumkinki, samarali iqtisodiyot yirik monopolistik iqtisodiy tuzumga qarshi kurash va monopol harakatlarning oldini olish hamda raqobat ta'sirini kuchaytirishni talab etadi. Aksmonopoliya siyosatida qonunchilik budjet va banklarning moliyaviy harakatlari bilan to'ldiriladi. Bir tomondan, soliq oldida barcha xo'jalik ishtirokchilari bir xil tenglikka ega bo'lsa, ikkinchi tomondan, muqobil ishlab chiqarish yaratilib, kichik va o'rta korxonalar uchun soliq sohasida ma'lum imtiyozlar bo'lishi zarur.

Bozor munosabatlari ta'siri kuchaygan sari raqobat ham o'z mazmunini o'zgartirib boradi, ya'ni takomillashadi. Albatta, hozirgi davrdagi raqobat holati, uning ta'sir etish mazmunini oldingi bozor raqobatidan tubdan farq etadi. Sobiq sho'ro bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat juda stixiyali, shafqatsiz ta'sirda bo'lib, uni haqiqatan ham "yovvoyi raqobat" deb atashar, u nomiga yarasha ta'sir mazmuniga ham ega edi. Hozirgi davrda davlat ta'siri, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi "yovvoyi raqobat" bilan "madaniylashgan raqobat"ni yuzaga keltirgan. Lekin "yovvoyi raqobat" faqat o'tgan davr uchun xos, deb bo'lmaydi. Madaniylashgan raqobat aralash iqtisodiyot sharoiti uchun xos bo'lib, sekinlik bilan hukmron raqobat turiga aylanadi.

## 13-bob. IQTISODIYOTNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLINISHI

### 13.1. Iqtisodiy davrlar va iqtisodiy tebranishlarning sabablari

Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish tarixini o'rganish ulardan hech biri uzoq muddatda bir tekis rivojlanmaganligi, aksincha, barcha malakatlar uchun davriy rivojlanish xos ekanligini ko'rsatadi. Ishlab chiqarish, bandlilik va inflyatsiya darajasining davriy tebranishiga iqtisodiy davr (sikl)lar deyiladi. Ayrim iqtisodiy davrlar boshqalaridan o'tish davrining davomiyligi va faolligi bilan farq qiladi. Shunga qaramasdan ularning barchasi bir xil bosqichlardan tashkil topadi.

*Iqtisodiy davrlar to'rtta bosqichni o'z ichiga oladi. Birinchi bosqich* iqtisodiy rivojlanishning eng yuqori darajasiga erishilgan bosqich bo'lib, u «cho'qqi» deb yuritiladi. Bu iqtisodiyotda ish bilan to'liq bandlik, ishlab chiqarish to'la quvvatda ishlayotganligi, shuningdek, mahsulotlar baho darajasining o'sish holati kuzatiladi. *Keyingi ikkinchi bosqich «pasayish» deb yuritiladi* – ishlab chiqarish hajmining pasayishini xarakterlovchi bosqichdir. Bunda bandlik darajasi kamayadi, ammo bahoning o'sish darajasi pasaymaydi. Ishlab chiqarishdagi kamayish bosqichi faol va uzoq davom etsagina bahoning o'sish darajasi pasayishi mumkin. Pasayishning quyi nuqtasida *uchinchi bosqich* ishlab chiqarish va bandlik eng quyi darajaga tushadi. *Jonlanish bosqichida* ishlab chiqarish va bandlik darajasi asta-sekin oshib, ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanish va to'liq bandlik darajasiga erishiladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, iqtisodiy davrlar bir xil bosqichlarga ega bo'lsada, ammo ular davomiyligi va faolligiga ko'ra o'zaro farq qilib turadi. Shuning uchun ham iqtisodchilar, bu jarayonlarni iqtisodiy davrlar deb emas, balki iqtisodiy tebranishlar, deb atash to'g'ri bo'ladi, deb hisoblashadi. *Iqtisodiy tebranishlarning asosiy sababi* sifatida iqtisodchilar *uch omilni* ko'rsatadi.

*Birinchi* guruh olimlar iqtisodiy tebranishlarning asosiy sababi *texnika va texnologiyalarda ro'y beradigan o'zgarishlar* deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, ishlab chiqarishda fan-texnika yutuqlarini qo'llash turli yillar davomida iqtisodiyotdagi tebranishlarga sabab bo'ladi.

Olimlarning yana bir guruhi iqtisodiy bosqichlarni *siyosiy va tasodifiy vaziyatlarga* bog'lashadi. Bu jarayonni *monitar siyosatga* bog'laydigan olimlar ham mavjud. Ya'ni, davlat qanchalik ko'p pul bosib chiqarsa, uning qadri shunchalik pasayib boradi, va aksincha, pul miqdori qanchalik kam bo'lsa, ishlab chiqarish ko'lamining pasayishi va ishsizlar sonining ortishi shunchalik tezlashadi.

Xullas, iqtisodiy bosqichlarni baholashga turli xil yondashuvlar mavjud. *Ammo barcha iqtisodchilar, ishlab chiqarish va bandlilik darajalarini umumiy talab va boshqacha aytganda, umumiy xarajatlar miqdoriga bog'liq, degan fikrni qo'llab-quvvatlaydilar.* Chunki korxonalar o'z tovar va xizmatlarini ularga talab bo'lsagina ishlab chiqaradi. Boshqacha aytganda, talab katta bo'lmasa, korxonalarda tovar va xizmatlarni katta miqdorda ishlab chiqarish foydali emas. O'z navbatida, ishlab chiqarishda bandlilik va daromadlar darajasi ham aynan shu sababli past bo'ladi. Umumiy xarajatlar miqdori qanchalik ko'p bo'lsa, ishlab chiqarishning o'sishi katta foyda olib keladi. Shuning uchun ishlab chiqarish, bandlilik va daromadlar darajasi ortib boradi.

### 13.2. Mehnat bozori va ishsizlik oqibatlari

Mamlakat iqtisodiyotida YAMM yoki YAIMni yaratishda qatnashadigan iqtisodiy resurslarning eng asosiylaridan biri mehnat resurslari hisoblanadi. Inson resurslari avvalo, yollanma xodimlar mehnati va insonlarning tadbirkorlik qobiliyatlaridan iborat. Mehnat yoki inson resurslarining ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini «Statistika», «Etnografiya», «Mehnat iqtisodi», «Ijtimoiy-madaniy kompleksni bashoratlash» fanlari qatori «Makroiqtisodiyot» fani ham o'rganadi.

«Makroiqtisodiyot» inson resurslarining ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishlarini tadqiq etish orqali ularni samarali boshqarishni maqsad qilib oladi. Chunki mehnat resurslari va ularning faol qismi bo'lgan ishchi kuchi ishlab chiqarish kuchlarining eng asosiy qismidir. Ishchi kuchi yoki iqtisodiy faol aholi deganda mehnatga layoqatli yoshdagi ishlayotgan va ishsiz yurgan aholining umumiy soni tushuniladi.

Mehnat resurslarini sifat jihatidan takomillashtirish iqtisodiyotning o'sish sur'atlari bilan bevosita bog'liqdir. Shuning uchun ham mamlakatda mehnat bozorini, mehnatni boshqarish institutlarini va uning iqtisodiy-huquqiy mexanizmlarini yaratish eng asosiy vazifalardan biridir.

Demak, mehnat bozori va uning bir maromda faoliyat ko'rsatishi quyidagi omillarga bog'liq:

- aholi soni, yoshi va jinsi tarkibining o'zgarishlariga;
- ish bilan bandlikdagi hudud va tarmoq o'zgarishlariga;
- qo'shimcha ishchi kuchini ishlab chiqarishga jalb etish mexanizmiga;
- ishlab chiqarish hajmiga, uning o'sish sur'atiga, ishlab chiqarish tarkibiga;
- mehnat resurslarini boshqarish usuli va boshqalarga.

Hozirgi sharoitda mehnat bozorida talab va taklif qonuni amal qiladi. Chunki ishchi kuchi ham boshqa mehnat resurslari qatori, tovar shakliga ega bo'lib, tovar-pul munosabatlariga faol jalb qilinadi. Uning bu xususiyati mehnat ko'rsatkichlari tizimida o'z aksini topadi. Ular orasida ish bilan bandlik va ishsizlik ko'rsatkichlari muhim ahamiyatga ega. Ya'ni, ishbilarmonlar ishchi kuchidan shunday miqdorlarda foydalanadilarki, bunda mehnatning yuqori mahsuli real ish haqi bilan yoki ish haqi hajmining puldagi ifodasi mehnatning yuqori mahsuli qiymatiga teng bo'lishi kerak. Agarda, real ish haqi hajmi oshsa, ishbilarmon ishchi kuchiga bo'lgan talabni qisqartiradi, agar real ish haqi hajmi kamaysa, ishchi kuchiga bo'lgan talab ortadi, ishchi kuchining taklifi esa oshadi.

Amaliyotda aholining «o'la ish bilan bandligi» degan tushuncha bor. Lekin bunday natijaga o'z-o'zidan erishish qiyin. Chunki aholining ishlamoqchi bo'lgan qismini ish bilan deyarli to'liq band qilib bo'lmaydi. Shuning uchun ham aholining ma'lum miqdorda ishsiz bo'lishi iqtisodiy jihatdan me'yoriy hol va asoslidir.

**Ishsizlar** ishchi kuchining bir qismi bo'lib, ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lmagan, lekin ishlashni xohlovchi va faol ish qidirayotgan aholidir.

Ishsizlikning quyidagi turlari mavjud:

**Friksion ishsizlik.** Unga ish qidirayotgan yoki yaqin vaqtlar ichida ish bilan ta'minlanishni kutayotgan ishchi kuchi kiradi. Ishsizlikning bu turi asosan ish yoki turar-joylarni o'zgartirish, o'quv yurtlarini tugatish va shuningdek, boshqa sabablardan kelib chiqadi. U doimo mavjud bo'lib, ma'lum bir darajada zarur hisoblanadi.

**Tarkibiy ishsizlik.** Tarkibiy ishsizlar guruhiga ishlab chiqarish strukturasi o'zgarishi natijasida ishchi kuchiga talab tarkibining o'zgarishi tufayli ishsiz qolganlar kiradi. Unga asosan malakalarini o'zgartirishi va oshirishi, ma'lumot olishi, yangi kasb egallashi lozim bo'lgan ishsizlar guruhlari kiradi. Friksion ishsizlik bilan tarkibiy ishsizlikning asosiy farqi shundaki, birinchisida, ma'lum malaka va tajriba mavjud bo'ladi va undan foydalanib, ish joylarini tezroq topib olishadi, ikkinchisida esa, ishchi kuchi darhol va tezroq ish joylarini topa olmaydi.

**Davriy ishsizlik** asosan ishlab chiqarishning pasayishi natijasida ishchi kuchiga bo'lgan talabning kamayishidan paydo bo'ladi. Davriy pasayish tovar va xizmatlarga bo'lgan yalpi talabning kamayishini, shunga muvofiq, yalpi talabning kamayishini va oqibatda aholining ish bilan bandligi qisqarishi va ishsizlikning o'sishini bildiradi.

**To'la ish bilan bandlik** ishchi kuchining 100 % ish bilan ta'minlanganligini bildirmaydi. Aksincha, friksion va tarkibiy ishsizlik ilojisiz hol bo'lganligini hisobga olsak, biz mutlaq to'la ish bilan bandlikka erishib bo'lmaganligini tushunamiz.

Agarda davriy ishsizlik bo'lmasa, u holda to'la ish bilan bandlikka erishiladi. To'la ish bilan bandlik davridagi ishsizlik **ishsizlikning tabiiy darajasi** deyiladi. Bunga ish qidiruvchilar soni bo'sh ish joylari soniga muvofiq kelsagina erishish mumkin. Ishsizlikning tabiiy darajasi friksion va tarkibiy ishsizlik yig'indisiga teng bo'ladi.

Ishsizlikning tabiiy darajasi doimiy emas, chunki u iqtisodiy vaziyat, qonun va milliy an'analar bilan bog'liq holda o'zgarib turadi. Umumiy holda ishchi kuchi ish bilan band va faol ish qidirib yurgan ishsizlarga bo'linadi. **Ishsizlik darajasi** deb, ishsizlarning ishchi kuchi nisbatiga (% nisobida) aytiladi va uni quyidagi formula bilan aniqlash mumkin:

$$\text{Ishsizlik darajasi} = \frac{\text{ishsizlar soni}}{\text{ishchi kuchi soni}} \times 100$$

Barcha mavjud resurslardan to'liq foydalanish yoki ishsizlikning tabiiy darajasi holatida iqtisodiyotda yaratilishi mumkin bo'lgan mahsulot hajmini iqtisodiyotning **ishlab chiqarish potentsiali** deb ataladi.

Potensial YAIMni hisoblashda mamlakatda ishsizlik mutlaqo yo'q deb emas, balki mavjud, biroq u tabiiy darajada, deb hisoblanadi.

Mahsulotlarning potentsial va haqiqiy ishlab chiqarilishi o'rtasidagi farq YAIM hajmining **uzilishi yoki orqada qolishi** deb ataladi. U potentsial ishlab chiqarishga nisbatan foizda aks ettiriladi.

$$\text{YAIM uzilishi} = \frac{\text{YAIM potentsial} - \text{YAIM haqiqiy}}{\text{YAIM potentsial}} \times 100$$

Ishsizlik darajasining oshishi natijasida iqtisodiyot potentsial YAIM hajmini olmaydi. Shu sababli mamlakat miqyosida ishsizlikni uning tabiiy darajasida saqlash va tartibga solish iqtisodiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan qanchalik yuqori bo'lsa, YAIM uzilishi shuncha ko'p bo'ladi. Shuning uchun har qanday potentsial hajmdagi YAIM haqiqiy YAIM dan katta bo'ladi.

ishsizlik darajasi va YAIM uzilishi o'rtasidagi miqdoriy nisbatni ingliz iqtisodchis Artur Ouken matematik holda isbotlab bergan. Shuning uchun bu qonun, Ouken qonuni deyiladi. Qonunning mohiyati shundan iboratki, agar haqiqiy ishsizlik ishsizlikning tabiiy darajasidan bir foizga oshib ketsa, milliy iqtisodiyot YAIMni ikki yarim foizga kam yaratadi. Ushbu nisbat ishsizlikning turli darajalaridagi mahsulot yo'qotishlar hajmini aniqlash imkonini beradi. Hozirgi kunda  $\beta$  koeffitsiyenti deb atalgan bu koeffitsiyent miqdori 2,5 va 3,5 foiz oralig'ida deb hisoblanadi.

Ouken qonunini formulada quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$YAIM_{uzilish} = -2,5(ITD-IHD)$$

Bu yerda: ITD – ishsizlikning tabiiy darajasi;

IHD – ishsizlikning haqiqiy darajasi.

Demak, mos ravishda ularning nisbati 1:2,5 yoki 2:5 ga teng. Bu formula yordamida yo'qotilgan YAIMning mutlaq qiymatini hisoblash mumkin. Misol uchun, 1992-yili ishlab chiqarish pasaygan davrda ishsizlik 9,5 % ga teng bo'lgan, deb olaylik. Ishsizlikning tabiiy darajasi esa 6 % ga teng bo'lishi kerak yoki ishsizlik uning tabiiy darajasidan 3,5 % ko'p: 3,5 % ni  $\beta$  koeffitsiyentiga (2,5) ko'paytirib, 1992-yilda YAIMning potensial YAIMdan 8,75 % ga kam olinganligini aniqlaymiz. YAIMning pastroq darajasi o'z navbatida, ishlab chiqarishda qatnashuvchilar daromadlarining nisbatan kamroq bo'lishini va iqtisodiyotning kelgusi taraqqiyotini investitsiyalash imkoniyatlari qisqarishini bildiradi.

YAIM uzilishini ifodalaydigan formula bilan Ouken formulasini umumlashtirib, quyidagi formulani olamiz:

$$\frac{YAIM \text{ potensial} - YAIM \text{ haqiqiy}}{YAIM \text{ potensial}} \times 100 \text{ q } \beta \text{ (ITD-IHD)}$$

### 13.3. Iqtisodiy o'sish asoslari va modellari

Iqtisodiy o'sish obyektiv qonuniyat bo'lib, aholi sonining o'sishi, fan-texnika taraqqiyoti (FTT), ishlab chiqarish hajmining ma'lum bir vaqt davomida o'sishi kabi jarayonlar bilan bog'langan. Iqtisodiy o'sish jami taklifning o'sishini yoki boshqacha aytganimizda, potensial YAIM hajmining oshishini bildiradi. Shunday qilib, iqtisodiy o'sish nafaqat ishlab chiqarishning o'sishini, balki iqtisodiyot potensialining o'sishini ham anglatadi.

Iqtisodiy o'sish deganda nafaqat mamlakat real daromadlarining o'sishi, shuningdek, jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlarning o'sishi ham tushuniladi. Iqtisodiy o'sish ikki xil usul bilan aniqlanadi va o'lchanadi.

Birinchi usulda YAIM (YAIM, SMM)ning o'tgan davrga nisbatan o'zgarishi sifatida aniqlanadi va mamlakatning umumiqtisodiy imkoniyatlari harakatini aniqlash uchun ishlatiladi.

Ikkinchi usulda real YAIM (YAIM, SMM)ning o'tgan davrga nisbatan aholi jon boshiga o'zgarishi sifatida aniqlanadi.

Iqtisodiy o'sishni aniqlash va asoslab berish jarayonlarida quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- o iqtisodiy o'sishni o'lchash;
- o o'sish omillari;
- o iqtisodiy o'sish modellari.

Milliy iqtisodiyot o'sishini o'lchashda jami daromad (mahsulot)larning har xil indikatorlaridan foydalanish mumkin. Umumiy o'sish darajasi aslida YAIM miqdori bilan belgilanadi. Shuningdek, bu ko'rsatkichlar miqdori va bajarayotgan vazifasiga qarab YAIM yoki MD ham bo'lishi mumkin. Bu ko'rsatkichlarning barchasi bir-biriga juda ham yaqin. YAIM ham YAIM kabi ushbu mamlakat aholisi olayotgan daromadlar miqdorini ko'rsatadi. Shuning uchun ham undan aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar dinamikasi va darajasini aniqlayotganda foydalanish mumkin. Iqtisodiy o'sish nazariyasi va modellarida umumiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning farqi unchalik katta ahamiyatga ega emas. Chunki ularning farqi iqtisodiy o'sish chegarasi va omillari o'sish darajasini tahlil qilishda hal qiluvchi jarayon hisoblanmaydi.

Iqtisodiy o'sish nazariyasida daromadlar iste'mol va investitsiyalarga bo'linadi:

$$Y = C + I$$

Davlat xarajatlari va sof eksport ko'rsatkichlari ham iste'mol va investitsiyalar tarkibiga kiritib yuboriladi. Mutlaq miqdordagi ko'rsatkichlar dinamikasi  $Y_t$  (t-vaqt indeksi) va jon boshiga to'g'ri keladigan ko'rsatkichlar birgalikda o'sish jarayonini bildiradi. Iste'mol hajmi  $C_t$  iqtisodiyotning pirovard maqsadini va yashash darajasi oshishini bildirsa, investitsiyalar esa  $I_t$  resurs imkoniyatlarining o'sishi va texnik yangiliklarning moddiylashishini anglatadi. Iste'mol va investitsiya o'rtasida yetarlicha muqobilik mavjud, chunki, joriy iste'mol miqdorining oshishi, investitsiyalarning daromadga ulushi pasayishi iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini qisqartiradi.

O'sishning barcha imkoniyatlariga real miqdorlarga tayanilib, doimiy narxlarda qaraladi. Aksincha, nominal ko'rsatkichda ularning dinamikasi nafaqat real o'sish darajasini, balki inflyatsiyani ham o'z ichiga olgan bo'lar edi.

Har bir ko'rsatkich bo'yicha uch xil miqdordagi dinamikani tahlil qilish mumkin:

1. Absolyut ko'rsatkich: masalan, real ishlab chiqarish  $Y_t$ ;
2. Absolyut qo'shimcha o'sish: masalan, ishlab chiqarishning oshishi.

$$Y_t = Y_t - Y_{t-1}$$

3. Qo'shimcha o'sish sur'ati:

$$Y_t / (Y_t - Y_{t-1}) * 100$$

Iqtisodiy o'sish sur'atlari quyidagi formulalar yordamida aniqlanadi:

- a) bazis o'sish sur'ati  $qY_t/Y_0 * 100$ ;
- b) zanjirli o'sish sur'ati  $qY_t/Y_{t-1} * 100$ .

Qo'shimcha o'sish sur'atlari esa:

- a) bazisli qo'shimcha o'sish sur'ati  $q(Y_t - Y_0)/Y_0 * 100$ ;
- b) zanjirli qo'shimcha o'sish sur'ati  $q(Y_t - Y_{t-1})/Y_{t-1} * 100$ .

Har bir mamlakat iqtisodiy o'sishga intiladi, chunki iqtisodiy o'sish, birinchidan, milliy mahsulot hajmi va daromadning ko'payishiga, ikkinchidan, resurslardan samarali

foydalanishga, uchinchidan, yangi-yangi ehtiyojlar va imkoniyatlar paydo bo'lishiga, to'rtinchidan, xalqaro bozorlarda mamlakat obro'sining oshishiga olib keladi.

Iqtisodiy o'sish usullaridan to'g'ri va o'z o'rnida foydalanish katta ahamiyatga ega. Chunonchi, mamlakat harbiy salohiyatini aniqlash va rivojlantirish muammosi qaralayotganda YAMM hajmining o'sishi, mamlakat aholisining turmush darajasi taqqoslanayotganda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ko'rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, Hindistonda ishlab chiqarilgan YAMM Shveysariyada ishlab chiqarilgan YAMM dan 70 % ga ko'p, ammo aholi turmush darajasi bo'yicha Hindiston Shveysariyadan 60 marta orqada.

Iqtisodiy o'sish, avvalo, foydalanilayotgan resurslarning soni va sifatiga, shuningdek, foydalanilayotgan texnologiyalarga bog'liq. Agarda, qaralayotgan omillar va iqtisodiy o'sish tarkibiy qismlari yaxlitlashtirilgan bo'lsa, iqtisodiy o'sishni ekstensiv va intensiv o'sishga bo'lish mumkin. Ya'ni, foydalanilayotgan resurslar miqdori o'zgarmay qolgan holda ishlab chiqarish o'ssa, bu to'liq intensiv omillar hisobiga amalga oshgan hisoblanadi.

Iqtisodiy o'sish bir nechta omillarga bog'liq. Bular:

- tabiiy resurslar soni va sifati;
- mehnat resurslari soni va sifati;
- asosiy kapital hajmi;
- texnologiyalar.

Ushbu omillarning barchasi ishlab chiqarishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu esa iqtisodiy o'sish istiqbollarini belgilashda ishlab chiqarish funksiyalaridan keng foydalanish imkonini beradi.

Xususan, respublikamizda fan-texnika yutuqlaridan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini rivojlantirish va natijalarni ishlab chiqarishga zudlik bilan qo'llash uchun yirik-yirik loyihalar ishlab chiqilgan va amalga oshirilmogda.

Bundan tashqari, respublika ta'lim tizimida keskin o'zgarishlar amalga oshirilmogda. Ya'ni, respublikada ko'p bosqichli «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi. Ushbu dasturga asosan yoshlarni xalqaro talablarga javob beradigan darajada o'qitishni ta'minlash bo'yicha ishlar amalga oshirilmogda.

Iqtisodiy o'sishga mamlakatning soliq tizimi ham sezilarli ta'sir qiladi. Soliqqa tortish stavkalarini kamaytirish va amortizatsiya ajratmalari me'yorining o'sish tomon o'zgarishi investitsiyalar hajmini ko'paytiradi va shu orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.

Umuman, ijtimoiy va ekologik muammolar kuchaygan deyarli barcha mamlakatlarda iqtisodiy o'sishga, eng avvalo aholi farovonligini ta'minlashning sharti sifatida qaralmogda. Chunki iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash zarurligi sababli rivojlangan mamlakatlarda amal qilgan iqtisodiy o'sishning miqdoriy nazariyasi o'z o'rnini iqtisodiy o'sishning sifat nazariyasiga bo'shatib berdi. Uning asosiy mohiyati kelajak avlodlar ehtiyojini va aholining kambag'al qatlamlari ehtiyojini hisobga olishidadir.

Xullas, davlat siyosati iqtisodiy o'sishning quyidagi muammolarini hal etishga yo'naltirilgan:



Qisqichli darajasi yuqori bo'lgan, iqtisodiyotning barqaror holatini ta'minlashga aratilgan omonat jam'arish me'yorlarini tanlash;

Qaholi o'sishini tartibga solish;

Qan-texnika taraqqiyotining ekologik jihatdan xavfsiz yutuqlarini joriy etish va rehnat unumdorligini oshirish.

Iqtisodiy o'sishning ijtimoiy yo'naltirilganligi kuchayib borishi bilan iqtisodiy azariya va amaliyotda «xalq farovonligi» tushunchasi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim mezonlari sifatida yanada kengaytirilmoqda.

Agar ilgari uning moddiy ta'minlanganlik miqdoriy ko'rsatkichlari aks ettirilgan o'lsa, hozirda birinchi o'ringa o'rtacha umr ko'rish, o'lim darajasi, shu jumladan, olalar o'limi, ishsizlik darajasi, daromadlar tengsizligi, ta'lim darajasi, atrof-muhitning floslanishi kabi ko'rsatkichlar qo'yilmoqda. Endilikda iqtisodiy o'sish shaxsning iwojlanib borishi uchun sharoit yaratib berishi lozim.

Iqtisodiy o'sishning salbiy oqibatlaridan biri aholini ijtimoiy, mulkiy abaqalanishining kuchayishi hisoblanadi. Shuning uchun ham davlat aholi turli qatlamlarini himoya qilish maqsadida ijtimoiy siyosat olib boradi.

Daromadlar darajasi bo'yicha tabaqalanishni aniqlash uchun, dastlab, aholi laromadlari miqdori aniqlanadi. Aholi daromadi ish haqi, dividendlar va foizlardan, huningdek, transfert o'lovlaridan tashkil topadi. Daromadlar kengroq ma'noda pulsiz roki imtiyozli narxlarda aholi oladigan tovarlar, ta'lim, sog'liqni saqlash, uy-joy :ommunal xo'jaligi, transport va boshqa xizmatlar bo'yicha imtiyozlar ko'rinishidagi o'lovlarni ham o'z ichiga oladi.

Ish haqi, dividendlar va foizlarni ishlab chiqarishda bevosita qatnashganlar laromadlar taqsimlanishi natijasida oladilar. Davlat daromadlarning taqsimlanishiga ish taqining eng kam miqdorini qonuniy ravishda o'rnatish orqali ta'sir ko'rsatadi. Eng am ish haqi ushbu mamlakatda tarkib topgan turmush sharoitiga bog'liq bo'lib, eng am iste'mol budjeti asosida aniqlanadi.

Davlat daromadlarning qayta taqsimlanishini asosan ikki xil tayanch vositalar ordamida amalga oshiradi:

1. Soliq tizimi;

2. Transfert dasturlari.

Davlat transfert dasturlaridan tashqari yana bir qator nodavlat va jamoat dasturlari ham mavjud. Davlat va nodavlat tashkilotlari transfert dasturlarining barcha turlari yagona maqsadga, ya'ni, aholi daromadlarini tenglashtirishga yo'naltirilgan.

Iqtisodiy o'sish modellarining umumlashtirilgan «karkasi»ni quyidagicha yozish, undagi har bir aniq modelni tuzayotganda ayrim qo'shimcha o'zgaruvchilar, cheklashlar, iqtisodiy sharoitlar va imkoniyatlardan foydalanish mumkin:

$$Y_t = F(K_t, L_t, t); \quad (1)$$

$$Y_t = C_t + I_t; \quad (2)$$

$$K_t = K_{t-1} + I_t - W_t; \quad (3)$$

$$I_t = \alpha Y_t; \quad (4)$$

$$W_t = \beta K_t. \quad (5)$$

Ushbu modellarning mazmuni quyidagilardan iborat:

(1) ishlab chiqarish funksiyasi formulasi: bu yerda  $t$  ga bog'liq holda modelga texnik taraqqiyotni tasvirlashni kiritish mumkin;

(2) daromadlarni iste'mol va investitsiyaga taqsimlashni ko'rsatuvchi asosiy makroiqtisodiy ayniyat;

(3) vaqtinchalik investitsiya bo'lmagan vaziyatda investitsiya va uning chiqib ketishini hisobga olgan holda kapital hajmi dinamikasini hisoblash formulasi;

(4) jamg'arish me'yori ( $\alpha$ ) orqali daromadlar va investitsiyalarni bog'lab turuvchi ayniyat;

(5) chiqib ketishning doimiy me'yori ( $\beta$ ) sharoitida kapitalning chiqib ketishi hajmini hisoblash formulasi.

Ushbu tizimdagi eng asosiy formula ishlab chiqarish funksiyasi (1) hisoblanadi.

(1)-(5) modeli birinchi marta 1956-yili R. Solou tomonidan taklif qilingan edi. Uning turli ko'rinishlari va usullaridan hozirgi kunda ham keng foydalanilib kelinmoqda. Solou modelida ishlab chiqarish funksiyasi (1) ishlab chiqarish omillarining eng so'nggi natijasini bildiradi va unda kapitalni jamg'arishda investitsiyalarga qilingan qo'shimcha xarajatlar kapitaldan foydalanishdagi qo'shimcha samaralarni qoplamay qolgan vaziyatda to'xtatiladi. Solou modeli paydo bo'lguncha iqtisodiy o'sishni ko'rsatadigan model Xarrod va Domar modellari (1939-1946) hisoblangan. Ularning modelida o'sishni ta'minlaydigan asosiy omil doimiy kapital qaytirmoq o'sishi hisoblangan. Solou modeli Xarrod-Domar modeliga nisbatan iqtisodiy o'sishni izohlashda qo'shimcha ko'rsatkichlarga ega.

Demak, Xarrod va Domar modellarida o'sishni ta'minlaydigan asosiy omil investitsiyalar, ya'ni kapital jamg'arish hisoblanadi. Bu modellar 1920-1950 yillardagi iqtisodiy o'sishlarni izohlashda qo'l kelgan, ammo keyingi yillardagi kuzatishlarga to'g'ri kelmay qolgan. Ularning asosiy mohiyati:

1. Kapital unumdorligining doimiyligini,  $v = dy/dk$ ;

2. Doimiy jamg'arish normasi,  $a = I/Y$ ;

3. Kapital chiqib ketishi mumkin emasligi,  $W = 0$ ;

4. Investitsiya uzulishi ham nolga teng,  $dk(t)/dt = I(T)$ ;

5. Texnik taraqqiyotni hisobga olmaydi;

6. Ishlab chiqarish mehnat xarajatlariga bog'liq emas, chunki, mehnat resurslari kamyob hisoblanmaydi.

Kapital unumdorligining doimiy xususiyati, agarda mehnat kamyob resurs hisoblanmasa, Leontevning ishlab chiqarish funksiyasidan iborat bo'ladi.

$Y(t) = \min((\alpha L(t); dK(t));$

Modelda daromadlarning o'sish tezligi investitsiya bilan mutanosibdir:  $dy/dt = VI(t) = VAU$ .

Daromadlarni qo'shimcha o'sishi  $du/Udt$  vaqt bilan doimiydir va  $\alpha v$  ga teng. U jamg'arish me'yoriga va kapital unumdorligiga mutanosib, Xarrod va Domar modellarida investitsiya ( $I$ ) va iste'mol ( $S$ ) ham shunday darajada o'sadi. Bunda iste'mol bilan investitsiya o'rtasidagi qarama-qarshiliklar shundan iboratki, jamg'arish me'yori ( $\alpha$ ) qanchalik yuqori bo'lsa, iste'molning o'sish me'yori ham shunchalik yuqori va uning boshlang'ich darajasi shunchalik kam bo'ladi. Bu qarama-qarshilikni hal qilish uchun iste'mol to'g'risida doimiy ravishda qo'shimcha ma'lumotlarga ega bo'lish kerak.

Agar, ishlab chiqarishning talab qilinayotgan o'sish darajasi aholi soni va bandlikning o'sish darajasidan yuqori bo'lsa, mehnat kamyob omil hisoblanmaydi.

Bunda mehnatni kapital bilan almashtirib bo'lmasa, shuningdek, texnik taraqqiyot ham bo'lmasa, ushbu modelda mehnat limitlovchi omil hisoblanishi mumkin. Umumiy o'sish darajasi mehnatga qilingan xarajatlarning o'sish darajasiga tenglashadi, jon boshiga iste'mol va jamg'arish darajalari esa o'sishdan to'xtaydi. Hozirgi davrda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda texnik taraqqiyot, mehnat va kapitalning sifati, bir-birini almashtirishi va birgalikda faoliyat ko'rsatishlar asosiy resurs va omil hisoblanadi. Shuning uchun ham ushbu omillarni hisobga olmaydigan o'sish nazariyasida, ya'ni o'sishning asosiy manbai kapitalni fizik jamg'arish o'sishni doimiy ravishda tartibga solib turuvchi omil hisoblanadi. Jamg'arish me'yori esa asta-sekinlik bilan ikkinchi darajaga tushib qoladi.

Iqtisodiy o'sishni ta'riflaydigan boshqa bir model R.Solou modeli hisoblanadi. Xarrod va Domar modeliga nisbatan Solou modeli makroiqtisodiy jarayonlarning ayrim tomonlarini to'liqroq ochib beradi. Birinchidan, bu modelda ishlab chiqarish funksiyasi to'g'ri chiziqdan iborat emas va unumdorlikning kamayib borishi kabi xususiyatlarga ega. Ikkinchidan, model asosiy kapitalning chiqib ketishini hisobga oladi. Uchinchidan, Solou modeli mehnat resurslari va texnik taraqqiyot dinamikasi va ularning iqtisodiy o'sishga ta'sirini hisobga oladi. To'rtinchidan, bu yerda ko'pgina hollarda iste'mol darajasini maksimallashtirish vazifasi qo'yiladi va hal qilinadi.

Biz Solou modelini to'liq izohlab bermoqchi emasmiz, balki uning asosiy yo'nalishlari, xususiyatlari va xulosalarini keltirib o'tmoqchimiz.

Solou modelining ko'rinishi va xususiyatlari:

1. Ishlab chiqarish funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$U = F(K, L);$$

Bu yerda: U - ishlab chiqarish yoki daromad;

K - kapital;

L - mehnat.

Masshtab qaytirmi doimiy  $F(ZK, ZL) = ZF(K, L)$ . Omillar unumdorligi ijobiy, ammo kamayuvchi hisoblanadi:

$$U^k > 0; U^l > 0; U^{kk} < 0; U^{ll} < 0.$$

2. Kapitalning W chiqib ketish miqdori uning miqdoriga K mutanosib:

$$W = \beta \times K.$$

Bu yerda:  $\beta$  - chiqib ketish me'yori.

3. Jamg'arish me'yori doimiy va investitsiya I esa « $\alpha$ -Y» ga teng.

4. Daromadlar U iste'mol va investitsiyaga bo'linadi:  $U = S + I$ ;

5. Bandlar soni L esa n darajada doimiy o'sadi.

6. Mehnatni tejaydigan texnik taraqqiyot g darajaga ega, ya'ni bir ishchiga g daraja bilan birga o'sadi.

### 13.4. Savdo siyosati

Hozirgi zamon iqtisodiyotining ochiqlik darajasi, ya'ni mamlakatlarning ixtisoslashuvi va ular o'rtasida kooperatsiya chuqurlashib bormoqda. Mamlakatlar o'z iqtisodiyotini rivojlantirish, iqtisodiy muammolarni hal qilish borasida tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirishda bu holatlarni e'tiborga olishlari shart.

Jahon savdosi tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy shaklidir. Uning kengayishi va chuqurlashuvi natijasida kapitalni chetga chiqarish imkoniyatlari yuzaga keldi va unga bog'liq ravishda xalqaro moliya-valyuta, kredit munosabatlari rivojlandi.

Tashqi savdoning vujudga kelishi ikki muhim obyektiv sabab bilan izohlanadi.

Birinchidan, bu tabiiy va xomashyo resurslarining mamlakatlar o'rtasida notekis taqsimlanganligi. Eng katta hududga ega bo'lgan yoki rivojlangan davlatlar ham barcha resurslar bilan o'zini to'liq ta'minlay olmaydi. Ular o'zlarida ortiqcha bo'lgan resurslarni eksport qilishga va mamlakatda taqchil bo'lgan resurslarni import qilishga majburlar.

Xalqaro savdo rivojlanishining zarurligini belgilovchi ikkinchi muhim sabab shundaki, hamma mamlakatlar ham barcha turdagi mahsulotni bir xil samaradorlik bilan ishlab chiqara olmaydi. Ya'ni, bir tovar Yaponiyada arzon ishlab chiqarilsa, ikkinchi tovar O'zbekistonda arzon ishlab chiqarilishi mumkin. Shu sababli resurslardan samarali foydalanish maqsadida mamlakatlar ixtisoslashadilar va o'zaro savdo-sotiqni yo'lga qo'yadilar.

Bu ikki obyektiv sabab har qanday milliy iqtisodiyotning takror ishlab chiqarishi joriyida xalqaro savdoning ahamiyatini aniqlaydi. O'tgan asrning 90-yillari boshlarida xalqaro savdo hajmi AQSHda yalpi milliy mahsulotning 16-18 % ini, Germaniyada 30-39 % ini tashkil etdi. Shu davrda O'zbekiston yalpi milliy mahsulotida tashqi savdoning ulushi 10-12 % atrofida bo'ldi.

Tashqi savdo xalqaro ayirboshlashning an'anaviy shakli sifatida quyidagi ko'rinishlarni o'z ichiga oladi:

□ mahsulotlarni ayirboshlash: yoqilg'i-xomashyo mahsulotlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, sanoat mahsulotlari;

□ xizmatlarni ayirboshlash: muhandislik-maslahat xizmatlari;

□ transport xizmatlari, sayyohlik va boshqa xizmatlar. Hozirgi vaqtda xizmatlarning jahon eksportidagi hissasi 30 % dan oshib ketdi;

□ yangi ilmiy-texnik ma'lumotlarni ayirboshlash: litsenziyalar va «nou-xau»lar. Ular hissasiga xalqaro savdo aylanmasining 10 foizga yaqini to'g'ri keladi.

**Xalqaro savdo mahsulotlari, xizmatlar va fan-texnika ma'lumotlarini ayirboshlashning barcha ko'rinishlari tashqi savdo operatsiyalari yordamida amalga oshiriladi. Ular o'z navbatida eksport, import, reeksport va reimport operatsiyalariga bo'linadi.**

Eksport operatsiyasi – mahsulotlarni chet mamlakatlarga chiqarish.

Import operatsiyasi – mahsulotni xorijiy sherikdan sotib olish va uni mamlakatga olib kelish.

Reeksport operatsiyasi – avval import qilingan va qayta ishlov berilmagan mahsulotni chet elga olib chiqib sotish.

Reimport operatsiyasi – avval eksport qilingan va u yerda qayta ishlov berilmagan mahsulotni chet elda sotib olish va mamlakatga olib kelish.

Shu paytga qadar yuzaga kelgan barcha xalqaro savdo nazariyalari xalqaro savdoni erkinlashtirish hamma mamlakatlar uchun foyda keltiradi, degan fikrni ilgari suradi. Erkin tashqi savdoning zarurligi va foydaliligi to'g'risida dastlabki nazariyalardan biri A.Smitning mutlaq ustunlik nazariyasidir. Bu nazariyaga ko'ra, har bir mamlakat undagi mavjud sharoitlar va resurslar o'ziga xosligiga tayangan holda ma'lum bir tovarni eng kam xarajatlar hisobiga (yoki vaqt birligida bu tovarni eng ko'p) ishlab chiqarish imkoniyatiga ega. Shunday ekan, mamlakat mutlaq ustunlikka ega bo'lgan tovar ishlab chiqarishga ixtisoslashadi va ushbu tovarning o'z iste'molidan ortiqcha qismini sotadi hamda boshqa tovarlarni sotib oladi. Chunki bu tovarlar ularni ishlab chiqarishda mutlaq ustunlikka ega bo'lgan davlatlarda ancha arzon ishlab chiqarilgan bo'ladi. Natijada har ikki davlat ham kam resurs sarflab ko'proq mahsulotga ega bo'ladi.

Masalan, O'zbekiston asosan paxta mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashganligi uchun boshqa mahsulotlarga nisbatan ko'proq paxtaga e'tiborni qaratishi lozim. Chunki O'zbekiston qishloq xo'jaligi, ob-havosi va qolaversa, butun respublika sharoiti paxta yetishtirishga moslashgan va unga kam miqdorda mehnat va moliyaviy resurslarni sarf qilib, yuqori hosil olish texnologiyasiga ega. Shuningdek, boshqa mamlakatlar ham o'zi ixtisoslashgan sohaga ko'proq e'tiborni qaratishiga dunyo bo'yicha ko'proq mahsulot ishlab chiqariladi va xalqaro savdoda ham ulkan muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Demak, shu yo'l bilan dunyo aholisining talablarini yuqori darajada qondirish imkoniyatiga erishiladi.

Ammo qaysidir mamlakat birorta mahsulotni ham ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda mutlaq ustunlikka ega bo'lmasligi mumkin. Bu esa, «Shu mamlakat hamma tovarlarni chetdan keltiradimi?» degan savolni tug'diradi. Agar shunday bo'lsa, importni bu mamlakat qaysi mablag'lar hisobiga moliyalashtiradi? Bu savolga javob berish borasida mutlaq ustunlik nazariyasi boshi berk ko'chaga kirib qoladi. D. Rikardo va A. Smitning «Mutlaq ustunlik» nazariyasini yanada mulohaza qilish natijasida ushbu nazariya umumiy qoidaning bir qismi ekanligi isbotlandi. D. Rikardo «Siyosiy iqtisodning boshlanishi va soliqlar» nomli asarida klassik nazariyani boshi berk ko'chadan olib chiqadi. Uning fikricha, mamlakatlar ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashda yoki ko'proq ustunlikka ega bo'lgan yoxud kamroq zaiflikka ega bo'lgan mahsulot ishlab chiqarish va sotishga ixtisoslashsalar maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday vaziyatlarda ikki mamlakat o'rtasidagi savdo ko'proq imkoniyatlar olib keladi. Har bir mamlakat o'zi ixtisoslashgan mahsulotlarni ishlab chiqaradi va shu orqali yutuqlarga erishadi. Uning mulohazalari "Nisbiy ustunlik nazariyasi"da o'z yechimiga ega bo'ldi.

Masalan, Portugaliyada ishlab chiqarilgan movut va Angliyada ishlab chiqarilgan vino individual xarajatlarga ega bo'lsin. Shuni hisobga olgan holda D. Rikardoning "Taqqoslash ustunligi nazariyasi"ni qo'llaymiz:

Ishlab chiqarish uchun zarur bo'ladigan mehnat birligi miqdori:

Movut (dona)	Vino(bir barrel)
Portugaliya	90 80
Angliya	100 120

Yuqoridagi misoldan ko'rinib turibdiki, Portugaliya barcha turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishda mutlaq ustunlikka ega. Ammo, D. Rikardo Portugaliyada movut ishlab chiqarishga nisbatan vino ishlab chiqarish savdosini yo'lga qo'yish ko'proq foyda olib kelishini ta'kidlaydi. Chunki, bir dona movutga nisbatan bir barrel vino ishlab chiqarish arzuqqa tushmoqda. Bunda nisbiy ustunlikdagi farq har bir millat uchun xalqaro savdoda yutuqqa olib keladi. Ya'ni, Portugaliya bir barrel vinoni (80 birlikda) 120 birlikda Angliyaga sotsa va o'z navbatida, Angliyadan (100 birlikda) ushbu birlikda 1,2 dona movut sotib olish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'zida ishlab chiqarilgan mahsulotga solishtirganimizda esa 8/9 donaga ega bo'lar edi. Boshqacha aytganimizda, Portugaliyaning vino ishlab chiqarish va movutni sotib olish evaziga oladigan foydasi quyidagicha bo'ladi:

$$120 / 100 - 8 / 9 = 1,2 - 0,8 = 0,31 \text{ dona movut.}$$

Angliya esa movut ishlab chiqarishda kamroq zaiflikka ega. Ya'ni, movut ishlab chiqarishga qilinadigan mehnat sarflari o'rtasidagi farq vino ishlab chiqarishdagiga nisbatan kamroq. Demak, movut ishlab chiqarishga ixtisoslashish hisobiga xalqaro savdodan Angliya ham yutadi. Ya'ni, movut ishlab chiqarib, uni Portugaliyaga sotish hisobiga 11/8 barrel vino (o'zidagiga nisbatan 5/6 barrel) sotib olishi mumkin. Ushbu vaziyatda Angliyaning yutug'i:

$$9 / 8 - 5 / 6 = 7 / 24 = 0,29 \text{ barrel vino.}$$

Bu misolda Portugaliya uchun har bir barrel vinoga 9/8 dona movut sotib olgandagina xalqaro savda foydali hisoblanar, Angliya uchun esa har bir barrel vinoga 5/6 dona movut almashganda savdo foydali hisoblanadi.

Shunday qilib, erkin savdo xalqaro ixtisoslashuvni rag'batlantirib, quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: har bir mamlakat biror turdagi mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashguncha o'tgan davrdagi nisbatan kamroq moddiy va mehnat xarajatlari sarflaydigan bo'ladi. Ammo bu borada barcha nazariyalarda ham savdo mamlakatlarning pul birliklari ishtorokida amalga oshishi hisobga olinmagan. Chunki mamlakatlar o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun valyutalarini almashtirishadi. D. Rikardo ushbu vaziyatni ham tushuntirib bera olgan. U izohlaganidek, yuqorida keltirilgan imkoniyat valyutalarni almashtirish sharoitida ham saqlanib qoladi. Bu vaziyatda eksport-import to'lovlari o'zaro balansga ega emas. Bunday vaziyat valyuta kurslaridagi o'zgarishlar hisobiga yoki biror bir mamlakatdagi barcha baholarni o'zgartirish hisobiga bartaraf etiladi. Yuqoridagi misol mavhum xususiyatga ega. U aniq vaziyatlarga asoslanishi uchun:

□ mehnat savdo qilayotgan mamlakatlar o'rtasida emas, balki mamlakat ichida harakatchan bo'lishini;

□ transport, bojxona xarajatlari, savdo ustamalari va boshqa cheklashlar hisobga olinmasligini;

□ mahsulotlarning yangi namunalarini ishlab chiqarishda yangi texnika va texnologiyalarni qo'llash hamda ularni ko'p miqdorda seriyali ishlab chiqarishda

xarajatlardagi o'zgarishlar e'tiborga olinmasligini ta'minlash imkoniyatlari yaratilishini lozim.

Angliya va Portugaliya misolida keltirilgan vaziyatlarda xalqaro savdo narxlarining keng amal qilayotgan shaklini qo'llash mumkin. Chunonchi, bir barrel Portugaliya vinosini Angliyada tannarxidan kam narxda (80) va sotib olingan bahodan (120) yuqori narxda sotmaslik kerak. Shuningdek, angliyaliklar movuti Portugaliyada (90 dan 100 gacha) shunday tartibda sotilishi kerak.

Mahsulotlar bahosi o'rtasidagi o'zaro nisbat aniqlab olingandan keyin «savdo sharoiti» (terms of trade) tushunchasi, savdo sharoitini aniqlab olish uchun esa "savdo sharoiti indeksi" tushunchasi kiritilgan. Bu indeks quyidagi formula orqali aniqlangan:

Savdo sharoiti indeksi = (Eksport narxlar indeksi / Import narxlar indeksi \* 100%) =  $E_i/T_i * 100\%$

Indeksnig o'sishi (masalan, 100 dan 105 gacha) savdo sharoitlarining yaxshilanayotganligini ko'rsatadi. Ya'ni, ushbu miqdordagi importga hisob-kitob qilish uchun undan kam miqdorda eksport talab etiladi.

Amaliyotda savdo sharoiti, birinchidan, tovarlar bahosi o'zgarishi hisobiga, unga bo'lgan talabning oshishi yoki kamayishiga bog'liq. Ayrim mahsulot ishlab chiqaruvchilar (masalan, neft va neft mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar) narxlarda bo'layotgan o'zgarishlarga qaramay, katta yutuqlarga erishadilar.

Ikkinchidan, savdo sharoiti ishlab chiqaruvchilar yoki yetkazib beruvchilarning bozorga moslashishiga (egiluvchanligiga) bog'liq bo'ladi.

Uchinchidan, savdo sharoiti ishlab chiqarish sharoitlari yoki mahsulotlar iste'molidagi o'zgarishlarga qarab o'zgaradi.

Savdo sharoiti indeksi mamlakatning xalqaro savdodagi holati to'g'risida ma'lumotlar bersada, ko'pgina kamchiliklardan xoli emas. Ularning eng asosiylaridan biri mamlakatda umumiy sharoitni yaxshilasada, sotilgan mahsulotlar miqdorini hisobga olmaydi. Boshqacha aytganda, savdo sharoiti yaxshilanishi eksport hajmi qisqarishi va import hajmi oshishiga olib keladi. Bu esa to'lov balansini yomonlashtiradi.

A. Smit va D. Rikardo nazariyasida ishlab chiqarishga ta'sir qiladigan eng asosiy omil mehnat hisoblangan. Mahsulotlar narxi esa ishlab chiqarish xarajatlariga bog'liq. Keyingi tadqiqotlar ishlab chiqarishda asosiy omillar sifatida yer, kapital kabi omillardan foyda olish imkoniyatini hisobga olgan. Agarda, mehnatning bozor bahosi ish haqi sifatida gavalansa, kapitalning bahosi foiz stavkalari ko'rinishida, yerning bahosi renta miqdorida aniqlangan.

Xalqaro savdodagi zamonaviy qarash tarafdorlari sifatida shved iqtisodchi-olimlari Eli Xeksher va Bertil Olinlarni (o'tgan asrning 30-yillari) ko'rsatish mumkin.

E. Xeksher va B. Olinlar «Ishlab chiqarish omillariga bog'liq holda narxlarning tenglashishi» qoidasini oldinga surgan. Buning ma'nosi shundan iboratki, milliy ishlab chiqarishdagi farqlar ishlab chiqarishning mehnat, yer, kapital va shuningdek, u yoki bu mahsulotga ichki iste'moldagi o'zgarishlar kabi omillarga bog'liq.

Ularning qoidalaridagi asosiy vaziyatlar quyidagicha keltirilgan:

1. Mamlakatlar o'zlarida ortiqcha bo'lgan ishlab chiqarish omilini ko'p talab qiladigan mahsulotlarni eksport qilishadi va aksincha, o'zlarida taqchil bo'lgan ishlab chiqarish omillarini ko'p talab qiladigan mahsulotlarni import qiladilar.

2. Xalqaro savdo yo'lidagi cheklashlar bekor qilinsa, tovarlarning turli mamlakatlardagi «omil narxi» (tannarxi) tenglashishi kabi o'zgarishlar kuzatiladi.

3. Mahsulotlar eksporti o'rnini asta-sekin ishlab chiqarish omillari eksporti egallaydi.

Agar mamlakatdagi bir ishlab chiqarish omili miqdori bilan boshqa omillar miqdori o'rtasidagi nisbat boshqa mamlakatdagiga nisbatan yuqori bo'lsa, shu omil bu mamlakatda nisbatan ortiqcha deb hisoblanadi.

Xeksher-Olin konsepsiyasiga asosan tashqi savdo quyidagi ko'rinishlarga ega: faraz qilaylik, bir vaqtda ikki mamlakat, ya'ni, «sanoatlashgan» va «agrar» mamlakat faoliyat ko'rsatmoqda. Sanoatlashgan mamlakatda ortiqcha kapital va ma'lum miqdorda ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo'ladi. Agrar mamlakatda esa ortiqcha yer mavjud, ammo kapital yetishmaydi. Ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishda kapital asosiy omil hisoblanadi. Masalan, neftni qayta ishlash, elektron mashinasozlik va mashina ishlab chiqarish sohalari kam ishchi kuchidan foydalangan holda kapitaltalab ishlab chiqarish hisoblanadi. Kapital ortiqchaligiga ega bo'lgan mamlakatlar aynan ushbu yo'nalishlarga ixtisoslashadilar. Don yetishtirish va chorvachilik bilan shug'ullanadigan mamlakatlarda ko'proq yer resurslari kerak va ular shu yo'nalishga ixtisoslashgan bo'ladilar.

Xeksher-Olin konsepsiyasini tadqiq qilish borasidagi izlanishlar o'tgan asrning 50-yillarida «Leontev paradoksi» yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. V. Leontev AQSH kapital ortiqcha bo'lgan mamlakat bo'lishiga qaramasdan 1947-yilda kapitaltalab emas, balki mehnattalab mahsulot eksport qilganligini ko'rsatib berdi. Ya'ni, Xeksher-Olin konsepsiyasiga zid keladigan vaziyat yuzaga keldi. Keyingi tadqiqotlarda esa AQSHda kapitaldan ko'ra yer va ilmiy-texnik mutaxassislar nisbiy ortiqcha ekanligi tasdiqlandi. AQSH ishlab chiqarishida aynan shu omillar ko'proq foydalaniladigan tovarlarning sof eksportchisi bo'lib chiqdi.

1948-yil amerikalik iqtisodchilar P. Samuelson va V. Stolperlar Xeksher-Olin konsepsiyasini takomillashtirishdi. Ularning nazariyasi bo'yicha xalqaro savdo-ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlanganlik darajasidan notekislik, texnologiyalarining bir-biriga mosligi, raqobatning rivojlanishi va mahsulotlarning harakatchanligi kabi sharoitlarda mamlakatlar o'rtasidagi ishlab chiqarish omillari narxlarini tenglashadi.

D. Rikardo modelida ishlab chiqilgan va E. Xeksher, B. Olin, P. Samuelson hamda V. Stolperlar tomonidan to'ldirilgan savdo konsepsiyasiga nafaqat mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro foydali savdoni yo'lga qo'yish, balki mamlakatlar rivojlanishi o'rtasidagi farqlarni kamaytirish vositasi sifatida ham qaraladi.

Biror mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyatga bevosita va bilvosita aralashuvi jarayoni eksport va import hajmi va tarkibiga ta'sir ko'rsatish orqali ichki bandlilikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishga erishish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, to'lov balansini yaxshilash hamda valyuta kursini tartibga solish maqsadlarini ko'zda tutadi. Davlat tomonidan amalga oshiriladigan bunday tadbirlar savdo siyosati deb yuritiladi. Savdo siyosati budjet-soliq siyosatining tashqi savdo hajmlarini soliqlar, subsidiyalar,



valyuta nazorati va import yoki eksportni to'g'ridan-to'g'ri cheklashlar orqali tartibga solishni o'z ichiga olgan nisbatan mustaqil yo'nalishidir.

Tashqi savdoni cheklash borasida olib borilayotgan har qanday chora-tadbirlar qisqa muddatli samara beradi. Uzoq davrda esa, faqat erkin savdogina iqtisodiy resurslarni samarali joylashtirish imkonini beradi. Shuning uchun ham ko'pgina mutaxassis-iqtisodchilar mamlakat iqtisodiyoti va aholisi turmush darajasini yaxshilash uchun erkin tashqi savdo siyosati foydaliroq, chunki, tashqi savdoni cheklashga nisbatan uni erkinlashtirish iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishga ko'proq imkoniyat yaratadi, deb hisoblashadi.

Erkin savdo jahon iqtisodiyoti nuqtai nazaridan foydali bo'lishi mumkin bo'lsada, ammo alohida olingan mamlakat iqtisodiyoti manfaati nuqtai nazaridan hamma vaqt ham foydali bo'lavermaydi. Tashqi savdoni cheklash usullarining 50 dan oshiqroq turi mavjud. Ularning ayrimlari davlat g'aznasini to'ldirishga yo'naltirilgan bo'lsa, ba'zilari amuman importni cheklashga va yana boshqasi esa eksportni cheklashga yoki rag'batlantirishga yo'naltirilgan. Amaliyotda tashqi savdoni tartibga solishning tarif va notarif usullaridan foydalaniladi. Tarif usullariga import va eksport bojlarini joriy qilish cirsa, notarif usullariga eksportchilar va ishlab chiqaruvchilarga subsidiyalar berish, cvotalash, litsenziyalash kabilar kiradi.

Bojxona bojlari, avvalo import bojlari va eksport bojlariga ajraladi.

Import bojlari davlat budjetini to'ldirish maqsadida va ichki bozorlarga tushadigan shet el tovarlari oqimini tartibga solish uchun belgilanadi. O'z navbatida ular eng kam va eng ko'p miqdordagi import bojlariga bo'linadi. Eng kam miqdordagi import bojlari o'zaro qulay sharoitlarni yaratib berishni ko'zda tutuvchi savdo shartnomalari va bitimlari bo'lgan mamlakatlar mahsulotlariga o'rnatiladi. Eng ko'p miqdordagi import bojlari esa bunday shartnoma va bitimlar tuzilmagan mamlakatlar mahsulotiga nisbatan o'rnatiladi.

Eksport bojlari mamlakat ichida talab ko'p bo'lgan mahsulotlar taqchilligining oldini olish maqsadida belgilanadi.

Boj olinadigan mahsulotlar, boj olinmaydigan mahsulotlar, olib kelish va olib ketish ta'qiqlangan mahsulotlar, shuningdek, bojxona bojlari stavkasi, ya'ni ularning tartibga solingan ro'yxati bojxona tariflari deb ataladi.

Bojxona tariflari ishlab chiqarish, tabiiy farqlar (hayvonot va o'simlik dunyosi), payta ishlash darajasiga (xomashyo, yarim tayyor mahsulotlar, tayyor buyumlar) ko'ra, aqsimlangan mahsulotlar ro'yxatini o'z ichiga olgan mahsulot sarxillovchilari klassifikatorlari) asosiga qurilgan.

Bu klassifikatorlar mahsulotlarini tariflash va shartli belgilashning uyg'unlashtirilgan tizimi bo'lib, unda olti xonali shartli raqam belgiga ega bo'lgan mahsulot haqidagi asosiy ma'lumotlar hamda uning mahsulotlar nomenklaturasidagi o'rni ko'rsatilgan. Masalan, 210431 kod shuni bildiradiki, 21- mahsulotlar guruhlari, 04 mahsulotlar o'rni (pozitsiyasi) va 31 - subpozitsiyasi.

Bojxona tariflari bir yoki bir necha boj miqdorlari ustuniga ega bo'lishi mumkin, a'ni, ular oddiy va murakkab bo'ladi. Oddiy bojxona tariflari ustuni mahsulotlar kelib hiqqan mamlakatlardan qat'i nazar mahsulotlarga yagona stavkalarini ko'zda tutadi. Murakkab bojxona tariflari ustunida esa, mahsulot bir necha boj stavkalariga ega bo'ladi

va u yoki bu mamlakatga unda vujudga kelgan iqtisodiy va siyosiy vaziyatlarga qarab, tanlov asosida qo'llaniladi.

Xalqaro savdoni tartibga solishda eng ko'p qo'llaniladigan usul tarif, ya'ni importga solinadigan bojxona boji hisoblanadi.

Importga tariflarning maxsus va advalar turlari o'zaro farqlanadi. Maxsus bojlar import qilinayotgan tovarlar birligiga nisbatan o'rnatiladi. Masalan, 1 barrel neftga nisbatan 2 yevro.

Advalar bojlar import qilinayotgan tovar qiymatiga nisbatan ma'lum foiz tariqasida belgilanadi. Masalan, avtomobil xarid narxining 40 %i.

Tarif kiritilishi oqibatida iste'molchilar talabi arzon import tovaridan qimmat ichki tovarga yo'naltiriladi. Iste'molchilarning o'sgan to'lovlari yuqori chegaraviy xarajatga ega, raqobatbardosh bo'lmagan samarasiz ichki ishlab chiqarish kengayishiga olib keladi. Iste'molchilarning bu yo'qotishi v sohasi bilan belgilangan bo'lib, tarifning «ishlab chiqarish samarasiz» deyiladi va hech kimning foydasi bilan qoplanmaydi.

Shunday qilib,

$$\begin{aligned} & \text{Iste'molchilarning Ishlab chiqaruvchilar Davlat Jamiyatning sof} \\ & \text{yo'qotishlari foydasi daromadi yo'qotishi} \\ & a + b + c + d - a - c = b + a \end{aligned}$$

Demak, iste'molchilarning a sohadagi yo'qotishlari ishlab chiqaruvchilar foydasining o'sishi hisobiga qoplanadi. Ayni damda iste'molchilar shu tarmoq korxonalarini aksiyadorlari bo'lishsa, ular yo'qotishlarining bir qismi o'sgan dividendlar sifatida qaytadi.

«c» sohada davlat olgan daromadini transfert to'lovlarini oshirish, soliqlarni pasaytirish, budget tashkilotlarida ishlovchilar ish haqini oshirishi ko'rinishida iste'molchilarga qaytarishi mumkin.

Ammo «b» va «d» sohalarda jamiyat sof yo'qotishga duch keladi. Valyuta kursi o'zgarishi bu yo'qotishlarni biroz qoplashi mumkin. Masalan, 20 %li tarif kiritilishi natijasida milliy valyuta 4 %ga qimmatlashsa, import qilinayotgan tovarlarning milliy valyutada ifodalangan ichki bahosi 20 %ga emas, 16 %ga oshadi. Bu esa tarif kiritilishi oqibatida jamiyatning sof yo'qotishi «b» va «d» sohalarning 80 foizini  $((16 / 20) \times 100 \text{ q } 80)$  tashkil etishini anglatadi.

Umuman olganda, tariflar kiritilishiga nisbatan bir-biriga zid fikrlar mavjud bo'lib, bu tadbir mamlakat iqtisodiyoti holati, xususiyati va qo'yilgan maqsadlar bilan asoslanadi.

Bojxona tariflarini kiritishni yoqlovchi mutaxassislar fikriga ko'ra import tariflari:

mamlakat mudofaa sanoatini himoya qilish imkonini beradi;

mamlakatda bandlilik darajasi o'sishini ta'minlaydi va yalpi talabni rag'batlantiradi, importning nisbatan cheklanishi natijasida sof eksport o'sadi va joriy operatsiyalar bo'yicha to'lov balansi holati yaxshilanadi;

milliy iqtisodiyotdagi yangi tarmoqlarni himoya qilish uchun zarur;

davlat budjeti daromadlarini to'ldirish manbai bo'lib xizmat qiladi;

milliy ishlab chiqaruvchilarni dumping ko'rinishidagi chet el raqobatidan himoya qiladi;

□ iqtisodiyot tuzilishini qayta qurishni boshqarish vositasi hisoblanadi va mamlakat iqtisodiyotidagi ilg'or siljishlarni rag'batlantiradi va h.k.lar.

Milliy iqtisodiyotning tiklanishi sharoitida ko'pgina davlatlar o'z ishlab chiqaruvchilarini chet el raqobatidan himoya qilish maqsadida proteksionizm siyosatini qo'llaydilar. Aks holda, mahalliy korxonalar «sinishi» mumkin. Bu esa, ishsizlik xavfini tug'diradi.

Mamlakatlarda tarif mexanizmi orqali tashqi savdo siyosatini yuritish, birinchi navbatda ushbu mamlakatning asosiy tarmoqlari va yangi ishlab chiqarish sohalari himoyalanganligiga ta'sir qiladi. O'zbekistonda avtomobilsozlik yangi va istiqbolli soha (tarmoq) hisoblanadi va tabiiyki, tarifli himoyaga muhtoj. Tarmoq tarifli himoyalanganligining haqiqiy darajasini quyidagi misolda ko'rib chiqamiz: O'zbekistonda yangi mashinalar uchun import boji 40 foizni tashkil qilsin. Bu mashinalarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'ladigan ehtiyot qismlar asosan chetdan keltirilsin va unga import boji 25 foiz miqdorida o'rnatilsin. Bir dona mashinaning narxi 10000 AQSH dollariga teng bo'lsa, bitta avtomobil uchun zarur bo'lgan ehtiyot qismlarining narxi 7000 dollar, qo'shilgan qiymat esa 3000 dollarni tashkil etsin.

Avtomobil importiga 40 % tarif belgilanganligi uchun har bir avtomobil narxi 4000 dollarga o'sib, tarif bilan birga 14000 dollarni tashkil etadi. Ehtiyot qismlar importiga 25 %li tarif kiritilishi ularga qilinadigan xarajatlarni 1750 dollarga oshirib, 8750 dollarga yetkazadi. Oqibatda mahsulot birligiga ehtiyot qismlar xarajati 1750 dollarga oshdi. Qo'shilgan qiymat esa 2250 dollarga (4000 - 1750 q 2250) o'sdi. Shunday qilib, tarif kiritilgandan so'ng mahsulot birligiga to'g'ri keladigan qo'shilgan qiymat 5250 dollarni (3000 Q 2250 q 5250) tashkil etdi.

Endi esa soha (tarmoq)ning samarali himoyasi formulasidan foydalanamiz:

Yer q (YA - VA) / YA.

Bu yerda: Yer - sohaning tarif bilan haqiqiy himoyalanganlik darajasi;

YA - bojxona tarifi kiritilgandan keyingi qo'shilgan qiymat;

VA - bojxona tarifi kiritilishidan oldingi qo'shilgan qiymat.

$Yer = ((3000 + 2250) - 3000) / 3000 = 2250 / 3000 = 0,75$  yoki 75%.

Bu shuni bildiradiki, tayyor avtomobillarga 40 % tarif va ehtiyot qismlarga 25 % tarifni joriy qilib, davlat milliy avtomobilsozlikning haqiqatda 75 % tarifli himoyalanganligini ta'minlaydi.

Proteksionizm siyosatining muhim tamoyili ham shundaki, davlat tayyor mahsulotlarga bojni ko'tarish va yarim tayyor mahsulotlarga esa uning miqdorini pasaytirish orqali tarmoqning haqiqiy himoyalanganligini yanada oshiradi.

Agar mamlakatlar bojxona ittifoqiga birlashsalar, unda bojxona tarifi barcha ishtirokchi mamlakatlar uchun ularning savdo munosabatlarida yagona bo'lib qoladi. Bojxona tariflari miqdori alohida mamlakatlar iqtisodiyotida va jahon xo'jaligida yuz berayotgan jarayonlar ta'sirida yuzaga keladi. Jahonda importga bojxona bojlarining pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda. U ikki tomonlama hamda ko'p tomonlama muzokaralar asosida mamlakatlar tomonidan rag'batlantiriladi va nazorat qilinadi. Asosan, GATT doirasida o'tkazilgan bunday muzokaralar natijasida ko'pincha boj-tarif yon berishlarini ayirboshlash haqida bitimlar tuziladi.

Bojxona bojlari joriy qilinishini qo'llovchi fikrlar aksi bo'lgan mulohazalar ham mavjud. Chunki sanab o'tilgan natijalarga boshqa usullar bilan kamroq yo'qotishla hisobiga ham erishsa bo'ladi, degan fikrlar ham qaysidir darajada asoslidir.

Birinchidan, import tariflari iste'molchilar turmush darajasining pasayishiga olil keladi.

Ikkinchidan, import tariflari kiritilishi oqibatida ular vositasida himoy qilinayotgan tarmoqlarda resurslar samarasiz sarflanadi.

Uchinchidan, tariflarni kiritish va ular stavkasini belgilash masalasida mamlaka imkoniyatlari xalqaro bitimlar bilan cheklangan.

Milliy ishlab chiqaruvchilarni xorijiy firmalar raqobatidan himoya qilishning muqobil usuli ularga bevosita subsidiya berish hisoblanadi.

Ayni paytda ishlab chiqarishga berilgan bevosita subsidiyalar ishlab chiqarish xarajatlarining samarali taqsimlanishini kafolatlamaydi.

Chunki aynan qaysi tarmoqni xalqaro raqobatdan himoya qilishni bilist subsidiyalar joriy qilgandan so'ng esa ularni bekor qilish qiyin, raqobat muhi yo'qoladi hamda bu xarajatlarni moliyalashtirish muammosi kuchayib boraverad. Shuning uchun iqtisodiyotni tartibga solish, bandlik darajasini oshirish va yalpi talabr qondirish maqsadida fiskal va pul-kredit siyosatlarini qo'llaniladi. Ushbu siyosatlar qo'llashdan asosiy maqsad mamlakat ishlab chiqarishini xalqaro raqobatdan himoy qilish, ishsizlik darajasini eng past holatga keltirish va xalq farovonligini oshirishda iborat.

Jahon amaliyotida tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning bilvosit usullariga qaraganda bevosita usullaridan kengroq foydalaniladi. Bevosita usull mazmuniga ko'ra, iqtisodiy, ma'muriy, me'yoriy - huquqiy ko'rinishga ega bo'lish mumkin. Litsenziyalash va kvotalash iqtisodiy xarakterdagi bevosita usullar ichida ken tarqalgani hisoblanadi.

Litsenziyalash - tashqi iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirishga davlat tashkilotlaridan ruxsat olishning ma'lum tartibidir. Tashqi iqtisodiy operatsiyalarga mahsulotlar, ishchi va xizmatchilar eksporti hamda moliya operatsiyalarini o'tkazish xorijga ishchi kuchini ishga joylashtirish va boshqalar kiradi. O'zbekistonda litsenziyalar faqat davlat ro'yxatida qayd etilgan tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilariga beriladi. Ularni boshqa yuridik shaxslarga berish ta'qiqlangan.

Mahsulotlar eksporti va importini litsenziyalash davlatga ular oqimini qatt tartibga solish, ba'zi hollarda ularni vaqtincha chegaralash va shu asosda tashqi iqtisodiy taqchillik o'sishini to'xtatish hamda savdo balansini tenglashtirish imkoni beradi.

Umuman, import mahsulotlarga beriladigan litsenziyalar quyidagi usull yordamida joylashtiriladi:

1. Ochiq auktsion - davlat litsenziyalarni yuqori baholarni taklif qilgan ishlab chiqaruvchilarga berishi.

2. Afzal ko'rish tizimi - davlat birinchi navbatda litsenziyalarni ishlab chiqarish hajmi jihatidan yirik bo'lgan firma va kompaniyalarga hech qanday shart va talablars beradi.

3. Xarajat usuli - davlat litsenziyalarni yirik ishlab chiqarish quvvatlariga resurslarga ega bo'lgan firma va kompaniyalarga beradi.

Mahsulotlar, shuningdek, ishchi va xizmatchilar eksporti va importiga litsenziyalar berish huquqiga O'zbekiston Respublikasining quyidagi boshqaruv tashkilotlari ega: Vazirlar Mahkamasi, Moliya, Adliya, Ichki ishlar, Sog'liqni saqlash, Xalq ta'limi vazirliklari, shuningdek, Markaziy bank.

Belgilangan chegaralar doirasida amalga oshiriladigan bitimlarga litsenziyalar har bir alohida bitim uchun mol yetkazib berish hajmi yoki qiymatiga qarab, Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tomonidan beriladi.

Moliya operatsiyalarini o'tkazishga litsenziyalar asosan Respublika Moliya vazirligi va Markaziy bank tomonidan o'z banklari va xorijiy banklarga, moliya muassasalariga beriladi. Ular moliya-kredit muassasalariga mamlakat ichida va uning tashqarisida chet el valyutasi bilan operatsiyalarni amalga oshirish, xorijiy moliya-kredit muassasalariga esa ichki bozorda yuridik va jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish huquqini beradi.

Litsenziyalash bilan bir qatorda jahon amaliyotida mahsulotlarni, shuningdek, ishchi kuchi eksport va importini chegaralash maqsadida kvotalash keng qo'llaniladi.

Bu usulning mohiyati shundan iboratki, unda vakolatli davlat yoki xalqaro tashkilot alohida mahsulotlar, xizmatlar, mamlakatlar va mamlakatlar guruhi bo'yicha ma'lum davrga eksport va importga miqdoriy yoki qiymat chegaralarini belgilaydi. Davlat tomonidan tartibga solish tadbiri sifatida kvotalash to'lov balanslarini ichki bozorda talab va taklifni balanslashtirish maqsadidagi muzokaralarda o'zaro kelishuvga erishish uchun qo'llaniladi. O'zbekistonda kvotalash xalq iste'moli mollarini va strategik xomashyoning muhim turlarini olib chiqishni chegaralash usuli sifatida qo'llanilmoqda.

Kvotalash faqat mahsulot oqimlarinigina emas, balki ishchi kuchi oqimlarini tartibga solishda ham qo'llaniladi. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlar ichki mehnat bozorini himoyalash maqsadida xorijdan ishchi kuchi importiga kvotalar o'rnatadi.

Hozirgi vaqtda kvotalash bojlarga nisbatan ko'proq qo'llanilishiga ikkita sabab bor:

1. Tarif stavkalari xalqaro savdo kelishuvlariga asosan belgilanadi. Ayrim hollardan tashqari vaziyatlarda mamlakatlar tarif stavkasini oshira olmaydilar va shuning uchun iqtisodiyotni raqobatdan himoya qilish maqsadida kvotalarga e'tiborni qaratishga majbur bo'ladi.

2. Himoyaga muhtoj tarmoqlar ham importga kvotalar joriy qilishni qo'llaydi. Chunki tarifni joriy qilishga nisbatan imtiyozli litsenziyalar olish osonroqdir.

Import kvotalari erkin raqobat sharoitiga ko'proq mos keladi. Tariflarga nisbatan kvotalarni joriy qilishdan ko'riladigan farovonlikdagi yo'qotishlar ikki holatda katta bo'ladi. Birinchidan, kvotalar mahsulotlar import qilayotgan milliy ishlab chiqaruvchilar yoki xorijiy firmalar monopoliya hukmronligi darajasini oshirsa, ikkinchidan, importga litsenziyalar samarasiz joylashtirilsa.

Ko'pchilik hollarda eksportni davlat tomonidan rag'batlantirish tadbiri sifatida ko'pgina mamlakatlarda eksport subsidiyalari qo'llaniladi. Bunda tajriba-konstruktorlik ishlari va eksportga mo'ljallangan ishlab chiqarishni bevosita moliyalashtirish yoki bu maqsadlarga davlat budjetidan imtiyozli kreditlar berish ko'zda tutiladi.

Eksport subsidiyalari turli shakllarda qo'llaniladi. Bularga:

– eksportchi firmalarga yoki xorijiy sherkatlarga past foizli kreditlar berish;

- reklama xarajatlarini davlat hisobidan qoplash, bozor konyunkturasi haqid tekin axborot yetkazib berish;

- firmalarga ishlab chiqarish hajmidagi eksport ulushiga muvofiq soli imtiyozlarini berish;

- bevosita subsidiyalash kiradi.

Amaliyotda eng ko'p subsidiya oluvchi tarmoq qishloq xo'jaligi hisoblanadi.

Eksport subsidiyalari berish milliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozord raqobatbardoshligini oshiradi. Ammo importchi davlatlar tomonidan kiritiladiga kompensatsiya importi bojlari buni yo'qqa chiqarishi mumkin. Oqibatda eksportch davlat budjeti yo'qotishga uchraydi, importchi davlat budjeti esa qo'shimcha daroma ko'radi. Bu tadbir dempingga qarshi kurash ko'rinishlaridan biridir.

Dempingga qarshi qaratilgan bojlar jahon amaliyotida keng qo'llanilib, qo'shimch import bojlarini aks ettiradi. Ular odatda, jahon narxlaridan yoki import qilayotga mamlakat ichki narxlaridan past narxlar bo'yicha eksport qilinayotgan mahsulotlarga o'rnatiladi. Bu bojlarni belgilash haqidagi qarorni xalqaro sud mahalliy ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilar murojaatidan so'ng chiqaradi hamda uning miqdorini v to'lash tartibini belgilaydi. Masalan, dempingga qarshi bojlar o'z valyuta resurslarini to'ldirish maqsadida jahon bozoriga xomashyo resurslarini eksport qilishni ko'paytirga sobiq ittifoqdosh respublikalarga nisbatan faol qo'llanilmoqda.

Ixtiyoriy ravishda eksportni cheklash eksport kvotalarining bir turi bo'lib, xori mamlakatlarining ayrim mamlakatlarga "ixtiyoriy" eksporti miqdorlarini cheklaydi. Bu o'rinda «ixtiyoriy so'zi» shartli xarakterga ega. Chunki eksport qilayotgan mamlaka savdo siyosatida o'z hamkorlari tomonidan birorta noxushlikka duch kelmasligi uchun eksport miqdorini cheklaydi.

Ixtiyoriy ravishda eksportni cheklash ikki xil xususiyatga ega. Chunonchi, u:

- milliy iste'molchilar uchun tarif va kvotalarni belgilashga nisbatan ancha sezilarsiz. Shu bois iste'molchilar ularni e'tiborsiz qabul qiladilar va hukumatga norozilik bildirmaydilar;

- bunday cheklash sharoitida xorij iste'molchilari eksport mahsulotlariga yuqoriroq narx belgilashlari mumkin.

Shunday qilib, xorijliklar ixtiyoriy ravishda eksportni cheklash sharoitida eksportchi ko'rgan yo'qotishlarni narxlarni oshirish hisobiga qoplashadi.

Savdo siyosatini amalga oshirishning ko'rib o'tilgan usullaridan har biri ijobiy jihatlariagina emas, balki salbiy oqibatlar keltirib chiqarish xususiyatiga ham ega Mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshlik darajasi oshgan sari tashqi savdo liberallashtirilib boriladi. Bu esa iqtisodiyotda bozor munosabatlari yanada rivojlanishiga olib keladi. Bu jarayonning qonuniy natijalaridan biri mamlakat tashqi savdo tashkilotlariga a'zo bo'lishi bilan izohlanadi.

### **13.5. Hududiy va mahalliy hokimiyat organlarini isloh qilish yo'llari**

Tez o'zgarib borayotgan dunyoda hayot voqeligi turmushning barcha sohalarini isloh qilishni taqozo etmoqda. Respublikamizda amalga oshirilayotgan ma'muriy islohotlar bundan mustasno emas.

Buning uchun qator me'yoriy hujjatlar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun hududiy darajada davlat hokimiyati shakllanishining, joylarda ijro hokimiyatining negizlarini mustahkamlashning asosiga aylandi. Hududiy hokimiyat organlariga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vazifalarini amalga oshirish, joylarda Oliy majlis qonunlarini, boshqa qarorlarini; Prezident va Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan hujjatlarni, Xalq deputatlari kengashlari va hokimlarning qarorlarini bajarish, O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan fuqorolarning o'zini – o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi aloqani yo'lga qo'yish, viloyat, tuman va shaharni boshqarishga aholini jalb etish yuklandi.

Hududiy boshqaruv organlari faoliyatini kompleks tahlil etishda davlat boshqaruvida hamon eski ma'muriy-buyruqbozlik tizimi qoliplari saqlanib qolinyotganligi e'tirof etildi. Eng avvalo, bu hokimiyat vakolatlarini amalga oshirish istagida – hech kimga naf keltirmaydigan va keraksiz turli-tuman buyruqlar, yo'riqnomalar, ko'rsatmalar, me'yoriy hujjatlar chiqarishda kuzatildi. Hanuzgacha korxonalarining xo'jalik faoliyatiga bevosita aralashuvidan kadrlar masalasini hal etish va uni to'g'ridan-to'g'ri boshqarishdan voz kechilgani yo'q.

Davlatimiz rahbari tomonidan ishlarning ahvoriga haqiqiy baho berildi: «... hozirgi kunda barcha darajada mavjud davlat, tarmoq va hududiy boshqaruv tizimi olib borilayotgan iqtisodiy va demokratik islohotlar yo'lida katta to'siq bo'lib turibdi». Ma'muriy islohotlarni izchil davom ettirish zarurligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 18-iyuldagi majlisidagi ma'ruzasida ifodalab berilgan.

Shu munosabat bilan Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 5-yanvardagi 2-qarorini qabul qilinishi hududiy boshqaruv organlarini isloh qilishning muhim bosqichi hisoblanadi. Ushbu qaror mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma'muriy islohotlarning uzviy qismidir.

Mazkur qarorda belgilangan qoidalardan kelib chiqib, umuman respublika bo'yicha viloyatlar, tumanlar, shaharlar hokimliklarida va mahalliy korxonalarda 5991 nafar boshqaruv apparati o'rni qisqartirildi. Viloyat hokimliklarida 53 nafar boshqaruv hodimi, tuman va shahar hokimliklarida – 447 va mahalliy bo'syunishdagi korxonalarda 5508 o'rin qisqartirildi. Bundan tashqari, hududiy boshqaruv samaradorligini oshirish maqsadida beshta shaharda (Samarqand, Buxoro, Farg'ona, Namangan, Navoiy) sakkizta tuman tugatildi, bu yerda tuman hokimliklari va hududiy boshqaruv organlari yopildi. Ular: Siyob, Bog'ishamol, Temiryo'l, Fayzulla Xo'jaev, To'qimachilik, Qirguli, Davlatobod va Karmana tumanlaridir. Ularning vazifalari yuqorida turuvchi shahar hokimliklari va funksional boshqaruv organlariga berildi.

Hududiy hokimiyat organlarini ma'muriy isloh qilish qaysi yo'nalishda amalga oshirilmoqda? Bulardan biz qanday real natijalar kutmoqdamiz?

1. Bugunning o'zidayoq iqtisodiyotni boshqarishda davlatning o'rni keskin kamayganligi sezilarlidir. Joylardagi davlat boshqaruvi tuzilmalari va davlat boshqaruv organlarini ta'minlash xarajatlari qisqardi.

2. Islohotlar amalga oshirilishi joylardagi mavjud ishlar ahvoli, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal etish, ish bilan ta'minlash va odamlarning farovonligini oshirish uchun barcha darajadagi hokimliklarning mas'uliyati oshirildi.

Ushbu yo'nalishda bugunning o'zidayoq muayyan qadamlar qo'yildi ya'ni ayri vazifalar hududlarga berildi. Ortiqcha vertikal ma'muriy tuzilmalar tugatildi. Biznir fikrimizcha, davlat xizmatchilarining samarali ishlashi ma'muriy islohotlarnir mohiyatini tashkil etish zarur. Agar sening hududing, sening xizmat joyingda ishl yaxshi borsa, bu yerda yashovchi aholining farovonligi ham o'sishi kerak. I samaradorligini davlat xizmatchilarining o'zi emas, balki fuqoro baholashi zarur.

### **Qisqacha xulosalar**

Milliy valyutani joriy etish samarali valyuta bozorini shakllantirish v rivojlantirishni ko'zda tutardi. Ushbu sohadagi jarayonlar eksportni rag'batlantiri chora-tadbirlari bilan birgalikda amalga oshirildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni jadallashtirish valyutani tartibga solish va uni nazor qilish tizimini shakllantirishni ko'zda tutardi. Ko'rilgan chora-tadbirlar respublikamizi tashqi savdo va valyuta operatsiyalari ustidan monitoringni amalga oshirish ham nazorat qilishning maqbul tizimini yaratish imkonini berdi.

Shunday qilib, milliy valyuta iqtisodiy mustaqillikka erishishga yo'naltirilg asosiy vositalardan biri bo'ldi. Respublikamiz o'z rivojlanish strategiyasidan kel chiqqan holda faol investitsiya siyosatini yuritish va tarkibiy islohotlarini o'tkazi yo'lidan bordi. Qisqa muddatlarda mashinasozlikda, kimyo sanoatida, gaz va neft qayta ishlash sohasida yangi ishlab chiqarishlar, shu jumladan, chet el sarmoya ishtirokidagi ishlab chiqarish korxonalari ishga tushurildi, transport infratuzilmasi rivojlantirish loyihalari amalga oshirildi, ularning ayrimlari nafaqat respublikada, bal butun mintaqada hanuzgacha mavjud emas edi. Qayd etish lozimki, ushbu oqilo siyosat, avvalo xorijiy investorlarning ishtiroki va milliy manfaatlarimiz uyg'unlashtirishga qaratilgan edi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Qimmatli qog'oz va fond bozori, deganda nimani tushunasiz?
2. Bank tizimi kapital yalpi ichki mahsulotga nisbatan necha foizni tashkil etadi?
3. Milliy valyuta – so'm muomalaga qachon kiritilgan?
4. Fond birjasi nima?
5. Qimmatli qog'oz nima?
6. Birlamchi va ikkilamchi fond bozorlari bir-biridan qaysi jihatlari bilan fa qiladi?

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Karimov I. "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavji imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil dave ettirish yili bo'ladi"//Xalq so'zi, 2014-iy 18-yanvar.
2. Yo'ldoshev Z. Milliy iqtisodiyot. -T.: Mehnat, 2004, 168- b.
3. Ishmuxamedov A.E. O'zbekiston milliy iqtisodiyoti. Darslik – T.: O'zbekist yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005, 304- b.



4. Ishmuxamedov A.E. va boshqalar. Makroiqtisodiyot. Darslik – T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2005. - 192 b.

5. Tuxliyev N. va boshqalar. O‘zbekiston iqtisodiyoti asoslari. -T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 280 b.

6. Internet veb-saytlari.

[www.ceep.uz](http://www.ceep.uz).

[www.bearingpoint.uz](http://www.bearingpoint.uz).

[www.pca.uz](http://www.pca.uz).

## 14-bob. DAVLAT MULKINI XUSUSIYLASHTIRISH VA MULKDORLAR SINFINI SHAKLLANTIRISH

### 14.1. Mulk shakllari va xususiylashtirish.

Har qanday iqtisodiy tizimda bo'lganidek, bozor iqtisodiyotida ham mul muammosi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi va harakatdagi mavjud mulk shakllarining bozor talabiga, uning xususiyatlariga mos kelishi talab etiladi. Yuqorida qay etilganidek, erkin iqtisodiy taraqqiyot, xo'jaliklar turiligi, iqtisodiy tashabbuskorlik raqobat holati bozorning mohiyatini belgilovchi asoslardir. Bular, avvalo, mavjud mulk shakllariga bog'liq bo'lib, ularni ifoda etgan holda asosan mulk mohiyatidan keli chiqadi.

Iqtisodiy tizimlar mulk shakllarining aksi bo'lganidek, bozor munosabatlari har o'zlariga xos va mos mulk shakllarini talab etadi.

Tarixda turli mulkchilik va yakka mulkchilik davrlari mavjud bo'lgan. Jamiyat tur xil mulkchilik asoslarida rivojlanib kelgan. XX asrga kelib, yakka mulkchilik tizimi har barpo etildi. Bozor munosabatlari, bozor iqtisodiyotining mulk shakllariga bog'liqliq ijtimoiy mulkchilik sharoitida namoyon bo'ldi.

Xo'jaliklarning va darajalarining turiligi kurashga da'vat etadi, ya'ni raqobatga olib keladi. Ijtimoiy mulk esa, aksincha, tenglik, bir xillik xususiyatini yaratadi. Bunda tashqari u xo'jalik yuritishda markazlashuvga olib kelib, mustaqil harakat qilish tashabbus ko'rsatish imkonlarini yo'qqa chiqaradi, bunday sharoit bozor taraqqiyotini inkor etadi. Eng muhimi shuki, ijtimoiy mulk bir xil shaklda bo'lsa, xususiy mulk tur shakllarga ega.

Mulk moddiy va boshqa boyliklardan foydalanish sharoitlari, munosabatlar egalik qilish, o'zlashtirish mazmunini o'z ichiga oladi. Mulkka egalik esa ko'pro boylikka ega bo'lish va u bilan boshqa barcha sharoitlarni qo'lga kiritishdir. Shung ko'ra, u iqtisodiyot asosidir. Iqtisodiy faoliyatda mulkning hal qiluvchi ahamiyat kas etishi unga egalik darajasini kuchaytirish va boyliklarga nisbatan erkin munosabat bo'lishga erishishda ifodalanadi. Ma'lumki, ishlab chiqarish sharoiti, taqsimot va iste'mol holati, miqdori va darajasi, albatta, mulk munosabatlariga bog'liq va u bila belgilanadi. Undan foydalanish, unga egalik qilishda umumiylik va xususiyligi mavjuddir, boshqacha qilib aytganda, uning qatnashchilari tenglik, tengsizlik va itoatkorlik holatlarida bo'lishi mumkin. Bunda, albatta, mulkiy munosabatlar bir xil bo'lmay, balki turli xilda va turli ta'sirda bo'ladi.

Mulkka egalikdagi umumiylik amalda tenglikni yuzaga keltirmaydi. Chunni uning harakati kim tomonidandir boshqarilishi kerak, u vakil, belgilangan shaxs yoli tashkilot bo'lishi mumkin. Bunday sharoitda barchaning manfaatlari bir xilda e'tiborg olinishi mumkin emas, chunki, kimki mulkka yaqin, uni boshqarish huquqlariga ega bo'lsa, u manfaatdorlikdagi bir xillikka to'la rioya eta olmaydi va u o'zi, o'zigi yaqinlarning manfaatiga ko'proq e'tibor beradiki, bu boshqalarning manfaati hisobiga amalga oshadi. Shu bilan birga, umumiylikda haqiqiy mulk egaligi ta'minlanmaydi asosan egasizlik ustunlik qiladi. Shuning uchun ham yirik iqtisodchilarning, ijtimoiy mulkda egasizlik xususiyati mavjud, deb ta'kidlashida jon bor. Shu boisdan har mulkdagi umumiylikning samaradorlik darajasi, ayrim voqelikdan tashqari, yuqori bo'lmaydi. Bu esa ijtimoiy mulkning istiqbolini belgilaydiki, bunga asoslangan tizim uzo

umr ko'rishi, yuqori taraqqiyotni ta'minlashi mumkin emas. Bundan tashqari, mulkdagi umumiylik bozor sharoitlarini inkor etadi.

Mulkdagi xususiylikning ijobiy tomonlari ko'p, u ijtimoiylikka nisbatan bir qancha ustunliklarga ega. U, avvalo, umumiylikning teskarisi bo'lgan turlilik, xilma-xillik, tengsizlik sharoitlari bilan bog'liqdir. Bunda egalik darajasi yuqori, javobgarlik hissiyoti kuchli bo'ladi. Eng muhimi, shaxsiy manfaatdorlik to'la yoki to'laroq ifodalanadi. Mulkdan foydalanishning shaxsga bevosita bog'liqlik darajasi yuqori bo'ladi. Mulk xususiyligi uni yuritishdagi turli-tumanlik, xilma-xillik va erkinlik sharoitlarini yaratishi tufayli bozor munosabatlariga mos keladigan raqobatga asos soladi. Bozor munosabati bilan mulk muammosi, mulkning harakatdagi shakllari qatori, uning bozor iqtisodiyoti rivojida o'rni, ahamiyati, bozor uchun ma'qul va zarur ko'rinishlari, bozor iqtisodiyoti rivoji maqsadida mulk munosabatlarining taraqqiyotiga ham e'tibor berish zarur. Mulkchilikning muayyan turi va shakllari mavjud. Mulk turi ijtimoiy, iqtisodiy tuzumlarga nisbatan belgilanib, asosan bularga xos mulkiy munosabatlarni ifodalaydi. Bunda mavjud mulk shakllari, avvalo, ekspluatatsiya yoki noekspluatatsiya tuzumlarining asosi hisoblanadi.

Ma'lumki, tarixan bosib o'tilgan tuzumlar ekspluatatsiya bilan bog'liq bo'lib, ularni quldorlik, feodal va kapitalizm tuzumlari deb farqlar edik. Ekspluatatsiyaning mazmuni ishlab chiqarishni tashkil etish uchun zarur boyliklar ma'lum sinf, guruhlar qo'lida bo'lib, qolganlarning ular uchungina mehnat qilishi bilan belgilanadi. Mehnat qilgan mahsulot taqsimotida ishtirok etmay, kam, mulk egalari esa mehnatsiz ham ko'p daromad olgan. O'z mehnati bilan daromad oluvchi mulkdorlar ham bo'lgan-u, lekin ular asosiy guruhlar qatoriga kirmagan.

Jamiyat taraqqiyotida, avval, iqtisodiy rivojlanish natijasida aralash iqtisodiyot yuzaga kelib, ko'pchilikning mulk egasi bo'la olishi sharoiti paydo bo'ladi. Yuqori darajada ishlab chiqarish, iqtisodiy o'sish ko'pchilikning mulkka hissdor bo'lishi, moddiy resurslar ishlab chiqarilgan mahsulotlarni o'zlashtirishda qatnashuvi mumkin bo'ladi. Umuman, iqtisodiy taraqqiyotda barchaning manfaatdorligi yuzaga keladiki, bu yangicha mulkiy munosabatlar mazmuniga xos mulk turini yaratadi.

Mulkchilik yakka hukmronlikdan turlilik tomon rivojlanadiki, bu uning shakllari taraqqiyotini ko'rsatadi. Mulk to'g'risida yuqorida aytib o'tilgan fikrlar uning shakllarida o'z ifodasini topadi va o'z ta'sirini mavjud harakatdagi mulk shakllari tufayli namoyon etadi.

Yakkamulkchilik to'la ijtimoiy mulk shaklidan iborat bo'lsa, mulk shakllarining turiligi asosan davlat mulki, shaxsiy mulk, shuningdek, jamoa, qo'shma, kooperativ mulklar kabilardan iboratdir. Mulkdan foydalanishda yana qo'shimcha shakllar ham yuzaga keladi. Bular qatoriga ijara, pudrat, sheriklik, fermerlik (dehqonchilik va chorvachilik) kabilarni qo'shish mumkin.

Yuqorida ta'kidlanganidek, bozor iqtisodiyoti turli mulk shakllarini taqozo etadi. Asosan davlat, xususiy va birlashma mulklarini mulk turlari desak, turlar shakllarga, shakllar esa, o'z navbatida, yana o'z ichida mulk subshakllariga bo'lindi. Mulk shakllarining turiligi, yangilarining paydo bo'lishi bozor iqtisodiyoti taraqqiyoti natijasidir. Biron bir mulk shakli mavjud ekan, demak, u samarali harakatda bo'ladi. Mulk turlari nisbatini xo'jalik subyektlari tuzumi bo'yicha olsak, O'zbekistonda davlat korxonalarini xususiy lashtirish, uning asosiy ko'rsatkichlari 14.1-jadvalda keltirilgan.

#### 14.2. Davlat mulkini xususiyashtirish

Har bir davlat o'z mulkini tashkil etadi. Bu asosan xo'jalik, avvalo, ishla chiqarish bilan bog'liq bo'ladi. Keyingi vaqtlarda bunday mulk hajmi sezilarli darajad bo'lib, umumiy mulk miqyosida nisbati Fransiyada deyarli uchdan bir qismig Angliyada 20-21 %ga, AQSHda 13-14 % ga tengdir. Bular asosan barcha tarmoqlar oid va xalq xo'jaligi infratuzilmalari sohaslaridir. Lekin kapitalistik deb atalayotga davlat mulklari qaysi shaklda bo'lishiga qaramay, asosan xususiy xarakterda va bozo qoidalari asosida faoliyat ko'rsatadi. Shunga ko'ra, ular bozor munosabatlari rivojlantirish, raqobatga sharoit yaratish uchun xizmat qiladi.

Lekin davlat mulkining boshqa bir turi ham mavjud bo'lib, u o'z hajmi va haraka mazmuni nuqtai nazaridan farqlanadi. Bu sobiq sho'rolar mamlakatlarida yuzaga kelga davlat mulkidir. Bu xil mulk shakli ijtimoiy mulk bo'lib, o'ta umumlashgan v markazlashgan mulkdir. Sobiq sho'ro imperiyasida bunday mulk, avvalo, ishla chiqarish vositalari milliyashtirilib, ulami hech qanday to'lovsiz davlat ixtiyoriga olis hisobiga paydo bo'la boshladi. Bunda, birinchi navbatda, xususiy mulkka barhar berildi va u davlat mulkiga aylantirildi.

Mayda mulk va bunga asoslangan ishlab chiqarish vaqtincha xususiylicig saqlandi. O'tgan asning 30-yillariga kelib, ular ham umumlashtirildi va arte shaklidag kooperativlarga birlashtirildi. Qishloq xo'jaligida kolxozlar tuzildi, shaharlard hunarmandchilik artellari yuzaga keldi. Nomiga bu jarayon ixtiyoriylik asosida tashk topdi-yu, amalda majburiy tarzda kechdi. Shu bilan mamlakatda xususiy mulk yo' qilinib, umuman, xususiy manfaat ham inkor etilib, ijtimoiylikka asos solindi.

#### 14.1-jadva

##### O'zbekistonda davlat korxonalarini xususiyashtirishning asosiy ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkichlar nomi	2000-y.	2002-y.	2004-y.	2010-y.
1.	Xususiyashtirilgan korxonalar soni	374	1912	1228	631
2.	Xususiyashtirilgan mulk negjida tashkil topgan nodavlat mulkchilik shakliga ega bo'lgan korxonalar soni	372	1800	1228	593
3.	Aksionerlik jamiyatlari	152	223	28	38
4.	Xususiy korxonalar	103	1252	1038	-
5.	Boshqa tashkiliy-huquqiy shakldagi korxonalar	117	325	162	-
6.	Xususiyashtirishdan tushgan mablag'lar, mlrd. so'm	14,3	43,6	78,4	111,1

Birlashmalar, ya'ni korxonalar va tashkilotlar uyushmasi mulki mavjud bo'lib, bular asosan davlat mulki asosida bo'lganligi tufayli, buni davlat mulkiga bog'la ko'rsatmoqchimiz. Chunki bu umuman, birlashma mazmunida bo'lib, xususiy mulk ishtirokida ham bo'lishi mumkinligi va xususiylik munosabatlariga moyillik bo'lishig

qaramay, davlatchilik ustunlik qiladi va asos bo'lib hisoblanadi. Bunday mulk ham boshqalarga o'xshagan xalq xo'jaligining barcha tarmoq va sohalarida yuzaga keladi. Uyushma mulki esa ishtirokchilar mulkidan ajratilgan qismnigina tashkil etib, umumiy manfaat uchungina ishlatiladi. Bu, ayniqsa, o'tish davriga juda xarakterli bo'lib, O'zbekistonda ham ko'p qo'llanilmoqda.

Eng qadimgi va keng tarqalgan mulk xususiy shakldagi mulk bo'lib, u asosan ayrim shaxslar bilan bog'liqdir.

Xususiy mulkning asosiy xususiyati shuki, mulk bir kishining ixtiyorida bo'ladi va mulkka nisbatan to'la mustaqil ish tutish imkoniyati tug'iladi. Xususiy mulk chegarasi uning egasidagi imkoniyat va qobiliyatga bog'liq. Bozor iqtisodiyoti rivojida bu tur alohida o'rin egallaydi. Xususiy mulk bir shakldagi mulk, lekin har bir xususiy mulk o'ziga xos alohida mulk bo'lganligi tufayli, ular mustaqil mulklar, ya'ni juda ko'p miqdordagi, ming-minglab sonli mulklardir. Ularning har biri bozorning alohida ishtirokchisi va raqobat kurashining qatnashchisidir. Bundan xususiy mulk raqobatni kengaytiruvchi, kuchaytiruvchi mulk shakli ekanligi yana bir bor oydinlashadi.

Shunga ko'ra, xususiy mulk bozor sharoitiga juda tez moslashadigan, xaridor talabini tez e'tiborga olib ish tutish va faoliyat ko'rsatish uchun eng qulay sharoitga ega bo'lgan mulk shaklidir. Bunday xususiyat bozor iqtisodiyotida xususiy mulkning ahamiyatini kuchaytiradi va yetakchilik o'rni belgilab beradi. Demak, bozor rivoji uchun birinchi navbatda, xususiy mulk keng quloq yozmog'i, iqtisodiyotda asosiy o'rinni egallamog'i talab etiladi. Zero, xususiy mulk taraqqiyotsiz bozor iqtisodiyotini tasavvur etib bo'lmaydi. Xususiy mulk asosiy o'rinni egallamaguncha va davlat mulki ustunligi yo'q qilinmaguncha iqtisodiy taraqqiyotning obyektivligiga nisbatan sun'iy ustunlik uchun sharoit mavjud bo'laveradi.

### **14.3. MulK shakli va mulkdorlar sinfini shakllantirish**

Xususiy mulk turlicha: kichik, o'rta, katta va juda katta hajmlarda bo'ladi va xuddi shunday xo'jaliklarni ifodalaydi. Albatta, ular to'xtovsiz ravishda kattalashish va kengayish xususiyatiga ega. Shunga ko'ra, xususiy mulk, ayrim shaxslar mulki bo'lishiga qaramay, juda katta hajmda – million, milliard dollarlik miqdorda bo'lishi mumkinki, u juda yirik korxonalarini ham o'z ichiga oladi. Xususiy mulk O'zbekistonda juda tezlik bilan shakllanmoqda. Uning hissasi xo'jalik subyektlari ortasida 2013-yil boshida 44,1 %ni tashkil etdi. Bu, 2010-yilning boshidagiga nisbatan 9,4 % ko'pdir.

Xususiy mulk ikki, ya'ni individual va korporativ shaklda bo'ladi. **Individual mulk** sharoitida boylik alohidalik asosida o'zlashtiriladi. Bunda mulk egasi mulkidan foydalanishda ijaraga berish yoki biron guruhga qo'shilib to'la mustaqillikka ega bo'ladi.

**Oila mulki** ham individual xususiy mulkdan ajrab chiqib, alohidalashadi.

**Korporativ mulk** shakli hissdorlikka asoslanadi, ya'ni bunda birgalikda ish ko'rish uchun guruhlar qo'shiladi. Bunda, albatta, mulkdor boylikni yakka o'zlashtirish huquqiga ega bo'ladi, lekin bu ma'lum guruhlarga birlashuv sharoitida yuz beradi. Korporativ xususiy mulkning tub mazmuni individual mablag'larni birlashtirish tufayli paydo bo'luvchi jamiyatlarning korporativ mulkidan iboratdir. Korporativ xususiy mulk xo'jalik yuritish zaruriyatidan kelib chiqib, katta mablag'lar ishlatish va kapitalarni

birlashtirish orqali yuzaga keladi. Shu bilan birga, mayda xususiy mulk mas'uliyat o'rniga korporativ mas'uliyat paydo bo'ladi.

Korporativ xususiy mulk monopolistik mulkni ham yuzaga keltiradi. Bular korporativ mazmundagi yirik xususiy mulk birlashmalaridan iborat va ular juda kattajamdagi boylikdir. Bu boylik esa, ozchilik ixtiyorida bo'ladi.

Tub xususiy mulkdan keyin miqdorlilik jihatidan ko'p shaklli mulk tur hisoblangan birlashma mulki turadi. Birlashma mulkining korporativlik mazmuni bo'ls ham u bir necha mustaqil mulk shakllaridan, ya'ni aksionerlik, jamoa, kooperativ qo'shma tashkilotlar mulki kabilardan iborat bo'ladi. Shu bilan birga korporativ xususi mulkdan farqli o'laroq, bunda davlat va chet mamlakatlar mulklari ham ishtirok etadi. Ko'p tarqalgan bu mulk shakli avvalo **jamoa mulkidir**. Bu mulk mayda xususi mulkchilarning birlashmasi sifatida yuzaga kelib, bir qancha ustunliklarga ega. Bundag muhim tomon asosan sarmoyalarni kuchaytirish imkoniga ega bo'lish, mulkchilarning monopollik harakatiga bardosh bera olish uchun sharoit yaratishdir. Bu xil mulk turli tarmoqlarda harakatda bo'ladi, ya'ni u ishlab chiqarish, muomala sohalari infratuzilmalarda faol qatnashishi mumkin.

Jamoa mulki, ayniqsa, bevosita iste'mol buyumlari ishlab chiqarish va iste'mo qilish tarmoqlarida katta o'rin egallaydi. Oziq-ovqat, kiyim-kechak, ta'minlash, qurilish kabilarda uning ta'siri juda katta. Rivojlangan mamlakatlar, ayniqsa, Yaponiyad bevosita iste'mol va umuman, inson hayoti sharoitida bu mulk shaklining o'rni katta. U yerda minglab jamoa korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Bizning sharoitimizda bu mulk shakli asosan qishloq xo'jaligida keng quloc yoygan. Bular asosan jamoa, guruh mulkiga asoslangan harakatdagi xo'jali shakllaridagi mulkdir. Bundan tashqari savdoda, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xari qilish va qayta ishlashda ham bu xil mulk keng tarqalgan bo'lib, bular matlubc jamiyatlari, xarid-savdo birlashmalari mulkidir.

Jamoa mulki mayda mulkchilar faoliyatida ahamiyatlidir. Chunki alohida hold mayda mulk samara keltirishi u yoqda tursin, hatto raqobatga bardosh berolmasligi v arzigulik ish qila olmasligi mumkin, mayda mulkdorlar esa, o'zaro birlashib, kattaro hajmda ujarat ishlarini amalga oshirish imkonini tug'diradi. Shuning uchun har haqiqiy demokratik asosda yuzaga kelgan jamoa mulki va bu asosdagi xo'jalik jud ahamiyatlidir. Har bir bunday birlashma ma'lum darajada erkin harakatni chegaralast sababli birlashuv faqat ixtiyoriyligni talab etadi. Shuni e'tirof etish zarurki, jamo mulkiga davlatchilikni singdirish faqat zarar keltiradi: jamoa mulkidan kutilgan samar bo'lmaydi.

Jamoa mulkining qo'llanilishidagi yana bir xususiyat shundan iboratc boylikning o'zlashtirilishi uchun ish faoliyatida birgalikda qatnashish talab etilad. Chunki jamoa mulki mehnatsiz o'zlashtirishni inkor etadi va korporativ xususi mulkdan farqlanib, ham mulkka, ham mehnatga hissa qo'shishi zarur hisoblanadi. B asosda tashkil etilgan xo'jalikdagi asosiy ishchi kuchi shu mulk egalarning o'zidir. Sh bilan birga zaruriyat talabi bilan yollanma mehnat jalb etilishi hollari ham mavju bo'ladi. Mayda mulk bozorda ta'sirli kuchga ega bo'la olmasa, uning birlashuvi natijasid yuzaga keladigan jamoa mulki katta o'rin egallaydi va bozor iqtisodiyotining muhir ishtirokchisiga aylanadi, uning rivojida faol qatnashish imkonini tug'diradi.

**Kooperativ mulki jamoa mulkining ko'p uchraydigan shaklidir.** Kooperativ xillari ko'p, ular shu xil mulkka asoslangan va keng tarqalgan korxonalaridir. Kooperativlarga birlashganlarning mulki umumiy va daromadi asosan sarf etilgan mehnat bilan belgilanadi. Bu guruh asosidagi birlashma bo'lib, u hissadorlik mazmunida tashkil topadi. Kooperativlarda qo'shilgan mulk bilan bir qatorda shaxsiy qatnashuv hal qiluvchi o'rin egallaydi. Har bir kooperativ bozorda mustaqil ishtirokchi sifatida faoliyat ko'rsata oladi.

O'zbekiston sharoitida mahalla mulki ham rivojlanib, uning ahamiyati o'sib bormoqda.

Mulkchilik shakllarining yana bir ahamiyatlisi — **qo'shma mulkdir.** Bu mulk nomi ko'rsatib turganidek, mulklarning bir-biriga qo'shilishi tufayli yuzaga keladi. Ikki usulda barpo bo'lishi mumkin bo'lgan bu xil mulk mamlakatning ichki va tashqi imkoniyatlariga bog'liqdir. Chunki qo'shma mulk ichki yirik mulklarning bir-birlari bilan qo'shilib, ish ko'rishiga asoslanadi, shu bilan birga mamlakatlararo qo'shilish tufayli ham shakllanadi. Shuning uchun ham boshqa xil mulk shakllaridan farqli o'laroq, bu mulk xalqaro ahamiyat kasb etadi. Avvalo, mamlakat ichida turli mulklarning qo'shilishi orqali paydo bo'lib, bunda davlat asosiy o'rin egallaydi. Aytaylik, davlat mulkiga xususiy va jamoa mulklarini tortish tufayli xo'jaliklar tashkil etish yoki ayrim xo'jalik faoliyati turi bo'yicha qo'shilib ish ko'rish mumkin va bunda turli mulk sarmoyalari jalb etilgan bo'ladi. Bunday sharoitda faoliyat imkoniyatlari kengayadi, samaradorlik darajasi ortadi. Ayniqsa, bunday mulk shakli ishlab chiqarishni kengaytirish, investitsiya sohasi, yangi tarmoqlar yaratishda juda ahamiyatlidir.

Ma'lumki, bozor munosabatlariga o'tishda chet el sarmoyalari jalb etish alohida ahamiyat kasb etadi. Mulki nuqta nazaridan olsak, bu chet el kapitalini jalb etgan holda qo'shma mulkni avj oldirishdir. Mamlakatimizda, ayniqsa, Turkiya, Koreya Respublikasi va Germaniya Federativ Respublikasi, AQSH kapitallari ishtirokida qo'shma mulklar ko'paymoqda. 2013-yilda chet el investitsiyasi bilan ish ko'rayotgan korxonalar soni 4500 taga yetdi va shulardan 1005 tasi shakllanish darajasidadir. 2012-yilning o'zida bunday qo'shma korxonalarda tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish 6,7 marta o'sdi va mahsulot hajmi 41,6 mlrd. so'mga yetdi. Qisqa vaqt ichida barpo etilgan bunday korxonalar sonining shunday darajaga yetishi katta muvaffaqiyatdir, albatta. Bu jarayon yana ham tezlashishi zarur. Birgina 2013-yilda chet el investitsiyasi 2,7 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan va 150 ta ishlab chiqarish loyihalari amalga oshirilgan.

Chetki kapital asosidagi qo'shma korxonalarining ahamiyati investitsiyani kuchaytirish, milliy iqtisodiyotni bozor munosabatlari asosida shakllantirishda o'tib boradi. Katta mablag'lar talab etiladigan sharoitda qo'shma mulk orqali chet el kapitalini jalb etish zaruriyatidir. Zero, yuqorida ta'kidlanganidek, respublikamiz oldida xalq xo'jaligi tizimini tubdan o'zgartirish, yangi tarmoqlar yaratish, zamonaviy texnologiyani o'zlashtirish kabi yirik iqtisodiy vazifalar turibdiki, ular nihoyatda katta sarmoyalarni talab etadi, qo'shma mulk esa bu muammoni yechishda katta ahamiyatga ega.

Qo'shma mulk tufayli jalb etilgan chet el kapitali yangi texnologiyalarni olib kirmoqda. Chunonchi, Koreya Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi kapitallari asosida yuzaga kelgan qo'shma korxonalar respublikamiz uchun yangi, zamonaviy avtomobil sanoatini yuzaga keltirish imkonini berdi va mamlakatimiz 28-avtomobil ishlab chiqaruvchi bo'ldi.



Xomashyoviylik yo'nalishini bartaraf etib, paxtadan kiyim-keçak tayyorlashgach bo'lgan texnologik ishlab chiqarishni yaratishda Turkiya, Koreya Respublikasi kabi bilan yuzaga kelayotgan qo'shma mulk juda ahamiyatlidir. Bunday jarayonlar kundar kunga rivojlanib, turli mamlakatlar ishtirokida qo'shma mulkni kengaytirish yanada av olmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad qo'shma mulkning shakllanish jarayonig chetdan yirik kapitallarni jalb etish, uning miqdori va hajmini ko'paytirish yo'li bila yangi tarmoqlar barpo etish, zamonaviy texnologiyani qo'llash kabi hajm sarmoyalarga bog'liq masalalarni muvaffaqiyatli bajarishni tezlashtirishdir.

Keyingi vaqtlarda tashkilotlar mulkning mavqei ham oshmoqda. Chunki ularnin xo'jalik-tijorat faoliyatlari o'sishi mulkni badal puli chegarasidan allaqachon chiqari yubordi. Bular turli partiyalar, kasaba va yoshlar uyushmalari, turli fondlar kabilarnin mulklaridir.

**Diniy tashkilotlarning** ham mulklari mavjud. Bu faqat diniy bino va inshootla bilan cheklanmay, balki xo'jalik faoliyati imkon tug'dirgan jamg'armalar, turi marosimlardan tushadigan mablag'lar hisobiga ortib boradi. Ular oddiy xo'jalik faoliyat bilan birga katta qurilish ishlari va boshqa kapital ishlarini ham amaiga oshiradilar. Bu mulk faqat diniy yo'lda qo'llaniladi va ishlatiladi.

**Hissadorlik mulki** bu turkumdagi eng salmoqli va ta'sirli mulk shaklidir, kenj tarqalgani ham aslida birlashgan mulk bo'lib, aksiya chiqarishga asoslangandir. Bu aksiyalar erkin harakatda bo'ladi, qimmatbaho qog'ozlar qatorida savdoda ishtirok etad va sotiladi, sotib olinadi. Aksiyaga ega bo'lganlar hissadorlik asosidagi mulkning qatnashchilari hisoblanadilar, korxonalar faoliyatida ishtirok etish huquqiga ega bo'ladilar. Aksiyalari uchun korxonalar faoliyati natijasiga ko'ra daromad oladilar. Bu mulkda ishtirok etish ixtiyoriydir. Chunki istagan vaqtda aksiyani sotib olish yok sotish mumkin.

Umuman, bozor iqtisodiyotining rivojlanishida bu xil mulkning ta'siri katta Chunki hissadorlik jamiyatlari o'ta yirik bo'lib, ular juda katta hajmdagi mulkn birlashtiradilar.

Hissadorlik mulkida davlatlarning ishtiroki katta bo'lishi mumkin. Aytaylik bozorga o'tishning hozirgi davrida O'zbekistonda asosiy sanoat korxonalar aksionerlashganiga qaramay, ulardagi mulkning asosiy qismi davlat mulkidan tarkit topgan. Sanoat, savdo, transport va qurilishda paydo bo'lgan yirik hissadorlik korxonalari mulklarida davlatning ulushi yuqori.

Hissadorlik mulki boshqa mamlakatlarning mulklari ishtirokida ham yuzaga kelishi mumkin. Jahonda xalqaro hissadorlik jamiyatlari ko'p. Masalan, transmilliy konsernlar xuddi shunday mulkni tashkil etadilar.

**Xalq korxonasi mulki.** Bu shakldagi mulk hissadorlik mulkidan kelib chiqadi Chunki aksiyalar egalari korxonada ishlaydilar. Shuning uchun ular ayni vaqtda korxonaning mulkdori huquqiga ega bo'ladilar. Bu korxonalar faoliyatiga aksiyaga ega bo'lgan xodimlar ham qatnashish huquqini qo'lga kiritadilar. Natijada hissadorlik korxonasi daromadidan shu hissadorlar manfaatdor bo'ladilar. Masalan, AQSHni xalq kapitali mamlakati, deyilar. Chunki aksiyaga ega bo'lgan xodimlar korxonalarda ko'pchilikni tashkil etadi. 2012-yilda xalq korxonalarida 11 mln.dan ortiq kishi ishlagan va aksiyalarning 20 %dan 51 %gachasi ishlovchilarning birgalikdagi mulkidan iborat bo'lgan. U yerda xalq korxonalari deb ataluvchi xo'jaliklar miqdori ortib bormoqda.



#### **14.4. O'zbekistonda o'rta muddatli indikativ rejani tayyorlash va uni amalga oshirishga ko'maklashuvchi sharoitlar**

Hozirgi kunda O'zbekistonda indikativ rejalashtirish tamoyillari asosida makroiqtisodiy tartibga solishning yangi tizimiga o'tish uchun ma'lum sharoitlar bor. Mamlakatda har yili strategik resurslarning balansi, investitsiya dasturi, YAIM, inflyatsiya va boshqa muhim makroiqtisodiy indikatorlarning bashorati ishlab chiqiladi. Lekin ular avvalgidek iqtisodiyotni tartibga solishning markazlashtirilgan xarakterini aks ettiradi, xususiy sektor manfaatlarini deyarli hisobga olmaydi va ko'pincha raqobatning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Undan tashqari rejalashtirish qisqa muddatli (bir yil) xarakterga ega. Shuni aytib o'tish kerakki, qo'yilgan muhim masalalarni hal etishga bir yil kamlik qiladi. Shu munosabat bilan indikativ rivojlantirishning o'rta muddatli va uzoq muddatli amaliyotini tatbiq etish juda muhim bo'lib, u vazifa va maqsadlar amalga oshirilishini osonlashtirishga, hukumat organlarining samarali muvofiqlashuvi va uzoq davr mobaynida resurslarni to'plashga imkon beradi.

Rejalashtirish jarayonining tashkiliy jihatlarini yangilash juda muhimdir. Birinchi o'rinda gap jarayonga jamiyatning keng doirasini jalb etish, qisqa muddatda xususiy sektor manfaatlarining amalga oshirish qiyin bo'lgan chuqur tahlili va dasturlar natijalarining monitoringi haqida ketmoqda.

Qisqa muddatli indikativ reja ishlab chiqarilishida tayanch nuqta mamlakat rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy konsepsiyasidir. Bu jarayon asosida kompleks tahlil, shu jumladan, avvalgi davrlar uchun mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi natijalari, jahon iqtisodiyoti rivojlanishi tendensiyalarining, iqtisodiy siyosat, institutsional islohotlar tahlili yotishi lozim. Bu tahlilning maqsadi – o'rta muddatli davrga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi vazifalarini aniqlashdir.

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasini o'rta muddatga tayyorlashda iloji bo'lsa, Vazirlar Mahkamasí qoshidagi vakil ishchilar guruhi hamda mustaqil ekspertlar kengashi shug'ullanishi kerak. Bu kengash tarkibiga O'zbekiston Respublikasi markaziy iqtisodiy organlari mutaxassislari va rahbarlari, biznes, ilm, madaniyat vakillari, jamoatchilik faollari kiritilishi lozim. Konsepsiyaga bunday yondashuvda hukumat, xususiy sektor va jamiyat manfaatlarini hisobga olinadi. Vakil ishchilar guruhining ishlaydigan organi Iqtisodiyot vazirligi bo'lib, u makroiqtisodiy (YAIM, to'lov, balans, budjet va pul-kredit sohalari) tarmoq va hududiy bo'linmalar bo'yicha bashorat va tahlil ishlari amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Birinchi bosqichda rejalashtirilayotgan imkoniyatlar uchinchi bosqichni amalga oshirish jarayonida ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy maqsadli,

to'g'rilanadi. O'rta muddatli indikativ reja ishlab chiqishning ikkinchi bosqich ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiya Vazirlar Mahkamasi tomonidan qisqa muddatli davrga tasdiqlanganidan keyin boshlanadi. Iqtisodiyot vazirligi markaziy iqtisodiy organlar bilan birgalikda ikkinchi bosqich doirasida indikativ rejaning makroiqtisodiy parametrlarini, sektorial makroiqtisodiy bashoratlarining detalli ishlab chiqarilishin (YAIM, to'lov balansi, davlat budjeti, kredit sohasi) aniqlab tasdiqlab beradi.

Indikativ reja varianti muvofiqlashtirilgandan keyingina tasdiqlash uchur mamlakat Vazirlar Mahkamasiga kiritiladi.

#### **14.5. Indikativ reja – milliy iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish jarayonini yaxshilash asosi**

Indikativ reja – milliy iqtisodiyotni davlat tomonidan mukammal izga solishning asosi. Indikativ rejalashtirishni statistik hisobot milliy tizimini mukammallashtirmasdar turib amalga oshirish mumkin emas. Bu statistik tizimni isloh qilish; ilmiy asoslangar uslubiyat asosida statistik ko'rsatkichlarning zamonaviy tizimini shakllantirish; milliy hisoblar sifatini yangilash uchun axborot-ma'lulotlar bazasini qayta shakllantirish; bashoratni hisoblash amaliyotiga asosiy MHT agregatlarini kiritish va uslubiyatini ishlab chiqish; zamonaviy asosdagi ishlab chiqarishning tarmoqlararo balansini tuzishni nazarda tutadi.

Shu bilan birga, indikativ rejalarini boshlang'ich bosqichlaridan tuzatish imkonini beruvchi monitoring tizimini kiritish zarur. Indikativ va direktiv rejalarini amalga oshirish ustidan nazorat bir-biridan mohiyati jihatiga ko'ra farqlanadi. Indikativ reja bajarilmay qolishi iqtisodiy subyektlarni jazolashga sabab bo'la olmaydi. Indikativ rejalar respublikamizda boshlangan ma'muriy islohot, iqtisodiyotni boshqarish shakli va usullarini erkinlashtirish jarayonlariga mos keladi. Mamlakatning markaziy iqtisodiy idoralari faoliyatida indikativ rejalashtirishga o'tish ijro hokimiyati funksiyasi va tuzilmasini optimallashtirishga, davlat organlari faoliyati samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan ma'muriy islohotlar bilan birga olib borilishi zarur. Davlat organlarining tadbirkorlik va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro aloqadorligi yaqinlashishiga imkon beradigan yangicha yondashuvlar kerak. Bunga indikativ rejalashtirishning amaliyotga kiritilishi ko'maklashadi. Xususan:

- markaziy iqtisodiy vazirliklar, idoralar hamda xo'jalik boshqaruvi organlari funksiyalarini qayta ko'rib chiqish va aniqlashtirishga;
- hukumat organlarining tadbirkorlik muhiti bilan munosabatlar tizimini o'zgartirishga, hukumat rejalarini to'g'risida axborotlarni yaratib, xo'jalik subyektlari va aholiga maksimal darajada yetkazib borishga;
- davlat qarorlari qabul qilinishida jamoatchilik yanada faolroq jalb etilishiga yordamlashadi.

Shunday qilib, iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish mexanizmiga o'rta muddatli indikativ rejalashtirishning kiritilishi ma'muriy islohotlarni chuqurlashtirishga ko'maklashadi, u O'zbekiston iqtisodiyotini isloh qilish jarayoni davom ettirilishiga ham yordam beradi.

#### 14.6. O'zbekiston milliy valyutasini mustahkamlash yo'llari

Milliy valyutani joriy etish ishlari murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda olib borildi va u ikki bosqichda amalga oshirildi: ma'lumki, 1993-yilning noyabr oyida vaqtinchalik valyuta sifatida so'm-kupon joriy etildi, 1994-yil 1-iyuldan boshlab esa, to'laonli milliy valyuta – so'mning muomalaga kiritilishi mustaqil bank tizimini shakllantirishda muhim bosqich bo'ldi.

1993-yilda rublga amal qiladigan hududdan chiqish obyektiv sabablar bilan bog'liq edi. Chunki faqatgina 1992-yilning o'zida savdo balansining salbiy qoldig'i 18,6 martaga oshdi, so'm-kupon joriy etilgan paytga kelib esa, 9 ta respublika o'z milliy valyutasini muomalaga kiritishga ulgurgan edi. Bu esa, O'zbekiston tomonidan vaqtinchalik valyuta joriy etilayotgan paytda rublga amal qiladigan hududning amalda barbod bo'lganligidan dalolat berardi.

Dastlabki kunlardayoq mustaqil iqtisodiy siyosat yuritish bosh tamoyillaridan biri iqtisodiyotni bosqichma-bosqich rivojlantirish bo'ldi. Pul tizimini shakllantirishga doir barcha chora-tadbirlar majmui ana shu tamoyil asosida amalga oshirildi. 1993-yilning noyabrda vaqtinchalik valyutaning joriy etilishi, avvalo, uning ichki ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ko'rsatadigan ta'sirini aniqlash, respublikada pul-kredit munosabatlarini tartibga solish bo'yicha to'laonli mexanizmi yaratish zarurati bilan bog'liq edi. Oxir-oqibatda bu mamlakatda iqtisodiy vaziyatni muayyan darajada barqarorlashtirish va milliy valyutani muomalaga kiritishga puxta tayyorgarlik ko'rish imkonini berdi. Chunonchi, ushbu davrda so'm-kuponning xarid qobiliyatini oshirish va ichki iste'mol bozorini sifatli va xaridorgir mahsulotlar bilan to'ldirish chora-tadbirlari ko'rildi. Uning jahon valyutasiga nisbatan asosiy qiymatini aniqlash boshlandi. Sobiq sovet respublikalaridagi hamkorlar bilan hisob-kitoblar tartibga solindi, valyuta nazorati haqidagi tegishli qoidalar ishlab chiqildi.

1994-yil 1-iyuldan boshlab, milliy valyuta – so'mni muomalaga kiritish haqida Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasining milliy valyutani joriy etishga oid tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori O'zbekistonda samarali pul-kredit tizimini yaratish jarayonlarining mintaqaviy davomi bo'ldi. Ushbu o'ta muhim voqeaning ahamiyati mamlakatimiz rahbari I.A. Karimov tomonidan iqtisodiyotni tubdan isloh qilishning sifat jihatidan butunlay yangi bosqichini boshlab bergan inqilobiy qadam sifatida baholandi.

Shunday qilib, milliy valyuta iqtisodiy mustaqillikka erishishga yo'naltirilgan asosiy vositalardan biri bo'ldi. Respublikamiz o'z rivojlanish strategiyasidan kelib chiqqan holda faol investitsiya siyosatini yuritish va tarkibiy islohotlarini o'tkazish yo'lidan bordi. Qisqa muddatlarda mashinasozlikda, kimyo sanoatida, gaz va neftni qayta ishlash sohasida yangi ishlab chiqarishlar yo'lga qo'yildi, shu jumladan, chet el sarmoyasi ishtirokidagi ishlab chiqarish korxonalari ishga tushirildi, transport infratuzilmasini rivojlantirish loyihalari amalga oshirildi, ularning ayrimlari nafaqat respublikada, balki butun mintaqada hali-hanuzgacha mavjud emas edi. Qayd etish lozimki, ushbu oqilona siyosat avvalo, xorijiy investorlarning ishtiroki va milliy manfaatlarimizni uyg'unlashtirishga qaratilgandi.

Bularning barchasi oxir-oqibatda iqtisodiy o'sish sifatini oshirish, iqtisodiyot tarkibini o'zgartirish, shuningdek, muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lmish eksport tarkibini yaxshilashga olib keldi. Buning yaqqol isboti sifatida mamlakatimizda

avtomobil ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish borasida Andijon viloyatining Asaka shahrida amalga oshirilgan loyihani keltirib o'tish mumkin.

Aynan shunday rivojlantirish strategiyasi keyinchalik makroiqtisodiy barqarorlik ko'rsatkichlariga samarali erishishni ta'minlaydi. Masalan, ayrim mamlakatlarda inflyatsiyani 5- 10 %ga pasaytirishga 2-3 yilda erishildi, bizda esa birgina 2013-yil mobaynida uning darajasi 21,6 %dan 3,8 %gacha pasaydi. Shuni alohida qayd etish lozimki, past darajadagi inflyatsiyani ta'minlash boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga salbiy ta'sir qilmagan holda amalga oshiriladi. Masalan, odatda, bunday yo'l tutilganda davlat qarzi hajmi ortib ketadi. Lekin bizda bu ko'rsatkich o'smadi, balki pasaydi.

2013-yilning oktabr oyida O'zbekiston tomonidan Xalqaro Valyuta Jam'armasi Nizomining VIII moddasi imzolanishi qilingan keng ko'lamli ishlarning yana bir natijasi va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda iqtisodiyotni bosqichma-bosqich rivojlantirish tamoyilining to'laqonli bajarilishi namunasi bo'ldi.

Respublikada so'mning mavsumiy tebranishini kamaytirish va oltin-valyuta zaxiralarini hisobga olgan holda o'zgaruvchan valyuta kursi qo'llab kelinmoqda. O'tgan yillarda valyuta siyosatining asosiy e'tibori ayirboshlash kursi barqarorligini ta'minlashga va konvertatsiya siyosatining asosiy e'tibori so'mning joriy to'lovlarini amalga oshirish bo'yicha majburiyatlarni bajarishga qaratildi. So'mning AQSH dollariga nisbatan nominal ayirboshlash kursi 2013-yil 4-choragida 2010-yil 4-choragidagi nisbatan 1,73 % pasaydi. So'mning AQSH dollariga nisbatan ayirboshlash kursi barqarorligi 14,2-jadvalda keltirilgan.

Ko'rinib turibdiki, oxirgi vaqtlarda so'mning real samarali ayirboshlash kursi asta-sekin kamayish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. 2009-2013-yillar mobaynida so'mning real samarali ayirboshlash kursi dinamikasida pasayish kuzatilmoqda. 2006-yildan boshlab, mazkur kurs barqarorlasha boshladi. So'mning real samarali ayirboshlash kursi 2012-yilda 80 %ni tashkil etdi.

14.2-jadval

O'zbekistonda rasmiy zaxiralarning o'sishi va almashuv kursining qadrsizlanish dinamikasi

№	Ko'rsatkichlar	2006-y.	2007-y.	2008-y.	2009-y.	2010-y.	2011-y.	2012-y.
1.	O'rtacha yillik almashuv kursi, dollar 1 so'm	1240,0	1290,0	1393,0	1511,0	1640	1795	1984,0
2.	O'rtacha yillik almashuv kursining qadrsizlanishi (o'tgan yildagiga nisbatan, % hisobida)	105,1	104	107,9	108,5	108,5	109,5	110,5

Milliy valyutaning real ayirboshlash kursi barqarorlashuviga quyidagi asosiy omillar sabab bo'ldi:

- ichki valyuta bozorida operatsiyalar hajmi sezilarli darajada oshirilishi;
- so'mning joriy operatsiyalar bo'yicha konvertatsiyasi ta'minlanishi;
- so'mning almashuv kursi barqarorligiga erishish.

2013-yilda O'zMBning valyuta siyosati milliy valyutaning AQSH dollariga nisbatan barqaror kursini ta'minlashga qaratilgan. 2011-yili ayirboshlash kursi dinamikasiga, milliy va jahon iqtisodiyotining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari rivojlanishiga asoslanib, so'mning AQSH dollariga nisbatan ayirboshlash kursi kamayishi 6-7 % atrofida bo'lishi mumkin.

Milliy valyutani qo'llab-quvvatlash maqsadida makroiqtisodiy vazifalarni hal etish asnosida pul tizimini rivojlantirish bilan bog'liq chora-tadbirlar amalga oshirildi. So'm muomalaga kiritilishi bilan Markaziy bank o'z harakatlarida to'liq mustaqillikka ega bo'ldi va o'z sa'y-harakatlarini, birinchi navbatda, pul muomalasining milliy tizimini va uni tartibga solishning bozor vositalarini yaratishga yo'naltirdi. Ushbu paytdan boshlab, Markaziy bank tomonidan pul-kredit siyosatini ishlab chiqish va uni amalga oshirish, valyutani tartibga solish, zamonaviy to'lov tizimini yaratish, bank faoliyatini litsenziyalash va uni tartibga solish borasidagi faoliyat «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi Qonunga muvofiq holda muhim maqsadga erishishga – milliy valyuta barqarorligini ta'minlashga qaratildi. Ushbu maqsadda erishishga iqtisodiyotning turli sohadagi chora-tadbirlar majmui sifatida qaraldi. Bir vaqtning o'zida kredit va depozit bozorida raqobat muhitini shakllantirish, shuningdek, aholiga bank xizmatini ko'rsatish sifatini yaxshilash borasida zarur shart-sharoitlar yaratildi.

#### **14.7. Qimmatli qog'oz va fond bozori**

Bozor iqtisodiyoti, ma'lumki, o'z tabiatiga ko'ra, mulkchilikning xilma-xilligini talab etdi, ya'ni har qanday mulk o'z egasini topishi zarur. Egasi topilmasa, uni umuman, tugatish lozim. Bugungi kunning talabi shu. Bunga erishishning yo'li bitta. U ham bo'lsa, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirishdir. Shuning uchun ham, birgina 2003-yili respublikamizda hukumat tomonidan tasdiqlangan xususiyashtirish dasturi doirasida 2 ming 15 ta obyekt va aksiyalar paketi sotildi. Davlat mulkini xususiyashtirish negizi esa 980 dan ziyod xususiy korxon va mulkchilik shakli davlatga tegishli bo'lmagan 400 ta boshqa turdagi korxon tashkil etadi.

Ayni chog'da Vazirlar Mahkamasining 2003-yil yakunlariga bag'ishlangan yig'ilishida xususiyashtirish jarayonlari sur'atini yanada tezlashtirish, iqtisodiyotda xususiy sektorning ko'lami va hajmini oshirish vazifasi qo'yildi. Ushbu yig'ilishda Prezidentimiz «Xususiyashtirish jarayoni qachon aniq mazmun va ko'rinishga ega bo'ladi?» degan dolzarb masalani ham o'rtaga tashlab, shunday ko'rsatma berdi: «Takror va takror aytishga to'g'ri keladi: qachonki qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozorlari to'la ishga tushsa, fond birjasi tom ma'noda faoliyat ko'rsatsa, qachon aksiyalar qiymati muntazam e'lon qilib borilsa, aholida aksiyalar sotib olishga ishtiyoq va intilish tug'ilsa, aksiyalarning o'zi esa shunchaki oddiy qog'oz bo'lib qolmasdan, haqiqiy qimmatli qog'ozga aylanib, o'z egalari uchun muhim daromad manbai bo'lsagina bunga erishish mumkin». E'tibor bersangiz, masalaning yechimi bevosita

qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish, shu jumladan, aksiyali o'z egalari uchur muhim daromad manbaiga aylantirish hamda fond birjasi faoliyatini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Keling, avvalo, «qimmatli qog'ozlar» tushunchasiga izoh berib o'taylik. O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida»gi Qonunida unga shunday ta'rif berilgan: «Qimmatli qog'ozlar – ularni chiqargan shaxs bilan ularning egasi o'rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki zayom munosabatlarini tasdiqlovchi, dividend yoki foizlar ko'rinishida daromad to'lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga berish imkoniyatini nazarda tutuvchi pul hujjatlaridir». O'z navbatida qimmatli qog'ozlarning quyidagi turlari mavjud: aksiyalar, obligatsiyalar, g'azna majburiyatlari, depozit sertifikatlari va veksellar.

Xo'sh, biz aksiyalar deganda, nimani tushunamiz? Aksiyalar – aksiyadorlik jamiyatining ustav fondiga yuridik yoki jismoniy shaxs muayyan hissa qo'shganidan guvohlik beruvchi, aksiya egasining mazkur jamiyat mulkidagi ishtirokini tasdiqlovchi hamda unga dividend olish va qoida tariqasida ushbu jamiyatni boshqarishda qatnashish huquqini beruvchi, amal qilish muddati belgilanmagan qimmatli qog'ozlardir.

Bunday daromad keltiruvchi qimmatli qog'ozlar dastlab XVII asrning boshida Gollandiya va Angliyada, so'ngra Yevropaning boshqa mamlakatlarida muomalaga chiqarilgan bo'lib, hozirgi paytda butun dunyoda keng qo'llaniladi.

Gap shundaki, aksiyalar bozorini rivojlantirish mulkdorlar sinfini shakllantirishning muhim manbaidir. Chunki u kapital bozorini mustahkamlaydi. Kapital bozorining rivoji esa davlat korxonalarini ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatiga aylantirish bilan bog'liq. Ayni shu tadbir bizda iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishi etib belgilangan. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 31-martdagi «Qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish va respublikada investorlar ishtirokini kengaytirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 1998-yil 4-martdagi «Fond bozorini yanada rivojlantirish hamda davlat mulki negizida tashkil etilgan aksiyadorlik jamiyatini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari bu yo'nalishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Ushbu hujjatlarga ko'ra, aksiyalashtirilgan korxonalar aksiyalarining paketlari belgilangan talablarga moslashtirilmasa, Davlat mulki qo'mitasi, uyushmalar, kompaniyalar va korxonalar rahbarlariga nisbatan qattiq ma'muriy javobgarlik choralari qo'llaniladi.

Albatta, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari talablari ijrosini ta'minlash, o'z navbatida mamlakatimizda mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida vujudga keladigan vaziyatni tubdan o'zgartirish, xususiyashtirilgan korxonalariga o'zlari chiqargan aksiyalarni nafaqat mehnat jamoasiga, balki xorijiy investorlarga ham sotish hisobiga mo'may daromad, xususan, valyuta mablag'i topish imkonini bermoqda. Ana shu mablag' esa ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va kengaytirish, mahsulot turlarini ko'paytirish hamda sifatini oshirish maqsadlariga sarflanmoqda, shu bilan birga, aksiyadorlarga dividend sifatida tarqatilmogda.

Biroq, afsuski, respublikamiz bo'yicha 38 ta hissadorlik jamiyati 2003-yilni

xususiylashtirgan. Boshqacha aytganda, garchi, davlat korxonasi aksiyadorlik jamiyatiga aylantirilgan bo'lsa-da, aksiya egalari – mehnat jamoasi a'zolari o'zlarini haqiqiy mulkdorlar, deb hisoblay olmaydilar. Ularning ko'pchiligi ishlab chiqarishni takomillashtirish, qayta ixtisoslashtirish, qo'shimcha investitsiyalar kiritish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligini ta'minlash, shu tariqa iste'mol bozorini kengaytirishdek o'ta muhim jarayonlarga mutlaqo jalb etilmagan.

Ustiga-ustak, ko'pgina aksiyadorlik jamiyatlarida dividendlarni egalariга berishda ham nuqsonlar ko'zga tashlanmoqda.

«O'zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonunning 56-moddasiga muvofiq, dividend to'lovlari haqida qaror qabul qilingan umumiy yig'ilish o'tgandan so'ng 60 kun ichida to'lanishi kerak. Masalan, 1998-yili «Minor» ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatining ochiq savdodagi aksiyalaridan 40 donadan 45 donagacha – jami 305 ta aksiya sotib olib, uning aksiyadorlariga aylangan uchta fuqaro, 2012-yil may va 2013-yil mart oylarida o'tkazilgan yig'ilishlar qarorlariga ko'ra, 305 dona aksiyasi uchun 1 million 730 ming so'm dividend to'lanishi belgilangan edi.

Bu izoh talab qilmas kerak. Faqat shuni aytish joizki, aksiyador mulk egasi sifatida o'z daromadini olishga ishonch hosil qilmas ekan, ularning safi kengayishiga kim kafolat bera oladi?! Qachonki, aksiya sohiblari o'zlarini nafaqat qo'shimcha daromad oluvchi, balki aksiya chiqargan korxonalarining egalari sifatida ham his qilsalar, o'shandagina ular haqiqiy mulkdorlarga aylanadilar. Ular aksiyador bo'lgan jamoa yutuqqa erishadi, pirovard natijasidan manfaatdor bo'ladi.

Yana bir misol: muomalaga chiqarilib, birinchi egalariга sotilgan aksiyalar qimmatli qog'ozlarning birlamchi bozori hisoblanadi. Ularni, shuningdek, fond birjasida ayirboshlash, sotish va xarid qilish – qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozoridir.

Fond birjasi – qimmatli qog'ozlar bir maromda muomalada bo'lishining zarur shart-sharoitini ta'minlash, ularning bozor bahosini (qimmatli qog'ozlar talab va taklifi o'rtasidagi muvozanatni aks ettiruvchi narxlarni) belgilash va ularga doir ma'lumotlarni tarqatish, qimmatli qog'ozlar bozori qatnashchilarining kasb mahoratini yuqori darajada saqlab borish faoliyatining alohida sohasi bo'lgan tashkilotdir.

Taassufki, hozircha fond birjasi o'z zimmasidagi ana shu vazifalarni to'liq bajara olmayapti. Bu yerda biron-ta korxonasi aksiyasining qiymati qanchaligini, agar u sotib olinsa, qancha dividend tegishini haligacha hech kim bilmaydi. Vaholanki, aksiyalarning bir qismini tashqi fond bozoriga, xalqaro qimmatli qog'ozlar bozoriga chiqarish mazkur moliya bozorida o'zimizga munosib, kerakli darajadagi nufuzga ega bo'lishimizni ta'minlaydi. Qolaversa, xorijiy sarmoyadorlarni respublika iqtisodiyotini taraqqiy ettirish ishiga ko'proq jalb qiladi. Shu bois, Vazirlar Mahkamasi yig'ilishi qarorlarida uqtirganidek, 2012-yilda qimmatli qog'ozlar bilan bitim va bitishuvlar faqat fond bozorida tuzilishi, savdolarning oshkoraligi va qulayligini nazarda tutgan holda qimmatli qog'ozlar ikkilamchi bozorini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishi ta'minlanadi.

## O'zbekistonda fond bozori dinamikasi

№	Fond bozori ko'rsatkichlari	2003-y. 2005-y. 2012-y.		
		2003-y.	2005-y.	2012-y.
1.	Qimmatli qog'ozlar bozorida aksiyalarni sotish hajmi, mlrd. so'm	74,7	166,2	749,7
	Shu jumladan:			
	A) birlamchi bozor, mlrd. so'm	53,9	100,3	561,6
	birjadan tashqari bozor, mlrd. so'm	34,2	59,9	530,0
	birja bozori, mlrd. so'm	19,7	1,7	17,9
	B) ikkilamchi bozor, mlrd. so'm	20,8	65,9	749,7
	birjadan tashqari bozor, mlrd. so'm	8,4	27,5	114,3
	birja bozori, mlrd. so'm	12,4	17	73,4
2.	Respublika ko'chmas mulk birjasi orqali sotilgan ko'chmas mulk obyektlari, ming. dona	13,9	14,6	8,9
	Davlat obyektlari, ming. dona	8,7	7,6	1,9
	Nodavlat obyektlari, ming. dona	5,2	7,0	7,0
3.	Ko'chmas mulk obyektlarining sotishdan tushgan tushum, mlrd. so'm	23,4	28,3	158,1
	Davlat obyektlari, ming. dona	8,7	8,8	8,1
	Nodavlat obyektlari, min. dona	14,7	19,5	19,9

Manba: O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. SISM, - T.: 2008-2012.

Natijada qimmatli qog'ozlar davlat reestrda 2010-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, quyidagilar qayd etildi: 3111,5 mlrd. so'm umumiy emissiya hajmi bilan 13558 ta aksiyalar chiqarish, shu jumladan, 2006-yilda 729,1 mlrd. so'm 545 ta aksiyalar chiqarildi; - 51,2 mlrd. so'mlik 88 ta korporativ aksiyalar chiqarish, shu jumladan, 2006-yilda 28,0 mlrd. so'm 40 ta aksiyalar chiqarildi; 2010-yilda qimmatli qog'ozlar bozorida umumiy qiymati 749,7 mlrd. so'mga, 4-chorakda 189,8 mlrd. so'mga teng bo'lgan aksiyalar va korporativ obligatsiyalar sotildi. Respublika qimmatli qog'ozlar, aksiyalar va ko'chmas mulk obyektlarini sotish haqidagi ma'lumotlar 14.3-jadvalda keltirilgan.

Qimmatli qog'ozlar bozori umumiy aylanishining 80 % ga yaqinini aksiyalar sotishdan tushgan tushum tashkil etdi. 2011-yilda jami 749,7 mlrd. so'mga, shu jumladan, 4-chorakda 189,8 mlrd. so'mga aksiyalar sotilgan. Sotish hajmining o'sishi qimmatli qog'ozlarning birlamchi va ikkilamchi bozorlarida ham sodir bo'ladi. Birlamchi bozor aylanmasi avvalgi yildagiga nisbatan 15,2 % o'sdi.

Shu bilan birga yil davomida xususiy lashtirilgan korxonalarining birjadan tashqari bozorda investorlar bilan to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar olib borish va tanlov (birlamchi fond bozorida) savdolarni o'tkazish ustuvorligi nisbati saqlanib qoldi. Bunday savdo shakllarida ustuvorlik sotilayotgan aksiyalar qiymatini to'lash bilan bir qatorda ishlab chiqarishni rivojlantirishga qo'shimcha mablag'lar jalb qilish majburiyatini olgan investorlarga beriladi.



Masalan, 2013-yilda O'zbekiston bozorida xorijiy investorning faol qatnashuvi ta'minlandi. Ular tomonidan chet ellik maslahatchilarni jalb qilish bilan alohida loyiha asosida amalga oshirilgan, xususiyashtirilgan «O'zbekel» aksionerlik jamiyatining 64 % va «Ohangoronement» aksionerlik jamiyatining 25 % aksiyalari, shuningdek, qator korxonalarining umumiy qiymati 25,0 mln. AQSH dollariga teng nazorat paketi aksiyalari sotib olindi.

Mamlakatimizda korxonalarni xususiyashtirish, aksiyadorlik jamiyatlari ishini takomillashtirish, haqiqiy mulkdorlarni tarbiyalash fond bozorini rivojlantirish borasidagi ishlar ko'lami katta va murakkab. Bularning hammasi o'tgan yilgi xatolardan xulosa chiqarib olib, erishilgan natijalarni yanada mustahkamlash, yangi-yangi yutuqlarni qo'lga kiritish yo'lida qo'lni-qo'lga berib, astoydil ishlashni talab etadi.

Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish bo'yicha 2005-2013-yillarga mo'ljallanib ishlab chiqilgan dasturning amalga oshirilishi yangi mulkdorlar shakllanishi va hususiy sohani rivojlantirishga turki bo'ladi, chunki 2013-yilda respublikamizda kichik biznesning ulushini 56 %ga yetkazish mo'ljallangan.

#### 14.8. Davlat tasarrufidan chiqarish hamda xususiyashtirish dasturi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 20-iyuldagi № 672-Qarori bilan tasdiqlangan 2008-2010-yillarga mo'ljallangan xususiyashtirish dasturi yetakchi strategik korxonalarining ustav fond (kapital)larida davlat ulushini tubdan kamaytirish, mamlakat iqtisodini rivojlantirishda xususiy mulkning rolini oshirish, shuningdek ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash uchun to'g'ridan-to'g'ri sarmoyalarni jalb qilishga, shu asosda esa sifatlari, raqobatbardosh, eksportga mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlashga yo'naltirilgan va quyidagi diagrammada keltirilgan:

#### 14.1 – diagramma

2007-2010-yillarda davlat tasarrufidan chiqarish hamda xususiyashtirish dasturiga kiritilgan korxonalarining guruhlarga taqsimlanishi



Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo'mitasi.

Yangi xususiyashtirish dasturiga 1432 ta davlat mulki obyektlari kiritilgan. Ular mamlakat iqtisodi uchun ahamiyatligi va xususiyashtirishga munosibligiga ko'ra uch guruhga ajratilgan (14.1-diagramma). Birinchi guruh, xususiyashtirishning 994 ta obyektlarni birlashtirib, eng ko'p miqdordagi sanaladi. Jumladan, 508 ta korxonalar asosan ishlab chiqarish sohasida bo'lib, xususiyashtirishning avvalgi bosqichlarida ustav fondida davlat ulushi

saxlab qolgan holda aksiyadorlik jamiyati yoki mas'uliyati cheklangan jamiyatlarga aylantirilgan edi. Endi mazkur korxonalarining davlat aktivi xususiy mulkka sotilishga loyiq. Bundan tashqari, bu guruhga ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasi (dam olish hududi, bog'cha, avtomobilga yoqilg'i quyish shaxobchasi) ning 486 ta davlat obyekti kiritilgan. Shuningdek, to'lg'icha xususiy mulkka sotilishi kerak bo'lgan turlicha noyashbosh joylari bor.

Ikkinchi guruh 363 ta obyektidan iborat. Bu, asosan, bugacha davlat hamda aksiyalarning joylashtirilgan paketi. Jumladan, nazorat hamda mamlakat iqtisodining yetakchi sohalarining aksiyadorlik jamiyati (neft-gaz, kimyo, sanoatning boshqa tarmoqlari). Bu aksioner jamiyatlari orasida bir qator xolding tuzilmalari («O'zbekneftgaz», «O'zkiyosanoat», «O'zyengilsanoat»)ning bosh kompaniyalari bor. Ularning 49 % aksiyalari xususiy mulkka sotilishga loyiq.

Xorij investorlariga davlat mulkini sotishda tender savdolarini o'tkazish bo'yicha davlat komissiyasining qaroriga binoan ikkinchi guruh xususiy lashtirish obyektlarini ochiq savdo orqali sotilishi ko'zda tutilgan. Faqat xususiy lashtirish ob'ektlarining qiymatini to'lashga rozi bo'libgina qolmay, balki aniq investitsion majburiyatlarni zimmasiga olishga tayyor investorlar afzal ko'riladi. Bu majburiyatlar ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, ularning texnik va texnologik qayta ta'minoti, shu asosda sifatli, raqobatbardosh, eksportga mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirishni ta'minlaydi.

Uchinchi guruhni 75 ta ishlamayotgan hamda samarasiz korxonalar va obyektlar tashkil etgan. Guruhga qurilishi tugallanmagan obyektlar ham kiritilgan. Bunda kiritilmagan davlat aktivlari aniq investitsiya loyihalari hamda yangi mulkdorlar mablahi hisobiga to'liq moliyalashtirish majburiyati bilan «nol» qiymatdagi xarid narxida sotiladi. Bu guruhdagi xususiy lashtirish obyektlari yuqorida qayd etilgan. Davlat tender komissiyasining qaroriga binoan ke'iflantirilishi mumkin. Unga ommaviy savdoda talabga ega bo'lmagan birinchi guruhdagi obyektlarni investorlarga muayyan investitsion majburiyatlarni zimmalariga olish sharti bilan «nol» qiymatdagi xarid narxida sotish huquqi berilgan.

Yangi xususiy lashtirish dasturining bajarilishi natijasida strategik ahamiyatga ega bo'lgan (yonilg'i elektr stansiyalari, neftni qayta ishlash korxonalari, paxta tozalash zavodi va b.) aksionerlik jamiyatlarining nazorat yoki kichik miqdordagi aksiyalarning man etuvchi paketlari qoladi. Shu bilan birga, iqtisodning boshqa ko'plab sohalari aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari (mashinasozlik, yengil sanoat va b.) butunlay xususiy mulk shakliga o'tadi.

Yangi xususiy lashtirish dasturining qabul qilinishi munosabati bilan uni amalga oshirish bo'yicha katta tayyorgarlik ishlari o'tkazildi. Jumladan mustaqil baholash kompaniyalari tomonidan xususiy lashtirilayotgan obyektlarning boshlang'ich sotish narxini belgilash, tanlov asosidagi savdolarini o'tkazish shartlarini hamda muvofiq hujjatlarni tayyorlash, manfaatdor tashkilotlar bilan kelishish va obyektlarni savdoga chiqarish jadvalini tasdiqlash va b.lar.

2011-yilda, yangi dasturga hamda xususiy lashtirish bo'yicha avval qabul qilingan hukumat qarorlariga muvofiq, iqtisodning ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalaridagi 392 ta obyekt mulkning nodavlat shakliga aylantirilgan. Shu jumladan, 4-kvartalda 386 ta obyekt, xususiy sektorga sotiladi.

Mahalliy hukumat organlari, ya'ni hokimiyatlar qo'l ostidagi korxonalar va tashkilotlar (250 ta), shuningdek, xalq ta'limi sohasiga aloqador (67 ta), sog'liqni saqlash (43 ta), qishloq va suv xo'jaligi (35 ta), neft-gaz sanoati (34 ta) obyektlari, asosan, xususiy lashtirish obyektlariga aylandi. Hudud nuqtai nazaridan, ayniqsa, Toshkentda joylashgan davlat obyektlari (163 ta), Toshkent viloyatida (108 ta), Farg'ona viloyatida (48 ta), Namangan viloyatida (46 ta), Andijon viloyatida (40 ta) va Samarqandda (35 ta) obyektlar xususiy lashtirildi.

2010-yilda xususiy lashtirilgan davlat obyektlarining asosiy qismi (593 ta yoki 94,0 %) to'lig'icha xususiy mulkka sotildi. Xususiy lashtirishning 38 ta obyekti mas'uliyati cheklangan jamiyatga aylantirildi. Bunda, o'tgan yillardan farqli ravishda, xususiy lashtirilgan mulk asosida bironta ham aksionerlik jamiyati tashkil qilinmadi. Bu katta bo'lmagan xo'jalik subyektlarining ko'rib chiqilayotgan davr oralig'ida mulkchilikning nodavlat shakliga aylantirilganidan dalolat beradi.

Xorij investorlari, davlat hamda bungacha aksiyalari paketi kiritilmagan aksiyadorlik jamiyatlari va mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning ulushini hisobga olgan holda xususiy yuridik va jismoniy shaxslarga sotish davom ettirildi. Shu tarzda, Davlat tender komissiyasining qaroriga asosan, xorijiy sarmoyadorlarga «O'zelektrikimiyosanoati» (49,0 %), «Kinap» (98,9 %), «Qo'qon superfosfat zavodi» (85,2 %), «Samarqand liftsozlik zavodi» (75,0 %), «Ammofos» (49%) va b. aksiyadorlik jamiyatlarining yirik aksiya paketlari sotildi. 2010-yilda davlat mulkiga qarashli jami 60 ta aksiyadorlik jamiyati va 23 ta mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ustav fondidagi ulushlar sotildi. Bu o'tgan yildagi mana shunday ko'rsatkichga nisbatan 68,2 % va 20,9 % ni tashkil etdi.

Davlat aktivlari ko'rsatkichlarining ko'rib chiqilayotgan davrda pasayib ketishi yangi xususiy lashtirish dasturi ishlab chiqilayotgan paytda avval qabul qilingan dasturga kiritilgan bir qator xo'jalik jamiyatlari davlat aksiya (ulushi)lari paketlarining savdoga qo'yilishining to'xtatib turilishi bilan bohliq. Chunki ularning sotilish tartibi qayta ko'rib chiqilgan.

Davlat aksiyalari paketining katta qismi investorlarga sotilayotganda mazkur xususiy lashtirilayotgan obyektlarning sotib olish qiymatidan tashqari, ular tomonidan ishlab chiqarishga sarmoya kiritish sharti bilan sotilgan 2010-yilda aksiya sotib oluvchilar tomonidan 57,1 mlrd. so'mlik va 309,5 mln. AQSH dollari miqdorida investitsion majburiyat olingan. Bu o'tgan yilgi mana shunday ko'rsatkichga nisbatan 3,7 va 4,4 marta yuqori.

Tanlov asosida «nob» qiymatda sotib olish narxida 15 ta davlat, iqtisodiy nochor ishlab chiqarish korxonalar hamda ijtimoiy infratuzilma obyektlari berildi. Bunda ularga qarzni yopish, mazkur obyektlarni iqtisodiy va moliyaviy sog'lomlashtirish kabi investitsion majburiyatlar yuklatildi.

#### **14.9. Mulkdorlar va tadbirkorlar sinfini shakllantirish**

Davlat ro'yxatidan o'tkazish hamda tadbirkorlik subyektlarining hisobga olinishidan xabardor qilish tartibini kiritish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tadbirkorlikni yurituvchi jismoniy shaxslarning tekshirish tizimining qisqartirilishi va takomillashtirilishi kichik tadbirkorlik subyektlari uchun keyinchalik qulay ishlash

muhiti yaratishga ko'mak berdi hamda iqtisodning bu ustuvor sektorining rivoji faollashuvida ijobiy aks etdi.

"Dunyodagi ko'plab rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarning, avvalo, o'zimizning o'tgan yillar mobaynida to'plagan tajribamiz bir haqiqatni tasdiqlamoqda, birinchi galda, biz uchun eng o'tkir bo'lib turgan aholi bandligi va uning daromadlarini oshirish muammolarini hal etishda o'ziga xos lokomotiv vazifasini bajaradigan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida biz tanlagan siyosatning mutlaqo to'g'ri va uzoqni ko'zlagan holda olib borilayotganini takror va takror isbotlamoqda. 2008-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushini 48 foizga, 2012-yilga borib esa 50-52 foizga, xizmat ko'rsatish sohasining salmog'ini tegishli ravishda 45 va 49 foizga yetkazish uchun bugun bizda barcha asoslarimiz bor. 2010-yilda yangi tashkil etilayotgan ish o'rinlarini kasanachilik asosida 250 mingga yetkazish lozim"<sup>4</sup>.

2010-yilda mamlakat iqtisodida kichik tadbirkorlikning o'rnini va ahamiyatini asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sishi bilan belgilandi (14.3-jadval). YAIMda KT ning ulushi 50,1 % ga yetdi hamda 2006-yilga ko'rsatkichdan 8,0 f.d.ga oshdi.

#### 14.5-jadval

#### Kichik tadbirkorlik rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2006-y.	2008-y.	2010-y.
YAIM da kichik tadbirkorlarning ulushi	%	42,1	48,2	50,1
Kichik tadbirkorlikda ish bilan bandlarning miqdori	Mingta odam	7234,1	7743,1	1014,1
Iqtisodda band bo'lganlarning umumiy miqdorida KT dagilarning	%	69,1	72,7	74,2
Band bo'lganlarning soni:				
Kichik korxonalarda	Mingta odam	359,1	525,5	561,4
Mikrofimalarda	Mingta odam	1405,9	1638,8	1394,9
Har 1000 kishiga KT da faoliyat ko'rsatayotgan subyektlar miqdorining to'g'ri kelishi	ta	13,2	14,7	15,1

Manba: O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi.

Asosan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlashga ixtisoslashayotgan mikrofirmalar katta hissa qo'shdilar. Ularning YAIM dagi ulushi 2009-yilga nisbatan 2,1 f.d.ga ortdi va 20,2 % ga yetdi (14.5-jadval). Mikrofirmalar orasida YAIM da eng katta ulushi Sirdaryo viloyatida (38,9%), Jizzaxda (37,5%), Surxondaryoda (27,5%) Farg'ona viloyatlarida (25,6%) hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (31,2%) bo'ldi. Mikrofirmalar ulushining YAHMda ortishi Toshkentda (4,6 f.d. ga) va Andijon (-1,2 f.d. ga) viloyatlarida kuzatildi.

YAHMda Toshkent mikrofirmalari ulushining 2,7 f.d.ga ko'tarilishi ular tomonidan amalga oshirilgan ishlab chiqarish xizmatlari, qurilish ishlari, chakana savdo hajmining ortishi hisobiga ro'y berdi.

2010-yil YAIMda kichik korxonalar ulushi 1,8 f.d.ga ko'tarildi, lekin bu ko'rsatkich u qadar baland emas - 7,2 %. Kichik korxonalar ulushining YAHM da o'sishi Qashqadaryo

<sup>4</sup>Karimov I.A. «Inson manfaatlarini ustuvorligini ta'minlash barcha islohot va o'zgarishlarning bosh maqsadi» Vazirlar Mahkamasining 2009-yil mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining yakunlari va 2010-yilda iqtisodiy islohotlarning muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisidagi ma'ruzasi.

(2,7 f.d. ga), Jizzax (1,1 f.d. ga), Samarqand (1,8 f.d.ga) viloyatlari hamda Toshkentda (-1,3 f.d.ga) bo'ldi. Bu holat iste'mol tovarlari, jumladan, oziq-ovqat tovarlarini ishlab chiqarishdagi faollikning o'sishi natijasida amalga oshdi.

#### 14.4-jadval

#### Kichik tadbirkorlikning YAIM va YAHMdagi ulushi (% da)

Hududlar	Jami		Jumladan:					
			Kichik korxonalar		Mikrofimlar		Xususiy tadbirkorlik	
	2008-	2010-	2008-y.	2010-y.	2008-y.	2010-y.	2008-y.	2010-y.
O'zbekiston Respublikasi	42,1	48,9	5,4	7,2	18,1	20,2	18,6	18,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	49,5	55,7	8,8	7,7	27,5	31,2	13,2	16,8
Andijon	45,4	48,1	2,8	3,2	17,5	16,3	25,0	28,5
Buxoro	53,5	56,2	8,7	7,7	23,7	20,8	21,1	27,7
Jizzax	58,7	68,9	3,0	4,1	35,0	37,5	20,7	27,3
Qashqadaryo	39,5	47,5	4,2	6,9	19,9	21,8	15,4	18,8
Navoiy	19,3	25,6	2,1	2,8	8,5	10,8	8,7	12,0
Namangan	57,5	66,3	7,2	7,2	24,0	25,0	26,3	34,1
Samarqand	64,2	66,4	7,5	8,7	24,7	22,0	32,0	35,7
Surxondaryo	61,8	63,9	6,0	6,7	31,9	27,5	23,9	29,7
Sirdaryo	66,3	69,2	5,8	5,9	41,5	38,9	19,0	24,4
Toshkent	34,5	44,5	5,7	6,9	15,5	20,1	13,3	17,5
Farg'ona	47,8	51,7	6,0	5,4	23,8	25,6	18,0	20,7
Xorazm	56,8	64,4	5,1	6,5	28,5	27,1	23,2	30,8
Toshkent sh.	48,2	49,6	19,6	18,3	15,2	17,9	13,4	13,4

YAHMdagi kichik tadbirkorlikning ulushi amaldagi mikrofimlar, fermerlik va dehqon xo'jaliklari miqdori o'sishi natijasida Sirdaryo (69,2 %), Jizzax (68,9 %), Samarqand (66,4 %), Namangan (66,3 %), Xorazm (64,4 %) va Surxondaryo (63,9 %) viloyatlarida respublika bo'yicha o'rtacha daraja ko'rsatkichidan ancha oshib ketdi. Navoiy va Toshkent viloyatlarida respublika bo'yicha bu ko'rsatkich o'rtacha darajadan past bo'ldi.

Tahlil qilinayotgan davr mobaynida amaldagi KT korxonalarining miqdori 2010-yilda 561,4 392,0 mingtaga yetdi yoki 2008-yilga nisbatan 202,3 mingtaga ortdi. Farg'ona (6,1 mingta), Samarqand (5,7 mingta), Andijon (4,9 mingta), Qashqadaryo (4,0 mingta), Surxondaryo (4,2 mingta), Toshkent (4,0 ming viloyatlari va Toshkent shahrida (4,3 mingta) eng katta o'sish ro'y berdi.

Faoliyat yuritayotgan korxonalarining bir tekisda o'sishi tijorat banklari tomonidan shaxsiy resurslari hisobiga kreditlashning oshishi natijasida rag'batlantirildi. 2010-yilda ularning hajmi 2008-yilga nisbatan 9 martaga o'sdi. KT subyektlariga tijorat banklari taqdim etgan kreditlarning umumiy qiymati tahlil etilayotgan davrda 1396,1 mlrd. so'mdan ortiq bo'ldi. Kreditlarning katta hajmi Samarqand, Andijon, Qashqadaryo, Namangan, Buxoro, Jizzax, Xorazm va Toshkent viloyatlaridagi KT subyektlariga berildi. «Mikrokreditbank» ATB tomonidan ajratilgan kreditlar KT subyektlari uchun katta yordam bo'ldi. Bu ko'rsatkich 2010-yilda 2008-yilga nisbatan 2,2 martaga oshdi, umumiy qiymati 55 mlrd. so'mdan ortdi.

Shu bilan bir qatorda xalqaro moliya institutlari liniyasida 23089,6 ming AQSH dollari miqdorida mablag' ajratildi.

#### 14.10. Keys stadi. O'zbekistonda iqtisodiy beqarorlikning oldini olish yo'llari va natijalari

Iqtisodiy o'sish sur'atlari muntazam oshib borishi natijasida inflyatsiy ko'rsatkichining eng past darajasiga erishildi. Bu ko'rsatkich 2000-yilda 28 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2004-yilda 3,7 %ga teng bo'ldi. Bunday natijaga erishishning asosi, sabablari quyidagilardan iborat: pul massasi ustidan nazorat qilish mexanizmi takomillashtirildi; tijorat banklarining ortiqcha likvidligini Markaziy bank depozitlariga jalb etish amaliyoti kengaytirildi; Markaziy bank obligatsiyalari bilan operatsiyalar o'tkazish ko'lamini oshirildi; qayta moliyalash stavkasi inflyatsiya darajasiga va pulga bo'lgan talabga mutanosib ravishda o'zgartirib borildi va 2004-yil davomida bosqichma-bosqich 20 %dan 16 %ga tushirildi; budget taqchilligi yildan-yilga kamayib oxirgi yillarda YAMMning 1 %dan oshmayotganli va shundan kelib chiqqan holda Markaziy bank kreditlaridan foydalanishning kamayganligi.

Milliy iqtisodiyotni isloh qilish iqtisodiy islohotlarning eng ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Iqtisodiyotning rivojlanishi quyidagi yo'nalishlarda ham sezilarli o'zgarishlarni amalga oshirish va muayyan natijalarga erishishga yordam berdi. Iqtisodiyotning real tarmoqlarini rivojlantirish, aholi daromadlarini oshirish va shundan kelib chiqqan holda aholining bank tizimidagi jamg'armalari ortishi, yangi ish o'rinlarini yaratish, eksport salohiyatini oshirish, bozorlarni raqobatbardosh, sifatli tova va mahsulotlar bilan boyitish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari importdan voz kechish va boshqalar.

Monitar siyosatning amaliy natijasi – milliy valyuta barqarorligi ta'minlandi. Ichki valyuta bozorida operatsiyalar hajmi sezilarli darajada oshirildi; so'mning almashuv kursini barqarorligiga erishildi. Birgina 2004-yil may oyida O'zbekistonning rasmiy oltin-valyuta zaxiralari sezilarli darajada, ya'ni 30 %dan ko'proq oshdi. Milliy valyuta barqarorligining ta'minlanishi va barqaror tashqi iqtisodiy siyosatning amaliy natijasi sifatida tovar va xizmatlar eksportining 2004-yilda 30 %ga oshganligini ko'rsatish mumkin. Shu bilan birga, eksport tarkibi sifat jihatidan o'zgardi: tayyor mahsulotlarning eksportidagi ulushi 52 % o'sdi; tashqi savdo aylanmasida 1 milliard AQSH dollaridan ortiq miqdordagi ijobiy saldogga erishildi. Respublika eksport tarkibida paxta tolasi 2002-yilda 22,4 %, 2004-yilda 17,6 %, metallar 3 % dan 4,6 %ga oziq-ovqat 6,4 %dan 8,5 %ga, xizmatlar 3,9 %dan 6,9 %ga, kimyo va plastmassa mahsulotlari 3,9 %dan 3,8 %ga, mashinasozlikda 8,1 % dan 12,7 %ga, energetikada 15,9 %dan 11,9 %ga, boshqa sohalarda 36,8 %dan 34 % o'zgardi.

Bulardan tashqari, O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi qo'shma korxonalarda ishlab chiqarish hajmi 2003-yildagiga nisbatan 2004-yilda 24 foizga ortdi va umumiy ishlab chiqarishda ularning ulushi 20,2 foizni tashkil etdi, eksport hajmi esa 39,1 foizga ko'paydi. Masalan, «O'zbekyengilsanoat» DAK korxonalarining eksport qiymati jihatidan 1997-yildagi 40000 ming AQSH dollaridan 2003-yilda tarmoq bo'yicha 213000 ming, qo'shma korxonalarda esa 154823 ming AQSH dollariga yetdi ya'ni so'ha bo'yicha 9 martaga oshdi. To'qimachilik sanoatiga sarmoyalar jalb qilish hisobiga paxta tolasi chuqur qayta ishlashdan qo'shimcha narx o'sishining qay darajada bo'lishini «Bursel Toshkent Tekstil» qo'shma korxonasi misolida yaqqo ko'rish mumkin.

Keltirilgan raqamlar paxta tolasini chuqur qayta ishlash samaradorligini ko'rsatadi. Shundan kelib chiqib, quyidagilar kelajakda to'qimachilik sanoati korxonalarini rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlari deb belgilandi:

- 2009-yil 1-yanvargacha tayyor gazlamalar va kiyimlar, paypoqlar va oyoq kiyimlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, chet el sarmoyalari ishtirokida tashkil qilingan korxonalar uchun imtiyozlar muddati uzaytirildi. Unga binoan, korxonalar QQSdan tashqari budjetga to'lanadigan barcha soliqlar va to'lovlardan ozod qilinadi;

- texnologik qayta jihozlashni amalga oshiruvchi korxonalar ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun keltiradigan texnologik va yordamchi jihozlarni, butlovchi va ehtiyot qismlarni olib kirishda bojxona to'lovlaridan ozod qilinadilar va bu loyihalar yakuniy bahosining ancha arzonlashishiga olib keladi;

- keyingi 4 yilga tegishli imtiyozlarning uzaytirilishi evaziga xorijiy kimyoviy mahsulotlar, bo'yoqlar, furnitura va aksessuarlar, shuningdek, boshqa yordamchi mahsulotlarni (respublikada ishlab chiqarilmaydigan) keltirgan korxonalar ham bojxona to'lovlaridan ozod qilinadilar.

Sifatli xomashyo resurslarining mavjudligi; nisbatan qimmat bo'lmagan malakali ishchi kuchi; tegishli infratuzilma va transport kommunikatsiyalari; sanoatni rivojlantirishga qaratilgan imtiyozlar va yengilliklar respublika mintaqalarida to'qimachilik korxonalarini rivojlantirish uchun asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

### **Qisqacha xulosalar**

Monopol bozorni boshqarishning turlicha foyda olish usullari mavjud bo'lishiga qaramay, ularning hammasi jamiyat uchun katta iqtisodiy zarar keltirishini insoniyat o'z tarixida ko'rib o'tdi. Raqobat va monopoliyaga qarab bozor modeli shakllanadi. Aksmonopol qonunlar raqobat sharoitini yaratish va erkin iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashdir.

Demak, bozorda paydo bo'ladigan baho bozor iqtisodiyotining ko'zgusi bo'lsa, raqobat uni yuzaga keltiruvchi kuchdir. Raqobat va baho mexanizmlari o'z ta'sirlari bilan bozorni harakatlantiruvchi muhim mexanizmlar bo'lib, bozor iqtisodiyotining boshqarilishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ular bozor iqtisodiyotini o'zidan-o'zi harakatga keltiruvchi va boshqaruvchi ichki kuchlaridirki, unga tashqaridan sun'iy ta'sir ko'rsatish va bahoni raqobatsiz oldindan belgilash bozor tabiatiga to'g'ri kelmaydi, uning mexanizmi harakatlariga faqat salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Aytish mumkinki, raqobat asosida shaxsiy manfaat yotadi va bu raqobat kurashi kuchayishi, ta'siri ortib borishi uchun kuch bag'ishlaydi. Buning boisi shuki, har bir iqtisodiy birlik o'z «nafsi»ni ko'zlaydi. Har bir tadbirkor yuqori foyda uchun, hech bo'lmaganda kam zarar uchun kurashadi. Moddiy resurslar egalari uni sotishda yoki ijaraga berishda yuqori baho orqali ish tutishga urinadi. Ishchi kuchi egalarini olsak, ular miqdori va murakkabligi bir xildagi mehnatlariga imkoni boricha ko'p daromad olishga harakat qiladilar. Bularning hammasi xaridor sifatida past bahoning tarafdorlaridir. Shaxsiy manfaatdorlik bozor iqtisodiyoti faoliyatida tarbut o'rnatib turadi, manfaatsizlik esa kutilmagan tarbutsizliklarga olib kelishi mumkin. Bunday voqelik shunday xulosaga olib keladiki, turli iqtisodiy birliklar o'z ixtiyoriy tanlovini amalga oshirishi davrida shaxsiy



manfaat asosida ularning asosiy harakat tarzi shakllanadi. Bu bozor iqtisodiy taqozosidir.

#### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Iqtisodiy raqobatning mohiyati nimada?
2. Iqtisodiy raqobatning bozor iqtisodiyotidaga o'rmi, ahamiyati-chi?
3. Raqobatning bozor mexanizmi nimanj anglatadi?
4. Monopoliyaning mohiyati nimada? Uning bozor taraqqiyotiga, iste'molchilarni salbiy ta'siri ko'rsatishi qanday sabablar bilan izohlanadi (misollar bilan tushuntirib bering)?
5. Aksmonopoliya siyosati nimanj bildiradi, u nimaga qarshi qaratilgan? Uning usullari nimalardan iborat?
6. Aksmonopoliya siyosatining O'zbekistonda mavjudligini va u davlat monopoliyasi ta'siri bilan bog'liqligini qanday izohlaysiz?
7. Bozor iqtisodiyoti taraqqiyoti va unga o'tish davridagi raqobat, monopol hol nimalarda namoyon bo'ladi?
8. Oligopoliya nima?
9. Sof monopoliya nima?
10. Monopoliya nima?

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. //Xalq so'zi, 2011-yil 22-yanvar.
2. Karimov I. "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi"//Xalq so'zi, 2014-iy 18-yanvar.
3. Ishmuxamedov A.E va boshqalar. Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari. Darslik - T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005.
4. Ishmuxamedov A.E. O'zbekiston milliy iqtisodiyoti. Darslik - T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. - 304 b.
5. Ishmuxamedov A.E. va boshqalar. Makroiqtisodiyot. Darslik - T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. - 192 b.
6. Tuxliyev N. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. - T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. - 280 b.
7. Internet veb-saytlari.  
[www.ceep.uz](http://www.ceep.uz)  
[www.bearingpoint.uz](http://www.bearingpoint.uz)  
[www.pca.uz](http://www.pca.uz)  
[www.micro-macroiqtisodiyot.fan.uz](http://www.micro-macroiqtisodiyot.fan.uz)



## 15-bob. IJTIMOY SIYOSAT MAJMUASI VA AHOLINI MANZILLI HIMOYA QILISH MEXANIZMI

### 15.1. Ijtimoiy siyosat va uning yo'nalishlari

Bozor iqtisodiy tizimidan boshqa bir iqtisodiyotga o'tishda respublika iqtisodiyoti oldida turgan muammolardan biri ijtimoiy siyosat va uni samarali rivojlantirishdir.

Bozor iqtisodiyoti tizimida mehnat bozorini «mehnatga qobiliyatli» ishchi kuchini xarid qilish – sotishni amalga oshiruvchi tizim sifatida ko'rib chiqish o'rinli emas. Shuning uchun u ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti va ijtimoiy mehnat sohasining aniq, murakkab, ko'p qirrali va o'suvchi tizimchasi bo'lib, ishchi kuchiga talab va taklifning hajmi, tarkibi va nisbatini shakllantiruvchi elementdir. Mazkur bozor ishchi kuchi talabi va aholining taklifini tartibga solishda besavita ishtirok etadi va oqilona bandligi shakllanishini hamda ishsizlikni kamaytirishga ko'maklashadi.

Mehnat bozori ikkita asosiy ijtimoiy-iqtisodiy funksiyani bajaradi: inson resurslarini muqobil (alternativ) bandlik tarzda taqsimlash (kasbiga, sohasiga, korxonaga, hududiga qarab) va daromadlarni vaqtlay, ish haqi, mehnatga mukofot shaklida taqsimlash. Bu funksiyalarni amalga oshirishda mehnat bozori samarali ishlasa, ishlab chiqarishni, daromadni maksimalashtirishga, davlatni iqtisodiy o'sishga, ijtimoiy adolatga va nihoyat, ish joyiga joylashish va kasbiy tayyorgarlik uchun barcha imkoniyatlarini ta'minlashga erishiladi. Mehnat bozori orqali yuqoridagilarga erishilar ekan, uni erkin harakat qilishda ijtimoiy adolatni saqlay oladigan aniq bir muassasa tartibga solib turishi kerak. Xuddi shunday muassasa mehnat bozorini tartibga solish strategiyasiga ega bo'lgan davlat hisoblanadi.

Mehnat bozorida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimida aholining ish bilan bandligi va mehnat sharoitlarini belgilash, u yoki bu ijtimoiy muammolarni hal qilish, ijtimoiy mehnat nizolarini bartaraf etish bo'yicha ish beruvchi bilan yollanma xodimlar o'rtasidagi munosabatlar markaziy o'rinni egallaydi. Mehnat bozorida mazkur munosabatlar jamoaviy, shaxsiy va hududiy usullar asosida tartibga solinadi. Jamoaviy bitimlar tuzilayotganda O'zbekiston Respublikasining «Mehnat kodeksi», Xalqaro Mehnat Tashkilotining konvensiyasi va tavsiyalariga asoslanadi. Xalqaro Mehnat Tashkilotining konvensiyasida ta'kidlanganidek: «Jamoaviy muzokaralar, bir tomondan tadbirlar va tadbirkorlar guruhi bilan, boshqa tomondan esa, mehnatkashlarning bitta yoki bir necha tashkiloti o'rtasida:

- a) mehnat sharoitida va bandlikni belgilash;
- b) tadbirkorlar va mehnatkashlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish;
- v) tadbirkorlar, ularning tashkilotlari va mehnatkashlarning tashkiloti yoki tashkilotlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadlarida olib boriladigan barcha muzokaralarni bildiradi».

Mehnat bozorida bunday tartibga solish qo'llanilishining eng muhim afzalligi shundayki, unda qabul qilinadigan qarorlar nihoyatda qayishqoq (egiluvchan, moslashuvchan) bo'ladi, ularni na qonunchilik, na sud va na ma'muriy usullarga qiyoslab bo'lmaydi. Mehnat munosabatlarini tartibga solish kompleks-shartnoma tizimining qayishqoqligi, shuningdek, munosabatlar sohasida tenglik va ijtimoiy adolat tamoyillarini ro'yobga chiqarish haqidagi keng yoyilgan to'g'ri tasavvurlarga ega bo'lishidir. Ayrim xodimlar muzokaralarda o'zidan ancha kuchli sherigi – ish

oeruvchiga nisoatan yakka tartuoda amaiga osniradigan xatti-narakatlari bilan qarshiti ko'rsata olmaydi. Boz ustiga, jamoaviy shartnomaga ko'ra, malakasi past hamda yetarl darajada yuqori unum bilan ishlay olmaydigan ishchi kuchining ish joyi muayyar muddatga saqlab turiladi.

Respublikamiz uchun mehnatga layoqatli aholining ish bilan bandligini oshirish bo'yicha muammoni hal qilishning eng samarali qurollaridan biri bo'lgan «mehna bozori» tushunchasi, tartibi, xususiyatlari va vazifalarini tadqiqot qilish katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ularni o'rganish quyidagi demografik va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarni inobatga olishni taqozo etadi:

- o respublikada mehnatga layoqatli aholining 60 %dan ortig'i qishloq joylarda yashaydi va yalpi ichki mahsulotning (YAIM) 40 % dan ko'prog'ini ishlab chiqaradi;

- o noqishloq xo'jaligida ish joylari yetishmasligi sababli ish bilan band bo'lmagan qishloq mehnat resurslarining ulushi respublikaning ish bilan band bo'lmagan butur aholisining 60 %dan ortig'ini tashkil qiladi va ularning soni o'smoqda;

- o mehnatga layoqatli ish bilan band bo'lmagan mehnatkashlarning malakasi va safarbarligi pastligi ularning yashash joylaridan shaharga va mamlakatning kam mehna bilan ta'minlangan hududlariga hamda xorijiy davlatlar obyektlariga qarab haraka qilishlariga asosiy to'siq bo'lmoqda;

- o mehnat resurslari sonining mehnatga tatbiq etish mintaqalariga nisbatan tezro o'sishi yashirin ishsizlikni, ayniqsa, qishloq xo'jaligida ishchi kuchi taklif etish unq talabdan oshib ketadigan darajada ko'payishiga bevosita yordam beradi;

- o hududlarda sanoat, qurilish va xizmat ko'rsatish korxonalari ham xususi xo'jaliklarda yangi ish joylarini yaratish yo'li bilan ishchi kuchi talabi va taklif o'rtasidagi ratsional nisbatni tavsiflash uchun haqiqiy imkoniyatlar mavjud.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri sharoitlarida mehnat bozorida «mehnatga layoqatli» ishchi kuchi yaratish sotishni amalga oshiruvchi tizim sifatida ko'rib chiqish o'rinli emas. Shuning uchun u ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti va ijtimoi mehnat sohasining ochiq, murakkab, ko'p qirrali va o'suvchi tizimchasi bo'lib, ishch kuchiga talab va taklifning hajmi, tarkibi va nisbatini shakllantiruvchidir. Mazkur bozo ishchi kuchiga talab va aholining taklifini tartibga solishda bevosita ishtirok etadi va bandligi oqilona shakllanishi hamda ishsizlikni kamaytirishga ko'maklashadi.

Mehnat bozori tarkibiy qismining asosiy elementlariga quyidagilar kiradi: ishch kuchiga talab va uning taklifi, qiymati, bahosi va yollashdagi raqobat. Talab ishlab chiqarish ijtimoiy infratuzilmasining mehnat bozoriga buyurtma etgan, ish haqi fondi shaxsiy yordamchi xo'jaliklardan daromadlar va boshqa hayotiy vositalar bilan ta'minlangan ehtiyoj hajmi va tarkibini aks ettiradi. Taklif yollanma shart bilan ishga ega bo'lishdan manfaatdor bo'lgan qishloq ishchi kuchining miqdor va sifat (soni, jinsi yoshi, ma'lumoti, kasbi, malakasi, millati, daromadi va boshqalar bo'yicha) tarkibini ifodalaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, o'tish davri iqtisodiyotida mehnat bozori quyidag asosiy vazifalarni bajaradi:

- ishchi kuchiga talab va taklifning tarkibi hamda nisbatini shakllantirish;
- bozor uslubida xo'jalik yuritishning iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy mexanizmlari yordamida ishchi kuchiga talab va taklifni tartibga solish;

- mehnat resurslarining oqilona bandligini ta'minlashga bevosita ta'sir ko'rsatish;
- ishsizlarning ish topishiga, malakasi va raqobat, qobiliyatini oshirishga ko'maklashish;

- ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish va mehnat taqsimotini o'zgartirish.

Mehnat bozorida bunday tartibga solish qo'llanishining eng muhim afzalligi shundaki, unda qabul qilinadigan qarorlar nihoyatda qiyishqoq (egiluvchan, moslashuvchan) bo'ladi, ularni na qonunchilik, na sud va na ma'muriy usullarga qiyoslab bo'lmaydi.

Mehnat munosabatlarini tartibga solish kompleks shartnoma tizimining qayishqoqligi, shuningdek, munosabatlari sohasida tenglik va ijtimoiy adolat tamoyillarini ro'yobga chiqarish haqidagi keng yoyilgan to'g'ri tasavvurlarga ega bo'lishdir. Ayrim xodim munosabatlarda o'zidan ancha kuchli sherigi – ish beruvchiga nisbatan yakka tartibda amalga oshiradigan xatti-harakatlari bilan qarshilik ko'rsata olmaydi. Boz ustiga, jamoaviy shartnomaga ko'ra, malakasi past hamda yetarli darajada yuqori unum bilan ishlay olmaydigan ishchi kuchining ish joyi muayyan muddatga saqlab turiladi.

Jamoaviy shartnoma mehnat munosabatlari barqarorligiga erishishida muhim ahamiyatga ega. Jamoaviy shartnoma tizimi mehnat bozorida xo'jalik subyektlarining o'zaro munosabatlaridagi nizolarni o'zicha bartaraf eta olmaydi. Chunki ushbu nizolar asosini ijtimoiy manfaatlar, maqsadlar, intilishlar, talablardagi farqlar tashkil etadi. Garchi jamoaviy bitimlar tizimi manfaatlarni kelishib olish, o'zaro bir qarorga kelish va nizolarni tezlik bilan bartaraf etish jarayonlarini ko'zda tutsa-da, muzokaralar jarayoni ancha maqbul natijalarga erishish imkoniyatini kam yaratadi. Ayni paytda bitim shartlari shartnoma shaklini olib, ikki tomonni mazkur shartlar asosida ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida oxirgi choralarni ko'rmasdan, ya'ni ish tashlash yoki ishdan bo'shatishga yo'l qo'ymay harakat qilishga majbur etadi.

Kelajakda, jamoaviy bitimlar, shuningdek, MB faoliyatini, kadrlarni o'qitish va malakalarini oshirish, ularning ish haqi va ishsizlarni ish bilan ta'minlash ko'rsatkichlarini tartibga solish masalalarini ham qamrab oladi. Shuni qayd etib o'tish kerakki, asosan jamoaviy mehnat shartnomasi tizimi va bevosita davlatning tartibga solish jarayoni amal qilishiga qaramay, xodim bilan ish beruvchi o'rtasidagi munosabatlar yakka tartibda ham hal etilishi mumkin.

Mehnat munosabatlarini shaxsiy uslubda tartibga solish va bandlikning qayta shakllarini joriy etish mehnatkashlar kuchidan foydalanishni (ekspluatatsiya xarakterida) kuchaytirish hamda doimiy ishlovchi shaxslar uchun ilgari mavjud bo'lgan ijtimoiy kafolatlardan voz kechilishidan tashqari yana bir qator salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Jumladan, rivojlangan mamlakatlardagi mehnat bozorlarida doimiy ishchi kuchlarini vaqtincha yoki to'liqsiz ish vaqtida ishlovchi shaxslar (yoshlar, xotin-qizlar, nogironlar va hokazo) bilan almashtirish qoida tusiga kirmoqda. Tabiiyki, mazkur ijtimoiy guruhlarning vakillari ijtimoiy jihatdan kam muhofazalangan va jamoaviy shartnomalar bilan ta'minlangan. Shu bois davlat, ayniqsa, xo'jalik yuritishning bozor munosabatlariga o'tish sharoitlarida yollashning shaxsiy shartnoma shakllari rivojini nazorat qilib borishi kerak, aks holda, norozilik kuchayishi natijasida davlat ishsizlik bo'yicha ijtimoiy to'lovlarni ancha ko'paytirishga majbur bo'ladi.

So'nggi holatni hisobga olishimiz lozim. Chunki respublikamizda bir tomondan, ishchilarni yollab ishlatish bo'yicha xususiy tadbirkorlik va biznes yaxshi rivojlanmagan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, kam ta'minlangan hamda ijtimoiy jihatdan yetarli darajada himoya qilinmagan mehnatkashlar orasida ishsizlar soni ortib bormoqda.

Bularning hammasi mehnat bozoridagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishning yangi, samarali hududiy usullarini, ularni mehnat resurslari ortiqcha va yetishmaydigan hududlarga bo'lgan holda, tadqiq etishni talab qilmoqda.

### **15.2. Ijtimoiy siyosat asoslari**

Kuchli ijtimoiy siyosat yuritish respublikamiz iqtisodiyotini isloh qilishning eng muhim tamoyillaridan biridir. U shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari ro'yobga chiqishini ta'minlashga, oilalarning, har bir insonning farovonligini oshirishga doir chora-tadbirlar majmuasi amalga oshirilishiga erishishga yo'naltirilgan.

Mamlakatimizda islohotlarning dastlabki bosqichlarida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish chog'ida aholiga ijtimoiy kafolatlar yaratib qo'yildi. Fuqarolarning mulkdan ulush olishida tenglik tamoyiliga, shuningdek, xususiylashtirilayotgan korxonalar mehnat jamoasi a'zolarining ijtimoiy himoya qilinishiga qat'iy rioya etildi. Imtiyozlarning butun bir tizimi ishlab chiqildi. Korxonalar xususiylashtirilgandan keyin ularga yordam berish maqsadida soliq sohasida ham imtiyozlarning ayrim turlari belgilandi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy kafolatlar tizimi xususiylashtirish jarayonini amalga oshirish uchun ham, shuningdek, xususiylashtirilgandan keyin korxonalar faoliyatini muvaffaqiyatli boshlashi uchun ham imkon boricha ko'proq qulay sharoit yaratishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov mustaqillikning birinchi kunidanoq iqtisodiyot va jamiyatni isloh qilishning beshta asosiy tamoyilini belgilab berdi. Ularning tub mohiyati bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan bozor munosabatlarining kuchli ijtimoiy yo'naltirilganligidadir. Aynan shu bois O'zbekiston o'sha davrda boshqa mamlakatlarda keng qo'llanilgan «falaj qilib davolash» modelini inkor etib, o'tish davrida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlagan holda, islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish, ijtimoiy sohaning barcha tarkibiy qismlarini jadal takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqdi.

2000-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Mingyillik deklaratsiyasi qabul qilindi. Uni imzolagan 189 davlat rahbarlari o'z mamlakatlari xalqlari farovonligini oshirishga qaratilgan 18 ta asosiy vazifani hal etish uchun barcha imkoniyatlarni ishga soldi. «BMTning Mingyillik deklaratsiyasi» bolalar va onalar o'limini kamaytirish, erkaklar va ayollar tengligini ta'minlash, maktab ta'limi bilan aholini to'liq qamrab olish, toza ichimlik suvidan foydalanish darajasini ko'tarish, ekologik sog'lomlashtirish va atrof-muhit barqarorligini ta'minlash kabi muayyan vazifalar bajarilishini nazarda tutadi.

Bu o'rinda shunday savollar tug'ilishi tabiiy: aholining farovonlik darajasini qanday qilib aniq belgilash mumkin? Farovonlik darajasini qiyosiy ko'rsatkichlarda ifodalasa bo'ladimi? Bu har bir mamlakatning yutuqlarini to'g'ri va xolis baholash,

uning xalqaro doiradagi darajasini belgilash istagida bo'lgan sotsiologik-iqtisodichilar oldidagi eng dolzarb masalalardan biridir.

Ijtimoiy sohani rivojlantirishga, aholining ijtimoiy himoyalaniishi choralarini ta'minlashga davlat budjetidan har yili barcha budjet mablag'larining qariyb yarmi ajratilmoqda.

Shu hisobdan onalik va bolalikni muhofaza qilish chora-tadbirlari amalga oshirilmogda, davlatdan yordam olishga muhtoj bo'lgan oilalarga alohida e'tibor berilmogda, kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar to'lanmogda.

Toshkentda Nogironlarning sog'lig'ini tiklash respublika markazi tashkil etildi. Nukusda ham shunday markaz mavjud. Uy-joyni saqlashga yordam berilmogda va uning chiqimlari qoplanmogda. Narx-navoga erk berilishi va inflyatsiya darajasi munosabati bilan ijtimoiy muhofaza chora-tadbirlari tizimlarida daromadlarni muntazam oshirib borish eng muhim yo'nalishlardan biridir. O'zbekistonda daromadlarni indeksiyalash jarayoni ish haqining eng oz miqdorlarini: nafaqalar, stipendiyalarni, aholining jamg'arma banklaridagi omonatlari bo'yicha stavkalarni bir yo'la markazlashtirilgan tarzda qayta ko'rib chiqish yo'li bilan amalga oshirilmogda. Aholining nochor tabaqalari – nafaqaxo'rlar, nogironlar, ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalar, ishsizlar, o'quvchi yoshlarni ijtimoiy muhofaza qilish va qo'llab-quvvatlash sohasida chora – tadbirlar o'tkazilishi faol ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning g'oyat muhim yo'nalishidir.

Barcha turdagi maktab pedagoglariga, bolalar uylari, maktabgacha va maktabdan tashqari tarbiya muassasalarining murabbiylariga, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining professor-muallimlariga, ijtimoiy va tibbiy xodimlarga kvartira haqi va kommunal to'lovlar sohasida imtiyozlar berilgan. Yolg'iz nafaqaxo'rlar uy-joy va kommunal to'lovlaridan ozod qilingan, dori-darmonlarni bepul olish va jamoat transportida tekin yurishi huquqidan foydalanadilar.

Yolg'iz nafaqaxo'rlar va nogironlarning uyiga borib ijtimoiy-maishiy xizmat ko'rsatadigan maxsus ijtimoiy yordam bo'limlari barpo etilgan. Bola tug'ilganida ijtimoiy yordam berish tizimi ishlab chiqilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning maxsus Farmoni bilan kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam joriy etilgan.

O'zbekistonda o'zini-o'zi ijtimoiy tashkil etishning noyob shakli – mahalla qadimdan mavjud bo'lib, shu kungacha faoliyat ko'rsatmogda. Mahalla tufayli tub joy aholisi ijtimoiy va iqtisodiy fe'l-atvorining alohida qonun-qoidalari saqlanib kelmogda. Masalan, qishloq joylarda ijtimoiy sohani rivojlantirish borasida anchagina ish qilindi. Chunonchi, 2013-yida 6 800 ta uy-joy qurilib, foydalanishga topshirildi. Poliklinikalar, kasalxonalar, qishloq vrachlik punktlari, umumiy ta'lim maktablari, xizmat ko'rsatish, savdo va umumiy ovqatlanish obyektlari qurib bitkazildi.

Aholi manzilgohlarini gaz va suv bilan ta'minlash dasturlariga binoan 103 km. gaz tarmog'i, 100 km. vodoprovod shaxobchasi ishga tushirildi. Iqtisodiyotning isloh qilinishi, yangi mulkchilik shakllari paydo bo'lishi aholi daromadlari tarkibiga katta ta'sir o'tkazdi. Unda mehnat faoliyatining faqat bozor shakllaridan – tadbirkorlik, yakka tartibdagi mehnat faoliyatidan, dehqon xo'jaligida ishlashdan, mol-mulkdan olingan daromadlar katta o'rin egallamogda.

### 15.3. Xorij mamlakatlarida ijtimoiy muhofaza tizimi

Demokratik jamiyatning asosiy maqsadi insonni har tomonlama kamroq toptirishdan iborat. Jahon tajribasida muayyan mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish darajasi va reytingini aniqlash uchun ko'pincha BMT tomonidan ishlab chiqilgan inson salohiyatini rivojlantirish indeksidan foydalaniladi. U uch asosiy ko'rsatkichdan iborat: ta'lim darajasi (savodxonlik va bolalar ta'limi qamrovi) insonning o'rtacha umri qanchaligi va mamlakatda ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga nisbati. Bu indeksni ishlab chiqqan mualliflarni o'zlari ham, ko'rsatkichlar qamrovi kamligi tufayli, u mamlakat farovonligi darajasini aniqlashda har doim ham mos kelavermasligini tan olishadi. Yalpi ichki mahsulot hajmining o'sishi, banklar % stavkalari yoki jahon bozorlarida aksiya narxlarini qanchalik muhim bo'lmasin, ular inson turmush darajasini aniq belgilashning yagona mezon bo'la olmaydi. Masalan, neftga boy davlatlarda aholi jon boshiga daromad yuqori bo'lsada, boylar va kambag'allar daromadlari o'rtasidagi farq eng baland ekani ayon. Daromad darajasining pastligi kambag'allarga ta'lim, tibbiyot, zamonaviy turarjoy va kommunal xizmatlardan keng foydalanish imkonini bera olmaydi.

2003-yildagi inson taraqqiyoti haqidagi hisobotda 1991-2001 yillarda dunyoning 21 mamlakatida inson salohiyatining rivojlanish ko'rsatkichi pasaygani tashvish bilan qayd etilgan. Ular orasida MDH tarkibidagi Armaniston, Belarus, Qozog'iston, Moldova, Rossiya, Tojikiston, Ukraina kabi mamlakatlari hamda Afrika qit'asidagi 10 davlat bor.

Jumladan, Qozog'istonda yalpi ichki mahsulotning o'sish darajasi yuqori. Amr BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi vaqtda mamlakat aholisining 22 %dan ortig'i oziq-ovqat mahsulotlari taqchilligiga duch kelmoqda (bu xuddi shunday tadqiqot o'tkazilgan 2006-yil ko'rsatkichlaridan ancha past), aholining uchdan bir qismi qashshoqlikda kun kechirmoqda. Qirg'iziston kuniga 2100 kkal dan kam oziq-ovqat mahsuloti iste'mol qiladiganlar soni 2008-yilga 55 %dan ortiq edi. Bu, mazkur mamlakatda aholining boy qatlami iqtisodiy o'sish natijalaridan ko'proq foydalanayotganini ko'rsatadi.

Kelajak sog'lom avlod qo'lida bo'lishi kerak. Shu bois BMT hisobotida Afrika mamlakatlarida, Rossiya, Hindiston va Xitoy kabi yirik davlatlarda OITV-OITS bilan kasallanganlar soni keskin oshayotgani tashvishlidir. Bu esa, juda ko'p resurslar yo'qolishiga sabab bo'lishidan tashqari, 2015-yilga borib, ushbu mamlakatlar aholilarining o'rtacha umri qisqarishiga olib kelishi mumkin.

Taniqli iqtisodchi, Nobel mukofoti laureati Yanosh Kornai hozirgi zamon iqtisodiy fani o'tish davrining barcha omillarini ilmiy asosda baholash uchun yetarli darajada salohiyatga ega aholi turmush darajasi va farovonligiga bu davr ta'sirini obyekt ravishda baholashga qodir emasligini tan oldi. Shunday qilib, o'tgan asrning 90-yillari boshida ishlab chiqilgan inson salohiyati rivojlanish indeksi ko'rsatkichlarini bugungi kunda muayyan mamlakat taraqqiyotini va aholi farovonligini xolisona baholovchi samarasiz vosita dyeyish qiyin. Ayniqsa, iqtisodiyoti o'tish davrini boshidan kechirayotgan aholisining demografik tarkibi turlicha bo'lgan mamlakatlarda bu tajribani qo'llanish kutilgan natijani bermaydi. Masalan, O'zbekistonda aholining 60 %dan ortig'ini yoshlar tashkil etadi. Rivojlangan G'arb mamlakatlarida esa aholining ko'pchiligi keksalardir.

iborat. Shunday ekan, inson salohiyati rivojlanishining strategik maqsadlari ham bir xil bo'la olmasligi kundek ravshan.

Mingyillik deklaratsiyasi maqsadlariga erishish uchun turli yoshdagi aholining turmush darajasi va sifatini ifodalovchi ko'rsatkichlar doirasini kengaytirish dardkor. Xalqaro tajribada taqqoslash uchun qo'llanadigan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning 50 dan ortiq ko'rsatkichi tahlili muayyan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini aks ettiruvchi va aholining ijtimoiy farovonligi darajasiga bevosita ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlarning eng muhim o'n ikki guruhini ajratish imkonini berdi. Ularga quyidagilar kiradi:

1. **demografiya va salomatlik** (insonning o'rtacha umri qanchaligi, bolalar va onalar o'limi darajasi, umumiy o'lim koeffitsiyenti);

2. **ta'lim** (savodxonlik, aholining bazaviy ta'lim qamrovi);

3. **turmush darajasi** (aholi jon boshiga real yalpi ichki mahsulot darajasi);

4. **bandlik** (ishsizlik darajasi);

5. **hayot uchun zarur ta'minot** (ichimlik suv ta'minoti, sanitariya sharoitlari);

6. **oila institutining rivojlanishi** (nikohsiz bolalar tug'ilishi, ajralish darajasi va oiladan tashqarida tarbiyalanayotgan bolalar soni);

7. **oziq-ovqat xavfsizligi** (umumiy iste'mol doirasida oziq-ovqat mahsulotlari importi ulushi);

8. **jinoyatchilik** (aholi o'rtasida jinoyatchilik darajasi);

9. **kasalliklar tarqalishi**;

10. **iqtisodiy xavfsizlik** (yalpi milliy mahsulotga nisbatan tashqi qarz hajmi);

11. **bazaviy ijtimoiy ehtiyojlarga ketadigan xarajatlar** (sog'liqni saqlash va ta'limga sarflanadigan budget xarajatlarning yalpi ichki mahsulotga nisbatan miqdori);

12. **aholi daromadlarining daromadlar bo'yicha farqlanishi** (butun aholi umumiy daromadida aholining eng kam ta'minlangan 20 %i daromatlari ulushi).

Xalqaro hisobotlar, jumladan, «Ijtimoiy monitoring, UNICEF, 2003», «Dunyo rivojlanishi to'g'risida hisobot, Jahon banki, 2002» kabi manbalardan olingan. Bu ma'lumotlar Ijtimoiy farovonlik ko'rsatkichini hisoblash uchun ko'llaniladigan tartib asosida yagona indeksga jamlandi. Jamlanma, indeks bo'yicha turli mamlakatlarni taqqoslash shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston aholi jon boshiga nisbatan yalpi ichki mahsulot hajmi bo'yicha hozircha pastki o'rinlardan bo'lsa-da, aholi farovonligining yuqoridagi ko'rsatkichlari indeksi asosida jamlangan indeksga ko'ra MDH mamlakatlari o'rtasida peshqadam hisoblanadi (15.1-jadval).

Bunday baholash dunyodagi eng nufuzli mustaqil tadqiqot markazlaridan biri bo'lgan Pyu Riserch Senter ijtimoiy tadqiqotlar markazida (AQSH) o'tkazgan tahlil natijalarida ham bilvosita o'z tasdig'ini topdi. Bu markaz yaqinda dunyoda muhim o'rin tutuvchi 44 mamlakat, shu jumladan, MDH davlatlaridan O'zbekiston, Rossiya va Ukrainada so'rov o'tkazdi. Bu so'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston aholisining 70 %i mamlakatdagi ahvol va yashash sharoitlaridan mamnun. Vaholanki, Xitoyda bu ko'rsatkich 50 %dan past, Rossiyada 20, Ukrainada 9 %ni tashkil etgan.

## MDH mamlakatlarning ijtimoiy farovonlik ko'rsatkichi

Davlat	Ijtimoiy farovonlik ko'rsatkichi (jamlanma ko'rsatkichi)	Reyting
Ozarbayjon	0,717	3
Armaniston	0,585	11
Belorus	0,719	2
Gruziya	0,602	9i
Qozog'iston	0,667	4
Qirg'iziston	0,598	10
Moldova	0,580	12
Rossiya	0,626	6
Tojikiston	0,619	8
Turkmaniston	0,652	5
Ukraina	0,622	7
O'zbekiston	0,738	1

Shuningdek, so'rov natijalaridan fuqarolarning o'z mamlakati rahbari munosabati bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov jahonda davlat rahbarlari o'rtasida eng yuqori reytingga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Bu tabii hol, chunki so'ralganlarning 95 foizi uni qo'llab-quvvatlagan.

## 15.4. Respublika iqtisodiyotining ijtimoiy yo'naltirilganligi

Prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan bozor islohotlarini «O'zbek modeli» amalga oshirilishi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning dastlabki yillarida aholi turmush darajasi keskin pasayishiga yo'l qo'ymaslik va keyincha barqaror ijobiy natijalarga erishish imkonini berdi. Jumladan, 1989-1998-yillar O'zbekistonda aholi jori boshiga yalpi ichki mahsulot hajmi nafaqat MDH, ba'zida Boltiqbo'yi mamlakatlari va Sharqiy Yevropaning ba'zi davlatlari orasida eng katta darajada pasaygani kuzatildi (O'zbekistonda – 21, Rossiyada – 48, Ukrainada – 67, Gruziyada – 67, Latviya va Litviyada – 33, Bolgariyada – 27 % va hokazo). Mamlakat rahbariyati tomonidan ko'rilgan izchil, bosqichma-bosqich chora-tadbirlar natijasi O'zbekiston MDH mamlakatlari o'rtasida 2000-yilda yalpi ichki mahsulotining miqdori bo'yicha islohotlarga boshlangan darajasiga chiqib olgan birinchi davlat bo'lib MDHning qolgan mamlakatlarida ushbu ko'rsatkich 40 %dan 78 %gacha yetdi. 1998-yildan boshlab O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning yiliga o'rtacha 4 % barqaror o'sishi ta'minlandi va 2013-yilda 8,0 %ga yetdi.

Inflyatsiya darajasining 2008-yildagi 21 %dan 2013-yilda 6,8 %gacha pasayishi hukumat va Markaziy bank tomonidan qat'iy fiskal va pul-kredit siyosatini tartib solishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasidir. Sana maqsadda davlat budjeti taqchilligini qoplash uchun jalb etilgan Markaziy bank kreditlari hajmi izchil qisqartirib borildi, 2004-yildan esa, butunlay to'xtatildi. Dav



budjeti taqchilligi 1998-yildan beri yalpi ichki mahsulotning 2 %idan oshmadi, 2004-yilda esa 0,4 %ni tashkil etdi, 2013-yilda +0,3 %ga yetdi.

O'tish davrida, o'z iqtisodiyotining haqiqiy imkoniyatlarini hisobga olmay, tashqi qarzlari olish yo'li bilan qiyinchilikni yengib o'tishga intilgan ko'plab mamlakatlardan farqli o'laroq, respublikamizda bu borada puxta o'ylangan siyosat olib borilmoqda. Chunonchi, O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotga nisbatan tashqi qarz hajmi 25 %ni tashkil etadi, ayni paytda Qirg'izistonda bu ko'rsatkich 125 %, Rossiya 70 %dan yuqori, Qozog'istonda 38 %ga teng. Afsuski, sobiq sho'ro tuzumidan O'zbekiston iqtisodiyotiga og'ir nomutanosibliklar meros bo'lib qolgan edi. Negaki, mustaqillikkacha mamlakatimiz «sotsialistik mehnat taqsimoti»da faqat xomashyo manbai bo'lib kelgan.

Shuni aytish kerakki, respublikamiz eksportining 90 %i xomashyo resurslari va ularning birlamchi qayta ishlash mahsulotlariga to'g'ri kelar edi. 2012-yilda respublikamiz sanoat mahsulotlari, iste'mol tovarlari va ayrim xomashyo turlari eksporti 52 %, importi 48 %ni tashkil qildi. Holbuki, 2006-yilda umumiy import hajmida uskunalar ulushi 10 %dan oshmagan. Istiqlol yillarida iqtisodiyotni jadallashtirish va modernizatsiya qilish, qo'shimcha qiymat ulushi yuqori mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish bo'yicha ko'rilgan izchil chora-tadbirlar mamlakatimiz importi tarkibini sifat jihatidan o'zgarishiga olib keldi. So'nggi 4 – 5 yil ichida uskunalar va butlovchi qismlarning importdagi hissasi 60 %ga yetdi. Bu, MDH davlatlari orasida eng yuqori ko'rsatkichlardan biri sanaladi. Shuningdek, ko'rilgan chora-tadbirlar eksport xomashyo ustunligini bartaraf etadi. Hozirda eksport paxta tolası 20 % kamaydi, tayyor mahsulot ulushi 2 baravar ortdi. Ayni paytda eksport tarkibida mashina va uskunalar ulushi 1995-2008-yillar davomida uch baravar oshdi, gazlama, kimyoviy va plastmassa mahsulotlari, avtomobillar va xizmatlar ulushi ko'paydi va 2012-yilda 52 %ni tashkil qildi.

### **15.5. Davlat budjetidan ijtimoiy ehtiyojlar uchun yo'naltirilgan sarf-xarajatlar**

Islohotlar davrida davlat iqtisodiy siyosatining asosiy vositalaridan biri hisoblangan davlat budjeti, avvalambor, ijtimoiy rivojlanishning ustuvor vazifalarini amalga oshirishga yo'naltirildi. Bu esa inson salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan uzoq muddatli investitsiyalarning darajasi barqaror va yuqori bo'lib turishini ta'minladi. Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga sarflanayotgan xarajatlar davlat budjeti sarf-xarajatlarida muntazam ravishda salmoqli o'rin egallab kelmoqda. Masalan, 2013-yilda jami budjet sarf-xarajatlarining qariyb 51 %i ana shu maqsadlarga yo'naltiriladi. Bunda ijtimoiy soha xarajatlarining 83 %i inson salohiyatini rivojlantirishga, ya'ni ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va fanga to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilishini alohida ta'kidlash joiz.

2013-yilda bevosita ijtimoiy ta'minotga, ikki yoshga to'lmagan bolasi bor onalarga to'lovlar, kam ta'minlangan va 18 yoshga yetmagan farzandlari bor oilalarga nafaqalar to'lashga yo'naltirilgan budjet xarajatlari 16 % ko'paytirildi.

MDH mamlakatlarida ta'limga davlat budjetining 7,5 dan 18 %gacha qismi sarflanayotgan bir paytda, O'zbekistonda ta'lim uchun budjetdan ajratilgan mablag'lar umumiy xarajatlarning qariyb 38 %ini tashkil etmoqda. Maktablarni darsliklar, kam ta'minlangan oilalar farzandlarini qishqi kiyim va poyabzal, birinchi sinf o'quvchilarini

o'quv qurollari bilan ta'minlash, maktablar, maktabgacha tarbiya muassasalari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari mebel, o'quv uskunalari, sport anjomlari va boshqa zarur jihozlar bilan ta'minlash, kompyuter va Internet-sinflar tashkil etish hamda binolarni ta'mirlash – bular ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan ezgu ishlardan ayrimlari, xolos.

Ta'lim tizimida o'z mohiyati va ko'lami bo'yicha noyob hujjat – kadrlar tayyorlash milliy dasturi muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Hozirgacha 575 ta akademik litsey va 842 ta kasb-hunar kolleji qurilib, ishga tushirildi. Kelgusi besh yil ichida yana 704 ming o'quvchiga mo'ljallangan 113 ta akademik litsey va 869 ta kasb-hunar kolleji foydalanishga topshiriladi.

Budjet mablag'lari hisobidan 2012-yil kapital qurilish uchun ajratilgan mablag'larning 65 %dan ortig'ini kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar qurilishini moliyalashga sarflanishi ko'zda tutilgan.

Davlat ilmiy-texnik salohiyatini kengaytirish uchun mustahkam asos bo'ladigan fan va madaniyat kabi jamiyat hayotining muhim sohalarini rivojlantirishga, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va raqobatbardoshligini oshirishga katta e'tibor qaratmoqda.

Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish dasturida sog'liqni saqlashning birlamchi bo'g'inini mustahkamlash, shoshilinch tibbiy yordam tizimini kengaytirish, onalik va bolalikni muhofaza qilishni kuchaytirish ko'zda tutilgan. Inson salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan mazkur chora-tadbirlar har tomonlama puxta o'ylangan. Ko'lami va ahamiyatini hisobga olgan Xalqaro moliya institutlari va tashkilotlari ushbu dasturga qiziqish bilan qarashmoqda va uni amalga oshirishda moliyaviy yordam ko'rsatilmoqda. Xususan, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Yaponiya, Ispaniya va Quvayt hukumatlari tomonidan jami 172,5 million AQSH dollari miqdorida mablag' ajratildi.

2014-yil «Sog'lom bola yili» deb e'lon qilindi va uni amalga oshirish borasida maxsus dastur ishlab chiqildi. Har yili «Homiylar va shifokorlar», «Sihat-salomatlik», «Oila manfaatlarini amalga oshirilishini ta'minlash», «Sog'lom avlod», «Ona va bola», «Qariyalar manfaatlarini himoya qilish», «Obod mahalla», «Mehr va muruvvat» kabi davlat ijtimoiy dasturlari qabul qilinib, muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Profilaktika va aholi salomatligini mustahkamlash tizimida jismoniy tarbiya, birinchi navbatda, bolalar sportini rivojlantirish muhim o'rin tutmoqda.

Qishloq aholisi turmush sharoitini yaxshilash maqsadida qishloq aholisini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash davlat dasturi amalga oshirilmoqda. Umuman olganda, mustaqillik yillarida qishloq aholisining tabiiy gaz bilan ta'minlanishi darajasi 19 dan 75 %ga, ichimlik suvi bilan ta'minlanishi esa 55 dan 75 %ga ko'tarildi. Qishloq joylarda gaz quvurlari 7,2 va suv quvurlari tarmog'i 2,2 baravar uzaytirildi.

Aholini ish bilan ta'minlash amalga oshirilayotgan islohotlarimizning muhim ijtimoiy jihatidir. Respublikamiz aholisi o'rtasida vaqtincha ishsizlik darajasi keyingi 2 yilda 3,6 %ga kamaydi. Bu MDH mamlakatlari orasida eng past ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Bandlik sohasida qishloq xo'jaligidagi ortiqcha mehnat resurslarini sanoat, savdo, transport, aloqa, qurilish va boshqa tarmoqlarga jalb qilishda sezilarli o'zgarishlar amalga oshirildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish aholi bandligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda 250 mingga kichik biznes korxonasi faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda 5,5 million kishi mehnat qilmoqda va yalpi ichki mahsulotning 35 %dan ortig'i ishlab chiqarilmoqda. Kichik va xususiy korxonalarda birgina 2008-yili 500 va 2013-yilda 965 ming yangi ish o'rni tashkil etildi.

Kichik va xususiy korxonalarni rivojlantirish aholi daromadlari tarkibi o'zgarishiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Ushbu daromadlarning 50 %dan ortig'i turli tadbirkorlik faoliyati va xususiy mulkchilikdan olingan daromadlarga to'g'ri keladi, kichik tadbirkorlikda band bo'lganlar soni 6 mln. nafardan ortdi.

Hukumatimiz soddalashtirilgan soliq tizimini joriy qilish, tekshiruvlar sonini cheklash, yangi tashkil etilayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarni ro'yxatga olish tartibini soddalashtirish, kichik biznesga kredit ajratayotgan tijorat banklariga soliq imtiyozlari berish yo'li bilan xususiy tarmoq va kichik tadbirkorlikni faol qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirishga yo'naltirilgan izchil siyosat yuritmoqda. Bu borada xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik kengaymoqda. Ular ishtirokida O'zbekistonda kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha ko'plab dasturlar amalga oshirilmoqda. Keyingi yillarda Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda boshqa Xalqaro moliya institutlarining jalb qilingan kreditlari, shu jumladan, hukumat kafolati ostidagi kreditlarning umumiy miqdori 0,5 milliard AQSH dollariga yetdi.

#### **15.6. Ijtimoiy siyosat muammolari va istiqbollari**

Erishilgan betimsol yutuqlarga qaramay, yurtimizda barcha ijtimoiy muammolarni hal etildi, deb o'ylash soddalik bo'lar edi. Aslida dunyodagi biron-bir davlat bu boradagi muammolari to'la-to'kis hal qilingani bilan maqtana olmaydi. E'tiborli jihati shundaki, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolar chuqur tahlil etilgan holda ularni hal qilishga qaratilgan uzoq muddatli strategik dasturlar ishlab chiqilib, izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

Aholi bandligi va daromadining oshirish imkoniyatini kengaytirishga qaratilgan, xorijlik hamkorlar ishtirokida yangi qo'shma korxonalar hamda kichik biznes korxonalarini tashkil etish borasida ham bir qancha dasturlar hayotga tatbiq etilmoqda.

Yana bir muammo – qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida ortiqcha ishchi kuchi mavjudligidir. Bu muammo qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligini pasaytiribgina qolmay, iqtisodiyotning ushbu tarmog'ida mehnat qilayotgan ishchilar daromad darajasining kamayishiga ham sabab bo'lmoqda. Shu bois qishloq joylarda qishloq xo'jaligi tarmog'iga kirmaydigan qayta ishlash sanoati, qurilish, xizmat ko'rsatish va ijtimoiy xizmatlar sohasida bandlikni kengaytirish uchun sharoitlar yaratish eng muhim vazifa hisoblanadiki, bu borada davlatimiz keng qamrovli ishlarni amalga oshirmoqda.

Aholi daromadining o'sishi, to'lov layoqatining oshishi o'z navbatida iste'mol bozorini kengaytirishni ta'minlab, mahalliy iste'mol tovarlari ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish uchun sharoit yaratish. Bu esa aholini ish bilan ta'minlanishi va daromadining yuksalishiga olib keladi.

Mamlakatimiz oldida ta'lim sifatini yanada oshirish borasida ham katta vazifalar turibdi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, uzoq muddatli istiqbol nuqtai nazaridan inson uchun, uning kamoli uchun sarflanadigan mablag' eng samarali sarmoya hisoblanadi.

Ta'limni xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish uchun, amalga oshirilayotgan o'rta maxsus ta'limni isloh qilish dasturi bilan bir qatorda maktab tizimidagi islohotlarni chuqurlashtirishga zamonaviy fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan yangi, keng qamrovli dasturlar ham hayotga tatbiq etilmoqda.

Albatta, aholiga sifatli kommunal xizmat ko'rsatish, sog'liqni saqlash sohasini takomillashtirish kabi boshqa ijtimoiy muammolar ham bor. Bular ham davlat hokimiyati tegishli idoralarning doimiy diqqat markazida turibdi.

### **15.7. Keys stadi. Aholi daromadlari va turmush darajasini oshirish yo'llari**

**Davlat ijtimoiy siyosatining maqsadi** – jamiyatda aholining asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydigan qulay ijtimoiy muhit va shart-sharoitlarni yaratish.

#### **Ijtimoiy siyosat asoslari:**

- iqtisodiy faoliyat erkinligi;
- aholining mehnat faolligini oshirish;
- aholini manzilli ijtimoiy himoyalash;
- aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasini rivojlantirish.

#### **Aholi turmush darajasini belgilaydigan omillar:**

- makroiqtisodiy omillar – inflyatsiya, soliq va pul-kredit siyosati;
- demografik o'sish;
- ish bilan bandlik darajasi, mehnat bozori, ish vaqti;
- uy-joy va kommunal xizmatlar bilan ta'minlanganlik;
- aholi salomatligi;
- ta'lim darajasi;
- ijtimoiy ta'minot tizimi.

**Yalpi daromad (YAD)** – insonning jismoniy, aqliy va moddiy holatini saqlab borishga yo'naltiriladigan pul va natural vositalar jamlanmasi. YAD quyidagilardan tarkib topadi:

- mehnat haqi;
- pul shaklidagi ijtimoiy transfertlar;
- mulkdan keladigan daromadlar;
- tadbirkorlik faoliyatidan keladigan daromadlar;
- uy xo'jaligida (dehqon xo'jaligida) yetishtirilgan mahsulotni sotishdan keladigan daromad;
- dehqon xo'jaligidan keladigan natural tushumlar qiymati;
- tekin xizmatlar (imtiyozlar) qiymati;
- uy xo'jaligiga keladigan boshqa tushumlar.

#### **Aholining daromadlariga ta'sir etadigan omillar**

##### **1. Tashqi:**

- o iqtisodiy va geografik holat;
- o tabiiy-iqlimiy sharoitlar;
- o tabiiy resurslar;
- o aholi tarkibi va demografik salohiyati;
- o moliyaviy ta'minlanganlik;

o mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi.

## **2.Ichki:**

o aholining iste'mol va sarf-xarajatlari darajasi;

o pul jamg'armalari;

o ko'chmas mulk va uy xo'jaligi aktivlari;

o ta'lim va salomatlik;

o ish bilan bandlik.

Aholi daromadlari va turmush darajasini oshirish borasida joylardagi davlat hokimiyati organlarining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qo'yilgan ustuvor vazifalari:

- bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish;

- xususiy sektorning ildam rivojlanishini ta'minlash, uning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini ko'paytirish;

- kichik biznes va dehqon xo'jaliklarini rivojlantirish borasidagi ishni chuqurlashtirish va miqyosini kengaytirish;

• bank va moliya tizimlari islohotini chuqurlashtirish;

• uy-joy-kommunal xo'jaligini isloh qilish;

• soliq siyosatini takomillashtirish.

## **Mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy salohiyati.**

**Iqtisodiy salohiyat** – yalpi mintaqa mahsulotini ishlab chiqarish uchun xo'jalik kompleksi tarmoqlarining jami qobiliyati.

### **Iqtisodiy salohiyatning tarkibiy qismlari:**

• ishlab chiqarish salohiyati;

• inson resurslari;

• tabiat resurslari.

**Ijtimoiy salohiyat** – aholi ehtiyojlarini ta'minlash bo'yicha ijtimoiy sohaning jami qobiliyatlari.

### **Ijtimoiy salohiyatning tarkibiy qismlari :**

- mehnat salohiyati;

- ijtimoiy xizmat ko'rsatishni moliyalashtirish;

- ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat tashkilotlarining quvvati.

Aholi daromadlari va turmush darajasini oshirishni ta'minlash borasida mahalliy darajada amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar:

- yangi qurilish, rekonstruksiya amalga oshirilishi va ishlab chiqarishning modernizatsiyalanishi, kichik biznes ildam rivojlantirilishi hisobiga yangi ish o'rinlari yaratilishini rag'batlantirish;

- dehqon xo'jaliklarini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash;

- mintaqa miqyosida bozor infratuzilmasini rivojlantirish (transport, aloqa, muhandislik - kommunikatsiyalari va moliyaviy infratuzilma);

- uy-joy-kommunal majmuini rivojlantirish;

- ijtimoiy infratuzilma obyektlarini saqlash va rivojlantirish;

- aholini ijtimoiy himoyalashning manzilliligini ta'minlash;

- ish haqi, pensiyalar va nafaqalar to'liq va o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash.

### **Qisqacha xulosalar**

Mamlakatimizda islohotlarning dastlabki bosqichlarida mulkni davlat tasarrufid chiqarish chog'ida aholiga ijtimoiy kafolatlar yaratib ko'yildi. Fuqarolarning mulkd ulush olishida tenglik tamoyiliga, shuningdek, xususiylashtirilayotgan korxonaga mehr jamoasi a'zolarining ijtimoiy himoya qilinishiga qat'iy rioya etildi. Imtiyozlarni butun bir tizimi ishlab chiqildi. Korxonalar xususiylashtirilgandan keyin ularga yordam berish maqsadida soliq sohasida ham imtiyozlarning ayrim turlari belgilandi. Boshqac qilib aytganda, ijtimoiy kafolatlar tizimi xususiylashtirish jarayonini amalga oshiri uchun ham, shuningdek, xususiylashtirilgandan keyin korxonaga faoliyat muvaffaqiyatli boshlashi uchun ham imkon boricha ko'proq qulay sharoit yaratish lozim.

Erishilgan betimsol yutuqlarga qaramay, yurtimizda barcha ijtimoiy muammolarni hal etildi, deb o'ylash soddalik bo'lur edi. Aslida dunyodagi biron-bir davlat bu boradagi muammolari to'la-to'kkis hal qilingani bilan maqtana olmay. E'tiborli jihati shundaki, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolar chuqur tahlil etilgan holda ularni hal qilishga qaratilgan uzoq mudda strategik dasturlar ishlab chiqilib, izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Iqtisodiy faoliyat erkinligi tushunchasining mohiyati nimadan iborat?
2. Aholining mehnat faolligini oshirishda iqtisodiyotning ahamiyati nimad iborat?
3. Aholini manzilli ijtimoiy himoyalash sohasida qanday chora-tadbirlar amal oshirilmoqda?
4. Aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasini rivojlantirish maqsadi joylarda qanday ustuvor vazifalar amalga oshirildi?

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Karimov I. "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavj imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davr ettirish yili bo'ladi" // Xalq so'zi, 2014-iy 18-yanvar.
2. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida tartaraf etishning yo'llari va choralari. - T.: O'zbekiston, 2009.
3. Ishmuxamedov A.E va boshqalar. Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari. Dars - T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005.
4. Yo'ldoshev Z. Milliy iqtisodiyot. - T.: Mehnat, 2004, 168-b.
5. Ishmuxamedov A.E. O'zbekiston milliy iqtisodiyoti. Darslik - T.: O'zbekist yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. - 304 b.
6. Ishmuxamedov A.E. va boshqalar. Makroiqtisodiyot. Darslik - T.: O'zbekist yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. - 192 b.
7. Tuxliyev N. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. T.: O'zbekist milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. - 280 b.

Internet veb-saytlari.

[www.ceep.uz](http://www.ceep.uz)

[www.bearingpoint.uz](http://www.bearingpoint.uz)

[www.pca.uz](http://www.pca.uz)

[www.micro-macroiqtisodiyot.fan.uz](http://www.micro-macroiqtisodiyot.fan.uz)

### 16.1. Mehnat resurslarining tarkiblanishi

Mehnat resurslari qanday shakllanishini aniqlash uchun birinchidan, mehnat resurslarini uchta yirik guruh bo'yicha - mehnatga layoqatli yoshdan kattaroq kishilarni, ikkinchidan, har bir guruh aholi soniga, uning o'zgarishiga ta'ir qiluvchi omillarni, uchinchidan, mehnat resurslari va aholining tabiiy va mexanik o'zgarishlaridagi umumiy va o'ziga xos tomonlarini ko'rib chiqishimiz lozim. Mehnat resurslarining aksariyat qismini mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga qobiliyatli aholi tashkil etadi. Mehnat qilishga layoqatli yoshdagi kattalar, ishlovchi nafaqatnalar va mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, ishlovchi o'zmirilar mehnat resurslarining salmog'ida u darajada sezilarli rol o'ynamaydi.

**Mehnatga layoqatli va qobiliyatli yoshdagi aholi.** Bu mehnat resurslari tarkibiga I va II guruhlardagi ishlamaydigan nogironlar kirmasligini esda tutgan holda, dastlab mehnatga layoqatli yoshdagi aholini, so'ngra uning mehnat qilishga qobiliyatli qismini qarab chiqamiz.

Mehnatga layoqatli yoshdagi fuqarolar butun aholining bir qismi bo'lib, ularning soni demografik omil ta'sirida o'zgarib turadi. Ularning qancha bo'lishi tegishli yillardagi o'lim darajasiga bog'liq bo'ladi. Bu, shuningdek, mehnat qilish yoshiga yetgan yoshlar bilan nafaqa yoshiga yetgan fuqarolar soni o'rtasidagi nisbatga ham bog'liq bo'ladi.

O'lim qanchalik kam bo'lsa va mehnat qilish yoshiga yetgan fuqarolar bu yoshdan oshgan kishilar soni o'rtasidagi farq qanchalik yuqori bo'lsa, mehnat qilish qobiliyatiga yetgan kishilar soni shunchalik ko'p bo'ladi yoki aksincha.

Respublikamizdagi o'ziga xos xususiyatlar mehnat qilishga layoqatli yoshdagi kishilar soni dinamikasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Mehnatga qobiliyatli yoshdagi aholidan mehnat qilish yoshidagi mehnatga layoqatli aholi bilan bu yoshdagi I va II guruhlardagi nogironlardan ishlamaydiganlari toifasini qarab chiqishimiz kerak.

Boshqa teng sharoitlarda I va II guruhlardagi nogironlar qancha ko'p bo'lsa, ular orasida ishlamaydiganlari ham shunchalik ko'p bo'ladi. I va II guruhlardagi barcha nogironlar soni odamlarning sog'ligi bilan bog'liq shart-sharoitlar majmui ta'sirida qaror topadi. Har qanday davlat nogironlari iloji boricha kamroq bo'lishini, ular orasida esa ishlovchilar ko'proq bo'lishini istaydi. Mamlakatimizda boshqa mamlakatlardagi kabi ish beruvchilar, ya'ni nogironlarga ish o'rinlari ajratuvchilar rag'batlantiriladi. Davlatning nogironlar mehnatidan manfaatdorligi iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega. Bu masalaning iqtisodiy ahamiyati shundan iboratki, budget mablag'lari hisobidan kun ko'ruvchilar kamroq bo'lishi kerak. Ijtimoiy ahamiyati shundan iboratki, inson o'zi uchun jamiyat foydali ekanligini his qilish ham muhimdir.

Ishlamaydigan nogironlar sonining bo'lajak dinamikasi turmush darajasi yaxshilanib, ishlab chiqarish texnologiyasi xodimga, ayniqsa, xizmat ko'rsatish sohasiga moslashib borishiga hal qiluvchi darajada bog'liq. Mehnatga layoqatli aholi orasida ishlamaydigan nogironlar soni kamayib borishi mehnat sohasini

rivojlantirishning barqaror tamoyilini tashkil etadi, deb hisoblash ancha to'g'riroq bo'ladi.

**Ishlaydigan o'smirlar.** Ishlaydigan o'smirlar sonini belgilab beradigan barcha omillar orasida avvalo, demografik omilni qayd etish lozim. Bunda o'smirlarning hammasi nazarda tutiladi. Ayniqsa, 14-15 yoshli o'smirlarga e'tibor qaratiladi, chunki ular kichik yoshdagi xodimlarning anchagina qismini tashkil etadi. Mamlakatda bunday o'smirlar qanchalik ko'p bo'lmasin, mehnat resurslarining shu qismi boshqa sharoitlarda ham ko'proq bo'ladi. Ishlaydigan o'smirlar soniga ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari ko'proq ta'sir qiladi. Ular orasida oilalarning farovonligi va iqtisodiyotning ehtiyoji muhim o'rin tutadi.

Iqtisodiyotning o'smirlar mehnatiga bo'lgan ehtiyoji ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarining murakkablashib borishi bilan qonuniy ravishda pasayib boradi – mehnat faoliyati sohasi murakkablashadi, bunda yaxshi ma'lumot darajasi hamda kasb tayyorgarligi zarur bo'ladi.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti shart-sharoitlari asosida islohotlar boshlanishi bilanoq vaziyat keskin o'zgardi. Bu hol kishilarning erkinligi ortishi bilan bog'liq bo'lib, ularga tobora ko'proq imkoniyatlar berila boshlandi. Ular o'z taqdirlari bilan o'zlari xohlaganlaricha shug'ullanadilar. Bandlikka, ko'plab oilalarning moddiy ahvoli og'irligi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Qo'shimcha daromad topish uchun yoshlar ham, kattalar ham harakatga tushib qoldilar. Bunga iqtisodiyotdagi vaziyat majbur qilmoqda. Har xil kichik xizmatlarni bajarib, xususan, mayda chakana savdo bilan shug'ullanib, pul ishlashning ko'p imkoniyatlari paydo bo'ldi. Vujudga kelgan ish o'rinlari asosan o'smirlar bilan to'ldi.

Kelgusida o'smirlarning mehnat resurslaridagi ulushi ortishi o'smirlar ular mehnatidan fuqarolarning aqliy va jismoniy rivojlanishiga zarar yetkazmagan holda samarali tarzda foydalanish imkonini beradi.

**Ishlaydigan nafaqaxo'rlar.** Ishlovchi nafaqaxo'rlar soni ham demografik omil ta'siri ostida qaror topadi. Bu borada shunday bog'liqlik bo'ladi: nafaqa yoshidagi kishilar qanchalik ko'p bo'lsa, bu yoshdagi ishlovchilar ham shunchalik ko'p bo'ladi.

Mehnatga layoqatli kishilar aholining ko'payib boruvchi qismini tashkil etadilar. Bunda rivojlangan iqtisodiyotga ega bo'lgan mamlakatlarga xos holat – aholining hayotga obyektiv qarashidan iborat obyektiv jarayon o'z ifodasini topadi.

Xilma-xil ijtimoiy omillar orasida nafaqaxo'rlarning mehnat faoliyatiga ancha ko'proq ta'sir qiluvchi asosiy omillarni qayd etib o'tish lozim: bir xil miqdordagi nafaqa birovlariga yetadi, boshqalarga esa yetmaydi, shu sababdan inson mehnat qilishga intiladi. Yana shunday mehnatga rag'batlantiruvchi qo'shimcha omil ham borki, bunda: katta yoshdagi kishi ish haqi bilan bir qatorda nafaqa olish huquqiga ham ega.

Mehnat resurslari soni o'zgarishi bilan yalpi aholi sonining o'zgarishi o'rtasida tabiiyki, bog'liqlik bor. Biroq u bir qarashda unchalik ko'zga tashlanmaydi. Mehnat resurslarining soni hamisha yalpi aholi soni kabi o'zgaravermaydi. O'zgarishlar turli yo'nalishlarda bo'lishi ham mumkin. O'zbekistonda 2006-yil 1-yanvar holatiga ko'ra jami mehnat resurslarining 98,2% ni mehnatga layoqatli aholi bo'lib, mehnat yoshida bo'lmagan aholi atigi 1,8% ni tashkil qilgan. Iqtisodiy faol aholi 78,7% va iqtisodiy nafaol aholi 2,5%. Shu jumladan, 2 yoshgacha bolasi bo'lgan ayollar 7,8% ni tashkil etadi.



O'smirlar va nafaqaxo'rlarning mehnat bilan bandlik darajasidagi o'zgarishlar faqat mehnat resurslariga emas, balki aholining soniga ham daxldordir.

Tug'ilishdagi o'sish aholi sonining oshishiga ta'sir qiladi, natijada mehnat resurslarining tarkibi ham 16 yildan keyin o'zgaradi. Kishilarning nafaqa yoshiga yetishi faqat mehnat resurslari miqdoriga ta'sir qiladi. Bu holat butun aholi sonining o'zgarishiga daxldor bo'lmaydi.

Shunday qilib, mehnat resurslari butun aholiga taalluqli jarayonlar bilan bevosita bog'liqligini e'tirof etgan holda, mehnat resurslari dinamikasining ma'lum darajada nisbiy «mustaqilligi»ga e'tiborni qaratamiz. U mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan demografik jarayonni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Shu ma'noda «mehnat resurslari» ijtimoiy va demografik rivojlanishni tahlil qilish va asoslab berishning o'ziga xos metodologik vositasi bo'lib maydonga chiqadi.

## **16.2. Mehnat bozorini tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari, shart-sharoitlari va tamoyillari**

Mehnat erkinligi va ixtiyoriyligi – mehnat bozori shakllanishining asosiy shartidir. Shuningdek, mehnat bozorining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatayotgan bir qator iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, tabiiy-iqlimiy va hududiy shart-sharoitlar va omillar ham mavjudki, ularni quyida batafsilroq ko'rib chiqamiz.

Mehnat bozori shakllanishining asosiy iqtisodiy shart-sharoiti bo'lib, yollanma xodimlarni o'z ishchi kuchlariga shaxsiy mulkchiligi va ish beruvchilarning ish joylariga jamoa yoki xususiy mulkchiligi xizmat qiladi.

Bu o'rinda shuni nazarda tutish kerakki, mazkur subyektlarni o'zaro almashuv munosabatlarga kirishishiga ularning shaxsiy manfaatlari majbur qiladi. Uning orqasida shaxsiy iste'molchilik yotadi. Ular ham o'z navbatida, qayta takror ishlab chiqarishda aholi ijtimoiy-iqtisodiy turmushining faqat kerakli ijtimoiy ehtiyojini qondirishga imkon beradi.

Mehnat bozorining vujudga kelishi ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi muvozanatga erishish uchun o'zaro raqobat qilishga tayyorlashni, erkin va teng huquqli sheriklar iqtisodiy munosabatlarda bo'lishlarini taqozo etadi. Bozorda xodim va ish beruvchi shaxsiy erkinlik va iqtisodiy zaruriyat nuqtai nazardan o'zaro bog'langan hamda bir - birlariga qaram bo'lsalar ham bir-birlariga qarshi turadilar.

Ishchi kuchi talab va taklifi o'rtasida bozor muvozanatiga erishish mehnat bozorining shakllanishida hal qiluvchi iqtisodiy shartlardan biri hisoblanadi. Ammo bunday muvozanat mavjud emas. Buning asosiy sababi taklif qilingan mehnatga layoqatli aholi sonining talab miqdoriga nisbatan tez o'sishidir.

Iqtisodiyotning barcha sektorlaridagi tarkibiy o'zgarishlar hozirgi sharoitda mehnat bozorida ishchi kuchiga talab va taklifning yangi harakatini belgilovchi eng muhim iqtisodiy shartlardan hisoblanadi. Bular sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlarida yangi ish joylarini yaratishni va hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida sifat o'zgarishlarini asoslab beradi. Bunday sharoitlarda bir tomondan, mehnat bozori yangi infratuzilmasining ko'p jonli mehnat talab qiladigan tarmoqlari va ishlab chiqarish bo'g'inlarini qamrab olsa, boshqa tomondan, iqtisodiyotning an'anaviy sektorlarida bozor munosabatlarni vujudga keltiradi va rivojlanadi.

Ishchi kuchi bahosining o'zgarishi mehnat bozori shakllanishining muhim iqtisodiy sharti hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda ish haqi haqiqiy darajasini pasayish tendensiyasi kuzatiladi. Nazariy jihatdan bunday vaziyatda ish haqi qiymatidan pastroq belgilash uchun qulay imkoniyatlar yaratiladi. Ammo bunda imkoniyatlardan foydalanishni davlat qonunchilik yo'li bilan tartibga solishga harakat qiladi. Shu maqsadda minimal ish haqi va kun kechirish uchun zarur miqdor daraja rasmiy ravishda belgilanadi. Bunday holda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiy me'yorida faoliyat ko'rsatganda minimal ish haqi kun kechirish uchun zarur miqdor darajasidan kam bo'lmasligi lozim.

Mehnat bozori konyunkturasi shakllanishining ijtimoiy shart-sharoitlari orasida yollanma xodimlar va ish beruvchilar sifat ko'rsatkichlarining oshishi yetakchi o'rin egallamaydi. Hududlarda agrosanoat kompleksi va xizmat ko'rsatish tarmoqlarining kengayishi, intensiv rivojlanishi, moddiy-texnik va moliyaviy resurslar bilan ta'minlashni, mehnatkashlarning qayta tayyorgarlikdan o'tishini va yangi zamonaviy kasblarni (universal ishchi va xizmatchi tadbirkor, menejment, marketing va h.k.) o'zlashtirishni talab qiladi.

Yuqorida qayd etilgan shart-sharoitlar mehnat bozori faoliyat ko'rsatishini quyidagi asosiy tamoyillarini to'liq amalga tatbiq etgan holda mazkur bozor shakllanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi:

- *ishchi kuchining erkin taklifi*. Bu mehnatga layoqatli aholining ish bilan bar bo'lishi va bo'lmasligini ixtiyoriy tanlashini, mehnat qonunlari tomonidan ta'kidlanadigan va har bir xodimning shaxsiy va jamoa manfaatlarini hisobga oluvchi kasb va faoliyat turini erkin tanlash uchun sharoitlar mavjudligini anglatadi;

- *ish beruvchilarning ishchiga mustaqil talabi*. Bozor iqtisodiyoti xodimlar barcha ish beruvchilar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Mehnat kodeksi qoidalariga amal qilgan holda ishga erkin yollashlari va ishdan bo'shatishlari bandlik, mehnat sharoitlari va unga haq to'lashni kafolatlash bilan fuqarolarning manfaatlarini muhofaza qilishlari uchun imkoniyatlar yaratadi;

- *yollanma xodimlar ish beruvchilardan huquqiy va ijtimoiy muhofaza qilinganligi*;

- *ish haqi va boshqa qonuniy daromadlar chegarasini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining «kun kechirish uchun zarur miqdordan kam bo'lmaslik» talabini rioya qilgan holda erkin belgilash*.

Ortiqcha mehnat resurslariga ega respublikamiz hududlarida ishchi kuchiga talab oshishi va uning taklifi pasayishiga bevosita ta'sir etuvchi omillarni tadqiq qilish ham muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Ishchi kuchiga talabning oshishi asoslovchi omillarga quyidagilar kiradi: noqishloq xo'jaligi tarmoqlarida yangi imkoniyatlar yaratish, mehnatdan foydalaniladigan mintaqalarni texnik qayta jihozlash, modernizatsiyalash, qayta ta'mirlash, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, yangi yerlar o'zlashtirish, qayta ishlash sanoati, xizmatlar ko'rsatish, kichik va o'rta biznes ham xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va boshqalar. Unitmaslik kerakki, shu bilan bir vaqtda ishchi kuchi taklifini va ish joylariga ehtiyojni pasaytiruvchi omillar shaxs yordamchi xo'jalik, yakka mehnat faoliyati, xususiy tadbirkorlik va o'z-o'zini baxsh qilishning boshqa sohalarni rivojlantirish, bandlikning egiluvchan va nonstandart

shakllarini kengaytirish, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishning bozor usullarini tatbiq etish, inflyatsiya va ishsizlikni pasaytirish, mahalliy kadrlarning safarbarligini hamda malakasini oshirish va boshqalar vujudga keladi va ular ta'sir qila boshlaydi.

Mehnat resurslari bilan kam ta'minlangan hududlarda esa bir qator omillar, xususan, ijara va xususiy mulkchilikni rivojlantirish, to'lash qobiliyatiga ega bo'lmagan yoki ekologik zararli korxonalarni yopish, yangi erlarni o'zlashtirish ko'lamini qisqartirish, moddiy-texnikaviy va moliyaviy resurslar ta'minotini yaxshilash, intensiv texnologiyani qo'llash, mehnat unumdorligini oshirish va h.k.lar ishchi kuchiga talabning pasayishiga ko'maklashadi. Bundan tashqari, mazkur hududlarda ishchi kuchi taklifini oshiruvchi omillar kadrlarning malakasi, ma'lumoti, mobillik va eksportabellik darajasining pastligi, mehnat resurslari soni o'sishi sur'atining ish joyi miqdoriga nisbatan yuqoriligi, qishloq xo'jaligida ishlovchilarni ish joyidan ozod etishning ko'payishi, mehnatni qo'llash mintaqalarining yetishmasligi va boshqalar ham mavjudligini e'tiborda tutishi lozim.

Shunday omillar ham borki, ular kompleks holda ishchi kuchi taklifining shakllanish holatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ularga quyidagilar kiradi: ishlashni xohlovchilar, yollanma xodimlar va ish beruvchilarning tabiiy va mexanik harakatlari; turmush uchun zarur bo'lgan mablag'lar jamg'armasi; yollangan xodimlarning pul daromadlari; nafaqaxo'rlar va bolalik ayollarning mehnat va ijtimoiy nafaqalari, imtiyozlari va kafolatlari; kasbiy tayyorlash yoki qayta tayyorlash va malakasini oshirishga zaruriyati bo'lgan shaxslarni mablag'lar bilan ta'minlovchi davlat, korxonalar va oilaning moliyaviy imkoniyatlari; shaxsiy yordamchi xo'jaligida va yollanmasdan «uy mehnati»da band bo'lganlarning soni; qurolli kuchlarda xizmat qiluvchilar soni va ularda xizmat qilish muddati, muqobil va malakali kasbiy xizmatlarni takomillashtirish va h.k.

Ishchi kuchiga talabning o'sishi yoki kamayishi (dinamikasi) quyidagi miqdor va sifat ko'rsatkichlari o'zgarishi bilan aniqlanadi: mavjud bo'lgan va yangidan yaratiladigan ish joylari; investisiya salohiyati va uning takror ishlab chiqarish tuzilishi; iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, mulkchilik shakllarining turli-tumanligi; korxonalar va tashkilotlarning to'lovga qodir emasligi (bankrotligi) va h.k.

O'zbekiston sharoitida mehnat bozoringing samarali shakllantirishga to'siq bo'ladigan bir qator cheklovlar ham mavjud. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi: mehnatdan foydalanishning noqishloq xo'jaligi mintaqalari yaxshi rivojlanmaganligi; mehnat haqining past darajasi, iste'mol tovarlarining qimmatlashuvi; yollanma ishchi kuchining malakasi va safarbarligi pastligi; ish beruvchilarning yetarli tajribaga ega emasligi va h.k.

Islohotlarning birinchi bosqichidayoq mulkchilik barcha shakllarining teng huquqliligi vujudga keladi. Bunday sharoitlarda bir tomondan, mehnat bozori yangi infratuzilmasining ko'p sonli mehnat talab qiladigan tarmoqlari va ishlab chiqarish bo'g'inlari qamrab olinsa, boshqa tomondan, iqtisodiyotning an'anaviy sektorlarida bozor munosabatlari vujudga keladi va rivojlanadi.

Ishchi kuchi narxining o'zgarishi mehnat bozori shakllanishining muhim iqtisodiy sharti hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda ish haqi haqiqiy darajasining pasayish tendensiyasi kuzatiladi. Bunday vaziyatda nazariy jihatdan ish

haqini qiymatidan pastroq belgilash uchun qulay imkoniyatlar tug'iladi. Bunday imkoniyatlardan foydalanish tan olinadi va zaruriy shart-sharoitlar yaratiladi.

Mulkchilikning turli shakllari vujudga kelishi va shakllanishi bilan bandlik tizimida tarkibiy o'zgarishlar ro'y berdi. Hozirga kelib, iqtisodiyotda band bo'lganlarning 64 %i nodavlat sektorida xizmat qilmoqda. Mulkchilikning turli shakllari rivojlanishi natijasi sifatida davlat sektorida band bo'lganlar salmog'i kamayib boshqa mulkchilik shakllarida band bo'lganlar salmog'i oshishini misol qilib ko'rsatisi mumkin.

O'zbekistonda nodavlat sektorni barpo etish vazifalari doirasida, ayniqsa, kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ham ko'plab choralar belgilanmoqda. Iqtisodiyoti taraqqiy etgan mamlakatlarda kichik va o'rta biznesni, xususi tadbirkorlikni rivojlantirishga milliy iqtisodiyot tarkibini o'zgartirish, xizmat ko'rsatis sohasini ko'paytirish va aholini ish bilan ta'minlashning asosiy manbalaridan biri sifatida qaraladi.

Kichik va o'rta biznesning yirik biznesga qaraganda afzalligi shundaki, u katta kapital qo'yilmalarini talab etmaydi, kapital aylanishini tezlashtiradi, investitsiy taqchilligini yumshatadi va davlat budjetining daromad qismi turli tushumlar, jumladan soliqlar bilan to'ladir. Bu esa, o'z navbatida, davlatning qo'yilmalar sohasida imkoniyatlarini kengaytirib, yangi korxonalar bunyod etish va mavjud obyektlar kengaytirishga imkon beradi. Natijada yangi ish joylari barpo etish uchun sharoit yaratiladi.

Respublikada kichik va xususiy tadbirkorlik davlat tomonidan har tomonlari qo'llab - quvvatlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-y dekabrda bo'lib o'tgan to'rtinchi sessiyasida «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirish to'g'risida»gi Qonun qabul qilingan edi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, shirkat va kichik korxonalarining asosiy qismi savd va umumiy ovqatlanish sohaslarida tashkil etilgan. Bu sohaslar ishchi-xizmatchilari soni jami shirkat va kichik korxonalar ishchi-xizmatchilari sonining 11%ini tashkil etadi.

Shundan kelib chiqib, respublikada moddiy ne'matlar ishlab chiqaruvchi kichik va o'rta korxonalarini ko'proq tashkil etish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash masalalariga alohida e'tibor berish zarur.

Nodavlat sektorni rivojlantirishda uni kreditlash alohida ahamiyatga ega. Kichik va o'rta korxonalarda band bo'lganlar salmog'i iqtisodiyotda band bo'lganlarning 7-8 %i tashkil etadi. Shuning uchun respublikada kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga aholini ish bilan ta'minlash va uning ish bilan bandligini oshirishda ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda.

Aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklarini mustahkamlash bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar ish bilan band bo'lmagan aholining bir qismini, asosan qishloq joylar ishlovchi ayollar va yoshlarni ish bilan ta'minlash va ishsizlik oshib ketish xavfi oldini olishga imkon yaratdi.

Shunday qilib, kelajakda O'zbekiston aholisini ish bilan ta'minlashning oqilo yo'laridan biri yagona davlat siyosati orqali iqtisodiyotning nodavlat sektorini rivojlantirish vositasida respublikada bandlik holatini tubdan yaxshilashdan iborat.

Respublikada kichik va o'rta biznesni jadal sur'atlar bilan rivojlantirish band muammosini hal etishda asosiy chora sifatida belgilangan.

Ma'lumki, kichik va o'rta tadbirkorlikni kengaytirish, yangi ish joylarini yuzaga keltirish, ishlab chiqarishni rivojlantirishga sarmoya kiritish bozorini tovar, xizmatlar bilan to'ldirish soliq to'lovlarining kelib tushishi va aholi daromadlarini oshirishda asosiy manbadir.

### 16.3. O'zbekiston mintaqalarining demografik holati

Har bir o'lka, hudud, viloyat yoki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi avvalo, shu joyda yashovchi aholining mehnat faoliyatiga bog'liq. Mahalliy aholining mehnat madaniyati, jamoa ishlaridagi ijtimoiy faolligi, bilim va malakalari, oilaviy tarkibi, yosh va jinsi shu o'lkada iqtisodiy taraqqiyotning rivojlanishida katta rol o'ynaydi. O'zbekistonning har bir ma'muriy hududi iqtisodiy rivojlanishida unda yashovchi aholining xususiyatlaridan tashqari shu hududning geografik o'rni, maydonining katta yoki kichikligi, tabiiy sharoitining qulayligi, tabiiy resurslarga boyligi ham katta ahamiyatga ega. 1960-2013-yillar mamlakat aholisi 8,4 mln.dan 30 mln.dan ortiqroqqa yoki 3,3 marta ko'paygan. Asosiy o'zgarishlar aholining tabiiy o'sishi hisobiga bo'lib, 1990-yilda har ming kishiga 30,1 kishini tashkil etgan.

2000-yilda aholi 24,4 mln. kishidan iborat bo'lgan bo'lsa, 2013-yilga kelib, 30,0 mln. kishiga yetdi. Aholining tabiiy ko'payishi har 1000 kishiga 22,8 kishini tashkil etdi. Ayni vaqtda aholining yillik tabiiy o'sishi shaharda 0,8 foizdan, qishloqda esa 2,7 foizdan iborat bo'ldi. 2013-yilda respublika bo'yicha aholining har ming nafari hisobiga tug'ilganlar 20,4 kishini, o'lganlar 5,3 kishini tashkil etdi.

2012-yilda respublikada jami aholi soni 299946 ming nafarga yetdi. Shundan 153183,3 mingtasi shahar aholisi, 14679,3 ming nafari qishloq aholisidir. O'zbekiston aholisining 2010- yilda 25115,8 ming, 2012-yilda ming nafari (101,5 %) qishloqlar hissasiga to'g'ri keladi. Umuman, O'zbekistondagi demografik vaziyat quyidagi xususiyatlari bilan xarakterlanadi:

- respublikada tug'ilishning mutlaq miqdori 1,3 % ga;
- shahar joylarda 0,9 %ga qisqardi;
- tug'ilishlar o'rtasidagi yillar uzunligi ortdi;
- yoshi 35 dan yuqori bo'lgan ayollar o'rtasida homiladorlik holatlari kamaydi;
- migratsiya qisqardi.

Keyingi yillarda aholining migratsion harakatlanishi susayishi natijasida qishloq aholisi soni birmuncha ortdi. Bu jarayon ayniqsa, Farg'ona vodiysida yaqqol ko'zga tashlandi. Hududlarda aholining tabiiy o'sish darajasi differensiallashadi:

- o'lim asosan keksalar hisobiga ortdi. 2008-yilda 130,6 ming kishi o'lgan bo'lsa, bu boradagi ko'rsatkich 2012-yilda 6,8 ming kishiga ortdi;
- tug'ilish koeffitsiyenti asosan shahar aholisi o'rtasida tez pasaymoqda, qishloq aholisi o'rtasida esa sekinlik bilan bormoqda.

Respublikada o'tgan asrning 90-yillarida boshlangan o'rtacha bolalik jarayoni deyarli shakllanib bo'ldi, kam farzandlilik jarayonini to'la shakllantirish uchun esa 20-25 yil kerak va u 2020-2025-yillarda yakunlanadi.

Xullas, aholining kengaytirilgan takror ishlab chiqilishi (tug'ilishning o'limdan ko'pligi) natijasida mehnat resurslari soni ko'payadi. Ayrim hududlarda inson resurslarining miqdoriga aholi migratsiyasi ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Demografik omilning o'zgarib borishi global muammo bo'lib, u ko'p jihatdan jamiyatning holati va rivojlanishini belgilaydi.

2000-yilda sayyoramiz aholisining soni 6 milliard kishidan oshdi. Ko'payish sur'ati birmuncha qisqarayotganligiga qaramay, uning o'sish jarayoni davom etmoqda va 2050-yilga borib, 12 milliard kishiga yetishi mo'ljallanmoqda.

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitlarida aholi soni ancha kamaygan. MDHning Belarus, Ukraina va Qozog'iston kabi mamlakatlaridan farqli o'laroq, O'zbekistonda aholi soni oshib bormoqda. Bu yerda tug'ilish, tabiiy ko'payishning nisbatan yuqor koeffitsiyentlari va o'limning past koeffitsiyenti saqlanib qolmoqda, an'anaviy ko'p farzandli oiladan o'rtaicha farzandli oilaga o'ziga xos yo'l bilan demografik o'tish ro'li bermoqda.

1897-yilda O'zbekiston hududida atigi 3,9 mln. kishi yashar edi, ya'ni o'tgan 100 yildan sal ko'proq vaqt mobaynida bu yerda aholi 6,3 baravar ko'paydi. XX asrda O'zbekiston aholisining soni bir tekis oshgani yo'q. Uning dastlab ikki hissa ko'payish salkam 60 yil davomida, keyingi ikki hissa ko'payishi esa 20 yil ichida ro'y berdi. Respublika aholisi 2001-yilning oxiriga kelib, 1980-yildagiga nisbatan 1,6 barava ko'payishi kutilgan edi. Aholining uchinchi marotaba ikki hissa ko'payishi esa yuzag kelgan ko'payish sur'ati saqlangan taqdirda XXI asrning ikkinchi o'n yilligi oxirida ro'li berishi kutilmoqda.

Aholi ko'payishi bilan uning zichligi ham ancha oshmoqda. 1940-yilda har kv.km.ga 14,6 kishi to'g'ri kelgan bo'lsa, 2000-yilda 54,1 kishi to'g'ri keldi (zichlik 3,7 baravar oshgan). Hozirgi vaqtda O'zbekistonning 13 ta hududiy bo'linmasidan 10 tasi shu jumladan, Toshkent shahri aholi zich bo'lgan hududiy bo'linmalar jumlasiga kiradi.

Vaholanki, ular O'zbekiston hududining atigi choragini, aholi uncha zich bo'lmagan to'rtta viloyat esa to'rtidan uch qismini egallagan. Aholi nihoyatda zich bo'lgan mintaqalarga butun aholining, mehnat resurslari, iqtisodiy faol va ish bilan bog'liq aholi, tug'ilgan bolalar va aholi tabiiy ko'payishning beshdan to'rt qismi, yalq mahsulotning 74 foizi, investitsiyalarining 79 foizi va iste'mol xarajatlarining 88 foizi to'g'ri kelmoqda.

Aholining ko'payishi uni oziq-ovqat mahsulotlari va ichimlik suvi, ish o'rinlari bilan ta'minlashda qiyinchiliklar, shuningdek, ekologik oqibatlar va kasallik ko'payishini keltirib chiqaradi.

O'zbekistonning aholi nihoyatda zich bo'lgan mintaqalarida ishlab chiqaruvchi kuchlar eng yuqori darajada rivojlangan va yashashni ta'minlash shart-sharoitlari qulq bo'lgan hududiy bo'linmalar bor. Shu sababli aholining ko'payishi ularda ishsiz darajasiga nisbatan kamroq ta'sir etdi. Aholi nihoyatda zich bo'lgan mintaqal hissasiga respublika mehnat resurslarining 81 foizi to'g'ri kelayotgan bo'lsa, ishsizlik ular umumiy sonining atigi 55 foizidan iborat. Umuman, O'zbekiston bo'yicha rasm ishsizlik darajasi 0,5 foizni tashkil etayotgan bo'lsa, aholi nihoyatda zich bo'lgan mintaqalarda 0,8 foizni tashkil etmoqda.

Aholi zichligi past darajada bo'lgan mintaqalarda kamroq rivojlangan ijtimoiy iqtisodiy shart-sharoitlar, tor yo'naltirilgan tarmoq ixtisoslashuvi va ekotizimga put yetishining oqibatlari sezilartiroq.

Respublika aholisi sonining o'sishi uni shakllantirish manbalari bo'lgan tabiiy mexanik tarzda ko'payish bilan bog'liq. 1997-2008-yillarda respublikada aholini

yosh tarkibi ancha ilg'or bo'lib qoldi. Mehnatga layoqatli yoshga yetmagan bolalar va o'smirlar ulushi 2012-yil 1-yanvar holatida butun mamlakat aholisining 41 foizini, mehnatga layoqatli yoshdagilar ulushi 52 foizini, mehnatga layoqatli yoshdan kattaroqlar ulushi 7,5 foizini tashkil etdi.

Ko'payib borish ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan qishloq aholisi sonining doimiy oshib borishi va respublika aholisi umumiy miqdorida uning ulushi yuqoriligi O'zbekiston demografik rivojlanishining o'ziga xos xususiyatidir. Ayni qishloq aholisi respublika aholisining uchdan ikki qismini tashkil etib, birinchi navbatda tabiiy ko'payish, tug'ilish va chaqaloqlar o'limi hajmlarini belgilaydi.

Avvalo, qishloq joylarga xos bo'lgan tug'ilish darajasi yuqoriligi respublika hukumatidan alohida e'tiborni talab qiladi. Ko'p bolali oilalarga beriladigan nafaqalar, maktabgacha tarbiya va boshlang'ich ta'limning xizmat infratuzilmalarini kengaytirish, sog'liqni saqlash xizmatlarini keng yo'lga qo'yish chora-tadbirlari tug'ilish darajasi bilan bevosita bog'liq. Hukumat shuningdek, aholini ijtimoiy muhofazalash ustuvorligini va o'tish davrida jamiyatning keskin tabaqalanishiga yo'l qo'ymaslikni ta'minlash barobarida ko'p bolali oilalarni faqat nafaqalar hisobidan boqish mumkinligi bilan ko'p yillardan buyon bog'liq bo'lib kelayotgan boqimandalik kayfiyatlaridan jamiyatni xalos etishi lozim. Aks holda manzilsiz tus olgan va deyarli butun aholini qamragan, shu tufayli samaradorligi pasaygan ijtimoiy muhofazalash tizimidagi shusiz ham qiyin vaziyatni murakkablashtiradi.

2013-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra respublikada aholi soni 30,0 mln. kishini tashkil etdi va yil davomida 465 ming kishiga yoki 1,7 foizga ko'paydi. Aholining tabiiy o'sishi 465 ming kishini tashkil etdi. Aholi o'sishining qariyb to'rtidan uch qismi qishloq hududiga to'g'ri keladi. 2012-yilda migratsiya saldosi minus 28,9 ming kishidan iborat bo'ladi (2011-yilda minus 83,3 ming kishi edi).

2012-yilda tug'ilganlar soni 642,1 ming kishini tashkil etdi va 2011-yildagidan 9,1 ming kishi yoki 1,3 foizga kamaydi, respublika bo'yicha tug'ilish koeffitsiyenti 19,6 promillni tashkil etdi (2011-yilda 20,0 promill).

Tug'ilish darajasining pasayishi respublikaning ko'pgina hududlarida qayd etildi. Eng katta pasayish Surxondaryo (24,4 promilldan 22,4 promillga), Sirdaryo (22,8 promilldan 20,9 promillga) va Jizzax (23,4 promilldan 21,8 promillga) viloyatlarida kuzatildi. Tug'ilishning eng past darajasi esa, Qashqadaryo viloyatida (23,5 promillga) saqlanib qolmoqda.

#### **16.4. Mehnat bozorining rivojlanishi va uni tartibga solish**

Mehnat bozori bozor infratuzilmasida ishchi kuchini yollash va undan foydalanish bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy va mehnat munosabatlari majmui bo'lib, mehnatga bo'lgan talab va taklifda o'z ifodasini topadi.

Ma'lumki, mehnat bozorida uchta subyekt faoliyat ko'rsatadi: ish beruvchi, yollanma ishchi va davlat. Agar mehnat uzoq vaqt rejalashtirilgan iqtisodiyot sharoitida amalga oshirilishi natijasida qoloq professional iqtisodiyot, past mehnat unumdorligi hamda ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifning muvozanatsizligi oqibatlarini girdobida bo'lishi mehnat motivatsiyasi pasayib ketishiga olib keldi. Bu esa, ishchi kuchining sun'iy tanqisligini yuzaga keltiradigan yuqori mehnat sig'imi natijasi bilan bog'liq. Shu munosabat bilan rejalashtirilgan iqtisodiyot sharoitida davlat



monopolist sifatida ish haqining sun'iy pasaytirilgan darajasini qo'llab-quvvatlashni ma'qul ko'rdi, chunki bu u yuritayotgan siyosatini asosiy vositalaridan biri edi.

Mehnat bozorini o'rganish jarayonida quyidagilar juda muhim hisoblanadi: «iqtisodiy muvozanat» tushunchasi, mehnat bozori segmentatsiyasi, bandlik hajmining belgilanishi.

Mehnat bozorida iqtisodiy muvozanatning mohiyati quyidagilardan iborat: talab, taklif, ishchi kuchi bahosi va raqobat. Ishchi kuchiga bo'lgan talabning hajmi hamda mehnat resurslariga bo'lgan talabning hajmi mehnat resurslariga bo'lgan talab va ularning bahosiga bog'liq. Taklif esa, asosan, demografik xususiyatlarga asosan belgilanadi.

Mehnat bozorining asosiy ko'rsatkichlaridan biri raqobat quyidagicha belgilanishi mumkin: agrar talab va taklifning solishtirilish jarayonida taklif talabdan ko'proq bo'lsa, demak, raqobat mavjud bo'ladi. Uni ta'minlash uchun esa, birinchi navbatda tovar ishlab chiqaruvchilarda erkinlik bo'lishi lozim.

Mehnat bozorida iqtisodiy muvozanat shunday holatki, unda talab, taklif va ishchi kuchi bahosi egri chiziqlari bir nuqtada bir-birlarini kesib o'tadi. Egri chiziqlar bir-birlarini kesib o'tadigan nuqta esa, mehnat bozorida iqtisodiy muvozanat nuqtasi hisoblanadi. Lekin bozorning bunday holatda bo'lishi juda kamdan-kam uchraydi. Bu bozor sharoitlaridagi iqtisodiyotning iqtisodiy muvozanat emasligidan dalolat beradi. Mehnat bozorida iqtisodiy muvozanatda talab, taklif va ishchi kuchining qaysi holatida ishsizlik, qaysi holatida ishchi kuchi yetishmasligi kuzatiladi. Bunda mehnat bozorini boshqarishga bo'lgan ishchi kuchining muvozanatlashganini baholash juda katta rol o'ynaydi.

Bozor iqtisodiyoti nuqtai nazaridan, ish haqi darajasi ishchi kuchining narxi muvozanatlashgan narxdan yuqori o'rnatilganda taklifning talabga nisbatan ko'pligi paydo bo'ladi, talab oshgan sari ish haqi ham oshadi, talab kamaygani sari esa, ish haqi ham kamayadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, respublikadagi past darajali mehnat ta'minotiga ega bo'lgan xo'jaliklarda mehnat natijalari erkinligining yo'qligi past daromad olinishiga sabab bo'ldi, bu esa ularga ishchi kuchini takror ishlab chiqarish imkoniyatini bermaydi. Ayni shu sabablarga ko'ra, ushbu xo'jaliklarda ishchi kuchi tanqisligi sun'iy yo'l orqali paydo bo'ladi. Ishchi kuchi bilan yuqori darajada ta'minlangan xo'jaliklarga xos bo'lgan daromad olish tendensiyalari ayni ishchi kuchi bilan past darajada ta'minlangan xo'jaliklarga xos bo'lgan tendensiyalar bilan bir xil, faqat ikkinchi holatda ishchi kuchi ta'minoti bahosi va talabi ko'payishiga imkoniyat bo'lmaydi. Shuning uchun ham, bunday xo'jaliklarda ishchi kuchining ortiqchaligi yoki yashirin ishsizlik mavjud.

Mehnat bozoriga tegishli bo'lgan muhim masalalardan biri bandlik hajmini aniqlashdir. Bozor klassik nazariyasiga muvofiq, bandlik hajmi yalpi talab va yalpi takliflarning kesib o'tish nuqtasi orqali aniqlanadi. Ayni shu nuqtada kutilgan tadbirkorlik foydasi maksimal darajada bo'ladi. Bandlik hajmining o'sishi aholining iste'mol qilishga moyilligiga hamda ish joylarining ko'payishi uchun kerak bo'lgan investitsiyalar hajmiga bog'liq. Yalpi daromad o'sishi bilan iste'mol qilish ham o'sadi, shuningdek, jamiyatning yalpi investitsiyalar bilan bog'liq bo'lgan xarajatlari ham oshadi.



Agar to'g'ri bo'lsa, shaxsiy tomorqa xo'jaligida band bo'lgan ishchiga xususiy tadbirkor maqomi berilishi e'tiborga olinishi kerak.

Tarkibiy segmentatsiya tashqi bozorni regional va mahalliy bozorlarga taqsimlashdan iborat. Omilli segmentatsiya esa, asosan ichki bozorga taalluqlidir. Ikki bozordagi segmentatsiya ham birinchi navbatda quyidagilar bo'yicha amalga oshirilishi lozim: malaka bo'yicha; mulkchilik bo'yicha; ma'lumot bo'yicha; ish haqi bo'yicha; yosh jihatidan va boshqalar.

Bundan tashqari, ichki bozor birlamchi va ikkilamchi bozorlarga taqsimlanadi. Birlamchi mehnat bozori barqaror bandlik va ish haqining yuqori darajasi bilan belgilanadi. U asosan, ma'lumoti va malakasi yuqori darajada bo'lgan ishchilardan iborat. Ikkilamchi mehnat bozori esa, bandlik darajasining beqarorligi, ishchi kuchi bahosi va malakasining past darajasi bilan belgilanadi.

O'tish davri iqtisodiyoti oldida turgan dolzarb muammolardan biri mehnat bozorini shakllantirish va samarali rivojlantirishdir. Buning uchun, avvalo, ijtimoiy va iqtisodiy tizimlar rivojlanishining obyektiv qonunlaridan ongli ravishda foydalanish zarur.

Ma'lumki, taraqqiyot sahibi bo'lib xizmat qiluvchi inson – jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchidir. U bir vaqtning o'zida moddiy boyliklar va xizmatlarning ishlab chiqaruvchisi va iste'mol qiluvchisi bo'lganligi sababli, aynan uning tufayligina «ishlab chiqarish - iste'mol» tizimida muvozanatga erishiladi.

Faqat kishi ehtiyojini juda muhim deb bilgan va u samarali takror ishlab chiqarilishini ta'minlagan jamiyatgina eng yuqori taraqqiyotga erishadi. Jamiyatning boshqa barcha vositalari: mulkchilik shakllari, ishlab chiqarish va ilmiy salohiyat, moliya, narxlar va hokazolar ushbu asosiy maqsadga bo'ysunishi kerak. Bu degani, bugungi bozorga qarab iqtisodiy tizim harakatini to'g'ri mo'ljalga olish o'tish davrini tezlashtirish yoki sekinlashtirishdir.

Mehnat erkinligi va ixtiyoriyligi mehnat bozori shakllanishining asosiy shartidir.

Shu bilan bir qatorda mehnat bozorining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatayotgan bir qator iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, tabiiy-iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlar va omillar mavjudki, ularni quyida batafsilroq ko'rib chiqamiz.

Mehnat bozori shakllanishining asosiy iqtisodiy sharti bo'lib yollanma xodimlarni o'z ishehi kuchlariga nisbatan shaxsiy mulkchiliklari va ish beruvchilarning ish joylariga jamoa yoki xususiy mulkchiligi xizmat qiladi.

Bu o'rinda shuni nazarda tutish kerakki, mazkur subyektlar o'zaro almashuv munosabatiga kirishishiga ularning shaxsiy manfaatlari majbur qiladi, uning orasida esa shaxsiy iste'molchilik yotadi.

Ular ham o'z navbatida qayta takror ishlab chiqarishda aholi ijtimoiy-iqtisodiy turmushining faqat kerakli ijtimoiy ehtiyojini ifodalaydi.

Mehnat bozorining vujudga kelishi ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi muvozanatga erishish uchun o'zaro raqobat qilishga tayyor erkir. va teng huquqli sheriklar iqtisodiy munosabatlarda bo'lishlarini taqozo etadi.

Bozorda yollanma xodim va ish beruvchi shaxsiy erkinlik va iqtisodiy zaruriyat nuqtai nazaridan bog'langan hamda bir-birlariga qaram bo'lsalar ham bir-birlariga qarashib turadilar.

Ishchi kuchi talab va taklifi o'rtasida bozor muvozanatiga erishish mehnat bozorining shakllanishida hal qiluvchi iqtisodiy shartlardan biri hisoblanadi. Ammo bunday muvozanat mavjud emas. Buning asosiy sababi – taklif qilingan mehnatga layoqatli aholi sonining talab miqdoriga nisbatan tez o'sishidir. Iqtisodiyotning barcha sektorlaridagi tarkibiy o'zgarishlar hozirgi sharoitda mehnat bozorida ishchi kuchiga talab va taklifning yangi harakatini belgilovchi eng muhim iqtisodiy shartlardir hisoblanadi. Bular sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlarida yangi ish joylari yaratish va hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida sifat o'zgarishlarini asoslab beradi. Bunday sharoitlarda bir tomondan, mehnat bozorining yangi infratuzilmasi ko'p sonli mehnat talab qiladigan tarmoqlar va ishlab chiqarish bo'g'inlarini qamrab olsa, boshqa tomondan iqtisodiyotning an'anaviy sektorlarida bozor munosabatlarini vujudga keltiradi va rivojlantiradi.

Ishchi kuchi narxining o'zgarishi mehnat bozori shakllanishining muhim iqtisodiy sharti hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish amalga oshirilayotgan mamlakatlarda ish haqi haqiqiy darajasining pasayish tendensiyasi kuzatiladi. Nazariy jihatdan bunday vaziyatda ish haqini qiymatidan pastroq belgilash uchun qulay imkoniyatlar yaratiladi. Ammo bunday imkoniyatlardan foydalanishni davlat qonunchilik yo'li bilan «to'sib qo'yish»ga haraka qiladi. Shu maqsadda minimal ish haqi va kun kechirish uchun zarur miqdor darajas rasmiy ravishda belgilanadi. Bunday holda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyot normal faoliyat ko'rsatgan minimal ish haqi kun kechirish uchun zarur miqdor darajasidan kam bo'lmasligi kerak. Mehnat bozori konyunkturasi shakllanishining ijtimoiy shart-sharoitlari orasida yollanma xodimlar va ish beruvchilarning sifa ko'rsatkichlarini oshirish yetakchi o'rin egallaydi.

Agrosanoat kompleksi va xizmat ko'rsatish tarmoqlari ko'lamlarining kengayishi ularning intensiv rivojlanishi, o'z vaqtida moddiy-texnik va moliyaviy resurslar ta'minlanishi mehnatkashlar qayta tayyorgarlikdan o'tishini va yangi zamonaviy kasblarni (universal ishchi va xizmatchi, tadbirkor, menejment, marketing va hokazo) egallashlarini talab qiladi.

Demografik shart-sharoitlar ishchi kuchi taklifining shakllanishiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Masalan, yuqori darajadagi tug'ilish mehnat bozoriga aholi oqimi kelishir asoslaydi.

Ish beruvchi va yollanma xodim o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomasi (kontrakt) mehnat bozorida ishchi kuchini sotish, sotib olishning hal qiluvchi huquqiy shart

hisoblanadi. G'arb mutaxassislarining mehnat huquqi bo'yicha ilmiy ishlarida mehnat shartnomasi «xodimni ish haqi evaziga mehnat qilish majburiyatini olish va huquqiy bo'ysinishi mavjudligi haqidagi kelishuv» sifatida ifodalanadi.

Shartnoma xususiy xaridorlarning turicha ko'rinishi bo'lib, unga nisbatan fuqarolik huquqiga xos me'yorlar, qoidalar, konseptual konstruksiyalarni qo'llash imkoniyatlari va zaruratini asoslaydi.

2013-yilda ish bilan band mehnat resurslari soni 2012-yildagiga nisbatan 300,3 ming kishiga ko'paygan edi va hisob-kitoblarga qaraganda, 11628,1 ming kishini yoki mamlakat aholisining 27,2 foizini tashkil qildi. Ishga joylashtirilganlarning umumiy sonidan 58,3 foizi yoshlardan (16-30 yashar shaxslar) iborat.

Mehnat organlarida ro'yxatga olingan ish qidirayotgan fuqarolarning eng ko'pi Xorazm viloyatida (3,4 ming kishi) yoki respublika bo'yicha murojaat etganlar umumiy sonining 12,4 foizini tashkil qiladi. Ular Qoraqalpog'iston Respublikasida (3,3 ming kishi yoki 11,4 foizi) va Samarqand viloyatida (4,8 ming kishi yoki 16,1 foizi) qayd etildi.

Mehnat organlarida ro'yxatga olingan ish bilan band bo'lmagan fuqarolarning 16,2 ming nafari (ishga joylashtirishni so'rab murojaat etilganlarning 87,2 foizi) ishsizlik maqomiga ega bo'lgan.

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, 2010-yilda «Bandlik» dasturini amalga oshirish doirasida respublika bo'yicha 96,7 mingta (2009-yildagiga nisbatan 98,5 foiz) ish joylari tashkil etilgan.

Yangi ish joylari umumiy sonining 43,9 foizi korxonalar va tashkilotlarda, jumladan, 31,2 foizi kichik va o'rta biznes korxonalarida, 16,6 foizi fermer xo'jaliklarida, 9,9 foizi dehqon xo'jaliklarida, 29,6 foizi yakka tadbirkorlikda tashkil qilindi. Respublika bo'yicha tashkil qilingan yangi ish joylarining 69,9 foizi (576,5 mingta ish joyi) qishloqlarga to'g'ri keladi.

### **16.5. Respublika viloyatlarida mehnat bozorini tartibga solish**

Aholining bandligi ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi bozor munosabatlariga erishishni bildiradi. Bunday holda ishsizlikning yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan (tabiiy) darajasi vujudga keladi.

Bunday muvozanat ish beruvchilar va «mehnatga layoqatli» kishilarning iqtisodiy manfaatlari eng muqobil darajada amalga oshirilishini ta'minlaydi. Bunda ishchi kuchiga kasb-maiaka tayyorgarligi bo'yicha mos narxlar belgilanadi. Xuddi shular tufayli aholining bandligi, ijtimoiy takror ishlab chiqarish va ishchi kuchi qiymati asosida «mehnat qilish layoqati»ni bozorda sotish uchun taklif qilinganlarning turmush darajasi shakllanishi kam ta'minlanadi.

Respublikamizda aholi bandligi shakllanishiga hali to'la erishilgani yo'q. Bunga quyidagilar asosiy to'siq bo'lmoqda: davlat mulkini xususiy lashtirish samaradorligining past darajasi; iqtisodiyotda tub tarkibiy islohotlar va ishlovchilar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida bo'lishining sekinligi; mehnat haqi uning yakuniy natijalaridan uzilib qolishi; ish joylarining past sifatli moddiy-texnik jihozlar bilan ta'minlanishi; mehnatga layoqatli o'smirlar, ko'p bolali ayollar, nafaqaxo'rlar va nogironlar faoliyatining yetarlicha rag'batlantirilmaganligi; ishchi kuchi taklifi unga bo'lgan talabga nisbatan ko'proq o'sayotganligi; bo'sh ish joylari haqida ishonchli axborotlar kamligi va mehnat

bozorini samarali tartibga solish mexanizmi takomillashmaganligi. Ular orasida davlat mulkini xususiy lashtirish va xalq xo'jaligi tarmoqlarini tarkibiy isloh qilish yetakchi o'rinni egallaydi.

Vakant (bo'sh) lavozimlar va ish joylari mavjudligi haqida ishonchli axborotlarning kamligi band bo'lmagan aholini ishga joylashtirishni qiyinlashtiradi. Statistika idoralari faqat sanoat korxonalarini va xizmat ko'rsatish obyektlaridagi ish joylarining miqdori va tuzilishi bo'yicha axborotlar to'plash va ularni tahlil qilish bilan shug'ullanadi. Amalda sinalgan metodika yo'qligi tufayli qishloq xo'jaligi ish joylarining soni haqidagi axborotlarni yig'ish amalga oshirilmaydi.

Mehnat bozorida munosabatlarni tartibga solishning samarali mexanizmi mavjud emasligi aholining bandligi oqilona shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mavjud mexanizm esa bandlik oqilona shakllanishining asosiy shart-sharoitlarini to'liq hisobga olmaydi. Takomillashtirilgan yangi mexanizm esa quyidagi asosiy shart-sharoitlarning ta'sirini tartibga solishi lozim: ishchi kuchiga talabning oshishi va unga taklifning kamayishi, yollanma ishchi kuchiga mehnat haqi (narxi)ning eng past miqdorini aholi jon boshiga to'g'ri keladigan minimal iste'mol budjetidan kam bo'lmagan holda belgilash; mehnatga layoqatli o'smirlar, nafaqaxo'rlar, ko'p bolali ayollar va nogironlar bandligini oshirishni rag'batlantirish; ishsizlarning malakasi, raqobat qobiliyati va rentabelligini oshirish; bandlik xizmati infratuzilmasining samarali rivojlanishini ta'minlash va boshqalar.

Aholi bandligining oqilona shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan holatlaridan biri ayollar ishdan bo'shatish uchun birinchi nomzodlardir. Hisob-kitoblarimizga qaraganda, 2008-2012-yillar davomida ish joylarini yo'qotganlarning 60 %ini ayollar tashkil etadi. Shunday vaziyat vujudga kelmoqdaki, unda ayol birinchi ishdan bo'shatiluvchilar safida, ammo bo'sh joyga ega birinchi nomzod emas.

Bozor munosabatlarga o'tishda ayol ishsizligining o'sishi ko'pgina sabablar bilan izohlanadi. Ulardan eng muhimlari – ayol mehnatini qo'llash uchun ish joylari yetishmasligi; qishloq xo'jaligi ishlarida qo'l mehnati salmog'i yuqoriligi; yollanuvchilar malakasi darajasi va safarbarligi pastligi. Bular qishloq xo'jaligiga oid bo'lmagan mehnat bilan bandlikni murakkablashtiradi. Shuning uchun mehnat bozorida ayol ishchi kuchiga talab erkak ishchi kuchiga talabga qaraganda ancha kam.

Respublikamizda ayollar bandligini oshirishga yo'naltirilgan kompleks tadbirlarni o'tkazish lozim. U o'z ichiga ko'p bolali va yosh qizlar uchun yangi ish joylarini yaratish, ayollarni bolaga qarash davridan keyin kasbiy moslashtirish va ishlab chiqarishga qaytarish, bolasi bor ayollar malakasini oshirish uchun maxsus kurslar tashkil qilish, ayol mehnati sharoitini yaxshilash uchun sarmoyalar jalb qilishni rag'batlantirish kabi tadbirlarni qamrab olishi kerak. Bandlikni oqilona shakllantirishning barcha demografik, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa jihatlarini quyidagi mezonlarda o'z aksini topadi: ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasida bozor muvozanatiga erishish; qishloq xo'jaligi bo'lmagan ish joylarini ko'paytirish; iqtisodiy faol aholining mehnatda ishtirokini oshirish; mehnat unumdorligining o'sishini ta'minlash; qishloq aholisining mehnat daromadlarini ko'paytirish; ishsizlikni kamaytirish va boshqalar.

Mazkur mezonlar quyidagi ko'rsatkichlar yordamida aniqlanadi: mavjud va yangi yaratilgan ish joylarining soni; bajarilgan ish vaqtining miqdori; aholi jon boshiga ishlab

Yuqorida qayd etilgan mezonlar va ularning ko'rsatkichlaridan mehnatga layoqatli aholining viloyatlar bo'yicha iqtisodiyotda bandligini oqilona shakllantirishni tartibga solish mexanizmlarini belgilashi mumkin. 2011-yilda mintaqalar bo'yicha aholining iqtisodiy faolligi 0,7 % oshgan.

O'zbekiston hududlarida demografik rivojlanish sur'atining pasayishi kuzatilmoqda. Bunga asosan tug'ilish darajasining pasayishi sabab bo'lmoqda. Biroq bu pasayish mehnatga yaroqli aholi sonining umumiy aholi sonidagi salmog'i o'sish sur'atini hisobga olganda, ijobiy rivojlanish sifatida baholanishi mumkin.

Qoraqalpog'iston Respublikasida mehnatga layoqatli aholi orasida ishsizlar sonining o'sishi jadal sur'atlar bilan davom etib, 2011-yilda 1,1 foizni tashkil etdi. Umumiy aholi soni o'sishiga qaraganda ikki baravar tezroq kechgan bu o'sish respublikada ishsizlik muammosi borligini ko'rsatadi. Oxirgi olti yil mobaynida respublikada mehnatga layoqatli aholi sonining umumiy aholi sonidagi salmog'i 1,6 % ga oshdi va 2007-yilning dekabr oyiga kelib, 51 foizni tashkil etdi. Mehnatga layoqatli yoshdagilar orasida ish bilan band bo'lganlar salmog'i 2005-yilda 75,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2008-yilga kelib, 71 foizgacha kamaydi, Biroq 2008-yildan 2012-yilgacha bo'lgan davr ichida ish bilan band bo'lganlarning o'rtacha soni 6,3 foizga oshdi. Bunga asosan turli xizmat ko'rsatuvchi sohalarning – umumiy davlat boshqaruvi, banklar va sug'urta solig'ini saqlash, kommunal xizmatlar, savdo va umumiy ovqatlanish sohalari rivojlanib borishi sabab bo'ldi. Shuningdek, qurilish sohasida band bo'lganlar sonining 28 foizga oshishi qayd etildi, respublika qishloq xo'jaligida ish bilan band bo'lganlar soni umumiy ish bilan band bo'lganlar sonida eng katta salmoqni saqlab qolib, 2006-yilda 35 foizni tashkil etdi. 2008-2012 yillar davomida qishloq xo'jaligida ish bilan band bo'lganlar soni 9,1 foizga kamaydi. Boshqa tarmoqlarda sezilarli o'zgarishlar kuzatilmadi. Qoraqalpog'iston Respublikasida ro'yxatga olingan 1000 kishi hisobiga ish bilan ta'minlanganlar soni 2004-yilda 628 va 2012-yilda 681 kishini tashkil qilgan bo'lsa, shu davrda ro'yxatga olingan ishsizlar soni 1000 kishi hisobiga tegishli 257 va 261 kishiga to'g'ri keldi. 2013-yil boshida ro'yxatga olingan 1000 ishsiz hisobiga bosh ish joylari atigi 98 tani tashkil qildi. Respublika va ko'pchilik viloyatlar orasida bu borada katta farq kuzatildi.

2013-yil davomida ish bilan band bo'lganlar sonining eng katta yillik o'sishi davlat boshqaruvi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot va qurilish sohaslarida qayd etildi. Bu davrda ishchilar sonining eng sezilarli qisqarishi qishloq xo'jaligida kuzatildi va hokazo.

## 16.6. Malakali ishchi kuchiga talabni oshirish mexanizmi

Respublikamizning mehnat resurslari ortiqcha bo'lgan hududlari, avval Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Farg'ona, Namangan, Toshkent, Samarqand Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro va Xorazm viloyatlari uchun mazkur bozorni tartibga solishning ancha samarali usullari deb, ishchi kuchiga bo'lgan talabning oshirish va uning taklifi kamayishini hisoblash zarur.

Mazkur usullar nimalarda ifodalanishini batafsil ko'rib chiqaylik:

**Ishchi kuchiga talabni oshirish** uchun bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitlaridagi mulkni xususiy lashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish, iqtisodiyotimizni tarkibini o'zgartirish, zarar keltirib ishlayotgan korxonalarni tugatish, fan - texnika yutuqlari va intensiv texnologiyalarni joriy etish hisobiga asosan ishlab chiqarishdagi bo'shatilayotgan xodimlar - mehnatkashlar soni tez ko'paymoqda.

Ishchi kuchiga bo'lgan talabni oshirishni rag'batlantirish usullarini tadqiq etish mehnat resurslarining bandligini oqilona ta'minlashga, mazkur hududlar uchun samarali tarmoqlarni rivojlantirishga qaratilgan.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash va xarid qilish hamda agroservis xizmati ko'rsatish va shaxsiy mehnat faoliyati bo'yicha ish joylarini yaratish ishlab chiqarish kuchlari va bandlikning noan'anaviy shakllarini rivojlantirish, agrosektorida ishdan vaqtincha bo'shatilayotgan shaxslar uchun mavjud korxonalarni kengaytirish va qayta ta'mirlash hamda yangi ish joylarini yaratish bu jarayonning asosiy yo'nalishlaridir.

Ishchi kuchlariga talabni oshirishni agrosanoat majmuining mehnat resurslarini qayta taqsimlashdan manfaatdor tarmoqlarida ish joylarini yaratish hamda mavjudlarini qayta ta'mirlash va yangi, zamonaviy kasblarni egallashga sarmoyalarni to'g'ridan to'g'ri jalb qilish orqali tartibga solish mumkin. Dotatsiyalar, subsidiyalar va kreditlar agrosanoat majmui korxonalarini, ayniqsa, qayta ishlash korxonalarini qurish, texnik jihatdan qayta ta'mirlashning eng muhim yo'nalishlaridan biri - bu korxonalarning iqtisodiy manfaatdorligini oshirish, budjet to'lovlari va xodimlarning vaqtincha va qisman bandligi uchun ijtimoiy sug'urta badallarini kamaytirish, ularni qabul qilish jarayonini yengillash, bandlikning noan'anaviy shakllarini tashkil etish bilan bog'liq sarf-xarajatlarni to'lash kabi chora-tadbirlar yordamida amalga oshiriladi.

**Ishchi kuchlariga taklifni kamaytirish usuli.** Ishchi kuchlariga taklifni kamaytirishga, shuningdek, ularning mehnat bozoriga oqib kelishini qisqartirish va boshqa joyga ketishini rag'batlantirish hamda ish vaqti va mavjud ish joylarini jihozlash va rekonstruksiyalashga, shaxsiy mehnat faoliyatini rivojlantirish yo'li bilan xizma ko'rsatish sohasini kengaytirishga, shuningdek, ko'p bolali ayollar, mehnatga layoqatli nafaqaxo'rlar, nogironlar, o'smirlar va hokazolarga mos ish joylarini vujudga keltirishga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir. Shu tariqa ortiqcha mehnat resurslarini yuqorida aytib o'tilgan tarmoqlarga va ayrim maxsus ish joylariga jalb etish, ayni paytda ishchi kuchlarining kasbiy va malaka tarkibiga bevosita ta'sir o'tkazishi mumkin.

Muvaqqat ish joylarini yaratish va mulkchilikning turli shakllarini rivojlantirish aholi bandligini ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lganlar o'rtasida qayta taqsimlash orqali samarali ta'sir etish mumkin. Respublikamizda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida umumta'lim dasturlarini kengaytirish va o'qish muddatini uzaytirish



bilan kasbiy tayyorgarlikni yaxshilash, o'quv yurtlarida kunduzgi ta'lim olinadigan o'quv o'rinlarini ko'paytirish va kechki hamda sirtqi o'quvdagi talaba o'rinlarini qisqartirish, ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qiyotganlarga stipendiyalar, ayollarga bola parvarishi uchun to'lanadigan nafaqalar miqdorini oshirish, beriladigan ta'til muddatini uzaytirish, mehnat tajini hisoblashda ularga imtiyoz berish; nafaqaxo'rlar, nogironlar hamda ularni parvarishlaydigan shaxslarning nafaqalarini oshirish ishchi kuchlarining oqib kelishini kamaytirish chora-tadbirlari hisoblanadi.

Ish bilan bandlar orasida ish vaqti va ish joylari ishchi kuchlariga bo'lgan taklifni kamaytirish maqsadida qayta taqsimlanadi. Aholi bandligining xususiy va vaqtinchalik shakllariga o'tishni rag'batlantirishga ularga ham ish bilan to'la band qilingan shaxslarga mo'ljallagan ijtimoiy ta'minot turarini, ta'tillar va boshqa ijtimoiy kafolatlar miqdorlarini o'rnatish, kafolatlangan eng yuqori miqdordagi ish haqi bilan ta'minlash, har yili beriladigan ta'tillarni o'z vaqtida berish, ish kuni va ish haftasi davomiyligini qisqartirish orqali erishish mumkin.

Mamlakatimizning malakali mehnat resurslari yetishmaydigan mintaqalari – Qoraqalpog'iston Respublikasining Ustyurt zonasi va Jizzax, Sirdaryo viloyatlarida ishchi kuchlariga talabni kamaytirish hamda ular taklifini ko'paytirish maqsadga muvofiq usullardir.

Ushbu usullarning mehiyati quyidagilardan iborat:

*a) Ishchi kuchiga talabni kamaytirish usuli.*

Mazkur guruhga hududiy hokimiyatlarning u yoki bu mintaqalarida va tarmoqlarida ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish hamda yangi ish joylarini vujudga keltirishni sekinlashtirishga oid chora-tadbirlar, hususan, ortiqcha ishchi kuchlaridan foydalanganlik uchun qo'shimcha soliqlarni belgilash; qattiq kredit siyosatini o'tkazish; korxonaga xodimni ishga olganligi uchun bir martalik to'lovni joriy etish; ortiqcha ishchi va xizmatchilarni qisqartirishni rag'batlantirish va hokazolar kiradi. Bundan tashqari, ishchi kuchlariga talabni kamaytirishda mehnat unumdorligini oshirish va tejamkorlikka erishish ham o'ziga xos ahamiyatga ega.

Rivojlangan bozor munosabatlari sharoitlarida mehnat resurslaridan samarali foydalanish raqobat, foydani taqsimlash mexanizmi, soliq siyosati kabi umumxo'jalik mexanizmlari va dastaklari yordamida ta'minlanishi lozim.

Hozirgi paytda sanoat ishlab chiqarishi samaradorligini oshirishni rag'batlantirish maqsadida umumxo'jalik mexanizmlari yaxshi takomillashtirilganligini hisobga olib, mehnat resurslari uchun ilgari joriy qilingan to'lovlarni qayta tiklash maqsadga muvofiqdir. Ular mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish va shtatdan tashqari xodimlar sonini kamaytirishga ko'maklashadi. Bu xil to'lovlar korxonalar va tashkilot tomonidan shtatdan tashqari xodimlarni saqlash uchun qat'iy stavka shaklida o'rnatiladi. Shu bilan birga, ishchi kuchlarini takror ishlab chiqarishga sarf-xarajatlarni o'rinni qoplash uchun ijtimoiy sug'urtaga solinadigan soliq va ishsizlarni muhofaza qilish jamg'armasiga solinadigan maxsus soliqdan (ikkalasi ham mehnatga haq to'lash fondidan foizlarda) foydalanish mumkin. Ishchi kuchlarini takror ishlab chiqarishga sarf-xarajatlarning ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda qabul qilingan bunday tizimi jonli mehnatdan foydalanishning intensiv shakllarini ifodalaydi hamda bozordagi xodimning ijtimoiy jihatdan muhofazalanishi uchun zarur kafolatlarni yaratadi;

*b) Ishchi kuchlari taklifini ko'paytirish usuli.*

hozirgi snart-snarotlarda ishchi kuchlari taklifini mutlaq ko'paytirish, umuman, mumkin emas. Ishchi kuchlari taklifini ko'paytirishga qayta ishlash sarfati, xizmat ko'rsatish tarmoqlari va shaxobchalari hamda shaxsiy mehnat faoliyati sohalari rivoji jiddiy to'siq bo'lish mumkin.

Bundan tashqari, ishchi kuchi taklifi na kasb, na malaka tuzilmasi bo'yicha hudud iqtisodiyoti, noqishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tarmoqlaridagi jonli mehnatga talabning o'sish sur'atiga javob bermaydi. Shu bois ishchi kuchi taklifining sifat ko'rsatkichlarini oshirish lozim. Buning uchun esa, bandlik davlat xizmati va boshqa o'quv yurtlaridagi xodimlar malakalarini oshirishni tashkil etish, korxonalarining o'zidagi maxsus kurslarda kasb-korga o'rgatishni yaxshilash va ularga soliq to'lovida imtiyozlar berish, mahalliy kadrlar maxsus dasturini ishlab chiqish kerak.

Ishchi kuchlari taklifini rag'batlantirish xodimlarni ishga yollash va joylashtirishga yordamlashish usullarini qo'llash orqali ham amalga oshiriladi. Bu usullar tashkiliy tusda bo'lib, bo'sh ish joylari va ishga joylashish hamda qayta o'qitishga muhtoj fuqarolarning soni haqidagi ma'lumotlar bankini tashkil etishni, aholining ishga joylashish imkoniyatlari haqidagi axborotlar bilan ta'minlanishini, ishsizlarni ro'yxatga va hisobga olishni, kasbga yo'naltirishga oid chora-tadbirlarni ishlab chiqish va o'tkazish kabi yo'nalishlarni qamrab oladi.

Mehnat resurslari qayta taqsimlanishining ancha samarali usullari orasida turmush darajasini tartibga solish usulini alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Mazkur uslub hududlar moliyaviy resurslari hisobidan xodimlarning mehnat va uy-joy sharoitlarini hamda madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish darajalarini yaxshilash kabi tadbirlarni o'tkazib, ularni tartibga solish asosida tatbiq etiladi.

Mehnat bozoriga asosiy tasnif ishchi kuchiga talab va taklifning balanslanganlik ko'rsatkichi hisoblanadi. Ishchi kuchiga qo'shimcha talab shuni ko'rsatadiki, rasmiy mehnat bozorida ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasida tegishli disbalans kuzatiladi. Masalan, bu ko'rsatkich 2008-yilda 62,4 %, 2012-yilda 71,9 % ga ko'tarildi. Lekin mutlaq hisobda ishsizlar soni ko'paydi va 2012-yilda 16,1 ming kishini tashkil etadi.

Bozor iqtisodiyotida «ishsizlik kasali» doimiylikka ega. Bu esa og'ir ijtimoiy muammolarga olib kelishi mumkin. Ish bilan bandlikni faqat bozorcha kelishuv va mehnat almashuvi deb tushunish yetarli emas. Chunki ish bilan bandlik hayot tarzidan iboratdir. Ishsizlik kishi turmush tarzining tub o'zgarishidir. Bunda daromad bilan birga insoniy o'zgarishlar yuz beradi. Zero, ishsizlik katta ijtimoiy salbiy oqibatdir. Doimiy ishsizlik kambag'allikdan qashshoqlikka olib kelishi mumkin.

Ommaviy ishsizlik ijtimoiy salbiy oqibatlar bilan birga katta iqtisodiy ziyon keltiradi. Bu ma'lum darajadagi ishlab chiqarilmagan mahsulot qismidir, amaliy ma'lumotlarga ko'ra, ishsizlik 1 foizga oshsa, xalq xo'jaligi o'rtacha 2,5 foiz mahsulot yo'qotadi. Shuning uchun ishsizlikka qarshi kurashib, iloji boricha uning oldini olish zarur.

Bu sohadagi asosiy vazifa va investitsiya tovarlariga bo'lgan talabni oshirish lozim. Shuningdek, davlatning umumiy bilim darajasi va qayta o'qitishga qaratilgan chora-tadbirlari ko'lamini kengaytirish ishsizlikka qarshi kurashda juda qo'l keladi. Chunki bu ishchining har qanday sharoitga moslashishi, yalpi mehnat sharoitlariga ko'nika olishiga yordam beradi. O'zbekiston hududlari bo'yicha 2013-yilda yaratilgan ish o'rinlari 935,7 mingga yetdi.



Xususiy tadbirkorlik hisobiga 2013-yilda 4953,7 mingdan ziyod yangi ish o'rinlari tashkil etildi. Bu 2011-yildagiga nisbatan 14 foiz ko'pdir.

Qoraqalpog'iston Respublikasida 2012-yilda yangi 40000 ishchi o'rinlarining asosiy qismi kichik va o'rta biznes sohasida (19380 ta) yuridik shaxslar (5270 ta), tadbirkorlikda (7287 ta), dehqon xo'jaliklarida (3923 ta) va yangi obyektlarni qurish hisobiga (2570 ta) yaratildi.

Ishsizlik darajasiga ichki omillar bilan birga tashqi omillar ham ta'sir etadi. Kapital va tovarlar importi, eksport, albatta, ishsizlikni kuchaytirishi mumkin. Ishchilarning migratsiyasini olsak, chetga chiqish ishsizlikni kamaytirsa, chetdan ishchilarning kelishi ishsizlik ko'payishiga olib kelishi mumkin.

Qoraqalpog'istonda ishsizlikka qarshi qaratilgan ijtimoiy muhofaza o'tish davri xususiyatlari bilan ancha murakkablashadi va hajmi kengayadi. Qoraqalpog'iston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bo'yicha 2012-yilgi o'sishi tahlili shuni ko'rsatadiki, Qoraqalpog'istonda yaqin kelajakda iqtisodiyotda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi ortadi. Bu boradagi ko'rsatkich 2012-yilda 2011-yildagiga nisbatan 23,6 % oshgan. Ayniqsa, Amudaryo, Qo'ng'iroq, Kegayli, Chimboy va Shumanay tumanlarida sanoatning rivojlanish sur'atlari yuqoriligi shundan dalolat beradi.

#### **16.7. Ishchi kuchi taklifini kamaytirish chora-tadbirlari**

Bozor iqtisodiyotida mahsulot sifati birlamchi o'rinni egallaganidek, mehnat bozorida ham ishchi kuchi malakasi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Har bir ishchi kuchi egasi o'z tovarini iloji boricha yuqori narxda sotishga harakat qiladi. Aynan shu xususiyat raqobat kategoriyasini yuzaga keltiradi. Ma'lumki, raqobat bozor qonuni hisoblanib, iqtisodiyotni harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi.

Mehnat bozorida ham raqobatning o'rni nihoyatda katta. Raqobat ishchi kuchi egasidan o'z tovari sifatini oshirishni talab etadi, ya'ni ishchi kuchi egasi foyda ko'rish maqsadida o'z malakasini oshiradi va tanlagan sohasidagi bilimlarini chuqurlashtirishga harakat qiladi. Demak, raqobat ishchi kuchi unumdorligini oshiruvchi omil hisoblanadi, mehnat bozorida sifatni yaxshilaydi.

Bozorda raqobatda yutib chiqish eng asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi.

Buning uchun ishchi kuchi egasidan bir qancha fazilatlar, jumladan, o'z kasbining bilimdoni bo'lish hamda dunyoqarashining kengligi, kompyuter texnologiyalari va xorijiy tillardan kamida bittasini mukammal bilish va amalda ulardan oqilona foydalana olish, zamonaviy fan-texnika yutuqlaridan xabardor bo'lish va ularni amaliyotda qo'llay bilish, innovatsiya, yangilikka intiluvchan bo'lish, mehnat intizomiga qat'iy rioya etish va uni buzmaslik va hokozalar talab etiladi.

Mehnat bozorida raqobatning yuzaga kelishi quyidagi obyektiv shart-sharoitlarni taqozo etadi:

- birinchidan, erkin bozor iqtisodiyotining mavjudligi va amalda bo'lishini – bunda ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif erkin holda o'zgaradi, malakasiga qarab ishchi kuchini mustaqil tanlash imkoni tug'iladi, mehnat bozorida yetakchi o'rinni egallovchi mehnat birjalari erkin faoliyat ko'rsatadi. Bu mehnat birjalari iste'molchilarga malakali ishchi kuchini taklif eta oladilar;

- ikkinchidan, raqobatga kirishuvchilarning ko'pligi, qachonki, mehnat bozorida o'z tovari bilan qatnashuvi subyektlar ko'pchilikni tashkil etsa, raqobat o'z mohiyatiga ega bo'ladi. Xuddi shu holatda ular orasida raqobatga intilish kuchayadi. Har bir ish-tirokchi yangilik joriy etishga, mehnat unumdorligini oshirishning eng arzon, en maqbul yo'llarini izlab topishga harakat qiladi;

- uchinchidan, mehnat bozori faoliyatini erkinlashtiruvchi qonun va me'yor hujjatlarning mavjudligi va amaliyotda ulardan mukammal foydalanish. Bunda qonunlar mavjud qonunbuzarliklarga chek qo'yadi va mehnat bozorini oshkora ravishda yuzaga chiqarishni ta'minlaydi.

Respublikamiz iqtisodiyotidagi tub ijobiy o'zgarishlar mehnat bozorida raqobatchilik muhitini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Chunonchi boshqariladigan bozor iqtisodiyotidan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tish barcha subyektlarning mustaqil faoliyat ko'rsatishini ta'minladi, barcha sohalar faoliyatini erkinlashtiruvchi konstitutsion, huquqiy asoslar esa, subyektlarning mehnat huquqini mustahkamladi. Respublikada raqobatlashuvchi mehnat resurslari ham etarli va bir ko'rsatkich aholining tabiiy o'sishiga to'g'ri mutanosib (proporsional) tarzda o'zgarimoqda. Hozirgi kunda respublikamiz aholisi soni 27 million nafar atrofida bo'lib shundan 45 foizga yaqinini mehnatga layoqatli yoshdagilar tashkil etadi. Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi o'sishining to'rt dan uch qismidan ko'prog'i qishloq joylariga to'g'ri keladi. Respublika miqyosida aholining tabiiy o'sish ko'rsatkichi yil sayi pasayib bormoqda va bu iqtisodiyotimiz uchun ijobiy holat hisoblanadi. Ammo shunga qaramay, respublikamizda ishsizlar va ish joyini izlayotganlar bor. Rasmiy statistika ma'lumotlariga qaraganda, 2008-yilda ish izlovchi sifatida ro'yxatga olinganlar soni 42 ming kishini tashkil etgan. Bularning 73,6 foizi qishloq joylarida yashovchilardir.

Qishloq joylaridagi mehnat bozorining asosiy muammosi ishchi kuchi taklifining ishchi kuchi talabiga nisbatan ortiqchaligidir. Bunga sabab bu joylarda qishloq xo'jaligidan boshqa sohalarining yetarli darajada rivojlanmaganligidir. Shu sababl qishloq joylardan shaharlarga ish izlab kelganlar soni ortmoqda. Hozir qishloq joylardagi taxminan 2 millionga yaqin ortiqcha ishchi kuchi zaxirasi mavjud, ishsizlarning ham asosiy qismi qishloq joylarga to'g'ri keladi.

Keyingi yillarda respublikamizda ishsizlar sonining o'zgarib turishi kuzatilgan. Ma'lumotlarga qaraganda, bu ko'rsatkich 2008-yilning oxirida 34,8 ming kishini 2010-yilning oxirida 22,9 ming kishini, 2011-yilning oxirida esa 20,1 ming kishini tashkil etgan. Shunga mos ravishda bandlik ham ortgan. Mehnat bilan band aholining o'rtacha yillik soni 2010-yilda 11035,4 ming kishini tashkil yetgan bo'lsa, 2011-yilda bu ko'rsatkich 11328,1 ming kishiga etgan, ya'ni 102,7 foizga ko'paygan. Shun ta'kidlash joizki, bular respublika iqtisodiyotida ishsizlik muammosi yo'q, degar xulosani bermaydi. Demak, o'tish davridagi eng dolzarb muammolardan biri ishchi kuchiga bo'lgan talabning shakllantirilishidir. Albatta, bu muammoni hal etish asosari yangi ishchi o'rinlarini tashkil etishga bog'liq bo'lib, qishloq joylarda esa qishloq xo'jaligidan boshqa sohalar: tadbirkorlik va noishlab chiqarish sohalarini rivojlantirish muhim. Lekin hozirgi sharoitda barcha ishsizlar uchun yangi ishchi o'rinlarini yaratish juda qiyin. Shu sababl ularning bir qismini eksport qilish lozim.

Ishchi kuchi eksporti – ishchi kuchining biror mamlatkatga ma'lum muddatga shartnoma asosida foydalanish sharti bilan sotilishidir. U boshqa eksport tovarlaridan

ma'lum muddatga foydalanilishi bilan farq qiladi. Ishchi kuchi eksporti talaygina foydali jihatlarga ega. Chunonchi:

- mamlakatimizda ishchi kuchi taklifiga talab yetarli darajada emas. Ishchi kuchi eksporti esa, bu muammoni hal etishga yordam beradi. Eksport natijasida ishsizlar ma'lum ish bilan ta'minlanadilar;

- ishchi kuchini jahon bozoriga chiqarish raqobatchilik muhitining ancha sifatli, mukammal, ishonchlik kabi bir qancha talablarni qo'yadi. Bozordagi mavjud muddatli raqobatga bardosh bergan har qanday tovar, tabiiyki, ichki bozorda ham yuqori sifatga va yuqori qimmatga ega bo'ladi. Shu bilan birga jahon mehnat bozoriga tovarlar – ishchi kuchi eksporti ilg'or mamlakatlar tajribasini, zamonaviy mukammal texnologiyalar sirini yanada puxtaroq egallashda yuqori sifatga erishish, o'z kasbi bo'yicha zarur axborotlar hajmini kengaytirib, malakaviy samaradorlik darajasini mustahkamlash imkonini beradi;

- xorijiy mamlakatda malaka oshirayotgan ishchi kuchi egasida til o'rganish imkoniyati paydo bo'ladi;

- ishchi kuchi eksportidan kelgan tushum YAMMning tarkibiy qismi bo'lmish milliy daromad o'sishiga olib keladi;

- ishchi kuchi eksporti, o'z navbatida, malakali ishchi kuchi importining kamayishiga olib keladi. Natijada respublikamizning malakali ishchi kuchiga bo'lgan talabi o'z ishchi kuchi hisobiga qondiriladi va ortiqcha xarajatga hojat qolmaydi;

- eksport qilingan ishchi kuchi mamlakatga chet el valyutasi tushumini ko'paytiradi.

### **16.8. Mehnat bozorini tartibga solish mexanizmini takomillashtirish yo'llari**

O'zbekistonning eng muhim muammolaridan biri – aholini mehnat bilan band qilish hududiy dasturlari ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda. Har yili o'rtacha 350 ming yangi ish joylari, asosan aholining ko'payishi va yashirin ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan qishloq joylarda yaratilmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda ishsizlik ko'rsatkichlari yuqori emas: 0,4 foizni tashkil etadi.

Aholi bandligining tarmoqlar bo'yicha o'zgarishini tahlil qilish shuni ko'rsatmoqdaki, qishloq va o'rmon xo'jaligida ortiqcha ishchi kuchlarining boshqa sohalarga o'tishi natijasida bu sohalarda bandlar deyarli 10 %ga kamaydi. Aholi bandligining umumiy miqdori qurilish, uy-joy, kommunal xizmat xo'jaligi va maishiy xizmatning noishlab chiqarish turlarida, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta'minot sohalarida, shuningdek, bozor infratuzilmasi sohalarida, ya'ni, moliya, kredit, sug'urta muassasalarida, boshqaruv idoralarda o'sdi.

Xalq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha aholining ish bilan bandligi haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mehnat bilan band bo'lgan aholining sanoatdagi, qishloq xo'jaligidagi ulushi kamayib bormoqda. O'zbekistonda mehnat organlari tomonidan ishga joylashtirilganlar soni 2012-yilda 2008-yildagiga nisbatan 130,1 % ga oshgan.

Respublikada bandlik muammosining yechimi xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish istiqbollari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, shu nuqtai nazardan, ushbu sohaning rivojlantirilishi uchta asosiy maqsadni ko'zlaydi: mavjud

yaratilishi; norasmiy asosda ishlayotgan kichik korxonalarni asta-sekinlik bilan rasmiy sektorga birlashtirish.

Qoraqalpog'iston Respublikasida kichik biznes rag'batlantirilganda quyidagilar ta'minlanishi zarur:

***Kichik korxonalar ga bevosita moliyaviy yordam ko'rsatish.***

Respublikada ijtimoiy bozor infratuzilmasi rivojlanganligi nafaqat chet el sarmoyasi faoliyatiga, balki uning oqib kelishiga imkon ham tug'dirmasligi mumkin. Shuning uchun uning me'yorlarini saqlash va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan telealoqa, avtomagistral, birja tarmoqlari, lizing, vositachilik tuzilmalarini takomillashtirish va shakllantirish tuzilmalarini sarmoya bilan ta'minlash maqsadga muvofiqdir. Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, shu kabi faol tadbirkorlar uchun qo'llanilgan multiplikatsiya ta'sirida moddiy ishlab chiqarishning turli xil tarmoqlarida va xizmat sohaslarida yangi ish joylari yaratish imkoniyatlari ko'payadi. Ishchi kuchining mehnat bozorida davomli taklifi demografik rivojlanishga bog'liq bo'ladi, shu bilan ta'lim, sog'liqni saqlash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohaslaridagi bevosita davlat siyosati ta'siriga, soliq, pul-kredit, hududiy siyosatga ham to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi.

Bu bandlik ta'minlanishida mehnatni tartibga solish milliy siyosati asosida majmuali yondashuv tushuniladi. Shunga muvofiq, ushbu siyosatning maqsadlari strategiyasi (qisqa, o'rta va uzoq muddatli) aniqlanadi. Yaqin kelajakdagi tadbirlar dasturi ishsizlarga vaqtincha moddiy yordam ko'rsatish bilan ularga ko'mak berish va ishsizlikning oldini olish masalalarini o'z ichiga olishi kerak. Ishchi kuchiga talabni rag'batlantirish, yangi ish joylarini yaratish va sarmoya faoliyatini rivojlantirish, ish haqi va daromadlarni tartibga solish o'rta muddatli rejada bosh bo'g'in hisoblanadi.

Uzoq muddatli davomli mehnat qilishni xohlaganlarning hammasiga erkin, unumdor (daromad) bandlik uchun kerakli bo'lgan sharoitlar yaratish ko'zda tutiladi. Butun iqtisodiyotning rivojlanishini ta'minlash avvalo, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy qilishga, ya'ni talabga ko'ra, zaruriyatni hisobga olgan holda, ishchi kuchining malakasi, kasbiy bilimi mahorati va saviyasiga bog'liq bo'ladi.

Birinchidan, mehnat bozoriga chiqadigan, ayniqsa, avval uy xo'jaligida va norasmiy sektorlarda band bo'lgan barcha toifadagi ishchi kuchining zamonaviy maxsus kasb-hunar bilan qamrab olinishini ta'minlash zarur.

Ikkinchidan, mehnat bozoriga ishchilarning raqobatbardoshligini va moslashuvchanligini oshirish, kerak bo'lganda kasbiy yoki mehnat faoliyatini almashtirish uchun shart-sharoit yaratish maqsadida tor doiradagi mutaxassislikdan kompleks kasblarga tayyorlash va yangi texnologiya bo'yicha o'qitishga o'tish lozim. Bu, birinchi navbatda, bo'shatilgan ishchilarga tegishli bo'lsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Uchinchidan, kasb ta'limining milliy tizimi mehnat bozori ko'rsatkichlari va talablariga javob berishi va unda ma'lum kasb yoki mutaxassislikka oid ishchi kuchiga bo'lgan talab to'liq hisobga olinishi kerak.

Ishsizlikda, tavsakkalli yoki majburiy bandsizlik ham mavjud bo'lib, unga nogironlar, yosh bolali onalar, malakasiz ishchilar, kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lmagan yoshlar duchor bo'ladi.

Nogironlarni unumli band qilish maqsadida ularning imkoniyati cheklanganini va mehnatga layoqatlilik darajasini baholab, ishga joylashishiga ko'maklashish lozim. Bunda ish beruvchilarning qiziqishlarini oshirish uchun majburlash choralariga nisbatan moliyaviy va boshqa rag'batlantirishlar samaraliroq hisoblanadi. Bularga rioya qilmagan korxonalar nogironlarni reabilitatsiyalash jamg'armasiga jarima to'laydilar. Tushgan mablag'lar nogironlarni kasbiy reabilitatsiyalash bo'yicha xizmatlarni moliyalashtirishga, kvotadan ortiq joylarni yaratadigan ish beruvchilarni rag'batlantirishga, maxsus ustaxonalarni jihozlashga va pul bilan ta'minlashga sarflanadi.

Yosh bolali ayollarni muvaffaqiyatli va ishga oqilona joylashtirishning o'ta muhim jihatlari mavjud:

- xizmatlarni arzon bahodagi maktabgacha tarbiya muassasalarining mavjudligi;
- mehnat bozori tomonidan talab qilinadigan ta'lim va malakani oshirish;
- ishlab chiqarishdagi mehnat bilan bolaga qarash va uy xo'jaligini olib borishga imkon beradigan tartibli ishlar uyg'unlashuvini tashkil etish.

Yoshlarni malakali o'qitish bilan ularning shaxsiy korxonalari yaratilishini uyg'unlashtiradigan dasturlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Bu samarali usul bo'lib, unga yoshlarni kasbiy yo'naltirishda ularning mehnat bozoriga kirishidan oldin tayyorlash yo'li bilan asosiy ijtimoiy hayotga hozirlash orqali erishildi.

Mehnat resurslari bilan ko'p ta'minlangan respublikamiz mehnat bozori rivojlanish konsepsiyasining asosiy maqsadi – mehnatga layoqatli aholi bandligi kamayishi, ishsizlik o'sishi, yangi ish joylari kam yaratilishi, mehnat unumdorligi pasayishi, inflyatsiya mavjudligi, mulkchilikning turli shakllari sekinlik bilan amalga oshirilishi, haqiqiy mehnat daromadlari kamayishi kabi sharoitlarda ishchi kuchiga talabni oshirish va uning taklifini kamaytirish bo'yicha kompleks tadbirlar ishlab chiqishdan iborat. Ular o'tish davrida O'zbekiston milliy iqtisodiyotini chuqur tarkibiy o'zgartirish va erkinlashtirishning, isloh qilishning strategik maqsadlariga asoslanib ishlab chiqiladi.

Buni hisobga olgan holda mazkur konsepsiyaning strategik maqsadlari qilib quyidagilarni belgilash mumkin:

- ijtimoiy yo'naltirilgan mehnat bozorini bosqichma-bosqich shakllantirish;
- ish bilan band bo'lmagan mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta'minlovchi hamda ishchi kuchiga talab va taklifni tartibga soluvchi mustahkam rivojlangan mahalliy va xorijiy bandlik xizmati tashkilotlari tizimini takomillashtirish;
- yangi ish joylarini tashkil etishga, aholining bandlik darajasini oshirishga va ishlab chiqarish salohiyatidan unumli foydalanishga asos bo'luvchi chuqur iqtisodiy tarkibiy islohotlarni shakllantirish;
- aholining ish bilan bandligini oqilona shakllantirish;
- qayta ishlash sanoati, xizmat ko'rsatish va shaxsiy mehnat tarmoqlarida yangi ish joylarini yaratish va o'smirlar, ko'p bolali ayollar, nafaqaxo'rlar va nogironlar uchun mehnatning kafolatlashtirilgan mintaqalarini tashkil etish;
- ishchi kuchiga bo'lgan talabni oshirish va ishsizlikning kamayishini ta'minlovchi kichik va o'rta biznes hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish;
- mulkchilikning ijara, jamoa, hissadorlik va xususiy shakllari va shaxsiy yordamchi xo'jaliklarini rivojlantirish;

texnologiya va xizmat ko'rsatishni mahalliy va xorijiy samarali texnologiya va texnika bilan ta'minlash;

- sanoat korxonalarini va ishlab chiqarish ijtimoiy infratuzilmasi obyektlarini vujudga keltirish;

- mahalliy xodimlarning malakasini, raqobatbardoshligini va chet elga yuborilishi ko'lamini oshirish, ularda yangi iqtisodiy, ma'naviy va mafkuraviy tafakkurni shakllantirish;

- har bir shisizga ixtiyoriy va mustaqil ish joyini tanlash va mehnat qilish imkoniyatlarini yaratish;

- mehnat bozori, ishsizlik va aholi bandligidagi jarayonlarni tartibga soluvchi iqtisodiy, tashkiliy va xususiy mexanizmlarni takomillashtirish.

Mazkur maqsadlarga uzluksiz erishish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi mehnat bozori rivojlanishining asosiy bosqichlari va vazifalarini aniq belgilash zarur.

### **Qisqacha xulosalar**

Ijtimoiy yo'naltirilgan mehnat bozorini bosqichma-bosqich shakllantirish mehnatga layoqatli ish bilan band bo'lmagan aholini ish bilan ta'minlovchi hamda ishchi kuchiga talab va taklifni tartibga soluvchi mustahkam rivojlangan mahalliy va xorijiy bandlik xizmati tashkilotlari tuzimini takomillashtirish; yangi ish joylarini tashkil etishda aholining bandlik darajasini oshirishga va ishlab chiqarish salohiyatidan unumli foydalanishga asos bo'luvchi chuqur iqtisodiy-tarkibiy o'sishlarni amalga oshirish; aholining bandligini oqilona shakllantirish, qayta ishlash sanoati, xizmat, sifat va shaxsiy mehnat sektorlarida yangi ish joylarini yaratish, mehnatga layoqatli o'smirlar, ko'p bolali ayollar, nafaqaxo'rlar va nogironlar uchun mehnat kvotalashtirilgan tarmoqlarni tashkil qilish, ishchi kuchiga talabni oshirish va ishsizlikning kamayishini ta'minlovchi kichik va o'rta biznes hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga asoslanadi.

Xulosa qilib aytganda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni mahalliy va xorijiy samarali texnologiya, texnika bilan ta'minlash, sanoat korxonalarini va ishlab chiqarish ijtimoiy infratuzilmasi obyektlarini vujudga keltirish, mahalliy xodimlarning malakasini, raqobatbardoshligini oshirish, chet elga yuborilishini ko'paytirish, ularda iqtisodiy, ma'naviy va mafkuraviy jihatdan yangicha tafakkurni shakllantirish masalalarini hal etish asosiy vazifalardan bo'lib qoladi. Viloyatlarda mehnatga layoqatli aholining ish bilan bandligi pasayishi, ishsizlikning o'sishi, yangi ish joylarini yaratish va qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish miqdorining qisqarishi, mehnat unumdorligining pasayishi, inflyatsiya, mulkchilikning turli shakllari sekinlik bilan vujudga kelishi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar (yaqin kelajakda ham agrar sektor mavqeining saqlanib qolishi) mehnatdan olinadigan haqiqiy daromadlarning kamayishi kabi holatlar vujudga kelgan sharoitlarda ishchi kuchiga talabni oshirish, ya'ni undan samarali foydalanish va uning taklifini pasaytirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish taqazo etiladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mintaqa mehnat bozorini tartibga solishning nazariy asoslari nimalardan iborat?

2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mintaqada bandlikni tartibga solishning nazariy asoslari nimalardan iborat?
3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mintaqada mehnat bozorini tartibga solishning amaliy asoslari nimalardan iborat?
4. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mintaqada bandlikni tartibga solishning amaliy asoslari nimalardan iborat?
5. Mehnat bozorini tartibga solishning iqtisodiy ahamiyati nimada?
6. Mehnat bozorini tartibga solishning ijtimoiy ahamiyati nimalardan iborat?
7. Mehnat resurslari turkumlanishi mumkinmi?
8. Mehnat bozorini tartibga solish xususiyatlari nimalardan iborat?
9. Mehnat bozorini tartibga solish shart-sharoitlari nimalardan iborat?

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. Karimov I. "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi" // Xalq so'zi, 2014-iy 18-yanvar.
2. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. // Xalq so'zi. 2009-yil 14-fevral.
3. Ishmuxamedov A.E va boshqalar. Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari. Darslik – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jam'armasi nashriyoti, 2005.
4. Yo'ldoshev Z. Milliy iqtisodiyot. -T.: Mehnat, 2004, 168-b.
5. Ishmuxamedov A.E. O'zbekiston milliy iqtisodiyoti. Darslik – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jam'armasi nashriyoti, 2005. - 304 b.
6. Ishmuxamedov A.E. va boshqalar. Makroiqtisodiyot. Darslik – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jam'armasi nashriyoti, 2005. - 192 b.
7. Tuxliyev N. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. -T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 280 b.
8. Internet veb-saytlari.  
[www.ceep.uz](http://www.ceep.uz)  
[www.bearingpoint.uz](http://www.bearingpoint.uz)  
[www.pca.uz](http://www.pca.uz)  
[www.micro-macroiqtisodiyot.fan.uz](http://www.micro-macroiqtisodiyot.fan.uz)

## 17-bob. HUDUDIY IQTISODIYOTNING RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

### 17.1. Hududlarning innovatsion strategiyasini aniqlash uslubi

Hududiy innovatsion strategiya makro va mikroinnovatsion strategiyala oralig'idagi strategiya hisoblanadi. Uning roli har qanday ishlab chiqarish va innovatsion jarayon o'zining hududiy joylashuviga egaligida bo'ladi. Davla darajasidagi makrostrategiya markazlashgan resurslarni aniqlash, hududdagi korxonalar va tashkilotlarga joylashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Bu korxonalar va tashkilotlarda mahalliy xomashyolar, ishlab chiqarish va mehnat resurslari hamda infratuzilmalardan foydalaniladi. Agar ko'rsatilgan elementlarda birortasi yetarli darajada rivojlanmagan bo'lsa, bunda mazkur hudud mikroinnovatsiya strategiyasini amalga oshirish chegaralanib qoladi. Makrodarajadagi hududiy muammolarni hisobga olishning zaruriy qirralaridan biri har qanday davlatning alohida hududlarini rivojlantirishga ahamiyat berishdir. Aks holda, alohida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy chegaralash hududiy muammolarning keskinlashuviga olib keladi. Sobiq SSSR, Yugoslaviya, Hindiston, Braziliya, Kanada va boshqa mamlakatlardagi holat buning misolidir.

Agar makrodarajalar va mikrodarajalar innovatsiyaga nisbatan ko'rib chiqilsa unda hududiy rivojlanish bu holatda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Har bir hudud o'zining shaxsiy manfaatlariga ega bo'ladi. Shunday qilib, hududiy strategiyani qo'llanish va amalga oshirish zarurligi jihatidan muvofiqlashtiruvchi to'rt asosiy omilni ajratish mumkin:

- makroinnovatsiya hududiy strategiyalarining nuqtai nazarlari;
- hududiy rivojlantirishning davlat siyosati;
- hududlar rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy maqsadlari;
- korxonalarining mikroinnovatsiya strategiyasi.

Hududiy innovatsiya strategiyasining tashkiliy ta'minotidan foydalanishi.

Hududiy innovatsiya strategiyasi makro va mikrodarajada shakllanganligi munosabati bilan tashkiliy tuzilmalar tomonidan bu strategiyalarni shakllantirish jarayonining boshqarilishi ham shu darajalarda bo'lishi lozim.

Hozirgi makrodarajada mavjud bo'lgan tashkiliy shakllantirish ilmiy-texnik taraqqiyotining boshqarilishida biroq bo'lsada, shu modellashtirishning hududiy jihatlari bilan bog'liq. Ayrim mamlakatlarda hududiy innovatsiya jarayonlari boshqaruv bo'yicha maxsus davlat organlari tuzilgan. Masalan, Kanada ilmiy-texnika federal va provinsial qo'mitasi.

Bu strategiyani tanlagan tashkilot turli tarmoqlarda radikal innovatsiyani amalga oshirish hisobiga raqobatli imtiyozni shakllantirishga harakat qiladi. Radikal innovatsiyani amalga oshirgan tashkilotlar yangi segment yaratish hisobiga yuqori daromadni yaratish imkonini qo'lga kiritadi. Bu borada yangi texnologiyani qiziqqa tashkilotlarga sotish muqobil hisoblanadi.

Statistika shuni ko'rsatadiki, innovatsiyani yaratish va tatbiq qilish bir tomondan yuqori darajadagi tavakkalchilik hisoblangan, boshqa tomondan, iqtisodiy rivojlarga mamlakatlarda investitsiya o'rtacha darajada 3 barobardan ziyod daromad keltiradi.

Rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda investitsiya bilan innovatsion firmalar shug'ullanish qanchalik foyda keltirishini allaqachon bilganlar. Bu, odatda **venchu**



investitsiyalari holida amalga oshiriladi. Uning g'oyasi shundan iboratki, venchur kapitalistning investitsion portfelida mavjud turli-taman loyihalar orasiga tavakkalchilik taqsimlanadi va innovatsiyadan kelib tushadigan yuqori daromadlar orqali qoplanadi. Masalan, venchur kapital hisobiga tashkil topgan Digital Equipment Amerika innovatsion kompaniyasining aksiyalari 10 yil ichida 750 martadan ziyodga qimmatlashdi.

Venchur investitsiyalash tavakkalchiligini pasaytirishning asosiy usuli – oldingi bosqichning natijalariga qarab, bosqichma-bosqich moliyalashtirishdir. Shu bilan birgalikda har bir «qo'porish» oldingiga nisbatan ko'p bo'lishi kerak. Innovatsion biznesni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi texnologik park shaklini olmoqda. Bu birinchi marta AQSHda paydo bo'lgan va u bilan birga infratuzilmada innovatsion tashkilotlar tomonidan ma'qul shartlar asosida kerakli uskunalar, laboratoriyalar, xonalar, ixtisoslashtirilgan axborotlar manbalari mavjud bo'lgan. Radikal texnologiya yoki mahsulot yaratishda muvaffaqiyatga erishgan innovatsion firmalarning katta muammolaridan biri ishlab turish, ya'ni «tirik qolish» hisoblanadi. Elektronika va kompyuterlar sohasida AQSHdagi yuzlab innovatsion firmalardan faqat bir necha o'ntasi ahamiyatli natijaga erishdi va faqat «Apple» kompaniyasi kuchli xalqaro tashkilotga aylanishga muvaffaq bo'la oldi.

Shu dalil ahamiyatliki, 70 %dan kam bo'lmagan tadqiqotlar baquvvat (mustahkam) yirik tashkilotlar laboratoriyasida o'tkaziladi, radikal innovatsiyalar esa tadbirkor-innovatorlar tomonidan kichik firmalarda amalga oshadi. Bunga ko'plab izoh ko'rsatish mumkin. Chunonchi: birinchidan, tadbirkor kuchli ichki motivatsiyaga ega va unda 2 ta muqobil mavjud: yutish yoki yutqazish; ikkinchidan, avtonom va yirik tashkilotlarda tashkil topgan madaniyat unga ta'sir qilmaydi; uchinchidan, kichik firma katta tavakkalchilikka yo'l qo'yishi mumkin, chunki u hech narsani yo'qotmaydi. Biroq qator katta tashkilotlar bunga yo'l qo'ya olmaydilar, chunki buning xatari «ongli» darajada yuqoridir.

### **17.2. Hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishdagi innovatsion shart-sharoitlar**

O'zbekiston va uning mintaqalarida vujudga kelgan iqtisodiy sharoitlarning innovatsion jarayonlari o'z-o'zini faollashtirish uchun to'liq zaminga ega emas. Ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirish uchun iqtisodiy mexanizm yaratilmagan, ishlab chiqarish sektori uchun investitsiya zaxiralarini to'plash mexanizmi ham mavjud emas, shuningdek, kapitalning tarmoqlararo aylanishini tashkil qila oladigan investitsiya institutlari shakllanmagan. Bularning hammasi O'zbekistondagi innovatsion jarayonni jonlantirishga qodir investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmini yaratish zarurati keltirib chiqaradi.

Iqtisodiyotni jadallashtirish sharoitlarida mazkur mexanizm bir necha blokni o'z ichiga olishi kerak:

- markazlashtirilgan kapital qo'yilmalarni (davlat va mahalliy budjetlardan) oqilona taqsimlashga va ulardan samarali foydalanishga yordam beradigan iqtisodiy vositalar va tashkiliy choralar;
- investitsiya faoliyatining moliyaviy bazasini mintaqaviy darajada mustahkamlashning iqtisodiy mexanizmi;

korxonalar va tashkilotlarning xususiy jamg'armalari o'sishiga ko'maklashadigan iqtisodiy usullar;  
xususiy tadbirkorlar investitsion faolligini rag'batlantirishning iqtisodiy mexanizmi;  
aholi jamg'armalarini iqtisodiyotni investitsiyalash maqsadlariga jalb etish qurollari;  
to'g'ridan-to'g'ri va zayomli chet el investitsiyalarini jalb qilish bo'yicha choralar.

Investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmi o'z yo'nalishidagi turli kanallarni harakatga keltiradi va rag'batlantirib, bir vaqtning o'zida bir necha yo'nalishda amal qiladi. Bunda avvalambor, kapital harakatini to'g'ridan-to'g'ri boshqarish tizimini o'zlashtirish zarur.

Masalan, markazlashtirilgan kapital qo'yilmalarning taqdim etilishi qoidadan ko'ra ko'proq istisno bo'lib qolishi kerak. Shuningdek, investitsiya loyihalarining samaradorligi va ularning tuzilmaviy siyosatga muvofiqligi markazlashtirilgan kapital qo'yilmalar ajratishning asosiy mezon bo'lib qolishi zarur.

Bozor munosabatlari sharoitida kapital, ayniqsa, uning markazlashgan manbalari uchun eng muhim iqtisodiy dastak – kredit tizimidir. Kredit tizimi mexanizmi kredit aktivlari diforsasiyasi, kredit hajmlari va foizlarining pasayish tomon o'zgarishi, ularni tanlov asosida taqdim etish tizimi orqali harakatga keladi. Ssuda foizi stavkalari va shart bo'lgan bank zaxiralari me'yoring boshqarilishi inflyatsiya darajasiga, narxlar dinamikasiga, milliy valyuta kursiga, kapital va mahsulot eksporti hamda importiga ta'sir etadi. Uzoq muddatli kreditlashni rivojlantirish uchun uning yangi shaklini – garov asosida kreditlashni joriy qilish va undan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ham milliy, ham xorijiy xususiy tadbirkorlik kapitalining davlat tomonidan boshqarilishi va iqtisodiy rag'batlantirish tizimi investitsiya siyosatini amalga oshirish bo'yicha butun iqtisodiy mexanizmga muhim qismga aylanishi zarur. Masalan, Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarida iqtisodiyotning tezkor sur'atlarda rivojlanishi, xususiy tadbirkorlikning shiddatli o'sishiga xususiy sektor uchun imtiyozli iqlim mavjudligi sabab bo'lmoqda. Sabab aynan qulay investitsiya iqlimi xususiy biznes ishchanligining yuksak darajasini qo'llab-quvvatlaydi. Imtiyozli investitsiya rejimining bir qancha ustunliklari bor: milliy lashtirish kafolat yoki kapitalning to'liq qaytarilishi; foydaning repatriyasi kafolati; bojxona proteksionizmi; liberal soliqqa tortish va boshqalar.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda "Chet el investitsiyalari to'g'risida" gi Qonun amal qilmoqda. Ma'lumki, xususiy kapitalni ma'muriy usullar yordamida iqtisodiyotni rivojlantirilishi zarur bo'lgan hududlar, tarmoqlar va ishlab chiqarishga yo'naltirib bo'lmaydi. Xususiy kapital iqtisodiyotning katta boshlang'ich qo'yilmalarni talab qilmaydigan, sarmoyaning tez qoplanishini ta'minlaydigan, ishonchli sotuv bozoriga ega bo'lgan eng daromadli sohalariga intiladi. Bunday sohalariga savdo-vositachilik faoliyati, uy-joy qurilishi, qishloq xo'jaligi xomashyosini qayta ishlash va boshqalar kiradi. Bu borada shuni ham nazarda tutish kerakki, "Kalta" pullar bozori to'yinib bo'ldi va yirik moddiy ishlab chiqarishga tobora ko'proq mablag'lar kiritishni mo'ljallamoqda. Xususiy kapital iqtisodiyot ehtiyojlari va foyda olish imkoniyatiga ancha aniqroq javob beradi. Shuning uchun xususiy kapital davlat amaldorlaridan ko'ra, "o'sish nuqtalari"ni yoki investitsiyalash ustuvorliklarini ancha aniqroq topadi. Demak, xususiy kapitalni

investitsiyalash jarayonidagi ustuvor yo'nalishlardan biri erkin aylanishni ta'minlaydigan puxta tashkiliy-iqtisodiy mexanizmdir. Jahon tajribasini, shu jumladan rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasini o'rganish ko'rsatmoqdaki, fiskal imtiyozlar tizimining shakllanishi davlatning takror ishlab chiqarish jarayonida tutgan o'rnini, sanoatlashtirish, tuzilmaviy qayta qurish, iqtisodiyotni zamonaviylashtirish, bandlik va h.k. muammolarni hal qilish xususiy kapitaldan foydalanish bilan bog'liq.

Soliq siyosati ko'p jihatdan umummilliy masalalar va mintaqaviy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlari bilan o'zaro bog'lanishi zarur. Shu bilan birga soliq rag'batlantirilishini faqat davlat strategiyasi taraqqiyoti yo'lida ko'zdan kechirish yaramaydi. Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarida soliq siyosati va xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish amaliyotining g'oyaviy asosi soliq bo'lib, u investitsiyalarga yo'naltiriladigan daromadlarni kamaytiradi. Shuning uchun xususiy sektorga katta soliq solish qonunga aylangan. Soliq preferensiallari hisobiga investitsion tovarlarning narxlarini pasayadi, soliq to'langanidan keyin esa xususiy kapitalning foyda me'yori natijasida kapital qo'yilmalar ham o'sadi.

Soliqning rag'batlantirish tizimi O'zbekistonda ham ancha rivojlangan. Bunga eng katta foydalarga da'vo qilayotgan xorijiy kapital bosimi ham sabab bo'ldi. Xususiy milliy kapitalning investitsion faolligini rag'batlantirishga qaratilgan soliq imtiyozlari tizimining rivojlanishida quyidagilarni ko'zda tutish lozim:

- berilgan imtiyozlardan qat'iy tarzda samarali foydalangan holda yuridik shaxslar daromadlarining ishlab chiqarishni investitsiyalashga qaratilgan qismiga soliq solish bo'yicha imtiyozlar;

- ulardan ba'zilarini kuchaytirish, ya'ni yaratiladigan shart-sharoitlarni yaxshilash;
- soliqqa tortiladigan obyektlar sonining ko'payishiga yordam beradigan tadbirlar doirasini kengaytirish.

Soliq imtiyozlarining eng muhim shakllari quyidagilar: daromad solig'idan ozod qilish, investitsiyalar yoki investitsion soliq krediti uchun soliq chegirmalari, tezlashtirilgan amortizatsiya, kelgusi yillardagi foydalar hisobiga zararlarni qoplash, bir qator bevosita soliqlardan ozod etish.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda investitsiyalarni soliq bo'yicha rag'batlantirishning keng tarqalgan chorasi – daromad solig'idan vaqtincha ozod qilishdir. Erkin soliq rejimi o'z kapitalini ishlab chiqarishga investitsiyalaydigan kompaniyalarga imtiyozlar doirasini birmuncha kengaytirishga ahamiyat berish zarur.

Masalan, Singapurning eksport yo'nalishdagi korxonalarida ma'lum muddatga eksportdan tushgan daromadning o'stirilgan summasi soliqqa tortilishdan 10 yildan 15 yilgacha ozod qilinishi mumkin. Taylandda esa soliqning imtiyozi miqdori korxonaga qaysi tarmoqqa mansubligiga ko'ra belgilanadi va uch yildan sakkiz yilgacha muddatga o'rnatiladi, keyingi besh yilga esa tegishli korxonani daromad solig'i to'lashdan qisman (50%) ozod qilish ko'zda tutiladi.

Qimmatbaho texnika vositalari narxi bo'yicha haqni bir necha yillik muddatda to'lash hisobiga sotib olinishiga imkon beradigan lizing rivojlanishini rag'batlantirish, bunda soliq ham o'ziga xoslik kasb etadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasining ko'rsatishicha, lizing operatsiyalari uchun maxsus soliq imtiyozlarini belgilash maqsadga muvofiqdir. Quyidagi ma'lumotlar investitsiyalar muammosini hal etishda lizingning ahamiyati haqida muayyan tasavvur beradi: AQSHda mashina va jihozlarga

qo'yilgan mablag'larning 25-30 %i lizing asosida sarflanadi. Avstraliyada bu boradagi ko'rsatkich 33 %ni tashkil etadi, Angliya, Fransiya investitsiya kafolatlari muammosi ishlab chiqarishni texnik qayta qurilantirish uchun korxonalar tomonidan lizing shartnomalari tuzilgan vaqtdayoq muvaffaqiyatini, amaliy yechimini topadi. Kafolatlar mexanizmi asosidagi investitsion moliyalashtirishning bunday sxemasidan foydalanilganda korxonalar jihozlarini bir necha yil mobaynida sotib olish hisobiga xarajatlarini kamaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Lizing operatsiyalari nafaqat jihozlar ijarasini, balki kapital qo'yilmalar istiqbolini moliyalashtirishning o'ziga xos yangi tuzilmasini ham o'z ichiga oladi. Bunda ijara munosabatlari, garov ostida kreditli moliyalashtirish elementlari, qarz majburiyatlari bo'yicha hisob-kitoblar amal qiladi.

Moliyaviy lizing odatdagi kreditlar bilan qiyoslanganda ancha samaraliroqdir. Negaki moliyaviy lizingda mablag' qadrsizlanishdan kafolatlanadi. Moliya tavakkallari lizing to'lovlarini kafolatlaydigan jihozlar bilan ta'minlovchilar, sug'urta kompaniyalari hamda garov depozitiga pul kiritadigan banklar o'rtasida taqsimlanishi mumkin.

U mazmunan kapital qo'yilmalarining davlat tomonidan moliyalashtirilishi, shaklan esa soliqqa tortiladigan daromadni kamaytiradigan soliq chegirmasidir. Farqi shundaki, bunda korxonalar qoldirilgan soliq krediti miqdori muayyan vaqt o'tganidan keyin davlatga qaytariladi. Odatda, investitsion soliq krediti jihozlar bahosiga nisbatan foizlarda belgilanadi va bevosita soliq yoki soliqqa tortilgan daromad summasidan chegirilib tashlanadi. Masalan, AQSHda xizmat muddati 3 yildan kamroq obyektlarga kapital qo'yimlardan 6 %li soliq chegirmasiga va uning boshqa ko'rinishlariga kiritilgan kapitalga 10% li chegirma qilishga ruxsat berilgan. Bunday usuldan foydalanish korxonalar uchun ham foydali, kelgusida sarfni ortig'i bilan bema'lol qaytarib oladigan davlat ham manfaatdor.

Ko'rsatkichlariga ko'ra, imtiyozlilar maqomiga ega bo'lmagan kompaniyalarga investitsiyalar kiritilishini rag'batlantirish uchun Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarida keng qo'llanayotgan investitsiyalar uchun soliq chegirmalari imtiyozlarning muqobil shaklidir. Mazkur imtiyozning mohiyati shundaki, unga ko'ra korxonalar daromadining bir qismi soliqqa tortilmaydi, bir qismiga qo'yilgan kapital miqdori hamda taqdim etiladigan chegirma stavkalari asosida belgilanadi.

Respublikamiz soliq qonunchiligida asosiy faoliyatni investitsiyalashda yangi texnika va texnologiyalarni joriy etishga yo'naltiriladigan daromadning bir qismini soliqdan ozod etish ko'zda tutilgan. Bizningcha, bu jarayonda investitsion soliq kreditidan foydalanish ancha ko'proq samara bergan bo'lardi. Bunda korxonani rekonstruksiya qilish vaqtda hosil bo'lgan zararlarni kelgusi foydalardan chegirish kab rag'batlantirish usulidan ham foydalanish mumkin. Bu holda daromadning soliqqa tortiladigan qismi kamayadi. Mazkur imtiyozni birlamchilik maqomiga ega bo'lgan korxonalar taqdim etish maqsadga muvofiqdir. Madomiki, investitsiyalarni moliyalashtirishda korxonalar va tashkilotlarning xususiy mablag'lari muhim o'rin tutgan ekan, bunda korxonalar darajasida kapital jang'arishni harakatga keltiradigan mexanizmlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Asosiy fondlarni qayta baholash indeksining ortishi infiyatsiyadan va kapital qo'yimlari narxlarini indeksidan orqada qolmoqda. Ishlab chiqarishga kiritiladigan investitsiyalarni ko'paytirishning ilg'or usuli – chet elda keng qo'llanilayotgan

jihozlarning asosiy turlarini tezkor amortizatsiya qilishdir. Tezkor amortizatsiyaning iqtisodiy mazmuni ekspluatatsiyaning birinchi yillarida yemirilish summasini foydadan soliqqa tortilishdan oldin chegirish imkoniyati bilan izohlanadi. Tezkor amortizatsiya vaqtda soliq va iqtisodiy amortizatsiyalar miqdori o'rtasida katta farq hosil bo'ladi va bu farqdan maqsadli foydalanish vaqtida soliqqa tortiladigan foyda kamayadi. Asosiy kapital aylanishni tezlashtiradi, ishlab chiqarishni yangilash va texnik jihatdan takomillashtirish uchun yangi xarajatlarni rag'batlantiradi. O'zbekistonda tezkor amortizatsiya usullarini, ayniqsa, yuqori texnologik ishlab chiqarishlar uchun qo'llash maqsadga muvofiqdir. Tezkor amortizatsiya me'yorlaridan foydalanish ekspluatatsiyaning birinchi yillaridayoq jihozlar qiymatining qariyb 60 %ini hisobdan chiqarishga va jihozlarni jadal yangilash hamda investitsiya mablag'larini ta'minlashga imkon yaratadi.

Boshlang'ich va investitsion soliq chegirmalari rag'batlantiruvchi vosita bo'lgan amortizatsiya siyosati ham tavsiya etiladi.

Sotib olingan jihozlar ekspluatatsiyasining birinchi yilida taqdim etilgan boshlang'ich chegirmalarni oddiy amortizatsiyaga chiqarilgan summalar to'ldiradi. Investitsion chegirmalar tizimi sharoitida kiritilgan qiymat ustida muayyan qoldiq vujudga keladi. Sanoatning birlamchi tarmoqlariga texnika va jihozlar uchun boshlang'ich chegirma esa 30 % hollarda yangi mashina va jihozlar xarid qilingan yoki ishga kiritilgan yildagi 100 %li chegirma qo'llanishi mumkin.

Amortizatsiya hisobiga asosiy fondlarning takror ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish va mablag'larni amortizatsiya hisobida ishga solmay, to'xtatib qo'yishning oldini olish uchun soliqqa tortishdan to'la ozod qilgan, maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o'rnatish sharti bilan mablag'larni maxsus fondlarga to'plagan ma'qul. Shuningdek, amortizatsiya fondlari mablag'lari ortiqcha jamg'arilsa yoki bankrotlik tahdid solsa, sotish ham mumkin.

Puxta amortizatsiya siyosati, amortizatsiyaga chiqarilgan summalar haqidagi qonunlar, me'yoriy hujjatlar, yo'riqnomalar va boshqalar paket bilan mustahkamlangan bo'lishi kerak. Bu summalar 5-7 yildan so'ng tuzatilish va jihozlarni jadal amortizatsiyalash orqali ishlab chiqarish apparatini yangilash, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini tatbiq etish qonuni kuchga kirganida keyingi 3-5 yillik muddatda mashina va jihozlarning asosiy turlarini ro'yxatdan chiqarish amortizatsiyaning inter va me'yoriga o'tilishi (bazaviy me'yorning 20 %ida) uchun qulay imkoniyatlarni yaratish lozim.

Xususiy lashtirilgan korxonalariga ishlab chiqarish quvvatlarini texnik qayta jihozlashga, yangi texnologiyalarni tatbiq etishga yo'naltirilgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish maqsadida bir qator korxonalar aksiyalar paketlari sarmoyadorlar tomonidan obyektning qiymatiga kiritiladigan yoki qo'shimcha qabul qilinadigan investitsion majburiyatlarni qabul qilish bilan amalga oshiriladi.

Iqtisodiy islohotlar amalga oshirilgan yillar mobaynida hududlardagi yoqilg'i-energiya tarkibida xomashyo tarmog'ining ulushi yuqori bo'ldi. Bu YAIM ishlab chiqarish tarkibining shakllanishi bilan izohlanadi. Respublika hududlaridagi energiya resurslari iste'moli tarkibida energiya sig'imi yuqori bo'lgan tarmoqlar ulushi 53 %ni, elektr energiya iste'moli umumiy hajmida sanoat ishlab chiqarishi ulushi 50 %ni tashkil etadi. Energiya iste'moli tarkibida energiya sig'imi yuqori bo'lgan tarmoqlar ulushi 1991-yildagi 49 %dan 2011-yilda 70 %ga ortdi. YAIMga nisbatan energiya

sartini kamaytirish, bu borada rivojlanayotgan mamlakatlar darajasiga erishishga ishlab chiqarish tarkibida nisbatan kam energiya talab qiladigan innovatsion va qayta ishlash tarmoqlari ulushini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar foyda berdi. Birgina iqtisodiyotda yuz bergan tarkibiy o'zgarishlar hisobiga 2006-2011 yillarda rivojlangan mamlakatlar milliy daromadining energiya sig'imi o'rtacha 17-27 %ga pasaydi.

Bundan tashqari, po'lat, sement, mineral o'g'it, mis, qora metallarni qayta ishlash kabillarda energiya sig'imi yuqori bo'lgan mahsulotlarga energiya sarfi tahlili sanoati rivojlangan mamlakatlar ishlab chiqarish jarayonlarida energiya sarfi pasayganligini ko'rsatadi. Xalqaro Energiya Agentligi (XEA) ekspertlari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, sanoati rivojlangan mamlakatlarda po'lat ishlab chiqarishga energiya sarfi 2000-2012 yillarda 2 barobar, bir tonna sement ishlab chiqarishga 20-30 % kamaygan.

O'zbekistonda innovatsion loyihalarni joriy etish natijasida bu boradagi ko'rsatkichlar samaradorligi sezilarli darajada yomonlashdi yoki islohotlargacha bo'lgan davrdagi darajasida qoldi. Natijada xomashyo va qazib olish tarmoqlarida energiya sig'imi ko'rsatkichi jahon ko'rsatkichidan 30-45% yuqori bo'lmoqda.

Qayta ishlash tarmoqlaridagi ishlab chiqarish quvvatlaridan to'la foydalanmaslik sababli energiya sig'imi islohotlar davrida 9-10 % ortdi. Bu esa, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning ichki va jahon bozorida raqobatbardoshlik darajasining pasayishiga olib keldi.

Iqtisodiyotni jadallashtirish va innovatsion loyihalarni asosiy sohalarda joriy qilishga qaramasdan xizmatlar sohasida energiya sig'imi oshib bormoqda. Bugungi kunda respublikamiz hududlari uy xo'jaliklari va kommunal xo'jalik xizmatlari ulushiga mamlakat umumiy energiya iste'molining 36 %i to'g'ri kelmoqda. Energiya xizmatlarining yalpi xarajatlari rivojlangan mamlakatlar ko'rsatkichiga qaraganda 2 barobar ko'p.

Hisob-kitoblarni natijalari ko'rsatishicha, energiya sig'imini kamaytirishga yo'naltirilgan innovatsion o'zgarishlarni amalga oshirish va qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirish YAIM energiya sarfini 33-35 %ga kamaytirish imkonini yaratadi.

Innovatsion loyihalarni asosida yoqilg'i va issiqlikni tejash borasida tarkibiy omillar bilan bir qatorda tashkiliy va texnik chora-tadbirlarni ham amalga oshirish nazarda tutildi, ya'ni aniq maqsadli energiya tejamliligini bo'yicha siyosat olib boriladi. Buning uchun O'zbekiston juda katta 8-10 mln.t. energiya zaxirasi bo'lgan tashkiliy va texnik salohiyatga ega. Bu salohiyatning 30 %i xomashyo va qayta ishlash sanoati, 45 %i uy-joy kommunal xizmatlari, 25 %i iqtisodiyotning boshqa sohalari va tarmoqlariga to'g'ri keladi. Shu boisdan ham iqtisodiyotni jadallashtirishning ustuvor yo'nalishlarida asosiy e'tibor respublikada uy-joy va kommunal xo'jaligini isloh qilish va innovatsion texnologiyalarni iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilgan qo'shimcha investitsiyalarni shakllantirish asosi bo'lgan tarif bo'yicha tartibga solish orqali innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish ko'zda tutilgan.

### **17.3. Tadbirkorlikni rivojlantirish yo'llari**

Rivojlangan xorijiy davlatlar amaliyoti shuni ko'rsatadiki, kichik va o'rta biznes korxonalarini iqtisodiy konyunkturani o'zgarishlariga tez moslasha oladigan, innovatsion texnika va texnologiyalarni doimiy talab qiladigan, mehnat unumdorligi

yuqori bo'lgan xo'jalik subyektlari hisoblanadi. Ularga xos bo'lgan ushbu xususiyatlar kichik va o'rta biznes korxonalarini iqtisodiy o'sishiga, ularning aholi bandligini ta'minlashdagi mavqei oshishiga olib keldi. Masalan, AQSHning "Jeneral motors" korporatsiyasi xomashyo va butlovchi qismlarni 30 mingga mol yetkazib beruvchidan sotib oladi. Ularning asosiy qismi kichik va o'rta biznes korxonalaridir. Yaponiyaning "Mitsubisi" va "Nadidzima" korporatsiyalarini olaylik. Birinchi korporatsiyaga 32 %, ikkinchi korporatsiyasi esa 42 % mahsulot subpudratchilar, ya'ni kichik korxonalar tomonidan yetkazib beriladi.

Mamlakatimizda ham kichik va o'rta biznes korxonalarini faoliyatini rivojlantirish hukumatimiz iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Respublikamizda chet el investitsiyasi kiritilgan korxonalar soni 2013-yil boshida 4000 taga yetdi.

O'zbekiston hukumatining investitsiya dasturida kichik va o'rta biznes korxonalarini rivojlantirishga, ularni kredit liniyalari hisobidan moliyalashtirishni kengaytirishga alohida e'tibor berilgan. Xususiy tarmoq va kichik tadbirkorlikni rivojlantirishni jadallashtirish va uning YAMMdagi ulushini ko'paytirish, bozor iqtisodiyotiga mos tovar va xizmatlar bozorini shakllantirishda asosiy vazifalar quyidagilar hisoblanadi: davlat tashkilotlarining xususiy tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvini cheklash, xususiy tadbirkorlikni resurslar va sotish bozorlaridagi ishtirokini kengaytirish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash va qo'shimcha soliq imtiyozlarini joriy etish.

#### 17.1-jadval

#### O'zbekiston Respublikasi hududlarining YAIMdagi o'sish dinamikasi, %da

Hududlar	2005-y.	2010-y.	2012-y.
O'zbekiston Respublikasi	107,0	108,5	108,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	106,0	110,8	112,7
Viloyatlar:			
Andijon	108,5	111,3	108,4
Buxoro	106,9	109,1	102,9
Jizzax	107,0	111,9	108,0
Qashqadaryo	106,2	103,2	104,5
Navoiy	100,6	104,7	104,5
Namangan	106,5	114,4	110,0
Samarqand	106,4	111,6	110,7
Surxondaryo	104,5	113,6	109,0
Sirdaryo	111,4	111,7	109,9
Toshkent	103,0	112,8	105,2
Farg'ona	105,6	106,1	106,1
Xorazm	106,6	109,5	109,8
Toshkent sh.	111,4	113,2	110,2

Manba: O'zbekiston iqtisodiyoti statistik axborotnomasi. 2012-yil. – T., 2013.

Kichik tadbirkorlikni rag'batlantirish bo'yicha amalga oshirilgan keng qamrovli chora-tadbirlar, xususan, tadbirkorlik erkin faoliyat yuritish uchun kafolat bilan ta'minlanganligi, ularni davlat tomonidan ro'yxatga olishning ixcham mexanizmi joriy etilishi, kredit mablag'laridan foydalanish doirasi kengayishi ijobiy natijalar bermoqda.



birgina 2012-yilda tijorat banklari tomonidan N1 subyektlariga 1,62 mlrd. so'm yoki 2011-yildagiga nisbatan 48 % ko'p kreditlar berilgan. 2010-2012-yillarda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan dasturning amalga oshirilishi yangi mulkdorlar shakllanishi va xususiy sektorni rivojlantirishga turtki bo'ldi. 2011-yilga kichik biznesning YAIMdagi ulushini 52,3 %ni tashkil qildi, 2012-yilga 54,0 %ga yetkazish vazifasi qo'yilgan.

Kichik va o'rta biznes korxonalarida investitsiya jarayonlarini chuqurlashtirish borasida quyidagi jiddiy muammolar mavjud:

- kichik va o'rta biznes korxonalarida eksport-import xorijiy kapital va kreditlar bilan bog'liq operatsiyalarini tashkil qiluvchi va amalga oshiruvchi menejer va xodimlarning malakasi pastligi. Bu o'rinda eslatib o'tish kerakki, N.Siropolisning AQSHdagi kichik va o'rta biznes korxonalarini faoliyatini tahlil qilish natijalari ular muvaffaqiyatsizligining 92 %i boshqaruv sifati pastligi bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. R.Nek ham kichik va o'rta korxonalar boshqaruvida tajriba va malaka yetishmasligini ular faoliyatidagi muvaffaqiyatsizliklarning asosiy sabablaridan biri deb hisoblaydi.

Ushbu muammoning nozik jihati shundaki, xalqaro operatsiyalarni amalga oshirish o'ziga xos murakkabliklarga ega. Masalan, kichik tijorat banklari tomonidan kichik va o'rta biznes korxonalarining to'lov majburiyatlari yuzasidan qo'yiladigan, hujjatlashtirilgan akkreditivlar yirik tijorat banklari tomonidan tan olinmasligi mumkin;

- kichik va o'rta biznes korxonalarining aksariyatida umumiy pul oqimi zaifligi natijasida ularning to'lovga qobillik darajasi past bo'ladi. Bu, korxonalarining tijorat banklari kreditlaridan, xorijiy tashkilotlar kredit liniyalaridan foydalanishlariga, eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishlariga to'sqinlik qilmoqda;

- kichik va o'rta biznes korxonalariga tijorat banklari tomonidan xalqaro hisob-kitob xizmati ko'rsatishda jiddiy muammolar mavjudligi.

Ushbu muammoning mohiyati shundaki, korxonalar import to'lovini amalga oshirishda ta'minlangan akkreditivlardan keng ko'lamda foydalanishmoqda. Bunda, avvalo, asosiy hisob-kitob shakli bo'lgan, hujjatlashtirilgan akkreditivlarga jiddiy e'tibor qaratilmog'i lozim. Respublikamiz tijorat banklari kichik va o'rta korxonalarining to'lov majburiyatlari bo'yicha javobgarlikni o'z zimmlariga olishlari va buning uchun tegishli komission to'lov undirishlari lozim. Chunki xorijiy tovar yetkazib beruvchi korxonalar uchun to'lovning kafolatlanganligi asosiy omil hisoblanadi.

Bu borada Respublika tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankida ma'lum tajriba mavjud. Milliy bankning bosh kredit boshqarmasi ayrim davlat korxonalarining hujjatlashtirilgan akkreditiv bo'yicha to'lov majburiyatlarini bank kreditlari hisobidan to'lashni amalga oshiradi.

Respublikamizda ham kichik va o'rta biznes korxonalarining hujjatlashtirilgan akkreditivlar bo'yicha to'lov majburiyatlari banklar hisobidan to'lanishi ushbu korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishga kuchli turtki beradi.

Kichik va o'rta biznes korxonalarining investitsion maqsadlar uchun kreditlar olish imkoniyatini oshirish uchun hukumat kafolatini joriy etish lozim.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda kichik va o'rta biznes korxonalarining bank kreditlari olish imkoniyatini oshirish maqsadida hukumat banklari mazkur korxonalar



uchun katta miqdorda kafolat bermoqda. Respublikamizda ham hukumat kafolatlarini kichik va o'rta biznes korxonalarining akkreditivlar shaklidagi to'lov majburiyatlarini bo'yicha berilishini tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

Respublikamiz hududlarida chet el investitsiyasi kiritilgan korxonalar mahsuloti, ish va xizmatlari hajmi 2012-yilda YAMMdagi ulushi avvalgi yilgiga nisbatan oshdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish maqsadida ularni saqlash va tashqi xarajatlarini davlat budjeti mablag'lari evaziga qoplaydigan maxsus fond joriy etish lozim.

Kichik va o'rta biznes korxonalarining eksport qilayotgan tovarlari miqdori, odatda, yirik korxonalarники kabi katta bo'lmaydi. Bu esa, transport xarajatlarining eksport tizimidagi salmog'i oshishiga olib keladi. Shu sababli hukumat tomonidan transport xarajatlari qoplanishi va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash joylari tashkil etilishi kichik va o'rta biznes korxonalarining tashqi savdo faoliyati bo'yicha xarajatlari keskin kamayishi va ularning raqobatbardoshligi oshishiga olib keladi.

Kichik va o'rta biznes korxonalarini investitsiya faoliyatini rivojlantirish obyektiv zarurat bo'lib, umummilliy iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Xalqaro hamkorlik asosida tadbirkorlik uchun 2008-yilda 71,94 mln. AQSH dollari miqdorida kredit ajratilgan va 2008-yilning oxirigacha shundan 389,3 mln. AQSH dollari jalb etilgan va undan foydalanilgan, 2011-yilda esa to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning hajmi ancha oshdi.

O'zbekiston Respublikasi uchun investitsiya zaxiralarning chet el manbalariga murojaat etilishi o'tish davridagi ham strategik, ham joriy masalalarni hal etish zaruriyatiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Bu vazifalardan eng muhimlari: milliy iqtisodiyotni qayta tuzish; mintaqalarning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotidagi nomutanosibliklarni yo'qotish; mamlakatning eksport salohiyatini oshirish; import o'rnini bosadigan ishlab chiqarishlarni rivojlantirish; iqtisodiyotning raqobat muhitini rivojlantirishga yordam beradigan xususiy va aralash sektorlarini shakllantirish; bozor infratuzilmasini yaratish; ilg'or chet el texnologiyasi, nou-xau va boshqaruvchilik tajribasini jalb qilish.

Bu sohadagi hamma nuqtai nazarlarni hamda so'nggi yillardagi amaliyotni umumlashtirish, chet el investitsiyalarini jalb qilish siyosatida ayrim xatolar mavjud bo'lganda chet el kapitali qo'yilmalarini rag'batlantirish bo'yicha iqtisodiyotning bozor transformatsiyasi ehtiyojlari va vazifalariga o'xshash ta'sirchan mexanizm yo'q, degan xulosaga kelishga imkon berdi.

Chet el kapitalini O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri kiritish boshqa ustunliklarga ham ega. Darvoqe, bu ustunliklar chet el kreditlari bilan qiyoslanganda juda katta. Chet el tadbirkorlik kapitalining jalb qilinishi ham ichki bozordagi monopolizm bilan kurashishning faol vositasidir.

**Chet el investitsiyasi kiritilgan korxonalar mahsuloti, ish va xizmatlari hajmi**  
(mln.so<sup>4</sup>m)

Hududlar	2005-y.	2010-y.
O'zbekiston Respublikasi	0,479	0,452
<i>Qoraqalpog'iston Respublikasi</i>	0,479	0,452
Viloyatlar:		
Andijon	0,749	0,723
<i>Buxoro</i>	1,009	0,968
<i>Jizzax</i>	0,754	0,634
<i>Qashqadaryo</i>	0,858	0,823
<i>Navoiy</i>	1,969	1,944
<i>Namangan</i>	0,477	0,463
<i>Samarqand</i>	0,601	0,666
<i>Surxondaryo</i>	0,602	0,504
<i>Sirdaryo</i>	0,703	0,670
<i>Toshkent</i>	1,053	1,116
<i>Farg'ona</i>	0,700	0,719
<i>Xorazm</i>	0,652	0,643
<i>Toshkent sh.</i>	1,625	1,816

*Mamba: O'zbekistonning iqtisodiyot statistik axborotnomasi, 2010. – T., 2011.*

Bunday kapital nafaqat maralakatning yetishmayotgan investitsiya zaxiralari oshishiga xizmat qiladi, balki uning yordamida milliy ishlab chiqarish kuchlaridan foydalanish samaradorligini rivojlantirish, ko'tarish ham mumkin. U shuningdek, chet el kreditlari bilan qiyoslanganda mamlakat qarzdorligini oshirmaydi, shu orqali valyutaning chet elga oqimini kamaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotning rivojlanmagan infratuzilmasiga, foydalanilmagan qonunchilik va investitsiyalash uchun shakllanmagan iqlimiga qaramay, bozor islohotlari yillari (1991-2013-yillar) davomida bu hududlarda chet el investitsiyalari ko'rinishida birgina 2013-yilda 9,7 mlrd. dollardan ortiq mablag' o'zlashtirilgan edi.

Bizning baholarimizga ko'ra, agar to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarining butun hajmi davlat uchun birlamchi bo'lgan dasturlar bo'yicha ishlab chiqarishni investitsiyalashga sarflaganda edi, O'zbekistonda allaqachon YAIMning barqaror o'sishiga erishilgan bo'fardi. Lekin 2008-yilda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatining natijalari ijobiy bo'ldi. Eksport importga nisbatan o'sganligi va eksport importni koplash koeffitsiyentining 2004-yildagi 0,66 %dan 2008-yilda 0,67 %ga oshganligi kuzatildi. Respublika hududlarida xorijiy kapitalar ishtirokidagi «SurxonTeks», «Yademtekstil», «Emteks», «Baliqchi», «Iskovuttesk», «Elektor hisoblash» kabi qo'shma korxonalar foydalanishga topshirildi.

Shunga qaramasdan, iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish tarkibi deyarli o'zgarishsiz qoldi. Iqtisodiyot va sanoat ishlab chiqarishini isloh qilish natijasida oziq-

ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sur'atlarining o'sishi davom etdi. Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning yuqori sur'atlari Navoiy viloyatidan tashqari barcha viloyatlarda ta'minlandi. Nisbatan yuqori ko'rsatkichlar quyidagi hududlarda kuzatildi: Andijon (45,6 %), Farg'ona (19,2 %), Qashqadaryo (17,1 %) viloyatlarda. Mamlakat hududlarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sishiga ko'p jihatdan kichik tadbirkorlik subyektlari, jumladan, non va non mahsulotlari, meva va sabzavot konservalari, vino, alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqaruvchi kichik korxonalar faoliyatining faollashganligi ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari Toshkent shahridan tashqari barcha hududlarida yuqori bo'ldi. Toshkent shahrida tovar ishlab chiqarish ko'rsatkichlari pastligiga shaharda joylashgan «Koka-Kola» va «Shakar investmente» qo'shma korxonalarida xomashyo yetishmasligi natijasida ishlab chiqarish hajmi kamayib ketishi sabab bo'ldi.

Ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarning asosiy qismi paxta va ipak mahsulotlari, trikotaj, to'qimachilik, gilam mahsulotlari va poyabzal ishlab chiqaruvchi hududlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bunday hududlarga Buxoro (20,5 %), Farg'ona (14,1 %), Andijon (11,5 %) viloyatlari va Toshkent shahri (12,3 %) kiradi. Navoiy viloyatidagi kimyo majmui korxonalarida engil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi pasayishi viloyat va respublikaning bu boradagi ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir etdi.

Xorazm viloyatida gilam va gilam mahsulotlari ishlab chiqarishning 2008-yilda 40,2 % o'sishi 2010-yilda viloyatda «Xiva Karpets» korxonasi foydalanishga topshirilganligi natijasidir.

Ammo amaliyot ko'rsatmoqdaki, iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichida to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari savdo-vositachilik faoliyati sohasida qo'shma korxonalar barpo etishga, konsalting xizmatlarini ko'rsatishga, konsalting bank sektoriga, keyinchalik esa chet el firmalari boshqaruviga o'tkazilgan sanoat obyektlarining qarzlarini to'lashga va muomaladagi mablag'larni to'ldirishga yo'naltirilgan edi. Iqtisodiyot erkinlashuvi chet el investorlari O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlariga investitsiyalarini yo'naltirishiga yo'l ochib berdi: qora va rangli metallurgiyaga chet el qo'yilmalari 63,5 %ni, neft-gaz kompleksiga to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarining umumiy oqimi 19,8 %ni tashkil qildi va kapitalning umumiy hajmida chet el investitsiyalari oshdi.

Nazarimizda, chet el kapitalini jalb qilish va undan foydalanishning eng muhim muammolaridan biri investitsiya qo'yilmalari shaklini to'g'ri tanlashdir. Bunda quyidagi asosiy mezonlarni e'tiborda tutish lozim: faoliyat sohasi va mahsulot turi (texnologik murakkab); loyiha qo'yilmalari (kichik, o'rta, yirik); chet el kapitalini jalb qilishning strategik maqsadi (jihozlar), importidan to'ishlab chiqarishning boshqaruvchilik tajribasidan foydalanishga qadar.

Hududning investitsiya imkoniyatlari yetarli, ammo ishlab chiqarishi zamonaviylashtirishi zarur bo'lgan yirik loyihalarni amalga oshiradigan (masalan, neft-kimyoda) shartnomaviy QK tashkil qilish maqsadga muvofiq.

Xomashyo tarmoqlari, birinchi navbatda tog'-kon sanoati va yoqilg'i-energetika komplekslari chet el investorlarida juda katta qiziqish uyg'otmoqda. Bu yerda QK bilan qiyoslaganda, ayniqsa, razvedka va uglevodorodlar qazib chiqarish sohasida mahsulotni

taqsimlash uchun tuzilgan shartnomalar ancha to'yanib. Bu turdagi shartnomalarning ustunligi daromadlar xususiy ulushi oshishining oddiy va ta'sirchan mexanizmi, shartnomalarning soliq va huquqiy rejimi avtonomligidir.

Uzoq muddatli ijara shartlariga ko'ra, konsessiyalar, ya'ni yangilanadigan va yangilanmaydigan tabiat zaxiralaridan foydalanish huquqining xorijiy tadbirkorlarga taqdim etilishi, xo'jalik faoliyatining boshqa turlarini amalga oshirish. Respublika eksport salohiyatini o'rtirishning eng samarali usullaridan biridir.

Ichki jamg'armalardan foydalanishning kuchsiz shakllari ham mamlakat ichida samarali va samarasi ham korxonada hamda tarmoqlar o'rtasida, ham qator mamlakatlarning tarmoq va sohalari o'rtasida kapital aylanishining ikki taraflama mexanizmi yo'qligi iqtisodiyot mustahkamligiga salbiy ta'sir etadi, uning o'sish imkoniyatlarini kamaytiradi.

Shu sababli, O'zbekistonning uzoq muddatli rivojlantrish strategiyasi chet el kapitali va ichki investitsiyalar jalb qilinishini, avvalo, kapitalni ommaviy investordan haqiqiy mulkdorlar qo'liga o'tkazish mexanizmi bo'lgan to'laqonli fond bozori tashkil etilishini talab qiladi. Mamlakatimizda fond bozori va fond madaniyatining mavjudligi kapitalga erkin talab va taklifi ta'minlaydi. Bu esa, asl bozor iqtisodiyotining real sektori tiklanishi va uni rivojlantirishga yangi investitsiyalar jalb etilishiga imkoniyat yaratadi. Investitsion institutlar esa, o'z navbatida, nafaqat yirik korxonalar, balki o'rta va hatto mayda korxonalar bo'yicha portfellarini diversifikatsiya qiladi. Boshqacha aytilganda, xususiylashtirish jarayoni strategik investor monopolistlar izlash yo'lidan emas, balki oddiyroq sxemasi bo'yicha borishi kerak.

Ishlab chiqarishga investitsiyalar olish va qo'yilmalarni ko'plab ishtirokchilar orasida taqsimlash hisobiga shu qo'yilmalar (hatto, uncha samarali bo'lmagan tarmoqlarga ham) tavakkal kamayishining haqiqiy imkoniyati – taklif etilayotgan sxemaning asosiy afzalligida.

O'zbekistonga chet el investorlarini jalb etayotgan bunday sektorlarga quyidagilar kiradi: mineral xomashyo zaxiralarini, ayniqsa, neft va gazni qazib chiqarish, energetika, qora va rangli metallurgiya, transport, kommunikatsiya, bank sektorlari va boshqalar.

Da'vogarlar yo'qligi tufayli loyihani to'xtatib qo'yish xavfi ham bo'lmaydi. Davlat o'z tasarrufida aksiyalarning nazorat paketini yoki "Tilla aksiyalar"ni qoldirishi va korxonada ustidan nazoratini saqlab qolishi mumkin. Ko'zdan kechirilayotgan yondashuv amalga oshirilganda holda, korxonani boshqarish, qayta tiklash, bank xizmati va boshqalarni yo'lga qo'yishga zaruriyat tug'ilganda xorijiy firmalarni jalb qilish yurtimiz tuzilmalari tomonidan amalga oshiriladi. Bu esa, o'z navbatida, o'zbek iqtisodiyoti taraqqiyotiga turki beradi.

Albatta, portfelli investitsiyalash korxonani xalqaro standartlar bo'yicha audit baholashni, chet ellarda reklama qilishni, aksiyalar jahon fond bozorlari lizinglariga kiritilishini, boshqa ishlarini o'tkazishni, qo'shimcha xarajatlar va vaqtni talab qiladi. Ammo pirovardida bu jarayondagi xarajatlarning hammasi o'zini oqlaydi va ishlab chiqarishga samarali investitsiyalar oqimi kuchayishiga, ishlab chiqarish o'sishiga olib keladi.

Iqtisodiy o'sishga strategik jihatdan urg'u berilishi ham chet el kapitalini ko'p miqdorda jalb qilish, ham ichki jamg'armalar hisobiga iqtisodiyotning real sektoriga

investitsiyalar jalb qilishni talab etadi. Ko'pchilik iqtisodchilar mamlakatda investitsiyalarni moliyalashtirishning ichki manbalarini ko'zdan kechira turib, davlatning budget mablag'laridan tashqari, asosan barcha mulk shakllaridagi korxonalar va tashkilotlar, fermer xo'jaliklarining xususiy mablag'larini ko'zda tutgan edilar. Masalaning bunday qo'yilishi bozor munosabatlari shakllanishining boshlang'ich davriga mos tushgan edi. Bu boshlang'ich davr esa, ijtimoiy-iqtisodiy tanglik, ishlab chiqarish pasayishi, inflyatsiyaning yuqori darajasi va aholi daromadlarining past darajasi bilan ajralib turardi. Bozor islohotlari chuqurlashgani, iqtisodiyot jonlanish davriga o'tgani, pul daromadlari o'sgani sayin hamda uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy noma'lumlik yo'qotilishi bilan aholi jamg'armalarining, investitsiyalarning salohiyati manbai sifatidagi o'rni va ahamiyati ortib boradi. Ushbu manbalar sotsialistik tuzumda investitsiyalarni moliyalashtirishda hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Aholi jamg'armalari tabiatini ko'rib chiqamiz. Aholi jamg'armalari faqat daromadlar xarajatlaridan oshgan sharoitda yig'iladigan va daromad bilan uning iste'mol qilingan qismi o'rtasidagi ayirma aniqlanadigan to'plangan pul zaxiralari summasidir.

Hudud aholi jamg'armalari banklar va boshqa moliyaviy institutlar tomonidan to'planib, kapital qo'yilmalarni moliyaviy ta'minlashda qatnashadi. Bank va moliyaviy institutlar esa, o'z navbatida, erkin pul mablag'larini moliyaviy va moddiy boylikning turli shakllariga qo'yadi, ularni xo'jalik yurituvchi subyektlarga investitsiyalar uchun qarzga beradi.

#### 17.4. Hududlarni rivojlantirish dasturi

2012-yilda butun respublika bo'yicha qo'lga kiritilgan iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari barcha hududlar uchun alohida olganda ham taalluqlidir. Agar butun O'zbekiston bo'yicha YAIMning o'sishi 108,2 %ni tashkil qilgan bo'lsa, yalpi hududiy mahsulot (YAHM o'sishining bu darajadan balandroq ko'rsatkichi Toshkent shahrida (110,2 %), Andijon (108,4 %), Samarqand (110,7), Qashqadaryo (104,5) viloyatlarida qayd etildi. Bu hududlarda iqtisodiy ko'rsatkichlarning yuqori darajada o'sish sur'atlari asosan sanoat hamda xizmat ko'rsatish tarmog'ining jadal o'sishi bilan bog'liq.

Mamlakat YAIM shakllanishining 50 %dan ortiqrog'i Toshkent sh. (8,2 %), Toshkent viloyati (5,2 %), Qashqadaryo (4,5 %), Farg'ona (6,3 %), Andijon (8,4 %) hamda Samarqand (10,7 %) viloyatlarip to'g'ri keldi.

Aholi jon boshiga YAHMning yuqori darajada to'g'ri kelgan guruhiga (indekslar 1,000dan yuqori) Navoiy viloyati (1,944), Teshkent sh. (1,819), Toshkent viloyati (1,116) kiradi. O'rtacha rivojlanish darajasidagi ikkinchi guruhga (indeks 0,500dan 1,000gacha) 14 ta hududdan 9 tasi kirdi. Aholi jon boshiga 2011-yilga nisbatan 2012-yilda YAHM ishlab chiqarish indeksining ortishi Farg'ona (0,614 dan 0,638 gacha) viloyatida iqtisodning real tarmoqlarining mustahkam rivojlanishi hisobiga amalga oshdi, 2008-yil yakunlariga ko'ra, Buxoro viloyati ikkinchi guruhga o'tdi. Uchinchi guruh - past darajada rivojlanish guruhiga (indeks 1,004 gacha) -Namangan (0,471) viloyati hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi (0,390) kirdi.

Respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan pastroq darajada aholi jon boshiga YAHMning ishlab chiqarilishi quyidagicha ko'rinishga ega: Qoraqalpog'iston Respublikasida 2,2 %ga, Namangan viloyatida - 3,1 %, Surxondaryoda -3,8 %ga, Samarqandda -6,2 %ga, Xorazmda - 3,0 %ga hamda Jizzaxda - 2,3 %ga.

Ko'p hududlar iqtisodi tarkibida sanoat va xizmat ko'rsatish sohasining ulushi ortishida ijobiy tomonga siljish ro'y berdi. Shu bilan birga YAHM tarkibida baribir qishloq xo'jaligining asosiy tarmoq bo'lib qolishi kuzatilmoqda: Jizzax viloyatida (49 %), Namanganda (38,6 %), Samarqandda (45,6 %), Surxondaryoda (45,5 %), Sirdaryo (43,9 %) hamda Xorazm viloyatida (41,5%). Sanoatning YAHMdagi ulushida past ko'rsatkich Qoraqalpog'iston Respublikasi (8,3 %), Jizzax (7,9 %), Namangan (8,0 %) hamda Surxondaryo viloyatlarida (7,3 %) saqlanib qolmoqda.

14 ta hududdan 6 tasida sanoat mahsulotining ishlab chiqarilishi sur'atlarining o'sishi respublika bo'yicha o'rtacha darajadan yuqori bo'ldi. Agar umuman mamlakat bo'yicha 112,1 %ni tashkil qilgan bo'lsa, Samarqandda - 120,7 %, Toshkent sh.da - 121,1 %, Andijonda - 118,9 %, Qoraqalpog'iston Respublikasida - 112,0 %, Toshkent viloyatida - 113,3 %, Qashqadaryoda -113,5 %ni tashkil qildi.

2011-yilga nisbatan 2012-yilda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish indeklari, Buxoro (1,004 dan 0,006 gacha), Samarqand (0,550 dan 0,553gacha), Farg'ona (0,614 dan 0,638 gacha) viloyatlarida hamda Toshkent sh. da (1,801 dan 1,879 gacha) o'sdi. Qolgan hududlarda bu ko'rsatkich pasaydi. Aholi jon boshiga sanoat mahsulotini ishlab chiqarishda Navoiy (1,728 dan 1,768) viloyati yetakchi o'rinni egallab turibdi. Bu ko'rsatkich respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan 4 martadan yuqori hamda Qoraqalpog'istonda (0,390 dan 0,406 gacha) yuzaga kelgan vaziyatdan 20,6 marta yuqoridir.

### 17.3-jadval

#### Hududlarni aholi jon boshiga YAHM ishlab chiqarish bo'yicha guruhlash

2011-yil.		2012-yil.	
I guruh (indeks 1,000 dan yuqori)			
Navoiy	1,728	Navoiy	1,768
Toshkent sh.	1,801	Toshkent sh.	1,879
Buxoro	1,004	Buxoro	1,006
Toshkent viloyati	1,036	Toshkent viloyati	1,064
II guruh ( indeks 0,500 dan 1,000 gacha)			
Qashqadaryo	0,807	Buxoro	0,970
Jizzax	0,573	Qashqadaryo	0,829
Andijon	0,620	Andijon	0,682
Sirdaryo	0,652	Farg'ona	0,608
Farg'ona	0,614	Jizzax	0,545
Xorazm	0,539	Sirdaryo	0,638
Surxondaryo	0,500	Xorazm	0,553
Samarqand	0,550	Samarqand	0,553
		Surxondaryo	0,506
III guruh (indeks 0,500 dan kam)			
Namangan	0,471	Namangan	0,475
Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,390	Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,406

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlari asosida hisoblangan.

Ehtiyoj tovarlari ishlab chiqarish bo'yicha 2012-yilda barcha hududlar o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minladi. Butun respublika bo'yicha ehtiyoj tovarlar ishlab chiqarish o'sishi 107,6 %ni tashkil qildi. Respublika darajasidan yuqori ko'rsatkich Xorazm (112,5 %), Andijon (109,3 %), Toshkent (113,0 %) viloyatlari hamda Toshkent sh.da (106,1 %) yuzaga keldi.

Ehtiyoj tovarlari ishlab chiqarish sur'atlari o'sishi qayd etilgan hududlarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, zamonaviy uskunalarni o'rnatish, sanoat ehtiyoj tovarlarni ishlab chiqarishda eng yangi texnologiyalarni qo'llash hamda yangi raqobatbardosh mahsulot chiqarish natijasida amalga oshdi.

Aholi jon boshiga ehtiyoj tovarlarini ishlab chiqarish indeksi 14 ta hududdan 6 tasida pasaydi. Qashqadaryo (0,379dan 0,399ga), Navoiy (0,428dan 432ga), Samarqand (0,798dan 0,814ga), Toshkent (1,010dan 1,11 ga), Farg'ona (0,806dan 0,880ga) hamda Xorazm (0,409dan 0,413ga) viloyatlarida bu ko'rsatkich o'sdi. 14 ta hududdan 10 tasida ehtiyoj tovarlarini ishlab chiqarish indeksi respublika darajasidan past. Bu ko'rsatkich bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Andijon viloyatida (3,334) yuzaga keldi. Qoraqalpog'iston Respublikasida aholi jon boshiga ehtiyoj tovarlari ishlab chiqarish Andijon viloyatiga qaraganda 15,1 martaga past. Iste'mol bozorini shakllantirishda saqlanib qolayotgan hududiy disproportsiya hududlarni kompleks tarzda hamda balanslashtirilgan holda rivojlantirishda muhim muammoligicha qolmoqda.

Mamlakat bo'yicha 2012-yilda umuman olganda qishloq xo'jaligining o'sish sur'ati 107,0 %ni tashkil qildi. Namangan (107,0 %), Buxoro (106,3 %), Farg'ona (106,2 %), Andijon (107,6 %), Qashqadaryo (107,3 %), Navoiy (106,8 %), Jizzax (106,8 %), Samarqand (106,1 %) viloyatlarida ko'rsatkich bu darajadan yuqori bo'ldi. Bunga paxta xomashyosi hamda don mahsulotlari yetishtirishning yuqori sur'atlari natijasida erishildi.

Aholi jon boshiga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish indeksleri hisob-kitobi shuni ko'rsatdiki, 2010-yilga nisbatan 2012-yilda 14 ta hududdan 5 tasida indekslar ko'tarildi. Bu ko'rsatkichning pasayishi Jizzax (1514 dan 1,436 ga), Qashqadaryo (0,994dan 0,958 ga), Navoiy (1,343 dan 1,339 ga), Surxondaryo (1,124 dan 1,111 ga), Sirdaryo (1466dan 1,402 ga), Toshkent (1,393 dan 1,273 ga), Farhona (0,799 dan 0,798 ga) viloyatlarida kuzatildi. 9 ta hududda aholi jon boshiga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori. Eng yuqori ko'rsatkich Buxoro viloyatiga (536,6 ming so'm), eng past ko'rsatkich esa Qoraqalpog'iston Respublikasiga (189,1 ming so'm) to'g'ri keldi. Oradagi tafovut 2,8 martani tashkil qildi.

Investitsiyalar bo'yicha 2012-yilda barcha hududlarda o'sish kuzatildi. Nisbatan o'sish sur'atlarining yuqori ko'rsatkichlari 14 ta hududdan 7 tasida amalga oshdi. Respublika bo'yicha o'rtacha 122,9 % darajasida Qoraqalpog'iston Respublikasida 220,0 %, Buxoro viloyatida-181,5 %, Namanganda-144 %, Toshkentda-139,1 %, Surxondaryoda-131,4 %, Farg'onada - 128,5 %, Navoiyda esa - 123,9 % ni tashkil qildi.

Bularning barchasi hududda yoqilg'i-energetika kompleksini rivojlantirish maqsadida yo'naltirilgan katta investitsiyalar hisobiga (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro viloyati); ijtimoiy infratuzilmani yaratish (Namangan, Toshkent, Surxondaryo, Farg'ona viloyatlari); Surxondaryo hamda Qashqadaryo viloyatlarida temiryo'l tizimining qurilishi tufayli amalga oshdi.

Indekslarning aholi jon boshiga hisob-kitobi shuni ko'rsatdiki, 2012-yilga nisbatan 2010-yilda 14 hududdan 6 tasida indekslar ko'tarildi. Pasayish Andijon (0,365dan

0,347 ga), Jizzax (0,547 dan 0,457 ga), Qashqadaryo (1,972 dan 1,638 ga), Navoiy (2,534 dan 2,497 ga), Samarqand (0,548 dan 0,487 ga), Sirdaryo (0,760 dan 0,610 ga), Xorazm (0,493 dan 0,443 ga) viloyatlari hamda Toshkent shahrida (2,382 dan 1,938 ga) kuzatildi. Eng yuqori ko'rsatkich Navoiyda (2,497), eng past esa - Andijon (0,347) viloyatlarida yuzaga keldi. Tafavut 10 martani tashkil qiladi.

2012-yilda hududiy investitsion siyosatning o'ziga xosligi shunda bo'ldiki, Toshguzar-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'li qurilishi bilan bog'liq yirik investitsion loyihani amalga oshirish yakunlandi. Mazkur temir yo'l janubiy hududlarning dadil rivojlanishiga, ularning boy tabiiy resurslarini o'zlashtirishga katta turtki beradi.

Ijoiy siljishlarga qaramay, ba'zi bir hududlar investitsiyalash nuqtai nazaridan e'tiborni tortmayapti. Investitsiyalarning asosiy qismi Toshkent sh., Qashqadaryo, Toshkent hamda Navoiy viloyatlarida jamlangan. Bu hududlar ulushiga (Navoiy viloyatisiz) o'rta hisobda 2005-2012- yillarda to'g'ridan-to'g'ri jalb qilingan barcha xorij investitsiyalarining 70 %dan ortiq to'g'ri keldi. Bu ko'rsatkich bo'yicha eng past daraja Jizzax (0,2 %), Sirdaryo (1,0 %), Xorazm (1,7 %), Surxondaryo (1,9 %), Namangan (2,1 %) viloyatlarida.

Yangi qurilgan, loyiha muddatidan bir yil oldin foydalanishga topshirilgan 223 kilometrlik «Toshguzar-Boysun-Qumqo'rg'on» temir yo'lining yurtimiz taraqqiyotidagi o'ri va ahamiyati beqiyosdir.

2008-yil uchun tasdiqlangan yil qurilishi dasturiga muvofiq, 245 kilometrlik avtomobil yo'llari qurildi va rekonstruksiya qilindi, 1 ming 750 kilometrdan ko'proq xalqaro va davlat ahamiyatiga molik umumiy foydalaniladigan yo'llar kapital va joriy ta'mirdan chiqarilib, foydalanishga topshirildi<sup>5</sup>.

2012-yilda chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari barcha hududlarda ancha yuqori bo'ldi. Respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich o'sishi 13,9 % bo'lganda, Navoiy viloyatida 117,9 %, Namangan - 116,6 %, Buxoro - 113,1 % Sirdaryo - 111,8 %, Toshkent - 111,4 %, Jizzax - 115,5 %, Surxondaryo - 112,7 % va Toshkent sh. da - 111,0 %ni tashkil qildi. Chakana savdo aylanmasining yuqori darajada o'sish sur'atiga xususiy sektor va kichik tadbirkorlikni faollashtirish hisobiga xizmat ko'rsatish tarmohini kengaytirish tufayli erishildi.

2012-yilda chakana savdo aylanmasining aholi jon boshiga indeksi hisobida Buxoro (0 911dan 0,931 ga), Navoiy (1 061 dan 1,101ga), Namangan (0,718dan 0,772ga), Sirdaryo (600 dan 0,627 ga), Toshkent (1,105 dan 1,132ga), Xorazm (0,755dan 0,758ga) viloyatlarida hamda Toshkent sh. da (3 274dan 3,351 ga) ko'tarildi. 14 hududdan 11 tasida chakana savdo aylanmasining aholi jon boshiga hajmi mamlakat bo'yicha darajadan past bo'ldi. Eng past ko'rsatkich Qoraqalpog'iston Respublikasida (155,9 ming so'm) yuzaga kelib, Toshkent shahridagi mana shunday ko'rsatkichga nisbatan (1180,4 ming so'm) 7,6 martaga past bo'ldi. Chakana savdo aylanmasining aholi jon boshiga to'g'ri kelishi, shuningdek, Jizzax (195,0 ming so'm) viloyatida qayd qilindi.

2012-yilda pulli xizmat ko'rsatish sur'atlarining o'sishi mamlakat bo'yicha o'rtacha 114,3 % ni tashkil qildi. Bu ko'rsatkichdan yuqori daraja Qashqadaryo

<sup>5</sup>Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash - barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir. 2007-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasii majlisidagi ma'ruzasi.



10,2 %) viloyatlari hamda Qoraqalpohiston Respublikasida (116,3 %) qayd qilindi. Aholi ta'lim tibbiyot, transport xizmati, shuningdek, aloqa va Internet xizmatlari sishining yuqori sur'ati bilan ta'minlandi. Aholi jon boshiga pulli xizmat ko'rsatishning g yuqori hajmi Toshkent sh. ga (421,4 ming so'm), eng past ko'rsatkich esa – Qoraqalpog'iston Respublikasi (47,0 ming so'm), shuningdek, Jizzax (47.2 ming so'm) va Surxondaryo (46,9 ming so'm) viloyatlariga to'g'ri keladi.

Hududlarning ijtimoiy taraqqiyotida ijtimoiy infratuzilma obyektlarida mavjud bo'lgan katta tafovut, ayniqsa, shahar hamda qishloq joylarida, bilan bog'liq bir qator muammo va nomutanosibliklar kuzatilmogda.

Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasidagi maktabgacha bolalar muassasalari, sog'liqni saqlash tarkibining birinchi qo'riq ruhinig moddiy-texnik bazasi bo'shligicha qolmogda.

Mehnat hamda bandlik bozorida hududiy nomutanosiblik saqlanib qolmogda. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Navoiy, Namangan va Surxondaryo viloyatlarida ishsizlik darajasi respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori 2008-yilda hududlar bo'yicha aholining pul daromadiga ko'ra farq (5,9 dan 5,8ga) pasaygan bo'lsa-da, bu ko'rsatkich ancha balandligicha qolmogda.

Umuman 2013-yil yakunlariga ko'ra, YAHM ishlab chiqarishda 8,0 foizga sanoat ishlab chiqarishda 8,8 foizga hamda pulli xizmat ko'rsatish sohasida 14,8 foizga hududlararo farq pasaydi. Qolgan ko'rsatkichlar bo'yicha esa iste'mol tovarlari ishlab chiqarish 14,9 martadan 15,1 martaga qishloq xo'jaligida 2,7 martadan 2,8 martaga, investitsiyalar bo'yicha - 6,9 martadan 10,0 martaga, chakana savdo aylanmasida 7,2 martadan 7,6 martaga hududlararo farq oshishi qayd etildi.

2010-2013-yillarda aholi turmushini oshirish strategiyasi asosida hududlarni kompleks tarzda rivojlantirish strategiyasi shuni nazarda tutadiki, iqtisodiy o'sish sur'atlarining barcha hududlarini qamrab olishi, ularning iqtisodiy taraqqiyoti hamda aholi turmushining yaxshilanishi darajasida mavjud farqni kamaytirishi kerak. Shu maqsadda hududlarimizni kompleks tarzda rivojlantirish dasturini ishlab chiqib, davlat tomonidan bilan birgalikda joylarda uning amalga oshirilishini ta'min etadi. Bu dastur maqsadning qazib olish va qayta ishlash hududlarini rivojlantirishni, shuningdek, mahalliy va mineral qishloq xo'jaligi xomashyolarini, shuningdek, rekreatsion resurs va tabiiy-iqlim resurslarini imkon qadar nazarda tutadi. Ko'rsatilgan dasturlar yangi ishchi o'rni yaratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hududiy dasturiga yaqin bog'langan bo'ladi.

Hududlararo farqning shakllanishida Navoiy viloyati (YAHM, sanoat hamda investitsiyalar bo'yicha) va Toshkent sh. (boshqa ko'rsatkichlarga ko'ra) eng katta ta'sir o'rsatmogda. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yuzaga kelgan muammo va nomutanosibliklarni hisobga olgan holda, 2008-yilda hukumat tomonidan 2010-2013-yy.larda O'zbekiston hududlarini rivojlantirishning maqsadli dasturi qabul qilindi. Dastur maqsadining maqsadi - barcha hudud aholisining turmush tarzini iqtisodni rivojlantirish va dadil o'sishi hisobiga yaxshilash. Bunda quyidagilar bosh vazifa hisoblanadi:

- tabiiy-iqtisodiy imkoniyatdan kompleks hamda samarali foydalanishni ta'minlash;
- kichik biznes, kasanachilik va bozor infratuzilmasi asosida bandlikni oshirish;

- to'g'ridan-to'g'ri xorij investitsiyalarini keng jalb etish; shahar hamda qishloqlarda yuqori texnologik ishlab chiqarishni yaratish;
- qishloq joylariga alohida e'tibor qaratgan holda maqsadli ijtimoiy dasturlar hamda loyihalar paketini amalga oshirish;
- mahalliy hukumat organlarining moliyaviy bazasini mustahkamlash, aholini turarjoy bilan ta'minlash va shaharlar barpo etish tizimini takomillashtirish.

### **Qisqacha xulosalar**

Iqtisodiy o'sishga strategik jihatdan urg'u berilishi ham chet el kapitalini ko'p miqdorda jalb qilish, ham ichki jang'armalar hisobiga iqtisodiyotning real sektoriga investitsiyalar jalb qilishni talab etadi. Ko'pchilik iqtisodchilar mamlakatda investitsiyalarni moliyalashtirishning ichki manbalarini ko'zdan kechira turib, davlatning budget mablag'laridan tashqari, asosan barcha mulk shakllaridagi korxonalar va tashkilotlar, fermer xo'jaliklarining xususiy mablag'larini ko'zda tutgan edilar. Masalaning bunday qo'yilishi bozor munosabatlari shakllanishining boshlang'ich davriga mos tushgan edi. Bu borada Respublika tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankida ma'lum tajriba mavjud. Milliy bankning bosh kredit boshqarmasi ayrim davlat korxonalarining hujjatlashtirilgan akkreditiv bo'yicha to'lov majburiyatlarini bank kreditlari hisobidan to'plashni amalga oshiradi.

Respublikamizda ham kichik va o'rta biznes korxonalarining hujjatlashtirilgan akkreditivlar bo'yicha to'lov majburiyatlarini banklar hisobidan to'lanishi ushbu korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishga kuchli turki beradi.

Mamlakatimizda ham kichik va o'rta biznes korxonalarini faoliyatini rivojlantirish hukumatomiz iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Respublikamizda chet el investitsiyasi kiritilgan korxonalar soni 2005-yil boshida 2412 taga yetdi.

O'zbekiston hukumati iqtisodiy investitsiya dasturida kichik va o'rta biznes korxonalarini rivojlantirishga, ularni kredit liniyalari hisobidan moliyalashtirishni kengaytirishga alohida e'tibor berilgan. Xususiy tarmoq va kichik tadbirkorlikni rivojlantirishni jadallashtirish va uning YAMMdagi ulushini ko'paytirish, bozor iqtisodiyotiga mos tovar va xizmatlar bozorini shakllantirishda asosiy vazifalar quyidagilar hisoblanadi: davlat tashkilotlarining xususiy tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvini cheklash, xususiy tadbirkorlikni resurslar va sotish bozorlaridagi ishtirokini kengaytirish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash va qo'shimcha soliq imtiyozlarini joriy etish.

Xususiylashtirilgan korxonalariga ishlab chiqarish quvvatlarini texnik qayta jihozlashga, yangi texnologiyalarni tatbiq etishga yo'naltirilgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish maqsadida bir qator korxonalar aksiyalar paketlari sarmoyadorlar tomonidan obyektlarning qiymatiga kiritiladigan yoki qo'shimcha qabul qilinadigan investitsion majburiyatlarni qabul qilish bilan amalga oshiriladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Hududiy innovatsion strategiyasi nima?
2. Hududiy strategiya qanday tartibga va tuzilishga ega?
3. Hududiy rivojlantirishda muqobil strategiya qanday aniqlanadi?

4. Iqtisodiyotni rivojlantirishda innovatsion shart-sharoitlar nimalardan iborat?
5. Amortizatsiya nima?
6. Energiya sig'imi qanday aniqlanadi?
7. Innovatsion loyihalar qanday foyda beradi?
8. Iste'mol tovarlarini ishlab chiqarishda qaysi hududlar peshqadamlik qilmoqda?
9. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda aholi jamg'armalaridan qanday foydalaniladi?

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. Karimov I. "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi"//Xalq so'zi, 2014-iy 18-yanvar.

2. Ishmuxamedov A.E. O'zbekiston milliy iqtisodiyoti. Darslik – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. - 304 b.

3. Ishmuxamedov A.E. va boshqalar. Mintaqa iqtisodiyoti. Darslik – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2007. - 359 b.

4. Tuxliyev N. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. - T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 280 b.

– Internet veb-saytlari.

[www.gov.uz](http://www.gov.uz).

[www.pressservice.uz](http://www.pressservice.uz).

[www.pca.uz](http://www.pca.uz).

[www.micro-macroiqtisodiyot.fan.uz](http://www.micro-macroiqtisodiyot.fan.uz).

## 18-bob. JAHON IQTISODIYOTIDA INTEGRATSIYALASHISH YO'LLARI

### 18.1. Tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari va shart-sharoitlari

Mustaqillik e'lon qilinish, milliy valyuta joriy etilgach, O'zbekiston sho'ro davridagi xomashyo resurslari va yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan bir yoqlama, samarasiz iqtisodiy aloqalarini to'xtatishi zarur edi. Bunday sharoitda samarasiz, tanazzulga yuz tutgan iqtisodiy aloqalardan voz kechib, jahon bozoriga chiqish O'zbekiston uchun iqtisodiy inqirozni yengib o'tishning yagona yo'li edi.

O'sha davrda O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning sa'y-harakatlari tufayli mamlakat xalqaro savdo-iqtisodiy aloqalarni, avvalambor, G'arbiy Yevropaning rivojlangan mamlakatlari, AQSH, Yaponiya va iqtisodi jadal rivojlanayotgan boshqa davlatlar bilan kengaytirishga qaratildi. Bu siyosat biron-bir mamlakatga qarshi yo'naltirilmagan edi. U iqtisodiyotimiz uchun nisbatan qulay savdo sharoiti yaratishga, sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa tarmoqlarda tuzilmaviy o'zgarishlar qilishga imkon beradigan mutanosib xalqaro savdo-iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yishga qaratilgan edi.

Mutanosib tashqi iqtisodiy faoliyatni yo'lga qo'yish jarayonidagi faol chora-tadbirlar O'zbekistonga tashqi iqtisodiy savdoni ham mamlakatlar, ham tarmoqlar miqyosida restrukturizatsiya qilish imkonini berdi. Ilgari O'zbekistonning bevosita savdo aloqalari bo'lmagan xorijiy mamlakatlar, birinchi navbatda dunyoning rivojlangan davlatlari bilan savdo aloqalari salmog'i 2011-yildagi butun tashqi savdo aylanmasida 5,7 %ga yetdi. Endilikda O'zbekistonning to'lovga qobiliyatli hamkor sifatidagi xalqaro obro-e'tibori oshib bormoqda.

Hamkorlikka asoslangan tashqi iqtisodiy siyosatga quyidagi tamoyillar asos qilib olingan: mafkuraviy qarashlardan qat'i nazar, tashqi munosabatlarda ochiqlik, teng huquqli va o'zaro manfaatli hamkorlik, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik; to'la ishonch negizida ham ichki tomonlama, ham ko'p tomonlama tashqi aloqalarni o'rnatish va rivojlantirish; o'zining milliy davlat manfaatlarini har tomonlama hisobga olish; unume'tirof qilingan xalqaro huquq me'yorlariga rioya qilish va xalqaro andozalarga izchillik bilan o'tish.

Respublikamiz Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, Yevropa va Osiyo tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Hamdo'stlik regional-iqtisodiy tashkiloti va boshqa e'tiborli xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlarning teng huquqli a'zosi. Bu xalqaro tashkilotlar faoliyatidagi ishtiroki mamlakatimizga bir qancha yirik davlatlararo loyihalarni birgalikda amalga oshirish, mintaqalararo muammolarni hal etish imkonini beradi.

O'zbekiston dunyoning 140 dan ortiq mamlakati bilan tashqi savdo qilmoqda. Dunyodagi iqtisodiy rivojlangan davlatlar bilan tashqi savdoning ulushi ko'payib bormoqda. Chet ellardan qo'shimcha moddiy-moliyaviy resurslar jalb qilish, jahon fan-texnikasi yutuqlarini iqtisodiyotga joriy etish, aholining sifatli, xilma-xil tovarlarga, ishlab chiqarishni zamonaviy texnika va texnologiyaga bo'lgan talabini qondirish, xizmat sohasini rivojlantirishda chet el tajribalaridan foydalanish, qo'shimcha ish o'rinlarini vujudga keltirish maqsadida olis xorijiy mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy savdo rivojlantirilib borilmoqda.

Tashqi savdo balansi, eksport va import hajmlari jahlili ahamiyatlidir. 2003-yil oxirida valyuta bozorini erkinlashtirish va milliy valyutaning joriy operatsiyalar bo'yicha konvertatsiyalanishini ta'minlash yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlar tashqi savdo faoliyatida muayyan ijobiy natijalarga erishishda muhim omil bo'ldi. 2013-yilda 2012-yildagiga nisbatan tashqi savdo aylanmasi 29,8 mlrd. dollarni tashkil etdi.

Savdo balansining o'sishi ijobiy bo'ldi, 2013-yilda 2012-yilga nisbatan 1300,0 mln. dollarni tashkil etdi. Tahlil qilinayotgan davrning o'ziga xos xususiyati xorijiy mamlakatlar va MDH mamlakatlari bilan tovar ayirboshlashdagi ijobiy qoldiqqa (saldo) erishganligidadir. Vaholanki, o'tgan uch yilda MDH mamlakatlari o'rtasida qoldiq salbiy bo'lgan edi, 2012-yilda ijobiy qoldiq 2331,1 mln. dollarni tashkil qildi. Lekin hali ham ijobiy qoldiqning asosiy qismi xorijiy mamlakatlar hissasiga to'g'ri kelmoqda va 1872,0 mln. dollarni tashkil etmoqda.

Eksport tarkibida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Barcha yirik tovarlar guruhlari bo'yicha 2011-yildagiga nisbatan eksport hajmi ko'paydi. Yuqori o'sish tayyor mahsulotlar hissasiga to'g'ri keldi. Mashina va uskunalarni eksport qilish 29 %, oziq-ovqat tovarlari eksporti 6 % o'sdi. Natijada eksportda mashina va uskunalarining ulushi 2,9%, kimyo mahsulotlariniki – 5,0 % va oziq-ovqat tovarlarining ulushi 6 %ni tashkil qildi. Eksportga chiqarilgan qishloq xo'jaligi texnikalari, kabel-o'tkazgich mahsulotlari, yarim o'tkazgich uskunalar, o'g'itlar, parfumeriya va pardoz buyumlari, plastmassalar va meva-sabzavot mahsulotlarining hajmlari o'sdi. Yengil sanoat mahsulotlari orasida boshqa tovarlar guruhiga kiruvchi to'qimachilik kiyimlari, trikotaj gazlamalar va kiyimlar eksporti ortdi. Xizmatlar eksporti hajmi 72 %ga oshdi. Ular orasida avvalgi davrlardagidek 70 %dan ko'prog'ini transport xizmatlari tashkil etdi.

Tashqi savdo mamlakatlararo rivojlantirilishi O'zbekistonga uning tarmoqlar bo'yicha yo'nalishini ham ancha takomillashtirish imkonini berdi, eksportda xomashyo resurslari, avvalo, paxta tolasi miqdori kamaydi va tayyor mahsulot hajmi ortdi. Importda oziq-ovqat va nooziq-ovqat iste'mol mollari hajmi qisqardi hamda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va tuzilmaviy qayta qurish uchun zarur mashina va uskunalar, zamonaviy texnologiyalar salmog'i keskin o'sdi.

O'zbekiston-Rossiya azaldan yirik iqtisodiy hamkorlardan biridir.

Iqtisodiy inqirozdan chiqish darajasiga ko'ra, Rossiyaning O'zbekiston tashqi-savdo aylanmasidagi ulushi 1999-yildagi 13 foizdan 2012-yilda 19,2 %gacha o'sdi. Faqat 2012-yilning o'zida ikki mamlakat o'rtasidagi tashqi savdo aylanmasi eksport hajmi 17,1 %, import 23,4 %ga o'sdi. Bu borada yanada jadal yuksalish uchun yaxshi imkoniyatlar mavjud.

Savdo aylanmasi tarkibi yanada takomillashib, unda ikki mamlakat iqtisodiyotidagi tuzilmaviy o'zgarishlar o'z aksini topa boshladi. Masalan, 2009-yilda O'zbekistondan Rossiyaga eksport hajmida asosiy ulushni mashina va uskunalar (23%), paxta tolasi (7%) tashkil qildi. Vaholanki, 1994-yilda bu ko'rsatkichlar tegishli ravishda 11 va 64 % edi.

Rossiyadan O'zbekistonga eksport hajmida ham asosiy ulushni mashina va uskunalar (38 %), kimyo mahsulotlari (20 %), yog'och, qog'oz, karton, mebel (24 %) tashkil etdi. 1994-yilda esa, Rossiya O'zbekistonga asosan energiya manbalari (39 %), oziq-ovqat mahsulotlari (15 %), qora metall (14 %) eksport qilgan edi.

O'zbekistonning Rossiya bilan aviasozlik sohasidagi hamkorligi ham sezilarli darajada faollashdi. Natijada «V.P.Chkalov nomidagi Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi» davlat aksionerlik jamiyati bazasida yuk va yo'lovchi tashuvchi zamonaviy havo kemalarini hamkorlikda ishlab chiqarish rivojlanmoqda. E'tiborli tomoni shundaki, Toshkent aviazavodi tuzilgan shartnomalarga muvofiq 2005-yilda Rossiya va boshqa mamlakatlarga 15 ta samolyot yetkazib beradi, bu islohotlar boshlangan davrdagidan ancha ko'pdir.

«O'ZDEUavto» qo'shma korxonasining ham rossiyalik sheriklar bilan hamkorligi yanada faollashmoqda. Bir tomondan, uning Rossiyaga eksporti salmog'i ortmoqda. Taxminlarga ko'ra, eksport hajmi 2012-yilda 235 518 ta avtomobilni tashkil etdi. Ikkinchi tomondan, rossiyalik po'lat quyuvchilar mahsuloti sifatining ortib borayotganligi O'zbekiston avtomobillari uchun xarid qilinadigan issiq-sovuq usulda mahsulotni Rossiyaning «Sevrostal» kompaniyasidan olish imkonini beradi. Shunisi ahamiyatga molikki, O'zbekistonning aviatsiya va avtomobil zavodlari Rossiya Federatsiyasining 957 korxonasiga butlovchi qismlar va materiallar uchun buyurtma bergan.

O'zbekiston va Rossiya savdo aloqalari faollashib borayotganining sababi nimada? Javob aniq – har ikki mamlakat iqtisodiyotida o'sish kuzatilmoqda.

Iqtisodiy rivojlanishning barqaror sur'ati, u bilan bog'liq savdo va to'lov balansining ijobiy saldosi, aholi real daromadlarining muttasil o'sayotgani shundan dalolat beradiki, Rossiya tobora qulay, hududiy jihatdan yaqin, to'lovga layoqatli bozorga aylanmoqda. Bu bozorga o'zbek tovar ishlab chiqaruvchilari o'zlarining xilma-xil mahsulotlarini yetkazib berishi mumkin.

Rossiya tovarlari asosiy eksport nomenklaturasining qulay konyunkturasi asosida o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlar tufayli qisqa muddatda bozor sharoitida faoliyat ko'rsata oladigan kuchli xususiy sektorni yaratish imkoni vujudga keldi. Samarasiz ishlayotgan korxonalarining aksariyati yangi xususiy mulkdorlar qo'liga o'tdi yoki tanazzulga uchradi. Bu esa Rossiya korxonalarining, umuman, iqtisodiyotining sog'lomlashuviga olib keldi. Rossiyada moliya-sanoat xoldinglari va kompaniyalari tashkil etilgan. Ular mamlakat ichida va chet ellarga o'z sarmoyalarni kiritish bo'yicha katta investitsiyaviy imkoniyatlarga ega. So'nggi uch yil ichida mamlakatda asosiy kapitalga investitsiya kiritish hajmi o'rtacha 10,5 %ga ortdi.

Tabiiy ravishda, Rossiya sarmoyasi xalqaro bozorga ham dadil kirib bormoqda. Uning yetakchi kompaniyalari esa muntazam ravishda rivojlangan va rivojlanayotgan o'nlab davlatlarda milliardlab dollar miqdorida o'z investitsiyaviy strategiyasini amalga oshirmoqda.

Rossiya sarmoyadorlarining O'zbekiston iqtisodiyotiga keng miqyosda investitsiya kiritishga qiziqishi tobora ortib bormoqda. Bu, avvalo, neft va gaz qazish, ularni qayta ishlash, telekommunikatsiya, kon sanoati, metallurgiya, mashinasozlik, asbobsozlik, elektrotexnik mahsulotlar ishlab chiqarish, qurilish materiallari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash kabi eksportga yo'naltirilgan sohalar va boshqa istiqbolli tarmoqlarda o'z ifodasini topmoqda.

Jumladan, 2004-yilning aprelida Rossiyaning «Gazprom» kompaniyasi bilan «Shoxpaxta» gaz konida gaz qazib olish va undan foydalanishdagi ishtiroki bo'yicha mahsulot taqsimoti to'g'risida bitim imzolandi. Ayni paytda «Gazprom» bilan Ustyurt

neft-gaz konlarida tabiiy gaz geologiya-qidiruv ishlariga, qazib olish va yiliga 10 mlrd.kub metr hajmida realizatsiya qilish mo'ljallangan loyihaga 1,4 mlrd. AQSH dollari miqdorida sarmoya kiritilishini ko'zda tutuvchi bitim ishlab chiqilmoqda.

«Lukoil» kompaniyasi bilan mahsulot asosida Qandim, Xauzak, Shodi gaz konlarida tabiiy gaz qazib olish va birgalikda realizatsiya qilish bo'yicha yirik bitim tayyorlanmoqda. Bunda «Lukoil» kompaniyasi 1 mlrd. AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritadi va loyihaning amalga oshirilishi 200 mlrd.kub metrga yaqin tabiiy gaz qazib olish imkonini beradi.

Mashinasozlik, asbobsozlik, elektrotexnika sanoatidagi texnologik kooperatsiyaga asoslangan samarali aloqalar tiklanmoqda. Kabel mahsulotlari, elektrotexnik mashinalar, jihozlar va apparatura ishlab chiqarish sohaslarida 19 ta O'zbekiston-Rossiya qo'shma korxonasi faoliyat yuritmoqda. 33 ta qo'shma korxonada sanoat va maishiy turdagi asbob-uskunalar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Mashinasozlik, mashina va jihozlarni ta'mirlaydigan 68 ta qo'shma korxonada tuzilgan.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohasida integratsiya chuqurlashmoqda. Bu sohada 9 ta O'zbekiston-Rossiya qo'shma korxonasi, jumladan, mashhur «Baltimor», «Cherkizovo» va boshqa kompaniyalar bilan hamkorlikda tuzilgan korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda.

«Vimm Bill Dan» kompaniyasi yirik «Toshkentsut» birlashmasi aksiyalarining 77 %ini xarid qilish haqida shartnoma imzoladi. Ushbu hujjatda sut mahsulotlarini qayta ishlash va meva sharbatlari ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonada tuzish uchun 20 mln. dollar sarmoya kiritish ko'zda tutilgan.

So'nggi paytlarda Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikning kengayishi iqtisodiy sharoit va o'zaro manfaatlarni ifodalovchi tabiiy jarayonga aylandi. Bunday hamkorlik asosini iqtisodiyotning oyoqqa turishi, har ikki mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi va bir-birini to'ldirishi, hududiy yaqinlik, transport hamkorligining yo'lga qo'yilganligi, sheriklar bir-birining umumiy madaniyatidan, fe'l-atvoridan xabardorligi tashkil etadi.

Qayd etish kerakki, Rossiya bilan O'zbekiston o'rtasida savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy aloqalar kengayishi Markaziy Osiyoning boshqa davlatlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov ilgari surayotgan Markaziy Osiyoda umumiy bozorni yaratish tashabbusi va bunyodkorlik yo'lidagi jiddiy qadam bo'lib, o'z navbatida, jahon iqtisodiyotida mintaqaning investitsiyaviy jozibadorligi va raqobatbardoshligini oshiradi.

Ammo bu, O'zbekistonning Rossiya bilan hamkorligini rivojlantirish istiqbol yillaridagi hamkorlar, birinchi galda Amerika Qo'shma Shtatlari, Yevroittifoq mamlakatlari va Yaponiya bilan an'anaga aylangan iqtisodiy hamkorlikni susaytirish yoki qisqartirish hisobiga amalga oshiriladi, degani emas.

## **18.2. Iqtisodiyotning strategik va asosiy sarmoyadorlari**

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar orasida 2001-yilda AQSH-O'zbekiston strategik sheriklik munosabatlari o'rnatildi. Keyingi yillarda O'zbekistonning AQSH bilan o'zaro tashkiliy savdo aylanmasi 10 %ga oshdi.

O'zbekiston AQSHning yoqilg'i-energetika majmuasi, tog'-kon, kimyo, yengil-sanoat, oziq-ovqat, mashinasozlik sanoati kabi ustuvor tarmoqlarda, shuningdek, shak-



shubhasiz, jahonda yetakchi hisoblangan yuqori texnologiyali mahsulot va axborot texnologiyalari sohasida ham hamkorlikni rivojlantirishga intilyotganini yuksak baholaydi.

Respublikamizda amerikalik sarmoyadorlar ishtirokida tashkil etilgan 453 tadan ortiq korxon ro'yxatga olingan. Ulardan 124 tasi 100 % xorij sarmoyasi ishtirokida tuzilgan.

Amerika kapitali ishtirokida tog'-kon va neft-gaz sanoati, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, oziq-ovqat sanoati hamda transport infratuzilmasi sohaslarida yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

Amerikaning oltin qazib olish bo'yicha «Nyumont Mayning» korporatsiyasi ishtirokida tashkil etilgan «Zarafshon-Nyumont» qo'shma korxonasi, Xo'jaobodda «BiEsAy Industriz Ink» kompaniyasi ishtirokida yer osti gaz ombori, «ABB Lummus Global» kompaniyasi ishtirokida Sho'rtan gaz-kimyoy majmuasi qurilishi, «Tesako» kompaniyasi bilan yuqori sifatli moylar ishlab chiqaradigan «O'z-Teksako» qo'shma korxonasi, «Beyker Xyuz» kompaniyasi bilan Qashqadaryo viloyatidagi Shimoliy O'rtabuloq konida neft qazib olishni ko'paytirish, «Keys Nyu-Xolland» kompaniyasi bilan qishloq xo'jaligi texnikasi ishlab chiqarish, lizing va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha qo'shma korxonalar tarmog'i, akkumulyator ishlab chiqaradigan «O'zEkosayd» qo'shma korxonasi, «Koka-Kola» va boshqa ko'plab qo'shma korxonalar ana shular jumlasidandir.

O'zbekiston moliyaviy sohada 44 qo'shma korxonani moliyalash uchun 1,5 milliard dollar miqdorida kredit ajratgan AQSHning Eksimbank, shuningdek, Ji Pi Morgan Cheyz, Siti grupp va boshqa yirik xususiy banklari bilan faol hamkorlik kilib kelmoqda. AQSHning yetakchi «Amerikan interneshnl grupp» sug'urta xoldingi bilan tuzilgan London va Toshkentda siyosiy hamda tijorat tavakkalchiliklarini sug'urtalash bo'yicha 105 million AQSH dollaridan ortiq kapitalga ega ikkita sug'urta kompaniyasi muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Qo'shma korxonalar mahsulotlari birgina 2010-yilda O'zbekiston eksportining 2,2 %ni va importining 23 %ni tashkil etdi.

O'zbekiston milliy aviakompaniyasi amalga oshirayotgan xalqaro reyslarda yo'lovchi tashishda asosiy vazifani lizing bo'yicha sotib olingan «Boeing» avialaynerlari bajarmoqda.

Shunday qilib, deyarli barcha asosiy jabhalarda Amerikaning yetakchi kompaniyalari ishtirok etmoqda. Ayni paytda AQSHning ishbilarmon doiralari bilan iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish va rivojlantirish dasturi doirasida neft-gaz, tog'-kon sohaslarida, transport tizimini rivojlantirish, telekommunikatsiya, axborot texnologiyalari va boshqa jabhalarda o'nlab istiqbolli yangi loyihalar ishlab chiqilmoqda.

O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi davlatlari bilan 1996-yilda imzolagan «Sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim»ga muvofiq hamkorligi mamlakatimizning ustuvor manfaatlaridan hisoblanadi.

Ayni paytda O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan yillik tashqi savdo aylanmasi 1,2 milliard dollar atrofida bo'lib, shundan taxminan 47 %i mamlakatimiz eksportiga, 53 %i esa O'zbekistonga Yevropa mamlakatlaridan import ulushiga to'g'ri keladi. Yevropa Ittifoqi davlatlari orasida Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Belgiya, Fransiya va Shveysariya 2009-yilda respublikamizning eng yirik savdo



asosiy savdo hamkorimizga aylandi.

Yevropa Ittifoqi davlatlari O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri yirik sarmoya kiritayotgan mamlakatlar hisoblanadi. Respublikamizda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari firma va kompaniyalari bilan hamkorlikda tuzilgan 500 korxonada faoliyat yuritmoqda. Ulardan 115 tasi 100 % Yevropa kapitali bilan ishlamoqda.

O'zbekistonning yevropalik sarmoyadorlar ishtirokida amalga oshirilgan yirik loyihalari orasida tarkibida oltin bo'lgan rudalarni qazib olish va qayta ishlashga ixtisoslashgan Buyuk Britaniyaning «Oksus Mayning» kompaniyasi bilan hamkorlikda tuzilgan «Amantaytau goldfieldz» qo'shma korxonasini, tamaki mahsulotlari ishlab chiqaruvchi «O'zBAT» qo'shma korxonasini, kabel mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha «Doyche-Kabel AG Toshkent» qo'shma korxonasini, avtomobil va qurilish oynalari ishlab chiqaradigan «Tekint» (Italiya) qo'shma korxonasini alohida ko'rsatish zarur.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari uchun O'zbekiston bilan hamkorlik foydali ekanligini quyidagi misollar ham tasdiqlaydi: Yevropa Ittifoqi kompaniya va banklari bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan yirik investitsiya loyihalari – «O'zteleradio kompaniya»ni «Simens» (Germaniya) kompaniyasi bilan texnik qayta jihozlash, «Tomson» (Fransiya) bilan havo yo'llari harakatlarini boshqarish tizimini zamonaviylashtirish, «Eyrbas Indastriz» kompaniyasi avialaynerlarini sotib olish, G'arbda ishlab chiqarilgan samolyotlarga «Lyuftganza Texnik» (Germaniya) bilan texnik xizmat ko'rsatish markazini tashkil etish va boshqa o'nlab loyihalar.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining eksport sug'urta agentliklari va banklari tomonidan O'zbekistonda umumiy qiymati 2,9 milliard AQSH dollariga teng bo'lgan 174 loyiha moliyalashtirildi. Ular sarmoyalash hajmini yanada kengaytirishga tayyorligini bildirmoqdalar, chunki O'zbekiston Respublikasi barcha xalqaro kreditorlar oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarib kelmoqda. Ayni paytda yangi va istiqbolli loyihalar bo'yicha ham ishlar faol davom etmoqda. GFR bilan Toshkent shahrida Xalqaro logistika markazini tashkil etish; kasbiy ta'lim sohasida kadrlar tayyorlash; Fransiya bilan energetika tizimini zamonaviylashtirish va mavjud neft-gaz konlari samaradorligini oshirish; shaharlarning irrigatsiya inshootlari va kommunal infratuzilmasini qayta ta'mirlash; Buyuk Britaniya bilan O'zbekiston janubiy yirik polimetall konlarini o'zlashtirish bo'yicha loyihalar shular jumlasidandir.

Yaponiya bilan 2002-yilda strategik sheriklik munosabatlari o'rnatilgan. Bu davlat mamlakatimizdagi iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar jarayonini izchil qo'llab-quvvatlab kelmoqda.

Yaponiya hukumatining 1994-yildan beri mamlakatimizga 1,6 milliard AQSH dollariga teng kredit va sarmoya, jumladan, «Taraqqiyot uchun rasmiy yordam» (ODA) dasturi doirasida telekommunikatsiya va transport, energetika, ta'lim va boshqa sohalar uchun mo'ljallangan ustuvor loyihalarga imtiyozli davlat kreditlari bo'yicha 720 million AQSH dollariga teng mablag' ajratgani O'zbekiston tomonidan yuksak qadrlanadi.

Yaponiya xalqaro hamkorlik banki (JBIC)ning neft-gaz va to'qimachilik tarmoqlariga to'qqizta loyiha uchun kiritgan 730 million AQSH dollari miqdoridagi tijorat kreditlari O'zbekiston iqtisodiyotining tarkibiy qayta qurilishida katta yordam

bo'ldi. Yaponiya O'zbekiston uchun beg'araz va insonparvarlik yordam doirasida 131 million AQSH dollari ajratdi.

Ayni paytda Yaponiya investitsiyasini temir yo'l, kimyo va to'qimachilik sanoatlarini rivojlantirishga jalb qilish ustida ish olib borilmoqda.

Xorijiy davlatlar bilan hamkorlik 2012-yilda avvalgi yilning shu davridagiga nisbatan uncha katta bo'lmasa ham, import tez sur'atlar bilan, xususan, MDH mamlakatlaridan 1,3 barobar, xorijiy mamlakatlardan 1,28 barobar ortdi. Mos ravishda MDH mamlakatlaridan import mahsulotlarini olib kirish 28,3 %dan 38,6 %ga ko'paydi. Xorijiy mamlakatlardan esa 61,7 %dan 61,4 % kamaydi.

#### 18.1-jadval

#### O'zbekiston eksporti va importining geografik tarkibi

Mamlakatlar	Umumiy hajmga nisbatan ulushi, %			
	Eksport		Import	
	2005-y.	2012-y.	2005-y.	2012-y.
Jami	100	100	100	100
MDH mamlakatlari	31,8	54,3	41,1	38,8
Qozog'iston	4,6	6,5	6,6	8,9
Rossiya	19,0	36,3	25,3	20,4
Tojikiston	2,5	1,2	0,5	0,04
Ukraina	1,6	2,9	6,0	5,5
Xorijiy davlatlar	68,2	45,7	58,9	61,2
Afg'oniston	3,2	7,5	0,3	6,3
Belgiya	1,9	1,1	0,7	0,5
Buyuk Britaniya	6,2	1,5	2,3	0,8
Olmoniya	1,6	0,3	5,9	3,8
Hindiston	0,5	0,3	0,9	1,4
Eron	8,0	2,3	0,7	0,6
Xitoy	4,2	10,3	6,3	14,7
Janubiy Koreya	1,0	0,8	12,5	16,8
Latviya	1,5	0,5	0,9	1,5
AQSH	2,0	0,3	3,7	1,8
Turkiya	6,4	6,0	4,3	3,0
Fransiya	1,6	1,2	1,1	0,9
Shveysariya	2,6	0,1	0,9	0,7
Yaponiya	0,6	0,1	1,3	1,7

Manba: O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2012, SISM, - T.: 2013, 23-b.

Eksport bo'yicha 2012-yildagi yetakchi savdo hamkorlari quyidagi mamlakatlar hisoblanadi: Rossiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Shveysariya, Buyuk Britaniya, Eron, Turkiya, Hindiston, Tojikiston, Latviya, Qozig'iston va AQSH. Ukrainaga eksport qilish hajmida pasayish kuzatilgan. Natijada eksport ulushi 2,0 % darajaga ko'paygan va 5,9 %ni tashkil qilgan.

Importning asosiy qismi (61,2 %) oltita mamlakat – Rossiya, AQSH, Xitoy, Janubiy Koreya, Germaniya, Turkiya hissasiga to'g'ri kelgan: importga nisbatan ulush

Rossiyada 20,4 %, AQSHda 1,0 %, Xitoyda 14,7 %, Janubiy Koreyada 16,8 %, Germaniyada 3,8 %, Turkiyada 3,0 %ni tashkil etgan. Yaponiyadan import hajmi 1,7 %ga ortdi (18.1-jadval).

Tovar ayirboshlashdagi eng ijobiy qoldiq (saldo) Eron, Shveytsariya, Buyuk Britaniya va Hindiston bilan, salbiy qoldiq esa AQSH, Janubiy Koreya, Xitoy, Rossiya va Germaniya bilan aloqalarda kuzatildi. 2012-yilda tashqi savdo aylanishi o'sishi bilan birga mahsulotlarni eksport qilish ko'paydi va savdo balansida ijobiy qoldiqning o'sish tendensiyasi mustahkamlandi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi qo'shma korxonalar soni 2400 tani tashkil etdi.

### 18.3. Xitoy – strategik sherik va yirik hamkor

O'zbekiston tashqi siyosatida Xitoy bilan munosabatlar alohida o'rin tutadi. BMT Xavfsizlik kengashining doimiy a'zosi, iqtisodiy jadal rivojlanayotgan bu davlat bilan hamkorlik qilish iqtisodiy rivojlanishda, milliy va mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashda, globallashtirish jarayoni chuqurlashayotgan va turli siyosiy o'zgarishlar davri bo'lgan hozirgi sharoitda xalqaro siyosat maydonidan munosib o'rin egallashda katta ahamiyat kasb etadi. Xalqaro muammolarni echishda tobora faol qatnashayotgan, dunyoda e'tirof etilgan «Xitoy modeli» tufayli yalpi ichki mahsuloti bir necha yildan buyon 7 – 8 foiz miqdorida barqaror o'sib kelayotgan bu davlat dunyoning yetakchi mamlakatlari qatoridan joy olgan.

Xitoy O'zbekiston bilan hamkorlikni yuksak qadrlaydi. Zero, tashqi dunyo bilan aloqalarni keng ko'lamda rivojlantirish yo'lidan borayotgan mamlakatimiz o'z mintaqasida xavfsizlikning asosiy tayanchi vazifasini o'tayotgani, uning yuksak siyosiy nufuzi va iqtisodiy salohiyati xalqaro miqyosda e'tirof etilmoqda.

Xalqlarimiz qadimdan Buyuk Ipak yo'li orqali bir-biri bilan aloqa qilib, fani va madaniyatini boyitib, tajriba almashib kelgan. Xitoyliklar ayrim qishloq xo'jaligi mahsulotlari, xususan, uzum va beda yetishtirishni O'rta Osiyo xalqlaridan o'rganishgan. Bu yerda esa Chin yurtining ipakchiligi va eritish texnikasi o'zlashtirilgan.

O'zbekiston – Xitoy munosabatlarini rivojlantirish Buyuk Ipak yo'li orqali o'rnatilgan va ravnaq topgan tarixiy aloqalarni tiklash va zamonaviy hamkorlikni kengaytirish nuqtai nazaridan ham dolzarbdir. Ikki mamlakat davlat rahbarlari o'rtasidagi o'zaro hurmat va ishonch, munosabatlarimizning huquqiy poydevori mustahkamligi buning uchun qulay zamin yaratmoqda.

Shiddat bilan o'zgarayotgan bugungi siyosiy, ijtimoiy - iqtisodiy vaziyat nafaqat O'zbekiston va Xitoy kabi yaqin qo'shni davlatlar, balki butun dunyo mamlakatlari hamjihatlikda ish olib borishini taqozo etmoqda. Globallashtirish jarayoni ijtimoiy - iqtisodiy hamkorlikni hamda transport va kommunikatsiya aloqalarini rivojlantirishni, terrorchilik, ekstremizm, transmilliy uyushgan jinoyatchilik, narkotik moddalar va qurol-yarog' kontrabandasi, ommaviy qirg'in qurollari tarqalishining oldini olishni, siyosiy aloqalarni yanada rivojlantirishni talab qilmog'ida.

Mana shu masalalarning o'zaro qo'shni O'zbekiston - Xitoy munosabatlarida hamkorlik uchun keng faoliyat maydoni mavjudligini ko'rsatadi. Eng muhimi, aloqalarni rivojlantirishdan, bir-birini qo'llab-quvvatlashdan ikki mamlakat ham birdek manfaatdordir.

Shu ma'noda, XXR Raisining O'zbekistonga davlat tashrifi (2004-yil iyun) o'zaro aloqalar jarayonidagi bugungi ahvolni oliy darajada tahlil etib, istiqbollarni belgilab olish, dolzarb xalqaro va mintaqaviy muammolar yuzasidan fikr almashish uchun qulay imkoniyat yaratdi.

Islom Karimov va Xu Szintaoning yakkama-yakka suhbatida O'zbekiston-Xitoy munosabatlariga doir masalalar muhokama qilindi. Mamlakatlarimiz siyosiy, savdo-iqtisodiy, ijtimoiy sohalarida samarali hamkorlik qilib kelayotgani, xavfsizlik masalalari borasidagi aloqalar faollashayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Darhaqiqat, tomonlar e'tirof etganlaridek, ayni paytda O'zbekiston-Xitoy munosabatlari o'z tarixidagi eng yuqori pog'onaga ko'tarilgan. Buning eng muhim omili hamjihatlikdir. Dunyodagi vaziyat qanday yo'nalishda o'zgarmasin, O'zbekiston va Xitoy yaqin qo'shnihilikni, do'stlik va o'zaro manfaatli hamkorlikni izchil rivojlantiraveradi. Zotan, mamlakatlarimizning qator xalqaro muammolarga munosabat va yondashuvlari o'xshash yohud yaqin.

Ayniqsa, xavfsizlikka tahdid soluvchi terrorchilik, ayirmachilik, ekstremizm va narkobiznes kabi illatlarga qarshi kurashda murosasizlik tamoyiliga har ikki davlat birdek qat'iy tayanadi. Tomonlarning Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasidagi hamkorlik va xavfsizlikni ta'minlash masalasi ustuvor yo'nalishlardandir.

O'zbekiston rahbari ko'p yillardan buyon jahon hamjamiyatini bu illatlarga qarshi kurashda birlashishga da'vat etib kelmoqda. Xitoy tomoni esa xalqaro doiraga terrorchilik, ekstremizm va ayirmachilikni anglatuvchi «uch yovuz kuch» atamasini kiritdi. O'zbekiston Xitoyning «xavfsizlik kamari» tamoyili – qo'shni davlatlar bilan aloqalarni har tomonlama rivojlantirish orqali xavfsizlikni ta'minlash va taraqqiyotni jadallashtirishga asoslangan tashqi siyosatni qo'llab-quvvatlaydi.

Savdo - iqtisodiy hamkorlik - katta sur'at bilan rivojlanmoqda. 2012-yil yanvar – aprel oylarida o'zaro tashqi savdo hajmi 2005-yilning shu davridagiga nisbatan 128 % oshdi.

Hozirgi vaqtda umumiy qiymati 100 million AQSH dollariga teng qator ikki tomonlama loyihalar amalga oshirilmoqda. Muzokara jarayonida turgan jami loyihalarning umumiy qiymati esa 1 milliard dollardan oshadi.

Ikki mamlakat to'qimachilik, qishloq xo'jaligi, mashinasozlik, kimyo, kommunikasiya sohalarida hamkorlik aloqalarini o'rnatgan. Lekin zamon bilan hamqadam bo'lish uchun an'anaviy sohalar bilan cheklanib qolmaslik kerak. Xususiyl tadbirkorlik va kichik biznes vakillarining hamkorligini rag'batlantiruvchi mexanizmlarni, savdo-iqtisodiy munosabatlarni imkon qadar erkinlashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, bu yo'lda uchraydigan to'siqlarni bartaraf etish lozim.

Prezident Islom Karimov xaziradagi imkoniyatlar ko'pligini ta'kidlar ekan, O'zbekiston Xitoy bilan neft-gaz va mineral konlarini o'zlashtirish, volfram va boshqa qimmatli metallarni qazib olish, kimyo sanoati, elektronika mahsulotlari va kompyuter texnikasi ishlab chiqarishda hamkorlik qilishga tayyor ekanini aytdi. Ko'p tomonlama hamkorlik borasida ham qilinishi mumkin va lozim bo'lgan ishlar talaygina. Masalan, Afg'oniston iqtisodiyotining tiklanishi, u yerda barqaror tinchlik o'rnatilishi mamlakatlarimiz manfaatlariga birdek mos keladi. Demak, Afg'onistondagi tiklanish ishlarida birgalikda faol qatnashish, jumladan, mintaqada yangi transport aloqasi tarmoqlarini barpo etish maqsadga muvofiqdir.

Ijtimoiy aloqalarda ham hamkorlikni yanada faollashtirish zarur. Tomonlar O'zbekistonda o'tgan Xitoy madaniyati kunlariga yuqori baho berar ekan, bunday tadbirlarni ko'paytirish xalqlarimizni yaqinlashtirishda muhim omil bo'lishini qayd etdilar. Zero, xalq diplomatiyasi davlatlararo munosabatlarning muhim bo'g'ini sanaladi. O'zbekiston va Xitoy ilm-fan, madaniyat, ta'lim, sayyohlik, sport, sog'liqni saqlash kabi sohalarda ham aloqalarni rivojlantirishdan manfaatdor. Bundan tashqari, ikki mamlakat hukumatlari o'rtasida narkotik vositalarning, psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishi va suiste'mol etilishiga qarshi kurashda hamkorlik qilishga, texnikaviy - iqtisodiy hamkorlikka oid bitimlar imzolandi. Ikkinchi bitimga muvofiq, Xitoy tomoni texnikaviy-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha dasturlar uchun 20 million yuan ajratadi. Hukumatlararo imzolangan boshqa ikki bitim 50 million yuanlik foizsiz va 300 million yuanlik imtiyozli kredit berishni ko'zda tutadi. Savdo - iqtisodiy, sarmoyaviy va moliyaviy hamkorlikni kengaytirish to'g'risidagi memorandum esa mazkur sohadagi aloqalarni rivojlantirish uchun qulay imkoniyat yaratishga qaratilgan. Bulardan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan Xitoy Ta'lim vazirligi o'rtasida Toshkentda Konfutsiy nomidagi institutni tashkil etish bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi bitim, shuningdek, ikki mamlakatning Adliya va Madaniyat ishlari vazirliklari hamda neft - gaz kompaniyalari o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi hujjatlar imzolangan.

Ikki do'st mamlakat - Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi ko'p tomonlama hamkorlik munosabatlari, xususan, o'zaro manfaatli savdo - iqtisodiy aloqalar tobora rivojlanib bormoqda. Tabiiyki, iqtisodiy sohadagi hamkorlikni yanada taraqqiy ettirishda xitoylik ishbiarmonlar bilan birgalikda tashkil etilayotgan qo'shma korxonalar muhim o'rin tutadi. Bugunga kelib, mamlakatimizda Xitoy sarmoyasi ishtirokida tashkil etilgan 101 korxonada faoliyat yuritmoqda.

«Bright Oceans» (VOSO), ayniqsa, o'z mahsulotlari bilan mamlakatimiz bozorida mustahkam mavqega erishgan Xitoy korporatsiyasi hisoblanadi. Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Xu Szintaoning O'zbekistonga davlat tashrifi doirasida «Brayt Oshn» korporatsiyasi Prezidenti Den Vey janoblari ham mamlakatimizga keldi. Fan ta'lim rivojiga katta e'tibor qaratayotgan korporatsiya rahbari safar davomida respublikamiz O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazida bo'lib, ta'lim islohotlarining borishi bilan tanishdi va beg'araz yordam sifatida markazga 15 ta kompyuter taqdim etdi.

2013 -yilda Xitoy va O'zbekiston o'rtasida shartnoma asosida "Jizzah" erkin iqtisodiy zona tashkil qilish, moliyalashtirish, jihozlash va jahon talablariga javob beradigan mahsulot chiqarish to'g'risida kelishuvga erishildi. Bundan tashqari Qamchiq davanida 19 km.li tunnel va "Angren - Pop" temir yo'l qurishga Xitoy moliyaviy qo'llab quvvatlaydi.

#### **18.4. Shanxay hamkorlik tashkiloti – xavfsizlik va hamkorlik garovi**

Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT) tuzilganiga ham ko'p bo'lgani yo'q. Lekin 2001-yildan buyon o'tgan qisqa vaqt davomida u o'zining samaradorligini to'la namoyon etdi va jahon hamjamiyatining e'tiboriga tushdi. 2002-yili Sankt-Peterburg shahrida tashkilotning asosiy ta'sis hujjati – xaritasi qabul qilindi. 2004-yildan Pekinda

uning kotibiyati, Toshkentda esa Mintaqaviy aksiterror tuzilmasi (MATT) doimiy faoliyat ko'rsata boshladi.

SHHT asosiy vazifalari xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash hamda savdo iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishdir. Shu yo'nalishdagi hamkorlik izchil rivojlantirilmoqda. 2020-yilgacha bo'lgan davrda ko'p tomonlama savdo-iqtisodiy hamkorlikni ko'zda tutuvchi dastur qabul qilingan, terrorchilik, ekstremizm va ayirmachilikka qarshi birgalikda kurash to'g'risida bitim imzolangan.

Keyingi paytda yurtimizda xalqaro miqyosdagi bir qator muhim siyosiy voqealar bo'lib o'tganidan yaxshi xabardormiz. Jumladan, Shanxay hamkorlik tashkilotining Toshkent sammiti (2004-yil iyun) mintaqamiz istiqboliga doir qabul qilingan muhim hujjatlar, xalqaro terrorizm va ekstremizmga qarshi birgalikda kurashish, a'zo davlatlar o'rtasida iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash borasidagi aniq amaliy natijalarga boyligi, ishchanlik ruhida o'tgani bilan butun dunyo jamoatchiligi e'tiborini o'ziga tortdi.

Bu nufuzli uchrashuvning yuksak saviyada o'tishi va umuman, mazkur anjumandan ko'zlangan maqsad va vazifalarga ershishda sammit ishiga raislik qilgan O'zbekiston rahbari xizmati katta bo'lgani ham ko'pchilik tomonidan haqli ravishda e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, Prezidentimizning ushbu anjumandagi nutqida Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT) faoliyatini yanada takomillashtirish, xalqaro terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi kurashish, mintaqamizdagi iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha ilgari surilgan g'oya va takliflar sammit ishining ma'no-mazmunini belgilash va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etgani shubhasiz.

Yurtboshimiz o'z nutqida sammit ishtirokchilariga murojaat qilar ekan, kun tartibiga qo'yilgan masalalar haqida to'xtalib, quyidagilarni alohida ta'qidlab o'tdi.

«O'ylaymanki, Toshkent sammiti SHHTning tashkiliy jihatdan shakllanishi va avval tuzilgan tashkiliy tuzilmalar va institutlarni aniq ma'no-mazmun bilan to'ldirishdagi yakuniy bosqich sifatida tarixda qoladi», dedi u.

Hozirgi vaqtda Pekinda SHHTning kotibiyati ish olib bormoqda.

Toshkentda Mintaqaviy antiterror markazi tuzildi. O'tgan davr mobaynida bu masala bo'yicha uch bor yig'ilish o'tkazgan O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirlari kengashi o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni izchil bajarmoqda, SHHTning Muvofiqlashtiruvchi kengashi tezkor, o'ta muhim ishlarni amalga oshirmoqda.

Ushbu sammit arafasida SHHTga a'zo mamlakatlar xavfsizlik kengashlari kotiblarining uchrashuvi hamda iqtisodiyot va savdo vazirlarining majlisi samarali o'tganini alohida qayd etish zarur. Bularning barchasi haqida gapirganda, shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'tgan davrda bajarilgan jami ishlar SHHT mamlakatlari, birinchi galda, Rossiya va Xitoy rahbarlarining Shanxay hamkorlik tashkilotini o'z zimmasiga shu mintaqada yashovchi xalqlar xavfsizligi va barqarorligi hamda faravonligini ta'minlash mas'uliyatini olishga qodir bo'lgan nufuzli xalqaro tashkilotga aylantirishga qaratilgan qat'iy irodasi va azm-u shijoati tufayli amalga oshirildi.

SHHT faoliyati istiqboli va samaradorligi ko'p jihatdan BMT xavfsizlik kengashining doimiy a'zolari bo'lmish ana shu ikki yetakchi davlat – Rossiya Federatsiyasi va Xitoy Xalq Respublikasining faol ishtiroki va hamkorlikdagi

harakatlariga bog'liq. Davlatimiz rahbari Markaziy Osiyodagi vaziyatga baho berar ekan, butun dunyoda xavfsizlik va barqarorlikka tahdid va xavf-xatar oshib borayotgan bir sharoitda bu mintaqa o'zining geosiyosiy va geostrategik ahamiyati hamda boy tabiiy - iqtisodiy, mineral-xomashyo va birinchi navbatda uglevodorod zaxiralari tufayli xalqaro hamjamiyati diqqat markazida bo'lib kelayotganini qayd etdi. Xususan, Afg'onistondagi tiklanish jarayoni bilan bog'liq masalalarga e'tiborni qaratdi.

Voqealar ijobiy yo'nalishda rivojlanayotganiga qaramay, Afg'oniston vaziyatni barqarorlashtirish va mamlakatni tinch yo'l bilan qayta tiklash uchun jiddiy yordamga ehtiyoj sezmoqda. Bu zaminda giyohvand moddalar ishlab chiqarish hajmi ortib borayotgani, ayniqsa, katta xavf tug'diradi.

Mintaqa mamlakatlaridagi vaziyatga xavf soladigan xalqaro terroristik, ekstremistik va ayirmachi kuchlarning faollashayotgani ham qattiq tashvish uyg'otmay qolmaydi.

Islom Karimov hozirgi kunda har bir mamlakatning va butun mintaqaning manfaatlarini inobatga olgan holda, kommunikatsiya va transport sohasi, suv-energetika va xomashyo zaxiralaridan, insoniy salohiyatdan oqilona foydalanishga doir loyihalarni amalga oshirish bo'yicha harakatlarni o'zaro kelishish va muvofiqlashtirish masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etayotganini ta'kidladi. Mintaqaga xorijiy kapital va investitsiyalarni jalb etish, shu maqsadda bu hududdagi barcha mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan shart va qoidalarni shakllantirish lozimligini uqtirib o'tdi.

«Markaziy Osiyo mustaqil davlatlari har biri o'ziga xos tarixiy, etnik-madaniy ildizlarga, diniy va ijtimoiy turmush tarziga, o'z mentalitetiga ega bo'lgan mamlakatlar va xalqlar yashaydigan mintaqa ekanini doimo yodda tutish muhim, — dedi O'zbekiston Prezidenti — ularning har biri vazmin, juda e'tibor bilan, ta'bir joiz bo'lsa, hurmat-ehtirom bilan yondashishni talab qiladi».

Markaziy Osiyoda yuz berayotgan ko'plab voqealarni tushunishning kaliti va mintaqada barqarorlik va xavfsizlikni saqlash borasidagi murakkab muammolarning yechimi ko'p jihatdan ana shunday yondashuv zahirida mujassamlashadi. Aynan ana shu omillarni hisobga olmaydigan barcha tashabbuslar samarali va muvaffaqiyatli bo'lmaydi.

Biz shunga qat'iy aminmizki, SHHTning binosini ko'tarib turadigan asosiy ustunlar, eng muhim yo'nalishlar xavfsizlik va iqtisodiyot bo'lishi zarur. Ana shu ikki ustun yoki ta'bir joiz bo'lsa, aravaning ikki g'ildiragiga tayangan holdagina, SHHT faoliyati samaradorligi va uning xalqaro nufuzini, shiddat bilan o'zgarayotgan dunyodagi vaziyatga mos tarzda harakat qilishini ta'minlash mumkin.

Islom Karimov O'zbekiston SHHTning ustuvor vazifasi sifatida e'lon qilingan xalqaro terrorizm, ekstremizm, ayirmachilik va giyohvand moddalar savdosiga qarshi murosasiz kurashni so'zsiz qo'llab-quvvatlashini ta'kidladi.

SHHTga a'zo davlatlar rahbarlari ishtirokida rasmiy ochilish marosimida Mintaqaviy antiterror markazining faoliyati ayni ana shu maqsad va vazifalarga qaratilgan, dedi davlatimiz rahbari va ushbu tuzilma faoliyatini takomillashtirish haqida to'xtalib, jumladan, quyidagi amaliy taklif va mulohazalarni ilgari surdi: «Mintaqaviy antiterror tuzilmasining o'z vaqtida ishga tushirilishi SHHTga a'zo barcha



mamlakatlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari davlat rahbarlarining bu masalaga shaxsiy e'tibori tufayli amalga oshdi».

Mintaqaviy antiterror tuzilmaning maqomi, faoliyat yo'nalishlari SHHTning davlat boshliqlari darajasida tasdiqlangan asosiy hujjatlari bilan belgilab berilgan. SHHTning turli darajadagi uchrashuvlarida Mintaqaviy antiterror tuzilma faoliyatini bevosita shakllantirish va tashkil qilish bilan bog'liq jami 9 ta hujjat qabul qilindi.

"Mintaqaviy antiterror tuzilmasi muvaffaqiyatli faoliyat olib borishining eng muhim sharti – bizning Markaziy Osiyo mintaqasi va butun dunyodagi xavfsizlik va barqarorlikka qarshi qaratilgan xavf-xatar va tahdidlarga umumiy va yagona yondashuv va qarashimiz, desam, umumiy fikrni aytgan bo'laman", – dedi Yurtboshimiz.

"Mamlakatlarimiz va xalqlarimiz xavfsizligiga bir xilda tahdid solayotgan xatarlarning umumiyligini anglash bizni birlashtirishi zarur va shart.

Ikkinchidan, Mintaqaviy antiterror tuzilmasini SHHT mamlakatlarining tegishli xizmatlari vakillari–qo'yilgan vazifalarni yuksak professional darajada hal etishga qodir bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar bilan to'ldirish o'ta dolzarb ahamiyatga ega. Mintaqaviy antiterror tuzilmasining bosh idorasi xodimlari ularni vakil qilib yuborgan mamlakatlar poytaxtlaridagi o'z hamkasblari bilan bog'lanishlari, muloqot qilishlari va doimiy aloqada bo'lib turishlari juda muhim.

Uchinchidan, biz ishonamizki, faqat maxsus xizmatlar va huquq - tartibot idoralari o'rtasidagi yuqori darajadagi ishonch va yaqin hamkorlikkina tezkor ahamiyatga ega bo'lgan axborotlar bilan o'z vaqtida almashish, turli xavf-xatarlarga qarshi oldindan zarba beradigan tadbirlarni hamkorlikda aniq rejalashtirish va amalga oshirishni ta'minlaydigan haqiqiy samarali aloqalarni yo'lga qo'yish imkonini beradi.

To'rtinchidan, Mintaqaviy antiterror tuzilma BMT, ASEAN, Interpol, Yevropol singari yetakchi xalqaro tashkilotlarning antiterror markazlari bilan amaliy hamkorlik uchun ochiq bo'lishi lozim.

Beshinchidan, agarkı xalqaro terrorizm va uning ortida turgan ekstremistik markazlar va kuchlar katta moliyaviy va boshqa resurslarga, o'zgarayotgan vaziyatga qarab tez shaklini o'zgartirish va moslashish qobiliyatiga ega bo'lsa, bunday balo-qazoga qarshi kurashish ularga maxsus, ko'p tomonlama hamkorlik usullarini va birinchi navbatda oldindan payini qirqish ishlarini qo'llashni talab qiladi.

Oltinchidan, SHHT ish yuritishning faqat kuch ishlatish va huquq-tartibot usullari bilan cheklanib qolmasligi lozim. Muammoga kengroq qarash zarur. Bizning nazarimizda, terrorizmning mafkuraviy negizi va manbalarini tag-tomiri bilan qo'porib tashlash uchun butun bir tabirlar majmui, jumladan, ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim, targ'ibot-tashviqot yo'nalishidagi ishlarni amalga oshirish lozim.

Mintaqaviy antiterror tuzilmaning muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo'yicha O'zbekiston bundan keyin ham bor kuch va imkoniyatlarini ishga soladi, deb ishonirib aytmogchiman, dedi mamlakatimiz rahbari.

Biz faqat terrorchilik ko'rinishlarining o'ziga, portlashlar sodir etib, begunoh odamlarning umriga zomin bo'layotganlarga qarshi kurash bilan cheklanmasligimiz kerak. Bular aslida biz terrorizm deb ataydigan nayzaning bir uchi, xolos.



AVVALIMBOQ, nairat va terrorchilik markurasini yaratayotgan ko'p sonli radikal va ekstremistik markazlarga, odamlarning ongini zaiflayotgan va birinchi galda yoshlarni yo'ldan ozdirayotgan, aytish mumkinki, bo'lajak terrorchilarni tayyorlaydigan bamisoli konveyer yaratayotganlarga qarshi kurashish darkor".

O'zbekiston Prezidenti hech qaysi mamlakat narkoagressiya, xalqaro terrorchilik, diniy ekstremizm va ayirmachilik kabi hududdan boshqa hududga o'tishiga befarq qaraydigan shunchaki «tranzit» bo'lolmasligi va bo'lishi ham mumkin emasligini alohida ta'kidladi. Afsuski, ba'zi qo'shni hududlarda bu borada o'zgacha fikrlar ham quloqqa chalinmoqda. Yovuzlik naysasi hozircha go'yo boshqalarga qaratilganiga ishonib, bunday ofat va tahdidlarga qarshi qat'iy kurashdan o'zini chetga olishga urinish xatarli xato bo'lishi mumkin. Chunki xavfsizlik yaxlit va bo'linmaydigan tushuncha ekanini hayotning o'zi takror va takror isbotlamoqda. Shu bois «SHHTning javobgarlik hududi» degan tushuncha iste'molga kirishga haqli va buning uchun barcha asoslar bor.

SHHTning iqtisodiy tuzilmalarini kuchaytirish zarurati haqida to'xtalib, Prezidentimiz sammit ishtirokchilari e'tiborini yana bir muhim masalaga qaratdi. Markaziy Osiyo umumiy bozorini shakllantirishni biz bu vazifani tubdan hal etishning yechimlaridan biri deb bilamiz. Bu vazifaning amalga oshirilishi, bizning nazarimizda, mintaqa mamlakatlari va xalqlarining tub strategik manfaatlariga mos kelgan bo'lur edi. Rossiya, Xitoy va boshqa mamlakatlarning faol ishtirokida umumiy bozor tuzish bugun amalda bo'lgan tor mililiy doiradagi bozorlar o'rniga mintaqada tovarlar va xizmatlarning, mehnat va sarmoyaning yagona yondashuv, yagona qonuniy me'yor va qoidalar joriy etilgan yirik va juda keng ko'lami bozorini shakllantirish imkonini beradi. Shu tariqa xorijiy sarmoya va ilg'or texnologiyalarni jalb etish uchun keng imkoniyatlar ochiladi. Bu esa pirovardida iqtisodiyotni barqaror o'stirish va odamlar turmush darajasini oshirishni ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Islom Karimov O'zbekiston tomoni sammit yig'ilishida Markaziy Osiyo hududi orqali o'tadigan yirik transport-kommunikatsiya loyihalari, transport yo'laklari va yo'nalishlari borasida ilgari surilgan g'oya va takliflarni qo'llab-quvvatlashini ta'kidladi. Bu g'oya va takliflar o'z navbatida SHHTga a'zo davlatlar bilan Yevropa Ittifoqi, janubiy va Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarni kuchaytiruvchi omilga aylanishi mumkinligiga e'tiborni qaratdi.

Afg'onistonni mintaqaviy muammolarni yechishga jalb etish, mamlakatni tinchlik yo'li bilan qayta tiklash jarayonida zarur yordamni ko'rsatish maqsadida SHHT davlatlarining Afg'onistonga ko'maklashish bo'yicha o'zaro kelishilgan, aniq qo'shma loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan hamkorlik dasturini ishlab chiqish va qabul qilish maqsadga muvofiq bo'lur edi.

«Shanxay hamkorlik tashkiloti tuzilganiga uch yil bo'ldi,—dedi Islom Karimov o'z nutqi yakunida. — O'tgan davr mobaynida erishilgan asosiy natija shuki, SHHT amaliy faoliyat ko'rsatayotgan nufuzli xalqaro tashkilot sifatida shakllanib bo'ldi».

### **18.5 Keys stadi: «O'zbekiston-Malayziya hamkorligi»**

Malayziya bir mahallar neft-gaz, palma yog'i va qalay zaxiralariга boyligi bilan mashhur edi, aniqrog'i, xomashyo o'lkasi edi. Bugun u yuksak sur'atlar bilan taraqqiy

etib borayotgan, rivojlangan davlatlarga har tomondan teng kelib qolgan mamlakat desak, xato bo'lmaydi.

U dunyodagi eng ilg'or texnologiyalarni ta'bir joiz bo'lsa, zudlik bilan o'zlashtirib olgan, kompyuter bilan aloqador sohalarda faoliyat ko'rsatadigan firma va kompaniyalar eng ko'p joylashgan mamlakatlardandir.

Ayni paytda ushbu mamlakat Janubi-sharqiy Osiyodagi eng nufuzli tashkilot bo'lmish ASEANga raislik qilmoqda. Avvalo, shuni ta'kidlash o'rinliki, ASEANni ta'sis etishda Malayziya asosiy tashabbuskor bo'lgan. Demak, ushbu davlat bilan hamkorlik orqali O'zbekiston jahonning katta bir mintaqasi mamlakatlari bilan munosabatlarni rivojlantirishga yo'l ochadi.

Malayziya ayni vaqtda Islom konferensiyasi tashkiloti (IKT)ga raislik qilmoqda. Bu esa mamlakatning nafaqat ushbu tashkilot a'zolari orasida, qolaversa, butun musulmon dunyosida obro'-e'tibori yuqori ekanligidan dalolatdir. Ya'ni, O'zbekiston Malayziya bilan hamkorlik vositasi orqali IKT a'zolari bilan ham munosabatlarni faollashtirish imkoniga ega. Diniy ekstremizm, dini niqob qilgan xalqaro terrorchilik tahdidi tobora oshayotgan hozirgi vaqtda esa bu g'oyat muhim ahamiyatga molik masaladir.

Iqtisodiy jihatdan qaraganda ham Malayziya bilan hamkorlik har tomonlama manfaatlidir. Yuqori texnologiyalarni o'zlashtirish borasida, O'zbekiston mahsulotlarini Janubi-sharqiy Osiyo bozorlariga olib chiqish va bu mintaqadan sarmoya jalb qilishda Malayziya bilan aloqalarni kengaytirish maqsadga muvofiq. Yuqorida zikr etilgan siyosiy omillarning o'zi bu fikrga asos bo'lishi mumkin.

Ikki tomonlama munosabatlarga doir siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy masalalar, shuningdek, xalqaro ahamiyatga molik muammolarga yondashuvlarning o'xshashligini nazarda tutgan holda, O'zbekiston doim xalqaro maydonda ushbu davlatni qo'llab-quvvatlab keladi. Misol uchun, mamlakatimiz BMT huzuridagi tuzilmalarga a'zolik borasida ko'p marotaba Malayziyaning nomzodini yoqlagan: 1997-yili EKOSOSga, 1998-yili Xavfsizlik kengashining nodoimiy a'zoligiga, 1997, 2001-2005-yillari Yugoslaviya bo'yicha xalqaro tribunalga, 2003-yili Ruanda bo'yicha xalqaro tribunalga, 2004-yili xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etish bo'yicha qo'mitaga.

Malayziyaga ham O'zbekiston bilan hamkorlik Markaziy Osiyo va MDH mamlakatlari bozorlariga yo'lni qaytarish imkonin beradi.

2005-yil 2-4 oktabr kunlari Kuala-Lumpurda O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov Malayziya Qirolli Tuanku Sayyid Sirojuddin Jamallullayl bilan muloqotda keng qamrovli masalalar yuzasidan fikr almashgan edilar. Mamlakat bosh vaziri Abdulla Badaviy bilan tor doirada va kengaytirilgan tartibda o'tkazilgan muzokarada esa barcha sohalarda o'zaro hamkorlikni hamda xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasidagi munosabatlarni rivojlantirishga oid masalalar muhokama etilib, tegishli amaliy chora-tadbirlar belgilab olingan edi. Avvalo, aloqalarning huquqiy poydevori yanada mustahkamlandi. Prezident Islom Karimov va Abdulla Badaviyning qo'shma bayonoti qabul qilindi. Unda hamkorlikning tamoyillari va istiqbollari bayon etilib, munosabatlarni rivojlantirish borasida tomonlarning yakdilligi, qator xalqaro va mintaqaviy masalalarga qarashlari hamohangligi ta'kidlandi.

Shu bilan birga, O'zbekiston va Malayziya hukumatlari o'rtasida havo transporti qatnovi to'g'risidagi bitim, shuningdek, Savdo bo'yicha qo'shma qo'mita, sayyohlik hamda mineral resurslarni o'zlashtirish sohasida, xavfsizlikni ta'minlash va terrorchilikka qarshi kurashda hamkorlikka oid anglashuv memorandumlari, aloqa va axborotlashtirish texnologiyalari sohasidagi ahdlashuv bayonnomasi imzolandi.

Safar asnosida Prezident Islom Karimov Malayziya parlamentida bo'lib, Senat raisi Abdul Hamid Pavante va Vakillar palatasi Spikeri Ramli Binnga Tolib bilan uchrashdi. Muloqotda mamlakatlarimiz o'rtasidagi parlamentlararo aloqalarni rivojlantirish, o'zaro munosabatlarning huquqiy asosini yanada takomillashtirish masalalari yuzasidan fikr almashildi.

Tashqi ishlar vaziri Hamid Albar bilan muloqot esa ikki tomonlama siyosiy hamkorlik, ASEAN konferensiyasi tashkiloti kabi tuzilmalar doirasidagi ko'p tomonlama aloqalar bilan bog'liq masalalar muhokamasiga bag'ishlandi.

Islom Karimov shuningdek, Malayziyaning sobiq bosh vaziri Maxatxir Muhammad bilan uchrashdi. Katta siyosiy nufuzga ega taniqli siyosat va jamoat arbobi Maxatxir Muhammad O'zbekiston-Malayziya munosabatlari o'rtasidagi muammalarni yaxshi biladi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston rahbarining tashrifiga Malayziya tomoni katta tayyorgarlik ko'rdi. Savdo bo'yicha qo'shma qo'mita tashkil etish borasida kelishuvga erishilgan, lekin hali bu haqdagi hujjat imzolangan edi. Shunday bo'lsa-da, safarning ikkinchi kuni qo'mita o'zining ilk majlisini o'tkazdi. Bu tomonlarning o'zaro hamkorlikni rivojlantirish borasidagi qarashlari hamohang, maqsadlari mushtarak ekanligidan yana bir dalolatdir. Qo'mita yig'ilishi ikki mamlakat ishbiarmonlarining biznes-forumiga ulanib ketdi. Qatnashchilar safi bir necha bora kengayib, biznesmenlar bevosita o'zlarini qiziqtirgan masalalar yuzasidan yuzakara o'tkazdilar, imkoniyat, shart-sharoit va boshqa omillar bo'yicha savol-javoblar belgilangan vaqtdan ancha uzoq davom etdi.

Forum yakunida O'zbekiston va Malayziya ishbiarmon doiralari o'rtasida jami 16 ta hujjat imzolandi. Ular bank-moliya, sanoat, aloqa va axborotlashtirish texnologiyalari, yengil sanoat, oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi kabi ko'plab muhim sohalarda hamkorlikni nazarda tutadi. «Petronas» korporatsiyasi bilan tuzilgan 2 ta hujjatni ham qo'shib aytadigan bo'lsak, iqtisodiy majmaua bo'yicha 18 ta kelishuv rasmiylashtirildi. Ularning moliyaviy qiymati 400 million AQSH dollaridan oshadi.

Shu o'rinda «Petronas» korporatsiyasi haqida qisqacha to'xtalib o'tish o'rinlidir. 1974-yil 17-avgustda tashkil etilgan mazkur yirik transmilliy korporatsiya hozir 30 mamlakatda faoliyat yuritadi. Dunyodagi eng qudratli 500 korporatsiya safida turuvchi «Petronas»ning faoliyat doirasi juda keng. Bular neft va gaz konlarini qidirish, o'zlashtirish, qayta ishlash, neft mahsulotlari va suyultirilgan gaz savdosi, marketing tadqiqotlari o'tkazish bilan bog'liq ko'plab tadbirlardir.

«Petronas»ning salohiyati haqida Kuala-Lumpur markazida qad rostlab turgan mo'jiza ham yaxshi tasavvur beradi. Ayni shu nom bilan ataluvchi «Giza» minorasi nafaqat Malayziya poytaxti, balki butun mamlakatning ramzi va faxriga aylangan. 1998-yilda bunyod etilgan bu qo'shminoraning balandligi salkam 452 metrga teng. Ulardagi idoralar, do'konlar, ko'rgazma va konferensiya zallari, galereyalar, oshxona-yu ko'ngilochar maskanlarning jami maydoni 214 ming kvadrat metrga yetadi. Bu 48 ta

futbol maydoni, demakdir. «Petronas» korporatsiyasi asosiy pudratchi sifatida uning qurilishiga 800 million AQSH dollari sarflagan.

Shu tariqa O'zbekiston Janubi-sharqiy Osiyo mintaqasidagi yetakchi davlatlardan biri bilan hamkorlikni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar ochdi, aloqalar poydevorini yanada mustahkamladi. Malayziyaning siyosiy hamjihatlik, xalqlarimizni esa diniy va madaniy qadriyatlar bir-biriga yaqinlashtirib turadi. Iqtisodiy hamkorlik uchun keng imkoniyatlar maydoni mavjud. Ayniqsa, neft-gaz, yuqori texnologiyalar, yengil sanoat, savdo va sarmoya sohaslarini alohida ta'kidlash joiz. Malayziya bosh vazirining 2008-yilda 16-17-noyabrdagi davlat tashrifi ana shu boy mustahkam asosga ega o'zaro munosabatlarni yangi bosqichga ko'tarishi shubhasizdir. 2008-yilda savdo 33,3 mln. bo'lgan bo'lsa, 2008-yilning 8 oyiga 36,8 mln. dollarga yetdi.

### **Qisqacha xulosalar**

Jahon iqtisodiyotining rivojlanish tendensiyalarini diqqat bilan kuzatar ekanmiz, shu narsa ayon bo'ladiki, O'zbekiston iqtisodiyotining yuqori o'sish sur'ati jahon iqtisodiyotiga chuqur integratsiyalashuv asosida xorijiy investitsiya hamda eksport salohiyati barqaror rivojlanishi tufayli ta'minlanishi mumkin.

O'zbekiston, boshqa mamlakatlar singari, o'z tashqi iqtisodiy siyosatini o'zining milliy manfaatlaridan kelib chiqib va sheriklik manfaatlarini hurmat qilgan holda yuritadi. Taraqqiyot yo'lida AQSH, Yaponiya, Rossiya, Xitoy, va Yevropa davlatlari bilan hamkorlik qiladi hamda hudud xavfsizligi va integratsiyaga o'z hissasini qo'shishda davom etadi.

O'z navbatida shuni ham aytish kerakki, davlatimiz rahbari nutqida ko'tarilgan masalalar ijrosini ta'minlash, avvalambor, mintaqamizda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash, Shanxay hamkorlik tashkiloti faoliyatiga yangicha ma'no-mazmun baxsh etish, uning samaradorligini oshirishdek ezgu maqsadlarga xizmat qiladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy siyosati nimaga asoslangan ?
2. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyati qanday rivojlanmoqda?
3. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyati SHHT davlatlari o'rtasida qaysi davlatda yaxshi rivojlangan?
4. Rivojlangan davlatlar orasida savdo-sotiq qaysi davlatlar bilan yaxshi o'rnatilgan?
5. Nega Rossiya rivojlanib borayotgan sarmoyador hisoblanadi?
6. Eksport va importning geografik tarkibi qanday tashkil topadi?
7. Rossiya, AQSH, Yaponiya, Xitoy bilan iqtisodiy munosabatlar qanday yo'lga qo'yilgan?
8. Kelajakda ustuvor iqtisodiy sherikchilik qaysi davlatlar bilan amal qiladi?
9. SHHT tashkilotining maqsadi nimalardan iborat?
10. SHHT kuzatuvchilari haqida nimalarni bilasiz ?

### Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I. "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi"//Xalq so'zi, 2014-iy 18-yanvar.

2. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. - T.: O'zbekiston, 2009.

3. Ishmuxamedov A.E va boshqalar. Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari. Darslik – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005.

4. Yo'ldoshev Z. Milliy iqtisodiyot. -T.: Mehnat, 2004,168-b.

5. Ishmuxamedov A.E. O'zbekiston milliy iqtisodiyoti. Darslik – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. - 304 b.

6. Ishmuxamedov A.E. va boshqalar. Makroiqtisodiyot. Darslik – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. - 192 b.

7. Tuxliyev N. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. -T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 280 b.

#### 8. Internet veb-saytlari.

[www.ceep.uz](http://www.ceep.uz).

[www.bearingpoint.uz](http://www.bearingpoint.uz).

[www.pca.uz](http://www.pca.uz).

[www.micro-macroiqtsodiyout.fan.uz](http://www.micro-macroiqtsodiyout.fan.uz)

## 19-bob. IQTISODIY RIVOJLANISHDA PULLIK XIZMATLAR

### 19.1. Pullik xizmatlar sohasining iqtisodiy rivojlanishdagi roli va uni tartibga solish usullari

Milliy iqtisodiyot yuritiladigan jamiyatning iqtisodiy tizimi kishilarning va butun jamiyatning turli ehtiyojlarini qondirish uchun turli moddiy boyliklarni ishlab chiqarishni xarakterlovchi murakkab ijtimoiy hodisadir.

Jamiyatning ijtimoiy o'sishi, moddiy ishlab chiqarish sohasining o'sishi, rivojlanishi va murakkablashuvi, ilmiy texnika taraqqiyoti olamning rivojlanib borishi, xalqaro iqtisodiy aloqalarni kengayishi nomoddiy ne'matlarga ehtiyojning oshib borishiga ilmiy- texnik, axborot va kommunikatsiya xizmatlariga esa keyingi yillarda milliy iqtisodiyotda alohida sohani tashkil etadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, aynan xizmat ko'rsatish sohasining holati va uning iqtisodiy tizimidagi o'rni milliy iqtisodiyot rivojlanish darajasini xarakterlovchi asosiy ko'rsatkichdir.

Ishlab chiqarishga va umuman jamiyatga xizmat ko'rsatish sohasini iqtisodiyot fanida «xizmatlar sohasi» deb yuritiladi, xizmatlar sohasining jadal rivojlanishi va uning iqtisodiyotdagi roli kuchayishiga qaramasdan shu paytga qadar «xizmatlar» tushunchasi turlicha talqin qilinadi.

«Xizmatlar ishlab chiqarish moddiy shakldagi tovar bilan bog'liq bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Shunga bog'liq ravishda, xizmatlarni boshqa talqini ham mavjud: bu talqinga ko'ra xizmatlar mehnat yaratadigan iste'mol qiymatidir. Lekin bu mehnatning o'ziga xos iste'mol qiymati «xizmatlar» degan nom olgan, chunki bu mehnat buyum shaklida emas, faoliyat tarzida xizmat ko'rsatadi. Bunda ikki xil xizmatlar ajratib ko'rsatiladi»<sup>6</sup>.

1-xil xizmatlar tovarlarda mujassamlanadi.

2-xil xizmatlar ijrosidan alohida bo'lgan buyumlashgan natija.

Keyingi yillarda Amerikalik mutaxassis T. Xill tomonidan berilgan «xizmatlar» atamasining quyidagi talqini keng tarqaladi. Uning fikriga ko'ra, xizmatlar qaysidir iqtisodiy birlikka tegishli bo'lgan kishilar va tovarlar holatining boshqa bir iqtisodiy birlikning birinchisi bo'lgan oldindan kelishuv bo'yicha qilgan ahamiyati natijasida o'zgarishidir. Bunda talqin etilayotgan xizmatlar iqtisodiy foydali faoliyatning tovar yoki faoliyat ko'rinishida namoyon bo'ladigan aniq natijasi deb qarash imkonini beradi. Iqtisodiy faoliyat xizmatlarni savdo predmetiga aylantiradi. Mehmonxonadan xona olganda, bankka pul qo'yganda, samolyotda sayohat qila turib, vrach qabulida bo'lganda, sartareshxonada soch oldirganda, avtomobilni ta'mirlashga topshirib, kinofilm tomosha qila turib, huquqshunosdan maslahat ola turib barcha holatlarda biz xizmatlar xarid qilamiz.

Barcha xizmatlarga ushbu to'rt xususiyat xos:

1. Moddiy shaklda emaslik, ya'ni namoyish qilish, to'lib ko'rish, tanlash, joylashtirish yoki bu xizmatlarni olgunga qadar o'rganish mumkin emasligi, xaridor sotuvchining so'zlariga ishonishga majbur. Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot ishonch oturish uchun bir qancha tadbirlarni ko'rish mumkin, o'z xizmatlarining ta'sirchanligini

<sup>6</sup> Гусаев В.В., Фатхулдинов Н.О. Сфера платных услуг населению. - Т.:Мехнат, 1989 год

oshirish, bu xizmatlardan ko'riladigan foydaga e'tiborni qaratish, o'z xizmatlarini targ'ib qilishga mashhur shaxslarni jalb etish.

2. Xizmatlar ishlab chiqarish va iste'molning uzluksizligi, ya'ni xizmatlarning taklifi va iste'moli bir paytda ro'y beradi, xizmatlarni buyurtma yoki mijoz borligida ko'rsatish mumkin xolos.

3. O'zgaruvchanlik, ya'ni xizmatlar turi uni kim, qanday va qayerda ko'rsatayotganligiga bog'liq, xizmatlarning o'zgaruvchanligini kamaytirish uchun bunday holatlarning sabablarini aniqlash zarur. Ko'pincha bunday holatlarda bu xodimlar malakasi, raqobatning yo'qligi, axborot tanqisligi kabilarga bog'liq bo'ladi, shu sababli xizmat turlari bo'yicha standartlar ishlab chiqiladi va ularga amal qilish majburiydir.

4. Xizmatlarni saqlab bo'lmaydi, ya'ni xizmatlarning muhim xususiyatlaridan biri ularning shu lahzaliligi. Agar xizmatlarga talab taklifdan yuqori bo'lsa, buni tuzatib bo'lmaydi. Xizmatlarga talabning tebranib turishi barcha xizmatlarga xos xususiyatdir<sup>7\*</sup>.

Xizmatlarning turli tuman bo'lishiga qaramasdan ularni bir necha guruhlariga birlashtirish mumkin.

1. Ishlab chiqarish (injineriing, lizing, uskunalar ta'miri va h.k.) xizmatlari.

2. Taqsimot (savdo, transport, aloqa) xizmatlari.

3. Professional (bank, sugurta, moliya, maslahat reklama va h.k.) xizmatlar.

4. Ijtimoiy (televideniye, radio, ta'lim, madaniyat) xizmatlar.

Jamiyatda doimo yangidan-yangi xizmatlar paydo bo'lib turadi. Ayni paytda xizmatlar diversifikatsiyasi tendensiyasi ham ro'y beradi. Bank, birja va vositachilik xizmatlari yagona moliyaviy xizmatlar majmuiga birlashish mumkin.

"Dunyo bo'yicha 1989-1996-yillarda xizmatlar ikki barobarga oshdi. 1996-yilda xizmatlar eksporti jahon bo'yicha jami eksportning 25 %ni tashkil etgan bo'lsa, 1997-yilda 30 %ni tashkil etadi", ayniqsa, sayyohlik xizmati (turizm) gurkirab rivojlanmoqda.

Umuman olganda, davlat tomonidan tartibga solish quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

1. Iste'molchilarni maqsadli asosda subsidiyalashtirish. Bunday subsidiyalashtirish eng muhim xizmatlarga nisbatan talabning oshishiga imkon yaratadi. Maqsadli subsidiyalarga stipendiyalar, ta'lim olishiga beradigan kreditlar, uy-joy kreditlari, tibbiy sug'urta, aholini kam ta'minlangan katlamlarini qo'llab-quvvatlash va boshqa shu kabilarni kiritish mumkin.

2. Xizmatlarni ishlab chiqaruvchilarni subsidiyalashtirish. Bunday subsidiyalashtirish asosiy maqsadi bo'lib, xizmatlar bozordagi taklifni oshirish hisoblanadi. U madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, sport va boshqa shu kabi tarmoqlarning muassasalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash ko'rinishida amalga oshirilishi mumkin. Bunday subsidiyalashtirishning manbai bo'lib davlat yoki mahalliy budjet, shuningdek, federal, hududiy yoki mahalliy darajadagi turli xil maqsadli dasturlar hisoblanadi.

<sup>7</sup> Ishmuxamedov A.E. O'zbekistonning milliy iqtisodiyoti. -T.:O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.



### 3. Ishlab chiqarish omillardagi davlat mulki.

Davlat tomonidan tartibga solishning xizmatlar ko'rsatish sohasi tarmoqlarining rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'siri muayyan chegaralarga ega bo'lishi kerak. Masalan, bepul xizmatlarni joriy etishning zarurligi va investitsion manbalarning cheklangan hajmini, uni me'yorlashtirish va ketma-ketligini yuzaga kelishiga olib kelish mumkin. Pullik xizmatlar bozori bunday kamchiliklarni bartaraf etishga imkon yaratadi. Biroq bunday bozorning faol tarzda rivojlanishi aholini kam ta'minlangan qatlamlarining muayyan qismi uchun xizmatlarni sotib olish imkoniyatlarining mavjud emasligini oshirish mumkin. Kishilarning birlamchi ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan xizmatlar ko'rsatish sohasi tarmoqlarida bozor munosabatlarining bunday rivojlantirishiga deyarli umuman imkon bo'lmaydi.

Xizmatlar ko'rsatish sohasi tarmoqlarning ma'lum qismi (birinchi navbatda ishlab chiqarish xizmatlari) pullik xizmatlarini amalga oshirishga asoslangan bozor mexanizmining amal qilish sharoitlarida samarali rivojlanadi. Pullik xizmatlar bozori tovar bozori bilan bir xil tarzda ko'rib chiqiladi hamda bozor munosabatlariga xos bo'lgan (amaldagi) qonuniyatlarga bo'ysunadi. Biroq pullik xizmatlar bozori bilan tovarlar bozori o'rtasida to'liq o'xshashlik yo'q. Ular o'rtasidagi farq xizmatlarning tovarning alohida ko'rinishi sifatidagi o'ziga xosligi, shuningdek, pullik xizmatlar bozorida shakllanadigan iqtisodiy munosabatlarning o'ziga xosligi bilan asoslanadi<sup>8</sup>.

### 19.2. O'zbekiston Respublikasida pullik xizmatlarni rivojlantirish ko'rsatkichlari tahlili

Xizmatlar ko'rsatish sohasi milliy iqtisodiyotini to'ldirib turuvchi, yordamchi sohadagina emas, aholini ish bilan ta'minlash, YAIM va eksport hajmini ko'paytirishga imkon beruvchi, aholi turmush darajasini oshirishni, ularni xarajatlarini optimallashtiruvchi tarmoqlar majmuidir. Shu sababli ham mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish sohasini rivojlantirishga katta e'tibor berildi.

«Kichik xususiy lashtirish bosqichida savdo korxonalar qatorida maishiy xizmat ko'rsatish obyektlari ham xususiy lashtirildi. Agar 1990-yilda maishiy xizmat ko'rsatish vazirligi «O'z-maishiy xizmat» uyushmasiga aylantirilgan bo'lsa, 1997-yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish tizimini yanada isloh qilish to'g'risida»gi Farmoniga ko'ra tarmoqda nomarkazlanish jarayonlarini tezlashtirish, raqobat muhitini yaxshilash, maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarini va mahalliy hokimiyat organlarining xo'jalik mustaqilligini oshirish maqsadida bu uyushma tugatildi»<sup>9</sup>.

Maishiy xizmat ko'rsatish sohasi individual buyurtma bilan kiyim tikish, poyafzal tikish va ta'mirlash, mebel tayyorlash va ta'mirlash, kiyimni kimyoviy tayyorlash va tozalash, sartaroshxonalar, ma'lumotlar byurolari kabi korxonalarini o'z ichiga oladi.

Bugungi kunga kelib, maishiy xizmat ko'rsatish hududiy uyushmalari va tadbirkorlar uyushmalari mahalliy hokimiyati organlariga hisobot beradi. Qishloq joylarida maishiy xizmat ko'rsatish nisbatan yaxshi rivojlanmagan.

<sup>8</sup> Данилов А.С., Юлдашев З.Ю. Национальная экономика. - Т.: «Янги аср авлоди», 2003.

<sup>9</sup> Тухтаев Н. Таксонов А. Национальная экономическая модель Узбекистана. - Т.: Ухитувчи 2000.



O'zbekiston Respublikasida pullik xizmatlar ko'rsatish tarkibiga nazar tashlasak, bu soha rivojlanishining o'ziga xos xususiyatini ko'ramiz (19.1-jadval).

19.1-jadval

**O'zbekiston Respublikasida aholiga ko'rsatilgan pullik xizmatlar tarkibi (%)**

Ko'rsatkichlar	1994-y.	2008-y.	2010-y.	2012-y.
1. Yo'lovchi tashish	35,0	34,6	39,0	30,1
2. Uy-joy kommunal xizmatlari	4,6	4,1	17	13,2
3. Maishiy xizmatlar	14,8	15,4	15,2	15,3
4. Boshqalar (sog'liqni saqlash, dam olish, madaniy hordiq va h.k.)	45,6	45,9	28,8	28,6
5. Jami	100	100	100	100

Manba: 2012-yilda O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichlari. -T., 2013.

2012-yilda respublikamizda aholiga ko'rsatilgan jami pullik xizmatlar ulushi 32,1 %, ya'ni eng yuqori. Uy-joy kommunal xizmatlarining ulushi 17 %ni, maishiy xizmatlar ulushi esa 15,2 %ni tashkil etgan. 2004-yil bilan solishtirsa, maishiy xizmatlarning jami pullik xizmatlar hajmidagi ulushi deyarli o'zgaradi. Shu davr mobaynida uy-joy kommunal xizmatlarning jami sohasiga pullik xizmatlardagi ulushi 4 martaga yaqin ko'paydi. Kommunal xizmatlar o'z ichiga suv, gaz va issiqlik ta'minoti, uy joyini saqlash va ekspluatatsiya xizmatlarini oladi.

Ya'ni bu xizmatlar bevosita maishiy va sanitariya-gigiyena sharoitlarini ta'minlab beradi. Uy-joy fondini xususiylashtirish, sohaga davlat dotatsiyalarni kamaytira borilishi kommunal xizmatlar sohasida keskin o'zgarishlarni xarakterlaydi.

1999-yil aprel oyida respublikada «Uy-joy mulkdorlari shirkatlari» to'g'risida Qonun qabul qilindi. Ilgari uy-joyini ekspluatatsiyasi bilan uy-joy ekspluatatsiya boshqarmalari o'rniga tuzilgan shirkatlar issiq suv, sovuq suv, gaz ta'minoti va shaharni tozalash xizmatini ko'rsatuvchilar bilan hamkorlik qilardi. Bu sohadagi vaziyatga baho berar ekan Prezidentimiz I.A.Karimov Oliy Majlisning Qonunchilik Palatasi va Senatining qo'shma majlisida quyidagilarni ta'kidladilar: «Kommunal xizmatlar, ayniqsa, issiqlik energiyasi, issiq va sovuq suv iste'molini hisobga oladigan asbob-uskunalarining yetarli darajada emasligi hamon jiddiy muammo bo'lib kelmoqda. Bu esa ana shu resurslarning ko'plab isrof bo'lishiga, tarifning asossiz o'sishiga, aholi qarzdorligining yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda»<sup>10</sup>. Shuni tan olish kerakki, bizda kommunal tarmoqlardan samarali foydalanish tizimi, bu tarmoqlarni kapital tarzda almashtirish va modernizatsiyalash, umuman olganda, aholiga kommunal maishiy xizmat ko'rsatishning ta'sirchan mexanizmi amalda yaratilmagan. Ko'p qavatli uy-joy

<sup>10</sup> Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. //Xalq so'zi, 2005-yil 29-yanvar.

fondini boshqarish ishini mutlaqo qoniqarsiz ahvolda. Tashkil etilgan uy-joy mulkdoriari shirkatlari turarjoylardan foydalanish va saqlash ishidan umuman bexabar bo'lgan, tasodifiy kishilarga topshirib qo'yilgan. Shu sababli sohada istohotlar chuqurlashib boraveradi. Respublikamizda aholiga tibbiy xizmatlarni 2012-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, 1006 ta kasalxona, 4000 ta ambulatoriya muassasasi, 179 ta qishloq kasalxonasi, 501 ta qishloq vrachlik ambulatoriyasi, 36 ta shahar vrachlik punktlari, 2229 ta qishloq vrachlik punktlari ko'rsatar edi.

Sog'liqni saqlash vazirligi litsenziya berish komissiyasi tomonidan 2012-yilda tibbiyot xizmatlarini ko'rsatishga 231 ta nodavlat yuridik shaxsga va jismoniy shaxsga ruxsat berilgan. 2011-yil 1-yanvar holatiga ko'ra pullik tibbiy xizmatlarini 928 ta nodavlat yuridik va 1650 ta jismoniy shaxslar ko'rsatib kelgan.

Turizm sohasida pullik xizmatlar ko'rsatishni ko'paytirish uchun zamonaviy infratuzilmani shakllantirish uchun: sohada xususiy sektorni rivojlantirish, «O'zbekturizm» milliy kompaniyasini tarkibiy o'zgartirish yo'li tutilmoqda.

2011-yil 1-yanvar holatiga ko'ra respublikamizda «O'zbekturizm» MKdan 20 ta aksiyadorlik jamiyati, 2 ta qo'shma korxonasi, 13 ta xususiy mehmonxona faoliyat yuritmoqda. 2010-yilda 934,1 ming turistga xizmat ko'rsatilgan, bularning 3 dan biri, ya'ni 400 ming kishi xorijlik turistlar edi. Turistlar oqimining 30,6 %ni, turizmga eksport xizmatlarining 60,7 %i xususiy sektor ulushiga to'g'ri keladi. Aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish sohasini isloh qilishning muhim yo'nalishlaridan biri raqobat muhitini shakllantirish, xususiy sektor ulushini oshirishdir.

Agar jami pullik xizmatlarda davlat sektori ulushi 2012-yilda 44,1 %bo'lgan bo'lsa, pullik xizmat 46,19 %ga tushdi (19.3-jadval).

Nodavlat sektori ulushi 68,9 %ga yetgan bo'lsa, buning 42,4 %i fuqarolarning xususiy mulkiga asoslangan, 15,7 %i hissadorlik jamiyatlar, 6,8 %i horijiy fuqarolar hissasiga to'g'ri keladi.

## 19.2-jadval

### O'zbekiston Respublikasida jami pullik xizmatlar hajmidagi davlat va nodavlat sektorlari ulushi (%)

Yillar	Davlat sektori	Jami nodavlat sektori	Fuqarolar xususiy mulki	Xorijiy fuqarolar va korxonalar	Hissadorlik jamiyatlari	Boshqalar
1998-y.	48,4	51,6	29,7	3,2	17,2	1,6
1999-y.	45,3	54,7	34,4	4,1	12,4	3,8
2000-y.	43,7	56,3	36,1	5,4	10,8	9,8
2005-y.	40,6	59,4	37	6,2	12,9	3,3
2010-y.	38,4	63,7	39,9	7,6	10,9	5,2
2012-y.	30,9	69,9	43,2	6,9	15,8	4,2

Manba: 1998, 2000, 2010, 2012-yillarda O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichlari. -T., 2013-y.

Sohada xususiy sektor ulushi jadal o'sib borayotganligini qayd etish zarur. Jumladan, xususiy maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari, Internet klublar, transport korxonalari ko'paymoqda.

Aholiga pullik xizmat ko'rsatishda transport xizmatlari ulushining yuqoriligini alohida qayd etish zarur. Ayniqsa, xorijiy shaxslarga aviatahshish xizmatlari ko'rsatish hajmi oshib bormoqda. Turizm aviatahshish xizmatlari hajmi mamlakatga valyuta tushumini ko'paytirib, xizmatlar sohasining tashqi iqtisodiy aloqalardagi rolini oshirib yuboradi. Respublikamizda xizmatlar sohasining jami eksportdagi ulushi 2009-yilda 8,8 %ni tashkil etgan, ya'ni 698,2 mln. AQSH dollariga yetgan edi. 698,2 mln. AQSH dollari miqdori asta-sekin oshib bormoqda.

Mustaqillik yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini, jumladan, aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish sohasining rivojlantirishga qaratilgan e'tibor tufayli bu soha rivojlanib bormoqda (9.3-jadval).

### 19.3-jadval

#### O'zbekiston Respublikasida YAIM, xizmatlar va pullik xizmatlar hajmi

Ko'rsatkichlar	1998-y.	1999-y.	2000-y.	2003-y.	2005-y.	2010-y.	2012-y.
Yalpi ichki mahsulot (mlrd. so'm)	1416,6	2128,7	3255,6	9843,5	15923,4	4809,7	61881,2
Xizmatlar (mlrd. so'm)	621,68	772,4	1173,9	3682,1	4583,2	5988,5	27453,1
Aholiga pullik xizmatlar (mlrd. so'm)	114,6	189,4	305,4	934,8	1226,6	934,8	1226,8

Manba: 1998, 2000, 2012-yillarda O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichlari. -T., 2013-y.

2012-yilga kelib, xizmatlarning YAIMdagi ulushi 44,1 %, ya'ni 21 trln. 2745,3 mlrd. so'mga yetdi. Buning 2 trln. 444 mlrd. 500 mln. so'mni aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish hissasiga to'g'ri keladi.

Pullik xizmatlarning YAIMdagi ulushi shu yili 10 %ni, jami xizmatlardagi ulushi esa 44,1 %ni tashkil yetdi.

### 19.3. Pullik xizmatlar sohasini isloh qilish va yanada rivojlantirish yo'nalishlari

O'zbekiston Respublikasida aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish sohasini yanada jadal rivojlantirish - aholini ish bilan bandligini ta'minlash, eng muhim xizmatlarga bo'lgan talabni qondirish zarurati sohasida islohotlarni jadallashtirishni talab etadi.

Pullik xizmatlar sohasini isloh qilish va yanada rivojlantirish mamlakatimizda o'tkazilayotgan islohotlarning va ishlayotgan strategik vazifalaraning ajralmas qismidir. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayonida pullik xizmatlarni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni e'tiborga olish zarur. Bu respublikamizning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqadi.

Aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish hajmida turizm, sog'liqni saqlash xizmatlar ulushi juda past ekanligini qayd etdik. Ayni paytda respublikamizda bu tarmoqlarni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud.

Turizm sohasining iqtisodiyotidagi ahamiyati quyidagi raqamlarda ko'rinadi: 2012-yil ma'lumotlariga asosan AQSH 65,1 mlrd. dollar, Ispaniya 41,7 mlrd. dollar Xitoy 20,4 mlrd. dollar daromad ko'rdi. Bu yalpi eksport Gretsiyada 20 %ni, Ispaniyada esa 21 %ni tashkil etdi.

O'zbekiston turistik potentsiali juda yuksak bo'lib, uni quyidagi omilla belgilaydi:

- boy madaniy meros;
- qulay geografik o'rin;
- boy tabiiy iqlim sharoitlari (tog'lar, cho'llar);
- qadimiy yodgorliklar va diniy qadimjolar;
- o'ziga xos xalq hungarmandchiligi.

Turizmni rivojlantirishdan respublikamiz quyidagi manfaatlarni ko'rdi:

Yangi ish joylari va korxonalar ochildi. Ayrim bahonalarga ko'ra, turizm respublikamizda faol aholining 5 %ini ish bilan ta'minlanishi mumkin.

Qo'shimcha daromad va tushumga ega bo'linadi. 2008-yilda respublika turizm sohasi 271,2 ming xorijiy turistlarga xizmat ko'rsatib, 325,4 mln. so'm tushumga ega bo'lgan edi( o'rtacha har bir turistdan 1,2 ming AQSH dollari).

Mahalliy tovarlar uchun yangi bozorlar paydo bo'ldi.

Mahalliy infratuzilma va kommunal obyektlar va xizmatlar modernizatsiya qilindi.

Yangi kasblar va texnologiyalar o'rganiladi (mehmonxona menejeri, reklam bo'yicha ekspert va h.k.).

Jamiyat tomonidan atrof-muhit va madaniy meros muammolari hamda va ularni himoya qilish zaruratini chuqurroq his etildi.

Yerdan foydalanishga yangicha yondashuv shakllandi.

Turizm sohasini jadal rivojlantirish respublikamizda turistik xizmatlarni yagona kadastrini tuzish, turizm xizmatlarini standartlash va sertifikatlashning samarali tizimini shakllantirish, sohada reklama faoliyatini kuchaytirish, soha uchun kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, turizm servisi sohasini jadal rivojlantirish sohag xorijiy investitsiyalarni jalb etishni talab etadi.

Turizmni rivojlantirish davlat dasturi to'g'risidagi Prezident Farmoni qabul qilingan edi. Hozirda amalga oshirilayotgan ushbu dasturga ko'ra, iqtisodiyot tarmog' sifatida milliy turizm oldida turgan asosiy vazifa O'zbekiston turistik kompleksini yanada rivojlantirish va uning xalqaro turizm tizimiga integratsiyalashuvidir. Buning uchun sohadagi islohotlar strategiyasi va taktikasini doimo yangilab turish lozim.

Xalqaro turizm tashkiloti baholariga ko'ra, 10 yil ichida O'zbekistonda turistlar oqimi 15 %ga oshdi. Turizm infratuzilmasini yanada rivojlantirish, yangi turistik xizmatlarni o'zlashtirish, yangi avialiniyalarning ochilishi bu sohad rivojlanishning muhim sharoitlaridan biridir.

Yana bir muhim soha kommunal xizmatlar sohasidir. Uy-joylarni xususiy lashtirilgandan so'ng bu sohadagi eng muhim qadam kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari uy-joy ekspluatatsiyasi korxonalari o'miga uy-joy mulkdorlar

shirkatlarining tashkil qilinishi bo'ldi. 2001-yil 17-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning PF-2832-son "Kommunal xizmatlar ko'rsatish sohasida iqtisodiy islohotlarni chuquriyashtirishning yangi bosqichi to'g'risida"gi Farmoni kommunal xizmatlar rivojida yangi bosqichni ochib berdi. Endi kommunal xizmatlar uy-joy ta'mirlash masalalari bilan mulkdorlar shirkatlari kerakli pudratchilar bilan shartnoma asosida qabul qilingan. "Aholiga kommunal xizmat ko'rsatishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori qabul qilindi. Bu qarorga ko'ra uy-joy mulkdorlari shirkatlari tuzilishi jadvaliga rioya etish uchun 1991-yilgacha qurilgan ko'p qavatli binolar mahalliy budjet va budjetdan tashqari mablag'lar hisobiga dastlab mukammal ta'mirdan chiqarilishi kerak edi. Bu shirkatlar tuzilayotgan va ro'yxatdan o'tayotganda tegishli yig'img'irlar to'lashdan ozod etiladilar. Ular o'z bank hisobvaraqlariga daromadning qo'shimcha manbalariga (masalan, hududdagi shaxsiy garajlaridan olinadigan to'lovlar) egadirlar. Ushbu farmonda xizmatlarga ta'riflar, xarajatlar taklifi ko'rib chiqilishi, gaz, issiq va sovuq suv kabilarni nobud bo'lishining texnologik me'yorlari ishlab chiqilishi ko'zda tutiladi. Bu tadbirlar kommunal xizmatlarning sifatini oshirishga, ular tannarxini pasaytirishiga qaratiladi.

Sog'liqni saqlash sohasida pullik xizmatlarni rivojlantirish yangi bosqichga qadam qo'yimoqda. Bu sohada xususiy sektor ulushi muttasil o'sib bormoqda. Ammo bu sohada pullik xizmatlarni rivojlantirish bevosita aholini to'lov qobiliyatiga borib taqaladi. Sog'liqni saqlash tizimining majburiy sug'urtasi tizimiga o'tkazish kelajakdagi vazifa bo'lib qoldi. Bugungi kunda respublikamizda bir qancha kompaniyalari shu jumladan "O'zbekinvest" MSK, "Alfa Invest" sug'urta kompaniyasi, "Sugurtalife", "FJSK" sug'urta kompaniyalari tibbiy sug'urta bilan shug'ullanmoqda. 2012-yilda respublika bo'yicha shaxsiy sug'urta summasi 1 mlrd. 627 mln. 200 so'mni tashkil etdi. Shu yili 380,1 mln. so'mlik sug'urta to'lovi amalga oshirildi.

Ammo bu ko'rsatkich juda kam va bu xizmatlar turini rivojlantirish talab etiladi.

Pullik xizmatlarni jadal sug'urtalarda rivojlantirish shart bo'lgan yana bir sohasi aloqa xizmatlaridir. Bu soha davlat investitsiya siyosatida mustaqillik yillarida ancha rivojlandi. 2008-yil boshiga kelib respublikada 1 mln. 661 ming telefon nuqtasi bo'lib har 100 kishiga 6-7ta telefon, shu jumladan 0,83 ta uyali telefon to'g'ri keladi. Qishloq joylarida esa har 100 kishiga 1-6 ta telefon to'g'ri keladi. Respublikamizda Internet xizmatlaridan foydalanish hajmi jadal o'sib borayotgan bo'lsada hali bu soha ham jahondagi ilg'or davlatlar darajasidan ortda qolmoqda 2011-yil boshlariga kelib respublikamizda 900 ming kishi Internetdan foydalangan. Bu sohani jadal rivojlantirish TACIS mutaxassislari baholariga ko'ra 2013-yilga kelib, telefonlar sonini esa 4 mln. kishiga yetishini ko'rsatadi. Bu esa pullik xizmatlar hajmida aloqa xizmatlari ulushi ortishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov Oliy Majlisning Qonunchilik Palatasi va Senati qo'shma majlisida qilgan nutqida mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish borasida iqtisodiyot sohasida turgan 5 ta ustuvor vazifa sifatida uy-joy kommunal xo'jaligini isloh qilish ekanligini ta'kidladi.

Bu borada qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksi, "Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari to'g'risida"gi Qonun va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga to'liq amal qilinishiga erishishimiz dardkor.

Shirkatlar bilan ularga kommunal va ta'mirlash-qurilish xizmatlari ko'rsatadiga korxonalar o'rtasidagi shartnomaviy-huquqiy munosabatlarni tubdan qayta ko'ri chiqish va yanada mustahkamlash, aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati uch har ikki tomonning mas'uliyatini oshirish lozim.

Bitta shirkat tomonidan xizmat ko'rsatiladigan uylar sonini eng maqbul holg keltirish bo'yicha boshlangan ishlarni nihoyasiga yetkazish kerak. Toki ula turarjoylarni ekspluatatsiya qilish va saqlash muammolarini hal etish bilan aniq v bevosita shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'lsin.

Shuningdek, issiqlik bilan ta'minlash va uni boshqarishning butun tizimini keski o'zgartirish darkor. Ma'lumki, bu masalada mavjud qozonxonalar va issiqlik ta'mino tarmoqlarining texnik holati eng zaif bo'g'in hisoblanadi<sup>11</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 21-maydagi Farmoni asosid 2008-2010-yillarga mo'ljallangan xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantiris dasturi ishlab chiqildi va uni amalga oshirila boshlandi.

Shuni tan olishimiz kerakki, deb ta'kidladi nutqida Prezidentimiz, - bizd kommunal tarmoqlardan samarali foydalanish tizimi, bu tarmoqlarni kapital tarz almashtirish va modernizatsiyalash, umuman olganda, alohida kommunal maishi xizmat ko'rsatishning ta'sirchan mexanizmi amalda yaratilmagan. Uy-joy kommun xo'jaligida foydalanish va uni saqlash borasida ham bozor mexanizmi amal shakllantirilmagan. Bularning barchasi haqli ravishda aholining jiddiy e'tirozlarig sabab bo'lmoqda, mavjud muammolar esa shoshma-shosharlik bilan yuzaki h qilinmoqda. Qisqa muddatda uy-joy kommunal xo'jaligini isloh qilishiga qaratilg keng ko'lamlı dastur tayyorlash, ularning ijrosi bo'yicha barcha kat'iy choralar ko'rish darkor. Uy-joy kommunal xizmatlari sohasini rivojlantirishning asos yo'nalishlari qo'yidagilardir:

Issiq va sovuq suv, gaz ta'minoti turida o'lchov asboblarni o'rnatish va qat' hisob-kitoblarni yo'lga qo'yish;

uy-joy mulkdorlari shirkatlari ishini takomillashtirish, kadrlar malakasi oshirish, shirkatni nazorat qilish borasida aholi ishtirokini oshirish;

aholining xizmatlar to'lovlarini o'z vaqtida to'lash kommunal xizmat ko'rsati korxonalarining esa sifatli xizmat ko'rsatish borasidagi mas'uliyatini oshirish;

kommunal xizmatlar tariflarining asossiz o'sish holatlarini joriy qilish;

soha rivoji uchun mahalliy davlat boshqaruv organlari mas'uliyatini kuchaytiri va boshqalar.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish kommunal xizmatlar fizik hajmining oshis ular baholarining barqarorlashishiga olib keladi. Maishiy xizmat sohasi rivojlantirishda ustuvor vazifa qishloq joylarida maishiy xizmat obyektlari ko'paytirish, buni kichik xususiy korxonalar ko'rinishida shakllantirishdir.

Pullik xizmatlarning iqtisodiyotdagi o'rmini e'tiborga olib, hudud nomutanosibliklarni, ayniqsa, maishiy xizmat sohasida tugatish zarur. Qishloqlar gazlashtirish, ichimlik suvlari bilan ta'minlash, hammom, sartaroshxonalar quris buning uchun imtiyozli bank kreditlari ajratish, aholining real daromadlari o'sis

<sup>11</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning "Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farg'on turmush shartoti yaratish - asosiy vazifamizdir" ma'ruzasi. //Xalq so'zi, 2007-yil 13-fevral.

chora-tadbirlarini ko'rish pulli xizmatlarini o'stirishning muhim yo'llaridan biridir. Albatta bunda xususiy sektorning rolini oshirish sohada raqobat muhitini ko'paytirish muhim rol o'ynaydi. Shu bilan prognoz qilish, talabni to'liq qondirish chora tadbirlarini ko'rish, fiskal va pullik-kredit vositalari va bevosita qonunchilik bilan tartibga solish davlat boshqaruv organlari vazifasidir.

Pullik xizmatlar sohasini isloh qilish va yanada rivojlantirish mamlakatimizda o'tkazilayotgan islohotlarning va ishlayotgan strategik vazifalarning ajralmas qismidir. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayonida pullik xizmatlarni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni e'tiborga olish zarur. Bu respublikamizning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqadi.

Bizning doimiy e'tiborimizni talab qiladigan yettinchi ustuvor yo'nalish — bu kommunal xo'jalik sohasida islohotlarni yanada chuqurlashtirish bilan bog'liq.

Shu maqsadda uy-joy kommunal xo'jaligida ro'y berayotgan jarayonlarni yana va yana bir bor tanqidiy baholab, barchamiz uchun muhim hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan ushbu sohada hamon saqlanib qolayotgan jiddiy muammolarning ildiziga yetish va ularni bartaraf qilish zarur.

Aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish sohasining O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotidagi o'rni, rivojlanish xususiyatlari nazariy jihatdan o'rganib tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga keldik:

-xizmatlar bir tomon ikkinchi tomonga taklif etishi mumkin bo'lgan, moddiy ko'rinishda bo'lmagan va nimagadir ega bo'lishiga olib keladigan har qanday tadbir;

-xizmatlar to'rt xususiyatga ega, ya'ni ular moddiy shaklga ega bo'lmaydi, xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'moli o'zaro uzluksiz bo'ladi, xizmatlar sifati kim, qanday va qayerda o'zgarib turadi va nihoyat xizmatlarni tovarlardan farqli o'laroq saqlab bo'lmaydi.

-xizmatlar turlari doimo kengayib, yangilari (shaxslar tomonidan) paydo bo'lib boraveradi.

-xizmatlar sohasi - korxonalar, tashkilotlar va alohida shaxslar tomonidan ko'rsatilgan turli xil xizmatlarni takror ishlab chiqarishni o'z ichiga oluvchi tizim, kategoriya bo'lib u ishlab chiqarishga qaratilganda davlat tomonidan ko'proq himoya qilinadi.

-hozirgi kunda butun dunyoda xizmatlar sohasining jadal rivojlantirish tendensiyasi kuzatilmoqda;

-xizmatlar sohasining rivojlanishi iqtisodiyot boshqa tarmoqlari rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. Masalan, axborot, sug'urta, bank xizmatlari.

-xizmatlarning milliy bozorida ayrim sohalarga xorijiy investitsiyalar kirishini cheklash zarur. Bu sohalarga milliy xavfsizlik va suverenitet bilan bog'liq sohalar televideniye, axborotlar bozori, bank xizmati bozorlari misol bo'ladi;

-bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan xususiylashtirish, davlat tasarrufidan chiqarish jarayonlari ro'y beradi va bu xizmat ko'rsatish sohasini tartibga solishning yangicha uslublarini kun tartibiga qo'ydi.

-pullik xizmatlar sohasini tartibga solishdan bosh maqsad, sohada qulay investitsiya muhitini yaratish, raqobatni rivojlantirish orqali sifatli xizmatlarga bo'lgan talabni qondirish;

-ko'pincha xizmatlar taklifi, ular talabini yuzaga keltirishni hisobga olib, yangi xizmat turlarini paydo bo'lishi rag'batlantiriladi.

-bozor iqtisodiyotida milliy darajada xizmatlar fiskal (budjet-soliq) va pul-krediit siyosati vositalari yordamida, xizmatlar standartlarini ishlab chiqish hamd litsenziyalash orqali tartibga solinadi;

-O'zbekiston Respublikasida pullik xizmatlar jadal sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Bu xizmatlar sektori va xususan pullik xizmatlarning YAIM hajmdagi ulushining o'sishiga olib keldi;

-sohada xususiy sektor rivojlanishi natijasida pullik xizmatlar hajmida nodavla sektori ulushi, ayniqsa, xususiy fuqarolar va korxonalar ulushi) ortib bormoqda;

-pullik xizmatlarning xizmatlar turlari bo'yicha tarkibida yo'lovchi transporti (3% ) yetakchi o'rinda tursa, ikkinchi pozitsiyani kommunal xizmatlar tashkil etmoqda. Keyingi yillarda boshqa xizmat turlari ulushi kengaymoqda;

-pullik xizmatlar mamlakat hududlari bo'ylab notekis rivojlangan. Aholi joy boshiga pullik xizmatlardan hajmi u hududda o'rtacha respublika darajasining 50 %da past, Sirdaryo (39,5 %) viloyatida 40 %ga ham teng emas. Toshkent shahrida esa 4, barobariga ko'p. Bunga sabab ko'pgina pullik xizmatlar poytaxtda joylashgandir;

-pullik xizmatlarning jami eksportdagi ulushi o'sib bormoqda ( 2008-yilda 625; mln. AQSH dollar);

-aholiga pullik xizmat hajmini prognozidan 2009-yilda bu xizmatlar nomina miqdori 114,18 %ga oshishi kuzatiladi.

Aholiga ko'rsatiladigan pullik xizmatlarni yanada rivojlantirish uchun quyidagi takliflarni beramiz.

-xizmatlarni tartibga solishda mahalliy hokimiyat organlari mas'uliyati va vakolatlarini oshirish zarur;

-pullik xizmatlar turlarini ko'paytirish va yangi paydo bo'lganlarini jadal rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratish, jumladan:

A) pullik tibbiy xizmatni rivojlantirish uchun soliq imtiyozlari berish, xorijii investitsiyalarni joriy etish lozim. Xizmatlarning bu turini tibbiy sug'urtalash tizimini yaratmasdan turib jadal rivojlantirib bo'lmasiligini hisobga olib tibbiy sug'urta tizimini shakllantirish lozim;

B) aloqa xizmatlari bozorida raqobat muhitini yaxshilash orqali xizmatlar sifat va miqdorini oshirish kerak;

V) Internet xizmatidan foydalanuvchilar sonini oshirish bu xizmat hajmini oshirish uchun aloqa tizimlarini yaxshilash kerak;

-kommunal xizmatlar tariflarining asossiz o'sishiga chek qo'yish, uy-joy mulkdorlari shirkatlari ishlarini yaxshilash lozim;

-qishloq joylarida pullik xizmatlar sohasini jadal rivojlantirishni davlat tomonida qo'llab-quvvatlash kerak.

-O'zbekistonning turizm sohasidagi salohiyatini e'tiborga olib turizm infratuzilmasini yaxshilash, reklama faoliyatini keng yo'lga qo'yish, sohada xususiy sektor ulushini jami xizmatlardagi ulushini oshirish kerak;

-aholiga transport xizmatlari ko'rsatish sohasida tezyurar temir yo'l magistrallar qurish, yangi avialiniyalar ochish, xizmat tariflarini pasaytirish tadbirlarini qo'llash lozim.



Sohada xususiy sektorni jadal rivojlantirish bilan birga davlatning oqilona tartibga solish usullarini qo'llash istiqbolda xizmatlar sohasining milliy iqtisodiyotdagi ahamiyatini yanada oshiradi, aholi turmush darajasini oshiradi.

Ma'lumki, iqtisodiy ko'rsatkichlar, proporsiyalar yoki qaysidir iqtisodiy kategoriyaning kelajak holatini ilmiy asosida ko'rsatib berish, ya'ni prognoz qilish iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini oshirishning muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Ijtimoiy-iqtisodiy prognoz deganda, mavjud statistikadan, ilmiy bilish usullaridan foydalanib, prognoz qilinayotgan obyekt xarajatlarida (ko'rsatkichning o'zgarishida) amal qilayotgan o'zgarishlar kelib chiqib, prognoz qilish usullari va vositalari yordamida iqtisodiy agent ko'rsatkichning kelajakdagi holatini ilmiy asosda ishlab chiqish jarayoni tushuniladi<sup>12</sup>.

Prognoz ko'rsatkichlari bozor iqtisodiyotining samarali faoliyat ko'rsatishiga ko'maklashuvchi asosiy ko'rsatkichlar qatorida turadi. Prognoz qilish orqali natijalar istiqbolda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan muammolarni aniqlash, bu muammolar kelib chiqishining oldini olish yoki ularni yumshatish, taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, ijobiy natijalarga erishish uchun resurslarni o'z vaqtida qayta taqsimlash in'konini beradi.

Iqtisodiy prognozlar o'z masshtablariga ko'ra, makroiqtisodiy, tarkibiy tarmoqlararo, hududlararo, tarmoqlar va hududlar prognozi va korxonalar prognoziga bo'linadi.

Biz prognoz qilmoqchi bo'lgan ko'rsatkich-aholiga pullik xizmat ko'rsatkichi hisoblanadi-da, bu ko'rsatkichni topish uchun biz asos qilib olgan yalpi ichki mahsulot hajmining prognozi makroiqtisodiy prognoz hisoblanadi.

Bizga ma'lumki, YAIM hajmi boshqacha qilib aytganda daromadlar hajmi qanchalik ko'p o'ssa xizmatlar, shu jumladan aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish hajmi ham shuncha ko'p o'sadi. Xizmatlar hajmi ham uning bir qismini bilgan aholiga pullik xizmat ko'rsatish hajmi ham YAIMning funksiyasidir.

Xizmatlar hajmi=YAIM

Aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish hajmi=YAIM

Ayni paytda pullik xizmat ko'rsatish hajmi jami xizmatlarning bir qismi bo'lib, uning funksiyasi deb qarash mumkin.

Aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish hajmi= (Xizmatlar hajmi)

Ayni paytda bu uchala ko'rsatkich turli davrlarda turlicha kattaliklarga ega. Ya'ni, ular vaqt omili o'zgarishi ta'siri ostidadirlar. Ushbu shartlardan kelib chiqib aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish hajmini prognoz qilishning algoritmini tuzib olamiz:

Vaqt omili, YAIM, xizmatlar hajmi va aholiga pullik xizmatlar hajmi ko'rsatkichlari o'zgarishi o'rtasida korrelyatsion bog'lash borligini aniqlab olamiz. Ijobiy javob olinsa keyingi bosqichga o'tamiz, aksincha bo'lsa prognoz qilish jarayonini to'xtatamiz.

YAIM bilan vaqt omili o'zgarishlari orasidagi korrelyatsion bog'liqlikni aniqlaymiz. Ijobiy javob olinsa regressiya tenglamasini hisoblab topamiz (YAIMning

<sup>12</sup> "Milliy iqtisodiyot va menejment". Akademik S.S. Gulomov tahriri ostida. -T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti. 2004, 165-b.

vaqt omili o'zgarishiga chiziqli bog'liqlikni ko'rsatuvchi tenglamani). So'ngra bu tenglama yordamida YAIMning prognoz darajalarini topamiz.

Xizmatlar bilan vaqt omili o'zgarishlari orasidagi korrelyatsion bog'liqlikni aniqlaymiz. Ijobiy javob olsak, regressiya tenglamasini hisoblab topamiz (xizmatlar hajmining vaqt omili o'zgarishiga bog'liqligini ko'rsatuvchi tenglamani). So'ng bu tenglama yordamida prognoz ko'rsatkichlarini hisoblaymiz. Aks holda, ya'ni salbiy javob olinsa hisob kitob to'xtatiladi.

Boshlang'ich ma'lumot sifatida YAIM, xizmatlar hajmi va aholiga pullik xizmat ko'rsatish hajmi ko'rsatkichlarining 2008-2012-yillardagi dinamikasini olamiz. Bu ko'rsatkichlarning nominal darajalari bu yillarda keskin o'sgan. Shu sababli nomina ko'rsatkichlar yordamida prognoz qilish olingan natijalarning haqiqatdan ancha uzoq bo'lishiga sabab bo'ladi. Vaqt omilini -  $X_1$ , YAIMni -  $X_2$ , xizmatlar hajmini -  $X_3$  va aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish hajmini -  $X_4$  deb belgilab olib, bu ko'rsatkichlar o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlikni tahlil qilamiz. Bu uchun dasturidan foydalanamiz.

Prognoz qilishning ekstrapolyatsiya usulida ikki ko'rsatkich orasida korrelyatsion bog'liqlik bo'lsa, ya'ni bir ko'rsatkichning o'zgarishi ikkinchi ko'rsatkichning o'zgarishini keltirib chiqarish isbotlansa qo'llaniladi. Bu ikki ko'rsatkichdan bir ma'lum miqdorga yotganda bunga bog'lik ravishda ikkinchisi qancha miqdorga teng bo'lishini topish, uchun regressiya (to'g'ri chiziqli) tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$Y_x = a + b \cdot x, \text{ bu yerda}$$

Y- prognoz qilinayotgan ko'rsatkich kattaligi;

a- prognoz qilinayotgan ko'rsatkich -Yning x omilga bog'liq bo'lgan avtonom miqdori (darajasi);

x-Y ko'rsatkichga ta'sir ko'rsatuvchi omil (ko'rsatkich) kattaligi;

b-x omilning bir miqdor o'zgarish ko'rsatkichni qancha miqdorga o'zgarishin xarakterlovchi koeffitsiyent.

Bu tenglamalardagi a va b ko'rsatkichlarni topib olish uchun quyidag tenglamalar sistemasini yechib chiqish kerak:

$$\begin{cases} na + b \sum_{i=1}^n x_i = \sum_{i=1}^n y_i \\ a \sum_{i=1}^n x_i + b \sum_{i=1}^n x_i^2 = \sum_{i=1}^n x_i y_i \end{cases}$$

Bu tenglamalar sistemasida n-prognoz uchun ma'lumot to'plangan yillar (kuzatishlar) soni:

Tenglamalar sistemasini yechib x va y ko'rsatkichlar noma'lum bo'lgan tenglamani topib olamiz. Endi x ning istalagan miqdoriga mos keluvchi y ning miqdorini topib olish mumkin. Ammo olingan tenglama yordamida hisoblab topilgan ko'rsatkichlar haqiqatdagi ko'rsatkichlarga mos kelish-kelmasligini tekshirib ko'rish lozim. Aks holda haqiqatga mos kelmaydigan tenglamani qo'llab noto'g'ri natijalarni olishimiz va xato xulosalar chiqarishimiz mumkin.

— Bu uchun esa quyidagi ko'rsatkichlar hisoblab topiladi:

1) Umumiy dispersiya koeffitsiyenti:

$$D = \sum_{i=1}^n (y - \bar{y})^2$$

Bu ko'rsatkich hisoblab topilgan ko'rsatkichlar amaldagi ko'rsatkichlardan qanchalik farq qilib turishini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkichning kichik miqdorda bo'lishi maqsadga muvofiq. Ammo uning miqdori katta bo'lsa prognoz qilinayotgan ko'rsatkich miqdorini o'stirish uchun zaxira imkoniyatlar ko'p ekanligi ko'rsatiladi.

2) Korrelyatsiya koeffitsiyenti qR

Bu koeffitsiyent y funksiya bilan x omil o'rtasida aloqa tig'izligini ko'rsatadi. Qancha birga yaqin bo'lsa. Prognoz shuncha yaqin bo'ladi.

$$\text{Determinatsiya koeffitsiyenti: } D = R^2 = \frac{\sum_{i=1}^n (yx - \bar{y})^2}{\sum_{i=1}^n (y^2 - \bar{y})^2}$$

Determinatsiya koeffitsiyenti y funksiya o'zgarishining qancha qismi x ning o'zgarishiga bog'liqligini ko'rsatadi.

Yx-y ning topilgan regressiya tenglamasi bo'yicha hisoblangan darajasi.

y-y ning haqiqiy darajasi.

y-y ning o'rtacha darajasi

2-bosqichda YAIM ko'rsatkichining o'zgarishi vaqt omilining o'zgarishi natijasida kelib chiqadi degan shart bilan YAIMning vaqtga bog'liqligini xarakterlovchi regressiya tenglamasi dasturini qo'llab eng kichik kvadratlar usulida hisoblab topamiz. Bu usul prognozlashning ekstrapolyatsiya usuli deyiladi. Ya'ni, bu usul qo'llanilganda biz YAIM o'zgarish faqatgina vaqt omili o'zgarishiga bog'liq. Bu bog'liqlik o'zgarimasdan qoladi degan xulosaga tayanamiz. Kompyuterda hisob-kitob natijasida quyidagi regressiya tenglamasini oldik:

$$YAIM = 9000 + 494 * t \text{ (vaqt)}$$

Demak, vaqt bir birlikka o'zgarsa YAIM endi mlrd. so'mga ko'payar ekan. Olingan regressiya tenglamasi to'g'riligini tekshirish uchun bir necha ko'rsatkichlarni tekshirib ko'ramiz.

Haqiqatdagi va hisoblangan miqdorlar o'rtasidagi farq katta emasligi bu regressiya tenglamasini, Ya'ni, modelini prognoz qilishda qo'llash mumkinligini ko'rsatadi. Chunki nisbiy xato biroq yilga ham 2 %ga yetmagan. Faqat 2012-yilda keskin iqtisodiy o'sish (7,7 %); paxta hajmining yaxshi bo'lganligi. Sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning yuqori sur'atda oshganligi hamda jahon bozorida respublikamiz uchun konyunktura yuzaga kelganligi modelimizda (tenglamamizda) vaqt omilida hisobga olinmaganligi tufayli yili mutlaq chetlashish 228,54 mlrd. so'mga, ya'ni 1,87 %ga yetgan. Umuman olganda ham darajasi ancha past va prognoz ko'rsatkichlarida xato katta bo'lmaydi. Korrelyatsiya koeffitsiyenti 1ga yaqin. Ya'ni, 0,987 YAIM va vaqt omili o'rtasida aloqa tig'iz. Determinatsiya koeffitsiyenti 0,974ga teng. Ya'ni, vaqt omili o'zida 87,4 % omilni mujassamlashtirgan. Bu yerda YAIM hajmiga ta'sir etuvchi haqida gap bormoqda. Bu tahlil natijalari olingan model yordamida prognoz qilish mumkinligini tasdiqlaydi. Biz 2008 va 2012-yillarga YAIM hajmini prognoz qilamiz. Bu 8-kuzatuv qatoriga to'g'ri keladigan yildir.

YAIM 2012-yil = 9000Q494 x 8 12952 mlrd.so'm. Demak, YAIMning o'rtacha o'sish tendensiyalari saqlab qolishga 2008-yilda bu ko'rsatkich 2008-yil baholarida 12952 mlrd. so'mni, ya'ni real yillik o'sish 6,25 %ni tashkil etdi.

3-bosqichda xuddi shu tahlilda xizmatlar hajmini vaqt omiliga bog'lab prognoz qilamiz. Olingan regressiya tenglamasi quyidagi ko'rinishda:

$$\text{Xizmatlar hajmi} = 3350 + 192,7 \cdot (\text{vaqt})$$

Regressiya tenglamasining qanchalik foydalanishga yaroqliligini tahlil qilamiz. Haqiqiy va hisoblangan ko'rsatkichlar o'rtasida chetlashish darajalarni ko'rib chiqamiz.

Olingan natijalar mutlaq va nisbiy chetlanish darajalari past ekanligini ko'rsatmoqda. Ya'ni, 4 yilda 1 dan yuqori 2 dan past. Demak, tenglama yordamida olinadigan natijalar haqiqatga juda yaqin bo'ladi. Korrelyatsiya koeffitsiyenti (0,989) va determinatsiya koeffitsiyentining 1 ga juda yaqinligi ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Olingan tenglama yordamida O'zbekiston Respublikasida ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini prognoz qilamiz.

Xizmatlar hajmi 2012-yil -  $3350 + 192,7 \times 8 = 4891,6$ . Demak, xizmatlar hajmini belgilovchi omillar va ularning xizmatlar hajmiga ta'siri o'zgarmasa 2012-yilda O'zbekistonda Respublikasida xizmatlar hajmi 2004-yil baholarida 4891,6 mlrd. so'mni tashkil etadi. Ya'ni, 2008-yilga nisbatan 106,7 % ga o'sib, YAIM hajmida 37,7 % ni tashkil etadi.

Navbatdagi bosqichda pullik xizmatlar hajmini YAIMga bog'liqligini hisobga olsak regressiya tenglamasini topamiz.

$$\text{Pullik xizmatlar hajmi (mlrd. so'm)} = 1170 + 0,1985 \cdot \text{YAIM}$$

Olingan regressiya tenglamasi asosida prognoz qilish mumkinligini tahlil qilamiz:

$$\text{Fisher kriteriyasi } F_{\text{his}} = 267,43$$

2-omil "ehtimollik darajasi 0,0520 ga teng. Erkin had 1 ta bo'lganda Fisher kriteriyasining jadvaldagi darajasi  $F_{\text{sh}} = 7,71$

Yangi  $F_{\text{his}} > F_{\text{sh}}$  bu holat ikki ko'rsatkich orasidagi chiziqli bog'liqlik mavjud ekanligini ko'rsatadi.  $R = 0,99$ , ya'ni korrelyatsiya koeffitsiyenti 1 ga yaqin  $R^2 = 0,985$ , ya'ni pullik xizmatlar hajmi o'zgarishining 98,5 % ni YAIM o'zgarishi natijasida ro'y bergan. Modeldagi 1170 koeffitsiyent modelda hisobga olinmagan omillar ta'sirini xarakterlaydi. Modeldagi 0,1985 koeffitsiyent YAIMning 1 mlrd. so'mga oshishiga olib keladi. Tahlil natijalari olingan model yordamida pullik xizmatlar hajmini prognoz qilish mumkinligini ko'rsatadi. 2008-yilga pullik xizmatlar hajmini prognoz qilish uchun modelda YAIM hajmining shu yil uchun hisoblangan qiymatini qo'yamiz<sup>13</sup>.

Pullik xizmatlar hajmi (2005-y)  $q = 1170 + 0,1985 \times 12952$  mlrd. so'm  $q = 1400,97$  mlrd. so'm. Xuddi shu singari pullik xizmatlar hajmini jami xizmatlar hajmiga bog'lab prognoz qilamiz. Olingan regressiya tenglamasi quyidagicha:

Pullik xizmatlar hajmi  $q = 1100 + 0,5111 \times X_2$  korrelyatsion tahlil natijalari quyidagicha:

Aholiga pullik xizmatlar  $q = 1100 + 0,5111 \times 4891,6$  ko'rsatkich hajmi  $q = 1400,109$  mlrd. so'm.

Bu koeffitsiyentlar ijobiy ekanligini ta'kidlangan holda ularga xarakteristika berishga to'xtalmaymiz. Chunki bundan oldinroq shunga o'xshash tahlil qilindi. Olingan model yordamida pullik xizmatlar hajmini 2008-yilga prognoz qilingan darajasini qo'yib hisoblaymiz.

<sup>13</sup> Кремер Н.Ш. Теория вероятностей и математическая статистика. -М.: ЮНИТИ, 2002. 532стр.

Aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish hajmi:

Aholiga pullik xizmatlar =  $1100 + 0,5111 * 4891,6$  = ko'rsatish hajmi = 1400109 mlrd.sum

19.4-jadval

**2000-2012-yillarda O'zbekiston Respublikasida YAIM xizmatlar va aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish hajmlari (2006-yil baholarida, mlrd. so'm)**

Ko'rsatkichlar	2000-y.	2002-y.	2003-y.	2005-y.	2010-y.	2012-y.
Vaqt	1	2	3	4	5	6
YAIM	969,115	9954,68	12504	13841	11818	13159,5
Xizmatlar	3785,30	3514,3	3253,1	4508,1	4289,9	4583,2
Aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish	707,25	855,27	925,38	985,9107	1236,6	
				7,8		

Manba: 2000, 2005, 2010, 2012-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-qtisodiy rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichlari asosida hisoblanadi.

Olingan har ikki prognoz ko'rsatkich bir-biriga juda yaqin. Ya'ni, YAIM shu o'rtacha sur'atlar bilan o'ssa uning pullik xizmatlar o'sishiga ta'siri o'zgarishsiz saqlanib qolsa, 2012-yilda aholiga pullik xizmatlar hajmi 1 trln. 400 mlrd. 970 mln.so'mni tashkil etadi.

Xizmatlar umumiy hajmi shu o'rtacha sur'atlar bilan o'ssa va uning pullik xizmatlar o'sishiga ta'siri o'zgarishsiz saqlanib kolsa 2012-yilda aholini pullik xizmatlar ko'rsatar ekan (19.4-jadval).

19.5-jadval

**Yalpi ichki xizmatlar va aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish ko'rsatkichlari orasidagi korrelyatsion bog'liqligi**

Ko'rsatkichlar	X1	X2	X3	X4
X1 (vaqt)	1	0,987	0,989	0,996
X2(YAIM)	0,987	1	0,996	0,993
X3(xizmatlar)	0,989	0,996	1	0,997
X4(aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish)	0,996	0,993	0,997	1

Manba: 19.4-jadval ma'lumotlari asosida dstot/pat dasturi yordamida personal kompyuterda korrelyatsion tahlil qilib topildi.

Har ikki prognoz natijasining o'rtacha arifmetik miqdori 400,53 mlrd. so'mga teng. YAIM o'sishning mavjud tendensiyalari saqlanib qolsa, 2012-yilda uning o'sishi sur'ati 114,18 %ni tashkil etar ekan. Bu yerda real o'sish haqida gap bormoqda. Bu holni ijobiy deb baholasa bo'ladi.

**19.4. Xizmat va serviz bozorni rivojlantirish dasturi**

Chakana tovar aylanmasi hajmlarining o'sish sur'atlari 2008-yilda 115,5 %ni tashkil qildi. Aholiga umumiy qiymati 9574,6 mlrd. so'mlik iste'mol tovarlari sotildi. Ulgurji savdo korxonalarining assotsiatsiyasi (2006-yilda tashkil qilingan) tovar ishlab chiqaruvchilar hamda mahalliy mahsulot iste'molchilari o'rtasida xo'jalik aloqalarini ta'min etib turdi. 2012-yilda assotsiatsiya korxonalari tomonidan chakana savdo

korxonalarini 6 mingdan ortiq kuchli talabga ega bo'lgan tovar bilan to'ldirish ishlari amalga oshirildi. Ularning yarmidan ko'pi qishloqlarda, uzoq va yetib borish qiyin bo'lgan yerlarda joylashgan. 2012-yilda qishloq joylarida tovar savdosi assotsiatsiya ulgurji aylanmasining qariyb 60 %ni tashkil etdi. Respublika chakana aylanmasida assotsiatsiya korxonalarining aylanma ulushi 2008-yildagi 2 %dan 2012-yil yakunlariga ko'ra 5 %ga ortdi.

Tovar ishlab chiqaruvchilar bilan chakana savdo korxonalariga tovar yetkazib berish bo'yicha uzoq muddatli xo'jalik aloqalari mustahkamlandi. 2012-yil 1-yanvari holatiga ko'ra firma do'konlari soni 500 tadan ortdi. Assotsiatsiya korxonalarining chakana savdo korxonalari UzRTSBning birja savdolarida qishloq aholisi orasida kuchli iste'mol talabiga ega bo'lgan un, o'simlik yog'i, xo'jalik sovuni va b. mahsulotlarini sotib olish bo'yicha faol ishtirokchilariga aylandi. Bu tovar harakatidan ko'plab dalol va tuzilmalarni chiqarib tashlashga hamda respublika hududi bo'yicha narxlar darajasini barqarorlashuviga imkon beradi.

Chakana savdo tizimiga tovarlarni ulgurji yetkazib berishni shakllantirish natijasida chakana savdo qiluvchi korxonalarining aylanmasi 2012-yilda 32,7 %ga ortdi. Qishloq joylariga chakana savdo umumiy hajmining 29,3 % to'g'ri keladi. Qishloq xo'jaligi mahsuloti va mol sotish dehqon bozorlarida 12,4 %ga ortdi hamda 3810,2 mlrd. so'mga etdi. Chakana savdo aylanmasida savdo ulushi 43 %ni tashkil qildi.

2012-yilda mamlakatimizda tovar sotuvining hajmi 1 kishi boshiga 13,9 %ga teng bo'lib, 355,1 ming so'mni tashkil qildi. Savdo ortishiga qaramay, ayrim hududlar (Andijon, Qashqadaryo, Xorazm viloyatlari) jon boshiga bo'lgan ko'rsatkichlari bo'yicha o'z o'rinlarini yo'qotmoqdalar.

Xizmat va servis bozori rivojlanishining dinamikasi 2012-yilda aholi daromadining o'sishi, shuningdek, Xizmat va servis sohalarini rivojlantirish dasturini amalga oshirish hisobiga shakllandi. Natijada bozor xizmatlari hajmi 2012-yilda 126,5 %ga ortdi. Xizmatning umumiy hajmlari o'sishining yuqori sur'atlari barcha hududlar tomonidan ta'minlandi. 2008 yilda dastur bajarilishining natijalari:

- YAIM xizmat va servis ulushining 2000-yilda 37 %dan 2013-yilda 58,7 % gacha ortishi;

- zamonaviy axborot va axborotlashtirish, transport, moliya xizmatlari, pulli tibbiy xizmat ko'rsatish va ta'lim xizmati, madaniy, sport, bolalar sog'lomlashtirish muassasalari xizmati, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik faoliyati bo'yicha xizmatga bo'lgan talabni oshirish. Simsiz telefon aloqasi, uyali aloqa abonentlari, taksofon aloqa, Internet tarmog'i tizimiga jamoa bo'lib foydalanish punktlari, efiro-kabel televideniyesi borasida yuqori o'sish qo'lga kiritildi;

- taqdim qilinayotgan xizmatlar sifati yaxshilandi;

tarmoqning investitsion ko'lami oshdi;

iste'molga doir xizmat ko'rsatish bo'yicha infratuzilmani rivojlantirish, 6,4 mingdan ortiqroq maishiy xizmat ko'rsatuvchi mayda korxonalar, shu jumladan, 1130 ta kiyimbosh tikish va ta'mirlash ustaxonasi, 1521 ta sartaroshxona, 768 fotosalon, 238 ta hammom va 1430 ta boshqa maishiy xizmat ko'rsatuvchi korxonalar yaratildi. 2012-yilda savdo tizimida 2455 ta do'kon, 534 ta umumiy ovqatlanish korxonasi, 28 ta savdo kompleksi yaratildi. Ularning yarmidan ko'pi qishloq joylarida yaratildi. Qo'shimcha tarzda 206 mingdan ortiq ishchi o'rni tashkil qilindi.

2010-2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy o'sishning hududiy dasturlarini tayyorlashda quyidagilar rejalashtirilmoqda:

1. Viloyat tumanlari hamda shaharlarda xizmat ko'rsatish sohasi obyektlarini tashkil qilish bo'yicha ishlarni davom ettirish. Buning uchun tadbirkorlarga noyashash joylari va moslashtirilgan xonalarni, yer maydonlarni, tijorat banklarining kredit resurslarini taqdim qilish uchun ularni qidirish ishlarni kuchaytirish zarur.

2. Birja savdolari yordamida kichik partiyalar bilan xomashyo va materiallarni sotish orqali xomashyoga yo'l ta'minlash, shuningdek, hududiy viloyat ulgurji bazalariga tadbirkorlik va xizmat ko'rsatish sohasida moddiy-texnik ahvolini yaxshilash uchun imkoniyatlar yaratish.

3. Kommunal xizmatlar sohasida, 2010-yilda erishilmagan maqsadli o'sish parametrlari bo'yicha, issiqlik uzatish tizimi, aholini ichimlik suvi bilan ta'minlovchi vodoprovod kommunikatsiyalari ta'mirlanishi va modernizatsiya qilinishi kerak, isitish va suv ta'minotida lokal manbalarga o'tish kerak. Buning uchun hamma joylarda turar joy podyezdlarini va injener kommunikatsiyalarini remont qilish bo'yicha tadbirkorlik tarkiblarini yaratish zarur.

4. Transport kommunikatsiyalarini kengaytirish uchun faoliyat ko'rsatayotgan yo'nalish liniyalarini inventarizatsiya qilish, samaraliligi va optimalligini baholash, azoq punktlar va qishloqlarga yo'lovchi va yuklarni tashish uchun qo'shimcha yo'nalish liniyalarini tashkil qilish. Yo'l bo'ylab transport magistrallarida gazo-zapravka stansiyalarini yaratish hisobiga servis xizmati ko'rsatishni yaxshilash. Transport-ekspeditorlik xizmat turlarini kengaytirish zarur, transport magistrallari kesishma tizimlarini rivojlantirish kerak (Angren, Navoiy sh.). Bu ishlar xalqaro logistika markazlarini tashkil qilish vositasida amalga oshadi. Yuk tashishni optimallashtirish uchun yirik hududiy omborxonalar va tovar terminalari jalb etiladi.

5. Ichki bozorni tovar bilan to'lishini ta'min etuvchi ulgurji savdo korxonalarini tizimini kengaytirish. Tovar va mahsulotlarni joylashtirishni optimallashtirish tizimini yaratish hamda rivojlantirish, respublika hududi bo'ylab yuk va tovarni optimal konteyner tarzda harakatlanishini shakllantirish. Shu munosabat bilan, mahalliy transport-logistika kompaniyalarini yaratish va qo'llab-quvvatlash choralarini ishlab chiqish zarur.

6. Lizing operatsiyalari hisobiga fermer xo'jaliklariga yangi qishloq xo'jaligi texnikasini yetkazib berishni kengaytirish.

7. Hududlarning tabiiy imkoniyatini imkon qadar qo'llagan holda fuqarolarning turistik, ekskursiya hamda sanatoriya-kurort xizmatlarini ko'rsatib, dam olishini yaxshilash.

#### **Qisqacha xulosalar**

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish elementlarining harakatiga ko'mak berib kelgan bo'lsa, iqtisodiyotning o'sishi va murakkablashuvi ilmiy-texnika taraqqiyoti adallashuvi bilan bu soha juda zarur, hattoki, istiqbolda iqtisodiyotning asosiy omiliga aylanadi.

Kapital sig'imi yuqori bo'lmagan va uncha murakkab bo'lmagan texnologiyalarni alab etuvchi xizmat sohasi tarmoqlarining nisbatan yuqoriroq sur'atlarda rivojlanishi natijasida pullik xizmatlar sohasida tarkibiy o'zgarishlar ro'y berdi.

Pullik xizmatlar sohasini isloh qilish va yanada rivojlantirish mamlakatimizda o'tkazilayotgan islohotlarning va yechilayotgan strategik vazifalarning ajralmas qismidir.

#### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Pullik xizmatlarning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini qanday?
2. Pullik xizmatlarni rivojlantirish ko'rsatkichlari nimalardan iborat?
3. Respublikada xizmatlarni isloh qilish borasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi.// Xalq so'zi. 2009-yil 14-fevral.
2. Karimov I. "2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi"//Xalq so'zi, 2014-iy 18-yanvar.
3. Ishmuxamedov A.E va boshqalar. Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari. Darslik – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jam'armasi nashriyoti, 2005.
4. Yo'ldoshev Z. Milliy iqtisodiyot. -T.: Mehnat, 2004,168-b.
5. Ishmuxamedov A.E. O'zbekiston milliy iqtisodiyoti. Darslik – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. - 304 b.
6. Ishmuxamedov A.E. va boshqalar. Makroiqtisodiyot. Darslik – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. - 192 b.
7. Tuxtiyev N. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. - T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 280 b.

#### **8. Internet veb-saytlari.**

[www.ceep.uz](http://www.ceep.uz)

[www.bearingpoint.uz](http://www.bearingpoint.uz)

[www.pca.uz](http://www.pca.uz)

[www.micro-macroiqtisodiyot.fan.uz](http://www.micro-macroiqtisodiyot.fan.uz)



## 20-bob. MILLIY IQTISODIYOTNI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA KICHIK BLZNES VA TADBIRKORLIKNING O'RNI

### 20.1. O'zbekiston Respublikasi savdo-sanoat palatasining biznesni rivojlantirishdagi o'rni

O'zbekiston tovar ishlab chiqaruvchilar palatasi, (2004-yil 1-sentabrdan savdo-sanoat palatasi) kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashuvchi to'daviyat, notijorat tashkilotidir. Tadbirkorlik subyektlarini moddiy resurslar va comashyo bilan ta'minlashga ko'maklashishda palata tomonidan ko'p ishlar amalga xshirilmoqda.

Masalan, Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 3-dekabrda 683-sonli Farmoyishiga asosan kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarining metallga bo'lgan ehtiyojini qondirish naqsadida 2002-yil uchun «O'zmetkombinat» tomonidan 4000 tonna metall prokatlar cvotasi ajratilgan. Respublika Palatasi «Ulgurjisavdo» va Tovar-xomashyo birjasi bilan tamkorlikda, uch tomonlama kelishuvga asosan olib borilayotgan ishlar natijasi o'laroq, kim oshdi» savdolari orqali faqat ishlab chiqarish bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlik subyektlari ana shu resurslar bilan ta'minlanmoqda. «Kim oshdi» savdolari barcha iloyatlarda o'tkazilib, ularda 15-20 foiz arzon narxlarda metall prokatlari (arnatura, surchakli temirlar va po'lat quvurlar) sotilmoqda. Bu, o'z navbatida, tadbirkorlarga follarsiz, ya'ni ortiqcha xarajatsiz ularni xarid qilish imkonini bermoqda.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 8-maydagi 296-sonli farmoyishiga asosan kichik va o'rta biznes subyektlariga (faqat chorvachilik nahsulotlari yetishtirish bilan shug'ullanadigan tadbirkorlik subyektlariga, fermer va lehqon xo'jaliklariga) paxta shroti va sheluxasi uchun ham kvota ajratilgan. Respublika Palatasi Agrosanoat va Tovar-xomashyo birjalari bilan hamkorlikda, uch tomonlama celishuvga asosan, hududiy birjalarda tadbirkorlik subyektlarini «kim oshdi» savdosi orqali ana shu ozuqalar bilan ta'minlab kelmoqda.

Shuningdek, tadbirkorlik subyektlariga biznes-reja tuzish va boshqa maslahatlar xerish bo'yicha xizmatlar ko'rsatmoqda.

Palata o'z infratuzilmasini shakllantirish maqsadida asosiy diqqat-e'tiborini kichik va o'rta tadbirkorlikni axborot-maslahat bilan qo'llab-quvvatlaydigan markazlar ashkil etishga qaratmoqda. Misol uchun, Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-maydagi «Kichik va o'rta tadbirkorlikni rag'batlantirish mexanizmini takomillashtirish o'g'risida»gi 232-sonli qaroriga asosan hududiy palatalar huzurida xo'jalik hisobidagi 119 ta kichik va o'rta tadbirkorlikni axborot-maslahat bilan qo'llab-quvvatlash markazi uzildi. Ular ta'xis hujjatlarini texnik-iqtisodiy asoslash va biznes-rejalarini, kreditlar xlish uchun buyurtmanomalarini ishlab chiqishda, buxgalteriya hisobi va hisobotini ashkil etishda, huquqiy yordam, maslahat va axborot xizmatlarini hamda maslahat cizmatlarining boshqa turlarini ko'rsatishda tadbirkorlik sub'ektlariga yaqindan co'maklashmoqdalar. Chunki respublikada ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlik subyektlari oni 149,3 mingtadan 237,5 taga yetdi.

Birgina 2012-yilning 9 oyi davomida bu markazlar tamonidan 108,5 mingta adbirkorlik subyektiga 164,1 mln. so'mlik xizmat ko'rsatildi. Jumladan, ana shu davrda 5390 ta tadbirkorlik subyektiga biznes-reja va texnik-iqtisodiy asoslanmalar tayyorlab xerildi.

Shu bilan birga, markazlar Palata qoshidagi «Maroqand» axborot markaziga murojaat qilgan tadbirkorlarni tovar va xizmatlar, asbob-uskunalar, minitexnologiyala to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishtirib borishda ham yaqindan yordam bermoqda.

Bundan tashqari, O'zbekiston tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatas tomonidan tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlarning chet elda malaka oshirishlar tashkil etildi.

Palata 1998-yildan beri faoliyat yuritib kelmoqda. Gap shundaki, Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-maydagi «Kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirish rag'batlantirish mexanizmini takomillashtirish to'g'risida»gi 232-sonli Qarorining 2 ilovasiga binoan, palata zimmasiga kichik va o'rta biznes subyektlariga dastlabk hisobga olish va hisobotini yuritish, moliya resurslaridan samarali foydalanish investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari, mahsulotlarni eksport qilish, kadrlarni kasb hunarga o'rgatish bilan bog'liq masalalarda yordam ko'rsatish vazifalari yuklatilgan. Shu maqsadda palata Gretsiyaning «EOMEX» va «NERO» tashkilotlari bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Ushbu hamkorlik natijalari o'laroq, o'zbekistonli tadbirkorlarning 150 tasi shu tashkilotlar o'quv markazlarida malaka va bilimlarin oshirib qaytishdi. Shuningdek, Malayziya hukumatining texnik hamkorlik dastur asosida uch nafar tadbirkor va Palata xodimlari bu mamlakat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish korporatsiyasining o'quv markazida malakalarini oshirdilar. Umuman, o'zbekistonlik tadbirkorlar palata yordamida AQSH, BAA, Germaniya Italiya, Isroil, Misr, Turkiya, Hindiston, Yaponiya va boshqa rivojlangan davlatlard malakalarini oshirish imkoniga ega bo'lmoqdalar.

Tadbirkorlarni zarur axborot-maslahatlar, tadbirkorlikka oid yangiliklar bilan ta'minlash hamda o'z mahsulotlari haqidagi ma'lumotlarni nafaqat respublik birjalariga, balki chet el birja va kompaniyalariga ham tanitish borasida O'zbekiston Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi qoshidagi «MAROQAND» axborot markazi respublikamiz tovar ishlab chiqaruvchilari va tadbirkorlari tomonidan takli etilayotgan tovar va xizmatlarni targ'ib etish va reklama qilish uchun 2002-yilning iyu oyidan boshlab jahonning «Internet» tarmog'ida o'z faoliyatini boshladi. Markazning axborotlar bazasiga joylashtirilgan firma, kompaniya va xususi tadbirkorlarning mahsulotlarini nafaqat ichki bozorda, balki dunyoning barcha mamlakatlarida ko'risi mumkin. Dastlabki 5 oy ichida uning ma'lumotlar bazasi orqali 35 tadan ziyat davlatning 1500 dan ortiq firma va kompaniyalari taklif etayotgan mahsulot va xizmatlar haqidagi ma'lumotlardan foydalanilgani buning tasdig'idir.

Eksportni rivojlantirish hamda xorijiy sarmoyalarni jalb qilish maqsadid «MAROQAND» axborot markazi dunyoning bir necha markazlari va tashkilotlari bilan hamkorlik qilmoqda. Masalan, Italiyaning tashqi savdo instituti bilan hamkorlikd O'zbekistonda bu mamlakatga eksport qilish istagini bildirgan tadbirkorlarning mahsulotlari maxsus saytga joylashtirilib, «TSI» tashkiloti tomonidan italiyalil ishbiarmonlarga taklif qilinmoqda. Bundan tashqari, AQSHning jahondagi eng yirik «DAN & BREDSTRIT» axborot-analitik kompaniyasi xorijiy davlatlarga o' sarmoyalarni kiritmoqchi bo'lgan sarmoyadorlarni tegishli tashkilotlar haqidag ma'lumotlar bilan ta'minlamoqda.

E'tiborlisi, ushbu axborotlar bazasiga kiritilgan korxonalarining xorijiy sarmoy olib kirish imkoniyati yuqori. Chunki har bir yirik sarmoyador sarmoya olib

kirayotganda «DAN & BREDSTRIT» kompaniyasi bergan axborotga tayanadi. Bundan tashqari, jahon hamjamiyatining bir necha mamlakatlari axborot bazalari bilan axborot almashish tizimi yo'lga qo'yilgan.

Shu bilan bir qatorda «MAROQAND» axborot markazining birja yangiliklari sahifasida dunyo birjalariidagi o'zgarishlar haqidagi axborotlar yangilanib borilmoqda.

Toshkentda tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasining V syezdi va O'zbekiston savdo-sanoat palatasining ta'xis konferensiyasi 2004-yil sentabr oyida bo'lib o'tdi. Respublikamiz Prezidentining «O'zbekiston savdo-sanoat palatasini tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi. Ta'xis konferensiyasining ertasi kuni respublika, viloyat, tuman va shahar tovar ishlab chiqaruvchilar palatalari negizida savdo-sanoat palatalarini tashkil etish haqida qaror qabul qilindi. Farmonda belgilangan vazifalarni bajarish uchun palata Qoraqalpog'iston Respublikasida, viloyatlarda va Toshkent shahrida mintaqaviy boshqarmalarini tashkil etdi. Shuningdek, konferensiyada palata nizomi qabul qilindi, rahbar organlari saylandi, viloyat bo'limlarining rahbarlari tasdiqlandi va hozirgi kunda palata tasdiqlangan ushbu nizom asosida faoliyat ko'rsatmoqda.

## **20.2. Kichik tadbirkorlikni rivojlantirish va moliyalashtirish**

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishlariga qator xususiy tarmoq va kichik tadbirkorlikni (KT) rivojlantirish ham kiradi. Bu haqda ushbu darslikning to'rtinchi bobida batafsil fikr yuritilgan. Negaki xususiy tarmoq va KTni jadal rivojlantirish va ularning YAIMdagi ulushini ko'paytirish bozor iqtisodiyotiga mos tovar va xizmatlar bozorini shakllantirish hamda mahsulot eksportini oshirishda muhim o'rin tutadi. Bu boradagi asosiy vazifalar esa quyidagilar hisoblanadi: davlat tashkilotlarining xususiy tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvini cheklash, xususiy tadbirkorlarning resurslar va sotish bozorlaridagi ishtirokini kengaytirish, ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash va qo'shimcha soliq imtiyozlarini joriy etish.

2010-yilda mamlakat iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tarmoq ko'lami hamda hajmi o'sdi. Kichik biznes korxonalar soni 14%ga ko'paydi.

Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga 425 mingdan ziyod yangi ish o'rinlari tashkil etildi. Kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ortdi va 2010-yilda 52,3%ni tashkil etdi, ish bilan band bo'lganlar soni oshdi, 8408,3 ming kishini tashkil etdi (20.1-diagramma).

Respublikamizda 2012-yilda YAIMda kichik korxonalar ulushi 0,5 barobar oshib, 5,3%ni, mikrofirmalar ulushi esa, 1,6 barobar ko'payib, 13,35%ni tashkil etdi. O'zbekiston YAIMida yakka tartibda faoliyat yurituvchi tadbirkorlar ulushi 2010-yildagiga nisbatan qishloq xo'jaligi umumiy ishlab chiqarishidagi xo'jaliklar ulushi 6,0% kamayishi hisobiga 1,5 barobar pasaydi va 44%ni tashkil etdi.


Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun respublikamizda quyidagilar amalga oshirildi:

- bank tizimi tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini mikrokreditlash mexanizmi soddalashtirilmoqda, ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida banklarda maxsus imtiyozli kreditlash jamg'armalari tashkil etildi;

- banklar tomonidan iqtisodiyotning real sektoriga moliy va'yutada ajratilgan kreditlar hajmi oshdi. Birgina 2010-yilda kreditlar miqdori 26,2 %ga ko'payib, 86 mlrd. so'mni tashkil etdi;

20.1-diagrammi

Kichik tadbirkorlikda band bo'lganlar soni (ming kishi)



Manba: O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2009, 2011.

- xorijiy kredit mablag'larining o'zlashtirilishi jadallashmoqda va 2010-yilda 91,3 mln. AQSH dollari miqdorida mablag'lar o'zlashtirildi;

- kreditlarning muddatini uzaytirish va ularning foiz stavkalarini pasaytirish choralari ko'rilmoqda. Masalan, 2012-yilda banklar kreditlarining 81 %ini uzoc muddatli

- kreditlar tashkil etdi, ular bo'yicha yillik foiz stavkalari 18 %dan 15 %gacha pasaydi;

- kichik korxonalarining xomashyo resurslari, asbob-uskuna, texnologiya va butlovchi qismlar bozoriga kirish imkoniyatini kengaytirish maqsadida respublika tovar-xomashyo birjasida erkin savdo yo'lga qo'yilgan tovarlar sonini ko'paytirish choralari ko'rilmoqda.

Xususiyl tadbirkorlikni rivojlantirish asosida 2012-yilda 1000 kishi hisobiga faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 14,7 birlikni tashkil etdi. Taqqoslat qaraydigan bo'lsak, rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 35 birlikni tashkil etadi.

E'tirof etish kerakki, respublikamiz viloyatlarida esa kichik tadbirkorlik sub'ektlari soni 2012-yilda 2011-yildagidan ko'paydi. Chunonchi, Qashqadaryo viloyatida 11,6 birlikdan 17,8 birlikka, Sirdaryo viloyatida 11,0 dan 12,7 birlikka oshdi. Namangan, Surxondaryo, Toshkent, Farg'ona, Samarqand viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida esa umumrespublika darajasidan ham past bo'lgan ko'rsatkichlar qayd etildi.

Ta'kidlash kerakki, respublika iqtisodiyoti tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalarining o'sish sur'atlari qishloq ho'jaligida - 122,2%, transport va

aloqada – 111,3%, qurilish, savdo va umumiy ovqatlanish sohalarida – 100,2%. Sanoatda esa 2012-yilda faoliyat yuritayotgan sub'ektlar ulushi ular yangi tasnif bo'yicha hisoblanishi munosabati bilan kichik korxonalarining yarmiga yaqini qisqarishi hisobiga 4,5 % kamaydi.

Respublikamiz iqtisodiyotining ishlab chiqarish tarmoqlari, qishloq ho'jaligi, yoqilg'i-energetika, tog'-kon va to'qimachilik sanoatining jadal sur'atlarda o'sishini ta'minlash maqsadida:

xorijiy investisiyalar jalb etilishini qo'llab-quvvatlash;

texnologik uskunalarni yangilash;

transport va kommunikatsiya tizimlarini kengaytirish;

tariflarni belgilash siyosatini o'z-o'zini qoplash yo'nalishida qayta ko'rib chiqish va xususiyashtirish siyosatini olib borish bo'yicha muayyan tadbirlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasida xorijiy kredit liniyalarining mablag'laridan foydalanish ishlari hozirgi kunda asosan tijorat banklari tomonidan amalga oshirilmogda. Ular orqali kichik va o'rta biznes sub'ektlariga quyidagi xorijiy kredit liniyalarining kredit mablag'lari ajratilmogda:

ETTB (Yevropa Taraqqiyot va tiklanish banki) kredit liniyasi;

OTB (Osiyo Taraqqiyot banki) kredit liniyasi;

KfW (Germaniyaning Taraqqiyot va tiklanish banki) kredit liniyasi;

xalqaro moliya korporatsiyasi;

OPEK jamg'armasining kredit liniyasi;

Italiyaning «Banka Nazionale del Lavoro» banki kredit liniyasi;

Chexiyaning «Obxodni bank» kredit liniyasi;

AQSH ning «Bank of Nyu- York» kredit liniyasi;

Isroil, Germaniya, Fransiyaning yetakchi banklari kredit liniyalari.

Ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Adliya vazirligida 902 va 903-sonlar bilan (29.02.2000-yil) ro'yxatdan o'tgan «Kichik va o'rta biznes subyektlarini mikro kreditlash tartiblari»ga ko'ra yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan dehqon xo'jaligi mikro kredit olish uchun tijorat bankiga quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari zarur:

so'ralayotgan kredit miqdori ko'rsatilgan kredit arizasi;

kredit qaysi maqsadga ishlatilishi ko'rsatilgan biznes-reja.

Ushbu hujjatlarni tijorat banki 5 ish kunda ko'rib chiqib, murojaat etuvchiga tegisli javob beradi.

Fermer xo'jaligi yoki yuridik shaxs maqomiga ega boshqa kichik va o'rta biznes subyektlari esa mikro kredit olish uchun tijorat banklariga quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari lozim:

mikro kredit olish uchun kredit buyurtmasi;

pul oqimi tahlil ko'rsatilgan biznes-reja;

oxirgi hisobot sanasiga davlat soliq inspeksiyasining mahalliy (tuman) idorasi tomonidan tasdiqlangan buxgalterlik balansi (1-shakl), debitorlik va kreditorlik qarzi haqidagi ma'lumot:oma (2 «A» -shakl), shuningdek, 90 kundan ortiq vaqt mobaynidagi qarzdorlikni solishtirish dalolatnomalari, moliyaviy natijalar haqida hisobot (2-shakl).

Ushbu hujjatlarni tijorat banki 10 ish kunida ko'rib chiqib, murojaat etuvchilarga tegishli javob berishi shart.

«Biznes-fond»ning imtiyozli kreditlari quyidagi yo'nalishlarga ajratiladi:

fermer xo'jaliklarini rivojlantirishga;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga;

mahalliy sanoatni rivojlantirishga;

qurilish materiallari ishlab chiqarish va qurilish sanoatini rivojlantirishga;

turizmni rivojlantirishga;

xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga.

Bundan tashqari, Fond o'z nizomiga ko'ra, lizing operatsiyalarini, ya'n moliyaviy, amaliy (operativ) va xalqaro lizinglarni amalga oshiradi. Adliya vazirligida 902 va 903-sonlar bilan (29.02.2000-yil) ro'yxatdan o'tkazilgan «Kichik va o'rta biznes subyektlarini mikrokreditlash tartiblari» quyidagi yo'sinda amalga oshiriladi:

mikrokredit milliy valyutada, mikrokreditning asosiy qismi va foizlari milliy valyutada qaytariladi;

kredit chet el valyutasida olinsa, asosiy qarz va foizlar chet el valyutasida, agarda tadbirkorning hisob raqamida chet el valyutasi bo'lmasa, u holda bank oldidagi qarz to'lov kunidagi birjadan tashqari kurs bo'yicha milliy valyutada qaytariladi.

Mikrokreditlarning 50 foizgacha bo'lgan miqdori naqd pulda berilishi ham mumkin. Shu bois mikrokredit naqd pulda olinsa, u naqd pulda qaytariladi. Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 10-sentabrdagi «Kichik korxonalar, dehqon va fermer xo'jaliklarini mablag' bilan ta'minlash, moddiy-texnik ta'minlash, ularga bojxona imtiyozlari berish, bank xizmatlari va boshqa xizmatlar ko'rsatish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 366-sonli qaroriga muvofiq «Biznes-fond» hamda Dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armalari mablag'lari hisobidan tijorat banklari orqali kichik va o'rta biznes subyektlarining boshlang'ich ishlab chiqarish sarmoyasini shakllantirish maqsadida imtiyozli kredit mablag'lari ajratiladi.

Yangidan tashkil etilgan mikrofirmalar va dehqon (yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan) xo'jaliklari, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklariga dastlabki sarmoyani shakllantirish uchun kreditlar ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin 6 oydan ko'p bo'lmagan vaqt ichida beriladi.

Ushbu kreditlar aylanma mablag'larni shakllantirish, investitsiya loyihasi texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish, asbob-uskunalar olinishi uchun beriladi. Kreditlar shuningdek, imtiyozli foiz stavkasi (Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasining 1,6 qismi) bo'yicha 3 yilgacha bo'lgan muddatga, uzaytirish huquqsiz ajratiladi (hozirgi kunda 6 %). Bunda:

mikrofirmalar va dehqon (yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan) xo'jaliklari uchun – eng kam oylik ish haqining 150 baravari miqdorigacha;

kichik korxonalar va fermer xo'jaliklari uchun – eng kam oylik ish haqining 300 baravari miqdorigacha;

boshlang'ich sarmoyani shakllantirish maqsadida olingan kreditlar uchun foiz to'lovlari 12 oyga kechiktiriladi va kredit olingandan keyin 18-24 oy o'tgach, qaytarishni boshlash shartlari asosida beriladi. Kredit olish uchun garov ta'minoti bo'lishi zarur. Kreditning garov ta'minoti kredit summasining 120-125 %idan kam bo'lmasligi lozim.

Siz olmoqchi bo'lgan kreditingizga garov ta'minoti sifatida qo'llaniladigan quyidagi faoliyat yoki mulkni taqdim etishingiz mumkin.

davlat, eng yaxshi banklar va uchinchi shaxslar kafolatlari;  
asosiy vositalar, bino, inshootlar (baholanish summasining 70 %igacha);  
uskunalar (baholanish summasining 60 %igacha).

Siz garov mulkingiz yetadigan loyihani amalga oshirish uchun harakat qilishingiz lozim.

### **20.3. Minitexnologiya va uskunalar olish yo'llari**

O'zbekistonda biznesni yuritish, minitexnologiya va uskunalar olish uchun mablag' jalb etishning asosiy yo'nalishi mikro kreditlar hisoblanadi. Unga hukumat tomonidan tadbirkorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash nuqtai nazaridan katta e'tibor berilmoqda. Minitexnologiyalar va uskunalar olishda mikro kreditlar bir qator ko'rsatkichlar bo'yicha qulaydir: kredit olish qoidasi birmuncha soddalashtirilgan, garov ta'minotining barcha shakllari hal etilgan, kredit pullarining bir qismi naqd olinadi, aylanma resurslar xaridi asosan kredit berish masalalariga nisbatan oson hal etiladi.

Qonunchilikda mikro kreditlarni olishning ikkita asosiy tartibi belgilab qo'yilgan: yuridik shaxs bo'lgan kichik biznes subyektlari va yuridik shaxs bo'lmay, o'z faoliyatini amalga oshirayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar, dehqon xo'jaliklari.

Biz mikro kreditlarning minitexnologiya, uskunalar olish tartibi haqida batafsil to'xtalib o'tirmaymiz, chunki minitexnologiya va uskunalar haqida batafsil ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi savdo-sanoat palatasining «MAROQAND» ko'p tarmoqli axborot markazi bazasida mavjud. Keyingi yillarda Palata kichik va o'rta biznes subyektlariga yengilliklar yaratish maqsadida respublikamizda an'anaviy bo'lib qolgan, kichik va o'rta biznes subyektlariga mo'ljallangan «MINITEX» texnologiyalari, uskunalari va mahsulotlarining ko'rgazma-savdolarini o'tkazib kelmoqda. Masalan, 2005-yilning may oyida barcha hududlarda bo'lib o'tgan «MINITEX – 2002» ko'rgazma-savdosi natijalari buning tasdig'idir. Unda: 5100 tadbirkorlik subyekti qatnashdi; 88 ta milliy va 13 ta xorijiy firma 900 turdagi mini texnologiya va uskunalar taqdim etdi; katalog va prospektlar shaklida AQSH, Rossiya, Germaniya, Italiya, Fransiya, Yaponiya, Xitoy, Turkiya kabi rivojlangan davlatlarning 1000 dan ortiq turdagi minitexnologiya va uskunalari namoyish qilindi; ko'rgazma-savdolar davomida mini texnologiya va uskunalarini sotib olish maqsadida qiymati 468,6 mln. so'm va 975,0 ming AQSH dollari miqdorida 108 ta shartnoma tuzildi; ko'rgazma-savdolar asnosida kichik va o'rta biznes subyektlaridan 1395,0 million so'mlik 1550 ta dastlabki buyurtma-ariza qabul qilindi.

Meva va sabzavotlarni quritish uchun milliy valyutada «PGS» (O'zbekiston) qurilmalarini, xorijiy valyutada «ANA International» (Turkiya), «IEC» (Isroil), «TEXTIMA» (Germaniya), «Texnoindustria» (Italiya) firmalarining yirikroq uskunalarini sotib olish mumkin.

Bundan tashqari, Palata hozirgi kunda Germaniyaning «Ost Consulting GmbH» va «Ascotec Planungs-und Anlagen-Handels GmbH» kompaniyalari bilan hamkorlikda

respublikamizga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan minitexnologiya va uskunalarni lizing asosida olib kelish loyihasi ustida ish olib bormoqda.

Agar ushbu loyiha shartlarini bajara olsangiz, tegishli uskunalarni lizing asosida xarid qilishingiz mumkin. Ular haqidagi ma'lumotlar esa bor. Masalan, pivo ishlab chiqarish uskunalari to'g'risida ma'lumotlarni «MAROQAND» ko'p tarmoqli axborot markazi bazasidan topishingiz mumkin. Bundan tashqari, Palata Ukraina Respublikasining firmalari bilan turli xildagi minitexnologiya va uskunalarni O'zbekistonga olib kelish loyihasi bo'yicha ish olib bormoqda. Hozirgi kunda Ukrainada pivo ishlab chiqarishga mo'ljallagan arzon minitexnologiyalar ishlab chiqarilmoqda. Ulardan hir birining mazkur mamlakatdagi narxi 104,5 ming AQSH dollariga teng.

Chet ellik hamkorlar bilan ishlab chiqarishni tashkil etmoqchi bo'lganlarga Palataning «MAROQAND» ko'p tarmoqli axborot markazi yaqindan ko'maklashish imkoniyatiga ega. Avvalambor, loyihangizni ushbu axborotlar bazasiga kiritish lozim, chunki bu bazani dunyoning 35 dan ortiq davlatidagi sarmoyadorlar doimo o'qib turadi. Palata, shuningdek, doimiy ravishda xorijiy sarmoyadorlar va mahalliy tadbirkorlarimiz ishtirokida davra suhbatlari va ilmiy-amaliy seminarlar o'tkazib kelmoqda. Masalan, keyingi oylarda Polsha, Koreya, Hindiston, Ukraina, Rossiya, Eron, Chexiya davlatlaridan tashrif buyurgan tadbirkorlar bilan uchrashuvlar bo'lib o'tdi. Ushbu tadbirlar haqida ma'lumotlar «MAROQAND» axborotlar bazasida yoritib borilmoqda.

Palata mutaxassislari turli davlatlarning elchixonalari bilan ham hamkorlikda ishlamoqda. Ular elchixonalar, xorijiy palatalardagi hamkorligimiz orqali chet ellik sheriklarni topishda yordam berishlari mumkin. Bu yerda lizing ijarachi korxonalar ishlab chiqarishni kengaytirish va bir vaqtning o'zida to'lovlar hamda qarz mablag'larini jalb etish zaruratisiz jihozlarga xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish imkonini beradi.

Hozirgi kunda xalqaro amaliyot lizingi har qanday qo'yilmalar amalga oshirilishiga imkon beruvchi asosiy vositalardan biri sifatida tavsiflanmoqda. Darhaqiqat, lizing mulkni sotib olishning boshqa usullariga nisbatan bir qator ustunliklarga ega. Xususan, ijara to'lovlari jihozlar o'rnatilgani, sozlangani va ishga tushirilganidan so'ng amalga oshiriladi. Shu tufayli ijarachi korxonaga olingan jihozlarda ishlab chiqarilgan mahsulot sotilganidan so'ng kelib tushgan mablag' hisobidan to'lovlarni to'lash imkoniga ega bo'ladi:

lizing bitimi ijaraga beruvchilarning jihozlarni ta'mirlash va ularga texnologik xizmat ko'rsatish majburiyatini ko'zda tutishi mumkin;

lizing ijarachiga ma'naviy eskirgan jihozlarni vaqti-vaqti bilan yangilab turish imkonini yaratadi;

lizing to'lovlari cheklangan jadvalga ko'ra amalga oshirilishi tufayli ijarachi kichik korxonalar, tadbirkor uchun, masalan, minitexnologiya, jihozlarini xarid qilish, sotishga nisbatan kapital qo'yilmalarni moliyalashtirishga ketadigan xarajatlar va chiqariladigan mahsulotni sotishdan tushadigan tushumlarni muvofiqlashtirish imkonini yaratiladi;

lizing bo'yicha mulkni xarid qilish rentabelli korxonalariga soliq chegirmalarini optimallashtirish yo'li bilan soliqqa tortilish imkonini beradi.



Kichik biznes yo'nalishlaridagi va tadbirkorlarga mulkni ssudaga emas, moliyaviy lizingga olish osonroqdir. Chunki minitexnologiya va uskunalar garov sifatida qo'yiladi.

Innovatsiya uchun ajratiladigan grantlar investitsiya bozorining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Grantlar hadya etuvchi yoki donor tomonidan aniq ishlarni bajarish uchun notijorat tashkilot yoki xususiy shaxsga beminnat beriladigan mablag'lar hisoblanadi. Qarzga nisbatan grantlar qaytarilmaydi. Grant - grantni bajaruvchi tomonidan innovatsiya faoliyati, ekologik, iqtisodiy yo'nalish, o'quv-ta'lim metodologik, maslahat xarakteri bilan bog'liq bo'lgan biron-bir notijorat maqsadlarga erishish uchun beriladi. Aniqrog'i, uning asosiy g'oyasi beminnat asosda berilgan pul mablag'lari hisobiga erishilgan grant loyihasi bo'yicha ish natijalari, shuningdek, donorlik ishtiroki, kimgadir yordam berishga yo'naltirishdan iborat.

Donor sifatida turli mamlakatlarning davlat muassasalari, xalqaro tashkilotlar, xususiy xayriya fondlari, tijorat tuzilmalari, diniy, ilmiy va boshqa notijorat jamoat tashkilotlari, shuningdek, xususiy shaxslar ishtirok etishlari mumkin.

#### **20.4. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash**

Respublikamizda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi yagona tizim tashkil etilgan va u davlat boshqarish tashkilotlarini va bozor infratizimi institutlarini, nodavlat tashkilotlar va muassasalarni o'z ichiga oladi va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlovchi bu subyektlarning hamkori va maslahatdoshi hisoblanadi.

**Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha respublika muvofiqlashtiruvchi kengashi.** Bu kengash tarkibiga O'zbekiston Respublikasi hukumatining a'zolari, tadbirkorlikni, qo'llab-quvvatlovchi muassasalar, yirik xalqaro moliya tashkilotlari o'zbek ishbilarmonlarining vakillari kiradi. Kengash:

kichik va o'rta biznesni, shuningdek, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshiradi;

davlat boshqaruv tashkilotlari va KO'ni qo'llab-quvvatlovchi bozor infratuzilmasi faoliyatini muvofiqlashtiradi (ularning kafolatlari va imtiyozlarini ko'zda tutish, sarmoyaviy loyihalarni moliyalashtirish uchun zarur kredit resurslarini olish imkoniyati, jumladan, xorijiy kredit tashkilotlari hisobiga);

sarmoyaviy loyihalar va takliflarni tanlov natijasida tanlash mexanizmini ishlab chiqishni va monitoringni tashkil qiladi;

sarmoyaviy loyihalarni moliyalashtirish mexanizmini ishlab chiqadi, kredit bilan ta'minlash bo'yicha muammolarni hal qiladi va bunda sansalorlik, qog'ozbozlik va boshqa salbiy hodisalarni yo'qotish ustidan qat'iy nazoratni ta'minlaydi;

moliyalashtirishga qabul qilingan sarmoyaviy loyihalarni hisobga olish, ularni amalga oshirishni tahlil qilish, ajratilgan kredit resurslari sarmoyadoriga va ulardan maqsadli foydalanish tizimini yaratadi.

Respublikamizda kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bilan mutasaddi 19 ta tashkilot shug'ullanadi. Masalan, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashda «Madad» sug'urta agentligi jahon tajribasida kamdan-kam uchraydigan, tavakkalchiligi juda yuqori tashkilot bo'lib, u tijorat banki oldida sizning kreditingizdan bir qismini qaytarish majburiyatini sug'urtalashi mumkin. Amalda kredit

garovi bo'la oladigan bunday sug'urta esa, tijorat banki va sug'urta agentligining o'zaro kelishuvi asosida amalga oshiriladi.

Agentlik quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ham faoliyat olib bormoqda:

«Biznes-fond»dan imtiyozli kredit olmoqchi bo'lgan xususiy tadbirkorlarning investitsiya loyihalarini baholash va ekspertiza qilish;

tadbirkorlik tavakkalchiligidan imtiyozli asosda sug'urta qilish, kredit undirilganligi uchun qarz oluvchini sug'urta qilish;

respublikamizda xususiy tadbirkorlikni va kichik biznesni rivojlantirishga yo'naltirilgan chet el investitsiyalarini sug'urta himoyasi bilan ta'minlash;

sug'urtaning keng ko'lamdagi an'anaviy turlarini taqdim etish.

Tovar ishlab chiqaruvchini faqat targ'ibot-tashviqot bilan mahsulot tayyorlashni ko'paytirishga rag'batlantirib bo'lmaydi, unga huquqiy, iqtisodiy va ma'naviy shart-sharoitlar yaratish kerak. Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 13-noyabrda 390-sonli Qarorida ana shunday shart-sharoitlar ifodalab berilgan. Jumladan, 2003-yil 1-yanvardan 2008-yil 31-dekabrgacha:

Iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchilar daromad (foyda) solig'idan amaldagi stavkalarining 20 % kamaytirilgan miqdorida; bolalar tovarlari ishlab chiqarishdar olingan daromadlardan 7 % stavka bo'yicha; mikrofirmalar va kichik korxonalar iste'mol tovarlari ishlab chiqarishdan olingan tushumdan amaldagi stavkalarga nisbatan 25 % kam miqdorda; korxonalarining ichki imkoniyatlari hisobiga iste'mol tovarlarining fizik hajmlarini ko'paytirishdan olingan daromadlari daromad solig'i va foyda solig'idan; nooziq-ovqat iste'moli tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalar bo'sh mablag'larini ishlab chiqarishini kengaytirish va tovarlarning raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirsalar, aksiz solig'idan ozod etiladi; amortizatsiya ajratmalarini hisobdan chiqarishda asosiy vositalarning foydali xizmat muddatidan kelib chiqqar holda mustaqil ravishda belgilash huquqi beriladi; reklama xarajatlari soliqqa tortiladigan bazadan chiqarib tashlanadi va hokazo.

Qarorga ko'ra, shuningdek, tijorat banklariga xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarish bo'yicha yangi quvvatlarni barpo etish va ishlayotganlarini kengaytirish uchur belgilangan tartibda milliy va xorijiy valyutada kreditlar berish tavsiya etilgan.

Respublika hukumati tomonidan ichki ishlab chiqaruvchini qo'llab-quvvatlash unga ishlab chiqarish ko'lamlarini yanada kengaytirish, ishlab chiqarayotqar mahsulotlari sifatini oshirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinmoqda Bu jarayonlarni, albatta, qo'llab-quvvatlash lozim. Hattoki, AQSHdek qudratli davla milliy po'lat ishlab chiqaruvchilarini rag'batlantirish va importni kamaytirish maqsadida qator qonun va chora-tadbirlar qabul qilgan.

O'zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlarining import umumiy hajmidagi ulush 2012-yilda 5,9 % kamayib, 36,6 %ni tashkil qildi, eksport esa, oshdi. Masalan, 2012-yil hududlar bo'yicha eksport tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi asosar yengil sanoat, mashinasozlik, rangli va qora metallurgiya mahsulotlarini ekspor qiluvchi Namangan, Samarqand, Toshkent va Farg'ona viloyatlarida o'sganlig kuzatildi. Mahsulot ekportida Andijon, Buxoro, Xorazm viloyatlari va Toshken shahrining ulushi 2008-yildagiga nisbatan kamaydi.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Qashqadaryo, Sirdaryo va Namangan viloyatlarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan eksportga mahsulot chiqarish ulushi past

Respublika miqyosida tovarlarni eksport qilish hududlardagi kichik korxonalar tomonidan yangi mahalliy mahsulotlarni ishlab chiqarish o'zlashtirilishi natijasida sezilarli darajada kamaydi.

Kelgusi yillarda islohotlarning ustuvor yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senti qo'shma yig'ilishida so'zlagan ma'ruzasida belgilab berildi. Shunga asosan iqtisodiyot sohasidagi ustuvor yo'nalishlar quyidagilarga qaratilgan bo'lmog'i lozim:

davlatning iqtisodiyotga aralashuvini cheklash orqali aholi turmush darajasini oshirish maqsadida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish, tadbirkorlar uchun shart-sharoitlar yaratish, zarur bo'lgan bozor infratuzilmasini barpo etish;

xususiy sektor ulushi, uning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rnini oshirish, xususiy tadbirkorlarni huquqiy himoya qilish, rag'batlantirish, qo'llab-quvvatlash bo'yicha samarali mexanizmlarni shakllantirish.

ustuvor vazifalarni bajarish va 2012-yilda kichik biznes ulushini 49%ga yetkazish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim: iqtisodiyotni jadallashtirish va ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, kredit resurslarini erkin olish imkoniyatini yaratish maqsadida bank sohasidagi islohotlar bilan hamohang ravishda samarali soliqqa tortish tizimi zamirida kichik tadbirkorlikni rag'batlantirish, shuningdek, xususiy mulkni himoyalashning samarali sud-huquq tizimini shakllantirish.

#### **20.5. Korporativ boshqaruvni joriy etishning maqsadi va vazifalari**

O'zbekistonda xususiylashtirish jarayoni kengaytirilishi bilan xususiy korxonalarni boshqarish muammosi paydo bo'ldi, ma'muriy islohotlarni amalga oshirishda esa korporativ boshqaruvni joriy etish hayotiy zaruratga aylandi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, byurokratik boshqaruv tizimi va uning zamondan orqada qolgan tuzilmasi jamiyatda nafaqat bozor munosabatlarini rivojlantirishga, balki iqtisodiy-ma'muriy islohotlarni o'tkazishga ham to'sqinlik qiladi. Aynan shu nuqtai nazardan kelib chiqib, mamlakatimizda davlat hamda uning quyi pog'onasi – korxonalar va tashkilotlar boshqaruv tizimi bozor iqtisodiyoti, yangicha mulk munosabatlariga moslashtirilmoqda. Xususan, 2008-yil boshlariga kelib, savdo, aholiga xizmat ko'rsatish, engil sanoat, oziq-ovqat, qurilish, mashinasozlik kabi ko'plab tarmoqlarda davlat korxonalari deyarli tugatildi. Hozirda energetika, neft va gaz sanoati hamda iqtisodiyotning boshqa bazaviy soha korxonalari ham xususiylashtirilmoqda. Bu esa O'zbekistonda korporativ boshqaruvni amalga oshirishni talab qiladi. Ayniqsa, 2003-yil 24-yanvarda Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan «O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektor ulushi va ahamiyatini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmon xususiy tadbirkorlikni keng ko'lamda rivojlantirish hamda aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini oshirish yo'lida tub burilish bo'ldi. Ushbu Farmonda belgilanganidek, aksiyadorlik jamiyatlari uyushmalari hisoblangan assotsiatsiyalar, kompaniyalar, korporatsiya va konsernlar tarmoqlarida yagona texnikaviy siyosat olib borish ularning asosiy vazifasi etib belgilandi. Ularning tarkibiga kiruvchi korxonalar faoliyatlariga aralashish ta'qiqlandi.

Aksiyadorlik jamiyatlari ijroiya organlari, eng avvalo, direktorlar korpusining aksiyadorlar oldida javobgarligini oshirish maqsadida direktor (boshqaruv raisi)ni

tayinlash, u bilan shartnoma tuzish, direktor hisoboti, direktorlar va Kuzatuv kengashlarini moddiy rag'batlantirishning yangi tartibi belgilandi. Endilikda Kuzatuv kengashi a'zolari faoliyati ularning mazkur aksiyadorlik jamiyatlaridagi yollanma mehnat faoliyati bilan qo'shib olib borilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Vazirlar Mahkamasining aksiyadorlik jamiyatlarini korporativ boshqarishni takomillashtirishga qaratilgan 2003-yil 19-apreldagi «Xususiyashtirilgan korxonalarni korporativ boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga ko'ra, bir qator me'yoriy hujjatlar ham qabul qilindi. Aksiyadorlik jamiyatining Kuzatuv kengashi, boshqaruv kompaniyalari to'g'risidagi nizom hamda ijro etuvchi organining rahbarini yollash to'g'risidagi namunaviy mehnat shartnomalari shular sirasiga kiradi.

Xo'sh, «korporativ boshqaruv» tushunchasi nimani anglatadi? Uning tamoyillari, maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?

Korporatsiya lotincha «corporatio» - «birlashma» so'zidan olingan bo'lib, umumiy maqsadlarga erishish uchun birlashgan jismoniy va yuridik shaxslar yig'indisidir. Korparatsiyalar toifasi jihatidan tijorat va notijorat korporatsiyalarga bo'linadi. Integratsiyalashgan korporativ tuzilmalar konsern, xolding va boshqa ko'rinishlarda ham bo'lishi mumkin. Korporatsiya aksiyadorlik jamiyati sifatida aksiyadorlar mablag'larini birlashtirish yo'li bilan tashkil etiladigan va o'z aksiyadorlari manfaatlarini yo'lida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi tijorat tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir. Aksiya egalari jamiyatning mulkdorlari hisoblandsada, biroq mulkiga nisbatan boshqa ashyoviy huquqlarga ega emas. Jamiyat tugatilib, kreditorlardan qarzlarni uzgandagina aksiyadorlar mol-mulkdan ulush olishlari mumkin.

Dunyodagi har bir mamlakat o'z xalqining an'analari hamda mentalitetidan kelib chiqqan holda korporativ boshqaruv modelini yaratishga intiladi. Jahon tajribasida esa uchta asosiy model ommalashgan hamda eng mukammal, deb e'tirof etilgan. Ulardan birinchisi «inglizcha-saksoncha» modeldir. Bu asosan, AQSH va Buyuk Britaniya davlatlari korporativ boshqaruv tizimida qo'llanilib, unda moliya bozoriga ko'proq, bank va korporativ boshqaruv agentlariga esa kamroq imkoniyatlar berilgan. Kompaniyalarga aksiya va boshqa qimmatli qog'ozlar chiqarishlari uchun ma'lum tartibdagi talablar belgilangan. Aksiyalar narxi ham bozor talab va taklifidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Shuni e'tiborliki, yirik sarmoyadorlar tomonidan aksiyalar narxiga qarab, kompaniya faoliyatiga baho beriladi. Agar ularning qiymati pastlay boshlasa, kompaniyani boshqarish qoniqarsiz, faoliyat ham talab darajasida emas, degan to'xtamga kelinadi.

Mazkur modelning ajralib turuvchi asosiy xususiyati shuki, kompaniya aksiyadorlari strategik qarorlar qabul qilishda ishtirok etadilar. «Inglizcha-saksoncha» modelning yana bir muhim jihati bor: kompaniya o'zida ko'plab mayda aksiyadorlarni birlashtirib, o'z aksiyalar paketi o'ta kichik darajada qismlarga bo'linadi. Shuning uchun ham biror-bir aksiya egasi menejment faoliyatini nazorat qilishning uddasidan chiqa olmaydi. Faqat butun jamoa birlashgandagina bunday maqsadga erishish mumkin. Amerika qonunlariga ko'ra, korporativ boshqaruvni unitar direktorlar kengashi olib boradi. Uning tarkibiga kiritilgan mustaqil va ijrochi direktorlar o'rtasida vazifalar alohida taqsimlanmagan. Biroq ularning barchasi kompaniya faoliyati uchun babbarobar javobgardir. Yevropada korporativ boshqaruvning nemis modeli eng ustuvor hisoblanadi. Bunda banklar kreditor sifatida aksiyadorlar va menejerlarga tegishli

fondlarning joylashtirilishini hamda direktorlar kengashi faoliyatini nazorat-taftish qiladi. Germaniyada esa, xususiy sarmoyadorlar fond birjalari savdosida qatnashishlari mumkin emas. Birjada ro'yxatdan o'tgan aksiyalar faqat vositachilar orqali sotiladi yoki sotib olinadi. Banklar depozitariy vazifasini ham bajargani bois, aholi qimmatli qog'ozlarni ularning «temir sandiq»larida saqlashni afzal ko'radi. Shundan bo'lsa kerak, kompaniya aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida ovoz to'plash natijalari bo'yicha banklar yuqori o'rinlarni band etadi. Yaponcha korporativ boshqaruv tizimiga to'xtalsak, u ma'lum darajada nemischaga o'xshash. Bunda ham banklar belgilovchi ahamiyatga ega. Ammo yapon korporativ boshqaruv modelining o'ziga xos xususiyati – korxonada aksiyalariga nisbatan birgalikda egalik qilish mexanizmidir. Uni moliyaviy «keyresu» deb ataluvchi yirik firmalar birlashmasi amalga oshiradi. Keyresuga kiruvchi korxonada boshqa kompaniyalar aksiyalariga egalik qiladi. Ular bilan iste'molchi yoki yetkazib beruvchi sifatida hamkorlik o'rnatib, uning nazoratini olib boradi.

Amalda yapon firmasi biron-bir bank bilan yaqin aloqada bo'ladi. Bu aloqa kreditlash, obligatsiyalar chiqarishda ko'maklashish, aksiyadorlar mablag'ida, shuningdek, turli axborot va boshqaruv xizmatlarida ishtirok etishdan iboratdir.

Yaponiyadagi xo'jalik aynan o'z mamlakati xususiyatlariga javob beruvchi yangi korporativ boshqaruv modelini qabul qilish imkonini beradi. Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, korporativ tizimi aksiyadorlik jamiyatining faoliyatiga jalb etilgan turli shaxslar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash va o'z navbatida, uning investitsion salohiyatini ko'tarish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Endi ikki og'iz so'z korporativ boshqaruv, uning vazifalari, me'yoriy-huquqiy bazasi hamda boshqa jihatlari xususida. Korporativ boshqaruv – kompaniya samaradorligini oshirish, aksiya egalari, kreditorlar, sheriklar manfaatlarini himoyalash masalalari bo'yicha menejerlar va aksiyadorlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi, raqobat sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish, barcha muhim masalalar, jumladan, mulkning tarkibi, moliyaviy ahvol, faoliyat natijalari hamda boshqa axborotlarning to'g'ri yoritilishi, barcha boshqaruv organlari vazifalari, vakolatlarining aniq mezonlari, ijroiya organlarining Kuzatuv kengashi hamda aksiyadorlar oidida hisobot berishi, rahbariyat va kompaniya faoliyati bilan bog'liq qarorlar qabul qiluvchi shaxslarning aksiyadorlar yoki boshqa manfaatdor shaxslar oldidagi javobgarligidir. Uning vazifalari esa avvalo, aksiyadorlarning manfaatlarini himoya qilish, kompaniyani moliyaviy yuksaltirish, aksiyalar narxini oshirish yo'li bilan uzoq muddatli iqtisodiy qiymatli jamg'arish, rivojlantirish strategiyasini belgilash va amalga oshirilishini nazorat qilish, biznes-rejani tasdiqlash hamda bajarilishini ta'minlashdan iboratdir.

Korporativ boshqaruvning me'yoriy-huquqiy bazasiga esa, qonunlar, mamlakat Prezidentining farmonlari, hukumat qarorlari, idoraviy hamda kompaniyaning ichki hujjatlari, turli shartnomalar bilan belgilanadigan me'yorlar, shuningdek, xo'jalik hamjamiyatida umumiy qabul qilingan odob-axloq me'yorlari kiradi.

Jahon amaliyotida yana shu narsa ko'zga tashlanadiki, korporativ boshqaruv to'g'risida qonunlar mavjud bo'lsa-da, ularni yanada to'ldirish hamda takomillashtirish maqsadida kodekslar yaratilgan. Kodeksning asosiy g'oyasi – barcha biznes jarayoni ishtirokchilarining axloqiy faoliyatini ta'minlavchi tartib-qoidalarni tavsiya qilish. Kodeks qoidalarini bajarish esa majburiy emas. Ammo unda korporativ xulqqa oid eng yaxshi amaliy andozalar mavjudligi e'tiborga molik.



Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, direktorlar (kuzatuv) kengashi, ijroiya organ va ichki nazorat-taftish komissiyasi hamda ichki audit xizmati korporativ boshqaruv organini tashkil etadi.

Ta'kidlash joizki, qonun ustuvorligi, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning samarali tizimi, qimmatli qog'ozlar, mehnat va tovarlarning faol bozori, shuningdek, valyutaning ayirboshlanuvchanligi korporativ boshqaruv uchun eng muhim omildir. Ana shu vazifalardan kelib chiqqan holda mamlakatimizda ham Prezident farmonlari va hukumat qarorlari qabul qilindi. Ayni chog'da ularning ijrosini ta'minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmogda. Jumladan, qonunosti hujjatlarining davlat aksiyalari paketlari boshqaruvchilariga alohida huquqlarni beruvchi qoidalari bekor qilindi. Shu bilan birga, ijroiya organlarining aksiyadorlar oldidagi va o'z samaradorligi uchun javobgarligini oshirish chora-tadbirlari belgilanib, aksiyalari davlat paketlarini xo'jalik birlashmalarining nizom jam'armasiga ishonchli boshqarish huquqi bilan topshirishga yo'l qo'yiladigan tartib ham bekor qilindi.

Ana shu va boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlar ijrosi o'laroq, korporativ boshqaruv tizimida bir talay ijobiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Xususan, 3368 ta ochiq aksiyadorlik jamiyati (OAJ) umumiy yig'ilishida 11437 nafar Kuzatuv kengashi, 2319 ta OAJda 6305 ta nazorat-taftish komissiyasi a'zolari tashqaridan saylandi. 3845 ta OAJ ijro organlari tarkibi qayta ko'rib chiqildi va natijada 495 ta OAJ rahbarlari bilan mehnat shartnomalari bekor qilindi. Olib borilgan bu ishlarning dastlabki natijalari tanlangan yo'li to'g'ri ekanligini tasdiqlaydi. Respublikamizda qariyb 50 % korxonada moliya-xo'jalik faoliyati yaxshilandi, 113 ta korxonada muddati o'tgan kreditorlik qarzlari uzildi, 560 dan ortiq korxonada o'rta ishlovchilar soni ko'paydi. Shu bilan birga hisoblangan dividend o'sishi kuzatilmoqda.

Qayd etish kerakki, boshqaruvda yangi tizimning joriy etilishi ko'plab tarmoq korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish va sezilarli darajada daromad olishda o'z samarasini ko'rsatmoqda. Misol uchun, «O'zdonmahsulot» aksiyadorlik kompaniyasi korxonalarida 2008-yil 1-aprel holatiga ko'ra, amaldagi narx bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi 35945,3 million so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2009-yilning shu davriga kelib, bu ko'rsatkich 63539,1 million so'mga yetdi. O'sish sur'ati – 176,7 %. Mahsulot eksporti hajmi avvalgi yilda 8,2 million AQSH dollariga teng bo'lgan bo'lsa, 2005-yilning birinchi choragida 28,5 million AQSH dollarini tashkil etdi. Bularning hammasi respublikamizda izchil amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, ma'muriy va korporativ tizim vujudga kelishining natijasidir. Bu esa, o'z navbatida, xususiylashtirilayotgan korxonalarining investitsiya jozibadorligini oshirishga qaratilgan muhim qadam hisoblanadi.

### **Qisqacha xulosalar**

Eksportni rivojlantirish hamda xorijiy sarmoyalarini jalb qilish maqsadida «MAROQAND» axborot markazi dunyoning bir necha markazlari va tashkilotlari bilan hamkorlik qilmoqda. Masalan, Italiyaning tashqi savdo instituti bilan hamkorlikda O'zbekistonda bu mamlakatga eksport qilish istagini bildirgan tadbirkorlarning mahsulotlari haqidagi ma'lumotlar maxsus saytga joylashtirilib, «TSL» tashkiloti tomonidan italiyalik ishbiarmonlarga taklif qilinmoqda. Bundan tashqari, AQSHning jahondagi eng yirik «DAN & BREDSTRIT» axborot-analitik kompaniyasi xorijiy

davlatlarga o'z sarmoyalarini olib kirmoqchi bo'lgan<sup>8</sup> sarmoyadorlarni tegishli tashkilotlar haqidagi ma'lumot bilan ta'minlamoqda.

#### Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Kichik tadbirkorlikni rivojlantirish deganda nimani tushunasiz?
2. O'zbekiston Respublikasi savdo-sanoat palatasining biznesni rivojlantirishdagi o'rni qanday?
3. Kichik tadbirkorlikni rivojlantirishni moliyalashtirish jarayoni qanday kechmoqda?
4. Minitexnologiya va uskunalar olishning qanday yo'llari bor?
5. Ichki ishlab chiqaruvchilar qay tarzda qo'llab-quvvatlanmoqda?
6. O'zbekistonda kichik tadbirkorlikning rivojlanish darajasi qanday aniqlanadi?
7. Xususiy tadbirkorlarga qanday imtiyozlar yaratilgan?
8. Xorijiy kredit liniyalari qaysi xorijiy banklar orqali moliyalashtiriladi?
9. Mikroreditlarni qanday tushunasiz?
10. Uskunalar lizingga qanday olinadi?

#### Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.; O'zbekiston, 2011. - 421b.
2. Karimov I. "2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan ishohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi"//Xalq so'zi, 2014-iy 18-yanvar.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. - T.; O'zbekiston, 2009.
4. Ishmuxamedov A.E va boshqalar. Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari. O'quv qo'llanma- T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005.
5. Yo'ldoshev Z. Milliy iqtisodiyot. -T.: Mehnat, 2004,168-b.
6. Ishmuxamedov A.E. O'zbekiston milliy iqtisodiyoti. Darslik - T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. - 304 b.
7. Ishmuxamedov A.E. va boshqalar. Makroiqtisodiyot. Darslik - T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. -192 b.
8. Tuxliyev N. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. - T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. - 280 b.
9. Internet veb-saytlari.  
[www.ceep.uz](http://www.ceep.uz)  
[www.bearingpoint.uz](http://www.bearingpoint.uz)  
[www.pca.uz](http://www.pca.uz)

## **21-bob. MILLIY IQTISODIYOTNING MARKAZIY OSIYO MUSTAQIL DAVLATLARI TRANSFORMATSIYASI**

### **21.1. Hamkorlikning umumiy tavsifi**

Prezident Islom Karimov Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston davlatlari rahbarlarining Toshkent uchrashuvida Markaziy Osiyo mamlakatlari istiqbolga erishganidan keyingi birinchi o'n yillik «o'ta mas'uliyatli va ulkan tarixiy ahamiyatga ega davr» ekanligini ta'kidladi. Bu davrda mustaqil davlatchilikni barpo etish bilan birgalikda, transformatsiya (ya'ni iqtisodiy tizimlarni qayta shakllantirish asosida bir ijtimoiy tizimdan ikkinchisiga o'tish) hamda jahon xo'jaligiga integratsiya jarayonlari eng dolzarb vazifalar qatoridan joy egalladi.

Ushbu jarayonlarning dastlabki bosqichida yangi, mustaqil davlatlarning ko'pchiligida ishlab chiqarish va daromad sohalarida keskin pasayish yuz berdi. Iqtisodiyot bo'yicha 2001-yil Nobel mukofoti sovrindori J. Stiglis ana shu holatni ta'riflab, bunday deydi: «Rossiyadagi va sobiq ittifoq (SI)qa kirgan boshqa ko'pchilik mamlakatlardagi islohotlarning muvaffaqiyatsizligi faqatgina to'g'ri iqtisodiy siyosatni amalga oshira olmaslik bilan bog'liq emas. Ularning negizi chuqurroq bo'lib, bozor iqtisodiyoti asoslarini tushunib yetmaslikka, shuningdek, institutsion islohotlar asoslarini yetarlicha anglamaslikka borib taqaladi... Ushbu davlatlarning ko'pchiligi jiddiy yutuqlarga erisha olmasligi samaraliroq iqtisodiy siyosat olib borish uchun ularda imkoniyatlar borligidan ham dalolat beradi».

Sobiq ittifoq tarkibida bo'lgan, bugun mustaqil hisoblangan mamlakatlarning har birida o'tgan davr ichidagi tajribalarni o'rganish, bu borada muayyan xulosalarga kelish va bozor islohotlarini o'tkazishda samaraliroq yo'llarni tanlash zarur. Biroq ana shu muammolar atrofidagi fikr-mulohazalar hamda munozaralar asosan Markaziy va Sharqiy Yevropa (MSHE) mamlakatlarida, Rossiyada, kamroq darajada esa Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)ga a'zo boshqa davlatlarning o'tish davri jarayonini tahlil qilishdan iborat bo'lib qoldi. Markaziy Osiyodagi besh davlat bu borada eng kam e'tibor berilgan mamlakatlar jumlasidandir. Faqat keyingi paytlardagina chet ellarda bu mamlakatlar haqida ham ba'zi nashrlar paydo bo'ldi, lekin ularning tajribasini yana ham chuqurroq va har tomonlama o'rganish hamon dolzarb bo'lib turibdi.

Iqtisodiy o'sish, ayniqsa, sobiq Ittifoq respublikalari orasida O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmi 2001-yilda 1991-yil darajasidan oshib, 103 foizga ko'payishi negizidagi omillarni o'rganish – o'tish iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlar uchun nazariy va amaliy jihatdan ba'zi saboqlarni berishi mumkin. S. Fesher va R. Saxey fikrlariga ko'ra, O'zbekiston 26 sobiq sotsialistik mamlakat orasida «YAIM o'sishiga o'tish davri tamoyillarining standart tavsiyalarini to'liq qabul qilmagan holda erishgan ikki davlatning biridir». Xalqaro valyuta fondi (XVF) ekspertlari O'zbekistondagi «iqtisodiy o'sish jumbog'i» ni yechishga bir necha bor urinib ko'rishdi. Lekin bu urinishlar asosan neoklassik monetarizm g'oyalari nuqtai nazaridan olib borildi. Bu boradagi bir tomonlama cheklanganlikni bartaraf etish uchun esa ana shu jumboqqa baho berishda boshqa bir nazariy-uslubiy yondashish ham talab etiladi.

O'tish davri hamda iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida iqtisodiy rivojlanish omillari nimalardan iborat? Ayni bir xil islohotlar majmui o'tish davridagi turli



mamlakatlarda nima uchun turlicha natija bermoqda? O'zbekiston iqtisodiy modeli va tajribasi ham ichki, ham tashqi iqtisodiy siyosat borasida nima uchun «o'tish davri jumbog'» darajasida o'rganilmoqda?

Bu savollarga javob berishdan oldin har bir mamlakatda tizimlar transformatsiyasi va dastlabki shart-sharoitlar bilan bog'liq bo'lgan muammolarning tadrijiy saboqlarini har tomonlama va chuqurroq o'rganish talab etiladi. Shundagina amalga oshiriladigan siyosat boshqa bir vaziyatda boshqacha natijalarga olib kelishi mumkin bo'larmidi, degan savolga javob berish imkoni bo'ladi. YAIM o'sishiga katta ta'sir qilgan erkinlashtirish va makroiqtisodiy barqarorlik jarayonlari bilan birga dastlabki shart-sharoitlarni ham hisobga olish o'tish davri mamlakatlariga nisbatan o'tgan asrning 90-yillari ikkinchi yarmida qo'llanila boshlandi. Faqat yaqindagina XVF va Jahon banki hisobotlarida va nashrlarida [de Melo, Dengzer, Geld va Tenev (1997-y.); Wolf (1997-y.); Havrgllgshgn, Gzvorskq va van Ruden (1998-y.); Oeck va Kostgal (1998-y.); Zetelmeyer (1998-y.); Taube va Zetelmeyer (1998-y.)] amalga oshirilayotgan islohotlarda dastlabki shart-sharoitlarning iqtisodiyot yuksalishiga ta'siri birmuncha tahlil qilina boshlandi. Lekin shunga qaramay, tizimlar transformatsiyasi jarayonida mahsulot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini belgilovchi omil sifatida dastlabki shart-sharoitning mutlaq va nisbiy ahamiyatiga oid masala xususida bahs-munozaralar davom etmoqda va bu masalani yanada chuqurroq o'rganishga ehtiyoj sezilmoqda. Bu borada faqat raqamlar bilan kifoyalanish yetarli emas. Zero, birgina miqdoriy ko'rsatkichlar orqali munozarani hal etib bo'lmaydi.

Biroq ta'kidlab o'tish joizki, Markaziy Osiyo mamlakatlarida iqtisodiy tizimlarni qayta shakllantirish hamda bu mamlakatlarning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv jarayonlarini qiyosiy tadqiq va tahlil qilishda mintaqaning o'zida va undan tashqarida to'plangan tajriba yetarlicha o'rganilmagan.

Markaziy Osiyo davlatlari milliy bozorlarining institutsional va tarkibiy tayyorligi, shuningdek, bank-moliya tizimining rivoj topgan institutlari yetarli emasligi; eksportga yo'naltirilgan raqobatbardosh qayta ishlash sanoatining mahsuloti kamligi; ushbu mamlakatlarning oldingi tizimdan meros qolgan va ishlab chiqarish kuchlari texnologik jihatdan jahon andozalaridan orqada qolgan iqtisodining tarkibi; tashqi savdo, valyuta siyosati va tashqi qarz muammolari etarli darajada e'tiborga olinmagan.

O'rta Osiyo mamlakatlarida transformatsiya jarayonining nazariy va uslubiy negizlari tahliliga yetarli institutsional evolyutsion nuqtai nazardan yondashilmagan. O'tish davri iqtisodiyotini boshdan kechirayotgan mamlakatlardagi iqtisodiy siyosatni, ko'pchilik chet ellik mualliflarning ham nazariy, ham amaliy tadqiqotlarida kuzatish mumkin. Jarayonlarda makroiqtisodiy erkinlashtirish va barqarorlashtirishning tayyor qoliplariga ortiqcha urg'u berilishi, shuningdek, iqtisodiyotda o'tish davrini boshidan kechirayotgan, alohida olingan har bir mamlakatda mavjud bo'lgan o'ziga xos sharoitlarni atroflicha hisobga olmaslikni kuzatish mumkin. Bundan tashqari, bu jarayonda iqtisodiy rivojlanishning uzoq muddatli strategik va istiqbolli vazifalarini yetarlicha baholay olmaslik va ustuvorlik qisqa muddatli vazifalarga berilganligi seziladi.

O'tish davrining dastlabki o'n yilligi tizimlarni qayta tashkil etish, ya'ni markazlashtirilgan tarzda rejalashtirishga asoslangan ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tishga qaratilgan islohotlar amalda ancha murakkab hamda

tasavvurimizdagiga nisbatan uzoqroq davom etadigan jarayon ekanligini ko'rsatdi. Iqtisodiy siyosat borasidagi yetakchi xorijiy tadqiqotchilarning o'tish davriga oid turli muammolarga bag'ishlangan tadqiqotlarida hamon bir qator masalalar o'z yechimin topganicha yo'q. Fikr-mulohazalar turlicha bo'lishi va siyosiy iqtisodga yok ekonometrik tahlillarga asoslanganlikdan qat'i nazar, ular bu mamlakatlar tavsiya qilgan iqtisodiy siyosatni yetarli darajada amalga oshirmaganlari uchun tizimlardagi o'zgarishlar jarayonida jiddiyroq to'xislarga duch kelganliklarini ko'rsatishga mo'ljallangan.

Uslubiy nuqtai nazardan «institutсион qopqonlar» iborasi kiritilgan. Bu ibora o'tish davrida evolyutsion taraqqiyot qonunlarini yetarli e'tiborga olmaslik natijasida iqtisodiy siyosat bilan mavjud iqtisodiyot o'rtasida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklar oqibatlarini izohlash uchun qo'llaniladi. «Institutсион qopqonlar»ning judayam qaltis shakllari shu hollarda namoyon bo'ladi, unda siyosiy o'zgarishlar ijtimoiy va iqtisodiy institutlarning darajasi va tabiatiga mos kelmaydi, davlat va xalq yangi imkoniyatlardan kerakli darajada foydalanishga tayyor bo'lmaydi. Ana shunday holatda kutilgan natijalar bilan voqelik o'rtasida, xarajatlar bilan daromadlar imkoniyatlar bilan maqsadlar o'rtasida katta tafovutlar yuzaga keladi.

O'tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlarda amal qilingan strategiya va siyosat, tizimlardagi o'zgarishlar oqibatida mutlaqo turlicha, ba'zi hollarda esa teskar natijalarga olib kelishi mumkin bo'ldi. Shu ma'noda barcha mamlakatlar o'tish davrining ilk bosqichida, garchi, turli darajada va ko'rinishlarda bo'lsa ham «qopqonlar»ga ilindi (yuqori yoki giperinflyatsiya, davlat budjetidagi yuqori defitsit, ishlab chiqarishning keskin pasayishi va sanoatning inqirozi; kambag'allashuvning jadallashishi va daromaddagi tengsizlik). Bularning ko'plariga tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish intizomi barbod bo'lganligi, shuningdek, globallashuvga xos bo'lgan «qopqonlar» (tashqi savdoda hamda moliyaviy tangliklar, joriy operatsiyalar hisobidagi uzluksiz defitsit, kapitalning chetga chiqib ketishi va tashqi qarz tobora ko'payishi oldida ojizlik) sabab bo'ldi. O'tish davri hamda globallashuv «qopqonlar», ya'ni tizimlarni qayta shakllantirishdagi «qopqonlar» dastlabki shart-sharoit bilan amalga oshirilayotgan siyosat o'rtasida nomuvofiqlik ko'proq sodir bo'lgan davlatlarda xatarliroq ekanligi chuqur ochib beriladi.

Mahsulot ishlab chiqarish ko'lamlari va uning yalpi pasayishi sabablari o'tish davrining ilk bosqichlaridayoq namoyon bo'ladi. Bular turli usullar, shu jumladan, statistikadagi va uslubiyotdagi mavjud xatolar bilan ham izohlanadi. Biroq YAIM miqdorini o'lchashda qo'shimcha tarzda yana uch guruh omillarni e'tiborga olish kerak. Bular quyidagilardir:

- 1) boshlang'ich institutsional, iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlar;
- 2) o'zaro iqtisodiy yordam kengashi (sobiq SEV)ning parchalanishi;

3) davlat nazoratining bekor qilinishi natijasida yuzaga kelgan sarosimalik va tizim parchalanishidagi «qopqonlar» bilan bog'liq boshqa holatlar.

Mahsulot ishlab chiqarishning pasayishi sabablarini aniqlash va tizimli o'zgarish bilan bog'liq boshqa «qopqonlar»ni uyg'unlashtirish uchun tanlangan va olib borilgan siyosatni uning mavjud institutsional va boshqa omillar bilan muvofiqligi nuqtai nazaridan ko'rib chiqish muhim va zarurdir.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyoti o'tish davrida bo'lgan mamlakatlardagi o'ta qattiq makroiqtisodiy barqarorlashuv ham real YAIM hajmiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Shuni ta'kidlash kerakki, tubdan erkinlashtirish siyosati iqtisodiyoti o'tish davrida bo'lgan mamlakatlarda ishlab chiqarish va to'lov balansiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Tizim o'zgarishlari jarayonida, «ochiq eshiklar» iqtisodiga ancha ehtiyotkorlik bilan yondashgan, tashqi va o'z ichki bozorlarida yuz berayotgan o'zgarishlarga pragmatik tarzda munosabatda bo'lgan mamlakatlar iqtisodiy o'sish nuqtai nazaridan qaralganda kamroq shikastlandilar. Shu bilan bir vaqtda amalda tub islohotlar o'rin olgan ichki va tashqi siyosat faoliyatini yalpi erkinlashtirgan davlatlar ko'proq darajada zarar ko'rdi.

**Tub islohotlar va investitsiyalarning kamayishi.** Kapitalning chetga chiqib ketishi ancha sezilarli bo'ldi va ba'zi holatlarda tashqi moliyalashtirishning umumiy hajmidan ham oshib ketdi. Ichki va tashqi xususiy investitsiyalar bir me'yorda ko'payishini ta'minlay olmagan mamlakatlarda investitsiyalarning kamayishi ayniqsa, ko'proq salbiy natijalarga olib keldi.

**Xususiylashtirish va kapitalning chetga chiqib ketishi.** "Falaj qilib davolash" tarafdorlari ilgari surgan uchta asosiy unurning biri erkinlashtirish va makroiqtisodiy barqarorlik singari jadal xususiylashtirishdan iborat edi. Bu, o'z navbatida, tizimlarni qayta shakllantirishda jiddiy siljishlarga olib keldi. Xitoy va Vetnam tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'tish davrining boshlarida yirik miqyosda xususiylashtirmasdan turib ham bozor islohotlari sohasida jiddiy yutuqlarga erishish mumkin ekan. Tub islohotlar yo'lidan borgan mamlakatlarda o'tish davrining dastlabki bosqichida moliyaviy institutlarning etishmasligi, xususiylashtirishdagi «vaucher» shakllar, jamiyat boyliliklarini yashirish va oshkor tarzda egallab olish hamda katta miqdordagi kapitalning chetga chiqib ketishi mahsulot ishlab chiqarish kamayishida muhim sabablardan biri bo'ldi.

#### **O'tish davrining dastlabki bosqichida budget siyosatining ahamiyati.**

Ba'zi tadqiqotlarda (V.G. Schwartz (1994-y.)) iqtisodiyoti o'tish davrida bo'lgan mamlakatlarda budgetning qisqarishi bilan mahsulot ishlab chiqarish o'rtasida o'zaro yaqin aloqadorlik borligi qayd etilmaydi. Vaholanki, MSHE va MDH mamlakatlari, xususan, Markaziy Osiyo davlatlari ma'lumotlari tahlili natijasida ma'lum bo'ldiki, ana shu ikki holat bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Shuningdek, o'tish davrining dastlabki bosqichida budget omillaridan foydalanib, mahsulot ishlab chiqarish keskin kamayishiga yo'l qo'yilmagan (masalan, Polsha va O'zbekistonda).

**Moliyaviy vositachilik va iqtisodiy o'sish.** Schumpeterning (1912-y.) ta'kidlanishicha, iqtisodiyotni rivojlantirishda banklar g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi, zero, ular pul omonatlaridan foydalanuvchi kompaniyalarni yaxshi tanlay oladi. Ushbu fikrga ko'ra, bank sektori omonotlarning taqsimlanishiga ta'sir ko'rsatgan holda foizlar o'zgarishi orqaligina emas, balki boshqa yo'llar bilan ham iqtisodiyotni rivojlantirish sur'atlariga samarali turki berishi mumkin. Shunday qilib, Shumpeterning moliya va taraqqiyot bo'yicha mulohazalari unumdorlikning o'sishi va texnologiyaning o'zgarishiga bank faoliyati birinchi navbatda ta'sir etadi, degan fikrni keltirib chiqaradi. Keyinchalik ma'lum qilingan nazariy modellarda ham Dgarnond (1984-y.), Boyd va Prescott (1986-y.), King va Levigne (1993-y.), Levine (1997-y.) banklar va iqtisodiy faollik o'rtasidagi bog'liqlik ta'kidlab o'tilgan.

Ushbu nazariya amaliyotdagi dalillar bilan ham tasdiqlanadi: o'tish davri iqtisodiyotidagi barcha mamlakatlarda YAIM ning pasayish jarayoni moliya sektori qisqarishi bilan birga sodir bo'ldi. Natijada shu narsa ayon bo'ldiki, mahsulot ishlab chiqarishning pasayishi qanchalik jadal bo'lsa, moliyaviy vositachilikning qisqarish darajasi shunchalik yuqori bo'ldi. O'tish davri jarayonida moliyaviy vositachilikning pasayib ketishi mahsulot ishlab chiqarishga bir qancha yo'llar orqali ta'sir qilishi mumkin. Moliyaviy vositachilikning bo'shshib ketishi mahsulot ishlab chiqarishda katta talofatlarga sabab bo'lgan uchta asosiy ko'rinishda sodir bo'ladi. Bular to'lov tizimidagi uzilish, real sektordagi jamg'arma va amalda investitsiya sifatida ishlatilgan mablag'lar o'rtasidagi farq hamda bank-kredit sektorining inqirozi.

O'tish davrining dastlabki bosqichida Markaziy Osiyo davlatlari transformatsiya va globalashuv muammolari bilan to'qnashdi. Chunki Markaziy Osiyo respublikalaridagi sobiq ittifoq parchalanib ketishidan oldin mavjud bo'lgan dastlabki shart-sharoitni, shuningdek, ishlab chiqarish omillari bilan birga nisbiy iqtisodiy afzalliklarni hamda mavjud bo'lgan taraqqiyot muammolarini o'rganish shundan dalolat beradiki, bu hududda ahvol turlicha bo'lgan. Bir tomondan, investitsiyalarning kamligi hamda tugal ijtimoiy mahsulotni taqsimlash va qayta taqsimlash tizimi buzilganligi, buning oqibatida esa ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga muayyan darajada putur yetganligi ko'zga tashlanadi. Ikkinchi tomondan esa, xususiy tadbirkorlikka yuqori darajada moyilligi bo'lgan malakali aholining mavjudligi, tabiiy boyliklar, ko'p mehnat talab qilinadigan ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi aholisining nisbatan katta ulushi, shuningdek, jahon bozoriga chiqishi mumkin bo'lgan tovarlari borligidir. Biroq sinchiklab o'rganish natijasida shu narsa aniqlandiki, Markaziy Osiyo davlatlarining har biri uchun bu holat turlicha ahamiyat kasb etadi.

**Aholi va mehnat.** Mintaqa yuqori malakali va madaniyatga boy bo'lgan ko'p millatli aholiga ega. Lekin shu bilan birga, aholining tez o'sishi (asosan balog'atga yetmagan bolalar sonining o'sishi) boshqa joylarga ko'chib ketish hisobiga sanoatda, ayniqsa, uning yuksak texnologik tarmoqlarida ishchi kuchining kamayib ketishini to'la qoplay olmay qoldi. Oqibatda noxush vaziyat ro'y berdi: mehnatga layoqatli aholi to'lib-toshgan hamda qishloq joylarida va kichik shaharchalarda yangi ish o'rinlariga talab katta bo'lgan bir paytda zamonaviy sanoat tarmoqlarida ishchi kuchi yetishmay qoldi.

**Tabiiy boyliklar va atrof-muhit.** Markaziy Osiyo o'zining tabiiy boyliklari, ayniqsa, neft, gaz, rangli va qimmatbaho ma'danlari, xususan, oltini bilan ajralib turadi. Biroq ishlab chiqarilgan mahsulotning aksariyat qismi mintaqadan jahon bozoridagi narxlardan ancha past darajada olib chiqib ketilgan. O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston va Janubiy Qozog'iston kolxoz va sovxozlari, asosan paxtachilik bilan shug'ullangan. Suv resurslarining haddan tashqari katta qismi paxtachilikka ishlatilgan. Natijada Orol dengizi fojiasiga – XX asming eng katta ekologik inqirozlaridan biriga yo'l qo'yilgan.

**Investitsiyalar, ishlab chiqarish va iste'mol.** Sobiq Ittifoq hukmronlik qilgan davr mobaynida Markaziy Osiyoning barcha respublikalarida amaldagi investitsiyalar hissasi mamlakat bo'yicha hisoblanganda ancha yuqori bo'lgan (Qozog'iston bundan mustasno). Binobarin, bu respublikalarning o'sha davrdagi qoloqligiga asosiy sabablardan biri ham shu edi. Bunga, albatta, Markaziy Osiyoning tabiiy boyliklar va

qishloq xo'jalik xomashyolari bazasiga aylantirish strategiyasi ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Savdo-sotiq va maishiy xizmatni qo'shib hisoblaganda uchinchi sektor – xizmat ko'rsatish sohasi g'oyat mujmal tarzda tashkil etilganligi yashirin iqtisodiyotning paydo bo'lishiga olib keldi. Biroq tadbirkorlik sohasidagi faoliyat ishlab chiqarishda, ishchi o'rinlari va daromadga mavjud bo'lgan katta tafovutlarni yo'qqa chiqara olmadi. Buning oqibatida ijtimoiy-iqtisodiy qoloqlik yuzaga keldi, aholi jon boshiga hisoblanganda mahsulot ishlab chiqarish, daromadlarni taqsimlash, turmush darajasi va sifati jihatidan ular sobiq ittifoqdagi barcha respublikalar orasida eng past o'ringa tushib qoldi.

Sobiq ittifoqda milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash tizimi, xomashyo narxlarini bilan tayyor tovarlar narxi o'rtasidagi nomutanosiblik, tovar aylanmasi bilan subsidiyalar, soliqlarning turli-tumanligi, shuningdek, olingan foydani noto'g'ri taqsimlanishi ko'p jihatdan vaziyatning yomonlashuviga sabab bo'ldi. Ayni bir paytda ma'muriy-buyruqbozlik tizimi tufayli ittifoqdosh respublikalar tashqi dunyo bilan aloqalari cheklanganligi sababli bir-biriga qattiq bog'lanib qoldi. Ularning hajmi va resurslar bilan ta'minlanganligidan qat'i nazar, MDHdagi barcha davlatlar, shu jumladan, Rossiya ham katta yo'qotishlarga uchradi. Ular ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan mutlaqo boshqacha munosabatlari yangi jamiyatga asta-sekinlik bilan o'tishga noqobil edilar.

Sobiq ittifoq davridagi Markaziy Osiyo respublikalari rivojlanishda erishgan muvaffaqiyatlarni inkor etgan holda, bu bobdagi tahlil boshlang'ich sharoitlarni, ularning qiyosiy afzalliklari nuqtai nazaridan mustaqil rivojlanishlari va to'planib qolgan muammolarni yangidan baholashga urinishdan iborat.

Sobiq ittifoq tanazzuli 15 respublikaning barchasida ishlab chiqarish va iste'molning, katta tushkunlik va chuqur iqtisodiy tanglikning asosiy sabablaridan biri bo'lishi shubhasiz edi. Sobiq Ittifoq yemirilishining Markaziy Osiyo respublikalariga zarbasi ular «subsidiyalanuvchi» bo'lganliklari uchunгина emas, asosan iqtisodiy jihatdan: bir-birlariga haddan ziyod muteliklari tufayli juda sezilarli bo'ldi. Chunki taqsimlash va qayta taqsimlash tartibi 1970-yillardan boshlab Turkmaniston, O'zbekiston yoki Qozog'istonning foydasiga emasdi. Biroq shakllangan aloqalarning uzilishi mazkur mamlakatlarda ham og'ir oqibatlar keltirib chiqardi. Masalan, sobiq ittifoqning parchalanishi tufayli savdo ayirboshlashning keskin buzilishi va moliyaviy operatsiyalarning izdan chiqishi respublikalar siyosiy mustaqillikka erishgandan so'ng iqtisodiy vaziyatni sezilarli darajada yomonlashtirdi.

O'tkazilgan tadqiqotlar davlatlar o'z mustaqilliklariga erishganlaridan so'ng yuz bergan iqtisodiy jarayonlarni, shu jumladan, inqiroz va uning vaqti, chuqurligini yaxshiroq tushunishga va bu inqirozdan qanday chiqish yo'llarini belgilashga yordam beradi. Shuni ham eslatib o'tish kerakki, islohot strategiyasi bozor islohotlarining va global iqtisodiyot uyg'unlashuvining bosqichma-bosqichligi asosida nisbiy mavjud imtiyozlardan yuqori darajada foydalanish uchun har bir muayyan mamlakatning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda qabul qilinishi zarur edi.

Umumiy vaziyatlarga qaramay, Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari hamda sobiq ittifoq tarkibida bo'lgan davlatlar turlicha imkoniyatga ega edi. Bu o'tish davri muammolarini hal etishni va yagona jahon iqtisodiyotiga uyg'unlashishni qiyinlashtirdi. Biroq ularning barchasiga yangi muammolarni, radikal o'zgarishlarni

asosan monitar usullar yordamida hal etish tavsiya etilgan edi. Bu yo'l neoliberal nazariyaga asoslangan. Bunday yondashishning mohiyatini qisqacha tarzda A. Shlyayfer (AQSH) quyidagicha ifodalagandi: «Erkinlashtirish hukumatning narx-navo ustidan nazoratini bartaraf etadi, barqarorlashtirish hukumatga ancha keskin budjet cheklovlarini yuklaydi, xususiylashtirish esa hukumatni to'g'ridan-to'g'ri nazoratdan mahrum etadi».

Tizimlarni qayta shakllantirishning dastlabki o'n yillik tajribasi, ayniqsa, MDH dagi ko'pchilik mamlakatlar tajribasi ham o'ta liberal «larsser-farre» tamoyiliga asoslangan siyosiy o'tish davrida ular uchun eng maqbul yo'l bo'lganligidan dalolat beradi. Uzoq muddatli rivojlanish maqsadlariga zarar yetkazmagan holda o'tish davri chiqimlarini minimallashtirish uchun qanday strategiya zarur? Asosiy vazifalardan biri – tizim o'zgarishlarining eng maqbul strategiyasini tanlash va amalga oshira oladigan davlat barpo etilishi lozimligi ko'rsatiladi. Kuchli va samarali sanoatlashtirish siyosati bozor iqtisodiyotining zaruriy komponentlaridan biri bo'lishi zarur. Bosqichma-bosqich o'tish strategiyasini amalga oshirishga qodir bo'lgan davlatning tutgan o'rmini aniqlash yo'li bilan institutsional evolyutsion iqtisodiyot nazariyasiga tegishli hissa qo'shishga harakat qilindi.

**«Tartibga solishga barham berish» («de-regulation») ga qarama-qarshi davlat yordamida institutlashtirish siyosati.** MDH mamlakatlarida amalga oshirilgan tizimlarni qayta shakllantirish jarayoni bir paytlari bir butun bo'lgan davlatda muvofiqlashtirish bilan shug'ullanuvchi mavjud institutlarga tezda barham berish oqibatida yuzaga kelgan qiyinchiliklar bilan bevosita bog'liq. Chunki qisqa vaqt ichida faqat monitaristik usullarga tayangan holda muvofiqlashtiruvning yangi, bozor sharoitiga moslangan shakl-tamoyillarini ishlab chiqishning iloji yo'q edi. Jamiyatning yaratuvchilik kuch-qudrati, birinchidan, boshqaruv sifatiga, ya'ni hukumat amalga oshirilayotgan islohotlar borasida aniq vazifalarni qanchalik oqilona qo'ya bilishi va bularni qanchalik samarali bajara olishiga bog'liq. Ikkinchidan, jamiyat a'zolari ijtimoiy o'zgarishlarga qanchalik tayyor ekanligi, shuningdek, islohotlarni xalq qanchalik qizg'in qo'llab-quvvatlashi muhim ahamiyatga ega. Islohotlar strategiyasi umumiy siyosiy, iqtisodiy va institutsional hozirliklarga (shu jumladan, ijtimoiy kapitalga) qay darajada mos tushishi bu islohotlarni amalga oshirishda muvaffaqiyat garovidir.

**Davlat va industrial siyosat** tartibga solishdan batamom va yalpi voz kechishning muqobil jamoat mulkchiligiga asoslangan va haddan tashqari markazlashgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tish borasida o'zgarishlarni izchil ravishda, sekin-asta amalga oshirishdan iborat. Bir tizimdan ikkinchi tizimga o'tish boshqa iqtisodiy institutlarni yuzaga keltirish hamda o'tish davrida izchil va bosqichli strategiyani to'la amalga oshirishni taqozo etadi.

O'tish davrida islohotlarning, sanoat sohasidagi siyosatning xalqaro ko'lamda sinalgan tajribasini qo'llash taqozo etiladi. Ma'lumki, ikkinchi jahon urushidan so'ng sanoat sohasidagi siyosat Yaponiyada, keyinchalik esa Sharqiy Osiyo mamlakatlarining ko'pchiligida yangi samaralar berdi. Bir necha o'n yilliklar davomida iqtisodiy yuksalishdagi yuqori sur'atlar va barqarorlik borasida erishilgan natijalar kutilmagan darajada ijobiy bo'ldiki, natijada 1990-yillarning boshlarida bu holatni «Sharqiy Osiyo mo'jizasi» deb baholashdi. 1960-1985-yillar orasida aholi jon boshiga hisoblangan daromad Yaponiya va «to'rt yo'lbars» mamlakatlarida to'rt karra, Janubiy - Sharqiy

Osiyodagi yangi industrial davlatlarida esa ikki hissadan ziyodga ko'paydi. Ayni bir paytda ijtimoiy omonatlar sanoatda ham, qishloq xo'jaligida ham iqtisodiyotning ustuvor sektorlariga investitsiyalash uchun ishlatildi, homiylik esa bu tarmoqlarni qayta tiklash, ularning faoliyatini eksportga qaratib, xalqaro maydonda raqobatbardoshligini oshirish imkonini berdi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari ham o'tish davrining boshlaridayoq sanoat sohasidagi siyosatning ba'zi unsurlaridan foydalanishi mumkin edi. Masalan, taklifning kamayib ketishiga, kuchayib borgan kredit yetishmasligiga va importni erkinlashtirishga qarshi «zarur» chora-tadbirlar ko'rish lozim edi. Chunki bular oqibatda taklif tomonida «falaj holatlar ro'y berishiga», korxonalarining yopilishi, ishlab chiqarish quvvatlaridan yetarli foydalanmaslik, inson kapitalining malaka yo'qotishiga olib keldi. Natijada bunday salbiy oqibatlarni makroiqtisodiy barqarorlik siyosati doirasida faqat bozor rag'batlari yo'li bilan tugatish imkonini bo'lmadi.

Ma'lum bir paytda bunday siyosat budjetdan katta sarf-xarajatlar qilishni hamda defitsitli moliyalashtirishni talab etar edi. Umumiy investitsiyalarning ko'payishi esa, ma'lum miqdorda pul-kreditning kirib kelishiga sabab bo'ldi.

Iqtisodiyotdagi «mo'jiza»ning asosiy sabog'i shundan iboratki, qattiqqo'llik bilan amalga oshiriladigan fiskal va monetar siyosat oqilona bo'lishi lozim, aks holda mavjud iqtisodiyot izdan chiqishi va iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlariga putur yetishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, bu siyosat sun'iy «qopqon»larga hamda mahsulot ishlab chiqarishning betartib kamayishiga sababchi bo'lmasligi kerak. Shunga ko'ra, hatto, e'tirof etilgan barqarorlashtirish dasturlari ham kutilayotgan inflyatsiya darajasi va budjetdagi defitsit masalasida ehtiyot bo'lishi, mamlakatning muayyan ehtiyojlarini hisobga olishi lozim.

Postsotsialistik davlatning muhim xususiyati shundan iboratki, bu davlat jamiyat va iqtisodiyotdagi to'la hukmronligidan voz kechib, o'z vazifalarini davlat va bozor o'rtasida adolatli tarzda, demokratik yo'l bilan qayta taqsimlashga o'tganini ifoda qiladi. Buning uchun esa, bozor munosabatlarini joriy qilish hamda iqtisodiyotga davlat aralashuvini cheklash; davlat siyosatidagi muvaffaqiyatsizliklarni bozor sharoitidagi yangi usullar hisobiga tugatish; bir tomondan esa, o'tish davri jarayonida yuzaga keladigan bozor taqchilliklari va inqirozlarining ko'payishini davlat orqali jilovlab turish talab etiladi. Sobiq Ittifoq hududida bunday davlatni barpo etish hazilakam ish emas edi, chunki hammasini boshdan boshlash talab etilardi.

Yangi mustaqil davlatlarda hamda Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida amalga oshirilgan islohotlar yutug'ini: xususiy sektorning rivojlanishi (katta va kichik korxonalarni xususiyashtirish, korxonalaridagi tarkibiy o'zgarishlar); bozorlar va savdo (narxlarini erkinlashtirish, savdo va valyuta tizimlari, raqobatchilik siyosati); moliya muassasalari (bank sohasida islohot va foiz stavkasini erkinlashtirish, qimmatli qog'ozlar bozorlari va banklarga qaramaydigan moliyaviy institutlar) bergan natijalar orqali kiyoslab ko'rish mumkin. Bu taqqoslar, albatta, muhim va zarur, lekin yetarli emas. Bu borada yana bir o'lchov – tegishli institutlarga ega bo'lgan davlatni qanday barpo etish o'lchovi ham talab qilinadi.

Bozor institutlarining ahamiyati oshib borgan bir holda davlat tomonidan tartibga solishning joriy etilishi hamda yangi industrial mamlakatlar darajasiga yetib olish kelajakda yanada etuk va erkin bozor iqtisodiyotiga o'tishda muhim omil bo'lishi lozim.

Biroq Markaziy Osiyo mamlakatlarida ana shu darajaga yetishish hamda o'tish davri muammolarini hal etish, shuningdek, rivojlanishga erishish uchun, eng avvalo, davlat va uning iqtisodiy vositalari kuchaytirilishi, qayta qurilishi lozim. Eng asosiy vazifa davlatning iqtisodiyotni tartibga solish vositalariga putur yetkazmasdan, uni ma'muriy-buyruqbozlik, markazdan rejalashtirish siyosatidan voz kechib, bozor sharoitiga moslashib, iqtisodiyotni kerakli darajada boshqara oladigan tuzilmaga aylantirishdan iborat. Davlatning faol aralashish siyosati real sektorlarni himoya qilish nuqtai nazaridan ham, iqtisodiy o'sishga ko'maklashish nuqtai nazaridan ham ancha to'g'ri bo'lib chiqdi.

**Industriallashtirishga qarshi siyosat («de-industrialisation») o'rniga faol industrial siyosat.** «De - industriallashtirish» g'oyasi o'tish davrida sanoati rivojlangan mamlakatlarda markazdan rejalashtirishga asoslangan iqtisodiyotdagi nomutanosiblikka barham beradigan mantiqiy va obyektiv jarayon sifatida «falaj qilib davolash» tarafdorlari tomonidan ilgari surildi. Biroq Markaziy Osiyo mamlakatlarining aksariyatida sanoat yetarli darajada rivojlanmagan, qishloq xo'jaligi ancha ustuvor bo'lganligi uchun sanoatsizlashtirishga unchalik hojat yo'q edi. Markaziy Osiyo mamlakatlarida kun tartibidagi asosiy masala sanoatning yangi tarmoqlarini barpo etish va mavjudlarini zamonaviylashtirish asosida sanoatni tezkor sur'atlar bilan rivojlantirishdan iborat edi. Shunga qaramay, O'zbekistondan tashqari Markaziy Osiyodagi hamma davlatlarda «de-industriallashtirish» siyosati faol amalga oshirildi. O'zbekistonda mavjud bo'lgan sanoat tarmoqlarining kerakli miqdorda saqlanib qolishi va yangilari barpo etilishi asosida iqtisodiyotni yanada sanoatlashtirishga o'tish strategiyasi juda ham muhim natijalarga olib keldi. O'zbekiston hukumati mustaqillikning birinchi yilidanoq iqtisodiyotda mavjud sektorlarni rivojlantirishga urg'u berdi.

**O'tish davri strategiyasi va industrial siyosat.** 15 ta yangi, mustaqil davlat orasida O'zbekistonda mahsulot ishlab chiqarishdagi kamayish uzoq davom etmaganligi va darajasi unchalik yuqori bo'lmaganligi hamda o'tish davridagi 26 davlat, ayniqsa, MDH mamlakatlari orasida YAIM rivojida yuqori sur'atli tiklanishi bilan ajralib turadi. Ushbu ijobiy ko'rsatkichlar ko'p jihatdan davlatning amalga oshirilayotgan strategiyasi va iqtisodiyotdagi faol siyosati natijasidir. Davlat tomonidan to'g'ri tanlangan siyosat dastlabki shart-sharoit va iqtisod tarkibidagi birmuncha afzalliklardan foydalanish uchun yangi omillar bo'ldi.

Bu o'tish davrining boshlanishidayoq ba'zi katta korxonalarining, ayniqsa, yirik sanoat korxonalarining barcha cheklanishlarini shoshma-shosharlilik bilan va birdaniga olib tashlamay, kredit va subsidiyalar bilan ma'lum darajada qo'llab-quvvatlashni taqozo etdi.

«O'zbekiston avval boshdanoq yanada keskin ravishda tarkibiy o'zgarishlarni qayd etganda to'g'ri ish qilgan bo'lar edi», degan fikrga qo'shilish qiyin. Tuzilmalarni shoshilinch isloh qilish yaxshi iqtisodiy o'sish bilan tugaganini ko'rsatuvchi dalillar sobiq ittifoq hududida ham, Markaziy - Sharqiy Yevropa mamlakatlarida ham yo'q. Sharqiy Osiyo mamlakatlarining tajribasi islohotchi davlatning mavjudligi ikkinchi jahon urushidan keyingi tanazzulni yengishda ham, butun iqtisodiy «yuksalish» davrida ham (kamida 30-40 yil mobaynida) zaruriy omil ekanligini isbotladi.



Bu tajribadan chiqariladigan asosiy saboq quyidagi tadbirlar amalga oshirilishini taqozo etadi: import o'rnini qoplashning yetarli darajasini saqlagan holda sanoat ishlab chiqarishining eksportga yo'nalishini kuchaytirish; o'z daromadlari, jumladan, erkin almashtiriladigan valyuta daromadlari hisobidan sanoat sektorida investitsiya ehtiyojiga qaratilgan siyosatni o'tkazish; sanoatning asosiy tarmoqlarini, qayta va qo'shma loyihalar hamda korxonalar asosida yangi quvvatlarni va infratuzilmalarni barpo etish maqsadida bevosita xorijiy investitsiyalar uchun ochiq tadbirkorlik muhitini yaratish; ko'p mablag'lar talab qiladigan loyihalarni rag'batlantirish o'rniga ko'p mehnat talab qiladigan kichik va o'rta korxonalarni rivojlantirish maqsadida milliy investorlar uchun nisbatan ko'proq imkoniyatlar yaratish.

Bu o'zgarishlarni amalga oshirish uchun xususiy sektorni rivojlantirish sari yangi qadamlar qo'ilishi lozim. Qudratli xususiy sektor bo'lmasa, turli tadbirkorlik harakatlari qo'llab-quvvatlanmasha, davlat o'tkazadigan o'zgarishlar va samarali sanoat siyosati ham, barqaror iqtisodiy rivojlanish ham bo'lmaydi, xalq turmush darajasi ham yaxshilanmaydi.

## **21.2. Markaziy Osiyo davlatlarining global iqtisodiyotga qo'shilish siyosati**

Sobiq ittifoq tarqalgach, Markaziy Osiyodagi besh davlat – Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalar uchun mintaq va jahon miqyosidagi integratsiyaga ochiq bo'lishga intildi.

1991-2010-yillar MDH mamlakatlari va jahonning boshqa mamlakatlari bilan olib borilgan savdo-sotiq haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin. Bunda mustaqil taraqqiyot yo'llari va tizimni qayta ko'rish mobaynida savdo faolligi darajasining susayish sabablarini o'rganish joiz.

Ittifoq davrida ham, u tarqalgandan keyin ham tashqi savdo Markaziy Osiyo mamlakatlarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ularda eksport va import yalpi milliy mahsulotga nisbati MDHdagi o'rtacha ko'rsatkichdan ancha yuqoriroq edi.

Tashqi savdo aylanmasi nuqtai nazardan mustaqil davlatlarda uchta bosqichni ajratib ko'rsatish mumkin.

birinchi bosqich (1991-yildan 1994-yilgacha) sobiq ittifoqning parchalanish hamda o'zaro savdo hajmi va ulushining keskin kamayishi bartaraf etilishi bilan bog'liq;

ikkinchi bosqich (1995-yildan 1998-yil 18-avgustgacha), an'anaviy savdo sheriklari bilan munosabatni oqilona saqlab turish va dunyoning qolgan qismi bilan aloqalarni kuchaytirishni davom ettirish yo'lidagi turli urinishlardan iborat;

uchinchi bosqich (1998-yil 18-avgustdan 2001-yilgacha) jahon iqtisodiyoti va Sharqiy Osiyo moliyaviy inqirozlarining salbiy ta'siri bilan bog'liq. Ularning ta'siri Rossiya pul birligining devalvatsiya qilinishi tufayli ancha kuchaydi va an'anaviy bozorlarda Markaziy Osiyoda ishlab chiqarilgan tovarlarning raqobatbardoshlik darajasiga ham ta'sir etdi.

Uch davrda ham Markaziy Osiyo davlatlari o'z tashqi savdolarining geografiyasi va tovar tarkibiga oid qiyinchiliklarga duch keldi, bu esa, umumiy tashqi savdoga salbiy ta'sir qildi.

Jahondagi va mintaqaviy doiradagi so'nggi inqirozlar Markaziy Osiyodagi barcha davlatlarning importiga ham salbiy ta'sir ko'rsatib, tashqi savdoning umumiy hajmin 1998 yilgi narxlarda keyingi o'n yillikdagi eng past darajaga keltirib qo'ydi. Markaziy Osiyodagi boshqa davlatlar bilan ro'yxatga olingan savdoning keskin kamayish bunday tanazzulning bosh omili bo'ldi. Bu savdo hajmi sakkiz yil oldingidan deyarli sakkiz barovar kamaydi.

O'sha yillarda bu mamlakatlarning jahondagi mamlakatlar (MDHdan tashqari) bilan tashqi savdodagi nisbiy ulushi oshdi. Kuchli tanazzul natijasida 1991-1995 yillarda Markaziy Osiyo davlatlarining umumiy savdo hajmida an'anaviy savdoning ulushi olis xorijiy mamlakatlar bilan bo'lgan savdo ulushiga tenglashdi. Shunday keyingi yillarda Sobiq ittifoq davlatlari bilan savdo ulushi jahonning boshqa qismi bilan savdo ulushidan ham pasaydi va ularning o'rtasidagi tafavut kamaydi. Tashqi savdoning ushbu ikki segmenti o'rtasidagi nisbat o'zgarib, 1991-yildagi 7:1 nisbatda 1997-yilda 1:1,3 nisbatga tushdi, ya'ni jahonning boshqa qismi bilan savdo hajmi oshdi. An'anaviy savdo ulushi mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarda keskin pasaydi.

Bu, asosan, Rossiya bilan savdo aylanmasi kamayishi bilan bog'liq. 1997-1998 yillarda, ayniqsa, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekistonning Rossiya bilan savd aylanmasi 1991-yildagidan ancha kam bo'ldi. Bu ko'rsatkich Qozog'iston va Qirg'iziston uchun ham muhim edi, lekin 1998-yilgi inqirozdan keyin bu mamlakatlard ham jiddiy kamayish tamoyili ko'zga tashlandi.

Markaziy Osiyo davlatlarining o'zaro savdosi va mintaqaviy hamkorlik. Markaziy Osiyo davlatlarining o'zaro savdosi, ayniqsa, birinchi bosqichda, ular mustaqillik erishgandan so'ng, iqtisodiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'ldi. MDHda savdoning umumiy hajmi mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarda keskin kamayishiga qaramay, 1992-1995-yillarda ularning ko'pchiligida yillik o'rtacha o'zaro savdoning hajmi 1991-yilg darajadan yuqori edi. Bu hol mintaqada savdo taqsimotiga o'zgarish kiritish imkonini berib, Qirg'iziston va Tojikistonning savdo sohasidagi sheriklari sifatida O'zbekiston va Qozog'istonning mavqeiini oshirib, o'ziga xos barqarorlashtiruvchi omil bo'ldi. 1998-yilda Qirg'iziston Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'ldi. Qozog'iston bila O'zbekiston, Qirg'izistondan qayta eksport (re-eksport) qilinayotgan iste'mol tovarlaridan sanoat tarmoqlarini himoya qilish uchun bojxona-tarif choralarida foydalanishga majbur bo'ldi. Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston bir vaqtin o'zida Rossiya va Belarus Bojxona ittifoqiga a'zo bo'lishi, 2000-yil oktabrda Yevroosiyo Iqtisodiy Hamjamiyatining shakllanishi O'rta Osiyoda mintaqaviy hamkorlikda muayyan qiyinchiliklar keltirib chiqaradi.

Lekin Markaziy Osiyo davlatlari yanada mustahkam mintaqaviy o'zaro bog'liqlikning obyektiv zarurligini tan olgan holda savdo sohasida ham, resurslar (suv, energiya va boshqalar) boshqarish va infratuzilmalar sohasida ham mintaqaviy hamkorlikni yanada rivojlantirishi zarurligi O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston davlat boshliqlarining 2001-yil 28-dekabrda uchrashuvida yana bir bor to'la mas'uliyat bilan ta'kidlab o'tildi.

Ushbu uchrashuvda Markaziy Osiyo Iqtisodiy Hamjamiyatini Markaziy Osiyo Hamkorligi tashkiloti deb qayta tuzishga kelishib olindi.

1994-yildan boshlab Markaziy Osiyodagi barcha davlatlarning MDH dan tashqari davlatlar bilan savdosi umumiy savdo hajmida eksport ko'rsatkichlari bo'yicha har

import ko'rsatkichlari bo'yicha ham jahonning qolgan qismi ulushi, ayniqsa, O'zbekistonda (1998-yilda 73,4 % va 72,2 %) tez o'sdi. Savdoning geografik taqsimoti ancha o'zgarib, sobiq O'zaro Iqtisodiy Yordam Kengashidan Yevropa Ittifoqi, Sharqiy Osiyo, Shimoliy Amerika va Yaqin Sharq tomon siljidi. 2000-yilda Markaziy Osiyo davlatlarining MDHdan tashqarida joylashgan asosiy sheriklari avvalo, Yevropa mamlakatlari (Germaniya, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Niderlandiya), so'ngra Sharqiy Amerika (AQSH) va Yaqin Sharq (Turkiya, Eron) mamlakatlari bo'ldi. Tashqi savdoning umumiy hajmida bu mamlakatlardagi sheriklar ishtirokining ulushi ancha oshdi.

**Tashqi savdoning tovar tarkibi muammolari.** Barcha markaziy Osiyo davlatlarining eksport tovarlari asosan mineral resurslar va qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan iborat edi. Qozog'istonda asosan neft va neft mahsulotlari, qora va rangli metallardan, Qirg'izistonda oltin, tamaki va jun; Tojikistonda alyuminiy va paxta tolasi, Turkmanistonda tabiiy gaz, paxta tolasi, neft va neft mahsulotlari, O'zbekistonda paxta tolasi, oltin, tabiiy gaz va rangli metallar eksport qilinadi (ko'pchilik MDH mamlakatlariga eksport tovarlarining shunday tarkibi xarakterlidir).

Importga kelganda esa, asosan oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa iste'mol mollari, shuningdek, neft va neft mahsulotlari (O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikistonda, keyingi ikki mamlakatda esa yana gaz) dan iborat bo'lgan. Keyinchalik import tarkibida don, oziq-ovqat mahsulotlari va xomashyo ulushi kamayib, mashina-uskunalar ko'paya boshladi. Biroq mamlakat ichkarisida foydalanish uchun import qilinayotgan iste'mol tovarlarining o'rmini qoplovchi qayta ishlash sanoati tovarlari ishlab chiqarishni yo'lga qo'ymay turib, import qilinadigan mashinalar va uskunalar ulushini ko'paytirish ba'zi davlatlarda joriy operatsiyalar hisoblari bo'yicha katta surunkali defitsitga, boshqalarida esa iste'mol mollari importi haddan tashqari qisqartirilishiga olib keldi.

**Tashqi savdo va raqobatbardoshlik** katta ahamiyatga ega. Masalan, 1998-yilning avgustida Rossiya rublining devalvatsiya qilinishi Markaziy Osiyo tovarlari raqobatbardoshligiga bilvosita ta'sir qildi. Ayniqsa, Rossiyaning Yevropa va Osiyo bozorlariga eksporti (yonilg'i, metallar) ko'paygani Qozog'iston shunday tovarlarni eksport qilishiga ko'proq ta'sir o'tkazdi. Boshqa tovarlar esa sifatsizligi sababli ularning valyutalari devalvatsiya qilingandan keyin ham MDHdan tashqarida deyarli sotilmay qoldi. Bu eksportning raqobatbardoshligi va xilma-xilligi ko'p jihatdan valyuta almashuv kursining o'zgarishiga va milliy valyutalar qadrsizlanishi oqibatida narxlarning nisbiyligiga emas, ko'proq tuzilmalar islohotiga bog'liqligini isbotlovchi dalillardir. Rossiyada rublning devalvatsiya qilinishi Markaziy Osiyo davlatlari tovarlarining ichki bozorda ham, Rossiya bozorida ham, boshqa bozorlarda ham raqobatbardoshligiga katta salbiy ta'sir qildi.

Respublikamizda 2012-yilda avvalgi yilning shu davridagiga nisbatan uncha katta bo'lmasa ham tez sur'atlar bilan MDH mamlakatlaridan import 1,3 barobar, xorijiy mamlakatlardan 1,28 barobar ortdi. Mos ravishda MDH mamlakatlaridan import mahsulotlarini olib kirish 38,3 %dan 38,6 %ga ko'paydi, xorijiy mamlakatlardan esa, 61,7 %dan 61,4 %ga kamaydi. Importning asosiy qismi SHHT a'zolari – Rossiya (24,0 %), Qozig'iston (63 %), Xitoy (7,0 %) ulushiga to'g'ri keldi. Markaziy Osiyo davlatlari – Tojikiston, Turkmaniston kabi mamlakatlar bilan savdo aylanmasi bo'yicha ijobiy natijalarga erishildi.

Bulardan tashqari Markaziy Osiyoda davlatlararo kelishuvga asosan istiqbolda hudud suv-energetika resurslaridan oqilona foydalanish uchun konsorsium tashkil qilish chet el investitsiyalarini jalb etish maqsadida hududda yagona investitsion iqlin yaratish mo'ljallangan.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun Markaziy Osiyo davlatlari yagona Be ittifoqini tuzish va transport tariflarini joriy etish; erkin savdo hududlarni (zona) yaratish va Markaziy Osiyoda yagona bozorni yaratish va ishga tushirish kerak.

**Tashqi savdoni yanada kengaytirish yo'llari va zarurligi.** Markaziy Osiyo respublikalari mustaqillikka erishgach, avval boshdanoq jahon iqtisodiyotig integratsiyalashish yo'lida vujudga keladigan bir necha fundamental muammolarga v turlicha tashqi qiyinchiliklarga duch keldi. Bu muammolarni hal qilish yo'li mintaqavi va global savdo-sotiqni kengaytirishdir. Bu Markaziy Osiyo mamlakatlariga nisbata avval savdo mijozlarini, tovarlarning turlarini va transport tranzit yo'nalishlarig kengaytirish va o'zgartirishni o'z ichiga oladi. Lekin bu sharoitlarning hammasi zaru bo'lsa ham, bozor islohotlari davom ettirilmasa va tashqi savdo erkinlashtirilmass kutilgan natijaga erishib bo'lmaydi. Jahon bozoriga integratsiya bo'yicha yang imkoniyatlardan ko'proq foydalanish uchun Markaziy Osiyo davlatlari avvalo, quyidag asosiy masalalarning tegishli yechimini topishlari zarur: korxonalar o'rtasida bevosit tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash; tashqi savdo va investitsiya infratuzilmasini, ayniqsa ichki va xalqaro to'lov tizimini takomillashtirish; valyuta almashuvi siyosatini islo qilish. Aks holda investitsiyalarni jalb etib, tashqi savdo imkoniyatlaridan to'l foydalanib bo'lmaydi.

**Globallashuv sharoitida valyuta almashuv siyosati.** XVf maslahatchilar valyuta almashuvi (konvertatsiya)ni joriy etish yuzasidan shoshilinch choralarin ko'rish, o'tish davridagi mamlakatlar uchun eng yaxshi ko'rsatmadir, degan fikrn bildirdilar. Valyuta almashuvi erkinlashtirilishi bozor islohotlarining boshlanishid emas, balki pirovard nuqtasida amalga oshirilishi kerakligi to'g'risida faqat sanoql ogohlantirishlar bo'lgan edi. Bu yondashuvlardan biri – o'tish davrini valyut almashuvini erkinlashtirish bilan boshlashni, ikkinchisi – shunday yo'l bilan tugallashn tavsiya qiladi. Ushbu ikki yondashuvdan farqliroq o'ziga xos yangicha yondashu taklif etiladi.

Markaziy Osiyo davlatlarini valyuta almashuv siyosatiga qarab ikki guruhg ajratish mumkin. Qirg'iziston bilan Qozog'iston birinchi yondashuvni tanladi O'zbekiston bilan Turkmaniston esa islohotlarni asta-sekin amalga oshirishni afza ko'rdi. Valyuta almashuv siyosatidagi tafovutga qaramay, global va mintaqavi moliyaviy inqiroz Markaziy Osiyodagi deyarli barcha davlatlarning nozil makroiqtisodiy barqarorligi uchun og'ir bo'ldi. Bunga Rossiyadagi moliyaviy inqiroz ayniqsa, kuchli salbiy ta'sir qildi. Bu paytda Qirg'iziston, Qozog'iston va Tojikistond pulning qadrsizlanishi kuchaydi. Qozog'istonda oltin-valyuta zaxiralari ancha kamaydi. Qirg'izistonda katta miqdordagi tashqi qarzni to'lash muammosi paydo bo'ldi. Rossiy inqiroziga javoban valyuta almashuvini bilvosita kuchliroq nazorat qila boshlagi Turkmaniston bilan O'zbekistonda to'lov balansi va milliy daromadiga salbiy ta'si kuzatildi.

Hozirgi vaqtda Markaziy Osiyo davlatlarining kumulativ tashqi qarzi (o'tis davridagi hamma mamlakatlarda ham shunday hol yuz bergan) rivojlanayotga

mamlakatlarning ko'pchiligidagi shunday vaziyatga tobora ko'proq o'xshab ketmoqda. Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlarda Rossiya'dagi valyuta inqirozi (1998-yil, 18-avgust) to'lov balansi o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni eslatdi. Tobora kuchayib borayotgan tashqi qarz muammosi joriy operatsiyalar, hisoblar va kapital harakati hisoblari bo'yicha surunkali taqchillik bilan bog'liq bo'lib, xalqaro zaxiralarning to'planishiga to'sqinlik qilmoqda. Binobarin, ular tashqi qarz muammolariga oid choralar balansini mustahkamlashga qaratilgan siyosatni talab etadi, ya'ni joriy va kapital hisoblar bo'yicha tushumlar umumiy xarajatlardan ko'p bo'lishi kerak. Standart tavsiyalarda ko'pincha: eksportni rag'batlantirish yoki tovarlar va xizmatlar importini kamaytirish yo'li bilan joriy operatsiyalar hisobdagi taqchillikni kamaytirishga; import o'rmini bosishga qodir bo'lgan ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoatning eksportga mo'ljallangan tarmoqlariga ko'maklashish uchun bevosita xorijiy investitsiyalarni, xususi va rasmiy kreditlarni jalb etish yo'li bilan kapital harakati hisobi bo'yicha salbiy qoldiqni kamaytirish choralarini o'z ichiga oladi; kutilmagan tashqi salbiy ta'sir natijasida ikkala hisobda ham salbiy saldo hollarida to'lovsizlikdan qutulish uchun xalqaro rasmiy zaxiralarni yetarli darajada saqlab turish tavsiya etiladi.

Tashqi qarz dinamikasini baholash hamda kelajak uchun zarur tavsiyalarni olish uchun samarali tahliliy vosita sifatida quyidagi asosiy tenglamalar va modellardan foydalaniladi:

Birinchi – sof tashqi qarzlarning hajmini (xorijiy valyutaning kelishi va ketishi balansiga qarab ijobiy yoki salbiy) aniqlaydigan tenglama. Miqdor jihatdan u kapitalning sof oqimi, kapital oqimi bruttosi, minus o'tgan yilgi amortizatsiya bilan to'plangan xorijiy qarz qoldig'ining foiz to'lovlari o'rtasidagi tafovut sifatida o'lchanadi. Uni quyidagi matematik tenglama bilan ifodalash mumkin:

$$BT \text{ q } dD-rD (1) \text{ yoki } VT \text{ q } (d-r) D (1)$$

Bunda: D-to'plangan tashqi qarzlarning umumiy hajmi;

d-tashqi qarzlarning ko'payish foizi;

dD-sof kapital oqimi yoki tashqi qarz umumiy hajmining ko'payishi;

r-tashqi qarzga to'lanadigan o'rtacha foiz;

rD-tashqi qarz bo'yicha yillik to'lovlarning umumiy miqdori.

Tenglama (1) ushbu davlat bilan xorijiy davlat o'rtasidagi kapital harakati natijasida har bir yil doirasida xorijiy valyuta miqdorining kamayishi yoki ko'payishini ko'rsatadi. Agar  $d > r$  bo'lsa, mamlakatga valyuta keladi, lekin  $d < r$  bo'lsa, xorijiy valyuta mamlakatdan chiqib ketadi. Boshqacha aytganda, tashqi qarz jalb etilgan kapitaldan samarali foydalanish bilan bog'liq bo'lsa, u holda r ko'paygan taqdirda ham VT ijobiy bo'ladi, tashqi qarz qarzdor mamlakatning na qisqa muddatli, na uzoq muddatli taraqqiyot istiqboliga salbiy ta'sir etmaydi.

Bu konsepsiya zaminidagi asosiy g'oya shunday iboratki, mamlakat uning hisobini yilma-yil emas, balki tashqi qarz olingan ancha uzoq muddat doirasida balanslashi lozim. Biroq bu mamlakat har bir davr doirasida qarzlarning to'lov darajasini mensimasligi kerak, degan ma'noni bildirmaydi. Bundan tashqari mamlakatning to'lov qobiliyati va qarzlarni to'lashga qudrati yetishi to'g'risidagi xulosa pirovard natijada pulning joriy yoki bir qancha yil davomida to'lash muddatlarini aniq ko'rsatib, mamlakat olgan majburiyatlar hajmi to'g'risidagi axborotga asoslanishi lozim. Buni quyidagi ekonometrik tenglama bilan ifodalash mumkin:

$$(D_t - D_{tQ1}) \leq Y_t - rD_t - C_t - G_t - G_t \quad (2)$$

Bunda:  $(D_t - D_{tQ1})$  - t davridan tQ1 davrigacha tashqi qarzdagi sof o'zgarish;

$Y_t$  - t davridagi YAIM (sof pul o'tkazish kiritilgan);

$rD_t$  - t davri uchun to'la foiz to'lovi;

$C_t$  - t davridagi iste'mol;

$G_t$  - t davridagi ichki investitsiya;

$G_t$  - t davridagi davlat xarajatlari.

(2) tenglamadan kelib chiqadiki, qarz miqdori ma'lum vaqt davomida mamlakatda ishlab chiqarishni ko'paytirish va iste'molni kamaytirish, ichki investitsiyalar va davlat xarajatlarini kamaytirish hisobiga kamaytirilishi mumkin. Lekin mamlakat bir davrdan ikkinchi davrgacha bunday qilishga qodir bo'lmasa hamda mahsulot ishlab chiqarish, iste'mol, ichki investitsiya va hukumat xarajatlari tashqi qarzni to'lash uchun zarur miqdordan kam bo'lmaydigan darajaga yetsa, u holda mamlakat qarz inqiroziga uchraydi.

$$C_t + QT_t + QQ_t - Y_t < dD_t - rD_t \quad (3)$$

Bunda:  $dD_t$  - t davridagi mamlakatga kelgan xorijiy valyutaning jami oqimi;

$rD_t$  - tashqi qarzni to'lash natijasida t davrida mamlakatdan chiqqan xorijiy valyuta oqimi;

$dD_t - rD_t$  - t davridagi VT.

Turli tashqi va ichki murakkab omillar  $d$  va  $r$  ga ta'sir qilishi, bu esa tashqi qarz muammosining keskinlashuviga olib kelishi mumkin.  $d$  va  $r$  uchun xos bo'lgan tamoyillar quyidagicha: avval mamlakatning umumiy qarzi kam bo'lgan va uning ko'payish darajasi  $d$ , yuqori tendensiyali bo'lishi mumkin. Ammo  $D$  ko'payganda,  $d$  kamaya boshlaydi. Chunki tashqi qarzni to'lash mamlakatga qo'shimcha kapital oqimi hajmiga tenglashadi.

Ikkinchidan, tashqi qarz to'planishining dastabki bosqichi nisbatan kam bo'ladi (ko'pincha nisbatan), chunki bu bosqichda asosiy manba muddatli va to'lash shartlari jihatidan imtiyozli rasmiy xorijiy yordamdan iborat bo'ladi. Lekin keyinchalik  $r$  tez o'sishi mumkin. Bu tijorat banklarida bozor shartlari asosida olingan qisqa muddatli tijorat kreditlari bilan bog'liq.

Mamlakat tashqi qarzlari bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishga qodir bo'lmagan paytda defoltdan xolos bo'lish uchun bunday vaziyatni oldindan ko'rishga imkon beradigan muayyan vositalarga ega bo'lishi muhimdir.

Ikki cheklashni tahlil qilish modellaridan rasmiy yordamga ehtiyojni va mamlakatning bu yordamdan samarali foydalanish qobiliyatini aniqlash uchun foydalaniladi. Bu modellar umuman tashqi qarzni o'lchash uchun ham foydalidir. Qarzdor mamlakatlarning ko'pchiligida ikkita asosiy cheklash mavjud: investitsiya imkoniyatlariga nisbatan ichki jamg'armalarning yetishmasligi va tovar importida valyutaga bo'lgan ehtiyojga nisbatan xorijiy valyutaning yetishmasligi. Bu cheklashlarni bartaraf etish uchun mamlakat qo'shimcha ravishda xorijiy valyutani jalb etadi. Bu esa keyinchalik tashqi qarzning ko'payishiga olib keladi.

Qarzning ko'payishini quyidagi tenglama bilan ifodalash mumkin:

$$dD/D_t = gDQM-E \quad (4)$$

Bunda:  $dD/D_t$  - qarz miqdorining o'zgarishi (birinchi hosila);

$g$  - foizning o'rtacha me'vori;  $M$  - import;  $E$  - ekport.

Shu tariqa bir vaqtning o'zida to'lov balansining har uch qismida tashqi qarzning o'sish holatini va muammosini baholashga imkon beradigan tashqi qarzni boshqarish siyosatini qo'llash va miqdoriy vositalardan foydalanish zarur. Shunday qilib, har tomonlama yondashuvning umumiy samarasi tashqi qarzning surunkali shaklini bartaraf etishga yordamlashishi lozim.

Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlar tashqi qarz muammosidan tashqari o'z valyuta bozorining dollarlashuviga duch keldi. Yangi milliy davlatlarning ko'pchiligi singari Markaziy Osiyo davlatlarida ham almashtiriladigan valyuta jamg'arimasidan, pulning qadrsizlanishidan sug'urtalash uchun, valyuta operatsiyalaridan ko'riladigan zararni qoplash uchun, shuningdek, boshqa xatarlardan xoli bo'lish uchun foydalanilmoqda. Biroq xorijiy valyutadagi depozitlar shu mamlakatning bank tizimi barcha depozitlariga nisbatan dollarlashish darajasini to'la o'lchashga qodir emas.

Ma'lumki, sobiq ittifoq hududidagi mamlakatlarda qonuniy moliyaviy vositachilik darajasi past bo'lib, norasmiy operatsiyalarda dollar mavjudligi juda katta rol o'ynamoqda. Shu sababli o'tish davri iqtisodiyotini tahlil qilish uchun muomaladagi xorijiy valyuta zaxirasi kabi ko'rsatkich ham muhimdir. Ro'yxatga olinmagan bitimlarni miqdoriy baholash qiyinligiga qaramay, norasmiy xorijiy valyuta bozorining mavjudligi hukumat o'tkazayotgan siyosatning samaradorligini ancha kamaytirishidan dalolat beruvchi misollar ko'p.

Xorijiy valyutaning yashirin bozorida katta imkoniyat mavjud kapital harakatini tezlashtirishga o'xshash natija beradi. Bu eksportning ma'lum qilingan qiymatini kamaytirish va importning ma'lum qilingan qiymatini oshirishdan kapital chiqib ketishi uchun qo'shimcha kanalga aylanadi, ya'ni bu hol valyuta almashtirish darajasining yuqoriligi tufayli kapitalning istalgan vaqtda keng miqosda chiqib ketishi uchun yana bir yashirin kanal bo'ladi. Ular birgalikda tizimlarni qayta tashkil etish bosqichida yangi milliy davlatlarning ko'pchiligida kapitalning chiqib ketishida muhim omil bo'ldi. Kapital chiqib ketishining ahamiyati global va mintaqaviy moliyaviy inqiroz chog'ida, ayniqsa, kuchaydi.

Ham savdoni, ham valyutani erkinlashtirgan, shuningdek, kapital hisobi va joriy operatsiyalar hisobi to'la konvertatsiyalashtirilgan va hatto, moliyaviy inqiroz chog'ida ham shu siyosatga amal qilishga uringan mamlakatlarda ancha qiyin vaziyat tug'iladi. Bosqichma-bosqich isloh qilish va valyuta bozorlarini asta-sekin erkinlashtirish siyosatini o'tkazishda mamlakatlar ham bir qancha tashqi zarbalarga uchraydi. Lekin bu zarbalar boshqacha usulda, bilvosita shakllarda bo'ladi. Bu hol rasmiy va norasmiy bozordagi valyuta almashuvi o'rtasidagi tafovutning sezilarli bo'lishida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston (Turkmaniston bilan) keng doiradagi savdo cheklashlaridan va xorijiy valyutani nazorat qilish vositalaridan foydalanib, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilishga urinayotgan sobiq ittifoq hududidagi kam sonli mamlakatlardan biridir. Bu choralar yaqinda yuz bergan global va mintaqaviy-moliyaviy inqirozning salbiy



ta'sirini kamaytirish imkonini berdi, lekin shu bilan bir vaqtda ular katta norasmiy tovar va valyuta bozorlarini keltirib chiqardi.

Almashuv kurslarining xilma-xilligi ma'lum ma'noda ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarga xosdir. O'tish davridagi deyarli barcha mamlakatlar tizimlarni qayta tashkil etish chog'ida shu muammoga duch keldi. Ularda qoida sifatida ko'p yoki kam valyuta almashuv kursi mavjud bo'ldi. Bular: hukumat tomonidan belgilanadigan norasmiy bozordagi almashuv kursi jamoat sektorining barcha operatsiyalari va xususiy sektor operatsiyalarining bir qismi rasmiy bozorda rasmiy almashuv kursida, ayni paytda xususiy sektor kelishuvlarining qolgan qismi yashirin bozorda norasmiy almashuv kursida amalga oshirildi. Naqd va naqdsiz pullar uchun turlicha almashuv kursi monopoli bank tizimining mavjudligi va chinakam tijorat banklari yo'qligining bevosita natijasidir.

Parallel almashuv kursi xorijiy valyuta bozorining mavjudligini ifodalaydi. Bu davlat tomonidan o'rnatilgan savdo va moliya cheklashlarining natijasidir. Joriy operatsiyalar va kapital hisoblari bo'yicha operatsiyalarga hukumat tomonidan qo'yilgan keng cheklashlarga javoban keng miqyosli va uzoq muddatli norasmiy bozorlar vujudga keladi.

Bunday chora-tadbirlarning asosiy sabablari ma'lum industrial, tashqi savdo va valyuta siyosati bilan bog'liq. Hukumat ba'zi tarmoqlar va korxonalar uchun qulay sharoit yaratib berish, jumladan, valyuta almashuvining past stavkalaridan foydalanishga imtiyoz berish yo'li bilan ularni to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita qo'llab-quvvatlashi mumkin. Tariflar, savdo cheklashlari va to'siqlarning mavjudligi norasmiy valyuta bozori paydo bo'lishi uchun yetarli emasligini ta'kidlash zarur. Eksport va import operatsiyalarining ishtirokchilari xorijiy valyutadan erkin foydalanar ekanlar, bu savdo cheklashlari almashuv kursi segmentlashuvini keltirib chiqarmaydi. Ular xorijiy valyutaga talab va takliflarga ta'sir o'tkazsa ham operatsiyalarning har xil turlariga g'ov bo'la olmaydi. Faqat hukumat siyosati xorijiy valyutani sotib olish va sotish hajmiga miqdoriy cheklashlarni (uni ko'pincha me'yoriy belgilash deyishadi) belgilash yo'li bilan turli operatsiyalar o'rtasida cheklashlar barpo qiladi. Xorijiy valyutaga qondirilmagan ehtiyoj yashirin bozorni vujudga keltiradi, unda valyuta qiymati ayni paytdagi taklif bilan belgilanadi. Ko'pchilik e'tirof etgan fikr shuni ko'rsatadiki, milliy valyutaning haqiqiy qimmatlashuvi va buning oqibatida yashirin bozorda kursning o'zgarishi, ichki bozorda hukumatning valyuta almashuvini me'yorlashtirishi (cheklashi) natijasida devalvatsiya qilingan almashuv kursi bilan pulning qadrsizlanishi sur'ati o'rtasidagi farq ko'payadi. Demak, parallel almashuv kurslari hukumatning valyuta bozorini segmentatsiyalash va me'yorlashtirish vositasi bilan valyutani nazorat qilish siyosatining qo'shimcha mahsulidir.

Odatda, turli almashuv cheklashlarini joriy etish orqali valyuta nazoratini kuchaytirib, joriy operatsiyalar hisobi balansini tashqi salbiy ta'sirlardan himoya qilish bilan oqlashmoqchi bo'lishadi. Biroq ko'p sonli va har xil almashuv kurslari mavjudligi tufayli joriy operatsiyalar hisobi surunkali taqchillikning muhim omiliga aylanadi. Almashuv kursi turlicha bo'lgan sharoitda eksportchilarni cheklash va importchilarni qo'shimcha rag'batlantirish joriy operatsiyalar hisobi surunkali taqchilligiga olib keladi. Ayni paytda yashirin bozordagi kursni tijorat almashuv kursi bilan birxillashtirish orqali almashuv kurslarini bozor darajasida birlashtirish eksportni rag'batlantirish va import



tazyiqini kamaytirish hamda joriy operasialar balansini har ikki yo'nalishda yaxshilashning eng samarali yo'lidir.

O'zbekistonda ko'p sonli almashuv kursi rejimini quvvatlashni oqlaydigan dalillardan biri shundan iboratki, u pulning qadrsizlanishini kamaytiradi, ijtimoiy himoya chorasi sifatida xizmat qiladi. Ijtimoiy yo'nalishdagi islohotlarni amalga oshirishga kirishgan davlat uchun bu dalil ko'p sonli almashuv kurslari foydasiga xizmat qilishi yoki xizmat qilmasligini tekshirish uchun bir necha statistik usullardan foydalanilgan.

Almashuv kursi bilan pulning qadrsizlanishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ancha murakkab. Kichik iqtisodiyotda almashuv kursi o'zgarishidan oldin ichki narx darajasi o'zgaradi. Almashuv kursi narxga ikki yo'l bilan: tovarlar importi va inflyatsiya ehtimolining iqtisodiy agentlar tomonidan hisobga olinishi («inflyatsion kutilish») orqali ta'sir qiladi. Lekin almashuv kursi o'zgarishi (devalvatsiya) natijasida ichki narx to'liq ko'tarilmasligi mumkin. Umuman, o'zgarish to'liq bo'lmasligiga olib keladigan ikki omil mavjud. Bular:

a) xorijda talab katta bo'lgan, shunga qaramay, mamlakat ichkarisida ishlab chiqarilayotgan va iste'mol qilinayotgan hamda xorijiy tovarlar bilan bevosita raqobat qilmayotgan tovarlar. Bunday tovarlarning narxi almashuv kursi oshgandan keyin biroz kechikib ko'tariladi va ichki valyutaning qadrsizlanishi stavkasiga to'la mos kelmaydi;

b) xizmat va ishlab chiqarish omillari narxlar ko'p hollarda tashqi narxlarga bevosita bog'liq bo'lmaydi.

Bu esa, o'z navbatida, O'zbekistonda pulning qadrsizlanishini to'xtatish uchun, avvalo, pul-kredit siyosatining boshqa asosiy vositalariga tayanish zarurligini bildiradi. Vaholanki, almashuv kursiga doir siyosatga esa faqat qo'shimcha vosita sifatida qaramoq kerak.

Bu tahlil almashuv kursini erkinlashtirishni avval boshdanoq makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi tadbirlar qatoriga kiritishga hech qanday ehtiyoj yo'q edi, degan fikrni yana bir karra tasdiqlaydi. Ikkinchi tomondan, bu, almashuv kursini erkinlashtirishni islohotlarning oxiriga qoldirib bo'lmasligini ko'rsatadi. Ma'lum bosqichdan boshlab xorijiy valyutaning yashirin bozori mavjudligi iqtisodiy o'sishga borgan sari ko'proq salbiy ta'sir ko'rsata boshlaydi. Shu tariqa Markaziy Osiyo davlatlarining valyuta almashuv siyosatini tahlil qilish G'arbiy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarining, shuningdek, Yaponiya va Sharqiy Osiyodagi boshqa mamlakatlarning ikkinchi jahon urushidan keyingi tajribasidan kelib chiqadigan saboqlarni tasdiqlaydi. Shuningdek, u valyuta bozorini bosqichma-bosqich erkinlashtirishga qaratilgan, asta-sekin amalga oshiriladigan chora-tadbirlar bir tomonlama tub islohotlar kabi xavfli emasligini ko'rsatadi. Bosqichma-bosqich yondashish mamlakatlarga bozor institutlarining va eng muhimi, odamlarning o'zgarishlarga tayyorligi asosida asta-sekin paydo bo'ladigan muammolarni hal qilish imkonini beradi.

### **Qisqacha xulosalar**

Markaziy Osiyo davlatlarining o'zaro savdosi va mintaqaviy hamkorligi global iqtisodiyotga qo'shilish shartidir. Markaziy Osiyo davlatlarining o'zaro savdosi va mintaqaviy hamkorligida huquqiy baza muhim ahamiyat kasb etadi. XBF va Markaziy

Osiyo hamkorligi o'rtasida iqtisodiy hamkorlikning o'rnatilishi almashuv kursi siyosatini yumshatadi. Almashuv kursining xilma-xilligi ma'lum ma'noda ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarga xosdir.

Markaziy Osiyo mustaqil davlatlarining jahon iqtisodiyotiga integratsiyasi o'tish davrining ustuvor vazifalaridan biridir.

O'rta Osiyo mamlakatlarida transformatsiya jarayonining nazariy va uslubiy asoslarini yaratish lozim.

O'tish davrining dastlabki bosqichida Markaziy Osiyo davlatlarining globallashuvi transformatsiya darajasini belgiladi.

Tizimlarni qayta shakllantirish qayta tub o'zgarishlar strategiyasiga bog'liq.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Tashqi savdo va global iqtisodiyotga qo'shilish siyosati qanday ahamiyatga ega?
2. Markaziy Osiyo davlatlarida o'zaro savdo va mintaqaviy hamkorlik qay darajada tashkil etilgan?
3. Tashqi savdo doirasini kengaytirish yo'llari va zarurligi qanday ahamiyat kasb etadi? Bu savdo qanday yo'llar orqali kengaytiriladi?
4. Jahon bozoriga integratsiyaning qanday imkoniyatlari mavjud?
5. Globallashuv muammolari va almashuv kursi siyosati nimalarni taqozo etadi?
6. Valyuta almashuv kurslari ko'pligiga nimalar sabab bo'ladi?
7. Transformatsiya nima? Unga umumiy tavsif bering.
8. O'rta Osiyo mamlakatlarida transformatsiya jarayonining nazariy va uslubiy negizlari nimalarga asoslanadi?
9. O'tish davrining dastlabki bosqichida Markaziy Osiyo davlatlarida transformatsiya va globallashuv muammolari nimalardan iborat?
10. Qayta tub o'zgarishlar strategiyasi nimalarni ko'zda tutadi?

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Karimov I. A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. //Xalq so'zi 2011-yil 22-yanvar.
2. Karimov I. "2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi"//Xalq so'zi, 2014-iy 18-yanvar.
3. Yo'ldoshev Z. Milliy iqtisodiyot. -T.: Mehnat, 2004,168-b.
4. Ishmuxamedov A.E. O'zbekiston milliy iqtisodiyoti . Darslik – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jam'armasi nashriyoti, 2005. - 304 b.
5. Ishmuxamedov A.E. va boshqalar. Makroiqtisodiyot. Darslik – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jam'armasi nashriyoti, 2005. - 192 b.
6. Tuxliyev N. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari . - T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 280 b.

### **7. Internet veb-saytlari.**

[www.gov.uz](http://www.gov.uz)

[www.pressservice.uz](http://www.pressservice.uz)

[www.pca.uz](http://www.pca.uz)

[www.micro-macroiqtisodiyot.fan.uz](http://www.micro-macroiqtisodiyot.fan.uz)

## 22-bob. JAHONDAGI GLOBALLASHUV VA IQTISODIY INTEGRATSIYALASHUV SHAROITLARIDA MAMLAKATNING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATI

### 22.1. Jahon iqtisodiyotiga integratsiya shakllari va guruhlar

Tashqi iqtisodiy munosabatlar – milliy xo'jaliklar o'rtasida chuqur bārqarorlashgan o'zaro hamkorlikning rivojlanishi va mehnat taqsimoti, turli darajada hamda turli shakllarda yuzaga kelgan o'zaro aloqalar asosida mamlakatlarning xo'jalik-siyosiy jihatdan birlashish jarayonidir. Kichik darajada bu jarayon bir-biriga yaqin mamlakatlarning o'zaro iqtisodiy bitim tizimini shakllantirish yo'li bilan tashkil etilgan ayrim xo'jalik subyektlari (korxonalar, firmalar) jamg'armalarini ishga solish, xorijda filial (bo'lim)lar barpo etish orqali sodir bo'ladi. Davlatlararo miqyosdagi integratsiya (birlashish) davlatlarning iqtisodiy birligini shakllantirish va milliy siyosat kelishuvi asosida yuzaga keladi.

Firmalar o'rtasidagi aloqalarning jadal rivojlanishi davlatlararo (ayrim hollarda davlatlar ustidan) boshqarish zaruratini keltirib chiqaradi va o'z navbatida, bu boshqarish mamlakatlar o'rtasida muayyan mintaqalar miqyosida ishchi kuchi vositasida tovarlar, xizmat ko'rsatish, kapitallar erkin harakatini ta'minlashga; iqtisodiy hamkorlik asosida ilmiy-texnikaviy, moliyaviy hamda valyutali, ijtimoiy, tashqi va harbiy siyosatni o'tkazishga qaratiladi. Buning natijasida umumiy iqtisodiy taqsimot, moliyaviy jamg'armalar; umumiy miqyosdagi milliy yoki davlatlararo boshqarish tashkilotlari vositasida yagona valyutali infratuzilma asosida bus-butun mintaqaviy xo'jalik komplekslarini yaratishga erishiladi.

Eng oddiy shakl – Bojxona Ittifoqi amaldagi erkin savdo hududii bilan bir qatorda, yagona tarzdagi tashqi savdo tarifini o'rnatish va uchinchi mamlakatga nisbatan yagona tashqi savdo siyosatini o'tkazish chorasini ko'rmoqda.

Xalqaro ayirboshlashning o'tgan asr 90-yillarigacha bo'lgan rivojlanishi davomida, shuningdek, qadim zamonlardan buyon mamlakatlar moddiy noz-ne'matlarni tayyor mahsulotlar va turli xil resurslar ko'rinishida o'zaro ayirboshlab kelishgan, ya'ni bir-birlari bilan xalqaro iqtisodiy munosabatlarga kirishishgan. O'z navbatida, ayirboshlash hajmi ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasiga va tovar ishlab chiqarishning hajmiga bevosita bog'liq bo'lgan. Chunki ishlab chiqarish hajmining o'sishi, bir tomondan, mamlakatlar o'rtasida xo'jalik aloqalari kengayishiga imkon yaratsa, ikkinchi tomondan, turli xil xomashyolar, materiallar va boshqa resurslarga bo'lgan talabning oshib borishi ayirboshlash zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Xalqaro ayirboshlash, ayniqsa, XIX asrda keng rivojlandi. Uning hajmi 1800-yildan 1913-yilgacha 20-martagacha oshdi yoki 1800-yilda jahon ishlab chiqarishining 3 %idan iborat bo'lgan bo'lsa, 1913-yilda 33 %ini tashkil etdi. XX asrdagi xalqaro iqtisodiy munosabatlar notekis rivojlanishi bilan ajralib turadi. Masalan, 1913-1950-yillarda xalqaro savdo va ishlab chiqarish juda sekin sur'atlar bilan o'sdi. Chunki jahon xo'jaligi shu yillar davomida bo'lib o'tgan I va II jahon urushlari natijasida hamda rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda cho'zilib ketgan iqtisodiy inqirozlar sababli juda katta moddiy yo'qotishlarga uchradi. Ammo keyingi davr, yani 1950-1973-yillar jahon ishlab chiqarishida va savdosida «oltin davr» hisoblanadi. Bu davrda o'rtacha o'sish

sanoat ishlab chiqarishida 6 %ni, jahon savdosida 10 %ni tashkil etdi. Bunday yuksalish 1974-yilga kelib, xalqaro bozorda neft bahosining keskin ko'tarilib ketishi natijasida uzilib qoldi. Masalan, 1973-yil oxirlarida uning bahosi 14 dollargacha ko'tarildi, Eron, Iroq mojarosi sababli 1 barrel neftning bahosi yanada oshdi va 35 AQSH dollarini tashkil etdi.

Dunyoda boshlangan «neft inqirozi» rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida chuqur tuzilmaviy o'zgarishlar boshlanishiga olib keldi. Bu mamlakatlarda 70-80-yillar mobaynida energiya resurslarini kam iste'mol qiluvchi hamda intellektual imkoniyatlardan mumkin qadar to'liq foydalanishga mo'ljallangan yangi ishlab chiqarishlar barpo etildi. Shu sababli 1983-1990-yillar jahon iqtisodiyotining eng davomli yuksalish davri bo'ldi.

Yangidan paydo bo'lgan tarmoqlar va ishlab chiqarishlar, o'z navbatida, turli xil xomashyolar va tabiiy resurslarning ma'lum qismini ko'proq chetdan tashib keltirishni hamda tayyor mahsulotlarni milliy chegaralardan tashqarida sotishni kengaytirishni boshladi.

Masalan, o'tgan asrning 90-yillari boshida rivojlangan Yevropa mamlakatlari neftga bo'lgan ehtiyojlarining 75-80 %ni, AQSH marganes rudasi, nikel va boksitga bo'lgan ehtiyojining 75-100 %ni import hisobiga qondirdi. Yaponiya iqtisodiyotining rivojlanishi esa, asosan turli xil yoqilg'ilar va xomashyolar tashib keltirilishiga bog'liq. Shu bilan bir vaqtda ushbu mamlakatlar fan va texnika yutuqlariga asoslangan mahsulotlarni dunyo bozoriga juda katta miqdorda yetkazib beruvchi mamlakatlar hisoblanadi. Yer yuzining barcha mamlakatlarida xarid qilinayotgan avtomobillar, kompyuterlar, murakkab dastgohlar va asbob-uskunalar, maishiy uy-ro'zg'or jihozlari asosan G'arbiy Yevropa mamlakatlari, AQSH yoxud Yaponiya mahsulotlaridir.

Rivojlangan mamlakatlarda zamonaviy iste'mol tovarlari, sanoat texnologiyalari, axborot tizimlarining keng tarqalishi ularga ishlab chiqarish samaradorligini ko'tarishga va turli xil resurslardan tejimli foydalanishga keng imkon yaratdi. Hozirgi zamon xalqaro iqtisodiy munosabatlarining asosiy xususiyatlari XX asrning so'nggi yillarida yetakchi jahon mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishining tub sifat o'zgarishlari hamda jahon xo'jaligi tuzilishida va o'sish sur'atlarida bo'lgan o'zgarishlarning kuchayib borishi xalqaro munosabatlarning hozirgi bosqichidagi xususiyatlarini belgilab beradi.

Birinchidan, xalqaro ayirboshlashning tarkibiy tuzilishi sezilarli darajada o'zgardi, mamlakatlar mahsulotlar ayirboshlashdan tashqari turli xil xizmatlar, moliya kapitali, ishchi kuchi, fan-texnika axborotlari, yangi texnologiyalar, boshqaruv usullari va boshqalar bilan faol savdo-sotiq olib borishga o'tdilar. Masalan, jahon eksportida xizmatlar ulushi 60-yillar oxiridan 80-yillarning oxirigacha 27-30 % ko'tarildi, dunyoning sanoatlashgan 13 yetakchi mamlakatida kapital eksporti 1990-yillar boshida 1970-yildagiga nisbatan 8 baravar oshgan.

Ikkinchidan, kapitalning chetga chiqarilish kuchayishi va mamlakatlar o'rtasida ayirboshlashning kengayishi zamonaviy xalqaro iqtisodiy aloqalar mamlakatlararo uyg'unlashuviga olib keldi. Bunday xususiyat o'z faoliyatini bir qancha davlatlar hududida amalga oshiradigan transmilliy korporatsiyalar (TMK) va banklar (TMB) soni oshib borishida o'z aksini topdi.

Hozirgi vaqtda jahonda 20 mingdan ortiq TMKlar mavjud bo'lib, ular jahon sanoat ishlab chiqarishining to'rtidan uch qismidan ko'prog'ini, tashqi savdoning esa

yarmidan ko'prog'ini nazorat qilib turadi. Misol uchun, «Jeneral Motors», «Royle Datch shell», «Ekson» kabi yirik TMKlar aylanmasi hajmi O'zbekistonda yaratilgan yalpi milliy mahsulot miqdoridan ikki martadan ham ortiq. O'z ixtiyorida behisob moddiy va moliyaviy qudratni jamlagan bunday korporatsiyalar va banklar ko'pchilik mamlakatlarning iqtisodiy siyosatiga va xalqaro iqtisodiy aloqalarning umumrivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadilar.

Uchinchidan, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning zamonaviy bosqichida yana bir muhim xususiyat namoyon bo'ladi, ya'ni ayirboshlashda mamlakatlar tutgan o'rining qayta taqsimlanish jarayoni kechmoqda. Ma'lumki, sobiq ittifoq mamlakatlarida o'tkazilgan chuqur siyosiy va iqtisodiy islohotlar 9 mustaqil davlatni birlashtirgan yirik xalqaro iqtisodiy tashkilot – O'zaro Iqtisodiy Yordam kengashining tarqalib ketishiga olib keldi.

Ta'kidlash lozimki, yuqoridagi mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalari, asosan mana shu tashkilot doirasida amalga oshiriladi. Masalan, sobiq ittifoq tashqi savdosining 67 % ittifoq mamlakatlari, 22 % rivojlangan mamlakatlar va 11 % rivojlanayotgan mamlakatlar ulushiga to'g'ri keladi.

O'tgan asr 90-yillari boshlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar Sharqiy Yevropa mamlakatlari va sobiq ittifoqda tashqi iqtisodiy siyosatning tub burilishi bilan kuzatildi. Shu bilan birga mamlakatlarning jahon xo'jaligi aloqalarida faol qatnashuvlariga xalaqit beruvchi mafkuraviy va siyosiy to'siqlar olib tashlanishi har bir mamlakatga xalqaro mehnat taqsimotining afzalliklaridan manfaatdor bo'lishi uchun keng imkoniyatlar ochib berdi. Ammo bu imkoniyatlardan foydalanish uchun sobiq sotsialistik mamlakatlarga ma'lum muddat kerak.

Hozirda esa, jahon xo'jaligi va xalqaro ayirboshlashning umumiy yo'nalishlari va o'sish sur'atlarini dunyoning rivojlangan 26 ta kapitalistik mamlakati belgilab beradi. Bu mamlakatlar yer yuzidagi davlatlarning 15 foizini tashkil etadi hamda ularda jahon aholisining 25 foizi istiqomat qiladi. Ammo bu mamlakatlar dunyoda hosil qilinayotgan elektr quvvatlarining 75 foizini, yoqilg'ining 79 foizini, yog'ochsozlik mahsulotlarining 85 foizini va po'latning 70 foizini iste'mol qilishadi. Sanoati taraqqiy etgan mamlakatlarning o'zaro savdosi jahon savdosining 70 foizini tashkil etadi.

Iqtisodiyoti rivojlangan va xalqaro ayirboshlashda yuqori o'rinda turgan mamlakatlarning hududiy joylashuviga qarab, ularni shartli ravishda uch blokka ajratish mumkin:

*Shimoliy Amerika bloki* – AQSH, Kanada va Meksika davlatlari (AQSH va Kanadaning hissasiga butun jahonda ishlab chiqarilgan yalpi milliy mahsulotning 29 foizi to'g'ri kelmoqda);

*G'arbiy Yevropa bloki* – bozor iqtisodiyoti rivojlangan Yevropa mamlakatlari (Ularda dunyo yalpi milliy mahsulotining 32 foizi ishlab chiqariladi);

*Yaponiya bloki* – Yaponiya va tez rivojlanayotgan Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari (Birgina Yaponiya hissasiga jahon yalpi milliy mahsulotining 15 foizi to'g'ri keladi).

Ta'kidlab o'tish kerakki, bu uch blokka kiruvchi mamlakatlar o'rtasidagi jahon bozorida o'z ta'sir doirasini kengaytirish va ishtirokini oshirishga qaratilgan kuchli raqobat hozirgi zamon xalqaro iqtisodiy munosabatlarining mohiyatini ochib beradi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har bir mamlakat o'z ishlab chiqaruvchi

kuchlarining rivojlanishiga qarab, jahon bozoriga turli xil tovar va xizmatlar yetkazib berishga ixtisoslashadi. Chunonchi, iqtisodiyoti yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar xalqaro ayirboshlashda asosan tayyor mahsulotlar, xizmatlar va kapitalni xorijga yetkazib berib, bir vaqtning o'zida o'ziga kerakli turli xil xomashyolar, arzon ishchi kuchini chetdan olib kiradi.

Iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlar aksincha, xorijga asosan iqtisodiy resurslarni yetkazib berib, o'ziga tayyor mahsulotlar, investitsiyalar, fan-texnika axborotlarini xarid etadi.

◦ Nima sababdan davlatlar xalqaro iqtisodiy munosabatlarni yanada kengaytirishga alohida ahamiyat beradilar?

◦ Chunki har qanday ayirboshlashning ahamiyati, uning samaradorligi, shu jumladan, xalqaro miqyosda ham kelishilgan bitimlardan tomonlar oladigan afzalliklar bilan belgilanadi. Bu yerda iqtisodiy nazariya, xoh tovar va xizmatlar savdosi bo'lsin, ayirboshlashdan olinadigan afzallikka har bir qatnashuvchi mamlakat ega bo'ladi va natijada butun jahon xo'jaligi yutadi deb, tushuntirishga va isbotlashga harakat qiladi. Adam Smit birinchi bo'lib, qaysi mamlakat o'z mahsulotini boshqa mamlakatlarga qaraganda kamroq xarajatlar bilan ishlab chiqarsa, shu mamlakat xalqaro ayirboshlashda qatnashishi mumkin, deb tushuntiradi.

Birlashish jarayonlari barqaror iqtisodiy o'zaro aloqalarning o'sishi jarayonini (birinchi navbatda, xalqaro mehnat taqsimoti asosidagi) hamda ishlab chiqarishning milliy xo'jalik doirasidan chiqishini taqozo etadi.

Birlashish jarayonining rivojlanishida transmilliy korporatsiyalar (TMK) faol ravishda xizmat ko'rsatmoqdalar.

Integratsion jarayonlarning o'sishiga sabab bo'luvchi boshqa omillar xalqaro mehnat taqsimoti tuzilishining chuqurroq siljib borishidir (birinchi navbatda, ilmiy-texnika taraqqiyoti ta'sirida). "Xalqaro mehnat taqsimoti" atamasi, bir tarafdandan, odatdagidek, millatlararo ishlab chiqarish majburiyatlariga ko'ra, ayrim mamlakatlarning belgilangan turdagi mahsulotni chiqarishga ixtisoslashishini, taqsimlash jarayonini nazarda tutadi. Boshqa tarafdandan esa, ishlab chiqarish majburiyatlari rejali tarzda ichkarida va firmalar o'rtasida taqsim qilinadi. Ichki soha ixtisosligi keng ko'lamda rivojlanmoqda.

Ilmiy-texnik taraqqiyotning hozirgi bosqichi integratsion jarayonlarni turli mamlakatlarda ITT tarqalishi notekis bo'lgan taqdirda ham bozorni, ham ishlab chiqarishni sifatli yangi darajaga olib kelmoqda, turli mamlakatlarda ITT mustaqil omil bo'lib, hozirgi zamon ijtimoiy ishlab chiqarishidagi tashqi iqtisodiy aloqalarda katta rol o'ynaydi. U yoki bu mamlakatdagi fan va texnikaning rivojlanish muvaffaqiyatlarini davlatlararo aloqalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Turli mamlakatlarning firmalari o'rtasida kooperatsiya asosida tashkil etilishning shiddat bilan rivojlanishi ulkan xalqaro ishlab chiqarish - investitsiya komplekslarini barpo etishga olib keladi. Ularni tashkil etishga ko'pincha TNK boshchilik qiladi. Ular uchun firma ichidagi mehnat taqsimoti milliy chegaradan chiqib, xalqaro miqyosga aylangan. Xuddi shu asosda ochiq milliy iqtisodiyot darajasi oshadi. Ochiq iqtisodiyot mamlakatlarning xo'jaliklararo aloqalariga to'la kirib borishi asosida shakllanadi.

Rivojlangan mamlakatlarda ochiq iqtisodiyotni barpo etishda mamlakatlarning tashqi iqtisodiy strategiyasi katta rol o'ynagan holda, eksport ishlab chiqarishni

huquqiy asos tashkil etib, chetdan mablag', texnologiya, malakali kadrlar kirib kelishiga yo'l ochib beradi.

Ishlab chiqarish sohasida xalqaro munosabatlarning jadal sur'atdagi yo'nalishi va xarakteri muayyan darajada integratsion jarayonning mazmuni va rivojlanishini belgilaydi. Umuman, u ishlab chiqarish bilan birga aloqa o'rnatish sohaslarini qamrab oladi. Savdo munosabatlari ko'pincha ikkinchi darajaga surilib, xalqaro ishlab chiqarish hamkorligining yakunlovchi bosqichiga aylanmoqda.

*Xalqaro ishlab chiqarish hamkorligida bir necha bosqichni belgilash mumkin:*

*birinchi bosqich* – mamlakatlarning xalqaro ixtisoslashganligiga suyanadi, ya'ni bunda bir ishlab chiqarish sohasining (masalan, sanoat) mahsulotini boshqa soha (masalan, qishloq xo'jaligi) mahsulotiga ayirboshlash rivojlanadi;

*ikkinchi bosqich* – qisman mehnat taqsimoti bazasi asosida shiddat bilan rivojlanayotgan tarmoqlararo ixtisoslashtirish bilan xarakterlanadi, avvalambor bu ishlab chiqarishning moddiy tarafdin soha tuzilishini murakkablashtirish, ya'ni sanoat sohaslarini differensiallashtirishdir;

*uchinchi bosqich* – umumiy va xususiy mehnat taqsimotiga asoslanib, xalqaro tarmoqlar o'rtasidagi ixtisoslashtirishning rivojlanishi, xalqaro sohaslar ichidagi ixtisoslashtirishni chuqurlashtirish jarayoni bilan boshlanadi, bu xususiy hamda yakka mehnat taqsimotiga asoslangandir.

Ayrim mahsulotlar qismlarini (agregatlar, detallar) ishlab chiqarish nazarda tutilmoqda, maqsad – yangi texnika va texnologiya bazasini ommaviy ishlab chiqarish, mehnat unumdorligini oshirish, sarf-xarajatlarni kamaytirish va h.k. Tabiiyki, bu ixtisoslashtirish asosida yakunlovchi mahsulot (mashinalar, agregatlar, ishlab chiqarish obyektlari) chiqarish uchun keng miqyosdagi muvofiqlashgan (kooperatsion) aloqalarni yuzaga keltirish talab etiladi.

«Ishlab chiqarish hamkorligi» tushunchasi asosida xalqaro ixtisoslashtirish bilan kooperatsiya ishlab chiqarishi o'zaro bog'liqligi yotadi.

Xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi–turli mamlakatlarning bir xil yoki boshqa (turli) ishlab chiqarishdagi kundalik bir-biriga bog'liq ish jarayonlarida subyektlar va huquqiy shaxslar birlashmasidir.

Shunday qilib, xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi aniq ishlab chiqarish maqsadi asosida birlashib, faoliyat ko'rsatuvchi huquqiy shaxslar uyushmasidir.

Xalqaro ishlab chiqarish hamkorligining shakllarini quyidagicha ajratib ko'rsatish mumkin: ixtisoslashtirish va kooperatsiya asosidagi ishlab chiqarish hamda savdo ishlarini muvofiqlashtiruvchi hamkorlik; ilmiy-texnika hamkorligi, pudrat (pay) asosida qurilish sohaslarida faoliyat yuritish (qo'shma korxonalariga ega bo'lish).

Hamkorlikning bu shakllari "sof holda" bo'lmashligi mumkin. Biroq amaliyotda ko'pincha firmalar muayyan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalarni tashkil etadilar yoki sohaslararo va ichki ixtisoslashtirilgan sohaslar asosida ishlab chiqarish xizmatlarini o'taydilar. Bunda ilmiy ishlab chiqarish va savdo-sotiq faoliyatini uyg'unlashtirgan bir-biriga uzviy bog'liq qo'shma korxonalar yaratish maqsadi ham turadi.

- o'zaro kelishilgan holda tegishli texnologiyalardagi tayyor mahsulotlar, qism (komponent)lar, boshqa ayrim mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha asosiy kooperatsiya subyektlarini belgilangan tartibda mustahkamlash;

- birgalikda tuzilgan dasturlar doirasida vazifalarni taqsimlash, ishlab chiqarishda bevosita qatnashuvchi hamkorlarni asosiy maqsadlaridan kelib chiqqan holda biriktirib qo'yish;

- xalqaro hamkorlik doirasida sheriklar o'rtasida ishlab chiqarish dasturlarida belgilangan mollarni o'zaro yoki bir yoqlama yetkazib berish yoxud odatdagidek, shartnomalar bajarilgan taqdirda oldi-sotdi ishlarini bajarish.

Ilmiy, moliyaviy va moddiy resurslarni birlashtirish yo'li bilan ilmiy-tadqiqot shaharda loyihalash ishlarining dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda hamkorlik qilish, ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar guruhlarini tashkil etish, ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar guruhlarini yaratish va samarali shakllari quyidagilardir: eng yangi ilmiy-texnik g'oyalardan, loyihalash ishlaridan, firmaning marketing sohasidagi tadqiqotlari va texnikaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlaridan foydalanish uchun umumiy yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot markazlari, shirkatlar, laboratoriyalari barpo etish; firmaning texnikaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash maqsadida amaldagi texnika va texnologiyani takomillashtirish sohasida birgalikda tajriba ishlari o'tkazish; ishlab chiqarish mehnatini tashkil etish sohasida birgalikda izlanishlar olib borish va chet el tajribasini o'rganish; ilmiy-texnika siyosati masalalari bo'yicha koordinatsiya (muvofiqlashtirish) va konsultatsiyalar o'tkazish; tadqiqot bilan shug'ullanuvchi malakali xodimlar tayyorlashni yo'lga qo'yish.

Ilmiy-tadqiqot ishlaridagi hamkorlik faoliyatida eng muhimi, sohadagi samaradorlikni tahlil qilishdir.

Olingan ilmiy natijalarning samaradorligi bir necha jihatlarda qarab chiqiladi.

Tadqiqot ishining nazariy qiymati texnikaviy daraja tafsilotlari (ishonchliigi, muvofiq muddatliigi, ishlab chiqarishdagi samaradorligi va hokazolar) bilan belgilanadi. Bunda boshqa mamlakatlar bilan hamkorlikning ahamiyati, raqobatga bardosh berish xususiyatlari hisobga olinadi.

Tadqiqot ishlarining amaliy qiymati ularning natijalarini xalq xo'jaligida yoki ishlab chiqarishda qanday tarzda firmada tatbiq etish orqali aniqlanadi.

O'tkazilgan tadbirlarning istiqbollilik natijalari muayyan vaqt ichida qay darajada amalga oshirilganligi va samaradorligi bilan baholanadi.

Tadqiqot tadbirlarining qiymatini aniqlovchi ishlanmalarda ilmiy ishlarni tashkil etish, o'tkazish, tajriba olib borish, mutaxassislar tayyorlash, zarur asbob-uskunalar yaratish va jihozlash, axborotlar bilan ta'minlash kabilar hisobga olinadi. Tadqiqotlarni rejalashtirish va amalga oshirishga oid ishlanmalarni tayyorlashda ilmiy



..... to'g'ri hisobga, berilgan narxlar va ularning ta'rif etilishiga qarab moddiy-texnika bazasi hozirlanadi.

Rejalar va natijalarni amalga oshirish ehtimoliligini oldindan hisobga oluvchi ishlanmalarda ko'zda tutilayotgan ilmiy ishlardagi muammolarning maqsadga muvofiqligi, hamkorlik o'rnatish shaklining qay darajada to'g'riligi bilan bog'liq masalalar qayd etilgan bo'ladi. Ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini tatbiq etishning iqtisodiy samaradorligi, keltiradigan foydasi, milliy va jahon iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha sarflangan xarajatlarni qoplash muddati, raqobatga bardoshliligi bilan aniqlanadi.

Ma'lumki, tashqi savdoni tartibga solishda davlat ikki xil usuldan foydalanadi. Bular tarif va notarif usullardir. Tarixga nazar tashlasak, davlatlar tashqi savdoni tartibga solishda asosan tarif usullaridan foydalanganliklarini ko'rishimiz mumkin. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab turli notarif usullardan foydalanilmoqda.

Tashqi savdoni tartibga solishning notarif usuli mohiyatiga ko'ra, ma'muriy vosita bo'lib, amaliyotda u miqdoriy yashirin va moliyaviy ko'rinishlarda uchraydi. Ko'pincha hukumatlar oldida, qaysi usuldan aniq bir vaziyatlarda foydalanish kerak, degan muqobil holat vujudga keladi va ko'pchilik hollarda notarif usullar ma'qul ko'riladi. Ular siyosiy nuqtai nazardan ham ma'qul, chunki tariflardan farqli o'laroq, aholi uchun qo'shimcha yuk bo'lmaydi.

Bundan tashqari notarif usullar orqali belgilangan maqsadga erishish oson. Masalan, po'lat importini 3 mln. t. gacha qisqartirishga 3 mln. t.li miqdoriy chegarani belgilash bilangina erishish mumkin. Ana shu 3 mln. t.li darajaga importni kamaytirish uchun boj stavkasini qancha miqdorda belgilashni hisoblash va joriy etish murakkabroq jarayon.

Shu nuqtai nazardan **notarif usullar orqali po'lat importini tartibga solish tarifi usulidan** ko'ra qulayroq hisoblanadi.

Bular quyidagilar:

**miqdoriy chegaralar** tashqi savdoni tartibga solishning ma'muriy usuli bo'lib, u eksport va import qilinishi mumkin bo'lgan tovarlar miqdorini va nomenklaturasini belgilash bilan amalga oshiriladi;

**miqdoriy chegaralarga** kvotalash, litsenziyalash va eksportni "ixtiyoriy" cheklashlar kiradi;

**kvota** – ma'lum bir vaqt davomida import yoki eksport qilinayotgan tovarni miqdoriy yoki ma'lum bir summa doirasida cheklash;

**Litsenziyalash** – tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda davlatning vakolatli idoralari orqali beriladigan ruxsatnoma. U ma'lum bir vaqt davomida yoki belgilangan miqdorda eksport yoki import qilish imkonini beradi;

**eksportni "ixtiyoriy" cheklash** – kvotalashning bir shaklidir. Importer mamlakat hukumati iltimosiga binoan eksportchi mamlakat hukumati tomonidan o'z eksport tovarlarining ma'lum chegarasini (kvotasini) belgilaydi. Agar importchi mamlakatning iltimosi qondirilmasa, u tomonidan turli sanksiyalar qo'llanishiga sabab bo'ladi.

**Savdo siyosatining yashirin usullari yoki yashirin proteksionizm.**

Taxminlarga ko'ra, yashirin proteksionizmning yuzlab shakllari mavjud. Davlatlar ular orqali eksport va importni bir tomonlama tartibda cheklaydilar.

Bularga quyidagilar kiradi:

**Texnik baryerlar** – savdo siyosatining yashirin shakli bo'lib, unga ko'ra milliy, texnik, ma'muriy hamda boshqa me'yor va qoidalar shunday tuziladiki, ular tovarlarning xorijdan kirib kelishiga to'sqinlik qiladi. Bu texnik xarakterdagi keng tarqalgan to'siqlardir. Ular o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- milliy standartlarga rioya etish;
- import mahsulotining sifat sertifikatini;
- spesifik ustanovka va markirovka;
- ma'lum sanitar-gigiyenik me'yorlarga rioya qilish;
- murakkablashtirilgan bojxona rasmiyatchiligi;
- iste'molchilarni himoya qiluvchi qonunlarni bajarishni talab qilish va hokozolar.

**Ichki soliq va yig'imlar** – yashirin savdo siyosati usuli. Bunda import qilinayotgan tovarlarning ichki bahosini oshirish va bu bilan uning raqobatdoshligini pasaytirish mo'ljallangan. Bu usul ham markaziy, ham mahalliy hukumat idoralari tomonidan joriy etilishi mumkin.

Masalan, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, savdo solig'i, bojxonada rasmiylashtirish, ro'yxatdan o'tkazish va boshqa rasmiyatchiliklar uchun yig'imlar, to'lovlar.

**Davlat xaridi** – yashirin savdo siyosatining bir usuli. Bunda davlat organlari va korxonalaridan ma'lum bir tovarlarni faqat mahalliy ishlab chiqaruvchilardangina sotib olish talab qilinadi (import tovaridan qimmat bo'lsa ham). Bu siyosat asosan milliy xavfsizlik maqsadida amalga oshiriladi.

**Mahalliy komponentlar bo'lishini talab qilish** – ichki bozorda sotiladigan tovarlarning kamida qancha qismi milliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan yaratilishi kerakligi qonun yo'li bilan belgilab qo'yishdir.

Savdo siyosatining moliyaviy usullari ham mavjud.

Eng keng tarqalgan moliyaviy usullar subsidiyalash, kreditlash va demping sanaladi. Agar hukumat milliy ishlab chiqaruvchilarning eksportini rag'batlantirmoqchi bo'lsa, ularga budjetdan har xil shaklda subsidiyalar berishi mumkin.

**Subsidiyalar xarakteriga ko'ra, bevosita va bilvositadir.**

**Bevosita subsidiyalar** – ma'lum bir miqdordagi pul summasi ko'rinishida eksportchiga dotatsiya berishdir.

**Bilvosita subsidiyalar** – eksportchilarga soliq imtiyozlari, sug'urta imtiyozlari, bozor stavkasidan past stavkada zayom berish, import to'lovni qoplash kabi usullar bilan amalga oshiriladi.

**Demping** – savdo siyosatining moliyaviy shakli. U tashqi bozorga chiqariladigan tovarlarni ichki bozordagi mavjud me'yoriy baholardan past bahoda sotish bilan amalga oshiriladi. Demping yangi bozorlarni o'zlashtirish, bozordagi ulushni oshirish maqsadida yoki ishlab chiqarilgan tovarlar ko'p to'planib qolgan sharoitda qo'llaniladi.

Iqtisodiy integratsiyaning obyektiv xususiyatlari (xarakteri) davlat va davlatlararo tashkilotlar tomonidan milliy iqtisodiyot chetdan stixiyali tarzda boshqariladi, degan ma'noni anglatmaydi. Hududiy integratsion komplekslarni shakllantirish shartnomali-huquqiy bazaga ega. Qator mamlakatlar guruhi o'zaro kelishgan holda mintaqaviy davlatlararo kompleksga birlashadilar hamda o'zaro hamkorlikda ijtimoiy-siyosiy va

xo'jalik hayotida teng ravishda hududiy siyosat yuritadilar. Jumladan, G'arbiy Yevropada EH va EAST (EAFT) – European Association of Free Trade. Shimoliy Amerikada – NAFTA. (NAFTA) – North American Free Trade Agreement. Osiyo – Tinch okean hududida – Tinch okean hamjamiyati mavjuddir.

Tarixan ancha barqarorlashgan integrasion jarayonlar G'arbiy Evropada yuzaga kelgan, XX asrning ikkinchi yarmida butun bir hududda yagona xo'jalik makoni tashkil etildiki, uning doirasida qayta tiklanishning umumiy shart-sharoitlari shakllandi va uni boshqarish mexanizmi yaratildi. Bu yerda integrasiya ancha yetuk shaklga yetdi.

G'arbiy Yevropa integratsiyasi mexanizmining muhim qismlaridan biri – tuzilmali, tarmoqli va regional siyosatni birlashib o'tkazishdir. Shuni aytish kerakki, milliy boshqarish uncha raqobatga bardoshli bo'lmagan tarmoqlarda va qoloq hududlarda ishlatiladi.

Hozirgi zamon agrar siyosatini o'tkazishda katta yutuqlarga erishilgan. Uning mablag' bilan ta'minlanishi sobiq ittifoq budjetida yirik chiqim moddasi bilan belgilangan. Umumiy agrar siyosat negizida ichki va eksport narxlarini subsidiyalash yotadi. Natijada Yevropa Hamjamiyati AQSHdan keyin ikkinchi bo'lib, jahon qishloq xo'jaligi eksportchiga aylandi.

Yevropa Hamjamiyati (EH)ning agrar bozori baland bojxona to'siqlari bilan to'silganki, ular resurslari oshib-toshib ketgan jahon agrar bozoridan mollarning o'tishiga yo'l qo'ymaydilar. Bu tizim qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining daromadi barqarorligini ta'minlaydi, ularni iqtisodiyotning boshqa sohalari ishchilariga mos ijtimoiy kafolatlaydi. Kelajakda EH birlashgan qishloq xo'jaligi siyosatining bosh yo'nalishi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining jahon miqyosidagi sharoitga moslashuvi, samarali siyosat o'tkazish yo'li bilan raqobatsiz xo'jaliklarni bartaraf etish va ular o'miga imkoniyatga qarab bandlikni ta'minlashdir.

EH rivojlanishining boshlang'ich davrida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari sohasida hamkorlikdagi harakat bilan ko'mir, metallurgiya sanoati va yadro energetikasining rivojlanishiga katta e'tibor qaratildi. O'tgan asrning 80-yillari boshida ilmiy-texnik faoliyatni muvofiqlashtirish kuchaydi.

“Romli” kompleks dasturining qabul qilinishi (1984-1987-yillar) bu boradagi dastlabki qadam edi. U EH fan-texnika faoliyatiga o'rtamiyona va tez rejalashtirish jarayonini kiritdi. Biroq dasturilamal bo'ladigan, yagona fan-texnika strategiyasi ishlab chiqilgan dastur ikkinchi dastur edi. Keyin uchinchi kompleks dasturi qabul qilindiki, u hozir amalga tatbiq etilmoqda. O'z navbatida, bu hujjatlar, avvalo, AQSH va Yaponiya tomonidan ilgari surilgan yangi texnologiya asosidagi raqobatbardosh sanoatni tarkib toptirish va kuchaytirish maqsadida tuzildi.

Yevropa Hamjamiyatining hozirgi davrdagi ilmiy-texnika siyosati bosh maqsadlari quyidagilardir:

- mamlakatlar o'rtasidagi aloqalar, fan va sanoat o'rtasida muvofiqlik hamda hamkorlikni o'rnatish;
- ko'pchilik kompaniyalarda o'rta darajadagi kadrlar hamda mablag'lar yetishmasligini hisobga olib, ular tomonidan amalga oshiriladigan ilmiy-texnika taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlarga yordam berish.

1985-yildan o'z faoliyatini boshlagan yirik miqyosdagi mustaqil, ko'p maqsadli Yevropa mamlakatining hamkorlik dasturi – "Evrika" katta ahamiyatga ega bo'ldi va u boshqa mamlakatlarning firmalari uchun ham ochildi.

Yevropa Hamjamiyatining rivojlanishida 1987-yil 1-iyulda kuchga kirgan va EHning barcha a'zolari tomonidan ma'qullanib, rasmiylashtirilgan Yagona Yevropa qaydnomasi (akti) muhim voqea bo'ldi. Mazkur hujjat asosida EHning vujudga kelishi to'g'risidagi shartnomaga jiddiy o'zgartirishlar kiritildi va yuridik jihatdan mustahkamlandi.

Birinchidan, EHning iqtisodiy integratsiya sohasidagi faoliyati Yevropa siyosiy hamkorligi bilan birlashib, yagona jarayonga aylandi. Yevropa Ittifoqini tuzish maqsadi, o'z navbatida, unga a'zo bo'lgan qatnashchilarning faqatgina iqtisodiy, valyutali-moliyaviy, gumanitar munosabatlari darajasini shakllantirib qolmasdan, balki xavfsizlikni ta'minlash borasidagi tashqi siyosatni ham qo'llab-quvvatlashni nazarda tutar edi.

Ikkinchidan, Yagona Yevropa qaydnomasida (aktida) EH miqyosida "tovar, kapital, xizmat va fuqarolarning erkin harakatini ta'minlovchi chegarasiz makon" bo'lgan ichki bozorni yaratish vazifasi qo'yilgan ediki, bunga erishildi. Amalda mavjud bo'lgan EH mamlakatlarining umumiy bozori o'zaro savdo-sotiqdagi barcha to'siqlarni bartaraf etishni, faqatgina milliy-iqtisodiy hududlarda tovarlarning keng miqyosdagi erkin harakatini ko'zda tutadi.

"Yagona bozor" g'oyasini amalga oshirish uchun EH komissiyasi taxminan 300 ta dastur ishlab chiqdi. Bu dasturlarda Yevropa Hamjamiyati mamlakatlari o'rtasida savdo-iqtisodiyotni ayirboshlashdagi to'siqlarni olib tashlash maqsadlari ilgari surildi. O'tgan asrning 90-yillari o'rtalariga kelib, bu to'siqlar asosan bartaraf etildi. 1991-yilning dekabrda va 1992-yilning fevralida iqtisodiy hamda valyutali Ittifoq (Maastrixt bitimi) tuzish shartnomasiga imzo cheqildi. Natijada XX asrning oxiriga kelib, Yevropa Hamjamiyati mamlakatlarida yagona pul birligi (EkYU) hamda valyutali va pul-kredit siyosatini shakllantirish markazi – AQSH Federal zaxirasi tizimi tipidagi Markaziy bank va Markaziy banklar Yevropa tizimi barpo etish mo'ljallanmoqda. Yagona Yevropa qaydnomasini amalga oshirish, o'z navbatida, Yevropa Ittifoqi tuzilmasini yaratishga imkon berdi.

EHdan tashqari Yevropada yana bir tashkilot – Yevropa erkin savdo uyushmasi (EESU) mavjuddir. Bu uyushma 1960-yilda Stokgolmda imzolangan tegishli konvensiya asosida yuzaga keldi. Hozirgi vaqtda EESUga Avstraliya, Finlandiya, Islandiya, Norvegiya, Shvetsiya va Shveysariya mamlakatlari a'zodir. EESU shartnomasi Shveysariya bojxona ittifoqi bilan kelishilgan holda Lixtenshteynga tarqatiladi.

EESU erkin savdo makonini yaratishga asoslangan. Binobarin, EESU doirasida erkin, boj solig'isiz tovar ayirboshlash tartibi sanoat mollariga aloqador bo'lib, qishloq xo'jaligi mahsulotlari bundan mustasnodir. EHdan farqli ravishda, EESUga a'zo bo'lgan har bir mamlakat tashqi savdo avtonomiyasiga hamda uchinchi mamlakat bilan savdo-sotiq olib borishda boj solig'i o'rnatish huquqiga ega. Bu mamlakatlarda yagona bojxona bahosiga amal qilinmaydi.

EESUga a'zo bo'lgan mamlakatlarning barchasini birlashtirgan maxsus kengash milliy tashkilot hisoblanmaydi, u faqat umumiy ovoz berish yo'li bilangina qarorlar qabul qila oladi.

Yevropada ikki xildagi integratsion guruhlarini birlashtiruvchi mazkur tashkilotlar o'zaro munosabatlarni rivojlantirishga monelik qilmaydi. Ular o'rtasida o'zaro hamkorlik va aloqalar o'rnatish g'oyalari (tendensiyalari) o'tgan asrning 70-yillaridayoq vujudga kelgan edi. 1977-yilga kelib, EH va EESUga a'zo mamlakatlar o'rtasida sanoat mollarining erkin savdo-sotig'i yo'lga qo'yildi. Bunda bojxona soliqlari bekor qilindi hamda o'zaro savdodagi tarifsiz chegaralar qisqardi.

1991-yilda mazkur mamlakatlar o'rtasida yagona Yevropa iqtisodiy makonini saqlash haqida bitim imzolandi. Ana shu bitimga ko'ra, EESUga a'zo bo'lgan mamlakatlar 1993-yildan boshlab o'z qonunlariga yuzlab qaydnomalarni kiritdilar. Bu hujjatlarda tovarlar, kapitallar, xizmatlarning erkin harakati, shuningdek, raqobat sohasidagi siyosat joriy etildi. 2000-yillarga kelib, yagona valyuta (EkYU) joriy etish, tashqi siyosatni barqarorlashtirish, Yevroparlamentning rolini oshirish, yagona fuqarolik huquqini berish, xavfsizlikni ta'minlash sohasida hamkorlik o'rnatish kabi tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilmoqda. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorlarini birlashtirish (integratsiyalash) rejalashtirilmagan.

1995-yilda EH roziligi bilan Avstriya, Norvegiya, Shvetsiya va Finlyandiya unga a'zo bo'ldilar (Buyuk Britaniya, Daniya, Portugaliya mamlakatlari o'tgan asrning 70-yillaridayoq EHga a'zo bo'lib kirgan edi).

Boshqa mamlakatlarning EHga a'zo bo'lish siyosatida Sharqiy Yevropaga mamlakatlariga hamon yon bosilmoqda. 1991-yilda bu mamlakatlar bilan EH o'rtasida uyushma (assotsiatsiya) tuzish haqida bitim imzolangan edi.

Sharqiy Yevropa mamlakatlari G'arbiy Yevropa integratsion jarayoniga qo'shilishlari mumkinmi? Hozircha bu borada iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlarga yalpi tarzda zarurat yo'q. Bu yerda bozor tamoyillariga tayangan holda, G'arbiy Yevropa mamlakatlari bilan hamkorlikdagi iqtisodiyot tizimi yaratilmoqda. Shuningdek, xususiylashtirish, barqarorlashgan narxlarni joriy etish, bank tizimini shakllantirish, qisman konventatsiyalangan valyutalarni kiritish jarayonlari bormoqda. Chuqur iqtisodiy tanazzul ro'y berayotgan davrda islohotlarni amalga oshirish qiyin kechmoqda.

MDH mamlakatlariga kelganda esa, ularning munosabatlari o'zaro aloqalar o'rnatish haqida odatdagi bitimlar tuzish bilan cheklanmoqda. Bu mamlakatlarning EHga yaqinlashish jarayoni shoshilinch ham, oson ham emas. Chunki aksariyat sobiq Sho'ro respublikalari G'arbiy Yevropa bilan emas, bir-birlari bilan munosabat o'rnatishga majburdirlar.

Hozirgi davrda MDH mamlakatlari o'rtasida Bojxona Ittifoqi tuzilmoqda. Chunonchi, 1997-yilda Rossiya, Belarus, Qozog'iston va Qirg'iziston o'rtasida bojxona Ittifoqi tuzildi.

**Yevropa Hamjamiyati -- jahon iqtisodiyotiga integratsiyada yetuk integratsion guruh.** 1993-yil 1-noyabrgacha rasmiy ravishda yetakchi G'arbiy Yevropa mamlakatlarning birlashgan guruhi Yevropa Hamjamiyati deb atalardi. Chunki u 1967-yildan so'ng mustaqil bo'lgan uch mintaqaviy tashkilot organlarining birlashishidan paydo bo'lgan:

**Yevropa Ko'mir va Po'lat Birlashmasi** – EOUS (ECSC): mavjud bitim 1952 yilda kuchga kirgan;

**Yevropa Iqtisodiy Uyushmasi** – EAS (EEC): Yevropa uyushmasini tashkil qilish bitimi Rimda 1957-yilda qabul qilingan va 1958-yili kuchga kirgan;

**Yevropa Atom Energiyasi bo'yicha uyushma** – Yevroatom (EVRATOM): bitir 1958-yilda kuchga kirgan.

U rasman boshqacharoq ham atalar edi: Yevropa Hamjamiyati (EH) yoki faqat Hamjamiyat.

1993-yil 1-noyabrda Maastrich bitimi kuchga kirgandan keyin, bu guruhning nomi rasmiy ravishda Yevropa Ittifoqi bo'ldi:

Yevropa Erkin Savdo Assotsiatsiyasi (Uyushmasi) – Yevropean security & Trade.

«Erkin savdo to'g'risidagi Shimoliy Amerika bitimi». North American of free Trade.

European Economic Community.

Yevropa Hamjamiyati doirasidagi birlashmaning rivojlanishida bir qator bosqichlar bo'lib o'tdi, faqat ular quyi shakldan o'tib, chuqurlashib bordi (erkin savd hududi, Bojxona Ittifoqi, umumiy bozor), yuqoriga – iqtisodiy va valyuta birligig o'tishi bilan a'zolar soni ko'payishiga ham olib keldi.

Hozirgi vaqtda Yevropa Hamjamiyatining negizini barpo etish jarayoni yagona bozor, davlatlararo boshqarish tizimi amaliy yakunlandi va mamlakatlarning iqtisodiy valyuta va siyosiy birligi shakllanishi yakunida ular bevosita yaqinlashdilar.

Yevropa Hamjamiyatiga to'liq huquqqa ega bo'lgan 12 mamlakat kiradi: Belgiya, Buyuk Britaniya, Albaniya, Gretsiya, Daniya, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Portugaliya, Fransiya.

Yevropa Hamjamiyati mexanizmining harakati, avvalambor, siyosiy-huquqiy boshqarish tizimiga asoslanadi. Ular umumiy, milliy yoki mamlakatlararo organlarda hamda milliy davlat boshqaruvidan iborat.

Yevropa Hamjamiyatining asosiy hokimiyat tuzilishini izohlab beramiz. Vazirlar Mahkamasi (kengashi) uning qonuniy organi bo'lib, boshqaruv tizimida asosiy rol o'ynaydi. Unga yuqori darajadagi malaka bilan qabul qilinadi (amalda esa teng ovoz olishga harakat qilinadi).

Yevropa kengashi (Yevrosovet) yuqori organ bo'lib, uning tarkibiga davlatlarning rahbarlari va Yevropa Uyushmasiga a'zo bo'lgan mamlakatlarning hukumat boshliqlari kiradi. Bu yerda prinsipial masalalar muhokama etiladi hamda qarorlar qabul qilinadi.

Yevropa Hamjamiyatining komissiyasi (EHK) – ijro etuvchi organ. U Vazirlar Mahkamasiga qonunlar loyihasini tasdiqlash uchun tavsiya etish huquqiga ega. Uning faoliyati juda keng va rang-barangdir.

Masalan, komissiya bojxona tarkibiga rioya qilinishini, agrar bozor faoliyatini soliq va bojxona siyosatini yuritish ishini nazorat qiladi va h.k.. U bir qator vazifalarni bajaradi, shu jumladan, ixtiyoridagi ijtimoiy mintaqaviy agrar fondlar asosida mablag' bilan ta'minlash vazifasini o'taydi.

Komissiya mustaqil ravishda uchinchi mamlakatlar bilan muzokaralar olib boradi, shuningdek, unga umumiy budjetni boshqarish huquqi berilgan. Faoliyatining

asosiy yo'nalishlaridan biri milliy qonunchilik, standart va me'yorlarni tartibga keltirishdir.

Yevropa Parlamenti (Yevroparlament) – nazoratchi organ. Komissiya faoliyatini nazorat qiladi va budjetni tasdiqlaydi. Vazirlar Mahkamasi va Yevropa Hamjamiyati komissiyasining faoliyati o'zaro bog'liqdir.

Yevropa Hamjamiyati sudi – yuqori organ. U bitimlarning bajarilishini va Yevropa Hamjamiyati asosiy prinsiplarining amalga oshirishini ta'minlaydi.

Bulardan tashqari, boshqa boshqaruv va konsultativ organlar, yana turli yordamchi tashkilotlar – turli qo'mitalar, komissiyalar, yordamchi komissiyalar, moliyani tartibga solish fondlari mavjud.

Yevropa Hamjamiyati boshqaruv huquqida eng yuqori o'rinni EHni tuzish va kengaytirish to'g'risidagi xalqaro bitim, shuningdek, Hamjamiyat faoliyatini yuritishga oid boshqa bitimlar egallaydi.

Bu dastlabki qonunchilik EH konstitutsiyasini tashkil etadi.

Ikkinchi qonunchilik reglamentlari, direktivalar (ko'rsatmalar), qarorlar, tavsiyalar va mulohazalar tarzida taqdim qilingan.

Reglamentlar (ish tartibi) o'z statusiga ko'ra, EHga a'zo bo'lgan mamlakatlarning milliy qonunchiligidan ustun turadi va har qaysi mamlakat hududida qonun kuchini egallaydi.

Direktivalar qonunlashtirilgan hujjat bo'lib, ular umumiy qoidalarni belgilaydi va EHga a'zo bo'lgan mamlakatlarning maxsus qarorlari aniqlashtiriladi.

Qarorlar tub mohiyati bilan individual-tarzda bo'ladi. Ular shaklan majburiy kuchga ega bo'lmasa-da, ma'lum darajada huquqiy ahamiyatga ega.

Tavsiyalar va mulohazalar ijro etish uchun majburiy emas.

G'arbiy Yevropa iqtisodiyotini birlashtirish jarayonida huquq markazdan uzoqlashish g'oyalari ta'sir etishda faol rol o'ynaydi. EH doirasida yagona huquqiy maydon yuzaga keltirilgan.

Tashqi savdo, agrar siyosat sohasida, tijorat va fuqarolik huquqi (raqobat erkinligi, monopoliya va shartnoma), soliq huquqlarida (soliq tizimining daromadga yaqinlashuvi, mablag'ning aylanib turishiga qarab soliq rejasini belgilash, EH mablag'iga bevosita badallar tushumi) Yevropa qonunchilik hujjatlari milliy qonunlarni almashtira oladi.

Biroq tashqi bosqichda, tashqi iqtisodiy siyosatda milliy hukumat quyidagi imkoniyatlarga ega:

- uchinchi bir mamlakatning mollariga import ulushini kiritish;

- birinchi navbatda, to'qimachilik va elektron mahsulotlar tannarxi ancha arzon bo'lgan mamlakatlar (masalan, Yaponiya, Janubiy Koreya) bilan «ixtiyoriy cheklangan eksport» shartnomalari tuzish;

- sobiq mustamlaka mamlakatlar bilan alohida savdo munosabatlarini saqlab qolish.

Yevropa Hamjamiyatining komissiyasi yagona bozor manfaatlarini himoya qilishga harakat qiladi. Qandaydir milliy me'oriy aktlari EH huquqiga zid bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi. Yana bir xususiyati, subyektlar tizimi faqat EH davlatlari – a'zolari bo'libgina qolmay, ularning fuqarolari hamdir.

Yevropa Ittifoqi unga a'zo bo'lgan mamlakatlarning mablag'laridan (budjetlaridan) xoli ravishda o'zining mustaqil moliyaviy vositalariga ega. EH mablag'larining hajmi bu Hamjamiyatning kengashi va Parlamenti tomonidan aniqlanadi va tasdiqlanadi.

Moliyaviy faoliyatda Hisob Palatasi muhim rol o'ynaydi. U umumiy moliya boshqaruvini amalga oshiradi. EH institutlarining (masalan, agrar yo'nalish va kafolatlanish Yevropa Fondi, mintaqaviy rivojlanish Yevropa Fondi, Yevropa Ijtimoiy Fondi) turli xildagi jamg'armalar va mablag'lari sarf-xarajatlari ustidan nazorat o'rnatadi. Mazkur fondlar hisobidan EH siyosiy tuzumining turlicha yo'nalishlari: agrar, ijtimoiy, mintaqaviy siyosat, energetika va shu kabilar tegishli mablag'lar bilan ta'minlanadi. Yevropa investitsion banki avtanom tashkilot sifatida EH ning kapital jamg'armasini qoplaydi, ular hisobidan esa mintaqaviy dasturlarga, energetikani rivojlantirishga, infratuzilmalarga uzoq muddatli qarzlarni berish va kafolatlash shartlari bilan tegishli mablag'lar ajratiladi.

EH budjetining daromad qismi:

- birinchidan, xususiy mablag'lardan tashkil topadi. Ular chetdan keltiriladigan mollarga belgilangan to'lovlar, mamlakatdan tashqi bozorga chiqariladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining farq qiluvchi baholarini qoplashdan ortib qoladigan mablag'lar, umumtarif bo'yicha bojxona soliqlari (EOUS to'lovlari: soliq hisobidan qo'shimcha kiritilgan narxlar va boshqa mablag'larning bir qismi bundan istasno) kabilardan iborat;

- ikkinchidan, EH daromadiga bu Hamjamiyatga a'zo bo'lgan davlatlardan budjetga 1,2-1,3 foiz miqdorida mablag' ajratiladi. EH budjetining sarf-xarajatlari kelganda esa, keyingi yillarda ular taxminan quyidagicha taqsimlanadi (foiz hisobida):

Ma'muriy xo'jalik	4,5
Siyosiy tadbirlar	-
Yagona qishloq xo'jaligi	66,5
Mintaqaviylik	7,5
Ijtimoiy sohalar	6,6
Energetika	0,3
Sanoat	0,1
Fan-texnika	0,3
Atrof-muhitni muhofaza qilish va axborotlar	0,08
Rivojlanayotgan mamlakatlarga «yordam»	2,1
EH davlatlariga ajratiladigan qoplama to'lovlar	8,4

**Yevropa Valyuta Ittifoqi.** Yevropa Valyuta Ittifoqining shakllanishida uning bosqichlari hamda Yagona Valyutaga o'tish tartibi, shuningdek, "Yevropa zona"ga kirish uchun "konvertatsiya shartlari" to'g'risida chuqurroq to'xtalib o'tish talab etiladi.



**Yevropa Valyuta Ittifoqi shakllanishining birinchi bosqichi** 1990-yil 1-iyuldan 1993-yil 31-dekabr gacha davom etdi va hozirda to'liq yakunlangan. Uning doirasida Yevropa Ittifoqi haqidagi Maastrixt shartnomasidagi bandlar ro'yogga chiqishi uchun zarur bo'lgan tayyorgarlik ishlari olib borildi. Xususan, Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar va Yevropa Ittifoqi hamda uchinchi davlatlar o'rtasida kapital migratsiyasi yo'lidagi barcha to'siqlar olib tashlandi. Yevropa Ittifoqi ichidagi davlatlardagi iqtisodiy ko'rsatkichlarni bir-biriga yaqinlashtirishga katta e'tibor berildi va a'zo davlatlar bir necha yilga mo'ljallangan shu maqsaddagi shartnomalarni imzolashdi. Ularda antiinflyatsion, budjet siyosatining muayyan maqsadlari va ko'rsatkichlari ko'rsatildi. Yevroni kiritishga tayyorgarlik sifatida bu dasturlar Yevropa Ittifoqining iqtisodiy va moliyaviy masalalar bo'yicha kengashi (EkOFIN)ga taqdim etilib va Maastrixt shartnomasida ko'rsatib o'tilgan, inflyatsiyaning past sur'atlarini davlat moliyasini sog'lomlashtirishga va a'zo davlatlar valyutalari o'rtasidagi almashinuv barqarorligini saqlab qolishga qaratilgan edi.

Yevropa Valyuta Ittifoqini shakllantirishning **ikkinchi bosqichi** 1994-yil 1-yanvaridan boshlanib, 1998-yil 31-dekabrda tugadi. U a'zo davlatlar yevroning kiritilishiga yanada muayyan va chuqurroq tayyorgarlik ko'rishiga mo'ljallandi. Uning asosiy tashkiliy voqeasi Yevropa Markaziy Bankining avvalgisi sifatida Yevropa Valyuta instituti tuzilmasi bo'ldi. Asosiy vazifasi esa yevro kiritilishining 3-bosqichidan Yevropa Markaziy Banki o'z funksiyalarini bajara olishi uchun zarur bo'lgan huquqiy, tashkiliy, moddiy-texnik shart-sharoitlarni shakllantirish edi. U bundan tashqari, EVI tuzilishi jarayonida Yevropa Ittifoqining a'zo davlatlari olib boradigan milliy pul siyosatlari muvofiqlashuvining kuchayishiga javob berar va shu doirada davlatlar Milliy banklariga tavsiyanomalar bera olar edi.

Bu bosqichning boshqa asosiy voqealari quyidagilar hisoblanadi:

- Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar ichida davlat sektoridagi korxonalar va tashkilotlarni Markaziy banklar tomonidan kreditlash orqali moliyalashni va Markaziy banklar davlat qarzlarni sotib olishini ta'qiqlovchi qonunchilikning qabul etilishi. Bu ta'qiq 3-bosqichda EMBga ham tarqatildi;

- davlat sektori korxonalarini moliyaviy institutlar mablag'idan imtiyozli foydalanishini taqiqlovchi qonun qabul etilishi. Bu 3-bosqichda EMB ga ham tarqatildi;

- biron a'zo davlatning davlat sektorlari qarzlarni boshqa a'zo davlat va EVI sotib olishini ta'qiqlash;

- barcha a'zo davlatlar budjet defitsiti haddan tashqari oshib ketmasligiga hamma kuchlarni safarbar etishlariga qat'iy talab (YAIM ning 3 % defitsit, ya'ni YAIM 60 % gacha davlat qarzi). Bu EI kengashi tomonidan nazorat prosedurasiga kiritildi va bunaqa defitsit bo'lgan taqdirda sog'lomlashtiruvchi chora-tadbirlar haqida takliflar kiritish bilan mustahkamlandi;

- sharoiti bor davlatlarda milliy Markaziy banklar ustav mustaqilligini ta'minlovchi milliy qonunchilikning qabul etilishi va bu bilan ularning huquqiy statusini EMB bilan tenglashtirish.

Nihoyat, 1998-yil 2-mayda davlat boshliqlari va hukumat raislaridan iborat EI kengashi sessiyasida ko'pchilik ovoz bilan EVI shakllanishining 3-bosqichida qaysi davlatlar Yevroga o'tishi belgilandi. Bu qaror EkOFIN tavsiyasi bilan qabul etildi. Tavsiya esa Maastrixt shartnomasi bo'lib, bunga tegishli protokol bilan o'rnatilgan

yevroga o'tishda bajarilishi lozim bo'lgan davlat moliyasini stabilashtirish bo'yicha "o'tish" mezonlaridan kelib chiqqan. Bu mavzuda Yevroparlament bilan konsultatsiyalar o'tkazildi va tegishli xulosalar EI kengashiga yuborildi. 3-bosqichdar yevroga o'ta olmaydigan davlatlar ayrim shartlarni vaqtincha bajarmaslik huquqini oldi.

#### **Uchinchi bosqich va yagona valyutaga o'tish tartibi.**

Uchinchi bosqich 1999-yil 1-yanvardan boshlandi. Shundan boshlab yevroning milliy valyutalarga nisbatan qat'iy almashuv kurslari o'rnatildi, yevro esa ularning umumiy valyutasi bo'lib qoldi. U EkYU ni 1:1 nisbatda almashtirdi. Yevropa Markaziy banklari tizimi o'z ishini boshladi, EMV esa a'zo-davlatlar uchun pul siyosatini olib borish maqsadida yevrodan foydalanishga o'tdi.

EMVT yevroni xalqaro valyuta bozorlariga sig'ira boshladi. Uning ushbu bozorlardagi operatsiyalarini o'tkazish va hisobga olishda yevrodan foydalanila boshlandi. Pul siyosati mexanizmlari orqali tijorat banklari va yirik korxonalar o'z operatsiyalarini yevroga o'tkazishni rag'batlantiradi. A'zo davlatlar obligatsiyalari yevroda hisoblanadi. Xullas, yirik operatsiyalar yevroda o'tkazila boshlangan bu bosqichda yevro a'zo davlatlarning asosiy pul birligi bo'lib qolishi kerak.

Yevro banknotlari va tangalari 2002-yil 1-yanvardan muomalaga chiqarildi va milliy valyutalarni muomaladan chiqarish jarayoni boshlandi. Bu bosqich 2002-yil 1-iyuligacha davom ettirilib, yevroni yagona qonuniy to'lov va muomala vositasiga aylantirdi.

To'rtinchidan, "Yevro zonasi"da qatnashish uchun "konvertatsiya kriteriyalari" EI doirasida iqtisodiy va Valyuta Ittifoqi samarali faoliyat olib borishi uchun a'zo davlatlar barqaror konvertatsiyaning yuqori darajasiga erishishi zarur. Shu maqsadda yagona valyutaga o'tishdan manfaatdor davlatlar uchun Maastrixt shartnomasida va 6-protokolda ko'zda tutilgan barcha «konvertatsiya kriteriyalari»ga rioya etish talab qilinadi. Bular quyidagilardir:

- baholar barqarorligining yuqori darajasiga erishish;
- hukumatning barqaror moliyaviy holati;
- kurs tebranishining o'rnatilgan me'yorlariga rioya etish;
- "yaqinlashish" dinamikasi.

**Shimoliy Amerika mamlakatlari va Tinch okean Hamjamiyatining jahon iqtisodiyotiga integratsiya xususiyatlari.** Tashqi iqtisodiy faoliyatda Sent integratsion g'oyalari (tendensiyalari) faqatgina G'arbiy Yevropada rivojlanmadi. Shunga o'xshash jarayonlar Shimoliy Amerikada ham kuzatildi. Shimoliy Amerikaning barcha hududi erkin savdo (NAFTA) to'g'risidagi Shimoliy Amerika bitimlari bilan qamralgan edi. Binobarin, davlatlar miqyosidagi Amerika – Kanada erkin savdo bitimi faqat 1988-yilda tuzildi, Meksika esa unga 1992-yilda qo'shildi. Shimoliy Amerika iqtisodiyotining o'zaro hamkorlik va birlashganlik darajasi G'arbiy Yevropa iqtisodiyotidan qolishmaydi.

Uzoq vaqtlargacha integratsion loyihalar korporatsion tarmoqlar darajasida nufuzli oqimda bo'lib, davlatlararo (davlatlar ustidan) boshqaruv bilan bog'lanmagan edi.

Mazkur mamlakatlarning savdo-sotiq sohasidagi o'zaro aloqalari, kapitallari harakati va ishlab chiqarishdagi hamkorligi haqida quyidagi ma'lumotlar asosida xulosa chiqarish mumkin:

1990-yillarning boshlarida AQSHga Kanadaning 75-80 % (yoki Kanadaning YAMM 20 %) eksporti safarbar etildi. AQSH uchun Kanada bozori chet elda yuqori o'rinda turadi. Bevosita xorijiy sarmoyalar ulushi Amerikada Kanadaga nisbatan 75 %ni, Kanadaning Amerikaga nisbatan ulushi esa 9 %ni tashkil etadi. Meksika davlati uchun AQSH bilan iqtisodiy aloqa o'rnatish hayotiy zaruratdir.

1990-yillarning boshlarida AQSHga Meksikaning 70 % eksporti yuborildi, u yerdan esa 65 % Meksika importi kelib tushdi. Ayni vaqtda Meksika va Kanada o'rtasida aloqalar taboro rivojlanib, savdo-sotiq, moliya va boshqa sohalarda o'zaro hamkorlik kuchaydi.

Savdo erkinligi to'g'risidagi bitim o'zaro savdo-sotiq va kapital jamg'armalarni yengillashtiradigan tadbirlar o'tkazish borasida tarifi va notarifi cheklanmalarni asta-sekin bartaraf eta boradi. Bundan tashqari, mazkur bitim orqali savdo-sotiqni boshqarishda uning qatnashchilari o'rtasida yuzaga keladigan ziddiyatlarni bartaraf etish mo'ljallangan.

**Tinch okean hamjamiyati** Yaponiya, AQSH, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya kabi rivojlangan mamlakatlarni hamda Sharqiy va Osiyodagi Janubi-sharqiy hududda joylashgan ko'pgina mamlakatlarni (shu jumladan, ASEAN mintaqaviy guruhidagi ishtirokchilarni), shuningdek, Xitoy va Okeaniyani birlashtiradi.

Tinch okean hamjamiyati mintaqaviy guruhni rasmiylashtiruvchi sifatida endigina barqarorlashmoqda. Shu sababli unda o'zaro hamkorlik sxemasini yaratish uchun samarali izlanishlar olib borilmoqda, mintaqaviy guruh esa turli bloklardan tashkil topgan. Chunonchi, u Indoneziya, Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi, Malayziya, Flippin, Singapur, Tayland, Bruney davlatlarini birlashtirgan.

ASEAN 1967-yilda qaror topdi, faqat 1992-yilda uning qatnashchilari yaqin 15 yil mobaynida asta-sekin mahsulotlar tannarxini bosqichma-bosqich kamaytira borishga erishiladigan mintaqaviy savdo erkinligi hududini yaratishni o'z oldilariga vazifa qilib qo'ydilar. ASEAN mamlakatlarining xo'jalik sohasida bir-biriga yaqinlashuvi masalasiga kelganda, ularning iqtisodiyotini o'zaro to'ldirib borish, ichki mintaqaviy savdo-sotiqni tashkil etish borasidagi faoliyat jarayonlari hali keng ravishda rivojlanish yo'liga o'tganicha yo'q.

Haqiqatan ham, ASEAN mamlakatlarining har biri Yaponiya, AQSH hamda Osiyoning yangi sanoat mamlakatlari (Gongkong, Janubiy Koreya, Tayvand) iqtisodiyoti bilan to'liq bog'langan.

Osiyo-Tinch okean savdosining asosiy qismi (shu jumladan, ASEAN ichida) Yaponiya, AQSH, Kanada, Tayvand va Janubiy Koreya korporatsiyalarining joylardagi mahalliy filiallari o'rtasidagi tijoratga to'g'ri keladi. Xitoyning bu boradagi hisob-kitobi, ayniqsa, Konfutsiy madaniyatiga uyg'unlashgan mamlakatlarga qaratilganidir. Yaponiya – AQSH, Kanada, Avstraliya o'zaro aloqalari muhim ahamiyatga ega.

Shimoliy Amerika va Osiyo – Tinch okean birlashmalarining modeli G'arbiy Yevropanikidan farqlanadi. Agar G'arbiy Yevropada iqtisodiy, valyutali siyosiy hamjihatlikka, milliy tuzilmalarni shakllantirish va mustahkamlashga asoslangan yagona bozorni yaratish yo'lidan borilgan bo'lsa, Shimoliy Amerika va Osiyo – Tinch okean mintaqasida birlashish jarayonlari transnatsional korporatsiyalar faoliyati asosida anchagina mustahkam mikrodarajani qamraydi.

## 22.2. O'zbekistonning jahon xo'jalik tizimidagi integratsiyasi

O'zbekistonning ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan o'z bozor iqtisodiyoti modelida tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish va mustahkamlash, respublikaning jahon xo'jalik aloqalariga birlashish yo'llarini belgilash, ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining rivojlanishi va respublika integratsiyasi yo'nalishlarining jahon xo'jalik aloqalarida mustahkamlanishi asosiy o'rin egallaydi.

«Ochiq» turdagi iqtisodiyotning shakllanishi sharoitida rivojlangan tashqi iqtisodiy aloqalar tizimida bo'lgan har bir davlatning xalqaro mehnat taqsimotida o'z o'rniga, dunyo xo'jalik tizimida o'z «javaniga» ega bo'lishi muhimdir. Chunki faqat o'z kuchiga ishonish davri o'tmishda qolmoqda. Bunday kurs pirovard natijada milliy va ijtimoiy rivojlanish tormoziga aylanadi, resurslarni noratsional ishlatadigan aloqalar bozor iqtisodiyotiga o'tish harakatini qiyinlashtiradi.

Hatto, katta hududga, ko'p millionli aholiga, xilma-xil resurslarga ega bo'lgan mamlakatni bugungi kunda boshqa mamlakatlar bilan doimiy va keng iqtisodiy aloqalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi ham bundan mustasno emas. Davlat o'z suverenligiga ega bo'lgan paytdan boshlab, o'zi tanlagan tashqi iqtisodiy siyosatni mustaqil xalqaro huquqiy subyekt sifatida olib bormoqda. Bu siyosatning asosiy maqsadi O'zbekistonda haqiqiy ochiq iqtisodiyotni va jahon iqtisodiyoti tizimi integratsiyasini izchil ro'yobga chiqarishdir.

Respublikaning xalqaro hamkorlikda va jahon mehnat taqsimotida ishtirok etishi uning tabiiy-iqtisodiy, transport, geografik va madaniy-tarixiy merosiga xos bo'lgan imkoniyatlaridan kelib chiqadi.

O'zbekiston ulkan tabiiy resurslar potensialiga ega bo'lib, birinchi navbatda, mineral xomashyo resurslariga, iqtisodiy ishlab chiqarish va aholi potensialiga, geopotolik yondashish jihatidan faqat Yevroosiyo qit'asi emas, hozirgi kunda tiklanayotgan Buyuk Ipak yo'lida ham muhim strategik o'rin tutadi.

O'zbekistonning xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etishdagi rolini ham aynan shu pozitsiyalardan ko'rib chiqish zarur. O'zbekiston oltin ishlab chiqarish umumiy hajmi bo'yicha dunyoda sakkizinchi va uning aholi jon boshiga belgilangan ishlab chiqarishi bo'yicha beshinchi o'rinni egallaydi; respublikada oltin bor 30 ta qazilma topilgan bo'lib, hozircha ularning faqat o'ntasi ishga tushirilgan. O'zbekiston oltinining sifati jahon oliy standartlariga to'liq javob beradi, oxirgi 20 yil davomida reklamatiyalu olmagan, oxirgi yillarda uch marotaba xalqaro sifat mukofotlariga erishdi.

Muruntovdagi (Navoiy viloyati) oltin bor qazilmalarni (olinayotgan miqdori va sifati jihatidan) jahonning eng katta oltin konlari Klondayk (AQSH), Vitvaterrand (YUAR), Kolar (Hindiston)lar bilan bir qatarga qo'yish mumkin. Yuqori probali qimmatbaho metall bu yerda chorak asrdan beri qazib olinmoqda. Uni qazib olish arzon, ochiq yo'l bilan olib borilmoqda. Shunday qilib, davlat suvereniteti sharoitida respublika o'z oltiniga o'zi xo'jayin, jahon oltin bozorida teng huquqli hamkor bo'lishi mumkin. Lekin oxirgi paytda jahon bozorining oltin bilan o'ta to'yintirilishi tendensiyalari ro'yobga chiqishi munosabati bilan qimmatbaho metallning sifatiga talat ancha-muncha yuqori bo'ldi.

Masalan. 1991-vilda Jahon bankining ko'rsatkichlariga ko'ra, bu farq 220-320

mushkul bo'lib qoldi. Chunki sobiq ittifoq parchalanib, uning o'rnida yangi, mustaqil davlatlar tashkil topishi G'arb mamlakatlarini va Yaponiyani juda bezovta qilib qo'ydi. Binobarin, ular dunyoda eng katta oltin importchisi va iste'molchisi edilar. Shuning uchun jahon bozorida O'zbekiston oltinini sotishda g'oyatda omilkorlik zarur.

O'zbekistonda 370 ta kon ishlab turibdi. Ulardan har yili 200 mln. tonna turli mineral xomashyolar qazib olinadi. Yiliga 80 ming tonna mis ishlab chiqarayotgan O'zbekistonda ulkan zaxiralarga boy, yana ko'plab qo'rg'oshin, rux, volfram, litiy va boshqa noyob metallarning katta-katta konlari mavjud.

Respublika rivojlangan qudratli yoqilg'i-energetika bazasiga ega. Tabiiy gaz topilmalari taxminan 2 trillion kub, ko'mir 2 mlrd. tonnadan ortiq, neft 350 mln. tonnani tashkil qiladi. Oxirgi ikki yilda ochilgan yangi neft va gaz konlari nafaqat o'z ehtiyojlarimizni qondirishga, balki energiya beruvchilarning eksporti haqida ham gap yuritishga imkon beradi.

O'zbekiston neft konlaridagi qora oltinni qayta tayyorlash to'g'risida «Elfakiten» fransuz kompaniyasi bilan bitim tuzilgan.

O'zbekiston Markaziy Osiyo va MDHda asosiy paxta yetishtiruvchi va bu borada jahonda to'rtinchi o'rinda. Endilikda jahon va MDH davlatlari bilan asosiy hamkorlik yo'nalishlaridan – respublikada paxtani chuqurroq qayta ishlab, tashqi bozorga yakunlangan qimmatbaho mahsulot sifatida chiqarish mo'ljallangan.

Respublikada har yili 1,7 mln. tonna paxta tolasi tayyorlanadi. Buni jahonda chiqarilayotgan paxta bilan solishtirish mumkin: MDHda umumiy 2,75 mln. tonna, Xitoyda 4,2 mln. tonna, AQSHda 3,4 mln. tonna paxta ishlab chiqariladi. Ishlab chiqarish hajmiga ko'ra, O'zbekiston jahon paxta bozorida teng huquqli hamkor bo'lishi mumkin, lekin bizning paxtamiz sifati chet el paxtasi sifatidan ancha past. Uning sifatini yaxshilash uchun ancha-muncha ishlar olib borish va fursat darkor. Xuddi shunday vaziyat qorako'l terilari va ipak xomashyosi bo'yicha ham hukm surmoqda.

Meva va sabzavotlar yetishtirishda sobiq Ittifoq davrida O'zbekiston Respublikasi asosiy ta'minlovchi bo'lgan, Ittifoqda har yili yetishtiriladigan yalpi meva-sabzavotning 60 %ini yetkazib berishni o'z zimmasiga olgan edi. Bugungi kunda ham respublikada har yili 5 mln. tonnagacha meva va sabzavot yetishtiriladi, ularning ko'pi noyob ta'mga ega. O'zbekiston bu borada hamkorlikka tayyor. Respublikaning bu tarmoqqa bo'lgan asosiy e'tibori – mahsulotlarni qayta ishlash, saqlash, jo'natish; qadoqlash korxonalarini barpo etishga qaratilgan.

O'zbekiston o'zida va xorijda turizm, turizm sanoatini rivojlantirish uchun ham ko'pgina imkoniyatlarga ega. Uning hududida dunyo miqyosida tanilgan tarixiy va arxitektura markazlari – Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlari joylashgan. Bulardan tashqari 4000 dan ortiq - mahobatli me'morchilik obidalari bor. Ularning ko'plari YUNESKO himoyasida.

O'zbekistonning potensial imkoniyatlari kafolatli bo'lib, bir tomondan, bozor iqtisodiyoti islohotlashtirish, boshqa tomondan esa, sobiq ittifoq o'rnida shakllangan yangi iqtisodiy makon integratsiyasi, teng huquqli hamkorlik asosida xalqaro mehnat taqsimotida va jahon xo'jalik aloqalarida bab-baravar ishtirok etish hisoblanadi.

O'zbekistonda xalqaro bozorga chiqish yo'li va rivojlanish uchun ko'plab imkoniyatlar mavjud. Respublika tashqi iqtisodiy aloqalari intensivlashtirishining kelib chiqish shart-sharoitlari quyidagilardir:

– yer boyliklari, mineral xomashyo va o'simliklar resurslari, shuningdek, ajoyib tuproq-iqlim sharoitlari, qishloq xo'jaligini rivojlantirish hamda uning mahsulotlarini qayta tayyorlaydigan sanoat ishlab chiqarish kompleksi bazasini yaratish uchun cheksiz imkoniyatlar mavjudligi;

– milliy xalq xo'jaligi majmui infratuzilmasining yuzaga kelishi, respublikani jahon xo'jaligi aloqalariga keng miqyosda jalb eta oladigan yirik ilmiy potensial mavjudligi;

– eksport potensialining yuqori darajada ekanligi;

– tegishli kooperatsiya va hamkorlikdagi sarmoyalar yordamida raqobatbardosh mahsulotlarni yuqori darajada tayyorlay oladigan ishlab chiqarishni qisqa vaqt ichida yaratish potensialining mavjudligi;

– nisbatan olganda (jahon miqyosida baholaganda) arzon ishchi kuchiga ega bo'lish mumkinligi;

– xorijiy kapital sarmoyasi va o'zaro manfaatdorlik asosida hamkorlik o'rnatish uchun respublikada barqaror siyosiy muhitning yaratilganligi.

O'zbekistonning dunyo mamlakatlari bilan xalqaro savdo-iqtisodiy munosabatlari tarixi o'rta asrlardan boshlanadi. G'arb va Sharq o'rtasidagi savdo, katta bozor uchun kurash va mehnat resurslari hamma vaqt O'zbekistonning hozirgi hududiga daxldor bo'lgan.

Chunki uning geografik jihatdan savdo-iqtisodiy potentsiali ko'plab mamlakatlarni qiziqirtirgan.

Mustaqillikdan o'n yil oldingi O'zbekistonda asosan agrotexnika xomashyosi (paxta, ipak, qorako'l), mashinasozlik va asbobsozlik tarmoqlari uchun komplektlash mahsulotlari, oltin, uran ishlab chiqarish mo'ljallangan. Ikkinchi jahon urushi davrida ko'pgina zavodlar O'zbekistonga evakuatsiya qilingani tufayli respublikada konchilik, samolyotsozlik, traktorsozlik, elektrotexnika, kimyo, to'qimachilik, og'ir sanoat tarmoqlari paydo bo'ldi. Biroq texnik, texnologik va tarif standartlari O'zbekistondan tashqarida (asosan Rossiyada) ishlab chiqilardi, respublikada sanoatning rivojlanishi muayyan darajada tashqi qaramlikka bog'liq edi.

Mustaqillikka erishilgach, yagona iqtisodiy siyosatni o'tkazish va shakllantirish, taraqqiyot strategiyasini belgilash, ichki va tashqi bozorlarda umumdavlat manfaatlarini ta'minlash, iqtisodiy, fan-texnika, savdo, madaniy va sport sohalarida hamkorlik o'rnatish, turizmni rivojlantirish va boshqa aloqalarni samarali boshqaradigan Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi barpo etildi. 1992-yil 26-martda qabul qilingan hukumat qaroriga ko'ra, vazirlik davlat organi bo'lib, u O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalarini boshqarish, nazorat qilish, tartibga solish va muvofiqlashtirish ishlarini olib boradi.

Vazirlik O'zbekiston Respublikasini uning tashqarisida namoyish etadi; barcha tashqi iqtisodiy masalalar bo'yicha davlat manfaatlarini hamda O'zbekiston Respublikasining xalqaro bitimlaridan kelib chiqadigan majburiyatlarini mamlakat nomidan himoya qiladi. Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi o'z faoliyatida xalqaro huquqiy me'yorlarga, O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan tuzgar bitimlariga, qonunlariga va me'yoriy aktlariga amal qiladi.

O'z taraqqiyotidagi I bosqichning yakuniy davrida (1995-yilning oxiri) O'zbekiston davlat boshqaruvida, iqtisodiyotda, tashqi savdo aloqalarida hamda ishlat

chiqarish doirasida barqarorligi bilan ko'zga tashlandi. 1995-yilda MDH mamlakatlari orasida savdoda ijobiy saldo olgan ikki davlatning biri bo'ldi.

Oltin qazib olish, energetika, qurilish, to'qimachilik sanoati va neft ishlab chiqarish sohaslarida dastlabki sanoat investitsiyalarining loyihalari tugallandi. Hissadorlik asosida, shu jumladan, xorijiy kapitalning qatnashuvi bilan agrar hamda sanoat korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish uchun qonuniy va amaliy sharoitlar yaratildi.

EH iqtisodiy komissiyasi ko'rsatmalariga ko'ra, milliy mahsulotning salmog'i 1991-yildagiga nisbatan 1995-yilda O'zbekistonda 82,21 %ni, Rossiyada 49 %ni, Qozog'istonda 43 %ni, Belorusda 41 %ni tashkil etdi.

Iqtisodiy rivojlanishning ikkinchi bosqichi (1995-2000-y.) negizlaridan biri – mamlakatning o'z sanoatiga asoslanib, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, makroiqtisodiy investitsiyaviy infratuzilmasini ta'minlaydigan bir qator institutlar barpo etishdir.

Bu bosqichda tashqi bozorni ta'minlash, bir tomondan, ichki (import o'rniga) va tashqi bozorlar uchun (eksportga) raqobatbardosh mollar ishlab chiqarish bo'lsa, ikkinchi tomondan, O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlariga ko'plab xorijiy texnologik sarmoyalar kirishi bilan chambarchas bog'liqdir. Bu tarmoqlarga quyidagilar kiradi:

- aviatsiya mashinasozligi va avtomobilsozlik;
- kon qazilmalari va kimyo sanoati;
- qishloq xo'jaligi xomashyosini qayta ishlash va qadoqlash;
- qurilish materiallari ishlab chiqarish;
- to'qimachilik sanoati;
- telekommunikatsiya va aloqa;
- transport va uning xizmati.

Shuning uchun asosiy e'tibor O'zbekistonning aviatsiya portlarini kompleks ravishda qayta qurishga; energetika, transport, aloqa va mashinasozlik sohaslarida yirik sanoat komplekslarini barpo etishga qaratildi.

O'zbekiston Respublikasining eksport-importi tarkibi shuni ko'rsatdiki, 1998-yil natijalariga ko'ra, tashqi savdo aylanmasi 6 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2013-yilda 29,8 AQSH dollarini tashkil etdi. Tashqi savdoda 1 mlrd. AQSH dollari miqdorida qo'shimcha saldo ta'minlandi. MDH davlatlarining tovar aylanmasi tushib ketdi. Bu parallel ravishda erkin konvertatsiya qilinadigan valyuta vositasidagi savdo hajmining ortishiga olib keldi.

O'zbekistonning asosiy tovar aylanmasi 2012-yilda Yevropa iqtisodiy hamjamiyatining sanoati rivojlangan mamlakatlariga, Janubiy Koreyaga 2012-yilda (0,8 %), Turkiyaga (6,0 %), Birlashgan Arab Amirliklariga (1,2 %), Xitoyga, (10,3 %), AQSHga (0,3 %), MDH mamlakatlari bilan tovar aylanmasida Rossiyaga (36,3 %), Qozog'istonga (11,8 %), Tojikistonga (1,2 %), Ukrainaga (2,9 %), Qirg'izistonga (0,5 %) to'g'ri keldi.

Eksportning xomashyo mahsulotlaridan hisoblangan paxta tolasini chetga sotish o'sganiga qaramasdan, uning eksportdagi ulushi 2012-yilda 0,3 % qisqarib, 8,8 %ni tashkil qildi. Energetika va yoqilg'i mahsulotlari eksporti 13,5 %, rangli va qora

metallar esa 7,4 %ga oshdi. Natijada energetika va yoqilg'i mahsulotlari ulushi 35,3 %ni, rangli va qora metallar eksporti esa 7,4 %ni tashkil etdi.

Importning tovar tarkibida ma'lum o'zgarishlar sodir bo'ldi. Barcha tovar guruhlarida, oziq-ovqat mahsulotlaridan tashqari, import hajmi o'sdi.

Mashina va uskunalar importi hajmi 2012-yil 6,4 % o'sgan. Natijada ushbu yetakchi tovarlar guruhining ulushi 4,2% oshib, jami importning 45,4 %ni tashkil qildi. Bunga aksariyat jihatlan import operatsiyalarini bojxona tariflari bo'yicha tartibga solish yuzasidan qabul qilingan chora-tadbirlar ijobiy ta'sir ko'rsatdi. 2012-yil 1-yanvardan boshlab, faoliyat yuritayotgan korxonalarda zamonaviy ishlab chiqarishni tashkil qilish, mavjud jihozlarni va texnologiyani yangilash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida olib borilayotgan mashinalar, stanoklar va texnologik uskunalar, shu jumladan, qurilish materiallari va buyumlari ishlab chiqarishga mo'ljallanganlar uchun bojxona to'lovlarining nol stavkasi o'rnatildi.

Kimyo mahsulotlari importi 14,1 %ga oshdi, rangli va qora metallar 7,8 %ni va xizmatlar 6,1 %ga kamaydi. Ularni import umumiy hajmidagi ulushi mos ravishda 11,5 % va 7,5 %ni tashkil etdi. Energiya yetkazuvchilar importi kamayib, ularning importdagi ulushi 2,1 %ni tashkil qildi.

2012-yilda 2011-yilga nisbatan oziq-ovqat tovarlari importi pasayib, import umumiy hajmining ulushi 9 %dan 9,9%ga oshdi. Ishlab chiqarishni mahalliyashtirish bo'yicha yangi korxonalarni tashkil etish natijasida un va un mahsulotlari, to'qimachilik matolari, lok-bo'yoq mahsulotlari, oyna va oyna buyumlari mahsulotlari importi hajmining qisqarishi kuzatildi.

Tashqi savdoning hududiy tarkibida MDH mamlakatlari bilan tashqi import savdo ayirboshlashning salmog'i 2011-yildagi 44,7 %dan tahlil qilinayotgan davrda 2012-yilda 54,3 %gacha ko'tarildi, xorij mamlakatlari bilan esa 55,3 %dan 45,7 % gacha kamaydi.

2012-yilda eksportning o'sishi xorijiy mamlakatlarga nisbatan (1,22 marta) MDH mamlakatlari bilan tez sur'atlarda rivojlandi. Eksportning ulushi MDH mamlakatlariga 0,9 %ga o'sdi, xorijiy mamlakatlarga esa 74,0 %dan 68,5 %ga kamaydi. MDH mamlakatlariga oziq-ovqat tovarlari, kimyo mahsulotlari, mashinalar va uskunalar, rangli metallar eksportida yuqori o'sish kuzatildi. Xorijiy mamlakatlarga mashinalar va uskunalar eksport qilishning ko'payishini ijobiy hol sifatida ta'kidlash mumkin.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda transport aloqalari muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonning yirik xalqaro temir yo'l, dengiz va avtomobil portlaridan yiroq joylashganligi import va eksport tovarlarini yetkazishda transport xizmati bahosiga jiddiy ta'sirini o'tkazmoqda.

Yuklarning 90 %i temir yo'l transporti orqali tashilmoqda. O'zbekiston ichkarisida temir yo'l aloqalari tizimi yetarli darajada rivojlanmagan va zich joylashgan (50 km. dan 100 km. gacha). Ular orqali Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston va Qirg'izistonga chiqish mumkin. 180 ta stansiyadan 11 tasi yirik gabaritli konteynerlarni qayta ishlash uchun zaruriy vositalar bilan jihozlangan. Har kuni O'zbekistonda 8000 vagon qayta ishlanadi.

Yuk tashishda tovarlarning anchagina qismi avtomobil transporti orqali yetkaziladi. Tezkor yo'llar 42 ming km. ni, mahalliy yo'llar 90 ming km. ni tashkil etadi.



«O'zbekiston havo yo'llari» hamda yonma-yon bo'lgan xalqaro aviatsiya kompaniyasi xizmatidagi tranzit magistrali g'oyatda katta ahamiyatga ega. MDH mamlakatlari va uzoq xorijiy yurtlardan 15 tasiga samolyotlar to'g'ridan-to'g'ri parvoz qilmoqda. Toshkent, Samarqand, Termiz va Farg'ona shaharlari aeroportlari xalqaro aeroportlar maqomiga ega.

O'zbekiston Respublikasida hozirgi davrda iqtisodiy faoliyatning barcha sohalariga aloqador qonunlar va me'yoriy-huquqiy aktlarga har tomonlama asoslangan tizim vujudga keltirildi. Tashqi iqtisodiy aloqalar va savdo munosabatlaridagi huquqiy asos xalqaro huquqlar hamda me'yorlar darajasida asoslab berildi. Chunonchi, iqtisodiy islohotlarni yanada jadallashtirish, xususiy mulkni himoya qilishni ta'minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish to'g'risidagi farmonlarga ko'ra, keng iste'mol mollarini ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalarni xorijiy valyuta topshirish va uni Markaziy bankka majburiy sotish bo'yicha besh yil muddat davomida soliq to'lashdan ozod qilish choralari belgilandi.

Shu farmonga ko'ra, eksport mahsulotining hajmi 30 %dan oshgan korxonalar belgilangan me'yorlardan ikki baravar kam miqdordagi stavkalar bo'yicha soliq to'lash huquqiga ega. Shu bilan birga, respublikada xorijiy sarmoyalarni jalb etish uchun imtiyozlarning keng tizimi vujudga keltirilgan, xorijiy sarmoyadorlar uchun imtiyozli soliq joriy etilgan. "Eksportga mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida "gi Farmonga ko'ra, korxonalar ishlab chiqargan mahsuloti tarkibida eksportga ishlab chiqarilgan mahsulot bo'lsa, ular muayyan imtiyozlarga ega.

Amaldagi imtiyozlar va rag'batlantirish omillari tizimi quyidagilardir:

- ishlab chiqarilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning eksporti kamida 30 %ni tashkil etadigan korxonalarga, mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, foyda solig'ini amaldagi stavkalaridan ikki baravar kamroq to'lash huquqini berish;

- respublika davlat investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalar bo'yicha soliqlar to'lashdan besh yil muddatga ozod etish;

- o'zi ishlab chiqargan mahsulotni ruxsatnomasiz bemaol chetga olib ketish;

- O'zbekiston hududidagi qo'shma korxonalarining va faqat xorijiy sarmoya bilan ishlaydigan korxonalarining Ustav fondiga hissa qo'shish uchun mol-mulkni chetdan boj solig'isiz olib kirish;

- investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun yer uchastkalaridan foydalanish va ularni tasarruf etish huquqini tanlov asosida sotib olish ko'zda tutilgan.

«Xorijiy sarmoyalar to'g'risida»gi Qonunga muvofiq chet ellik sheriklar uchun ularning mol-mulkini davlat ixtiyoriga olish va musodara qilishdan ozod etish uchun kafolatlar belgilab qo'yilgan. Ularning o'z faoliyati natijasida olgan foydasi va boshqa pullarni chet elga o'tkazishga, olingan foydani respublika hududida qayta sarmoya tarzida ishlatish, respublika banklarida hisob raqamiga va unda cheklanmagan miqdorda har qanday valyuta mablag'iga ega bo'lish kafolatlanadi.

Xorijiy sarmoyadorlarga nisbatan investitsiyalar amalga oshirilgan paytda amalda bo'lgan qonun me'yorlari (normalari) 10 yil mobaynida qo'llanishi ko'zda tutilgan qonun hujjatlari o'zgartirilmashligiga kafolat mavjud.

Shunday qilib, vujudga keltirilgan huquqiy me'yorlar xorijiy sheriklarning keng investitsiya faoliyati uchun qulay imkoniyatlar yaratib, ularning huquqlari va sarflagan sarmoyasini himoya qiladi.

O'zbekiston sarmoyalarni o'zaro himoya qilish to'g'risida Germaniya, Turkiya, Misr, Indoneziya, Malayziya, Pokiston, Finlyandiya, Koreya, AQSH, Fransiya bilan bitimlar imzoladi, boshqa bir qancha mamlakatlar bilan ham mana shunday bitimlar tuzish davom ettirilmoqda.

Kanada, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Gollandiya, Germaniya Shveysariyaning banklari va firmalari bilan 3,3 mlrd. AQSH dollariga yaqin miqdordagi hukumatlararo 32 ta yirik kredit bitimi tuzildi va hozir bu bitimlar amaldagi qo'llanilmoqda. O'zbekiston 30 dan ortiq savdo va iqtisodiy bitimlar tuzgan, ulardan 26 tasi uzoq xorij mamlakatlari bilan tuzilgan. Birgina 2012-yilda respublikada chet el investitsiyasi kiritilgan korxonalar soni 2412, shu jumladan, ishlab turgan korxonalar tashqi savdo aylanmasi 2,4 mlrd. AQSH dollarini tashkil qildi. Umuman, mustaqillikka erishilgandan so'ng respublikaga 17 mlrd. AQSH dollari kirib keldi va hududlari eksporti ko'paydi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirliklari respublikaning TIF Milliy banki va boshqa tashqi iqtisodiyot institutlari bilan birgalikda tashqi savdo siyosatini ishlab chiqadi va milliy investitsiya loyihalarini muvofiqlashtirishni amaliy hal etadi.

Yuqorida qayd qilinganidek, iqtisodiy taraqqiyotning ikkinchi bosqichida asosiy diqqat-e'tibor ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratildi. Shu sababli ham yuqori sifatli tovarlarni yaratishga yo'naltirilgan va raqobatli bahodagi sarmoyalar keyingi me'yoriy-huquqiy aktlarda ko'zda tutilgan afzalliklar hamda imtiyozlardan foydalanishga imkon beradi.

O'zbekiston hukumati tomonidan iqtisodiyotning har xil sohalari bo'yicha va mamlakatning turli hududlari uchun investitsiyalar va savdo vazirliklari afzal bo'lgan investitsiya loyihalari tizimi ishlab chiqilgan. Xususan, vazirlik va Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki (MB) ixtiyorida mukammal analitik asosga ega bo'lgan 190 loyiha mavjud. Ulardan ayrimlari hozirdanoq joriy etilmoqda. Masalan, yagona zamonaviy navigatsiya tizimini yaratish ikkinchi bosqichda amalga oshirilmoqda; traktorlar, samolyotlar, avtomobillar ishlab chiqarish uchun mashinasozlik bazasini yaratishga ham allaqachon kirishilgan.

O'zaro foyda keltiradigan savdo va pragmatik prinsiplarga rioya qilgan holda, O'zbekiston sheriklari bilan hamkorlikni yanada kengaytirib bormoqda va ular taklif qilgan zamonaviy, yuqori sifatli texnologiya o'zlashtirilib, o'z sanoatimizda qo'shma korxonalarining yakuniy mahsuloti ishlab chiqarilmoqda. Bunday yondashish o'zaro foydali hamkorlik va savdoning adekvat prinsipi bo'ladi. Jahon bozori bilan bunday hamkorlikni jadal rivojlantirish sharoitlari O'zbekiston Respublikasining barqaror va izchillik siyosati bilan kafolatlanadi, islohot yillarida ularning amalga oshishi qator ijobiy natijalar bermoqda.

Biroq tashqi aloqalarda salmoqli yutuqlarga erishgan bo'lsak-da, bozor iqtisodiyotiga o'tish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida uchratilgan muhim va dolzarb muammolar hali yechimini topgani yo'q. Buning bir necha sabablari bor:

... – birinchidan, tashqi tuzilmalardagi eksport ishlab chiqarishida tubdan o'zgarishlar ro'y bermaguncha, xomashyo mahsulotlari, avvalo, paxta salmoqli o'rinda turaveradi, shuningdek, boy turistik imkoniyatlardan ham yetarli darajada foydalanilayotgani yo'q;

– ikkinchidan, qoloq (jahon standartlariga nisbatan olganda) texnologiyadan va past darajadagi ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish davom etmoqda, ayniqsa, respublikaning xomashyo mahsulotlarini qayta tayyorlaydigan sohalar bo'yicha ishlab chiqarish yaxshi yo'lga qo'yilmagan. Raqobatbardosh mahsulotlar kam ishlab chiqarilayotganligi eksport bazasining taraqqiyotini cheklab qo'yishda asosiy to'siq bo'lmoqda;

– uchinchidan, tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirishga oid qarorlar ma'muriy-tashkiliy tadbirlar miqyosida o'z ijrosini topmayapti hamda iqtisodiy va amaliy choralarini hal etishda qat'iyatlik yetishmayapti;

– to'rtinchidan, vazirliklar, idoralar, konsernlar, hissadorlik jamiyatlari, barcha xususiy korxonalar hamda matlubot tashkilotlari respublika qonunchiligi asosida o'z zimmlariga yuklangan tashqi iqtisodiy faoliyatdagi vazifalarni mukammal bajarmayaptilar, bunga qisman iqtisodiy rag'batlantirish choralari samarali foydalana olmaslik ham sabab bo'lmoqda. Jahon bozori qonunlari va talablarini yaxshi bilmaslik, tegishli chora-tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirmaslik, munosib kadrlar tayyorlash ishida mas'uliyatsizlik holatlari namoyon bo'lmoqda.

### **22.3. Yevropa mamlakatlari bilan hamkorlik va amaliyot**

XX asr o'z rivojlanish xususiyatlari bo'yicha jahon iqtisodiyotidagi yangi global tendensiyalardan biri – ishlab chiqarishning baynalminallashuvi va iqtisodiy konvertatsiyaning kuchayishiga erishdi. Bunday tendensiyalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida bir tomondan, davlatlararo iqtisodiy tashkilotlar, ikkinchi tomondan, umumiy iqtisodiy muammolarni hal etish maqsadida tuzilgan iqtisodiy hamjamiyatlar alohida rol o'ynadi. Bu boradagi jahon iqtisodiyotida iqtisodiy hamjamiyatlarning umumiy rivojlanishni ta'minlashdagi ulushiga bo'lgan ishonch tobora oshib borishi kuzatilmoqda. Xususan, paxta ishlab chiqilganligi jihatidan Yevropa Ittifoqi (EI)ni hozirgi kundagi eng obyektiv va namunaviy integratsion uyushma deb hisoblash mumkin.

Elni tuzish va rivojlantirishga ta'sir etgan bir qator omillar borki, ular o'sha davrda iqtisodiy integratsiyani zaruratga aylantirgan. Ulardan eng asosiylari quyidagilar:

- Yevropada xalqaro aloqalarning yangi tizimini tuzish;
- ikkinchi jahon urushi natijasida iqtisodiyotlarning izdan chiqishi;
- Yevropada yirik, umumiy bozorni tashkil etish;
- farqli siyosiy va iqtisodiy mafkuraga ega raqobatlashuvchi ikki yirik global hokimiyatning yuzaga kelishi;
- o'zaro to'ldiruvchilik xususiyatiga ega bo'lgan ixtisoslashuv orqali hududiy integratsiya.

Aytish joizki, Yevropada integratsiyani dastlab ba'zi tarmoqlararo bozorlarning ochiq raqobat sharoitida ishlashini ta'minlash va uning asosida keyinchalik ushbu jarayonni chuqurlashtirishga erishildi. Shu tarzda turli xil iqtisodiy yondashuvga ega

mamlakatlarning asosiy maqsadlari, savdodan, raqobatning xususiyatlari va kerakli iqtisodiyotdan mumkin qadar samarali foydalanish evaziga foyda olishni yo'naltirildi. Bu jarayonda oddiydan murakkabga tomon harakat yuz beradi. Butun jarayon doimiy ravishda muvofiqlashtirib turuvchi institutlar tomonidan nazorat ostiga amalga oshiriladi. Iqtisodiy munosabatlar ko'lamini kengaytib borib borib davlat o'rtasidagi moliyaviy va iqtisodiy operatsiyalar salmog'i ham oshib bordi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisod va moliya sohasidagi standart tizimlarning asta-sekin uyg'unlash borishini taqozo etadi. Shuning uchun EI integratsion strategiyasining harakat mexanizmi ishlab chiqildi.

Yevropa Ittifoqi iqtisodiy integratsiyasining ustuvorligi borasida uning Bojxor Ittifoqi (BI) va Umumiy Bozor (UM) bosqichlarida mulohaza yuritish, erishilgan natijalarni solishtirish va xulosalar qilish imkonini berdi.

Buni doim universal erkin savdoga o'rinbosar va tomonlar uchun foydali deb hisoblash mumkin. Bu xususda munozara qilish uchun asos bo'ladigan dalillarni aniqlandi. Masalan, BI uyushma miqyosidagi erkin savdoni jadallashtirish, qolganlarga nisbatan esa, agar kelgusida tegishli choralar qabul qilinmasa, savdo diskriminatsiyani anglatadi. Shuning uchun ham uning savdoni yaratish va savdoni qaytarish samarasi amaliyot jihatidan, foydali yoki foydasiz bo'lishi mumkin. Elnir shakllanish va kengayish jarayoni dunyoning qolgan qismiga nisbatan, o'zaro a'zo mamlakatlar o'rtasida savdoning oshishi bilan hamohangdir. 1958-yildan 1972-yilgacha qadar EI dastlabki a'zo davlatlari o'rtasidagi o'zaro savdo 15 foizga o'sdi, a'zo bo'lmagan davlatlar bilan esa 8,5 foizni tashkil etdi.

Buning savdodagi samarasini hisoblash bo'yicha olib borilgan tadqiqot ko'rsatishicha, 1970-yilga qadar hamjamiyat ichida savdo 8-15 mlrd. AQSH dollariga kengaygan. Bu ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan savdo o'rtacha 15-30 foizga oshganini bildiradi. Shuningdek, Robson o'z ishida sanoat ishlab chiqarishidagi savdoni yaratish, savdoni qaytarishga nisbatan bir necha barobar ko'p edi, deb ta'kidlaydi. Balassa qishloq xo'jaligidagi savdoni qaytarish 1,3 mlrd. AQSH dollarini tashkil etganini qayd etadi. Shunday bo'lsa ham, umumiy hisobda a'zo bo'lmagan davlatlar bilan savdoda savdoni qaytarishdan ko'ra tashqi savdoning yaratilishi ijobiy ta'sirga ega bo'lgan. 1980-yilga qadar savdoni yaratish samarasi natijasida keng ko'lam iqtisodiyotlardan kelgan foyda umumiy YAIMning 3-6 foizini tashkil etgan.

1958-1999-yillar oralig'ida keng qamrovli integratsiyaga erishish maqsadida EI mamlakatlari o'zaro savdoda to'siqlarni olib tashlash natijalarini shu yillardagi tova ayirboshlash ko'rsatkichlarini taqqoslash orqali izohlash mumkin. E'ldan umumiy eksport va import operatsiyalarining a'zo davlatlarga to'g'ri keladigan ulushi o'rtacha hisobda 6 foizni tashkil etgan, o'zaro savdo aylanmasi o'rtacha 15-20 foizga oshgan. Bu, o'z navbatida, mamlakat bozorlarining keng va chuqur integratsiyasidan dalolat beradi.

**Jahondagi globallashtirish va iqtisodiy integratsiyalashuv jarayonlaridagi Yevropa Ittifoqining o'zini birinchi marta ishlab chiqarish omillarining erkin harakatini o'z ichiga oladi.** Bunday holatda asosiy foyda omillari eng yuqori darajada keltirilgan va yuksak iqtisodiy farovonlikni ta'minlaydigan hududlarga erkin oqib o'tishi evaziga olinadi. Bunda iqtisodiy integratsiya darajasini davlatlararo ishlab chiqarish omillari narxlarini solishtirish; a'zo mamlakatlar savdo holatlari va sharoitlarini baholash orqali aniqlash mumkin. UBning yaratilishi iqtisodiyotda takli

tomonining samaradorligini oshiruvchi manba sifatida qaraladi. Taklif tomonidagi yaxshilanish a'zo davlatlardagi pul birliklarining real xarid quvvati va shu tariqa investitsiyalar hajmini ko'paytirish orqali yalpi talabning oshishiga, bu esa, o'z navbatida, Elning jahonda boshqalarga nisbatan raqobatbardoshligini oshirishga olib keladi. UB El doirasida ishlab chiqarish omillarining erkin harakati natijasida Ittifoq YAIM 5 foizga o'sishini ko'zda tutgan edi. Elga oid ishlar o'rganilganda bu borada bir qator omillar ko'rsatilganligi aniqlandi. Bizning fikrimizcha, ularga ba'zi qo'shimchalar kiritish o'rinni.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, barcha shartnomalar uchun umumiy bo'lgan ichki proteksionizmni qismlarga ajratish jarayoni juda murakkabdir. Bunday fikr yuritishga ikkita sabab keltirish mumkin: birinchidan, tovarlarning ichki erkin harakati nafaqat tarif va kvotalarni cheklashni, balki NTlarning ham olib tashlanishini talab qiladi. Ular hamkorlar o'rtasidagi savdoda davlat subsidiyalari, raqobatga qarshi choralar, ichki fiskal tadbirlar, diskriminatsion xarakterga ega ijtimoiy xaridlar, davlat yoki boshqa tegishli organlar tomonidan import bo'yicha standartlarning joriy etilishi, chegara nazoratlari, ma'muriy jarayonlar va shu kabilar orqali bilvosita to'sqinlik elementlaridir; ikkinchidan, integratsiya jarayoni, shuningdek, parallel ravishda barcha turdagi xizmatlarni ta'minlashda ham erkinlik bo'lishini taqozo etadi. Ishlab chiqarish omillari oqimini erkinlashtirishni ta'minlashda asosiy muammoni keltirib chiqaruvchi tarif va kvotalar emas, balki davlatning o'z iqtisodiy siyosatini tartibga solish faoliyatidagi chora-tadbirlardir.

El integratsion jarayonida hisobga olish kerak bo'lgan muhim omil va iqtisodiy integratsiya nazariyasiga kiritilgan boshqa bir konsepsiyani ham ta'kidlab o'tish joiz. Bu konsepsiya ingliz tilida – concept of spillover deb ataladi, ya'ni bir jarayon keyingi jarayonning amalga oshishiga olib keladi. U quyidagi fikrga urg'u beradi: agar bir guruh mamlakatlar cheklangan iqtisodiy integratsiya sxemasini boshlasalar, ularni integratsiyaning yanada yuqorirog' pog'onasiga yo'naltiruvchi kuch sifatida spillover effekti yuzaga keladi. Misol uchun, mamlakatlarning bir guruhi tovarlar, xizmatlar va ishlab chiqarish omillarining erkin harakatini o'z ichiga oluvchi, lekin monitar masalalarni istisno etuvchi cheklangan iqtisodiy integratsiyani amalga oshirishmoqda. Ochiq iqtisodiyot sharoitida monitar soha qamrab olinmaganligi sababli almashuv kurslari bozor qonunlariga bo'ysungan holda pasayishi va ko'tarilishida mutlaqo erkindirlar.

Bundan keyingi holatda erkin suzib yuruvchi almashuv kurslari tovarlar, xizmatlar va omillar oqimiga xalaqit beradi, degan fikrni ilgari surish mumkin. Bu almashuv kurslarining o'zgaruvchanligi bilan bog'liq noaniqliklardan kelib chiqadi. Shu boisdan erkin suzib yuruvchi almashuv kurslarini belgilangan kurslar bilan almashtirish mumkinligi to'g'risida bahslashish mumkin. Biroq inflyatsiya (yoki deflyatsiya) darajalarining o'sishida bir xillikni ta'minlash uchun a'zo davlatlardagi monitar shart-sharoitlar uyg'unlashmagunga qadar almashuv kurslari belgilangan tarzda saqlanib qolmaydi. Ushbu moslashuv monitar masalalar bo'yicha milliy suverenitetning hamjamiyat darajasida monitar koordinatsiya ixtiyoriga berishni taqozo etadi. Shu bois, Yevropa Ittifoqi miqyosida umumiy valyutaga ega bo'lgandagina barqarorlikka erishish mumkin.

Elning o'ziga xos asosiy xususiyatlaridan biri unga a'zo mamlakatlardagi iqtisodiy tizimlarning turli xilligidadir. Ana shu turli xillik muayyan darajada rivojlanishning muhim omillaridan biridir. Elga a'zo davlatlarda institutlar, iqtisodiyot tarkiblari, boshqaruv tizimlaridagi munosabatlarning har bir davlat uzra turli xilligi kuzatiladi. Yevropada integratsiya o'zining shakllanish va rivojlanish jarayonida o'ziga xos bir to'qima ko'rinishini oldi. Iqtisodiyot bu to'qimani bir-biriga bog'lovchi tayanch sifatida xizmat qiladi. Elga a'zo mamlakatlar turli xil bo'lishi va rivojlanish jihatidan o'zaro farq qilishi bilan birga ularni tenglashtirish tomon harakat qilmaydi, balki chuqur va mustahkam iqtisodiy aloqalarni umumiy asos sifatida tan olib, kengayib borish tamoyillariga tayanadi.

Elning integratsion strategiyasi ahamiyatini belgilab beruvchi muhim tizimlardan biri uning uyushma tizimidir. U o'z mazmun va mohiyatiga ko'ra, tarif preferensiyalaridagi o'zaro manfaatdorlikka asoslanadi va asosan kam rivojlangan mamlakatlar bilan savdo kelishuvlarida keng ishlatiladi. Agar global miqyosda barcha davlatlarning savdoda teng huquqli bo'lishi va rivojlanishni ta'minlash vazifasi bilan tashkil etilgan GATT (JST)ning maqsadi uning kam rivojlangan a'zolariga ko'maklashish deb oladigan bo'lsak, bu borada El yondashuvi afzalroqdir. Chunki kam rivojlangan davlatlarning uyushma tizimi asosida tarif preferensiyalaridan ko'radigan foydalari amaliyotda El ko'radigan foydadan birmuncha ko'proqligini ta'kidlash mumkin.

#### **22.4. Tashqi iqtisodiy faoliyatni dasturlash**

2013-yilda respublika tashqi savdo aylanmasi 2000-yildan buyon birinchi marta 4,6 baravar oshdi va 29,8 mlrd. AQSH doll.ni tashkil etdi, shu qatorda eksport – 15,5 mlrd. doll., import - 14,2 mlrd. AQSH doll., savdo balansi 1,3 mlrd. AQSH doll. ni tashkil etdi.

O'tgan 2012-yil bilan solishtirganda tashqi savdo aylanmasi 3,6 mlrd. AQSh doll.ga oshdi. Bunda eksport operatsiyalari tashqi savdo aylanmasi umumiy hajmining 63,2 %ini va import operatsiyalari -36,8 %ini tashkil etdi. Eksportning o'sishi importning o'sishiga nisbatan ancha yuqori bo'ldi. Eksportning o'sishi 2012-yilga nisbatan 16,6 %ni tashkil etdi, import - o'tgan yilga nisbatan 109,5 %ni tashkil etdi.

2011-yil natijalariga binoan tashqi iqtisodiy aylanmaning yarmidan o'tiqrog'i MDH mamlakatlariga to'g'ri keldi. Importni eksport bilan qoplash koeffitsiyenti 1,7ni tashkil etdi, xususan, MDH mamlakatlari uchun - 1,7 va xorijiy mamlakatlar uchun - 1,9 1,3; 1,3 va 1,4, 2012-yildagi ko'rsatkich natijasida, faol savdo balansi tashkil etdi 3,4 mlrd. AQSH doll. 2000-yilga nisbatan sezilarli darajada oshdi: 2,1 mlrd.doll.ga yoki 2,3 martaga oshdi (22.1-jadval). Tovar ayirboshlash aktiv saldosing 58,7 % yoki 2,2 mlrd.doll. xorijiy mamlakatlar bilan savdo qilish hisobiga to'g'ri keldi. MDH mamlakatlari bilan tovar ayirboshlashning ijobiy saldo darajasi, shuningdek, 2006-yil ko'rsatkichidan yuqori bo'ldi va 2008-yilda 624,9 mln.doll.ni tashkil etgan bo'lsa, 2010-yilda 1,5 mlrd.doll.ni tashkil etdi.

## O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (mln. AQSH doll.)

Ko'rsatkichlar	2005-y.	2006-y.	2008-y.	2010-y.	2011-y.	2012-y.
Tashqi savdo aylanmasi	9500,1	11171,4	422771*	21842,4	26059,3	26286,5
MDH mamlakatlari	3403,4	4746,1	6994,8	9424,5	11038,9	12402,4
Xorijiy mamlakatlar	6096,7	6425,3	7232,3	12417,9	15020,4	13884,1
Eksport	5408,8	6389,8	8991,5	13044,5	15021,3	14258,8
MDH mamlakatlari	1722,6	2685,5	4273,0	5898,7	6720,1	7737,8
Xorijiy mamlakatlar	3686,2	3704,3	4718,5	7145,8	8301,2	6521,0
Import	4091,3	4781,6	5235,6	8797,9	11038,0	12027,7
MDH mamlakatlari	1680,8	2060,6	2721,8	3525,8	4318,8	4664,6
Xorijiy mamlakatlar	2410,5	2721,0	2513,8	5272,1	6719,2	7363,1
Savdo balansi	1317,5	1608,2	3755,9	4246,6	3983,3	2231,1

Manba: O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Eksport tuzilmasidagi o'zgarishlar eksport yetkazib berishning diversifikatsiya jarayonlarini ko'rsatadi (22.2-jadval). Natijada, 2006-yilga nisbatan, asosiy eksport xomashyosi hisoblanuvchi - paxta tolasining eksporti 2008-yilda 4,7 f.d.ga kamaydi. Shu bilan birga energetika resurslari eksporti (o'sish 7,1 f.d.ni tashkil etdi.), mashina va uskunalar, shuningdek oziq-ovqatlar narxi 1,5 marta oshdi (mos ravishda, o'sish - 0,3 f.d.ga. va 0,6 f.d.ga), kimyo mahsulotlari, plastmassa buyumlari -1,7 martaga, rangli va qora metallar - 1,3 martaga, xizmatlar - 1,2 martaga oshdi.

## 22.2-jadval

## Eksportning tovar tarkibi, (100%)

Tovar guruhlari	Eksportning umumiy hajmidagi ulushi, %			
	2006 y.	2008 y.	2011-y.	2012-y.
Paxta tolasi	17,2	12,5	9,0	8,8
Kimyo mahsulotlari, plastmassalar va undan tayyorlangan buyumlar	100,0	100,0	5,6	5,4
Rangli va qora metallar	12,9	11,5	7,4	7,4
Mashina va uskunalar	10,1	10,4	6,6	6,4
Oziq-ovqatlar	7,9	8,5	13,3	6,2
Energetika resurslari	13,1	20,2	18,5	35,3
Xizmatlar	12,1	10,7	11,8	16,2
Boshqalar	21,1	19,4	27,8	14,3

Manba: O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Mamlakatda «O'zavtosanoat» assotsiatsiyasi korxonalari mahsulotlari hisobiga (2012-yilda 1,3 marta), «O'zeltexsanoat» assotsiatsiyasi korxonalari hisobiga (1,2 marta),

«Uzselxozmash-xolding» xolding kompaniyasi (1,2 marta); - «O'zmetkombinat» ASB metallurgiya mahsulotlari hisobiga (1,3 marta), Olmaliq TMK (1,1 marta), O'zbekiston qiyin eruvchan va issiqqa bardoshli metallar kombinati mahsulotlari (1,4 marta) hisobiga rangli metallar qoldiqlarini qayta ishlovchi Toshkent zavodi mahsulotlari (1,2 marta) hisobiga eksportning o'sishiga erishildi.

2012-yilda Kimyo va neft-kimyo tarmog'i korxonalari hisobiga 2011-yilga nisbatan marta ko'proq mahsulot eksport qilishga erishildi. Berilgan tovarlar guruhida asosiy eksport moddalarini «Uzbekneftegaz» MXK korxonalari va «O'zkiyosanoat» DAK korxonalari eksporti tashkil etdi -eksportning o'sishi 1,1 martani tashkil etdi.

Qishloq xo'jaligi tarmog'i eksportining o'sishi 2011-yilga nisbatan 2012-yilda 110,7 %ni tashkil etdi. Hukumat tomonidan tayyor mahsulot ishlab chiharuvchi mahalliy korxonalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'qimachilik mahsuloti eksportining 1,2 marta o'sishiga sabab (GAK «O'zbekiyengilsanoat»), vino-arog mahsuloti -1,2 marta (XK «Uzvinprom-xolding»), mebeli -1,3 marta, meva-sabzavot mahsuloti - 1,7 marta.

Qurilish materiallari eksporti 2,2 martaga oshdi («O'zqurilishmateriallari» AK). An'anaviy tovarlardan tashqari (sement va oyna) yangi mahsulot turlari – g'isht, cherepitsa, shifer, asbotsement quvurlar, kompozit panellar, mastika mahsulotlari eksportining o'sishi kuzatilmoqda. Xizmatlar eksporti umumiy hajmining 37,0 %i aviatsion xizmatlarga to'g'ri keladi, 23,3 %i -gaz tranziti xizmatlariga, 15,3 %i -temir yo'li xizmatlariga to'g'ri keladi. Turistik xizmatlarning rivoji eksportning 1,9 marta o'sishini ta'minladi, aloqa xizmatlarining o'sishi o'tgan davrga nisbatan 113 %ni tashkil etdi.

Kichik biznes korxonalari eksporti 2013-yilda 2012-yilga nisbatan 10,0 %ga oshgan va respublika umumiy eksporti hajmida 18,0 %ni tashkil etdi. Oziq-ovqat mahsulotlari eksportining umumiy hajmida kichik biznes korxonalarining umumiy ulushi 2012-yilga nisbatan 11,2 %ga oshdi, energetika resurslari mahsulotlari - 32.8 %ga oshdi.

Ijoiy natijalar, shuningdek, tashqi iqtisodiy aloqalar olib boruvchi kichik korxonalar soni oshishi tufayli ham bo'ldi. Ular eng ko'p ulushi Buxoro viloyati (36 ta 2012-yilda va 50 ta 2010-yilda), Qashqadaryo viloyati (mos ravishda 18 va 26 ta), Samarqand viloyati (87 va 104 ta), Toshkent viloyati (126 va 159 ta), Farg'ona viloyati (60 va 87 ta) va Toshkent shahri (839 va 980 ta).

Importning mahsulotlar tuzilmasida asosiy o'rinni ishlab chiqarish tovarlari egallamoqda. Ularga mashina va uskunalar, qora va rangli metallar, kimyo mahsulotlari, (22.3-jadval). Import mahsulotlari yetakchi guruhi- mashina va uskunalar hajmi – 2012-yilda umumiy import hajmining 45,4 %ini tashkil etdi.

Metallurgiya guruhi tovarlari importining o'sishi 7,8 %ni tashkil etdi. Kimyo mahsulotlari importi oshdi 14,4 %ga, oziq-ovqat mahsulotlari - 9,9 %ga oshdi. Energetika resurslari bo'yicha sezilarli pasayish kuzatilmoqda - 2012-yilda 2011-yilga nisbatan 1,5 %ga pasaydi.



## Importning tovar tarkibi (%)

Tovar guruhlari, oziq-ovqatlar	Importning umumiy hajmidagi ulushi, %			
	2006-y.	2008-y.	2011-y.	2012-y.
Kimyo mahsulotlari, plastmassalar va undan tayyorlangan buyumlar	7,7	7,9	12,9	14,4
Rangli va qora metallar	13,8	14,8	7,8	7,8
Mashina va uskunalar	6,7	8,3	45,7	45,4
Energetika resurslari	47,0	46,6	8,8	7,3
Xizmatlar	4,2	3,3	5,1	6,1
Boshqalar	8,4	7,4	11,2	9,1
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Xorijiy mamlakatlarga eksportning ulushi respublika umumiy eksport hajmining 58,9 %ini tashkil etdi va 2005-yilga nisbatan 5,5 %ga pasaydi. Shu bilan birga 2012-yilda MDH mamlakatlariga eksport ulushi 54,3 %ni tashkil etdi (22.4-jadval). MDH mamlakatlariga eksport yetkazish bo'yicha 1-o'rinni Rossiya egallamoqda (36,3 %), Qozog'iston (11,8 %), Ukraina (2,9 %). Uzoq xorijiy mamlakatlar orasida asosiy ulush Turkiya (6,0 %), Eron (2,3 %), Shveysariya (1,2 %), Afg'oniston (7,5 %), Xitoy (10,3 %) mamlakatlariga to'g'ri kelmoqda.

## Eksport va importning geografik tarkibi (%)

Mamlakatlar	Umumiy hajmidagi ulushi, %			
	Eksport		Import	
	2008-y.	2012-y.	2008-y.	2012-y.
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0
MDH mamlakatlari	47,5	54,3	52,0	38,8
Qozog'iston	7,4	11,8	10,2	8,9
Rossiya	27,5	36,3	29,9	2,4
Tojikiston	2,1	1,2	0,3	0,04
Ukraina	7,0	2,9	8,2	5,5
Xorijiy davlatlar	52,5	45,7	48,0	61,2
Afg'oniston	3,7	7,5	0,0	6,3
Buyuk Britaniya	1,1	1,5	1,1	0,8
Germaniya	0,9	0,3	4,3	3,8
Hindiston	0,1	0,3	10	1,4
Eron	5,2	2,3	0,6	0,6
Janubiy Koreya	3,5	0,8	8,3	16,8
Xitoy	0,8	10,3	9,8	14,7
BAA	0,8	1,2	0,4	0,2
Singapur	1,6	0,6	0,2	0,2
AQSH	1,0	0,3	2,1	1,8
Turkiya	6,6	6,0	3,1	3,0
Fransiya	3,0	1,2	1,1	0,9
Shveysariya	4,2	0,1	0,9	0,7
Yaponiya	0,2	0,1	1,0	1,7
Boshqa mamlakatlar	18,8	12,8	13,5	7,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

2012-yilda arzon xomashyo va tayyor mahsulotlar hisobiga MDH mamlakatlaridan import hajmi 1,3 marta kamaydi. Mos ravishda, MDH mamlakatlaridan import yetkazib berish hajmi kamaydi, xorijiy mamlakatlar ulushi oshdi. MDH mamlakatlaridan tayyor mahsulot importi, mashina va uskunalar, xizmatlar hajmi o'smoqda.

Xorijiy mamlakatlardan oziq-ovqat mahsulotlari, xizmatlar importi kamaymoqda. Importning asosiy qismi Rossiya ulushiga to'g'ri keldi.

### **Qisqacha xulosalar**

Yevropa Ittifoqining integratsion strategiyasi ahamiyatini belgilab beruvchi muhim tizimlardan biri uning uyushma tizimidir.

Yevropa Ittifoqi jahondagi globallashuvi va iqtisodiy integrallashuv jarayonini baholaydi.

O'zbekiston Respublikasining Yevropa Ittifoqi bilan hamkorligi globallashuvini asoslaydi.

Birlashish jarayonlari barqaror iqtisodiy o'zaro aloqalarning o'sishi jarayonini hamda ishlab chiqarishning milliy xo'jalik doirasidagi chiqishni taqozo etadi.

Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvda xalqaro ishlab chiqarish hamkorligi ixtisoslashadi.

TIF da fan-texnika hamkorligi iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvda tashqi savdoni tartiblashning notarif usullaridan foydalaniladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining integratsiyalashuv strategiyasi nimalarni ko'zda tutadi?
2. Elning integratsiyalashuv strategiyasi bosqichlari, asosiy xususiyatlari hamda harakat mexanizmi nimalardan iborat?
3. Jahondagi globallashuv va iqtisodiy integratsiyalashuv jarayonlarida Yevropa Ittifoqining o'rni qanday?
4. O'zbekistonning EI bilan hamkorligi nimaga bog'liq?
5. O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlik istiqbollari qay darajada?
6. O'z xususiyatlariga ko'ra, umumjahon miqyosidagi ilmiy-texnika taraqqiyoti qanday ahamiyatga ega?
7. Ochiq tarzidagi milliy iqtisodiyotning yuksalish darajasi nimaga bog'liq?
8. Mamlakat strategiyasini qanday tushunasiz?
9. Mamlakatlararo ishlab chiqarish hamkorligi nima?
10. G'oyalarning nazariy qiymati nimada?
11. Iqtisodiy samaradorlik nima?

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Karimov I. "2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi"//Xalq so'zi, 2014-iy 18-yanvar.

2. Ishmuxamedov A.E va boshqalar. Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari. Darslik – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005.
3. Yo'ldoshev Z. Milliy iqtisodiyot. -T.: Mehnat, 2004,168-b.
4. Ishmuxamedov A.E. O'zbekiston milliy iqtisodiyoti. Darslik – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. - 304 b.
5. Ishmuxamedov A.E. va boshqalar. Makroiqtisodiyot. Darslik – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. - 192 b.
6. Tuxliyev N. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. - T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 280 b.
7. Internet veb-saytlari.
8. [www.ceep.uz](http://www.ceep.uz).
9. [www.bearingpoint.uz](http://www.bearingpoint.uz).

## 23-bob. MILLIY IQTISODIYOTNING GLOBALLASHUVI VA JAHON BOZORI BILAN HAMKORLIGI

### 23.1. Jahon hamjamiyati bilan hamkorlik

O'zbekiston mustaqil rivojlanish yo'liga o'tganidan buyon o'tgan tarixan qisqa davr mobaynida uni suveren davlat sifatida qaror toptirish yuzasidan ulkan ishlar amalga oshirildi. Hozir O'zbekiston 165 davlat tomonidan tan olingan, 120 dan ortiq mamlakat bilan rasmiy diplomatiya munosabatlari o'rnatgan. Toshkentda 35 mamlakat o'z elchixonasini ochgan.

Bugungi kunda O'zbekiston to'la huquqli asosda eng obroqli va nufuzli tashkilotlar tarkibiga kirgan bo'lib, barcha qit'alaridagi o'nlab mamlakatlar bilan do'stona aloqalarni rivojlantirmoqda, eng yirik bank va moliya organlari, nodavlat va nohukumat tashkilotlari bilan yaqindan hamkorlik qilmoqda. Respublikada 88 ta chet davlat vakolatxonalari ruyxatdan o'tgan, hukumatlararo 24 ta tashkilot va 13 ta nohukumat tashkiloti ishlab turibdi. O'tgan yillar mobaynida respublika ko'plab juda muhim xalqaro konvensiyalarga qo'shildi.

O'zbekiston o'z mustaqilligining dastlabki yillaridayoq tashqi siyosiy va iqtisodiy aloqalarni shakllantirish yuzasidan ishlab chiqilgan quyidagi asosiy tamoyillarga amal qilmoqda: o'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olgan holda davlat milliy manfaatlarining ustunligiga erishish; teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik; mafkuraviy qarashlardan qat'i nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik; xalqaro huquq me'yorlarining davlat ichki me'yorlaridan ustuvorligi; tashqi aloqalarni ham ikki, ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish.

Tashqi aloqalarni xalqaro munosabatlarning turli yo'nalishlari bo'yicha muvaffaqiyatli rivojlantirish xavfsizlik va barqarorlik kafolati hisoblanadi. Hozir dunyo O'zbekistonga juda katta qiziqish bilan qarayotganligini his etmoqdamiz. Bu esa respublikamizning barqaror rivojlanishi uchun eng yaxshi kafolat bo'lib, kapital sarflash, dunyo miqyosida mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash nuqtai nazaridan tobora e'tiborni tortayotganligida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Jahon hamjamiyati bilan keng ko'lmda integratsiyalashgan zamonaviy demokratik davlatni qurishdan iborat strategik vazifani hal qilar ekanmiz, bugungi kunda ushbu hamjamiyat faoliyatining o'zi serqirra bo'lib borayotganligini juda yaxshi tushunamiz.

XX asr oxiri XXI asr boshlarida dunyo geografiyasi, siyosatida o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ular nafaqat mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni, vujudga kelgan qarashlar va ularning mexanizmlarini chuqur o'ylab ko'rishni, balki ko'p jihatdan qayta baholashni ham talab qiladi. «Sovuq urush» davrida xalqaro munosabatlarga asos bo'lgan ko'p omillar, tamoyil va g'oyalarni tubdan qayta ko'rib chiqish talab qilinmoqda.

Butun dunyo yaxlit va bir-biriga bog'liq tizim bo'lib bermoqda. Unda o'zi-o'zidan qanoatlanishga va mahdudlikka o'rin yo'q. Bu hol hozirgi xalqaro munosabatlarni shakllantirishda, xalqaro tuzilmalar bilan o'zaro aloqalar va faoliyatda ishtirok etganda mutlaqo yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda.

XXI asr, shubhasiz, xalqaro munosabatlarda butun dunyo qamrab olinadigan asr bo'ladi. Bunday sharoitda integratsiya jarayonini, xalqaro institutlar va tashkilotlarda suveren davlatlarning ishtirok etishini kengaytirish jarayonini faqat tarix taqozosi emas, balki ayrim mintaqalar hamda sayyoramiz qo'lamida ham sobitqadamlik va barqarorlikning qudratli omili deb hisoblamoq zarur. Bu holda masala xalqaro integratsiya jarayonlarida qatnashish yo'qi qatnashmaslik tarzida qo'yilmaydi. Mustaqil O'zbekiston uchun, eng avvalo, tashqi siyosatning oqilona hamda jamiyat va inson manfaatlariga asoslanadigan eng muhim tamoyillariga qat'iy rioya etish ulkan ahamiyat kasb etmoqda.

Mustaqillik o'z erkinligimizni anglashgina emas, balki o'z hayotimizni o'z irodemiz bilan milliy manfaatlarimizni ko'zlagan holda tashkil etish, o'z kelajagimiz uchun mustahkam zaminni o'z qo'limiz bilan qurish huquqidir. Shu bois o'z-o'zidan ayonki, agar integratsiya mamlakatimizning ozodligi, mustaqilligi va hududiy yaxlitligini cheklab qo'ysa yoki qandaydir mafkuraviy majburiyatlar bilan bog'lansa, u holda chetdan olib kelinadigan har qanday integratsiya biz uchun nomaqbuldir.

Integratsiya haqida gapirar ekanmiz, manfaatlar birikuvining xilma-xil mexanizmlari va shakllari hamda integratsiya turlari mavjudligiga asoslanamiz. Bunga sherikchilik va hamkorlik qilishga intilayotgan mamlakatlarning boshlang'ich shart-sharoitlari turlichaligi sababdir. O'zbekiston bir vaqtning o'zida turli darajalarda dunyo miqyosi va mintqa ko'lamida integratsiya jarayonlariga qatnashsa-da, ammo bir muhim qoidaga: bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslikka amal qiladi. Bir subyekt bilan sherikchilikning mustahkamlanishi boshqalar bilan sherikchilik munosabatlarining zaiflashuviga olib kelishiga yo'l qo'ymasligimiz kerak. Shu sababli O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuvi serqirra jarayondir.

Mamlakatimiz iqtisodiy jihatdan rivojlangan, bozor tizimiga ega bo'lgan demokratik davlat haqidagi hozirgi zamon tushunchalariga mos kelgan taqdiridagina jahon hamjamiyatiga kirishimiz mumkinligiga asoslanamiz. Ayni chog'da mamlakat jahon hamjamiyati bilan hamkorlik o'rnatgan taqdiridagina, ya'ni xalqaro mehnat taqsimotida munosib o'rmini topganda, mintqa va butun dunyo xavfsizlik tizimlarini barpo etishda faol ishtirok etganda uni zamonaviylashtirish mumkin.

O'zbekistonning xalqaro munosabatlarning turli subyektlari bilan aloqalari qanchalik chuqur va keng bo'lsa, ular bilan munosabatlarda noaniqliklar, yotsirashlar, muammolar va hal qilinmagan masalalar, kutilmagan voqea-hodisalar shunchalik kam bo'ladi. Xuddi shu narsa xavfsizlikka solinayotgan tahdidlarni bartaraf etish va barqaror rivojlanishni ta'minlashning zarur shartidir. Qolaversa, mamlakatlar va davlatlarning xavfsizlik darajasi ularning integratsiya jarayonlarida qatnashish darajasiga bevosita bog'liqdir. Mamlakat integratsiya aloqalari bilan qanchalik bog'langan bo'lsa, uning xavfsizligiga tahdid shunchalik kam bo'ladi.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuvi, BMT faoliyatidagi ishtiroki jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuvi haqida gapirganimizda, eng avvalo, bu jamiyat faoliyatida ishtirok etishimizni nazarda tutamiz. 2005-yil 2-martda O'zbekiston BMTga a'zo bo'lganligiga o'n to'rt yil to'ldi. Bunday obro'li xalqaro tashkilot ishidagi ishtirokimiz Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik, tinchlik va

totuvlikni ta'minlashning keskin muammolariga jahon jamoatchiligi e'tiborini qaratish imkoniyatidir.

Hozirgi paytda umumiy xavfsizlik muammosiga aloqador xalqaro tashkilotlar g'oyat xilma-xil bo'lishiga qaramay, faqat BMTgina xavfsizlikni saqlash va ta'minlashga xizmat qiladigan, nizolarning oldini olishga qaratilgan diplomatiyada tortib to'xtatish o'rnatishga qaratilgan operatsiyalarda qatnashishga bo'lgan hammi vositalarga ega.

O'zbekistonning tashabbusi bilan BMT rahnomoligida 1995-yili Toshkentdagi Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik muammolariga bag'ishlangan xalqaro semina muvaffaqiyatli o'tdi. Unda 20 ta xalqaro tashkilot va 30 dan ortiq mamlakat, shu jumladan, AQSH, GFR, Fransiya, Buyuk Britaniya, Rossiya, Yaponiya, Xitoy Hindiston, Eron va boshqa davlatlarning diplomatiya korpusi hamda hukumat vakillar ishtirok etishdi.

BMT bilan munosabatlarimiz xalqaro jamoatchilikdan yordam va madad olish istagimizdan ko'ra (garchi, bugungi kunda bu ham juda katta ahamiyatga ega bo'lsa-da), ko'proq BMT sa'y-harakatlari muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga, uning faoliyat yangi mazmun bilan boyishiga ko'maklashishga intilishga asoslanadi. Jahondagi geografik-siyosiy vaziyatning o'zgarishi yangi ming yillikda BMT tarkibiy tuzilishi va uning faoliyatini takomillashtirishni ham talab qilmoqda.

O'tgan asrning so'nggi o'n yilliklarida dunyoda bir qator davlatlar paydo bo'ldi. Qudratli va jahon siyosati ko'lamidagi ta'siri ortib borayotganligi tufayli bu davlatlar Xavfsizlik kengashining doimiy a'zolari bo'lishlari mumkin. Ayni vaqtda BMT tuzilmasigina emas, balki uning amaliy ish tartibi va harakatlarni amalga oshirish jarayoni ham buyuk davlatlar, doiralar eskicha kurash ta'siridan hali qutulgan yo'q. BMTning mintaqaviy mojarolarini tartibga solish, tinchlik o'rnatish yo'lidagi ishlar hamma vaqt ham muvaffaqiyatli bo'lmayotganligini qisman shu bilan izohlash mumkin.

Shuning uchun ham O'zbekiston tabiatan jahonshumul va universal bo'lgan bu tashkilotning tarkibiy tuzilishi va faoliyatini takomillashtirishni bundan buyon ham faol yoqlab chiqaveradi.

Shu o'rinda BMTning integratsiya sohasidagi imkoniyatlari g'oyat ulkanligi va uning ixtisoslashtirilgan tashkilotlari bu imkoniyatlarning tashkil etuvchilari hisoblanishini alohida ta'kidlash lozim. O'zbekiston mazkur tashkilotlar bilan bugungi kunning o'zidayoq samarali hamkorlikni rivojlantirmoqda. BMT doirasida jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuv bo'yicha uning ixtisoslashgan muassasalari - YUNESKO, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, YUNKDAT, YUNISEF va boshqalar bilan keng hamkorlik qilinmoqda.

O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuvni ta'minlashga xalqaro moliyaviy, iqtisodiy tashkilotlar - Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki va boshqalar ham katta yordam ko'rsatmoqda. Har yili Davos shahrida o'tadigan Jahon iqtisodiy anjumanida mamlakatimizning ham qatnashishi katta ahamiyatga ega. Anjumanda qatnashish O'zbekistondagi mavjud imkoniyatlar bilan tanishtirish, chet el investitsiyalarini jalb etish uchun muhim ahamiyatga molik.

O'zbekistonning mintaqaviy xalqaro tashkilotlar bilan samarali hamkorligi rivojlanmoqda. Jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvning tarkibiy qismi

davlatlarning turli mintaqaviy birlashmalari bilan aloqalarni rivojlantirishdan iborat. Bular orasida Yevropa Ittifoqi alohida o'rin tutadi. 1996-yilda Yevropa Ittifoqi bilan O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishda bir qancha muhim ishlar amalga oshirildi. Fevral oyida Yevropa Ittifoqi kengashi sherikchilik va hamkorlik to'g'risida bitim tuzish yuzasidan O'zbekiston bilan Tashqi ishlar vazirligi darajasida muzokaralar boshlash haqida qaror qabul qildi, iyul oyida esa bitim imzolandi.

O'zbekiston tashqi iqtisodiyotining Yevropa yo'nalishi ancha kengaydi. Ushbu yo'nalish Yevropa qit'asidagi mamlakatlar bilan hamkorlik qilishni o'z ichiga oladi. Bu qit'aning o'ziga xos integratsiyasi muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Yevropa Ittifoqi bilan sherikchilik va hamkorlik O'zbekistonning xavfsizligi va taraqqiyotini ta'minlashga qo'shilgan yana bir hissadir. Chunki bu sherikchilik iqtisodiy, madaniy, ilmiy sohalar bilan bir qatorda siyosiy sohani ham nazarda tutadi. Bu hujjat hamkorlik qilishning mutlaqo yangi bosqichini boshlab beradi, O'zbekiston, Yevropa Ittifoqi va unga a'zo mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning huquqiy negizini vujudga keltiradi, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar uchun keng imkoniyatlar ochadi, muntazam siyosiy muloqot uchun institusional asos yaratadi.

Imzolangan bitim ikkala tomon ham faol sherikchilik qilish uchun asos yaratishga intilayotganidan dalolat beribgina qolmasdan, O'zbekistonda demokratik jamiyat muvaffaqiyatli qurilayotganini, inson huquqlarini hurmat qilish, fuqarolik erkinliklari va huquqiy davlat singari umumiy qadriyatlar qaror topayotganini ham tasdiqlaydi.

Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (EXHT) bilan samarali hamkorlik qilayotganligimiz EXHT bilan birgalikda amalga oshirilayotgan tadbirlarda va bu tashkilot rahbarlarining O'zbekistonga tashrifida ko'zga tashlanmoqda.

1996-yil dekabrda Lissabon Sammitida ishtirok etganimiz O'zbekistonning EXHT bilan munosabatlarini rivojlantirishda muhim voqea bo'ldi. Mazkur anjuman doirasida O'zbekiston xavfsizlik muammosiga doir o'z qarashlarini bayon etish huquqiga va imkoniyatiga ega bo'ldi.

EXHTning Markaziy Osiyodagi faoliyatini kuchaytirishga oid takliflar ishtirokchilar tomonidan tushunib qabul qilindi va u Lissabon deklaratsiyasida hujjatlashtirildi. Shu bilan birga so'nggi vaqtlarda Toshkentda O'zbekiston tashabbusi bilan EXHTning bir qator yirik anjumanlari o'tkazildi. EXHT Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha Byurosi (DIIXB)ning «Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar» mavzusidagi xalqaro seminar-kengashi Markaziy Osiyo, Yevropa, Amerikadagi 21 mamlakat ekspertlari, shuningdek, 29 ta xalqaro va nohukumat tashkilotlari vakillari ishtirokida keng muloqot o'tkazish imkoniyatini berdi. Ular Markaziy va Sharqiy Yevropada Ombudsman instituti, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatini rivojlantirish, qonunchilik tizimlarini takomillashtirish hamda xalq ta'limi va ommaviy axborot vositalarining inson huquqlari sohasidagi roli masalalarini ko'rib chiqdilar.

EXHTning DIIXB tashabbusi bilan «Ommaviy axborot vositalari demokratlashtirish sharoitida» mavzuida seminar o'tkazildi. EXHT kelishtiruv va hakamlilik sudi tomonidan tashkil etilgan EXHT xalqaro seminari ham bo'lib o'tdi. Bularning barchasi tinchlik o'rnatuvchi va huquqni himoya qiluvchi ushbu nufuzli tashkilot bilan yaqin va samarali munosabat o'rnatilganidan dalolat beradi.

Hozirda mamlakatimiz bilan NATOdek xalqaro tashkilot o'rtasida o'zaro tushunish va hamkorlik mavjud deb aytish mumkin.

Bizningcha, o'z tarkibiga demokratik davlatlarni birlashtirib turgan NATO faqat Yevropa qit'asidagina emas, balki o'zining siyosiy ustqurmasini mustahkamlash va «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturi hisobiga Yevroosiyo mintaqasida tinchlik o'rnatuvchi omil bo'lishi mumkin. O'zbekiston «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturiga 1995-yil iyul oyida qo'shilgan. Bu dasturdagi ishtirokimizga mustaqilligimiz va suverenitetimizni mustahkamlash, hozirgi zamon harbiy-texnikaviy yutuqlaridan bahramand bo'lish, harbiy kadrlar tayyorlashda imkoniyatlarimizni kengaytirish nuqtai nazaridan qaraymiz.

NATO Bosh kotibi X. Solana va AQSHning NATOdagi doimiy vakili R. Xanterning O'zbekistonga tashriflari butun dunyo miqyosidagi va mintaqadagi xavfsizlik muammolari borasidagi qarashlarimiz mos kelishini yana bir bor namoyish etdi. Muzokaralar davomida mintaqada tinchlikni saqlashga, Afg'onistondagi mojaroni siyosiy choralar bilan bartaraf etishga, Markaziy Osiyo mintaqasini yadrosiz hudud deb e'lon qilishga qaratilgan tashabbuslarimizga to'la tushunish bilan qaralayotganligi va ular qo'llab-quvvatlanayotganligining shohidi bo'ldik. O'zbekistonning imkoniyatlari mintaqadagi barqarorlashtiruvchi omil sifatida baholanmoqda.

O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorlik qilishida Yevropa imkoniyatlari milliy manfaatlarimiz nuqtai nazaridan hayotiy zaruratsdir. Yevropa va butun g'arb yuksak texnologiyalar va investitsiyalar manbaidir, hozirgi zamon demokratiyasi va inson huquqlarining ramzidir. Bularning barchasi xavfsizligi ta'minlangan va barqaror rivojlanayotgan, yuksak darajada taraqqiy etgan va zamonaviy demokratik davlat bo'lish maqsadida yangilanish va taraqqiyotni strategik vazifa qilib olgan yosh O'zbekiston davlati uchun nihoyatda muhimdir.

Biz bunda xavfsizlik va taraqqiyot bir-birini taqozo etishi tamoyiliga amal qilamiz. Bu esa, bir tomondan, iqtisodiyotga investitsiyalar olib kelish uchun barqaror xavfsiz muhit yaratishni, ikkinchi tomondan, hayotning hamma sohalarida keng ko'lamda islohotlarni amalga oshiradigan mamlakatgina bunday xavfsiz muhitni ta'minlashga qodir bo'lishini nazarda tutadi.

Jamiyatimizning demokratik o'zgarishlarini chuqurlashtirish yo'lida sobitqadamlik bilan rivojlanib borishiga boshqa xalqaro tashkilotlar bilan va eng avvalo, Osiyo mintaqasidagi tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qilish ham yordam beradi. «Buyuk ipak yo'lini tiklash: ma'rifiy turizmni rivojlantirish, turkiy tilli davlatlarning madaniy merosini qayta tiklash, asrash va barqaror rivojlantirish» dasturini birgalikda ishlab chiqish nazarda tutilmoqda. Bu dasturning maqsadi sayohat yo'nalishlari tarmog'ini va sayyohlikning tegishli infratuzilmasini kengaytirishdan iborat.

Yuqorida aytib o'tilganidek, O'zbekiston o'zining tashqi aloqalarini ham ko'p tomonlama, ham ikki tomonlama asosda tashkil etish tarafdoridir. Ikki tomonlama aloqalarni kengaytirish har qaysi tomonning manfaatlarini yanada aniqroq hisobga olish, bir-birimizni yaqindan tanish, uzoq muddatli o'zaro manfaatli hamkorlikka mustahkam zamin hozirlash, shu tariqa barqarorlik va xavfsizlik uchun mustahkam negiz yaratish imkonini beradi. O'zbekiston yer yuzining turli chekkalarida ishonchli va manfaatdor sheriklarga ega ekanligi ma'lum. Ularning doirasi muntazam kengayib bormoqda.



AQSH bilan ikki tomonlama munosabatlarimiz davlatlararo aloqalarning g'oyat muhim yo'nalishlari bo'yicha izchil va sobiitqadamlilik bilan rivojlanib bormoqda.

Juda katta siyosiy, iqtisodiy, harbiy-texnikaviy, intellektual salohiyatga ega bo'lgan AQSH bilan ko'p tomonlama munosabatlarni rivojlantirish va chuqurlashtirish hozir biz uchun ustuvorlik kasb etmoqda. Qo'shma Shtatlar jamiyatimizni yangilash, isloh qilish va demokratlashtirish, respublikamizning davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash jarayoniga salmoqli hissa qo'shmoqda. Biz Amerika kompaniyalari va firmalari bilan qo'shma investitsiya loyihalarini amalga oshirishga, ular bilan uzoq muddatli, o'zaro foydali sherikchilik munosabatlarini o'rnatishga, Amerika kapitalining bozorlarimizdagi ishtiroki kengayishiga katta ahamiyat beramiz.

So'nggi yillarda Yevropadagi ko'pgina mamlakatlar – Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Belgiya, Portugaliya, Gretsiya, Chexiya, Slovakiya, Ruminiya va boshqa mamlakatlar bilan bevosita, ikkita tomonlama munosabatlarimiz ancha kengaydi va mustahkamlandi.

Sharqiy va Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari – Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Vetnam, Malayziya, Hindiston, Indoneziya va boshqa mamlakatlar bilan aloqalarimiz mustahkamlanib borayotganligini alohida ta'kidlab o'tish mumkin. Keyingi vaqtlarda Yaponiya mintaqamizning murakkab muammolarini xavfsizlik va barqarorlikka, tinchlikka erishish, atrof-muhit muhofazasi masalalarini hal qilishda faol va manfaatdorlik bilan ishtirok etmoqda.

O'zbekistonning MDH mamlakatlari bilan mustaqil iqtisodiy integratsiyalashuvi haqida fikr yuritganda ta'kidlash kerakki, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tashkil etilgandan beri o'n to'rt yil o'tdi. Bu yillarda MDH mamlakatlari ikki va ko'p tomonlama shartnoma munosabatlari doirasida teng huquqli sherikchilik asosida o'zaro hamkorlik qilishlari uchun keng imkoniyatlar mavjudligi tasdiqlandi. Bunday hamkorlikka Hamdo'stlik mamlakatlarining hududiy yaqinligi va iqtisodiy jihatdan bog'langanigina emas, balki, tarixiy ildizlar, madaniy va ma'rifiy aloqalar, katta tarixiy davr mobaynida xalqlarimizning taqdiri mushtarakligi ham asos bo'lmoqda.

Mamlakatlarimiz, xalqlarimizning yaqinlashuvi – tabiiy kechayotgan jarayon. Bu yaqinlik sobiq Ittifoq hukmronligidan oldin ham bo'lgan. Bu xalq integratsiyasi bo'lib, sun'iy ravishda joriy etiladigan siyosiy integratsiyadan farqli o'laroq, haqiqiy integratsiyadir. Masalaga bunday yondashishning «MDH mamlakatlarining chuqur integratsiyasi» deb atalgan ba'zi siyosiy g'oyalarga hech bir aloqasi yo'q.

To'rtlar shartnomasi (Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Belarus) va ikkilar shartnomasi (Rossiya va Belarus) imzolanganidan beri ancha vaqt o'tdi. Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, bu shartnomalarni imzolash va ularni amalga oshirish davlatlarning ichki ishi. Har bir davlat birinchi galda o'z manfaatlarini nazarda tutib, o'z taqdirini va istiqbolini o'zi hal qiladi, har qanday hujjatlarni hamda davlatlararo shartnomalarni qabul qilish va imzolash huquqiga ega bo'ladi.

Agar biron-bir davlatlararo uyushma tashkil etilgudek bo'lsa, nima uchundir, albatta, uning tegishli hokimiyat va boshqaruv organlari ham bo'lishi kerak, deb hisoblashadi. Agar MDH davlat boshliqlari, hukumat boshliqlari va boshqa tuzilmalarning oxirgi majlislari kun tartibi kuzatiladigan bo'lsa, yagona yo'nalish – iqtisodiy va gumanitar integratsiyaning pishib etilgan muammolari, davlatlar va xalqlar o'rtasidagi aloqalarni yaxshilash masalalari o'rniga, nuqul harbiy-siyosiy masalalar,

birlashgan qo`mondonlikni tuzish, chegaralarni birgalikda qo`riqlash va shu kabilar qo`yilayotganligi tasodifiy emas.

Biroq shuni yaqqol anglab olish kerakki, tashkil etilayotgan Ittifoqlarda davlatlardan yuqori turadigan tuzilmalar barpo etilsa va shartnoma qatnashchisi bo`lgan har bir alohida mamlakatning tegishli qonuniy organlari bir yoqda qolib, bevosita amal qiladigan, ya`ni barcha organlar va tashkilotlar bajarishi shart bo`lgan qarorlarni mazkur tuzilmalarning o`zi qabul qilish huquqiga ega bo`lsa, u holda mazkur davlatlarni suveren va mustaqil deb hisoblash qiyin bo`ladi.

O`zbekiston va MDH xalqlari o`rtasidagi do`stona aloqalar vaqt sinovidan o`tgan va yaxshi an`anaga aylangan. Istiqol yillari MDH davlatlari rahbarlarining hamfikrliligi va siyosiy qat`iyati tufayli mamlakatimiz o`rtasida barcha sohada hamkorlikni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratdi. Biroq savdo-iqtisodiy hamkorlik yaxshi samara berayotganligiga qaramay, tan olish joizki, hamkorlik qamrovi MDHning hamma davlatlari bilan hozircha salohiyat va imkoniyatlar darajasida emas.

Masalan, O`zbekiston bilan Ukraina o`zaro munosabatlarini muttasil rivojlantirib kelishmoqda. Ukraina MDH mamlakatlari orasida O`zbekistonning eng yirik savdo sheriklaridan biriga aylangan. Mamlakatimiz o`rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarning huquqiy asosini qirqqa yaqin hujjat, jumladan, «Erkin savdo to`g`risida», «Sarmoyalarni o`zaro himoya qilish va qo`llab-quvvatlash to`g`risida», «Ishlab chiqarish kooperatsiyasi to`g`risida» kabi bitimlar tashkil qiladi.

Ikki tomonlama hamkorlikning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish maqsadida O`zbekiston va Ukraina o`rtasida iqtisodiy hamkorlikning asosiy yo`nalishlari to`g`risida bitim imzolangan. Ikki tomonlama munosabatlar muntazam faoliyat ko`rsatib kelayotgan ko`p tomonlama hamkorlik bo`yicha O`zbekiston – Ukraina komissiyasi tomonidan muvofiqlashtirib kelinmoqda.

O`zaro hisob-kitoblar mexanizmi yaratildi – vakolatli banklar o`rtasida o`zaro hisob-kitob va to`lovlar borasida aloqa o`rnatildi. Ayni paytda O`zbekiston bilan Ukraina o`rtasidagi erkin savdo tartibi joriy etilgan. Mamlakatlararo savdo 2003-yilda 244 million AQSH dollarini tashkil etdi va avvalgi yildagiga nisbatan 2,3 barobar o`sd.

Shuni ta`kidlash kerakki, 1993-2003-yillar davomida Ukrainaning Ilichevsk bandargohi orqali 325 ming tonna O`zbekiston paxta tolasi o`tkazildi.

Mamlakatimizda Ukraina ishbilarmonlari bilan hamkorlikda tuzilgan 40 ta qo`shma korxonalar faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, Ukrainada O`zbekiston sarmoyasi ishtirokida tuzilgan 22 ta qo`shma korxonalar ishlab turibdi.

Hamkorlikni taraqqiy ettirishning ustuvor yo`nalishlariga oid masalalar – ilmiy-texnikaviy, savdo-iqtisodiy, banklararo hamkorlik, transport, harbiy-texnikaviy aloqalar rivojlanadi. Ayni paytda avtomobil yo`llarini qurish bo`yicha ikki tomonlama konsorsium tuzish lozim. Bu transport yo`lagini barpo etishda hamkorlik qilish uchun keng yo`l ochadi.

MDH doirasidagi munosabatlarda erkin savdo hududi barpo etish, a`zo mamlakatlar o`rtasida savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish masalalari yanada dolzarb bo`lib bormoqda. Hamdo`stlik doirasida tashkil etilgan tuzilmalar faoliyatining samaradorligini oshirish hamda tinchlik va barqarorlikka tahdid soluvchi omillarga qarshi hamkorlikda kurashishni kuchaytirishga oid masalalar ham shular sirasiga kiradi.

Markaziy Osiyodagi integratsiya hududiy birlik, kommunikatsiyalar, iqtisodiyotning asosiy va yetakchi tarmoqlari mushtarakligi, suv xo'jaligi va energetika obyektlarini birgalashib ishlatish, energiya zaxiralari bilan ta'minlash ehtiyoji taqozo etgan obyektiv zaruriyatdir. Bir-biriga chirmashib ketgan umumiy teran tomirlarga ega bo'lgan xalqlarning madaniy, til va ma'naviy birligi esa ularni eng yaqinlashtiruvchi omillardir.

Bu mintaqa muayyan bir shaklda hamma vaqt integratsiya bo'lib kelgan. Markaziy Osiyo xalqlari mustaqillikka erishganlaridan keyin birgalikda kuch-g'ayrat sarflab, o'z kelajaklarini qurishlari zarurligini qayta his etdilar. Toshkentda Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston Prezidentlari tomonidan Markaziy Osiyo mintaqasining yagona iqtisodiy makonini tashkil etish haqidagi shartnomaning imzolanishi shu yo'ldagi amaliy qadam bo'ldi.

Markaziy Osiyo respublikalarining integratsiyalashuvi uchun haqiqatan ham bir qator shart-sharoit va sabablar mavjud. Bular jumlasiga iqtisodiy rivojlanishning boshlang'ich darajasi baravarligi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning bir xilligi, yagona transport-energetika kommunikatsiyalari, suv zaxiralari ham kiradi. Bundan tashqari ushbu mintaqada yashayotgan barcha xalqlarning xavfsizligiga bir xil tahdidlar ham mavjud. Bular Orolning qurib borayotganligi, narkotik moddalar, qurol-yarog', terrorizm, diniy fundamentalizmning kirib kelishi, Afg'onistondagi notinchlik hamda bir qator boshqa omillardir. Bu tahdidlar, garchi, tarqoq tuyulsa-da, aslida o'zaro bog'liq omillardir. Chunki ularning birontasini ham alohida, o'z kuchiga ishongan holda yengib bo'lmaydi.

Ayni shu holatlar Markaziy Osiyo mintaqasining gullab-yashnashi to'g'risida qayg'uradigan barcha siyosatchilar uchun amaliy qo'llanma bo'lib qolishi darkor.

Markaziy Osiyo hamdo'stligining kelajagiga ishonch bilan qarash uchun hamma asoslar mavjud. Zarur huquqiy va tashkiliy shart-sharoitlar yaratilgan, davlatlararo kengash tuzilgan, hamdo'stlik dasturlarini ro'yobga chiqarish bo'yicha ijroiya qo'mita, Markaziy Osiyo hamkorlik va taraqqiyot banki tashkil etilgan. Qatnashuvchi davlatlar iqtisodiy integratsiyasining 2012-yilgacha mo'ljallangan, 53 ta muayyan loyihani o'z ichiga oladigan dasturi ishlab chiqildi, yagona iqtisodiy makonni vujudga keltirishga asos solinmoqda.

Yagona iqtisodiy makon tashkil etish to'g'risidagi shartnomada qatnashuvchi mamlakatlar mudofaa vazirlari kengashining nizomi tasdiqlandi.

Markaziy Osiyo davlatlari hamdo'stligining tashkil etilishi aslo ularning boshqa davlatlardan ajralib qolishini bildirmaydi. Markaziy Osiyo davlatlari, garchi, ijtimoiy-siyosiy, etnik va madaniy jihatdan xilma-xil bo'lsa-da, birgalikda kuch-g'ayrat sarflab, xavfsizlikka tashqaridan tug'ilyotgan tahdidlarga qarshi turish, butun mintaqani barqaror rivojlantirish uchun qulay muhitni yaratadi, amalda bu mintaqani xavfsizlik va barqarorlik mintaqasi sifatida shakllantiradi. Shu tariqa bu mintaq davlatlari butun dunyo ko'lamida tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga munosib hissa qo'shadi.

Tarixni mojarolar va adovat emas, balki xalqlar o'rtasidagi hamkorlik va ishonch olg'a harakatlantiradi. Hozirgi dunyoda xavfsizlik va barqarorlik faqat harbiy-siyosiy jihatlarinigina nazarda tutib qolmaydi. Iqtisodiy, ekologik va madaniy jabhalar ham juda muhim bo'lib, xoh mintaqa, xoh butun sayyoramiz bo'lsin – bizning tinch va gullab-yashnayotgan umumiy uyimiz ana shulardan tashkil topadi.

### **23.2. Paxta kompleksining eksport salohiyatini rivojlantirish**

Mustaqillikka erishilgan kunlardan boshlab O'zbekiston hukumati tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga ustuvor yo'nalish sifatida qarab kelmoqda. Chunki mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi, globalashuvi hozirgi paytda birinchi navbatda xalqaro iqtisodiy hamjamiyatga integratsiyalashuvi darajasiga bog'liq.

O'zbekiston hukumati tashqi iqtisodiy aloqalarni aniq konsepsiya asosida amalga oshirib, bu sohadagi ustuvor yo'nalishlarni belgilash va barcha xorijiy davlatlar, iqtisodiy hamda moliyaviy tashkilotlar bilan ikki tomonlama manfaatdorlik siyosatini olib bormoqda. O'zbekiston mahsulotlarining xalqaro standartlari va sifat belgilarini tan oladi. Respublikada ichki mahsulotlarga shtrixlangan kodlar joriy etish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Hukumat tomonidan eksport uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta'minlash borasida ishlar olib borilmoqda. Bu ishlar jumladan:

eksport qilinuvchi tovarlarga xalqaro registrlarga mos keladigan sertifikatlarni ishlab chiqish va joriy etish dasturlari asosida bu mahsulotlarni xalqaro xomashyo birjalarida majburiy sertifikatlash va ro'yxatdan o'tkazish;

sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlarining sifatlarini xalqaro standartlarga mos keladigan sertifikatlash tizimini rivojlantirish va bu ishga ayrim hollarda ixtisoslashgan chet el kompaniya va agentliklarini jalb etish orqali amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish zarurati tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi subyektlarni faollashtirish va qo'llab-quvvatlash maqsadida institutsional infratuzilmani yanada mustahkamlashni taqozo etmoqda. Shu maqsadda respublikamizda:

eksport qiluvchilarni qo'llab-quvvatlash va tashqi savdo milliy markazini tuzish;

milliy eksport qiluvchilarni qo'llab-quvvatlash, mahsulotlar, xizmatlar va ishlarni rag'batlantirish va moliyaviy himoyalash, uzoq va qisqa muddatli kreditlar berish uchun eksport-import bankini tuzish;

savdo uylarining chet ellardagi tijorat tarmoqlari, hissadorlik jamiyatlari va qo'shma korxonalarini tuzish hamda ular tomonidan ilg'or savdo kompaniyalari, marketing va konsalting firmalarining tajribasini o'rganish rejalashtirilmoqda.

Shuningdek, O'rta Osiyo mintaqasidagi mamlakatlar integratsiyasini rivojlantirish ishlari ham davom ettirilmoqda. Bu mintaqa o'zining tabiiy va ish resurslari bilan chet el investorlari uchun istiqbolli bozor hisoblanadi. Bugungi kunda bu mintaqadagi milliy qonunlar, me'yoriy hujjatlarni yaqinlashtirish, iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirishga qaratilgan shart-sharoitlar, mintaqaviy institutlar yaratish ishlari jadal olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi MDH bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantiradi va uning hududidagi mintaqalarni o'zbek mahsulotlari eksport qilinadigan asosiy bozorlardan biri deb qaraydi.

O'zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatida AQSH va Yevropa bilan aloqalarni yanada rivojlantirishga ustuvor masala deb biladi. Shuningdek, biz Osiyo mintaqasida, birinchi navbatda, Yaponiya va Koreya Respublikasi bilan munosabatlarni kengaytirish tarafdorimiz. Qo'shni Xitoy Xalq Respublikasi va Rossiya bilan an'anaviy aloqalarimiz yanada kengayib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi hukumati Jahon savdo tashkiloti (JST) ga a'zo bo'lishni ustuvor yo'nalishlardan biri deb hisoblaydi, chunki unga a'zo bo'lish respublikamizning xalqaro iqtisodiy hamjamiyatga integratsiyalashuvini yanada chuqurlashtirmoqda. 1998-yil sentabr oyida O'zbekiston Respublikasi JST kotibiyatiga «Tashqi savdo haqidagi memorandum»ni taklif etdi va hozir bu hujjat uning ishtirokchilari tomonidan o'rganilmoqda.

Shuningdek, respublikamizda JST a'zolari bilan ikki tomonlama kelishuvlarni amalga oshirish hamda tashqi iqtisodiy faoliyatni bosqichma-bosqich erkinlashtirish, joriy qonunchilikni GATT, JST talablariga moslashtirish sohasida ham ishlar amalga oshirilmoqda.

Chet el ekspertlari tomonidan baholanishicha, O'zbekiston Respublikasi qazilma boyliklari trilion AQSH dollariga teng va ulami ishlash uchun kafolatlangan qaytim bor. O'zbekistonda chet el sarmoyalarini jalb etish, kichik, o'rta biznes hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun keng imtiyozlar yaratilgan. Ayniqsa, chet el sarmoyasini jalb etishga qaratilgan muhit ularning egalari uchun imtiyoz va qulayliklar tizimi bilan ifodalanadi.

Eksportga mo'ljallangan ishlab chiqarishni rivojlantirish va mahsulotlarni tashqi bozorga chiqarish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- eksport mahsulotlarini tashqi bozorda sotish uchun keng savdo va xizmat ko'rsatish shaxobchalarini vujudga keltirish;

- maqsadli va chuqur marketing tadqiqotlarini, reklama ishlarini yo'lga qo'yish;

- chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va korxonalarni texnikaviy modernizatsiyalash uchun zarur bo'lgan moliyaviy mablag'lar ajratish;

- eksportni rag'batlantirish maqsadida moliyaviy konsorsiumlar tuzish;

- eksport mahsulotlarini sotishni jadallashtirish maqsadida dilerlik shaxobchalari va konsignatsiya omborlarini tuzish;

- xalqaro valyuta kreditlari bozorida qaror topgan foiz stavkalariga asoslanib, eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun lozim bo'lgan xomashyo va butlovchi import mahsulotlarni xarid qilishga valyuta kreditlarini ajratish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

Eksport hajmini ko'paytirish, uning tarkibini kengaytirish va takomillashtirish uchun quyidagi choralarini ko'rish maqsadga muvofiqdir:

- sanoat korxonalarining eksport sohasiga qaratilgan faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;

- korxonalarining raqobatbardosh va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tish borasidagi sa'y-harakatlarini rag'batlantirish;

- ilmtalab va bazaviy sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun bevosita xorijiy investitsiyalarni jalb etish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 11-iyundagi «Respublika paxta tozalash sanoati boshqaruvini takomillashtirish va monopoliyadan chiqarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi UP-2874-sonli Farmoniga binoan Vazirlar Mahkamasi 2001-yil 17-sentabrda «Paxta tolasi eksportini markazlashtirish tartibini tashkil etish haqida Nizom» ishlab chiqildi. Unga binoan Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi «O'zpxatasanoat» uyushmasi va Tashqi iqtisodiy aloqalar investitsiya va savdo vazirligi bilan birgalikda 2006-yil hosilidan boshlab paxta tolasi ishlab chiqarish va tola eksporti balansini tuzadi va uning «O'zpxatasanoat» va TIAI va SV birlashmalari va kompaniyalari bo'yicha taqsimotini

hisoblaydi. Paxta tolasini eksport qilish, xaridorlar bilan bitimlar tuzish oldidan amalga oshiriladigan ishlarni tashkil etish vazifasi TIAI va SV zimmasiga yuklatilgan. U, shuningdek, tashqi savdo kompaniyalari tomonidan bitimlar tuzilishini nazorat qiladi.

«O'zpxatasanoat» uyushmasi, Tashqi iqtisodiy aloqa, investitsiyalar va savdo vazirliklari (TIA, ISV) bilan tasdiqlangan balanslarga binoan paxta tolasini har bir chorakda jo'natish grafiginı Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun taqdim etadi va ular hissadorlik birlashmalari va tashqi savdo kompaniyalari tomonidan ijro etilishini nazorat qiladi.

Chet el xaridorlari bilan bitim tuzishdan oldingi ishlar va tuzish ishlari TIA, ISV ning tashqi kompaniyalariga yuklatiladi, tasdiqlangan paxta tolası hajmidagi (markazlashgan va markazlashmagan) miqdor bo'yicha kontrakt tuzish ijrosi ustidan nazoratni TIA, ISV amalga oshiradi.

TIA, ISV «O'zpxatasanoat» uyushmasi bilan birgalikda paxta tolasini jo'natish yuzasidan uyushmaning hududiy bo'limlari bo'yicha jo'natish haqida choraklik grafiklarini tuzadi va tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadi.

TIAISV va «O'zpxatasanoat» uyushmasi paxta tolası eksporti grafiginin ijrosini doimiy nazorat qiladi.

Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi «O'zpxatasanoat» va TIAISV bilan birgalikda har oyning 12 sanasida paxta tolası balansi va sotish, jumladan, eksporti haqidagi axborotni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadi.

Bugungi kunda O'zbekistonning paxta tolasini sotib oladigan yirik hamkorlar Arab Amirliklari, Germaniya, Rossiya, Janubiy Koreya, Shveysariya, Buyuk Britaniya Turkiya, Qozog'iston va Niderlandiya, qisman savdo qiladigan mamlakatlar Ispaniya Suriya, Portugaliya, Misr, Erondir.

Bundan tashqari, o'zbek paxtasi Yevropada yetakchi o'rinni egallaydi va boshqa paxta navlari bilan muvaffaqiyatli raqobat qiladi. Paxta tolasining yirik iste'molchilar G'arbiy va Sharqiy Yevropa hamda Uzoq Sharq bozorlarida joylashgan.

An'anaviy Yevropa bozorlaridan (Italiya, Germaniya va Fransiya) tashqari yangi bozorlar Osiyo mintaqasida ham ochildi. Jumladan, 250 mingga tonna paxta tolası Tayvan, Indoneziya, Tailand, Xitoy, Koreya, Yaponiya va Gorkongga eksport qilinmoqda. Keyingi yillarda Braziliya va Turkiya mamlakatlariga ham paxta eksport qilinmoqda. Jahon bozorida o'zbek paxtasi «O'rta osiyo tolası» deb klassifikatsiya qilinadi, uning uzunligi 1-3/32. Bu esa quyidagicha o'qiladi: o'rta tola uzunligi (tola) birinchi klass, «o'rta» sifatli. Tolamiz narxi «A» indeksiga tegishli parametrlarning kundalik kvotasiga qarab belgilanadi va «Kotton Autluk» kompaniyas tomonidan nashr qilinadi. Kvotalar bir funtga to'lanadigan AQSH sentlarid ifodalanadi. O'zbekiston jahon bozoriga chiqadigan portlarga ega emas. Shuning uchun tashqi savdodagi yirik muammo samarali transport «yo'lagi»ni tanlash va eksport import operatsiyalarini amalga oshirish hisoblanadi.

O'zbekiston bir necha xalqaro paxta tashkilotlari, jumladan, Paxta bo'yich Xalqaro maslahat qo'mitasi, Liverpool, Gvineya paxta uyushmalarining to'la huquq a'zosisdir. Paxta bo'yicha Xalqaro maslahat qo'mitasining Toshkentda bo'lib o'tgan 55 Plenumida O'zbekiston paxtasining jahonda paxta hajmi ko'payishidagi yetakchilik roli ta'kidlab o'tildi.

Oldin ta'kidlaganimizdek, O'zbekiston paxtasi bugun Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligiga qarashli «O'zmarkazimpeks», «Innovatsiya» va «O'zprommashimpeks» savdo kompaniyalari orqali eksport qilinmoqda. Bu kompaniyalar axborot ayirboshlash asosida xalqaro yetakchi kompaniyalar bilan birgalikda ishlaydilar. Ular qatoriga Dunovant, Glenkor, Pol Reynhard, Meredis Joun, Luis Drafurs, Ralli Brazers, Shtaxel va boshqalar kiradi. Keyingi yillarda eksport qilinayotgan paxta tolasining narxi «Kotton Autluk» kvotalari yordamida o'rnatilmoqda.

Eksport qilinayotgan paxta tolasining asosiy qismini ikkita tashkilot: «O'zvneshtrans» (temir yo'l) va O'rta Osiyo trans (motorli transport) amalga oshiradi.

Paxta tolasini eksportining iqtisodiy samaradorligi darajasi ko'p jihatdan jahon bozorida konyunktura vaziyati va narxlar darajasi bilan belgilanadi. Shu sababli bozor jarayonining rivojlanish tendensiya va qonuniyatlari tahlili alohida ahamiyatga ega.

Bozor muammolari, bozor vaziyatini belgilovchi omillar har doim bir xil emas. Ular o'zaro bog'liqlikda namoyon bo'ladigan kompleks turga ega.

Bozorning sig'imi, raqobatchilarning bozordagi ahvoli va ularning umumiy sotish hajmidagi ulushi, ayni shu muddatdagi talab va taklifning nisbati, bunday nisbat sabablariga yaqin kelishuvda tovarga bo'lgan talabning o'zgarishi tendensiyalari eng muhim omil hisoblanadi.

Paxta marketingi majmuasida quyidagi tuzilmalar mavjud:

- bozorning potensial imkoniyatlari, ya'ni paxta tolasiga bozor talabi;
- mijozlarni jalb qilish mezonlari va modellari (birjalar, xarid markazlari);
- bozorni segmentlarga bo'lish;
- paxta tolasini narxlar darajalari;
- narx siyosatidagi omillar (chegirmalar, ustamalar);
- qonunlar, me'yorlar, bitimlar va maxsus reglamentlar.

Raqobatchilar kurashi.

Bizning bevosita raqiblarimiz: AQSH, Xitoy, Pokiston.

Potensial raqiblar: Avstraliya, Misr, Jazoir.

Bilvosita raqiblar (sun'iy to'lalarni ishlab chiqaruvchilar).

Asosiy raqiblarning baholanishi: bozor kvotalari, bozordagi pozitsiyalar, ustunlik va kamchiliklar.

Jahon paxta bozorida raqiblarning holatini tahlil etaylik.

AQSH dunyodagi yirik paxta ishlab chiqaruvchilardan biridir. U geografik, hududiy joylashishi, iqlim sharoiti hamda tuproq unumdorligi qulayligi bilan ajralib turadi. AQSH da yiliga o'rtacha 5 mln. 200 ming gektar yerga paxta ekilib, gektaridan 700 – 800 kg. tola olinadi. Shunday qilib, hududda yiliga o'rtacha 4,0-4,2 mln. tonna paxta tolasini ishlab chiqariladi.

Jahonda paxta eksportining 80 foizi Shimoliy Amerika mamlakatlari ulushiga to'g'ri keladi. Jumladan, Meksika, Kanada, Gonduras, Dominikana Respublikasi bu xomashyoning yirik xaridorlaridir. AQSHning jahon paxta bozorida ulushi 20-30 foiz atrofida o'zgarib turadi. Amerika paxta tolasining yirik xaridorlari – Uzoq Sharq mamlakatlari (Yaponiya, Janubiy Koreya, Gonkong), shuningdek, G'arbiy Yevropa mamlakatlari va Kanada.

Keyingi yillardagi Amerika paxtasining yirik iste'molchilariga Xitoy, Yaponiya, Koreya, Indoneziya, Meksika, Tayvan va boshqalar ham qo'shildi.



Oxirgi yillarda Xitoy paxtani eksport qiladigan mamlakattan import qiladigan mamlakarga aylanadi. Bu hududda paxta hosildorligi yildan-yilga oshib bormoqda. Xitoy paxtasining aksariyat qismi qo'lda, atigi 5 foiz mashinalarda tutiladi.

Hindiston paxta yetishtirish bo'yicha dunyoda uchinchi o'rinda turaldi. Paxta Hindiston aholisi kiyim-kechakka bo'lgan ehtiyojining 90 foizini qondiradi va mamlakati iqtisodiyotida katta rol o'ynaydi.

Hindiston paxtani iste'mol qilish bo'yicha ham jahonda uchinchi o'rinda turaldi. Keyingi yillarda paxta ekim maydonlari o'rtib bordi va 2004-yili 9,8 mln. gektarga yetdi. Hosildorlik nisbatan past va o'rta. Hindistonda yiliga 3 mln. tona paxta tolasini ishlab chiqariladi va deyarli barchasi iste'mol qilinadi. Aytim yillarda 150-190 ming tonnasini eksport qilindi. Import qilinadigan paxta tolasini hajmi keyingi yillarda kamayib bordi. Pokiston 1990-yildan boshlab jahonda paxta yetishtirish bo'yicha to'rtinchi o'rinda. Uning ishlab chiqarishdagi ulushi o'rtacha 6,5 foizni, iste'moldagi ulushi esa 5 foizni tashkil etadi.

Bu ko'rsatkichlar keyingi yillarda nisbatan muqim turganligi sababli Pokistonning jahon paxta tolasini bozoriga, ayniqsa, paxta narxiga ta'siri katta bo'lmoqda. Paxta yetishtirish va uning iste'moliga davlat aralashuvi ham sezilarli darajada.

Jahonda to'lar (paxta, jun, kimyoviy to'lar) iste'molida paxtaning salmog'i 49%. To'qimachilik xomashyosini balansida paxta ulushi hali ham ilgarigidek yuqori. Bu, paxtaning universal sifatini va uni turli maqsadagi buyumlar ishlab chiqarishda qo'llash imkonligini nazariydir.

Mulohazalar ko'rsatkichlarga ko'ra, dunyoda paxta iste'moli hajmi oshib bormoqda. Bu, nazariyda, birinchidan, aholi sonining o'sishi va ip-gazlama mahsulotlari iste'moliga talabning oshishi, ikkinchidan, issiq va mo'tadil iqlimni mamlakatlarda paxtadan ishlangan buyumlar zarurligi, uchinchidan, paxtadan ishlangan buyumlarning sun'iy to'laridan ishlangan buyumlarga nisbatan rag'obatdoshligi bilan bog'liq. Paxta dunyoning 70 dan ortiq mamlakatida yetishtiriladi va 100 dan ortiq davlatda iste'mol qilinadi. Dunyoda yetishtirilgan paxtaning asosiy qismi AQSH, Xitoy, Hindiston, Pokiston va O'zbekiston ulushiga to'g'ri keladi. Paxta tolasining asosiy iste'molchilari Yevropa mamlakatlari, Yaponiya, Koreya, Gonkong va Tayvandır. Hozirgi vaqtda dunyo bo'yicha 36,2 mln. gektar yerda paxta yetishtirilmoqda. Bu jahon dehqonchiligida ishlatiladigan yerlarning 2% iga teng.

O'zbekiston paxtasining rag'obatdoshligini ta'minlash bozordagi marketing tadqiqotlari o'rtasida, bir tomondan, ishlab chiqarishda marketing muhiti va bozorga paxtachilik majmuasining rag'obatdoshlik portsiyasini va ichki imkoniyatlarini, jumladan, uning ishlab chiqarish resurslari va eksport imkoniyatlarini baholashni talab qiladi.

**O'zbekistonning paxta tolasini eksportga doir strategiyasi.** Har bir mamlakat mulohazalar va nisbiy qiyosiy ushuliklardan kelib chiqqan holda ma'lum strategik ahmiyatga molik mahsulotni eksport qiladi. Masalan, Saudiya Arabistoni neftni, O'zbekistonning qandayki mahsulotni eksport qilishga ixtisoslashgan.

O'zbekiston xalqaro mehnat bazarida xomashyo yetkazib beruvchilik roli bilan ajralib turadi. Haqiqatan ham respublikaning xomashyo (asosan paxta tolasini) eksport qilish sohasidagi imkoniyatini g'oyat katta. O'zbekiston dunyoda paxta yetishtiruvchi ilg'or



beshta mamlakat qatoridan o'rin olgan. U paxta tolasini eksport qilish bo'yicha AQSHdan keyingi – ikkinchi o'rinni egallaydi.

Paxta narxining pasayishi, kutilganidek, to'xtadi: Sot'look «A» indeksi (ushbu indeks Sharqiy Yevropa portlariga kelib tushgan beshta eng past narxlar bo'yicha o'rtaacha indeks) 1999-yilning dekabr oyida bir funt paxta uchun 44 sentni tashkil etgan bo'lsa, 2000-yil mart oyiga kelib, 57 sentga yetdi, Bu hol paxtaning uch oy davomida narxi 30 % o'sishidan dalolat beradi. U quyidagi omillar bilan izohlanadi:

Mustaqillik yillarida respublika paxta sohasidagi strategiyasini o'zgartirdi. Bu strategiyaning maqsadi paxta sohasidagi yakkahokimlikni bartaraf etib, maksimum miqdorga teng tola ishlab chiqarishdir. Balanslashtirilgan siyosatni amalga oshirish natijasida paxta yetishtirish barqarorlashdi, don yetishtirish hajmi ortdi va respublikada don mustaqilligiga erishildi.

Paxta tolasini eksport qilishda O'zbekiston jahonda ikkinchi o'rinda turadi, jahonga eksport qilinadigan paxtaning 20 foizini beradi. Respublika bu mavqeini saqlab qolmoqda. Chunki paxta tolasini jami eksport hajmining qariyb 80 foizini tashkil etadi va u valyuta tushumining muhim vositasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi bugun paxta tolasini sotish bo'yicha jahondagi 80 dan ortiq mamlakat bilan sherikchilik qiladi. Respublikamiz iqtisodiy rivojlangan davlatlar, jumladan, AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, Shveysariya, Turkiya singari mamlakatlar bilan savdo aylanmasini kengaytirgani sezilmoqda.

O'zbekistonning yirik savdo hamkorlari qatoriga Germaniya, Rossiya Federatsiyasi, Janubiy Koreya, Shveysariya, Buyuk Britaniya, Turkiya, Qozog'iston, Niderlandiya va Birlashgan Arab Amirliklari kiradi. Keyingi yillarda, shuningdek, Suriya, Ispaniya, Portugaliya, Misr, Eron bilan iqtisodiy aloqalar va savdo sohasida progressiv o'zgarishlar yuz berdi.

Xalqaro maydonda o'zbek paxtasi standarti O'rta Osiyo tolalari klassifikatsiyasiga kiradi: uzunligi 1-3/32, ya'ni 1-klass o'rta tola. O'zbek paxta tolasiga narx «A» indeksiga taalluqli kundalik kvotalarga binoan o'rnatiladi va u «Kotluk LTD» paxta kompaniyasi tomonidan nashr qilinadi. kvotalar bir paundga to'g'ri keladi, AQSH sentida belgilanadi.

Geografik asos qilib C.I.F. shaklida Shimoliy Yevropa portlari olinadi. O'zbekiston dengizga chiqadigan portlarga ega emas. Tashqi savdodagi yirik muammolardan biri eksport-import operatsiyalarini bajaradigan samarali transport yo'lagi (koridor)ni yaratishdir. Shu nuqtai nazardan temir va avtomobil yo'llari imkoniyatlarini yaxshilash zarur. Jumladan, shu tariqa respublika Boltiq dengizi portlari: Ventspils, Klayspeda, Tallin, Riga, Liepaya; Zakavkaziya yo'lagi (koridor) orqali Poti-Botumi, Ilichevsk, Odessa, undan so'ng Mersin (Turkiya) portigacha; shuningdek, Gebel-Ali (BAA), Eronning Bandar-Abbas porti orqali ham dengizga chiqishi mumkin. Uzoq Sharqda Vladivostok orqali Naxodka portiga paxtani yetkazish imkoni bor.

Transport tarmog'ining bunchalik xilma-xilligi paxta tolasini bozorlardagi yangi xaridorlarga katta imkon tug'diradi. Paxtani eksport qilish borasidagi bu ishlarni amalga oshirishdan tashqari O'zbekiston bir necha xalqaro paxta tashkilotlarining haqiqiy a'zosi bo'ldi. Jumladan, u paxta sohasida Xalqaro Maslahat qo'mitasi, Liverpul paxta ushmasi, Gdineya paxta assotsiatsiyasiga a'zo.

Paxta sohasida Xalqaro maslahat qo'mitasining Toshkentda o'tkazilgan 55-yalpi majlisida ishtirok etgan hukumat va savdo vakillari O'zbekistonning jahonda paxta ishlab chiqarishni ko'paytirishdagi yetakchilik rolini tan olishdi. Shuni ham ta'kidlash zarurki, keyingi

yllarda respublika moliya doiralarida ham barqaror ishonchli obro'ga ega bo'ldi. Endilikda xalqaro ahamiyatga molik bo'lgan ko'pgina chet el banklari Toshkentda o'z vakolatxonalarini ochib, respublika iqtisodiyotiga katta hissa qo'shmoqdalar.

Iqtisodiyotdagi bu sobitqadamlik ishlab chiqarishni qayta texnologik qurollantirishni rag'batlantirish hamda aholining hayotiy ehtiyojlarini hal etuvchi ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirishdan iborat. O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishida eksportga yo'naltirilgan tarmoqlar va mahsulotlar ishlab chiqarish tizimini taraqqiy ettirish katta ahamiyatga ega. Shu sababli iqtisodiyotni rivojlantirishda asosiy urg'u chet el sarmoyasini jalb qilish natijasida shunday tarmoqlarni taraqqiy ettirishga berilishi zarurki, ular xomashyo o'rniga raqobatbardosh, tayyor mahsulotlarni eksport qilishga yo'naltirilgan bo'lsin. Bugungi kunda strategik ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlar va loyihalar jumlasiga yengil sanoat, turizm, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash tarmoqlarini kiritish mumkin.

Yengil sanoatni taraqqiy ettirish va takomillashtirish tuzilmasi «paxtachilik – to'qimachilik sanoati – qayta ishlash sanoati»ni barpo etish rentabellik darajasini bir necha barobar oshirishga hamda respublikada valyuta tushumi miqdorini ko'paytirishga olib keladi. Shu tufayli chet el sarmoyasini, avvalambor, qayta ishlash sanoatiga jalb etish zarur, chunki xomashyoni chuqur qayta ishlash qo'shimcha qiymat miqdorini oshiradi.

Chet el kapitalini, ayniqsa, eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishga jalb etish katta ahamiyat kasb etadi. Respublika ishlab chiqarish tarmoqlarini qayta jihozlash dasturiga binoan yengil sanoatga chet el kapitalini olib kirish ancha ko'payadi. To'qimachilik sanoatini rivojlantirish dasturiga binoan tarmoqdagi 9 ta korxonada texnik jihatdan qayta jihozlanib, paxta tolasini qayta ishlash sifati yaxshilandi, chet el jihozlari importiga asoslangan yangi korxonalar Yaponiya, Italiya, Belgiya, Germaniya firmalarining jihozlari bilan qurollantirildi.

### **23.3. Tayyor mahsulot eksportini ko'paytirish yo'llari**

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida uslubiy ishlab chiqarilgan va barcha unsurlari moslashtirilgan bir butun va ixcham tizim zarur. Eksportga yo'naltirilgan marketing esa ana shunday talablarga to'la javob beradi.

Marketingning hozirgi zamon konsepsiyasi uzoq rivojlanishni jarayonini boshidan kechirgan. U ishlab chiqarishning sotishga alohida yondashuvi sifatida XX asr boshida, yirik ko'lamlil ishlab chiqarish shakllanganda, raqobat keskin kuchayganda ajralib chiqqan. Ammo marketing iqtisodiy faoliyatning tizimi sifatida o'z ichiga ko'proq tushunchalarni oladi. Marketing bir tomondan, bozorni, talab, did va ehtiyojni har taraflama mukammal o'rganishni, ishlab chiqarishni ushbu talablarga yo'naltirishni, mahsulotlarni aniq iste'molga mo'ljallagan holda ishlab chiqarishni, boshqa tomondan, bozorda mavjud talab, ehtiyoj va iste'molchilar afzalliklarining shakllanishiga faol ta'sir etishni ko'zda tutadi.

Marketing haqida birinchi marta rasmiy ravishda 1957-yilda, o'sha paytdagi «Jeneral elektrik»ning Prezidenti Jek Makkiterik Amerika marketing assotsiatsiyasi majlisida aytib o'tgan. U, marketing – integratsiyalashgan, iste'molchiga yo'naltirilgan va biznes falsafasining foydasi ekanligini ta'kidlab o'tgan.

Hozirgi vaqtda «marketing» tushunchasini talqin qilishda ancha katta ziddiyatlar mavjud. Ko'pgina xorijiy mutaxassislar bu tushuncha kengaytirilishi va o'z ichiga no tadbirkorlik faoliyatini ham olishi kerak, deb hisoblaydilar. Boshqalar marketingni oldi-sotdi bilan bog'lashni ko'zda tutadilar. Amerika marketing assotsiatsiyasining faol arboblari, AQSHdagi Shimoli-g'arbiy universitetning marketing bo'yicha professori F. Kotler yozishicha, «marketing – kishilik faoliyatining almashuv vositasida zarurat va ehtiyojlarni qanoatlantirishga yo'naltirilgan turi».

Ma'lumki, xalqaro marketingdagi tadqiqotlar tashqi bozor faoliyatining barcha jabhalarini o'z ichiga oladi. Marketing tadqiqotlarining asosiy yo'nalishlari esa quyidagilardan iborat:

Bozorni va sotishni tadqiq qilish:

Masalan, raqobatchilar to'grisida axborot olish.

Mahsulotni tadqiq qilish:

Har xil qadoqlash turlarini sinab ko'rish va tadqiq qilish.

Talab va taklifni tadqiq qilish:

Mahsulot bahosi bilan unga bo'lgan talab o'rtasidagi bogliqlikni tadqiq qilish.

Mahsulot haqida iste'molchilarga ma'lumot berish:

Reklamaning turli variantlarini sinab ko'rish.

Mahsulotni xaridorlarga yetkazish.

Chakana savdo nuqtalari joylashishini tadqiq qilish.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, AQSH, Yaponiya, G'arbiy Yevropaning ko'pgina kompaniyalari o'zlarining boshqaruv tizimlarini marketing tamoyillari asosida ko'radi, marketing tadqiqotlarini o'tkazishga chet el farma va kompaniyalari katta mablag'lar sarflaydi. Masalan, AQSHda yillik sotish hajmi 25 mln. dollar bo'lgan kompaniyalar o'z budjetlarining 3,5 foizga yaqinini marketing tadqiqotlariga sarflaydi. Iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalar ishlab chiqarish vositalari yetkazib beruvchi korxonalariga nasbatan bu sohaga ko'proq mablag' sarflaydilar. Ayniqsa, mahsulotlar eksportga yo'naltirilgan, mukammallashtirilgan taqdirda har jahatdan nihoyatda yuqori samara keltiradi. Marketing tadqiqotlari ko'rsatishicha, bu tadbirga sarflangan har bir AQSH dollari o'z egasiga 2,5 dollar bo'lib qaytar, ish sifati yaxshilanar va u bilan band xodimlar katta ma'naviy oziq olar ekan.

Tashqi bozorni tadqiq qilish esa, O'zbekiston Respublikasi korxonalarining xorijiy bozordagi strategik liniyasini ishlab chiqish uchun, ayniqsa, yangi tovarlarni ishlab chiqarish va ularni bozorlarga kiritishda hammadan ham zarurroq masaladir.

Agarda sanoat inqilobi davrida korxonalar iqtisodiyotning asosiy yo'nalishi ishlab chiqarishga qaratilgan bo'lsa, hozirgi vaqtda sharoit tubdan o'zgarib, asosiy e'tibor xalqaro marketingga, tashqi bozorga va iste'molchiga qaratilgan. Demak, yaqin o'tmishda «oldin tovar, keyin esa bozor turadi» degan bo'lsak, endilikda esa, eng avvalo iste'molchining xohishi bo'lishi lozim va agarda korxonalar o'z tovarini tashqi bozorda joylashtirishni va sotishni hamda foyda olishni xohlasa, u albatta bunday xalqaro bozor sharoitlariga va talablariga moslashishi kerak. Korxonaning o'sish va kengayish siyosati asosini esa tashqi bozor uchun xizmat qilish, jahon konyunkturasini yanada chuqurroq o'rganish, uni ichiga kirib, xorij bozorlarini egallash hosil qiladi, desak hech ham mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Ko'p sonli tadqiqotlar va so'rovlar shuni ko'rsatadiki, tashqi bozorni o'rganish marketing faoliyatining muhim yo'nalishi hisoblanadi. Masalan, Germaniya va Buyuk Britaniya esa doimo tahminan  $\frac{3}{4}$  qismligi bozor tadqiqotini amalga oshiradi. Ko'plab G'arb korxonalarini boshqarishga marketing bo'yicha yondashishda asosiy shior, «Ishlab chiqarilganini sotish emas, balki sotiladigan narsani ishlab chiqarish» bo'lib qoldi.

Bozorni batafsil o'rganish uni iste'molchilar guruhlariga va tovarlarning iste'mol xususiyatlariga muvofiq segmentlashni talab etadi. Xorijiy tajriba ko'rsatadiki, eng muvofiq segment deb ushbu bozorning taxminan 20 foiz xaridorlari firma taqdim qilgan tovar hajmining 80 foizini xarid qilganlari hisoblanadi. Tovar bilan bog'liq bo'lgan masala uni oldindan aniqlangan bo'lajak xaridorlarning ayrim guruhlariga aniq mo'ljallab loyihalashtirishning zarurligidir. Masalan, u tor guruh Belgiyadagi 15-17 yoshli o'smirlar yoki keng – Germaniya bozoridagi kam yoqilg'i sarflaydigan avtomobillar va hokazolar bo'lishi mumkin.

Tashqi bozordagi sotish siyosati ahamiyatli. Marketing faoliyati jarayonida sotish muammosi dastlabki bosqichdayoq hal qilinadi. Shuning uchun sotish siyosati amaliy faoliyatning shakllari va uslublarini tanlashni, sotish siyosatini ishlab chiqish va asoslash esa aniq tovar va tovarlar guruhiga nisbatan quyidagi masalalarni hal qilishni ko'zda tutadi:

- maqsadli bozor yoki uning bo'g'inini tanlash;
- kerakli moliyaviy xarajatlarni belgilash;
- bozorga chiqish tartibi va vaqtini tanlash;
- sotishni rag'batlantirish shakllari va uslublarini belgilash.

Sotish tizimini tanlash korxonada tarkibida tashqi bozorlarda mahsulotlarni sotish bilan mashg'ul bo'lgan bo'linmalar mavjud bo'lishini taqozo etadi. Tashqi bozorlarda sotish tizimi quyidagi ko'rinishlarda namoyon qilinishi mumkin:

- chet ellarda savdo uylari yoki filiallar;
- firma vakillari;
- xorijdagi dilerlar;
- hamkorlikdagi sotish faoliyati;
- boshqa firmalarning sotish tizimidan foydalanish.

Sotishni rag'batlantirish shakllari va kerakli xarajatlarni aniqlash eng samarali vositalarni ko'zda tutadi. Bu vositalarga, avvalo quyidagilarni kiritish kerak:

- reklama faoliyati;
- tovar belgisidan foydalanish;
- sotilgan mahsulotlarga texnik xizmat ko'rsatish.

Tashqi bozordagi raqobat muhitini hisobga olish kerak. Garvard universiteti (AQSH) xodimlari tomonidan olib borilgan marketing izlanishlari shuni ko'rsatadiki, o'z raqobatchilaridan bozorga muayyan tovar olib chiqishda bir yilga kech qolgan firma olinishi ko'zda tutilgan foydaning 50 foizidan ajralib qoladi.

Marketing tadqiqotlarining muhim jihatlaridan Yana biri tovarning raqobat qobiliyatini aniqlashdir. Bu qobiliyat faqat tovarlarni bir-biriga taqqoslash orqali aniqlanadi.

Asosiy raqobatchilar bo'yicha bozorni segmentlash xalqaro marketingning muhim unsuridir. U kabi segmentlash firmaga tijorat zafarini keltiradigan marketing

strategiyasini ishlab chiqish imkonini beradi. Masalan, «Kontrol deyta» firmasi Amerika EHM bozorining 70 foizini nazorat qiluvchi EHM raqobatchilari tazyiqiga qaramay, dinamik tarzda rivojlanmoqda. Firmaning yutuqlari siri shundaki, u faoliyatining raqobatchilar hisobga olmagan bozor ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirgan.

Marketing nafaqat asosiy iste'molchilar talablarini batafsil va to'la o'rganish, balki sotishning o'sishi, iste'mol samaradorligi va talabni shakllantirish va rag'batlantirishni ham ko'zda tutadi. Bu maqsadga, birinchi navbatda, kommunikatsion siyosat deb nomlangan tizim javob beradi, reklama uning tarkibiga ta'sir qiluvchi kompleks choralar sifatida kiradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, xalqaro kompaniyalar reklamani rivojlantirish va amalga oshirish masalalariga katta ahamiyat beradilar. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda reklama iqtisodiyotning ixtisoslashgan sohasiga aylangan va har yili katta mablag'lar sarflanadi. Masalan, reklama faoliyatini moliyalaştırish uchun har yili AQSHda 75-78 mlrd. doll. Yaponiyada 28-28,5 mlrd. doll. G'arbiy Yevropada o'rtacha 10 mlrd. doll. sarflanadi. Umuman, reklama tadbirlarida rejalashtirish va amalga oshirishga har yili AQSHdagi yalpi mahsulotning hatto 2 foizigacha, Fransiyada 1 foiz sarflanadi. Bu tovar tannarxining 10 foizini tashkil qiladi. Tovarlar va xizmatlarning alohida turlari uchun reklama xarajatlari 40 foizgacha ham bo'lishi mumkin. Xorijiy davlatlar va mamlakatimiz tajribasiga muvofiq reklamani quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Obyektlar bo'yicha reklama qilish:

nufuzli reklama — firmani raqobatchilaridan farq qilishga qaratilgan;

sotib bitirish reklamasi — arzonlashtirilgan narxlar bo'yicha sotib bitirish haqida e'lon;

tashviqot qilish reklamasi — aniq maqsadni himoya qilishdan iborat.

2. Yetkazib berish shakllari bo'yicha (bevosita) reklama. Bunday reklamani— masalan, televideniye orqali avtomobilning sifat afzalliklari haqida reklamaning ahamiyatini ko'rsatish.

3. Mahsulotning xususiyatlari bo'yicha maqsadni ko'zda tutish.

Iste'molchini tovar haqida eslashga majbur qiladigan reklama beriladi.

Reklamaning qiymati ancha yuqori. Masalan, AQSHda televideniya 30 daqiqali reklama vaqti— 100 ming dollar, Ispaniyada esa 50 ming dollar. Ta'kidlash kerakki, ko'pgina mamlakatlarda telereklama uchun cheklashlar mavjud. Masalan, Avstriyada reklama uchun eng ko'p vaqt—20 daqiqa ajratilgan; Germaniyada eng ko'p vaqt kunlik ko'rsatuvning 20 foizini, Ispaniyada esa 10 foizini tashkil qiladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tovarlarning sifat ko'rsatkichi natijasida yillar davomida ortirgan obro'si, markasi har qanday reklamadan ham yuqori turadi. Chunki tovar eskirishi, modadan qolishi va yo'q bo'lib ketishi mumkin. Biroq uning chidamliligi, sifati, ilg'or konstruksiyasi, go'zal dizayni, did bilan o'rab-joylanishi va boshqa yaxshi tomonlari uning o'rniga ishlab chiqarilgan tovarda namoyon bo'lishi va keyingilarida qaytarilishi xaridor xotirasida qoladi va tovarga nom berish uchun asos bo'ladi. Bu sifatlar reklama organlari tomonidan tovarning marka timsoliga aylantiriladi.

Reklama qilish ssenariysi ham rejalashtirilishi lozim. Unda avvalo, reklamaning shiori, sarlavhasi aniqlanadi, so'ngra matn beriladi. Reklama shiori nihoyatda yangi, original, matni esa o'ta qisqa, mazmundor, tushunarli bo'lmog'i lozim, 50—60 so'zdan oshmagani ma'qul.

Xorijiy marketingni mukammallashtirishda ilg'or firmalar va chet el tajribasidan foydalanish yaxshi natijalarga olib kelishi muqarrar. Bu borada keyingi yillarda AQSH, Germaniya, Yaponiya kabi mamlakatlar firmalari amaliyotga kirib kelgan tovar sotuvchi va yetkazib beruvchilarning iste'molchilarga asosiy tovar bilan butlovchi va qo'shimcha mahsulotlarni ham taklif qilish tajribasi diqqatga sazovordir. Mashhu nemis firmasi «Salamander» poyabzal bilan birga unga kerakli cho'tka, krem va boshqa vositalarni, AQSH firmasi «Katerpillar» traktorlari bilan prinsiplarning osma asboblari to'plamini taklif qilmoqda. Bu tajribadan foydalanish respublikamizdagi tovarlar ko'lamini kengaytirish, asbob-uskunalar va boshqa tovarlar komplektini ta'minlash imkonini beradi.

Marketingning asosiy prinsiplaridan biri — xaridorning benuqsonligi, uni xohish-talabini so'zsiz va tezkorlik bilan bajarish zarurligini anglashdir. Marketologlar sa'y-harakatlari natijasida o'tgan asrning 80-yillarida G'arb kompaniyalari tomonidan iste'molchilarga 3-5 sutka oralig'ida mashina va asbob-uskunalar uchun ehtiyot qismlarni yetkazib berish odat tusiga kirgan edi. Hozirgi kunda Angliya kompaniyasi «Lendrover (o'ta yuruvchan avtomobillar), AQSHning IVM kompaniyasi Yer sharining istalgan joyiga ehtiyot qismlarini yetkazib berish va servis xizmatini iste'molchiga so'rov tunshgandan so'ng 24 soat oralig'ida amalga oshirishni kafolatlaydi».

Reklama Internet tarmog'iga joylashtirish esa jadal rivojlanish tusini olmoqda. Binobarin, birgina Rossiyada, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, Internet tarmog'iga chiqish orqali faoliyat yuritishni tashkillashtirish bo'yicha qilingan ishlarning hajmi 50 mln. AQSH dollaridan oshib ketdi, yakka foydalanuvchilarning soni esa deyarli 1 mln. nafarni tashkil qilmoqda. Biroq reklamani Internetda yaratish bo'yicha xarajatlar hajmi ham oshib bormoqda.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, marketing tovarlari ko'plab xarid qilish quvvatidan ortiq darajada ishlab chiqarish, iqtisodiy inqirozlar zaminida, taklifning talabdan ustunligi sharoitida paydo bo'lgan. Demak, tovarlarni ular ombor va do'konlarda turib qolmasligi uchun tezkor sotishni tashkil etish lozim. Bunga bozor va xaridor ehtiyojini chuqurroq bilish orqali erishish mumkin. Shu bois eksportdagi qiyinchiliklarni tezkor bartaraf etish uchun marketingdan to'laroq foydalanmoq zarur. Marketing yordamida mamlakatdagi qo'shma korxonalar yoki boshqa korxonalarni joylashtirish o'rni ham aniqlash mumkin. Bu strategik masala hisoblanib, korxonaning tashqi bozor ta'sirida rivojlanishiga olib keladi.

#### **23.4. Sanoatni modernizatsiya qilish va lokalizatsiya dasturlari**

Shuni ta'kidlash kerakki, 2012-yilga nisbatan 2013-yilda sanoat rivojining indeksi 108,8 %ni tashkil qildi. Mashinasozlik, kimyo va neft-kimyo, yoqilg'i, o'rmon va yog'ochni qayta ishlash, oziq-ovqat hamda yengil sanoat, qurilish materiallari sohalarida katta yutuqlarga erishildi. Shu bilan bir qatorda, YAIM tarkibida sanoat ulushining bir qadar o'sishi (2.2 f.da) yuz berdi, 2008-yilga nisbatan 24,0 %ni tashkil



“2008-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy rivojlanish dasturida sanoatning strategik muhim tarmoqlari bo‘lgan yoqilg‘i-energetika kompleksi, rangli va qora metallurgiya sohasining o‘rinishini ta‘minlash alohida o‘rin tutadi. Bunga yangi tabiiy konlarni o‘zlashtirish va mavjud mineral-xomashyo bazalari zaxiralarning ortishi, ana shu resurslarni qazib olish va qayta ishlashda samarali zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hisobidan erishish nazarda tutilmoqda. Shu bilan birga, kimyo va yengil sanoatni, neft-kimyo, qurilish materiallari sanoatini, iste‘mol tovarlari ishlab chiqarishni rivojlantirishga ham ustuvor ahamiyat beriladi. Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo‘yicha muhim vazifalarni bajarish iqtisodiy siyosatimizning haq qiluvchi yo‘nalishi sifatida katta o‘rin egallaydi. Barchamiz bir o‘tkir haqiqatni yaxshi anglab olmoqdamiz. Jahon bozorida raqobat tobora keskinlashib borayotgan hozirgi sharoitda mavjud korxonalarni rekonstruksiya qilmasdan, zamonaviy, ilg‘or va yuksak texnologik uskunalarni bilan jihozlangan korxonalar tashkil etmasdan turib, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni muntazam yangilamasdan turib iqtisodiyotimiz kelajagini, binobarin, aholi farovonligini yuksaltirishni ta‘minlash mumkin emas<sup>14</sup>.”

«Lokomotiv tarmoqlar» - kimyo, qora metallurgiya, rangli metallurgiya korxonalarining, avtomobil, yengil hamda charm sanoati va b.ning istiqbolli rejalari, dasturlari ishlab chiqildi hamda tasdiqlandi. Bundan ko‘zlangan maqsad - mavjud xomashyo resurslarini aylanmaga kiritish, eksportni kengaytirish hamda ishlab chiqarishni lokalizatsiya qilish. Ayniqsa, korxonalarni energiyani iqtisod qiluvchi yangi texnologiya va mahsulot turlariga o‘tishga yo‘naltirilgan yengil sanoatni modernizatsiya qilish jadal amalga oshirildi.

Masalan, 2006-2008 yillar uchun lokalizatsiya dasturi hukumat tomonidan import tovarlaridan bo‘lgan qaramlikni kamaytirish maqsadida qabul qilingan.

Bu dasturda ishtirok etuvchi korxonalar 5 yil muddatga quyidagi to‘lovlardan ozod qilinadilar:

- bojxona to‘lovlari, jumladan, bojxona yihimlari qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solish;

- lokalizatsiya dasturi doirasida chiqarilgan mahsulotlar uchun daromad solig‘i;

- lokalizatsiya dasturi uchun eng muhim bo‘lgan aktivlar uchun mulk solig‘i<sup>15</sup>.

Mashinasozlik mahsulotlarini ishlab chiqarish o‘tgan yili erishilgan darajaga nisbatan 29,5 %ga oshdi (23.1-jadval). Rivojlanishning jadal sur‘atlari avtomobil sohasida kuzatildi (30,3 %). Bu avtomobil ishlab chiqarishning jismoniy hajmining oshishi natijasidir (23,6 %). Ham ichki bozorda, ham tashqi bozorda yuqori talabga ega markalar ishlab chiqarilishi ortdi: bu «Matiz» avtomobili ( 28,8 % ga ortdi), «Damas» (32,5 % ga), «Lasetti» (194,6 %ga). Mamlakatimiz avtomobilsozlik sohasi rivojida yanada takomillashgan tavsifga ega assortimentdagi mahsulotlarning ishlab chiqarilishining kengayishi muhim qadam bo‘ldi. «Shevrole» sedan avtomobilining yangi modelini yirik blokli ishlab chiqarish, «UzDEU avto» OAJ hamda «Djeneral motors DEU Avto hamda texnologiyalar» yirik kompaniyasi bilan hamkorlikda

<sup>14</sup> Karimov I. A. «Inson manfaatlari ustuvorligini ta‘minlash barcha islohot va o‘zgarishlarning bosh maqsadi». Vazirlar Mahkamasining 2007- yil mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining yakunlari va 2008-yilda iqtisodiy islohotlarning muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan majlisidagi ma‘ruzasi.

<sup>15</sup> Investment Guide to Uzbekistan 2007. United Nation Development Program, Country Office for Uzbekistan (60-6er).

“vnedorojnik i minivan” rusumli avtomobillar ishlab chiqarishni tashkil qilish. 2010-yilda mazkur avtomobil markalarining 217733 ta turli mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Importga bog'liqlik hamda mahsulotlarning tannarxini tushirishga qaratilgan lokalizatsiya qiluvchi ishlab chiqarish rivojlanishning ijobiy natijasi bo'ldi, mashinasozlik mahsulotlari narxining arzonlashuvi tendensiyasi yuzaga keldi. Importga bog'liqlik hamda mahsulotlarning tannarxini tushirishga qaratilgan lokalizatsiya qiluvchi ishlab chiqarish rivojlanishning ijobiy natijasi bo'ldi, mashinasozlik mahsulotlari narxining arzonlashuvi tendensiyasi yuzaga keldi. O'tgan yilga nisbatan mashinasozlik mahsuloti narxi indeksining o'sishi 6,1 %ga pasaydi hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozordagi o'rinlarini mustahkamlanishiga ko'mak berdi. Tashqi bozorda mahalliy avtomobilsozlik mahsulotlariga bo'lgan doimiy talab o'tgan yilga nisbatan 138,5 % o'sish sur'atida avtomobil eksportini 26,5 ming donaga orttirish imkonini berdi.

Elektrotexnika sanoati hamda qishloq xo'jaligi mashinasozligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlarining sur'atini oshirish tendensiyasi saqlanib qolaverdi. Bu ko'rsatkich 47,2 % hamda 105,5 %ga teng bo'ldi. Shu bilan birga, elektrotexnika sohasida maishiy uy buyumlari tovarlari sohasida vaziyat yaxshilanmadi. mahsulot - muzlatkich, konditsioner, televizor va b. - ishlab chiqarish hajmida ularning ulushi u qadar katta emas. Kabel-o'tkazgich sohasi, transformator hamda lift ishlab chiqarish va b.lar jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Ichki hamda tashqi bozorda talab ortib ketgani sababli qishloq xo'jaligi mashinasozligi sohasida traktor pritseplarini ishlab chiqarish juda oshib ketdi (o'sish 22,5 %) va seyalkalar (17,5 %).

### 23.1-jadval

#### Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish indeksi

Ko'rsatkichlar	Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish indeksi (o'tgan davrga nisbatan % da)		
	2006-y.	2008-y.	2010-y.
Sanoat	110,8	112,1	108,3
Elektr-energetika	106,4	101,8	104,5
Yoqilg'i	105,1	110,0	105,5
Qora metallurgiya	111,6	111,9	105,8
Rangli metallurgiya	99,2	101,4	99,1
Kimyo va neft-kimyo	117,1	118,3	115,4
Mashinasozlik	124,2	129,5	111,6
O'rmon, yog'ochni qayta ishlash	122,7	132,7	132,9
Yengil sanoat	108,0	107,6	117,3
Oziq-ovqat	130,2	117,6	113,1
Boshqalar	119,7	109,9	108,9

Manba: O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi.

Tashqi bozorda qora va rangli metallga bo'lgan talab, shuningdek, ichki bozorni mahalliy mahsulot bilan to'ldirish zarurati metallurgiya majmuasida erishilgan o'sishning bosh omili bo'ldi. Qora metallurgiya mahsulotlarining o'sish indeksi 11,9 %ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning yuqori darajada sotilishi po'lat ishlab chiqarishning jismoniy hajmlarining 4,2 % ga, qora metall prokatining 5,8 % ga o'sishiga



turtki bo'ldi. Metallurgiya kompleksi mahsulotlarining eksport hajmining o'sish sur'ati 125,4 % ni tashkil qildi. Bu 2006-yilga nisbatan 0,6 f.d.ga yuqori.

Kimyo kompleksi tarmog'i mahsulotlarini ishlab chiqarish ham bir tekisda rivojlandi. Sanoat ishlab chiqarish hajmida tarmoq ulushi deyarli katta qism hisoblanib, 4,7 % ni tashkil qiladi. Oxirgi 3 yil davomida mahalliylashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish 2 barobar oshdi, birgina 2013-yilda 455 ta korxonada moliyalashtirish dasturi asosida 1140 ta loyiha amalga oshirildi. Buning natijasida ishlab chiqarish hajmi 1,2 barobar ko'paydi va import o'rmini bosish bo'yicha yakuniy samara 5,3 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi.

### **Qisqacha xulosalar**

Jahon bozoriga integratsiyalashuvda O'zbekiston paxta majmui eksport salohiyati jahondagi raqobatning asosi hisoblanadi.

Jahon paxta tolasi bozorida dinamik o'zgarishlar sharoitida o'zbek paxta tolasining raqobatbardoshligi halqimiz manfaatini belgilovchi asosiy ko'rsatkichdir. TIFda paxta tolasi eksport salohiyatini oshirish asosan marketing faoliyatiga bog'liq.

O'zbekistonning paxta tolasi eksportiga doir strategiyasi asosan xalqaro mehnat taqsimoti asosida amalga oshirilmog'i lozim.

Mintaqaviy barqarorlik mintaqa ko'lamida integratsiya jarayonini rivojlantirish masalalarini hal qilishda asos hisoblanadi.

O'zbekiston va BMT hamkorligi mamlakatimiz jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvining poydevori xizmatini o'taydi.

O'zbekistonning mintaqaviy birlashmalar bilan iqtisodiy hamkorligi integratsiyalashuvning tarixiy qismidir.

MDH mamlakatlari bilan shunday hamkorlik mintaqaviy hamkorlikning teng huquqliligini ta'minlaydi.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan integratsiyalashuvi xalqlar o'rtasidagi manfaatlarni ifodalaydi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvda O'zbekiston Respublikasi paxta majmuasi qanday eksport salohiyatiga ega?

2. Jahon bozoriga integratsiyalashuvda O'zbekiston paxta majmuasining eksport salohiyati-chi?

3. Jahon paxta tolasi bozorlaridagi dinamik o'zgarishlar sharoitida o'zbek paxta tolasi qay darajada raqobatbardosh?

4. O'zbekistonda paxta ishlab chiqarish, uning iste'moli va eksporti dinamikasi haqida nimalarni bilasiz?

5. O'zbekiston Jahon bozoriga chiqishining muqobil yo'lak (koridor)lari bormi?

6. Tashqi iqtisodiy faoliyatda paxta tolasi eksport salohiyatini oshirish-ning qanday yo'llari mavjud?

7. O'zbekistonning paxta tolasi eksportiga doir strategiyasi nimalardan iborat?

8. O'zbekiston Respublikasining Jahon hamjamiyati bilan hamkorligi haqida nimalarni bilasiz?

9. O'zbekiston Respublikasida tashqi siyosiy va iqtisodiy aloqalarning shakllanish jarayonini qanday izohlaysiz?

10. O'zbekiston jahon hamjamiyati integratsiyalashuvida qanday o'rin tutadi?

11. Xalqaro integratsiyalashuvda BMT faoliyati qanday o'ringa ega?

12. O'zbekistonning mintaqaviy xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi nimalarni ko'zda tutadi?

13. O'zbekistonning MDH mamlakatlari bilan mustaqil iqtisodiy integratsiyalashuvdagi o'rni qanday ahamiyatga ega?

14. Sizing fikringizcha, O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan integratsiyalashuvi qanday ahamiyatga ega?

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi.// Xalq so'zi. 2009-yil 14-fevral.

2. Karimov I. "2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi"//Xalq so'zi, 2014-iy 18-yanvar.

3. Ishmuxamedov A.E. va boshqalar. Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari. Darslik – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005.

4. Yo'ldoshev Z. Milliy iqtisodiyot. T.: Mehnat, 2004, 168 b.

5. Ishmuxamedov A.E. O'zbekiston milliy iqtisodiyoti. Darslik – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. - 304 b.

6. Ishmuxamedov A.E. va boshqalar. Makroiqtisodiyot. Darslik – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. - 192 b.

7. Tuxliyev N. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. - T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 280 b.

Internet veb-saytlari.

[www.ceep.uz](http://www.ceep.uz).

[www.bearingpoint.uz](http://www.bearingpoint.uz).

[www.pca.uz](http://www.pca.uz).

## 24-bob. JAHON MOLIVAVIY-IQTISODIY INQIROZI SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

### 24.1. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash omillari

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha 2009-2012-yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturi mamlakatimizni 2009-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishi etib belgilangan. Bunda Prezidentimiz Islom Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" asari muhim dasturlamal bo'lmoqda.

Prezidentimizning mazkur asarida jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining kelib chiqish sabablari, oqibatlari va uning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'sirini kamaytirish yo'llari chuqur va atroflicha tahlil qilingan. Inqirozning mamlakatimiz iqtisodiyotiga ta'sirini yumshatishga qaratilgan Inqirozga qarshi choralar dasturini ishlab chiqishga yo'naltirilgan amaliy tavsiyalar berilgan.

Ma'lumki, yirik rivojlangan mamlakatlarda uzoq yillardan buyon muttasil davlat budjeti taqchilligi kuzatilgani va ularning salbiy tashqi savdo balansiga ega ekanligi, davlat tashqi qarzining miqdori yalpi ichki mahsulotga nisbatan yuqori bo'layotgani, rivojlangan mamlakatlarda qayta moliyalash stavkasining past darajada ushlab turilishi oqibatida jahon kapital bozorida arzon kreditlarning vujudga kelishi, ipoteka kreditlari berish talablarining asossiz ravishda bo'shashtirib yuborilganligi, moliyaviy institutlarning o'z mablag'lari va qarz majburiyatlari o'rtasidagi nisbatning keskin buzilishi, jahon iqtisodiyotida real va moliyaviy sektor o'rtasidagi nisbatning keskin o'zgarishi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining miqyosi, ko'lam va oqibatlari, avvalambor, muayyan mamlakatning moliya-valyuta tizimi qay darajada rivojlanganligi, milliy kredit institutlarining kapitallashuvi va likvidiligi (to'lov imkoniga ega ekanligi) hamda ularning chet el va korporativ bank tuzilmalariga nechog'li qaram ekanligiga, mamlakatning oltin-valyuta zaxirasining hajmi, xorijiy kreditlarni qaytarish qobiliyati, mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi, diversifikatsiya va raqobatbardoshlik darajasi kabi omillarga bog'liqdir.

Bunday omillar turli mamlakatlarda turlicha ta'sir ko'rsatishi va inqirozga qarshi chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishda bular e'tiborga olinishi zarur. Ayni paytda inqirozdan imkon qadar tez chiqish, uning oqibatlarini yengillashtirish jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilinayotgan chora-tadbirlarning nechog'li samaradorligiga, ularning o'zaro uyg'unligiga bog'liqdir.

Makroiqtisodiy barqarorlik kelgusida iqtisodiy o'sish va yuksalish uchun muhim bosqich hisoblanadi. Bu maqsadga erishish uchun avvalo, YAIM ishlab chiqarishning pasayishi to'xtatiladi. Keyinchalik YAIM va yalpi sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi bo'yicha barqaror o'sish ta'minlanadi. Agar YAIM ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari aholi soni o'sish sur'atlaridan ustun bo'lishiga erishilsa, unda yanada yaxshi bo'ladi. Ijtimoiy ishlab chiqarish hajmining o'sishi iqtisodiyotda band bo'lganlar sonining oshishi, inflyatsiyaning past darajasi, YAIM hajmida jamg'arish va investitsiya ulushining o'sishi va boshqa sifat ko'rsatkichlari bilan birga kechishi lozim.

Makroiqtisodiy barqarorlikka erishish, ayniqsa, mustaqil milliy iqtisodiyot qurish va bozor munosabatlariga o'tish hamda ular bilan bog'liq ravishda yuzaga keladigan tanglikdan chiqib ketish jarayonida oson emas. Davlatning makroiqtisodiy barqarorlashtirish tadbirlari ayrim hollarda bozor munosabatlari doirasini toraytirib qo'yishi mumkin. Pul massasining qat'iy cheklanishi kichik biznes rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, korxonalar to'lov qobiliyatining pasayib ketishiga olib keladi.

Makroiqtisodiy barqarorlikka erishish, kelgusida iqtisodiy o'sish uchun muhim zamin hozirlaydi. Har kanday milliy iqtisodiyot kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, ya'ni o'tgan yilga nisbatan ko'proq mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Yildan-yilga aholi sonining ko'payishi, kishilar ehtiyojlarining ortib borishi kengaytirilgan ishlab chiqarishni shart qilib qo'yuvchi asosiy sabablardan hisoblanadi. Aynan kengaytirilgan takror ishlab chiqarish dinamikasi iqtisodiy o'sishning mohiyatini tashkil etadi.

Iqtisodiy o'sishni aniqlash va hisoblash mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining eng umumiy ko'rsatkichi - yalpi ichki mahsulot bilan bog'liq. Iqtisodiy o'sish muayyan davr mobaynida real YAIM hajmining o'zgarishidir. Iqtisodiy o'sish sur'atlari YAIM o'sish sur'atlarida o'z aksini topadi va odatda bir yil uchun hisoblanadi. sur'atlarini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$\text{Iqtisodiy o'sish} = \frac{\text{YAIM}}{\text{YAIM}_0} \times 100\%$$

Bu yerda: YAIM - joriy yildagi YAIM hajmi; YAIM<sub>0</sub> - o'tgan yildagi YAIM hajmi. Olimlar iqtisodiy o'sishning mutlaq va nisbiy ko'rinishlarini bir-biridan farqlaydilar. Mutlaq iqtisodiy o'sish tovar va xizmatlar qancha miqdorda ko'payganini bildirsa, nisbiy iqtisodiy o'sish esa uning jadallik sur'atini bildiradi va foizda (martada) ifodalanadi. Mutlaq iqtisodiy o'sish mamlakatning katta yoki kichikligiga bog'liq bo'lsa, nisbiy iqtisodiy o'sish mamlakatning iqtisodiy salohiyatiga bog'liq.

Quyidagi 24.1-jadval O'zbekiston iqtisodiyotining tarmoq tarkibi holati va unda so'nggi yillarda yuz bergan o'zgarishlarni ifodalaydi. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, 2000-2008-yillarda respublikamiz iqtisodiyotining tarmoq tarkibida bir qator o'zgarishlar yuz bergan. Xususan, tahlil qilinayotgan davr mobaynida YAIMda sanoat ishlab chiqarishining ulushi 2000-yilda 14,2 foizdan 2008-yilda 22,8 foizgacha o'sgan bo'lsa, qishloq xo'jaligining salmog'i 30,1 foizdan 19,5 foizgacha, qurilishning salmog'i 6,0 foizdan 5,6 foizgacha pasaygan. Bu o'sish nafaqat MDH, balki dunyo mamlakatlari orasida eng yuqori ko'rsatkichlardan biridir. Bu yerda albatta tashqi bozor konyunkturasining roli juda kam.

**O'zbekiston Respublikasida YAIM ishlab chiqarish tuzilmasi**  
(yil oxiriga nisbatan, foizda)

Ko'rsatkichlar	2000-y.	2005-y.	2010-y.	2011-y.	2012-y.
Yalpi ichki mahsulot	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Sanoat	14,2	21,1	23,9	24,0	24,0
Qishloq xo'jaligi	30,1	26,3	18,0	17,6	17,5
Qurilish	6,0	4,8	6,5	6,1	5,9
Boshqa sohalar	37,2	37,2	42,4	44,2	44,9
Sof soliqlar	12,5	10,6	9,2	7,8	7,7

Manba. Ekonomika Uzbekistana, 2012. –T.: 2013.

Jahondagi ko'pchilik mamlakatlar YAIM ning yuqori sur'atlarda o'sishiga asrimiz boshlarida neft va gaz kabi strategik mahsulotlarga xalqaro bozorlarda narxlarning keskin oshuvi hisobiga erishdilar. O'zbekistonda esa iqtisodiy o'sishning jadal sur'atlarini iqtisodiyotni tizimli va tarkibiy jihatdan yangilash, iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, moddiy resurslar va tayyor mahsulotlarni realizatsiya qilish va ulardan foydalanish tizimini erkinlashtirish, xususiy sektorni kengaytirish, kichik biznes, fermer xo'jaliklari va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish va boshqalar hisobiga ta'minlanmoqda. Kelgusida ham iqtisodiy o'sishni muttasil ta'minlab borish o'z navbatida budjet va soliq islohotlarini chuqurlashtirish, soliq yukini yengillashtirish, tarkibiy islohotlar va iqtisodiyotni modernizatsiyalashni yanada chuqurlashtirish, uning ko'lamini kengaytirish, xorijiy investitsiyalarga yanada ko'proq jalb qilish uchun zarur sharoitlarni yaratish, xususiy mulkchilik tarmog'ini kengaytirish, biznes uchun qulay muhit yaratish va uning kafolatlarini mustahkamlash, mehnat resurslarining ish bilan bandlik darajasini oshirish, eksport salohiyatini oshirish, import o'rni bosadigan tovarlar ishlab chiqarishni kengaytirish va boshqa tadbirlarni izchillik bilan amalga oshirishni taqozo etadi.

Iqtisodiy o'sishning ichki va tashqi omillari mavjud. Ichki omillar o'ziga moddiy ne'mat va xizmatlar ishlab chiqarish va iste'molni qamrab oladi. Ular jumlasiga aholi va mehnat resurslari, tabiiy resurslar, innovatsiya va ishlab chiqarish imkoniyatlari, investitsiyalar, institutsional iqlim va boshqalar kiradi.

Iqtisodiy o'sishning tashqi omillariga xalqaro mehnat taqsimoti, globallashtirish jarayonlari kiradi. Keyingi omil, ayniqsa, ziddiyatli kechadi. Globallashtirish milliy iqtisodiyot qiyofasiga jiddiy o'zgarishlar kiritadi. Bu jarayonda, bir tomondan, ishchi kuchi xalqaro migratsiyasi kuchayadi, mamlakatga arzon tovarlarning kirib kelishi kuchayadi, natijada milliy iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida iqtisodiy o'sishga to'siq

paydo bo'ladi. Boshqa tomondan, chet eldan zamonaviy texnologiya, investitsiya va kreditlarni jalb qilish iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda iqtisodiy o'sishning yangi sifat omillari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- milliy iqtisodiyotni yuqori pirovard natijalarga yo'naltirish, YAIM ning hajmi va tarkibini ijtimoiy ehtiyojlarga muvofiqlashtirish;

- ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarning sifatini va shu orqali raqobatbardoshligini, mehnat unumdorligini, mahsulotlarning yangilanish darajasini oshirib borish;

- innovatsion jarayonni jadallashtirish, resurslarni tejaydigan texnologiyalarning roli va ahamiyatini oshirish, ishlab chiqarishni intensivlashtirishning fondlarni tejaydigan shakllarini kuchaytirish;

- importning o'rmini bosadigan va eksportga yo'naltirilgan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishni kengaytirish;

- YAIM o'sish sur'atlarining aholi o'sish sur'atlaridan yuqori bo'lishiga, YAIM o'sishining iqtisodiyotda band bo'lganlar soni o'sishi bilan kechishiga, inflyatsiyaning past sur'atlari, YAIM tarkibida jamg'arish va investitsiyaning yuqori ulushiga erishish;

- iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy yo'nalishini kuchaytirish bilan to'la bandlikni ta'minlashni yaxshilash, ishchi kuchini har tomonlama rivojlantirish, ishlab chiqarishni inson ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirish, xalq iste'mol tovarlari va atrof-muhit musaffoligini ta'minlash;

- milliy iqtisodiyotning ochiqligini ta'minlash, borgan sari uni xalqaro xo'jalik aloqalariga tortish, xalqaro mehnat taqsimoti va iqtisodiyotni globalashtirish afzalliklaridan yanada to'laroq foydalanish.

#### **24.2. Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'llari**

Milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarish va ijtimoiy soha majmualari bilan birga mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy majmualar ham faoliyat ko'rsatadi. Bu majmualarning shakllanishi alohida hududlar ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi uchun tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar va omillar majmuining mavjudligi bilan izohlanadi. Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy majmua respublika mintaqalarining shakllanishi uchun obyektiv asos yaratuvchi, barqaror iqtisodiy munosabatlar o'rnatilgan ko'plab obyektlar majmuidan iborat murakkab, dinamik rivojlanuvchi tizimdir.

Mintaqa - bu ma'lum hudud bo'lib, u boshqa hududlardan qator belgilari bo'yicha farq qiladi va o'ziga xos bir butunlik, tarkibiy unsurlari o'rtasida o'zaro aloqadorlik mavjudligi bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida mintaq hududiy mehnat taqsimoti jarayonida ajralib chiqqan mamlakat hududining bir qismi bo'lib, u yoki bu tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi, takror ishlab chiqarish jarayonining umumiyliigi va boshqa hududlarga nisbatan o'ziga xosligi, xo'jaligining majmuaviy va butunlik xarakterga ega ekanligi, mintaqa oldida turgan vazifalarni hal etishni ta'minlovchi boshqaruv organlarining mavjudligi bilan tavsiflanadi.

Ko'p hollarda "mintaqa"ga sinonim sifatida "rayon" ataması qo'llaniladi. Tabiiy, iqtisodiy va demografik shart-sharoitlarning alohida xususiyatga ega ekanligi har bir mintaq xo'jaligining o'ziga xos jihatlari - ixtisoslashuv yo'nalishi, xo'jalikning tarmoq tarkibi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini belgilab beradi.

Iqtisodiy mintaqa yoki rayonlarga ajratish ma'muriy-hududiy bo'linishni hisobga olgan holda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rayonlashtirish natijasida amalga oshirilishi lozim. Ayni vaqtda mamlakatni ma'muriy-hududiy bo'linishida iqtisodiy rayonlashtirish muhim o'rin tutadi.

Iqtisodiy rayon - mamlakatning hududiy yaxlit qismi bo'lib, muayyan hududda mavjud barcha tarmoqlar va ishlab chiqarish turlarini o'zida birlashtiradi, tegishli ishlab chiqarish ixtisoslashuviga, barqaror ichki ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarga ega bo'ladi. Iqtisodiyotni hududiy jihatdan tashkil etish hududda ishlab chiqarish va mehnatni jalb etish turlarining turli shakllarda, uyg'un hodda faoliyat ko'rsatishlariga asoslangan ishlab chiqarish kuchlari usullari o'zaro ta'sirining ko'p darajali tizimidir. Ularning mintaqalarda oqilona tarzda birlashishi tabiiy, mehnat va moliyaviy resurslardan samarali foydalanishga olib keladi.

Mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy obyekt sifatida tarmoqdan bir qator xususiyatlari bilan farq qiladi. Mintaqaning farqli jihati shundan iboratki, unda moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, ularni taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilishni o'z ichiga qamrab olgan xo'jalikning turli tarmoqlari o'zaro birlashadi. Demak, mintaqa xo'jalik majmuasi sifatida tarmoqqa nisbatan murakkab tuzilma hisoblanadi. Aynan mintaqa doirasida iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish, tabiiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish masalalarini hal etishga majmuaviy tarzda yondashish mumkin.

Alohida mintaqalar turli tarmoqlar va ishlab chiqarish turlarini rivojlantirish uchun tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar bo'yicha bir-biridan keskin tafovutda bo'ladi. Ma'lum hududdagi ishlab chiqarish faoliyatining tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa xususiyatlari xo'jalik rivojlanishining tarkibi, yo'nalishi, sur'atlari, miqyoslari va proporsiyalariga faol ta'sir ko'rsatadi va pirovard natijada mamlakat iqtisodiyotining hududiy tarkibini shakllantiradi.

O'zbekiston iqtisodiyotida mintaqalarning tutgan o'rni va roliga baho berish uchun ularning jami aholi soni va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlaridagi salmog'ini tahlil qilish lozim.

Bugungi kunda O'zbekiston hududini iqtisodiy rayonlarga ajratish bo'yicha yagona yondashuv mavjud emas. Ayrim iqtisodchi-olimlar fikricha, respublikani 6 ta iqtisodiy rayonga ajratish maqsadga muvofiq:

1. Toshkent (Toshkent shahri va Toshkent viloyati);
2. Farg'ona (Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlari);
3. Zarafshon (Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyat-lari);
4. Mirzacho'l (Sirdaryo va Jizzax viloyatlari);
5. Janubiy (Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari);
6. Quyi Amudaryo (Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati).

Ba'zi manbalarda Zarafshon iqtisodiy rayoni Markaziy, Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni, Orolbo'yi nomi bilan ataladi. Shu bilan birga O'zbekistonda iqtisodiy rayonlashtirishning quyidagi tasnifi ko'proq qo'llanilmoqda:

1. Toshkent iqtisodiy rayoni;
2. Jizzax-Sirdaryo iqtisodiy rayoni;
3. Farg'ona iqtisodiy rayoni;
4. Samarqand-Qashqadaryo iqtisodiy rayoni;
5. Buxoro-Navoiy iqtisodiy rayoni;

6. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni;

7. Surxondaryo iqtisodiy rayoni.

Toshkent iqtisodiy rayoni o'z ichiga Toshkent shahri va Toshkent viloyatini olib, iqtisodiy rivojlanish darajasining nisbatan yuqoriligi, mineral xomashyo resurslariga boyligi, aholining zich joylashganligi, qulay iqtisodiy-geografik holati, poytaxt mintaqasi maqomi bilan ajralib turadi. Toshkent mintaqasining maydoni 15,6 ming kv.m. bo'lib, respublika hududining 3,5 foizini tashkil etadi. 2012-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, mintaqada 4 mln. 577 ming kishi yoki mamlakat aholisining 17,8 foizi istiqomat qiladi. Qishloq xo'jaligi sertarmoq (paxtachilik, donchilik, kanopchilik, pillachilik, shahar atrofi bog'dorchiligi, sabzavotchilik, chorvachilik va boshqalar) va rivojlangan.

Toshkent iqtisodiy rayoni sanoati rivojlangan mintaqa hisoblanadi. Sanoatning rivojlanish darajasi mamlakat o'rtacha ko'rsatkichidan ikki marta yuqori. 2012-yilda O'zbekistonda ishlab chiqarilgan YAIM ning 23,6 foizi, sanoat mahsuloti hajmining 27,7 foizi, yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotining 11,7 foizi, asosiy vositalarga kiritilgan investitsiyalarning 35,7 foizi, qurilish ishlarining 28,3 foizi Toshkent iqtisodiy rayoni hissasiga to'g'ri keldi. Bundan tashqari, respublika tashqi savdo aylanmasining 52,9 foizi, mamlakatda ishlab chiqarilgan iste'mol mollarining 31,8 foizi, chakana savdo aylanma hajmining 30,5 foizi ushbu iqtisodiy rayon hissasiga to'g'ri keladi. O'zbekistonda mashina va uskuna-jihozlarning 70 foizini ishlab chiqaradigan mashinasozlik majmuasi mazkur iqtisodiy rayonda rivojlangan. Ushbu rayon mamlakatda qora va rangli metallurgiya mahsulotlari ishlab chiqarishda asosiy o'rinni egallaydi. O'zbekiston metallurgiya kombinatida qora metallar prokati 100 foiz, Olmaliq megallurgiya kombinatida mis va ruxning asosiy qismi, ko'mir qazib chiqarish (96,6 foiz), asosiy kimyo va organik sintez kimyoviy mahsulotlari (mineral o'g'itlarning 39,4 foizi, xomashyo - etil spirtining 36,2 foizi), ko'pgina qurilish materiallari va konstruksiyalar (sementning 40 foizi, shiferning 58,6 foizi, linoleumning 100 foizi, deraza oynasining 23,8 foizi) ishlab chiqariladi. Rayon qudratli qurilish bazasi zich transport tarmog'iga ega. Mamlakatning ilmiy-loyiha va konstruktorlik salohiyati kadrlar tayyorlash bo'yicha muassasalarning asosiy qismi shu rayonda joylashgan.

Farg'ona iqtisodiy rayoni ma'muriy jihatdan Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlarini o'z ichiga oladi. Maydoni 19,2 ming kv. km ga teng bo'lib, bu respublika hududining 4,3 foizini tashkil etadi. 2012-yil boshida iqtisodiy rayonda 8802,6 ming kishi istiqomat qilib, bu mamlakat aholisining 30,2 foizini tashkil etadi. Farg'ona iqtisodiy rayonida yer-suv va mineral xomashyo resurslari goyat cheklangan, ammo mintaqa mehnat resurslariga boy va mamlakat aholisining eng zich joylashgan hududi hisoblanadi. Rayonni rivojlantirishning asosiy yo'nalishi mavjud qishloq xo'jaligi xomashyosi (paxta, meva, sabzavot, pilla)ga mo'ljallangan mehnatlab ishlab chiqarish tuzilmasini barmo etishdan iborat. Qishloq xo'jaligi asosan paxtachilikka ixtisoslashgan (yalpi paxta hosilining 26 foizi). Rayonda ipakchilik, kimyo sanoati (mineral o'g'itlar ishlab chiqarish), neftni qayta ishlash (Fargona, Oltiariq), butun Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan, yengil avtomobil ishlab chiqaradigan "O'zDEUavto" qo'shma korxonasi muhim ahamiyatga egadir. 2011-yilda Farg'ona iqtisodiy rayoni O'zbekiston YAIM hajmining 19,5 foizi, sanoat mahsuloti hajmining 21,9 foizini ishlab chiqardi va bu ko'rsatkichlar bo'yicha Toshkent iqtisodiy rayonidan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotida rayonning salmog'i 26,7 foizga teng. Bu ko'rsatkich



bo'yicha iqtisodiy rayonlar orasida birinchi o'rinni egallaydi. Shuningdek, mintaqaga chakana savdo aylanma hajmining 32 foizi, ishlab chiqarilgan iste'mol mollarining 30,2 foizi, qurilish ishlarining 15,9 foizi, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 11,3 foizi hamda respublika tashqi savdo aylanmasining 12 foizi to'g'ri keldi.

Jizzax-Sirdaryo iqtisodiy rayoni respublikaning markaziy qismida joylashgan bo'lib, u ma'muriy jihatdan Jizzax va Sirdaryo viloyatlarini o'z ichiga oladi. Maydoni 25,6 ming kv. kmga teng bo'lib, respublika hududining 5,7 foizini tashkil etadi. 2009-yil boshida mintaqada 2706,5 ming kishi yoki mamlakat aholisining 6,6 foizi istiqomat qildi. Mirzacho'l va Jizzax cho'llarini o'zlashtirish munosabati bilan bu rayon jadal rivojlandi va muayyan xo'jalik mustaqilligiga ega bo'ldi. Mamlakatda paxta yetishtiruvchi yirik rayon hisoblanadi (yalpi hosilning 25 foizi). Rayon sanoati shakllanish bosqichida, uning tuzilmasida paxta tozalash sanoati va issiqlik energetikasining hissasi katta. Jizzax cho'lini yanada o'zlashtirish rayon rivojining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Sanoat-fuqarolik qurilishi uchun yer resurslarining ko'pligi, qulay iqtisodiy-geografik va transport sharoitlari, Toshkent, Farg'ona, Samarqand-Qashqadaryo iqtisodiy rayonlariga qo'shniligi bu yerda ishlov beruvchi sanoat korxonalarini joylashtirish, aholini zich joylashgan hududlardan ko'chirib keltirish, istiqbolda erkin iqtisodiy hudud barpo etish imkoniyatlarini beradi. 2009-yil mintaqada O'zbekistonda ishlab chiqarilgan YAIM ning 5,1 foizini, sanoat mahsuloti hajmining 2,6 foizini, qishloq xo'jaligi mahsulotining 10,3 foizini, asosiy vositalarga kiritilgan investitsiyalarning 4,5 foizini, qurilish ishlarining 3,9 foizini berdi. Shuningdek, mamlakatda ishlab chiqarilgan iste'mol mollarining 4 foizi, chakana tovar aylanma hajmining 4,2 foizi hamda respublika tashqi savdo aylanmasining 2,2 foizi ushbu mintaqaga hissasiga to'g'ri keladi.

Samarqand-Qashqadaryo iqtisodiy rayoni ma'muriy jihatdan Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarini o'z ichiga olib, mamlakatning markaziy qismida joylashgan. Mintaqaning maydoni 52,9 ming kv. km ga teng bo'lib, mamlakat hududining 11,8 foizini tashkil qiladi. Aholisi 2009-yil boshida 6203 ming kishini tashkil etib, bu respublika aholisining 20,1 foiziga teng. Iqtisodiy rayon hududidagi tog'li va tog'oldi adirlklarida qadimiy lalmikor dehqonchilik, bog'dorchilik rivojlangan (jami lalmikor yerlarning 1/3 qismi shu rayonga to'g'ri keladi), ilgari qorako'l qo'ylari boqilgan cho'l zonasida paxtachilik jadal rivojlanmoqda. Rayon qattiq bug'doy navlari, zig'ir, beda kabi ekinlar, uzum, mayiz, mevalar, ertagi sabzavotlar yetishtiruvchi asosiy hududlardan biriga aylandi. Rayon tarkibida, Qarshi cho'lini o'zlashtirish negizida, ingichka tolali paxtachilik bazasi bo'lib qoladigan Qashqadaryo hududiy ishlab chiqarish majmuasi shakllanmoqda. Rayonda gaz (Sho'rtangaz majmui, Muborak gazni qayta ishlash zavodi), kimyo sanoati, mashinasozlik, metallga ishlov berish kabi sanoat tarmoqlari jadal rivojlanmoqda. O'zbekistonda qazib olinadigan neftning 95 foizi, tabiiy gazning 95,8 foizi shu rayon hissasiga to'g'ri keladi. 2010-yilda mintaqada O'zbekistonda ishlab chiqarilgan YAIM hajmining 13,4 foizini, sanoat mahsuloti hajmining 13,2 foizini, yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotining 21,1 foizini, asosiy vositalarga kiritilgan investitsiyalarning 19,2 foizini, qurilish ishlarining 16,8 foizini yaratdi. Shuningdek, mintaqaga respublika tashqi savdo aylanmasining 4,9 foizi, chakana savdo aylanma hajmining 14,8 foizi to'g'ri keldi.

Buxoro-Navoiy iqtisodiy rayoni ma'muriy jihatdan Buxoro va Navoiy viloyatlarini o'z ichiga olib, Qizilqum cho'lida joylashgan. Mintaqaning umumiy maydoni 142,1 ming kv. km ga yoki respublika hududining 31,8 foiziga teng va bu ko'rsatkich bo'yicha Quyi Amudaryo mintaqasidan so'ng ikkinchi o'rinni egallaydi. 2009-yil boshida mintaqada hududida 3305,3 ming kishi yoki respublika aholisining 8,9 foizi istiqomat qildi. Rayon asosan gaz, neft, rangli va qimmatbaho metallar, qurilish materiallari uchun xomashyo va boshqa mineral zaxiralarni qazib olish negizida rivojlanmoqda. Navoiy kon-metallurgiya kombinati, Navoiy, Zarafshon (Muruntov), Uchquduq, Tasqazg'an, Gazli sanoat bog'lamlarida oltin qazib olish sanoati, rangli metallurgiya, kimyo (mineral o'g'itlarning 44 foizi), gaz, qurilish materiallari (sementning 40,3 foizi), sanoati korxonalari respublika iqtisodiyotida salmoqli o'ringa ega. Qishloq xo'jaligida paxtachilik, qorako'lchilik va rayon ichki ehtiyojlarini qondiradigan meva-sabzavotchilik asosiy tarmoqlar hisoblanadi. Amu-Buxoro kanali bilan sug'orish imkoniyatlari bu rayonda sug'orma dehqonchilikni rivojlantirish imkoniyatlarini beradi. 2010-yilda mintaqada Uzbekistonda ishlab chiqarilgan YAIM hajmining 11,6 foizini, sanoat mahsuloti hajmining 19,3 foizini, yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotining 12,0 foizini, asosiy vositalarga kiritilgan investitsiyalarning 12,5 foizini, qurilish ishlarining 17,4 foizini yaratdi. Shuningdek, mintaqaga respublika tashqi savdo aylanmasining 10,3 foizi, chakana savdo aylanma hajmining 8,1 foizi to'g'ri keldi.

Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni O'zbekistonning Shimoli-g'arbida, Amudaryoning quyi qismida joylashgan bo'lib, u o'z tarkibiga Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatini oladi. Mintaqada hududi respublika maydonining 38,3 foizini egallab, u 171,2 ming kv. km ni tashkil etadi. 2009-yil boshida mintaqada 3984 mingdan ziyod kishi istiqomat qildi. Bu mamlakat aholisining 11,5 foiziga to'g'ri keldi. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni qadimiy sug'orma dehqonchilik mintaqasida joylashgan. Rayonda, ayniqsa, Ustyurtda 200 dan ortiq foydali qazilma konlari (tabiiy gaz, temir rudasi, fosforitlar, osh tuzi va boshqalar) topilgan. Bu hududda paxtachilik bilan bir qatorda sholichilik, polizchilik, urug'lik beda, sabzavotchilik rivojlangan. Boy mineral xomashyo resurslaridan keng foydalanish asosida yaqin istiqbolda ikki sanoat rayoni va bir qator sanoat bog'lamlari paydo bo'ladi. Orol dengizining qurib borishi va Orolbo'yining sahroga aylanishi jarayonlari bilan bog'liq holda vujudga kelgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat hududni rivojlantirish istiqbollari qo'shni Turkmanistonning Toshhovuz viloyati bilan muvofiqlashtirilgan holda hal etishni talab etadi.

Surxondaryo iqtisodiy rayoni O'zbekistonning eng janubiy qismida joylashgan bo'lib, ma'muriy jihatdan Surxondaryo viloyatini o'z ichiga oladi. Mintaqada maydoni 20,8 ming kv. km. ni tashkil etadi. Bu respublika maydonining 4,6 foiziga teng. Mintaqada 2009-yil boshida 2878,6 ming kishi yoki respublika aholisining 7,3 foizi istiqomat qildi. Rayonning o'ziga xos geografik holati (deyarli hamma tomoni tog'lar bilan o'ralgan) uning iqtisodiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Rayon iqlimi subtropiklarga yaqin bo'lganligi sababli rayon ingichka tolali paxta, subtropik mevalar, ertagi sabzavot yetishtirishga ixtisoslashgan. Sanoati ko'mir (Sharg'un toshko'mir koni), neft va gaz qazib olish (mahalliy iste'mol uchun) asosida rivojlangan. Surxon-Sherobod cho'lida yangi yerlarni o'zlashtirish asosida bu hududlarni ingichka tolali paxtachilik, eksport yo'nalishidagi subtropik mevalichilik va ertagi sabzavotchilik rivoj topdi. Aniqlangan

roydati qazilma konlarini o'zlashtirish bu hududda kon sanoatini va rangli metallurgiyani rivojlantirish imkoniyatlarini yaratadi. Xodiza, Sharg'un-Sariosiyo (rangli metallar, ko'mir, qurilish materiallar), Boysun (toshko'mir, tabiiy gaz, qurilish materiallari) sanoat bog'lamlari shakllanadi. Termiz shahrida va tuman markazlarida asosan yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalari rivojlangan. 2009-yilda mintaqa O'zbekistonda ishlab chiqarilgan YAIM hajmining 4,8 foizini, sanoat mahsuloti hajmining 2,2 foizini, yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotining 8,9 foizini, asosiy vositalarga kiritilgan investitsiyalarning 4,7 foizini, qurilish ishlarining 5,6 foizini yaratdi. Shuningdek, mintaqaga respublika tashqi savdo aylanmasining 2,0 foizi, chakana savdo aylanma hajmining 5,2 foizi to'g'ri keldi. Transport va aloqa milliy iqtisodiyotning yuk va yo'lovchi tashishni ta'minlovchi, axborot oqimlarini tarqatuvchi va uzatuvchi sohasi hisoblanadi, bu sohalar aholining hayotiy ehtiyojlarini qondirib, ishlab chiqarish jarayonlarining bir maromda borishini va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni uzluksiz boshqarishini ta'minlaydi. Transport avvalo, ishlab chiqarish infratuzilmasi bo'lib, uning ishlab chiqarish xarajatlari va tovar narxiga ta'siri yuqoridir. Tarmoqning rivojlanishi tabiiy resurslarni o'zlashtirish, sanoat va agrar soha integratsiyasi chuqurlashishi hamda milliy xo'jalikning jahon bozoriga qo'shilishining shart-sharoitlarini yaxshilaydi.

Transport xo'jalik faoliyatining turi sifatida umumiy va maxsus foydalanish transporti turlariga bo'linadi. Umumiy foydalanishga mo'ljallangan transport iqtisodiyotning barcha tarmoqlari ehtiyojini qondirishda, xususan, yuk va yo'lovchi tashishda, iste'molchi va ishlab chiqaruvchi o'rtasidagi aloqalarni bog'lashda, aholiga turli transport xizmatlari ko'rsatishda foydalaniladi. Maxsus transport turlari alohida muassasalar, sanoat va ichki ishlab chiqarish maqsadlarida ishlatiladi. Bunday transport xizmati ko'rsatishda karalar, transporterlar, uzatish quilmalari, yengil avtomashinalar, mototsikllar, kema va qayiq kabilardan foydalaniladi. Transport tarmog'i oldiga qo'yilgan vazifalar asosan quyidagilardan iboratdir:

- yuk va yo'lovchi tashish borasidagi iqtisodiyot va jamiyatning talabini yuqori darajada ta'minlash;
- transport xizmati samaradorligi va tejamliligi darajasini oshirish;
- turli noqulay tabiiy va boshqa sharoitlardan qat'i nazar har qanday mavsumda tashish jarayonlarining doimiyliги va uzluksizligini ta'minlash;
- yuk va yo'lovchi tashish qulayligini va xavfsizligi darajasini oshirib borish.

O'zbekistonda an'anaviy ravishda yuk tashishda avtomobil transportining salmog'i yuqori bo'lib kelmoqda. Masalan, 2005-yilda jami yuklarning 85,6 foizi, 2008-yilda 84,3 foizi va 2010-yilda 84,2 foizi ana shu transport turi vositasida tashilgan (24.2-jadval). Temir yo'l transporti orqali mos ravishda 6,0; 6,4 va 6,3 foizi, quvur transporti orqali esa 8,4; 9,3 va 9,5 foizi tashilgan. Havo transportida tashilgan yuklar jami yuk tashish hajmida deyarli salmoqqa ega emas. Bu asosan, mazkur transport xizmati xarajatlarining yuk tannarxini keskin oshirib yuborayotgani va kargo xizmati tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi kabi omillarga bog'liq.

Transport turlari bo'yicha yuk tashish tarkibining o'zgarishi<sup>16</sup>

Transport turlari	2005-y.	2008-y.	2010-y.
Avtomobil	85,6	84,3	84,2
Quvur yo'llari	8,4	9,3	9,5
Temir yo'l	6,0	6,4	6,3
Havo yo'llari	0,001	0,001	0,001

Qurilish-investitsiya majmuasi tarmoqlararo tizim hisoblanib, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash ishlari bilan shug'ullanuvchi korxonalar, birlashmalar va tashkilotlarning yig'indisidan iborat. Qurilish-investitsiya majmuasining pirovard mahsuloti to'liq barpo etilgan va foydalanishga topshirilgan bino va inshootlar, ishlab chiqarish quvvatlari va ijtimoiy infratuzilma obyektlari hisoblanadi. Majmua bo'linmalari iqtisodiy, texnologik, ishlab chiqarish va ilmiy-tadqiqot xarakterda bo'lib, sohaga qurilish materiallari sanoati, qurilish va yo'l mashinasozligi tarmoqlari ham xizmat ko'rsatadi. Qurilish obyektlarini barpo etish, qurilishning moddiy-texnika bazasini yaratish va ilmiy-texnik asoslarini ta'minlash majmuaning asosiy funksiyalari hisoblanadi. Qurilish obyektlarini barpo etish qurilish trestlari va xizmatlarining, sohaning moddiy-texnika bazasini yaratish sanoat korxonalarining va ilmiy-texnik asoslarini ta'minlash esa ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va loyiha tashkilotlarining bevosita vazifasi sanaladi.

Mamlakatimizda qurilish sohasi o'zining iqtisodiy rivojlanishdagi roli va o'miga ko'ra, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari - sanoat va qishloq xo'jaligidan keyingi o'rinida turadi. YAIMning 4,5 foizi, iqtisodiyotda band aholining 8,2 foizi qurilish tarmog'i hissasiga to'g'ri keladi, budjet mablag'larining 13-14 foizi iqtisodiyot real sektoridagi qurilish loyihalariga sarflanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda 200 dan oshiq qurilish-montaj trestlari, 240 dan ortiq qurilish sanoati korxonalari, 2000 dan oshiq tarmoq qurilish tashkilotlari, 11 mingga yaqin kichik va xususiy tadbirkorlik korxonalari, 60 dan oshiq loyiha va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda. 24.3-jadvada qurilish va kapital qo'yimlarning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ko'rinib turibdi.

Qurilish va kapital qo'yimlarning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi<sup>17</sup>

Ko'rsatkichlar	2000-y.	2002-y.	2005-y.	2010-y.	2012-y.
Qurilishning iqtisodiyotdagi salmog'i, %	6,0	5,9	4,9	4,5	5,6
Qurilishning jami bandlikdagi ulushi, %	7,5	7,7	7,9		8,2
Iqtisodiyotga kapital qo'yimlarning o'sish sur'ati, o'tgan yilga nisbatan foizda	101	103,7	103,8	104,2	5,1
Davlat budjetida markazlashgan investitsiyalarga (yangi qurilishlar) xarajatlar, YAIM ga nisbatan foizda	6,0	5,0	4,7	3,3	2,7

<sup>16</sup> Ishmuxamedov A.E., Raximova M.R., Ishmuxamedova L.A. Mintaqaviy iqtisodiyot. - T., TDIU, 2006.

<sup>17</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. -T., 2011-y.

Investitsiya majmuasining milliy xo'jalikdagi ma'lum o'rni va roli uning quyidagi ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajarishi bilan izohlanadi:

- texnik va texnologik qo'lligini yengish;
- sanoat sohasida moddiy va energetik resurslar sarfini qisqartirish maqsadida moddiy-xomashyo resurslaridan kompleks va tejamkorlik bilan foydalanishni ta'minlash;

- mahsulotning yuqori texnologik turlari ulushini sezilarli ko'paytirish va sanoat ishlab chiqarishining eksport imkoniyatlarini kengaytirish uchun zarur.

Respublika investitsiya siyosati tarmoq jihatdan O'zbekistonning nisbatan iqtisodiy afzalliklarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan va mavjud ilmiy-texnikaviy salohiyatni maksimal darajada ishga solish, eksportga yo'naltirilgan va import o'rini bosuvchi ishlab chiqarish turlarini rivojlantirish, mahalliy resurslardan foydalanish sohasini kengaytirish va ularni yanada chuqurroq qayta ishlash kabi yo'nalishlarni o'z ichiga olgan. Investitsiya faoliyatining jonlantirilishi tufayli respublikada investitsiya faolligining pasayishi oldi olindi, iqtisodiy o'sishning barqarorlashuvi va uning sur'atlarining asta-sekin o'sishiga erishildi.

O'zbekistonda hozirgi paytda ishlab chiqilayotgan davlatning tarkibiy-investitsiya dasturlari quyidagi yo'nalishlarga qaratilishi talab qilinadi:

- ishlab chiqarishni tubdan modernizatsiyalash va uni tarkibiy qayta qurishga ko'maklashish;

- sanoatning qayta ishlovchi sektori raqobatbardoshligini oshirish;

- mamlakatning xo'jalik kompleksini modernizatsiyalash va texnik qayta qurollashtirish uchun yetarli darajada uning texnik bazasini tashkil qiluvchi tarmoqlar quvvatini oshirish va unda ishlab chiqiladigan mahsulot turini yangilash;

- agrar sektor va unga bog'liq tarmoqlar (qayta ishlovchi korxonalar, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, qishloq xo'jaligi uchun kimyoviy vositalar ishlab chiqarish)ni rivojlantirish.

Yaqin istiqbolning keyingi bosqichlarida davlatning investitsiya ustuvorliklari sifatida quyidagilar maydonga chiqadi:

- xomashyoni yanada chuqurroq qayta ishlash va jahon andozalari darajasida mahsulot ishlab chiqarish asosida ko'p tarmoqli majmualar barpo qilish;

- yuqori texnologik ishlab chiqarish va zamonaviy infratuzilmani kengaytirish, innovatsion va axborot texnologiyalarini rivojlantirish, milliy xo'jalikning yangi texnologik qiyofasini shakllantirish uchun kapital, jumladan, xorijiy kapitalni jalb qilish;

- jahonda erishilgan texnik-texnologik darajada ustuvor tarmoqlar va ishlab chiqarish infratuzilmasini qayta qurollantirish;

- ijtimoiy infratuzilma va xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish.

## 24.4-jadva

## Iqtisodiyot sohalari bo'yicha kapital qo'yilmalar taqsimlanishi (foizda)

Ko'rsatkich-lar	2000-y.	2005-y.	2010-y.	2012-y.
Jami investitsiyalar	100,0	100,0	100,0	100,0
Sanoat	29,8	36,6	38,3	36,8
Qishloq xo'jaligi	5,7	4,4	4,1	3,3
Transport va aloqa	16,8	24,1	21,9	22,8
Uy-joy qurilishi	13,0	11,0	11,8	11,5
Ta'lim	14,0	11,2	10,7	12,5
Boshqalar	20,7	12,7	13,2	13,1

Manba: Ekonomika Uzbekistana, 2012. -T.: 2013.

Ko'rsatib o'tilgan maqsadlarga erishish uchun davlat investitsiya siyosatini yuritishda mamlakatda qulay investitsiya muhitini yaratish, iqtisodiyot real sektorining investitsiya tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, huquqiy va institutsional sharoit yaratish, soha infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Investitsiya muhiti - u yoki bu mamlakatda faoliyat yuritish imkonini belgilaydigan, kiritilgan kapitalning daromadligi va foydaliygiga salmoqli ta'sir ko'rsatadigan iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa sharoitlar yig'indisidir. Mamlakatning investitsiya muhitini shakllantiradigan omillar kompleksi quyidagi 24.1- chizmada keltirilgan.

## 24.1-chizma

Mamlakatning investitsiya muhiti va uni keltirib chiqaradigan omillar<sup>18</sup>

Investitsiya jozibadorligi omillari	Tegishli omilning mohiyatini ochib beruvchi ko'rsatkichlar
Iqtisodiy ahvoli	Mamlakat to'lov balansining ahvoli, valyuta-pul tizimi barqarorligi tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanganligi, ichki bozor sig'imi kattaligi, inflyatsiya darajasi, YAIM, sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish o'sish sur'atlari
Qonuniy baza	Yangi sharoitlarga mos keladigan mamlakat va uning alohida sohalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqaradigan qonunlar, qarorlar, nizomlar, yo'riqnomalarning mavjudligi
Tabiiy-xomashyo resurslari	Mineral xomashyo, yonilg'i-energetik va suv resurslari zaxiralari qishloq xo'jaligi xomashyosi ishlab chiqarish hajmlari
Mehnat resurslari va bandlik	Iqtisodiy faol aholi soni, band aholi ulushi, ishsizlik darajasi xizmatchilar daromadi darajasi, kadrlarning malaka darajasi
Ishlab chiqarish-texnik baza	Asosiy ishlab chiqarish fondlari, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi, uskunalarining foydalanish muddati tarkibi asosiy fondlarning eskirishi darajasi
Ilmii-texnikaviy salohiyat	Iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratiladigan investitsiyalar, jumladan, xorijiy investitsiyalar hajmlari, investitsiya tavakkalchilik darajasi, ishlab chiqarishning texnik jihozlanishi, yangiliklardan foydalanish va ITTKI sohasini rivojlantirish ahvoli, mahsulotning ilmtalab va yuqori texnologik turlarini ishlab chiqarish
Motiya-kredit tizimi	Soliq va kredit siyosati, iqtisodiyotning real sektori korxonalarining foydalilik va rentabellik darajasi, narx siyosati va narxni shakllantirish siyosati
Infratuzilma	Bank tizimi rivojlanishi ahvoli, transport, kommunikatsiya xizmatlari va mehmonxona xo'jaligi sohalari, tovar va fond birjalari, marketing, konsalting, auditorlik xizmatlari, sug'urta sohasi tarmog'ining ishonchligi
Ekologik vaziyat	Atrof-muhitning ifloslanish darajasi, radiatsion fon, zararli chiqindilar

<sup>18</sup>O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish muammolari: nazariya va amaliyot. Akademik S.S. G'ulomov tahriri ostida. -T., Konsauditinform, Nashr, 2006, 313-b.

Investitsiya muhiti, birinchi navbatda mamlakatdagi iqtisodiy barqarorlik bilan belgilanadi. Mamlakatdagi iqtisodiy ahvolni ta'riflaydigan asosiy ko'rsatkichlar (YAIM, sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'sishi sur'atlari, tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi darajasi va hokazolar) ayni paytda yetarlicha barqaror dinamikaga ega va qulay investitsiya muhitini shakllantirishda salmoqli kafolat hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida qulay investitsiya muhitining yaratilgani bois qisqa tarixiy muddatda yirik xorijiy investorlar bilan keng ko'lami investitsiyalar bo'yicha bitimlarga erishilgan. Mazkur kelishuvlar asosida avtomobilsozlik, neft-kimyo, elektronika tarmoqlari paydo bo'ldi, temir yo'l vagonlari ishlab chiqaradigan va vertolyotlarni ta'mirlaydigan, texnik oyna, ip-gazlama, turli xil tikuvchilik buyumlari va boshqa tur mahsulotlar tayyorlanadigan korxonalar barpo etildi. Energetika, qora va rangli metallurgiya, yonilg'i va to'qimachilik sanoati hamda qurilish materiallari ishlab chiqarish tarmoqlari kabi iqtisodiyotning yetakchi sohalarini texnik modernizatsiyalash amalga oshirildi. Xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishi go'sht-sut mahsulotlari, sabzavot va mevalarni qayta ishlashning moddiy-texnika bazasini keskin yangilashga yordam berdi.

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish innovatsion jarayonlarni faollashtirish bilan uzviy bog'liq. Bular - ishlab chiqarishga yuqori texnologiyalarni joriy etish, eng yaxshi iste'mol xususiyatlariga ega hamda ichki va tashqi bozorlarda xorijiy shu kabi mahsulotlar muvaffaqiyatli raqobatlasha oladigan innovatsiya mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirishdir. Shuning uchun innovatsiya faoliyatini makrodarajada tizimni boshqarishga bog'liq masalalar, jumladan, innovatsion faollikni oshirish bo'yicha qarorlar qabul qilish darajasida ham nihoyatda dolzarbdir.

Innovatsiya muhitining bugungi ahvoli qisqa muddatlarda mahalliy biznesning innovatsion yo'nalganligining yuqori darajasiga erishishga imkon bermaydi. Shu bois, uni rivojlantirish davlatning turli yo'nalishlardagi sa'y-harakatini taqozo etadi. Avvalambor, e'tibor quyidagi muammolarga qaratilishi zarur:

- biznesning ilmiy-texnikaviy axborotdan foydalanishdagi yuqori transaksion xarajatlari;

- korxonalar, ayniqsa, kichik korxonalar uchun yangi texnologiyalarni sinovdan o'tkazishning yuqori tavakkalchiligi;

- innovatsion ishlanmalar va ularni joriy qilish uchun o'z resurslarini taklif qiluvchi moliyaviy va investitsiya institutlar bozoringa yo'qligi;

- ilm-fanni ishlab chiqarish bilan bog'laydigan innovatsion vositachilar tarmog'ining yetarlicha rivojlanmaganligi;

- raqobat muhiti mahalliy korxonalarni innovatsiyalarni joriy etishga yetarlicha rag'batlantirmaydi;

- biznesni tashkil qilishda an'anaviy yondashuvlarning saqlanib qolishi, ya'ni mablag'larni namunaviy tovarlarni ishlab chiqarishga sarmoyalash.

Yuqorida sanab o'tilgan omillar shundan dalolat beradiki, innovatsion faoliyatni faollashtirish uchun davlat tomonidan shakllantiriladigan tashkiliy va institutsional muhit zarur. Innovatsion muhit muayyan darajada iqtisodiy va institutsional islohotlarning turli yo'nalishlaridagi taraqqiyotga bog'liq. Tadbirkorlarga texnologik ishlanmalarni joriy etishning afzalliklarini ko'rsatish lozim. Davlat ham tadbirkorlarga kadrlar ta'minoti, konsalting, moliyaviy resurslarni izlash resurslarni, kafolatlar berish



va boshqa yo'llar bilan yordam ko'rsatishi mumkin. Bu asosda biznes asta-sekin o'zining innovatsion tafakkurini rivojlantirishi mumkin, bu esa uning faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

### **Qisqacha xulosa**

Makroiqtisodiy barqarorlik kelgusida iqtisodiy o'sish va yuksalish uchun muhim bosqich hisoblanadi. Bu maqsadga erishish uchun avvalo, YAİM ishlab chiqarishning pasayishi to'xtatiladi. Keyinchalik YAİM va yalpi sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi bo'yicha barqaror o'sish ta'minlanadi. Agar YAİM ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari aholi soni o'sish sur'atlaridan ustun bo'lishiga erishilsa, unda yanada yaxshi bo'ladi. Ijtimoiy ishlab chiqarish hajmining o'sishi iqtisodiyotda band bo'lganlar sonining oshishi, inflyatsiyaning past darajasi, YAİM hajmida jang'arish va investitsiya ulushining o'sishi va boshqa sifat ko'rsatkichlari bilan birga kechishi lozim.

Milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarish va ijtimoiy soha majmualari bilan birga mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy majmualar ham faoliyat ko'rsatadi. Bu majmualarning shakllanishi alohida hududlar ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi uchun tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar va omillar majmuining mavjudligi bilan izohlanadi. Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy majmua respublika mintaqalarining shakllanishi uchun obyektiv asos yaratuvchi, barqaror iqtisodiy munosabatlar o'rnatilgan ko'plab obyektlar majmuidan iborat murakkab, dinamik rivojlanuvchi tizimdir.

Investitsiyalarning hajmi va tarkibi mamlakatdagi makroiqtisodiy muvozanatga, ishlab chiqarish kuchlarining joylashtirilishi va rivojlantirilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Investitsiya faolligining oshishi iqtisodiy rivojlanishning ayni paytdagi bosqichi xususiyatlarini hisobga oluvchi oqilona investitsiya siyosatini ishlab chiqishini taqozo etadi. Aynan mana shunday siyosat mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga, uning ishlab chiqarish-texnik salohiyatining o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan samarali vositaga aylanadi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda iqtisodiy o'sishning omillarini aniqlab bering?
2. Mintaqa nima? Iqtisodiy rayon nima? Farqini aytib bering?
3. Transport tarmog'i oldiga qo'yilgan vazifalari nimalardan iborat?
4. O'zbekistonda hozirgi paytda ishlab chiqilayotgan davlatning tarkibiy-investitsiya dasturlari qvnday yo'nalishlarga qaratilishi talab etiladi?

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: O'zbekiston, 2011, - 421b.
2. Karimov I. A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi// Xalq so'zi. 2011-yil 22-yanvar.
3. Karimov I. "2014- yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi"//Xalq so'zi, 2014-yil 18-yanvar.



4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirøzi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. - T.; O'zbekiston, 2009.

5. Ishmuxamedov A.E. O'zbekiston milliy iqtisodiyoti. Darslik. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. - 304 b.

6. Ishmuxamedov A.E. va boshqalar. Makroiqtisodiyot. Darslik – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. - 192 b.

7. Tuxliyev N. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. - T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 280 b.

8. Internet veb-saytlari.

[www.cecp.uz](http://www.cecp.uz).

[www.bearingpoint.uz](http://www.bearingpoint.uz).

[www.pca.uz](http://www.pca.uz).

## **25 - bob. MILLIY IQTISODIYOTNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI**

### **25.1. Makroiqtisodiy o'sish**

2011 – 2015- yillardagi eng muhim vazifa – makroiqtisodiy barqarorlik va ichki yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, uning sifat ko'rsatkichlarini iqtisodiyot tarmoqlarini yanada diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarning ichki va tashqi bozorlardagi raqobatdoshligini oshirish hisobidan yaxshilashdan iborat.

Yaqin yillarda yalpi ichki mahsulotning yiliga 8 foizdan ortiq darajadagi barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash, umuman 2011 – 2015 yillar davomida uning hajmi 1,5 barobar, xarid qobiliyati pariteti bo'yicha esa 1,6 barobar hisobidagi o'sishga erishish ko'zda tutilmoqda. Bunda iqtisodiy o'sish barqarorligi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning mutanosibligi, past inflyatsiya ko'rsatkichlari va milliy valyuta kursining barqarorligi orqali ta'minlanadi.

Kelgusi yillarda ichki talabning oshib borishiga muhim ahamiyat beriladi. Chunki jahon iqtisodiyoti va mahsulotlar bozorlaridagi beqarorlik sharoitida bunday yondashuv iqtisodiyotni izchil rivojlantirishning barqarorlashtiruvchi va rag'batlantiruvchi omili sifatida muhim o'rin tutadi.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar va uni yanada diversifikatsiya qilish sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 2010- yildagi 24 foizdan 2015- yilda 28 foizga, qurilishda –6,4 foizdan 7,6 foizga oshirish imkonini beradi. Natijada 2011 – 2015 yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1,3 barobar ortgani holda, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 17,5 foizdan 13,5 foizga tushadi.

Butun mamlakatimiz va barcha mintaqalarda o'ta qulay ishchan muhitni yaratish, tabdirkorlikka yanada ko'proq erkinliklar berish, asossiz turli byurokratik to'siqlarni barham toptirish borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish kichik biznes va xususiy tabdirkorlikni jadal sur'atlarda, birinchi navbatda ishlab chiqarish va yuqori texnologiyali tarmoqlarda rivojlantirishni, mazkur sohaning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2010-yildagi 52,5 foizdan 2015-yilda rivojlangan mamlakatlardagi kabi, 60 foizdan yuqori bo'lishini ta'minlaydi.

### **25.2. Davlatning investitsiya siyosati**

2011 – 2015 yillarda tarkibiy o'zgarishlarni iqtisodiyotning soha va tarmoqlarini diversifikatsiya va modernizatsiya qilishni izchil davom ettirish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash, shuningdek, transport, muhandislik, kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirishga qaratilgan faol investitsiya siyosati olib boriladi.

Ushbu maqsadlar uchun 2011 – 2015 yillar davomida oxirgi 5 yil mobaynida o'zlashtirilgan investitsiyalarga qaraganda 2 barobar ko'p, jami 77,4 milliard dollar miqdoridagi investitsiyalarni yo'naltirish mo'ljallanmoqda. Asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi 24 foizdan kam bo'lmasligi tarkibiy o'zgartirishlarni jadal amalga oshirish va iqtisodiyotni

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning asosiy hajmi ichki resurslarni safarbar qilish hisobidan amalga oshiriladi. Kelgusi yillarda bu ko'rsatkich yalpi kapital qo'yilmalar hajmining 76 foizini tashkil etadi. Bu mablag'lar, avvalo, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashni amalga oshirayotgan korxonalarining o'z mablag'larini ko'paytirishi, soliq yukini yanada kamaytirish, tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash va aholining tadbirkorlik faoliyatidan oladigan daromadlarini oshirish hisobidan hosil bo'ladi.

Strategik muhim, birinchi navbatda, infratuzilmani shakllantirish, ishlab chiqarishni rekonstruksiya qilish va modernizatsiya etishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishga ichki resurslarni jalb etishda O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi alohida o'rin egallaydi. Mazkur jamg'armaning tarkibiy o'zgarishlardagi tobora ortib borayotgan rolini inobatga olgan holda, yaqin yillarda uning hisobida 10 milliard dollardan ziyod mablag' jamlanadi.

2011– 2015 yillarda yoqilg'i-energetika tarmog'ini, mashinasozlik va avtomobilsozlikni rivojlantirish, elektr energetika sohasida energiya ishlab chiqarish quvvatlarining samaradorligini oshirish va diversifikatsiya qilish, metallurgiya sanoatini kompleks modernizatsiya qilish, kimyo sanoatini rivojlantirish va diversifikatsiya qilish, transport va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish uchun Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tomonidan 4,7 milliard dollardan ziyod mablag' yo'naltiriladi.

Mazkur jamg'armaning eng muhim vazifalaridan biri strategik investitsiya loyihalarini birgalikda moliyalashtirish maqsadida yirik xorijiy investor va sheriklarni jalb etishdir. Masalan, Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi va Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida amalga oshirilayotgan, umumiy qiymati 1,28 milliard dollarga teng bo'lgan Tollimarjon issiqlik elektr stantsiyasida ikkita bug'-gaz moslamasini qurish loyihasi shular jumlasidandir.

Kelgusi yillardagi ustuvor yo'nalishlardan biri mamlakatimizda, eng avvalo, jalb qilinayotgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish, chet el investorlari uchun ishonchli kafolatlar yaratish hamda ularning ishonchini mustahkamlash maqsadida yanada qulay investitsiya muhitini shakllantirishdan iborat.

Bu vazifani amalga oshirish orqali 2011 – 2015 yillar davomida 13 milliard dollardan ziyod yoki o'tgan besh yildagiga nisbatan 1,7 barobar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini ta'minlaydi. Ushbu mablag'lar eng ilg'or texnologiyalar bilan jihozlangan va xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash hamda raqobatdosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan, mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirish hamda yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiladigan yangi sanoat korxonalarini tashkil etish bo'yicha chet el investorlari ishtirokidagi 320 tadan ortiq yirik investitsiya loyihasini amalga oshirishga yo'naltiriladi.

Bunday loyihalar haqida so'z borganda, avvalo, Surgil koni bazasida Ustyurt gaz-kimyo majmuasini barpo etish, Sho'rtan gazkimyo majmuasida tozalangan metan bazasida suyultirilgan sintetik yoqilg'i ishlab chiqarish, Muborak gaz-kimyo majmuasini qurish, Qandim guruhi konlarini o'zlashtirib, gazni qayta ishlaydigan zavod barpo etish, Navoiy viloyatida ammiak va karbamid ishlab chiqaradigan zamonaviy kompleks qurish, avtomobil dvigatellari, katta hajmda yuk tashiydigan «MAN» avtomobillari, «Mercedes-Bents» shassisli bazasida ko'p o'rinli avtobuslar, «Klaas»

kompaniyasi bilan hamkorlikda qishloq xo'jaligi texnikasini ishlab chiqarishni tashkil etish, texnik va polikristall kremniy ishlab chiqarish, tayyor mahsulot ishlab chiqarishning to'liq sikliga ega bo'lgan vertikal integratsiyalashgan to'qimachilik majmualarini, tayyor dori preparatlarini ishlab chiqaradigan korxonalarni barpo etish va boshqa loyihalarni qayd etish mumkin.

Iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirishda O'zbekiston yirik xalqaro moliya institutlari, hukumat tashkilotlari va xorijiy banklarni, birinchi navbatda mamlakatimiz bilan yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha o'zaro hamkorlik aloqalarini kengaytirishga katta qiziqish bildirayotgan Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki, Yaponiya, Janubiy Koreya va XRR taraqqiyot banklari, qator arab davlatlarining investitsiya fondlarini jalb etish masalasiga katta ahamiyat beradi.

Aynan ana shu hamkorlikning moliyaviy ko'magida kelgusi yillar davomida O'zbek milliy avtomagistrali uchastkalarini qurish, ichimlik suvi bilan ta'minlash tizimlarini barpo etish va rekonstruksiya qilish, qishloq xo'jaligi yerlarining meliorativ holatini yaxshilash, polivinilxlorid va kaustik soda ishlab chiqarish bo'yicha yangi majmua barpo etish, qishloq xo'jaligi texnikasi va avtomobil shinalarini ishlab chiqarishni tashkil etish kabi ko'plab loyihalar amalga oshiriladi.

Bir so'z bilan aytganda, 2011 – 2015 yillarda jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi 18,6 milliard dollarni tashkil etadi yoki o'tgan besh yildagiga nisbatan 2 barobar ko'p bo'ladi. Ularning 75 foizdan ortig'ini to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar tashkil etadi. Bu borada qarz mablag'lari uzoq muddatli asosda faqat ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmalarini rivojlantirish, iqtisodiyotning strategik tarmoqlarini modernizatsiya qilish, shuningdek, xorijiy moliyaviy institutlarning kredit liniyalarini mamlakatimiz tijorat banklari orqali qayta moliyalashtirish yo'li bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga jalb etiladi.

### **25.3. Bank-moliya sohasini takomillashtirish**

2011 – 2015 yillarda mamlakatimiz bank-moliya tizimini rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishi tijorat banklarining kapitallashuv darajasini yanada oshirish hamda ularning resurs bazasini mustahkamlashdan iborat.

2010-yilda qabul qilingan Respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishish dasturida 2011 – 2015 yillarda banklarning yalpi kapitalini qo'shimcha aksiyalar chiqarish hisobidan 2,1 barobar, shuningdek, aholi va xo'jalik subyektlarining depozitlarini banklar tomonidan jalb qilinish hajmini 2,5 barobar oshirish ko'zda tutilgan.

Qayd etilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish iqtisodiyotning real sektorini kreditlashga yo'naltiriladigan ichki manbalarni yanada ko'paytirish, tijorat banklarining kredit portfelini kengaytirish hamda iqtisodiyotning real sektori investitsiya loyihalarini birinchi navbatda, mamlakatimiz iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridagi sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash jarayonlarini amalga oshirishda bank tizimining rolini kuchaytirish imkonini beradi.

Tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektori korxonalariga va tarmoqlar investitsiya loyihalarini kreditlash hajmi 2011 – 2015 yillarda 2,8 barobar o'sadi va 17 milliard dollardan oshadi.

2011 – 2015 yillarda tijorat banklari tomonidan kichik biznes, xususiylad birkorlik subyektlari loyihalarini, birinchi navbatda, investitsiya maqsadlari va boshlang'ich kapitalni shakllantirish uchun uzoq muddatli kreditlar ajratish, «Mikrokreditbank» tarafidan berilayotgan imtiyozli mikrokreditlashning kengayishini moliyalashtirish hajmi 2,7 barobar ortadi.

Shular qatorida, bank-moliya tizimini rivojlantirish borasidagi asosiy e'tibor xalqaro standart va talablarga muvofiq tijorat banklari hamda bankdan tashqari kredit tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, ularning kredit portfeli sifatini doimiy monitoring qilishni ta'minlash, shuningdek, ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatlarning turi va ko'lamini kengaytirish, sifatini oshirishga qaratiladi.

Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2011 – 2012 yillarda bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining yangi tavsiyalarini, shuningdek, bankdan tashqari kredit tashkilotlarining faoliyati ustidan nazoratni takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich joriy etish ko'zda tutilmoqda. Bundan tashqari, tijorat banklari va butun moliya-bank tizimi faoliyatini baholash uchun moliyaviy institutlar faoliyatini baholash va tahlil etishning yetakchi xalqaro reyting tashkilotlari tomonidan qo'llanadigan mezon va standartlariga asoslangan yangi tizimi ishlab chiqiladi.

Shu bilan birga, yaqin yillarda mikromoliyalash sohasini yanada rivojlantirish, bankdan tashqari kredit tashkilotlari barqarorligini oshirish va ularning tarmog'ini kengaytirish borasidagi ishlar davom ettiriladi. Natijada 2015-yilga borib ularning soni 1,7 barobar, jami kapitali – 2,1 barobar, ular tomonidan beriladigan mikrokreditlar va ko'rsatiladigan mikromoliyaviy xizmatlar hajmi – 2,8 barobar ortadi.

#### **25.4. Sanoatni rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari**

Sanoatni barqaror, jadal va mutanosib rivojlantirish, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash negizida sanoatning asosiy tarmoqlarini diversifikatsiya qilish, eksportga yo'naltirilgan hamda import o'rmini bosadigan raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar 2011 – 2015 yillarda yurtimizda sanoat ishlab chiqarish hajmini 1,6 barobar oshirishga qaratilgan.

Sanoat tarmoqlari samaradorligi va raqobatdoshligini yanada oshirish maqsadida, 2011 – 2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida dastur qabul qilindi. Ushbu Dasturda jami 47,5 milliard dollarlik 500 dan ortiq investitsiya loyihasi amalga oshirish belgilangan.

Dasturda energetika, neft-gaz-kimyoy, kimyo, to'qimachilik va yengil sanoat sohalari, rangli metallurgiya, mashinasozlik va avtomobilsozlik, farmatsevtika, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sifatli va chuqur qayta ishlash, qurilish materiallari ishlab chiqarish kabi ustuvor tarmoqlarni jadal rivojlantirish nazarda tutilgan.

Xususan, 2011 – 2015 yillarda yoqilg'i-energetika kompleksini rivojlantirish doirasida mamlakatimiz energetika salohiyatini yanada rivojlantirish, resurslarni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, iste'molchilarni energiya bilan ishonchli va sifatli ta'minlash, energiya quvvatlaridan foydalanish samaradorligini oshirishga

qaratilgan o'nlab investitsiya loyihalari amalga oshiriladi. Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida 2015-yilga borib sanoatda sarflanadigan energiya ulushini kamida 30 foiz kamaytirish mo'ljallanmoqda.

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishda raqobat qila olish ustunliklariga, jumladan, tabiiy resurslarning ulkan salohiyatiga, qudratli ishlab chiqarish va texnik baza hamda yuqori malakali kadrlarga ega bo'lgan kimyo sanoati investitsiyalar va yangi loyihalarni amalga oshirish uchun jalb etuvchan yo'nalish hisoblanadi. Bu sohada 2011 – 2015 yillarda kimyo ishlab chiqarishini jadal rivojlantirish, materiallar va tayyor mahsulotlarning printsipliy yangi turlarini ishlab chiqarishni o'zlashtirishga qaratilgan 30 dan ortiq investitsiya loyihasi amalga oshiriladi va kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 1,6 barobar oshiriladi.

2011 – 2015 yillarda mashinasozlik sohasida yengil avtomobillar ishlab chiqarishni 1,2 barobar, zamonaviy avtobuslar ishlab chiqarishni 1,3 barobar, sovutkich va muzlatkichlar ishlab chiqarishni 4 barobar hamda televizorlar ishlab chiqarishni 5,1 barobar oshirishga qaratilgan 80 dan ortiq investitsiya loyihasini amalga oshirish ko'zda tutilmoqda.

Xususan, 2011-yilda «Jeneral Motors» kompaniyasi bilan hamkorlikda avtomobillarning kuchlanish agregatlarini ishlab chiqaradigan korxonaning foydalanishga topshirilishi nafaqat ichki ehtiyojlarni to'liq ta'minlash yoki mahalliy avtomobillarni mahalliyashtirish darajasini oshirish, balki avtomobil dvigatellarini tashqi bozorlarga eksport qilish imkonini ham yaratadi. Samarqand viloyatida katta hajmda yuk tashiydigan «MAN» rusumidagi avtotransport vositalarini ishlab chiqaradigan va ularga xizmat ko'rsatadigan majmuaning tashkil etilishi ham yuk avtomobillariga butlovchi qismlar ishlab chiqarish bo'yicha kooperatsiya aloqalarining rivojlanishi uchun asos bo'ladi.

Vertikal integratsiyalashgan yangi zamonaviy to'qimachilik majmualarining qurilishi paxta tolasini yurtimizda qayta ishlash hajmining 2 barobardan ziyod oshishini ta'minlaydi. Bu, o'z navbatida, 2011 – 2015 yillarda kalava ishlab chiqarishni 2,6 barobar, tayyor trikotaj va tikuvchilik buyumlari tayyorlashni tegishli 3,2 va 2,6 barobar hamda to'qimachilik sanoati mahsulotlari eksportini 1,7 barobar oshirish imkonini beradi.

Dasturning ustuvor yo'nalishlaridan biri farmatsevtika sanoatini rivojlantirishdir. Ushbu yo'nalishda farmatsevtika korxonalarini tashkil etish va modernizatsiya qilish orqali 150 dan ortiq zamonaviy dori preparatlarining yangi turlarini o'zlashtirish, shu orqali dori-darmonlar iste'moli tarkibida yurtimizda ishlab chiqarilgan dori-darmonlar ulushini 3 barobardan ziyod oshirish nazarda tutilgan.

Kelgusida «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasi salohiyatidan to'liq foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda. Mazkur zonada yetakchi xorijiy korxonalar bilan hamkorlikda avtomobil sanoati uchun butlovchi qismlar, eng yangi isitish moslamalari, kimyo va neft-kimyo mahsulotlari, maishiy elektronika va aloqa vositalari ishlab chiqarish bo'yicha o'nlab yuqori texnologiyaga asoslangan yangi zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish ko'zda tutilmoqda.

Mamlakatimizdagi xomashyo va tabiiy resurslarni chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha

loyihalarni jadal amalga oshirish sanoat tarkibida qayta ishlash tarmoqlarining ulushini oshirib, 2010-yildagi 41 foizdan 2015-yilda 49 foizga yetkazish imkonini beradi.

Dasturni amalga oshirish 2011 – 2015 yillarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi ortib, yalpi ichki mahsulotda sanoatning ulushi 2010-yildagi 24 foizdan 2015-yilda 28 foizga yetkazilishi, shuningdek, yurtimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlar eksportining oshishini ta'minlaydi. Bunda umumiy eksport hajmida sanoat mahsulotlarining ulushi 1,4 barobar ortadi.

### **25.5. Qishloq xo'jaligida islohotlarni yanada chuqurlashtirish**

Kelgusi yillarda sanoat uchun eng muhim xomashyo manbai bo'lgan, ichki bozorni oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror to'ldirish va eksport salohiyatini oshirishni ta'minlaydigan qishloq xo'jaligi sohasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish, sohani texnik va texnologik qayta jihozlash va modernizatsiya qilishga katta e'tibor qaratiladi.

Muxtasar aytganda, 2015-yilda 2010-yilga nisbatan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,3 barobar oshirish ko'zda tutilgan. Bu borada kelgusi yillarda qishloq xo'jaligida olib boriladigan o'zgarishlarning asosiy vazifasi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi va chorvachilik mahsuldorligini oshirish negizida mahsulot yetishtirish hajmining izchil o'sib borishini ta'minlashning asosiy shakli bo'lgan fermerlik institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish bo'ladi.

Kelgusi yillarda o'simlikshunoslik sohasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda ilg'or agrotexnologiyalarni, xomashyo va suvni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni, seleksiya va urug'chilik usullarini joriy etishga alohida ahamiyat beriladi.

Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi 2011 – 2015 yillarda qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini ko'tarish, mineral o'g'itlardan foydalanish samaradorligini 15 foiz oshirish, shuningdek, sug'orish uchun suv sarfini 12 foiz kamaytirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, bu chora-tadbirlar meva-sabzavot mahsulotlari tayyorlashni 1,5 barobar, kartoshka yetishtirishni 1,4 barobar, poliz va uzum etishtirishni 1,3 barobar ko'paytirish, ularning qishloq xo'jaligi ekinlari tarkibidagi umumiy ulushini, texnik ekinlar va g'alla yetishtirish hajmini barqaror saqlab qolgan holda, 2010-yildagi 59 foizdan 2015-yilda 70 foizga yetkazish hisobidan qishloq xo'jaligida ishlab-chiqarish tarkibini sifat jihatidan o'zgartirishga ko'maklashadi.

2011 – 2015 yillarda chorvachilikni yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish doirasida naslchilik ishlarini takomillashtirish, mustahkam ozuqa bazasi va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish asosida sohaga xizmat ko'rsatish infratuzilmasini yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilmoqda. Bu chora-tadbirlar naslchilik xo'jaliklarini 2,5 barobar, ozuqa ekinlari maydonini 1,3 barobar oshirish, zooveterinariya punktlarini zamonaviy uskuna va inventarlar bilan ta'minlash darajasini oshirish imkonini beradi. Natijada kelgusi yillarda yirik va mayda shoxli qoramollarning bosh soni 1,3 barobar ko'payadi, go'sht va sut mahsulotlari 1,3 barobardan ziyod oshadi.

Parrandachilik va baliqchilikni jadal rivojlantirish kelgusi yillarda chorvachilik mahsulotlari hajmi o'sishida qo'shimcha omil bo'ladi. Xususan, parrandalar bosh sonini 2010-yilga nisbatan 1,8 barobar oshirgan holda, 1000 dan ziyod xususiy parrandachilik fermalari va mahsulot ishlab chiqarish hajmini 1,6 barobar oshirish imkonini beradigan 670 ta xususiy baliqchilik xo'jaligini tashkil etish mo'ljallanmoqda.

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini uzoq muddat saqlash quvvatlarini tashkil etish va qayta ishlash hajmini kengaytirish borasidagi kompleks chora-tadbirlarga alohida e'tibor qaratilib, qishloq joylarda zamonaviy mintexnologiyalar negizida qayta ishlash korxonalarini ishga tushirish, oziq-ovqat tovarlari sifatini oshirish va assortimentini kengaytirish natijasida 2011–2015 yillarda meva-sabzavot konservasi ishlab chiqarish 1,7 barobar, go'sht konservasi – 2,2 barobar, kolbasa mahsulotlari – 1,8 barobar, sut mahsulotlari 1,9 barobar, sariyog' tayyorlash 1,8 barobar oshiriladi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining qayd etilgan prognoz parametrlariga erishish uchun 2011 – 2015-yillarda sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilash va unumdorligini oshirish choralari ko'riladi.

Maxsus tashkil etilgan Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash fondi mablag'lari hisobidan 2011 – 2015 yillarda meliorativ inshootlarni qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash, tomchilatib sug'orish tizimini yo'lga qo'yish va melioratsiya texnikasi xarid qilish bo'yicha qariyb 500 million dollarga teng qator loyihalarni amalga oshirish ko'zda tutilmoqda. Bu esa qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan 1,4 million gektar yer maydonining meliorativ holatini yaxshilash imkonini beradi.

Kelgusi yillarda qishloq xo'jaligi texnikasi parklarini kengaytirish va sifat jihatidan yangilash borasidagi ishlar davom ettiriladi. Qishloq xo'jaligi tarmog'ini 28 mingdan ziyod yuqori ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan yangi avlod traktorlari, kombaynlar, buldozerlar, ekskavatorlar va tirkama texnikalar bilan ta'minlash, ularga texnik xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash natijasida traktorlar va kombaynlar parki o'rta hisobda 60 foiz, ekskavatorlar va buldozerlar parki 90 foiz yangilanadi, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligi ortib, ekspluatatsiya xarajatlari kamayadi.

Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi yurtimizda Germaniyaning «Klaas» kompaniyasi va boshqa ilg'or xorijiy kompaniyalar bilan birgalikda zamonaviy turdagi qishloq xo'jaligi va melioratsiya texnikalarini ishlab chiqarish va ularga xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanadigan yangi korxonalar tashkil etilishiga xizmat qiladi.

## **25.6. Milliy iqtisodiyot infratuzilmasining rivoji**

Iqtisodiyotni izchil va barqaror taraqqiy ettirish infratuzilmani jadal rivojlantirish hamda yagona transport tizimi va telekommunikatsiya tarmog'ini shakllantirish bilan uzviy bog'liqdir. Shuningdek, infratuzilmani kengaytirish yangi ish o'rinlari yaratish va aholining bandlik darajasini oshirish kabi ijtimoiy ahamiyatga molik masalalarni hal etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

2011 – 2015 yillarda transport tizimini rivojlantirish dasturi doirasida O'zbek milliy avtomagistrali, mintaqaviy va mahalliy ahamiyatga molik yo'llardan iborat mamlakatimiz avtomobil yo'llarining yagona tarmog'ini shakllantirish borasidagi ishlar davom ettiriladi. Bu esa, o'z navbatida, davlatimizning barcha hududlarini transport



kommunikatsiyasi bilan ishonchli tarzda o'zaro bog'lash, transport xarajatlarini qisqartirish, yuk va yo'lovchi tashish samaradorligini oshirish imkonini yaratadi. Asosiy avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilishda 4 polosali harakatni yo'lga qo'yish, yo'llar yuzasiga zamonaviy asfalt-beton va sementbeton qoplamalar yotqizish, yo'l o'tkazgichlar qurish bo'yicha eng ilg'or xalqaro standartlar joriy qilinadi.

2010-yilda qabul qilingan 2011 – 2015 yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirish dasturi sementbeton qoplamali xalqaro va respublika ahamiyatiga molik yo'llarning uzunligi 2010-yilga taqqoslaganda 3,1 barobar, birinchi toifaga kiradigan avtomobil yo'llarining 4 polosali uchastkalari 1,9 barobar ko'payishi, ularning O'zbek milliy avtomagistrali tarkibidagi ulushi 2010-yildagi 47,4 foizdan 2015-yilga borib 88,3 foizga o'sishini ko'zda tutadi.

Avtomobil yo'llar tarmog'ini rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida 700 dan ortiq yo'l-qurilish texnikasi xarid qilish ko'zda tutilmoqda. Buning natijasida yo'l qurish va ta'mirlash ishlari bilan shug'ullanadigan xizmatlarning zamonaviy texnika bilan jihozlanish darajasi 2015-yilda hozirgi vaqtdagi 39 foizdan 58 foizga yetadi.

2011 – 2015 yillarda temir yo'l infratuzilmasini rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlari poezdlar nisbatan serqatnov bo'lgan uchastkalarini elektrlashtirish orqali ularning samaradorligini oshirish, lokomotivlar parkini yangilash, yuk vagonlarini ta'mirlash bazasini kengaytirish va yangi vagonlar qurish, boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, shuningdek, xizmat ko'rsatish, yo'lovchilarni manziliga tez va qulay sharoitlarda yetkazish sifatini yanada oshirishdan iborat.

Elektrlashtirilgan temir yo'l uchastkalarining mamlakatimizdagi mavjud umumiy uzunligidagi ulushi 2010-yildagi 36 foizdan 2015-yilda 42 foizga yetkaziladi. Bunda Maroqand-Qarshi – Termiz (465 km.) va Maroqand – Buxoro (250 km.) uchastkalarining elektrlashtirilishi muhim hissa bo'lib qo'shiladi.

Yo'lovchilar tashish tizimini rivojlantirish maqsadida, 2011-yilda «Toshkent – Samarqand» yo'nalishi bo'yicha zamonaviy qulayliklarga ega bo'lgan «Talgo – 250» (Ispaniya) poezdlari yuradigan tezyurur poezd qatnovini yo'lga qo'yish ko'zda tutilmoqda. Bunday qulaylik yo'l yurish vaqtini bir yarim barobar qisqartirish imkonini beradi.

«O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi tomonidan hozirgi kunda davom etayotgan aviatsiya tashuvlar tizimini modernizatsiya qilish jarayoni doirasida 7 ta «Eyrbas – 320» rusumidagi havo layneri xarid qilindi. Bu esa 2011-yilda yo'lovchilar tashishni to'liq zamonaviy avialaynerlarga o'tkazish hamda havo kemalari qatnovini xavfsiz, xalqaro standartlar talablari darajasida tashkil etish imkonini berdi. Kelgusi yillarda 10 ta «Eyrbas» va «Boing», shu jumladan, 2 ta «Boing – 787 Drimlayner» samolyotlarini xarid qilib, havo kemalari parkini yanada kengaytirish ko'zda tutilmoqda.

Aviatsiya tashuvlarining yerdagi infratuzilmasini kengaytirish maqsadida Toshkent shahri aeroportida mahalliy qatnovlarni qabul qiladigan aerovokzalning yangi terminalini qurish, jami 8 ta aeroportning, jumladan, Buxoro, Termiz, Navoiy va boshqa mintaqaviy markazlardagi aeroportlarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish, shuningdek, havo flotining xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bazasini mustahkamlash bo'yicha tegishli chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Kelgusi yillarda O'zbekiston hududida yuklarni ishonchli tarzda ichki va xalqaro tashishni ta'minlaydigan transport va logistika tizimini takomillashtirish bo'yicha izchil ishlar davom ettiriladi. Xususan, «Angren» xalqaro logistika markazi faoliyatini yanada rivojlantirish, uning konteyner bilan keladigan yuklarni qabul qilib olish, saqlash va jo'natish quvvatini oshirish borasida kompleks tadbirlarni amalga oshirish natijasida Qamchiq dovoni orqali yuklarni zamonaviy usulda tsisterna-konteynerlarda tashish tizimini joriy etish ko'zda tutilmoqda.

«Navoiy» aeroporti bazasida tashkil etilgan xalqaro intermodal logistika markazi hozirgi vaqtda xalqaro transport logistikasining global tarmog'iga muvaffaqiyatli qo'shildi. Markaz faoliyatini yanada rivojlantirish bugungi kundagi 12 yo'nalish bo'yicha tashkil etilgan havo qatnovi geografiyasini 2015-yilda Yevropa, Sharqiy va Janubiy Osiyo, Yaqin Sharq, MDH davlatlari bo'yicha 25 ta yo'nalishga yetkazish, aeroportning infratuzilmasini takomillashtirish, shuningdek, tobora hajmi oshib borayotgan yuklarni tashish uchun samolyotlar sonini ko'paytirib borishni nazarda tutadi.

Shu bilan birga, televideniye bosqichma-bosqich raqamli tizimga o'tkazish Dasturi 2015-yilga borib aholining raqamli televideniye bilan ta'minlanish darajasini 70 foizga yetkazish, Toshkent shahri, barcha viloyatlar markazlari hamda Nukus shahridagi televideniye aloqa markazlarini zamonaviy raqamli uskunalar bilan to'liq ta'minlash imkonini beradi.

### **25.7. Ijtimoiy sohani barkaror rivojlantirish istiqbollari**

Kelgusi yillarda ta'lim, sog'liqni saqlash sohaslarini, uy-joy infratuzilmasini, ayniqsa, qishloq joylarda sifat jihatidan yanada rivojlantirish, shuningdek, aholining ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va sifatini yaxshilashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish izchil davom ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasida islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida asosiy e'tibor ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilash, kasalliklarni dastlabki davridayoq aniqlash va ularning oldini olish tizimi samaradorligini oshirish, sanitariya-epidemiologiya holatini, eng avvalo qishloq joylarda yaxshilash, shuningdek, tor mutaxassisliklarga ixtisoslashgan ilmiy markazlarni diagnostika va davolashning yuqori texnologiyali usullarida ta'minlash orqali rivojlantirish masalalariga qaratiladi.

Xususan, 2011– 2015 yillarda 700 dan ortiq (o'tgan 5 yildagiga nisbatan 1,8 barobar ko'p) sog'liqni saqlash muassasasi (viloyatlardagi 27 ta ko'ptarmoqli markaz, 12 ta mintaqaviy tibbiy diagnostika markazi va 10 ta respublika ixtisoslashtirilgan markazi) qurish, rekonstruksiya qilish va ularni jihozlash ko'zda tutilgan.

Kelgusi yillarda 100 dan ortiq tuman tibbiyot majmualari Jahon bankining «Salomatlik – 3» loyihasi doirasida umumiy qiymati 93 million dollar miqdoridagi zamonaviy tibbiyot uskunalari bilan ta'minlanadi, qishloq aholi punktlari qoshida hayotiy zarur dori vositalarini yetkazib beradigan dorixonalar faoliyatini tashkil etish ishlari yakuniga yetkaziladi.

2011-yilda Respublika jarrohlik markazi qoshida yuksak zamonaviy asbob-uskunalar ega bo'lgan kardiokirurgiya bo'limining tashkil etilishi va Respublika kardiologiya markazining operatsiyalar o'tkazish uchun ilg'or tibbiy uskunalar bilan

sonini, jumladan, yurakni ochiq holda operatsiya qilish sonini 60 foiz ko'paytirish, yurak-qon tomir kasalligi asoratlari bilan og'riyotgan bemorlarga xalqaro standartlar darajasida sifatli meditsina xizmati ko'rsatish imkonini beradi.

Ma'lumki, tibbiyot va sport jamiyatda sog'lom turmush tamoyillarini shakllantirishning eng muhim omillari hisoblanadi. SHu bois yurtimizda bolalar sporti obyektlarining moddiy-texnik bazasini kengaytirish va yanada mustahkamlash, ularni kerakli sport jihoz-anjomlari bilan ta'minlash, mutaxassis va murabbiylar tayyorlash, sport mashg'ulotlari turlarini ko'paytirish masalalariga alohida ahamiyat beriladi. Bularning barchasi doimiy sport bilan shug'ullanadigan bolalar sonini deyarli 2 barobar yoki bu ko'rsatkichni umumiy bolalar soniga nisbatan 34 foizdan 63 foizga yetkazish imkonini beradi. Bolalarning jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishi ularning salomatligini mustahkamlash, kasalliklar, avvalo o'tkir respirator kasalliklarining oldini olish va kamaytirishda katta rol o'ynaydi.

Yaqin yillarda ta'lim sohasini rivojlantirishning asosiy vazifasi ta'lim muassasalarida yaratilgan moddiy-texnik bazadan samarali foydalanish, ularni tizimli asosda zamonaviy texnika va uskunalar bilan yangitdan ta'minlab borish, o'quv jarayoniga ilg'or ta'lim texnologiyalari va axborot-kommunikatsiya tizimini keng joriy etishdan iboratdir.

Shu maqsadda Prezidentimiz tashabbusi bilan 2010-yilda Ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash bo'yicha byudjetdan tashqari jamg'arma tashkil etildi. Ushbu jamg'armaning asosiy vazifasi ta'lim muassasalarini eng yangi o'quv-laboratoriya va ishlab chiqarish uskunolari, kompyuter texnikasi, o'quv mebeli va anjomlari bilan jihozlash (jihozlashni davom ettirish), o'quv binolarini o'quv ustaxona va laboratoriyalari bilan kengaytirish, sport zallari va maydonchalari, boshqa infratuzilma obyektlarini barpo etish ishlarini moliyalashtirishni nazarda tutadi.

2011 – 2015 yillarda Jamg'arma mablag'lari hisobidan barcha maktablarni o'quv jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish imkonini beradigan kompyuter sinflari bilan ta'minlash borasidagi chora-tadbirlar oxiriga yetkaziladi.

Bundan tashqari, 400 ta bolalar sporti, 221 ta bolalar musiqa va san'ati maktabini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshiriladi.

«Elektron ta'lim» loyihasini amalga oshirishga alohida e'tibor beriladi. Ushbu loyiha doirasida mamlakatimizning barcha hududlaridagi oliy o'quv yurtlarida, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda, umumta'lim maktablarida bosqichma-bosqich elektron kutubxona fondining erkin katalogi, masofaviy ta'lim va ma'lumot almashinuvi tizimi joriy etiladi.

Qishloq aholisining hayot sifatini tubdan o'zgartirishga qaratilgan, 2009-yilda boshlangan qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida barcha kommunal xizmatlar va yuqori darajadagi qulayliklarga ega bo'lgan yakka tartibdagi uy-joylarni kompleks qurish borasida olib borilayotgan tizimli ishlarni izchil davom ettirish, qishloqda turmush sharoitini sifat jihatidan o'zgartirishning eng muhim yo'nalishi bo'ladi.

2011 – 2015 yillarda namunaviy loyihalar asosida zamonaviy muhandislik va transport infratuzilmasi, ijtimoiy obyektlarga ega bo'lgan turarjoy massivlari 35,5 ming yakka tartibdagi uy-joy bilan birgalikda barpo etilishi ko'zda tutilmoqda.

Ijtimoiy va kommunikatsiya infratuzilmalarining jadal rivojlanishi hamda tez o'sib borayotgan uy-joy bozorining shakllanishi shahar va qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis infratuzilmasining kengayishiga hamda buning natijasida 2011–2015 yillarda transport va maishiy xizmat ko'rsatish hajmining 2,5 barobar oshishiga imkon yaratadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlash, ko'proq qishloq joylarda yiliga kamida 950 mingta yangi ish o'rni yaratish bilan bir vaqtda yuqorida qayd etilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi 2011 – 2015 yillarda aholining yalpi daromadini 2,6 barobar ko'paytirish, xarid qobiliyati pariteti bo'yicha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulotni 1,5 barobar oshirish uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.

2011 – 2015 yillarda keng miqyosdagi iqtisodiy islohotlarni izchil davom ettirish, oldimizga qo'yilgan marralarga erishish uchun mavjud resurs va imkoniyatlarni safarbar etish, amalga oshirilayotgan islohotlarni chuqurlashtirishda uzviylik va izchillikni ta'minlash, iqtisodiyotimizning barqarorligi hamda zarur o'sish sur'atlarini saqlash, xalqimiz hayot sifatini oshirish va uzoq istiqbolga mo'ljallangan maqsadlarimizga erishish – jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallashimizga imkon yaratadi.

### **Qisqacha xulosa**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan «Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konseptsiyasi»da bayon etilgan iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishning strategik yo'nalishlari mamlakatimiz iqtisodiyotini yaqin yillar ichida rivojlantirishning asosiy prognoz ko'rsatkichlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda chuqur va puxta tahlillar asosida 2011 – 2015 yillarga mo'ljallab ishlab chiqilgan, bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan to'rtta strategik dasturni amalga oshirish boshlangan bo'lib, ularda sanoat, infratuzilma, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirish, moliya-bank tizimini yanada isloh etish va uning barqarorligini oshirish, shuningdek, yurtimizda qulay ishchan muhit hamda uni baholashning xalqaro mezonlarini shakllantirish ko'zda tutiladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Raqobatbardoshlikni oshirish istiqbollari qanday tushunasiz ?
2. Makroiqtisodiy o'sish qanday ta'minlanadi ?
3. Davlatning investitsiya siyosati nimalardan iborat ?
4. Bank-moliya sohasini takomillashtirish yo'llarini tushuntirib bering ?
5. Sanoatni rivojlantirishning va raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari nimalardan iborat ?
6. Qishloq xo'jaligida islohotlarni yanada chuqurlashtirish qanday amal qilinadi ?
7. Milliy iqtisodiyot infratuzilmasining rivoji nimani anglatadi ?
8. Ijtimoiy sohani barqaror rivojlantirish istiqbollari nimalarga qaratilgan?

1. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. //Toshkent haqiqati, 2011- yil 22-yanvar.

2. Karimov I.A. 2012-yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. //Xalq so'zi, 2012- yil 20- yanvar.

3. Karimov I. "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi"//Xalq so'zi, 2014-iy 18-yanvar.

4. O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish muammolari: nazariya va amaliyot. -T.: Konsaditinform-Nashr, 2006. -440 b.

5. Ishmuxamedov A.E. Milliy iqtisodiyot. 2-nashr. -T.: Iqtisodiyot, 2006. -300 b.

6. Statistik to'plam. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotning mustaqillik yillaridagi (1990-2010) yillar asosiy tendensiya va ko'rsakichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallagan prognozlar. -T.: O'zbekiston, NMIU, 2011.

### Izohli lug'at

*Akselerator (accelerator)* – iqtisodiyotda iste'molchilik sarf-xarajatlar hajmi o'zgarishi bilan yuzaga keladigan kapital qo'yilmalar hajmi o'zgarishini tavsif etuvchi ko'rsatkich. Akseleratsiya tamoyilining mohiyati shundan iboratki, iqtisodiyotda iste'molchilik xarajatlari dinamikasi investitsiyalar hajmi dinamikasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi: iste'molchilik xarajatlarning sezilarli o'sishi investitsion faolligini yuzaga keltiradi, rag'batlantiradi va aksincha.

*Aktivlar (assets)* – iqtisodiy faoliyat subyektlarining pul va moliyaviy mablag'lari, asosiy va aylanma fondlari qiymati.

*Amortizatsiya (depreciation)* – foydalanish jarayonida asbob-uskunlar qiymatining eskirgan sayin mahsulot hisobiga o'tkazish jarayoni. Asosiy jamg'armalar iste'mol narxini to'la yoki qisman tiklash uchun amortizatsiya orqali amalga oshiriladigan narxini to'latishi zarur. Asosiy jamg'armalar sarfini qoplash uchun ularga ketgan sarflarni tayyorlanayotgan mahsulotga singdirib borish asosiy jamg'armalarning amortizatsiyasini tashkil etadi. Asosiy jamg'armalarning amortizatsiyasi mahsulot tannarxini o'z ichiga oladi. Bu, korxonada, tashkilotlarga asosiy jamg'armalarning moddiy va ma'naviy sarfini qoplash uchun mahsulotlarni sotish orqali mablag' to'lash imkonini beradi.

*Alternativ variantlardan tanlov (tradeoff)* – tanlab olingan variant alternativ variantdan voz kechish evaziga amalga oshirilishini taqozo etuvchi qaror qabul qilish zarurati. Makroiqtisodiy atamalar doirasida iqtisodiy atamalar siyosatning chora-tadbirlar ishlab chiqish jarayonida u yoki bu g'oyalarning tanlov-muammolarini belgilash uchun ishlatiladi. Masalan, ishsizlikning o'sishi va inflyatsiya jadalligi, foydaning o'sishi yoki ish haqining oshishi orasidagi tanlov muammosi.

*Asosiy fondlar va ularning bahosi (capital stock)* – turli xo'jalik subyektlari va fuqarolarning pul mablag'larini aniq bir maqsad yo'lida birlashtirish va ishlatish.

*Asosiy narx (base price)* – xalq xo'jaligini rivojlantirish va statistik hisob olib borishda indekslarni hisoblash va to'lashgacha hisoblangan narx.

*Budjet taqchilligi (budget deficit)* – davlat budjetida xarajatlarning daromadlardan ustun bo'lishi.

*Band aholi (employees)* – ijtimoiy ishlab chiqarishning fuqarolik sektorida band bo'lgan va mamlakat qonunchiligi tomonidan belgilangan me'yorlarga mos ravishda hisobga olinadigan mehnatga layoqatli yoshdagi aholi.

*Bandlik darajasi (rate of employees)* – band aholi umumiy sonining mehnatga layoqatli yoshdagi aholiga nisbati.

*Bararaf etilgan inflyatsiya* – iqtisodiyot doirasida boshqariladigan yoki tabiiy, qo'yilgan narxlarini boshqarish davomidagi inflyatsion jarayonlarning o'ziga xos ko'rinishi. Direktiv tarzda belgilangan narxlar darajasi saqlangan holda inflyatsiya muomalasidagi pul miqdorining ko'payishi va uning sotib olish qurbi pasayishi. Bularning ta'siri talab keskin oshib, tovar va xizmatlar taqchilligi o'sib borishi, aholining vaqtinchalik qondirilgan talabi ortishi orqali namoyon bo'ladi.

*Bank krediti (banking credit)* – daromad (%) ko'rinishida foyda olish uchun bank tomonidan qarzga pul berish.

*Belgilangan almashuv kursi (fixed exchange rate)* – milliy valyutaning chet el valyutalariga nisbatan an'anaviy tarzda belgilanadigan qiymati va o'zgarimas tizim.

*Budjet soliq siyosati (fiscal policy)* – budjet siyosatida davlat o'z istagi bilan budjet xarajatlari va daromadlarini shakllantirgan holda 3 xil budjet siyosati yuritadi. Budjet xarajatlari, transfer xarajatlari shaklidagi xarajatlar. Daromadlar esa uch manbadan kelishi mumkin: soliqlardan, xazina tomonidan, chiqarilgan qimmatbaho qog'ozlar sotilishidan va budjet tomonidan ma'lum qismi markaz tomonidan bank emissiyasi hisobiga yopilishidan. Shunga ko'ra, davlat xarajatlar va daromadlarni boshqarish orqali budjet siyosatini yuritadi.

*Bozor munosabati (market clearing)* – bozordagi talab va takliflarning miqdoran va tarkibiy jihatdan bir-biriga muvofiq kelishi. Agar shunday muvofiqlik bo'lmasa, bozor muvozanati izdan chiqadi.

*Bank rezervlari (reservers)* – bankda saqlanayotgan naqd pullar, markaziy bankda saqlanayotgan foizsiz depozitlar.

*Baho, narx (price)* – tovar qiymatining puldagi ifodasi. Mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlarni va foydani ko'rsatadi.

*Bozor narxi (market price)* – iqtisodiyotda jami talablarga ko'ra o'zgarimas holda qoluvchi narxlar.

*Valyuta kursi* – mamlakat pul birligining boshqa mamlakat pul birligida ifodalangan bahosi.

*Giperinflyatsiya (hyper-inflation)* – haddan tashqari inflyatsiya, narxning shiddat bilan o'sishi, pul qadrlining g'oyat tez pasayishi, pul topishga intilishning minimal darajaga kelishi bilan xarakterlanadi.

*Davlat budjeti (state budget, local budget)* – asosan davlat (viloyat, shahar, tuman, muassasa, tashkilot va boshqalar) ning ma'lum muddatdagi (yil, kvartal, oy) daromadlari va xarajatlarining pul hisobi.

*Devalvatsiya (devaluation)* – mamlakat savdo va to'lov balansining keskin yomonlashuvi, valyuta kursining pasayishi bilan bog'liq holda milliy pul birligi qiymatining rasmiy tartibda pasaytirilishi.

*Deflyatsiya (deflation)* – inflyatsiya davrida muomaladagi qog'oz pulni kamaytirish; davlat tomonidan muomaladagi pul miqdorini kamaytirishga qaratilgan moliya va pul-kredit tadbirlarini qo'llash bilan amalga oshiriladi.

*Depozitlar (deposits)* – omonatga asrab qo'yilgan: 1) bank va omonat kassalariga qo'yilgan omonatlar; 2) bank daftariidagi yozuvlar; 3) kredit muassasalariga saqlash uchun topshirilgan qimmatbaho qog'ozlar (aksiya va obligatsiya).

*Dividend (dividend)* – hissadorlik jamiyatlari foydasining bir qismi bo'lib, aksiyaning soni va turiga qarab har yili hissadorlar orasida taqsimlanadi.

*Diskont (discount)* – markaziy bank tomonidan tijorat banklariga beriladigan qarzlarga qo'yiladigan foiz.

*Daromad (income)* – ishlab chiqarish natijasida tushgan pul (foyd).

*Daromadning mavjud miqdori (disposable income)* – sarf-xarajatlar va jamg'armalar uchun ishlatish maqsadida iqtisodiy sektorlar qo'lida mavjud bo'lgan daromadlar; daromadlar va to'g'ri soliqlar orasida farq bilan aniqlanadi.

*Doimiy, davomiy inflyatsiya (chronic inflation)* – nisbatan yuqori yoki past inflyatsiya darajasi uzoq muddat davomida ushlab turiladigan iqtisodiy vaziyat. Barqarorlikka erishgunga qadar davomli, yuqori inflyatsiya darajasi sodir bo'lgan

mamlakatlarga misol qilib, Braziliya, Isroil, Meksika, Peru, Argentinani keltirish mumkin.

*Davlat iste'moli* – davlat iste'moli uchun mahsulot va xizmatlarga, shuningdek, xususiy sektorda ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarga ketgan xarajatlar.

*Diskont (discount)* – markaziy bankning tijorat banklariga kredit berishdagi foiz stavkalari.

*Yopiq iqtisodiyot (closed economy)* – tashqi iqtisodiy bozorda keng savdo-iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo'lmaydigan iqtisodiyot.

*Jami taklif (aggregate supply)* – mamlakatda ishlab chiqarilgan hamma tovar va xizmatlarning jami qiymati. Bu tovar va xizmatlar milliy mahsulot ham deb ataladi.

*Jamg'armaga moyillik (propensity to save)* – daromadga jamg'arma hissassi qanchani tashkil etishi.

*Jami talab (aggregate demand)* – mamlakatning real xarid qobiliyatini aks ettiruvchi ko'rsatkich; jami xarajatlar deb ham ataladi. Unga davlatning iste'mol xarajatlari, xususiy sektor iste'moli, jami investitsiyalar va eksport-import xarajatlari kiradi.

*Jami band aholi (employees)* – band bo'lgan aholi va harbiy xizmatchilar.

*Ishsizlik (unemployment)* – aholining iqtisodiy faol qismi ish topa olmasligi, mehnat rezerviga aylanishi.

*Ishsizlikning darajasi (unemployment rate)* – ishsizlar umumiy sonining ishchi kuchiga bo'lgan nisbati.

*Ishsizlikning tabiiy darajasi (natural rate of unemployment)* – real va potensial yalpi milliy mahsulotning o'sishi bir-biriga mos keladigan iqtisodiy rivojlanish davri oraliqlariga xos bo'lgan ishsizlik darajasi. U iqtisodiy rivojlanishning haqiqiy va tuzilmaviy ishsizlik ko'rsatkichlari yig'indisi sifatida ham hisoblanishi mumkin. Shuningdek, NARU (natural rate of unemployment) atamasi ishsizlikning o'smaydigan darajasi ko'rsatkichi tarzida ham qo'llaniladi. Bu ko'rsatkich ijtimoiy jihatdan nisbatan neytral bo'lib, inflyatsiyaning turg'un, barqaror darajalari hamda real va potensial yalpi milliy mahsulot (YAMM) mos tushgan holatidagi ishsizlik darajasini aks ettiradi.

*Ish haqi (wage, nominal)* – pul, qiymat shaklidagi ish haqi.

*Import (import)* – mamlakat ichki bozorlarida sotish uchun chet el mollarini, kapitalini va texnologiyasini olib kelish. Import – xalqaro mehnat taqsimoti natijasidir. U vaqtni tejashga, xalq xo'jaligi, aholi ehtiyojini qondirish vazifalarini muvaffaqiyat bilan hal qilishga ko'maklashadi.

*Investitsiya (investment)* – ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga uzoq muddatli kapital kiritish. Investitsiylarning moliyaviy va real turlari mavjud.

*Iste'mol narxlarini indeksi (consumer price index)* – odatda, oila tomonidan iste'mol qilinadigan tovar va xizmatlar narxi bazis davrga nisbatan o'zgarishining o'rtacha darajasini aks ettiradigan ko'rsatkich, inflyatsiya ko'rsatkichi sifatida ishlatiladi.

*Ishlab chiqaruvchilar narxlarining indeksi (producer price index)* – bazis davr oralig'ida xomashyo, materiallar va oraliq tovarlar narxi o'zgarishining o'rtacha darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkich. YAMMning maksimal darajada detallashtirilgan komponentlari narxini solishtirma narxlarga o'tkazishda ishlatiladi.



*Indekslar – YAMM deflyatorlari (GNP deflators)* – YAMM ko'rsatkichlarini solishtirma narxlarda aks ettirish uchun ishlatiladigan indekslar guruhi. Ularga narxlarning agregat indeksi, YAMM deflyatori narxlari indeksi, iste'molchi narxlari indeksi, shuningdek, maxsus tashkil qilingan indekslar kiradi.

*Indeksatsiya (indexation)* – iqtisodiyotdagi narxlarning o'rtacha darajasi o'zgarishiga bog'liq ravishda ish haqi va boshqa daromadlarni tuzatish, kelishtirish tizimi.

*Inflyatsiya (inflation)* – pulning qadsizlanishi, muomaladagi pulning qadsizlanishi, pul massasining tovarlar massasidan ustunligi natijasida tovar bilan ta'minlanmagan pullarning paydo bo'lishi. Inflyatsiya tovar bahosining ochiqchasiga va yashirin ravishda oshib ketishiga olib keladi.

*Inflyatsiya darajasi (rate of inflation)* – ma'lum vaqt ichida (oy, yil) narx darajasining foizda o'zgarishi.

*Iste'mol krediti (consumer credit)* – markaziy bank tomonidan barqarorlik davrida qo'llaniladigan pul siyosati vositasi (instrumenti). U banklar tomonidan berilishi mumkin bo'lgan ichki kreditning maksimal miqdori rasmiy ravishda belgilanishini taqozo etadi.

*Iste'mol (consumption)* – kishilarning iqtisodiy talablarini qondirish jarayonida ijtimoiy mahsulotdan foydalanish, ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining oxirgi bosqichi.

*Iste'mol xarajatlari* – makroiqtisodiyotda uy xo'jaligi va qurilish xarajatlarini qamrab oladigan xarajatlar.

*Ishlab chiqarish funksiyasi (production function)* – mahsulot ishlab chiqarish uchun mazkur korxonaga zurr bo'lgan barcha kishilar va mehnat qurollari harakatlari majmui.

*Ishchi kuchi (labour force)* – odamlarning mehnat layoqati, hayot ne'matlarini ishlab chiqarish jarayonida ishga solinadigan jami jismoniy va ma'naviy kuchlar.

*Ishchi kuchi hissasi (labour force rate)* – odamlarning mehnat layoqati, hayot ne'matlarini ishlab chiqarish jarayonida ishga solinadigan jami jismoniy va ma'naviy kuchlar.

*Ish vaqti (hours of work)* – ishlab chiqarishda band bo'lgan aholining ishlagan vaqti hajmi.

*Ish vaqtining umumiy soatlari soni (total hours of work)* – o'rtacha statistik ishlovchi band bo'lgan ish vaqtining o'rtacha soatlari soni.

*Iqtisodiy o'sish* – real milliy daromad yoki mahsulotning aholi jon boshiga o'sishi.

*Import qilishga moyillik (propensity to import)* – daromadda importga qaratilgan xarajatlar hissasi.

*Investitsiyalarga bo'lgan moyillik (propensity to invest)* – iste'mol xarajatlarining daromaddagi hissasi.

*Iste'mol qilishga moyillik (propensity to consume)* – iste'mol xarajatlarining daromaddagi hissasi.

*Ichki iste'mol uchun mo'ljallangan tovarlar (nontraded goods)* – tashqi bozorda sotishga mo'ljallanmagan, ichki iste'mol uchun ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar (ko'chmas mulk, xizmatlarning ayrim turlari).

*Ishlab chiqaruvchilar narxi (producers price)* – tovar va xizmatning bazis narxini, soliqlarni qamrab oluvchi va subsidiyalar olib tashlangan narx.

*Kapital eksporti* – tijorat maqsadida amalga oshiriladigan eksport.

*Kutilayotgan inflyatsiya darajasi (expected rate of inflation)* – mavjud ijtimoiy, iqtisodiy axborotlar, ma'lumotlar asosida alohida shaxs va korxonalar tomonidan kutiladigan bo'lg'usi davrdagi inflyatsiya darajasi.

*Likvidlilik (liquidity)* – turli korxonalar, birlashmalar, firmalar va banklarning o'z qarzini to'lay olish yoki boshqa majburiyatlarini bajara olish imkoniyati.

*Markaziy bank (Central bank)* – mamlakatning jami kredit tizimiga rahbarlik qiladi, davlat pul-kredit siyosatini olib boradi, pul va qimmatbaho qog'ozlar emissiyasini monopol huquqida amalga oshiradi.

*Muomaladagi pullar (currency)* – mamlakatning pul birligi va uning tipi (oltin, kumush, qog'oz): pulga tenglashtirilgan to'lov vositalari: pul hisob-kitoblarini taqozo etadigan xalqaro iqtisodiy ayirboshlash va boshqa aloqalarda qatnashadigan vositalar.

*Milliy daromad (national income)* – milliy ishlab chiqarishda olinadigan daromad yoki iqtisodiyotning barcha turdagi daromadi bahosi.

*Mehnat umumdorligi (labour productivity)* – mehnat mahsuldorligini, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini ifodalovchi umumlashma ko'rsatkichlardan biri.

*Mulk (property)* – muayyan qiymatga ega bo'lib, biron bir shaxsqa qarashli narsa.

*Makroiqtisodiyot (macroeconomics)* – barqarorlashtirish, bir birlik milliy valyutamizni mustahkamlash, kapital qurish dasturi, iqtisodiyotning tarkibiy jihatdan yangilash yo'lini davom ettirish rejasini yoki mulkdorlar sinfini yangilash, qonunchilik yoki huquqiy tarkibni mustahkamlash.

*Nominal YAMM (nominal GNP)* – joriy narxlarda aks ettirilgan yalpi milliy mahsulot.

*Narxlar indeksi (price index)* – har xil vaqt oralig'ida tovar va xizmatlarga narxning muvozanati o'zgarishini aks ettiruvchi ko'rsatkich.

*Narxlar korrektyrovkasi (price adjustment)* – narxlarning bozor vaziyati o'zgarishiga moslashuv jarayoni.

*Nominal almashuv kursi (nominal exchange rate)* – milliy valyuta va chet el valyutalari birliklarining odatda mavjud bo'lgan nisbati. Ushbu nisbat ham qat'iy belgilangan, ham chayqalib turuvchi asosda amalga oshirilishi mumkin.

*Nominal foiz stavkasi (nominal interest rate)* – ma'lum davr ichida (oy, yil) qarzga olingan pul birligiga to'langan pul miqdori. Depozit hisob-kitoblarda va qimmatli qog'ozlarda aktivlarning nominal qiymati o'simtasi belgilanishiga foiz stavkalari deyiladi.

*Oraliq iste'mol (intermediate consumption)* – ishlab chiqarishning bir bosqichida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ishlab chiqarishning boshqa bosqichida mehnat predmetlari sifatida ishlatilishi.

*Ortiqcha taklif (excess supply)* – mavjud narxlarda tovar va xizmatlar taklifi ularga bo'lgan talabdan ustun bo'ladigan iqtisodiy vaziyat, shuningdek, ortiqcha ishlab chiqarish.

*Ortiqcha talab (excess demand)* – mavjud narxlar holatida tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talab takliflardan ustun bo'ladigan iqtisodiy vaziyat, shuningdek defitsit deb ham ataladi.

*Ochiq iqtisodiyot (open economy)* – tashqi iqtisodiy bozorda keng savdo-iqtisodiy va moliyaviy aloqalarga ega bo'lgan iqtisodiyot.

*Potensial YAMM (potential GNP)* – mavjud sarmoya resurslari va ishchi kuchi hisobiga erishish mumkin bo'lgan ishlab chiqarish hajmi.

*Paritet (parity)* – tenglik, teng huquqli, teng vakillik asoslarida biron bir iqtisodiy (siyosiy) harakatda ishtirok etish.

*Pasayish (recession)* – iqtisodiy faollikning pasayishi bo'lib, bunday faoliyatning o'sishi bilan xarakterlanadi.

*Pulga bo'lgan talab (demand for money)* – mamlakat aholisining jamg'arish va iste'mol qilish, oldi-sotdi va har xil iqtisodiy bitimlar tuzish uchun egalik qilmoqchi bo'lgan miqdori; iste'mol, foiz stavkasi, operatsion xarajatlar va boshqa funktsiyalar bilan ifodalanadi.

*Pul bazasi – MO (monetary base)* – muomaladagi naqd pullar, korxonalarining kassadagi pullari va tijorat banklarining milliy bankdagi zaxirasi.

*Real YAMM (real GNP)* – solishtirma doimiy narxlar orqali aks ettirilgan YAMM. U joriy narxlarda hisoblangan YAMMni narxlarning o'zgarishi ko'rsatkichi (inflyatsiya darajasi) hisobiga to'g'rilash yo'li bilan hisoblanadi.

*Real ish haqi (real wage)* – narxlar o'zgarishi darajasi hisobiga tuzatish kiritilgan nominal ish haqi (yoki nominal ish haqidagi narxlar o'zgarishi darajasining hisobga olingani).

*Real almashuv kursi (real exchange rate)* – ikki mamlakatdagi narxlar darajasining o'zaro nisbati, ular o'rtasidagi munosabatni hisobga oluvchi almashuv kursi. Muayyan mamlakatlardagi nominal almashuv kursi narxlarini indekslarini ularning o'zaro nisbatiga bo'lish orqali hosil bo'ladi.

*Real foiz stavkasi (real interest rate)* – ma'lum davr ichida depozit schyotlardagi va qimmatli qog'ozlardagi aktivlarning real qiymati o'sishi yuz beradigan foiz stavkasi; nominal foiz stavkasidan shu davr oralig'ida kutilayotgan nominal foiz stavkasi.

*Ratsional kutishlar (rational expectations)* – ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'zlarida mavjud bo'lgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy ma'lumotlar asosida eng ratsional tarzda o'z iqtisodiy xulq-atvorini rejalashtiradilar, deb ta'kidlovchi nazariya.

*Revolvatsiya (reevaluation)* – mamlakat pul birligi rasmiy kursini chet el valyutalariga nisbatan oshirish.

*Soliqlar (taxes)* – milliy daromadni taqsimlash jarayonida uning bir qismini davlat ixtiyoriga olish shakli, soliq, budjet va budjetdan tashqari pul fondlarini tashkil etishning asosiy vositasi.

*Soliq siyosati* – mamlakat taraqqiyoti kapital qo'yilmalarni moliyalashtirishda "majburiy jamg'armalar" tashkil qiluvchi asosiy omillardan biri.

*Sarf-xarajat balansi (spending balance)* – makroiqtisodiyotda YAMMni ishlab chiqarishga ketgan jami xarajatlar va yaratilgan yalpi milliy mahsulotning oxirgi iste'mol maqsadida ishlatilishi orasidagi balans.

*Solishtirma afzallik (comparative advantages)* – ayrim iqtisodiy agentlarning tovar va xizmatlarni kamroq xarajatlar evaziga ishlab chiqarish xususiyati. Makrodarajada solishtirma afzalliklar tamoyilini ishlab chiqarish va eksportning samarali tuzilmasini shakllantirish uchun qo'llaniladi.

*Subsidiya (subsidy)* – davlat budjeti hisobidan korxonalar, tashkilotlar va xorijiy davlatlarga beriladigan mablag'. Subsidiya bozor iqtisodiyotini tartibga solish vositasi hisoblanadi.

*Savdo balansi (merchandise trade balance)* – eksport va import tushumlari va to'lovlarini aks ettiruvchi balans. Unda savdo bitimida ko'zda tutilgan, ammo joriy davrda amalga oshirilmaydigan to'lovlar va tushumlar o'z aksini topmaydi.

*Savdo balansining defitsiti (trade deficit)* – iqtisodiy sur'atlarning hisobot davri oxiriga kelib, import bo'yicha qilingan jami xarajatlar eksport daromadlaridan oshadigan vaziyatgacha o'sishi.

*Savdo balansining ijobiy saldosi (trade surplus)* – hisobot davri oxiriga kelib, eksport bo'yicha jami daromadlar import bo'yicha xarajatlardan ustun kelgan vaziyat.

*Sanoat sikli (business cycle)* – iqtisodiyotning vaqti-vaqti bilan qaytarilib turuvchi turli rivojlanish bosqichlari. Umumiy ishbilarmonlik faolligining oshishi va pasayishi, shuningdek, tushumlar bilan xarakterlanadi.

*Sof milliy mahsulot (net product)* – makroiqtisodiy ko'rsatkich; YAMM va amortizatsiya ajratmalari jami miqdorining ayirmasi.

*Tijorat banki (Commercial bank)* – qo'yilmalar shaklidagi pul kapitallari va jamg'armalar hisobiga barcha tarmoq korxonalari uchun universal bank harakatlarini amalga oshiruvchi kredit muassasasi. Tijorat banki kredit sistemasining yetakchi bo'g'inidir. Uning harakatlarida sanoat va savdo korxonalarini kreditlash asosiy o'rin egallaydi. Bank, shuningdek, komission muomalalarni ham olib boradi.

*To'lov balansi (balance of payment)* – bu shunday iqtisodiy tushunchaki, u orqali mamlakatlarning tashqi iqtisodiy munosabatlari holatini, xalqaro miqyosda to'lovga qobilligini bilish mumkin. To'lov balansi shunday hujjatki, unda mamlakatlar xorijiy davlatlarga ulashgan va xorijiy davlatlardan kelgan barcha to'lovlar va tushumlarning haqiqatdagi summasi aks ettiriladi, shartnomalarda ko'zda tutilgan, ammo hali kelib tushmagan to'lovlar yoki tushumlar summasi o'z aksini topadi.

*Tarkibiy ishsizlik (structural unemployment)* – iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish, eskirgan tarmoq va kasblar bartaraf etilishi, ishchi malakasi pastligi yoki umuman yo'qligi natijasida yuzaga keladigan majburiy ishsizlikning ko'rinishi.

*Tashqi dunyo* – muayyan mamlakatni tashqi iqtisodiy aloqalar olib boruvchi iqtisodiy agentlar bilan birlashtiruvchi institutsional sektor.

*Talab etilgunga qadar saqlanadigan depozitlar (demand deposits)* – bankdagi qo'yilmalarda talab etilgunga qadar saqlanadigan pul vositalari.

*Tijorat krediti (milliard credit)* – qisqa muddatli qarz (1 yil muddatgacha beriladi); sotib olinadigan tovarlarga to'lash uchun pul shaklida beriladigan qarz.

*Transfert to'lovlari (transfer payment)* – o'tkazma to'lovlar, ya'ni davlat budjetidan aholiga va xususiy tadbirkorlarga beriladigan to'lovlar.

*Tovar eksport qilish* – mamlakat ichkarisida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni chetga sotish hamda xorijdagi sheriklarga ishlab chiqarish va talab xarakteriga ega xizmatlar ko'rsatish.

*Uzoq muddat davomida ishlatiluvchi tovarlar (durable goods)* – iste'molchilarga uzoq vaqt xizmat qiladigan (1 yildan kam) tovarlar. Uzoq vaqt xizmat qiladigan tovarlarga avtomobil, muzlatgich va boshqa maishiy xizmat tovarlari kiradi.

bilan bog'liq bo'lgan vaqtinchalik ishsizlik. Yashirin ishsizlik (hidden, latent, disguised) – ishlab chiqarish jarayonida obyektiv holda ishchilar sonini ham talab etadigan, lekin amalda ishlab chiqarishda ortiqcha bo'lgan ishchilar soni.

*Factor daromad (factor income)* – ishchi kuchi, kapital mulk, ishlab chiqarish omillari qo'llanishi natijasida yuzaga keladigan daromad.

*Foyda (profit)* – qo'shimcha mahsulotning pul shakli; korxonalar, tarmoq va butun xalq xo'jaligi ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini umumlashtiruvchi ko'rsatkich. Korxonaning moliyaviy ahvoli, iqtisodiy rag'batlantirish fondini shakillantirish imkoniyatlari, budget va yuqori turuvchi organlar bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi foyda hajmiga bog'liq.

*Foiz (interest)* – daromad, o'z mulkini boshqa jismoniy va huquqiy shaxslarga foydalanishga berish va shundan foyda olish.

*Foiz stavkasi (interest rate)* – kredit yoki qarz stavkasi kapitali evaziga to'lovning foiz ko'rsatkichi. Odatda, qarzga olingan pul belgisining bir birligiga to'g'ri keladigan yillik to'lovni aks ettiradi.

*Filips egri chizig'i (milliard curve)* – inflyatsiya darajasi dinamikasi va ishsizlik darajasi dinamikasi yoki real YAMMning potensialdan og'ishi orasidagi o'zaro bog'liklikni tafsiflovchi va grafikda ifodalovchi vosita.

*Xususiylashtirish (privatization)* – davlat mulkini, iqtisodiyotdagi davlat sektorini xususiylashtirish. Xususiylashtirish davlat mulki monopoliyasini tugatish, erkin sohiblik tashabbusiga yo'l ochish, bozor iqtisodiyotini rag'batlantirish maqsadida amalga oshiriladi.

*Shaxsiy daromad (personal income)* – jismoniy shaxslarning soliq to'lagunga qadar daromadi.

*Shaxs sarmoyasi* – kapital sifatida yondashuv ikki tomonlama xususiyatga ega bo'ladi. Uning salbiy tomoni shundaki, bunday qarashlar ijtimoiy muammolar va mehnat kapital tomonidan ekspluatatsiya qilinishi haqidagi fikrlarga ulanib ketadi. Bunday hollarda kapital mehnatni ekspluatatsiya qilar ekan, u holda inson kapitali ham mehnatni ekspluatatsiya qiladimi, degan fikrni keltirib chiqarishga urinishadi. Insonga kapital sifatida yondashuvning ijobiy tomoni shundan iboratki, bunday yondashuv resurslardan samarali foydalanishni va ularning oqilona taqsimlanishini ta'minlaydi.

*Eksport (export)* – tovarlar, xizmatlar va kapitalarni tashqi bozorda realizatsiya qilish maqsadida chetga chiqarish.

*Yalpi milliy mahsulot* – YAMM (*gross national product-GNP*) – iste'molchilarning yil davomida mahsulot yaratish uchun qilgan xarajatlari qiymatini jamlash orqali, ya'ni, mahsulotni umumiy pul qiymati aniqlanishi orqali hisoblanadi. Hozirgi yalpi milliy mahsulotga davlatning tovarlar va xizmatlarni sotib olishga qilgan xarajatlari hamda xususiy investitsiyalar ham qo'shiladi. Daromadlarga, ya'ni ish haqi, foiz, renta va foyda jamiyat tomonidan mahsulotlar uchun qilingan xarajatlar sifatida qaralib, ularni jamlash orqali hisoblanadi. Hozirgi vaqtda yalpi mahsulotni hisoblashda jamiyatda iqtisodiy o'sish aniqlanadi, «yalpi investitsiya» va «xususiy investitsiya» tushunchalari qo'llanmoqdaki, bunda ular yil davomida qurilgan uylar, fabrika, zavod, mashinalarni ifoda etadi.

*YAMM darajalaridagi farqlar ( GNP gap)* – potensial va real YAMM darajalari orasidagi farq.

*YAMM deflyatori narxlar indeksi (GNP implicit price deflator)* – joriy narxlardagi YAMMni solishtirma narxlardagi YAMMga nisbatan tavsiflovchi ko'rsatkich yoki nominal YAMMning real YAMMga nisbati.

*O'zgaruvchan almashuv kursi (flexible exchange rate)* – ichki muvozonatni tiklash maqsadida mamlakat almashuv kursiga ega bo'ladigan xalqaro hisob-kitoblar tizimi.

*Qarzlار – "zayomlar" (borrowing)* – ma'lum bir muddatga qaytarib olish sharti bilan berilgan mablag'lar. Qarzlار quyidagicha bo'lishi mumkin: tijorat foizsiz shakldagi qarzlار, imtiyozli qarzlار hamda ichki va tashqi qarzlار. Jismoniy, yuridik shaxslarning qarzlari ichki qarzlarga kiradi.

*Qarz berish (crediting)* – pul yoki tovarlarni qaytarish sharti bilan ma'lum muddatga berish.

*Qadrsizlanish (depreciation)* – milliy valyutaning narxi chet el valyutalari bahosidan pasayishi.

*Qimmatbaho qog'ozlar (securities)* – egasiga qandaydir kapital yoki mol-mulkka egalik qilishi huquqini tasdiqlovchi va foiz, dividend ko'rinishda daromad keltiruvchi hujjat.

### Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I. "2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi" // Xalq so'zi, 2014-iy 18-yanvar.
2. Karimov I.A. 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. –T.: O'zbekiston, 2012.
3. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: O'zbekiston, 2011. – 421b.
4. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. // Xalq so'zi, 2011-yil 22-yanvar.
5. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. // Xalq so'zi, 2009-yil 14-fevral.
6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2003.
7. O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonuni. // Xalq so'zi, 2002-yil 28- may.
8. O'zbekiston Respublikasining «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi Qonuni. // Xo'jalik va huquq, 2000, 9-son.
9. O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik subyektlarining faoliyati tartibga solinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgarish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonuni. // Toshkent oqshomi, 2005-yil 22-sentabr.
10. O'zbekiston Respublikasining «Fuqorolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonuni qabul qilanganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida. // Xalq so'zi, 2005-yil 23-sentabr.
11. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida»gi Qonuni. // Xalq so'zi, 2005-yil 28-dekabr.
12. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining jinoyat kodeksiga hamda O'zbekiston Respublikasining javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi Qonuni. // Xalq so'zi, 2005-yil 30-dekabr.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Aholini ijtimoiy muhofaza qilish va kommunal xizmat ko'rsatish korxonalarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni. // Xalq so'zi, 2005-yil 23-sentabr.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni. // Xalq so'zi, 2005-yil 12-aprel.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. // Xalq so'zi, 2005-yil 15-aprel.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni. // Xalq so'zi, 2005-yil 2-may.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ipoteka kredit berishni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. //Xalq so'zi, 2005-yil 6-may.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida»gi Farmoni. //Xalq so'zi, 2003-yil 25-mart.

19. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. – T.: O'zbekiston, 2005.

20. Karimov I.A. Erishgan marralarimizni mustahkamlab, islohotlar yo'lidan izchil borish – asosiy vazifamiz. //Xalq so'zi, 2004-yil 10-fevral.

21. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T.: O'zbekiston, 2005.

22. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. – T.: O'zbekiston, 2000.

23. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. //Xalq so'zi, 2003-yil 25-aprel.

24. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishi yo'lida. – T.: O'zbekiston, 1995.

25. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, siyosat, mafkura. 1-tom. – T.: O'zbekiston, 1996. – 364 b.

26. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-tom. – T.: O'zbekiston. 1996. – 364 b.

27. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-tom. – T.: O'zbekiston. 1996. – 367 b.

28. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. 4-tom. – T.: O'zbekiston. 1996. – 351 b.

29. Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston. 1997. – 326 b.

30. Abdurahmanov O. Xorijiy mamlakatlarda soliq tizimlari. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2003. – 184 b.

31. Abdurahmanov K.X. Mehnat iqtisodiyoti (nazariya va amaliyot). Darslik. – T.: Mehnat, 2004. – 672b.

32. Abdurahmanov O. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimi. – T.: Fan, 2004. – 149 b.

33. Абалкин Л.И., Хикматов О.Х., Расулов А.Ф. и др. Государственные реформы в условиях перехода к рынку : опыт России и Узбекистана. –М.: Институт экономики РАН, 2003. 256с.

34. Акабиров Д.Н. Пути устойчивого развития легкой промышленности Республики Узбекистан. – Т.: Фан, 2008. 120-с.

35. Alimov R.X., G'anixoj'jayev S.A. va boshqalar. Mahalliy iqtisodiyot va menejment. – T.: TDIU, 2004.

36. Axmedov D.K., Ishmuxamedov A.E., Jumayev K., Djumayev Z.A. Makroiqtisodiyot. – T.: TDIU, 2004. 240-b.

37. Агапова Т.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика тесты. Учебное пособие. – АСА, 2003. – 357 с. \*



38. Бабина Ю.В., Москвин В.В. Экономическая география России. – М.: 2003. – 368 с.
39. Каримова Г.И. Категории конкурентоспособности стран с переходной экономикой на примере Узбекистана. – М., 1998.138-с.
40. Колесова В.П., Осьновой М.Н. Мировая экономика. Экономика зарубежных стран. Учебник. 3-е издание – М.: Флинта, 2001. – 480 с.
41. Кудров В.М. Мировая Экономика. Учебник – М.: Дело, 2004. – 528 с.
42. Лексин В.Н., Швецов А.Н. Государство и регионы. Теория и практика государственного регулирования территориального развития. – М.: УРСС, 2000.
43. Воркуев Б.Л. Модели макроэкономики. – М.: Экономика, 2004.
44. Васельев Л.Н., Муравьев Е.А. Методы управления инновационной деятельности. Учебное пособие – М.: КноРус, 2005. – 320 с.
45. Васельев Ю.П. Развития инновационной деятельности в США или как удвоить ВВП – М.: Экономика, 2005, 406 с.
46. Владимирова Л.П. Прогнозирование и планирование в условиях рынка. Учебное пособие. 5-е издание перер. И доп. – М.: Дашков и К. 2005.– 401 с.
47. Гренберг А.Г. Основы региональной экономики. Учеб; 4-е изд – Б.М.: Издательский дом ГУ ВШЭ, 2004. – 495 с.
48. Данилов Ю.В., Юлдашов З.Ю. Национальная экономика. – Т.: Янги аср авлоди. 2003. – 413 с.
49. Ishmuhamedov A.E. O'zbekiston milliy iqtisodiyoti. Darslik. – O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti. – Т.: 2005.
50. Ishmuhamedov A.E. va boshqalar. Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari. O'quv qo'llanma. – O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti. – Т.: 2005.– 160 b.
51. Ishmuhamedov A.E. va boshqalar. «Jahon iqtisodiyotiga integraciya». O'quv qo'llanma. – Т.: TDIU, 2004. – 160 b
52. Ishmuhamedov A.E. va boshqalar. «Xorijiy mamlakatlarda iqtisodiyotini tartibga solish. O'quv qo'llanma.– Т.: TDIU, 2004.– 272 b.
53. Ishmuhamedov A.E., Jumayev Z.A., Jumayev K.X. Makroiqtisodiyot–2. O'quv qo'llanma. – O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti. – Т.: 2005. – 130 b.
54. Ишмухамедов А.Е., Шибаршова Л.И., Федорова Е.Н., Абдурахмонова Г.К. Макроэкономика.–Т.: Иктисодчи, 2008. 468-с.
55. Кузык Б.Н., Яковец Ю.В. Россия 2050 стратегия инновационного прорыва.– М.: Экономика. 2004. – 632 с.
56. Касимов Г.М., Махмудов Б.Ж. Основы национальной экономики. Учебник для высших учебных заведений, – Т.: Mehnat, 2004. – 304 с.
57. Jumayev Z.A. Munitsipal iqtisodiyot.– Т.: TDIU, 2004. – 96 b.
58. Jurayev A.S., Xo'jamqulov B.S., Mamatov B.S. Investitsiya loyihalari tahlili. – Т.: Sharq, 2003.– 256b.
59. Макроэкономика. Теория и Российская практика: Учеб. (Под. Редакция А.Г.Грязовой и Н.Н. Думной), 2-е издание перер. И доп. – М.: КноРус, 2005. – 668 с.

60. Махмудов Э.Х. Практикум по дисциплине. Экономика капитального строительства. Учебное пособие. – Т.: ТГЭУ, 2005. – 64 с.
61. Махмудов Э.Х., Исаков М., Нажимадинов Р. Сборник семинарских и практических задач по курсу. Экономика предприятия.–Т.: ТГЭУ, 2005.– 66 с.
62. Mahalliy iqtisodiyot va menejment. – Т.: TDIU, 2004.– 352 b.
63. Кемпбелл Макконелл, Стенли Брю. Экономикс. Принципы проблемы и политика. В 2-х томах.– М.: Республика, 1992.
64. Грегорин Менкью. Макроэкономика.– М.: МГУ. 1994.
65. Nabyev X. N. Makroiqtisodiy statistika (o'quv qo'llanma).– Т.: TDIU. 2001.
66. Саидова Г.К. Национальная экономика. – Т.: 2001, 154-с.
67. Самуэльсон Н. Экономика вводный курс.– М.: Прогресс, 1996.
68. Хейнс П. Экономический образ мышления.– М.: Новости, 1991.
69. Накряреский Б.М. Мировая экономика. – М.: Международные отношения.– 2004.
70. Nazarova G.G. Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv: tajriba va amaliyot.- Monografiya.– Т.: TDIU, 2005.– 180 b.
71. Гарасевич Л.С. и др. Макроэкономика. – М.: Экономика, 2004.
72. Tashpo'latova L.M. Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati. – Т.: TDIU 2004.
73. Turdiyev A.S. Investitsion faoliyat boshqaruvini takomillashtirish yo'llari. - Т.: NIIK i RPS, 2001. 85- 91-betlar.
74. Tuxliyev N. Va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. – Т. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 280 b.
75. Чепель С.В., Шибаршова Л.И. Сборник кейсов по дисциплинам Макроэкономика и микроэкономика. (Учебное пособие) – Т.: ТГЭУ, 2005.– 140 стр (под редакцией профессора Ишмухамедов А.Э.).
76. Shodiyev R.X., Mahmudov E.R. Jahon iqtisodiyoti. Darslik. – Т.: G'ofu G'ulom, 2005.– 308 b.
77. Sharifxo'jayev M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining senati. – Т. Sharq, 2005.
78. Экономический рост и факторы развития современной России. Под ред Хубиева К.А. – М.: Экономика, 2004.
79. Hakimova M.T. Makroiqtisodiyot. – Т.: O'qituvchi, 1996.
80. G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. – Т.: O'qituvchi, 2002. – 365 b
81. Bozor iqtisodiyoti nazariyasi va amaliyoti. S.S.G'ulomov, Sharifxo'jayev I larning umumiy tahriri ostida.–Т.: O'qituvchi, 2000.
82. Yutkina T.F. Nalogi I nalogooblojenie.– М.: Infra-M, 2001.
83. XIX – международные Плеханские чтения «Образование и социально экономическое развитие в начале претьего тысячелетия», 2 февраля 2006г.
84. Bekmurodov va boshqalar. Kichik biznes va tadbirkorlik rivoji – davr talabi –Т.: TDIU. 2005.
85. Экономическая теория в XXI веке. 3 (10) Проблемы пореформенной экономики. Под редакцией Ю.М.Осипова и др. Москва. Экономист. 2005.
86. Экономика Узбекистана. Информационно-аналитический бюллетень за 2012 год. –Т., 2013.

### Internet veb-saytlari

1. Internetdagi rasmiy saytimiz: [www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)
2. WWW. Economyta - culty. Uz
3. Новости Узбекистана – [www.uzreport.com](http://www.uzreport.com)
4. Информация, инновации, инвестиции – 2004 – <http://www.informika.ru/text/exhibit/papers/2004/c11-3doc>
5. [http://www.Review.uz/home/azticle.asp?m=62Rio\)=177](http://www.Review.uz/home/azticle.asp?m=62Rio)=177)
6. <http://www.Biblio.rk/encazta/humanitarian/cicle.htm>
7. <http://www.Vqi.freenet.trudy/dratissviko.htm>

Milliy iqtisodiy oshing 20 yillik rivojlanishining statistik o'ynomasi

O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar

Vazirlik, ma'muriy tashkilot (barcha qishloq xo'jaligi bo'yicha)	O'zbekiston Respublikasi	1990-yil	2000-yil	2010-yil	1990-yilga nisbatan foiz	
					2000-yil	2010-yil
Vataniy shirkatlar	million	27106	35277	92326	1,3	3,4
Sanoatning VAI'dagi uushli	Foiz	17,6 <sup>1</sup>	14,2	24,0	X	X
Qishloq xo'jaligi	million so'm	11,1 <sup>2</sup>	1387	15811	100,6	182,9
Qishloq xo'jaligi	Foiz	33,4	30,1	17,5	X	X
Qishloq xo'jaligi	million so'm	4,2 <sup>2</sup>	388,4	8245,8	86,9	2,3
Chakana savdo	million so'm	19,8 <sup>2</sup>	1788	21873	99,2	2,8
Xizmatlarning	Foiz	33,8	37,0	49,0	X	X
Kichik biznesning	Foiz	0	31,0	52,5	X	X
Asosiy kapitalga	million so'm	833,8	3142,5	9712,7	3,8	11,6
investitsiyalar	million so'm	18,0 <sup>2</sup>	22,9	25,0	X	X
VAI'dagi nisbatan	Foiz	18,0 <sup>2</sup>	22,9	25,0	X	X
Tovarlarning	million so'm	442,7	3265	13045	7,4	29,5
ekspori	million so'm	24	24	33,5	X	X
VAI'dagi nisbatan	Foiz	3,3	24	33,5	X	X
Tovarlarning	million so'm	362,9	2947	8800	8,1	24,2
ekspori	million so'm	2,7	21,4	22,6	X	X
VAI'dagi nisbatan	Foiz	2,7	21,4	22,6	X	X
Forma	million so'm	79,8	317	4245	X	X
Taqdim etilgan	million so'm	79,8	317	4245	X	X

Asosiy ulashning umumlashtirilgan barcha uchun ko'rsatkichlar va jumla fabrikalar ishlab chiqarish qisqartirilgan

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Milioni so'mda: 2010-yilda VAI'da nisbatan 61,8% oshgan va 2010-yilga nisbatan 100%

Davlat byudjeti xarajatlari o'zgarish dinamikasi

O'zgarishlar	1990-yil	2000-yil	2010-yil
Xarajatlarning jami	100	100	100
1. Ijtimoiy soxaga va axolimi ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga	31,5	42,5	59,0
Sundan:			
Tajim	17,9	23,2	33,3
Sog'lantirish	10,0	8,7	12,8
2. Iqtisodiyot	40,7	9,2	11,3
3. Investitsiya	16,6	20,4	6,4
4. Boshqa xarajalar	11,2	27,9	23,3

### Kichik biznes subyektlari uchun qulay soliq muhitini yaratish

Nomlanishi	2005- yil	2010- yil
Soliq va majburiy to'lo'vlar soni	4	1
Yagona soliq to'lo'vi stavkasi	15,2 foiz	7 foiz
Soliq hisobotlarini taqdim etish muddati	Oylik	Choraklik
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar taqdim etiladigan imtiyoz va preferentsiyalar	-	Yagona soliq to'lo'vini 1 yil muddatga kechiktirilgan imtiyozli to'lash
Rejalashtirilgan tekshirishlarning muddati	Xar yil	3 yilga bir martadan ko'p bo'lmagan hamda faoliyati boshlaganidan 2 yildan kam bo'lmagan

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi

### Yalpi ichki mahsulotlarning iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha tarkibi (foiz hisobida)

	1990-yil	2000-yil	2010-yil
Jami	100	100	100
Sanoat	17,6	14,2	24,0
Qishloq xo'jaligi	33,4	30,1	17,5
Qurilish	5,8	6,0	6,4
Transport va aloqa	5,2	7,7	12,4
Savdo	4,5	10,8	9,0
Boshqalar	22,2	18,7	23,7
Sof soliqlar	11,3 <sup>1</sup>	12,5	7,0

Mahsulotlarga markazlashgan subsidiyalardan tashqari

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

### Sanoat tarmoqlari ishlab chiqarish sur'atining o'sishi, Foiz (1990=100 foiz)

Ko'rsatkichlar	1990-yil	2000-yil	2010-yil
Sanoat — jami	100	123,6	3,0 marta
Yoqilg'i sanoati	100	127,3	2,2 marta
Qora metallurgiya	100	58,8	1,5 marta
Rangli metallurgiya	100	107,4	113,4
Kimyo va neft-kimyo sanoati	100	97,5	2,9 marta
Moshinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati	100	142,2	11,6 marta
O'rmon, yog'ochni qayta ishlash va tellyufo'za-qog'oz sanoati	100	2,5 marta	13,4 marta
Qurilish materiallari sanoati	100	58,4	1,3 marta
Yengil sanoati	100	159,2	3,8 marta
Oziq-ovqat sanoati	100	150	5,7 marta
Boshqa soxalar	100	162,6	5,4 marta

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

## Qayta ishlash sanoatida sanoat mahsulotlari ayrim turlarining ishlab chiqarilishi

Ko'rsatkichlar	O'lcho'v birligi	1990-yil	2000-yil	2010-yil	2010-yil 1990-yilga nisbatan
Kalsiylangan so'da	ming tn.	0	0	90,4	
Polietilen	ming tn.	0	0	129,2	
Mis	ming tn.	77,0	79,5	86,3	1,1 marta
Kuchli to'k kabellari radiohisotali va aloqa tizimi uchun kabellar	km.	18301	5545	115398	6,3 marta
Avtomobillar	dona	0	31285	220313	
Shu jumladan:					
Yengil avtomobillar	dona	0	30700	217733	
Avtobuslar	dona	0	483	1268	
Yuk avtomobillar	dona	0	102	1312	
Telivizorlar	dona	0	29315	96700	
Kompyuterlar	dona	0	0	124000	
List xolidagi oyna	ming kv.m.	2480	3120	12599	5,1 marta
Shakar	tn.	0	10169	286055	
Osh tuzi	tn.	0	28367	58613	
Papiroz va sigaretlar	million dona	4370	7766	13949	3,2 marta
Alkogolsiz ichimliklar	ming dal.	17499	17508	42968	2,5 marta
Paxtadan ip-kalava	ming tn.	104,4	135,1	225,6	2,2 marta
Gilamlar va gilam mahsulotlari	ming kv.m	1982	1594	21650	10,9 marta
Dori-darmon vositalari	million so'm	200,5	5219,2	160147	3,5 marta
Mebel	million so'm	462,2	12578,6	160279	1,6 marta

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

## Yaimda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ulushi (foiz)

	1990-yil	2000-yil	2010-yil
<b>Yalpi mahsulotlar, jami</b>	<b>33,4</b>	<b>30,1</b>	<b>17,5</b>
Paxta xomashyosi	15,9	3,6	1,9
Don	1,4	3,4	2,0
Karto'shka	0,3	0,8	1,4
Sabzavotlar	1,3	2,4	2,3
Poliz mahsulotlari	0,5	0,3	0,3
Meva	0,7	0,9	1,1
Uzum	0,8	0,8	0,9

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlari asosida iqtisodiyot vazirligi hisoblamasi

## Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish

	O'lchov birligi	1990-yil		2000-yil		2010-yil	
		hajmi	tarkibi foiz	hajmi	tarkibi foiz	hajmi	tarkibi foiz
<b>Yalpi mahsulot, jami</b>	<b>ming tn.</b>	<b>11,1<sup>1</sup></b>	<b>100</b>	<b>1387,2</b>	<b>100</b>	<b>15810,7</b>	<b>100</b>
Shu jumladan:							
Paxta xomashyosi	ming tn.	5057,7	47,7	3002,4	11,8	3442,8	11,1
Don	ming tn.	2038,2	4,1	4101,4	11,4	7504,3	10,8
Karto'shka	ming tn.	336,4	1,0	731,1	2,8	1694,8	8,6
Sabzavot	ming tn.	2842,5	3,8	2644,7	8,1	6346,5	16,3

Poliz	ming tn.	1000,0	1,4	451,4	1,0	1182,4	2,1
Meva	ming tn.	660,4	2,0	790,9	3,0	1710,3	4,7
Uzum	ming tn.	744,7	2,5	624,2	2,6	987,3	4,5
Go'sht (tirik vaznda)	ming tn.	789,1	20,1	841,8	23,8	1461,4	24,9
Sut	ming tn.	3034,2	10,0	3632,5	14,9	6169,0	11,5
Tuxum	million dona	1231,8	1,1	1254,4	3,0	3061,2	2,7
Jun	ming tn.	25,8	2,3	15,8	0,1	26,5	0,1

<sup>1</sup> milliard rub.

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

9-jadval

### Qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining xo'jalik shakllari bo'yicha taqsimlanishi (ming gektar)

	1990-yil	2000-yil	2010-yil
Dehqon xo'jaliklari			
<b>Jami ekin maydoni</b>	<b>216,5</b>	<b>401,5</b>	<b>471,5</b>
Don ekinlari	37,8	195,4	217,6
Shundan boshqoqli don	11	161,1	186,5
Jumladan, bug'doy	7,4	156,3	178,4
Texnik ekinlar	6,1	7	8,0
Karto'shka	12,6	40,8	54,3
Sabzavotlar	64,2	86,7	112,6
Poliz	15,5	15,5	20,4
Chorva uchun oziqabop ekinlar	80,3	56,1	58,6
Xususiy fermer xo'jaliklari			
<b>Jami ekin maydoni</b>	<b>-</b>	<b>632,2</b>	<b>3143,0</b>
Don ekinlari	-	255,0	1422,4
Shundan boshqoqli don	-	216,0	1339,0
Jumladan, bug'doy	-	211,1	1262,0
Texnik ekinlar	-	307,0	1381,1
Jumladan, paxta	-	299,2	1320,8
Karto'shka	-	2,6	15,7
Sabzavotlar	-	8,4	59,1
Poliz	-	6,5	26,4
Chorva uchun oziqabop ekinlar	-	52,4	238,3
Boshqa qishloq xo'jalik korxonalar <sup>1</sup>			
<b>Jami ekin maydoni</b>	<b>3974,0</b>	<b>2744,6</b>	<b>93,9</b>
Don ekinlari	970,0	1163,6	39,3
Shundan boshqoqli don	717,5	1040,4	34,4
Jumladan, bug'doy	425,7	988,4	25,9
Texnik ekinlar	2278,0	1198,5	27,9
Jumladan, paxta	2237,9	1145,3	21,7
Karto'shka	29,3	8,8	0,7
Sabzavotlar	76,0	34,8	1,3
Poliz	64,2	14,9	1,1
Chorva uchun oziqabop ekinlar	548,5	320,5	23,5

<sup>1</sup> 1990 yil - sovxozlar, kalxo'zlar, yordamchi xo'jaliklar; 2000 va 2010-yillar - vazirlik va idoralar tasarrufida bo'lgan maxsus shirkatlar, qoraqo'lebitik xo'jaliklari, yordamchi xo'jaliklar

Manba: O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi

10-jadval

## Kapital qo'yilmalar dinamikasi tarkibi

	Kapital qo'yilmalar (million dollar)			Kapital qo'yilmalar tarkibi (foiz)		
	1990-yil	2000-yil	2010-yil	1990-yil	2000-yil	2010-yil
Kapital qo'yilmalar	833,8	3142,5	9712,7	100	100	100
Shu jumladan						
Davlat byujeti, byujetdan tashqari fondler mablag'lari va boshqa markazlashtirilgan manbalar	386,1	958,1	1266,6	46,3	30,5	13
Markazlashmagan investitsiyalar:						
Korxonalar mablag'lari	447,7	1456,9	5621,6	53,7	46,3	57,9
Aholi mablag'lari	342,7	852,9	3124,4	41,1	27,1	32,2
Bank kreditlari va boshqa kredit mablag'lar	105,0	376,6	1554,2	12,6	12,0	16
Bank kreditlari va boshqa kredit mablag'lar	-	227,4	943,0	-	7,2	9,7
Xorijiy investitsiyalar va kreditlar	-	727,5	2824,5	-	23,2	29,1
Shu jumladan, tog'ridan-tog'ri xorijiy investitsiyalar	-	105,2	2454,7	-	3,4	25,3

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

11-jadval

## Tashqi savdo aylanmasining geografik tarkibi (foiz)

	1990-yil	2010-yil
Tashqi savdo aylanmasi	100	100
Uzoq xorij mamlakatlari	39,9	56,9
VDX mamlakatlari	60,1	43,1
Eksport	100	100
Uzoq xorij mamlakatlari	37,7	54,8
VDX mamlakatlari	62,3	45,2
Import	100	100
Uzoq xorij mamlakatlari	42,6	59,9
VDX mamlakatlari	57,4	40,1

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo'mitasi



## Tashqi savdo tarkibi

	1990-yil	2000-yil	2010-yil
<b>Tashqi savdo aylanmasi, million dollar</b>	<b>805,6</b>	<b>6212,1</b>	<b>21842,2</b>
Eksport, million dollar	442,7	3264,7	13044,5
Import, million dollar	362,9	2947,4	8799,7
Saldot (+,-), million dollar	79,8	317,3	4244,8
<b>Eksport (foiz)</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
Paxta tolasi	59,7	27,5	11,3
Oziq-ovqat mahsulotlari	3,9	5,4	9,7
Kimyoviy mahsulot va undan tayorlangan mahsulotlar	2,3	2,9	5,1
Energiya va neft mahsulotlari	17,1	10,3	24,8
Qora va rangli metallar	4,6	6,6	6,8
Mashina va uskunalar	1,7	3,4	5,5
Xizmatlar	1,3	13,7	9,1
Boshqalar	9,4	30,2	27,7
<b>Import (foiz)</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
Mashina va uskunalar	12,1	35,4	44,1
Kimyoviy mahsulot va undan tayorlangan mahsulotlar	9,7	13,6	14,3
Energiya va neft mahsulotlari	3,1	3,8	6,0
Qora va rangli metallar	10,2	8,6	8,4
Oziq-ovqat mahsulotlari	48,9	12,3	10,9
Xizmatlar	1,5	8,5	4,7
Boshqalar	14,5	17,8	11,6

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (1990 yil-sobiq respublikalar bilan savdo hisobga olingan)

## Mulkchilik shakli bo'yicha YAIM ishlab chiqarish tarkibi (foiz)

	1995-yil	2000-yil	2010-yil
Yalpi ichki mahsulot	100	100	100
Jumladan			
Nodavlat mulkchilik	58,4	72,6	81,7
Shundan			
Fermer xo'jaliklari	X	1,9	6,5
Xo'jalik birlashmalari	X	17,4	27,4
Qo'shma korxonalar	X	5,2	14,2
Davlat mulkchiligi	41,6	27,4	18,3

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

14-jadval

**Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha capital qo'yilmalar tarkibi  
(foiz hisobida)**

	1990-yil	2000-yil	2010-yil
<b>Jami</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
Ishlab chiqarish tarmoqlari bo'yicha	58,3	57,5	73,5
Yoqilg'i – energetika	5,2	7,6	11,8
Metallurgiya	0,1	2,7	5,5
Kimyo va yoqilg'i-kimyo	1,4	7,9	1,2
Mashinasozlik	3,6	4,1	3,4
Yengil sanoat	2,5	2,4	2,5
Oziq-ovqat sanoati	2,3	2,5	1,7
Qurilish materiallari	1,7	0,3	2,5
Qishloq xo'jaligi	26,7	5,7	3,5
Transport va aloqa	5,4	16,8	29,9
Boshqa sohalar	9,4	7,5	11,5
Noislab chiqarish tarmoqlari bo'yicha	41,7	42,5	26,5

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

15-jadval

**Transport infratuzilmasining asosiy  
ko'rsatkichlari**

	O'lchov Birligi	1990-yil	2000-yil	2010-yil
Umumiy foydalanishdagi qattiq qoplamali avtomobil yo'llari	km.	38213	41524	41950
Shu jumladan:				
Xalqaro ahamiyatga moliq yo'llar	km.	3229	3239	3960
Umumiy foydalanishdagi temir yo'llar	km.	3462	3471	4227
Yuk tashish				
Umumiy foydalanishdagi avtomobil transporti	○ milliard tn.km.	5,9	3,5	17,8
Temir yo'l transporti	○ milliard tn.km.	21,8	15,0	22,3
Barcha transport turlarida yo'lovchi tashish	million yo'lovchi	2903	3596	6009

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar**

	1990-yil	2000-yil	2010-yil	1990-yilda (foiz)	
				2000-yil	2010-yil
Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YAIM (XQP – harid qobiliyati pariteti bo'yicha), AQSH dollarida	1328	1431	3271	107,9	2,5 marta
Iqtisodiyotda band bo'lgan har bir kishiga to'g'ri keladigan YAIM (XQP – bo'yicha) AQSH dollarida	3412	3928	7940	115,1	2,3 marta
Sanoatda band bo'lgan har bir kishiga to'g'ri keladigan sanoat mahsuloti ulushi					
Ming so'mda	22,1*	1649,7	22407,8	129,7	2,3 marta
AQSH dollarida	3159,6	6963,1	14124,1	2,2 marta	4,5 marta
Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mollari					
Ming so'mda	0,7*	37,4	417,3	149,4	4,7 marta
AQSH dollarida	93,8	157,8	263,1	1,7 marta	2,8 marta
Axoli jon boshiga to'g'ri keladigan investitsiya miqdori, AQSH dollarida	40,8	127,5	344,1	3,1 marta	8,4 marta
Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan chet el investitsiyalari					
Ming so'mda	-	7,0	156,6	X	X
AQSH dollarida	-	29,5	100,1	X	X
Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan mahsulot va xizmatlar eksporti					
AQSH dollarida	21,7	132,4	462,1	6,1 marta	21,3 marta
ming rubl					

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b>		4
<b>1-bob. MILLIY IQTISODIYOTNING MAZMUNI VA VAZIFALARI</b>		8
1.1.	Milliy iqtisodiyot jarayonlari va uning iqtisodiy obyektlari	8
1.2.	Milliy iqtisodiyot asoslari	12
1.3.	Iqtisodiyotni rivojlanishini ifodalovchi mikro va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar	15
Qisqacha xulosalar		18
Nazorat va muhokama uchun savollar		19
Asosiy adabiyotlar		19
<b>2-bob. MILLIY IQTISODIYOT VA UNI TASVIRLOVCHI ASOSIY KO'RSATKICHLARI</b>		20
2.1.	Milliy iqtisodiyotda «Makroiqtisodiyot» va «Mikroiqtisodiyot» tushunchalari	20
2.2.	Milliy iqtisodiyotda resurslar, mahsulotlar, daromadlar va xarajatlarning doiraviy aylanishi	23
2.3.	Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va ularni hisoblash	24
2.4.	Keys stadi. O'zbekistonning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari	32
Qisqacha xulosalar		34
Nazorat va muhokama uchun savollar		34
Asosiy adabiyotlar		35
<b>3-bob. MILLIY BOYLIK – DAVLATNING QUDRATINI BELGILOVCHI KO'RSATKICH</b>		36
3.1.	Mamlakat milliy boyligi tushunchasi	36
3.2.	Milliy boylik tarkibi va uni hisoblash	39
3.3.	Iqtisodiy rivojlanish va atrof-muhitni muhofaza qilish	41
3.4.	Respublikada yer resurslaridan foydalanishga har tomonlama yondashish	43
3.5.	Tog', cho'lga aylanishga va qurg'oqchilikka qarshi kurashish yo'llari	47
Qisqacha xulosalar		50
Nazorat va muhokama uchun savollar		51
Asosiy adabiyotlar		51
<b>4-bob. MAKROIQTISODIY VAZIYAT VA UNING ASOSIY YO'NALISHLARI</b>		52
4.1.	Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari	52
4.2.	Mulkiy munosabatlar shakllanishi va ahamiyati	55
4.3.	Tarkibiy siljishlar va ustuvor yo'nalishlar	57
Qisqacha xulosalar		60
Nazorat va muhokama uchun savollar		61
Asosiy adabiyotlar		61
<b>5-bob. RESPUBLIKANING SANOAT MAJMUASI</b>		62
5.1.	Respublikada sanoat majmuasini rivojlanishining asosiy sabablari	62
5.2.	Sanoat majmuasi tarmoqlari va asosiy ko'rsatkichlari	68
5.3.	O'zbekistonning neft mustaqilligi asoslari	73
Qisqacha xulosalar		79
Nazorat va muhokama uchun savollar		80
Asosiy adabiyotlar		80
<b>6-bob. IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT MAJMUUI</b>		81
6.1.	Transport kommunikatsiyasining tuzilmasi va ahamiyati	81
6.2.	Respublikada transport va kommunikatsiya – korxonalarini rivojlantirish	88

	istiqbollari	
6.3.	Telekommunikatsiya sohasida xizmatlarning sifatli asoslari	90
6.4.	O'zbekistonda pochta xizmat ko'rsatishni takomillashtirish	93
6.5.	Keys stadi. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish asosi	94
	Qisqacha xulosalar	96
	Nazorat va muhokama uchun savollar	96
	Asosiy adabiyotlar	96
<b>7-bob.</b>	<b>AGROSANOAT MAJMUASINING YUKSALISH YO'LLARI</b>	98
7.1.	Agrosanoat majmuasini rivojlantirish muammolari	98
7.2.	Agrosanoat majmui rivojlanishining asoslari	99
7.3.	Agrar siyosatdagi ustuvorliklar	104
7.4.	Qishloq xo'jaligi ravnaqida kreditning o'rni	105
	Qisqacha xulosalar	108
	Nazorat va muhokama uchun savollar	109
	Asosiy adabiyotlar	109
<b>8-bob.</b>	<b>INVESTITSIYA SIYOSATINING ASOSLARI</b>	110
8.1.	Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiyaning o'rni	110
8.2.	Investitsiya siyosatida xususiyashtirish jarayoni	112
8.3.	Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish	115
	Qisqacha xulosalar	117
	Nazorat va muhokama uchun savollar	117
	Asosiy adabiyotlar	118
<b>9-bob.</b>	<b>RESPUBLIKA KAPITAL QURILISH MAJMUASI</b>	119
9.1.	Mustaqillik zaminini yaratishda investitsiyalar	119
9.2.	Kredit va investitsiyalar manbai	120
9.3.	Qurilishda dasturlamal qoidalar	124
9.4.	Kapital qurilishda ustuvor vazifalar	125
	Qisqacha xulosalar	129
	Nazorat va muhokama uchun savollar	129
	Asosiy adabiyotlar	130
<b>10-bob.</b>	<b>BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA BARQARORLASHTIRISH YO'LLARI</b>	131
10.1.	Barqaror rivojlantirish strategiyasi	131
10.2.	Xorijiy mamlakatlarda davlatning boshqaruv tizimini isloh qilish tajribasi	133
10.3.	Ma'muriy islohotlar - iqtisodiy taraqqiyot omili	135
10.4.	Respublikada boshqaruv apparatini qisqartirish va takomillashtirish yo'llari	138
10.5.	Samarali davlat boshqaruvi asoslari	140
10.6.	Davlat boshqaruvi vazifalarini nomarkazlashtirish yo'nalishlari	143
10.7.	Ikki palatali parlament va siyosiy partiyalarning o'rni	147
	Qisqacha xulosalar	150
	Nazorat va muhokama uchun savollar	150
	Asosiy adabiyotlar	151
<b>11-bob.</b>	<b>DAVLAT MOLIIYASI, KREDIT VA SOLIQ-BUDJET DASTAKLARI</b>	152
11.1.	Moliya va bank tizimi	152
11.2.	Milliy iqtisodiyotni solliqlar tizimi orqali tartibga solish asoslari	153
11.3.	Soliq-budjet siyosatining tahlili	156
11.4.	Alohida toifadagi korxonalarini soliqqa tortish xususiyatlari	160

11.5.	Moliya-kredit sohasida dastaklar	161
Qisqacha xulosalar		163
Nazorat va muhokama uchun savollar		164
Asosiy adabiyotlar		164
<b>12-bob.</b>	<b>RESPUBLIKADA BOZOR INFRATUZILMASINING ASOSIY YO'NALISHLARI</b>	166
12.1.	Raqobat va baho	166
12.2.	Monopoliya va antimonopol siyosat	171
<b>13-bob.</b>	<b>IQTISODIYOTNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLINISHI</b>	176
13.1.	Iqtisodiy davrlar va iqtisodiy tebranishlarning sabablari	176
13.2.	Iqtisodiy o'sish asoslari va modellari	177
13.3.	Mehnat bozori va ishsizlik oqibatlari	179
13.4.	Savdo siyosati	185
13.5.	Hududiy va mahalliy hokimiyat organlarini isloh qilish yo'llari	195
Qisqacha xulosalar		197
Nazorat va muhokama uchun savollar		197
Asosiy adabiyotlar		197
<b>14-bob.</b>	<b>DAVLAT MULKINI XUSUSIYLASHTIRISH VA MULKDORLAR SINFINI SHAKLLANTIRISH</b>	199
14.1.	Mulk shakllari va xususiylashtirish	199
14.2.	Davlat mulkini xususiylashtirish	201
14.3.	Mulk shakli va mulkdorlar sinfini shakllantirish	202
14.4.	O'zbekistonda o'rta muddatli indikativ rejani tayyorlash va uni amalga oshirishga ko'maklashuvchi sharoitlar	206
14.5.	Indikativ reja – milliy iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish jarayonini yaxshilash asosi	207
14.6.	O'zbekiston milliy valyutasini mustahkamlash yo'llari	208
14.7.	Qimmatli qog'oz va fond bozori	210
14.8.	Davlat tasarrufidan chiqarish hamda xususiylashtirish dasturi	214
14.9.	Mulkdorlar va tadbirkorlar sinfini shakllantirish	216
14.10.	Keys stadi. O'zbekistonda iqtisodiy beqarorlikning oldini olish yo'llari va natijalari	219
Qisqacha xulosalar		220
Nazorat va muhokama uchun savollar		221
Asosiy adabiyotlar		221
<b>15-bob.</b>	<b>IJTIMOIIY SIYOSAT MAJMUASI VA AHOLINI MANZILLILIGINI HIMOYA QILISH MEKANIZMI</b>	222
15.1.	Ijtimoiy siyosat va uning yo'nalishlari	222
15.2.	Ijtimoiy siyosat asoslari	225
15.3.	Xorij mamlakatlarida ijtimoiy muhofaza tizimi	227
15.4.	Respublika iqtisodiyotining ijtimoiy yo'naltirilganligi	229
15.5.	Davlat budjetidan ijtimoiy ehtiyojlar uchun yo'naltirilgan sarf-xarajatlari	230
15.6.	Ijtimoiy siyosat muammolari va istiqbollari	232
15.7.	Keys stadi. Aholi daromadlari va turmush darajasini oshirish yo'llari	233
Qisqacha xulosalar		235
Nazorat va muhokama uchun savollar		235
Asosiy adabiyotlar		235

<b>16-bob.</b>	<b>MEHNAT BOZORINI TARTIBGA SOLISH VA AHOLINI ISH BILAN BANDLIGI MUAMMOLARI</b>	236
16.1.	Mehnat resurslarining turkumlanishi	236
16.2.	Mehnat bozorini tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari, shart-sharoitlari va tamoyillari	238
16.3.	O'zbekiston mintaqalarining demografik holati	242
16.4.	Mehnat bozorining rivojlanishi va uni tartibga solish	244
16.5.	Respublika viloyatlarida mehnat bozorini tartibga solish	248
16.6.	Malakali ishchi kuchiga talabni oshirish mexanizmi	251
16.7.	Ishchi kuchi taklifini kamaytirish chora-tadbirlari	254
16.8.	Mehnat bozorini tartibga solish mexnizmini takomillashtirish yo'llari	256
Qisqacha xulosalar		259
Nazorat va muhokama uchun savollar		259
Asosiy adabiyotlar		260
<b>17-bob.</b>	<b>HUDUDIY IQTISODIYOTNING RIVOJLANTIRISH YO'LLARI</b>	261
17.1.	Hududlarning innovatsion strategiyasini aniqlash uslubi	261
17.2.	Hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishdagi innovatsion shart-sharoitlar	262
17.3.	Tadbirkorlikni rivojlantirish yo'llari	267
17.4.	Hududlarni rivojlantirish dasturi	274
Qisqacha xulosalar		279
Nazorat va muhokama uchun savollar		279
Asosiy adabiyotlar		280
<b>18-bob.</b>	<b>JAHON IQTISODIYOTIDA INTEGRATSİYALASHISH YO'LLARI</b>	281
18.1.	Tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari va shart-sharoitlari	281
18.2.	Iqtisodiyotning strategik va asosiy sarmoyadorlari	284
18.3.	Xitoy – strategik sherik va yirik hamkor	288
18.4.	Shanxay hamkorlik tashkiloti – xavfsizlik va hamkorlik garovi	290
18.5.	Keys stadi: «O'zbekiston-Malayziya hamkorligi»	294
Qisqacha xulosalar		297
Nazorat va muhokama uchun savollar		297
Asosiy adabiyotlar		298
<b>19-bob.</b>	<b>IQTISODIY RIVOJLANISHDA PULLIK XIZMATLAR</b>	299
19.1.	Pullik xizmatlar sohasining iqtisodiy rivojlanishdagi roli va uni tartibga solish usullari	299
19.2.	O'zbekiston Respublikasida pullik xizmatlarni rivojlantirish ko'rsatkichlari tahlili	301
19.3.	Pullik xizmatlar sohasini isloh qilish va yanada rivojlantirish yo'nalishlari	304
19.4.	Xizmat va servis bozorini rivojlantirish dasturi	314
Qisqacha xulosalar		316
Nazorat va muhokama uchun savollar		316
Asosiy adabiyotlar		317
<b>20-bob.</b>	<b>MILLIY IQTISODIYOTNI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA KICHIK BIZNEZ VA TADBIRKORLIKNING O'RNI</b>	318
20.1.	O'zbekiston Respublikasi savdo-sanoat palatasining biznesni rivojlantirishdagi o'rni	318
20.2.	Kichik tadbirkorlikni rivojlantirish va moliyalashtirish	320
20.3.	Minitexnologiya va uskunalar olish yo'llari	324

20.4.	Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash	326
20.5.	Korporativ boshqaruvni joriy etishning maqsadi va vazifalari	328
	Qisqacha xulosalar	331
	Nazorat va muhoka uchun savollar	332
	Asosiy adabiyotlar	332
<b>21-bob.</b>	<b>MILLIY IQTISODIYOTNING MARKAZIY OSIYO MUSTAQIL DAVLATLARIGA TRANSFORMATSIYASI</b>	333
21.1.	Hamkorlikning umumiy tavsifi	333
21.2.	Markaziy Osiyo davlatlarining global iqtisodiyotga qo'shilish siyosati	342
	Qisqacha xulosalar	350
	Nazorat va muhokama uchun savollar	351
	Asosiy adabiyotlar	351
<b>22-bob.</b>	<b>JAHONDAGI GLOBALLASHUV VA IQTISODIY INTEGRATSIYALASHUV SHAROITLARIDA MAMLAKATNING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATI</b>	361
22.1.	Jahon iqtisodiyotiga integratsiya shakllari va guruhleri	353
22.2.	O'zbekistonning jahon xo'jalik tizimidagi integratsiyasi	369
22.3.	Yevropa mamlakatlari bilan hamkorlik va amaliyot	376
22.4.	Tashqi iqtisodiy faoliyatni dasturlash	379
	Qisqacha xulosalar	383
	Nazorat va muhokama uchun savollar	383
	Asosiy adabiyotlar	383
<b>23-bob.</b>	<b>MILLIY IQTISODIYOTNI GLOBALLASHUVI VA JAHON BOZORI BILAN HAMKORLIGI</b>	385
23.1.	Jahon hamjamiyati bilan hamkorlik	385
23.2.	Paxta kompleksining eksport salohiyatini rivojlantirish	393
23.3.	Tayyor mahsulot eksportini ko'paytirish yo'llari	399
23.4.	Sanoatni modernizatsiya qilish va lokalizatsiya dasturlari	403
	Qisqacha xulosalar	406
	Nazorat va muhokama uchun savollar	406
	Asosiy adabiyotlar	407
<b>24-bob.</b>	<b>JAHON IQTISODIYOTIDA MOLIVAVIY-IQTISODIY INQIROZ VA O'ZBEKISTONDA BU INQIROZNI BARTARAF ETISH YO'LLARI</b>	408
24.1.	Asosiy makroiqtisodiy yutuqlar	408
24.2.	Jahon iqtisodiyotida moliyaviy-iqtisodiy inqiroz	411
	Qisqacha xulosalar	421
	Nazorat va muhokama uchun savollar	421
	Asosiy adabiyotlar	421
<b>25 -bob</b>	<b>MILLIY IQTISODIYOTNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI</b>	423
25.1.	Makroiqtisodiy o'sish	423
25.2.	Davlatning investitsiya siyosati	423
25.3.	Bank-moliya sohasini takomillashtirish	425
25.4.	Sanoatni rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari	426



25.5.	Qishloq xo'jaligida islohotlarni yanada chuqurlashtirish	428
25.6.	Milliy iqtisodiyot infratuzilmasining rivoji	429
25.7.	Ijtimoiy sohani barkaror rivojlantirish istiqbollari	431
	Qisqacha xulosalar	433
	Nazorat va muhokama uchun savollar	433
	Asosiy adabiyotlar	434
	Izohli lug'at	435
	Asosiy adabiyotlar	444
	Ilova	449

**Rasulova Iroda Anvarovna,  
Ishmuxamedov Anvar Egamqulovich**

**Milliy iqtisodiyot**  
**Masofadan o'qitish uchun darslik**

*Muharrir*  
*Mirhidoyatova D.M.*  
*Musahhah*  
*Mirbabayeva S.A.*

Litsenziya AJ № 089 15.03. 2007 y. Terishga berildi 10.01.2014. Bosishga ruxsat etildi 13.02.2014. Qog'oz bichimi 60x80 1/16. Times garniturası. Ofset muhri. Ofset qog'ozı. Shartli bosma tabog'ı 29,0. Hisob nashr varag'ı 28,5. Adadı 100 nusxa.  
21 – sənli buyurtma  
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining bosmaxonasida bosildi. 100003.  
Toshkent. O'zbekiston shoh ko'chasi, 49-uy.

- 65.9 Milliy iqtisodiyot/ Ishmuhamedov A.E., Rasulova I.A. Darslik. / T.:TDIU, 2014. - 464 b.
1. Rasulova I.A.,
  2. Ishmuhamedov A.E.

©2014 yil. Barcha huquqlar o'z ichida.

UDK: 338.012(07)  
BBK: 65.9



**Ishmuhamedov Anvar Egamqulovich** –  
«Makroiqtisodiyot» kafedrasi professori, iqtisod fanlari  
doktori, professor. «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan  
iqtisodchi». (1993-y.) «Ustoz» iqtisodiyot (Ustoz) fondi  
(1995-y.), «Hurmatli professor»  
TDIU (1996-y.)

**Mehnat faoliyatini** 1961-yil Tula (Rossiya) tog' institutini tugatgandan keyin boshlangan. 1961-1964-yillarda Toshkent Abraziv mahsulotlar kombinatida usta, injener-texnolog; 1964-1986-yillarda UzFA iqtisodiyot institutida aspirant, katta ilmiy xodim va sektor (bo'lim) mudiri. 1986-yildan hozirgi vaqtgacha Toshkent Davlat iqtisodiyot universitetida kafedra mudiri.

**Ilmiy ishlari:** «Iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish, tabiiy resurslardan foydalanish va atrof-muhitni himoya qilish muammolari» (1970-1992-y.); «Ijtimoiy himoyalangan bozor iqtisodiyoti modelining metodik va metodologik asoslari» (1992-1996-y.); «Makroiqtisodiyotning barqaror rivojlanish omillari» (1996-2000); «Globallashuv sharoitida O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini modernizatsiyalashning ustuvor yo'nalishlari» (2000-2005-y.) va xo'jalik shartnomalari asosida ilmiy ishlar bajargan. 10 ta monografiya, 180 dan ortiq ilmiy maqolalar muallifi.

**Pedagogik faoliyati:** «Makroiqtisodiyot», «O'zbekiston milliy iqtisodiyoti», «Loyiha tahlili», «Iqtisodiy o'sish», «Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari», «Jahon iqtisodiyotiga integratsiya», «Strategik rejalashtirish» fanlari bakalavriat, magistratura va o'qituvchilarning malakasini oshirish bilan bog'liq.

**4 darslik va 14 ta o'quv qo'llanma chop etilgan.** Shu jumladan: Bozor iqtisodiyoti sharoitida milliy iqtisodiyotni rivojlantirish. O'qituvchi 1996-y. - 101b., Makroiqtisodiyot. (Darslik) - T.; TDIU, 2004. - 15b., Makroekonomika. - T.; O'zbekiston, 2005. - 35 b. va boshqalar.

**Ko'plab xalqiy davlatlarda:** 1992-yil Turkiya, Anqara universiteti, 1994-yil AQSH qishloq xo'jaligi vazirligi o'quv markazi, 1995-2000-yillarda Rossiya, Moskva, Jahon banki – MGU, 1997-yil Angliya Nottengem universiteti va boshqalarda 21 marotaba ishlagan va malakasini oshirgan.

**Uning rahbarligida** «Makroiqtisodiyot» mutaxassisligi bo'yicha 3 ta doktorlik va 25 dan ortiqroq nomzodlik dissertatsiyalari yoqlangan. Dunyoni ko'plab mamlakatlarida «Iqtisodiyot» masalalari bo'yicha ilmiy an'aliy konferensiya va simpoziumlarda ma'ruzalar bilan qatnashgan.

**Rasulova Iroda Anvarovna. Mehnat faoliyatini** 1976-yilda Toshkent shaxrida tugʻilgan, 2001-yilda Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti bakalavriaturani, magistraturani 2003-yilda, aspiranturani 2006-yilda tugatgan, 2007-yildan boshlab Makroiqtisodiyot kafedrasida asistent, 2010- yildan ushbu kafedrada katta oʻqituvchi lavozimida ishlaydi.

**O'zbekistonda qayta ishlash sanoatida sanoat mahsulotlari ayrim turlarini ishlab chiqarish**

T/r	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	1990-yil	2000-yil	2010-yil	2012-yil
1.	Kalsiylangan soda	Ming tonna	0	0	90.4	-
2.	Polietilen	-	0	0	129.2	-
3.	Mls	-	77.0	79.5	86.3	-
4.	Kuchli tok kabellari, radiochastotali va aloqa tizimi uchun kabellar	km	1830.1	5545	11 5398	-
5.	Avtomobililar	Dona	0	31285	220313	239806
	Shu jumladan:					
	yengil avtomobililar	Dona	0	30700	217733	335518
	avtobuslar	Dona	0	483	1268	2605
	yuk avtomobililar	Dona	0	102	1312	683
6.	Televizorlar	Dona	0	29315	96700	13643
7.	Komputerlar	Dona	0	0	12400	-
8.	Ist xoidagi oyna	Ming kv.m	2480	3120	12599	-
9.	Shakar	Tonna	0	10169	286055	1345.5
10.	Osh tuzi	Tonna	0	28364	58613	-
11.	Papros va sigaretalar	Million dona	4370	7766	13949	-
12.	Alkogoisiz ichimliklar	Ming doll.	17499	17508	42968	-
13.	Paxtadan ip-kalava	Ming tonna	104.4	135.1	225.6	-
14.	Gilamlar va gilam mahsulotlari	Ming kv.m	1982	1594	21650	64.6
15.	Dori darmon vositalari	Million so'm	200.5	5219.9	160147	-
16.	Mebel	Million so'm	462.2	12578.6	160279	-

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

O'zbekistonda: 2013-yildainflyatsiya darajasi 6,8 %ni, tashqi davlat qarzi YaIM ga nisbatan 17 %ni, eksportga hajmiga nisbatan 60%ni tashkil etdi; soliq yuki 21,5 %dan 20,3 %ga, jismoniy shaxslar uchun daromad solig'ini eng kam stavkasi 9 8%ga tushirildi; so'nggi 3 yilda mahalliy lashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish 2 barobar oshdi va birgina 2013-yilda yakuniy samara 5 milliard 300 mln. AQSH dollarini tashkil etdi; kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalar soni 190 mingga yetdi (fermer xo'jaliklarisiz); tashqi savdo faoliyatida ijobiy saldo 1 mlrd. 300 mln. doll.ni tashkil qildi, eksport hajmini 72%dan ortig'i tayyor tovar hisobiga to'g'ri keldi va 180 davlatga eksport qilindi; xorijiy investitsiyalar hajmi 3 mlrd. AQSH doll.dan oshdi va ularni 72%dan ortig'i to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar; "Navoliy" erkin Industrial – Iqtisodiy zonada qiymati 100 mlrd. so'mdan ziyod mahsulot ishlab chiqarildi, "Angren" maxsus Industrial zonada qiymati qariyb 44 mln.doll. bo'lgan 5 ta loyiha amalga oshirildi. Yil mart oyida Jizzah viloyatida Jizzah" maxsus Industrial zonasi tashkil etildi. "Navoliy" va "Angren" logistik markazlari xizmat qildi; mirlshkor dehqon va fermerlar – 7 mln. 800 ming tonna g'alla, 8 mln. 400 ming tonna sabzavot va 3 mln 360 ming tonnadan ortiq paxta xomashyosi yetkazib berdi.

2014-yilda YaIM hajmi – 8,1; sanoat – 8,3; qishloq xo'jaligi – 6; chakana savdo aylanmasi – 13,9; bozor xizmatlari – 13%ga oshirilishi ko'zda tutilgan; joriy yilning boshidan Markaziy Bankning qayta moliyalashtirish stavkasi 18%dan – 10%ga tushirildi; soliq yukini yanada kamaytirish ko'zda tutilgan; kapital qo'yilmalar umumiy hajmi 14 milliard 300 mln dollarni tashkil etadi.

Joriy yil "Sog'lombola yili" deb e'lon qilindi va belgilangan dasturiy chora-tadbirlar amalga oshirildi.